



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO  
TAJRIBALAR: YANGI AVLOD  
DARSLIKLARI, MILLIY DASTUR VA  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR  
INTEGRATSIYASI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari*

**2023-yil, 19-may**

**BUXORO – 2023**

### Ilmiy-amaliy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

M.I. Daminov	–	Buxoro davlat Pedagogika instituti direktori, rais;
Sh.N. Murodov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
A.A. Ikramov	–	Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
O.R. Avezov	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
N.I. G‘aybullayeva	–	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.J. Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;
F.M.Qosimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
U.S.Amonov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
X.A.Xaitov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
G.E.Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
R.X.Jumayev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
O.Sh. Ahmadov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
M.N O‘rinova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo.

### Ilmiy-amaliy anjumanning tashkiliy qo‘mitasi

Sh.N. Murodov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;
A.A. Ikramov	–	Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogic kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, rais muovini;
Sh.A. Raximov	–	Ishlar boshqarmasi boshlig‘i, a‘zo;
O.R. Avezov	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
N.I. G‘aybullayeva	–	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.J. Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;
F.M.Qosimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
U.S.Amonov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
X.A.Xaitov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
R.X.Jumayev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
L.T.Ochilova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
M.A.Ro‘ziyeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
N.O‘.Xudoyberdiyeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
B.N Yuldashev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo.

To‘plam Buxoro davlat pedagogika institutining 2023-yil 6-martdagi kengash qaroriga hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-sonli buyrug‘iga asosan 2023-yilning 19-may kunida “Boshlang‘ich ta‘limda xalqaro tajribalar: yangi avlod darsliklari, milliy dastur va raqamli texnologiyalar integratsiyasi” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

#### Mas‘ul muharir:

M.J. Saidova

– pedagogika fanlari doktori, dotsent

#### Taqrizchilar:

B.R. Adizov

– pedagogika fanlari doktori, professor

N.T. Tosheva

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

# BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**M.I.Daminov**

*Buxoro davlat pedagogika instituti direktori*

XXI asrga kelib O‘zbekiston Respublikasi boshlang‘ich ta‘lim tizimida juda ko‘p o‘zgarishlar amalga oshirildi. Yangiliklarning kiritilishi ta‘lim sifatini xalqaro talablar darajasiga yetkazishdan iborat. Hozirda ta‘lim to‘g‘risida qabul qilinayotgan ko‘plab me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning zamirida ham boshlang‘ich ta‘limga yangicha yondashuvni olib kirish va sifat samaradorlikni oshirish asosiy maqsad qilib belgilangan. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmonida qator maqsadlar berilgan bo‘lib, ta‘limda qator zamonaviy yangiliklarni olib kirishga qaratilgan vazifalar belgilangan:

maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta‘limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratilishi;

davlat oliy ta‘lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta‘lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta‘lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash, ta‘limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta‘lim olishini ta‘minlash, hududlarda inklyuziv ta‘lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirilishi uchun Davlat budjetidan 605 mlrd so‘m ajratilishi;

2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish;

maktablarda ta‘lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risidagi 2019-yil 29-apreldagi 5712-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi 637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 997-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4884-sonli Qarori shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan qator me‘yoriy-huquqiy asoslar boshlang‘ich ta‘lim jarayoni rivojida bir qancha bo‘shliqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan ko‘plab omillarni aniqlab, bugungi kunda shu muammoni yechish yo‘llarini topishni taqozo qiladi. Bu bo‘shliqlar bevosita boshlang‘ich ta‘limning ko‘plab jarayonlarini qamrab oladi:

yangi avlod darsliklarini yaratish;

ta‘lim jarayonidagi dastur mazmuni va bilimni berish faoliyatining o‘zgarishi;

xalqaro baholash dasturi mazmunini ta‘lim jarayoniga olib kirish;

zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash.

Achinarli holat shuki, aksariyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu o‘zgarishlarga tayyor emas va ularga bu yangiliklarni o‘zlashtirib olishlari uchun juda kam vaqt ajratilyapti. Jumladan, o‘quv dasturlarining tez-tez o‘zgartirilishi, 1999-yil, 2005-yil, 2010-yil, 2017-yil, 2021- yillarda ishlab chiqilgan dasturlarning mazmunidagi farqlar.

**Bu muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi va xalqaro tashkilotlar tomonidan xalq ta'limiga doir qabul qilingan qonun, farmon va dasturlarda belgilangan vazifalarni izchillik bilan va tizimli ravishda ta'limga joriy qilish lozim.**

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi (2020) Qonuni va YUNESKOning "Ta'lim hamma uchun" dasturi (2000) ta'lim sifatini oshirishning muhim xususiyatlarni belgilab berdi:

1. O'quvchining yosh xususiyatlari (salomatligi, o'qishga bo'lgan motivatsiyasi).
2. O'quvchining bilim olishda erishgan natijalari, jumladan, bilim, ko'nikma, shaxsiy mavqei va jamiyat hayotidagi ishtiroki hamda milliy ta'lim maqsadlari bilan bog'liq natijalarning uyg'unligi.

3. Pedagogik jarayonning o'ziga xosligi, bunda bola manfaati va ehtiyoji birinchi o'rinda turadi, ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan o'quv sharoitlari yaratish.

4. Ta'lim mazmuni xarakteri (jamiyat tomonidan belgilangan vakolatlar doirasiga mos keladigan adekvat o'quv rejalari va dasturlar yaratish).

5. Har bir bola uchun zarur resurs va shart-sharoitlarni ta'minlaydigan ta'lim jarayoni va muhitining xususiyatlari (ekologik tozaligi, xavfsizligi, qulayligi, soddaligi, izchilligi).

Boshlang'ich ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi eng muhim subyektiv omil pedagogik jamoa hisoblanadi. Ta'limning har bir o'quvchiga yo'naltirilganligi, sifati va samaradorligi bevosita har bir o'qituvchining sa'y-harakati va kasbiy mahorati bilan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'limning yangi sifatga yo'naltirilganligi o'qituvchining kasbiy faoliyati mazmuniga quyidagi yangi talablarni qo'yadi:

- bolaning hayotiy tajribasini rivojlantirish va atrofini o'rab turgan olamdan o'rganish tajribasini o'zlashtirish, shuningdek, uning faolligi, ijodkorligi va mas'uliyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratish;

- uzluksiz ta'limga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish;
- ta'lim berishda bola individualligiga tayanish;
- o'qituvchining tashabbuskorligi, ijodkorligi va kasbiy madaniyati.

Zamonaviy ta'limda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchining bilim olishiga yordam berishdir. U turli darajadagi va turdagi resurslarning kombinatsiyasi bo'lgan ochiq ta'lim muhitidan foydalangan holda amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchi yoki butun sinf jamoasi uchun ta'lim muhitini tashkil etadi va bilish imkoniyatlarini tanlash uchun sharoit yaratadi. Fasilitatsiya funktsiyasi boshqa yo'llar bilan ham amalga oshiriladi. Bunda yangi usulda ishlab chiqilgan ta'lim mazmunini tanlash (o'quvchi mustaqil ravishda bajara oladigan o'quv materialidan foydalanish), bilimlarni fanlararo integratsiyalashuvi va o'quvchining ilmiy- amaliy manbalardan olgan yashirin tajribasiga tayanish kiradi.

*Bugungi kunning zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchi* yuqoridagi parametrlarni inobatga olgan holda har tomonlama ilg'or bo'lishi, o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik mahoratga ega bo'lishi, bolani sevrishi, amaliyotdagi muammoni bilishi va muammoni bartaraf etish yo'llarini izlab topishi kerak.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan talablarni tahlil qilar ekanmiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning *"Mustaqil o'ylay oladigan tafakkur yuritib to'g'ri ma'qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak"*, – deb ta'kidlagan fikrlarini keltirishni joiz deb topdik.

Darhaqiqat yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishiga zamin yarataolmaymiz.

Xalqaro tajribadan ko'rinadiki, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchi bugungi ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayoniga qator ijobiy va ijodiy sifatlarni olib kirishi va o'ziga nisbatan singdira olishi lozim.






### Xalqaro tajribaga asosan boshlang'ich sinf o'qituvchisi ega bo'lishi lozim bo'lgan sifatlar

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining deyarli barchasi yangitdan qurilgan va kapital ta'mirlangan 10 mingdan ortiq maktab zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan jihozlangan.

Respublika umumiy o'rta ta'lim maktablarida 1074 ta axborot-resurs markazi tashkil qilinib, zarur texnik jihozlar bilan to'liq ta'minlandi. Maktablar axborot-resurs markazlarining kitob fondi 7. 960.840 nusxani tashkil etadi. Bunga qo'shimcha ravishda axborot-resurs markazlarida 95.645 dona elektron nashr ham mavjud.

Respublika umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim 7 tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib boriladi.

Qolaversa, bugungi pedagog oldida xalqaro baholash dasturlarini bilishi va uni amaliyotda qo'llay olish vazifasi yuklangan:



### Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilishi zarur bo'lgan xalqaro baholash dasturlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risid"gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholashda jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro

PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Boshqacha qilib aytganda, o'quvchining ta'limdagi erishgan yutuqlarini qayd etish va baholash usuli ham yuqoridagi funktsiyaning amalga oshishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan baholash tizimi o'quvchining o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatini aniqlaydigan va qayd etadigan mezon hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim yutuqlarini qayd etish usullari o'z-o'zini baholashga asoslanadi.

O'quvchining ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, uni rag'batlantirish asosan quyidagilarga bog'liq:

- o'qituvchining subyektiv pozitsiyasini mustahkamlash;
- uning yuqori darajadagi mobilligi va moslashuvchanligi;
- boshqaruv qobiliyatini rivojlantirish;
- ta'lim sifati va natijasi uchun mas'uliyatni oshirish;
- kasbiy va shaxsiy rivojlanish;
- kasbiy motivatsiya, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirib borish.

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish ta'limni isloh qilishning asosiy bo'g'inidir, chunki u kelajakda shaxsning butun hayot yo'lida ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish vektorini belgilaydi. Yuqoridagilarni amalga oshirishda Milliy o'quv dasturi loyihasi va "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"ni qayta ishlab chiqishga olib keldi. Ushbu hujjatlar insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Boshlang'ich ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichi bolaning ruhiy holati, ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqi va xohishida kuzatiladi.

## TA'LIMDA KREATIV YONDASHUV: MAZMUN, MOHIYAT, MAQSAD

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Sh.Murodov**

*BuxDPI ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor*

Inson yaralibdiki, hayotda eng oliy orzularni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib yashaydi. Bu yo'lda har kim turli vositalardan foydalanib, turli natijalarga erishadi. Ushbu jihat jamiki insoniyatga xosdir.

O'quvchilarimiz ertangi kunimiz egasi, boshlangan islohotlarning davomchisi hisoblanadi. Buning uchun ularning iste'dodini vaqtida aniqlab, "muvaffaqiyat ijodkorlariga aylantirish" hamda ularga yuksak ishonch ato etish har bir pedagogning burchidir.

Hozirda jahon va dunyo tajribalarida ta'limiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida boshlang'ich ta'lim sohasida ham malakalimutaxassislar va yetuk kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Bu xalqaro tajribalarga tayangan holda darslarga bo'lgan qiziqish mazmunini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama innovatsion jarayonga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishni va o'quvchilarda kreativ qobiliyatni o'stirishni talab qiladi. Mavjud qator talablarning ayni damda ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, ko'pincha xorijiy davlatlardagi kabi fan va ta'lim sohalari rivojlanishini baholash hamda o'quvchilar bilimini monitoring qilish orqali ta'limdagi sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or va innovatsion tajribalarni sohaga keng miqyosida jalb qilish kerakligini anglatadi. Bu tajribalardan asosiysi – xalqaro baholash dasturini boshlang'ich ta'limga olib kirishdan iborat.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativlikni olib kirish va bu borada umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, o'quvchilar bilimini xalqaro baholash standartlari talablari asosida baholash to'g'risida hukumat qarori qabul qilindi. Masalan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Vahkamasining 2018-yil 8-dekabrda Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to‘g‘risida 997-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni.

4. “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasining Umumiy o‘rta ta’lim uchun Milliy o‘quv dasturlari shular jumlasiga kiradi.

Mazkur me‘yoriy-huquqiy asoslar xalqaro baholash dasturlarini kreativlikni ta’lim tizimiga olib kirish uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sohasida kreativ metodlar atamasi qo‘llanilib kelinmoqda. Kreativ metodlar interfaol ta’lim, kreativ ta’lim asosida shakllangan metodlar majmuidir. Kreativ metodlar o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda eng muhim vositadir.

Kreativlik – (lot. *creatio* - yaratmoq) ijodiy, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat: yangi termin bo‘lib, “Asoslangan, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va qobiliyatning tarkibiy tuzilishi, mustaqil fikrlash sifatini xarakterlaydigan, kishidagi ijodiy qobiliyatlar majmui”. Odatda, kreativ metodlarga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual, juftlik, guruh, jamoa bilan ishlash.

Kreativ metodlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida:

- g‘oyaviy ijodkorlik, yaratuvchanlik;
- ijodiy fikrlash, dunyoga ijodkorlik nigohi bilan qarash;
- eng original yechimlar va fikrlarni topish;
- mustaqil fikrlash va fikrini dalillay olish qobiliyati;
- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarni erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy

to‘siqlarsiz namoyish etish;

- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarini umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish kabilar shakllanishiga erishish

mumkin.

- ta’lim oluvchi (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari)da bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish uyg‘otiladi;

- ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisi rag‘batlantiriladi;
- har bir o‘quvchining ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatiladi;
- o‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratiladi;
- o‘quvchilarda hayotiy zarur ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi;
- o‘quvchilarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirilishini ta’minlaydi.

Boshlang‘ich ta’limda kreativlikni ta’minlaydigan asosiy mezon TIMSS xalqaro baholash dasturi mazmuni sanaladi.

TIMSS – “Trends in International Mathematics and Science Study”, ya’ni 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiiy yo‘nalishlar bo‘yicha ta’limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir.

. TIMSS xalqaro baholash dasturi orqali asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning matematik va tabiiy fanlar savodxonliklari baholanadi.

**Matematik savodxonlik** — shaxsning matematikani turli kontekstlarda shakllantirish, qo'llash va sharhlash qobiliyati. U matematik fikrlash, hodisalarni tasvirlash, tushuntirish va bashorat qilish uchun matematik tushuncha, protsedura, usul, fakt va vositalardan foydalanishni, shuningdek, matematik muammoning natijaviy yechimini talqin qilishni o'z ichiga oladi.

**Tabiatshunoslik savodxonligi** – shaxsning tabiatshunoslik bilimlarini o'zlashtirib olishi va ulardan savollarni tan olishi va qo'llashi, yangi bilimlarga ega bo'lishi, tabiatshunoslikka oid hodisalarni tushuntira olishi, ilmiy dalillarga asoslangan xulosalarni shakllantirishi; tabiatshunoslikning asosiy xususiyatlarini inson bilimining shakli sifatida tushunish; tabiiy fanlar va texnikaning jamiyatning moddiy, intellektual va madaniy sohalariga ta'sir ko'rsatishidan xabardorligini namoyish etish; tabiatshunoslikka oid muammolarni ko'rib chiqishda faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishdan iborat.

Olimning fikricha jahonda matematik bilimni yuqori darajada bo'lishi mamlakatning kelajakdagi iqtisodiyotiga bevosita ta'sir qilishi mumkin. Matematika fani kreativ tafakkurni o'stirishga sababchi bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda kreativlikni rivojlantiruvchi asosiy mezonlar bor:

1. Faoliyatni ijodiy baholash va tasavvurni kengaytirish.
2. Kreativ faoliyatida bilish, qo'llash va mulohaza qilishga o'rgatish.
3. Matematik muammoni tanlash, yo'l qidirish, yechim topish, bashoratlash.

TIMSS 2023 baholashning raqamli formati bugungi kun o'quvchilarning baholashga qiziqishi va yuqorida izohlangan kreativ motivatsiyasini rag'batlantiradi qolaversa o'znavbatida o'quvchilarning *nimani* bilishi va *bajara* olishi haqida yaxshiroq ma'lumot beradi.

Kreativlikda "Bilish" bo'limi o'z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo'lib, masalalar yechish o'quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta'riflarni takroran aytib berish, standart grafik va diagrammalardan ma'lumot olishni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obyektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar, tabiiy-ilmiy atamalar va o'lchov birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

Kreativlikda "Qo'llash" ga oid test topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni o'zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o'tkazish ko'nikmalarini namoyish etishlari zarur.

Kreativlikda "Mulohaza yuritish"ga oid topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko'pligi, turli bo'limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin. O'quv faoliyati turlari bo'yicha o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashga qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilasi bilan bog'liq omillar ham o'rganiladi.

O'zbekiston ta'limida ham bugungi kun o'quvchisi xalqaro baholashga javob berishi, kreativlik qobiliyatini shakllantirishi uchun yangi avlod darsliklari va milliy dastur yaratildi. O'quvchilarning mazmun va kognitiv bilimlarini o'lchashning dastlabki nazariy va amaliy ishlari boshlandi.

Endilikda O'zbekiston TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishadi.

TIMSS bo'yicha xalqaro baholash dasturini ishlab chiqish ta'lim jarayoniga tadbiq etish qator vazifalar, qoidalarga bo'ysunishni talab etadi va jahon ta'lim tizimidagi kabi kreativ metodlarning quyidagi shakllarda amalga oshirishi imkoniyati ortadi:

1. Kashfiyotchilik – bu metod orqali o'quvchining kashfiyotchilik qobiliyati, fantaziya kuchi oshiriladi.

2. Obrazli rasmlar – bu metodda obyekt obrazli tadqiq qilinadi. O'quvchi tanlangan obyekttni tahlil qilish yoki kuzatish natijasida uning o'z tasavvuridagi matnli yoki grafik



ko'rinishdagi obrazini yaratishi talab qilinadi. Ushbu metoddan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda obrazli tafakkurni, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ularning tasavvuri, xayolotiva dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.

3. Giperbolizatsiya – bu metod biron obyektini orttirib, kattalashtirib yoki aksincha kichraytirib, kamaytirib ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi.

4. Agglyutinatsiya – bu metod orqali o'quvchilar o'z tasavvurlari orqali turli, haqiqatdan yiroq bo'lgan predmet yoki obrazlarni yaratishlari mumkin.

Boshlag'ich ta'lim o'quvchilarida kreativ yondashuv matematik savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning tizimli bosqichlarini aniqlash, ta'lim jarayoniga olib kirish va amaliyotda foydalanishning innovatsion usullarni ishlab chiqish, bevosita, ta'lim sifati va xalqaro baholash dasturlari talablariga tayyor bo'lish imkoniyati oshiradi.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

E.M.Muxtorov

*BuxDPI o'quv ishlari bo'yicha prorektor*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni baholashda xalqaro baholash tadqiqotlarining o'rni, ta'lim tizimidagi ahamiyati va mazmuni yoritilgan.*

*Kalit so'zlar. TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, kompetensiya, o'quv dasturi, baholash mazmuni*

*Annotation. This article discusses the role, importance and content of international assessment research in the education system in assessing the knowledge of primary school students.*

*Keywords. TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, competence, curriculum, assessment content*

*Аннотация. В данной статье рассматриваются роль, значение и содержание международных оценочных исследований в системе образования при оценивании знаний учащихся начальных классов.*

*Ключевые слова. TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, компетентность, учебная программа, содержание оценивания*

Hozirgi vaqtda har bir insonning hayoti va kasbiy faoliyatida texnogen komponentning o'sishi kuzatilmoqda. Shuning uchun nafaqat kelajakdagi mutaxassisni, balki har bir maktab o'quvchisini to'laqonli matematik savodxonlik bo'yicha tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Matematikani o'qitishning maqsadlari ham kuchaytirilmoqda. Ular matematikaning o'ziga xos jihatlari, fanni o'rganishni va amaliy qo'llanilishini ham rivojlantiradigan shaxsiy xususiyatlariga mos kelishi kerak. Matematik savodxonlikni o'rganish doimiy e'tiborni, qat'iyatni, diqqatni jamlay olish qobiliyatini talab qiladi, ya'ni aqlni rivojlantirishda ham, xarakterni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki amaliy hayot uchun zarur bo'lgan hisoblash, geometrik tasvirlar, formulalar, funksiyalar, grafiklar, diagrammalar, jadvallar bilan bog'liq bilimlar uchun zarur bo'lgan materiallarni o'zlashtirish lozim. Demak, matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. Kelajak egalarining zamonaviy bilim, intellektual salohiyat, ilm-u ma'rifat, erkin fikr, ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, jahonda e'tirof etilgan uslub va an'analarni qo'llash malakasiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimidagi islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan bo'lib, xalqaro mezon asosida dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida qo'llanayotgan va katta samara berayotgan ta'lim texnologiyalari, baholashning xalqaro talablariga muvofiq bo'lishiga qaratilmoqda. Dunyoning yuksak xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 22 taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Taraqqiyot odimlari bilan jahonga yuz tutayotgan mamlakatimizda ham ta'lim sohasida baholashning xalqaro mezonlari qo'llanilmoqda. Ma'lumki, ta'lim sifati xalqaro standartlar asosida baholash orqali dunyo mamlakatlari bilan

qiyosiy tahlillar olib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 8-dekabrda Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilingan. Qarorda ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilib, ta'lim sifatini belgilash bo'yicha qator xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi belgilangan. Qolaversa, O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi. Jumladan, unda mamlakatimizning 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) - o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingida jahonning 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo'yilgan. Xalq ta'limida sodir bo'layotgan mazkur o'zgarishlar bevosita oliy ta'lim muassasalari bilan ham bog'liq bo'lib, maktab va oliy ta'lim muassasalari hamkorlik aloqalari yuksalishiga sabab bo'lmoqda. PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi o'smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeyini ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi. PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. TIMSS - ham jahon mamlakatlari ta'lim tizimida keng tatbiq etilmoqda. TIMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4- va 8-sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o'xshab, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o'sha mamlakatda ishlab chiqilgana'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi. Shu paytga qadar TIMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. Ta'kidlash lozimki, ayni shu davlatlarda yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish, sanoatlashtirish va yuksak darajadagi taraqqiyot erishish maqsadida aniq fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, unda o'quvchilar tug'ma iste'dod va qobiliyatlardan ko'ra o'z ustida doimiy ishlash hamda aniq fanlarni o'qitishda guruh yoki sinfdagi o'quvchilar sonining 16 nafardan oshmasligi belgilangan. Bunday tajriba AQShda ham mavjud bo'lib, 1999-yildan boshlab bitta o'qituvchi 40minutlik dars mashg'uloti davomida 16 ta bolaga bilim va tarbiya bera olish imkoniyatiga ega ekanligini inobatga olgan holda prezident qarori bilan ta'lim muassasalaridagi guruhlarda o'quvchilar soni 16 nafar etib belgilangan. Umuman olganda, mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o'quvchi yoshlar bilimlari

darajasini baholash yoki monitoring qilishning

—Milliy dasturi yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o'zlashtirish darajasining sifati va sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o'tkazish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Shuningdek, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'qitish darajasining islohotlar tempidan ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqaradi. Shuni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz: 1. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilar uchun TIMSS olimpiadalari joriy qilish; 2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning eTIMSS, ePIRLS deb nomlangan platformalarini yaratish; 3. Ilm-fan yutuqlarining eng ilg'or natijalari va adabiyotlarning ingliz tilida nashr qilinishini inobatga olgan holda, maktablarda ingliz tilini o'rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni tatbiq etish masalasini ko'rib chiqish; 4. Maktabgacha ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi guruh va sinflardaxalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o'quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko'rsatkichlarini belgilab qo'yish; 5. Maktab dars jadvaliga Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun alohida dars soati qo'shilib, o'quvchilarni tayyorlash; 6. Malaka oshirish insitutlarida o'qituvchilarni xalqaro tadqiqotlar bo'yicha malakaga ega bo'lishlari uchun malaka oshirish kurslarini joriy etish;

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akiba, M., LeTendre, G.K., & Scribnyer, J.P. (2007). Teacher quality, opportunity gap, and national achievement in 46 countries. *Educational Researcher*, 36(7), 369–387.
2. Andyers, Y., Rossbach, H.G., Weinyert, S., Ebyert, S., Kugyer, S., Lehl, S., & von Maurice, J. (2012). Home and preschool learning environments and their relations to the development of early numeracy skills. *Early Childhood Research Quarterly*, 27(2), 231–244.
3. Barrows, S., Petyerson, P.E., & West, M.R. (2017). What do parents think of their children's schools? *Education Next*, Spring 2017, pp. 8-17.
4. Baumyert, J., Kuntyer, M., Blum, W., Brunnyer, M., Voss, T., Jordan, A., & Tsai, Y.-M. (2010). Teachers' mathematical knowledge, cognitive activation in the classroom, and student progress. *American Educational Research Journal*, 47(1), 133–180.

## PEDAGOG KADRLARNI INNOVATION FAOLIYATGA TAYYORLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**B.R. Adizov**

*p.f.d., professor BuxDu huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori*

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish ehtiyoji bilan bu jarayonni amalga oshiruvchi o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasining talab darajasida emasligi o'rtasidagi pozitiv (ijobiy) ziddiyatlar natijasida pedagogikada "innovatsiya", "innovation faoliyat", "innovator", "innovation pedagogika", "ta'limda innovation jarayonlarni boshqarish" kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida "Ta'lim texnologiyasi tushunchasi e'tirof etilgan vaqtda paydo bo'ldi. I.Shumpater va N.Kondratevlar "innovatsiya" tushunchasining ilk va ulkan nazariyachilaridan hisoblansalar, K.Angelovskiy, V.A.Slasyonin va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovation faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashgaharakat qildilar va bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar deb tan olindilar.

Innovatsiya (ing.innovations-kiritilgan yangilik, ixtiro) maqsadga qaratilgan o'zgarish bo'lib, qo'llanish sohasidagi tizimni bir holatdan sifat jihatidan yangi holatga o'tkazish, uni tubdan takomillashtirishni, innovation jarayon-yangilikni yaratish, o'zlashtirish, qo'llash va tarqatishdagi kompleks faoliyatni anglatadi. Pedagogik adabiyotlarda innovatsiya jarayonining uyidagi bosqichlari qayd etiladi: 1.Yangi g'oya tug'ilishi yoki konsepsiyasini paydo qilish



bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi.

1-blok. Pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogdagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

2-blok. Yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiyalar muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

3-blok. Yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Y.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin: madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv; shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv; ko'p subyektli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish; individual-ijodiy (o'qituvchi va talabalarining o'zaro munosabatlari) yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning subyekt o'qituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsion faoliyatiga zarurat tug'ildi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilish va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati-bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeyini mustahkamlashga, dunyoga, pedagogika faniga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtayi nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi. Keyingi sharti – bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan xoli bo'lishi lozim. Ular tenglarning ham hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

# JISMONIY TARBIYA FANINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH SAMARADORLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Ikramov Amirbek Aminovich**

*p.f.f.d. (PhD), dotsent, (BuxDPI ilmiy bo'limi boshlig'i)*

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarning jismoniy tarbiya fanidan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan raqamli texnologiyalar haqida so'z boradi. Bunda darslarda qo'llaniladigan metodlar va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi haqida fikrlar bayon qilingan.

**Аннотация:** В статье говорится о цифровых технологиях, направленных на развитие знаний и умений школьников по физическому воспитанию. В нем изложены представления о методах, используемых на уроках и интеграции цифровых технологий.

**Annotation:** The article talks about digital technologies aimed at developing students' knowledge and skills in physical education. In it, the ideas about the methods used in the lessons and the integration of digital technologies are stated.

*Kalit so'zlar:* jismoniy tarbiya, ta'lim, o'qitish samaradorligi, raqamli texnologiyalar, simulyator.

Jahon ilg'or xorijiy ta'lim tizimlarida ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni axborot-kommunikatsiya vositalari orqali joriy etish amaliyoti XXI asrda barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, ta'lim oluvchilarning jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantirish komponentlarini innovatsion yondashuv asosida yangilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dastur"larida bolalar yoshini hisobga olish va mos holda mashg'ulotlarni tanlash, ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsion vositalardan keng foydalanilayotganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakatli o'yinlar yordamida jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantirish, jismoniy tarbiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish samaradorligi bugungi kunda yuqori darajada hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, jismoniy tarbiya fanini o'rganishning yanada sodda va ko'p tajribali yo'llarini o'z ichiga oladi.

Birinchi sabab, raqamli texnologiyalar, o'quvchilarning jismoniy tarbiya darslarida tushunchalarini yanada osonlashtiradi. Masalan, jismoniy tarbiya darslarida, interaktiv darsliklar va 3D model davom etishi mumkin bo'lgan videolar yaratish kabi ko'plab yangiliklar jismoniy tushunchalarini yanada tushunarliroq qiladi.

Ikkinchi sabab, raqamli texnologiyalar, o'quvchilarning jismoniy tarbiya fanidan hosil qilingan bilimlarini sinovdan o'tkazishga imkon beradi. Virtual jismoniy tarbiya laboratoriyalari va simulatsiya texnologiyalari o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatini va fan bo'yicha tushunchalarini yanada yuqoriga ko'taradi.

Uchinchi sabab, raqamli texnologiyalar, jismoniy tarbiya fanidan o'qitish jarayonida tajribali o'qituvchilarga ham yordam beradi. O'quvchilarning tanqidini va bilim darajasini baholash, ularning yaxshi va noto'g'ri qilishlarini ko'rsatish, ularning yangilishlarini tushuntirish va ularning yaxshiroq o'rganishlari uchun tavsif qilish kabi ko'plab vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Barcha bu sabablar jismoniy tarbiya fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishni juda samarali va samimiy qiladi. Raqamli texnologiyalar, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning tushunchalarini osonlashtirish, bilimlarini sinovdan o'tkazishga imkon berish va o'qituvchilarning o'quvchilarni tavsiflash va yaxshi o'rganishlarini ta'minlashga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning samaradorligi, talabalarga va o'qituvchilarga bir nechta afzalliklarni taqdim etadi. Raqamli texnologiyalar orqali talabalar, o'qituvchilar va ota-onalar o'zlarining jismoniy tarbiya darajalarini yanada oshirish uchun ko'p imkoniyatlarga ega.

Raqamli texnologiyalar orqali talabalar jismoniy tarbiya darslarida yangi tushunchalar olishlari mumkin. Virtual jismoniy tarbiya laboratoriyalari va simulyatsiya texnologiyalari o'quvchilarning teorik bilimlarini amaliyotga aylantirishga imkon beradi. Masalan, bir elektronika darsi davomida, elektronik loyihalar yaratishni o'rganish va ularni virtual muharrir

orqali yaratish ko'proq qulaydir.

Raqamli texnologiyalar o'qituvchilarga va talabalar uchun o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar va o'qituvchilar uchun muhim bo'lgan jismoniy tarbiya qurilmalari va ularning ishlash prinsiplarini oson o'rganish va tushuntirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Raqamli texnologiyalar jismoniy tarbiya fanidan o'qitishda talabalarga yaxshi jismoniy holatga ega bo'lishga yordam beradi. Virtual jismoniy tarbiya laboratoriyalari va simulatsiya texnologiyalari o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatini va fan bo'yicha tushunchalarini yanada yuqoriga ko'taradi.

Jismoniy tarbiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy dasturiy ta'minotlar o'qitish usullari va talabalarining o'rganish jarayoniga bog'liqdir. Quyidagi dasturiy ta'minotlar jismoniy tarbiya fanini o'qitishda keng tarqalgan:

Jismoniy tarbiya darslarida O'quv rejasi (sillabus) va O'quv yo'nalishlarining (curriculum) tayyorlanishi. Bu dasturiy ta'minotlar o'qitish jarayonining to'g'ri tatbiqiyati va talabalarining o'rganish jarayonida o'z maqsadiga erishishiga yordam beradi.

Virtual jismoniy tarbiya laboratoriyalari va simulatsiya texnologiyalari. Bu dasturiy ta'minotlar jismoniy tarbiya darslarida talabalar uchun amaliyotning virtual namunalarini yaratishga imkon beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning jismoniy tarbiya bo'yicha o'zlashtirish qobiliyatini va tushunchalarini yanada oshirishga yordam beradi.

Interaktiv darslar. Bu dasturiy ta'minotlar o'quvchilarning jismoniy tarbiya darslarida qatnashishlarini yanada qiziqarli qilish va talabalarining tushunchalarini osonlashtirishga yordam beradi. Bu darslar elektronik jiddiy qurilmalar, darsliklar, video darslar va boshqa multimedia vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Tarbiya qurilmalari va jismoniy o'yinlar. Bu dasturiy ta'minotlar jismoniy tarbiya darslarida talabalar uchun jismoniy mashqlar va amaliyotlar yaratishga yordam beradi. Bu qurilmalar va o'yinlar o'quvchilarning jismoniy tarbiya bilimlarini amaliyotda o'rganish va qo'llanishlarini oshirishga imkon beradi.

Onlayn o'quv resurslari. Bu dasturiy ta'minotlar jismoniy tarbiya fanini o'qitishda o'quv resurslari sifatida yana bir qadamdir. Onlayn o'quv resurslari jismoniy tarbiya bilimlarining ma'lum bir ko'rsatilishini, tafsilotlarini va amaliyotlarni taqdim etishga yordam beradi.

Barcha bu afzalliklar jismoniy tarbiya fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishni ko'proq samarali va foydali qiladi. Bu afzalliklar jismoniy tarbiya darslaridagi tushunchalarni yanada osonlashtirish, talabalar va o'qituvchilarning o'rganish jarayonini qiziqarli qilish va o'quvchilarni yaxshi jismoniy holatga ega qilishda juda muhimdir.

## **OLIY TA'LIM JARAYONIDA MASOFAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**A.K.Niyozov**

*BuxDPI o'quv bo'lim boshlig'i*

Hozirda ta'lim jarayonini rivojlantirish, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash, ularni mustaqil ta'limlari uchun keng imkoniyat yaratib berishga doir qator muammolarga duch kelindikim, ular bevosita axborot telekommunikatsiya sohasidagi jiddiy o'zgarishlar, xususan, axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga bog'liq bo'lmoqda. Ta'lim, ishlab chiqarishning turli jabhalariga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib kela boshladi. Internet global kompyuter tarmog'ini rivojlanishi butun dunyo ta'lim tizimini takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'ldi. Birinchidan, o'quv muassasalarining texnik ta'minotini keskin o'zgarishi, dunyoviy axborot resurslarga keng yo'l ochilishi o'qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib

kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi. Hozirgi zamon ta'lim jarayoniga an'anaviy tushunchalar qatorida masofaviy ta'limga tegishli yangi-yangi tushunchalar kirib kelmoqda. O'qitish – bu ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan tizimli bilim va ko'nikmalar bilan qurollangan jarayondir.

Ta'lim – bu o'qitishning natijasi bo'lib, shaxsiyatni tarbiyalash va rivojlantirishdir.

Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Masofaviy o'qitish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qitish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksidir. Demak, masofaviy o'qitish masofaviy ta'lim kompleksidagi jarayon ekan.

Masofaviy o'qitishning va masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun masofaviy ta'limning imkoniyati va qirralari juda ko'p. Masofaviy ta'lim olishning afzalliklari va kamchiliklari nimadan iborat va u bizga nima beradi? Siz o'qitish bilan bir qatorda ish bilan ham shug'ullanishingiz mumkin. Aslida, masofaviy o'qitishni tanlagan talabning asosiy qismi bu o'z ishidan voz kechishni istamaydigan, ammo bilim olishni xohlaydiganlardir. Onlayn ta'limda siz dam olish kunlarida, ishdan qaytganingizda, hatto yarim kechada o'qishingiz mumkin; Mablag'ingiz tejaldi. Har qanday dastur uchun masofaviy ta'lim darajasi (Internetda yoki boshqa usulda), o'quv markazlaridagi oddiy to'lovdan ko'ra ancha arzonroq bo'lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan maqbul variantlarni qidirayotgan o'quvchilar uchun onlayn ta'lim - eng to'g'ri yo'l; Vaqtingizni tejang! O'quv markazlariga borish va qaytish vaqtida transport kutish uchun ketadigan vaqtingizni tejashingiz mumkin. Onlayn ta'limda siz istagan yeringizda ma'lumot olasiz; agar siz o'zingizni intiluvchan hisoblasangiz, masofaviy ta'limning eng katta foydasi shundaki, ayrim darslar guruh bo'lib o'tiladi. Guruhda ba'zi talabalar tezroq, ayrimlari esa sekin tushunadilar. Bu jihatdan masofaviy ta'lim olish usuli samaraliroq; Chalg'ish ehtimoli yuqori. Yuzma-yuz muloqot qilish uchun o'qituvchilar va kutilayotgan topshiriqlar haqida doimiy ravishda eslatuvchi sinfdoshlar yo'q. Agar masofaviy o'qitish kursini muvaffaqiyatli yakunlamoqchi bo'lsangiz, o'zingizni g'ayratli va diqqatli qilishingiz kerak; Tarmoqdan ayrilish. Onlayn bilim olishning eng katta dushmani bu internet provayderlarining sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyatda abituriyent ta'lim olishga bo'lgan intilishi so'nishi yoki asabiylashishiga olib keladi. Siz qay bir yo'sinda ta'lim olishni tanlamang, bularning bari siz mukammal bilim olishingizga ko'maklashadi. Masofaviy ta'lim tizimi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

-talabalar tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalanib o'rganilgan materiallarning asosiy qismini yetkazib berish;

-o'quv jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilarning interfaol hamkorligi;

-talabalarga o'rganilayotgan o'quv materiallarini ishlab chiqish bo'yicha mustaqil ish olib borish imkoniyatlarini berish;

-o'quv jarayonida talabalarining bilim va ko'nikmalarini baholash. Ma'lumotni masofadan uzatish texnologiyasiga ko'ra quyidagilar masofadan o'qitish shakllari mavjud:

-interfaol televideniye va videokonferensiyalar orqali;

-telekonferensiyalar, ARM, MOO, MUD (Internet asosida);

O'quv ma'lumotlarini olish usuli bo'yicha quyidagilar ajralib turadi:

- sinxron o'qitish tizimlari;

- asenkron o'qitish tizimlari.

Sinxron tizimlar talabalar va o'qituvchilarning o'quv jarayonida bir vaqtning o'zida ishtirok etishini o'z ichiga oladi. Bunday tizimlarga quyidagilar kiradi: Asenkron tizimlar talabalar va o'qituvchining bir vaqtning o'zida ishtirok etishini talab qilmaydi. Talaba vaqt va dars rejasini tanlaydi.

O'quv jarayonini tashkillashtirishda masofaviy o'qitishdan foydalanish uchta turdagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi: o'quv texnologiyalari, o'quv va uslubiy materiallar maxsus to'plamda to'ldirilganida (inglizcha vaziyatdan) va mustaqil ravishda o'qish uchun talabaga topshirilgan (unga biriktirilgan o'qituvchilar bilan davriy maslahatlashganda); internet tarmog'idan foydalanishga asoslangan tarmoq texnologiyasi, bu o'quvchini o'quv va uslubiy materiallar bilan ta'minlash uchun, shuningdek, o'qituvchi va talaba va talabalarning bir-biri bilan interfaol aloqasi uchun.

INTERAKTIV bo'lmagan texnologiyalar:

- Video, audio va bosmaga chiqarilgan materiallar.
- Televizion va radio ko'rsatuvlar.
- Disklarda joylashgan dasturlar.

Video va audio konferensiyalar - bu internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallari yordamida ikkita, uzoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion holatda bir-biri bilan bog'lab ta'lim olish yo'li. Video va audio konferensiyalar uchun katta hajmda maxsus texnika, yuqori tezlikka ega bo'lgan aloqa kanali va o'qitishni tashkil qilish uchun xizmatko'rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak bo'ladi. Internet orqali mustaqil ta'lim olish - bu internetda joylashgan ko'pgina saytlarda joylashgan katta hajmdagi ma'lumotlar ustidan mustaqil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yo'li. Elektron pochta orqali ta'lim esa eng ommaviy internet xizmatlaridan foydalanib, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida xatlar orqali muloqot o'rnatib, ta'lim olish yo'li. U yordamida har xil test, vazifa, savol-javob va ko'rsatmalarni (matn, grafika, multimedia, dasturlar va boshqa ko'rinishida) jo'natib qabul qilishimiz mumkin. Uzoqdan boshqarish sistemalar - murakkab dastur, sistema va uskunalarni real holatda boshqarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus sistemalar yordamida bilim olish yo'li. Uzoqdan boshqarish sistemalarning asosiy vazifasi o'quvchiga faqatgina amaliy bilimlarni berish. Simulyator, elektron darsliklar va o'quv dasturlar - bu asosan, nazariy va amaliy bilimlarni kompyuter dasturlari orqali o'quvchilarga offlayn holatida olish yo'li. Simulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta'lim sohasida juda keng qo'llanilyapti. Test topshirish sistemalar - bu maxsus dasturlar yordamida o'quvchilarning amaliy va nazariy bilimlarni tekshirish, uning asosiy vazifasi bu talabalar bilimlarini tekshirib ularni baholash. Internetning masofaviy ta'lim portali bu maxsus Internet saytlar (onlayn resurslar). Ushbu saytlarning asosiy vazifasi - ta'lim jarayonini tashkil qilish, yoki boshqa so'zlar bilan o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida elektron onlayn muloqotni o'rnatish, o'qituvchilarga o'quv materiallarni joylashtirish va o'quvchilarga shu ma'lumotlar bilan ishlashga hamda boshqa masofaviy ta'lim servislardan foydalanishga imkoniyat yaratish. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish tajribasi bunday o'qitishning bir qator afzalliklari to'g'risida gapirishga imkon beradi:

- talabalar uchun "tasavvurlararo" ma'lumotlarning ochiqligi, chunki ularda kompyuter va internet resurslarining texnik imkoniyatlaridan foydalangan holda alternativ axborot manbalaridan foydalanish imkoniyati mavjud;
- o'qituvchidan talabalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishni o'z ichiga olgan o'quv jarayonini individuallashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'qitish va test tizimlaridan foydalanishga, o'zini-o'zi boshqarish vazifalariga va hokazolarga e'tibor qaratish orqali o'quv jarayoni sifatini yaxshilash;
- o'zini-o'zi tashkil etish, bilim olishga intilish, zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan o'zaro bog'lanish, mustaqil qaror qabul qilish orqali talabalarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- o'quv jarayonini uslubiy ta'minotini tezkor yangilash, chunki elektron o'quv vositalarida o'quv materiallari tarkibini yangilash osonroq.

## TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

O.R.Avezov

*BuxDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani*

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilmoqda bu holat malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabning yanada oshib borishiga turtki bo'lmoqda. Bunday talabning qondirilishi o'z navbatida yoshlar o'rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shunday talablarning bugungi kun ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg'or tajribalarni o'rganib chiqdi. Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda. PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi o'smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi. Birgina 2015-yilning o'zida 70 dan ortiq davlatlar PISA xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeyini ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi. PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. TIMSS - ham jahon mamlakatlari ta'lim tizimidakeng tadbiq etilmoqda. TIMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4-va 8-sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o'xshab, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o'sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi. 2015-yil TIMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya,



Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. Shuni e'tirof etish lozimki, ayni shu davlatlarda yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish, sanoatlashtirish va yuksak darajadagi taraqqiyotga erishish maqsadida aniq fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, unda o'quvchilar tug'ma iste'dod va qobiliyatlardan ko'ra o'z ustida doimiy ishlash hamda aniq fanlarni o'qitishda guruh yoki sinfdagi o'quvchilar sonining 16 nafardan oshmasligi belgilangan. Bunday tajriba AQShda ham mavjud bo'lib,

1999- yildan boshlab bitta o'qituvchi 40 minutlik dars mashg'uloti davomida 16 tabolaga bilim va tarbiya bera olish imkoniyatiga ega ekanligi inobatga olgan holda prezident qarori bilan ta'lim muassasalaridagi guruhlarda o'quvchilar soni 16 nafar etib belgilangan. Umuman olganda, mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning tizimi yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o'zlashtirish darajasining sifati va sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o'tkazish imkoniyatini cheklab qo'yimoqda. Shuningdek, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'qitish darajasining islohotlar tempidan ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqaradi. Shuni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz:

1. Xalqaro ta'lim sifatini baholash dasturlarida O'zbekistonning ishtiroki masalasini atroflicha o'rganib chiqish va ushbu dasturlarda ishtirokini ta'minlash.

2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning tizimini yaratish.

3. Ilm-fan yutuqlarining eng ilg'or natijalari va adabiyotlarning ingliz tilida nashr qilinishini inobatga olgan holda, maktablarda ingliz tilini o'rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni tatbiq etish masalasini ko'rib chiqish.

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berishga mas'ul mutaxassislarning malaka talablarini aniq mezonlar orqali belgilab qo'yish va bolalarning umumiy ta'limga yo'naltirilishida butunlay mas'ulligini qonun bilan belgilab qo'yish.

5. Maktabgacha ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi guruh va sinflarda xalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o'quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko'rsatkichlarini belgilab qo'yish.

6. Psixologik testlar yordamida boshlang'ich sinflardagi iste'dodli bolalarni ajratib olib 8-9 yoshlilar uchun har bir maktabda ixtisoslashgan sinflar tashkil etish.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Saidova Mohinur Jonpo'latovna**

*Pedagogika fanlari doktori (DSs), dosent. Buxoro davlatpedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi mudiri E-mail: [mohinur.saidova2016@mail.ru](mailto:mohinur.saidova2016@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish imkoniyati ochib berilgan. PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayonida qo'llashda erishiladigan yutuqlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, xalqaro baholash dasturi, matn ustida ishlash, savodxonlik darajasi, PIRLS, TIMSS.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning



birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan [2]. Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

– PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash;

– TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyatidir [8].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholashga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonida dars maqsadlari o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatiga asoslangan holda belgilanadi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori natijaga erishishni kafolatlaydi, o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro hamkorligi va o'quv harakatlarini aniq baholash imkoniyatini yaratadi.

XXI asrga xos xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilar bilimini baholash, o'qitish va ta'lim olishning zamonaviy usullaridan maqsadli foydalangan holda ularni yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilarni fikrlash chegarasidan tashqariga chiqishga, ijodiy, samarali va odobli fikrlashga undaydi. Binobarin, mazkur muammolarning har birini qamrab oluvchi mavzular, ko'rsatmalar, sinfxona muhiti, baholash mexanizmi va texnik qo'llanmalardan foydalanish kabi masalalarda turli xil yondashuvlarga asoslanilgan holda kafolatlangan natijani ta'minlash, ko'zlangan maqsadga erishishni nazarda tutadi.

O'quvchilar bilimini baholashda PIRLS tadqiqotlarining topshiriqlaridan foydalanish ("Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi) va unda belgilangan baholash mezonlariga amal qilish ularda:

– o'qish savodxonligining maqsadiga erishishda badiiy tajriba orttirish va axborot olish va undan foydalanish;

– ko'p qirrali, murakkab vazifalarni amalga oshirishga o'rganish;

– har bir muammo xususida chuqur fikrlash va o'z bilimini oshirib borishni boshqara olish;

– o'z tengdoshlari, o'qituvchilar va mutaxassislar bilan chuqur mulohazani talab etuvchi muhim vazifalarni bajarishda hamkorlik qila olish;

– qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va yangi fikrlar yaratishda texnologiyalardan foydalana olish kabi kompetensiyalarni shakllanishiga ko'maklashadi.


Matnini tushunish jarayonida quyidagilarga erishiladi:

1. Matnini o'qish asosida diqqatni jamlash va aniq ma'lumotlarni to'plash.

2. Xulosa chiqara olish.

3. G'oya va axborotlarni tahlil qilish va uyg'unlashtirish.

4. Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish kabilar (1-rasm).



**1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik ko'nikmalarini baholashda PIRLS tadqiqotlaridan foydalanish imkoniyatlari.**

- Yuqoridagi imkoniyatlardan foydalanish natijasida matnni to'liq tushunish, matn elementlarini baholash, g'oyalarni va axborotlarni tahlil qilish, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash, axborot va ommaviy o'quv va kognitiv faoliyatning sinovdan o'tgan mazmuni va turlarini yetarli darajada yoritish;

- xalqaro testlar mazmunining aksariyat ishtirokchi mamlakatlarda o'rganilayotgan materialga maksimal darajada mos kelishi;

- testlarning o'zaro aloqasini ta'minlash;

- tekshirilayotgan mazmunning matematika ta'limini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ahamiyati;

- o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiqligi, test ishlab chiqilgan yutuqlarni baholash;

- ommaviy tadqiqotlar uchun talablarga muvofiqligi.

- 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika fanidan baholash uchun test topshiriqlarini berishda belgilangan tildan foydalaniladi.

- axborot vositalaridan foydalanish, shaxslararo hamkorlik, muammolarni aniqlash, shaklga solish va yechimini topish, o'z-o'zini yo'naltirish, ijtimoiy mas'uliyat kabi hayotiy ko'nikmalar shakllana boradi.

**TIMSS bu** – "Trends in International Mathematics and Science Study", ya'ni 4- va 8- sinf o'quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ta'limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir.

**TIMSS tadqiqot vositasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- matematika va tabiiy fanlar sikli fanlaridan topshiriqlar (4- va 8-sinflar);
- ta'lim muassasalari rahbarlari uchun anketa (4- va 8-sinflar);
- o'qituvchilar uchun so'rovnoma (4- va 8-sinflar);
- Ota-onalar uchun so'rovnoma (4-sinf).

TIMSS testi to'rtta topshiriq blokidan iborat (ikkitasi matematikadan va ikkitasi tabiatshunoslik). 4-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 72 daqiqa ajratiladi (ikki qism 36 daqiqa). 8-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 90 daqiqa berildi (ikki 45 daqiqadan iborat qismlar).

**TIMSS xalqaro tadqiqot vositalari to'plamiga quyidagilar kiradi:**

- kognitiv va ma'lumotlar sohasiga tegishli testlar;
- anketalar (o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim muassasasi ma'muriyati,
- ta'lim sohasidagi mutaxassislar (tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun);
- uslubiy ta'minot (o'rganishni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha milliy koordinatorlar uchun yo'riqnoma, namuna olish bo'yicha qo'llanma, maktab koordinatorlari uchun qo'llanma, test o'tkazish bo'yicha qo'llanma, bepul javoblar bilan topshiriqlarni tekshirish bo'yicha qo'llanma, ma'lumotlarni kiritish bo'yicha qo'llanma va boshqalar);
- dasturiy ta'minot (sinflar va o'quvchilarni tanlash uchun, ma'lumotlarni kiritish uchun).

#### **Xalqaro testlar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:**

Jahon ta'limida Lesley University olimi **Jennifer Anne Evans** matematika baholash tizimi haqida ilg'or fikrlarni ilgari surgan.

Tadqiqotchi baholash tizimini ikki o'lchovga bo'ladi: mazmunli va kognitiv. Uning fikricha matematikani o'rganib, mazmun o'lchovi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan matematik ko'nikmalar yoki tushunchalarga ishora qilish lozim (masalan, ko'paytirish, perimetr va boshqalar) [6; 32-33-b.].

Jennifer Anne Evans tadqiqot ishida mazmunli va kognitiv o'lchamdagi topshiriqlarni alohida ajratib ko'rsatgan (1-jadval).

1-jadval.

4-sinf matematika mazmunli o'lchov	4-sinf matematika kognitiv o'lchov
Raqamlar (50%)	Bilish (40%)
Geometrik shakllar va o'lchovlar (35%)	Qo'llash (40%)
Ma'lumotlarni ko'rsatish (15%)	Mulohaza yuritish (20%)

O'zbekiston ta'limida ham bugungi kun o'quvchisi xalqaro baholashga javob berish uchun yangi avlod darsliklari va milliy dastur yaratildi. O'quvchilarning mazmun va kognitiv bilimlarini o'lchashning dastlabki nazariy va amaliy ishlari boshlandi [5; 227-b.].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida TIMSS xalqaro tadqiqoti O'zbekistonda joriy etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan.

Endilikda, O'zbekiston TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishadi. Bu borada IEA tashkilotining "Xalqaro matematik va ilmiy-tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi"ga muvofiq O'zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o'rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

TIMSS 2023 yilda mazmun o'lchovi asosida topshiriqlarni quyidagi struktura asosida olinishi ko'zda tutilgan (2- jadval):

2-jadval.

4-sinf matematika mazmunli o'lchov	Mazmuni
Sonlar va amallar (50%)	1. Butun sonlar. 2. Ifodalar, sodda tenglamalar va munosabatlar. 3. Oddiy kasrlar va o'nli kasrlar.
Geometriya va o'lchashlar (30%)	1. O'lchashlar.

	2. Geometriya.
Ma'lumotlar bilan ishlash (20%)	1. Ma'lumotlarni o'qish va tasvirlash. 2. Ma'lumotlarni talqin qilish, birlashtirish va taqqoslash.

TIMSS bo'yicha xalqaro baholash dasturini ishlab chiqish ta'lim jarayoniga tatbiq etish qator vazifalar, qoidalarga bo'ysunishni talab etadi.

Boshlag'ich ta'lim o'quvchilarida o'qish va amaliy jarayonlarda ishlash savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning tizimli bosqichlarini aniqlash, ta'lim jarayoniga olib kirish va amaliyotda foydalanishning innovatsion usullarni ishlab chiqish, bevosita, ta'lim sifati va xalqaro baholash dasturlari talablariga tayyor bo'lish imkoniyati oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarori.
4. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Minnich, C.A., Stanco, G.M., Arora, A., Centurino, V.A.S., & Castle, C.E. (Eds.) TIMSS 2011 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science, Volumes 1 and 2. - Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2012. - 1088 p.
5. Hutchison, D., Schagen, I. Comparisons between PISA and TIMSS -Are we the man with two watches? / Loveless, T. (Eds.) // Lessons Learned - What international assessments tell us about math achievement. - Washington, D.C.: Brookings Institute Press, 2007. - P. 227-261.
6. Jennifer Anne Evans Gender, Self-Efficacy, and Mathematics Achievement: An Analysis of Fourth Grade and Eighth Grade TIMSS Data from the United States. Lesley University School of Education 2015 32-33-p.
7. Raxmatov M., Zaripov B. Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. – T: "Zamin nashr", Toshkent, 2021.
8. "Xalqaro tadqiqotlarda boshlag'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi, T. 2019-y.

**I– SHO‘BA: BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI  
RIVOJLANTIRISHDA SIFAT VA  
SAMARADORLIKKA ERISHISHNING  
INNOVATSION, INKORPORATSION USULLARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**

# BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA O'QISH VA YOZISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA TURKIYA TAJRIBASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Xudaybergenova Zilola

*Filologiya fanlari doktori, professor Turkiya Respublikasi, Bartin universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida asosiy maqsad bo'lgan – o'qish va yozishga o'rgatish bo'yicha Turkiya tajribasi haqida gap ketadi. Bu o'rinda boshlang'ich ta'lim tizimida dunyo bo'yicha qo'llanilayotgan o'qish va yozishning to'rt blokli modelining Turkiyadagi tatbig'i, bu modelning o'ziga xos xususiyatlari, tarkibi haqida ma'lumot beriladi. Individual blok, yo'naltirilgan blok, yozish bloki va so'zlar bilan ishlash bloklarining mazmun-mohiyati, mazkur bloklarning bir-biri bilan bog'liqligi izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'qish, yozish, to'rt blokli model.

**Abstract.** This article discusses the experience of Turkey in teaching reading and writing, which is the main goal in the process of primary education. In this place, the application of the four-block model of reading and writing, which is used in the world in the primary education system, in Turkey, the specific features and content of this model will be provided. The content of the individual block, the directed block, the writing block, and the word processing blocks, as well as the interrelationship between these blocks, are explained.

**Key words:** primary education, reading, writing, four-block model.

Tilni rivojlantirishda, tilning mavjud potentsial darajasiga erishish uchun tilni qo'llashni rag'batlantirish; oilaning bolalar bilan gaplashishi, bolalarning o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini baham ko'rishi, bolalarni diqqat bilan tinglanishi, so'z boyligini oshirishga hissa qo'shishi, oilaning farzandlari bilan sifatli va turli vaqt o'tkazishi va muloqot qilish kabi tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Dastlabki yillarda bola tilning og'zaki element va unsurlarini beixtiyor ishlatgan bo'lsa, maktab yoshiga kelganda yozuv elementlarini ataylab maxsus ishlata bilishni o'rganish birinchi o'ringa chiqadi. Til ko'nikmalarini keyingi yillarda yetarli potentsialiga yetkazish jarayoni, agar bolalar til bo'yicha mutaxassis bo'lgan o'qituvchi yoki kattalar tomonidan maxsus o'rgatilsa, qo'llab-quvvatlansa va boshqarilsa, dastak (scaffolding) debataladi (Gunning, 2003). Hayot davomida o'rganishni qo'llab-quvvatlaydigan asosiy ko'nikmalardan biri bo'lgan shaxslarning o'qish va yozish qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun tilga oid og'zaki elementlardan foydalangan holda yozma narsalarni ma'no qilish jarayonibirlamchi o'qish va yozishni o'rganishdir.

Boshlang'ich o'qish va yozishning mohiyatini tushunish uchun til rivojlanishi jarayonini rivojlanish xususiyatlari yordamida tekshirish kerak. Tug'ilgan paytdan boshlab besh yoshgacha bo'lgan bolaning shaxsiy idroki va ijtimoiy o'zaro ta'siri bilan rivojlanadigan til ko'nikmalari **rivojlanuvchi savodxonlik** tushunchasi (emergent literacy) bilan izohlanadi (Gunning, 2003; Cunningham, Moore, Cunningham va Mur, 2004). Til rivojlanishi darajasi juda tez bo'lgan bu bosqichda savodxonlikni idrok etish, kitob va o'qishga qiziqish, o'qishga taqlid qilish, oddiy so'zlarni idrok etish, fonologik ong kabi ko'nikmalar rivojlanadi (Tompkins, 2006). Bolalar bu yoshda sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatolmagani uchun ular fantastik matnlarga qiziqishadi va qofiyali so'zlardan zavqlanishadi (Gunning, 2003; Tompkins, 2006).

Rivojlanayotgan savodxonlik bosqichidan keyin erta savodxonlik bosqichi keladi va maktabgacha va birinchi sinfni qamrab oladi. Ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyati alifbo tamoyilini o'zlashtirishdir. "Alifbo tamoyili –tovushlarni harflar bilan ifodalanishi, shu tarzda so'zlarning o'qilishi, harflar ifodalovchi tovushlarning talaffuz qilinishi va tovushlarni ifodalovchi harflar tomonidan tuzilgan so'zlarning hijjalani o'qilishini qamrab oladi" (Gunning, 2003, 12-bet). Boshlang'ich o'qish va yozishni o'rgatish jarayoniga to'g'ri keladigan ushbu bosqichda bolalarga "butundan qismga", "qismdan butungacha" yoki ikkalasini ham o'zichiga olgan usul yordamida o'qish va yozish o'rgatiladi. Bu usullar o'qish va yozishni o'rgatishning boshlang'ich usullarining manbai hisoblanadi.

Butundan qismga yondoshgan holda o'qish va yozishni o'rgatish tahlil usuliga asoslanadi. Ushbu usulda "birlamchi o'qish-yozishni o'rgatish bolaning kundalik tilidan o'quvchilar tushunadigan qisqa jumlar bilan boshlanadi va bu jumlar vaqt o'tishi bilan

soʻzlarga va soʻzlarga boʻgʻinlarga boʻlinadi” (Tok, Tok va Mazi, 2008 : 124). Boʻgʻinlarni tashkil etuvchi tovushlar oʻquvchi tomonidan idrok etilishi uchun yasaladi. Ushbu dekodlashlardan soʻng tovush va boʻgʻinlardan yangi soʻzlar olinadi va soʻzlardan yangi jummalarga erishiladi. Jarayonga nazar tashlaydigan boʻlsak, bu usul savodxonlikka erishish uchun uzoq vaqt talab etadi. Ushbu usulning teskarisi sifatida koʻrilgan va qismdan butunga oʻtish tamoyiliga asoslangan sintez usuli oʻqish va yozishning boshlanishini eng kichik yozuv birligi harf va tovush bilan ifodalaydi (Karadağ va Gultekin, 2007; Koch, 2012). Usulda tovush yoki harflarga asoslangan holda boʻgʻinlar, soʻzlar va jumlar qurishga erishish juda muhimdir. Bu usul tez va tushunarli oʻqish va aniq yozish qobiliyatini yaxshilash nuqtai nazaridan kamchiliklarga ega (Akman & Aşkin, 2012; Koch, 2012).

Ikki usul birgalikda qoʻllaniladigan aralash usul “sintetik usulning kamchiliklarini oldini olish va tahlil usulini qoʻllashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun amaliyotda asosan oʻqituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan oraliq oʻqitish usuli hisoblanadi” (Çelenk, 2003 : 47).

Qayd etilgan bu usullarning Turkiyada oʻqish va yozishni oʻrgatishda oʻzini namoyon qiladi. 1920-yildan avval faqat alifboni oʻqitishga asoslangan boshlangʻich taʼlimda nomlash usuli ishlatila boshlangan va keyin imlo usuli qoʻllanilgan (Binbaşiođlu, 1999). Harf nomlari talaffuz qilingandan keyin soʻzning oʻqilishini ifodalovchi nomlash usuli oʻrniga harf tovushiga eʼtibor qaratiladigan boʻgʻin usuliga oʻtildi. Ikkinchi Konstitutsiyaviy davrda hijjalash usuliga javoban tovush usuli paydo boʻldi (Engin va Uygʻun, 2011). Bu davrda Kazim Nami Duruning deshifrlash va sintetik usul oid ishida soʻz oʻrgatish taʼkidlangan (Binbaşiođlu, 1999). Respublika davrida boshlangʻich sinf dasturlari turli yillarda yangilanib, bu dasturlarda savod oʻrgatishda qoʻllanilishi kerak boʻlgan usullar taklif qilingan. 1924-yil dasturida tovush yoki soʻz usulini qoʻllash oʻqituvchining ixtiyoriga qoʻyilgan boʻlsa, 1926-yil dasturida ikki usul birgalikda qoʻllaniladigan aralash usul va soʻz usuli qoʻllanilishi belgilangan (Binbaşiođli, 1999; Engin va Uyğun, 2011; Akman ve Aşkin, 2012). 1936- yil oʻquv dasturida gap usulidan foydalanishga alohida urgʻu berilgan boʻlsa, 1948-, 1964- va 1981-yillar dasturlarida oʻqish va yozishni oʻrgatishda tahlil usuli muhim ahamiyatga ega ekanligi taʼkidlandi. 2004-yilda nashr etilgan va 2015-yilda qayta tartibga solingan Turkiya oʻquv dasturida tovushga asoslangan jumla usuli boshlangʻich oʻqish va yozishni oʻrgatishda qoʻllaniladigan usul sifatida belgilangan (MEV, 2004; MEV, 2015). yangi dasturning tahrir qilinmagan versiyasi 2018-2019- oʻquv yili oxirigacha qoʻllanildi. Tahrirdan oʻtgan Dastur 2016-2017-oʻquv yilidan boshlab qoʻllanila boshlandi.

Oʻqish va yozishni oʻrgatishda qoʻllaniladigan usullar nafaqat Turkiyadagi oʻqish va yozishni oʻrgatishning tarixiy jarayonida, balki turli mamlakatlarning oʻquv dasturlarida ham aks etganini koʻrishimiz mumkin. Xalqaro talabalarni baholash dasturida (PISA/ XTBD) oʻqish boʻyicha yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarning oʻqish va yozishni oʻrgatish boʻyicha yondashuvlari koʻrib chiqiladigan boʻlsa, avvalo Singapurga eʼtibor qaratish kerak. 2015-yildagi PISA maʼlumotlariga koʻra, kitobxonlik sohasida eng muvaffaqiyatli mamlakat Singapur boʻlgan(OECD, 2016). Mamlakatda rasmiy til ingliz tili boʻlsa-da, xitoy va malay tillari kabi ona tillari ham oʻqitiladi. Ingliz tili oʻquv dasturida oʻqishni oʻrganish oʻziga xos soha sifatida koʻrib chiqilib, tahlil va sintez usullarini birgalikda qoʻllash mumkinligi, barcha taʼlim yoʻnalishlari muvozanatli va interaktiv tarzda birga amalga oshirilishii, maʼnoga yoʻnaltirilgan oʻqishni oʻrgatish taʼkidlanadi va qoʻllab-quvvatlanadi (MOE, 2010). PISAda yuqori natijalarga erishgan davlatlardan yana biri Finlyandiyadir. Birinchi sinfda oʻqish va yozishni oʻrgatishda soʻzni aniqlash, ogʻzaki tildan soʻz, soʻzdan boʻgʻin va boʻgʻindan tovushga oʻtish kabi koʻnikmalar kiritilgan (FNBE, 2004). Mamlakatda oʻqish va yozishni oʻqitishda tahlil usuli keng qoʻllaniladi.

Amerika Qoʻshma Shtatlari [AQSh] bu masalada Singapur yoki Finlyandiya kabi muvaffaqiyatli boʻlmasa-da, PISA/ XTBD boʻyicha oʻqish sohasida oʻn sakkizinchi oʻrinni egallashga muvaffaq boʻldi. Mamlakatda oʻqish va yozishni oʻrgatish boʻyicha turli metodlar tatbiq qilinib, muvaffaqiyatli natijalarga erishildi. Ulardan biri xavf ostida boʻlgan bolalarni himoya qilish va erta aralashuvni taʼminlash maqsadida yaratilgan “Hamma uchun



muvaffaqiyat" dasturidir. Dasturni yaratishga sabab bo'lgan g'oya, xavf ostida bo'lgan o'quvchilarning boshlang'ich maktab yillarini muvaffaqiyatli o'tkazishi va o'quvchilarning yaxshi maktab hayoti uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash uchun samarali o'qitish uchun barcha ma'lum usullardan foydalanishdir (Madden, Slavin, Karweit, Dolan, Vasik, 1991). Dasturning maqsadi o'quvchilarni uchinchi sinfgacha bo'lgan o'qish darajasiga yetkazishdir. Dasturni amalga oshirish uchun nafaqat o'qituvchilar, balki dastur sohasida ixtisoslashgan koordinator, soha o'qituvchilar va oilani qo'llab-quvvatlash guruhi birgalikda ishlashi va maxsus o'qish dasturi va o'lchov vositalaridan foydalanishi kerak.

AQShda qo'llaniladigan yana bir usul – bu, to'rt blok usulidir. To'rt blok - bu 1990-yilda universitet professor-o'qituvchisi bilan hamkorlikda ishlagan maktab o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarning o'zlari yoki ularning tengdoshlari tomonidan "ular o'qiy olmaydi" degan qarashlarini bartaraf etish uchun ilgari surilgan usul (Cunningham, Hall, Sigmon, 1999). Bu usulga ko'ra har bir o'quvchining individual farqlarini hisobga olgan holda o'rganishi mumkinligi ta'kidlanadi. Individual farqlarni hisobga olgan holda, guruhning o'qitish va o'qitish malaka va tajribalari qay darajada ekanidan qat'i nazar, hamma uchun yoqadigan tarzda tashkil etiladi. Bu usulni yaratishda ko'plab yondashuvlar diqqatga olingan.

To'rt blok usuli ilgari surilayotganda o'qituvchi nazorati ostida asosiy o'qish usuli, tovush-harf munosabatini o'rgatuvchi tovushli yondashuv, o'quvchilarning kitoblar bilan chambarchas bog'langan adabiy yondashuv usuli va yozish faoliyatini o'z ichiga oladi (Cunningham, Hall, Defee, 1991). Ushbu yondashuvlarning in'ikosi sifatida o'qish va yozishni o'rgatishda qo'llaniladigan to'rt xil qismdan (blok) iborat usul ishlab chiqilgan.

**Shaxsiy o'qish bloki** o'quvchining o'zi xohlagan kitob yoki matnni tanlash orqali o'qishini o'z ichiga oladi (Popplewell, Doty, 2001). Bu qismda har qanday matn, avvalo, o'qituvchi tomonidan ovoz chiqarib o'qiladi. Bu yerda ovoz chiqarib o'qish samarali o'qishusuli sifatida katta ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarni umri davomida o'qiydigan shaxslarbo'lishga undaydigan qismdir (Cunningham, Hall, Sigmon, 1999). O'qituvchi ovoz chiqarib o'qib bo'lgach, o'quvchilardan kitob tanlashlari so'raladi. O'qish va yozishni o'rgatishda rasmi katta kitoblardan foydalanish mumkin. Barcha o'quvchilar o'zlari tanlagan kitoblarini o'qiyotganlarida, o'qituvchi ularning oldiga borib, o'qishlarini tinglaydi va qayd qiladi. Ushbu bo'lim oxirida o'qiganlari yoki kitob haqida o'ylaganlari bilan o'rtoqlashmoqchi bo'lgan o'quvchilarga imkoniyat beriladi.

Yana bir blok - **yo'naltirilgan o'qish bloki**. Ushbu blokning maqsadi o'quvchilarga tushunish strategiyalarini o'rgatishdir. Shaxsiy o'qishdan farqli o'laroq, o'qituvchi tomonidan tanlangan matn o'qiladi va ba'zi vazifalar amalga oshiriladi. O'qiladigan matnni tanlashda o'qituvchi o'quvchilarning darajasidan yuqori bo'lishga e'tibor beradi (Cunningham, Hall, Sigmon, 1999). Noma'lum so'zlar ishtirokidagi asar tanlashga alohida e'tibor beriladi. Matnni o'qituvchi o'qiyotganda, o'quvchilarni kuzatib boradi. Noma'lum so'zlar o'rganiladi va o'quvchilarga matnni alohida yoki juft bo'lib o'qish taklif etiladi. O'qishdan so'ng savol-javob mashqlari o'tkaziladi.

O'qish bloklaridan tashqari, yozish bloki ham mavjud. Ushbu blokning maqsadi matnning qanday yozilishini modellashtirishdir (Popplewell, Doty, 2001). Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil yozish ko'nikmalarining shakllanishi va ularning bu boradagi muvaffaqiyati kuzatiladi. Eng avvalo, matnni o'qituvchi yozadi. Talabalarning mustaqil yozishlari ma'lum bir jarayonga asoslangan yozish modelidagi bosqichlar kabi boshqariladi.

**Yozish bloki** - bu o'qituvchi tomonidan qanday yozish modellashtiriladigan va shu bilan birga yozish malakasi turli darajadagi o'quvchilarning individual ravishda ishlashlari va yozganlarini do'stlari bilan baham ko'rishlarini rejalashtirgan bo'limdir. Yozishni modellashtirish savodxonlikka erishishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan blokdir. Yozishni modellashtirishda o'qituvchi ayniqsa "devordagi so'zlar"dan foydalanadi. Bu o'rinda so'z devoridagi so'zlar ishtirokida yoki ixtiyoriy so'zlar ishtirokida yozish vazifa topshiriladi.

Xususan, ishni rasm va matnlar jamlanmasidan foydalanishdan boshlash mumkin. O'quvchilar o'qish va yozishni bilmay turib, o'z fikrlarini ifoda etishlarini ta'minlash uchun

o'qituvchi o'zi aytmoqchi bo'lgan narsani tasvir va ba'zi so'zlarni ifodalagan holda og'zaki tushuntiradi. Shundan so'ng u o'quvchilarga chizish va yozish uchun ish varaqlarini tayyorlaydi. O'quvchilar yozadigan birinchi matnlar ularning mushuklari va ularning yaqin atrofi haqida bo'lishi mumkin. Bunda o'qituvchi qilish kerak bo'lgan vazifa o'quvchilarni yozishga undashdir. So'z devoridagi so'zlar vaqt o'tishi bilan ko'payib borar ekan, o'qituvchi faol yozishni modellashtirish qismida quyidagi masalalarni hal qilish kerak: mavzu tanlash, so'zlarning to'g'ri yozilishi, imlo-tinish belgilari-grammatikasi, yozish turlari, tahrirlash. Ko'p mavzulardan (tug'ilgan kun, do'stlar, hayvonlar, o'qituvchi, velosiped, uy, o'yin va boshqalar) birini tanlash uchun ko'rgazmali materiallardan foydalanish mumkin. O'quvchilar tomonidan taklif qilingan mavzular ham ushbu doskaga kiritilishi mumkin.

Yozish bir jarayon bo'lgani uchun o'quvchilarni faqat yozishga emas, yozma nutqini boyitishga undash kerak. Har bir yozilgan matn har kuni o'qituvchi tomonidan muntazam ravishda ko'rib chiqilishi va o'quvchilarning yozish malakasi uchun nima yetishmayotganini e'tiborga olish kerak (Cunningham, Hall, Sigmon, 1999). So'zlarni yozishda ma'lumdan noma'lumga ilgarilash zarur, bir so'z o'rniga yozilishi mumkin bo'lgan boshqa so'zlarni ham hisobga olish lozim. Imlo, tinish belgilari va grammatika o'quv dasturi nuqtayi nazaridan rioya qilinishini ham unutmaslik lozim. Bundan tashqari, yozma shaklda o'rganish kerak bo'lgan elementlar ro'yxatga olinishi zarur. Masalan, ro'yxat quyidagicha bo'lishi mumkin: isimlar va sanalarni yozish, mantiqiy gaplar tuzish, tinish belgilarini o'z o'rnida qo'llash, bosh harfdan boshlanuvchi atoqli otlar, to'g'ri yozilganligiga ishonchi komil bo'lmagan so'zlarni aylana ichiga olish, sarlavha tanlash, va mavzudan chetga chiqmasdan yozish (Cunningham, Hall, Sigmon, 1999).

Yo'naltirilgan yozish yozish blokining tarkibiy qismidir. Yo'naltirilgan yozish, ayniqsa, savodxonlikka erishgandan so'ng, diqqat qaratiladigan bo'limdir. Ushbu bo'limda ma'lum turdagi yozuvlar ustida ishlash juda muhimdir. Buning uchun yozuvni modellashtirish bo'limidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Yo'naltirilgan yozish o'qituvchining yozishni modellashtirishidan boshlanadi, yozish turi sinf tomonidan belgilanadi va bu tur bo'yicha izlanishlar olib boriladi. Hikoyalar, xatlar va ma'lumot beruvchi matnlar bu borada ko'p ishlatiladi (Cunningham, Hall, Sigmon, 1999). Ishlanadigan yozuv turi aniqlangandan so'ng, o'quvchilarga nima haqida yozishlari va matn qanday tafsilotlarni o'z ichiga olishi haqida fikr yuritishlari ta'minlanadi. Bu jarayondan so'ng, zarur bo'lganda, yozishlari mumkin bo'lgan ma'lumotlar cheklanadi. Agar ular yozgan janrga ko'ra ma'lumot to'plashlari kerak bo'lgan holatlar mavjud bo'lsa, ular turli kitoblarga murojaat qiladilar. Shundan so'ng ular birinchi qoralama matnни yozadilar. Keyin o'quvchilar bu matnlarni sinfda baham ko'rishadi va do'stlaridan izoh olish orqali kerakli joylarni tuzatadilar. O'quvchilar o'z o'zgartirishlarini kiritgandan so'ng, uni qo'l yozuvi bilan ko'chiradilar.

So'nggi blok **so'zlar bilan ishlash blok**idir. Bu yerda maqsad so'zlarni tezda tanib olish uchun o'qish va yozishni mashq qilishdir. Har hafta talabalarga beshta yangi so'z o'rgatiladi va sinfdagi "so'z devori"ga qo'shiladi (Cunningham, Hall, Defee, 1991). Bu so'zlarga tegishli qofiyali so'zlarni topish, so'z boshqotirmasi kabi turli ishlar bajariladi.

So'zlar bilan ishlash bloki chet elda amaliyotga tatbiq etilsa-da, o'qituvchi so'z devoriga qo'shish uchun har hafta beshta so'z berishi kerak. Biroq turkcha savodxonlikni o'rgatishda tovush guruhlarini asos qilib olinganligi sababli, bu tovush turkumlaridan yasalishi kerak bo'lgan so'zlar ko'pligi ko'rinib turibdi. Shu sababli so'z bilan ishlash qismini moslashtirishda to'rt kun davomida turli miqdordagi so'zlarni berib, beshinchi kuni barcha so'zlar bilan ishlash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Shunday holda savodxonlikka erishish tezroq bo'ladi. Ushbu blokni moslashtirishda 1-sinf turk tili darsi o'qituvchilari uchun qo'llanmadagi yillik rejaasos qilib olindi (Sidekli, Bala, 2016). Qo'llanmaga ko'ra, barcha tovush guruhlarini qayta ishlash va savodxonlikka erishish birinchi semestrda yakunlanishi kerak va bu muddat o'n olti haftadir. Bu davr tovush guruhlariga ko'ra ajratilgan, birinchi va oxirgi tovush guruhlarini ikki haftada, qolgan tovush guruhlarini esa uch haftada o'qitish rejalashtirilgan. Birinchi tovush guruhiga kirish mumkin bo'lgan so'zlar soni cheklanganligi sababli, haftada o'nta so'z

o'rganishga erishish maqsad qilingan. Boshqa tovush guruhlarida haftada yigirma so'zdan iborat namunali ro'yxat berilgan. Tovush guruhlarining yarmiga ishlov berilganda, ya'ni 3- tovush guruhidan keyin o'qituvchi o'quvchilarning vaziyati va ehtiyojlariga qarab turli so'zlar bilan ishlay oladi.

So'z devorida ro'yxat sifatida qo'shilgan so'zlar bilan bajarilishi kerak bo'lgan topshiriqlarga quyidagilarni qamrab oladi. So'z devoriga qo'shilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish yo'li bilan o'qish (qarsak chalib, marom bilan aytish mumkin), avvalgi kunlarda qo'shilgan so'zlarni esa har kuni takrorlash kerak. Bu blokda harf shakllari ham o'rganiladi. So'z devorining maqsadi so'zlarning ma'nolarini o'rganish va ularni tezda tanib olish imkonini berishdir. Bu qismda qofiyali so'zlar bilan ishlash mumkin. Masalan, berilgan so'zlar bilan qofiyalangan ayrim so'zlar tanlab olinadi va gapda qo'llangan yozma shaklda o'quvchilarga beriladi. O'quvchilar qo'llarida so'zlar bilan gaplardagi olmosh so'zlarni topadilar. So'z devoridagi so'zlardan biriga qofiyalanganlar topiladi. Faqat bitta so'z bilan qofiyalangan ko'plab so'zlarni topish va moslashtirishga harakat qilish mumkin. Bularidan tashqari bir xil tovush bilan boshlangan so'zlarni ham farqlash mumkin.

So'z devori bo'yicha tez-tez ishlatiladigan tadqiqot ongli o'qishdir (Cunningham, Hall, Sigmon, 1999). O'qituvchi doskaga beshta so'z yozadi. Ulardan birini yodda tutadi va ushbu so'z bilan bog'liq beshta yo'naltiruvchi ma'noli gap tuzadi. Beshta gap so'zga imo qiladigan tushunchalarni o'z ichiga olishi kerak. Bunday gaplardan biri "doskada yozilgan so'zlardan biri" bo'lishi kerak. U o'quvchilarga ushbu yo'naltiruvchi ma'noli gapni aytadi va ulardan qaysi so'zni xayolda tutganini aniqlashni so'raydi. Masalan, chechak so'zini o'qituvchi hayolda tutadi. Bir so'z, beshta harf, unda ikkita ch harfi bor, bitta e harfi bor va "juda yoqimli hid taratadi/chiqaradi".

To'rt blokli model usuli bu o'qish, yozish va tinglash mutanosiblashtirilgan tarzda amalga oshiriladigan usul. So'zlarni o'rganish uchun ajratilgan maxsus blok o'qishni o'rgatishda qo'shgan hissasi bilan ham diqqatga sazovordir. Ma'lumki, lug'at boyligining kattaligi tushuncha va fikrlarni shakllantirishda jiddiy o'rin egallashi bilan birga, tushunish va ravon o'qishni ham ta'minlaydi (Gunning, 2003; Güneş, 2007). Turkiyada qayta ko'rib chiqilgan Turk tilining o'quv dasturiga nazar tashlasak, so'z boyligini o'rganish bilan bog'liq o'zlashtirishlar har bir sinf kesimida amalga oshirilgani ko'rinadi. Masalan, og'zaki muloqotni o'rganish sohasida so'zlarning to'g'ri talaffuziga urg'u berilsa, o'qishni o'rganish sohasida savoldan keyin, so'z xaritasi, so'z devori, so'z kartalari kabi vositalar bilan noma'lum so'zlarning ma'nosini o'rganish bo'yicha ishlashga urg'u beriladi. (MEV, 2015).

Turkiyada o'qish va yozishni o'rgatish haqida gap ketganda, tahlil va sintez usullari o'rtasida taraddut borligi ko'rinadi. Hozirgi vaqtda ham tovushga asoslangan jumla qurish usuli orqali o'qish va yozishni o'rgatgan turk til o'quv dasturidagi so'z urg'usi; xorijda qo'llanilayotgan, Turkiyada boshlang'ich o'qish va yozishni o'rgatishda so'z o'rgatishga tayangan to'rt blokli usulni moslashish mumkinmi, degan munozaralarni o'rta chiqardi.

To'rt blokli model taklifi ilgari surilishidan oldin bir qator tayyorgarlik ishlari olib borilgan. Avvalo, to'rtta blok uchun nima talab qilinayotgani talablar o'rganilgan va Turkiyada qo'llanilayotgan Turk tili o'quv dasturi va turli darsliklar o'rganilgan. Modelning shaxsiy va yo'naltirilgan o'qish bloklari uchun bolalarning turli adabiy asarlari ro'yxati va bajarilishi kerak bo'lgan tegishli topshiriqlar, so'zlar bilan ishlash va yozish uchun so'zlar ro'yxati va bu so'zlar bilan bajarilishi mumkin bo'lgan mashqlar taklif qilingan.

So'z takliflari uchun Turk tili o'quv dasturidagi tovush guruhleri va tovush guruhlarini o'rgatish oylari kuzatilgan. Birinchi sinflarda o'qitiladigan "O'qish va yozishni o'rganyapman", "Turk tili", "Hayotshunoslik", "Matematika" kitoblaridagi barcha so'zlar va ularning chastotalari yillik rejalarda oylar bo'yicha sanab o'tilgan. Bu harflaridan tashkil topgan so'zlar hamda kitoblardagi so'zlar birgalikda baholanib, oylar bo'yicha eng mos so'zlar aniqlandi. Tavsiya etilgan bolalar adabiyoti asarlarida ham tovush guruhleri asos qilib olingan.

To'rt blokli model o'qish, yozish, tinglash, gapirish va so'z boyligini yaxlit tarzda o'zlashtirish kabi barcha sohalarni qamrab oladi. So'zni o'rgatish uchun ajratilgan blok - so'zni

tez tanib olish, soʻzlar orasidagi tovushlarning oʻxshashligini aniqlash, tovush oʻxshashligi va farqlari orqali soʻz maʼnosini oʻzgartirishi, soʻz maʼnosining chuqurligi (soʻzning turli xil maʼnolari), maʼno kengligi (soʻzlardagi qoʻshimcha maʼnolarni bilish), turli sohalarga oid soʻzlarni bilish kabi masalalar bilan shugʻullanadi. Shu tariqa maʼnoli birlik boʻlgan soʻzga asoslanib, mazmunli oʻqish va yozishga bevosita hissa qoʻshiladi.

Toʻrt blokli model usulining shaxsiy va yoʻnaltirilgan oʻqish bloklari oʻqishni modellashtirishga, kitoblarni ravon oʻqishni taʼminlaydigan chastotada oʻqishga, tushunish strategiyalarini ishlab chiqishga va bir vaqtning oʻzida soʻz boyligini kengaytirishga qaratiladi. Oʻqilgan kitoblarni tinglash va kitob haqidagi fikrlarni baham koʻrish singari tinglash va gapirishning ikkita asosiy sohasini qoʻllab-quvvatlaydi. Matnlar his-tuygʻular va fikrlar qanday ifoda etilganligini ochib berganligi sababli, oʻqishdan oldingi va keyingi mashqlar ularni tushunish strategiyalarini ishlab chiqadi va natijada oʻquvchilar oʻqiganlarini yanada samaraliroq anglaydilar.

Yozma matnlarni tekshirish va bu imtihon natijalaridan foydalanib yozishni oʻrgatish katta boylikdir. Xuddi oʻqish qismida boʻlgani kabi yozuv qismida ham oʻqituvchining modellashtirishdan soʻng oʻrganilgan soʻzlar va yozma ifoda koʻnikmalarini oshiruvchi tarzda olib boriladigan yoʻnaltirilgan yozish faoliyati barcha olingan bilimlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, oʻqishga va yozishga oʻrgatishda bir-biriga bogʻliq boʻlgan va bir-birini qoʻllab-quvvatlaydigan toʻrt blokli model usuli muhim ahamiyatga ega, chunki u oʻquvchilarni tushunish bilan bogʻliq muammolarini bartaraf etish choralari oʻz ichiga oladi.

Ravon va mazmunli oʻqishni taʼminlaydigan, matnlar bilan oʻzaro bogʻlangan holda oʻqish, tinglash va gapirishni qoʻllab-quvvatlaydigan shaxsiy oʻqish bloki, tushunish strategiyasini oʻrgatish imkoniyatini beradigan yoʻnaltirilgan oʻqish bloki va yozish boʻlimi, oʻz fikrini ogʻzaki va yozma ravishda ifodalash qobiliyatini oshiradigan soʻz bilan ishlash bloki oʻquvchilarni oʻquv maqsadga qisqa muddatda yaqinlashtiradi. Shunday ekan, "toʻrt blokli model" usulidan maktab oʻqituvchilari savod oʻrgatishda kelajakka sarmoya sifatida foydalanmoqda, desak xato boʻlmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Akman, E., Aşkın I. Ses Temelli Cümle Yöntemine Eleştirel Bir Bakış// Gazi üniversitesi Gazi Eğitim Fakültesi Dergisi. -2012. -№ 32(1). –S. 1-18.
2. Binbaşoğlu, C. İlkokuma ve yazma öğretiminin ve alfabe kitaplarının tarihsel gelişimi// Eğitim ve Bilim. - 1999. -№ 14(114). –S. 8-34.
3. Çelenk S. İlkokuma-yazma programi ve öğretimi. -Ankara: Aru Yayın, 2003.
4. Cunningham P. M., Hall D. P., Defee M. Non-ability-grouped, multilevel instruction: A year in a first - grade classroom// The Reading Teacher. -№ 44(8) . -1991. –S. 566-571.
5. Cunningham P. M., Hall, D. P., Sigmon C. M. The teacher's guide to the four Blocks. - North Carolina: Carson-Dellosa Publishing House, 1999.
6. Cunningham P. M., Moore S. A., Cunningham J. W., & Moore D. W. Reading and writing in elementary classrooms: Research Based instruction. -Boston: Pearson Education, Inc, 2004.
7. Engin G.,Uygun, S. Osmanlı'dan günümüze okuma yazma öğretimi// Firat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. - 2011. -№ 21(1) . –S. 197-216.
8. FNBE (Finnish National Board of Education) National core curriculum 2004-Learning objectives and core contents of education. 2004.
9. Güneş F. Ses temelli cümle yöntemi ve zihinde yapılandırma. -Ankara: Nobel Yayın Dağıtım, 2007.
10. Gunning T. G. Creating literacy instruction for all children. -Boston: Allyn and Bacon, 2003.
11. Karadağ R., Gültekin M. İlkokuma ve yazma öğretiminde çözümleme ve Bireşim yöntemlerinin etkililiğine ilişkin öğretmen görüşleri// Eğitimde Kurum ve Uygulama. -2007. -№ 3(1) . –S. 102-121.

- 12.Koç R. Okuma yazma öğretimi yöntemleri ve ses temelli cümle yönteminin uygulaması// International Periodical for The Languages, Literature and History of Turkish or Türkle. - 2012. -№ 7(4) . -S. 2259-2268.
- 13.Madden N. A., Slavin R. E., Karweit, N. L., Dolarl L., Wasik, B. A. Success for all. Baltimore: Center for Research on Effective Schooling for Disadvantaged Students. 1991.
- 14.OECD (Organisation for Economic co-operation and Development). Pisa 2015 results in focus. 2016.
- 15.Popplewell S. R., Doty D. E. Classroom instruction and reading comprehension: A comparison of one basal reader approach and the four-blocks framework// Reading Psychology. - 2001. -№ 22(2) . -S. 83-94.
- 16.Sidekli S. Bala E. İlkokul öğretmen klavuz kitabı. Türkçe 1. sınıf Türkiye: MEB Devlet Kitapları, 2016.
- 17.Tok Ş., Tok T. N., Mazı A. İlkokuma yazma öğretiminde çözümlenme ve ses temelli cümle yöntemlerinin değerlendirilmesi//Kurum ve Uygulamada Eğitim Yöntemi. -2008. -№ 53. -S. 123-144.
- 18.Tompkins G. E. Literacy for 21st century: A Balanced Approach. -New Jersey: Pearson, 2006.
- 19.MEB (Millî Eğitim Bakanl'ğ'). Türkçe dersi (1-5. sınıflar) öğretim programı: 2004
- 20.MEB (Millî Eğitim Bakanlığı). Türkçe dersi (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 ve 8. sınıflar) öğretim programı: 2015
- 21.MOES (Ministry of Education Singapore). English language Syllabus 2010.

## **BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY VA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**S.B. Abdullayeva**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligi, kasbiy faoliyatiga daxldor qarashlar, kasbiy va shaxsiy tayyorgarligini shakllantirish muammolari, ularni bartaraf etish tizimi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilish faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, metodik tayyorgarlik, ta‘lim sifati, xalqaro tajriba, ijodiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, zamonaviy yondashuv, innovatsion jarayon, pedagogik mahorat.

Jahonda zamon talablariga mos metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan pedagogik kadrlarni tayyorlash, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish modellarini, metodik tizimi, multimediali elektron resurslar yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda “ta‘lim sifati baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish” ga zarurat borligi qayd etilmoqda. Bugungi kunning zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi – nafaqat sohasi bo‘yicha bilimli, balki, birinchi o‘rinda tashabbuskor bo‘lishi lozim. Ayniqsa bugungi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kuchli nazariy bilimga ega, yangilikka intiluvchan, o‘z g‘oyalarini amaliyotga tadbiiq eta oladigan, jahon tajribasiga qiziqadigan va yangi andozadagi o‘qitish tizimini ta‘limga olib kirishga qodir bo‘lishi lozim. Bu vazifalarni bajarishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining oladigan bilimlariga, auditoriya va mustaqil o‘zlashtirish faoliyatiga alohida e‘tibor berish kerak.

Aynan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilish faoliyatini o‘rganishga doir

qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan, N.U.Bikbayeva, A.Z.Igolovich, A.S.Litvenenko, G.M.Murtazin, M.N.Terexin, L.N.Tregurovalar - bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilish faoliyatini faollashtirishda o'rganilayotgan materialga iroda kuchi va hissiy munosabatni talab etuvchi o'quv jarayonini alohida tashkil etish sifatida tahlil etgan bo'lishsa, E.G.Mingazov, M.N.Skatkin, A.M.Umronxo'jayev, T.I.Shamova va boshqa qator olimlar muammoli ta'lim orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni bilish faoliyatini takomillashtirishda ta'lim jarayonini muammoli hal qilish haqidagi fikrlarni ilgari surgan. Ularning tahliliga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchida mustaqillik, ijodkorlik, faollikni emas, balki bilish jarayonini tashkil etishdan iborat.

N.M.Brujukova, G.Sh.Gaynutdinova, N.V.Maksimenko, R.Ibragimov, F.Qosimovlarning tadqiqot ishlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsida ijodiy elementlarni rivojlantirishga bag'ishlangan. Masalan, psixologik-pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida talabalarning ijodiy faoliyati, pedagogik ijod, pedagogik mahorat haqida fikr bildirishgan.

N.I. Ilyosov bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini o'rgangan.

O'qituvchining innovatsion ta'lim jarayonlariga tayyorgarligining ayrim sifat xususiyatlari M.M. Balashov va M.I. Lukyanovalar tahlil qilgan.

G.K. Chikunova innovatsion faoliyatni malaka oshirish jarayonida o'qituvchining ilmiy-tadqiqot faoliyatiga kasbiy va shaxsiy tayyorgarligini shakllantirish muammolarini o'rgangan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish muammosini M. Jumayev, bo'lajak o'quvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlashni O. Haydarova o'z ilmiy ishida o'rgangan.

N.V. Ammosova ta'kidlashicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini his qiladi:

- bugungi kun yangiliklariga tayyor bo'lishi;
- ilmiy dunyoqarashga ega;
- insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bo'lishi;
- ta'lim jarayoniga fakultativ mashqlarning yangi shakllarini kiritish olishi;
- ilmiy bilishning shakl va metodlarini hamda ularning evolyutsiyasini bilishi, tevarak olamni bilish va uni o'zlashtirishning turli metodlariga ega bo'lishi;
- jamiyat taraqqiyotida ilm-fan ahamiyatini tushunishi;
- axborotlarni qidirish, qayta ishlash va foydalanishning innovatsion metodlaridan xabardor, axborot oluvchi uchun ularni moslashtirish va sharhlash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ilm-fan taraqqiyoti va o'zgarib borayotgan ijtimoiy amaliyot sharoitida o'z nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqish, ishlashning innovatsion shakl va metodlarini tanlashga qodir bo'lishi;
- turli fanlararo bilim sohalarida ishlashga psixologik va metodik tayyorlangan bo'lishi;
- odam shaxsi rivojlanish davrida o'ziga xos davr sifatida bolalikning ahamiyatini his qilishi kerak.


Respublikamiz olimasi Raxmatova Feruza Abulqosimovna o'zining tadqiqot ishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilish faoliyatini takomillashtirishning asosiy 5 ta yo'nalishlarini izohlab ko'rsatgan. Bular:

- ta'lim mazmunining o'ziga xosligi;
- harakat tuzilishini aniqlash;
- o'quv masalalarini aniqlash;
- ta'limni tashkil etishning guruhiy, jamoa-taqsimot, shaklidan foydalanish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning tafakkurini takomillashtirish motivlarini, ularning xilma-xil turlarini hisobga olgan holda ochib berish.

Bizning fikrimizcha, ta'limda boshlang'ich sinf o'qituvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirishning asosiy 4 ta yo'nalishlarini tasniflash ta'lim jarayonini samarali tashkil



etilishini ta'minlashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish tizimi.

Mazkur 4 ta yo'nalishni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishga dasturamal bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, bugungi kun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda, har bir ta'lim mazmuniga doir materiallarning nazariy va amaliy bilimlarni modifikatsion usullar orqali zamonaviy yondashuvlar asosida ta'lim jarayoniga olib kirishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash» to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevral Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi, 22-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-sonli Qarori.
5. Аммосова Надежда Васильевна Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике. диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.02, доктор педагогических наук. 1991. 24

### BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA INDIVIDUAL TOPSHIRIQLARDA FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI VA "SOTUVCHI-TADBIRKOR-QURUVCHI" BAHOLASH METODI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

BuxDPI dotsenti, p.f.d. (DSc).

Fayziyeva Marjona Aminjonovna

BuxDPI II kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada individuallik topshiriq tushunchasi, individual topshiriq turlari va vazifalari, individual topshiriqlardan foydalanishning samaradorligi, "Sotuvchi-quruvchi-tadbirkor" baholash metodi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** individuallik, individual topshiriq, baholash, topshiriq, keys topshiriq, ta'lim,



samaradorlik, ishlab chiqish.

**Примечание:** В данной статье представлены идеи и мнения о понятии индивидуальных задач, видах и задачах индивидуальных задач, эффективности использования индивидуальных задач, методе оценки «Продавец-строитель-предприниматель».

**Ключевые слова:** индивидуальность, индивидуальное задание, оценка, задание, кейс-задание, воспитание, эффективность, развитие.

**Abstract:** This article contains thoughts and opinions about the concept of individual task, types and tasks of individual task, efficiency of using individual tasks, "Seller-builder-entrepreneur" evaluation method.

**Key words:** individuality, individual assignment, assessment, assignment, case assignment, education, efficiency, development.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari matematikadan turli darajadagi tayyorgarlikka ega, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda teng bo'lmagan yutuqlarga ega, matematikaga o'quv predmeti sifatida har xil qiziqish bildiradilar. Shuni inobatga olgan holda, o'qituvchi o'quvchilarning ushbu individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishi kerak.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev aytganlaridek, matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi va istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi. Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarakatdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish ekan, keling bu borada batafsilroq to'xtalsak. **Individuallik** (lot. individuum – bo'linmas) – bu ma'lum insonning, uning noyoblighi, betakrorligi nuqtayi nazaridan o'ziga xos bo'lgan ruhiy, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig'indisi. Individuallik – bu tushunchalar ichida mazmuniga ko'ra eng tor tushuncha hisoblanadi. U o'zida insonning boshqa odamlardan farq qiluvchi o'ziga xos va shaxsiy xossalari jamlaydi. Endi uni ta'lim bilan bog'laydigan bo'lsak, **individual ta'lim** - o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri. O'qituvchining o'quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boradigan faoliyati tushuniladi. Individual ta'lim ta'lim shakllarining eng qadimiysi bo'lib, u qadimgi davr va o'rta yerlarda keng qo'llanilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, individual ta'limga e'tibor sezilarli tarzda ortdi. Ayniqsa, kollej va oliy o'quv yurtlariga kirishning test tizimi joriy etilishi individual ta'limning repetitorlik shakli rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bugungi kunga qadar ham individual ta'limmetodi o'zining samaradorligini har

jihaddan namoyon etib kelmoqda. Endi ana shu individuallikni boshlang'ich sinf dars jarayonlarida yanada keng tatbiq qilib, ta'lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, jumladan, turli-tuman topshiriqlar ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Topshiriq bu kimsaning zimmasiga yuklatilgan ish, vazifa sanaladi. Topshiriq turlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bular:

- ❖ savol topshiriqlar;
- ❖ test topshiriqlar;
- ❖ didaktik o'yin topshiriqlari;
- ❖ krossvord topshiriqlar;
- ❖ keys topshiriqlar;
- ❖ rebus topshiriq kabilardir.

Individual topshiriq esa har bir shaxsga, yoki ma'lum bir tabaqalashgan guruhlariga alohida beriladigan vazifalar bo'lib, buni bajarishlari davomida esa individual topshiriqlarning quyidagi xususiyatlar va afzalliklari namoyon bo'ladi:

- ✓ Mustaqil ishlaydi;
- ✓ Tabaqalashtirish mumkin bo'ladi;
- ✓ Tahli qiladi o'zini va do'stini;
- ✓ Juftlikda ishlaydi;
- ✓ Vaqt tejaladi;

- ✓ Maqsadga aniq va tez erishiladi;
- ✓ Ko'rgazmalilik to'liq ta'minlanadi;
- ✓ Har bir o'quvchi baholanadi;
- ✓ Qo'shimcha topshiriqlar kiritiladi.

Individual topshiriqlarni tayyorlashda axborot texnologiyalaridan juda samarali va keng doirada foydalanish mumkin. Bu esa vaqt tejalishi bilan bir qatorda o'qituvchida topshiriqlar bazasini ham paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Individual topshiriqlar bilan ishlashda sinfni guruhlariga bo'lgan holda individual ish olib borishi talab etiladi. O'qituvchi sinfni guruhlariga bo'lishda ularni bilish imkoniyatlari, chaqqonligi, faolligi, qabul qila olish darajasi, psixologik xususiyatlari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda bir necha usullardan foydalanib guruhlariga ajratadi. Kelingki, bitta sinf uch xil darajadagi guruhlariga bo'lindi, o'qituvchi endi ularni darajasiga ko'ra topshiriqlar tayyorlaydi va o'quvchilarga taqdim qiladi. Masalan 1-sinfda 1dan 10 gacha bo'lgan sonlarning o'qilishi va yozilishi. 2 sonini o'tish jarayonida o'qituvchi har bir guruhning darajasiga qarab turli topshiriqlar tayyorlaydi. O'quvchi mustaqil o'zi individual topshiriqlarni bajaradi albatta, topshiriqlarning tuzilishi esa uni individualligidan kelib chiqqanligi sabab, u mavzuni qiynalmay tushunadi. Topshiriqlarni tayyorlashda bolaning yoshi hisobga olingan holda soddadan murakkabga qarab yo'nalgan bo'lishi, rang-baranglikka, iloji boricha qiziqarli qilib tayyorlanishiga katta ahamiyatga qaratish kerak. Ammo ilmiylikdan ajralmagan holda tayyorlash shart. Demak, bunday holda boshlang'ich sinf o'quvchisining diqqati uzoq muddat darsga o'yin tarzda jalb etiladi va dars o'z maqsadiga erishadi.

Individual topshiriq namunasiga e'tibor qaratamiz.

Bizga ma'lumki, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini nazorat qilish natijalari uni baholash orqali ifodalanadi. Baholash - bu biror narsaning darajasi yoki sifatini belgilashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham to'g'ri, samarali va adolatli baholash juda muhim mezon sanaladi. Agar biz baholashni ham qandaydir boshqacha zamonaviy didaktik o'yin metodlari orqali tashkil qila olsak, o'quvchining bilim olishga, faol bo'lishga turtki bo'lamiz. Bugun ana shunday qiziqarli didaktik baholash o'yinimiz "**Sotuvchi-tadbirkor-quruvchi**" metodiga e'tibor qaratamiz. Ushbu metodni albatta o'zimiz ishlab chiqdik va ta'lim jarayonida ham qo'llab samarali najjaga erishib kelmoqdamiz.

Ushbu metodning **maqsadi**: faollikni oshirish, iqtisodiy bilimni shakllantirish, tadbirkorlik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, kundalik hayotda matematik bilimni mustaqil va samarali qo'llashni tashkil etish, o'quvchida kreativ qobiliyatni rivojlantirgan holda xalqaro baholash dasturlariga tayyorlab borish.

**Kerakli jihozlar**: alohida qilib qirqib olingan g'isht, deraza, eshik tom qismi rasmi (uning orqa qismida matematik misol va topshiriqlar qo'ysa ham bo'ladi va har birining orqasiga magnit yopishtiramiz) yoki uning o'rnida legolardan, mozaika usulidagi binolardan ham foydalanish mumkin.

**Bajarilish tartibi**: Bunda dastlab baholash metodining sharti o'quvchiga tushuntiriladi. Ya'ni, dars davomida faol qatnashib, savol va topshiriqlarni to'g'ri bajargan o'quvchi "**Sotuvchi**" dan ya'ni o'qituvchidan bitta to'g'ri savolga bitta qurilish materiali (mozaika bo'lagi, bir dona lego bo'lishi ham mumkin) bilan rag'batlantiriladi va rag'bat olgan o'quvchilar "**Tadbirkorlar**" hisoblanadi. Umuman qatnasha olmagan o'quvchilar esa "**Quruvchilar**" bo'lib dars yakunida tadbirkorlar tomonidan quruvchilarga ish beriladi. Bunda quruvchilar tadbirkorlar tomonidan berilgan xom ashyolardan foydalanib qandaydir nom ostida bino qurishlari kerak bo'ladi. Masalan, "Yangi O'zbekiston" binosi, yoki o'zlari mustaqil nomlagan mozaikani yig'ishlari lozim, masalan "Buxoro ark" binosini qayta tiklash va hokazo. Quruvchi o'quvchilar guruhida kim binoni qanday nom ostida va qaysi usulda qurishni aytsa biz uni "**Arxitektor**" deb nomlaymiz. Mana shu tarzda o'quvchilar uchun baholash jarayonini qiziqarli jarayonga aylantirishimiz mumkin, hamda biz bunda ta'lim sifati yuqori deya baholanayotgan Finlandiya ta'limidek o'quvchilarga bir xil e'tibor qaratilib rag'batlantirishni amalga oshiramiz.

**Baholash tartibi**: Bunda butun sinf jamoasi baholanadi, tadbirkorlar yig'gan xomashyo soniga qarab, quruvchilar yasagan binolari va unga qanchalik kreativ yondasha olishiga qarab baholansa, arxitektor o'quvchiga nisbatan yaxshiroq baho qo'yiladi.

**Kutilgan natija**: Bunda o'quvchilarda kreativ fikrlash kompetensiyasi shakllanadi,

xalqaro baholash talablariga mos ravishda tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi, sinf jamoasida bir vaqtning o'zida butun sinf jamoasi baholanadi, barcha o'quvchilar qobiliyatidan qat'i nazar darsga qatnashadi, ta'lim faoliyati bilan hamohang tarzda o'yin faoliyati ham birgalikda amalga oshiriladi, o'quvchilarning bilim bo'yicha tabaqalanishida voz kechilib baholash amalga oshiriladi va bu o'quvchida o'ziga ishonch hissini shakllantiradi.

Xulosa qilib Pezidentimiz aytganlaridek, taqdirimiz muallimlar qo'lida ekan, albatta, bu ma'suliyatni his etgan holda, yangilikka intilib, o'z ustimizda tinimsiz mehnat qilib boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida "Yangi O'zbekiston" ning poydevorini yana ham mustahkam etmog'imiz biz pedagoglar, muallimlar qo'lidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi.
2. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok.diss... — Toshkent: TDPU, 2006. – 263 b.
3. Abdullayeva B.S., Saidova M.J., Dilova N.G. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. 2021, - 300 b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. — 160 b.
5. Saidova M.J. Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish: Ped. fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2020, 142 b.
6. Saidova M.J., Boshlang'ich sinflar uchun nazorat ishlar to'plami. Metodik qo'llanma. Toshkent, 2019, 233 b. Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
7. Saidova M.J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
8. Saidova M.J., Fayziyeva M.A. First Improving the quality of education through the use of individual assignments in classroom mathematics lessons. ISSN (E): 2795-7683. In volume 6. Of Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences March, 2022.
9. Fayziyeva M.A. Ta'limda turli topshiriqlardan foydalanishda didaktik imkoniyatlar va tamoyillar. "Pedagogs" jurnali 7-son 2022-yil
10. Bikbayeva N.U., Sidelnikova R. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - T: "O'qituvchi", – 1986.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA TA'LIMINING AMALDAGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR XUSUSIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Mamanazar Djumayev**

*TDPU professori, p.f.n*

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematikadan milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari haqida mulohazalar hamda Respublika ta'lim inspeksiyasi tomonidan milliy o'quv dasturi loyihasi muhokamasi haqida so'z yurutamiz.*

**Kalit so'zlar.** *Mulohaza, texnologiya, maqsad vazifa, o'quv dasturi, ta'lim standarti, boshlang'ich ta'lim, matematika, bilim va ko'nikma.*

**О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ МАТЕМАТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И СУЩЕСТВУЮЩИХ ПРОБЛЕМАХ**

*Маманазар Джумаев Профессор Ташкентского государственного педагогического университета имени Нисомии, кандидат педагогических наук*

*В этой статье мы обсуждаем научно-методические основы реализации национальной учебной программы по математике в начальной школе, а также обсуждение проекта национальной учебной программы Республиканской инспекцией образования.*

**Ключевые слова.** *обратная связь, технология, цели, учебная программа, образовательные стандарты, начальное образование, математика, знания и навыки.*

**ON THE CURRENT STATE OF MATHEMATICAL EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION AND EXISTING PROBLEMS**

*Mamanazar Dzhumaev Professor of the Tashkent State Pedagogical University named after Nisomii,*

*In this article, we discuss the scientific and methodological foundations for the implementation of the national curriculum in mathematics in primary school, as well as the discussion of the draft national curriculum by the Republican Inspectorate of Education.*

**Keywords,** *feedback, technology, goals, curriculum, educational standards, primary education, mathematics, knowledge and skills.*

Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan ta'limni amalga oshirishda milliy o'quv dasturining vazifalarini amalga oshirishda matematika fanining inson hayotida tutgan o'rni va uni o'qitishdagi turli yondashuvlar dolzarbligi yaqqol sezilib qolmoqda.

Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish hamda mamlakatimiz yoshlarini matematika go'zalliklaridan bahramand bo'lishlariga sharoit yaratib berish – barcha uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi kechayotgan voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda hamda ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi mulohaza yuritishga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi" [1].

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yunalishlaridan biri sifatida belgilandi hamda matematika ilm-fani va ta'limi rivojlantirishini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. [2].

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2019-yil 9- iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-sonli Qarori, 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarori, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta'limini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan.

Xususan, mazkur dasturdan o'rin olgan "Matematika ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi" yuqoridagi matematika ta'limini har tomonlama takomillashtirish hamda yangi sifat bosqichiga olib chiqish yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak- atrofimizdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham *matematik madaniyat* – umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:**

© o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

© jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy

qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Bundan ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA - o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik.

Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS - matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi [5].

STEAM (S – science - tabiiy fanlar T – technology - texnologiya, E – engineering - muhandislik, A – art - san'at, M – mathematics - matematika) ta'lim texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu texnologiyani amalga oshirishda o'quvchilar tomonidan turli texnik qurilmalarni yasash uchun loyihalar yaratish, loyiha asosida qurilmaning maketini yaratish va uni amaliyotda ishlatib ko'rish, kamchiliklarini topish hamda uni bartaraf etish kabi vazifalar bajariladi.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lim fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko'proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Bu o'rinda loyiha ishlarining o'rni e'tiborga molik. O'quvchilar bir o'quv yilida o'zlari qiziqqan fani yoki ta'lim sohasidan faqat bitta loyiha ishini bajarishlari tavsiya etiladi. Loyiha ishi mavzulari o'qituvchilar tomonidan bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida muammoli vaziyat yoki keys sifatida tanlanadi. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilar alohida-alohida yoki qiziqishlariga qarab 3-4 kishilik guruh bo'lib ishlashlari ham mumkin. Loyiha ishi o'quv yili oxirida o'tkaziladigan himoya bilan tugaydi. Himoyani bitta yoki bir necha o'quv fanlari

doirasida konferensiya tarzida o'tkazilishi mumkin. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilarning individual yoki guruhiy ishi quyidagi o'quv faoliyatlarni o'z ichiga olishi mumkin: o'z izlanish faoliyatlarini rejalashtirish, vazifalarni o'zaro taqsimlab olish, oldilariga o'quv maqsadlarini qo'yish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish, mavzuga doir muammoli vaziyat yechimlarini qidirish, ulardan eng maqbulini tanlash va uni asoslash, zarur hollarda so'rovlar yoki tajribalar o'tkazish, loyiha ishi natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash, o'z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash, loyiha ishi himoyasi uchun taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish. O'quvchilar loyiha ishi muammosi bo'yicha izlanishlarini odatda darsdan tashqari mustaqil mashg'ulotlarda olib borishadi. **Matematika ta'limining amaldagi holati va mavjud muammolar** o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy pedagogik innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning fan va texnika yo'nalishi bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim maktablari uchun majburiy bo'lgan Davlat ta'lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta'lim mazmuni bajarish, o'quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fundamental, nazariy yoki eksperimental fan sifatida yondashish, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Matematika ta'lim tizimining oxirgi yillardagi vaziyati tahlili quyidagi dolzarb muammolar bilan aniqlanadi:

Matematika fanining jamiyatdagi o'rni yetarlicha baholanmaganligi; Fan bo'yicha DTS talablarining yuqori belgilanganligi va o'quv dasturi yuklamasining oshib ketganligi;

Darsliklarda fan mazmunining «quruqligi», hayotdan ajralib va eskirib borayotganligi;

Fanni o'rganishga o'quvchilar qiziqishining sustligi;

Malakali matematika o'qituvchilarining kamligi;

Matematika fanining o'quv metodik ta'minoti (o'qituvchi kitobi,

multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

O'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, fan bo'limlari va mavzularining o'qitish ketma-ketligi hamda murakkablik darajasida vujudga kelgan nomutanosibliklarning mavjudligi;

Matematika o'qitish metodlarining eskirganligi;

Umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvlarga e'tibor qaratilmaganligi;

Mavjud oliy ta'lim muassasalarida matematika fani yo'nalishida

tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning bilim va ko'nikmalari sifati bugungi kun talablariga mos kelmayotganligi.

Matematika ta'limining ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Iqtisodiy talablarni bajarish uchun bunyodkor va ijodkor kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, bu yutuqlardan iste'molchi sifatida foydalanuvchilarga ham sifatli ta'lim berilishi lozim.

Fan texnikaning keskin rivojlanishi, olamning globallasuvi hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi insonlarning dunyoqarashini, muvaffaqiyatga erishish usullarini, inson salohiyati, qobiliyati hamda yaratuvchanlik faoliyati jamiyatning asosiy kapitali bo'lib xizmat qiladi. Bu holatda jamiyatdagi har bir o'quvchi shaxsining jamiyatda raqobatbardosh bo'lib shakllanishi, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashuvchan, faol, ijtimoiy yetuk salohiyatli, yuqori darajadagi bilim egasi, ruhan va qalban chiniqqan komil insonni shakllantirish davlatimiz oldidagi vazifalardan biridir.

**Matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi:**

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom

ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

- milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalash;

- o'quvchilarning kuzatuvlar orqali amaliy faoliyatlarini bog'lagan holda loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, kreativ, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil, qiziquvchanlik, muammolarni hal qilish, yangiliklar yaratishga bo'lgan ko'nikmalarini namoyon qilish va rivojlantirishdan iborat.

Matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

- o'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash; inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ijodkorlik (kreativlik) ni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

- hozirda matematika fanini nazariylashtirgan holda o'qitishga, o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashishdan ma'lum darajada voz kechib, o'quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirish.

**Matematika ta'limini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari** yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq:

- matematika fani davlat ta'lim standarti talablarining avvalo kelajakdagi zamonaviy davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, XXI asr ko'nikmalariga mos ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

- maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy-uslubiy tadqiqot tuzilmalari o'rtasidagi yaqin hamkorlikni, uzluksizlikni va uzviylikni ta'minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida matematika fanlarini o'qitish sifatini oshirish, hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini tashkil qilish va faoliyatini rivojlantirish;

matematika fani bo'yicha kadrlarni, xususan qishloq joylardagi maktablarning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

- matematika fani bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning matematika fani bo'yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini hamda sovrinli o'rinlarni egallashini ta'minlash;

- matematika fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- matematika fanining mazmunini takomillashtirish, optimallashtirish va uni boshqa umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasini kuchaytirish;

- o'quvchilarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, matematik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va ijodkorlik kompetentsiyalarini shakllantirish;

- matematikani o'qitish jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta'minlashda



zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish;

- o'quvchilar yutuqlarini baholashning ilg'or xoriji tajribalari va bu boradagi xalqaro tadqiqotlar natijalariga tayanib, yangi baholash tizimini yaratish hamda u asosida matematika fanini bilish darajasini baholash bo'yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy qilish;

- matematika fanini o'qitishning yangi sifat bosqichiga ko'tarish, jumladan zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan, elektron darslik hamda zamonaviy laboratoriya jihozlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning yangi ilmiy yo'nalishlari va tamoyillarini tatbiq etish;

- ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borish, o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki ma'naviy, axloqiy yetuk shaxs sifatida shakllantirish;

- matematika darslarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, o'quvchilar dunyoqarashini, tafakkuri, mantiqiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

- matematika o'qitishda sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan to'garaklar, fakultativ va ellektiv kurslar mazmunini tubdan yangilash;

- matematika fanini o'qitishning ilmiy metodik ta'minotini rivojlantirish; xalqaro fan olimpiadalarida golib bo'lgan yoshlar va ularning murabbiy

  - ustozlari mehnatini rag'batlantirish tizimini takomillashtirib borish;

  - ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy

  - etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

  - matematika fani yo'nalishida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma

  - va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

Fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot- telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni darslik va turli o'quv manbalari bilan ishlash, matematika faniga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda turli amaliy dasturiy paket va ta'minotlardan, mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevish, jamiyat va tabiat haqidagi bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlarga xabardor va daxldor bo'lish, doimo zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashga intilish, hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur. Shu o'rinda matematika fanini puxta o'rganish orqali o'quvchilar tartib-intizomga o'rqnadilar, har bir muammoga matematik masala sifatida qarab, uni yechishda qat'iyatli bo'ladilar.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, matematika ularni haqgo'y, nohaqlikka befarq bo'lmaslik va vatanga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalaydi. Matematika fanini puxta o'rgatish orqali o'quvchilarni jamiyatning faol fuqarosi sifatida rivojlantirib borishga zamin yaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi rezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

2. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947

2. Дрига, В. И. Развитие профессиональной карьеры современного педагога в условиях



креативного образования / В. И. Дрига // Стандарты и мониторинг в образовании. – 2012. – № 4. – С. 48–51

3. Локтионова Т.Е., Сергеева М.Г. Комфортная образовательная среда в образовательной организации: современный подход к проектированию. Профессиональное образование и общество . – 2018. – №3(27). – 43-106 с.

4. Жумаев М. Методика преподавания математики для начальных классов. Учебник. Туроникбол. Ташкент, 2016. 426 с.

Boshlang'ich ta'limda milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etish: muammo va yechimlar. BuxoroDU xalqaro konf. 2022 yid. 72-75 b.

5. Djumaev M. Mathematical regularity and development of creative thinking of students. Deutsche internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft / German International Journal of Modern Science. Edition: № 28/2022 (February) – 28th Passed in press in February 2022 №28 2022. 26-28 st.

6. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434

7. Djumayev M.I. Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173

8. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concentration "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.

9. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics // Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174

10. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173

10. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 14 (2022): 106-109.

11. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades." ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH 10.5 (2021): 715-719.

12. Ergashovna, Saidova Gavhar, and Sayfullayeva Nozima Baxodirovna. "MODERN TEACHING TECHNOLOGIES IN TEACHING MATHEMATICS IN ELEMENTARY GRADES." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.10 (2019).

13. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – С. 358-362.

14. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.

## ONA TILI DARSLARIDA KREATIV TASAVVURNI HOSIL QILISH USULLARI

O'zbekistonda talim-tarbiya sohasini isloh qilish maqsadida "Ta'lim-tarbiya to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning amaldagi holati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya islohotlari, mutaxassis kadrlar salohiyotini oshirishga qaratilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarida pedagoglarning metodik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarimiz bu vaziyatdan chiqishda ularni o'z faoliyatiga tanqidiy yondashib, psixologik jihatdan qayta ko'ribchiqib, ularni yangi sharoitda bolalarga samimiy munosabatda bo'lish, ularni rivojlantirishda shaxsiy yondashuv, hamkorlik, hamijodkorlik, individuallashtirish asosida, ularni ta'im - tarbiya jarayoniga motivatsiya hosil qilish orqali ta'lim jarayonida faol ishtirokini taminlashga barcha kuchlarini va e'tiborlarini qaratishni talab etadi. Agar o'qituvchi o'zining faoliyatni kuzatib borsa, tahlil qilsa, o'ziga baho bera olsa, o'z faoliyatiga tuzatishlar, yangiliklar kiritish olishimkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli ham respublikamizda interfaol metodlarni o'quv jarayoniga qo'llash keng joriy etilmog'i kerak. Bu o'z navbatida o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratiyalashtirish, liberlizatsiyalashni tashkil etishni taqozo etmoqda. Qisqa qilib aytganda, o'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsi, uning ehtiyoji bo'lmog'i lozim. O'quv jarayoni uning xohish, istagiga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lmog'i talab etiladi. Shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchini o'quv – biluv faoliyatini tashkil etishning harakatlantiruvchi, qiziqish, ehtiyojini, xohish-istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Innovatsiya: Yangilanish, o'zgarish; Biror – bir yangilikni kiritish; Yangilikni o'zlashtirish jarayoni. Innovatsiya – (inglizcha Innovation – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish). Demak, faqatgina innovatsion jarayonlarni pedagogik tizimga bog'lash yoki kiritish orqaligina talimda yuqori darajalarga erishish mumkin. Bunda yangiliklarni sekinlik bilan, bosqichma-bosqich kiritish, uni qanchalik foyda keltirishini atroflicha o'ylab, o'lchab amalga kiritish maqsadga muvofiqdir. Innovatsiyalarni pala-partish, tartibsiz, oldindan natija olishni mo'ljallamay amalga oshirish zarar keltirishi ham mumkin. Zero, innovatsiya chuqurroq bilim olish, o'rganish, o'zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog'i yaxshi natijalar berishi mumkin. Bular doimiy pedagogik muammo bo'lib kelayotgan: o'quv-tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o'quv materialni hajmini oshirish, o'quv jarayonini jadallashtirish, vaqtni tejash, ko'proq ilg'or metodlardan foydalanish, o'quv-tarbiyaviy ishlarda

interfaol usullardan foydalanish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, axborot – kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqori natijalar beradigan yangi g'oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, insonni rivojlanishiga olib keluvchi, tom ma'nodagi innovatsiyalarniyaratish, izlash, joriy etish talab etiladi.

O'zining shaxsiy-kasbiy sifatlari va fazilatlarini tahlil qilishi, bu boradagi kamchiliklarni aniqlashi va ularga barham berish yo'llarini izlashi; Pedagogik jarayonda do'stona, samimiy muhit, hamkorlik, hamijodkorlik va g'amxo'rlik vaziyatda ish faoliyatini olib borish; O'quvchi, talaba shaxsini hurmat qilish va e'zozlash yo'llarni egallashi, o'qitish jarayonida ijodiy va qulay ijtimoiy – psixologik muhitni yaratish ko'nikma va malakalarini egallagan bo'lishi; O'quvchilarni rag'batlantirish va uni yangi metodlarini qo'llash ko'nikmalarini; O'zining pedagogik va o'quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarga barham berishning samarali usullarini egallagan bo'lishi kerak. Albatta, yuqoridagi ishlarni amalga oshirish ta'lim sifati va samaradorligi oshirishni kafolatlaydi. Buning uchun o'qituvchilarning bilimlarini va pedagogik mahoratlarini takomillashtirib borishlari doimiy, uzluksiz holda olib borilishi talab etiladi. Innovatsion faoliyatda ish yuritish uchun yuksak madaniy – insonparvarlik asosida ta'limga yondashishi talab etiladi. Insonparvarlik pedagogikasi shaxs va uni rivojlanishiga qaratilgandir. Uning belgilari: ma'lumotlarni egallab olish va ma'lum doiradagi mahorat va ko'nikmalar hosil qilish uchun texnik, jismoniy, aqliy rivojlanishiga diqqatning qaratilishidir. Mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi shaxsni shakllantirishga qaratilgan kuchlarni to'plash, har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarda asoslangan qarorlarni tanlay olib, qaror qabul qila olishdir. O'quv jarayonini qayta qurish va yo'naltirishga zaruriy tashkiliy sharoitlarni yaratish. O'quv jarayonini insonparvarlashtirish yondashuvi asosida haqiqiy insoniy munosabatlarni o'rnatish orqali avtoritar pedagogikadan voz kechib borish demakdir. Shaxsga shunday muhit, sharoit yaratish kerakki, u yuqori sifatli bilim, ko'nikma, malaka olsun va ma'naviy – ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarga befarq qolmasligi kerak. Insonparvar pedagogika maktabni o'quvchiga moslashuvi, qulay sharoit, ijodiy muhit yaratib, "psixologik himoya" bilan ta'minlashni talab etadi. Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari. O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'quvchi – o'qituvchi – o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh). O'quv jarayoni o'qish ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o'z vaqtida echa oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirish o'zi – o'ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya'ni o'quvchining: O'zi mustaqil mutolaa qilishi, o'qishi asosida bilim olishi; O'zini – o'zi anglab etishga, anglab tarbiya topishga; O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga; O'quv mehnatiga mas'uliyat hissi bilan qarashga; O'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g'animat bilishga; o'quv mehnatiga o'zida xohish, istak uyg'ota olishga; har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga; Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur. Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad nima uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha xosilalar asosida javob berish mumkin. Noan'anaviy o'qitish eng sodda qulay usul. Mustaqil fikrlashni o'rgatadi. Ko'p tarmoqli. Sodda va oson. Bilim boyligini oshiradi. Vaqtdan yutadi. Qiziqarli o'tadi. Darsning samaradorligini oshiradi. Dunyoqarashni kengaytiradi. Tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchilarning diqqat e'tiborini tortadi. Har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi. Xotirani kuchaytiradi. Izlanishga chorlaydi. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga chorlaydi. O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat talim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera

olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechadi deb hisoblasa bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim darslarini o'qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish-ularida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, boshlang'ich talim o'quvchilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, bunda bir qator pedagogik vazifalarhal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir, boshlang'ich talim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish; boshlang'ich talim darslari pedagog xodimlari o'rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish; ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirilishiga erishish; boshlang'ich talim darslari pedagoglarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv hissini tarbiyalash; boshlang'ich ta'lim darslarining o'qituvchilarida texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; boshlang'ich talim darslari o'qituvchilari tomonidan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosida tashkil etilishiga erishish; boshlang'ich talim darslari o'qituvchilarining texnologik asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish; boshlang'ich talim darslarining samaradorligini ta'minlash.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
2. 1.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
3. 2.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – №. 27.
4. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДНИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
5. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –№. 23
6. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
7. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
8. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.
9. T Khojaoglu, SG Ergashovna - International Journal of Culture and Modernity, 2022The Practical Importance of Using the Scientific Heritage of the Eastern Thinkers in the Education of the Young Generation
10. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022 Boshlang 'ich sinflarda o 'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
11. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022/4/28 Boshlang 'ich sinflardao'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
12. SG Ergashovna - ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL ..., 2021Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades.
13. Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15 Xalq og 'zaki ijodi orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
14. SG Ergashovna, AN Choriyevna. Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. Texas Journal of Medical Science, 2023
15. G Saidova BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023/1/31

# ТИПОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЧАСТЕЙ РЕЧИ РУССКОГО, УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ И МЕТОДИКА ИХ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Носирова Дилноза Ризокуловна

Ассистент кафедры «Истории и языков» Азиатского международного Университета Магистрант БГПИ

**Annotatsiya.** Ushbu tesis rus, o'zbek va ingliz tillarida bo'laklarning tipologik xususiyatlari va boshlang'ich sinflarda gap bo'laklarini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan.

**Tayanch so'zlar:** tipologiya, qiyoslash, so'z turkumlari, rus tili, o'zbek tili, ingliz tili, metodika, faoliyat, ko'rgazmali qurollar, texnologiya.

**Abstract.** This thesis is dedicated to the typological characteristics of parts of speech in Russian, Uzbek and English and the methodology of teaching parts of speech in primary education.

**Key words:** typology, comparison, parts of speech, Russian language, Uzbek language, English language, methodology, activities, visual aids, technology.

**Аннотация.** Данный тезис посвящен типологической характеристике частей речи в русском, узбекском и английском языках и методике обучения частям речи в начальных классах.

**Ключевые слова:** типология, сравнение, части речи, русский язык, узбекский язык, английский язык, методика, деятельность, наглядные пособия, технология.

Части речи являются основой и фундаментом любого языка. Это категории слов, которые мы используем для построения предложений, передачи смысла и передачи наших мыслей и чувств. Давайте рассмотрим краткую Типологическую характеристику частей речи русского, узбекского и английского языков.

Русский язык: Одной из ключевых особенностей русского языка является обширная система склонения. Существительные, местоимения и прилагательные имеют сложную систему флексии и падежных окончаний, что отражает богатые исторические корни языка.[4] В русском языке есть шесть падежей, которые используются для обозначения роли существительного в предложении.[7] Глагольная система в русском языке также сложна и характеризуется большим разнообразием времен, видов и наклонений. В языке также есть уникальная система согласования полов, которая отражается в склонении прилагательных и глаголов.[5]

Английский язык: Английский язык в последнее время стал лингва-франка в мире.[3] Традиционных частей речи в английском языке восемь: существительные, глаголы, прилагательные, наречия, местоимения, союзы, предлоги и междометия.. Эти категории развивались на протяжении веков, и сегодня их использование и значение устоялись.[1] Английский язык известен своей относительно простой системой словоизменения, которая в значительной степени зависит от порядка слов, а не от падежных окончаний. Английские глаголы также имеют сложную систему времен, которая включает в себя настоящее, прошедшее и будущее время, а также ряд совершенных и прогрессивных форм. [2]

Узбекский язык: На узбекский повлияли арабский, персидский, русский и другие соседние языки, что привело к созданию богатого и разнообразного языка с уникальной системой частей речи.[6] Узбекский язык развивался с течением времени и разработал свою собственную систему склонения существительных, местоимений и прилагательных.[4] Язык также имеет сложную систему окончаний глаголов, которые отражают диапазон времени, вида и настроения. [6]

Итак, как учить тему частей речи. Вот несколько советов:

1. Используйте наглядные пособия

Наглядные пособия — отличный способ помочь учащимся понять разные части речи. Вы можете использовать плакаты, карточки или картинки, чтобы проиллюстрировать различные части речи.

2. Вовлекайте учащихся в деятельность

Вовлечение учащихся в деятельность — отличный способ помочь им узнать о частях речи. Вы можете играть в такие игры, как шарады, в которых учащиеся разыгрывают разные части речи, или предлагать учащимся составлять предложения, используя разные части речи. Вы также можете предложить учащимся создавать свои собственные истории, используя разные части речи.

### 3. Используйте технологии

Технология может быть отличным инструментом для обучения частям речи. Существует множество образовательных приложений и веб-сайтов, которые могут помочь учащимся узнать о разных частях речи. Например, есть приложения с интерактивными играми и викторинами, а также веб-сайты с видео и другими ресурсами.

### Использованная литература:

1. Aarts, Bas. "Conceptions of Gradience in the History of Linguistics." *Language Sciences* 2004. 343-389.
2. Croft, William. "Parts of Speech as Language Universals and as Language Particular Categories." In *Approaches to the Typology of Word Classes*, edited by Petra M. Vogel and Bernard Comrie, 65-102. Berlin and New York: Mouton de Gruyter, 2000.
3. Кошевая И.Г. Курс сравнительной типологии английского и русского языков: Учеб. пособие, М.:Изд-во Высш. школа, 2008. - 327с.
4. Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира, М.: Изд-во Языки славянской культуры, 2004.- 249с.
5. Нелюбин Л.Л. Сравнительная типология английского и русского языков: Учебник. -М.: Изд-во МГОУ, 2007. -183с.
6. Сайфуллаева Р. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Современный узбекский литературный язык). Ташкент: ЎЗМУ, 2005. – 386 б.
7. Щербак А.М. О лингвистической природе частей речи // Вопросы теории частей речи. – П.: Наука, 2004. – С. 229.
8. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. *European journal of life safety and stability (ejlss)*. [www.ejlss.indexedresearch.org](http://www.ejlss.indexedresearch.org) Volume 14, 2022 |
9. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. *Journal of Advanced Research and Stability*. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
10. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.
11. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
12. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
13. Amonov U. S., Saporova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
14. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
- 15.1. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. –2023. –Т. 27. –№. 27.
- 16.2. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. –2023. –Т. 27. – №. 27.
17. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. –2023. –Т. 27. –№. 27.
18. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. –2022. –Т.23. –№. 23

# МЕТОДОЛОГИЯ В ПРОФОРИЕНТАЦИОННОЙ ПОДГОТОВКЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Эргашев Жахонгир Маманазарович

магистр КФУ при ТГПУ им. Низами.

**Аннотация.** Под методологией профессиональной ориентации подразумевают учение об основных положениях, структуре и методах исследования научных проблем профориентационного самоопределения и совершенствовании практических методов воздействия на молодежь с целью оптимизации интересов личности и общества в вопросах выбора профессии.

**Ключевые слова.** Профориентация, методология, образования, обучения, концепция, преподавания.  
METHODOLOGY IN VOCATIONAL TRAINING OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN

*Ergashev Jakhongir Mamanazarovich master of KFU at TSPU named after Nizami.*

**Annotation.** Under the methodology of vocational guidance is meant the doctrine of the basic provisions, structure and methods of research of scientific problems of career guidance self-determination and improvement of practical methods of influencing young people in order to optimize the interests of the individual and society in matters of choosing a profession.

**Keywords.** Career guidance, methodology, education, training, concept, teaching.

К основным положениям, оказывающим существенное влияние на постановку всей профориентационной работы относятся идеи концептуального характера. Одна из них - идея организации профориентационной работы, основанной на диагностическом исследовании личности, тщательном учете интересов и способностей, необходимых для правильного выбора профессии. Эта идея была распространена до середины 30-х годов и носила название "диагностической концепции". Здесь широко использовались тесты. Несовершенство этих тестов, их неправильное использование, а также ряд других причин привели к тому, что идея диагностического исследования была заменена другой, так называемой воспитательной концепцией". Последняя нередко противопоставлялась первой как единственно правильная, Однако и тогда уже было ясно, что и диагностика и воспитание - одинаково важные и органически связанные направления практической работы по профессиональной ориентации учащихся.

К идее методологического характера относится идея дифференцированного подхода к проведению профориентационной работы с учащимися. Она предусматривает предварительную классификацию учащихся по группам в зависимости от их жизненных и профессиональных планов и соответствующую воспитательную работу в этих группах. Дифференциальный подход позволяет вести профориентационную работу более целенаправленно, а следовательно, и более эффективно.

В социологии получила распространение идея социально-профессиональной ориентации, которая объясняет обусловленность выбора профессии не столько ориентацией на ту или иную профессию, сколько направленностью личности на желаемое для себя социальное положение в обществе и поиском путей его достижения с помощью избираемой для этого профессии. Таким образом, если профессиональная ориентация определяется как деятельность по подготовке молодежи к выбору профессии, то социально-профессиональную ориентацию можно также кратко определить как подготовку молодежи к выбору профессии и своего места в обществе.

К методологическим вопросам профориентации относятся и вопросы определения и развития системы профориентации.

Прежде чем сформулировать общее определение системы профориентации, рассмотрим ряд исходных положений:

1. Профориентация представляет собой системную деятельность, включающие целевые установки, задачи, принципы, формы, методы, критерии эффективности, уровни, направления, аспекты и другие системо- и структурообразующие элементы.

2. Система профориентации школьников является подсистемой общей системы трудовой и профессиональной подготовки.

3. Система профессиональной ориентации - это часть общей системы социальной ориентации личности в сложившейся структуре производительных сил и производственных отношений.

4. Профориентация относится к социальным системам, которые функционируют в обществе, она затрагивает различные проблемы, и в том числе связанные с развитием человеческого фактора общественного производства; уже по одной только этой причине профориентацию можно считать общественной проблемой. Она может быть названа так и по другой причине. Для решения проблем профориентации недостаточно усилий одного министерства (Министерства просвещения) или одной науки (например, педагогики). Для того чтобы система профориентации стала эффективной необходима скоординированная деятельность ряда (если не большинства) министерств и ведомств, а также ученых различных специальностей.

5. На эффективность профориентации влияет множество различных объективных и субъективных факторов. Это система трудно поддается организации и управлению. Эти и другие причины позволяют назвать систему профориентации сложной" [1; 33].

Из сформулированных выше пяти исходных положений вытекает определение системы профориентации школьников.

*"Система профориентации школьников – это организованная, управляемая деятельность различных государственных и общественных организаций, предприятий учреждений и школы, а также семьи, направленная на совершенствование процесса профессионального и социального самоопределения школьников в интересах личности и общества" [5; 33].*

На каждом этапе общественного развития система профориентации решает определенные задачи.

*" Общая цель системы профориентационной работы – подготовка учащихся к обоснованному выбору профессии, удовлетворяющему как личные интересы, так и общественные потребности. В систему профориентации входят следующие основные компоненты: цели и задачи, основные направления, а также формы и методы профориентационной работы с учащимися" [3].*

При неизменной общей цели конкретные цели и задачи работы каждой школы зависят от потребностей кадров в тех или иных профессиях, степени остроты этих потребностей, от возможностей и условий в данном регионе или городе. Успешная реализация поставленных целей и задач в значительной степени зависит и от качества работы по каждому из этих направлений.

*"В настоящее время система профориентационной работы включает в себя деятельность по следующим направлениям:*

1. Профессиональное просвещение, включающее профинформацию, профпропаганду и профагитацию.

2. Предварительная профессиональная диагностика, направленная на выявление интересов и способностей личности к той или иной профессии.

3. Профессиональная консультация, нацеленная в основном на оказание индивидуальной помощи в выборе профессии со стороны специалистов-профконсультантов.

4. Профессиональный отбор (подбор) с целью выбора лиц, которые с наибольшей вероятностью смогут успешно освоить данную профессию и выполнять связанные с нею трудовые обязанности.

5. Социально-профессиональная адаптация.

6. Профессиональное воспитание, которое ставит своей целью формирование у учащихся чувства долга, ответственности, профессиональной чести и достоинства." [4]

В работе по различным направлениям определился круг *форм и методов профориентационной работы* – это рассказы о профессиях, беседы, экскурсии на предприятия и т.д.



Вот почему с педагогической точки зрения эффективность выбора профессии означает меру соответствия индивидуального выбора профессии рекомендациям педагога. При этом предполагается, что педагогические рекомендации основаны на учете как личных, так и общественных потребностей. Соответственно чем больше число учащихся избирают рекомендованные им профессии, тем выше действенность профориентационной работы педагогов, школы.

Успешность выбора профессии означает также оптимальное согласование общественных потребностей в сфере труда с планами профессионального и личностного развития учащихся. Поэтому чем больше профессиональный выбор соответствует структуре требуемых в современном обществе кадров профессий, тем успешнее осуществлялась работа по профориентации. Таким образом, мера сбалансированности (совпадений) потребностей в кадрах и реального выбора служит одним из наиболее важных критериев эффективности профориентации.

Если учащиеся заранее наметили и согласовали свои планы жизненного и профессионального самоопределения, то процент школьников, добившихся реализации своих планов, служит одним из показателей эффективности профориентации при условии, что намеченные ранее планы отвечают потребностям региона, страны в кадрах определенных профессий и требуемого уровня квалификации.

Известно, что правильный выбор профессии положительно влияет как на производительность, так и на качество труда. Следовательно, трудовые достижения выпускников школ или других учебных заведений, связанных с профориентацией, служат еще одним важным критерием успешности выбора профессии.

Наиболее важным психологическим критерием успешного выбора профессии и места работы является удовлетворенность человека сделанным выбором. Для оценки уровня удовлетворенности профессией, местом и характером выполняемой работы, заработной платой используются тесты и анкеты.

Таким образом, Профориентация в школе проводится с целью подготовки обучающихся к осознанному выбору профессии при согласовании их личных интересов и потребностей с изменениями, происходящими на рынке труда. Данная цель реализуется как на уроках, так и во внеучебной деятельности. Грамотно построенная система профориентационной работы в начальном звене способствует формированию в сознании школьников разнообразных представлений о мире труда и профессий, воспитывает у них бережное отношение к результатам труда, а также понимание значимости труда специалистов для жизни и развития общества. Современные подходы к профессиональной ориентации школьников рассматривают ее как комплекс средств, направленных на формирование у личности отношения к себе как к субъекту будущей профессиональной деятельности. В связи с этим, педагогу необходимо владеть разнообразными методами и приемами, позволяющими эффективно выстраивать профориентационную работу в начальных классах. Настоящие методические рекомендации делают первый шаг к активизации процесса познания школьниками мира профессий и труда.

### Список литературы.

1. Захаров Н.Н. "Профессиональная ориентация школьников: учебное пособие для студентов". – М.: Просвещение, 1988 – 272 стр.;
2. Мартынова С.С. "Профессиональная ориентация школьников (методические рекомендации)"; Омск: Омский пед. ин-т, 1976 -196 стр.;
3. "Профессиональная ориентация старших школьников в процессе трудового обучения" / Под ред. канд. пед. наук В.А. Полякова; М.: Просвещение, 1972 – 160 стр.;
4. "Профессиональная ориентация и обучение труду в сфере обслуживания" / [В. А. Аптекман, В. Н. Зубков, И. М. Пацула; под ред. Б. Н. Ройзмана] М. – Высшая школа, 1979 – 128 стр.;
5. "Профессиональная ориентация молодежи и организация приема в высшие учебные заведения/ Гусев Н. Г., Н. П. Калашников, А. В. Качанов и др. – М.: Высшая школа, 1982 – 128 стр.;
6. [www.redline.ru/education.old/rubricator](http://www.redline.ru/education.old/rubricator);
7. [www.infomost.ru/pmuz/number](http://www.infomost.ru/pmuz/number)

# АБАЙ ИЖОДИЙ МАКТАБИ ВА УНИНГ ҲАЁТБАХШ ТАЪСИРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Мадалиев Ярмухаммат Худайбергенович**

*М.Авезов номидаги ЖҚУ филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

**Якубов Исламжон Ахмеджанович**

*Алишер Навоий номидаги ТошДўТАУ Жаҳон адабиёти ва қиёсий адабиётшунослик кафедраси. ф.ф.д., профессор*

**Калдыгозова Сандугаш Еркинбековна**

*М.Авезов номидаги ЖҚУ филология фанлари бўйича кандидат рус тили адабиёти фанлари бўйича доцент*

**Аннотация:** Ушбу мақолада қозоқ даштлари халқлари ҳаётида янги даврни бошлаб берган қозоқ маърифатпарвар шоири Абай Кунанбой ўғлининг ижтимоий-сиёсий, адабий-маърифий фаолияти, ижодий мероси, ахлоқий қарашлари кенг таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** файласуф, шоир, маърифатпарвар, миллий адабий тил асосчиси, адабий мерос

**Аннотация:** В данной статье всесторонне анализируется общественно-политическая, литературно-просветительская деятельность, творческое наследие, нравственные воззрения сына казахского просветителя поэта Абая Кунанбая, положившего начало новой эпохе в жизни народов казахских степей. .

**Ключевые слова:** философ, поэт, просветитель, основоположник национального литературного языка, литературное наследие

**Annotation:** This article comprehensively analyzes the socio-political, literary and educational activities, creative heritage, moral views of the son of the Kazakh educator poet Abai Kunanbay, who initiated a new era in the life of the peoples of the Kazakh steppes.

**Keywords:** philosopher, poet, educator, founder of the national literary language, literary heritage

**Қирриш.** Абай Иброҳим Қунонбаев – янги қозоқ адабиёти ва адабий тилнинг асосчиси. У ўн ёшларидан бошлаб шеърлар ижод қила бошлаган.Ўз ижоди билан қозоқ шеърлятида янги даврни бошлаб берган.

**Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар.** Тадқиқотга объект сифатида Абай Қунонбой ўғлининг барча жорий нашрдаги шеърлий тўпламлари, шунингдек *abai.kz; madenimura.kz* электрон сайтлари адабий манба сифатида танлаб олинган. Тадқиқот мавзусини ёритишда таснифлаш ,тарихий-қиёсий, контекстуал, комплекс ва функционал таҳлил усулларидан фойдаланилган.

**Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили**

**Абайшунослик тарихи ва ривожланиш динамикаси.** Абай ўз асарларини қоғозга кўчириб, таниш-билишларига тақдим қилар, улар ўз овул-элларига олиб кетиб, турли давраларда ўқиб беришар ва халқ уларни тез ёд олар эди. Шу тариқа, бу асарлар муаллиф матнига эга бўлишига қарамай, асосан оғзаки тарзда тарқалди. Абай ҳаётлик пайтида ягона жидд остида тўпланиб китобат қилинмади. Шу боис ҳам, абайшунослик йўсинидаги изланишлар оқин вафотидан беш йил ўтгач (1909 йилдан эътиборан), Алихон Бекейханов, Аҳмад Бойтурсун ўғли ва Мирёқуб Давлат ўғли каби фидойи мухлислар томонидан қуйидаги шаклларда бошланди:

- а) қўлёзмаларни йиғиш;
- б) эл оғзидан ёзиб олиш;
- в) нашр ишларини амалга ошириш;
- г) илк мақолалар ёзиш.

Жумладан, Кикетой ва Қўкбой Жонота ўғли каби оқинлар қўмагида тўпланган бадий асарлар Алихон Бекейханов муҳаррирлигида 1909 йили Қозон шаҳрида чоп этилди. Шу йили Санкт-Петербург шаҳрида Абай “Танланган асарлар” нашрдан чиқди. Санкт-Петербург нашридан шоир таржималари билан қўшиб ҳисоблаганда шоирнинг 140 қа яқин шеърлари, шунингдек “Искандар” ва “Маъсуд” дostonлари жой олди. Бинобарин, бу нашр ўзининг ишончилиги, қадимийлиги ва мукамаллиги билан

алоҳида ажралиб туради.

**Абайшунослик.** Абайшунослик ҳақида гап кетар экан, албатта Семейдаги Абай музейи ташкилотчиси Қаюм Муҳаммадхонов номини алоҳида таъкидлаш ўринлидир. Зотан, ҳозирда давлат муҳофазасига олинган бу музейда ўн уч мингдан ортиқ қимматли экспонатлар сақланади. Олимнинг муҳим хизматларидан яна бири – бу “Абай асарлари текстологияси” мавзусида ёзилган илмий тадқиқотидир. Абайшуносликдаги бундан кейинги ўринни ҳақли равишда Мухтор Авезов номи ишғол қилади. У 1940 йилда Абай асарлари икки томлигини нашр қилишга бош-қош бўлди. Мухтор Авезов шу йили “Абайнинг ҳаёти ва ижоди”, 1945 йилда “Абай – қозоқ халқининг улуғ оқини” номли йирик тадқиқотларини; шоир таваллудининг 100 йиллиги муносабати билан “Абай диёрида ўтказилган тўй” номли очеркни нашр қилдирди. Бундай изланишлар натижаси ўлароқ, “Абай йўли” эпопеяси майдонга келди.

Абай ҳаёти ва фаолияти ҳақида 1954 йилда ҳужжатли фильм ва 1956 йилда диафильм яратилди. 1969 йилда Л.Авезова “Абай йўли” эпопеясининг тарихий асослари”, 1984 йилда З.Аҳмедов «Абай йўли» эпопеяси поэтикаси ва унинг ёзилиштарихи” номли монографик тадқиқотларини тухфа қилишди. 1995 йилда М.Авезовнинг Абай ҳақидаги илмий тадқиқотлари, хусусан ўз вақтида рус тилида чоп этилган “Абай Кунанбаев. Статьи и исследования”, – Алма-Ата, 1967 ва бошқа асарлари жамланиб, алоҳида тўплам ҳолида нашр этилди.

Кейинги йилларда абайшуносликка эътибор янада ортиди. Жумладан, 1994 йилда Абай шажарасига бағишланган махсус альбом тайёрланди. 1995 йилда оқиннинг 150 йиллик тўйи ЮНЕСКО доирасида халқаро миқёсда кенг нишонланди. Кейинчалик “Абай қомуси”, “Абай асарларининг изоҳли луғати”, “Абай ва Пушкин”, “Абай Қўнонбоевнинг педагогик қарашлари” каби кўплаб салмоқли тадқиқотлар юзага келди. Бугунги кунда Қозоғистон мактабларида “Абайшунослик” предмети жорий этилмоқда. Олий таълим муассасаларида Абай меросини ўрганишга алоҳида эътибор берилмоқда. Улуғ қозоқ оқини таваллудининг 175 йиллик юбилейини ЮНЕСКО ва ТУРКСОЙ (Халқаро туркий маданият уюшмаси) ҳамкорлигида кенг тарзда нишонлаш режалаштирилган. Умуман, абайшунослик ишлари ўтган аср бошларидаёқ йўлга қўйилган бўлиб, бугунги кунгача қўйидаги йўсинларда ривож топган:

- а) Абай шажараси ва ижтимоий фаолиятига хос жиҳатларни аниқлаш;
- б) адабий меросини тўплаш ва нашр қилиш;
- в) ижтимоий-сиёсий ва адабий-эстетик қарашлари динамик ривожини белгилаш;
- г) адабий меросининг кўлами ва жанрлар таркибини аниқлаш;
- д) асарларининг лексик-семантик таркиби ва текстологиясини ўрганиш;
- е) қозоқ мумтоз адабиёти тарихига қўшган улуши ва ўрнини аниқлаш;
- ё) поэтик маҳорати сирларини кашф этиш;
- ж) муסיқашуносликка қўшган ҳиссасини аниқлаш;
- з) таржимонлик маҳоратини тадқиқ қилиш;
- и) ҳаёти ва ижодини кенг тарғиб қилиш (номини абадийлаштириш мақсадига хизмат қилувчи барча ишлар: ҳайкаллар ўрнатиш, хиёбонлар бунёд этиш, мақбаралар қуриш, ҳужжатли ва диафильмларни суратга олиш, почта маркалари чиқариш, юбилейларини нишонлаш ва ҳ. )
- й) асарларини турли тилларга таржима қилиш;
- к) педагогик қарашларини ўрганиш ва адабий меросини узлуксиз таълим тизимига татбиқ қилиш.

**Оқин асарларининг жаҳоншумул шухрати.** Абайнинг асарлари кўплаб тилларга таржима қилинган. Жумладан, 1950 йилда Абайнинг “Искандар” достони, 1958 йилда эса “Маъсуд” достони Пекин шаҳрида алоҳида китоб ҳолида чоп этилди. Умуман, қозоқ оқинининг 167 та шеъри, учта достони ва 45 насрий ҳикматлари хитой (хансу)тилига таржима қилиниб, уч жилд ҳолида тўла чоп этилган. Шунингдек, Абай асарларини Ш.Мчедлишвили грузин тилига, Ш.Сеитов қорақалпоқ тилига, А.Тўқумбаева қирғиз тилига, М.Мақсуд ва Н.Арслоновлар татар тилига О.Муқанов француз тилига, А.Ҳайдидова, Т.Қосимова, П.Исҳоқова ва М.Ҳамроевалар уйғур тилига таржима

қилишган Қозоқ ва туркман адабий алоқалари ҳам эътиборлидир. Масалан, Абай вафотининг 50 йиллиги муносабати билан туркман шоирлари М.Сейидов, К.Азизов, С.Ўраев, А.Баймуродов, Ў.Тоғановлар унинг асарларини туркман тилига ўтиришди. Шоир таваллудининг 125 йиллиги муносабати билан туркман адабиётшунослари, шоиру адиблари: Б.Кербобоев, Б.Сейтақов, А.Алимқулов, Н.Гуллаев, А.Боймуродов, Н.Эсонмуродов ва бошқалар вақтли матбуот нашрларида қатор мақолалари билан фаол қатнашишди. Кўр-мулла, Байрам-шоир, Мулла-мурт, Дурди-Қилич, Ота Солиҳ сингари туркман бахшилари Абай асарларини маромига етказиб ижро қилдилар.

Таъкидлаш ўринлики, маърифатпарвар қозоқ шоири кўплаб битиклари ўзбек тилига ҳам маҳорат билан ўтирилган. “Танланган асарлар” икки марта: 1961 ва 1995 йилларда нашр қилинган. Шубҳасиз, ўзбек мутаржимлари орасида қардош қозоқ, қирғиз, қорақалпоқ халқларининг ҳам сеvimли шоири сифатида эътибор топган Миртемирнинг номи ва тарихий хизматлари алоҳида эъзозга лойиқдир.

**Адабий мероси.** Абай ўн ёшидан бошлаб бадий ижод билан шуғуллана бошлади. “Туя қувган ким эди, деб келган эдим” шеърини унинг дастлабки машқлари санаш мумкин. Шундан кейин 1870-1880 йилларда ёш Иброҳимнинг бирин-кетин: “Юзи равшан”, “Фузулий, Шамсий”, “Соф, соф, кўнглим”, “Шарифга”, “Абралига”, “Яхшилиққа”, “Кенг яйлов” каби асарлари юзага келди. 1882 йилда битилган “Қансонарда” асари ғоявий-бадий пишиқлиги билан Абай номини кўпчиликка танитди. Сирасини айтганда, Абай қирқ ёшга киргачгина, бадий ижодни чин маънода ўзига қисмат деб билди. Зотан, бу даврда унинг дунёқараши шаклланган, нафис санъатнинг халқ онги ва руҳиятига таъсирини чуқур англаган, поэтик маҳорати ортган эди. Абай бутун умри давомида қозоқ халқини тинчликка, илм-маърифатга, аҳиллик ва тотувликка чорлаб яшади. Ундан қозоқ халқи маданий мероси ва жаҳон адабиёти хазинасига 200 дан ортиқ шеър, шунингдек “Искандар”, “Маъсуд”, “Азим ривояти”, “Вадим” деб номланувчи 4 та бебаҳо дoston, 45 та насрий ҳикмат (“қора сўз”) меросбўлиб қолди. Бинобарин, 59 йилгина умр кўрган Абай 10 ёшидан умрининг охиригача (1855-1904) 49 йил давомида ижодий ишлар билан банд бўлишига қарамасадан, 40 ёшидан эътиборан (1885- 1904) йиллар оралиғида 19 йил фаол ижод қилган эди.

Абай – маърифатпарвар шоир (оқин), қозоқ ёзма адабиёти ва тилининг асосчиси, донишманд адиб – “қора сўз” (насрда битилган) фалсафий шарҳлар муаллифи; ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг фаол иштирокчиси, миллий ментал ва илғор дунёвий қарашларни уйғунлаштиришга интилган, қозоқ халқининг XIX асрдаги тарқоқ турмуш тарзини рус ва Оврупо маданиятига яқинлаштиришга интилган ислохотчи эди. Унинг адабий меросини ифода йўсини ва жанрий табиатига кўра қуйидагича тасниф этиш мумкин:

- а) лирик ва сатирик шеърлар;
- б) дostonлар;
- в) насрий асарлар (ҳикматлар);
- г) таржималар.

**Адабий-эстетик концепцияси.** Абай ўзининг “Кўшиқ – сўзнинг шоҳи, сўзнинг сараси” номли шеърида халқ оқини ва уни тингловчи киши қандай бўлиши кераклиги ҳақидаги адабий-эстетик концепциясини илгари сурди. Шоир ҳар бир халқ оқини олдида қатор талаблар қўйган:

- а) “Сирти кумуш, ичи олтин” – нафис либосга бурканган янги-янги асарлар яратиши;
- б) асарларининг мазмунан теран бўлиши;
- в) муаллиф эстетик таъсирчанликка эришиши;
- г) шеър дostonлар элнинг дилига яқин бўлиши лозим.

Албатта, мингдан битта бўлса-да, нафис сўзни ардоқлайдиганлар ҳам топилади. Яъни катта адабиёт ижодкордан фидойиликни талаб қилганидек, кўпинча сўз қадрини ардоқловчи, нозик дидли китобхонга мўлжаллаб ёзилади. Афсуски, аксарият таъмагир бахши-шоирлар ўз репертуарларини икки хил офатга гирифтор қилишади:

- а) мазмунан саёз, ёлғон-яшиқ сўзларга кўнгила қўйиш;

б) мол-дунё, мансаб-мартаба илинжида мақтов ва мадҳияга зўр бериш.

Бу ҳам бежиз эмас. Зотан, китобхон (тингловчи)лар орасида бу тоифага мансуб ижод аҳлининг битикларини тинглайдиган мақтовга ўч, билимсиз дунёпарастлар ҳам анчагина. Абай ўз адабий-эстетик концепциясига содиқ қолгани учун қадим адабий-бадий анъаналарга эргашиди. Ўз кўшиқларини мақол-матал, нақл-ҳикматлар билан зийнатлади. Ҳатто, ҳаромхўр нокаслар қошида ҳам инсоф-диёнат, уятандиша, ор-номус, сабр-қаноат ҳақида дадил куйлайверди.

Демак, Абай адабий меросини шоирнинг дунёқараши ва у таянган адабий-эстетик канонлар билан чамбарчас боғлиқликда ўрганиш мақсадга мувофиқдир. Масалан, “Искандар” достонида македониялик Александр образига мурожаат этилса-да, қозоқ халқининг “Ажралганни бўри ер”, деган ҳикматига алоҳида урғу берилади. Зотан, шоир бу ҳикматни ватандошлари онг-шуурига сингдиришни кўзлайди. Умуман, “Маъсуд” ва “Искандар” дostonларида Шарқ адабиётининг кучли таъсири ёрқин намоён бўлади.

Дарҳақиқат, Абай мадрасада таҳсил олган йилларидан эътиборан Марказий Осиё шоиру аломалари: Саъдий Шерозий, Ҳофиз Шерозий, Хисрав Деҳлавий, Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий, Заҳриддин Муҳаммад Бобур, Нодира асарларини севиб мутолаа қилди ва улар таъсирида халқни маърифатга ундовчи илғор дунёвий ғоялар ифодаланган шеърлар ёза бошлади. Жумладан, шоирнинг Алишер Навоий ва Мирзо Бобур шахсияти ва ижодий меросига меҳр-муҳаббати нақадар юксак экани ҳақида тўхталган академик Мухтор Аvezов: “Абай Қўнонбоев ўғли Оқилбойга ҳазрат Алишер Навоийнинг “Саъбаи сайёр” достони сюжети асосида “Жарроҳ” номли асар ёзишни топширган, набираларидан бирининг исмини Бобур қўйган”, деб ёзади.

Абай ўзининг “Ҳикматлар” китобида хунарманду тадбиркор, деҳқону миришкор, маърифатпарвару саҳоватпеша халқ табиатига хос фазилатларни улуғлаб, бундай ёзган эди: “Ўзбек деҳқони етиштирмаган ўсимликнинг ўзи йўқ, улар ясамаган буюм йўқ. Аҳилликда яшашади, адоват кўзғашмайди. Таниқли бойлари, билимдон муллалари, хунармандлик ва мўл-кўллик дейсизми, боадаблик дейсизми – ҳаммаси уларда бор”.

Абайнинг фикрича, кўчманчилик шароитида яшаб келаётган ва уруғларга бўлиниб кетган қозоқ халқи менталитетидаги айрим қусурларни бартараф этмай, ижтимоий ва маданий тараққиётга эришиш мумкин эмас. Бинобарин, улуғ қозоқ маърифатпарвар оқини маърифат ва маданиятни миллий бирдамликка эришиш мақсадида тарғиб этди.

Унинг фалсафий мозаикадан таркиб топган «Нақлия сўзлар» туркуми лейтмотивини ҳам ана шу қарашлар ташкил қилади. Носир дидактик йўналиш – гўзал инсоний фазилат, яхши хулқни тарбиялаш масалаларига алоҳида аҳамият қаратди. У Чернишевский ва Добролюбов ғоялари билангина чекланмай Арасту, Сукрот, Афлотун, ҳатто Гегелнинг фалсафий-дидактик қарашлари билан ҳам яқиндан танишган.

Абай бастакор оқин эди. У кўплаб халқ куйлари асосида дostonлар куйлаш билан бир қаторда, ўз шеърларига дўмбира оҳангларига мос куйлар басталар ва уларни ижро этарди. Шоир “Кўзимнинг қароси” шеърда шундай сатрларни битади:

Кўзимнинг қароси,  
Кўнглимнинг саноси.  
Битмас ичдаги  
Ишқнинг яроси.

Ишқий мавзуда олти бўғинли бармоқ вазнида, халқона оҳангда битилган бу шеърнинг ҳар банди тўрт сатрдан иборат бўлиб, жами 22 банд, 88 мисрадан таркиб топган. Шеър лирик қаҳрамони ўз кўнгил дардлари, мунгли оҳноларини маъшуқага мухтасар сўз орқали туйдиришга интилаётган ийманувчан, андишали ва сабр-бардошли ошиқдир. Унинг қисмати бир жиҳатдан китобхонни ўйлашга, фикрлашга ундаса, иккинчи томондан шеър фалсафий мазмунида маъшуқа қалбида ҳам улуғ илоҳий муҳаббат нурлари шуълаланишига бўлган умид ифодаланади. Бу ҳол Абай ўз салафлари Навоий ва Фузилий ижодий-услубий анъаналарини ичил давом қилдирганини тасдиқлайди. Зотан, шоир ижодининг илк босқичидаёқ:

Фузулий, Шамсий, Шайх Али,

Навоий, Саъдий, Фирдавсий,  
Хожа Ҳофиз – барчанигиз  
Мадад беринг, тенгсиз оқинлар!

деган сатрларни битган эди. Шоирнинг “Салом айтдим қалам қош” шеъри лирик қаҳрамони молу-жонини ёр йўлига қурбон қилишга тайёр ошиқдир. Унинг соғинч кўз ёшлари, маъшуқа йўлига интиқ нигоҳлари кўз ўнгимизда гавдаланади. Абай шеърни “Асл одам айнимас, ўз сўздан қайрилмас” сингари қозоқ нақллари билан безайди. Гарчи лирик қаҳрамон вафо ва садоқати китобхон эътиборини тортса ҳам, бу ўринда илоҳий ишқ эмас, балки ҳаётий мазмун мужассам. Зотан, шеър хотимасида лирик қаҳрамоннинг пар тўшақдаги ишқий муносабатлар ва руҳий лаззатлар ҳақидаги ширин орзулари ифодаланган.

“Сизда қомат, бизда ихлос” шеърда ошиқнинг ёр жамолини кўрган лаҳзалардаги руҳият-ҳоли ошиқ туркум халқ дostonлари қаҳрамонларининг кечинмаларига монанд тарзда чизилади:

Ичим ўтдай куйганда,  
Юрак балқиб ийганда,  
Ички сирни туйганда,  
Излаб топар шунқорман.

деб куйлайди оқин. Унинг шеърларида инсоний фазилатлар, феъл-атворларни пейзаж манзаралари билан боғлиқликда идрок этишга интилиш кузатилади. Бу типдаги асарларда қозоқ саҳроси кенгликлари ва миллат менталитети табиатидаги дангаллик, ҳазилкашлик, ростгўйлик моҳирона тасвирланади:

Сокин тунда ёрқин ой,  
Акси сувда мавжланар.  
Овул этагида чуқур сой,  
Тошиб, жўшиб авжланар.  
Қалин ўрмон барглари  
Ким ўзарга сирлашар  
Кийган яшил либоси  
Само билан бўйлашар  
Ўша кезде тинглаганмисан  
Қўриқчи ит вовуллашларин  
Ва ҳайбатли тоғ жарангини  
Келганмисан овлоқ маконга,  
Йўлин тўсиб сулув малакнинг  
Ҳаялламай ошиқиб,  
Гоҳ қалтираб, гоҳ исиб  
Ҳаво етмай, ютоқиб.  
Қўлинг силкиб, сал чўчиб.  
Сўз қотолмай, тутлиқиб,  
Дил каптаринг потирлаб Т  
ик боқолмай ер чизиб,  
Кутганмисан қалтираб.

Шоирнинг “Илм топмай мақтанма”, “Интернатда ўқийди” каби шеърларида ҳам илм-маърифат эгаллашга чорлов оҳанглари кузатилади:

Илм топмай мақтанма.  
Ўрин топмай бопланма,  
Хуморланиб шодланма.  
Ўйнаб, бекор кулишга.

**Ёки:**

Ёшлиқда илмга бермадим рағбат,  
Фойдаю зарарни кўрмадим ўйлаб.  
Эр етгач, кўролдим бўш ҳовучимни,  
Афсус, илмга кеч бердим кучимни

Шоир лирик қахрамони таъкидлашича, илм-маърифат ёшлиқдан фикру онга жойланиши учун машаққатларга сабр-бардош билан чидаш, вақтдан унумли фойдаланиш, ўйин-кулгилардан тийилиш талаб этилади. Зотан, йўқотилган вақтни зинҳор орқага қайтариб бўлмайди. Ҳою ҳавасларга маҳлиёлик, афсус-надоматлар эшигини очибгина қолмай, унинг тўлови ҳам қимматга тушади. Яъни маърифатсиз, саводсиз қавм илғор фикрли кишиларга ҳамқадам бўлолмай, ҳаётда ўз муносиб ўрнини тополмай ўртанади.

Абай теран фикр ва илм-маърифатнинг ғалабасига ишонади. Шунинг учун ҳам, қачонки сиз бирор муаммога дуч келсангиз, ақл ишонмаган, яъни мантиқан далилланмаган нарсага зинҳор ишонманг, деган фикрни илгари суради. Бу ҳол оқин туйғудан кўра ақлга, кечинмадан кўра мантиққа таянгани, эҳтимолки рус демократ шоирлари таъсирида моддиюнчиликка тамойил бўлганини ҳам кўрсатади.

Абай кўпинча реал ҳаётда учровчи: уруғ-аймоқчилик, эринчоқлик, ялқовлик, бекорчилик, ёлғончилик, мақтанчоқлик, исрофгарчилик сингари ижтимоий қусурларни бартараф қилиш масалаларини қаламга олади. Унинг поэзиясида шафқатсиз реализм ва воқеликка сатирик ёндашув ҳам ёрқин намоён бўлади. Масалан, унинг “Охирзамон ёшлари” шеърида миллат бирдамлиги, йигитлик ор-номуси ва имон мустаҳкамлиги учун курашмай, нуқул тил-жаъига эрк бериб, эл орасида зиддият уруғини сочувчи айрим гайратсиз демагог ёшлар қорни тўқ сигирга, уларнинг бемаъни сўзлари эса нахс босган чўчқанинг товушига ўхшатилади.

“Соф, соф, кўнглим, соф кўнглим” шеърида шоир беғубор кўнгли билан тиллашар экан, дунё ўтгучи, ажал етгучи эканига имон келтиради. У китобхонни сабр-бадошли бўлишга ундайди. Чунки, “Сабр таги – сариқ олтин” эканлигини яхши билади. Шунинг учун харомдан ҳалолнинг, куфрдан имоннинг фарқини билган ҳолда, ўз-ўзини тафтиш этади, ҳаётини сарҳисоб қилади. Эл назаридан қолмаслик, ҳамиша эътиборда бўлиш, яъни масъуллик туйғусини улуғлайди. Абай оилавий муносабатлар масаласига тўхталаркан, умр йўлдошини кўриб, билиб муносибинини танлаш кўнглининг хотиржамлиги ва оила мустаҳкамлиги гаровидир, деган хулосага келади.

Абайнинг қирқ бешта алоҳида алоҳида ҳикматлардан иборат насрий асарларида маърифий адабиётнинг анъанавий гуманистик пафоси ва эпик баён усули муваффақиятли давом қилдирилди. Шунга қарамасдан, уларнинг ҳажми ҳам, ғоявий-бадий хусусиятлари, хусусан мазмун кўлами ҳам бир-бирига ўхшамайди. Муҳими шундаки, бу асарларда бадий нафислик, ҳаётий ҳикмат ва халқона донишмандлик ўзаротуташади. Натижада, ҳикматлар миллий ва умуминсоний миқёс касб этади. Бу туркумдаги асарлар жаҳоннинг кўплаб тилларига таржима қилиниб, алоҳида эътибор топиши фикримизнинг ёрқин далилидир.

Абай А.С. Пушкин ва М.Ю.Лермонтов асарлари таржимасига алоҳида эътибор қаратган. Бу тасодифий ҳол бўлмай, оқин катта адабиёт намуналарини беҳато танлагани ва ўша муаллифлар билан ўзига хос шеърий мубоҳасага киришгани кўрсатади. Эътиборли жиҳати шундаки, Абай А.С. Пушкиннинг “Евгений Онегин” шеърий романи таржимасига кўл ураркан, Онегин, Татьяна, Ленский учлигидан иборат образларни танлайди. Уларнинг фазилят-нуқсонларию ишқий мактубларни таржима қилиш билан кифояланади. Чунки, донишманд оқин “Лайли ва Мажнун”, “Фарҳод ва Ширин”, “Зухра ва Тохир”, “Саёдхон ва Ҳамро”, “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам”, “Баян Сулув” типигаги дostonлар таъсирида дунёқарашини шаклландиран қозоқ тингловчисининг дидини ҳисобга олган ва ишқ-муҳаббат линиясини ўгириш билан қаноат туйган.

Бу ҳол М.Ю.Лермонтов ва И.А.Крилов асарлари таржимасида ҳам кузатилади. Абай М.Ю. Лермонтовнинг «Шайтон» («Демон»), «Дуо» («Молитва»), «Ханжар», «Йўлга чиқдим бир сокин тунда ёлғиз», «Йиғи» сингари йигирма еттита асари ва И.А. Крилов масалларини қозоқ тилига ўтирди. Зотан, улар Шарқона руҳга анча яқин, қозоқ китобхони “ҳазм” қилиши, ҳатто дўмбира жўрлигида куйлашига ҳам қулай асарлар эди.

Абай яшаган даврда қозоқ халқи орасида музикани нотага тушириш анъанаси шаклланмаган эди. Шу боис, оқин шеърлари каби, у басталаган халқчил куйлар ҳамустоз-шогирдлик анъанаси асосида дастлаб ўз қишлоғи, шаҳри ва кейинчалик бутун



қозоқ даштига кенг тарқалди ҳамда бизгача етиб келди. Абай ўз фарзандларини ҳам адабиёт ва санъат дунёсига олиб кирди. Жумладан улардан бири – Мағавия отасининг маслаҳати билан “Менғат Қосим”, иккинчиси – Оқилбой эса “Қиссаи Юсуф” дostonлари анъанавий сюжети асосида мустақил асарлар ижод қилишган.

Хулоса қилиб айтганда, улуғ қозоқ шоирининг аксарият қисми ҳикмат ваафоризмга айланиб кетган бой адабий мероси замондош китобхонни миллий ва умуминсоний ахлоқий-маърифий ғоялар, гўзаллик ҳамда нафосат туйғулари сариетаклайди. Зеро, Абай тарғиб қилган инсоний фазилатлар, бадиият либосига бурканган бўлиб, уларда ақл-заковат жилвалари, дўстлик, бирдамлик, ҳамжиҳатлик, бунёдкорлик, самимий ва покиза муҳаббат туйғулари ўз аксини топган.

Бинобарин, XX – XXI асрлар замонавий қозоқ шеърятининг анъанавий ифода йўсинлари, маъно-мазмун қатламларида кузатилаётган ижодий-услубий изланишларда Абай ижодий мактабининг ҳаётбахш таъсири яққол намоён бўлаётгани кишини беҳад қувонтиради. Шоирнинг ҳаёт шиддати ва умр бевафолиги билан боғлиқ теран маъно-мазмун, маърифий ғояларни улуғловчи, баъзида эса, надомат оҳангларига йўғрилган шеърлари ёшларни хушёрлик, илм-маърифат эгалашга чорлаш мотивлари билан зийнатлангани, умрнинг ҳар лаҳзаси ғанимат эканини идрок этишга ўргатиши жиҳатидан ҳам қимматлидир.

#### Адабиётлар:

1. abai.kz
2. madenimura.kz
3. adebiet.kz
4. [https://kk.wikipedia.org/wiki/Абай\\_Құнанбайұлы](https://kk.wikipedia.org/wiki/Абай_Құнанбайұлы)
5. <https://bit.ly/2TOyJ4q>
6. <https://kazakh-tv.kz/>
7. <https://vk.com/kazakhtv>
8. <https://www.facebook.com/kazakhtvkz/>
9. [https://twitter.com/Kazakh\\_TV](https://twitter.com/Kazakh_TV)
10. [https://www.instagram.com/kazakhtv\\_kz/](https://www.instagram.com/kazakhtv_kz/)
11. <https://t.me/kazakhtvchannel>
12. <https://www.youtube.com/watch?v=BIY-WWC5610>
13. <https://jahonadabiyoti.uz/2018/04/24/>
14. [https://kazakh-tv.kz/uz/view/society/page\\_207769](https://kazakh-tv.kz/uz/view/society/page_207769)
15. [https://www.zharar.com/kz/zhospar/scenarii/33364-abay\\_175.html](https://www.zharar.com/kz/zhospar/scenarii/33364-abay_175.html)

## DIDAKTIK O'YINLAR – ONA TILINI SAMARALI O'QITISH VOSITASI SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

S. S. To'rayeva

*A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institute*

**Аннотатсия.** *О'қувчиларда ижодий фикрлашни ривожлантиришнинг энг самарали усулларидан бири didaktik o'yinlardir. Chunki, o'quvchi bog'cha yoshida o'yin faoliyati bilan ko'p shug'ullangan, o'qish faoliyatiga o'tishda bu usullardan foydalanish o'quvchining darsda zerikib qolishining oldini oladi. Didaktik usullar ta'lim sifatini oshirishda ham alohida o'ringa ega. Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llash mumkin bo'lgan bir qancha didaktik o'yinlardan namuna keltirilgan.*

**Калит со'злар.** *Didaktika, o'yin, ijodkorlik, usul, dars, ona tili va o'qish savoxonligi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati.*

Hozirgi zamon o'qituvchisi har tomonlama ijodkor bo'lishi va o'quvчиларда ham bu

qobiliyatni rivojlantirishi, tarbiyalashi lozim. Chunki, rivojlangan ta'lim sifati o'quvchida ijodiy qobiliyatning shakllanganligi bilan belgilanadi. O'quvchini nodatiy fikrlashga o'rgatish, uni fanni o'zlashtirishiga bo'lgan qiziqish (motivatsiya)ni uyg'otish zamonaviy o'qituvchi oldidagi dolzarb muammodir.

Ta'lim berish jarayonida o'qituvchi odatdagi dars uslubidan voz kechishi kerak. Harf o'rganish jarayonidayoq bolalarning belgilangan chiziqlar bo'ylab yozishi, topshiriqlarni bajarishda namunalar orqali ishlashi, pedagogning topshiriqni yaxshi bajargan o'quvchilarni muntazam rag'batlantirib borishi natijasida bolalar bir qolipga tushib qoladi. Ayrimlarining fanga bo'lgan qiziqishi borgan sari susayib boradi. Bunday qoliplardan voz kechish, o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, noodatiy xulosalar chiqarishga o'rgatish zarur. Aynan rivojlangan ta'lim ham shu talab asosida amalga oshirilishi zarur.

Har bir o'quvchida o'ziga xos qobiliyat va iqtidor mujassam. Qobiliyat va iqtidor maqsad sari yetaklaydi va yaratuvchanlikka undaydi. Zamonaviy ta'lim esa o'quvchidagi mana shu yashirin qobiliyatni yuzaga chiqarishi kerak, o'quvchi ehtiyojiga asoslangan ta'lim jarayonini joriy etishi kerak.

Ona tili ta'limi bugungi kunda salmoqli muvaffaqiyatlarga erishganligi bilan ajralib turadi. Ammo ta'limni yangilash, uni takomillashtirish ona tili ta'limini ham chetlab o'tmaydi. O'quvchida tilga bo'lgan sezgirlikni oshirish, ona tilini sevishtga, uni kuzatishga o'rgatishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyos, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonini didaktik materiallarsiz, vositalarsiz va o'yinlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

T. A. Ilina "didatika" – grekcha "didaktikos" so'zidan olingan bo'lib, "o'qitish" ma'nosini anglatishini izohlab bergan pedagoglardandir. Demak, ta'limda qo'llaniladigan didaktik vositalarni "o'qitish vositalari" deb ham yuritish mumkin. Chunki didaktik o'yinlarda faqat o'qituvchining faoliyati emas, balki o'quvchining faoliyati yetakchi hisoblanadi. Didaktik o'yinlar o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro ta'siri natijasidir. Agar bu ta'sir yo'qolsa, ta'lim sifati ham yo'qoladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslari samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlar, noan'anaviy metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir dars jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan foydalanishi zarur. Bu kabi darslarda o'quvchi diqqati to'liq jalb qilinadi, xotirasi mustahkamlanadi. Bilimlarni chuqur egallashga yordam beradi.

Didaktik o'yinlarni tanlashda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatini o'stirishga alohida ahamiyat beriladi. Didaktik o'yinlarni tanlashda o'quvchilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib-qoidalariga e'tibor qaratiladi:

1. Didaktik o'yinlarni tanlash va ularni qo'llashda o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish, bilim saviyasiga e'tibor qaratish;
2. Ta'limning maqsad va vazifasini asos qilib olish, ya'ni berilgan mavzu doirasini qamrab olish;
3. Har bir o'yin o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, bilimni rivojlantirishga da'vat etuvchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak.

Didaktik o'yinlar ta'lim mazmunini aniqlashtirishning muhim omilidir. U o'quvchilarda o'qish motivini, istagini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darsida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni shakllantirish ona tili ta'limining asosiy vazifasidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'rib turgan narsasi haqida keng fikr yuritishi, gap, matn tuzishi mumkin. Ammo rasm o'rnida so'z berilsa, o'quvchi fikri juda tor bir, ikki gap bilan cheklanib qoladi. Turli ta'limiy o'yinlardan samarali foydalanish, ularning tasavvurini boyitadi. So'zlarni xayolan tasavvur qila boshlaydi. Har bir muammoli topshiriqqa bir necha yechim izlaydi. Shu bilan birga didaktik o'yinlar o'quvchini zukkolikka, chaqqonlikka, tez fikrlashga o'rgatadi. Hozirga qadar ona tili ta'limini takomillashtirishga yo'naltirilgan juda ko'p o'yinlar mavjud. Biz bu kabi o'yinlarning ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz.

**"Rasmi diktant" o'yini**

Ona tili darslarida 1-sinfdayoq diktant turlaridan samarali foydalanish mumkin. Diktant o'quvchida eshitib yozish malakasini rivojlantiradi. "Rasmi diktant" olish uchun turli rasmlar to'plami tarqatmalarda beriladi. Rasmlar har bir o'quvchiga alohida beriladi. O'quvchilar belgilangan vaqt davomida tarqatmadagi rasmlar nomini yozishi kerak bo'ladi. Bu diktant turida o'quvchida so'zlarni to'g'ri yozish malakalarini rivojlantiradi.

#### *"Iboralar tana a'zolari bilan birgalikda"*

Topshiriq o'qilgan matndan ajratib olingan iboralar ustida amalga oshiriladi. Masalan, *boshi qotdi* iborasi. Topshiriq guruhlar yoki qatorlarga bo'lib beriladi. 1-guruh a'zolari "*bosh*" so'zi, 2-guruhga "*qo'l*" va 3-guruhga "*yurak*" so'zi ishtirokidagi iboralar qatorini tuzish topshiriladi. Qaysi guruh ko'p iboralar qatorini tuzsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

#### *"Topag'on" o'yini*

**O'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O'quvchilar shu belgini o'zida aks ettirgan narsalar nomini yozadi, eng ko'p to'g'ri javob topgan o'quvchi g'olib sanaladi. Bu o'yin o'quvchining so'z boyligi ortiradi, unda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.**

*1 - savol: Nima yumshoq?*

**Javob: Non, xamir, yostiq, ko'rpa, paxta, plastlin.**

*2 - savol: Nima oq rangda?*

**Javob: Qog'oz, daftar, surp, bulut, parda, buvimning sochlari, qor, kiyim.**

*3 - savol: Nigora nima qilyapti?*

**Javob: Kitob o'qiyapti, kir yuvyapti, qoshiq aytyapti.**

*4-savol: Nima zararli?*

**Javob: Ko'p gazli ichimlik ichish, kitobni yotib o'qish, soatlab telefonga termulish, keraksiz narsalarni ko'chada, yo'lda tashlash, daraxtlarni kesish, yovvoyi hayvonlarni o'ldirish, tishlarni yuvmaslik, ko'p shirinlik tanovul qilish, maktab dahlizida chopish va hokazo.**

#### **"Qo'shilgan harflar – so'zli dugonalar" o'yini**

Bu o'yinnig maqsadi o'quvchining so'z boyligini oshirish, kutilmagan yangi so'zlar hosil qilishga o'rgatish. Bunda ikki bo'g'inli so'zlar yozilgan kartochkalar o'quvchilarga tarqatiladi. O'quvchi ikki bo'g'inli so'z o'rtasiga undosh tovush qo'shish orqali yangi so'zni hosil qiladi va hosil qilingan so'zlar qatorini daftariga ko'chirib yozadi. Masalan, ko'mak – ko'lmak, sara – sayra, ola – olma, biron – biyron, kuli – kulgi va hokazo. Bu o'yinni turlicha mazmunda tashkil etish mumkin. Masalan, berilgan so'zga harf qo'shib yangi so'z hosil qilish: *o'q – o'qi – o'qish – o'qishi – o'qishim* kabi. Berilgan so'zdagi bir tovushni o'zgartirish orqali yangi so'z hosil qilish: *maktab – maqtab, qaymoq – qayroq, paxta – vaxta, daraxt – karaxt, dars – darz, darbon – sarbon, eshik – etik* kabi.

#### **"Farazlar" o'yini**

Bu o'yin orqali o'quvchi yaxshilik va yomonlik, uning oqibatlari, bolada bunyodkorlik g'oyalarini singdirish, ichki his-tuyg'usini namoyon qilishga o'rgatiladi. Bunda biror hikoya yoki ertak muammoli qismigacha o'qib beriladi. So'ng shu muammoni yechish o'quvchiga topshiriladi, ya'ni o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi: "Endi nima bo'ladi?", "Rustamning shu ishi to'g'rimi?", "Uning o'rnida men nima qilgan bo'lar edim?", "Agar sen sehrGAR bo'lib qolsang qanday yo'l tutar eding?" va hokazo. Savollar yordamida o'quvchilar teran fikrlashga, noodatiy xulosa chiqarishga o'rganadi. O'quvchi nima qila olishi, bunday vaziyatda qanday yo'l tutishi haqidagi fikrini ochib beradi, kimningdir o'rniga o'zini qo'yib, uning vaziyatinitahlil qilishga o'rganadi.

#### **"2+3" o'yini**

O'quvchilarga ixtiyoriy 2ta so'z beriladi. Masalan: *kitob va quyosh*. O'quvchilar shu so'zning bir-biriga o'xshash va farqli bo'lgan 3ta o'ziga xos jihatini topishi kerak bo'ladi. O'quvchi

noodatiy tarzda fikrlay boshlaydi. Quyosh va kitob so'zining umumiy va farqli tomonlari borligini tasavvur qiladi.

Umumiyliigi: kitob va quyosh insonga xizmat qiladi, ikkalasi ham bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi, biri yorug'lik bilan, biri aql bilan, kitobdan cheksiz bilim, quyoshdan cheksiz nur

olamiz, ikkalasini ham yaxshi ko'ramiz.

Farqi: quyosh katta, kitob kichik, quyosh koinot jinsi, uni inson yarata olmaydi, kitobni inson yaratadi, quyoshni ushlab bo'lmaydi, kitobni qo'lda ushlab o'qiymiz, quyoshni ko'tarib bo'lmaydi, kitobni sumkada olib yuramiz, quyosh juda issiq, kitob issiq emas.

Gap: Quyosh nurida qiziqarli kitob o'qidim.

Quyidagi so'zlar juftligidan ham foydalanish mumkin: telefon va televizor, daraxt va traktor, kit va tovush, yer va odam, kapalak va planshet.

### "Xotira" o'yini

Ona tili darslarida "So'z turkumlari" mavzusida 1-guruh a'zolari kim?, 2-guruh a'zolari nima? 3-guruh qanday? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni zanjir usulida aytadi. Ya'ni birinchi o'quvchi aytgan so'zni ikkinchi o'quvchi aytishidan oldin takrorlaydi, so'ngra o'zitopgan so'zni aytadi, shu tariqa so'zlar anjiri hosil bo'ldi. Savolga javob bo'ladigan so'zni topa olmagan yoki so'zlar zanjirini buzgan o'quvchi o'yinni tark etadi. "Xotira" o'yini quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1-guruh: Kim?	2-guruh: Nima?	3-guruh: Qanday?
1. O'qituvchi	1. Kitob	1. Shirin
2. O'qituvchi, ona	2. Kitob, ruchka	2. Shirin, qattiq
3. O'qituvchi, ona, o'quvchi	3. Kitob, ruchka, quyosh	3. Shirin, qattiq, baland
4. O'qituvchi, ona, o'quvchi, shifokor	4. Kitob, ruchka, quyosh, tarvuz	4. Shirin, qattiq, baland, yumshoq

Bu usulni qo'llashda topshiriqni differensial berish mumkin. Iqtidorli o'quvchilarga topshiriq oxirida bajartiriladi. Chunki oxiridagi o'quvchi 10 tadan ortiq so'zni o'rmini, nomini almashtirmasdan aytishi kerak bo'ladi.

### "Anogramma" o'yini

Anagramma tuzish – kombinatorlik mashqlarning qadimiy turi bo'lib, unga 2000 yildan oshdi. Bu mashq o'quvchilarni mantiqan fikrlashga, mulohaza yuritishga chorlaydi, aqlni charxlaydi. Bu esa o'quvchining aqliy faoliyatiga kata foyda beradi. Xattaxtada quyidagi so'zlar beriladi. Tushunarsiz berilgan so'zlardan ma'lum ma'noga ega so'zlar hosil qilinishi kerak. So'ng begona so'zni aniqlashlari kerak bo'ladi.

*Taqnu – nuqta*

*Fatsi – sifat*

*Vodun – undov*

*Oqso'r – so'roq*

O'quvchilar so'zlarni yasab bo'lganidan so'ng, ortiqcha so'z "sifat" ekanligini aniqlanadi. Chunki, boshqa so'zlarni umumiy nom bilan "tinish belgilari" deb atash mumkin.

### "Yosh ijodkor" o'yini

O'quvchiga o'rganilyapgan she'rning birinchi qatori beriladi. Qolgan uch qatoriga qofiyadosh so'zlarini moslab yakunlab kelish aytiladi. Masalan: 3-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi kitobidagi Po'lat Mo'minning "Yaylov rohati" she'rining 1-qatorini olaylik.

**Bepoyon yaylov,**

**Keng osmon yaqin,**

**Havo sal salqin,**

.....

**Beg'ubor, toza.**

**Rohat-u maza.**

Mazmuniga katta ahamiyat berilmaydi. Asosan, o'quvchining qofiyadosh so'zlarni topa olishi va fikrni davom ettirishi inobatga olinadi.

### “Turli xil soʻzlardan gap tuzish” oʻyini

Masalan: *kompyuter, olma, velosiped*. Oʻquvchi fikrlab, hamma soʻzni oʻrnida qoʻllab, mazmunli gap tuzishi kerak boʻladi.

*Men kompyuterda olma rasmini chizib boʻlgach, velosipedda sayr qildim.*

### “Bitta harf” oʻyini

Oʻquvchilarning yoshiga qarab ixtiyoriy 1ta harf bilan boshlanadigan soʻzlardan foydalanib gap yoki matn tuzish. Bunda tuziladigan gap tarkibidagi soʻzlarning barchasi faqat talab etilayotgan harf bilan boshlanishi shart.

- Masalan: 1. *Biz bepoyon borliqning bolalarimiz.*  
2. *Goʻzal gullar gulzorda gulladi.*  
3. *Oʻqituvchi oʻz oʻquvchisiga oʻqishini oʻrgatdi.*  
4. *Bola bankka baland-baland binolar boʻylab bordi.*

### “Yoʻqolganlarni qidirib top” oʻyini

Bu oʻyin oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish, sinonim soʻzlarni oʻrgatishda qoʻllash yaxshi samara beradi. Berilgan gapdagi ajratilgan soʻz yoki iboraning maʼnodoshiga almashtirib qayta tuzish va yozishi kerak boʻladi.

1. *Doʻstim, nonni isrof qilmang.*  
*Doʻstim, nonni .....qilmang (uvol)*  
*Doʻstim, nonni .....qilmang (oyoq osti)*  
2. *Erta bahorda ertalab maysalar ustida shabnam boʻladi.*  
*Erta bahorda ....., maysalar ustida ..... boʻladi.*  
*(saharda, shudring)*  
*Erta bahorda ....., maysalar ustida.....boʻladi*  
*(subhidamda, suv ).*  
3. ***Yuragimni hovuchlab*** nuqul ortga quloq solaman.  
*nuqul ortga qarayveraman. (yuragimni qoʻltiqlab, yuragimni changallab, qattiq qoʻrquv bilan)*

### “Unsurlarni tanib ol” oʻyini

Oʻyin musobaqa tarzida oʻtkaziladi. Buning uchun oʻqituvchi oʻquvchilarni ikki guruhga boʻladi va doskaga ikkitadan unurni yozib boradi. Oʻquvchilar navbat bilan shu unsur qatnashgan harflarni yozadi. Yozuv vaqtida bolalarning shu unsur qatnashgan harfni toʻgʻri topa olishigagina emas, balki yozuv sifatiga ham alohida eʼtibor berib qaratiladi. Masalan: tayoccha unsuri yordamida *n, m, p, z* harflari, choʻzinchoq doira yordamida esa *o, a, oʻ, q, d, g, gʻ* harflari hosil qilinadi. Oʻqituvchi navbat bilan doskadagi unsurlarni oʻzgartirib turadi. Bu oʻyinni 2-sinfda ham oʻtkazish mumkin. Chunki bu sinfda harflarning genetik guruhlarga boʻlinishi asosida husnixat darslari olib boriladi.

### “Oyga sayohat” oʻyini

Maʼlumki, **O** harfi keyingi harfga ulanishi jihatidan oʻziga xos yoʻnalishga ega boʻlib, oʻquvchidan alohida grafik hushyorlikni talab qiladi. Bu harf birinchi oʻrganilganligi, uning grafik tasviri oʻquvchining yodida yaxshi saqlanib qolishi hamda keyingi harfga ulanishidagi murakkabligini hisobga olib bu oʻyinini oʻtkazish mumkin. Albatta, oʻqituvchi oʻyinning nomlanishidagi ramziylikni ham bolalarga tushuntirishi, yaʼni *Oy* soʻzida *o* harfining qatnashganligini va *o* harfi oyga oʻxshashligini ham aytadi. Shundan soʻng bolalar *o* harfi qatnashgan soʻzlarni musobaqa tarzida xattaxtaga yoki daftariga yozib boradi. Avval **O** harfi ishtirokidagi ikki harfli soʻzlar, keyin navbat bilan uch harfli, toʻrt va besh harfli soʻzlar ketma-ket yozib boriladi. Masalan: *on, ot, oq, ol, ov, ona, ota, non, don, bola, bobo, olam, osmon, kitob, somon, ketmon, ostona* singari. Oʻqituvchi oʻquvchilarning topqirligi, shu bilan birga, husnixatiga ham baho qoʻyib boradi. Bu oʻyin oʻquvchilarning yozuv malakalarini oʻstiribgina qolmay, ularning ogʻzaki nutqini oʻstiradi va soʻz boyligini oshiradi.

## **“O‘yin-topishmoq” o‘yini**

Bu o‘yindan darsning ma‘lum bir qismida kichik yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda katta hajmda foydalanish mumkin. Bu o‘yin topishmoqda bitta topilmish 3 ta ta‘rifda aytiladi.

Agarda birinchi ta‘rifdayoq javobini topgan o‘quvchiga 3 ball, ikkinchi ta‘rifda to‘g‘ri javobni topgan o‘quvchiga 2 ball, uchinchi ta‘rifda topgan to‘g‘ri javobni topgan o‘quvchiga esa 1 ball beriladi.

*1-ta‘rif:* U kichkina, *2-ta‘rif:* U har birimizda bor.

Hayotimiz mazmuni. Usiz biz ta‘lim ola olmaymiz.

*3-ta‘rif:* Usti arra, osti arra.

O‘rtasida go‘shiti barra. (Javob: “Til”)

*1-ta‘rif:* Kichkina dono, *2-ta‘rif:* U har birimizda bor.

Ichi to‘la ma‘no. Usiz biz maktabga kelmaymiz.

*3-ta‘rif:* Qat-qat qatlama, Aqling bo‘lsa tashlama. (Javob: “Kitob”)

### **“U nima qilyapti?” (pantamimo) o‘yini**

O‘yinni o‘tkazishdan oldin o‘qituvchi biror asar voqeligidagi so‘zlarni, yoki o‘quvchi hayotiga bog‘liq bo‘lgan so‘zlar qatorini tuzib qo‘yadi va uni harakat orqali tushuntiradigan ishirokchilarni navbat bilan sahnaga chiqaradi. Masalan: “Qo‘rqoq bug‘u” ertagidagi so‘zlar, “Shippak” hikoyasidagi so‘zlar, “Antarktida” matni, “8-martda onajonlarimizga qilinadigan sovg‘alar”, “Matematika darslarida qo‘llaniladigan jihozlar” va hokazo. Tanlangan ishtirokchi bolalar oldiga chiqib ovozsiz harakatlar qiladi. O‘quvchilar jamoasi birgalikda uning har bir harakatini izohlashi lozim. Bunday o‘yin ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish va zeriktirmaslik uchun o‘tkaziladi.

### **“Pochtachi” o‘yini**

O‘quvchilardan bittasi pochta sifatida sinfga kirib keladi va har bir o‘quvchiga bittadan surat solingan xatjild beradi. Har bir o‘quvchi qo‘lidagi suratda nimalar tasvirlanganini so‘zlab beradi. Boshqa o‘quvchilar o‘rtoqlarining hikoyasi davomida nechta so‘zdan foydalanganini sanab boradi. So‘zlardan ko‘p va to‘g‘ri foydalangan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

### **“Qaysi harf yetishmaydi” o‘yini**

O‘quvchilarga ixtiyoriy ravishda 8 yoki 10 ta harf ko‘rsatiladi. Eslab qolishlari uchun 10 sekund vaqt beriladi. So‘ng o‘quvchilarga bilintirmasdan yashirin tarzda bitta harf olib qo‘yiladi. O‘quvchilar qaysi harf yetishmayotganligini topishi kerak. Agar topshiriq osonlik bilan bajarilsa u holda vazifani murakkablashtirish ya‘ni bitta emas balki 2-3 ta harfni olib qo‘yish mumkin. Masalan: A S B E Y D J I

Didaktik usullar o‘quvchini darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘quvchida ijodiy fikrlashga o‘rgatish, barcha o‘quvchini qamrab olish, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarish va baholashga o‘rgatish jihati bilan ajralib turadi. Biz juda ko‘p didaktik usullarni tavsiya etishimiz mumkin, ammo bu usullarning samaradorligini ulardan dars jarayonida muntazam va to‘g‘ri foydalanilganidagina kuzatishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyot**

1. Roziqov O. R., Mahmudov M. H., Hamroyev A. R., «Ona tili didaktikasi», Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2005-yil. 382 b.
2. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta‘lim talabalari uchun darslik): Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh.– T.: «NOSHIR», – 2009, 352 b.
3. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 b.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [vaboshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021. – 120 b.
5. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021. – 120 b.
6. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 144 b.
7. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 144 b.
8. To‘rayeva S. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga iboralarni obrazlar yordamida tushuntirish., Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda san‘at va madaniyatni

## BOSHLANG’ICH SINFLAR O’QISH KITOBLARIDA TOPISHMOQLARNING O’RNI VA AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Safarova Nigora Oxunjonovna**

*BUXDU, professor (v.b.)*

**Yusupova Mexrigul Asrorovna**

*BDPI 2- bosqich magistranti*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada folklor asarlari orasida eng ixcham, eng oz so’zli janrlardan biri hisoblangan topishmoq haqida fikr yuritilgan. Topishmoq qadimda tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni bir-biriga taqqoslash, o’xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini ko’proq belgilashga katta yordam berganligi sharhlangan.

**Kalit so’zlar:** topishmoq, og’zaki nutq, boshlang’ich ta’lim, ko’nikma, topishmoq javobi.

Boshlang’ich sinflarda o’qish darslarini tashkil etish kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda nutq boyligini o’stirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish, adabiy-estetik tafakkurni kamol toptirish hamda shu yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashdan iborat. O’qish dasturining mazmuni boshlang’ich sinf o’quvchilarida imon-e’tiqod tushunchalarini shakllantirish, vatanga muhabbat uyg’otish, o’zligini tanishga xizmat qiladi. O’quvchilarni o’qishga o’rgatish jarayonida bir qator ko’nikma va malakalar shakllantiriladi. Jumladan, to’g’ri, ongli, tez va ifodali o’qish; o’qilgan asarni adabiy-estetik xususiyatlari chuqur idrok etish, tasvirlangan voqea-hodisalarning mag’zini chaqish, muayyan xulosalar chiqarish; matn ustida ishlashga o’rgatish, o’quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini boytish; o’quvchilarda yuksak axloqiy sifatlarini va nafosat tuyg’usini tarbiyalash kabilar. Yuqorida qayd qilingan vazifalar “O’qish” darsliklariga kiritilgan badiiy, ilmiy-ommabop asarlar, xalq og’zaki ijodi namunalari o’qitish asosida amalga oshiriladi.

Boshlang’ich sinflarda o’qish darslari ikki yo’nalishda tashkil etiladi. 1-yo’nalish sinfda o’qish darslari; 2-yo’nalish sinfdan tashqari o’qish darslari.

Kuzatishlarimizdan ayon bo’lishicha, o’qish dasturini tuzishda g’oyaviy-estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olingan. Tanlangan o’quv materiallari o’quvchilarga ta’lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo’lgan borliq haqidagi bilimlar va yuksak insoniy munosabatlarni o’z ichiga oladi. Darsliklar(1-2-3-4-sinf “O’qish” darsliklari nazarda tutilyapti)da o’z ifodasini topgan badiiy asarlar xalqimizning o’tmishi, vatanimiz tarixi, undagi muhim voqealar, vatan ramzlari, kishilar mehnati, inson e’tiqodi va ma’naviyatiga bag’ishlangan bo’lib, u orqali barkamol shaxsni tarbiyalash maqsadi belgilangan.

O’quvchilarni o’qishga o’rgatish hayot tajribalariga tayanib ish ko’riladi. Buning uchun o’quvchi madaniy-maishiy va boshqa sohadagi hamda tabiat hodisalari yuzasidan ega bo’lgan ma’lum ko’nikmalarga tayaniladi.

O’qish mashg’ulotlarida o’quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr tabiatidan kelib chiqib rollarga bo’lib o’qitish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og’zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, hatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she’riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog’liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e’tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo’lgan intilishlari yotadi.

Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini e’tibor bilan o’qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan



ham topishga harakat qilish kerak.

Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan darsliklarda xam keng ko'llanilgan. 1-2-sinf „O'qish kitobi“ da topishmoqlar ko'proq, har bir matn ostida keltirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad matn mazmunini topishmoqlar asosida ham o'zlashtirilishiga erishishdir. Masalan, 1 –sinf „Ona tili va O'qish savodxonligi kitobi“ da “Kitobga mehr” matni ostida “Qat-qat qatlama, Aqling bo'lsa tashlama” topishmog'i keltirilgan va mavzuga juda mos tanlangan. Topishmoqlar bunday shaklda berilganda ularning javobi oson topiladi.

1-4-sinf o'qish darsliklarida “Topishmoqlar” mavzusi ostida har xil topishmoqlar ham berilgan bo'lib, ular o'quvchilarning topqiriligini yanada oshiradi, tafakkurini o'stiradi. 1 - 2-sinf darsliklarida topishmoq javoblari ularning ostiga yozib qo'yilgan yoki rasmlar orqali berilgan. 3-4-sinflarga o'tgach esa javoblar qayd etilmagan. Buning sababi shuki, bu davrga kelib o'quvchilar topishmoqlar ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qilgan bo'ladi.

Topishmoqlar bolalar shoirlari tomonidan ham yaratilib kelinmoqda. Bunday topishmoqlar sho'x, qiziqarli bo'ladi. Masalan, 4-sinf „O'qish kitobi“ da “Buni toping, qizlarim” (G'.G'ulom) topishmoqlari keltirilgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf darsliklariga o'quvchilar yoshiga mos, mavzular bo'yicha tanlab olingan ko'proq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan topishmoqlar tanlab kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari “Ona tili” fani bo'yicha– T.: Toshkent, 2021. – 252. b.
2. Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinfuchun.– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh. Dolimov Z. “O'qish kitobi”: 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Yangiyo'l poligraf servis” 2013.
4. Asrorovna Y. M. METHODS OF TEACHING RIDDLES IN THE CLASSROOM AND IN EXTRACURRICULAR READING IN PRIMARY SCHOOL //E Conference Zone. – 2022. – C. 130-132.
5. Asrorovna Y. M. EXPERIENCE IN TEACHING CHILDREN TO FIND RIDDLES IN THE DEVELOPMENT OF CONNECTED SPEECH-THE ORGANIZATION OF EXPERIMENTS AND ITS METHODS //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 166-170.
6. Oxunjonovna S. N., Asrorovna Y. M. TOPISHMOQ–FOLKLORNING MUSTAQIL JANRI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 529-533.
7. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
8. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.
10. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROT NOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
11. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
12. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
13. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAU F FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
14. Jumayev R. SADRIDDIN AYNII ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –T. 27. –№. 27.
15. Jumayev R. SADRIDDIN AYNII ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –T. 27. – No. 27.

16. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –No. 27.

17. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –No. 23

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna

*BuxDPI II bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanilganda darsning samaradorligining ortishi haqida fikr haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lim, interfaol metod, "Baliq skeleti", "Blits – o'yin" texnologiyasi, "Rezyume" texnologiyasi, "Venn diagrammasi" metodlari.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotda joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchi, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Hozirgi kunda yangi texnologiya elementi bo'lgan interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Umumiy o'rta-ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish zarurdir. Boshlang'ich sinf darslarida ilg'or pedagogik texnologiyadan foydalanib dars o'tilsa, o'qitish jarayoni takomillashadi. O'quvchilarning fanga qiziqishi ortib, ta'lim samaradorligi yuqori ko'rsatkichlarga yetadi.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lganligi sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'suliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi ma'suliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xoxish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarni o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Bugungi kun talabiga javob bera oladigan zamonaviy darslarning asosiy shartlari uning qiziqarli o'tilishi, o'quvchilarni zerikmasligidir. Bilim oluvchini mustaqil o'qib-o'rganishiga undaydigan bunday darslarda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Interfaol metodlar orqali o'quvchining faolligi ortadi, ijodiy imkoniyatlari ro'yobga chiqadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, psixologik, estetik, badiiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Interfaol metodlar o'quvchilarni ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka undaydi.

Boshlang'ich sinflarda darslarda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

### **“Baliq skeleti “ metodi**

Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil , keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar.bu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammonihar tomonlama ochib berishga harakat qiladilar.

### **“Blits – o‘yin” texnologiyasi**

Ushbu texnologiya o‘quvchilarga harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etish, mantiqiy fikrlash, o‘rganayotgan pretmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlar va ma‘lumotlardan kerakligini tanlab olishga o‘rgatishga qaratilgan. Bu metod o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini ham hurmat qilishga o‘rgatadi.

Bu usul quyidagicha tashkil qilinadi: o‘quvchilarga alohida-alohida tarqatma materiallar beriladi. Ular tomonidan yakka tartibda bajarilishi kuzatiladi. O‘quvchilar tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan vazifani mustaqil bajaradilar, so‘ngra guruhlarda tahlil qiladilar.

O‘quvchilar tarqatma materialdagi tartibsiz berilgan javoblar to‘g‘risiga mos savollar raqamini belgilab chiqadilar.bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. So‘ngra o‘quvchi javobi bilan to‘g‘ri javob o‘qituvchi yoki guruhlar tomonidan taqqoslanib, tahlil qilinadi.

### **“Rezyume” texnologiyasi**

Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axbarot beriladi. Maqsadi esa, o‘quvchilarni erkin, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, mavzudan kelib chiqadigan muammoni yechishga o‘rgatish.

### **“Venn diagrammasi” metodi**

Ushbu texnologiya ona tili, o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin bayon etish, hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa darsning samaradorligini oshirib, ta‘lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdullayeva F.N. Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayonlari. Boshlang‘ich ta‘limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. -Buxoro. 2021. -300b
2. Rahima Mavlonova, Nargiza Rahmankulova, Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya, Toshkent - 2013.
3. Ishmuhammedov R., Yo‘ldosheva M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent – 2017.
4. Jumayev E.T., Tursunov O.Q. Pedagogik texnologiyalar. -Qarshi. 2016.
5. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –No. 27.
6. Jumayev R. Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –No. 23
7. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
8. Saidova Mohinur Jonpo‘latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
9. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.
10. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 106-109.

11. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 715-719.
12. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
13. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
14. Нуруллаева, Сарвиноз Маждовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
15. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – С. 358-362.
16. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.
17. Хайитов Х. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
18. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI TA'LIMI JARAYONIDA FANLARARO INKORPORA-TSION BOG'LIQLIKNI TA'MINLASH HAMDA BADIY ASAR VA MA'RIFIY SHE'RLAR ORQALI BOLANING NUTQILNI O'STIRISH MUAMMOSI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**G'aybulloyeva Dilfuza Asatovna**

*BuxDUPI 2-bosqich magistrant*

**Zokirova Dildora Bahron qizi**

*BuxDUPI 2-bosqich magistrant*

**Zoyirova Dildora Yusuf qizi**

*BuxDUPI 2-bosqich magistrant*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada 2020-2021-o'quv yilida joriy etilgan ona tili va o'qish savodxonligi darsligi tahlili va fanlararo integratsiya qilish haqida yoritilgan. Ona tili darslari orqali bir necha fanlarni integratsiyalash orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirish metod va usullari haqida ma'lumot keltirilgan. Boshlang'ich sinflarda ma'rifiy she'rlarni o'rganishning axloqiy-ta'limiy ahamiyati haqida fikr yuritiladi

**Аннотация:** В данной статье рассматривается анализ и межпредметная интеграция учебника по родному языку и грамотности чтения, введенного в 2020-2021 учебном году. Дается информация о методах и методах ориентации учащихся на профессию путем интеграции нескольких предметов через занятия родным языком. Обсуждается этическое-воспитательное значение разучивания учебных стихов в начальных классах.

**Abstract:** This article discusses the analysis and interdisciplinary integration of the textbook on mother tongue and reading literacy, introduced in the 2020-2021 academic year. Information is given on the methods and methods of orienting students to a profession by integrating several subjects through classes in their native language. The ethical and educational significance of learning educational poems in elementary grades is discussed.

**Kalit so'zlar:** milliy o'quv dasturi, ona tili va o'qish savodxonligi, integratsiya, inkorporatsion yondashuv, kasbga yo'naltirish, siperalsimon darsliklar, badiiy asar, matn, hikoya, o'quvchi, ta'lim. ma'naviy, didaktik, istiqloq, badiiy, obrazlilik, pedagogik, nazariy, tafakkur.

**Ключевые слова:** национальная учебная программа, родной язык и читательская грамотность, интеграция, инкорпоративный подход, профориентация, спиральные учебники, художественное произведение, текст, рассказ, ученик, образование. духовный, дидактический, самостоятельный, художественный, образный, педагогический, теоретический, мыслительный.

**Key words:** national curriculum, mother tongue and reading literacy, integration, incorporation approach, career guidance, spiral textbooks, artwork, text, story, student, education. spiritual, didactic, independent, artistic, figurative, pedagogical, theoretical, thinking.

Yurtimizda ona tili ta'limi tizimini rivojlantirish 2020-yildagi eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. Ona tili ilm-fani va ta'limi rivojlantirishini yangi sifat bosqichga olib chiqishga qaratilgan juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fani bilimlarning shunday puxta poydevorini qo'yish kerakki, bu poydevor ustiga bundan keyingi ona tili va o'qish savodxonligi ta'limni uzluksiz davom ettirish mumkinligi o'z ifodasini topsin. Buning uchun I-III sinflardagi ona tili va o'qish savodxonligi, IV sinf ona tili o'quv materiallari bilan V- XI sinf o'quv materiallari orasida uzilish bo'lmasligi kerak. 2021-2022-o'quv yilida yangi milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan birinchi va ikkinchi sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi yaratildi. Bu darslik jahon ta'lim tizimi talablariga mos ravishda tuzildi. Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan darsliklar sipiralsimon tuzilgan bo'lib, o'quvchi bilimni yanada oshiradi va mustahkamlaydi. Bu darsliklar mualliflari Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Xalqaro ekspert Lannuzzi Susan. Bu darsliklar ikki qismdan iborat. Darslik o'quvchi yoshiga mos ravishda chiroyli rasmlar, audiomatlar bilan boyitilgan.

*Adabiy asar tahlili metodikasi adabiy asar tilini o'rganish jarayonida tilshunoslik faniga murojaat qiladi, o'zbek adabiy tilining estetik xususiyatlarini tahlil orqali yoritishni nazarda tutadi; ruhshunoslik fani bilan bog'lanib, adabiy asar tahlilida qo'llangan usul va vositalar boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga, bilim saviyasiga, ongiga, dunyoqarashiga nechog'lik mos kelishini e'tiborga oladi.*

*Pedagogika va didaktika bilan chambarchas bog'liqlikda adabiy asar tahlili metodikasi oxir-oqibat yosh avlodning barkamol, oqil insonlar sifatida shakllanishga ta'sir ko'rsatadi, ezgulikni, go'zallikni his qiluvchi, qadrllovchi, ma'naviyati barkamol shaxslarni voyaga etkazishga xizmat qiladi.*

XXI asr o'quvchisining tafakkuri juda o'tkirdir. Dunyoqarashi keng. Mustaqillik yillarida bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalarga keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o'quvchilarda axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy- siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berilmoqda. Istiqloq davri o'zbek bolalar she'riyat vakillarini eslaganda ko'z o'ngimizda X.To'xtaboyev, A.Obidjon, K.Turdiyeva va shu kabi ustoz adiblar qatorida T.Adashboyev va Qambar otaning ham ijodida ham namoyon bo'ladi. Milliy dasturning 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsida Kavsar Turdiyevaning "Mahalla-ota-ona" she'ri berilgan. Bu she'rni biz tahlil qilishdan oldin mahalla qayer, nima uchun mahalla deymiz, mahallada kimlar yashaydi, nega mahallani aynan ota-ona deymiz singari savollarga o'quvchilar bilan birgalikda savol-javob qilib keyin birgalikda she'rni o'qib tahlil qilinadi. She'r matni tahlilidan oldin o'quvchilarni she'rni o'qish va tushunishga tayyorlovchi, ularni fikrlashga undovchi metodik ishlar amalga oshiriladi. Mahalla-ota-ona, Har ishni qilar ta'na. Bittasi der:- Yurma kir, Bittasi der:- Uyga kir

O'quvchi bu she'rni o'rganish davomida yangi bir so'z, ya'ni ta'na qilmoq so'zining lug'aviy ma'nosini o'rganadi, lug'at boyligi oshadi. Shu birgina bandning o'zidan nega mahalla-ota-onayu har ishda bolaga ta'na qiladi degan svollar tug'ilishni boshlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari". 2018. 7-avgust.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. "Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari." *Conferences*. 2021.
3. Bakhtiyorovna, Nodira Adizova. "Place Names and Related Concepts Study." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 153-157.
4. Bakhtiyorovna, Nigora Adizova, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "Anvar obidjon is a children's poet." *Middle European Scientific Bulletin*.
5. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Boymuradova Sadoqat. "Use Foreign Experience to Improve the Reading Literacy of Primary School Students." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5

(2022): 306-309.

6. Амонов У. С. НАУЧНЫЙ ПОДХОД А. ФИТРАТА К ПОСЛОВИЦАМ //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.

7. Amonov U. S. O 'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) MQ Salohiddinova, BuxDU boshlang 'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.

8. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.

9. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

10.5. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т. 23. –№. 23.

11.6. Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARINING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzukul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o 'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –2022. –№. 3. –С. 34-37.

12. Zunnunov A. "Pedagogika nazariyasi" Toshkent " Aloqachi" 2006y.

13. Hashimov K., Nishonova S. "Pedagogika tarixi" II qism Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent 2005 y.

14. Respublika ta'lim markazi " Pedagogika tarixi Toshkent " O'qituvchi" 1997

15. Shamsiddinov R., Rasulov B. " Turkiston maktab va madrasalari tarixi" ( XIX asr oxiri – XX asr boshlari ) Andijon 1995 y.

16. Jumanazar A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent - 2017.

17. Jamilova B. , Qahhorova M. Comparative interpretation of the characters in English and Uzbek novels. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, Issue 2. – Australia, 2021. DOI: 10.47750/cibg.2021.27.02.169

18. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.

19. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.

20. Axmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O 'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 281-285.

## BOSHLANG'ICH SINIF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARINI INTEGRATSIYALASHTIRIB TASHKIL ETISH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

K.Mamatova

SamDU talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinf " Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarini integratsiyalashtirib tashkil etish usullari haqida ma'lumot beradi. Integratsiya darslarining ahamiyati va afzalliklariga qaratilgan.

**Abstract:** This article provides information on the integrated organization of "Mother tongue and Reading literacy" lessons for primary grades. It mainly focuses on the importance and benefits of these integrated lessons.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, kreativlik, rolli o'yinlar, nutq o'stirish, innovatsiya, texnologiya.

**Keywords:** integration, creativity, role plays, speech development, innovation, technology.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni o'zaro integratsiyalashning afzalliklari Bugungi kunda ta'lim tizimidagi har bir yangilik va o'zgarishlar jamiyat rivoji uchun, kelajak avlodni har tomonlama bilimdon, barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zamin yaratadi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan kirib kelgan 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" deb nomlanishi har bir ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarni ruhlantirdi va shu bilan birgalikda ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan har bir uztoz va murabbiylarmizni yanada ko'proq izlanishga ijod qilishga va fikrlashga, yangilik



yaratishga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Respublika xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2020-yil 13-avgustda "Xalq ta'limi tizimida uzliksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini rivojlantirish to'g'risidagi" buyruqning qabul qilinishi ham ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor va amalga oshirilayotgan ishlarning samarasidir. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida darslarni innovatsiya va integratsiyalangan holda olib borish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi deb o'ylayman.

Integratsiya\_ o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda yangicha yondoshuv bo'lib, hayotdagi o'zaro aloqalarni ochib berishga qaratilgan, ya'ni fanlarni o'zaro aloqadorligidir. Ta'lim jarayonida olib borilayotgan har bir islohot o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda fanlarni bir-biri bilan o'zaro integratsiyalash, ya'ni bir mavzuni bir nechta fan bilan bog'lash o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantiradi, Shu bilan birgalikda bir vaqtning o'zida bir necha fanlardagi predmetlar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Fanlarni o'zaro integratsiyalashda o'quvchilarnig pedagogik-psixologik imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Integratsiyalashgan darslar bolalarning yosh xususiyatlariga javob beradigan va talablarga mos keladigan bo'lishi kerak". Boshlang'ich ta'lim - kelajak poydevori", shunday ekan darslarni tashkil etishda fanlarni bog'layotganda ularni o'zaro chegaradosh ekanligiga ishonch hosil qilish lozim.

Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirib, tabiat predmedlarini anglab uning in'omlaridan bahramand bo'lishiga hamda har bir ne'matlardan oqilona foydalanishi uchun zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak biz pedagoglardan pedagogik-texnologik bilimlarimizni ishga solgan holda darslarni qiziqarli, mazmunli tarzda tashkil etishimini talab etadi. Bugungi kunda talim sohasidagi islohotlar zamon bilan hamnafas bilimli, iqtidorli, yetuk kadrlarni tarbiyalash uchun yangidan- yangi darsliklarni tadbiq etilishi quvonarli hol, ayniqsa boshlang'ich sinf „Ona tili va o'qish savodxonligi“ darsligi fikrimizning yaqqol dalilidir . Bunda biz ikki fanning o'zaro integratsiyalashganini ko'rishimiz mumkin, darslikdagi qisqa hikoyachalar , rasmlar, qiziqarli o'yinlar o'quvchilarni o'zaro fikrlashga, o'ylashga, tahlil qila olishga umuman olganda nutqini o'stirishga istetik didini shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan fanlar yoshlarni har tomonlama bilimli, jamiyatga foydasi tegadigan, eng muhimi shaxsiy fikriga ega bo'lgan, Vatan ravnaqiga hissa qo'shadigan komil insonlarni yetishib chiqishi uchun xizmat qiladi. Integratsiyalashgan darslarni samaradorligini oshirish omillariga ahamiyat berish lozim. Avvalo, qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Mavzular bir-biriga yaqin va mantiqiy aloqada bo'lishi zarur. Masalan, "Atrofimizdagi olam" fanini o'qish, tasviriy san'at, texnologiya, geografiya, ekologiya, odobnoma fanlari bilan integratsiyalash mumkin. Bunda o'qituvchi darsni shunday tashkil etishi kerak. Darsga tayyorlanar ekan o'qituvchi darsning maqsadini angalaydi, mavzuni tanlaydi. O'quvchilarga darslikdagi matnni gapirib berish bilan cheklanib qolmay, balki rasmlar hikoyalar, videoroliklar, ko'rgazmali materiallar, o'quvchilarni o'ylantiradigan savollar, kitobda berilmagan bo'lsa-da, badiiy asarlardan parchalar, maqol va topishmoqlar (o'tiladigan mavzuga aloqador bo'lishi kerak) berib borish o'quvchilar ongida ijobiy tasavvur uyg'otadi, ayniqsa, ko'rsatmalilik asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi. Masalan: 2-sinf „Ona tili va o'qish savodxonligi “ darsligining 3- bo'limida rasm asosidagi „Sayohatchi qushlar “ matni berilgan. Bu mavzuni atrofimizdagi olam, odobnoma, texnologiya, tarbiya, musiqa kabi bir nechta fanlar bilan integratsiyalashimiz mumkin. Dastlab tabiatshunoslik fani bilan bog'laymiz bunda o'quvchilar tabiatda mavjud bo'lgan qushlar va ularning yashash tarzi va ko'payishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Odobnoma fani bilan integratsiyalanganida tabiatimizni gullab yashnashi uchun o'z hissasini qo'shayotgan qushlarni asrash , ularni parvarish qilish, yaralangan qushlarga yordam berish, g'amxo'rlik qilish haqida bilimga ega bo'lishadi. Texnologiya bilan bog'langanda kichik maktabiyoshidagi o'quvchilar qushlarga inlar qurishni , inlar qurishda ishlariladigan materiallar haqida tushunchaga ega bo'lishadi., Sayohatchi qushlar,, mavzusi tarbiya fani bilan integratsiyalanganida bolalar o'z xonadonlariga qushlarni boqish, ularga mehr berishga o'rganadi. Eng muhimi atrof-olamni va uning boyliklarini qadrlashga o'rganadi. Musiqa bilan



integratsiyalanganda qushlar haqida qo'shiqlar kuylashadi. Bu o'z navbatida o'quvchilarni ma'naviy hordiq olishlari, tabiat ne'matlaridan zavqlanishiga xizmat qiladi va bola nutqini o'stirish uchun ham foydalidir. Har bir dars nutq o'stirish masalalariga qaratilgan bo'ladi, bunda o'rganilayotgan masalalarining o'ziga xosligi hisobga olinadi. O'quvchilar bunday darslarni yaxshi ko'rib o'zlashtiradilar, ular ko'p yangi kerakli tushunchalar beradi. Tasavvurlarini tartibga soladi. Eng quvonarlisi, o'quvchilar boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanishlari zarur bo'lgan holatlarni yaratadi, o'quvchilar materialni yaxshi o'zlashtiradi. Integratsiyalashgan dars o'quvchilar uchun tushunariligi bilan ajralib turishi kerak. Dars murakkab jarayon bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning faolligiga ham bog'liq. O'quvchilarni faollashtirish uchun esa pedagogik- texnologiyalarning ilg'or usullaridan o'yin, bahs, suhbat, viktorina, musobaqa, sayohat, davra suhbat, rolli o'yinlarni qo'llash, darslik bilan ishlash va amaliy mashqlarga ko'proq vaqt ajratishni bilish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilarga bir-birlarining fikrini to'ldirishga imkoniyat berish, atrof- muhitga nisbatan qiziqishi va bilimni oshiradi. Fanlararo aloqalarga asoslangan vertikal tematika muammosining qiziqarli yechimi pedagogika fanlari nomzodi I.V.Koshmina, muallif bolaning keng gumanitar va ekologik tafakkurini rivojlantirish, dunyoning yaxlit manzarasini idrok etish va maktab o'quvchilarini axloqiy va estetik tarbiyalash uchun fanlararo aloqalardan foydalanishni taklif qiladi. Buning uchun bir nechta maktab fanlari prinsipga muvofiq birlashtiriladi - berilgan mavzu bo'yicha dialog. Mavzu o'ziga xos mazmun, obraz, hissiy holat, axloqiy va estetik ma'noni o'z ichiga oladi. U asosiy ibora, majoziy-verbal belgi, leytmotiv hafta davomida bir nechta darslardan o'tadi va ob'ektlarning dialogga kirishiga imkon beradi. Hafta davomida darslarning umumiy mavzusini o'zgartirmagan holda o'qituvchi bir necha marta vertikal mavzuga o'tadi va uni turli fanlarning mazmuni orqali ochib beradi. Mavzu o'qituvchining xohishiga ko'ra dastur o'quv materialida ham, qo'shimcha materialda ham ko'rib chiqilishi mumkin. Darsdagi vertikal mavzu besh daqiqa yoki undan ko'proq vaqt davomida berilishi mumkin. Bundan tashqari, amalga oshirish boshqacha bo'lishi mumkin; asar tahliliga boshqacha yondashish, yangi yoki ijodiy vazifa, vertikal mavzu mazmuni yuzasidan qisqacha suhbat, kichik mulohaza, tushuntirish jarayonida urg'u, muammoli muloqot, tushuntirish. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantirish o'ylashga, fikrlashga, tahlil qilishga qiziqishini oshirishdir. Eng muhim jihatlardan biri meni fikrimcha, o'quvchiga yuklamalar ko'payib ketmaslik kerak. Ta'lim jarayonida bunday darslarni loyihalash orqali kam vaqt sarflab yuqori natijaga erishishdir. Integratsiyalashgan darslarni afzallik tomonlari bo'lgani kabi kamchiliklari ham yo'q emas. Hozirgi kunda darslarni o'zaro integratsiyalashda bir qancha muammolarga duch kelinayapti. Boshlang'ich maktab talim tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich talimni integratsiyalash bo'yicha keying paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishi, integratsiyalangan kurslarni tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirish, bunga maktab ham, didaktika ham tayyor emas.

Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalashgan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani ham o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan.

Chet el tajribalari shuni ko'rsatadiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalashgan darslar ko'pgina mamlakatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu ekologik yo'nalishga ega bo'lgan integratsiyalashgan fanlar jahon hamjamiyatida o'quvchilarda atrof- muhitga javobgarlikni shakllantiradi. Bugungi kunda asosan ayrim o'qituvchilarimizni fanlarni bir-biriga mutanosib holda bog'lay olmasligi, belgilangan pedagogik-psixologik talablardan kelib chiqqan holda tashkil etishda darsni loyihalashtirishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'limdagi bu muammoni hal etishimiz uchun joylarda "Fanlarni integratsiyalashga o'rgatish va amalda

tadbiq etish” kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

Har bir olib borilayotgan dars kreativlikka asoslangan bo‘lishi kerak. Bugungi kun maktab o‘quvchisi an’anaviy darslar bilan cheklanib qolishni xohlamaydi. Bola darsga kirib kelgan fan o‘qituvchisidan zamon talablariga javob beradigan, axborot-texnologiyalari va metodlariga asoslangan, yangi-yangi g‘oyalar asosida tashkil etilgan, qiziqarli ma‘lumot va manbalarga asoslangan dars jarayonini kutadi. Shunday ekan har bir ta‘lim jaronida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi innovatsion-integratsion darslarni tashkil qilish uchun o‘z oldiga metodikadan kelib chiqqan holda o‘z ustida tinimsiz ishlashi hamda *Nimani o‘qitish kerak?, Qanday o‘qitish kerak? Nega xuddi shunday o‘qitish kerak?* Mana shunday savollarni qo‘yish lozim ana shundagina bugungi darslar o‘quvchini mustaqil fikrlashga, bahs-munozaraga, o‘z –o‘zini tahlil eta olishga, egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishga, bola tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta‘limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo‘llanma. TDPU, Toshkent-2005 y.
2. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali-2021. Umida Qo‘ziyeva “ Maqsad sari birgalikda harakat” maqolasi.
3. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2023. –Т. 27. –No. 27.
4. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2022. –Т.23. –No. 23
5. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
6. Saidova Mohinur Jonpo‘latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
7. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.
8. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 106-109.
9. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 715-719.
10. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg‘iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda “Sifat” so‘z turkumini o‘rgatishda so‘zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagog* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
11. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. “Science and Education” Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
12. Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
13. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG‘ICH SINFDADA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 358-362.
14. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.
15. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
16. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Nusratova Shahnoza Ibodullayevna,  
To'ymurodova Nilufar

*BuxDPI magistrantlari*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi usullardan biri mustaqil ishdir. Mustaqil ish mashqning faol turi bo'lib, uni bajarish jarayonida o'quvchilar fikrlashga va mustaqil faoliyat yuritishga o'rganadilar. Har bir o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati o'ziga xos bo'lib biri-birini takrorlamaydi. Shunday ekan ularning salohiyatini, iqtidori, jarayonidagi harakatini bir xillikda baholash albatta noo'rindir. Har bir o'quvchining nazariy bilimini va fikrlash salohiyatlarini mustaqil ishlar orqali ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo, berilgan mavzuni to'liq takrorlash, o'qituvchi tomonidan berilgan materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo'llar bilan hosil qilinadi.

Mustaqil ishlarni turli xildagi metodlar, ijodiy ishlar, krossvordlar, ko'rgazmali, didaktik, test, tarqatma materiallar va yangi turdagi topshiriqlarni bajarish orqali o'rganiladi. O'quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashda topshiriqlarning maqsadi ularga qisqa va aniq tushuntiriladi. Mustaqil ish turlari har xil bo'lib, uni tanlashda o'quvchilarning tayyorgarligi, bajariladigan ishlarning darajalari hisobga olinadi. Darslarda o'rganiladigan mustaqil ishlardars tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o'quv materialining mazmuniga bog'liqdir.

Boshlang'ich sinflarda tashkil qilinadigan mustaqil ishlar hajmi va murakkabligi jihatdan uch guruhga bo'linadi: a) tayyorlovchi b) yarim mustaqil v) natijasi matnga teng mustaqil ishlar. Mustaqil ishlar faollikni oshiradi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi.

Mustaqil ish turlari qanday bo'lishi kerak? Avvalo ish turlari o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga asoslangan bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e'tibordan chetga qolmasligi kerak. Dastlabki bajargan mustaqil ishdan bola mamnun bo'lsa, uning qiziqishlari ortib, yangi-yangi ish turlarini amalga ohrishga kirishadi. Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og'zaki va yozma tarzda bo'lishi mumkin. O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim.

- beriladigan har bir topshiriq o'quvchilarning imkoniyatlariga mos bo'lishi va qiziqish uyg'ota olishi.

- Ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilishi, o'quvchiga tushunarli bo'lishi.

- Ishni bajarishda bolalarga o'ziga ishonch hissi uyg'onishi, ishga kirishishda ular o'zlarida dadillik sezishi.

- Mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama –yakkam tarzda amalga oshirilishi, albatta bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga e'tibor berilishi kerak.

Mustaqil ishlarni bajarishda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va qobiliyati hisobga olinib, ijodkorlik qobiliyatini oshirish maqsadida qo'shimcha o'quv manbalari bilan ishlanadi. Darsdan tashqari mustaqil ish va uy vazifasi sifatida o'quvchiga o'rtacha qiyinlikdagi, turli xildagi adabiyotlardan foydalangan holda yechish mumkin bo'lgan vazifalarni berish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bola o'z ustida ishlashni o'rganadi, nutqini rivojlantirish va eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lashga harakat qiladi. Masalan, pedagogika fanlari doktori, professor A.G'ulomov mustaqil ishlarga shunday ta'rif beradi: «Mustaqil ishlar deganda biz, avvalo, o'qituvchining bevosita rahbarligida uyushtiriladigan hamda o'quvchilarning ona tilidan egallaydigan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko'nikmalarni takomillashtirishga xizmat qiladigan, ma'lum maqsadga qaratilgan faol ongli faoliyatni tushunamiz».

O.Roziqov esa ona tili darslarida qo'llaniladigan mustaqil ishlarni «o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, nazariy-amaliy materiallar ustida uyushtiriladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydigan grammatik, orfografik vazifalar» sifatida tushunadi.

Jumladan, S. Matchonov: «... mustaqil ishlar ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati o'quv topshiriqlarining o'qituvchi ishtirokisiz, bevosita o'quvchi tomonidan bajarilishi bilan belgilanadi va asosan matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi, qo'shimcha adabiyotlardan samarali foydalanishni nazarda tutadi», - debyozadi.

Bizningcha, mustaqil ishlar o'quvchilarning aqliy imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradigan, o'qituvchining bilvosita va bevosita ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajariladigan vazifalar bo'lib, o'quvchilarning nafaqat bilim darajalarini, balki ularning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli amaliy faoliyatdir. Mantiqiy mashqlar bolalarni narsa va atrof muhit haqidagi bilimlarni tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelganda og'zaki nutqqa boy bo'lsa ham tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi. Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiyini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimni turli xildagi badiiy kitoblar o'qish orqali boyitish va uni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi. Mantiqiy mashqlar bolalarning so'z boyligini va tilning umumiy o'sishiga katta ahamiyatga ega. Mantiqiy mashqlar sermazmun bo'lishi, o'quvchilarning tajribasi bilan bog'lanishi, ularni to'g'ri fikrlashga va fikrini imloviy xatolarsiz yozishga o'rgatishi, bilimlarga aniqlik kiritish va tartibga solishga xizmat qilishi lozim. Bunday mashqlar bilan ona tili darslarida ham foydalaniladi. Mustaqil ishlarni bajarishda quyidagi mashqlar o'rganiladi.

#### **Gap ustida ishlash**

Gap ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihardan to'g'ri va aniq tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Gap nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhimi gap nutq birligi ekanlidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo'yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham ta'luqlidir. Gap – grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan birlikdir. Shuni inobatga olib gap grammatika bilan chambarchas bog'liqligini bilib, bu jarayonda gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gap turlari ustida ishlashga katta ahamiyat berish lozimdir. Yana shuni ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinflar dasturining “ Gramatika, imlo va nutq o'stirish ” bo'limida sintaksidan beriladigan bilimlar aniq ko'rsatilgan. Bola boshlang'ich sinflarda beriladigan sintaktik materiallar hajmida faqat ona tili darslarida emas, balki boshqa darslarda va maktabdagi barcha mashg'ulotlar jarayonida gap tuzish, uni tahlil qilish va qayta tuzishga o'rgatib boriladi.

Gap ustida ishlashga oid mashqlar juda xilma-xil bo'lib, analiz va sintezning ustunligiga hamda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra tasnif qilinadi. Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bo'linadi.

1. Analiz mashqlar, ya'ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish
2. Sintez mashqlar, ya'ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar.

Analiz mashqlar sintez mashqlarga zamin tayyorlaydi, ular parallel holda yoki sintetik mashqlardan so'ng analitik mashq o'tkaziladi. O'quvchilarning mustaqilligi va bilish jarayonining faollik darajasiga ko'ra gap ustida ishlash mashqlari uchga bo'linadi.

1. Namuna asosidagi mashqlar
2. Konstruktiv mashqlar
3. Ijodiy mashqlar

**Namuna asosidagi mashqlar.** Gap ustida ishlashning eng oddiy, boshlang'ich, shu bilan birga, eng zaruriy shakli bo'lib, namunani o'qish, yozish, intonatsiyasi va mazmunini tushuntirish, ba'zan esa gapni yodda saqlash hisoblanadi. Gapni o'qish va kuzatish nutq o'stirishga katta yordam beradi. Gap intonatsiyasi ustida ishlash gap mazmunini va bog'lanishini tushunishga yordam beradi. Bu jarayonda nutqdan gapni intonatsiyaga qarab ajratish, intonatsion tugallanganlikni ifodalashga, darak, so'roq va his-hayajon gaplarning intonatsiyasiga, uyushiq bo'lakli gaplarning intonatsiyasiga e'tibor berish kerak.

Savol asosida gap tuzish. Bunda berilgan savol-javob gap tuzish uchun asos bo'ladi va "namuna" vazifasini bajaradi. Savolda uning asosiy mazmuniga emas, balki barcha so'zlari va sintaktik qurilishining chizmasi ham beriladi. Masalan: Oila a'zolariga kimlar kiradi? (Oila a'zolariga bobo, buvi, ota-ona, aka-uka, opa-singillar kiradi) Savollar asta sekin murakkablashtirib boriladi: bolalar oldin so'roq so'z o'rniga bir so'z qo'shib gap tuzgan bo'lsalar, keyinroq so'z so'zlarini ko'proq qo'shishga majbur bo'ladilar.

Konstruktiv mashqlar. Bu mashqlarga gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi. Mashqlar Grammatik tushuncha va qoidaga asoslanadi. Konstruktiv mashqlarning turlari quyidagilar.

**Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish yoki tartibsiz berilgan gaplardan matn tuzish.** Bunda so'zlar Grammatik materialning o'rganishiga qarab uch variantda beriladi. A) so'zlar tayyor ishlatiladigan shaklda beriladi: oilamiz, katta, bizning, juda (Bizning oilamiz juda katta)



b) o'rganilgan grammatik materiallarni hisobga olib, ayrim so'zlar bosh shaklda, boshqalari tayyor shaklda beriladi. Masalan "Otlarda birlik va ko'plik" mavzusi o'tilgach paxta, dalada, bola, terdilar. (Bolalar dalada paxta terdilar) v) barcha so'zlar bosh shaklda beriladi: koptok, hovli, bola, o'ynamoq.

**Nuqtalar qo'yilmagan, bosh harf yozilmagan matndan gaplarning chegarasini aniqlash.** Bu mashqlar bolalarni o'z nutqlarida gaplarning chegarasini ajratishga, gapni to'g'ri o'qish va yozishga o'rgatadi.





Berilgan sodda gaplarni so'roqlar yordamida bosqichli yoyish mashqi. Masalan: Oyim sigir sog'adi. Qayerda sigir sog'adi? Oyim fermada sigir sog'adi. Qaysi fermada sigir sog'adi? Oyim uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog'adi.

#### **Berilgan sintaktik chizma asosida gap tuzish.**

**Berilgan gapga o'xshash, masalan uyushiq egali yoki kesimli sodda yoyiq gap tuzish.** Bunda o'quvchilarga "Quyosh yoritadi va isitadi" kabi gaplar beriladi, o'quvchi esa " Nigora o'qidi va ishladi" kabi gap tuzadi.

**Ikki-uch sodda gaplardan bitta uyushiq bo'lakli sodda gap tuzish.** Masalan: "Qaldirg'ochlar issiq mamlakatlarga uchib ketadi", " Bahorda laylaklar ham uchib ketadi" gaplaridan uyushiq bo'lakli " Bahorda aldirg'och va laylaklar issiq mamlakatlargauchib ketadi gapi tuziladi.

**Ijodiy mashqlar.** Bu mashqda o'quvchilarning o'zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang'ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o'quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar. " Mening oilam" , " Sevimli kitobim" , " Sog tanda sog'lom aql kabi.

2. Narsa rasmi yoki syujetli rasm beriladi. O'quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.



3. Ikki-uchta "tayanch" so'z beriladi, o'quvchilar shu so'zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so'z sifatida bolalarning faol lug'atiga aylantirish zarur bo'lgan so'zlar olinadi.

Ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan individual xatolar darsdan tashari vaqtda, qo'shimcha mashg'ulot jarayonida to'g'rilanadi. O'quvchi bilan individual suhbatda ham , sinfda jamoa bo'lib ishlash jarayonidagi kabi bolalarning aqliy failligiga , ya'ni xatosi nimadaligini tushunibgina qolmay , balki uni to'g'rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir.

#### **Mustaqil ish turlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishdagi o'rni**

Barcha o'quv predmetlarida bo'lgani kabi boshlang'ich sinf ona tili darslarida ham o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda mustaqil ishlar muhim o'rin tutadi. Ular quyidagi xususiyatlariga ko'ra xarakterlanadi:

- mustaqil ishlarda bajarish so'ralgan shartlar o'quvchilardan izlanuvchanlikni talab qilishi;

- o'quvchilarni mustaqil holda hukm, xulosa va umumlashmalar chiqarishga yo'naltirishi;

- mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj tug'ilishi. Boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarni faqat o'zi yaxshi bilgan , uni qiziqtiradigan mashq va matnlar haqida fikrlashga, yozishga undash kerak bo'ladi. O'quvchi uchun o'zi yaxshi bilmagan , o'ylamagan mavzu haqida yozishdan azobliroq yumush yo'q. Bunday topshiriq uning shaxsida yuzakilikni keltirib chiqaradi, ko'chirmachilikka majbur qiladi. O'quvchida bezovta qalbni tarbiyalash uchun atrof muhitga, tabiatga, har bir narsaning

mohiyatiga kirishga, o'zgalalar bilan fikr almashishga yo'naltirish lozim bo'ladi. Mustaqil ishlarda bolalarga turli xildagi topshiriqlar berib ularni ballar to'plash, turli nominatsiyalar bo'yicha e'tirof etish, hurmat taxtasida barchaga namuna qilish, eng faol o'quvchini ota-onasiga tashakkurnoma yuborish, imkoniyati bor ayrim ota-onalar homiyligida sayohatga olib borish, turli xildagi sovg'alar hadya etish kabi rag'batlardan foydalanish o'quvchini fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, boshlang'ich sinflarda mustaqil ishlarni tashkil qilish o'quvchini qo'shimcha bilim va ma'lumotlarga ega bo'lishi, o'z ustida ishlash malakasi, ma'suliyatning shakllantirilishi asnosida bola yuqori sinflarda fanni puxta o'zlashtirishi va o'zi qiziqqan fan olimpiadalarda qatnashishi muhim kasb etadi. Mustaqil ishlarni bajarish natijasida bolalar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirib, ko'nikmaga ega bo'ladilar;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usul va vositalrini aniqlaydilar;
- berilgan topshiriqning muhim yechimini belgilaydilar;
- mustaqil ish topshiriqlarini muvaffaqiyatli yakunlash uchun bilimni mustahkamlash, faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantiradilar.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Q. ochilov M.S Fuzailov " Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari"  
T :1999
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali № 6-2011
3. Safo Matchonov, Xolida Gulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi"
4. Asqarova M. va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T., 2001
5. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. –T.: Ma'naviyat, 2003.
1. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
2. 1.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
3. 2.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – No. 27.
4. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
5. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –№. 23
6. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
7. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
8. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.
9. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 106-109.
10. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 715-719.
11. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
12. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
13. Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ ҚЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).



14. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFDADA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – С. 358-362.
15. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.
16. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
17. Nayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

**BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALARNING MAZMUN-MOHIIYATI**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Buxoro amirligida tashkil etilgan jadid maktablari, ma'rifarparvarlar haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** V dannoy dissertatsii rassmatrivayutsya sovremennyye shkoly i pedagogi, sozdannyye v Bukharskom emirate.

**Abstract:** This thesis discusses modern schools and educators established in Bukhara Emirate.

**Tayanch so'zlar:** jadid maktablari, Buxoro amirliklari, mutafakkirlar, jadidchilar, usuli qadim, usuli jadid

**Ключевые слова:** Sovremennyye shkoly, Bukharskiye emiraty, mysliteli, modernisty, drevniy metod, sovremennyy metod

**Keywords:** Modern schools, Bukhara emirates, thinkers, modernists, ancient method, modern method

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, kichik maktab yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning pedagogik va psixologik asoslarini mukammallashtirishga xizmat qiladigan qator ilmiy qarashlar, pedagogik nazariyalar shakllanganki, ular xarakteriga ko'ra unitar (yakka) holatdagi, an'anaviy (predmetli) ta'lim turidan farqli o'laroq shaxs kamolotini, uning barkamol shakllanib rivojlanib borishini ta'minlashga xizmat etuvchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish imkoniyatini beradi. Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim tizimida muhim bo'g'in hisoblanib, u bolada o'qish-o'rganish istagi va ko'nikmalarini shakllantirish, bolani yuqori darajada shakllangan bilish faoliyatiga jalb qilish, bola ruhiyatida zohir bo'lgan adolat va ezgulikni barqarorlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazmuni o'quv predmetlari bo'yicha emas, balki ta'lim sohalarini bo'yicha belgilanadi. Sohalar bo'yicha ta'lim mazmunining negizini belgilovchi ko'rsatgichlar boshlang'ich ta'limning Davlat standartlarida berilib, ularda maktabgacha ta'lim jarayoni bilan boshlang'ich ta'lim jarayoni orasidagi uzviylik, fanlararo aloqadorlik, ta'limning insonparvarlik, milliylik kabi tamoyillari o'z aksini topadi. Boshlang'ich maktabda asosan mantiqiy tafakkurning oddiy shakli bo'lgan obrazli tafakkur orqali ta'lim beriladi. Obrazli tafakkur kichik yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy shakli sifatida e'tirof etiladi va maktab darsliklari, o'quv qo'llanmalari, didaktik, tarqatma materiallar tayyorlashda inobatga olinadi. Obrazli va mantiqiy tafakkurlarni rivojlantirish bolalar nutqini o'stirish bilan chambarchas bog'liqdir. Boshlang'ich ta'limning ushbu xususiyati unda matematika va ona tili ta'lim sohalarining mazmuni, miqdorini belgilashda inobatga olingandir. Boshlang'ich ta'limda bilim ta'rif, tushuncha axborot shaklida berilib, u maktabgacha ta'lim jarayonida tasavvur shaklida egallangan bilimlarni aniqlashtirish, tizimlashtirish, rivojlantirish vazifasini ham bajaradi. Boshlang'ich ta'limdan ko'zda tutilgan samarali natija boshlang'ich ta'lim va uni tashkil etish tamoyillari, boshlang'ich ta'lim konstepstiyasida e'tirof etilgan g'oyalar asosida yaratilgan darslik, o'quv-qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, boshlang'ich ta'limni tashkil etish metod va usullari, innavostion g'oyalar, o'qitishning yangi avlod vositalariga bog'liq, albatta. Lekin bu jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rnini aloqida qayd qilish, nazarimizda, maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mohiyat va xususiyat

jihatidan yuqori sinf o'qituvchisidan farqli qirralarga egadir. Bolani o'yin faoliyatidan ta'limiy faoliyatga yo'naltirish uchun o'qituvchi bolada o'z faoliyatini boshqara olish, mas'uliyatni his qilish, vaqtni rejalashtirish, e'tiborli bo'lish sifatlarini, ezgulikni qadrlab istiqbolli kelajakni ko'zlash fazilatlarini shakllanishiga mas'ul tarbiyachi hamdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining muhimlikda kam bo'lmagan yana bir jihati — bu uning ta'limiy faoliyatini boshlang'ich va umumta'lim fanlarining uzviylik jihatlari va boshlang'ich ta'lim sohalarini fanlarining o'zaro aloqadorlik tamoyillari asosida tashkil etishidir. O'qituvchining xorijiy tillarni bilishi, o'qitishning yangi avlod vositalarini, ilg'or ish tajribalar, pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llay olishi, keng qamrovli dunyoqarashga ega bo'lib, bolaga ta'sir o'tkaza olish, yo'naltira bilish fazilatlarining mujassamligi ham muhim jihatlardan biridir. Boshlang'ich ta'lim jarayonining ushbu o'ziga xos xususiyatlari bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini

tayyorlashda inobatga olinishi, nazarimizda, maqsadgamuvofiqdir.

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari maktabgacha va boshlang'ich ta'limning ilmiy-nazariy, metodologik asoslari, aloqadorlik, uzviylik tamoyillariga amal qilinishi bolada obrazli va mantiqiy tafakkurni shakllantirishning omil, vosita va metodlari bilan qurollantiradi. Shuningdek, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ona tilidan sinfdan tashqari ishlar va ularni tashkil qilish kurslarini o'qitish ham ijobiy samara beradi deb o'ylaymiz. Bugungi kunda jamiyatning shiddatli o'sishi, fan texnikaning rivojlanishi, amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalari barcha sohalar kabi ta'lim-tarbiya jarayonlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Kichik maktab o'quvchisini fikr doirasini kengaytirishda, muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashda, kompleksli ta'lim jarayonini amalga oqirishda o'quvchilarni nutqini shakllantirishga oid darslarning o'rni va ahamiyati kattadir. Hozirgi davr respublikamiz ijtimoiy hayotidagi tub ijobiy o'zgarishlar boshlang'ich sinflar ona tili ta'limini oldiga muhim talablar qo'ymoqda. Mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida qurish, davlat ta'lim standartlari talablarini bajarish, bolalarning fikrlash darajasini muntazam ravishda o'stirib borish, uquvchilarning nutqiy va imloviy savodxonligini to'la ta'minlash ana shu talablar sirasiga kiradi. Ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo'llanadigan usullar, mashqlar variantlari ko'p.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov M. Didaktik o'yinlarning ta'limiy ahamiyati.// Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. T-1996.176-bet.
2. Abdug'aniyev I., Fayziyeva M. Geografiya o'qitishda o'yinlardan foydalanish/ Sovet maktabi (hozirgi "Xalq ta'limi") jurnali. 1986/7-son. 35-37 bet.
3. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
4. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
5. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang'ich Sinflar Ona Tili Va O'qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.
6. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
7. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
8. Amonov U. S., Saporova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
9. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
10. 1. Jumayev R. SADRIDDIN AYNII ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
11. 2. Jumayev R. SADRIDDIN AYNII ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2023. –Т. 27. – №. 27.
12. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
13. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2022. –Т.23. –№. 23
14. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
15. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
16. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–121

107.

17. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 106-109.

18. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 715-719.

19. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.

20. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.

21. Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).

22. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFDADA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – S. 358-362.

23. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.

24. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

25. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

## BOLA TARBIYASIGA OID DIDAKTIK ASARLARNING METODIK IMKONIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Shodiyeva Nigora Soliyevna

*BuxDPI II kurs magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Buxoro amirligida tashkil etilgan jadid maktablari, ma'rifarparvarlar haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** V danmoy dissertatsii rassmatrivayutsya sovremennyye shkoly i pedagogi, sozdannyye v Bukharskom emirate.

**Abstract:** This thesis discusses modern schools and educators established in Bukhara Emirate.

**Tayanch so'zlar:** jadid maktablari, Buxoro amirliklari, mutafakkirlar, jadidchilar, usuli qadim, usuli jadid

**Ключевые слова:** Sovremennyye shkoly, Bukharskiye emiraty, mysliteli, modernisty, drevniy metod, sovremennyy metod

**Keywords:** Modern schools, Bukhara emirates, thinkers, modernists, ancient method, modern method

1908 yilda Buxoroda ilk bor tashkil etilgan «Birodari Buxoroyi sharif» xayriya shirkatining topshirig'iga binoan Sadridin Ayniy Samarqandga keladi va Abduqodir Shakuriy maktabi, uning o'qitish usullari bilan tanishadi. Shakuriy Ayniyga jadid maktablari uchun Ismoilbek Gaspralining «Xo'jai sibyon»iga o'xshagan darslik yaratishni maslahat beradi. Ayniy

uning taklifiga amal qilib, «Tahzibus-sibyon» («Pokiza bola») qiroat darsligini yaratdi, kitob 1909 va 1917 yillarda ikki marta nashr qilindi. Ayniy va Munzim maktabi ancha muvaffaqiyat qozondi, o'quvchilar soni kun sayin ortib bordi. 1909-yilning oktabrida Buxoro tarixida birinchi marta o'quvchilardan imtihon olish tantanasi bo'lib o'tdi. O'quvchilarning bilimidan, maktabning tartib-qoidalaridan imtihonda qatnashganlar juda mamnun bo'ldilar, ma'rifatli boylar maktabni durustroq binoga ko'chirish haqida fikr bildirdilar.

Bu xayrli ish ham mustamlakachilar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qolgan mutaassiblarning keskin qarshiligiga uchradi. Birinchi jadid maktabi Buxorodagi Rossiya elchixonasi xodimlarining aralashuvi bilan yopildi. E'tiborli tomoni shundaki, bu voqea Rossiya imperiyasidagi turkiy qardoshlar gazeta va jurnallarida aks sado berdi. «Mulla Nasriddin» hajviy jurnali Buxoro mutaassiblarini fosh etuvchi hajviy rasmlar va maqolalar e'lon qildi. Jadid maktabdorlari Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysi shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutafakkirlar bilan aloqa bog'ladilar, Qrim, Turkiyaga talabalar yuborish, o'z saflarini o'sib kelayotgan maorifparvar yoshlar hisobiga mustahkamlashga kirishdilar.

1913-yilda Istanbulda o'qiyotgan Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Atoxo'ja, Fitrat, Homidxo'ja vatanlariga qaytib keldilar. Ular ham Buxoroda jadid maktabi ochib ishga kirishdilar, «Ma'rifat kutubxonasi» va «Barakat shirkati» ochdilar. Jadid mutafakkirlari ilm- ma'rifat yo'lida qanchalik harakat qilmasinlar, ularning faoliyati shunchalik qattiqqarshiliklarga uchradi, hatto ular aziz hayotlarini xavf ostiga qo'yib, islohot ishlarini davom ettirdilar. Jadidchilik harakatining ashaddiy dushmanlaridan bo'lmish Burhoniddin Buxoro qozikaloni mansabini egallagach, dastlabki harakati jadid maktablarini yopish bo'ldi. Buxoro amirligida jadid maktablarining yana qayta ochila boshlashida Fitratning «Munozara» asari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sadriddin Ayniy ta'biri bilan aytganda, Fitrat ushbu asarida shariat yo'lida «usuli jadid»dan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berdi. Natijada, Buxoroda jadid maktablari qayta ochila boshladi, hatto «usuli qadim» maktabdorlari ham o'z faoliyatlarida birmuncha ijobiy o'zgarishlar yasashga harakat qildilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Buxoro amirligiga nisbatan Xiva xonligida Muhammad Rahimxon Feruz va mirzoboshi Komil Xorazmiy boshchiligida jadid maktablari ancha erta ochila boshladi. 1891-yildayoq ulug' mutafakkir Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochildi. Ushbu maktab xalq o'rtasida katta e'tiborqozondi, unda dastlab 25 o'quvchi ta'lim oldi. Diniy ilmlar bilan bir qatorda jug'rofiya, tarix, hisob kabi aniq fanlar hamda rus tili o'quv predmeti sifatida o'qitildi. Qozondan maxsus o'qituvchi chaqirilib, dars jadvali tuzildi, har bir dars 50 minut va 10 minutlik tanaffus joriy qilindi. Bu maktabni hatto Muhammad Rahimxon Feruz kelib ko'rdi, o'g'li Asfandiyorni shu maktabga o'qishga berdi, maktabning kerakli jihozlari, o'quv qurollari uchun davlat xazinasidan mablag' ajratdi. Xiva xonligida jadid maktablari taraqqiyotining oldini olish maqsadida 1894 yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligining faol aralashuvi bilan dastlab Xivada, keyinroq Urganchda rus-tuzem maktablari ochila boshladi. Feruz vafotidan keyin taxtga o'tirgan Asfandiyor ham jadid maktablari rivojiga katta ahamiyat berdi. Ayniqsa, devonbegi Said Islomxo'ja bunday ma'rifiy ishlarga bosh bo'ldi. Qozondan muallimlar taklif qilish, ular yordamida jadid maktablari ochish davom etdi.

Jadid maktablarining Xorazm xonligi bilan Buxoro amirligida shakllanish va rivojlanish jarayoni bir-biridan tubdan farq qiladi. Buxoro amirligida usuli jadid maktablarining keng ko'lamda tarqalishiga amaldorlar keskin qarshilik ko'rsatgan bo'lsa, Xiva xonligida, aksincha, bu masalada xon boshchiligidagi arkoni davlat faollik ko'rsatdi, pastki tabaqa, hatto mahalliy muallimlar ancha sustlik qildi. Shuning natijasida jadid maktablari keng quloq yoza olmadi, xalq orasidan jadid pedagoglari yetishib chiqishi ancha sekin kechdi, xonlik, asosan, Qozon, Turkiya, Bog'chasaroydan darsliklar, turli o'quv kitoblari olish, muallimlar jalb qilish masalasi bilan mashg'ul bo'ldi. Bu yo'l bilangina xonlik maorifini tubdan isloh qilish mumkin emas edi. Xiva xonligidagi mavjud ahvolga «Tarjimon» gazetasi ham taassuf bildirdi: «Bog'chasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilan muallimlar Xivaya yarashmayur, kelishmayur esa

xivalidan muallimlar yetishdirmali va Xivada tab' o'linajoq alifbolari vujudga keltirmali. Bunda hech bir kimsa zarar ko'rmaz. Toshkand bo'yla bir chora bo'ldi».

Shuning uchun ham Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li va Mahmudxo'ja Behbudiyalar jadid maktablari uchun zamonaviy muallimlar tayyorlash, davr talablariga javob bera oladigan darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish hamda nashr etish kabi kompleks pedagogik ishlarni olib bordilar. Ma'rifatparvarlar maktablar ravnaqiga uchun ulkan hissa qo'shdilar. A.Fitrato'zbek tili qonun-qoidalariga oid ilmiy asarlar yaratdi, S.Ayniy qizlar maktabi uchun alifbe va o'qish kitobi, A.Avloniy o'rta maktablar uchun adabiyot darsligi, M.Behbudiy va M.Abdurashidxonovlar esa alifbe, o'qish, ona tili kitobi bilan birga geografiyadan darslik tuzdilar. Mazkur mualliflarning darsliklaridagi o'quv materiallari mazmunan boy bo'lib, ularda usuli ibrat va pand-nasihati yo'nalishidagi axloqiy-talimiy matnlar, o'lkashunoslik yo'nalishidagi o'quv materiallari, milliylikni tarbiyalashga qaratilgan ko'rgazma materiallarining qo'llanilish darajasi shu davrda yaratilgan boshqa darsliklarga nisbatan yuqoridir. Ma'rifatparvarlarning darsliklarida sharq an'anaviy masalchiligining yetakchig'oyalari – ochko'zlik, nafsga berilish, o'zgarlar haqqiga ko'z tikish qoralandi.

Bulardan tashqari, darslik mazmunini belgilashda ilmiy va amaliy ahamiyatga molik nazariy ma'lumotlar, qonun-qoidalar va tushunchalarni o'z ichiga olgan materiallarni darsliklarga kiritish, o'quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos bilimlar bilan qurollantirish, darslikdagi o'quv materiallarining o'quvchilar yosh va fiziologik xususiyatlariga mos bo'lishi kabi talablarga amal qilinishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
2. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
3. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.
4. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROT NOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
5. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
6. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
7. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAU F FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
8. 1.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
9. 2.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – №. 27.
10. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
11. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –№. 23
12. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
13. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
14. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.

15. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 106-109.
16. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 715-719.
17. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagog* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
18. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
19. Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
20. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYI JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – С. 358-362.
21. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.
22. Хайитов Х. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
23. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

## O'QISH DARSLIGIDAGI ERTAKLAR VA ULARNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

N.B.Rajabova

*BuxDPI magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'qitish prinsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish ta'kidlab o'tilgan. O'qish darslardagi ertaklar va ularning ahamiyati, o'quvchilarni mehnat qilish hurmat-izzat jamoatdagi nisbattan yuksak e'tiborda bo'lish kabi xususiyatlari ko'rsatilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ona tili, so'z, mashq, ta'lim, tarbiya, tizim, muammo, faol, umumlashtirish, mustahkamlash, noan'anaviy, interfaol, innovatsion, usul, konferensiya, dars, badiiy adabiyot, multimedia.*

**Аннотация:** *В данной статье подчеркивается строгое соблюдение принципов и методов организации уроков с учетом возраста, уровня и возможностей получения знаний учащимися начальных классов. Показаны рассказы на уроках чтения и их значение, особенности трудолюбия учащихся и уважения к обществу.*

**Ключевые слова:** *родной язык, слово, упражнение, обучение, система, проблема, актив, обобщение, закрепление, нетрадиционный, интерактивный, инновационный, метод, конференция, урок, художественная литература, мультимедиа.*

**Abstract:** *In this article, it is emphasized to strictly adhere to the principles and methods of organizing lessons, taking into account the age, level and ability to receive knowledge of primary school students. Tales in reading lessons and their importance, the characteristics of students' hard work and respect for the community are shown.*

**Key words:** *native language, word, exercise, education, training, system, problem, active, generalization, strengthening, non-traditional, interactive, innovative, method, conference, lesson, fiction, multimedia.*

Boshlang'ich sinf o'qish darsligida xalq og'zaki ijodi uchun umumiy soatdan 28 soat ajratilgan. Bo'limga xalqimizning ming yillar mobaynida yaratilgan sehrli- fantastik ertaklar, xalq dardi, istak - xohishi, orzu-umidlari ifodalangan qo'shiqlari, bolalarning quvnoq o'yin-qo'shiqlari, hozirjavoblik, topqirlikni ifoda etadigan topishmoqlar xalqning hayotiy xulosasi tarzida yuzaga kelgan purhikmat maqsadlar sehr-jozibaga yo'g'rilgan rivoyatlar kiritilgan. Darslikda berilgan ertaklarning har biri bir olam mazmunni qamrab olgan bo'lib, ular orqali turli hayotiy-falsafiy g'oyalar ilgari suriladi.

Xalqimizda "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar" degan naqlni bejizga aytishmagan. 4-sinf darsligida o'zbek hamda jahon adabiyotiga oid bo'lgan 17 ta ertak kiritilgan. Ertaklarni birin-ketin tahlil qilamiz. Ushbu ertaklarning har qaysisida turlicha hayot falsafalari o'z aksini



topgan. Ya'ni, ularning birida yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik kabi fazilatlar qoralansa, yana birida mehntsevarlik, ahillilik, do'stlik, ota-onaga, el-yurtga sadoqatni tarannum etuvchi g'oyalar o'z ifodasini topadi. Yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, mehnatsevar, vatanparvarlik tuyg'usni shakllantiruvchi eng muhim manbaa- bu ertaklar sanaladi. Endi darslikdagi ertaklar tahlili bilan tanishib chiqsak. „Chaqimchiga mukofot“ ertagida asosan qoralanadigan xususiyat bu chaqimchilik bo'lib, ushbu ertakda podshoh hamda ukasi o'rtasida gap tashuvchi, chaqimchi o'lim jazosiga mahkum etiladi. Ertak sarlavhasidagi mukofot qo'shtirnoq ichida aytiladi, ya'ni uning yomon illatlaridan bo'lgan yolg'onchiligi o'z boshini yeydi. Ushbu ertak orqali o'z o'quvchilarni chaqimchilik qilmaslikka, o'zgalarning gapini tashimaslikka undash uning oxir oqibati salbiy oqibatlariga olib kelishi hamda doim tiliga ehtiyot bo'lib so'zlashini uqtiradi. Sirni fosh qilishdan, chaqimchilikdan yomonroq gunoh yo'qdir. Chaqimchi yaxshilik qilgan bo'lsa ham endi taxtga o'tirgan shoh tomonidan quyidagi so'zlarni eshitish mumkin. „Akam senga ishonib sirini aytdi, sen xiyonat qilib, sirini fosh qilding, menga kelib chaqding. Akamga vafo qilmagan odam menga vafo qilarmidi? Ana endi chaqimchiliging jazosini tort“, - deb dorga ostirdi. O'ylamay qilingan xato kamchilik tufayli o'z boshini o'zi yeydi. Shu ertakni mazmunini yorituvchi „Oldiga kelganini yemoq molning ishi, og'ziga kelganini demoq nodonning ishi“ maqolni keltirish o'rinli.

„Ikki saxiy“ ertagi muallifi Murod Xidir tomonidan keltirilgan bo'lib, ushbu erak orqali saxiylik, hotamiylik, ko'ngli ochiqlik kabi insoniy sifatlar ulug'lanadi. Ertakda bir saxiy odam g'oyat hotamligi va dovyurakligi bilan hammani lol qoldiradi. Ertakdagi kishi saxiy bo'lish bir qatorda hojatmand ham bo'ladi. Uning qishloq ahliga aytadigan yagona so'zi bu „Meni duo qilinglar, bas“, - der ekan. Ertakdagi shaxs, saxiyliigi, rostgo'yliigi, mehnatsevarligi uchun qishloq ahlining mehrini qozonadi. Ertakda 2 ta saxiy obrazi ko'zga tashlanadi. Bular birinchi va ikkinchi saxiy deb yuritiladi. Bunda birinchi saxiy qilgan yaxshilik, saxiyliklarini hisob-kitobini olib bormas ekan. Ikkinchi saxiyning tosh-u tarozisi bor. Tarozining bir pallasiga o'zi ulashgan narsani, ikkinchi pallasiga savobdan qadoqab olgan toshini qo'yadi. Shu bilan orani ochiq qiadi. Lekin uning hojatmanddan undirgan, ya'ni so'rab olgan duolari esa faqat foydaga qoladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ikki saxiy ham o'z nomlari bilan saxiy, lekin ikkinchisaxiyning xatti-harakatlaridan xalq norozi. Bundan ko'rinadiki, yaxshilik qilsang, unut. Birovga biron foydani ko'zlab yordam berish niyatidan qayting. Chunki, bu hatti-harakatlaringiz ta'magirlikka kiradi. „Nuqul savobni ko'zlab qilingan xayrli ish ta'magirlikka kiradi, duoni so'rab olish esa tilanchilik bilan barobar“. „Davlat“ ertagi qadim zamondagi xonadonlarning birida bo'lib o'tgan voqea asosida qurilgan. Ertakdan ko'zlangan asosiy maqsad hamjihat bo'lib yashash, oilaviy tinchlik, mehnatsevarlik, ahil bo'lib yashash, ota-onaning hurmatini o'z o'rnigaqo'yish kabi go'zal insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Ya'ni tinchlik, totuvlik, mehnatsevarlik bor joyda davlat bo'larmish ishonmaysizmi, to'g'risi, uning o'zi shunday deydi: „Bobo men hech qayerga ketmayman. Shu yerda qolaman, men xursand bo'lib, ahil yashaydigan xonadonni yaxshi ko'raman. Inoqlik qayerda bo'lsa men ham o'sha yerdaman!“ – deb so'zini tugatdi. Bundan ayon bo'ladiki tinch, totuv oilada davlat doim hozir-u nozir bo'larmish. Oilalardagi tinchlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibatli bo'lish eng go'zal fazilatdir. Bolalarni yoshlikdan mehribon qilib voyaga yetkazishda oilaviy o'rni katta. Bola oilada qanday muhitda o'sgan bo'lsa kelajakda ham xuddi shunday hayot boshlaydi. Ya'ni „Qush inida ko'rganini qiladi“. O'zbek xalqi azal-azaldan bolajon xalq, lekin bolani yoshligidan haddan tashqari erkalatish, taltaytirish, keyinchalik uning ishyoqmas, dangasa bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun yoshlikda bola tarbiyasiga e'tibor qaratish lozim. Chunki, tug'ilganidan boshlab voyaga yetganiga qadar nazoratsiz qoldirish tavsiya etilmaydi.

„Ilm afzal“ ertagi orqali ifoda etiladigan asosiy ma'no va mazmun ismning ulig'lanishi, ilm baxt kaliti ekanligi yana bir o'z tasdig'ini topadi. Ertakda chol uning sakkiz o'g'li va bir nafar qizi ishtirok etib, chol qarigan, lekin kuchli bilim egasi olim bo'lib, lekin uning sakkiz o'g'li ham mehnat qilishni, ilm o'rganishni xohlamaydilar. Lekin cholning qizi dono. Tadbirli bo'lib, akalarini qanday qilib o'g'illarini mehnat qilishga undashni uddasidan chiqadi. Ertak orqli o'quvchilarni ilm o'rganishga, mehnat qilishga o'rgatish g'oyasi yotadi. Xalqimiz ta'biri bilan aytadigan bo'lsak „Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik“. Qiz yosh bo'lishiga qaramay hayot falsafalarini to'la anglab bo'lgan. Ya'ni ilmsiz, mehnat qilmay hech

narsaga erishib bo'lmaydi. Ota o'g'illaridan davlat afzalimi yoki ilm deganda ularning bari bir ovozda davlat deydi. Lekin davlat bugun bo'lsa ertaga yo'q bo'lishi mumkin. Ular shuni anglamagan holda javob beradilar. Ilm tunganmas boylik. Uni qancha ishlataversangiz yana shunchalik ko'payib boraveradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, hadisi shariflardan "Beshikdan qabrgacha ilm izla",- deyilgan. O'quvchilarga ilmning qudrati hamda afzalliklarini uqtirish maqsadida ushbu ertak keltirilgan. "Ko'zacha bilan tulki" ertagida asosiy qahramon obrazida uch narsa ko'zga tashlanadi. Bo'ri deganda ko'z oldimizga ochko'z yirtqich maxluq, ko'zlari yonib turuvchi hayvon kelsa, tulkida esa ayyor, doim yon-atrofdagilarni laqillatib yuruvchi aldoqchi jonivor keladi. Ushbu ertakda ham bu ikkala hayvondagi xususiyatlarning barchasi namoyon bo'ladi. Ertakni berilishidan asosiy maqsad ya'ni, uning negizida hech bir yovuzlik jazosiz qolmasligi o'z aksini topgan. Tulki bo'rini aldadim deb xursand bo'lib yo'lida uchragan xumchadan ta'zirini yeb, dumidan ajralib qoladi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar tulki doim aldoqchi. O'quvchilar ushbu ertakni o'qish davomida yolg'onchilikning, aldashing oxiri nima bilan tuigashi hamda bu xislatlar kishilarni ezgulik singari go'zal fazilatlardan Inson go'zal xulqi, chiroyli odobi bilan elda aziz. Yaxshilik doim o'zi bilan yaxshiliklarni yetaklab keladi. Ertakda yolg'onchilik, yirtqichlik kabi yovuz timsollarni ifodalash uchun asosan ana shu ikki detaldan ifodalaniladi. "Ochko'z boy" ertagi bolalarni ochko'zlikdan, hasadgo'ylik kabi yon-atrofdagilarni ko'rolmaslik kabi xislatlar qattiq qoralanadi. Ertakni tili sodda o'quvchiga tushunarli qilib berilgan. Yana bunda ochko'zlik bilan bir qatorda hasadgo'ylik, ko'rolmaslik odatlari hamda uning oqibati nimalarga olib kelishi yorqin ifodalab berilgan. Kishilar orasida ushbu illatni o'zida kasb qilib olganlar ko'plab topiladi. Xuddi o'zini sizga do'stdek tutadi-yu, ammo sizning muvafaqqiyatingizni ko'ra olmaydi. Yuzi kulib tursa ham ichi olovdek lovillab yonib turadi. Xalqimizda hasadgo'ylik, ochko'zlik hamda ta'magirlik kabi salbiy xislat egalari jamiyatdan chetlatilgan. Ertak orqali aytilmoqchi bo'lgan gapning indallosi, ochko'z bo'lmaslik o'zgalarning boyligiga hasad emas, havas bilan qarash kerakligi hamda qo'ldan kelgancha yaxshilik qilishga o'rgatadi. Atrofdagilarga, tabiatga, hamda undagi jamiki hayvon-u, parrandayu, darandalarga g'amxo'rlik qilish kerak. Aytgan gaplarni amalda isboti uchun sinf xonasida jonli burchaklarni tashkil qilish hamda ularga g'amxo'rlik qilishni avvalo o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatmog'i lozim. O'quvchilarni "Qushlar bizning do'stimiz" mavzusi ostida birlashtirish tavsiya etiladi. Qilingan yaxshiliklar javobsiz qolmasligi qachondir yana yaxshilik bilan qaytishi aytib o'tilgan. Tabiatda hamma narsa insoniyat hayoti uchun foydali. Shuning uchun har bir bo'lagini asrab-avaylaylash bizlarning ham qarzimiz, ham farzimizdur. Bu ertak sehrli-fantastik ertak turiga mansub bo'lib bunda hayotiylik ham hukm suradi. Tarvuz ichidan urug'lari o'miga tilla chiqishi yoki arilarning chiqib ketishi bu sehrli-fantastik bo'lsa ertakdagi oddiy dehqon uning uyi, bajaradigan yumushi o'zbek xalqining qadimiy yashash muhitini aks ettirib turadi.

"Hiylagarning jazosi" ertagida mol-davlat uchun o'z vijdonini sotgan kishi xususida gap boradi. Ertakda ikki do'st boylik uchun xafalashib qolgan. Ertakda asosiy qahramon sofdil kishi bo'lib, uning do'sti esa hiylagar bo'ladi. Ikkalasi qadrdon do'st bo'ladi, lekin yo'ldan topilgan tillani deb ularning orasi buziladi. Hiylagarning ochko'zligi uchun uning kasriga bir qari chol halok bo'ladi. Boylikni deb nafaqat o'zini balki bir begunoh sodda cholning ham umri zavol bo'ladi. O'quvchilar orasida ana shunday boylikka o'ch, hamma narsani hisob-kitob bilan hal qiladiganlar uchun bu ko'zgu vazifasini bajaradi. Ya'ni boylik deb, davlat deb odamiylik, insoniylikdan qolaversa jamiyatdan butunlay ajralib qolib o'z boshlarini o'zlari yeydilar. Donolarimiz aytganlariday "Pul odamni emas, odam pulni yaratadi". Bugungi kunda mol-davlat talashib yuz ko'rmas bo'lib ketganlarni ko'plab uchratish mumkin. "Hunarsiz kishi o'limga yaqin" ertagida hunarli kishi ulug'lanadi. O'tgan zamonda bir podsho yashagan ekan. U bir kun ovga chiqib o'sha yerda bir o'tinchi cholning qizini sevib qolibdi. Podshoh unga sovchi yuboradi. Qiz sovchilarga "Podshohingizning nima hunari bor, men hunarli kishiga turmushga chiqaman" debdi qiz. Buni qarangi podshoh unga sovchi qo'yib ulug'lanmoqchi va podshoh uning hamma narsasi yetarli, mol-davlat, yer, butun boshli mamlakat uniki lekin qiz shohning qanday hunari borligini so'raydi. Sababi, zamon o'zgarishi bilan bugun podshoh bo'lgan kishi ertaga tillanchi bo'lib qolishi mumkin.

Bundan ayon bo'ladiki, hunarli kishi hech qachon hech qayerda xor bo'lmaydi.

Xalqimizda hunarli kishining rizqi butun bo'ladi degan gapi bor. Ertak orqali o'quvchilarga hunar o'rgatish, uning kundalik hayoti ahamiyati xususida so'z boradi. Bundan tashqari o'rgangan bilimlarini boshqalarga o'rgatish ham katta savob hisoblanadi. Kishi biror bir hunarni o'rgansa-yu, undan foydalanmasa, ya'ni u hunarini xor qilsa, undan jamiyatda hech qanday naf yo'q. Ya'ni u hunarni o'rganib, oxiri o'zi bilan olib ketarmish. Agar hunarli kishini qiladigan hunaridan yon-atrofdagilar naf ko'rsalar bunday kishining umri uzoq bo'larmish. Navoiy ustoz tadbirlari bilan aytganda,

Hunarni asrabon netgumdir oxir,  
Olib tuproqqami ketgumdir oxir

Yosh avlodga bilim bilan bir qatorda hunar ham o'rgatilmog'i uchun ertaklar asos vazifasini o'taydi. Ertak hayotiy ertaklar sirasiga kiradi. Qizning bir og'iz so'zidan keyin podshoh hunar o'rganadi. Bundan ko'rinadiki, "Hunarli kishi xor bo'lmas" ekan.

Ertaklar qaysi mamlakatda yartilgan bo'lmasin, ulardagi eng asosiy g'oya bu yovuzlik ustidan tantana qilishi aks ettirilgan bo'ladi. Davrada kishini aqldan ozdiruvchi o'ta takabbur hamda odobsiz bir jajji qizchaning butun boshli bir davradagi bolalarning miyasini zaharlab o'zidan sal pastroq tabaqadan chiqqan bolalarni kamsitib, ularning ustidan ochiqdan-ochiq kuladi. Bolalarning yoshligida ishonuvchan bo'lishi soddaligi hammaga ayon. Ertak orqali aytilmoqchi bo'lgan fikr bu bolalar o'rtasida uchraydigan maqtanchoqlik, kibr-havoni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, endigina katta hayotga qadam qo'yayotgan yosh avlodning go'zal xulqlar egasi qilib tarbiyalash ota-onalarning mol-davlatlariga ishonib, gerdayib o'zlarini aslzoda-yu, o'zgalarni kamsitish hamda manman bo'lib yetishmasliklari uchun ushbu tur ertaklar eng muhim manba hisoblanadi. Ertakdagi salbiy obrazni ifoda etayotgan bu qizaloq endigina 9-10 yoshga kirgan bo'lishiga qaramasdan, o'zicha davradagi bolalarni mensimay familiyasi "sen" bilan tugovchi kishilarda odam chiqmaydi. Biz aslzodalar ularga yaqinlashmasak ham bo'laveradi deb tashxis to'qayadi. Buni qarangki, taqdir taqozosi bilan davradagi bolalar orasidagi eng muhim uning ustiga familiyasi ham "sen" bilan tugaydigan bola boy-badavlat bo'lib ketadi. Buni qarangki, o'sha bolaning familiyasi "sen" bilan tamom bo'lsada, lekin undan odam chiqdi.

"Ertaklar mamlakatida" bo'limi yuzasidan o'tkazilgan umumlashtiruvchi darsda o'quvchilar bo'limdagi o'qiyotgan ertaklardan qaysi biri qiziqarliroq ekanini shuningduk asarlarda qahramonlan, ularning xulq-atvori haqida o'z fikrlarini bayon qilishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda umumlashtiruvchi darslarni uyushtirishda ilg'or texnologiyalarning roli kattadir.

Asarning janri xususiyatlarini aniqlash, abadiy qahramonlarning fel-atvorini baholash o'quvchilarning adabiy nazariy tushunchalarini shallantirishda mazkur texnologiyalardan samarali vosita bo'lib xizmat qiladi va o'quvchilarning ta'lim jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishda yordam beradi va ta'lim samaradorligiga zamin yaratadi. Og'zaki nutqni shallantirishda darsning ko'rgazmaligiga katta ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki dars samaradorligini oshirishda ko'rgazmali qurollardan foydalanishning ahamiyati katta chunki ko'rgazmali qurollar o'quvchilar bilimni oshirish va o'qituvchi mehnatini samarali qilish vazifalaridan biri hisoblanadi. Darslarda ko'rgazmalikni tadbiq etish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini oshiriladi, fikr va nutqi rivojlanadi ular diqqat qilish va kuzatuvchanlikka o'rganadilar. Darsda ko'rgazmali bolalarni yodda saqlashga undaydi, o'qish va yozuv malakalarining sifatini oshiradi, talimni hayot bilan bog'laydi. Ko'rgazmalikni zarurligi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ruxiy holatini mustag'kamlaydi. Sinf o'quvchilarini o'ziga xosligi va o'qitiladigan fanning vazifalaridan kelib chiqadi. Kichik yoshdagi bolalar tabiati ko'rgazmalikni talab qiladi. Ular turli narsalarni bo'yoqlarni shakllarni ko'rib fikrlaydilar. Fikrlash orqali hodisalarni ongli o'zgartirishga o'rganadi ko'rgazmalar doimiy tushuncha va xarakatdagi ko'rgazmalar bo'ladi 1-turdagi ko'rgazmalar o'quv yilining oxirigacha turadi. Xarakatdagi ko'rgazmalardan esa ta'lim jarayonida yangi mavzu o'tilganda va mustag'kamlanganda foydalaniladi. Ko'rgazmali qurollar yasalishi jihatdan sodda, ixcham, boshlang'ich ta'limdagi barcha fanlarga moslangan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi O'qish darslarida xam ko'rgazmalarining turli xillaridan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantiradi. Darslikda keltirilgan ertaklarni o'qituvchi

o'zining pedagogik mahoratidan kelib chiqib tushuntiradi. Ertaklarni o'qitishning eng qulay va ko'p qo'llaniladigan turi bu og'zaki suhbat, dialog hamda ko'rgazmali metodlardir. Hozirgi zamon pedagogik texnologiyasida dars jarayonida yangi ped texnologiyalaridan foydalanib dars o'tish joriy etilgan. O'quvchilar o'qib, eshitib o'rgangandan ko'ra ko'zi bilan ko'rgan voqea-hodisalarni uzoq muddat xotirada saqlaydi va ko'rib turgan narsasiga to'g'ri baho bera oladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda darslar asosan ko'rgazma vositalari yordamida o'tiladi. Rasmlar, ko'rgazma qurollari yordamida dars o'tilsa, o'quvchilarda nutq faoliyati jadalashadi. Ular rasmga qarab o'z fikr mulohazalarini bayon etadilar. Agar ertaklar ko'rgazma vositalar yordamida o'qitilsa, o'quvchilar xuddi ertakni ichida turgandek bo'ladilar. Rasmga qarab turib ertak mavzusi uning maqsadi, qahramonlari haqida tushuncha o'z-o'zidan shakllanadi. Ko'rgazma qurollarini qo'llashda o'qituvchidan e'tiborlilik talab etiladi. Chunki, o'tayotgan darsiga mos keladigan vositalari o'z o'rnida qo'llay olishi hamda ko'rgazmani qo'llashdagi asosiy maqsadi, unutilmasligi lozim. 4-sinf o'qish darsligida berilgan "Quyosh sevgan yurt" ertagini o'qitish usullari haqida mulohaza yuritadigan bo'lsak, ushbu ertakni turli usulardan foydalanib o'qitish mumkin. Masalan, keng miqyosda qo'llaniladigan metod bu ko'rgazmalilik metodi bo'lib, unda ertak mazmunini o'zida to'la aks ettiruvchi rasmlarda foydalaniladi. Agar dars yangi pedagogik texnologiyadan foydalangan holda tashkil etiladigan bo'lsa, unda avval dars o'tish joyi tanlanadi. Ya'ni dars texnika vositalari bilan to'la ta'minlangan. Sinf xonasida tashkil etiladi va video, proyektorlar yordamida turli slaydlarasosida dars tashkil etiladi. Slaydlarda jonajon o'sha o'lka tarixidan so'zlovchi, uning betakror rang-barang tabiatini ifodalovchi, moziydan so'zlovchi, osmono'par, yoshi yillardan asrlarga tenglashib jangu-jadallarni guvohi bo'lgan tarixiy obidalarining suratlari keltiriladi hamda yurt tarixi unda yashab o'tgan ajdodlar ota-bobolar haqida og'zaki savol-javob o'tkaziladi. Biz yuqorida aytib o'tgan ertak o'quvchi ongida shunday yurtda tug'ilganidan faxr-iftixor tuyg'usini shakllantiradi. Dars jarayonida ertak avval o'qituvchi tomonidan ifodalai qilib baland ovozda o'qib beriladi. Unda ilgari surilayotgan fikr- mulohazalari slaydlarda o'z aksini topadi. Agar sinf xonalarida texnika vositalari yetarlicha bo'lmasa yoki darsni yangi ped texnologiyadan foydalanib o'tishga imkoniyat bo'lmasa, unda sinf xonasida o'qituvchining o'zi ertak mazmunini aks ettiruvchi rasmlar orqali darsni o'tsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Rasmlarda asosan tarixiy obidalar olim-u, fuzalolar aks ettirilishi lozim. Ertak "Quyosh sevgan yurt" deb nomlanishining asl ma'nosi ham o'quvchiga tushuntiriladi. Ertalabki quyoshning chiqishi hamda uning ufqqa bosh qo'yishi quyosh bobonurini diyorimizda ayamayotganini ham rasmda alohida tarzda ko'rsatilishi lozim. Ushbu ertakni o'qib o'rgangandan so'ng o'quvchi qalbida o'zgacha tuyg'ular tug'ila boshlaydi. Endi unda ona vataniga, xalqiga nisbatano'zgacha mehr, shukronalik, faxr-iftixor tuyg'ulari bo'y ko'rsata boshlaydi.

Xullas, boshlang'ich sinf darsligida mavjud ertaklarning aksariyati ilm olish, mehnat qilish, do'stga sadoqat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hunar o'rganish, tabiatni asrash kabi insoniy fazilatlarini tarannum etuvchi ertaklarni qamrab olgan. Bu sinfdagi o'quvchilarda mehnat qilish hurmat-izzat jamoatdaga nisbatan yuksak e'tiborda bo'lish xususiyatlari rivojlanayotgan bo'ladi. Shu sababli ham darslikda aynan shu mavzularni aks ettiruvchi ertaklar beriladi. O'quvchilar bu mavzularda bemalol suhbat uyushtirish qobiliyatiga ega bo'lib, o'qituvchi bilan bemalol suhbat qiladilar. Bir tip ertaklarni berilishidan asosiy maqsad, o'quvchilarni fikrlarini to'g'ri bayon etish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964.
2. Afzalov M. Xalq ertaklarining tasnifi. – Toshkent: 1972.
3. Imomov K. O'zbek satirik ertaklari. – Toshkent: Fan, 1974. – 208 b.
4. Matchonov S., Shojalilov A., Gulomova X., Sariyev Sh. Dolimov Z. "O'qish kitobi": 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Yangiyo'l poligraf servis" 2013.
5. Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun.– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
6. Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun.– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.

7. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
8. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.
10. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
11. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
12. Amonov U. S., Sapparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
13. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
14. 1. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
15. 2. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – №. 27.
16. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
17. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –№. 23
18. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
19. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
20. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.
21. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 106-109.
22. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagog* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.

## BOSHLANG'ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA TURLI XIL INTERFAOL VA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Nilufar Bekimbetova Zokir qizi**

*BuxDPI 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf tarbiya darslarni o'qitishda turli pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlarda, zamonaviy axborot -kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish hamda ularni hayotda qo'llashni o'rgatish haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyaviy o'yinlar, pedagogik texnologiyalar, yosh, avlod, interfaol, metodlar, mustaqil fikrlash, nutqni rivojlantirish.

**Абстрактный:** В данной статье рассмотрено использование различных педагогических технологий, интерактивных методов и обучающих игр, применение современных информационно-коммуникационных технологий в обучении начальных классов, идея обучения учащихся самостоятельному мышлению и расширению круга логического мышления, и научить их применять их в жизни.

**Ключевые слова:** развивающие игры, педагогические технологии, подрастающее поколение,

*интерактив, методика, самостоятельное мышление, развитие речи.*

**Abstract:** *This article describes the use of various pedagogical technologies, interactive methods and educational games, the use of modern information and communication technologies in the teaching of primary education classes, the idea of teaching students to think independently and to expand the range of logical thinking, and to teach them how to apply them in life.*

**Key words:** *educational games, pedagogical technologies, young generation, interactive, methods, independent thinking, speech development.*

**Kirish.** Tarbiya fani Respublikamiz Prezidentining farmoni bilan maktablarda 2020- 2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Sababi davlatning kelajagi yosh avlod hisoblanadi. Shu bois ham kelajak avlodni har tomonlama ham jismonan va ma'nan yetuk qilib tarbiyalamog'imiz lozim. Sababi tarbiya yoshlikda oila muhitida bog'liq holda rivojlanadi. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, unda kelajak avlod tarbiyalanadi. Shu bois ham har bir oila davlatimiz himoyasida va konstitutsiyamizda ham belgilab qo'yilgan. Abdulla Avloniy bobomiz aytganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot, yo najot -yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir". Ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni vavazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Bizning mamlakatimizda ta'lim bilan bir qatorda Tarbiya ham berib boriladi. Chunki tarbiyali odam barchaga ibrat bo'la oladi va doim yurtim kelajagiga o'z hissamni qo'shaman deb yashaydi. Shuning uchun ham 1- 11-sinflar yangi "Tarbiya" darsliklari yaratildi. Ushbu darslik "Vatan tuyg'usi", "Dinlar tarixi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Odobnoma" kabi fanlar o'rniga o'tiladigan bo'ldi. Bu darsliklarni yaratishda Singapur, Koreys, BAA, Rossiya va Angliya tajribasidan foydalanildi. Chunki bu davlatlarda darsliklar sifati jihatidan boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda yaxshi hisoblanadi. Ta'lim jarayoni murakkab bo'lgani uchun uning samaradorligi pedagog va o'quvchi faolligiga, ta'lim vositalariga, turli metodlarga ham bog'liqdir. Bugungi kunda fan-texnika rivojlanishi bilan birga yangi texnologiyalar yaratilmoqda. Shuning uchun ham boshqa fanlar qatori boshlang'ich sinf tarbiya darslarda ham ta'lim-tarbiya jarayonining qiziqarli o'tishi uchun turli interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash va nutqni rivojlantirish lozim. Yangi darslikda ham bunga alohida e'tibor qaratilgan. Darslik turli mavzuga oid mantiqiy fikrlashni oshiruvchi rasmlar, savollar va topshiriqlar bilan boyitilgan. Turli xil rang-barang rasmlar orqali o'quvchilarning darsda e'tibori ortadi. Rasm orqali matn tuzish topshiriqlari berilgan bo'lib bunda o'quvchilar o'zi bilgan narsalarni so'zlab beradi va mustaqil fikrlash doirasi kengayib boradi.

Bundan tashqari turli vaziyatlarda o'quvchilar nima qilishi ham yangi Tarbiyadarlarida ko'rsatib berilgan. Bu esa o'quvchilarning bunday vaziyatdan oson chiqib ketishiga yordam beradi. Darslikda mavzu bo'yicha maqollar ham berilgan bo'lib, bular o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi. Darsliklarga umumiy ta'rif berganda 1-11-sinflar mazmunan o'zaro bog'langan bo'lib, yoshlar xos mavzular bilan boyitilgan va zamonaviy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar bu ma'lumotlarni o'qish orqali dolzarb mavzuga oid qarashlarini bildiradi. Turli xil oqimlarga qo'shib ketmaydilar, chunki darslikda ham bu oqimga tushib qolganlarni fikrlari ham keltirib o'tilgan.

Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida interfaol metodlar va axborot -kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga yordam beradi. Bola ijodiy izlanishga urinadi va bu jarayonda uning nutqiy faoliyati takomillashib, matn tuza olishi yaxshilanib boradi. Ta'limiy o'yinlar esa o'quvchilar yoshiga va mavzuga mos bo'lishi,

vaqti ham aniq belgilangan hamda ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Shunday bo'lsagina darslar samaradorligi ortadi va kutilgan natijamizga erishamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiiy fanlar va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiiy fanlar o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005y
3. A.Baxronov, Tabiiy fanlar 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
4. A.Baxronov Tabiiy fanlar 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011 y.
5. GE Saidova - PEDAGOGS jurnali, 2022. PIRLS–BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI.
6. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022/4/28 .  
Boshlang 'ich sinflarda o'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
7. Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15 Xalq og 'zaki ijodi orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
- 8.SG Ergashovna BOSHLANG'ICH SINFLAR TARBIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. E Conference Zone, 2023/2023/2/11
- 9.Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
10. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Center "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
11. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
12. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173
13. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
14. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
15. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS' SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 2. – №. 2.
16. Qosimov F. M., Qosimova M. M. Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1138-1145.
17. Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
18. Kasimov F., Kasimova M., Uktamova D. Specific principles for constructing a system of educational tasks //Bridge to science: research works. – 2019. – C. 211.
19. Qosimov F. M., Qosimova M. M. МАТЕМАТИКАДАН ИЖДИЙ О'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.
20. Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
21. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Хакимова М. Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – C. 58-62.



## TARBIYA DARSLARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MILLIY TARBIYANING O'RNINI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Saidova Gavhar Ergashovna

*BuxDPI dotsenti*

Soliyeva E'zozaxon Maqsud qizi

*BuxDPI talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson o'z nafsini butun umr tarbiya qilishi lozimligi haqida, Navoiyning turkiy adabiyotning til ravnaqi uchun mislsiz xizmatlari va shu bilan birga asarlarida ezgulik, adolat, nafosat kabi yuksak tuyg'ularning ifodalanganligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** inson, faoliyat, tarbiya, ezgulik, adolat, nafosat, nazorat, o'qitish, o'rgatish, tafakkur.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug'ildi. Buyuk shoir o'z asarlarida bu qutlug' dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Shuningdek, uning tarjimai holiga oid ayrim lavhalar asarlarida uchraydi. Bu tabarruk zot to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni esa uning zamondoshlari o'z kitoblarida beradilar. Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sdi. Kichiklik chog'idan she'r va musiqaga ishq tushdi. Olim-u fozillar davrasida bo'ldi. Uch-to'rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. Bir yildan so'ng uni maktabga berdilar. U bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qidi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqalib bordi. Tasavvuf va diniy ta'limotga ko'ra, har narsani bilguvchi, bildirguvchi, yo'lga soluvchi, yo'ldan ozdirguvchi ham, foydaga ham, zararga ham yetishtirguvchi, beruvchi va oluvchi ham Oллоhdir. Inson bu dunyoda ko'ngilni Oллоhga bag'ishlab to'g'ri yo'ldan yursa kifoya. Komillik amallariga roya qilsa, komillik amallariga yo'l ochguvchi ham Oллоhning o'zidir. Ammo bu amallarni bajarish insondan bo'lgani bois hamqaysi yo'ldan yurmoqlik uning ixtiyoridadir. Har bir yomon amalning boshida nafs turadi. Mumtoz adabiyotda nafs mavzusi inson bilan bog'liq muhim hayotiylik bo'lgani sababli ham buyuk ijodkorlar, so'fiylar asarlarida, tasavvuf g'oyalari buy o'ldan insonni qaytarishga harakat qilinadi.

Barcha yaratilgan narsalarning eng yomoni nafsdur. Najmiddin Kubroning "Ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim" asarida shunday deyiladi: "Dunyo va uning bezaklari, havas va shayton, hamda ularga bog'liq bo'lgan narsalardan uning ko'p yordamchilari bo'lib, har bir yordamchisining dunyoviy hayotni bezatuvchi narsalardan lashkarlari va xizmatchilari bor. Misol, suratda ko'p yemoq, ko'p uxlamok, ko'p kulmoq, oshiqlik qissalarini tinglamok, dunyoni sevmoq, boylikni tanlamok, takabburlik, hasad, g'iybat, yomonlik bilan shug'ullanmoq, ichimliklar ichib gunohga qo'l urish, turli o'yinlarga berilib, foydasiz ishlarga urinish, mol-mulk yig'ib istaklar va orzular ipini cho'zish, yomonlikka buyurib, yaxshiliqdan voz kechtirish, istak-havas va surur (xursandchilik), imorat va tijorat (uy-joy qurish va savdo)ga ko'ngil bog'lab yomonni yaxshilash; boshqalar sir-asrorlarini fosh etish, chegaradan (axloq va odob chegarasidan) chiqish, botildan yordam so'rab haqni inkor etish, dunyoparastlarga hurmat bildirib, oxirat ahdini haqorat qilish, shular jumlasidandir". Hazrat Alilsher Navoiyning turkiy adabiyotning til ravnaqi uchun mislsiz xizmatlari va shu bilan birga asarlarida ezgulik, adolat, nafosat kabi yuksak tuyg'ularning ifodalanganligi haqida fikr boradi. Hazrat Alilsher Navoiy turkiy adabiyotning mashhur va tengsiz vakili hisoblanadi, boisi ulug' mutafakkir turkiy til ravnaqi uchun mislsiz xizmat ko'rsatgan. Navoiy ijodini ulkan tog'ning eng yuqori cho'qqisiga qiyoslashadi. Bu, albatta, haq gap. Alisher Navoiy asarlari zamirida bir olam ibratli ma'no hamda hayotiy saboq mujassam. Bu esa o'z navbatida bizni haq yo'ldan og'ishmay yurishimiz va komillikka yetishishimiz uchun zarur bo'lgan hayotiy saboqlardir. Insonni olam gultoji deb ulug'lagan hazrat Navoiyning butun hayoti ijodi zamiridagi ezgulik, adolat, nafosat kabi yuksak tuyg'ular dunyoni obod va munavvar qildi, bashariyatni ma'naviy halokatdan qutqardi degan qat'iy ishonch mujassam. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy asarlari orasida

tinchlik va insonparvarlikni tarannum etuvchi g'oyalari juda ko'p uchraydi. Mazkur asarlarda tinchlikning naqadar ulug' ne'mat ekanligi, osonlikcha erishib bo'lmazligi alohida e'tirof etiladi. Biz buning yaqqol misolini Navoiyning davlat arbobi sifatida yurt ravnaqi, xalqning farovonligi yo'lida qilgan barcha sa'y-harakatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Insonlarning eng ulug'i o'ziga ravo ko'rgan yaxshilikni o'zgalarga ham ravo ko'rganlaridir. Ma'lumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so'zining ma'nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lgan kishi, demakdir. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar, ezgulik va yovuzlik, do'st va dushmanlik, diyonat va hiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahorat bilan aks ettirilgani e'tiborga molikdir. Nafsing etsa shuxlug', charx emgagidin qil adab, Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib. Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" asaridan olingan mazkur misrada bolaga yoshligidanoq yetarli va to'g'ri ta'lim-tarbiya berish kerakligi, bu nechog'lik mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondoshish zarurligi uqtiriladi. Shuningdek, "Devoni foniy" da shunday misralar keltiriladi: Ba piri, ey javon, gar davlati ayn ul-yaqin hoqi, G'ubori rohi piron to 'tiyo kun dar javoniho. Ya'ni, ey yigit, qariganda asl haqiqat gavharini topishni istasang, yoshlikda ulug'lar izi tuprog'ini ko'zingga to'tiyo qil. Darhaqiqat, yaxshi xulqlilar bilan birga bo'lish, ular suhbatidan o'rganish insonni komillikka erishtiradi. Navoiy asarlari orqali hayotda uchrashi mumkin bo'lgan ijtimoiy masalalarga mohirona yondoshgan tarbiya, ta'lim masalasidagi yetakchi muammolardan biri bu millatlararo hamjihatlik masalasi ekanligini yaxshi bilgan.

Tarbiya – yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi. Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu jihatdan tarbiya ta'lim olish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya orqali shaxsda ezgu ma'naviy-axloqiy sifatlar tarkib topadi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Ta'lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli axborotli o'qitish sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baholanmoqda.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan.

Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan

asosiy talablardan biri edi. Sharq uygʻonish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va oʻtkir fikrlaydigan kishilar toʻgʻrisida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, oʻtkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zoʻr istidodga ega; yomon ishlardan oʻzini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, taʼlim soʻz va oʻrgatish bilangina boʻladi.

Taʼlimning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, taʼlim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib boʻlishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda taʼlimning maqsadi imkoniyatlaridan toʻgʻri, aniq, oʻrinli foydalanish koʻnikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy gʻoyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni maʼnaviy boyitishdan iboratligi taʼkidlangan. Taʼlimiy maqsad asosida oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, ogʻzaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa maʼnaviy, gʻoyaviy, nafasat tarbiyasi beriladi. Maʼlumki, taʼlimda ilgʻor pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish oʻquv mashgʻulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qoʻllash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak maʼnaviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
2. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qoʻllanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
3. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.
4. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROT NOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
5. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
6. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
7. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
8. 1.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
9. 2.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – No. 27.
10. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
11. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –№. 23
12. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
13. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
14. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.
15. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 106-109.

16. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 715-719.
17. GE Saidova - PEDAGOGS jurnali, 2022. PIRLS-BOSHLANG 'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI.
18. T Khojaoglu, SG Ergashovna - International Journal of Culture and Modernity, 2022 The Practical Importance of Using the Scientific Heritage of the Eastern Thinkers in the Education of the Young Generation
19. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022 Boshlang 'ich sinflarda o 'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
20. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022/4/28 Boshlang 'ich sinflarda o 'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
21. Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15 Xalq og 'zaki ijodi orqali o 'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
22. SG Ergashovna, AN Choriyevena. Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. *Texas Journal of Medical Science*, 2023
23. G Saidova BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023/1/31

## BOSHLANG'ICH SINFLAR TARBIYA DARSLARINI TABIIY FANLAR BILAN INTEGRATSIYALASHDA VATANGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Saidova Gavhar Ergashovna**

*BuxDPI dotsenti*

**Ismatova Dilsora Akmal qizi**

*BuxDPI talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada tarbiya fanining maqsadi, tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchi uchun adabiyotlar ro'yxati, boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiya darslari orqali ekologik bilim berishda vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash vatanparvarlik hislarini oshirishda tarbiya fanida qo'llaniladigan metodlar to'g'risida, hozirgi rivojlanayotgan davrda insonlarning tabiatga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish. Bu ishni avvalo yosh avlodga ekologik madaniyatni shakllantirishda boshlashingiz zarurligi to'g'risida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinflar, ekologiya, vatanparvarlik, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya fani, darslik, tarbiya fani maqsadi, tabiat, boshlang'ich sinflar o'quvchilari.

Buyuk bobokolanimiz Abu Rayhon Beruniy "Inson yer yuzini obod etish va uni boshqarib turish uchun unga aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har-bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim", - deb aytgan edilar. Hozirgi vaqtda "ekologiya" so'zi ko'pincha tabiat va atrof-muhit so'zlari bilan birlashtiriladi. Ammo hayot amaliyotining o'zi shuni ko'rsatadiki, tabiat ekologiyasini ruh ekologiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ekologik madaniyatni o'quvchilar ongiga shu orqali tushuntirish zarurdir. Bu madaniyatni o'quvchilarda shakllantirish orqali kelajagimizga poydevor qo'ygan bo'lamiz. Atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy "Bolalarga jonim fido" asarida Men bolalar "Alifbo"ni ochib birinchi so'zni hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob-tabiat kitobini mutolaa etishlarini istar edim", - deb ta'kidlagan edilar. Ekologik ta'lim-tarbiya deganda o'quvchilarga muayyan maqsadda pedagogik ta'sir ko'rsatish tushuniladi. Olamdagi narsalarning hammasi butun borliq mavjudot, tevarak-atrof, dala-tog' hamma-hammasini muhofaza etish ekologik ta'lim mazmunini tashkil etadi.

Boshlang'ich sinflarda tarbiya darsi orqali vatanga sadoqat hissini, irodalilik, mafkuraviy immunitet, shuningdek, ularning shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi hamda mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish va oshirish shu bilan birga ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni kamol topishida ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir. Inson hayotining aynan yoshlik, bolalik davrida o'rganilgan har qanday bilim, ko'nikmalar u ulg'aygach erishgan barcha yutuqlarining kaliti bo'lib xizmat qiladi. Bolalik – kishi umrining ko'klam davri, unda hayotning bo'lg'usi yillari uchun urug' ekiladi. Ulug' allomalarimiz tarbiyaga e'tibor qaratgani, —Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir,- degan Abdulla Avloniy. Ta'lim-tarbiya taraqqiyoti mamlakat ravnaqi va taqdiriga daxldor masaladir. Yurtning jadal rivojlanishi, xalqining farovon yashashi davlatdagi yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularga yaratilayotgan sharoitlarga chambarchas bog'liq.

Bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab o'z ona shahri, milliy an'analarining o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarni oshirish va uni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Shuningdek, yaqinlar, qarindosh, yurtdoshlarga nisbatan mehr,saxiy munosabat, birovning qayg'usiga hamdardlik va rahm-shafqat va ular bilan ishlash tizimioilada axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi muhum ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan eng dolzarb muammolarni hal etishning dolzarbligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda vatanparvarlik tuyg'usi bolaning oilaga, unga eng yaqin odamlarga - onasi, otasi, bobosi, buvisi, aka-uka va opa-singillariga munosabatidan boshlanadi. O'z uyiga muhabbat va mehrni o'zining asl ma'nosida rivojlanish vatanparvarlikning birinchi boshlang'ich bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Ekologik tarbiya vazifalariga jonli va jonsiz tabiatni asrash, so'lim maskanlarni, maydonlarning tozaligi uchun kurash kabilar kiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga bu madaniyatni xalq tajribasidan kelib chiqqan holda o'rgatish zarurdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekalogik madaniyatni shakllantirish ishlarini avvalo ota-ona hamkorligida olib borilishi lozim. Ya'ni ota-ona bu tarbiyani berib bormasa maktabda berilgan 5-6 soatgina dars bunday tarbiya uchun yetarli emas. Ba'zi ota-onalar farzandlariga qo'lidan kelgancha uyni ozoda tutish, o'simliklarni behuda yulmaslik kabi nasihatlarini beradilar. Shuning o'zi ekalogik tarbiyaning boshlang'ich kurtaklaridir. Ayrim ota-onalar bu masalaga e'tiborsizlik bilan qaraydilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekalogik ma'daniyat haqidagi tushunchani uning ruhiyatiga singdirish orqali o'quvchilarda tabiatga bo'lgan muhabbat, uning go'zalliklaridan zavq olish hissini ham shakllantirish mumkin. O'quvchilarda ekalogik ma'daniyatni rivojlantirish uchun muntazam ta'sir zarur, ammo hamma darsda bu narsani tushuntirish ham o'rinli bo'lmaydi. O'quvchilarga bu tarbiyani turli xalq og'zaki ijodi namunalariidan misollar keltirib, turmushga, hayotga bog'lagan holda tushuntirilsa ularning ongiga yaxshiroq yetib boradi. Bolalarga bu tarbiyani berish uchun o'qituvchida juda katta tajriba mahorat bo'lishi lozim, o'qituvchida bunday ko'nikma bo'lmasa o'z maqsadiga erisha olmaydi. Hozirgi kunda maktab o'quvchilariga o'tiladigan Tarbiya darslik kitobi o'qituvchilar uchun umumiy qo'llanmalar, ya'ni unda bu tarbiyaga oid tushuncha va masalalar keng qilib tushuntirilib rasmlar asosida boyitib tasvirlangan. Bundan tashqari o'quvchilarga bu bilimlarni berish uchun bolalar bilan suhbat tashkil etilib, bu suhbatda o'quvchilar tabiatda qanday turdagi o'simliklar, daraxtlar borligi, ularga qanday munosabatda bo'lish kerakligi to'g'risida o'z mulohazalarini bayon etadilar.

1-sinf tarbiya darsligi mavzular ro'yxatida Vatanparvarlikka bag'ishlangan 1-mavzu: —Vatan ishonchi mavzusi 1-sinfga qadam qo'ygan o'quvchilarning vatan tushunchasi darajasini aniqlash, sinf o'quvchilarining bilimlarini tenglashtirish vazifalasi turadi. 11-12 mavzu: —Mening mahallamda yashash yaxshi. Mavzulari ajratilgan bo'lib bunda o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etiladi.

—So'zning o'rmini topish o'yini metodi. O'quvchilarga she'riy parchadan tushib qoldirilgan so'zlar alohida pasgi qatorda saqlanadi.

*Masalan, ....., vatanim,*

*quv nab ko'rganim.*

*dan kulganim,*

*-gulshanim. (P.Mo'min)*

Tushirib qoldirilgan so'zlar: Vatanjonim, Ko'zim, Istiqbol, O'zbekiston.

Muammoli ta'lim metodi. Ular odatda hikoya shaklida taqdim etiladi va ko'pincha muammoni hal qilishni, o'quvchilardan savolni mustaqil ko'rib chiqishni so'raydi, so'ngra

o'quvchilarga uni juftlikda, nihoyat, butun sinf bilan birgalikda muhokama qilish imkoniyatini beradi. Ushbu faoliyat chuqurroq fikrlashni, muammolarni hal qilishni yoki tanqidiy tahlilni rag'batlantirish uchun savollar bilan ideal ishlaydi. Guruh muhokamalari juda muhim, chunki ular o'quvchilarga fikrlash jarayonlarini ifodalash imkonini beradi.

Xulosa o'rnida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlarini keltirmoqchiman: "Tabiatga yaqinlik jonajon o'lkaning benihoya go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi". Bu so'zlar bilan Prezidentimiz nima demoqchilar har bir insonning tabiatga bo'lgan muomalasi u insonning qanday ma'daniyat sohibi ekanligini ko'rsatuvchi oynadir demoqchilar. Shu sababli barchamiz bu narsani oilamizdan yaxshilab shakllantirishimiz va kelajak hayotimizga bee'tibor bo'lmaslikni o'rganishimiz zarurligini anglatadi.

O'qituvchilarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali, unumli foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Vatandarparvarlik tarbiyasining maqsadi- Fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, Davlat Madhiyasiga va jamoaviy hayot normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich sinfdanoq barkamol va shaxsiy konstitutsiyaviy huquq, burchlari amalga oshirilishini ta'minlash uchun sharoit yaratishdan iborat. Yoshlarni ekologik va harbiy-vatandarparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi. Har bir ishni muntazam amalga oshirish shu ishning maqsadi va sifat ko'rsatgichi yuqori bardavom bo'lishini ta'minlaydi. Maktabda vatandarparvarlik tuyg'usini va chin insoniy fazilatlarini oshirishda tarbiya, ona tili va o'qish fanlarini o'qitishda singdirib borishni tartibli va tizimli yo'lga qo'yish o'quvchilar ongida bo'shliq qolmay, kelajakda Vatanimizga ulkan hissasi, nafi tegadigan kadrlar bo'lib yetishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. GE Saidova - PEDAGOGS jurnali, 2022. PIRLS–BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI.
2. T Khojaoglu, SG Ergashovna - International Journal of Culture and Modernity, 2022 The Practical Importance of Using the Scientific Heritage of the Eastern Thinkers in the Education of the Young Generation
3. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022 Boshlang 'ich sinflarda o 'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
4. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022/4/28 Boshlang 'ich sinflarda o 'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
5. Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15 Xalq og 'zaki ijodi orqali o 'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
6. SG Ergashovna, AN Choriyevna. Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. Texas Journal of Medical Science, 2023
7. G Saidova BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023/1/31
8. Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
9. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
10. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
11. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173
12. M.I. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
13. Saidova Mohinur Jonp'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)



14. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS'SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.

15. Qosimov F. M., Qosimova M. M. Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1138-1145.

16. Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.

17. Kasimov F., Kasimova M., Uktamova D. Specific principles for constructing a system of educational tasks //Bridge to science: research works. – 2019. – С. 211.

18. Qosimov F. M., Qosimova M. M. MATEMATIKADAN IJODIY O 'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 206-211.

19. Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.

20. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Хакимова М. Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62.

## 2-SINF MATEMATIKA DARSLIGIDA BERILGAN MUSTAQIL TOPSHIRIQLARNING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Aziza Avaz qizi Rahmonova**

*BuxDPI magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqil ishlash ko'nikmasi, ijodiy qobiliyat, o'quv jarayonida mustaqil topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** mustaqil fikrlash, mustaqil topshiriq, mustaqil ishlash ko'nikmasi, ijodiy qobiliyat, hayotiy ko'nikmalar

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil choratadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Shubhasiz, inson tarbiyasi va uning ijodiy qobiliyatlari Milliy dasturni amalga oshirishda asosiy o'rin egallaydi. Inson omili mazmuni milliy dasturi ko'plab zarur vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Milliy dastur asosida tashkil topgan Matematika darsligi ham juda ko'p g'oyaviy yangiliklarni uchratish mumkin. Bundan tashqari 2-sinf darsliklarini tahlili qiladigan bo'lsak, ushbu darslikda ko'plab ta'limiy yangiliklarni kuzatishimiz mumkin. Matematika darsligida hozirgi kunda o'quvchilarning dunyo qarashinin rivojlantirish, mustaqil fikrlash, erkin so'zlash, hayotiy realliklarga asoslangan desak adashmagan bo'lamiz, chunki har bir topshiriqlar rang- baranglikni, hayotiy tasvirga oid topshiriqlarni, mantiqiy topshiriqlarni bundan tashqari mustaqil topshiriqlarni ham kuzatishimiz mumkin. Darslikdagi mustaqil topshiriqlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bu turdagi topshiriqlar aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib- intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi mulohaza yuritishga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. 2- sinf Matematika darsliklardagi mustaqil topshiriqlarning sonini aniqlash maqsadida ularni tahlil qilindi.

Bularni quyidagicha jadval asosida ko'rish mumkin.



## MAVZUVIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti			
		Jami	Nazariy	Amaliy topshiriq va N.I.	Mustaqil topshiriqlar
	1-sinfda o'tilgan materiallarni takrorlash va umumlashtirish	10		10	
1	Yuz ichida sonlarni qo'shish	20	10	10	14
2	Yuz ichida sonlarni ayirish	20	10	10	7
3	Geometrik shakllar	15	5	10	6
4	Sonlarni ko'paytirish	20	10	10	8
5	Sonlarni bo'lish	30	10	20	10
6	Sonli ifodalar. Tenglamalar.	15	5	10	11
7	Ulushlar	15	5	10	7
8	Ma'lumotlar bilan ishlash. Vaqt	15	5	10	6
	Takrorlash	10		10	
	<b>Jami:</b>	<b>170</b>	<b>60</b>	<b>110</b>	<b>69</b>

Bu jadval orqali ko'rish mumkinki, darslikdagi mustaqil topshiriqlarning umumiy soni 69 ta tashkil qilgan. Bunday topshiriqlarning afzalligi shundan iboratki, o'quvchilarni topshiriqlikka, fikrlashga, izlanishga, dunyoqarashini kengayishiga asos bo'ladi. Shu tariqa o'quvchilar kelajakda o'z imkoniyatlarini ko'rsata bilishga qiynalishmaydi. Matematika darsligidagi mustaqil ishlaridan namunalar keltirib asoslab chiqsak



E'tibor beramiz :

Mashinaning qaysi detali noodatiy? ( Uning g'ildiraklari)

G'ildiraklarning vazifasi nima? ( Yo'lda yurish)

U vazifasini bajarish uchun qanday harakatlanadi? ( Tez harakatlanadi)

Kvadrat shaklidagi g'ildiraklar ham aylana shaklidagi g'ildiraklar kabi harakatlanadimi? ( Yo'q harakatlanadimi) degan savollar orqali o'quvchilarga savollar beriladi.. Bunday mulohazali savollar orqali o'quvchilar quyidagi tayanch kompetensiya shakllanadi, ya'ni kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiriladi. Bu jrayonda ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish, to'g'ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur bo'ladi. Xususan, matematika fanining o'z ilmiy tili, o'z tushunchalari, belgi va timsollari ham mavjud bo'lib, bu tilda muloqot qilish - kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida qaralishi lozim bo'ladi. Bu usuldagi mustaqil topshiriqlar Geometrik munosabatlar haqida matematik va mantiqiy fikrni rivojlantirish vazifasini bajaradi. Bundan tashqari o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalarni yechishda va notanish vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalar biri Mulohaza yuritish (M1) shakllanadi . (M1)da matematikaga oid fikrni asoslash, isbotlash yoki o'zgaralar fikriga munosabat bildirish uchun mantiqan asosli va tushunarli dalillarni keltirishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda biz bolalarning maqsadlarini to'g'ri yo'naltirsak, kelajakda o'z qobiliyatlarini takomillashtirishi va albatta komil inson sifatida shakllanishi mumkin. Milliy o'quv dasturining asosiy vazifalari shuni e'tiborga oldiki, oldingi standartdan farqli tomoni - o'quvchi muvaffaqiyatga erishishi uchun kerak bo'lgan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishni maqsad qilib qo'ydi. Bularga **tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kommunikativlik (muloqotga kirishish), axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish va faol fuqarolik** kabilardir. Bizga qanday avlod kerak deganda bizga ilg'or fikrlaydigan, qat'iyatli, o'z maqsadi sari harakat qiladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammoni ijobiy yechadigan shaxslarni yetishtirish kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev 06.11.20, PF-6108-son
2. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi.
3. Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi.
4. O'rinboyeva L., Jumayev M., Ruzikulova N. va boshq. Matematika 2-sinf darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
5. O'rinboyeva L., Jumayev M., Ruzikulova N. va boshq. Matematika 2-sinf. Metodik qo'llanma Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
6. Azixodjaeva N. N. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. - T.: 2007.
7. Abdullayeva B.S., Saidova M.J., Dilova N.G. Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Darslik. – Toshkent, 2021.
8. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok. diss... — Toshkent: TDPU, 2006.
9. Abdullayeva B.S., Saidova M.J., Dilova N.G. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. 2021.
10. Bikbayeva N.U., Sidelnikova R. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - T: "O'qituvchi", – 1986.
11. GE Saidova - PEDAGOGS jurnali, 2022. PIRLS–BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI.
12. T Khojaoglu, SG Ergashovna - International Journal of Culture and Modernity, 2022 The Practical Importance of Using the Scientific Heritage of the Eastern Thinkers in the Education of the Young Generation
13. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022 Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
14. Г Саидова, Н Авлиёкулова - Общество и инновации, 2022/4/28 Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.
15. Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15 Xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
16. SG Ergashovna, AN Choriyevna. Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. Texas Journal of Medical Science, 2023
17. G Saidova BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMiy-PEDAGOGIK ASOSLARI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023/1/31
18. Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
19. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Center "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
20. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174

# INTERACTIVE METHODS FOR TEACHING ENGLISH IN THE KINDERGARTEN

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Inoyatova Dilnoza Ilhomovna**

*Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute*

**Zakiryayeva Malika Azizovna**

*Student of Bukhara State Pedagogical Institute*

**Annotation:** *This article describes the strategies which are dedicated to the modern teaching English language through interactive methods in kindergarten. In this article, there are also several instructions which help to improve the efficiency of the lesson in kindergarten.*

**Key words:** *interactive methods, theoretical, practical parts, communication, interaction, second language, visual aids.*

**Аннотация:** *В данной статье описаны стратегии, посвященные современному обучению английскому языку интерактивными методами в детском саду. В этой статье также есть несколько инструкций, которые помогут повысить эффективность урока в детском саду.*

**Ключевые слова:** *интерактивные методы, теоретическая, практическая части, коммуникация, взаимодействие, второй язык, наглядные пособия*

In this day and age, English language plays an integral role in all spheres, namely, education, industries, politics, media, library, business, communication around the world and others. That is why, the popularity of both teaching and learning English language as a second language is increasing at an alarming rate. In recent years, there has been a growing interest in research in English, which is considered as the language of professional communication in different fields of activity. Thus, increasing enthusiasm for learning English is one of the most decisive tasks of a teacher. In fact, it is better to start learning a foreign language from a very young age. Because young children's brains continue to develop without stopping, they have the ability to absorb new information much faster than adults whose brains are fully formed. It is appropriate to plan a lesson taking into account these peculiarities. For example, the use of games, pictures, songs and poems, cartoons is an effective way to teach foreign language to children of preschool age. (1). If we want teach English to children of preschool, it requires plays, acts, songs, in general we should make learning a language a fun for them. Generally, we used to utilize the standard teaching of foreign languages. In other words, teachers always explain the themes, speak as well as show some cards in order to being understandable the information to children, otherwise, students listen, write all of the notes from the desks or whiteboards and memorize. At the end of the lessons, teachers give some quizzes and tests which are helpful to find out what the children have learned. This is called a passive teaching method, additionally, this method is also obsolete. But there is another method which is known as an active teaching method. It consists of a wider interaction of children not only with the teacher, but also with their pairs. During the interactive lessons, children work in small groups, create projects. If teachers only pay attention to the theoretical parts, the lesson will be boring, as a result, interests of children in learning English gradually decrease. That is why, we should take into account both practical and theoretical parts in equal. There are a lot of interactive methods.

## **Total Physical Response (TPR)**

Total or full physical response method is widely used for working with children of kindergarten and primary school ages. Besides giving speeches by teachers in the classes, children take part into the learning processes by repeating words with various emotional shades, movements or dances during using this method. This strategy is universal, because we can use it for working with all types of learners, such as kinesthetic, visuals and auditory

learners. In this method, teacher explains the meaning of a new word through the movement of the body, then children should repeat after him during the period of pronouncing the studied word. For example, teacher introduces new word “to dance” to children. At first, guys ought to do what teacher says in English after explaining the word through the action of dancing by teacher. Secondly, the teacher shows the movement before children call it.

#### **Working through visual aids, flashcards and objects**

The age of preschool children is very important in learning something new, because their brain continue to develop without stopping. Additionally, preschoolers depend on their vision to learn tasks easily. If teachers use some pictures on cards or toys during teaching new vocabularies, it can be profitable for children in order to learn new words. For instance, when the theme is fruits, teachers should show the pictures of fruits to children and explain what kind of fruits they are, after that children repeat it again. Besides learning the name of fruits, children can simultaneously learn the colors by showing the fruits.

#### **Musical chairs**

After explanation of new theme, children should take some break. Instead of going out or doing something which is not important, playing “musical chairs” is the better option. In other words, if we, teachers, want to break the silence in the class, playing this game is the best way of making a lesson more interesting. This method is full of advantages. Firstly, it helps to improve coordination and motor skills for kids. It also gives a chance to enhance the level of listening of children. Kids can learn to practice listening and following instructions with pairs by having them assemble the chairs and listen to the game’s rules. They can test their attention throughout the game by seeing who notices when the music stops. Teachers can encourage kids to dance while they move around the chairs to the music or after they get out, which can help build bone strength. When the music stops, children can test their problem-solving skills by finding a chair before they’re all gone.

#### **Hopscotch**

Teachers can use this game to teach children new information or new words. Hopscotch can help kids learn to count to 10 by pairing counting with hopping through the spaces to make it fun. In addition to counting, children need to balance as they jump from square to square, especially if they hop on one foot. Hopscotch is an aerobic, bone-strengthening activity that can also help improve coordination, motor skills, and concentration. Children can play hopscotch alone or with a group. After they learn the rules, they can play it individually.

To sum up, we can make a lesson more interesting, and attract the attention of children with the help of interactive methods. So, through using these strategies, we can increase the effectiveness of the lesson, in addition to them, we encourage them to learn a foreign language in great detail.

### **REFERENCES**

1. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00627
2. Maxkambayeva SH, Maxkambayeva O(2022) METHODS OF TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL AND PRIMARY SCHOOL CHILDREN, JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 8, ISSUE 7
3. Rasulova Z,Kh, TEACHING ENGLISH BY USING INTERACTIVE METHODS,VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals CiteFactor 2020-21:

# TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA AMALIY ISHAR SAMARADORLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Ferangiz G'iyosova

*BuxDPI magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf darslari jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda amaliy ishlarni tashkil etishning samarali metodlari xususida fikr yuritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** amaliy uslublar, retseptor, tajriba, obyekt, operatsiya, ekskursiya, gerbariy, granit, akvarium, terrarium.

**Аннотация:** В статье рассмотрены эффективные методы организации практической работы по приобщению детей к природе в процессе занятий в начальных классах.

**Ключевые слова:** Практические методы, рецептор, эксперимент, объект, операция, экскурсия, гербарий, гранит, аквариум, террариум.

Bolalarning bo'lajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim o'rin egallaydi. Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo'lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o'ynab kelgan va kelmoqda. Ma'lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini o'rganuvchi fan bo'lib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm- fan taraqqiyotini belgilaydi. Amaliyot - haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi. Bilim odamlar miyasida oz-o'zidan paydo bo'lmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bo'lib, bu o'z navbatida, odamlarning o'zaro munosabatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi. Ilmiy - tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Amaliyot bilish jarayonining rivojlantiruvchi omil. U nazariy bilimlarni umumlashtirib, ularni hayotiy jarayonlardan ajralishga yo'l qo'ymaydi.

2. Amaliyot bilishning buyurtmasi, ilovasi va maqsadi hamdir.

3. Amaliyot bilish jarayoninig haqiqiy ekanligini ko'rsatuvchi mezondir.

Tabiatshunoslikdagi amaliyot ilmiy ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib kelmoqda. Amaliyot nazariyani paydo bo'lishiga, ilmiy shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi. Bilishning aniqligi muayyan obekt haqidagi ma'lumotning haqiqat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda, sharoit boshqacha bo'lsa, haqiqat ham boshqacha bo'lishi mumkin. Masalan, oddiy sharoit va bosimda suv 100C da qaynaydi. Lekin bosim o'zgarsa yoki og'ir suv bo'lsa, u aniq - konkret hisoblanadi.

Ma'lum tizimdagi haqiqat boshqa sharoitda butunlay o'zgarishi mumkin. G'oyaning amaliyotda tasdiqlanishi haqiqatning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy ishlarga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi. Amaliy uslublar qo'llanilishi bolalar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi.

## **Amaliy uslublarning turlariga:**

1. Bolalarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi;
2. Rasm chizishi;
3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari;
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari;

5. Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak. Tabiatshunoslik mashg'ulotlari tanib olish va aniqlash amaliy metodlarining bir turi bo'lib, tarqalgan o'simliklarni yoki ularning qismlarini farqiga borib, tanib olish xususiyatlarini o'rgatadi. Taqqoslashdagi farqga borish o'quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Farq qilish va aniqlash bo'yicha ishlar darslardagina olib borilmaydi, o'qituvchi tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ham o'simliklarni topish va to'plashni, namunalarni yig'ishni, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlarini, o'zgaruvchanlikni o'quvchilarning o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab tanlab berishi kerak. O'simliklar, ular qismlarining shaklini bilib olish bo'yicha ishlarni o'quvchilar uy vazifasi sifatida bajaradilar. O'simliklarni yoshini tabiatda nafaqat yillik halqalardan balki o'simliklarni yillik shoxlanishiga qarab aniqlash mumkin. O'simlik bahordan kuzgacha o'sish davriga ega, kuzdan bahorgacha tinim davri bo'ladi. Bu o'simlikning bir yoshi demakdir, ikkinchi yilda yana o'sish, shoxlanish sodir bo'ladi. Shoxlanish orasidagi masofa o'simlikning bir yoshi hisoblanadi, buni o'quvchilarga tabiatda tushuntirish talab etiladi. O'quvchilar amaliy bilimga ega bo'ladilar, daraxtlar yoshini kesmasdan turib ham aniqlash mumkinligini bilib oladilar. Bu ekologik, hamda ilmiy tushunchalarni shakllantiradi.

### FOYDALANILGANADABIYOTLAR:

1. Mahmudovich, S. G. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni oqitish va tashkil etish. Theory and analytical aspects of recent research, U. (2022).
2. Сайфуллаева, Р., & Хамроева, Х. (2010). Некоторые свойства языковых игр о. Шарафиддинова обработаны в электронном формате. Наука и новые технологии, (1), 293-295.
3. Mahmudovich, S. G. U., & Otkirovich, Y. F. (2021). Methods of teaching younger students the ability to solve cognitive tasks of environmental protection. Middle European Scientific Bulletin, 11.
4. Алимова, Л. Х., Гафарова, С. М., & Сайфуллаев, Г. М. (2018). Нарушение обмена энергии в митохондриях печени при гелиотринном гепатите. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 14-15.
5. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
6. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
7. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
8. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOVIY KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH." E Conference Zone. 2023.
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." PEDAGOGS *jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
10. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
11. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.
12. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
13. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
14. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
15. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU



o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.

16. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 2. –No. 2.

17. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т.

18. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadriddin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.

19. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2020. –Т. 2. –No. 2.

20. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

21. BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.

22. Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш аъъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/5. – С. 49-52.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI CHIROYLI YOZISHGA O'RGATISH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Karimova Dilnoza Baxtiyor qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatishning samarali usullari haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** yozuv darslari, namunaga qarab yozish, chiziqli metod, genetik metod, sanoq-ohang metodi, tasavvur orqali yozish.*

O'quvchilarni maktabga qabul qilingan vaqtdan boshlab o'qituvchining asosiy vazifasi har bir bolani savodini chiqarishdan iboratdir. 1-sinfдан boshlab asosiy o'tiladigan fanlar sirasiga: "Matematika", "Alifbe", "Yozuv" darslari kiradi. Yozuv darslarining maqsadi o'quvchilarni chiroyli, ravon yozishga o'rgatishdir.

Yillar davomida o'quvchilarni chiroyli va bexato yozishga o'rgatish uchun quyidagi metodlardan foydalanib kelinmoqda:

**Namunaga qarab ko'chirish va yozish.** Bu juda qadimiy usul bo'lib, eski maktablarda juda keng foydalanilgan. XX asrning boshlarida ham bu metod rus maktablarida keng qo'llanilgan. Bu metodda o'qituvchi o'quvchilarga harf va uning unsurlarini och rangda yozib bergan, o'quvchilar esa uning ustidan mexanik ravishda bo'yaganlar. O'quvchilarni bu usul bilan yozuvga o'rgatish o'qituvchidan juda ko'p vaqt talab etgan. Keyinchalik o'qituvchining ishini osonlashtirish maqsadida harf va uning unsurlari och rang bilan ko'rsatilgan alohida daftarlar ham chiqarilgan. O'quvchilar bu daftarlardan foydalanib, harf va uning unsurlarini yozishga o'rganganlar. Bunday metod bilan husnixatga o'rgatish o'quvchilarni faqat ko'chirishga odatlantirib, harflarning shaklini mustaqil yozishga imkon bermagan. Shuning uchun bu metod keyinchalik kam qo'llanilgan. Faqat ayrim hollardagina yozuv malakasi bo'sh bo'lgan o'quvchilarga o'qituvchi harf va uning unsurlarini qalam bilan yozib bergan. O'quvchilar esa uning ustidan siyoh bilan yurgizib chiqqanlar, lekin bu metoddan muntazam ravishda foydalanishga ruxsat etilmagan.

Keyinchalik bu metod takomillashib turli guruhlarga bo'lindi.

Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri **harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdir.** Har bir harf namunasi doskada barcha o'quvchilarning



diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida – alohidako'rsatib berilishi lozim. O'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllari (harf, bo'g'in, so'zlar)ni o'z daftariga to'g'ri aks ettirishdir.

**Namunaga qarab ko'chirib yozish usulida** o'quvchilar, asosan, harflarning shaklini "Yozuv daftari"dagi namunaga qarab ko'chirib yozadilar.

Namunaga qarab ko'chirib yozish tayyor harflarning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo'lib, ularning har ikkalasini qaysi vaqtda qo'llashni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak.

Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo'lni yurgizib mashq qilish ixtiyorsiz jarayon bo'lib, o'quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. Ikkinchidan, "Husnixat" daftariga berilgan namunaga qarab yozdirish o'qituvchining vaqtini ancha tejaydi.

**Chiziqli metod.** Chiziqli metod XIX asrning boshlarida qo'llanila boshlangan. Bu metodning qo'llanilishi bilan turli chiziqli daftarlar chiqarila boshlanadi, bu esa o'quvchilarga harflarni chiroyli hamda bir tomonga bir oz moyil qilib yozish uchun ma'lum darajada qulaylik tug'dirdi. Bunday daftarlardagi chiziqlar, ya'ni harf turlari bir necha yotiq va qiya chiziqlardan iborat bo'lib, ular kichik va bosh harflarni yozish uchun mo'ljallanadi.

**Genetik metod.** Mazkur metod harflarni o'xshash unsurlarini hisobga olib guruhlariga bo'lib o'rgatishga tayanadi. Bu metodning asosiy xususiyati shundaki, bosh va kichik harflar guruhlariga bo'lib yozdiriladi. Genetik metoddan asosan boshlang'ich sinflarning 2- 4- sinflarida foydalanish tavsiya etiladi.

Genetik metodga asosan harflar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

**Kichik harflar guruhi:**

1-guruh: i, m, n, r, u.

2-guruh: a, e, f, g, o, g', o'.

3-guruh: b, d, h, j, y.

4-guruh: k, l, q, p, t.

5-guruh: s, v, x, z.

**Bosh harflar guruhi:**

1-guruh: I, J, L, U.

2-guruh: A, M, N.

3-guruh: E, O, Q, X, O'.

4-guruh: G, H, K, Y, G'.

5-guruh: B, D, F, P, R, T.

6-guruh; S, V, Z.

Genetik usulda o'qituvchi, kichik va bosh harflarni guruhlariga ajratish bilan birga, ularning qanday unsurlardan tuzilganligini va ularning nomlarini yaxshi bilishi hamda yoza olishi lozim. Yuqorida ko'rsatilgan kichik va bosh harflar guruhlarini bir-biridan ajrata olgan va ularning shaklini to'g'ri o'zlashtirgan o'quvchilargina harflarni chiroyli yoza olishlari mumkin.

Mazkur usulni qo'llashda, o'qituvchi, harf va uning elementlarini sanoq bilan yozdirish usulidan (bu usul haqida pastda ma'lumot beramiz) foydalangani ma'qul. Bu usulni ko'proq 2-sinfda qo'llash mumkin.

**Sanoq-ohang metodi.** O'qituvchi mazkur usuldan foydalanishda harf va uning unsurlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi. Bu usulni ayniqsa savod o'rgatish davrida keng qo'llash mumkin.

Sanoq-ohang metodining boshqa metodlarga nisbatan afzallik tomonlari ko'p. Birinchidan, u harflarni tekis yozilishini ta'minlaydi va harf unsurlarining tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi; ikkinchidan, sekin yozadigan o'quvchilarni tez va sinfdagi barcha o'quvchilar bilan barobar yozishga undaydi; uchinchidan, o'quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o'rgatadi; to'rtinchidan, sinfdagi darsni jonlantirishga yordam beradi.

Mazkur metoddan butun dars davomida foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki

o'quvchilar charchab, yozuv sifatini pasaytirib yuborishlari mumkin.

Bu usuldan foydalanishda, asosan, harflarning asosiy unsuri **"bir"**, **"ikki"**, **"uch"** deb sanab boriladi, yordamchi ulash unsuri esa **"va"** deb bog'lanadi.

Sanoq-ohang usulini qo'llashda harf yoki unsurlar avval sanoqsiz yoziladi, so'ngra sanoq bilan yozdiriladi.

Shuningdek, bu usul bilan yozishda dastlab sekinroq, keyinchalik uni tezlashtirib yozib ko'rsatiladi. Bu usuldan bo'g'in, so'z va gaplarni yozishda ham foydalanish mumkin.

**Tasavvur orqali yozish.** Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar bilan bir qatorda, tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O'qituvchi doskada yozib ko'rsatgan harf yoki bog'lanishlarni o'quvchilarga qanday qilib yozishni, ruchkaning havoda harakatini ko'rsatib, o'quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so'ng daftarga yozishga ruxsat etiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini o'stiradi hamda jismoniy mashqlarni ham bajarish imkonini beradi.

Yoddan chiqarimaslik lozimki, tasavvur orqali yozish chiroyli yozishga o'rgatishda yordamchi usul vazifasini bajaradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova N.B., Qo'ldoshev R.A., Jumayev R.X., Ismatov S.R. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: O'quv qo'llanma. Buxoro, Durдона. 2021. 292 b.
2. Azimov Y.Y. «Husnixat» -Buxoro. «Durдона» nashriyoti, 2012.-132 bet.
3. Azimov Y.Y., R.A.Qo'ldoshev. «Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari» (Metodik qo'llanma)-Toshkent. «Turon Zamin Ziy» nashriyoti, 2017.-132
4. Azimova I. A. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 128 b
5. Azimova I. A. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
6. G'aforovna J. H. Savod o'rgatishga tayyorgarlik bosqichida o'qish va yozuvga o'rgatish //Бошқарув ва этика қоидалари онлайн илмий журнали. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 1-4.
7. Hamroyev R.A., Qo'ldoshev A.R., Hasanova A.M. 1-sinf o'quvchilarini yozish vositalaridan samarali foydalanishga o'rgatish metodikasi //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021.
8. Jumayeva H.G. Birinchi sinf o'quvchilarida yozuv malakalarini shakllantirish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 983-989.
9. Jumayeva H. Boshlang'ich sinflarda yozuv va husnixat darslarini tashkil qilish //Buxorodavlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.
10. Jumayeva H. Savod o'rgatish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozuv malakalarini shakllantirish //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.
11. Qo'ldoshev A. R. G'aforovna Habiba Jumayeva.(2021) //Forming Writing Skills in Left-Handed Students. Middle European Scientific Bulletin. – Т. 10. – №.
12. Avezmurodovich O. R. Difficulties in learning to write and read left-handed children //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), 40. – 2020. – Т. 45.
13. Kuldoshev, R. A. (2022). Scientific Basis of Construction of Elementary School Textbooks. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 1(5), 44-48.
14. Qo'ldoshev A. R. Psychological aspects of left-handedness: concept, causes, and peculiarities //Psychology and Education Journal. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 4981-4988.
15. Avezmurodovich Q. R. Psychological aspects of left-handedness: Concept, causes, and peculiarities //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 623-631.
16. KULDOSHEV R. How to prepare children for school //Pedagogical skills. Scientifictheoretical and methodical journal Bukhara. – 2020. – №. 3. – С. 145-147.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Kasimov Asror Abdulloevich**

*Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, muayyan sohalarida chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash, o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash, o'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** ijodiy faoliyat, innovatsion faoliyat, hamkorlik faoliyat, ijodkor shaxs, ijodiy yondashuv, ijodiy qobiliyat, rivojlanish darajasi, diagnostika.

O'quvchilarda ijodkor faoliyatini rivojlantirish hamda ular tomonidan an'anaviy ta'lim me'yorlarini o'zlashtirishga yordam beradigan qoidalar quyidagilardir:

1. O'quvchining maqsadga qaratilgan qobiliyatining rivojlanish darajasi nazorat va baholashga daxldor bo'lgan majburiy standartlarga kiritildi. O'quvchilarning individual maqsadga yo'naltirilganligi hamda o'rganilayotgan sohadagi ularning tegishli faoliyati umumiy hajmning 20 % dan ortig'ini tashkil etdi.

2. O'quvchining o'qituvchi tomonidan rejalashtiriladigan va nazorat qilinadigan faoliyatining majburiy turiga: o'quvchilar tomonidan faoliyatning ijodiy mahsuldorligini yaratishga shart-sharoitini ta'minlaydigan-ijodkorlik bilish jarayonini jarayonini ta'minlaydiganbilishga doir; o'quvchining oldingi ikkita ijodiy faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan ilmiy-tashkiliy turlari kiradi. O'quvchilarning ijodkorlik faoliyati va unga qo'yiladigan maqbul talablar quyidagilar hisoblanadi:

a) fundamental ta'limiy obyektlar o'quvchi ijodiy faoliyatining obyekti bo'ldi;

b) o'quvchining shaxsiy ijodining hajmi umumiy o'quv jarayonida 20-25 foizni tashkil etdi.

d) umumta'lim jarayonidagi mahsuldor va reproduktiv faoliyat nisbati o'quvchining rivojlanish darajasiga, o'qituvchi va maktabning strategiyasi va ta'lim maqsadlariga qarab belgilanadi, biroq o'quvchi mahsulotining hajmi uning individual dasturi bo'yicha ta'lim faoliyati hajmi kam bo'lmasligi kerak.

O'quv jarayonining tuzilishi qanday natijalar va qanday shaklda nazorat qilinishiga bog'liq. Ma'lumki ijodiy faoliyatning natijalari ikki tomonlama xarakterga ega tashqi va ichki shuning uchun ham o'qituvchilarning ta'limda erishgan yutuqlari hamda ularning ichik sifati nazorat predmeti hisoblanadi. Ko'pincha ijodiy faoliyat diagnostikasi uchun turli xil testlar qo'llaniladi. Biroq, vaziyatli yondashuv ya'ni o'quvchilarni maxsus tashkil etilgan yoki tabiiy ta'lim vaziyatlaridan foydalanish yordamida diagnostika qilish samaraliroqdir. Bunday hollarda tashxis qiluvchilar rolini taklif etilgan mutaxassis ekspertlar qanchalik bajarsa, amaliyotchi pedagoglar ham shunchalik bajaradilar, chunki ular subyektiv tajribalariga tayanadilar. Ta'lim natijalarining diagnostikasi, jumladan, o'quvchi qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash o'qituvchining o'quvchida hosil bo'layotgan subyektiv "his etishi" yo'libilan aniqlandi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlanish darajasining diagnostika qilishda ta'lim subyekti ishtirok etadigan diagnostik ta'lim jarayonlari uchun sharoit hamda o'quvchilarning ichki va tashqi olamidagi ta'limiy o'zgarishlar, qo'yilgan maqsadlarning rejalashtirilgan davrda olingan natijalar bilan o'zaro nisbatini aniqlash orqali maqsadga erishiladi. O'quvchilarning ta'lim mahsuldorligini tahlil qilish va baholash usullari ularning ijodkorlik faoliyatini nazorat

qilish metodi bo'ladi. O'quvchi ta'lim mahsuldorligining har bir elementini son yoki sifat, jihatdan ball bilan yoki og'zaki baholashi mumkin. O'quvchilar bilimi sifati quyidagi usullar bilan baholanadi;

- a) javobdagi ijod elementlarining soni bo'yicha;
- b) javob elementlarining farqi bo'yicha ;
- v) javobning o'quvchining o'zi yoki sinfdoshining ishiga nisbatan yangiligi bo'yicha;
- g) yaratilgan obraz, ramz yoki ifodaning lo'nda va ixchamligi bo'yicha; javob uchun foydalanilgan imkoniyatlarning ko'pqirraligi bo'yicha;
- ye) olingan natijalarning amaliy ahamiyati foydalanishi bo'yicha;

**Xulosa.** Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular asosan ta'limda muammoli vaziyatlar yaratish bilan bog'liqdir:

Bu borada integratsiyalashgan ta'lim, ijodkorlik o'yinlari, o'quv to'garaklari kabilar asosida maqsadli yo'nalish, ta'lim mazmuni orqali tashkiliy metodik yondoshuv asosida o'quvchi o'z faoliyatini baholash bilan ijodiy salohiyat rivojlana borib, faoliyatga aylanadi. Shuning uchun ham ta'lim standartlari, dasturlarda ta'limning faol, amaliyotdagi mazmuni faoliyatining aniq vositalariga real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan bilim, malaka va ko'nikmalarga alohida e'tibor beriladi. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ularni takomillashtirish zarurligi ayon bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. "Casestudy" uslubi: nazariya, amaliyot, tajriba. – T.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2012.
2. Abdulloyevich K. A. Development of Creative Abilities of Primary School Students in the Process of Extracurricular Activities //international journal of inclusive and sustainable education. – 2022. – т. 1. – №. 6. – с. 232-235.
3. Мухина С.А., Соловёва А.А. Современные инновационные технологии обучения / – М. "ТЕОТАР-Медия", 2008.
4. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
5. Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15 Xalq og 'zaki ijodi orqali o 'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
6. SG Ergashovna, AN Choriyevna. Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. Texas Journal of Medical Science, 2023
7. G Saidova BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023/1/31
8. Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
9. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
10. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
11. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173
12. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
13. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)

14. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS'SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.

15. Qosimov F. M., Qosimova M. M. Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1138-1145.

16. Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.

17. Kasimov F., Kasimova M., Uktamova D. Specific principles for constructing a system of educational tasks //Bridge to science: research works. – 2019. – С. 211.

18. Qosimov F. M., Qosimova M. M. MATEMATIKADAN IJODIY O 'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 206-211.

19. Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.

20. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Хакимова М. Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62.

## MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING DARS DAN BO'SH VAQTLARIDA SPORT BILAN SHUG'ULLANISHI UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Ashurov O'ktam Rustamovich

*G'ijduvon tuman 50-maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada maktab yoshidagi bolalarning darsdan bo'sh vaqtlarida sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi haqida yoritib berilgan.

**Аннотация:** В статье описывается спортивная деятельность детей школьного возраста в свободное время.

**Annotatsiya:** V state opisivaetsya sportivnaya deyatel'nost' of children of school age in free time.

**Kalit so'zlar:** dars, sport, shart-sharoit, bo'sh vaqt.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo'lishini ta'minlash, zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va rehabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishga shart-sharoitlar yaratish, ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o'rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalari darajasida sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ'ib qilish kabi bir qancha ishlar olib borilmoqda.

**Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining shakllari va usullari.** Jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirishga yo'naltirilganligi uni odam hayoti va faoliyatini turli tomonlari bilan bog'lanishiga, jumladan, ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiyaning shakllari va usullari turlicha bo'lishi mumkin. Bu jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini qayerda va qanday sharoitda, ya'ni ishlab chiqarish korxonasi o'zida ish jarayonida yoki ishdan tashqari paytda sport inshootlarida o'tkazilishiga bog'liq.

Gigiyenik nuqtani nazardan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini korxonada, ish joyida o'tkazilishi muhimdir. Bunda shu joy, shu xonaning sanitariya holati, gigiyena talablariga javob beradigan darajada bo'lishiga e'tibor berilishi lozim. Shuningdek, o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari aynan shu korxonada xodimlariga sog'lomlashtiruvchi ta'sir ko'rsatishiga, ularning ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Jismoniy tarbiya odamlar sog'lig'ini mustahkamlash, ishlab chiqarish unumdorligini oshirishda muhim o'rin

tutadi. Jismoniy tarbiya va sport ishlarini jismoniy tarbiyaning mutaxassis xodimlari boshqaradilar. Ular korxonada ishchilarini ixtiyoriy sport jamiyatlariga jalb qiladilar, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining turlari bo'yicha guruhlar tuzadilar, turistik yurishlar tashkil etadilar.

### **Mashg'ulotning fiziologik chizig'ini aniqlash.**

Ma'lumki, jismoniy tarbiya darsi va trenerovka mashg'uloti 4 qismdan iborat:

1. Mashg'ulotning kirish qismi.
2. Mashg'ulotning tayyorgarlik qismi.
3. Mashg'ulotning asosiy qismi.
4. Mashg'ulotning yakunlash qismi.

Mashg'ulot o'tkazuvchi o'qituvchi va trenerning bilimi va tajribasi yuqori darajada bo'lsa, u mashg'ulot hajmini to'g'ri rejalashtiradi, ya'ni mashg'ulotning 1-2-3-qismlarida mashg'ulot hajmi asta-sekin ko'paytirib boriladi. Shunga ko'ra tomir urishining soni 1-2-3- qismida asta-sekin tezlashib boradi va 3 qismda cho'qqisiga chiqadi. Jismoniy tarbiyaning asosi bolalik davrida shakllantiriladi. Chunki, yoshlik davrda Oliy nerv faoliyatining shartli reflekslar hosil qilish imkoniyati yaxshi bo'ladi, shu bois yangi va deyarli murakkab harakatlar tez o'zlashtiriladi. Bolalik davridan boshlab jismoniy mashqlarni muntazam bajarish, katta bo'lganda ham ularni bajarishga odamda kunikma hosil qiladi. Shuning bilan birgalikda ushbu bilim dargohlarida yoshlarning sog'lig'i, jismoniy va psixologik rivojlanishi me'yorida bo'lishini ta'minlashga qaratilgan barcha gigiyena qoida va talablariga amal qilinishi, ta'lim- tarbiya jarayonida yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, ayniqsa, ularni jismoniy tarbiya va sportga qiziqtirishga qaratilgan tadbirlarni muntazam o'tkazilishiga alohida e'tibor berilishi lozim.

**O'quvchilarga qo'yiladigan gigiyenik talablar:** har bir kishi butun hayoti davomida o'z tanasini, sochini, terisini, tirnoqlarini, og'iz bo'shlig'ini har doim va muntazam ravishda parvarish qilib borishi zarur. Chunonchi, teri organizmni tashqi muhitning har qanday salbiy ta'sirlaridan, turli zararli mikroblardan saqlaydi va tanada muntazam ravishda muayyan bir xil harorat saqlanib turishiga yordam beradi.

Xulosa qilganda, o'quvchini badanni ozoda saqlashga e'tibor berishimiz zarur. Teri toza saqlanmasa, badanning turli zararli mikroblarga qarshi kurashish va himoyalash xususiyati susayib, har xil yara chaqalar paydo bo'lishi mumkin. Bolalarga "Odam tanasining umumiy tuzilishi", "Partada to'g'ri o'tirish qoidalari", "Mushak va uning funksiyalari", "Tishlar va ularni asrash", "Ovqatlanish gigiyenasi" kabi mavzularda dars mashg'ulotlarini o'tkazib boriladi. O'quvchilarning darsdan keyin bo'sh vaqtlarida kerakli, unumli ishlar bilan shug'ullanishi uchun mahallalarda, maktablarda bir qancha shart-sharoitlar yaratilgan. Bulardan biri sport bilan shug'ullanishi uchun sportzallar va ochiq maydonlar tashkil etilgan. Buni yo'lga qo'yish yoshlarning porloq kelajagi va jonajon vatanimizning ravnaqi uchun bir poydevordir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна, Насиба Курбон Қизи Насимова, and Наргиза Супхоновна Ҳақимова. "Арт-педагогика для дошкольников." Scientific progress 2.7 (2021): 1201-1205.
2. Nasimova Nasiba Qurbon qizi. Use of Innovative Methods in Speeching Classes in Preschool Educational Organizations. International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, Volume 11 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>.
1. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
2. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
3. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545



4. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOYIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.

5. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.

6. Bakhtiorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.

7. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.

8. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

9. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.

10. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

11. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi // *Научно-практическая конференция*. – 2021.

12. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2021. – Т. 2. – №. 2.

13. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т.

14. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т. 8.

15. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2020. – Т. 2. – №. 2.

16. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

17. BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI // *PEDAGOGS jurnali*. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.

18. Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари // *Общество и инновации*. – 2021. – Т. 2. – №. 3/5. – С. 49-52.

## МАКТАBGACHA YOSHDAGI BOLALARNING МАТЕМАТИК TASAVVURLARNI RIVOJLANISHDA O'LCHAM TUSHUNCHASINING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Bafoyeva Mohinur Rustamovna**

*Buxoro davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarni rivojlanishda o'lcham tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, narsalarni kattaligi hamda shakliga oid fikrlar ifoda etilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, bola, yosh xususiyati, matematik tasavvurlarni shakllantirish, o'lcham, qiymat.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida bolalarni intellektual taraqqiyotini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi muammolar ko'rsatib o'tildi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim muassasalari sonining yetarli emasligi;



- maktabgacha ta'lim muassasalarining malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlanmaganligi;
- ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi;
- zamonaviy o'quv-metodik materiallar va ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi.

Ma'lumki, iste'dodli bolalar va iqtidorli yoshlar davlatning intellektual salohiyatini oshirib boruvchi va aniq maqsadlar yo'lida samarali foydalanishi uchun zarur bo'lgan «oltin zahirasi» dir. Bu-davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma'naviy barkamol, iste'dodli, ijodkor, qobiliyatli kadrlarga bog'liq ekanini chuqur anglagan holda faoliyat yuritish demakdir. Bu esa asosan maktabgacha ta'limda o'lcham haqidagi tasavvurlarni shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Birinchi navbatda, obyektning o'lchamini, shuningdek uning uzunligini, kengligini, balandligini, massasini, hajmini, maydonini tushunadilar va o'lchov ostida - o'lchash asboblari yordamida har qanday jismoniy miqdorning miqdoriy qiymatini olish jarayoni. Miqdorlar bilan harakatlar va ularni o'lchash deyarli har kuni bolaning hayotida mavjud. Masalan, modellashtirish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ta'lim faoliyatida o'qituvchi boladan plastilinning kichik bir bo'lagini olishni yoki muhim bo'lakdan kichik bo'lakni chimchilab olishni so'raydi. Ko'zning yordami bilan bola, ya'ni, ko'z bilan, qaysi qism kichikroq, qaysi biri kattaroq vazifani bajaradi. Chizish uchun bolalar turli o'lchamdagi narsalarni tasvirlab, rasmdagi nisbatlarni kuzatadilar. Muloqot paytida maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha o'zlarini boshqa bolalar bilan taqqoslashadi - ularning qaysi biri baland, kim katta va hokazo. Bunday harakatlar asosida kattalik haqidagi tasavvurlar yaratiladi. Birinchi navbatda, obyektning o'lchamini, shuningdek, uning uzunligini, kengligini, balandligini, massasini, hajmini, maydonini tushunadilar va o'lchov ostida - o'lchash asboblari yordamida har qanday jismoniy miqdorning miqdoriy qiymatini olish jarayoni . Miqdorlar bilan harakatlar va ularni o'lchash deyarli har kuni bolaning hayotida mavjud. Masalan, modellashtirish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ta'lim faoliyatida o'qituvchi boladan plastilinning kichik bir bo'lagini olishni yoki muhim bo'lakdan kichik bo'lakni chimchilab olishni so'raydi. Ko'zning yordami bilan bola, ya'ni, ko'z bilan, qaysi qism kichikroq, qaysi biri kattaroq vazifani bajaradi. Chizish uchun bolalar turli o'lchamdagi narsalarni tasvirlab, rasmdagi nisbatlarni kuzatadilar. Matematika bo'yicha miqdorlar bilan tajriba o'tkazadilar, masalan, shakli va o'lchami bir xil bo'lgan kattaliklar nima uchun har xil massaga ega bo'lishi mumkinligini aniqlaydilar, suyuqlik va quyma moddalarning ma'lum bir hajmi tomirlar shaklidan o'zgarmaydi va hokazo. Muloqot paytida maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha o'zlarini boshqa bolalar bilan taqqoslashadi - ularning qaysi biri baland, kim katta va hokazo. Bunday harakatlar asosida kattalik haqidagi tasavvurlar yaratiladi.

Miqdor, kattalik. Uzunligi, kengligi har xil bo'lgan bir nechta buyumni (10 tagacha) bir-birining ustiga uzunligi, kengligiga, qalin yupqaligiga ko'ra ortib va kamayib boradigan tartibda qo'yib qiyoslashni o'rgatish. Turli uzunlikka, kenglikka, balandlikka ega buyumlarni ko'payib borish yoki kamayib borish tartibida (10 tagacha bo'lgan buyumlardan foydalanib) terib chiqishga o'rgatish, masalan: baland, past, pastroq, yanada pastroq, eng past. Butunni 2 ta, 4 ta teng qismga bo'lishni, butun bilan qismni taqqoslashni o'rgatish. Shartli o'lchov bilan tanishtirish. Taqqoslanayotgan buyumlardan biriga teng bo'lgan o'lcham yordamida ikkita buyumni uzunligi (kengligi, balandligi)ga qarab taqqoslashga o'rgatish. muassasalari oldida turgan muhim vazifalaridan biridir. Bolalarni intellektual taraqqiyotini jadallashtirishda ularning qiziqishlari, moyilligi, layoqati va qobiliyatlarini bilish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni metr va santimetr bilan uzunlikni o'lchashning umumiy qabul qilingan o'lchovlari, shuningdek, o'lchagichning funksiyalari, uning yordami bilan o'lchash qoidalari bilan tanishtirish mumkin deb hisoblaydi. O'lchov jarayoni

maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'lchov algoritmini o'zlashtirganda aniq bo'ladi ya'ni, takroriy takrorlash bilan mahoratga aylanadigan ma'lum qobiliyatlar. Z.A. Mixaylova bolalar o'lchash moslamalarini umume'tirof etilgan o'lchov birligidan ajrata olmaydilar, deb hisoblaydi. Misol uchun, hisoblagichni olaylik, bolalar faqat matoni o'lchagan o'lchagichni tushunishadi va hisoblagich o'lchov birligi ekanligini tushuna olmaydilar. Xuddi shu tarzda, "santimetr" so'zi bilan bolalar xalq orasida shunday deb ataladigan santimetrli lentani ifodalaydi. O'zlarining kichik tajribasidan foydalangan holda, maktabgacha yoshdagi bolalar kamdan-kam hollarda bir vaziyatda qo'llaniladigan o'lchov vositalari boshqa sharoitlarda boshqa narsalarni o'lchash uchun ishlatilishi mumkinligini tushunadilar. Bolalar ba'zan o'z kattalarning harakatlariga taqlid qiladilar, o'lchovning mohiyatini va uning maqsadini tushunmaydilar. O'lchov jarayonining o'zi ancha murakkab, chunki u maxsus bilim, ko'nikma va maxsus o'lchov vositalaridan foydalanishni talab qiladi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning obyektlarning o'lchamlari haqidagi g'oyalarini rivojlantirish asosida ularni o'lcham bilan tanishtirish quyidagi ketma-ketlikda tashkil etilishi mumkin:

1. Obyektning fazoviy ko'rsatkichi asosida o'lcham bilan tanishish, obyektlarning o'lchamlari parametrlari bilan tanishish, obyektlarni ayrim belgilardan biriga ko'ra taqqoslash;
2. Solishtiriladigan obyektlardan biriga teng bo'ladigan umumiy afzal o'lchov asosida obyektlarni solishtirish, bundan tashqari, obyektlarni ko'plab kattalik parametrlari bo'yicha taqqoslash, o'lchamiga ko'ra ketma-ket qatorlarni yaratish va ishlab chiqish;
3. O'lchash ishlari.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarni rivojlanishda o'lcham tushunchasi yosh xususiyatiga ko'ra tanlab, maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarda ba'zi bir yashirin muhim matematik aloqalarni, munosabatlarni, "teng", "katta", "kichik", "butun va bo'lak" kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni, o'lchov kattaliklari bilan son o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlay bilish ko'nikmasini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurini shakllantirish mantiqiy tafakkurining yangi bosqichga ko'tarilishiga va ularning umuman aqliy faoliyati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bolalarni ko'z bilan hamda ichida sanashga o'rgatib boriladi. Ularning ko'z bilan chamalash, shaklni tezda farq qila bilish qobiliyati rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning elementar matematik tasavvurini rivojlantirish, bolalarning oldingi guruhlarda olgan bilimlarini umumlashtirish, bir tizimga keltirish, kengaytirish va chuqurlashtirish bilimlariga tayanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мақтабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. 2017 йил 30 сентябрь, ПФ- 5198-сон.
2. O'zbekiston Respublkasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi
3. Sodiqova SH. Maktabgacha pedagogika. To'ldirilgan qayta nashr. –T.: TDPU, 2017 y.
- 4.Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15 Xalq og 'zaki ijodi orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
- 5.SG Ergashovna, AN Choriyevna. Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. Texas Journal of Medical Science, 2023
- 6.G Saidova BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023/1/31
- 7.Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.

8. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
- 9.Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
- 10.Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173
11. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
12. Saidova Mohinur Jonp'olatovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
- 13.QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS'SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
- 14.Qosimov F. M., Qosimova M. M. Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1138-1145.
- 15.Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.
- 16.Kasimov F., Kasimova M., Uktamova D. Specific principles for constructing a system of educational tasks //Bridge to science: research works. – 2019. – С. 211.
- 17.Qosimov F. M., Qosimova M. M. МАТЕМАТИКАДАН ИЖДИЙ О'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 206-211.
- 18.Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.
- 19.КАСИМОВ Ф. М., КАСИМОВА М. М., ХАКИМОВА М. Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62.

## EKOLOGIK TARBİYANING TARIXIY ILDIZLARI HAMDA PEDAGOGIK AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Niyazova Sitora Davronovna**

*BuxDU o'qituvchisi*

**Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna**

*BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekologik tarbiyaning tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari, insoniyat hayotida ekologik tarbiyaning beqiyos o'rni va uning pedagogik ahamiyati haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik ta'lim, totemizm, tabiat, burch, tabiatga sadoqat, yer, suv, olov, havo, olam.

Insoniyat juda qadim zamonlardan buyon tabiat bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga intilib kelgan. Sababi, ibtidoiy inson tabiatdagi barcha mavjud narsa-hodisalarni o'zi kabi jonli (ruhi bor) deb o'ylab, ular bilan ehtiyotlik bilan muomala qilgan. Qadimgi odam tasavvuricha, tog'-u toshlar, daryo-yu ko'llar, osmon jismlari - barchasi jonlidir. Ibtidoiy insonning bunday qarashi animizm deb yuritiladi. Qadimgi insonlarning totemistik tasavvuricha, butun hayvonlar va o'simliklar olami insoniyat olami bilan qon-qarindoshdir va ular o'rtasida ayrim o'xshashlik va yaqinliklar mavjud. Ibtidoiy inson bu o'xshashlik va yaqinlikni daraxtlarning yil fasllariga qarab o'z ko'rinishini o'zgartirishida va hayvonlarning odamzot singari ba'zi xatti-harakatlarni bajarishida ko'radi. Masalan, hayvonlarning o'ziga yegulik axtarishi, bolalariga g'amxo'rliqi, o'zi uchun ehtiyotkorlik choralarini ko'rishi, xavfdan

ogoh bo'lib yashashga intilishi, kezi kelganda hatto sadoqatligi kabi xususiyatlari insoniy hatti-harakatlarni eslatadi. Yoki daraxtlarning yil fasllarini his qilgan holda har faslga mos tarzda o'z ko'rinishini o'zgartirib turishi uning jonliligidan darak berib turadi. Shuning uchun inson imkon qadar ularni avaylashga intiladi. Ularni huda-behuda ranjitib qo'yishdan cho'chiydi. Chunki u o'zining yashashi, turmush kechirishi, kundalik iste'moli uchun zarur bo'lgan aksariyat ma'sulotlarni aynan o'simlik va hayvonot olamidanda oladi. Shu boisdan inson ularning ranjishidan va o'ziga kerakli bo'lgan narsalardan mahrum etilishidan qattiq xavotirlanadi.

Ibtidoiy inson o'z ehtiyojlarini qondiradigan, shuningdek, go'zal ko'rinishli, yoqimli, foydali narsalarda yaxshi ruhlar, aksincha, yoqimsiz, badbo'y, zararli narsalarda yomon ruhlar makon qurgan deb tushungan va shu asosda tabiat predmetlariga muomala qilgan. Shuning uchun ibtidoiy inson gul, daraxt, tosh, suv, o'simliklar va hayvonlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lgan. Ulardagi yaxshi va yomon ruhlarga ozor yetkazishdan qo'rqqan, shu qo'rquv va ehtiyotkorlik zamirida asta-sekin ekologik tarbiyaning ilk shartlari, ko'rsatmalari va talablari shakllana boshlangan. Ibtidoiy jamiyatda tabiat inson uchun homiy-madadkor sanalgan. Inson uni jonli deb tasavvur qilgan va shuning uchun uning tilini topib yashashga, u bilan sirlashishga harakat qilgan.

Ibtidoiy inson tabiatning rang-barangligiga, undagi ranglar jilosiga, shakl ko'rinishlariga, borliqdagi jonli va jonsiz narsalarning turiga, ko'rinishiga, jinsiga, harakat-holatiga, ovozigaga, miqdoriga, tabiatda tez-tez sodir bo'lib turadigan stixiyali hodisalarga e'tibor berar ekan, tabiatning boyligi va qudratiga tan bergan va uning oldida u ojizligini his etgan.

Qadimgi inson tabiatdagi har bir rangning, har bir shakl ko'rinishining, raqamlarning, harakat-holatning o'z mazmun-mohiyati bor deb tushunib, ularga sig'ingan. Shular asosida tabiatning sirliligini tan olgan.

Bulardan ko'rinadiki, ekologik tarbiyaning ilk ildizlari insoniyatning qadim turmush tarziga borib taqaladi. O'sha kezlardan insonlar tabiat bilan ehtiyotkorona muomalada bo'lishga intilishgan va buni yosh avlod ongiga singdirishga harakat qilishgan.

Ibtidoiy odam o'z hayotining tabiat bilan chambarchas bog'liqligini his qilgani bois, hatto olamning asosida ham to'rtta tabiat unsuri - yer, suv, havo, olov (quyosh) yotadi deb qaragan va aynan shu tabiat resurslarini ko'proq asrab-avaylashga intilgan. Ularning homiyiligiga qattiq ishongan. Qadimgi insonning bunday ibtidoiy tasavvur-tushunchalari uning o'z aqliy va jismoniy kuchiga ishonchi orta borgani sayin o'zgara boshlagan. Endi inson o'z aql kuchiga tayanib, tabiatdan juda ko'p narsalar talab qila borgan. Tabiatdagi narsa-hodisalarga o'z ta'sirini o'tkazib, turmush tarzi uchun turli narsalar bunyod etishga kirishgan. Jumladan, tog'u toshlar orasidagi g'orlardan o'ziga boshpana topgan ibtidoiy odam tevarak-atrofga razm solib, undagi qushlarning, arilarning tajribasini asta-sekin o'zlashtira boshlaydi. Shu tariqaimoratlar bunyod etishga kirishgan inson endi shunga zarur bo'lgan qurilish materiallarini hambevosita o'sha tabiat qo'ynidan ola boshlagan. Shunda ilk bor daraxtlar olamiga insonning xuruji boshlangan. Yoki mo'rorlarda yashab, turli jonivorlarning go'shti bilan oziqlanib, tirikchilik o'tkazib kelayotgan ibtidoiy inson uchun hayvonlar ham homiy-madadkor sifatida totemistik tasavvur uyg'otgan. U katta va yirik hayvonlarni ovlaganida juda quvongan. Shu asosda unda kichik narsadan ko'ra katta narsaning manfaatlroq bo'lishi haqida tushuncha paydo bo'laboshlagan. Mana shu alfozda qadimgi inson tasavvurida hajm tushunchasi asta-sekin paydo bo'la boshlagan.

Xullas, qadimgi ajdodlarimiz tabiatni jiddiy kuzatar ekan, undan o'zi uchun foydali ko'p narsalarni kashf etishga muvaffaq bo'lgan. Shu kuzatishlar zaminida inson tabiatdan nusxa ko'chirib, juda ko'p bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Masalan, ari uyasiga qarab, ko'p qavatli uylar qura boshlagan. Qushning parvozi samolyot yaratilishiga turtki bo'lgan. Quyoshga qarab, lampochkalar kashf etilgan va hokazo. Bularning barchasi kuzatish - tabiatni bilishning, tushunish va his etishning eng asosiy vositasi ekanligini namoyon etadi. Shunday ekan, hozirgi yoshlar ham tabiat bilan yaqindan oshno tutinsalar, uni jiddiy kuzatib, o'rganib borsalar, hali ko'p yangi narsalarni kashf qilishga musharraf bo'lishlari mumkin. Chunki tabiat azaldan insonni to'ydirib, yedirib, ichirib, kiyintirib kelayotgan ona kabi g'amxo'r va

mehribondir. U haligacha insondan o'z saxovatini darig' tutmay kelayotir. Bunga javoban, insoniyat ham ona kabi mehribon tabiatni har tomonlama asrab-avaylashi, uning boylıklaridan oqilona va rejali foydalanishi juda muhimdir.

Demak, tabiatni asrash har kimning insoniy burchidir. Tabiatni asrab avaylash qadimiy ajdodlarimizdan merosdir. Xalqda ekologik tarbiyani amalga oshirishning, o'z yo'llari bo'lgan. Bu boradagi xalqona an'analarni o'rganish va ularning hozirgi turmush tarzimizga mos keladigan tomonlarini aniqlab, ekologik tarbiya jarayonida foydalanish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish sohasida ma'lum tadbirlar o'tqazilmoqda. Mamlakatimizda ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning uzluksiz konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Lekin bu borada kamchiliklar hali ko'p. Jumladan, O'zbekiston respublikasining "Tabiatni muxofaza qilish to'g'risidagi" qonunida ushbu masalaga kam o'rin berilgan. Ekologik axborot tizimi yaxshi shakllanmagan. Bu muammolar yaqin yillar ichida ijobiy hal qilinishi lozim.

XXI asr-ekologiya asri bo'lishi shubhasizdir. Har bir inson ona sayyoramiz tabiatniziyon yetkazmasdan o'zgartirishi, tabiiy boylıklardan oqilona foydalanish va yashash muhitini saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozimdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmonov M.B., Rustamboev M.X., Xolmuminov J.T. va boshk. Ekologiya xukuki. T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi" 2001 y.
3. Yormatov D. Norqulov A. Avazov Sh. Sultonov N. Sanoat ekologiyasi «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti. Toshkent 2007 y.
4. Otaboyev S. Nabiyeu M. Inson va biosfera. T. O'qituvchi . 1995. 307 b.
5. To'xtayev A, Xamidov A, Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. O'qituvchi .1994.
6. Shodimetov Y. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T. O'qituvchi. 1994.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston 1992.
8. O'zbekiston «Ekologiya xabarnomasi» jurnali sonlari.
9. Шавкатович, Хафизов Шахриёр. "ЎЗБЕК ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ ТАРИХИ." *E Conference Zone*. 2023.

### ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR BILAN INKLYUZIV TA'LIM

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Mavjuda Maxmudovna Nigmatova

*BuxDUt universiteti, dotsent*

D.E.Erkinova

*Buxoro davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydigan hamma uchun ta'lim mavjudligini nazarda tutadigan umumiy ta'limni rivojlantirish shakllari xususidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab ta'limi, inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, pedagogik aloqa, rivojlantirish, o'qituvchi, kattamaktabgacha yosh.

**Аннотация.** В данной статье приводят идеи о развитии общего образования, которое обеспечивает образование для всех дошкольников, предоставляя возможность детям с особыми потребностями.

**Ключевые слова:** школьное образование, инклюзивное образование, дошкольное образование, педагогическое общение, развитие, педагог, старший дошкольный возраст

**Annotation.** This article, preschool educational organizations present ideas about the forms of development of general education that provide education for all, which provides an opportunity for children with special needs to receive education.

**Key words:** school education, inclusive education, preschool education, pedagogical communication, development, teacher, senior preschool age.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barcha odamlarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan, lekin alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun alohida sharoitlar yaratuvchi mafkuraga asoslanadi. Inklyuziv ta'lim - bu alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydigan barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta'lim mavjudligini nazarda tutadigan umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni.

Inklyuzivlikning turli ta'riflarini o'qib chiqsak, ularning har birida asosiy e'tibor guruhga qo'shilish va boshqalar bilan birgalikdagi harakatlarda ishtirok etish, ya'ni ushbu guruh hayotida ishtirok etishni ko'ramiz. Oddiy bolalar nogiron tengdoshlariga, ko'pincha kattalar yordamisiz, guruhning mazmunli a'zosi bo'lishga osonlik bilan yordam berishlari mumkin. Odatda, rivojlanayotgan bolalar nogiron bolalarga ta'lim va ijtimoiy faoliyatda to'liq ishtirok etishga yordam berishda o'rganadigan saboqlar inklyuziv ta'lim muassasalari mavjudligining eng muhim ijobiy natijasi bo'lishi mumkin.

Ular orasida quyidagi mumkin bo'lgan natijalar mavjud:

❖ bolalar o'rtasidagi tafovut qo'rquvini kamaytirish va ayni paytda xotirjamlik va haqiqatni tushunish;

❖ ijtimoiy ongning o'sishi;

❖ o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini hurmat qilishning rivojlanish dinamikasi;

❖ samimiy tashvish va do'stlik ifodasi.

Munosabatlar tushunchasi xulq-atvorning keng doirasini va murakkab shaxslararo o'zaro munosabatlarni qamrab oladi. Bola o'zi vaqt o'tkazadigan har qanday muhitda munosabatlarni shakllantirishi mumkin.

O'zaro munosabatlarni tizimlashtirish mumkin:

❖ o'ynoqi-do'stona (masalan, bolalarning bo'sh vaqtlarida birga o'ynashlari);

❖ yordam (tengdoshlarini qo'llab-quvvatlaydigan bola);

❖ yordamni qabul qilish (bola do'stidan yordam oladi);

❖ guruh (yurish uchun yonma-yon yurganda muloqot qiladigan, lekin, ehtimol, erkin tanlov sharoitida aloqa qilmaydigan ikkita bola);

❖ ziddiyat (bolalarning o'yin qoidalari to'g'risida tortishuvi yoki bitta narsadan foydalanishga rozi bo'lishga urinish).

Taxmin qilish mumkinki, nisbatan rivojlangan bolalar ko'plab tengdoshlari bilan muloqot qilishlari mumkin va odatda rivojlanayotgan munosabatlardagi bolalar uchun ko'plab ijobiy natijalar aniqlanishi mumkin, jumladan: turli xil ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish; nogironlarga ham, nogiron bo'lmaganlarga ham ko'proq bag'rikenglik va qabul qilish; boshqalarga yordam berish va kerak bo'lganda yordamni qabul qilish istagi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun bolalar ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak, ammo ko'nikma va bilimlarning o'zi istalgan natijaga erishish uchun ishonchli asos bo'la olmaydi.

Inklyuziv tafakkurga ega ta'lim muassasalarining mavjudligi kamsitishlarga qarshi kurashish, jamoalarda yaxshi munosabatlarni o'rnatish, hamma uchun maqbul bo'lgan jamiyat qurish va umumbashariy ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashning eng samarali usuli hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim muassasalari jamiyat a'zolariga nafaqat ushbu masalalarni yaxshiroq tushunishlari, balki boshqalar bilan yaxshiroq munosabatda bo'lishlari uchun yangi qadriyatlar va munosabatlar tizimiga qo'shilishlari uchun ideal sharoitlarni yaratadilar, ular boshqacha yoki o'xshash bo'lishidan qat'i nazar.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalari bilan inklyuziya yoki tuzatuvchi ta'sirlar, ushbu yoshga xos xususiyatlar va yutuqlardan kelib chiqqan holda, ma'lum bir yosh davridagi rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga mos keladigan tarzda tuzilishi kerak.

Birinchidan, tuzatish va qayta rivojlanishga, shuningdek, oldingi yosh davrida shakllana boshlagan va keyingi yosh davrida rivojlanish uchun asos bo'lgan ruhiy jarayonlar va neoplazmalarni qoplashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, korreksiya va rivojlantirish ishlari hozirgi bolalik davrida ayniqsa jadal rivojlanadigan aqliy funktsiyalarni samarali shakllantirish uchun sharoit yaratishi kerak.

Uchinchidan, tuzatish va rivojlantirish ishlari keyingi yosh bosqichida muvaffaqiyatli rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga yordam berishi kerak.

To'rtinchidan, tuzatish va rivojlantirish ishlari ushbu yosh bosqichida bolaning shaxsiy rivojlanishini uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shunday xulosalash mumkin:

❖ har bir bolaning haqiqiy manfaatlariga nima mos kelishini tahlil qilish, unga nima yaxshi ekanligini aniqlaydi. Faktlar shuni ko'rsatadiki, muassasaviy (masalan, maktab-internatlarda, maktab-internatlarda) vasiylik har doim ham vasiylikdagi shaxslarning manfaatlariga javob bermaydi;

❖ ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar yanada moslashuvchan va moslashuvchan bo'lishi natijasida yaxshilanadi;

❖ resurslar cheklangan bo'lsa, ishtirokchilarning munosabati va xatti-harakatlari inklyuziv metodologiyani qo'llab-quvvatlash, qo'shimcha resurslarsiz natijalarga erishish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M.Nigmatova. Maktabgacha ta'lim muassasasi va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik. центр научных публикаций (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
2. M.Nigmatova. Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'limning o'zaro integratsiyasi. центр научных публикаций (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
3. M.Nigmatova. Ta'lim muassasalari o'rtasida uzviylik tizimini yaratish mexanizmlari. центр научных публикаций (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
4. M.Nigmatova. Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinlar texnologiyasi. integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. 2022/7/16. 831-833 bet.

#### MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MEHNATSEVARLIKKA O'RGATISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Kosimova Manzura Abdullayevna

*BuxDu o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari haqida yotirib berilgan.

**Аннотация.** В статье описываются педагогические и психологические возможности обучения детей дошкольного возраста прилежности.

**Annotatsiya.** The article describes the pedagogical and psychological possibilities of teaching diligence to preschool children.

**Kalit so'zlar:** mehnatsevarlik, pedagogika, psixologiya, imkoniyat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning muhim xususiyati shaxsning o'z individualligi, betakrorligini anglashi, o'zini anglash "men"ning shakllantirilishidadir. I.Kon. fikri bo'yicha bu o'zaro bog'liq uch komponentni o'z ichiga oluvchi bilim, his-tuyg'u va xulq-atvor komponentlari bo'lib, shaxsning o'ziga munosabatini anglatadigan ijtimoiy ko'rsatmadir.

Bu jarayon, ayniqsa, maktabgacha ta'limda chuqur andoza va darajalarda mashg'ulotlarda joriy qilinayapti. Shuningdek, maktabgacha ta'lim mashg'ulotlarini tashkil qilish va uni o'tkazishda katta yutuqlar qo'lga kiritilayotir. Shu jumladan, maktabgacha ta'lim bosqichi mashg'ulotlarni ham Davlat talablari asosida olib borishga erishilmoqda. Bolada o'z



qiyinchiliklari va nuqsonlarini tushunib, anglab olishda unga tarbiyachining xuddi katta dono

o'rtoqdek yordam berishi uning shaxsiga ta'sir etishining muhim sharti hisoblanadi. Bu yerda tarbiyachi e'tibor berishi lozim bo'lgan ruhiy olam bilan bog'liq bo'lgan muhim nozik narsa bor. Agar ta'lim jarayonida tarbiyachi o'z talablarining bolasi javobida mufassalroq ochib bergan tomonlarni har yo'l bilan rag'batlantirsa, u bilan individual tarbiyaviy ishini muloqot shaklida emas, balki mehnatsevarlik, g'amxo'rlik tusida olib borsa, bola o'zining ichki kechinmalari haqida ochiq-oydin gapirib berish ehtiyojini namoyon qiladi. Tarbiya jarayonida duch kelayotgan qiyinchiliklarini aytib beradi va ayni chog'da tarbiyachining uni tushunishini, unga achinishi va yordam berishini shohidi bo'ladi.

Tarbiyachining bolalar bilan maxsus ish olib borishi natijasida, ular o'z tengdoshlarining muvaffaqiyatlariga, yutuq va kamchiliklariga do'stona qiziqish bilan qaray boshlaydilar. Ana shu tarzda jamoada do'stlik, o'rtoqlik yuzaga kela boshlaydi. Bolalarning ijtimoiy ishlarni jamoa bo'lib amalga oshirishda ishtirok etishlari ularning bir - birlariga bo'lgan ishonchnishakllantiradi. Aynan mana shunday ishlarda bola jamoa orasida amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatning asosiy tajribasini egallab oladi. Aslida bolaning har qanday faoliyati o'z mohiyati jihatidan jamoa faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bu faoliyatning g'oyat katta tarbiyaviy ahamiyati ham ana shu bilan belgilanadi.

"Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida quyidagilardan iborat vazifa sifatida belgilangan:

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari asosida hamda MTT davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish
- maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirishdan iborat.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, bolalarning mehnatsevarlik fazilatlarini kamol topishida birgalashib, jamoa bo'lib o'ynaydigan bolalar o'yinlari ham katta rol o'ynashi muhim sanaladi. Chunki bolalar o'yini faqat iroda, batartiblik, hozirjavoblik va tashabbuskorlikni tarbiyalash bilan birga o'rtoqliq, ahillik hissini va o'z xatti-harakatlarida jamoa manfaatlarini ko'zlab ish ko'rish fazilatlarini ham tarbiyalaydi.

Bolalarda insonparvarlik g'oyasini shakllantirishda mehnatning ahamiyati kattadir. Lekin shu narsani doimo yodda tutish kerakki, har qanday mehnat ham shaxsda ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan xislatlarni tarbiyalayvermaydi, albatta. Mehnat o'z shaxsiy manfaati uchun bajonidil mashaqqat chekishga tayyor bo'lgan xudbinni ham tarbiyalaydi. Binobarin, xudbin bolada hamma uchun foyda keltiradigan mehnatni beg'araz va vijdonan bajarish fazilati bo'lmaydi. Bolalar o'z - o'ziga xizmat qilish, o'qiyotgan joylarini belgilash uchun bo'ladigan hatcho'p, qutichalar, sanash materiallari, daftar jildlari kabi o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda bir - biriga yordam berish fazilatini tarbiyalashga katta e'tibor berish kerak. Chunonchi, sinf xonasini tozalash, maktab tomorqasida ishlash, sport maydonchasini supurish, o'zlaridan kichik bolalar uchun foydali narsalar tayyorlash va boshqalar bu yoshdagi bolalarning bajarish uchun kuchlari yetadigan ijtimoiy-foydali ishlardir. Zotan ularning mehnat faoliyatlarida mehnatsevarlik xususiyatlari namoyon bo'ladi. U o'zi uchun bo'lgan narsani qunt bilan berilib tayyorlaydi. Boshqalar uchun ishlash tajribasi hali ularda shakllanmagan bo'ladi.

Umuman, maktabgacha yoshidagi bolalar o'z mehnatlari bilan tevarak - atrofdagi boshqa odamlarga foyda keltirishlarini sekin - asta anglay boshlaydi. Bu esa bolalarda g'ururlanish, shodlanish va o'z ishidan mamnun bo'lish tuyg'ularini shakllantiradi. Aslida, aynan mana shu tuyg'ularni maktabgacha yoshidagi bolalarda mustahkamlab borish kerak. O'tkaziladigan o'yinlar va ijtimoiy - foydali mehnat vositasida mehnatsevarlikka o'rgatish manbalari va vositalaridan oqilona foydalana bilgan har bir tarbiyachi yuksak axloqiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga o'zining salmoqli ulushini qo'sha oladi.

Biz yuqorida mehnatsevarlik masalasi ta'lim - tarbiyaning eng muhim va ajralmas qismi ekanligi to'g'risida so'z yuritdik. Haqiqatan ham, tarbiya zaminida shaxs hissiyoti yotadi.

Shuning uchun har qanday mehnatsevarlik xususiyatining shakllanishi ana shu shaxs hissiyoti bilan bog'liq hodisadir. Shaxsni shakllantirish va uning mehnatsevarlik sifatlarini o'stirib borish pedagogika va psixologiya fanining asosiy masalalardan biridir. Mehnatsevarlik vatanparvarlik, hamkorlik, do'stlik, halollik va poklik kabi olijanob xislatlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra Maktabgacha yoshidagi bolalarda mehnatsevarlik tushunchasini bir butun holda o'zlashtirishlari uchun tarbiyachi har bir mashg'ulotni ularning yoshiga xos tarzda o'tkazishi maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotning maqsadi tarbiyachining bolalar bilan birgalikdagi ta'lim - tarbiyaviy ishlari natijasini ifodalaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна, Насиба Қурбон Қизи Насимова, and Наргиза Супхоновна Ҳақимова. "Арт-педагогика для дошкольников." Scientific progress 2.7 (2021): 1201-1205.
2. Nasimova Nasiba Qurbon qizi. Use of Innovative Methods in Speeching Classes in Preschool Educational Organizations. International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, Volume 11 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>.
4. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
5. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
6. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
7. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
8. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.
9. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
10. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
11. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
12. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. etal. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.

13. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2021. –Т. 2. –No. 2.
14. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т.
15. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.
16. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2020. –Т. 2. –No. 2.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Kasimov Asror Abdulloevich

*BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, muayyan sohalarida chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash, o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash, o'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** ijodiy faoliyat, innovatsion faoliyat, hamkorlik faoliyat, ijodkor shaxs, ijodiy yondashuv, ijodiy qobiliyat, rivojlanish darajasi, diagnostika.

O'quvchilarda ijodkor faoliyatini rivojlantirish hamda ular tomonidan an'anaviy ta'lim me'yorlarini o'zlashtirishga yordam beradigan qoidalar quyidagilardir:

1. O'quvchining maqsadga qaratilgan qobiliyatining rivojlanish darajasi nazorat va baholashga daxldor bo'lgan majburiy standartlarga kiritildi. O'quvchilarning individual maqsadga yo'naltirilganligi hamda o'rganilayotgan sohadagi ularning tegishli faoliyati umumiy hajmning 20 % dan ortig'ini tashkil etdi.

2. O'quvchining o'qituvchi tomonidan rejalashtiriladigan va nazorat qilinadigan faoliyatining majburiy turiga: o'quvchilar tomonidan faoliyatning ijodiy mahsuldorligini yaratishga shart-sharoitini ta'minlaydigan-ijodkorlik bilish jarayonini jarayonini ta'minlaydigan bilishga doir; o'quvchining oldingi ikkita ijodiy faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan ilmiy-tashkiliy turlari kiradi. 3. O'quvchilarning ijodkorlik faoliyati va unga qo'yiladigan maqbul talablar quyidagilar hisoblanadi:

a) fundamental ta'limiy ob'ektlar o'quvchi ijodiy faoliyatining ob'ekti bo'ldi;

b) o'quvchining shaxsiy ijodining hajmi umumiy o'quv jarayonida 20-25 foizni tashkil etdi.

d) Umumta'lim jarayonidagi mahsuldor va reproduktiv faoliyat nisbati o'quvchining rivojlanish darajasiga, o'qituvchi va maktabning strategiyasi va ta'lim maqsadlariga qarab belgilanadi, biroq o'quvchi mahsulotining hajmi uning individual dasturi bo'yicha ta'lim faoliyati hajmi kam bo'lmasligi kerak. O'quv jarayonining tuzilishi qanday natijalar va qanday shaklda nazorat qilinishiga bog'liq. Ma'lumki ijodiy faoliyatning natijalari ikki tomonlama xarakterga ega tashqi va ichki shuning uchun ham o'qituvchilarning ta'limda erishgan yutuqlari hamda ularning ichik sifati nazorat predmeti hisoblanadi. Ta'lim shaxsning asosiy xususiyati sifati birinchi navbatda uning ichik rivojlanish natijasi bilan aniqlanadi. Ko'pincha ijodiy faoliyat diagnostikasi uchun turli xil testlar qo'llaniladi. Biroq, vaziyatli yondashuv ya'ni o'quvchilarni maxsus tashkil etilgan yoki tabiiy ta'lim vaziyatlaridan foydalanish yordamida diagnostika qilish samaraliroqdir. Bunday hollarda tashxis qiluvchilar rolini taklif etilgan mutaxassis ekspertlar qanchalik bajarsa, amaliyotchi pedagoglar ham shunchalik bajaradilar, chunki ular sub'ektiv tajribalariga tayanadilar. Ta'lim natijalarining diagnostikasi, jumladan, o'quvchi qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash o'qituvchining o'quvchida hosil bo'layotgan sub'ektiv "his etishi" yo'li bilan aniqlandi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlanish darajasining diagnostika qilishda ta'lim

sub'ekti ishtirok etadigan diagnostik ta'lim jarayonlari uchun sharoit hamda o'quvchilarning ichki va tashqi olamidagi ta'limiy o'zgarishlar, qo'yilgan maqsadlarning rejalashtirilgan davrda olingan natijalar bilan o'zaro nisbatini aniqlash orqali maqsadga erishiladi. O'quvchilarning ta'lim mahsuldorligini tahlil qilish va baholash usullari ularning ijodkorlik faoliyatini nazorat qilish metodi bo'ladi. O'quvchi ta'lim mahsuldorligining har bir elementini son yoki sifat, jihatdan ball bilan yoki og'zaki baholashi mumkin. O'quvchilar bilimi sifati quyidagi usullar bilan baholanadi;

- a) javobdagi ijod elementlarining soni bo'yicha;
- b) javob elementlarining farqi bo'yicha ;
- d) javobning o'quvchining o'zi yoki sinfdoshining ishiga nisbatan yangiligi bo'yicha;
- e) yaratilgan obraz, ramz yoki ifodaning lo'nda va ixchamligi bo'yicha; javob uchun foydalanilgan imkoniyatlarning ko'pqirraligi bo'yicha;
- g) olingan natijalarning amaliy ahamiyati foydalanishi bo'yicha.

**Xulosa.** Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular asosan ta'limda muammoli vaziyatlar yaratish bilan bog'liqdir:

bu borada integratsiyalashgan ta'lim, ijodkorlik o'yinlari, o'quv to'garaklari kabilar asosida maqsadli yo'nalish, ta'lim mazmuni orqali tashkiliy metodik yondoshuv asosida o'quvchi o'z faoliyatini baholash bilan ijodiy salohiyat rivojlana borib, faoliyatga aylanadi. Shuning uchun ham ta'lim standartlari, dasturlarda ta'limning faol, amaliyotdagi mazmuni faoliyatining aniq vositalariga real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan bilim, malaka va ko'nikmalarga alohida e'tibor beriladi, boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyati ham bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarurligi ayon bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л. С. Мышление и речь: монография - Москва: Директ-Медиа, 2014.-570 с.
2. Кулагина, И. Ю. Младшие школьники: особенности развития [Текст] / И. Ю. Кулагина. – М. : Эксмо, 2009. – 83 с.
3. Бикбаева Н.И., Е.Янгабаева. Математика 3-синф. Т., 2004.-Б.12-13.
4. Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15 Xalq og 'zaki ijodi orqali o 'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
- 5.SG Ergashovna, AN Choriyevna. Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. Texas Journal of Medical Science, 2023
- 6.G Saidova BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023/1/31
- 7.Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.
8. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
- 9.Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
- 10.Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173
11. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
12. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)

13.QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS' SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.

14.Qosimov F. M., Qosimova M. M. Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1138-1145.

15.Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.

16.Kasimov F., Kasimova M., Uktamova D. Specific principles for constructing a system of educational tasks //Bridge to science: research works. – 2019. – С. 211.

17.Qosimov F. M., Qosimova M. M. MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 206-211.

18.Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.

19.Касимов Ф. М., Касимова М. М., Хакимова М. Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62

## “TAFAKKUR” VA “IJODIY TAFAKKUR” TUSHUNCHALARINING FALSAFIY, PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Qosimova Manzura Abdullayevna**

*BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalarning ijodiy tafakkuri madaniyat tushunchalarining falsafiy, psixologik va pedagogik xususiyatlari yoritib borilgan, insoniyat tarixi davomida egallangan barcha bilimlarning izchilligini zaruriy tarzda taqozo qiladigan qobiliyatning bir bo'lagi tafakkur hisoblanadi va tarixdan nazar solsak ushbu qarashlar quyidagicha talqin qilinadi. Bilimlarning bu tarixiy vorisligi ularni qayd qilish, mustahkamlash va esda saqlashda bir kishidan boshqasiga, avloddan - avlodga o'tkazish yo'li bilan sodir bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:**Voqeylik, tafakkur, yangilik, fikr, o'ylash, muhokama, bilish faoliyati, idrok, sezgilar, bog'qlik, chegarasiz, chambarchas, bilim, insoniyat.

**Аннотация.** Творческое мышление детей в данной статье освещаются философские, психолого-педагогические особенности понятий культуры, рассматривается мышление как отрасль способности, которая необходимым образом требует согласованности всех знаний, приобретенных на протяжении всей истории человечества, и, глядя на историю, эти взгляды трактуются следующим образом. Эта историческая преемственность знаний может происходить путем передачи их от одного человека к другому, из поколения в поколение, при записи, закреплении и запоминании.

**Ключевые слова:** Реальность, мышление, новизна, мысль, мышление, обсуждение, познавательная деятельность, восприятие, ощущения, привязанность, безграничность, близость, знание, человечество.

**Annotation.** Creative thinking of children this article highlights the philosophical, psychological and pedagogical features of the concepts of culture, considers thinking as a branch of ability, which necessarily requires the consistency of all knowledge acquired throughout the history of mankind, and looking at history, these views are interpreted as follows. This historical continuity of knowledge can occur by transferring them from one person to another, from generation to generation, when recording, fixing and memorizing.

**Keywords:** Reality, thinking, novelty, thought, thinking, discussion, cognitive activity, perception, sensations, attachment, boundlessness, closeness, knowledge, humanity.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga alohida e'tibo qaratish lozimligini hardoim yodda saqlash kerakligini aytdi.

Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'inikengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamravni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yilganligi eslatildi.

Kishining butun hayoti uning oldiga hamisha jiddiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar va muammolarni qo'yadi. [Bunday muammolarning](#), qiyinchiliklarning, tasodiflarning yuzaga kelishi atrofimizdagi voqelikda hali juda ko'p no'malum, tushunib bo'lmaydigan kutilmagan, yashirin narsalar borligidan dalolat beradi. Tafakkur shuning uchun ham zarurki, haet va faoliyat davomida har bir individ narsalarning qandaydir yangi, ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlariga duch keladi. Tafakkur hamisha hali bilib olinmagan yangilikning ana shunday cheksiz chuqur jihatlariga qaratilgan bo'ladi.

Tafakkur jiddiy ravishda yangilik qidirish va ochishga ijtimoiy jihatdan bogliq, aloqador psixik jarayondir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilimlardan paydo bo'ladi va hissiy bilim chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi. Tafakkur so'zi arabcha "fikir" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish ma'nolarini bildiradi. Inson borki u fikr yuritish qobiliyatiga ega. Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan boshlanadi va keyin tafakkurga o'tib ketishi mumkin. Biroq istagan tafakkur hatto eng rivojlangan tafakkur ham hamisha hissiy bilim bilan, ya'ni sezgi, idrok va tafovutlar bilan bog'langan bo'ladi. Tafakkur faoliyati o'zining butun materialining faqat bitta manbadan, ya'ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog'lanadi hamda shu tariqa olamni aks ettiradi. Bu aks ettirishning to'g'riligi amaliy faoliyat orqali tabiat va jamiyatni o'zgartirish jarayonida uzluksiz tekshirilib turiladi. Tafakkur sezgi idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni davom ettiradi va rivojlantiradi hamda ularning chegaralaridan tashqariga chiqib ketadi.

Tafakkurning [til bilan uzviy](#), chambarchas bog'liqligi inson tafakkurining ijtimoiy, tarixiy mohiyatini ochiq oydin namoyon qilib beradi. Bilim insoniyat tarixi davomida egallangan barcha bilimlarning izchilligini zaruriy tarzda taqozo qiladi. Bilimlarning bu tarixiy vorisligi ularni qayd qilish, mustahkamlash va esda saqlashda bir kishidan boshqasiga, avloddan - avlodga o'tkazish yo'li bilan sodir bo'lishi mumkin.

Kimning aqliy taraqqiyoti insoniyatining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida hosil qilgan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muqarrar ravishda amalga oshiriladi. Individning olamni bilish jarayoni ilmiy bilimlarni tarixiy taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan, bevosita ifodalangan, buning natijalarini har bir individ ta'lim olish davomida o'zlashtiradi, bu esa kishining insoniyat bilan munosabatini aynan o'zidir. Tafakkur faoliyati insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida bilimlarni o'zlashtirish uchun ham va mutlaqo yangi bilimlarni egallash dastavval olimlar tomonidan kashf etilishi uchun ham zarur asos bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Venger L.A., Dyachenko O.M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlar va mashqlar"
2. Tunik E.E. "Ijodiy fikrlash diagnostikasi" (2006)
3. Qishtimova I.M. "Ijodkorlikning Psixosemiotikasi" (2008)
4. Imametdinova R.Ya. "Bolalarning ijodiy qobiliyatlari" (2006)
- 4.Г Саидова, А Каххорова - Общество и инновации, 2022/5/15 Xalq og 'zaki ijodi orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.
- 5.SG Ergashovna, AN Choriyevna. Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. Texas Journal of Medical Science, 2023
- 6.G Saidova BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023/1/31
- 7.Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
8. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
- 9.Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
- 10.Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils'



Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173

11. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)

12. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)

13. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS' SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.

14. Qosimov F. M., Qosimova M. M. Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1138-1145.

15. Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.

16. Kasimov F., Kasimova M., Uktamova D. Specific principles for constructing a system of educational tasks //Bridge to science: research works. – 2019. – С. 211.

17. Qosimov F. M., Qosimova M. M. МАТЕМАТИКАДАН ИЖДИЙ О'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 206-211.

18. Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.

19. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Хакимова М. Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62

## **BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MEHNAT TARBIYASINING MAQSADI VA VAZIFALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Rajabova Iroda Hamidovna**

*BuxDU o'qituvchisi*

**Ismoilova Sevara O'tkir qizi,**

*BuxDU talabasi*

*Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasining vazifalari ko'rsatib berilgan. Har bir yosh guruhlar bo'yicha kattalar mehnati, mazmuni va vositalari to'g'risida to'xtalib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: mehnat, bolalar, ijodkorlik, maqsad, atrof-muhit, mashg'ulot, tarbiya.*

*Аннотация. В статье обозначены задачи трудового воспитания дошкольников. Обсуждались коктейли для взрослых, состав и инструменты для каждой возрастной группы.*

*Ключевые слова: труд, дети, творчество, цель, среда, обучение, воспитание.*

*Annotation. The article outlines the tasks of labor education of preschool children. Adult cocktails, content and tools for each age group were discussed.*

*Key words: labor, children, creativity, purpose, environment, training, education.*

Mehnatning axloqiy qimmatini uning jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Mehnat har bir bolani o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishga, uning jamiyat hayotiga kirib borishiga, o'zini shu jamiyatning a'zosi deb his etishiga imkon yaratadi.

Har bir bola oilada, bolalar mehnatida o'z ulushi borligini his eta bilishi lozim. Ishning shu tarzda tashkil etilishi bolalarda jamoachilik va intizomlilikni, burch hissini tarbiyalaydi. Shuning uchun bolalarni jamoa mehnatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnatning bolalarni aqliy tomondan rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, mehnat jarayonida ular borliqni faol anglay boshlaydilar, dunyoni materialistik idrok etish imkoniyati yaratiladi. Maktabgacha yoshdan boshlab bolalarga mehnat tarbiyasi berish ularni estetik va jismoniy jihatdan ham rivojlantiradi.

Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, axloqlilib

tarbiyalash, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, mehnat qilish xohishini singdirib borishdir.

Mehnat tarbiyasining vazifalari xilma-xildir, shuning uchun ularni guruhlar bo'yicha quyidagicha turkumlarga ajratiladi. Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi:

Bolalarni maqsad qo'yishga, mehnat malakalari, ko'nikmalari, mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o'rgatish. Bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jaryonlarini mehnatda qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish kerak.

Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakatlarga qiziqish uyg'otish orqa mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushinib yetish.

Ikkinchi guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan:

1) Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish.

2) Bolalarda mehnat ahliga hurmatni, ularga qo'lidan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash.

Kattalar mehnati bilan tanishtirish hamma yosh guruhlari uchun «Mashg'ulotlarda ta'lim berish», «Tevarak-atrof bilan tanishtirish va ijtimoiy hayot hodisalariga qiziqishni tarbiyalash» bo'limlarida berilgan. Katta va maktabga tayyorlov guruhlari uchun qo'lmehnatining mazmuni «Qurish-yasash» bo'limida berilgan.

Ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmuni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalarning mehnati ijtimoiy-foydali mehnat bo'lib, narsa va buyumlarni yaratishga qaratilganligi, ular har bir kishi va butun xalq uchun zarur ekanligi to'g'risida tushuncha berib boriladi. Masalan, o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish orqali ulardan olinadigan mahsulot kimlar uchun va nima maqsadda ishlatilishi to'g'risida bilim va tushunchalar berib boriladi.

MTT dasturiga binoan har bir yosh guruhidagi bolalar mehnati to'g'risida quyidagi bilim va tasavvurlarni egallab olishlari lozim. Kichik guruh:

1. Ayrim kasb egalarining mehnat jarayoni.
2. Mehnat jarayonidagi mehnat harakatlari.
3. Mehnat jarayonini amalga oshirish uchun kerakli materiallar.
4. Ma'lum bir mehnat jarayonini bajarish uchun jihozlar.
5. Mehnat natijasi.

Kishilar mehnatining ijtimoiy ahamiyati.

O'rta guruhda mehnat to'g'risida qo'shimcha tasavvur va bilimlar beriladi:

- Harakat sifati haqida.
- Kishilarning mehnatini yengillatuvchi moslamalar.
- Kishilarning mehnatga muhabbati.

Mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallab olish - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnati jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar bola mehnat harakatlarini bilmasa, u hech qachon mehnat natijasiga erisha olmaydi. Bolalar mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallab olganlaridagina mehnat jarayonini bajonidil bajaradilar.

Mehnat bolalarga quvonch bag'ishlaydigan qilib rejalashtirilishi lozim. U ma'lum izchillik bilan amalga oshirib borilishi kerak.

Mehnat qilishlari uchun hamma bolalarga yetarli miqdorda kerakli qurollar, asboblari bo'lishi, ular bolalarning yoshiga, imkoniyatiga mos kelishi, o'zlari mustaqil foydalanadigan qilib joylashtirilishi kerak. Navbatchilar uchun fartuklar, qalpoqcha, qo'lqopcha, idish yuvish uchun klyonkadan fartuklar zarur. Ovqat tayyorlash uchun kichikroq pichoqlar, tarelkalar, o'qlovchalar, xamir qorish uchun tog'orachalar, shaklchalar kerak bo'ladi. Xonani tozalash uchun toza latta, kichikroq tog'oracha, stoldan uvoqlarni yig'ib olish, polni supurish uchun cho'tkalar, axlatni yig'ib olish uchun xokandozlar kerak. Kir yuvish uchun tog'ora,



chelakchalar, kichkina dazmol taxtasi, kiyim tozalash uchun cho'tka, supurgi, tikish uchun tugmachalar solingan quticha, ip, nina, mato parchalari, o'yinchoqlarni yasash va singanlarini, buzilganlarini tuzatish uchun maxsus stol yoki taxtacha, bolg'achalar, mixlar, qisqich, yaxshi randalangan taxtachalar, karton, ip, arqon, tashlandiq materiallar, gugurt qutilari, konfet, atir qutichalari, ipdan bo'shagan g'altaklar va hokazolar zarur. Guruh xonasidagi tabiat burchagida, MTT hovlisidagi polizda, gulzorda ishlash uchun belkurak, xaskash, supurgi, kichkina zambilchalar, chelakchalar, leyka, savatchalar kerak bo'ladi. Barcha buyum ishlatib bo'lingandan keyin tozalab joyiga qo'yiladi.

Bolalarga to'g'ri mehnat tarbiyasi berishda kattalarning bir-biri bilan o'zaro do'stona munosabat bilan hamkorlikda ishlashlari ijobiy natija beradi.

Mehnat tarbiyasi masalalari MTTning yillik rejasida aks ettiriladi va tarbiyachilarga mehnat tarbiyasini to'g'ri rejalashtirish va amalga oshirilishida yordam beradi.

MTTda mehnat tarbiyasini to'g'ri tashkil etish va unga rahbarlik qilish yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xamidovna R. I. Play as a means of developing the creative abilities of Preschool Children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 10.

2.Ражабова И. Х. Эргашева Гулзод Бахтиёровна. Дидактические требования к занятиям математикой в дошкольных учреждениях. Проблемы педагогики, № 6 (51) 2020.

3.Ражабова И. Х. Методика индивидуализации в преподавании вузах//Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 70-71.

4.NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123

5. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin

6.AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545

7.Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.

8. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH- TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.

9. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.

10. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.

11.Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

12.Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.

13.Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

14.Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.

15.Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 2. –No. 2.

16.Xoliqulovich J. R. Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т.

17.Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadriddin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.

18. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2020. –Т. 2. –№. 2.

19. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

20. BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA RASMGGA QARAB INSHO YOZISH YO'LLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Qayimov Laziz Mirzo o'g'li

*BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ko'p jihatdan ta'lim tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari haqida so'yuritilgan. Bugungi kunda Respublikamizda uzluksiz talim-tizimining hayotimizda o'z o'rnini va amaliy ahamiyatini topishda diqqatga sazovar ishlar amalga oshirilmoqda. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi adabiy ta'lim amaliyotida o'quvchilarning ijodiy nutqiy faoliyatini tizimga solish uchun har xil metod va usullardan foydalanmoqda.

**Kalit so'zlar:** maktab, boshlang'ich sinf, bolalar, uzluksiz ta'lim, tizim, poydevor, mustahkam.

**Аннотация.** В данной статье говорится о развитии и будущем нашей страны во многих аспектах качественных изменений в сфере образования. Сегодня в нашей республике проводится замечательная работа по поиску своего места и практической значимости системы непрерывного образования в Наша жизнь. В практике литературного образования учитель начальных классов использует различные приемы и приемы для систематизации творческой речевой деятельности учащихся.

**Ключевые слова:** школа, начальный класс, дети, дополнительное образование, система, фундамент, сила.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ko'p jihatdan ta'lim tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari, yuqori samaradorlikka erishish ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi amaliy faoliyatdagi o'rnini qay darajada topayotganigi bilan uzviy bog'liqdir.

Bugungi kunda Respublikamizda uzluksiz talim-tizimining hayotimizda o'z o'rnini va amaliy ahamiyatini itopishda diqqatga sazovar ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va "Kadrlar tayorlash milliy dasturi" ning qabul qilinish ita'limga, xususan uzluksiz ta'lim tizimining asosini tashkil etuvchi boshlang'ich ta'limga, xususan, uzluksiz talim tizimining asosini tashkil etuvchi boshlang'ich talimga bo'lgan talabning ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keldi. Boshlang'ich ta'lim asosan o'quvchining ongiga savodxonlik asoslarini elementlarini singdirish davridan iboratdir. Demak bu davrdagi savodxonlik uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bo'g'inlarini intellektual salohiyoti bo'lishligiga mustahkam zamin yaratadi. Muhtaram Prezidentimiz tabiri bilan aytganda "Agar poydevor mustahkam bilim va tarbiya berilsagina qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar yuqori sinflarda o'quvchining o'zlashtirishi oson kichadi "Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadlaridan biri ham umumiy o'rta ta'lim uchun zarur bo'lgan savodxonlik davrida shakllantirishga qaratilgandir. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablarga jiddiy yondashmoq lozim bo'ladi.

Birinchi va ikkinchi sinflarda bolalar maktab hayotida faoliyat ko'rsatishga tayyorlanadi. O'quv fanlaridan umumiy tushunchalar beriladi o'qish, yozish, hisoblash, kuzatish va mehnat malakalari hosil qilishga savodxonlik to'liq egallanishiga asosiy etibor qaratishdi. Uchinchi, to'rtinchi sinflarda esa bilim, ko'nikma va malakalar yanada mustahkamlanadi, dastlabki nazariy tushunchalar hamda tasavurlar hosil qilinadi. Ma'lumki, odam hamisha o'zining og'zaki va yozma nutqi takomili bilan qiziqib kelgan. Aynan nutqiy imkoniyatlari orqali inson o'z ichki olamini, tuyg'ularini to'liq namoyon etadi.

Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi adabiy ta'lim amaliyotida o'quvchilarning ijodiy nutqiy faoliyatini tizimga solish uchun har xil metod va usullardan foydalanishi mumkin. O'qish darslarida nutq o'stirishning asosiy yo'nalishlaridan biri matnning o'quv tahlili bo'lib, u har xil nutqiy vaziyatlarni hosil qilish, dialogik muloqot uchun vaziyat yaratish, adabiy mavzularda monologik nutq turlaridan foydalanishga o'rgatish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar

nutqining rivojlanganligini tekshirish mezonlari faol leksika, terminologiya, tasviriy ifodalarga egalik, nutqni mazmunli, ma'lumotlarga boy qilish, chiqishlarni mantiqiy aniqlik va xulosalarning mustaqilligi bilan boyitish va hokazolar bilan belgilanadi. Kichik o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqi darajasi bugungi kunda nafaqat metodik yoki pedagogik, balki jamiyat miqyosidagi ijtimoiy muammolardan biri bo'lib turibdi.

Kommunikativ muloqot ishtirokchilarining ko'pchiligi o'z fikrini aniq va ravon ifodalashga, fikrlarini ma'lum bir tizimda bayon etish qobiliyatiga, balki ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, barcha o'quv fanlari tizimida kuzatish mumkin. Ta'lim amaliyotida, asosan, adabiy ta'limda fikr ifodalashning nozik tomonlari, uning rang-barangligi va emotsionalligiga erishishga e'tibor qaratiladi. Nutq ifodalashda bunday ko'nikmalarni egallash va og'zaki nutqni takomillashtirish suhbat, muhokama, qayta hikoyalash, dialoglar, ma'ruzalar asnosida amalga oshiriladi.

Maktabdagi barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda, xususan, boshlang'ich adabiy ta'limda ham o'z maqsadidan kelib chiqqan holda birinchi sinfdan boshlab tasviriy san'at asarlariga murojaat qilinadi.

Chunki xalq ta'limi vazirligining 2018-2019 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasida tasviriy san'at darslariga boshlang'ich ta'limning 1-sinfdan boshlab haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan. Demak, o'quvchilar ta'limning dastlabki sinfdan boshlab mo'yqalam san'at namunalarini o'rganadilar. Boshlang'ich adabiy ta'lim amaliyotida adabiy-badiiy asarlar qanday o'qib tahlilga tortilsa, mo'yqalam mahsuli bo'lgan suratlarni ham huddi shunday o'qish va tushunish, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki badiiy matnda ham, mo'yqalam asarida ham mavzu sujet, g'oya, badiiy uslub, obrazlar, timsollar bo'lib, har ikki yo'nalishdagi asarlarda tasvirlangan voqeaning davri, qahramonlari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi jarayonida har xil sujetli rasmlar mazmuni asosida og'zaki hikoya tuzish, insho yozish bilan bog'liq ishlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish maqsadida tashkil etiladi, albatta. Bo'ajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga oliy maktabda bu haqida tasviriy san'at darslarini tashkil etish maqsadida ma'lum bilimlar qisqacha bo'lsada beriladi. O'quvchilarni insho yozishga o'rgatish davomida insho haqida, yozma nutqning qonun-qoidalari haqida ma'lumot berib borish zarur. Og'zaki nutq bilan yozma nutq o'rtasidagi farq haqida har bir o'quvchi tasavvur hosil qilishi kerak.

Og'zaki nutqda so'zlovchi o'z mulohazalarini aytish davomida qo'l harakatlari bilan fikrining osonroq tushunilishiga erishadi. U nutqning mazmuniga ko'ra ohang tanlay olish imkoniyatiga ega. Insho haqida a'lumot berganda "insho" so'zining ma'nosini sharqlash yaxshi natija beradi. "Insho" arabcha so'z bo'lib, uning ma'nosi "yaratish", "bino qilish", "qurish", "boshlash" demakdir. Tilimizda bu so'zning ma'nosi ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi. Insho o'quvchining malum bir mavzuni mustaqil ravishda ochib bera olish, o'z fikrlarini yozma shaklda to'g'ri, ravon, savodli bayon qila olish ko'nikma va malakalarini, shu mavzu bo'yicha bilimlarini namoish etuvchi ijodiy matn – kichik bir asardir. Yozuvchi va shoir, olim va muxbir o'zi yozadigan asar, ilmiy ish, maqolaga katta ma'suliyat bilan qaragani kabi o'quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim. Zero insho o'quvchi ma'naviyati va marifati ko'z gusidir. Unda o'quvchining bilimlari, his-tuyg'ulari, fikrlarini bayon etish ko'nikma va malakalari o'z aksini topadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. Qosimova, S. Matjonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. "Ona tili o'qitish metodikasi" - Toshkent, "Nosir" nashriyoti, 2009
2. Q. Husanboyeva, M. Hazratqulov, Sh. Jamoldinova. "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" Toshkent. "Innovatsiya - Ziyo" - 2020
3. O. Roziqov, M. Mahmudov va boshqalar. "Ona tili didaktikasi" - Toshkent; "Yangi asr avlodi", 2005
4. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
5. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang'ich Sinfi Ona Tili Va O'qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.

6. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
7. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
8. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
9. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
10. 1.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
11. 2.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – No. 27.
12. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
13. M.I. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
14. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
15. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) [Vol. 5 \(2022\): EJHSS](#). 103–107.
16. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 106-109.
17. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
18. Нуруллаева, Сарвиноз Маждовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
19. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINIFDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 358-362.
20. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
21. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA HUQUQIY ONGNI  
SHAKLLANTIRISHDA O'QUV LOYIHA METODIDAN FOYDALANISHNING  
AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Jumayeva Feruza Faxriddinovna**

*BuxDPI tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan biri o'quv loyiha texnologiyasini qo'llashning ahamiyatli jihatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim texnologiyasi, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar huquqiy ong, o'quv loyiha, model, innovatsion faoliyat, interaktiv metodlar

O'sib kelayotgan avlod tarbiyasi juda jiddiy jarayon bo'lib, uni o'tkinchi narsalarga bog'liq qilib qo'yish mumkin emas. Shuning uchun ham 2022 – 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturga asosan darslarda pedagog kadrlar tomonidan

innovatsion, interaktiv metodlardan unumli foydalanish asosida xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish nazarda tutilishi bejiz emas[1].

Talim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogikada "ta'lim texnologiyasi" tushunchalari paydo bo'lgandan boshlab, ya'ni XX asrning 60-yillaridan ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga kabi jamiyat talablarini amalga oshirish uchun an'anaviy ta'limdan farqli ravishda yangi, ya'ni innovatsion ta'lim texnologiyalari yaratilishi boshlandi. Hozirgi vaqtda ham ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi[2]. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik, kiritish, yangilikdir[3]. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talabalar faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi[4]. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyihaga, loyihani texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatni tashkil etib, uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilashi mumkin: Birinchi bosqich - tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko'chiriladi. Ikkinchi bosqich - mavjud tizimga ayrim yangi o'zgartirishlar modifikatsiyalangan metodlar kiritiladi. Uchinchi bosqich - yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to'la ishiab chiqiladi. To'rtinchi bosqich - o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasini ishiab chiqadi. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhitni, jamoa a'zolarining qanchalik darajada dunyo ta'lim bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligini hisobga olish zarur. Chunki aynan mustaqil, ijodiy fikrlovchi, zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalana oladigan o'quvchilargina ta'lim jarayonida interaktiv bo'la oladilar. Shu o'rinda pedagog olimlar L.S. Vigotskiy va J. Dyuning quyidagi fikrlarini eslatib o'tish muhim, faqat tasavvur va ijodiy fantaziya orqaligina bola to'la tajribaga, rivojlanishga ega bolishi mumkin. Aynan tasavvur va fantaziyadan ijodiy faoliyat boshlanadi. Shunday ekan boshlang'ich sinf o'quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda, aynan tarbiya fani darslarida Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasidan unumli foydalanish samarali natija ko'rsata oladi. O'quv loyihalar asosida o'qish jarayoni o'quvchilarga haqiqiy muammolarni hal qilish va uzoqroq vaqt davomida yangi yechimlarni topish imkonini beradi. O'quv loyihali darslarda boshlang'ich sinf o'quvchilari interaktivaloqada bo'ladi, yangi bilimlar mazmunini o'rganadilar va tadqiqot qilish, mustaqil fikrlash va hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash va hokazo kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ushbu faol o'rganish usulida siz yo'l boshchi bo'lib ishlaysiz va o'quvchilaringiz o'z o'rganish sayohatlarini o'z zimmalariga oladilar. Shu tarzda o'rganish yaxshi ishtirok etish va tushunishga olib keladi, ularning ijodkorligini faollashtiradi va umrbod ta'limni rag'batlantiradi. Sharq-g'arbda mutafakkir va olimlar fikrlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya jarayonida nazariyaning amaliyot bilan doimiy bog'liq olib borilishi muhim jihat sifatida ta'kidlangan. Masalan, "Muallimi soniy" deya ulug'langan vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning pedagogikaga oid qarashlarida ta'lim – tarbiyani ilk yoshlikdanoq boshlash kerakligi uqtiriladi, ya'ni " Agar kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, xiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyasini ayamasin" kabi fikrlari hozirgi davr barkamol avlodni qanday tarbiyalash kerak degan muammoga berilgan yechim manbasi bo'lib xizmat qiladi [5]. Bundan tashqari mutafakkir o'qitishning tajriba ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Amerikalik olim Gerbert Spenser "Ta'limning buyuk maqsadi bilim emas, balki harakatdir"[6] degan fikrni ilgari surish orqali o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantirish jarayonida ularning faol va harakatchan bo'lishi ta'lim jarayoni uchun juda muhimligini ta'kidlab o'tadi. Darhaqiqat, ko'pgina ta'lim



nazariyalari o`quv jarayonini faol jarayon sifatida ko`radi, kontseptsiyalarni qurishni o`z ichiga oladi va shunchaki oldindan tayyorlangan bilim va ko`nikmalar olishni emas.[7]

Boshlang`ich sinf o`quvchilarning huquqiy madaniyati haqida gap borganda, birinchidan, uning o`z huquq va majburiyatlarini bilishi, tushunishi va to`g`ri anglashi, ikkinchidan, bulardan amaliy faoliyatida foydalanish haqida fikr yuritmoq lozim. Talabalar huquqiy madaniyatining asosiy elementlaridan biri-bu huquqiy faollikdir. Huquqiy faoliyat yoshlarning huquqiy savodxonlik, huquq va qonunlarga bo`lgan hurmatiga tayanadi. Huquq jamiyatdagi barcha munosabatlarni tartibga solar ekan, huquqiy hulq-atvor va faoliyat kelajakda respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini rivojlantirishda muhim rol o`ynaydi. U yoshlarimizga o`zlarining mehnat, dam olish, siyosiy va madaniy hayotdagi shaxsiy huquqlari, qiziqishlarini qondirishda qonunlardan foydalanishga imkon yaratadi. Aynan shu jihatlarni o`quvchilarda boshlang`ich sinflarda shakllantirishda o`quv loyiha metodlaridan foydalanish asnosida ko`pgina pedagogik muammolar yechimi bo`la oladi. Hozrgi kunda ko`pgina tadqiqotchilar tomonidan boshlang`ich maktab yoshidagi bolalarning ta`lim faoliyatini loyihalashtirishning eng samarali shakli - bu o`qituvchi va talabaning o`zaro ta`sir darajasida yagona o`quv yo`nalishini ta`minlaydigan vektor-modulli model bo`lib, o`quv faoliyatining har bir tarkibiy-modulli tarkibiy qismi: motivatsion, indikativ, mazmuni, operativ - faoliyat, nazorat - baholash, ishlashni to`g`irlash va ishlab chiqilgan algoritm asosida O`zbekistondagi ta`lim faoliyatining har bir tarkibiy qismi doirasida amalga oshiriladi deya ta`kidlanmoqda.[8] Yana bir o`zbek olimasi Xidirova D.Z. o`z tadqiqotlarida o`quv loyihalarni faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo`yicha tayyorlanishiga ko`ra quyidagicha tasniflaydi: Faoliyat mazmuniga ko`ra: 1. Axborotli loyihalar; 2. Tadqiqot loyihalari; 3. Amaliy loyihalar[8]. Loyiha - aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsul. Loyiha dastur, model, texnologik xarita va boshqa ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g`oya tashkil etadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarda o`quv loyihaning modeli ko`rinishlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq, chunki o`yin modellari - turli vaziyatlarda ob`yekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko`nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida qo`llaniladi, imitatsion modellar - real voqelikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o`xshatish maqsadida qo`llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli jarayonlar, mexanizmlar. Aynan o`quv loyihaning shu ko`rinishlari boshlang`ich sinf o`quvchilarining ilk huquqiy savodxonligini shakllantirib, huquqiy jarayonlarni tadqiq etish orqali kelajakda faol fuqarolik pozitsiyasini ularda shakllantirishga asos bo`la oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022 — 2026-yillarda xalq ta`limini rivojlantirish bo`yicha milliy dasturni tasdiqlash to`g`risida. <https://lex.uz/docs/-6008663>
2. Raximov Z.T. O`quv-bilish faoliyatini kompleks yondashuv asosida tashkil qilish. //“Tafakkur ziyosi” ilmiyuslubiy jurnal, 2020. 2-son. 23-b.
3. O`zbek tilining izohli lug`ati. I – tartibli jildi. – Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 212-b.
4. Xidirova D. Z. Pedagogik jarayonni loyihalashtirish ta`lim innovatsiyasi sifatida. Zamonaviy ta`lim / Sovremennoye obrazovaniye 2021, 5 (102).45-b.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.189 - b.
6. Herbert Spencer, Social statics 86 (New York, D. Appleton and Co. 1896)
7. Richard L. Roe, Valuing Student Speech: The Work of the Schools as Conceptual Development, 79 CAL. L. REV. 1271, 1343 (1991)
8. Mahmudov Mels Hasanovich, Ne`matova Flora Baxtiyor qizi boshlang`ich ta`limni loyihalash: muammo va yechimlar. II. Zamonaviy fan va ta`lim-tarbiya: muammo, yechim, natija <https://interscience.uz/>

# BO'LAJAK PEDAGOGLARNI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN MODELI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Sojida Raxmonova Muxammadovna**

*BuxDU tayanch doktranti*

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak pedagoglarini kasbiy faoliyatga oid kompetentligini takomillashtirish, pedagogning innovatsion faoliyatini eng muhim tavsifi, pedagogik faoliyatga psixologik tayyorlash, ta'lim oluvchining kasbiy kompetentlik darajasiga alohida e'tibor qaratish, ta'lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishini ta'limimiy maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari va ularni faoliyatda qo'llay olish usullari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion kasbiy faoliyat, pedagogik mahorat, kompetentlik, akmeologiya, professionalism, kreativlik, pedagogik tafakkur, kasbiy layoqat.

Inson uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatلامي tarbiyalab boradi. Insonda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun inson o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib- o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi. O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi zamonaviy texnologiyalardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish, yetuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi.

Uzluksiz ta'lim jarayoni bo'lajak pedagogning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi. Yanayam boshqacha qilib aytganda, bo'lajak pedagogning kompetentligi rivojlanib, boyib boradi.

"Kompetentlik" (ing. "competence" – "qobiliyat") - faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish. "Kompetentlik" tushunchasi esa ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Aynan bo'lajak pedagoglarini innovatsion kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini takomillashtirishga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zuni boshqarishi va o'zini- o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishdir.

Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ulaming kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi. Bo'lajak pedagoglarining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

Tadqiqotchi V.A.Slastenin pedagogning innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (акте) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi. V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan subyektiv va obyektiv omillarini asoslab berdi. Obyektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, subyektiv omillarga esa



insonning iste'dodi va qobiliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z xatti-harakati.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv pedagogning kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvda uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi. Pedagogning innovatsion faoliyatini eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi

Pedagogning innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi eng muhim xususiyat bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat ta'lim oluvchiga ta'limning yo'naltirilishi, balki o'qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi ham muhimdir. Bunday hollarda o'qituvchining kasbiy layoqat va kasbiy kompetentlik darajasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytish lozimki, shaxsga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat ta'lim oluvchiga ta'limning yo'naltirilishi, balki o'qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Ta'lim tizimida kompetentli yondoshuv ta'lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi, ta'lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi rovida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun ta'lim sohasi jadal yuksalib borayotgan bir paytda, mavjud an'anaviy mazmundan voz kechish qiyin kechsa-da, ta'lim mazmuniga yangicha qarashlar, g'oyalar bilan yondashish lozim bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyot

1. N.N. Azizxo'jayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.
2. M.X. To'xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
3. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017 y. -376 bet.
4. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
5. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
6. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Fan va texnologiya". 2019 y. -296 bet.
7. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.

8. Амонов У. С. НАУЧНЫЙ ПОДХОД А. ФИТРАТА К ПОСЛОВИЦАМ //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
9. Amonov U. S. O 'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) MQ Salohiddinova, BuxDU boshlang 'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
10. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
11. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
12. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINFI ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
- 13.. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: "Noshir" 2011 y. -140 bet.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYA TURLARI VA ULARNI QO'LLASH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Ro'ziyeva Nigora Kamtarovna**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-kurs doktoranti*

**Annotatsiya:** Integratsiya bugungi kundagi darslarda keng tarqalib borayotgan ahamiyatli o'qitish amaliyotidir. Ushbu maqolada integratsiya nimaligi, ta'lim tizimidagi integratsiya turlari va uni darslarda qo'llash usullari haqida fikr va mulohazalar yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** multidisiplinar integratsiya, interdisiplinar integratsiya, transdisiplinar integratsiya, loyihalashtirilgan ta'lim, uyg'unlikda o'rganish, turli yondashwolar.

Yurtimiz ravnaqi haqida so'z borganda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm- fan, ta'lim va tarbiya ekanligini har doim ta'kidlab o'tadilar. Bugungi modernizatsiya jarayonlari, islohot va o'zgarishlar natijadorligi maktab ta'limiga, o'sib kelayotgan yosh avlodnisifatli va yangicha bilim bilan ta'minlashga qaratiladi. Bu islohotlarni amalga oshirishda o'qituvchilardan yangicha ta'lim metodlaridan foydalanib, har bir bolaning istagidan kelib chiqib, uning qiziqish sohasiga urg'u qaratish talab etiladi.

Prezidentimizning PF-6198-son qarorida keltirilganidek, O'zbekiston Respublikasini innovatsiyalar sohasida global reytingdagi ilg'or 50 mamlakatlar ro'yxatiga kiritishga qaratigan strategik dastur tasdiqlandi, ilmiy loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy etildi, ilm-fan sohasida yuqori malakali kadrlarni moliyaviy rag'batlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratildi.

Dunyo shiddat bilan rivojlanyapti, olimlar yangicha innovatsion o'qitish usullari ustida izlanishlar olib borishmoqda. Olib borilayotgan izlanishlarni o'rganib, endilikda integratsion o'qitish metodi, ya'ni har bir fan sohasini alohida-alohida emas, aksincha uyg'unlikda o'qitish uslubi samarali ekanligi aniqlandi. Integratsiya orqali o'qitish, o'rgatishning yangicha va qiyinroq, ammo muvaffaqiyatli usulidir. Boshlang'ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan bo'lib, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p. Integratsiya atama va uslubiy nuqtayi nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik. «Integratsiya» so'zi lotincha integratio - tiklash, to'ldirish, «integer» - butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz: Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.


Boshlang'ich sinfda o'quvchilar faqat fanni o'rganibgina qolmay,shu bilan birga bir vaqtning o'zida o'qish, yozish va hisobni o'rganadilar. Buning uchun o'qituvchi birgina sohaga diqqatini qaratish o'rniga, bir nechta fan sohalarini birlashtiradi. O'quvchilar savollar berish va

o'z savollariga javob topishning bir necha yo'llarini izlash orqali bilim olish jarayonida ishtirok

vetdilar. Bu qiziqishlardan kelib chiqib, iqtidorli, tirishqoq o'quvchilar o'z maqsadiga erishish yo'llarini topishga qodirdek tuyuladi. O'tilayotgan darslar davomida o'quvchilar o'qituvchisining ovoz chiqarib o'qishidan o'zining o'qish usulini yaratadi, shundan so'ng o'zi xohlagan mavzudagi kitoblarni mustaqil o'qishga harakat qiladi. O'quvchilar dars davomida bilib olganlarini yozib borish orqali o'rgangan yozuv mahoratlaridan foydalanadilar. Chetdan kuzatgan kishi bir dars tugab, keyingisi boshlanganini anglashga chalkashishi mumkin, chunki, o'quvchilar ma'lum bir begilangan vaqt mobaynida emas, balki butun kun davomida o'qish, yozish, hisob-kitob bilan shug'ullanyotganga o'xshaydi. O'rgatishning bu turi integratsiya deb ataladi va bu ham o'qituvchi, ham o'quvchi uchun samarali bo'la oladi.

Integratsiyani qo'llashning foydali tomonlarini tushunish uchun avvalo integratsiya nimaligini va uni qo'llashdagi turli yondashuvlar haqida bilishimiz kerak. Integratsiyalashgan o'quv dasturi 1900-yil boshlarida John Devey va Fransis Parker tomonidan rivojlantirilgan tushunchadir. Shundan so'ng vaqt o'tgan sari integratsiyaning turli ko'rinishlari shakllangan. Integratsiya so'zining aniq keltirilgan ta'rifi mavjud emas, chunki undan turli yo'llar orqali foydalanilgan. Integratsiya nimaligini yaxshiroq tushunish uchun foydalanilgan turli yondashuvlarni tahlil qilish kerak. Ta'limiy integratsiyaning turli ko'rinishlari mavjud, ammo tadqiqotlar integratsiyaning 3 turini izohlaydi:

- Multidisciplinar integratsiya
- Interdisiplinar integratsiya
- Transdisiplinar integratsiya



Multidisciplinar integratsiyada o'qituvchi ma'lum bir mavzuga oid ma'lumotlarni yig'adi va unga doir bilim va ko'nikmalarni dars davomida birlashtiradi. Bu yondashuvdan biror bir mavzuga oid bo'limlarni tushuntirishda foydalanish, o'quvchilarning fikrlashini kengaytiradi. Aytaylik, o'qituvchi "Suv-hayot manbayi" mavzusini tanlashi mumkin va shu mavzuga bog'liq malumotlar har tomonlama o'quvchilarga tushuntirib boradi. Misol uchun, bir darsning o'zida suv va suyuqlik o'lchov birliklari bilan bog'liq masala yechish orqali matematikani, shu mavzuga oid mustaqil matn tuzish orqali ona tilini, suvda hayot kechiradigan hayvonlar haqida bilib olish orqali geografiyani, suvdan qanday qilib elektr energiyasi olinishini bilganda fizikani, go'zal suv manzarasini qog'ozda tasvirlaganda tasviriy sa'natni o'rganadi.

Bu turdagi integratsiyani har qanday yoshdagi o'quvchilarda va turli xil yo'llar orqali qo'llash mumkin. Ko'plab o'qituvchilar quyi fanlarni bir mavzu doirasida birlashtirishda multidisciplinar integratsiyadan foydalanib kelmoqdalar.

Interdisiplinar yondashuvda markaziy mavzu, muammo yoki tajribani o'rganish uchun bir nechta fan sohasidagi o'zaro bog'lik bilim va ko'nikmalar birlashtiriladi. Bunda keng yoki murakkabroq mavzu tanlanadi, mavzni o'rganish mobaynida muammolar hal qilinadi, savollarga javob beriladi. O'quvchilar "Yer shakllari" mavzusini o'rganish mobaynida savodxonlik, xaritashunoslik, muammoli vaziyatni yechish usullarini o'rganishlari interdisiplinar integratsiyaga yaqqol misol bo'la oladi.

Interdisiplinar integratsiyada barcha ma'lumotlar bir mavzu doirasida yig'iladi va ular birlashtiriladi, ammo ular multidisciplinar yondashuvdagi kabi ayri holda o'rgatilmaydi. Bu turdagi integratsiya o'qituvchilarga boshqa sohalarga tegishli bo'lgan tushunchalarni bir fan doirasida tushuntirishga zamin yaratadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, integratsiyaning bu turi

vaqtni tejash va aniq bo'lmagan fanlarni o'qitish jarayonida ham matematika va ona tilini o'rgatish imkoniyatini beradi.

Transdisiplinar integratsiyada o'qituvchi dars rejasini o'quvchilarning savol va qiziqishlaridan kelib chiqib tashkil etadi va o'quvchilar egallagan ilmiy va tarbiyaviy bilimlarni real hayotda qo'llash orqali o'z hayot tajribalarini boyitadilar. Ushbu yondashuv asosida o'quv dasturini ishlab chiqishda talabalarning so'rovidan foydalaniladi. Bu turdagi integratsiya o'qituvchi uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin, chunki ular o'quvchilar o'rgangan bilimlari yuzasidan doimiy nazorat olib borishlari kerak bo'ladi. Bundan tashqari, darslar ma'lum bo'lim yuzasidan rejalashtirilmasdan, balki uning o'rniga darslar aynan ta'lim jarayonida rivojlanadi va o'quvchilarning so'rovlariga asoslanadi. O'qituvchi moslashuvchan va o'quvchilarning savollariga javob topib berishi uchun darslarga o'zgartirishlar kirita olishga tayyor bo'lishi kerak.

Loyihaga asoslangan ta'lim transdisiplinar integratsiyaning eng keng tarqalgan shaklidir. Loyihaga asoslangan o'rganish uch bosqichni o'z ichiga oladi: mavzuni ishlab chiqish, savollar yaratish va tajriba almashish. Birinchidan, o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda ular uchun qiziqarli mavzuni topishlari, uni ta'lim standartlariga moslashlari va undagi muammoni aniqlashlari kerak. Shundan so'ng, ular savollar tuzib, ularga javob berish yo'llarini o'ylab topadilar. Nihoyat, o'z bilimlarini boshqalar bilan bo'lishish uchun loyiha yaratadilar. Bu turdagi ta'lim haqiqatdan ham o'quvchilarni mavzuga jalb qilish va ularga real dunyo muammolarini bilib olish imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, multidisiplinar, interdisiplinar va transdisiplinar integratsiyaning har uchala turi tadqiqotga asoslanadi. O'qituvchi faqat bitta yondashuvni emas, aksincha, har xil turlari ichidan mosini tanlab qo'llashi kerak. Maqsad individual fanlarni yo'q qilish emas, faqatgina ularni birgalikda o'rganishdir. Bundan tashqari, dars davomida integratsiyadan foydalanishning o'zi kifoya emas, uni qo'llashda maqsad aniq natijaga yetkazishi kerak. Har qanday turdagi integratsiyadan foydalanish o'quvchining o'rganishi uchun mos kela oladigan, ehtiyotkorlik bilan tuzilgan reja ega bo'lishni talab qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 01.04.2021 yildagi PF-6198-son.
2. Rahima Mavlyanova, Nargiz Rahmankulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya" Toshkent, Voris-Nashriyot, 2013
3. Jill Leibold "Curricular integration in the elementary classroom", University of Northern Iowa, 2011
4. <https://kingm5.wordpress.com/2016/01/24/interdisciplinary-curriculum/>
5. <https://www.edu.gov.mb.ca> > K-12
6. <https://internationalschoolparent.com>
7. <https://lex.uz>

#### **GERPETOBIONT QO'NG'IZLARNING MAVSUMIY FAOLLIGI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Alimova Luiza Xalilovna**

*BuxDU o'qituvchi*

**Xalimov Fazliddin Zakirovich**

*SamDU dotsenti*

Gerpetobiont qattiqqanotli hasharotlar hayoti tuproq bilan bevosita bog'langan va shu sababli ular populyasining miqdoriy ko'rsatkichlarini baholashda, ko'p hollarda, tuproq qazilmalari, banka tutqichlar, jalb qiluvchi tutqichlar va boshqa uslublardan foydalaniladi. Lekin, gerpetobiont qo'ng'izlar ekologik xususiyatlari juda turli-tuman bo'lgan ko'plab taksonlarni o'z ichiga oladi va ularning har biri uchun zichlikni baholashning o'ziga xos usublari talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, gerpetobiont miqdorining mavsumiy tebranishlarini aniqlash uchun yorug'lik tutqichlari tanlandi. Chunki gerpetobiontlarning

barcha guruhlari ham ijobiy fototaksisga ega va yorug'likka uchib kelish xususiyatiga yuqori. Albatta, gerpetobiontlar orasida vizildoq qo'ng'izlar va qora tanli qo'ng'izlar ko'plab uchish qobiliyatiga ega bo'lmagan turlarni o'z ichiga oladi. Ammo, tadqiqotlar natijasida uchish qobiliyati bo'lmagan yirik o'lchamli qo'ng'izlarning ham yorug'likka kelishi kuzatildi. Ayniqsa, yirtqich hayot tarziga ega bo'lgan vizildoq qo'ng'izlarning yorug'lik tutqichlariga kelishi ancha yuqori bo'lib, bu holat ularning tutqichga kelgan turli-tuman hasharotlar bilan oziqlanishi bilan tushintiriladi. Lekin, ayrim yirik o'lchamga ega bo'lgan, oziqlanish usuliga ko'ra fitofag va saprofag bo'lgan qora tanli qo'ng'izlarning ham yorug'lik tutqichlarga kelishi ularda ham ijobiy fototaksis ifodalanganligidan dalolat beradi. Bu guruh qo'ng'izlarning yorug'likka ijobiy reaksiyasi mexanizmlari hozirgacha to'la aniqlanmagan. Ta'kidlash joizki, qoratanli qo'ng'izlar miqdorini tahlil qilishda yorug'lik tutqichlaridan foydalanish amaliyotiga deyarli e'tibor berilmagan bo'lsada, bizning tadqiqotlarda yorug'lik tutqichiga tushgan hasharotlar orasida qora tanli qo'ng'izlar son jihatidan yetakchi oilalar qatorida turadi va faqat plastinka mo'ylovlilar oilasi vakillari ulardan ustunlik qiladi.

Albatta, olingan natijalar gerpetobiontlarning oylar va mavsum davomidagi haqiqiy miqdorini to'liq aks ettirmaydi, chunki yorug'lik tutqichlari har 4-5 kun oralig'ida o'rnatilgan. Natijalarni haqiqatga maksimal yaqinlashtirish uchun tutqichlar o'rnatilgan joyida doimiy turishi zarur. Bunda fiksatsiyalovchi suyuqliklardan foydalanish talab etiladi. Lekin bunday hollarda tutqichga tushgan boshqa guruh hasharotlar, masalan, tangachaqanotlilar yig'ilgan material sifatini juda pasaytiradi. Ushbu holatni hisobga olib biz tajribalarimizda fiksatsiyalovchi suyuqliklardan foydalanmadik. Shunday bo'lsada, olingan natijalar gerpetobiont qo'ng'izlar sonining oylar davomida o'zgarish dinamikasi haqida yetarlicha ma'lumot beradi.

Agrotsenozlarda gerpetobiontlar sonining sezilarli darajada ko'payishi iyun oyining dastlabki kunlarida kuzatiladi. 2022 yil 1 iyunda qo'ng'izlar sonining dastlabki yuqori miqdori kuzatildi va bu kuni tutqichga tushgan hasharotlar soni 500 donani tashkil etdi. Lekin keyinchalik qo'ng'izlar sonining kamayishi sodir bo'ladi. Gerpetobiont qo'ng'izlar sonining maksimal miqdori 3 iyul kuni qayd etildi. Bu davrda bir kechada yorug'lik tutqichlariga tushgan qo'ng'izlar soni 1549 tani tashkil etdi. Bu davrda havo nisbiy namligi va atmosfera bosimining eng past ko'rsatkichlariga to'g'ri keldi. Ammo keyingi kunda shamol tezligining keskin ko'tarilishi yorug'lik tutqichlariga tushgan hasharotlar sonining keskin kamayishiga olibkeldi. Albatta, tutqichga tushgan hasharotlar sonining shamol tezligiga bog'liqligi hech qanday shubha uyg'otmaydi, chunki shamol tezligi oshishi bilan hasharotlarning uchish faolligi keskin kamayib ketadi. Lekin, olingan natijalar asosida havo nisbiy namligi va atmosfera bosimining hasharotlarning uchish faolligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishini aniq aytish qiyin. Yuqorida aytilganidek, gerpetobiont qo'ng'izlar sonining maksimal qiymati atmosfera bosimining eng past ko'rsatkichi kuzatilgan kunga to'g'ri kelgan bo'lsada, hasharotlar sonining iyun oyi boshidagi va iyuldagi yuqori qiymatlari kuzatilgan vaqtlarda atmosfera bosimi deyarli o'zgarmagan edi.

Tutqichga tushgan qo'ng'izlar miqdorining atmosfera fizik ko'rsatkichlariga bog'liqligi haqida tularoq tasavvur hosil qilish maqsadida bu kattaliklar o'rtasida korrelyativ bog'liqlik tahlil qilindi. Olingan natijalar 6.1-jadvalda ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, tutqichga tushgan gerpetobiontlar soni bilan havo harorati orasida korrelyatsiya koeffitsienti 0,34 ni tashkil etadi. Ma'lumki, korelyatsiya koeffitsientining 0,2-0,49 oralig'idagi qiymatlari kuchsiz korrelyatsion bog'liq borligidan dalolat beradi. Shu sababli tutqichga tushgan qo'ng'izlar soni bilan havo harorati o'rtasida kuchsiz korrelyativ bog'liqlik bor deb aytish mumkin. Shuningdek, statistik tahlillar havoning nisbiy namligi va atmosfera bosimi ko'rsatkichlari bilan qo'ng'izlar soni o'rtasida kuchsiz teskari korrelyatsiya borligini ko'rsatadi.

Atmosfera ko'rsatkichlari	Havo harorati	Havo nisbiy namligi	Atmosfera bosimi	Shamol tezligi
gerpetobiontlar miqdori	0,34	-0,34	-0,24	0,01

Yorug'lik tutqichlariga tushgan qo'ng'izlar miqdori bilan atmosfera fizik ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsienti (r).

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. [Сезонная динамика численности жуков-герпетобионтов в агроценозах Зеравшанской долины](#) ХФЗ Хамзаев Р.А., Алимова Л.Х., Умурзакова М.С. Научное обозрение. Биологические Науки. – РФ, 41-45
2. [Buxoro va Qorako'l oazisi vizildoq qo'ngizlarining \(coleoptera, carabidae\) taksonomik tarkibi.](#) XФЗ 3. Alimova L.X. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. –Namangan, 108-113.
3. [Изучение морфометрических особенностей Machozetus Lehmanni Menetries, 1848 - эндемика средней Азии.](#) ХФ Зокирова Д.Ф., Алимова Л.Х. Научное обозрение. Биологические Науки. РФ. 1 (1), 16-21.

## BO'LAJAK "TEKNOLOGIYA" FANI O'QITUVCHISINING MUHIM KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Mo'minova Dilnavoz Komilovna

*BuxDU mustaqil izlanuvchisi*

**Аннотация:** В данной статье по направлению «Технология» содержание модуля «Швейное оборудование», выполнение и оценка экспериментальных испытаний по развитию важных профессиональных качеств будущего учителя «Технологии», критерии мнений про этапы сказано.

**Ключевые слова:** Технологии, важные, профессиональные, качества, развитие, экспериментальная работа, оценка, критерии, компетентность, цифровая среда.

**Abstract:** In this article, in the "Technology" field of study, the content of the "Sewing equipment" module, the implementation and evaluation of experimental tests on the development of important professional qualities of the future "Technology" teacher, criteria opinions about the stages are stated.

**Key words:** Science of technology, important, professional, qualities, development, experimental work, assessment, criteria, competence, digital environment.

**Анотатсия:** Ushbu maqolada "Texnologiya" ta'lim yo'nalishida "Tikuvchilik jihozlari" modulini mazmuni bo'yicha bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchisining muhim kasbiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va baholash, mezon bosqichlari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya fani, muhim, kasbiy, sifatlar, rivojlantirish, tajriba-sinov ishlari, baholash, mezonlar, kompetensiya, raqamli muhit.

Mamlakatimizda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa umumta'lim maktablari uchun pedagoglar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassalarida raqamlashtirish ta'lim muhitida bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini tayyorlash muhim hisoblanadi. Ayniqsa raqamlashtirish muhiti tushunchasiga oydinlik kiritamiz. Ta'lim jarayonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan kompyuter va tarmoqli texnologiyalar raqamlashtirish muhitining asosi hisoblanadi. Bu esa, ta'lim jarayonidagi turli xildagi masalalarni yechishda muhim ro'l o'ynaydi.

"Raqamli muhit", "Raqamli ta'lim muhiti" va "Raqamli ta'limiy sharoit" kabi terminlar ilmiy manbaalarda ishlatiladi. Huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ko'p hollarda "Raqamlashtirish ta'lim muhiti" deb ham yuritiladi.

Raqamlashtirish ta'lim muhitida bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchisining muhim kasbiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tajriba sinov ishlari 2021-2022 o'quv yillarida Buxoro, Qarshi, Jizzax davlat universitetlarida o'tkazildi.

"Texnologik jihozlar" fanini o'qitish jarayonida bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchisining muhim kasbiy sifatlarini raqamlashtirish ta'lim muhitida rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Tajriba sinov jarayonining shakllantiruvchi bosqichini amalga oshirish jarayonida axborot metodik ta'minot amalga oshirildi. Bu talabalarga yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal qilishda har tomonlama yordam berishga qaratilgan o'zaro bog'liq maqsadli harakatlar,



tadbirlar, ko'rsatmalar majmui sifatida ko'rib chiqilib, o'quv-kasbiy faoliyat davomida o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini belgilashga ko'maklashadi. Shuni ta'kidlash joizki raqamlashtirish sharoitida ishlash uchun bilim, amaliy ko'nikmalar va boshqa faoliyat turlarini o'zlashtirish talabalarining yuqori faolligi va samaradorligi bilan bog'liq. O'z navbatida, pedagoglar maslahatchi sifatida talabalarga fan bo'yicha yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda yordam beradilar. Individual maslahatlar va mashqlar o'tkazildi.

Tajriba sinov ishining asosiy bosqichida ta'lim jarayonini amalga oshirish talabalarga kasbiy vazifa berish orqali uni haqiqiy real vaziyatga tushirishga qaratilgan bo'lib, bu bo'lajak "Texnologiya fani" o'qituvchisiga mustaqil harakatlarning oqilona algoritmini tanlashga va raqamlashtirish sharoitida ishlash uchun shakllangan kasbiy muhim sifatlarni amalda qo'llashga imkon beradi. Bunga ta'lim jarayoni ishtirokchilarining pedagogik hamkorligi (individual, kichik guruhda, juftlik, masofaviy ishlash) orqali erishildi.

Yakunlovchi bosqichda bo'lajak "Texnologiya fani" o'qituvchisining raqamlashtirish sharoitida ishlash uchun kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirish jarayonining samaradorligi mezoni sifatida shakllanganlik darajalaridagi o'zgarishlarning ijobiy dinamikasi ko'rib chiqildi.

Biz talabalar yakka tartibda ishlaganda hamda kichik guruhlar ishini baholashda quyidagi xulosalarga keldik.

1. Yakka tartibda ishlashda xar bir talabaga alohida topshiriqlar berildi. Topshiriq natijalari o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar bo'yicha qoniqarli, yaxshi va yuqori darajalarda baholandi.

2. O'qituvchi kuzatuvlar asosida, alohida guruh a'zolarining individual yutuqlarini ham, guruh bajargan umumiy ishni ham baholaydi. Bu ikkala bahoning o'rtacha qiymati natijani beradi.

Bu usul o'qituvchining kuzatish qobiliyatiga juda yuqori talablar qo'yadi.

3. Guruhning alohida a'zolari boshqa barcha guruh a'zolarining individual yutuqlarini baholaydi. Barcha baholarning o'rtacha qiymati har bir kishi uchun alohida individual bahoni beradi.

Bu usul talabalarda o'z-o'zini baholash kompetensiyalarining rivojlanishiga ko'maklashadi va o'qituvchining baholashga muvozanatni ko'rsatadi.

4. Har bir talaba guruhning umumiy natijasi uchun baho oladi. Bu usul adolatsizlik xavfini keltirib chiqaradi, chunki unda individual bajarilgan ish hisobga olinmaydi. Biroq, bu usul shuningdek, hamkorlikdagi ish uchun mas'uliyat hissiyatini ham kuchaytirish mumkin.

5. Guruh o'zini o'zi baholaydi va uni o'qituvchi o'zining bahosi bilan solishtiradi hamda yakuniy natijani chiqarishda 50 % ga hisobga oladi. Bu usul talabalarni baholash bilimdonligiga o'rgatish uchun qo'l keladi.

6. Guruhda ish yakunlangandan so'ng guruh ishi mazmuni yozma ravishda tekshiriladi va buning uchun har bir talaba individual baho oladi.

7. Test topshiriqlari uchun alohida belgilardan olingan va guruhning umumiy natijasi bahosidan olingan o'rtacha qiymat yakunda har bir guruh a'zosi uchun alohida bahoni beradi.

Ikki usul ham aniq sharoitlarni yaratadi, biroq guruhdagi ish jarayonini e'tiborga olmaydi va guruhdagi hamkorlikka xalaqit qilishi mumkin.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlariga jami 142 nafar respondent-talabalar jalb etildi. Shundan 34 nafari Bux DU ning 9-1texas ,9-2texas guruxi talabalari, Qarshi davlat univesrtetidan 42 nafari talaba 019-65 guruh,019-66 guruh,019-130 guruh va Jizzax davlat pedagogika unverstetidan 39 nafari 410-19 guruh, 411-19guruh.Tajriba-sinov ishlari natijalarini qayd etish va umumlashtirish, ularni tahlil etish, bu sohada eksprementlarga metodik ko'rsatmalar bepish va natijalarni xolisona baholash uchun professor-o'qituvchilar bilan pedagogik hamkorlik yo'lga qo'yildi. Olingan natijalar o'qituvchilar tomonidan kuzatilib, baholandi.

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligi va natijalarning dinamik o'sishini aniq belgilash maqsadida tajriba ishlariga jalb etilgan 142 nafar respondentlar erkin tanlov asosida ikki guruhga, ya'ni tajriba va nazorat guruhlariga ajratib olindilar. Bunda tajriba guruhlariga 72 nafar, nazorat guruhlariga 70 nafar respondentlar birlashtirildi.

Tanlangan mezonlar orqali aniqlashtirilgan kasbiy muhim sifatlarni shakllantirishda

quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

➤ Tayyorlov bosqichida bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarining raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash uchun kerakli muhim kasbiy sifatlarni ishlash bo'yicha individual qobiliyati motivatsion emotsional gnostik, jarayonli va o'z-o'zini baholash mezonlar orqali aniqlanib dastur ishlab chiqildi.

➤ Asosiy bosqichda bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarining raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash uchun kerakli muhim kasbiy sifatlarni shakllantirishga oid ishlab chiqilgan dastur bo'yicha "Texnologik ta'lim" yo'nalishida ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli ta'lim muhitini qo'llab nazariy amaliy, laboratoriya hamda mustaqil ish mashg'ulotlari olib borildi.

➤ Ixtisoslik fanlarini o'qitish raqamlashtirish ta'lim muhiti orqali MOODLE ta'lim tizimida amalga oshirildi.

Yakuniy bosqichda bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarining raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash bo'yicha shakllangan muhim kasbiy sifatlarni baxolandi.

Raqamlashtirish sharoitida "Tikuvchilik jihozlari" modulini o'qitishda talabalarning kasbiy muhim sifatlarning rivojlanganligi darajalari har bir mezon ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlandi hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari matematik va statistik usulda qayta ishlandi. Olib borilgan tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra talabalarning kasbiy muhim sifatlarning rivojlanganlik darajalari 13% ga ijobiy dinamika kuzatildi. Bu esa bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchisining raqamlashtirish muhitida talabalarning muhim kasbiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan biz taklif qilgan metodika, model hamda axborot - metodik ta'minotning samarali ekanligini ko'rsatdi.

"Texnologiya" ta'lim yo'nalishida "Tikuvchilik jihozlari" modulini mazmuni va metodikasi takomillashtirilganligi raqamlashtirish muhitida talabalarning muhim kasbiy sifatlarni rivojlantirishga olib keldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.K.Mo'minova., D.A. Sayfullayeva. Пути повышения эффективности преподавания специальных дисциплин // International conference on science and education.Turkey. ICSEHA.E-Conference Globe -2021. B.72-74
2. D.K.Mo'minova., D.A. Sayfullayeva.Didactical principles of labor education.// Academicia Globe Inderscience Research 2021.154-157.
3. D.K.Mo'minova., D.A. Sayfullayeva., Z.D.Rasulova., D.D. Raimova., "Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash" fani elektron darsligi // O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi guvohnomasi-T. 2021.- №DGU20214299
4. Sayfullayeva Dilafruz Axmadovna, Sobirova Mahfuza Raxmatilloevna. Preparing students for professional activity on the base of individualized education in the teaching of specialists in higher education institutions. International academic research journal.2022№1dekabr.B-283-291
5. Sayfullayeva Dilafruz Ahmadovna, Rustamov Erkin Tohirovich, Rayimova Dilnavoz Dilmurodovna, Kamolova Dilshoda Odilovna.Methodology of using autocad software in developing technical creativity of students.Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2022
6. Bozorova Munira Shavkatovna Sayfullayeva Dilafruz Axmadovna.UMUMKASBIY FANLARNI O'QITISHDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.2022.B-7
7. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
8. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
9. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
10. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
11. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.

12. Bakhtiorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.

13. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.

14. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROT NOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

15. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.

16. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

17. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi // *Научно-практическая конференция*. – 2021.

18. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2021. – Т. 2. – №. 2.

19. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т.

20. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т. 8.

21. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2020. – Т. 2. – №. 2.

22. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

## O'QUVCHILARNI KREATIVLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Bobomurodova Latofat Elmurodovna**

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti)*

**Urokboyeva Sarvinoz Olim qizi,**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, "Texnologik ta'lim" yo'nalishi 3- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada texnologiya fani dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun qilinishi lozim bo'lgan tashkiliy va uslubiy ishlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, xalq hunarmandchiligi, badiiy loyihalash, soha, ishlab chiqarish, faoliyat, kompetensiya.

Jahon miqyosida ilmiy-texnikaviy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanishida olib borilayotgan global o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch bu kreativlikdir. Ta'lim sifati bo'yicha "Yevropa Kengashi mamlakatlarining 2020-yilga qadar ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash sohasidagi Hamkorlik strategiyasi" aynan innovatsion ta'lim jarayonida kreativ va tizimli fikrlaydigan, tanqidiy mulohaza yurita oladigan, ilmiy dunyoqarashi keng, mustaqil qaror qabul qila oladigan, yuqori malakali va raqobatbardosh, kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga qaratilgan.

Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo) va samarali (amaliy, natijaviy, tejimli, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam

beradi. Biroq biz uni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz, aksincha, bizga imkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turadi deb qarashimiz kerak.

Texnik ziddiyat shunday paradoksali xususiyat bilan tavsiflanadi: texnik tizimning bir qismini (elementini) yaxshilashga harakat qilganda, ikkinchisi muqarrar ravishda yomonlashadi. Tizim deganda, alohida elementlarning xossalari tushmaydigan o'zaro shartlangan xossalarga ega bo'lgan o'zaro bog'langan elementlar to'plamining integral birligi tushuniladi. Odatda, texnik ziddiyat – jismoniy ziddiyat tufayli kelib chiqadi.

Kreativlik faoliyatiga o'rgatish uchun o'quvchida fanga, ilmga, ijodkorlikka qiziqishi, nazariya bilan amaliyotni bog'lay olishi, olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay bilishi, ijodiy kompetensiyalarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning oldida turgan vazifa va muammolarni echishga ijodiy yondashish orqali qo'shimcha imkoniyatlar berishini tushuna olishi kerak bo'ladi. Quyida ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

- jamiyatdagi yangi faoliyat turlariga, yangicha kreativ yondashuvlarga tez moslashib keta olish;

- kreativlik inson hayotining ma'nosiga, o'zini namoyon qilish usuliga aylanishi mumkin;

- kreativ yondashuv texnik va ishlab chiqarish masalalarini echish jarayonida, shuningdek, ular o'rtasida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi;

- kreativlik faoliyati jarayonida shaxsda mehnatsevarlik, maqsadga erishishdagi qat'iyatlilik, tanqidni to'g'ri qabul qila olish kabi eng oliyjanob shaxsiy sifatlar tarkib topadi;

- odatda, texnik ijodkorlik jarayonida aqliy va jismoniy mehnatning o'zaro uyg'unlashuviga erishiladi.

Mamlakatimiz va xorijdagi ko'plab pedagog olimlar ijodkorlik faoliyati muammolarini tadqiq qilish borasida izlanishlar olib borganlar. Ularning maktablari, yondashuvlari, yo'nalishlari turlicha bo'lishiga qaramasdan, bu tadqiqotchilarning barchasida asosiy intilish ijodkorlik faoliyatining ajralmas, yaxlit tavsifini ishlab chiqishga; ushbu hodisani aniq yaxlitlikda qamrab olishga; ijodkorlik omillarini majmuaviy muammo sifatida tabaqalashtirishga; o'zaro aloqalarni ochib berishga, tabiatiga ko'ra turlicha bo'lgan qonuniyatlar chizig'i bo'yicha harakatlanishga qaratilgan.

Ko'pchilik mualliflar ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari sifatida kreativlik asosini tashkil etuvchi bilish jarayonlari (ijodiy xayol, tanqidiy tafakkur va h.)ni faollashtirishga mo'ljallangan mashq va topshiriqlardan iborat metodikalarni taklif etadilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi zamonaviy psixologiyada birinchilardan bo'lib, R.Krachfild tomonidan ishlab chiqilgan. Uning metodik yondashuvi, ijodiy qobiliyatlar ma'lum ijodiy topshiriqlarni bajarish davomida uning rivojlanishi haqidagi tasavvurga asoslanadi [1].

Kreativlikka oid tadqiqotlar asoschisi D.Gilford muammolarning samarali echimi mavjud intellektual testlar bilan o'lchanadigan bilim va malakalarga emas, balki tezkor ravishda turli usullar bilan vazifani hal qilish uchun taqdim qilingan axborotni qo'llashgabo'lgan individual qobiliyatga bog'liqligini isbotladi. Bunday o'ziga xoslik esa kreativlik deb nomlandi [2].

Kreativlik insonda rivojlanishining bir qancha omillarini keltirish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, qo'shimcha ta'lim, qo'shimcha mashg'ulotlar ham o'quvchida kreativlik, ya'ni unda ijodkorlik salohiyatining ko'proq namoyon bo'lishida asosiy omil vazifasini o'taydi. Demak, o'quvchining qobiliyatlari kreativlik asosida namoyon bo'lgan taqdirda ham, bu uning yangilik yaratish bilan bog'liq xatti-harakatlari samarasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Крачфилд Д. Креч Р. Ливсон Н. Факторы, определяющие решение задач. PsychologyOnLine.Net. 11.05.2007 (Правка 11.05.2007).
2. Guilford J.P. Creativity / American Psychologist. 1950. № 5.
3. L.E.Bobomurodova. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qollanma. – Samarqand, 2022-y.

# TANQIDIY FIKRLASH VA UNING RIVOJIGA TA'SIR ETUVCHI BA'ZI OMILLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich

*BuxDU dotsenti*

Alimova Mavluda Adiz qizi

*BuxDPI tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quvchilarning fikrlash va bilimlarni egallash jarayoniga yordamlashishdan muhimroq vazifa bo'lishi mumkin emas. Pedagoglar uchun o'z ongining potentsial kuchidam mohirlik, idrok va intizom bilan foydalanish, fikrlash qobiliyatini kashf etishda yordam berish kabilar talab qilinmoqda. Zeroki, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan o'qituvchilargina tanqidiy fikrlaydigan va muammoni hal etuvchi avlodni tarbiyalashlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** Ong, tafakkur, mulohaza, egotsentrizm, manmanlik, egoizm, o'zlik, shaxsiy fikr, sotsiotsentrizm, jamiyat, jamoaviy fikrlash.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan o'zgarishlar, yangi islohotlar ushbu tadqiqotdagi ijtimoiy va iqtisodiy muhim ehtiyojning tobora ortib borayotgan jamoatchilik e'tirofini aks ettiradi. O'z o'rnida bu tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishni o'rgatishda tizimli ravishda faol bo'lishimiz kerakligini yana bir bor ta'kidlaydi.

**Tanqidiy fikrlash.** Etimologik jihatdan bu so'z "standartlarga asoslangan aql-idrok hukmi" ning rivojlanishini anglatadi. Vebsterning "Yangi dunyo lug'ati" kitobida tanqidiy fikrlash iborasi "diqqat bilan tahlil qilish va mulohaza yuritish" deya tavsiflanadi" va undan keyin quyidagicha qo'shimcha qilinadi: "tanqidiy, o'zining qat'iy ma'nosida, ham afzalliklarni, ham kamchiliklarni aniqlash uchun ob'ektiv hukm qilishga urinishni anglatadi". Tafakkurga tayangan holda, biz esa uni quyidagicha ta'riflashimiz mumkin: "Tanqidiy fikrlash - bu aniq asosli mulohazaga qaratilgan va shuning uchun biror narsaning haqiqiy qiymatini, qadr-qimmatini yoki qiymatini aniqlashga urinishda tegishli baholash standartlaridan foydalanishdir".

Inson tafakkurining o'zi ko'pincha noto'g'ri qarashlarga, haddan tashqari umumlashtirishga, keng tarqalgan noto'g'ri fikrlarga, o'zini aldashga, qattiqqo'llik va torlikka moyil bo'lgan umumiy tushunchani aks ettiradi. Tanqidiy fikrlash an'anasi ongni anglash yo'llarini izlaydi, so'ngra tafakkuridagi shunday "xatolar", "qo'polliklar" va "buzilishlar"ni minimallashtirish uchun aqlni tarbiyalaydi. U insonning to'g'ri fikr yuritish qobiliyatini to'g'ridan-to'g'ri shu maqsadga qaratilgan ta'lim jarayoni orqali rivojlantirish va rivojlantirish mumkinligini taxmin qiladi [1]. Tanqidiy fikrlash tarixi ushbu tushunchaning turli mavzularda va turli xil ijtimoiy vaziyatlarda rivojlanib taraqqiy etib kelayotganligini bizga ko'rsatdi. Tanqidiy fikrlashning har bir asosiy yo'nalishi 2500 yillik tarix davomida rivojlanib kelgan. Shunchalik uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramasdan barchada ham tanqidiy fikrlash ko'nikmasi yaxshi rivojlanmagan. Buning sababi nimada?

**Egotsentrizm va sotsiotsentrizm.** Mana shu ikki asos o'quvchilarda, umuman olganda jamiyatda, insonlarda tanqidiy fikrlamaslik uchun sabab bo'ladi. Quyida imlo lug'atida ularning ma'nosi qanday izohlanganligi keltirilgan.

Egotsentrizm - Manmanlik va xudbinlik (egoizm)ning uchiga chiqqan shakli: shaxsning faqat o'z qiziqish doirasigagina bog'lanib qolishi, boshqalarning fikri bilan hisoblashmay, faqat o'z fikrlari va shaxsiyatini yuqori qo'yishidan iborat xislati[2].

Egotsentrizm da inson voqelikning asosiga o'zini va o'z manfaatlarini qo'yadi. Bunda shaxs o'z doirasida bog'lanib qolib, o'z fikrini o'zgartirishga qiynaladi. Egotsentrizm haddan ortiq rivojlangan insonlar ko'pincha o'zining qiziqishlari bilan band bo'ladi. Ular o'zlarining qiziqishlari, g'oyalari va manfaatlarini atrofdagi insonlarning fikrlaridan ko'ra ustunroq qo'yishadi[3].

Sotsiotsentrizm - (lotincha "societas" jamiyat va "centrum" doira markazi) jamiyatdagi

ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, jamiyat manfaatlari va qadriyatlarining shaxsga nisbatan ustuvorligini tasdiqlovchi, ommaviy munosabatni shakllantirish prinsipi. Ijtimoiy voqelikni ma'lum bir ijtimoiy hamjamiyatning g'oyalari va qadriyatlari prizmasi orqali idrok etish ongi[4]. Quyida keltirilgan tajriba orqali sotsiotsentrizm to'g'risidagi qarashlarni yanada boyitish mumkin.

1967-yilda Rossiyalik olim Valeriya Muxina jamiyatning insonlarga ta'siri mavzusida ilmiy ish olib bordi va hattoki bu ish yuzasidan 1970-yilda "Kiyevnauchfilm" studiyasi hujjatli film ishlab ham chiqdi. Valeriya Muxina o'z ishida insonlarning fikrlashlari va qaror qabul qilishlariga jamiyatning qanchalik ta'siri borligini ko'rsatib berdi. Bunda olim dastavval 1-sinf o'quvchilari bilan tajriba ishlarini olib bordi. Ular ranglarni biladigan va ularni farqlay oladigan darajada edi. Valeriya Muxina o'quvchilarni 2 guruhga ajratadi. Avval, 1-guruhdagi bolalarga ikkita oq piramidani ko'rsatadi. Bolalardan uning rangini so'raydi:

- Bu piramidalarning rangi qanday?

Bolalar ikkalasi ham oq deya javob berishadi. So'ng bitta oq va bitta qora piramidani ko'rsatib qaytib so'raydi:

- Bu piramidalarning rangi qanday?

Bittasi oq va bittasi qora deya bolalar javob berishadi. So'ng Valeriya Muxina ular bilan qora rangli piramidani ham oq rangda deb atashga kelishishadi. Bolalar tajribaga ko'ra oq va qora piramidalarni ko'rsatgan paytda ikkala piramida ham oq rangda deya javob berishlari kerak bo'ladi.

1-guruhdagi bolalar tayyor bo'lishganidan so'ng, ular orasiga 2-guruhdan bitta bolani olib qo'shishadi. Avvaliga bu bolaga ikkita oq piramidani ko'rsatishadi. Ularning rangini so'rashganda bola ikkalasi ham oq deya javob beradi. So'ng oq va qora piramidani ko'rsatib uning rangini so'rashadi. Bola bittasi oq, bittasi qora deya to'g'ri javob beradi. Tajribaning keyingi bosqichi boshlanadi: Valeriya Muxina qo'lga ikkita oq piramidani olib barcha bolalardan uning rangini birma-bir so'rab chiqadi. Bolalar esa bu piramidalarning ikkalasi ham oq deya javob berishadi. So'ng esa olim bitta qora va bitta oq piramidani qo'lga olib, ularning rangini qaytib so'raydi. 1-guruhdagi bolalar kelishilganidek ularning ikkalasi ham oq deya javob beradi. Navbat 2-guruhdagi bolaga kelgan vaqtda u oq va qora piramidalarning har ikkalasi ham oq deya javob beradi. Bu bola bilan savol-javob qilinadi:

- Bu piramidalarning ikkalasining rangi ham oqmi?

- Ha, bu piramidalarning ikkalasi ham oq.

- Bu piramidalarning ikkalasi ham oq ekanligi aniqmi?

- Ha, aniq.

- Bunga ishonchining komilmi?

- Ha, albatta.

Shu tarzda 2-guruhdagi bolalarning barini birma-bir 1-guruhdagi bolalar safiga qo'shib, yuqorida o'tkazilgan tajribani takrorlashadi. Tajriba natijasida, 75% bolalar ranglarni bilsada, savolga noto'g'ri javob berishdi. Bu orqali olim jamiyatning inson fikrlashiga qanchalik ta'siri katta ekanligini ko'rsatib berdi.

Qisqa qilib aytganda sotsiotsentrizm guruhga asoslangan fikrlash turi bo'lib, sotsiotsentrik qarashlar rivojlangan vaqtda kishi o'z g'alar fikri asosida yo'l tutadigan va o'zining shaxsiy qarorlarini qabul qilishda qiynaladigan bo'lib qoladi. Bunda inson atrofdagilarga o'xshab o'ylashga va ularga o'xshashlikka harakat qiladi.

Shu narsa aniqki, biror bir inson egotsentrik va sotsiotsentrik qarashlardan xoli emas. Jamiyat bilan yashar ekanmiz, albatta uning ta'siridan butkul xoli bo'la olmaymiz. Yoki undagi qarashlarga va munosabatlarga ergashib ketamiz, yoki shaxsiy qarashlarimizni, o'zligimizni ulardan ustun qo'yamiz.

Biz pedagoglar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirmoqchi



ekanmiz, avvalo ulardagi egotsentrik hamda sotsiotsentrik qarashlarni yo'qotishimiz kerak bo'ladi. Shundagina ular mustaqil fikrlaydigan, bo'lib o'tayotgan voqealarga xolisona baho beradigan kadrlar bo'lib yetishadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pete Wilson, Governor "California teacher preparation for instruction in critical thinking: research findings and policy recommendation", The California commission on teacher credentialing state of California, March 1997.
2. <https://savodxon.uz/izoh>
3. Gregory Bassham, William Irwin, Henry Nardone, James M. Wallace "Critical thinking: a student's introduction", The McGraw-Hill Companies, 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020, 2011 y.
4. <https://voluntary.ru/termin/sociocentrizm.html>

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASAR USTIDA ISHLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

### Botirova Gulchehra To'liqin qizi

*BuxDPI magistranti*

**Annotatsiya:** Hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni har tomonlama chuqur fikrlaydigan, muammoli vaziyatlardan chiqa oladigan kadrlar qilib tayyorlash vazifasi yuklatilmoqda. Boshlang'ich sinflarni badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali dunyoqarashlarini kengaytirish, tasavvur va tafakkurlarini o'stirish, mehnatga o'rgatish lozim. Ushbu maqola bu borada o'qituvchiga metodik jihatdan ko'maklasha oladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy asar, g'oyaviy asos, kompozitsiya, sujet, badiiy tahlil, she'r, xalq og'zaki ijodi, maqol, mehnatga o'rgatish, asar qahramonlari.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ta'limiy-tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zlagan holda o'rgatiladi. Bolalarni badiiy asar bilan tanishtirish orqali faqat nutq o'stirish, so'z boyligini oshirishgina emas, balki ular real hayotga tayyorlanadilar, kundalik faoliyatda duch keladigan vaziyatlarida tanish usullar bilan chiqa oladilar, tafakkur doiralari kengaytiriladi. Badiiy asarni o'qitishda pedagog o'z bilim va mahoratini ishga solishi zarur bo'ladi. O'quvchilarni badiiy asarlarni sevib o'qishlari uchun ular dastlab unga qiziqishlari, uni o'qishga intilishlari lozim.

Badiiy asar ustida ishlashda va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi badiiy asarni buyuk san'at asari sifatida tanishtirishi va uning o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutishi lozim.

O'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar o'qilgach albatta uni tahlil qilish lozim. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadiga yo'naltirishni taqozo qiladi.

Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o'quvchilarni badiiy adabivot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O'quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g'oya, muammolarni to'liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi.

O'qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

1. Tanlangan asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.
2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilashi.
3. Har bir tahlil uchun o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.
4. Asarni tanishtirishda foydalaniladigan metodlar tizimini ishlab chiqishi.
5. O'quvchilar ushbu asarni o'qish orqali egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini belgilab olishi.

Ushbu tizimni 4-sinf o'qish va 2-sinf „Ona tili va o'qish savodxonligi“ kitobidagi Quddus Muhammadiyning „Qushlar qayda qo'noqlar“ she'ri ustida amalga oshiramiz.

1. Asar tabiatning mo'jizasi bo'lgan qushlar va ularning hayoti, qishdan qanday omon chiqishlari haqida ma'lumot berilgan. She'rni o'qishdan maqsad o'quvchilarni qushlarga nisbatan mehr-muhabbatini oshirish, tabiatni asrash. Doimiy va mavsumiy qushlarning qishlashi, qishda qanday oziqlanishi haqida fikrlar keltirib o'tilgan.

2. She'rni o'qish va tahlil qilish uchun dastlab o'qituvchi darsni bosqichlarga bo'lib olishi zarur.

1-bosqich: O'quvchilar she'r sarlavhasi va she'rning muallifi bilan tanishtiriladi. Muallif rasmi ko'rsatilib hayoti va ijodi bilan qisqacha tanishtiriladi.

Sarlavhasidan ma'lumki she'r qushlar va ularni qayerda yashashi anglanadi.

2-bosqich: She'r matni o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib, eshittiriladi.

3-bosqich: She'rdagi notanish so'zlar lug'at ishi tarzida tushintiriladi.

Qayda-qayerda

Qo'noqlar-qo'nib yashaydi

In-uy

To'ng'ib qolmasmi-qotib, o'lib qolmasmi

Uvoq-nosh ushug'i

4-bosqich: O'quvchilardan she'r mazmuni qisqacha so'raladi. Qushlarning turlari, hayot kechirishi haqida ma'lumot beriladi.

5-bosqich: She'r yod olishga kirishiladi.

3. She'r yuzasidan topshiriqlar tuzib chiqiladi.

1-topshiriq. Savollar tuziladi.

-Qushlarning qanday turlarini bilasiz?

-Qushlar nimalar bilan oziqlanadilar?

-Qushlar qishda sovuq yemaydimi?

-Qushlar o'lib qolmasliklari uchun nimalar qilishimiz kerak?

-Qushlar minnatdorchiliklarini qanday bildirishar ekan?

2-topshiriq. Qushlar rasmi chiziladi.

3-topshiriq. Har xil turdagi qushlar rasmi doskaga ilinadi va o'quvchilardan qanday qush ekanligi topilib, pastiga yozish talab qilinadi.

4. She'rni tanishtirishda suhbat, savol-javob, munozara metodlaridan va didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Qushlar haqidagi videorolik qoyib beriladi.

5. O'quvchilar ushbu she'r bilan tanishish orqali ona tabiat hayotimizning bir bo'lagi ekanligi, tabiatga muhabbat, uning har bir ne'matini asrash kerakligini tushinib yetadilar. Qushlarning bizga keltiradigan foydalari (har xil hasharotlardan tozalashi, daraxt, gullarni changlanishida ishtirok etishini, ovozini va o'zining go'zalligi bilan kayfiyat bag'ishlashi)ni tushinib yetadilar.

Bu tizimni faqat badiiy asarning she'r janridagina emas balki boshqa janrlarida ham qo'llash darsning samaradorligini oshiradi.

Badiiy asarning qay turi bo'lishidan qat'iy nazar bolada unga bo'lgan qiziqishni orttirish o'qituvchi zimmasida bo'ladi. Bu borada o'qituvchidan yuqorimalaka va tayyorgarlik talab etiladi. O'quvchi asarni ongli o'qishi orqali tafakkur va tasavvur doirasi kengayadi, fikrlash qobiliyati o'sadi. Shunday ekan har bir o'quvchiga badiiy asar va unda ilgari surilayotgan g'oyalarni to'g'ri va chuqur yetkaza olish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hujanboyeva Q., Hazratqulov M., Jamoldinova Sh. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, Innovatsiya-Ziyo. 2020.

2. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev „Ona tili o'qitish metodikasi“. Toshkent. 2009.

3. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyeva SH., Dolimov Z., 4-sinf O'qish darslik. Toshkent. 2020.

4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, „Ona tili va o'qish savodxonligi“ 2-sinf darslik, Toshkent 2021

5. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
6. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
7. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
8. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
10. Bakhtiorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYI JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
11. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYI JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.
12. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
13. Amonov U. S., Sapparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
14. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
15. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi // *Научно-практическая конференция*. – 2021.
16. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
17. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т.
18. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т. 8.
19. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2020. – Т. 2. – №. 2.
20. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

## **BOLALARGA ATROF-MUHITNI ASRAB-AVAYLASH VA G'AMXO'RLIK KO'RSATISHGA O'RGATISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Saidova Dilsora Sulton qizi**

*BuxDUPI magistranti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish, ularda atrof-tabiiy muhitga g'amxo'rlik qilish tuyg'usini turli metodlar orqali rivojlantirish haqida so'z yuritilgan*

*Kalit so'zlar: atrof-muhit, ekskursiya, eko-sayohat, ekologik muammolar*

*Аннотация. В данной статье рассматривается формирование экологической культуры детей в условиях дошкольного образования, развитие чувства бережного отношения к окружающей миру с помощью различных методов.*

*Ключевые слова: окружение, экскурсия, эko-путешествие, экологические проблемы.*

*Tabiat-bu bizni o'rab turgan barcha narsalar, borliq, hayvonot va o'simlik dunyosi har qadamda tabiat unsurlaridan bo'lgan narsalarni ishlatamiz. Tabiat- kishilarning moddiy va*

ma'naviy talablarin qondirish manbai. Inson hayot kechirishi uchun hamma narsani tabiatdan oladi. Yer yuzida aholinin soni ko'payib, fan va texnika rivojlangan sari insoning tabiatgata'siri kuchayib boradi, inson tabiatdan tobora ko'p mahsulot oladigan bo'ladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning: "Ona zaminimiz – boyligimizning, mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir", inson tabiat bilan tirikdir degan edilar. Yer suv bilan, odam esa tabiat bilan tirik. Bu isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir. Tabiatni e'zozlash atrof-muhitni muhofaza etish haqidagi yo'l-yo'riqlar ajdodlarimizga, sharq mutaffakirlariga necha-necha zamonlar osha qo'llanma va ilhom manbai bo'lib keldi. 2022– 2023-yillarga mo'ljallangan yangi

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida: Ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash "Yashil makon" umumilliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Agar tabiatni muhofaza qilishda jamoat qatnashmasa, undan natija chiqmaydi[3]. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilish jamoat ishi hamdir. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi,[6] "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi,[4] "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi,[5] qonunlari, yer, suv, yer osti boyliklari to'g'risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalarida Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umumilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.[2] "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" deb ta'kidlab o'tilgan.[1] Buyuk allomalarimiz: Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar tabiat fanlariga o'z hissalarini qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlarini aytganlar. Muhammad Muso al-Xorazmiy risolalaridan birida shunday deb yozadi: "Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar".[7] U o'z asarlarida okeanlar, qutblar, qit'alar, ekvatorlar, gullar, o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek boshqa tabiiy resurslar –Yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar bergan. Abu Nasr Farobiy-tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib "Kitob kolhaji va almiqdor", "Kalam fi azo alhayvon" nomli asarlari bungadalil bo'la oladi. Abu Rayhon Beruniy koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. U tabiatshunos sifatida tabiat haqida quyidagicha fikr yuritadi: "Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi".[7] Zahiriddin Muhammad Bobur ajoyib botanik bo'lgan, o'simliklarni sevgan va yaxshi bilgan.

"Boburnoma" asarida shoirning ko'rgan kechirganlari, borgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urfodatlari, hayvonot va o'simliklari tasvirlangan.[8] Unda yer, suv, havo turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi. Inson onadan tug'ilib dunyoga kelgan kundan boshlab tabiat ehsonidan bahramand bo'ladi. Ilk bor havodan to'yib nafas oladi. Inson o'sib-unish uchun oziq-ovqat, suv, havo zarur bo'lib ularning hammasini tabiatdan oladi. Atrof-muhit toza, musaffo bo'lsa, odam ham sog'lom, baquvvat bo'ladi. Shuning uchun otobobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratishni savobli ish deb bilganlar. Bir tup mevali daraxt ekan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi, deb bejiz aytishmagan. Muhammad allayhisalom hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan. "Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, behosdan qiyomat qoim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham. ulgursangiz uni ekib qoling". Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga atrof-muhitni asrab-avaylash va g'amxo'rlik ko'rsatishga o'rgatish turli yo'llar orqali amalga oshiriladi. Jumladan mashg'ulotlar o'tkazish, ekskursiyalar tashkil etish, o'yinlar o'ynash, mehnat qilishga o'rgatish, kundalik hayot ishlari orqali ularda ekologik madaniyat shakllantiriladi. Mashg'ulotlar o'tkazish talim va tarbiya jarayonining asosiy vositasi hisoblanadi. Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalarga atrof-muhitdan insoning noto'g'ri foydalanishi

natijasida kelib chiqqan turli muammo va ularning oqibatlarini tasvirlangan turli kinofilm, diafilm, turli rasmlarni ko'rsatadi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun tabiat burchaklari tashkil etilgan bo'lib tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabatini, o'simlik va hayvonarga g'amxo'rlikni tarbiyalash va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko'paytiruvchi, kattalarning mehnatiga hurmatini tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda tabiat burchagining ahamiyati kattadir. Tabiat burchagining eng ahamiyatli tomoni shundaki uni bolalar har kuni ko'radilar. Daraxtlarning chiroyli gullashi, barglarning tuslanishi bolalarning go'zallikdan quvonishga o'rgatadi va ularga estetik did beradi. Ularda tabiat, atrof-muhitga nisbatan muhabbat paydo bo'ladi. Eko-sayohat– Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim berishning tashkiliy shakllaridan biridir. Eko-sayohatlar orqali bolalar tabiat haqida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar. Bu tasavvur tabiatni ko'rish, sezish, eshitish orqali amalga oshiriladi. Tabiat to'g'risidagi bilimlardan bexabar bo'lish ko'pincha o'simlik va hayvonlarga nisbatan noto'g'ri, bazi hollarda esa berahm va shafqatsiz munosabatda bo'lishga olib keladi. Shuning uchun haftada bir marta har bitta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eko- harakat tashkil etilishi kerak.

Bolalar haftada bir marotaba turli muzeylarga, tarixiy obidalari bor muassasalarga, hayvonot bog'lari, istirohat bog'lari, botanika bog'lariga sayohatlar tashkil etilishi zarurdir. Eko-sayohatlar bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ularni yanada sinchkovlik bilan kuzatishga, kuzatayotgan narsa ustida chuquroq o'ylashga, fikr, bilim doirasini kengaytirishga o'rgatadi. Bolalarning tabiatga mehri yoshligida rivojlanadi, shunday qilib ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarni imkon boricha erta boshlash kerak. Ular o'z atrofidagi xatti-harakatlarni kuzatishadi va ularga taqlid qilishadi. Ular hayvonlar ovozi taqlid qiladilar, Bolalar albatta, haqiqiy hayvonlarni ko'rib o'rganishlari lozim bu fikrlar faqat qog'ozdagina qolib ketishi kerak emas. Bolalarning eko-sayohatlari uchun davlatimiz tomonidan ularning xavsizligini ta'minlagan holda alohida mikroaftobuslar joriy etilishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ertalabki qabulni tabiat ovozi musiqalari, tonggi shabada kuylari, qushlarning chiroyli sayrashi bilan kutib olish, tushda maxsus ovoz kuchaytiruvchi maxsus kalonkalar bilan alla sadosi, tinchlantiruvchi tabiat musiqalari bilan uxlatsak ularda ona tabiatimizga nisbatan muhabbat tuyg'usini yanada kuchaytirar edik. Bahor oylarida ularga gullarni tagini yumshatishni, ko'chat ekishni o'rgatishimiz, hamda atrof-muhitni ifloslantirmaslik, daraxtlarni sindirmaslik aks holda bular qanday oqibatlarga olib kelishi to'g'risida turli, hikoya, ertak va hukmatli so'zlar aytishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda: Bunday misollarni keltirishimizdan maqsad o'tmish ajdodlarimizdan bizgacha urf-odat bo'lib yetib kelgan obodonchilik ishlaridan hozirgi yoshlarni xabardor etish, ularni ana shu ishlar misolida tarbiyalashdir. Ular ham Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi el farovonligi yurt obodligi uchun kurashuvchi zabardast o'g'il-qizlar, oliyhimmat inson, tabiatga mehmuruvvatli kishilar bo'lib yetishsinlar. Aksariyat hollarda atrof-muhitga zararni biz kattalarning loqaydligi sabab shikast yetkazamiz buning oqibatida "yo'qolib ketayotga, yo'qolish arafasida turgan va yo'qolgan" hayvon va o'simlik turlari uchun maxsus "Qizil kitobning" joriy etilishi shular jumlasidandir. Shuning uchun uni asrab-avaylashni unga zarar yetkazmay unsurlaridan to'g'ri foydalanishni, biz tabiatning ajralmas qismi ekanligimiz, onamizni asragandek ona-tabiatni asrab-avaylashni bolalar ongiga yoshligidan singdirmog'imiz zarurdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.9-bob Fuqarolarning burchlari 50-modda
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.10-bob jamiyat va shaxs 55-modda
3. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi
4. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" 1996-yil 27-dekabr
5. "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" va "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" 1997-yil 26-dekabrda
6. "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risida 1992-yil 9-dekabr
7. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The



- Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
8. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOVIY KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH- TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
10. Bakhtiorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
11. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.
12. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
13. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
14. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
15. Ulug'murod Sulstonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sulstonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi // *Научно-практическая конференция*. – 2021.
16. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz). – 2021. – Т. 2. – №. 2.
17. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т.
18. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т. 8.
19. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
20. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

## ERTAKLARNING BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI TARBIYASIDAGI O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*D.Nuritdinova* BuxDPI magistranti

*D.B.Axmedova* - BuxDU doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqining boyligi, erkin fikrlashini o'stirish, izlanuvchanligi, xotirasining yaxshilanishi, topqirligi, ziyrakligi, ilg'orligi va xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lmish ertaklarga bo'lgan qiziqishi va muhabbatini orttirish borasidagi fikr-mulohazalar yoritilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** darslik, his-tuyg'u, halollik, to'g'rilik, ziyraklik, tafakkur, tahlil, xotira, ertak.

**Ertak** – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli, sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasriy shaklda yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "etuk" shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofida tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning

g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim



mezon bo‘lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig‘idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta‘minlaydi.

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar. Ertaklarni har bir bola sevib o‘qiydi, tinglaydi. Chunki bola uchun bu juda ham qiziqarli tuyuladi. Shuning uchun ham biz pedagoglar bolalarning ilk yoshidanoq, ilk maktab chog‘idanoq ertaklarga bo‘lgan qiziqishini orttirib borishimiz kerak. Bola yoshlikdan xalq og‘zaki ijodiga qiziqsa, kelajakda albatta kitobga mehri oshadi, fikrlashi, dunyoqarashi kengayadi. Biz tahlil uchun 4-sinf “O‘qish” darsligida keltirilgan “Hiylagarning jazosi” deb nomlangan xalq og‘zaki ijodi mahsuli sanalgan ertakni tanladik tahlillarni umumlashtirilib, kerakli xulosalar chiqarib olamiz.

Ikki o‘rtoq bor edi. Biri soddadil, ikkinchisi esa hiylagar edi. Ular bir kuni savdogarchilik qilish uchun bir yoqqa ketayotganlarida yo‘ldan bir xalta tilla topibdilar. Soddadil hiylagarga: – Omadimiz keldi, endi bularni bo‘lib, orqaga qaytamiz, – desa, hiylagar: – Taqsim qilib o‘tiramizmi? Hozir kimga qancha kerak bo‘lsa olib, qolganini ehtiyot qilib berkitib ketaylik. Zarur bo‘lganda yana kelib keragini olarmiz, – debdi. Soddadil uning so‘ziga kirib «xo‘p» debdi. Oltindan keragicha olib, qolganini bir daraxt ostiga ko‘mibdilar. Shaharga yetib kelib, har biri o‘z uyiga ketibdi. O‘zini aqlli deb hisoblagan hiylagar ertasi kun borib, ko‘milgan tillaning hammasini olib ketibdi. Soddadil o‘z qo‘lidagini xarjlab bo‘lgach, hiylagar qoshiga kelib debdi: – Yur, oltindan picha olib kelaylik, juda muhtoj bo‘lib qoldim. Hiylagar u bilan birga tilla ko‘milgan joyga boribdi, lekin ular hech narsa topmabdilar. Hiylagar soddadilning yoqasidan ushlab: – Tillalarni sen olgansan, chunki sendan bo‘lak hech kimning bundan xabari yo‘q edi, – debdi. Soddadil bechora: «Olmadim», – deb har qancha ont ichsa ham foydasi bo‘lmabdi. Hiylagar uni qoziga olib borib, bo‘lgan gapni aytib beribdi va tillalarni topib berishini da‘vo qilibdi. Qozi: – Guvoh va dalil bormi? – deb so‘rabdi. Hiylagar:

– Ostiga tilla ko‘milgan daraxt guvohlik berib, tillani shu noinsof olib ketgan, dedi, – debdi. Qozi bu so‘zni eshitib, hayron bo‘libdi. Ancha gap-so‘zdan keyin ertasiga guvohlikbergan daraxt yoniga borishga qaror qilishibdi. Hiylagar sevinib uyiga kelib otasiga: – Bu tilla hangomasini o‘z foydamizga hal etish sizga bog‘liq bo‘lib qoldi. Sizga ishonib, daraxt guvohlik beradi, dedim. Endi mening gapimga ko‘nsangiz, olib kelgan tillalarim o‘zimizga qoladi va yana qo‘shimcha shuncha tillaga ega bo‘lamiz, – debdi. Otasi: – Men nima qilishim kerak? – deb so‘rabdi. Hiylagar: – U daraxtning ichi kovak bo‘lib, unga o‘n odam bemalol yashirinsa bo‘ladi. Kechasi borib, u yerga joylashib olishingiz kerak, ertasiga qozi daraxt tagiga kelganida, daraxt nomidan guvohlik bersangiz bo‘ldi, – debdi. Ertasi kuni qozi shahardan chiqib, daraxt oldiga boribdi. Tomosha qilish uchun anchagina odamlar ham unga ergashib kelgan ekan. Qozi daraxtga qarab, tillalarning qayerdaligini so‘rabdi. Daraxtdan: «Tillalarni soddadil olib ketgan», – degan sado chiqibdi. Taajjurlangan qozi daraxt atrofida aylanib yurib, unga diqqat bilan razm solibdi. Daraxtning katta kovagi borligini ko‘ribdi-da, hamma gapga tushunibdi. O‘ziga-o‘zi: «Xiyonatga marhamat yo‘q», – deb daraxt atrofiga shox qalati o‘t qo‘ydiribdi. Chol biroz chidab jim turibdi, lekin halok bo‘lishini bilib, yolvora boshlabdi. Qozining buyrug‘i bilan uni daraxt ichidan chiqaribdilar. Qozi savol-javob qilib, haqiqatni bilibdi, soddadilning to‘g‘riligi, hiylagarning makri ma‘lum bo‘libdi. Chol chekkan azobiga va nomusga chiday olmay, shu yerning o‘zidayoq jon beribdi. Hiylagarni jazolab, adabini beribdilar va otasining jasadini yelkasiga orttirib, shaharga jo‘natibdilar. Soddadil esa to‘g‘riligi tufayli hamma tillalarga ega bo‘libdi.

Ertakda soddadil va hiylagarlik do‘stligi va ularning bir tilla deb orasi buzilganini ko‘rishimiz mumkin. Soddadil va hiylagarga xos xususiyatlar yaqqol o‘z ifodasini topgan. Hiylagarning qilgan hiylasi ertak oxirida xalqning oldida. o‘zini sharmanda qiladi Bunga chiday olmagan otasi esa voqea joyida halok bo‘ladi. Ertak bilan tanishgan har bir yosh bola darhol o‘ziga kerakli xuloasani chiqarib oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ertaklar o‘quvchilarning tarbiyasiga, dunyoqarashigakatta ta‘sir ko‘rsatadi, milliy urf-odatlarini sevishga, qadriyatlarini qadrlashga, aqliy rivojlanishiga, nutqiy faoliyatiga beqiyos yordam beradi. O‘zbek xalq ertaklari juda qadimiy tarixga ega. Xalq ertaklarida insonparvarlik, do‘stlik va boshqa xususiyatlar mujassamlashgan. Xalq ertaklari barchamizning ko‘nglimizga birdek yoqadi hamda sevib o‘rganishimiz, mutolaa qilishimiz uchun munosib namunalardir.

1. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. O'qish", 4-sinf uchun darslik, Toshkent, "Yangiyo'l poligraf servis" nashriyoti, 2017. – 55-57-betlar.
2. 7.AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
3. 8.Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
4. 9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
5. 10. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
6. 11. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.
7. 12.Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
8. 13.Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
9. 14.Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
- 10.15.Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
- 11.16.Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 2. –№. 2.
- 12.17.Xoliqulovich J. R. Influence of Sadrididdin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т.
- 13.18.Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of SadrididdinAini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.
- 14.19.Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2020. –Т. 2. –№. 2.
15. 20.Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – C. 130-133.

## **BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNI TASHKIL ETISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Eshim Mardonov**

*O'zbekiston –Finlandiya Pedagogika instituti dotsenti,*

**Go'zal Qarshiyeva**

*O'zbekiston –Finlandiya Pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya.** "Texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "texno" – o'qitish jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi fan ma'nosini anglatadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, o'qitish texnologiyasi, zamonaviy pedagogik texnologiya

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkabdir. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlardan chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. O'qish jarayonida o'quvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi hozirgi

kunning talabidir. Pedagogik amaliyot va tadqiqotda qator ish usullari qo'llab ko'rildi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir.

Bilimni ta'lim olayotgan barcha o'quvchi to'liq o'zlashtirishga erishish mumkin?

Olimlarning fikricha: ta'lim olayotgan guruhdagi 5 % o'quvchi dastur talabidan ilgarilab bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu guruhdagi 5 % o'quvchining esa dasturni umumiy tartibda o'zlashtirishga kuchi yetmaydi. Demak, o'qituvchi sinfdagi 95 % bola bilan muvaffaqiyatli ishlay oladi. Dasturdagi bilimlar hajmining 70 % ni o'quvchilarning barchasi o'zlashtirsa, to'liq o'zlashtirishga erishildi deb hisoblash mumkin. Chunki, olimlarning fikricha shu darajada bilimga ega bo'lgan o'quvchi qolgan ma'lumotni o'zlashtirish imkoniyatiga erishadi.

Innovatsion texnologiya ta'lim jarayonida o'quvchiga zug'um qilmay, ularni qiziqtirib o'qitishni, o'quvchilar o'zidagi barcha fikrlarni bayon etishiga imkoniyat yaratishni tavsiya etadi.

"Texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "texno" – o'qitish jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi fan ma'nosini anglatadi. So'nggi o'n yil davomida nutqimizda "pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya" kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari:

1. Ilmiylik
2. Amaliylik
3. Tavsifiylik

1. Ilmiylik ilmiy-nazariy hamda amaliy g'oyalarni shakllantirish jarayoning mohiyatini ifodalash, o'quv-tarbiya maqsadi, mazmuni, shakl metod va usullarini ilmiy jihatdan asoslash, pedagogik jarayonning umumiy loyihasini ishlab chiqishdir.

2. Amaliylik texnologiyaning amaliyotdagi tatbiqi hamda samaradorlik darajasi bilan aniqlanadi.

3. Tavsifiylik rejalashtirilgan pedagogik faoliyat natijalarini yoritishdir.

Pedagogik texnologiyalarda didaktik o'yinlar texnologiyalari bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular bolalar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan bolalarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat [va qiziqishlarini oshiradigan](#), biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funktsional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ldi.

Natijada, oldingi asrning 60-yillari boshidan AQShda so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejimli ta'lim metodlaridan iborat deb ta'kidlaganlar.

-muammoli vaziyat yaratish;

-g'oyalarni shakllantirish;

-eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baholash va tanlash.

Didaktik o'yin texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan ayrim noana'naviy mashg'ulot shakllari:

Ishchanlik o'yini darsi- mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida bolalarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin mashg'uloti - mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda bolalarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va mashg'ulot jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan mashg'ulot – mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali mashg'ulot mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter mashg'uloti - tegishli mashg'ulot turi bo'yicha mashg'ulot mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars.

Yarmarka mashg'uloti – mashg'ulot mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan bolalarning o'zaro muloqot asosida guruhga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan mashg'ulot.

Integral (integratsiyalashgan) mashg'ulot - bir nechta mashg'ulot turlariga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan mashg'ulot bo'lib, bolalarning turli mashg'ulot turlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolliklarini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent. 2020-yil, 23-sentabr.

2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 9-iyuldagi«Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

3. L. O'rinboyeva va b 1-sinf matematika kitobi. Toshkent-2021.

4. L. O'rinboyeva va b 2-sinf matematika metodik qo'llanma kitobi. Toshkent-2021.

5. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi.-T.: «Ilm-Ziyo», 2005,

## TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Hojiyeva Nasiba Bahodirovna

*BuxDPI II bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish muammosining yoritilishi mazmuni yoritib berilgan. O'quvchilarni boshlang'ich sinfdagi texnologiya ta'limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy va ruhiy tayorlash, o'quvchilarni boshlang'ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayorlashlardan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** texnologiya darslari, kreativ, kompetensiya, ishlab chiqarish, milliy dastur, rivojlantirish, zamonaviy texnologiya.

**Kirish:** O'zbekistonning mustaqillikka erishgani, har tomonlama jadallik bilan rivojlanib borayotgani, Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilish boshlab berdi. Darhaqiqat, Prezidentimiz "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham

bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi" deb ta'kidlab o'tdilar.

Texnologiya darslari o'quvchilarga tafakkur, diqqat, ijodiy tasavvur etish, mehnatga muhabbatini rivojlantirishda imkom beradi. Shuningdek texnologiya darslari o'quvchilarni dunyoqarashlarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Undan tashqari texnologiya ta'limi o'quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jarayonlari haqida keng tushuncha hosil qilish, mehnatga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirish kabi ta'limiy maqsadlarga xizmat qiladi.

Hozirda umumta'lim maktab boshlang'ich sinflar oldiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida ta'lim mazmuni fan texnikaning eng yangi yutuqlari bilan boyitishga, ta'lim tarbiya jarayonida texnologiya ta'limining ro'lini o'stirish va bolalarni tarbiyalash uchun ota-onalarning, o'qituvchilarning ma'suliyatini o'stirishga qaratilgan. Bu o'z navbatida texnologiya ta'limi oldiga murakkab ma'suliyatli vazifalar qo'yadi. Vujudga kelgan imkoniyatlardan mehnat o'qituvchisi kasbini har tomonlama rivojlanishi uchun to'liq imkoniyatini beradi. Mehnat ta'limi mutaxassis tayyorlashni o'z maqsadi qilib qo'ymaydi, balki u o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun vosita hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflardagi texnologiya ta'limi tarbiyasi va ma'lumoti, maktabda mehnat asosini namoyon bo'lishi va uning o'zagi bo'lib, u bolalarning bilimi, ishlab chiqarish faoliyati, o'zaro yordam ko'rsatish, estetik va jismoniy rivojlantirish jarayonidagi mehnat kuchiharatlarini qamrab oladi. Boshlang'ich ta'limi texnologiya ma'lumotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida yigit va qizlar mehnatining nazariy va amaliy hamda samarali, eng oddiy asosiy negizlari va tarkibiy qismlarini, umumlashgan mehnat malakalarini bilish va amaliy faoliyat usullarini egallashga qaratilgan.

1932-yilda boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv dasturlari va tartibi to'g'risidagi qarorida maktablarda fan asoslarini fanlardan foydalanib o'tish ishlab chiqildi. O'quv rejasida boshqa o'quv fanlari bilan bir qatorda mehnat ta'limi ham mustaqil fan bo'lib kirdi.

1933-yilda maktablarda mustaqil o'quv fani sifatidagi mehnat ta'limi tugatildi.

1952-yilda mehnat ta'limiga jamoatchilik e'tibori maktab boshlang'ich sinflarda ta'lim va mehnat tarbiyasini rivojlantirishni zarurligi ko'rsatildi.

1954-yilda mehnat ta'limi boshlang'ich sinf o'quv rejasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vazifalaridan biri sifatida kiritilgan.

2018-yildan esa mehnat ta'limi texnologiya ta'limi bilan almashtirildi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta Osiyodan o'tgan qadimiy buyuk Ipak yo'li Xitoy, Hindiston shaharlari bilan bog'lanib, madaniyat va sanoatni rivojlantirishga hamda ilmga bo'lgan qiziqishga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat qilishiga munosabatini o'zgartirib raqobatga arzigulik o'z-o'ziga ko'rsatish orqali qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarishga va hunarmandchilikka va tikuvchilikka qiziqishlarini takomillashtiradi. Texnologiya ta'limi o'qituvchilar rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy, jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijalarga ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlariga ongli ravishda kasb fanlarga hamda jamiyat va shaxs farovonligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir.

Texnologiya ta'limining mazmuni esa shu natijalarga to'la bog'liqdir, ya'ni shu vazifalarga ko'ra belgilanadi. Masalan, ta'limni umumiy mehnat bilan birga ko'rishni ta'minlash zarurligi boshlang'ich sinfdagi o'qitish mazmuniga jumladan, mehnat ta'limi mazmuniga qator talablar qo'ydi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari imkoniyatiga qarab unumli mehnatni o'z ichiga olish kerak .

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining unumli mehnati ularning o'quv faoliyatlariga,



tarkibiga qoʻshilib ketishlari kerak.

3. Unumli mehnat mazmunida bolalarning yosh imkoniyatlari, mehnat taʼlimi vazifalari, ishlab chiqarish muhitni harakatini hisobga olishi kerak.

4. Maktab boshlangʻich sinflariga taʼlimning ishlab chiqarish malakasini berish bilan tugallanishi kerak.

Boshlangʻich sinfda oʻquvchilarning amaliy faoliyatlariga asosiy eʼtibor beriladi, bunda oʻquv vaqtining 80-85 % ajratiladi.

### Xulosa

Mamlakatimiz kelajagini qurishda eng katta berilayotgan eʼtibor maktablarimizning infratuzilmasi, taʼlimda sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilmoqda. Bunday masʼuliyatli vazifani amalga oshirishda boshlangʻich sinf oʻqituvchilarning ham oʻrni, roli benihoya katta. Shuning uchun bugungi kun oʻqituvchisi zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi vaayni damda ushbu texnologiyalarni amaliyotga tadbiq eta bilishi juda muhimdir. Oʻquvchilarning fikr doirasi, ongi dunyoqarashini oʻstirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, oʻz fikr-mulohazalarini toʻliq bayon eta oladigan, xalqaro tadqiqotlarda munosib oʻrinlarni egallay oladigan, erkin ishritirokchiga aylantirish, bugungi zamon talabining eng muhim masalalaridan biridir. Buning uchun esa ular ilm olmogʻi, tinmay oʻqishi, oʻz ustida ishlashi va eng asosiysi, yaqin doʻsti kitob boʻlmogʻi joizdir.

Boshlangʻich sinflarda badiiy asarlarni oʻqitish, tahlil qilish, kompozitsiyani yaxlit anglagan holda matnning asosiy maʼnosini yoritib berish, asarda ifodalangan qahramonlar, ularning hayot tarzi, voqea tasvirlangan joy nomlari ifodalab nazariy va ilmiy jihatdan toʻgʻri asoslanishi, oʻquvchida shu asarni yaxlit tushuna olishi, mulohaza yuritishi asarning mazmunini anglashiga yordam beradi. Hikoyani oʻqitishdagi nazariy asoslar shuningdek, bugungi kundagi hikoya va uni oʻqitishdagi yondashuvlar, olimlarning hikoyani oʻqitishdagi turli metodik izlanishlari bu bobda oʻz aksini topgan. Hikoyaning kelib chiqish tub asoslari, boshlangʻich taʼlim darsliklaridagi mazmunan boy ayrim hikoya yozgan adiblarimizning hikoyalaridan namunalar asoslanib keltirilgan. Umuman olganda, adabiy matn ustida ishlash, tahlil qilish va bu borada ilgari surilgan fikrlar, ularning nazariy asoslari darsliklardagi topishmoq, qissa, ertak, hikoya, sheʼr kabi nasriy va sheʼriy uslubda yozilgan asarlar, ularning boshlangʻich sinf darsliklaridagi qamrovi, farqli jihatlari, oʻqitish metodikasidagi umumiy fikrlar haqida soʻz yuritilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida soʻzlagan nutqi.
2. Milliy oʻquv dasturi "Texnologiya"
3. Z.D.Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Joʻrayev "Texnologiya fanini oʻqitish metodikasi" Buxoro-2020
4. Sanaqulov.H.R. N.Qambarov "Mehnat va uni oʻqitish metodikasi" maʼruza matni, Namangan, 2013
5. Amonov U. S. Oʻqish darslarida maqol janridan foydalanish usullari va ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US
6. O.R.Avezov. Ekstrennaya psixologicheskaya pomosh v ekstremalnih situatsiyax. Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 21), 34-37.
7. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qoʻllanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
8. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "linguistic classification of toponyms of bukhara district." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 2.09 (2021): 1-
9. Safarov F. S. et al. The effect of a tissue biostimulator on embryonic and post-embryonic development of lambs //Uchen. Zap-azerb. sel'.-khoz-Inst. Ser. zhivot. – 1970. – №. 2. – C. 38-41.
10. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – C. 3-5.



11. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174

12. Ergashovna S. G. Formation of concepts about length in primary school students, developing length measuring skills. – 2021.

13. Джурарева С. Н., Дустова Д. С. Способы воспитания личных качеств у студентов педагогической специальности //Academy. – 2019. – №. 6 (45). – С. 96-98

14. O'ktamovna X. N. O'zbek romanlarida tarixiy inversiyani berish usullari va vositalari //Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 430-433.

## INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

O'ktamova Mohinur, Nazarova Marjona

BuxDPI 2-kurs magistrantlari

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy pedagogika, ijtimoiylashuv, ijtimoiy moslashuv, individuallashuv

**Annotatsiya:** ushbu maqolada interfaol mashqlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishning bir qancha yo'llari ustida fikr-mulohazalar keltirilib o'tiladi.

Har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normalarga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning pedagogik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish – ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifasi ekanligi barchamizga ma'lum. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy elementlaridan biri bu – ijtimoiylashuv hodisasi hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan va juda murakkab jarayon. Bir tomondan har qanday jamiyat o'z rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola jamiyatda mavjud bo'lgan qonun-qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning to'laqonli a'zosi bo'lish imkoniga ega bo'ladi. Uning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq tarzda ta'sir ko'rsatadi, uni ta'lim va tarbiya doirasida amalgi oshiradi. Ikkinchi tomondan, uning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy moslashuv ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. SHunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning xali yoshligidayoq paydo bo'ladigan ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq jamiyatdagi o'z-o'zini egallashdir. Bu ehtiyoj:

a) o'z qarashlariga ega bo'lish;

b) o'ziga xosliklariga ega bo'lish;

v) unga tegishli bo'lgan masalalarni hal qilish, uning o'z darajasini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi bir qancha interfaol usullarni ko'rib chiqsak.

Eng keng tarqalgan va ancha samarali usul bu – kichik guruhlarga bo'lib ishlash usulidir. Kichik guruhlarga bo'linadi va ularga reja asosida guruhlarga bo'lib beriladi hamda T-jadval asosida yoritib berish topshirig'i beriladi.

1-guruh

Rahmdillik va xayr-sahovat faoliyati haqida	
<b>ijobiy</b>	<b>salbiy</b>

2-guruh

O'zbekistonda xayr-sahovatning qaysi xususiyatlarini guvohi bo'lgansiz	
--	--

3-guruh

Rahmdilillik haqida	
<b>kamchiligi</b>	<b>yutuqlari</b>

Ushbu metod bolada ijtimoiy munosabatning ijobiy va salbiy taraflarini, yutuq va kamchiliklarini ajratishda qo'l keladi. (4-sinflar uchun)

**FSMU: «Bo'lajak kasbingiz haqida o'ylab ko'rdingizmi?  
Nega aynan shu kasbni tanladingiz?»**

<b>FIKR</b> ingizni bayon eting:	
Fikringizning bayoniga <b>SABAB</b> ko'rsating:	
Fikringiz isbotlashga <b>MISOL</b> keltiring:	
<b>Fikringizni umumlashtiring</b>	

Ushbu metod bolaning fikrlash qobiliyatini charxlaydi, uni o'ylashga undaydi. Bola kelajakda o'zini qaysi kasb egasi sifatida tasavvur qiladi. Bu kasbni egallash uchun nimalar qilishi kerakligi haqida fikr-mulohaza yuritadi.

**«CHARXPALAK» METODI**

**Metodning maqsadi:** ta'lim oluvchilarda muayyan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan axborotlarni analiz-sintez qilish, baholash va mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

1-bosqich. O'quvchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi va ularga aniq mavzu bo'yicha tayyorlangan tarqatma materiallar tarqatiladi;

2-bosqich. Berilgan harakat xususiyatlari ichidan o'zlari to'g'ri deb topgan harakatni ko'rsatilgan kataklar ichiga maxsus belgilar (+, -, X, Y) bilan belgilash tushuntiriladi;

3-bosqich. Har bir guruh a'zosi individual tarzda ko'rsatilgan kataklarga o'z javoblarni belgilaydi va o'qituvchi navbatdagi bosqichda guruhlarning javoblar varaqasini soat strelkasi tartibida almashtiradi;

4-bosqich. Bu harakat to'rt har bir guruhning dastlabki ishi o'ziga qaytib kelguniga qadar takrorlanadi. Tarqatma materiallar o'z egalariga yetib kelganidan so'ng o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qib eshittiradi.

5-bosqich. O'quvchilar to'g'ri javoblarni dastlabki belgilari bo'yicha tekshirib, har bir to'g'ri javobni «1» ball bilan baholaydilar.

6-bosqich. Metod yakunida o'qituvchi baholash mezonini o'qib eshittiradi va har bir talaba o'z-o'zini baholaydi. (Masalan, harakatlar 20 ta bo'lsa, bunda: 18-20 to'g'ri javob uchun «a'lo», 15-17 ta to'g'ri javob uchun «yaxshi», 12-14 ta to'g'ri javob uchun «qoniqarli» baho beriladi.)

Yuqorida keltirib o'tilgan metodlar bolaning tafakkurini rivojlantiradi, o'zini jamiyatda lerakli shaxs sifatida rivojlantirish uchun asos bo'la oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. "Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari." Conferences. 2021.
2. Bakhtiyorovna, Nodira Adizova. "Place Names and Related Concepts Study." European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 14 (2022): 153-157.
3. Bakhtiyorovna, Nigora Adizova, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "Anvar obidjon is a children's poet." Middle European Scientific Bulletin.
4. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Boymuradova Sadoqat. "Use Foreign Experience to Improve the Reading Literacy of Primary School Students." Spanish Journal of Innovation and Integrity 5 (2022): 306-309.
5. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.11 (2021): 330-335.
6. Адизова, Нодира. "Mikrotoponimlar tasnifi (Buxoro viloyati misolida)." Общество и инновации 3.3/5 (2022): 128-132.

7. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lyubat Ilhomovna. "Таълим Муассасаларида Таълим-Тарбия Жараёнларида Интерфаол Методлардан Фойдаланишнинг Ҳозирги Кундаги Ҳолати." Spanish Journal of Innovation and Integrity 5 (2022): 330-333.
8. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH." E Conference Zone. 2023.
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." PEDAGOGS jurnali 1.1 (2022): 52-53.
10. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI 2.10 (2022): 296-298.
11. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI 2.1 (2022): 513-516.
12. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).
13. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).
14. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." Scientific progress 2.7 (2021): 1003-1009.
15. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 41-43.
16. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'ich sinf ona tili va o'qish Savodxonligi darslari samaradorligini ta'minlovchi integratsion yondashuv metodikasi." Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. 2023.

## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Iskandarova Muhlixa Hamroyevna**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti, 4-kurs talabasi*

**Ilmiy rahbar: Masharipova Umida Abduvoxidovna**

*PhD, BTOO'M kafedrasida dotsenti, TDPU*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ayni vaqtda qo'llanilayotgan didaktik vositalarning umumiy tavsifi berilgan bo'lib, yangi darslik va uning tarkibiy qismlari yuzasidan ham fikr mulohazalar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** og'zaki usul, didaktik vosita, ko'rgazmali qurollar, mantiqiy va nazariy elementlar

**Аннотация.** В данной статье дается общее описание дидактических средств, используемых на занятиях по родному языку и грамоте чтения, а также комментарии к новому учебнику и его компонентам.

**Ключевые слова:** устный метод, дидактический инструмент, наглядные пособия, логические и теоретические элементы.

**Abstract.** This article provides a general description of the didactic tools used in classes on the native language and reading literacy, as well as comments on the new textbook and its components.

**Key words:** oral method, didactic tool, visual aids, logical and theoretical elements.

Boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi darslari o'z mohiyati, maqsad va

vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki, ushbu yangi darsliklarning zamirida fan yuzasidan savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini ona tili va o'qish savodxonligi ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yuzlashadi. Ona tili va o'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan ona tili va o'qish ta'limi insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda davr talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan 1-2-3-sinflar uchun „Ona tili va o'qish savodxonligi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy ommabop asarlar kiritiladi.

O'quv jarayonida olib boriladigan darslarda biz faqat og'zaki usul, tushuntirish bilan kifoyalanmasdan, barcha turdagi o'quv axborotlaridan foydalanamiz. Bular sonli va yozma, ovozli va tasviriy, hajmiy va harakatli, elektron va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, biz har bir didaktik vositaning imkoniyatlarini bilib olsak, ularning har biridan bu vazifani qanday amalga oshirishda foydalanish samaraliroq ekanini bilib olamiz. Buning uchun biz, avvalo, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hozirda qo'llanayotgan didaktik vositalarning tasnifi (klassifikatsiyasi) bilan tanishib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim jarayonida turli ko'rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilamiz. Xo'sh, o'quv materialini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodining ahamiyati qanday? Ko'rgazmalilikning qanday turlari mavjud? degan savollarga javob topishga harakat qilaylik. Ko'rgazmali usulning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Ta'limda ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyutsratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi. Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning xarakteriga - mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu xarakter ikki turlidir:

1. Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h. k.

2. Tasviriy ko'rgazmali materiallar: a) buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafilm va h. k. ; b) buyum, narsa, voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va shematik tasviriy materiallar geografiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va h. k.

Ona tili va o'qish savodxonligi darsining didaktik ta'minotini ta'minlovchi ta'limiy manbalar "Axborot banki" deb yuritiladi.

**Ona tili va o'qish savodxonligi darsining didaktik ta'minotini ta'minlovchi materiallar:** ko'rgazma, test, topshiriqli kartochka yoki tarqatma materiallari, o'quv adabiyotlari va namunaviy materiallar, slaydlar, rasmlar, audio, video va proektsion materiallar, televideo materiallari, elektron materiallar, animatsiyalar, multimedialar va h.(Qarang: jadval)

## Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan didaktik materiallar



**Ona tili va o'qish savodxonligi darsining didaktik ta'minotini ta'minlovchi vositalar:** doska (oddiy doska, magnitli doska, ko'chma doska, elektron doska, smart doska), bo'r, qog'oz, ruchka, qalam, chizg'ich, turli markerlar, magnitafon, lingafon, televizor, kadaskop, videoproektor, kompyuter, monitor va boshqalar.

Biz hali ona tili va o'qish savodxonligi darslarning didaktik ta'minotiga to'la erisha olmayapmiz. O'quvchilar ona tili va o'qish savodxonligi mashg'ulotlarida axborotmanbalaridan keng va samarali foydalanishlari uchun moddiy zamin yaratish, shu yo'l bilan ommaviy tafakkurni o'stirish davlat diqqat markazida bo'lmog'i va qat'iy nazorat qilinishi shart.

Ta'lim vositalari deganda ta'lim jarayonida ishlatiladigan, foydalanadigan barcha vositalar – birinchi navbatda darslik, metodik tavsiyalar-u ishlanmalar, ko'rgazma va tarqatma materiallar, texnik asbob-uskunalar majmuyi tushuniladi. Ushbu didaktik ta'lim vositalaridan dars davomida to'g'ri foydalanilsa, o'quvchilarning mavzularni chuqur o'zlashtirishlariga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
2. Masharipova, U. (2019). FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS PRIMARY SCHOOL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).
3. Masharipova, U. A. (2021). The Formation of Innovative Culture of Future Teachers of Primary School in the Process of Professional Development. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(2), 33-35.
4. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745.
5. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).
6. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 55- 58.

# BOSHLANG'ICH SINFDA BADIY MATN ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH YO'LLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Turdiboyeva Shohsanam*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti, 3-kurs talabasi*

**Ilmiy rahbar: Bakiyeva Xilola Sapayevna**

*PhD, BTOO'M kafedrası dotsenti, TDFU*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish uchun badiiy matndan keng foydalanish va uning ustida ishlashda samarali ish turlari va metodlarni qo'llash haqida so'z yuritilib, namunalar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** nutq o'stirish, ko'nikma, metodika, badiiy matn, hikoya janri, ona tili va o'qish savodxonligi, PIRLS topshiriqlari, charxpalak metodi, pinboard metodi.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о широком использовании художественного текста для развития речи учащихся начальной школы и применении эффективных видов работы и методов в работе над ним, приводятся примеры.

**Ключевые слова:** развитие речи, умения, методика, художественный текст, жанр рассказа, родной язык и грамотность чтения, задания PIRLS, метод charxpalak, метод доски.

**Abstract:** This article talks about the wide use of artistic text for the development of speech of elementary school students and the application of effective types of work and methods in working on it, examples are given.

**Key words:** speech development, skills, methodology, artistic text, story genre, mother tongue and reading literacy, PIRLS tasks, charxpalak method, pinboard method.

Barchamizga ma'lumki, maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish ona tili ta'limining asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Chunki, o'quvchilar nutqini o'stirish – ular uchun ijtimoiy hayotda doimo zarur bo'lgan eshitish, anglash, gapirish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, demakdir [ Matchonov, 2021: 638]. Biroq, umumiy olib qaraganda, amalda o'quvchilar ushbu ko'nikmalarni to'laligicha egallay olmayotganliklariga guvoh bo'lamiz. Buning oldini olish uchun esa o'qituvchilarga badiiy matn orqali yondashish tavsiya etiladi.

Metodikada, "Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash". Darslikda berilgan badiiy asarlar asosida har uchala yo'nalishga doir bo'lgan mashq turlari orqali o'quvchilar nutqini rivojlantirishga erishish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'tiladigan badiiy asarlar ichida hikoya janri nutq o'stirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi, "hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, u jo'shqin, jonli hamda ta'sirchan bo'ladi" [ Matchonov, 2021: 638]. Hikoyada qahramonlar xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, qizg'in voqea-hodisalar yuz beradi. Bu esa o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi, fikrlashga undaydi. Bundan tashqari, asar qahramonlarini, voqealar rivojini tasvirlash, qayta hikoya qilish, hikoyaning har bir elementi ustida turli xil mashqlar bajarish va uning asosiy mazmunini ochish kabilar o'quvchilar nutqiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bu kabi ish turlarini o'qituvchi belgilaydi. Shuningdek, ularga eng samarali va zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan ish turlarini tanlash tavsiya etiladi.

Quyida boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan hikoyalar misolida o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratilgan ish turlaridan namunalar keltiramiz.

**Hikoya o'rganish darsida " Charxpalak " va " Pinboard " metodini izchillikda qo'llash.**

3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida [ Mavlonova, 2022: 24,25] berilgan " Uch hikmat " hikoyasini o'rgatishda ushbu metodlardan foydalanish mumkin.

**I. " Charxpalak " metodi.**

1) Tayyorgarlik ishlari. Dastlab, sinfxonadagi partalar kichik guruhlarga moslashtiriladi, har 4ta parta to'rtburchak shakli hosil qilinib, uning har bir ichki va tashqi tomoniga 1tadan stul qo'yiladi, natijada stullar soni 8ta bo'ladi. Xuddi shu tartibda sinfning



o'quvchilar soniga qarab yana 2ta yoki 3ta shu shakl yasaladi.

2) Hikoya o'qituvchi tomonidan ifodali tarzda o'qib beriladi. Izohtalab so'zlar ustida ishlanadi.

3) So'ng o'quvchilarga varaqlar tarqatilib, unga hikoya asosida 3ta savol tuzish topshirig'i beriladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhda 8ta o'quvchi bo'lishi lozim. Har bir o'quvchi to'rtburchak shaklidagi stullarga o'tirishadi. Stollarning tashqi tomonidagi 4ta o'quvchi "ekspert" bo'lib, o'z tuzgan savollarini stollarning ichki tomonida qarshisida o'tirgan o'quvchiga beradi, u o'quvchi esa javob beradi, ekspertlar esa baho qo'yishadi. Javob bergan o'quvchilar charxpalak aylanmasi yo'nalishida har bir ekspertning savollariga javob berib, o'z joyiga aylanib qaytib keladi. So'ng, ekspert va o'quvchilar o'rin almashishadi. Endi 4ta o'quvchi "ekspert" vazifasini, avval ekspert bo'lganlar esa o'quvchi vazifasida bo'ladi. Yana ekspertlar o'z tuzgan savollarini o'quvchilarga berib, ularni baholaydi.

4) Har bir guruhda ushbu jarayon tugagach, o'quvchilar o'zlari tuzgan savollarni va to'g'ri javob bergach o'quvchilarni aytishadi, qo'ygan bahosini qisqacha izohlaydi. O'qituvchi o'quvchilarning tuzgan savol va javoblarini umumlashtirib, hikoya mazmunini ochishga, xulosani keltirib chiqarishga undovchi savollar berishi lozim. O'quvchilar hikoyadan olgan xulosasini gap yoki maqollar orqali ifodalaydi.

## **II. "Pinboard" metodi.**

Barcha guruhga hikoyadagi har bir xatboshiga sarlavha tuzib, varaqlarga yozib, ularni bir-biriga skoch yoki kley yordamiga zanjirdek ulab, xattaxtaga ilish topshirig'i beriladi. O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, har bir guruhdan vakil chiqadi, yozgan sarlavhasi asosida qayta hikoya qilish topshirig'i beriladi. O'quvchilar qayta hikoyalab berishadi. So'ng, sarlahvalardan eng yaxshisi saralanib, reja tuziladi. Uyg'a vazifa sifatida reja asosida bayon yozish topshirig'i beriladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ushbu hikoya asosida "gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak, so'roq, buyruq va his-hayajon gaplar" ni misollar yordamida tushuntirib, hikoyadan darak, so'roq va buyruq gaplarni topish va izohlash kabi ish turlarini bajartirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, badiiy matn orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashga, fikrini aniq, ravon, mantiqiy, tushunarli, til vositalari foydalangan va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda yetkazib berish ko'nikmalari egallashlariga, umuman olib qaraganda nutqini o'stirishga erishiladi. O'quvchilar nutqi o'sishi uchun o'qituvchidan ehtiyoj yaratish talab etiladi, aynan shu ehtiyojni yaratishda esa o'qituvchiga badiiy matnlar katta yordam beradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Safo Matchonov, X.Bakiyeva, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, G. Xolboyeva. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" darslik. T.: "Ishonchli hamkor", 2021. 740 b. 633 b. 638 b. 683 b.
2. K. Mavlonova [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 3-sinf uchun / Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b. 24-25 b.
3. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
4. Masharipova, U. (2019). FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS PRIMARY SCHOOL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).
5. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745.
6. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).
7. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 55- 58.

## БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ИЖТИМОЙЛАШУВИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Пардаев Бекмурат

Низомий номидаги ТДПУ

**АННОТАЦИЯ.** Мазкур мақолада бошланғич синф ўқувчилари ижтимоийлашувини ривожлантириш имкониятлари хусусида фикр юритилган. Хусусан ўқувчи ижтимоийлашувидеги мавжуд муаммолар ҳамда уларни бартараф этиш масалалари ёритилган.

**Калит сўзлар:** ижтимоийлашув, педагогик имконият, мотивация, муҳит, ҳамкорлик, ижтимоийлашув агенти.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье рассматриваются возможности в развитии социализации младших школьников. В частности, выделены существующие проблемы в социализации школьника и их устранение.

**Ключевые слова:** социализация, педагогическая возможность, мотивация, среда, сотрудничество, агент социализации.

**ANNOTATION.** This article discusses the possibilities of the family in the development of socialization of younger students. In particular, the existing problems of the family in the socialization of the student and their elimination are highlighted.

**Key words:** socialization, pedagogical opportunity, motivation, environment, cooperation, socialization agent.

Жаҳонда бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларнинг ҳар томонлама уйғун ривожланиши, ижтимоийлашуви учун қулай шарт-шароитлар яратиш, педагог ва оналарнинг фарзанд таълим-тарбиясидаги мажбуриятларини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ижтимоийлашув-мураккаб ижтимоий жараён. Бошланғич синф ўқувчисида педагогик ҳимояга доимий эҳтиёж бўлади. Педагогик ҳимоя-бу ўқувчининг қизиқиш, мақсад, имкониятларини юзага чиқариш, ўрганиш, ўз қадрини сақлашга тўсқинлик қиладиган муаммоларни енгиш, мулоқот ва турмуш тарзида ижобий натижаларга эришиш йўллари биргаликда белгилаш, билиш фаолияти, ўзини ўзи англаши, мулоқоти учун зарур таълим-тарбия муҳити, шароити-имкониятини яратиш. Тадқиқотда “педагогик имконият” ва “педагогик қўллаб-қувватлаш” тушунча бирикмаларига синоним тушунчалар сифатида қараш мақсадга мувофиқ.

Л.Н.Толстойнинг эътирофича, педагогик имкониятда ўқувчи ўқитувчи босимсиз турли соҳаларда ўзини тўлиқ намоён этадиган фаолиятини амалга оширади, асосли ва ишончли ички қўллаб-қувватлашни ҳис қилиб катта бўлган ўқувчилар ҳаёт синовларидан осон ўтадилар ва қийинчиликларга қарши тура оладилар. Бундай ўқувчилар мураккаб вазиятлардан тап тортмайдилар, аксинча ижтимоий муаммолар шароитида мувозанатни сақлаш уларнинг одатий ҳаёт услубига айланади[3.139]. Шунинг учун бошланғич синф ўқувчисини тўғридан-тўғри ва жонли ўзаро муносабатларга бой бўлган энг афзал ижтимоийлашув маскани ҳисобланадиган мактабга бўлган қизиқишини шакллантиришўта долзарб вазифа.

Р.А.Мвялянованинг ёзишича, педагогик имконият бу - ўқувчининг соғлиғи, билим олиш, мулоқот қилиш ва ҳаётини ўзи белгилаши билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишда профилактик ва тезкор ёрдам кўрсатиш. Тўғри ва самимий педагогик ёрдам шароитида бошланғич синф ўқувчисини ўзини қулай ҳис қилиш билан бирга фаол ва ижобий томондан кўрсатишни бошлайди. [1;16].

Бошланғич синф ўқувчиларида ижтимоий компетенциясининг етишмаслиги, тенгдошлари билан муносабатларда ночорлиги, коммуникатив компетенциянинг паст даражаси кузатилади. Бу мактаб таълимининг ҳар бир босқичида таълим жараёнини индивидуаллаштиришнинг ўзига хос усуллари излаш зарурлигини англади. Менежмент назарияси соҳасидаги жаҳоннинг энг кўзга кўринган мутахассисларидан бири П.Друкер 2020-йилда ўтказган тадқиқотда респондентларнинг атиги 36%и мактаб одамларни тушуниш, улар билан мулоқот қилишни, 26%и танқидий фикрлаш, асослаш, исботлашни, 21%и мустақил ишлашни, 22%и ўзлигини англаш, ижобий ва салбий фазилатларингизни тушунишни, 16%и касблар оламида саёҳат қилиш, ўз, касбини танлашга ёрдам берганлигини таъкидлашган[44]. Бугунги кунда биз нафақат ўқувчининг таълим фаолияти шароитларига мослашиши, балки мактабнинг ўқув фаолияти шароитларини ўқувчиларнинг қобилиятлари ва эҳтиёжларига

мослаштиришимиз, уларнинг ижтимоий тажрибаларини бойитишга қаратишимиз керакка ўхшайди.

Бошланғич синф ўқувчилари ижтимоийлашувининг юқорида белгиланган вазифалари, шунингдек Н.Эгамбердиева томонидан таклиф қилинган мактаб ўқувчиси модели тавсифларига таянган ҳолда биз [5;133] ижтимоийлашган ҳозирги замон бошланғич синф ўқувчиси портретини ишлаб чиқдик. Ушбу портрет қуйидаги интеграллашган шахс характеристикаларини ўзида мужассам қилади.

Когнитив қизиқувчанлик; кузатувчанлик; эътиборлилик; таҳлил ва таркибга мойиллик; шубҳа; топшириқларни муваффақиятли бажаришдан завқ ола билиш, аксарият ҳоллардан ташвишлана билиш, ўзлаштирилаётган, эгалланаётган билимларни маънавий ва моддий шаклларда мужассамлаштириш қобилиятига эгалик, ўз фаолиятини улар асосига қура билиш.

Креатив: илҳомлана билиш; ижодий вазиятларда эмоционал кўтаринкилик; тасаввур; фантазия; ҳаёл сура олиш, орзу қилиш; ҳамдардлик қобилияти; ижодий қобилият-қонун ижодкорлиги, рамзлар ижодкорлиги; ташаббускорлик, ихтирочилик, тажриба.

Маънавий-ахлоқий: жамоавийлик-жамоа ютуғидан қувона билиш, масъулиятли бўлиш, ордда қолаётганларга ёрдамга интилиш, умумий ишга нисбатан дахлдорлик ҳиссини туйиш; ўртоқлик, дўстлик, бурч ҳисси, ҳалоллик, масъулиятлилик, ҳозиржавоблик; адолатлилик; тартиблилик, хушмуомалалик, очиқлик, ҳайрихоҳлик, виждонлилик.

Эстетик: гўзалликни ҳис қилиш, яхши ва ёмон, қулғули ва қайғули, сохта ва ҳақиқий, жасорат ва нафосатни бир-биридан ажрата билиш.

Эмоционал-иродавий: мўлжални ола билиш, йиғинчоқлик, сабрлилик, қайсарлик, тиришқоқлик, чидам, талабчанлик, мустақиллик, ўз кучига бўлган ишонч, босиқлик, мақсадга интилувчанлик, қатъиятлилик, интизомлилик, жасурлик, шахсий манфаатлари билан умум манфаатларини уйғунлаштира олиш кўникмаси, ўз-ўзини назорат қилиш ва баҳолаш.

Коммуникатив: бошқа инсонлар, теварак-атроф билан ҳамкорлик, ҳамдиҳатликда яшаш кўникмалари, ўз ғояларини ҳимоя қила олиш, бошқаларга узата олиш қобилияти; катталарнинг ёрдамсиз кўнгилсиз воқеликларнинг сабабларини англаб етиш ва билиш қобилияти, мулоқотга мойиллик, киришимлилик, ҳамкорликка тайёрлик, ўзаро муносабатларни давом эттиришни ривожлантира билиш, толерантлик.

Амалий: эркин ҳаракатлана олиш қобилияти, ҳаракатли ўйинлар вამусобақаларга мойиллик, вазифаларни тез ва сифатли, биринчи бўлиб бажаришга тайёрлик, ишчанлик қобилиятига эгалик.

Кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар ижтимоийлашуви педагогик имкониятларини ривожлантиришнинг асосий вазифаси ўқувчининг шахс сифатида шаклланишига ёрдам бериш, унинг ўзига хослигини тан олиш, мавжуд ва потенциал имкониятларини очиб бериш ва қўллаб-қувватлаш, уларни имкон қадар амалга ошириш учун шароит яратишдир, деб таъкидлайди Б. Пардаев[2.73]. Бундай тадбирни ҳар бир болага нисбатан индивидуал амалга ошириш ижтимоийлаштириш агентларининг бирламчи вазифасига айланиши керак.

#### Такмиллаштирилган ижтимоий фаол ўқувчи шахси модели

Мезонлар	Кўникмалар
Когнитив	Билиш ва билишга қизиқиш.Кузатувчан, шубҳа, таҳлил ва таркибга мойил, билишдан завқланади, эгаллаган билимларини турли шаклларда мужассамлаштириш қобилиятига эга, ўз фаолиятини улар асосига қура билиш.
Креатив	Илҳомлана билиш, эмоционал кўтаринкилик, тасаввур, ҳаёлот, ижодий қобилият, ташаббускорлик, ихтирочилик, тажрибага мойиллик.
Маонавий-ахлоқий	Ютуқлардан қувониш, ёрдамга интилиш, жамоа ишига дахлдорлик, бурч

	хисси, ҳалоллик, адолат, тартиб, хушмуомалалик, очиқлик, ҳайрихоҳлик, виждонлилик.
<b>Эстетик</b>	Гўзалликни ҳис қилиш, яхши-ёмон, сохта-ҳақиқий, жасорат ва нафосатни ажрата билиш.
<b>Ҳиссий-иродавий</b>	Замон ва маконда мўлжални ола билиш, тиришқоқлик, мустақиллик, ўзига ишонч, босиқлик, қатиятлилик, жасурлик, шахсий ва умум манфаатларини уйғунлаштира олиш, ўз-ўзини назорат ва баҳолаш.
<b>Коммуникатив</b>	Ҳамкорлик, ўз ғояларини ҳимоя қила олиш, воқеалар сабабини англаш, мулоқотга мойиллик, ҳамкорликка тайёрлик, толерантлик.
<b>Амалий</b>	Ўзини эркин тутиш, ҳаракатли ўйин ва мусобақаларга мойиллик, вазифаларни тез ва сифатли бажаришга тайёрлик, ишчанлик.

Кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар ижтимоийлашуви педагогик имкониятларини ривожлантиришнинг асосий вазифаси ўқувчининг шахс сифатида шаклланишига ёрдам бериш, унинг ўзига хослигини тан олиш, мавжуд ва потенциал имкониятларини очиқ бериш ва қўллаб-қувватлаш, уларни имкон қадар амалга ошириш учун шароит яратишдир. Бундай тадбирни ҳар бир болага нисбатан индивидуал амалга ошириш ижтимоийлаштириш агентларининг бирламчи вазифасига айланиши керак.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мавлонова Р. ва б, Бошланғич таълимда педагогика, инновация, интеграция. Ўқув қўлланма, – Т.: Ф.Фуллом, 2013, 16- бет
2. Пардаев, Б. У. (2020). Компоненты и факторы социализации школьников. *Вестник науки и образования*, (9-3 (87)), 73-76.
3. Aytbayev D.T. Relationship of Discourse and Text. India . International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). Volume 6 Issue 1, November-December 2021 pp.139,
4. Эгамбердиева Н. М. Ижтимоий педагогика. – Т.: А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009-213, 133-б,
5. Пардаев Б.Ў. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ИЖТИМОЙЛАШУВИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ТИЗИМИ: Пардаев Бекмурат Ўтапулатович, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, бошланғич таълимда она тили ва уни ўқитиш методикаси кафедраси катта ўқитувчиси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (3), 147-153.

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARNING KASBIY NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**A.A.Xalikov**

*ped.f.d., prof*

**M.S. Ibragimova**

*TDPU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirish juda dolzarb mavzu hisoblanadi. Respublika universitetlarida tahsil olayotgan talabalar orasida nutq madaniyatining shakllanishi o'zbek tilini yetarli darajada bilmasligi bilan murakkablashishi mumkin. Shunday qilib, har bir fan o'qituvchisi ushbu jarayonga o'z hissasini qo'shishi va butun professor – o'qituvchilar tarkibi bilan kelishilgan holda harakat qilishi kerak. Amalda, bu har doim ham sodir bo'lmaydi. Muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun talabalar o'quv dasturining har bir fanini o'rganish jarayonida barcha darslarda turli xil shakllar va ish usullari yordamida nutq madaniyatini rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

**Kalit so'zlar:** nutq, til normalari, talabalar, kommunikativ va nutq kompetentsiyasi, o'zbek adabiy tili, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Umumtalim maktablarida o'quv jarayoniga yangiliklarni kiritish o'qituvchining ularni amalga oshiradigan nazariy, amaliy va shaxsiy tayyorgarligi talab qilinadi. Bundan tashqari, bunga nafaqat ishlayotgan o'qituvchilar, balki bugungi kunda talabalar – kelajakdagi

o'qituvchilarni ham tayyorlash kerak. Ta'lim tizimining samarali va barqaror ishlashini hal qiluvchi bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va shaxsiyatining rivojlanish darajasiga, uning pedagogik aloqa sohasidagi axloqiy afzalliklari va yo'nalishiga, o'qitish usullarini tanlashga bog'liq. Shu munosabat bilan pedagogika universitetining birinchi vazifalaridan biri talabalar – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'rtasida kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirishdir.

Pedagogik universitetlar talabalarida kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirishning maqbul usullari va yo'nalishlarini izlash olimlar, hamda amaliyotda tadbir etayotgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari – talabalar o'rtasida kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi.

Amaliyot jarayonlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, universitet o'qituvchilarida tegishli o'quv materiallari yetarli emasligi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida nutq madaniyatini rivojlantirish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Shu sababli, bugungi kunda pedagogik muloqotning kasbiy madaniyatini shakllantirish va uni talabalar – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida rivojlantirish muammosi har qachongidan ham dolzarbdir.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy va pedagogik tayyorlash muammosi uzoq tarixga ega. Shuningdek, Navoiy so'z gavharini, uning qadr-qimmatini va go'zalligini, inson ruhida jon kabi muhimligini ta'kidlaydi. Ulug' Navoiyning "Ey so'z, ne balo ajib guharsen, Gavhar neki, bahri mavjvarsen, Derlar seni, dur, savob emas, bu, Sen javharu ruhu dur quruq suv" kabi so'z sha'niga aytgan gaplarini, "Muhokamatul-lug'atayn" asarida tilimiz boyligini namoyish etganini, "Majolis un-nafois" asarida so'zdan unumli foydalanish mahorati haqidagi fikrlarini keltirib o'tganlar.[3] V. A. Suxomlinskiy har bir o'qituvchi, qaysi fan o'qitilishidan qat'i nazar, og'zaki so'z bo'lishi kerakligini ta'kidladi va shu bilan birga "o'qituvchining eng muhim pedagogik vositasi nutqdir, uni hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi" o'z fikrini keltirgan [4].

Alohida tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy fazilatlarini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan talabalarining nutq madaniyatini rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.

Talabalarining pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish to'g'ridan – to'g'ri munosabatlar uslubiga bog'liq: "o'qituvchi – talaba", "talaba – talaba", "akademik guruh-talaba", shuningdek, tanlangan kasb sohasidagi amaliy munosabatlarning pedagogik namunasi va dastlabki tajribasidir. O'qituvchining shaxsiyati yaxlit ta'limdir va pedagogik aloqani amalga oshiradigan sub'ekt sifatida o'ziga xoslik xarakterning shaxsiy fazilatlarida, kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari tufayli pedagogik qobiliyatlarda namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, universitetlarning pedagogik yo'nalishlari imtihon natijalariga ko'ra qabul qilinadi va og'zaki kirish imtihoni mavjud emas, kontingent orasida nutq madaniyatiga yuqori darajaga ega bo'lgan talabalar hozirgi kunda kam uchraydi. Universitet bunday kontingent darajasini oshirishi va bo'lajak o'qituvchilarni nutq madaniyatini yanada rivojlantirishi lozim.

Talabalarining nutq tayyorgarligi, nutq qobiliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Shuningdek, pedagogika universiteti bitiruvchilari muloqotning nutq madaniyatiga yetarlicha ega emasligi va har bir yosh bosqichini hisobga olgan holda talabaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta'minlash yetarlicha amalga oshirilmaganligi, nutqni rivojlantirishda oldingi va keyingi davrlarning xususiyatlarini hisobga olishga tayyor emasligi ma'lum (maktabgacha ta'lim – boshlang'ich maktab – umumiy ta'lim – kasbiy ta'limni tashkil etish).

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni hisobga olgan holda, biz kelajakdagi o'qituvchilarning o'quv jarayonida talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirishda ta'minlanishi mumkinligiga ishonamiz. Bunday holda, talabaning o'zi o'z nutqini tahlil qilishi va baholashi kerak; o'z tajribasini tushunish uchun o'quv jarayonida ishtirok etadigan boshqa sub'yektlarning tajribasini tahlil qilish va uni o'zi bilan taqqoslashi lozim. Shundagina bo'lajak o'qituvchi nutq madaniyati sohasida o'z-o'zini tarbiyalashga qaror qiladi, talabalar nutqini rivojlantirish ta'minlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilar nutqini rivojlantirish metodologiyasining eng muhim tarkibiy

qismi sinflar tarkibiga o'zaro munosabatlarning dialog shakllarini muntazam ravishda kiritishdir. Bu nafaqat nutqni, balki kognitiv ko'nikmalarni ham rag'batlantirishga imkon beradi. Muloqot nafaqat o'qituvchining barcha talabalar bilan o'zaro munosabatini, balki talabalarning bir-biri bilan muhokamasini ham o'z ichiga oladi. Kelajakdagi o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirishda, bizning fikrimizcha, maktab sharoitlariga yaqin faoliyatmuhim rol o'ynaydi. Universitet ta'limi tizimida bunday faoliyat birinchi navbatda pedagogik amaliyotdir. Amaliyot jarayonida talabalar o'rtasidagi doimiy aloqa ularning pedagogik faoliyatga bo'lgan munosabatini belgilaydi, olingan bilim va ko'nikmalar va pedagogik muloqot madaniyatiga ijtimoiy ahamiyat beradi. Pedagogik muloqot madaniyati-bu o'qituvchi shaxsiyatining kasbiy ahamiyatga ega sifati, bu yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish jamiyati tomonidan o'qituvchi oldida qo'yilgan muammolarni maqbul va to'g'ri hal qilishga qaratilgan pedagogik munosabatni amalga oshirishning evristik, shaxsiy shakli. Bizning fikrimizcha, talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun barcha turdagi amaliyotlarning imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish zarur.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun ularni tayyorlash jarayonida muloqot madaniyatini shakllantirishda kontekstli ta'limdan foydalanish tavsiya etiladi, A. L. Verbitskiy nazariyasi asarlarida va kasbiy ta'limga nisbatan faoliyat yondashuvini amalga oshirishning yorqin namunasini keltirilgan. [5] Kontekstli o'qitish bilan o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy shakllari va usullaridan foydalanish ta'limning rivojlanayotgan, muammoli, tadqiqot va qidirish turlariga o'tish amalga oshiriladi. Shu bilan birga, universitet fanlarni o'qitish jarayonida faol o'quv muhiti yaratiladi, bu kognitiv motivlarning rivojlanishini, kelajakdagi kasbiy faoliyatga qiziqishni ta'minlaydi, natijada kelajakdagi o'qituvchining og'zaki aloqasirivojlanadi.

Bo'lajak o'qituvchining muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun kontekstli yondashuvni ma'ruzalar, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida o'tqazish lozim. Ushbu vazifalar til, kommunikativ, kasbiy, ritorik, axloqiy me'yorlarni shakllantirishni ta'minlaydi va nutq xatolarini aniqlashga qaratiladi. Bunday darslardan foydalanish kelajakdagi o'qituvchi shaxsining zarur mavzu va kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchi o'z fikrlarini izchil va barkamol ifoda eta olishi, yuqori kasbiy nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak, bu talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishda muvaffaqiyat shartlaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. –T.: O'qituvchi. 1995. 80 b.
3. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. –T.: "Yangi nashr" — 2008
4. Verbickij A.A. Pedagogicheskie tehnologii kontekstnogo obucheniya. Moskva, 2010.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISHDA MUSTAQIL ISHLARNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Qarshiboyev Davron**

*Nizomiy nomidagi TDPU,*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti, 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darolarida ayni vaqtda qo'llanilayotgan didaktik vositalarning umumiy tavsifi berilgan bo'lib, yangi darslik va uning tarkibiy qismlari yuzasidan ham fikr mulohazalar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** og'zaki usul, didaktik vosita, ko'rgazmali qurollar, mantiqiy va nazariy elementlar

**Аннотация.** В данной статье дается общее описание дидактических средств, используемых на занятиях по родному языку и грамоте чтения, а также комментарии к новому учебнику и его компонентам.

**Ключевые слова:** устный метод, дидактический инструмент, наглядные пособия, логические и теоретические элементы.

**Abstract.** This article provides a general description of the didactic tools used in classes on the native



language and reading literacy, as well as comments on the new textbook and its components.

**Key words:** oral method, didactic tool, visual aids, logical and theoretical elements.

Ko'p tilni o'zlashtirgan kishi, o'z nutqini butun dunyosini yaxshilaydi. Har bir yosh bosqichi nutqini rivojlantirish uchun yangi narsani olib keladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asoslarini boshlang'ich sinflarda egallaydi. Bu yerda bolalar erkin fikr yurita oladi, hayoliga kelgan fikr bilan o'rtoqlashadi, biror mustaqil topshiriq bersangiz 30 ta boladan 30 ta fikr va shuncha dunyoqarsh mavjudligini guvohi bo'lasiz. Ular ijodiy fikr yuritish, tilning yozma versiyasi va nutqni yaxshilash zarurligiga birinchi marta duch kelishadi. Ijodiy fikrlashning o'z vaqtida mahoratli o'zlashtirilishi bolaning to'liq qiyofasini shakllantirish, maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish va mehnat faoliyati uchun muhimdir.

Ta'lim ishining asosiy maqsadi bolalardagi ijodiy fikrlashining rivojlanishi, fikrlash madaniyatining rivojlanishi va inson faoliyatining turli sohalarida har qanday muammolarni hal qila oladigan ijodiy fazilatlarni shakllantirishdir.

Asosiy maqsad va vazifalari:

- idrok, xotirani, e'tibor, xayolni rivojlantirish, aqliy faoliyatni faollashtirish, ijobiy hissiy holatga olib keladi;

- dialektik, tizimli va ijodiy fikrlashni rivojlantirish;

- maktab o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlari va ijodlari, individual qiziqishi va moyilligini rivojlantirish.

Ijodiy fikrlash uchun an'anaviy talablar: tarkib, mantiq, ravshanlik, aniqlik.

Darslik materiallari maktab o'quvchilarining rivojlanishida katta natijalarga erishishga yordam beradi. Darslik mualliflari unda bolalar tilida katta qiziqish uyg'otadigan shunday mashqlarni keltirib chiqaradi, ularni individual ilmlar o'rtasidagi aloqani tushunishga yordam beradi.

Oxirgi kuzatishlarga qaraganda, bolalarga berilayotgan bilimga e'tibor pasayib ketayotganligi, darslar reja asosida to'liq o'tilmayotganligi, o'tilgan darslar ham talabga to'liq javob bermasligi, sinfda o'quvchilarni sonining yuqoriligi, bilim sifatini tushib ketayotganligini hisobga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda hususiy tashkilotlarni ko'payib borishi, davlatimiz tomonidan tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablar sonini ko'payib borishi va bu maktablarda sinflarda o'quvchilarning soni 25 tadan oshmasligi, o'qituvchi zimmasidagi ortiqcha mas'uliyatlarni olib tashlanganligi, unga ketadigan vaqt evaziga bolalar bilan mustaqil ishlashga sarflanishini yo'lga qo'yish, 2021-2022- o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinflar uchun yangi an'anaviylikdan chetga chiqqan holda ishlab chiqilgan darsliklar aynan bugungi kunda ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlarning jadallik bilan olib borilayotganligidan dalolat beradi.

O'quvchilarni ko'proq ijodiy fikrlashga o'rgatadigan, dunyoqarashini shakllantiradigan, nutqini aniq, tinni, ravon qilib rivojlantiradigan darslikda berilgan matnlar ustida ishlash, ularni o'qish, tahlil qilish bolalarni fikr mulohazalarini eshitish, matn yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil qilish bolalarda keng fikrlashga juda katta yordam beradi. Matn o'qib tahlil qilingandan so'ng uni ustida mustaqil ishlanmasa, ijodiy yondashilmasa natija olish qiyin.

O'quvchilarning bilimlarini egallash va mustaqil fikrlashga o'rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarning yechimini toppish jarayonida shakllanadi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun texnologiyalardan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi usullardan yana biri – mustaqil ish metodidir. Mustaqil ish metodi nafaqat bolarni balki ta'lim sohasida keng qo'llaniladigan o'quvchilarning mustaqil ishlari ta'lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Metodist olimlar mustaqil ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Mustaqil ishlarda bajarish so'ralgan shartlar o'quvchilardan izlanuvchanlikni talab qilinadi. Mustaqil ishlar o'quvchilarda mustaqil holda hukm, xulosa va umumlashmalar chiqarishga yo'naltiriladi, mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarni yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj tug'uladi. Bundan tashqari reproduktiv mustaqil ishlar ham mavjud bo'lib, o'quvchilarning avval olgan bilimlarini amalda qo'llashni nazarda tutadi.

Bunday mustaqil ishlarga namuna asosidagi mustaqil ishlar, sharhlab yozish, Grammatik topshiriqli diktantlar kiradi. Bu xildagi mashqlar o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish jarayoniga qisman tasir ko'rsatadi va u ko'pincha darslik mashqlari asosida o'tkaziladi. Quyida darslikdan tashqari bo'lgan namuna asosidagi mustaqil ishlarning ayrim variantlarini keltirib o'taman.

“Poyezd”. Bunday mustaqil ishlardan 1-sinf ona tili darslarida “Gap” mavzusini o'tayotganda foydalanish mumkin. Poyezd vagonlari ko'rinishidagi alohida qog'ozlarga bitta gapning har bir so'zi alohida-alohida yoziladi va aralashtirib yuboriladi. O'quvchilarning vazifasi vagonlarni shunday terishi kerakki, natijada to'g'ri gap hosil bo'lsin.

Masalan: Birinchi, Malika, sinfga, bordi.

To'g'ri javob: Malika birinchi sinfga bordi.

“Bo'g'inlarga bo'ling”. Bu mustaqil ish davomida o'quvchilar “G'uncha jurnali yoki turli suratli kitobchalardan ma'lum bir matnni bo'g'inlarga bo'lgan holda ko'chirib yozadilar. Shu orqali o'quvchilarning bo'g'inlarga ajratish yoki bo'g'in ko'chirish qoidasiga doir bilimlari mustahkamlanadi. Shu bilan birga, bosma harflarni yozma harflarga to'g'ri o'girish, kitobdan to'g'ri ko'chirish ko'nikmalari rivojlanib boradi.

Har bir bolada turli xil iste'dodlar mavjud. Albatta, hamma bolalarda ham tasavvur qilish, ixtiro qilish qobiliyatiga ega emaslar. Shunga qaramay, har bir kishining iste'dodlari ishlab chiqilishi mumkin. Ularning rivojlanishi uchun rag'batlantirish kerak. Mustaqil ishlarni tashkil qiningach, natijalar olingandan keyin bolalarni rag'bartlantirish o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. O'ziga ishonchi ortgach, o'ziga nisbatan yuqori baho bera olishi, uni turli munozarali davralarda o'z fikrini bemalol ayta olishiga zamin yaratadi. Boshlang'ich sinf bolalarini ayniqsa o'z fikrlarini bildirgan vaqtda to'g'rimi, noto'g'rimi unga “sen noto'g'ri gapirayapsan, joyinga o'tir” deyish yaramaydi. Fikrlar eshitilinish bo'lingach ularni fikrini yanada tiniqlashtirish maqsadida ularga yana qo'shimcha ma'lumotlar berib hulosalaniladi. Shunda bolada ikkilanish, tortinish o'z fikrini aytishdan qo'rqish kabi tuyg'ularni bartaraf qilgan holda bolani ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishimiz mumkin. Bolalar bilan munosabat o'rnatish ularga ta'lim tarbiya berish nihoyatda nozik masala bo'lib, birgina noto'g'ri qadam bir bolakayning ko'nglidagi endi nish urib chiqayotgan qobiliyatini o'ldirib qo'yishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
2. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745.
3. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).
4. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 55- 58.
5. Амонов У. С. НАУЧНЫЙ ПОДХОД А. ФИТРАТА К ПОСЛОВИЦАМ //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
6. Amonov U. S. O 'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) MQ Salohiddinova, BuxDU boshlang 'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
7. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
8. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
9. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.

# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI NUTQ O'STIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti BTOO'M

kafedrasidotsenti

Shermatova Munira

TDPU, Boshlang'ich ta'lim fakulteti, 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn ustida ishlash orqali nutqini o'stirishni samarali ish turlari haqida so'z yuritilib, namunalar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** badiiy matn, adabiy tasavvur, hikoya janri, ona tili va o'qish savodxonligi, nutq o'stirish, tez, to'g'ri, ifodali, ongli o'qish, ijodkor kitobxon.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об эффективных способах развития речи учащихся начальных классов путем работы над текстом и приводятся примеры.

**Ключевые слова:** художественный текст, литературное воображение, жанр рассказа, родной язык и грамотность чтения, развитие речи, быстрое, точное, выразительное, осознанное чтение, творческое чтение.

**Abstract:** This article talks about effective ways to develop the speech of primary school students by working on the text and provides examples.

**Key words:** literary text, literary imagination, story genre, native language and reading literacy, speech development, fast, accurate, expressive, conscious reading, creative reading.

Boshlang'ich sinflarning Ona tili va o'qish savodxonligi darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Nimaga deganda uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asarlari yotadi. Shu sababli ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilish mushkul.

O'quvchilar matnni tez, to'g'ri, tushunib o'qish, matn mazmunini o'zlashtirish orqali ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. Aynan o'qish ta'limida insonning, eng avvalo, o'zligini, shu bilan bir qatorda olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklariga ona tabiati, atrofimizni o'rab turgan olam, yurtimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalarning hayoti, mehnatsevarlik, xalqlar do'stligi va milliy-ma'naviy qadriyatlar kabi mavzular bo'yicha tushunchalar berishga mo'ljallangan asarlar kiritiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslari savod o'rgatish mobaynida o'quvchilarni bo'g'in, so'z, gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida tashkillashtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan keyin o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarning Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'rganilgan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, xalq og'zaki ijodi, mehnatga nisbattan muhabbat, asosiy bayram sanalari kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli ravishda, boshlang'ich sinflarning Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning maqsadi hisoblanadi. O'quvchilar darsliklar orqali o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikima va malakalarning kelajak hayotlarida kerak bo'lishini tushunib yetishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarining oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: tez, to'g'ri, ifodali, ongli o'qishlarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda

ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

5. O'quvchilarni estetik, axloqiy, jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bitta ta'limiy vazifani bajarishning ilmiy va aniq metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishgao'rgatishning yo'l - yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutugi asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi.

Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, o'qilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, katta e'tibor berilgan. Shuning uchun, hozir maktablarda o'qish izohli o'qish olib borilyapti.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati: ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar.

Sinfda o'qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshi, to'g'ri o'qish sifatleri: to'g'ri tez, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga o'rgatish, ya'ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonalarini yetishtirish.

3. O'quvchilarni tevarak - atrof, borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning nutqini va tafakkurini o'stirish.

6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Bu vazifalarni bajarishning aniq yo'li, yaxshi o'qish malakalarining sifatleri va ularni takomillashtirish yo'llaridir. Yaxshi o'qish malakalarining sifatlariga to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi va ular o'qish darslarida o'zaro bog'liq holda takomillashtiriladi, bu to'rt o'qish sifati bir - biri bilan uzviy bog'liq.

Ongli o'qish yaxshi o'qish malakalarining asosiysi hisoblanadi, chunki o'quvchi tez qisqa - o'qiganini anglamasa, bunday o'qish talabga javob bermaydi, o'qiganini tushunmaslikka olib keladi. To'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. Tez, to'g'ri, ongli o'qish ifodali o'qishning asosi hisoblanadi. Yaxshi o'qish sifatlerini egallash maktabda barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning sharti hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri talaffuz bilan matn ma'nosini puxta sintez qilishda qiynaladilar. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur.

O'qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra chiqadi:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta talaffuz qilishga harakat qiladi va ma'nosini e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'zlar ko'p bo'g'inli (murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni o'qishda), ya'ni sozning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadilar.

3. To'g'ri o'qish yorug'likka, matn shriftiga, bolaning ko'ruv sezgisiga ham bog'liq.

To'g'ri o'qishni ta'minlash uchun o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Matnni o'qishdan oldin undagi o'qilishi qiyin, tuzilishi murakkab so'zlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.

2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlashi.

3. Matnning yaxsh, o'rt, yomon o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladigan qismini oldindan belgilab chiqishi.

4. O'qituvchi yoki sinf o'quvchilarining nazorati ostida o'qishni doimiy mashq qildirishi.

O'qituvchi o'qish davonida o'quvchilar xato qilishi mumkin bo'lgan o'rinni belgilab olishi lozim. Xato o'qishni bartaraf etish uchun:

1. Tuzilishi murakkab so'zlarni xat taxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozish, oldin o'quvchilarga ularni bo'g'inlab, so'ng sidirg'a o'qishni mashq qildirishi.

2. So'z ma'nolarining sinonimi, antonimini keltirib, yoki gap ichida qo'llab tushuntirishi.

3. Xat cho'pdan foydalanish. Xat cho'p diqqati tarqoq bolaga, ko'ruv sezgisi past o'quvchida juda foydali.

4. Xato o'qishi mumkin bo'lgan o'rindan o'quvchini ham ogohlantirish.

5. Kesma harf va kesma bo'g'inlardan foydalanish.

6. To'g'ri o'qish uchun sharoit yaratish.

7. Shivirlab va ichda o'qishdan foydalanish.

O'quvchilar yo'l qo'yadigan xatolar 2 xil:

1. So'z ma'nosini noto'g'ri anglashga olib keluvchi xatolar. (urg'uni noto'g'ri qo'yib o'qish tufayli)

2. So'zlarni o'qib olishga halal beradigan xatolar.

Ongli o'qish asar mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, timsollarini, badiiy vositalarni ro'lini tushunib o'qish ongli o'qish deyiladi.

Bola asarda tasvirlangan voqea hodisalarga munosabat bildira olsa, ongli o'zlashtirgan bo'ladi.

Ongli o'qish quyidagi metodik shartlarga bo'g'liq:

1. O'quvchining hayotiy tajribasiga.

2. So'zlarning lug'aviy ma'nosini tushunishiga.

3. Gapda so'zlarning tushunishiga.

Ongli o'qish 2 xil ma'noda qo'llaniladi: O'qish texnikasi, O'qish sifati.

Asar qurilishini tushunish ongli o'qishdir. O'quvchining ongli o'zlashtirib o'qigani, uning ifodali o'qiganidan, asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniqlaniladi. Ongli o'qish bilan ifodali o'qish biri - ikkinchisini taqazo etadi. Ifodali o'qish. Asrani uning g'oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda o'qish, asar jozibasini ifodalab, ravon, aniq, to'g'ri o'qish ifodali o'qish deyiladi.

Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O'qituvchi, ifodali o'qish orqali asar mazmunini va emotsionalligini o'quvchilarga ko'rgazmali ravishda yetkazadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safo Matchonov, X.Bakiyeva, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, G. Xolboyeva. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" darslik. T.: "Ishonchli hamkor", 2021. 740 b. 633 b. 638 b. 683 b.

2. K. Mavlonova [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 3-sinf uchun / Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b. 24-25 b.

3. Masharipova, U. (2019). FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS PRIMARY SCHOOL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6)*.

4. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 740-745*.

5. Nusratova, H. (2021). BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.80. 81.021 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrasi dotsenti, PhD. In *Научно-практическая конференция* (pp. 51-52).

6. Cho'liboyevna, N. H. (2022). "ONA TILI VA OQISH SAVODXONLIGI" FANI BO'YICHA YARATILGAN DARSLIK LARDAGI MATNLARNING MAZMUNIGA QOYILGAN TALABLAR: Nusratova Hamida Cho'liboyevna, Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, ffb PhD. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (12/2)*.

7. Nisanbayeva, A. (2023). THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE METHODS AND APPROACHES IN TEACHING NATIVE LANGUAGE. *Science and innovation*, 2(B2), 177-178.

8. Nisanbayeva, A. M. (2013). About the influence of civil society on economic development of the country. *BULLETIN OF THE NATIONAL ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN*, (4), 52-57.

9. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(6).

## ГАП – ТИЛНИНГ ҲАРАКАТДАГИ ҲАЁТИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Айтбаев Дилшодхўжа Темирбаевич**

*филология фанлари номзоди, профессор в.б. Тошкент давлат педагогика университети*

**Сайфуллаева Перизат Қобилжон қизи**

*Тошкент давлат педагогика университети бошланғич таълим факультети 3-курс талабаси*

**Аннотация.** *Мазкур мақолада гапнинг чексиз вариантланувчиб ноаниқ тузилма, шу билан бирга тилнинг ҳаракатдаги ҳаёти эканлиги ҳақида фикр баён қилинади. Гап уч омилнинг ўзаро таъсири билан характерланиши: лисоний шакллар, фикр шакллари ва тавсифланаётган борлиқлар эканлиги тасниф қилинган.*

**Аннотация.** *В данной статье высказывается мнение о том, что предложение является бесконечно изменчивой, неопределенной структурой и в то же время является жизнью языка в движении. Речь характеризуется взаимодействием трех факторов: языковых форм, мыслеформ и описываемых существ.*

**Abstract.** *This article expresses the opinion that the sentence is an infinitely variable, uncertain structure, and at the same time, it is the life of the language in motion. Speech is characterized by the interaction of three factors: linguistic forms, thought forms, and beings being described.*

**Калит сўзлар:** *гап, мулоқат воситаси, экстралингвистик омиллар, сўзловчи ва тингловчи, лисоний модел, синтактик ҳодиса, гап шакли, синтактик аспект, тил бирлиги.*

**Ключевые слова:** *предложение, средство общения, экстралингвистические факторы, говорящий и слушающий, языковая модель, синтаксическое явление, форма предложения, синтаксический аспект, языковая единица.*

**Key words:** *sentence, means of communication, extralinguistic factors, speaker and listener, linguistic model, syntactic phenomenon, sentence form, syntactic aspect, language unit.*

Гап – чексиз вариантланувчи, ноаниқ тузилма; бу тилнинг ҳаракатдаги ҳаёти. Гап билан биз белгилар системаси сифатидаги тилни тарк этиб, бошқа оламга, яъни мулоқот воситаси бўлган тил оламига қадам қўямиз [3.439-440]. Бундай тил олами бизни мулоқот жараёнига олиб киргани ҳолда, соф схематик тил рамкасидан чиқиб, тилдан ташқаридаги, яъни экстралингвистик омиллар билан боғлайди. Мулоқот жараёнида биз икки кутбнинг – сўзловчи ва тингловчининг хусусиятларини инобатга олишимиз зарур. Чунки адресат томонидан узатилаётган маълумот адресант томонидан айнанлигича қабул қилинмайди. Бунда узатилаётган маълумот лисоний факторлардан ташқари, экстралингвистик факторлар билан ҳам бойитиладики, уларни эътиборга олмасдан туриб, жумла мазмунини тўлиқ ёритиб бўлмайди.

Демак, мулоқот жараёнининг асосий воситаси бўлган гап (жумла) нафақат қуруқ лисоний модел, қурилма, балки экстралингвистик омиллар билан бойитилган шакл ва мазмун яхлитлиги бўлиб, объектив воқеликнинг муайян бўлагини, муайян воқеани ёки вазиятни акс эттиради.

Табиатдаги ҳар бир нарса атрофидаги бошқа бир нарса билан маълум бир муносабатда, муайян бир алоқада бўлади. Т.А.Колосованинг фикрича, биз вазиятлар



ўртасидаги алоқалар ва муносабатларни англаймиз ва уларни таснифлашга ҳаракатқиламиз. Тил эса мана шу алоқа ва муносабатларни акс эттирувчи турғун шаклларга эга[4.14].

В.Г.Гак грамматиканинг назарий масалаларини ўрганар экан, синтактик бирликларнинг мазмунини борлиқдаги объектларнинг типик функцияси ва муносабатларининг сўзловчилар онгида акс этишида деб билади. Унинг фикрича, синтаксиснинг асосий бирлиги бўлган гапда инсоннинг ташқи олам билан контакти натижасида юзага келувчи фикри ва туйғулари ифода топади. Шундай қилиб, гап уч омилнинг ўзаро таъсири билан характерланади: лисоний шакллар, фикр шакллари ва тавсифланаётган борлиқ. Синтактик ҳодисаларни тадқиқ қилишда бу омилларнинг қайси бири етакчилик қилишига кўра мавжуд барча тенденцияларни уч гуруҳга бирлаштириш мумкин: структур, мантиқий ва семантик ёндашув [5.5].

Демак, гап моҳиятини ёритишда шу уч омилга таяниш муҳимдир. Бунда структур ёндашувда гап ўзи ифодалаётган воқеликка, фикр шаклига боғланмаган ҳолда, фақат шаклий томондан ўрганилади. Бу билан у мантиқий ва семантик ёндашувдан фарқ қилади.

Мантиқий ёндашувда эса гап мулоҳаза структурасига, яъни гап шаклига қиёсланади ва гап таҳлили мантиқий назарияга асосланади. Яъни қандай мантиқий назария асос қилиб олинишига кўра, гап таҳлили шакли ўзгаради. Бунда классик мантиққа асосланган атрибутив таҳлил ва муносабатлар мантиқига асосланган таҳлил шакллари ажратилади. Биринчи таҳлил шаклига кўра, ҳар қандай ҳукмда икки аъзо – субъект ва предикат иштирок этиб, улар ўртасида кенг маънода тегишлилик, қарашлилик муносабати мавжуддир. Бундай ҳукмни ифодаловчи гапларда эса, ўз навбатида, икки асосий бўлак, яъни эга ва кесим ажратилади. Гапда иштирок этган бошқа бўлақлар кесимнинг тўлдирувчилари сифатида қаралиб, у билан бир синфни ташкил этади.

Муносабатлар мантиқига асосан, оддий ҳукм асосини у ёки бу муносабатлар билан боғланган субстанциялар йиғиндиси ташкил этади. Бунга мувофиқ гапнинг марказий элементи ўзида турли муносабатларни акс эттирувчи кесим бўлиб, эга ва тўлдирувчи унинг кенгайтирувчилари сифатида изоҳланади [5.6].

Семантик ёндашувда гап структураси борлиқнинг бирон бир бўлагининг структурасига қиёсланади. Зеро “семантика лисоний шаклнинг тилдан ташқаридаги объектга муносабатидир” [5.6].

Кўриниб турибдики, гап моҳиятини ёритишда ҳам синтактик, ҳам семантик, ҳам мантиқий аспектлар эътиборга олиниши зарур. Бу аспектлар ўзаро алоқадорлиқда бўлиб, улар бир-бирини тўлдиради. Бир томондан, тилдаги ҳар қандай мазмун муайян шаклларда ўз ифодасини топади. Иккинчи томондан, бу шаклларни уларда ифодаланган тафаккур шакллари ва борлиқ фактларига эътибор қаратмасдан туриб тўлиқ ўрганиб бўлмайди.

Демак, ҳар қандай тил бирлиги каби гап ҳам икки томонлама бирлик бўлиб, ҳам ифода, ҳам мазмун томонига эга.

#### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Айтбаев Д.Т. Қўшма гапларнинг мантиқий-мазмуний тадқиқи. Ўзбек тили ва адабиёти// - Тошкент. 3/2015. 74-78-бетлар;
2. Aytbayev D.T. Intonatsiya lisoniy faktor sifatida. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. // Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. - Buxoro. 3/2023. 92-94-betlar;
3. Бенвенист Э. Уровни лингвистического анализа. Сб. «Новое в лингвистике». Вып.IV. –М., 1965. стр. 439-440.
4. Колосова Т.А. Русские сложные предложения асимметричной структуры. Воронеж: Изд. воронежского унив., 1980. стр.14.
5. Гак В.Г. Теоритическая грамматика французского языка. Синтаксис. Москва: Высшая школа, 1981. стр.5.

# ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Ахрарова Тахмина Ахрорбек кизи

*соискатель ученой степени доктора философии (PhD)  
кафедры “Методика дошкольного и начального образования”  
Ташкентского международного университета Кимё*

Хамедова Нилуфар Азимовна

*к.п.н, доцент кафедры “Методика дошкольного и начального образования”  
Ташкентского международного университета  
Кимё*

**Аннотация:** В данной статье раскрыты дидактические принципы организации самостоятельных работ на уроках математики в начальных классах.

**Ключевые слова:** самостоятельная работа, принципы, задания, знания, умения, навыки, система, требования.

Самостоятельная работа школьника есть следствие правильно организованной его учебной деятельности на уроке, что мотивирует самостоятельное её расширение, углубление и продолжение в свободное время. При этом самостоятельная работа – это высшая форма учебной деятельности школьника, форма самообразования, связанная с его работой в классе. На различных уроках с помощью разнообразных самостоятельных работ учащиеся могут приобретать знания, умения и навыки. Все эти работы только тогда дают положительные результаты, когда они определенным образом организованы, т.е. представляют систему.

Под системой самостоятельных работ мы понимаем прежде всего совокупность взаимосвязанных, взаимообуславливающих друг друга, логически вытекающих один из другого и подчиненных общим задачам видов работ.

При построении системы самостоятельных работ в качестве основных дидактических требований выдвинуты следующие:

1. Система самостоятельных работ должна способствовать решению основных дидактических задач — приобретению учащимися глубоких и прочных знаний, развитию у них познавательных способностей, формированию умения самостоятельно приобретать, расширять и углублять знания, применять их на практике.

2. Система должна удовлетворять основным принципам дидактики, и, прежде всего принципам доступности и систематичности, связи теории с практикой, сознательной и творческой активности, принципу обучения на высоком научном уровне.

3. Входящие в систему работы должны быть разнообразны по учебной цели и содержанию, чтобы обеспечить формирование у учащихся разнообразных умений и навыков.

4. Последовательность выполнения домашних и классных самостоятельных работ логически вытекало из предыдущих и готовило почву для выполнения последующих. В этом случае между отдельными работами обеспечиваются не только «ближние», но и «дальние» связи. Успех решения этой задачи зависит не только от педагогического мастерства учителя, но и от того, как он понимает значение и место каждой отдельной работы в системе работ, в развитии познавательных способностей учащихся, их мышления и других качеств.

Эффективность самостоятельной работы достигается, если она является одним из составных, органических элементов учебного процесса, и для нее предусматривается специальное время на каждом уроке, если она проводится планомерно и систематически, а не случайно и эпизодически.

При постановке целей и задач самостоятельной работы необходимо учитывать

следующие дидактические требования:

1. Самостоятельная работа должна носить целенаправленный характер. Это достигается четкой формулировкой цели работы. Задача учителя заключается в том, чтобы найти такую формулировку задания, которая вызывала бы у школьников интерес к работе и стремление выполнить ее как можно лучше. Учащиеся должны ясно представлять, в чем заключается задача и каким образом будет проверяться ее выполнение. Это придает работе учащихся осмысленный, целенаправленный характер, и способствует более успешному ее выполнению.

2. Самостоятельная работа должна быть действительно самостоятельной и побуждать ученика при ее выполнении работать напряженно. Однако здесь нельзя допускать крайностей: содержание и объем самостоятельной работы, предлагаемой на каждом этапе обучения, должны быть посильными для учащихся, а сами ученики – подготовлены к выполнению самостоятельной работы теоретически и практически.

3. На первых порах у учащихся нужно сформировать простейшие навыки самостоятельной работы. В этом случае самостоятельной работе учащихся должен предшествовать наглядный показ приемов работы с учителем, сопровождаемый четкими объяснениями, записям и на доске.

4. Для самостоятельной работы в большинстве случаев нужно предлагать такие задания, выполнение которых не допускает действия по готовым рецептам и шаблону, а требует применения знаний в новой ситуации.

5. В организации самостоятельной работы необходимо учитывать, что для овладения знаниями, умениям и навыками различным учащимися требуется разное время. Осуществлять это можно путем дифференцированного подхода к учащимся.

6. Задания, предлагаемые для самостоятельной работы, должны вызывать интерес учащихся. Он достигается новизной выдвигаемых задач, необычностью их содержания, раскрытием перед учащимися практического значения предлагаемой задачи или метода, которым нужно овладеть.

7. Самостоятельные работы учащихся необходимо планомерно и систематически включать в учебный процесс. Только при этом условии у них будут вырабатываться твердые умения и навыки.

8. При организации самостоятельной работы необходимо осуществлять разумное сочетание и изложения материала учителем с самостоятельной работой учащихся по приобретению знаний, умений и навыков.

9. При выполнении учащимися самостоятельных работ любого вида руководящая роль должна принадлежать учителю. Учитель продумывает систему самостоятельных работ, их планомерное включение в учебный процесс. Он определяет цель, содержание и объем каждой самостоятельной работы, ее место на уроке, методы обучения различным видам самостоятельной работы. Он обучает учащихся методами самоконтроля и осуществляет контроль за качеством ее выполнения, изучает индивидуальные особенности учащихся и учитывает их при организации самостоятельной работы.

Не менее важную роль в организации самостоятельной работы играет подборка учебного материала, т.к. с его помощью мы черпаем информацию содержания обучения. Однако сама по себе информация вне потребности ребенка не имеет для него никакого значения и не оказывает никакого воздействия. Если же информация созвучна потребностям учащегося и подвергается эмоциональной переработке, то он получает импульс к последующей деятельности. Для этого содержание учебного материала должно быть доступно ученику, должно исходить из имеющихся у него знаний и опираться на них и на жизненный опыт детей, но в то же время материал должен быть достаточно сложным и трудным.

Учитывая всё вышесказанное, мы можем сделать вывод, что правильно составленная и организованная с учётом всех дидактических требований самостоятельная работа по математике способствует выработке у учащихся начальных классов устойчивые навыки самостоятельной работы.

## Список использованной литературы

1. Жарова, Л. В. Организация самостоятельной учебной деятельности учащихся: Учеб. пособие по спецкурсу / Л.В. Жарова. – Л.: Изд-во ЛГПИ им. А.И. Герцена, 2009 г. – 205 с.
2. Зотов Ю. Б. Организация современного урока. М., "Просв." 2018 г. – 114 с
3. Пидкасистый П. И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: Теоретико-экспериментальное исследование / П.И. Пидкасистый. – М.: Педагогика, 2013 г. – 80 с.
4. Подласый И.П. Педагогика. Учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. М.: ВЛАДОС, 2010 г. – 363 с.
5. Семушин А. Д., Суворова С. Б. Из опыта работы преподавания математики в школе: Пос. для учителя. - М.: Просвещение, 2012 г. – 212 с.
6. <https://obuchalka.org/>

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ERTAK MATNI USTIDA ISHLASH

**Masharipova Umida Abduvoxidovna**

*pedagogika fanlari bo'yicha PhD, Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ertak matni ustida ishlashda PIRLS topshiriqlaridan foydalanish yuzasidan fikr mulohazalar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** og'zaki usul, ochiq test, yopiq test, mantiqiy va nazariy topshiriqlar

**Abstract:** This article discusses the use of PIRLS tasks in working on the text of fairy tales in mother tongue and reading literacy classes.

**Key words:** oral method, open test, closed test, logical and theoretical tasks

Bugungi axborot muhitining xususiyatlarini inobatga olgan holda kitob o'qishga muhabbat uyg'otish oson emas. Bola kitoblarni ishtiyoq bilan qo'lga olishi uchun bir qancha omillar mos kelishi kerak: maktabda o'qitishga alohida e'tibor qaratish, oilada o'qishga bo'lgan munosabat va pirovardida har bir o'quvchining moyilligi.

Ona tili va o'qish savodxonligi predmetining asosiy vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, uning malakaga o'sib o'tishini ta'minlashdir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "matn" (ar. "nutqning yozuvdagi ifodasi") tushunchasiga "yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat" [1; 557-b.] deb ta'rif berilgan.

Tadqiqotchi L.Losevaning "Matn qanday tuziladi?" nomli tadqiqoti [2; 4-5-b.] da "matn" tushunchasi "lingvistik tadqiqotning eng murakkab obyektlaridan biri" sifatida e'tirof etilib, uning mohiyatini asoslovchi bir qator belgilar ko'rsatib o'tilgan: axborotning yozma shaklda ifodalanishi; 2) mazmun jihatidan o'ziga xos tugallikka egalik; 3) o'quvchida voqelikka nisbatan muayyan munosabat uyg'otish imkoniyatining mavjudligi.

Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlashga o'quvchilarni jalb qilish o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang'ich sinf o'quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o'zlashtirish, ravon va ongli o'qish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi, nutq boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada o'quv dasturida ko'zda tutilgan talablar bajariladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni matn mazmunini to'g'ri tushunish, ongli va ifodali o'qish olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o'z munosabatini bildira olishga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi.

Ertak xalq og'zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, ularda kishilar hayotida

uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning

aksariyatida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qoʻshilib ketadi. Ertak matnida qabul qilingan hikoya qilish shakli, bir xil soʻz va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining tasirchanligi, ifodali vositalarining jonlilik bolalar uchun juda qiziqarlidir.

Ertak matnining pedagogik qimmatini shundan iboratki, bolalar unda toʻgʻrilik, halollik gʻalaba qilganidan, kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, yani yaxshilik, ezgulik roʻyobga chiqqanidan va yomonlik, yoʻzuvlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bolishini istaydilar. Ertak bolalarda personajlarning xatti-harakatini muhokama qilib baholash koʻnikmasini oʻstiradi. Bugungi kunda taʼlim usuli koʻproq induktivdir. Shuning uchun darsda faol ishlovchi oʻquvchining oʻzidir. Shunga koʻra, boshlangʻich sinf oʻqituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, oʻrganilayotgan materialning mazmuni, oʻquvchilarning mavjud bilim, koʻnikma, malakalari darajasiga koʻra amalga oshiradi. Quyida 2-sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darsligida berilgan "Mehnatkash choynak" audio ertak matni ustida ishlashda PIRLS topshiriqlaridan namuna keltirildi.

### **I. 1. Gaplarni ertak voqealari tartibida raqamlang.**

- 1) Oshxonaga keltirilgan yangi choynak yaltirab turardi.
- 2) Eʼtiborsiz beka ham ovozi chiqmay qolgan choynakni tez-tez olovda qoldiradigan boʻlibdi.
- 3) Eski choynakni oshxonaga qaytarishni oʻylay boshlabdi.
- 4) Choynakga havas qilibdi, eski tunuka patnis
- 5) Non solinadigan tovoqni aytishicha bir qargʻa tanishi bor ekan, unga ozroq nonberilsa joʻyali maslahat berishi mumkin ekan.

Toʻgʻri javob: 1, 4, 2, 3, 5.

### **II. Ertak matni bilan bogʻliq topshiriqlar:**

1. Nima choynakni yaltirashiga havas qilardi?  
A) eski patnis.                      B) likopcha  
C) piyola.                              D) kosa
  2. Choynakning burni ustida nima ekanligiga nimalar qiziqar edi?  
A) piyolalar.                      B) patnislar  
C) likopchalar.                      D) kosalar
  3. Choynakda kuniga necha marotaba choy qaynaydi?  
A) 10-11kun.                      B) 9-10kun  
C) 10-15kun.                      D) 6-7kun
  4. Qorayib ketgan choynakni qayerga olib borib tashlashdi?  
A) omborga.                      B) qoʻshni holanikiga  
C) axlatga                      D) holasinikiga
- Javoblar: 1. A. 2. B. 3. C. 4. A.

### **Yopiq test.**

1. Qaysi uy anjomlari choynakka havas qilardi?  
Javob: \_\_\_\_\_
2. Qozon choynakga jumragodagi hushtagini nima uchun kerakligini soʻradi?  
Javob: \_\_\_\_\_
3. Yangi choynak kelgan payt idishlar nimani xohlashdi?  
Javob: \_\_\_\_\_

### **Savollar**

1. Patnis nima uchun choynakga havas qilardi?
2. Likop va qozon temir choynakning nimasiga qiziqib qolishibdi?
3. Temir choynakni nima uchun omborxonaga tashlashibdi?

### **Lugʻat ustida ishlash.**

**Soʻzlar:**                                      **Soʻzlar maʼnosi:**

- 1) Moʻjiza
- 2) Ovloq
- 3) Patnis



#### 4) Pinak

Xulosa. O'quvchilarni ertakdan chiqargan xulosalarini yozdirish

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlashda PIRLS topshiriqlaridan foydalanish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlash o'qituvchi tomonidan samarali metodlarning tanlanishiga ham bog'liq. Binobarin, to'g'ri tanlangan samarali metodlar ko'zlangan maqsad yo'lida aniq harakatlanish, kutilgan natijalarga erishishni kafolatlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbek tilining izohli lug'ati / 5 jildli. Ikkinchi jild. A.Madvaliyev tahriri ostida. Tahrir hay'ati: E.Begmatov va boshq. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 382-557-b.
2. Лоцева Л.М. Как строится текст / Пособие для учителей. Пере.изд. – М.: Просвещение, 2000. – С. 4-5.
3. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
4. Masharipova, U. (2019). FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS PRIMARY SCHOOL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).
5. Masharipova, U. A. (2021). The Formation of Innovative Culture of Future Teachers of Primary School in the Process of Professional Development. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(2), 33-35.
6. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745.
7. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).
8. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 55- 58.

#### ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Мусахожиева Д. Б.,*

*студентка 303 группы факультета «Начальное образование» ТГПУ имени Низами*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada muammoli vaziyatlarni tashkil qilish orqali kichik yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalash, muammoli ta'limning afzalliklari va kamchiliklari muhokama qilinadi.

**Аннотация:** В этой статье рассматривается обучение младших школьников путем организации проблемных ситуаций, преимущества и недостатки проблемного обучения.

**Annotation:** This article discusses the education of younger students by organizing problem situations, the advantages and disadvantages of problem-based learning.

В современном обучении учащийся не получают информацию в готовом виде, а познают её в процессе самостоятельной исследовательской деятельности.

Ученики должны, как можно чаще и с все возрастающей долей самостоятельности, учиться выявлять закономерности и отношения, выполнять посильные обобщения, научиться делать выводы устно и письменно. Именно на это и нацеливает программа начальной школы, в которой явно выражено повышение теоретического уровня в обучении, ощущается важная роль теории при ее тесной связи с практикой. [1, с.3]

С.Л. Рубинштейн пишет: «Начальным моментом мыслительного процесса обычно является проблемная ситуация... Мыслить человек начинает только тогда, когда у него появляется потребность что-то понять... Мышление начинается с проблемы или вопроса, с удивления или недоумения, с противоречия. Этой проблемной ситуацией определяется личности в мыслительный процесс; он всегда

направлен на разрешение какой-то задачи». [2, с.369]

Проблемное обучение вооружает школьников методами познания окружающей действительности, развивает умения и навыки целесообразного наблюдения, воспитывает

способность к обобщениям и выводу основных закономерностей с обоснованием их, прививает вкус к доступной исследовательской работе.

Учащиеся быстрее осмысливают сущность изучаемого явления и дают обоснованные ответы. У них развиваются познавательные потребности и интерес, воспитывается уверенность в знаниях, так как учащиеся сами выдвигают гипотезы и сами доказывают их.

Приставляю пример проблемных ситуаций из урока математики 2 класс.

Глава 1 Урок 3 Нахождение суммы и разности.



### 3. На сколько айвы меньше, чем яблок?

□ - □ = □

Перед учащимся возникла проблемная ситуация

1. Нужно определить количество яблок
2. Найти количество айвы
3. Сопоставить и сравнить количество фруктов
4. Заполнить пустые квадраты
5. Сделать вывод. [3, с.8]

При решении проблемной ситуации учитель контролирует и корректирует ответы учащихся.

Глава 5 Урок 15 Деление на 10



### 4. Какие числа делятся на 10? Какие не делятся?

20 40 55 70 75 15 60 25 54

Учащимся нужно определить числа, которые делятся на 10.

1. Вспоминают таблицу умножения
2. Находят делимое 10
3. Определяют числа, которые не делятся на 10
4. Делают вывод. [3, с.105]

Проблемное обучение имеет свои недостатки. Не всегда легко сформулировать учебную проблему, не весь учебный материал можно построить в виде проблем; проблемное обучение не способствует отработке навыков, не экономично – требует больших затрат времени.

Поисковый подход преобразует традиционное обучение на основе продуктивной деятельности учащихся, определяет разработку моделей обучения как иницируемого учащимися освоения нового опыта.

#### Использованная литература

1. З.Г.Таджиева, Б.С.Абдуллаева, М.Э.Жумаев, Р.И.Сидельникова, А.В.Садыкова. Методика

преподавания математики. Учебник. – Т.: Турон-Икбол, 2011 год. –336с.

2. С. Л. Рубинштейн. Основы общей психологии «Педагогика» 1989 год.

3. Учебник для 2 класса средних общеобразовательных школ Математика Ташкент 2021 год.

4. <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/matematika/2014/04/04/problemnye-situatsii-na-urokakh-matematiki-v-nachalnoy>.

5. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.

6. Masharipova, U. (2019). FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS PRIMARY SCHOOL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).

7. Masharipova, U. A. (2021). The Formation of Innovative Culture of Future Teachers of Primary School in the Process of Professional Development. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(2), 33-35.

8. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745.

9. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).

10. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 55- 58.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TOPISHMOQ JANRINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

F.Abdurahimova

*BuxDPI I bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda topishmoqlarning o'rgatilish ahamiyati va ular o'rtasidagi mushtaraklik haqida fikr yuritilgan. Topishmoqlar nutq o'stirish uchun katta xizmat qiladi. Topishmoqlar dunyo xalqlari folkloridagi eng qadimiy kichik janrlardan biri hisoblanadi. Bu o'zbek topishmoqlariga ham xos xususiyatdir. Topishmoq xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi xalqning ma'naviy boyligi va kollektiv ijodi mahsulidir. U inson ijtimoiy hayot, tabiat hodisalarining mavjud tomonlari bilan keng bog'langan bo'lib, hamma vaqt real zamonga asoslanadi. Unda atrofimizni qurshab turgan real, moddiy dunyodagi turli obyektlar aks etadi. Har bir topishmoq o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan mustaqil bir butun badiiy asardir. Xalq og'zaki ijodi namunalari g'ovaviy- badiiy, ma'rifiy- tarbiyaviy tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** topishmoq, mavzu, an'anaviy, zamonaviy, bir predmetli, ko'p predmetli, ertak-topishmoq

**Аннотация.** В данной статье рассматривается важность обучения загадкам в начальных классах и общность между ними. Загадки – отличное средство для развития речи. Загадки - один из древнейших поджанров в фольклоре народов мира. Это характерно и для узбекских загадок. Загадка, как и другие жанры народного творчества, является продуктом духовного богатства народа и коллективного творчества. Он широко связан с существующими аспектами социальной жизни человека и природными явлениями и всегда основан на реальном времени. На ней показаны различные объекты окружающего нас реального, материального мира. Каждая загадка представляет собой самостоятельное цельное художественное произведение со своей формой и содержанием. Образцы народного устного творчества служат для выражения нравственно-художественных, воспитательно-воспитательных понятий.

**Ключевые слова:** загадка, тема, традиционная, современная, однопредметная, многопредметная, сказка-загадка.

**Annotation.** This article discusses the importance of teaching riddles in elementary grades and the commonality between them. Riddles are a great tool for developing speech. Riddles are one of the oldest sub-genres in the folklore of the peoples of the world. This is also characteristic of Uzbek riddles. Riddle, like other genres of folk art, is a product of the nation's spiritual wealth and collective creativity. It is widely connected with the existing aspects of human social life and natural phenomena, and is always based on real time. It shows various objects in the real, material world surrounding us. Each riddle is an independent whole artistic work with its own form and content. Examples of folk oral creativity serve to express moral-artistic, educational-educational concepts.

**Key words:** riddle, theme, traditional, modern, one subject, multiple subject, fairy tale-riddle.

Topishmoq – bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o'quvchining ixtiyoriga qoldiradigan o'yin bo'lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi. Topishmoqlar bir necha so'zdan tashkil topgan. Jahon xalqlari shu jumladan, o'zbek xalqi

bolalar folklorining tez aytish, topishmoq o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan.

Bolalar uchun topishmoqning foydali tomonlari:

- Ularning xotirasini tarbiyalash;
- Konsentratsiyaning yaxshi ilmi;
- Faol bolani tinchlantirish, uni yanada tirishqoq qilish uchun ajoyib imkoniyat;
- Diqqatni bemalol almashtirish;
- So'z boyligini kengaytirish;
- O'yin kulgi uchun sabab;
- Obrazli fikrlashni faol rag'batlantirish;
- Atrofingizdagi dunyo bilan tanishtirishning qiziqarli usuli;

Eng muhimi, to'g'ri topishmoqni tanlashdir. Agar siz bolaning imkoniyatlarini ortiqcha baholasangiz va qiziqarli o'yin kulgidan juda murakkab narsani tanlasangiz u tezda u uchun zerikarli, qiziq bo'lmagan faoliyatga aylanadi. Biroq bu juda oddiy topishmoqlar bo'lib ular tezda bolalarni ishtiyoqdan mahrum qiladi.

Topishmoqda narsaning belgilarini ifodalovchi so'zlar bo'ladi. Topishmoqlardan ko'pincha kim? nima? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar yashirinadi. Topishmoq matnida narsa yoki hodisalarning belgisi, shakli, harakati, holati, vazifasi va boshqa tomonlari berilgan bo'ladi.

Bolalar uchun topishmoqlarning ajoyib ta'sirining siri bir vaqtning o'zida uning bir nechta tarkibiy qismlarida yotadi:

1. Bolalarni o'ziga jalb qiladigan topishmoq shaklida u o'rganishni qiziqarli o'yin, sarguzashtga aylantiradi, mantiqiy fikrlashga tahlil qilishga kuzatish qobiliyatini rivojlantiradi va dunyoni tushunishga intiladi. Qiziqish ko'plab kashfiyotlar dvigatelidir.

2. Topishmoq mazmunida inson hayoti va faoliyatining turli tomonlari, uning hayoti va faoliyatining turli tomonlari, munosabatlari va boshqalarni eng muvafaqiyatli aks ettiradi.

3. Topishmoqning universalligida har qanday yoshdagi bolalar topishmoqlarni taxmin qilish mumkin va har qanday joyda (uyda, tabiatda, yo'lda, ziyofatda, bayramda) va istalgan vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojiddinov R. Grammatik topishmoqlar. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. Soatov B. Maqollarning matal va topishmoqlarga munosabati // O'zbek tili va adabiyoti. - T.: - 1987. - №5 son.
3. Topishmoqlar. O'zbek xalq ijodi. II jildlik. 1983.
4. Topishmoqlar. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Husainova Z. Tosh., G'afur G'ulom nomidagi, "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1981. 365 b.
5. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. - 304 bet.
6. O'zbek topishmoqlari. Tuzuvchi, tarjima, so'z boshi va izohlar muallifi Abdurahimov M. - Toshkent: O'qituvchi, 1991. -256 b.
7. *Tomishmoqlar. T., 1981 yil, 179-bet.*
8. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
9. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
10. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
11. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
12. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
13. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.



14. Адизова, Нодира Бахтиёрвна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.

15. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

16. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.

17. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

18. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi // *Научно-практическая конференция*. – 2021.

19. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz). – 2021. – Т. 2. – №. 2.

20. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т.

21. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т. 8.

22. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.

23. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

24. BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI // *PEDAGOGS jurnali*. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.

25. Хайтов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари // *Общество и инновации*. – 2021. – Т. 2. – №. 3/5. – С. 49-52.

## ULUG'BEK HAMDAMNING "SO'Z" HIKOYASIDA INSON MA'NAVİYATI TASVIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Istamova Muhayyo Erkin qizi

2-kurs magistranti Navoiy davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Maqolada Ulug'bek Hamdamning "So'z" hikoyasidagi uslubiy xususiyatlar, hikoyaning inson ma'naviyatiga ta'siri, tasvir uslubi va yozuvchining ijodiy mahorati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** *mehr-muhabbat, azob, ruhiyat, inson ma'naviyati.*

**Аннотация.** В статье рассматриваются стилистические особенности рассказа Улугбека Хамдама "слово", влияние рассказа на духовность человека, стиль изображения и творческое мастерство писателя.

**Ключевые слова:** *любовь, страдание, дух, духовность человека.*

**Abstract.** The article talks about the stylistic features of Ulugbek Hamdamov's story "Word", its influence on human spirituality, the image style and the writer's creative skills.

**Keywords:** *love, suffering, spirit, human spirituality.*

**KIRISH.** Badiiy adabiyot markazida har doim inson turgan. Ijtimoiy siyosiy hayot ana shu inson orqali tahlil qilib berilgan. Zero, adabiyot-insonshunoslikdir, degan baho bekorga berilmagan. Adabiyotda inson kontsepsiyasi juda katta murakkab muammodir. Ayniqsa, bu jarayon yangicha tafakkurdagi qo'zg'alishlar, uyg'onishlar tufayli o'zbek adabiyotida kashfiyotlar yaratmoqda.

Hikoya badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asardir. Adabiyotshunos Tohir Shermurodov "Hikoyalar, nihoyalar..." Maqolasining xulosasida shunday so'z yuritadi: "ko'pincha hikoyalar hayot fojialarini baralla yoritish, dardli masalalarni dadil qo'yish ruhida yozilgan. Ularda yangi badiiy tafakkur ravshan ko'zga tashlanadi".

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Hech bir hikoya o'z-o'zidan dunyoga kelmaydi. Bu har bir ijodkorning botiniy va zohiriy dunyosida turli fikr, g'oyalar ta'sirida yuzaga keladi. Ulug'bek Hamdam yangilik va yangilanishlarga boy, ilmiy dunyosi va o'z yozish uslubiga ega. "Tosh", "Ko'ngildagi daryo", "Unutilgan nay navosi", "Lola", "So'z", "Bir payola suv", "Musulmon" kabi hikoyalar kitobxonni o'ylashga majbur etadigan falsafiy asarlardir.

"So'z" hikoyasi uslub jihatidan boshqa hikoyalardan farq qiladi. Hikoyaning boshlanishi oddiy xuddi er-xotinning munosabati yoritilganga o'xshaydi. Er-xotinning munosabatini aks etishidagi voqea-hodisalar "So'z" sarlavhasi bilan ifodalanadi. Sarlavhaning o'zi ham o'quvchini o'ziga tortadi. "Er-xotin mashinaga o'tirishdiyu dala hovliga yo'l olishdi. Yo'l uzog'i undan-bundan gaplashib borishdi. Ayniqsa, erning zavqu shavq bilan aytgan askiyalaridan xotinning ichaklari naq uzilgudek bo'ldi. "Bas, bas qiling, deymen, iltimos!" deya qiyqirgancha erning yelkasiga urib ham turdi xotin.

Xullas, mashinaning ichida mashinani boshiga ko'tarib kelishdi. Aytgancha, bozor-o'char uchun yo'l-yo'lakay allaqaysi bir guzarda to'xtashib oldi. Shoshmasdan, bir-bir bosib, sotuvchilar bilan hazil-mutoyibalashib qilishdi xaridlarini. "Xudo xohlasa, bundan keyingi hayotimiz yanayam go'zal bo'ladi!" — deya ayoliga mehr bilan boqdi er mashinaga kelibo'tirishganda. Zavja javob o'rniga kulib qo'ydi. "Axir, bola-chaqadan tinchib, o'zimiz uchun yashaydigan vaqtga kirib keppoldik, asalim!" — erkak ayolning qo'lini ushlab siqdi. — Endihar kunimiz bayramdek o'tadi, eshityapsanmi, bayramdek! Yura-yura manzilga kelindi. Dala hovlining temir darvozasini lang ochib ichkarilashdi. Ostonada ularga yangilangan fasl peshvoz chiqdi. "Iya, xotinjon, qara, kuz ham kelib qolibdiyu, o'zimiz bilan bo'lib payqamabmiz ham" — dedi er dov-daraxtlarning oltin ranglariga qarab-qarab. — "Yo'lda ham e'tibor qilmaganimizni-chi..." So'ng mashinadan yuklarni tushirishga unnadi. Ayol esa buvaqtda to'ridagi hovuzning oldiga borib cho'nqayib o'tirib oldi-da, yuzadagi yaproqlarni nari- beri surgan ko'yi negadir suvdagi o'z aksiga qaramoqchi bo'lardi. — Shuncha ko'zgulur kamlik qildi-a, sizga... Undan ko'ra kelib, ko'zim oynasiga qarang, bu yerda siz o'sha-o'shasiz, sira o'zgarmagansiz...—saslandi erkak negadir xotinini "siz"lab. Ayol adoqsiz minnatdorchilik bilan jilmaydi"<sup>9</sup>.

Asarning boshlanishidagi har bir so'zning o'z vazifasi bor. Har biri er-xotin munosabatini yanada to'laroq namoyon qilishga xizmat qiladi. Erning ayoliga bo'lgan muhabbati cheksiz, uni hech bir so'z bilan, harakat bilan tasvirlab bo'lmaydi. Tabiat tasviri, suv, kuz, sarg'aygan barg kabi detallar er-xotin munosabati, umrning o'tib borayotgani kabilarni yoritib beradi.

"Er va xotin — qo'sh xo'kiz, hademay baravar ishga tushib ketishdi: ayol anchadan beri qarovsiz qolgan imorat ichiniyu tashini supurib-sidirdi, erkak bo'lsa, o'choq osib, o'tin yordi. Darrov dala hovli sarishtali-farishtali makonga aylandi.

Bir pasdan so'ng er xotining qo'lidan tutib, pastga — suvning bo'yiga boshladi. Suv deganimiz Chirchiq daryosining bir qo'li bo'lib, u katta shaharga kirayotganda Bo'zsuv, kirib olgach esa Anhor deb ataladi. Bu yerda uni Zaxariqdaryo deyishadi...Ha, nima, Zaxariqdaryoga qarab, birov zax suvni, birov ariqni va yana boshqa birov daryoni ko'rsa ko'raversin. Hamma ham bu dunyoda niyatiga yarasha nasibasini olaverar ekan-da...Xullas, Zaxariqdaryo buralib-buralib oqib yotardi. U ham faslga mos kiyingan: tiniq, muloyim mavjli matodan tikilgan ko'ylagini ustiga yengilgina tashlab olgan. Shunday yengilki, xuddi hademay uni ham chiqarib otadigandek avzoyi bor. Suv bo'yiga kelishgach, er sarg'ayibroq qolgan o't- o'lanni qayirib, uydan olvolgan to'shakchani to'shadi-da, "marhamat qilsinlar!" deya iltifot ko'rsatdi. Xotin avaylanib o'tirib bo'lgach esa, er uning qo'lini tutgancha yoniga cho'kdi"<sup>10</sup>.

Parchadan ko'rinadiki, er-xotin munosabati o'ziga xos takrorlanmas munosabat. Xuddi yosh kelin-kuyovlardek, bir-biriga mehribon, bir-birini endi ko'rayotgandek. Ularning munosabati Zaxariqdaryoga o'xshaydi. Shuning uchun ham adib asarga Zaxariqdaryo obrazini olib kirgan. Er-xotin suv bo'yidan qaytishgach, oshni damlashga urinishadi, shunda ko'chadan

<sup>9</sup> Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq – Toshkent. Akademnashr, 2014. – 491 b.

<sup>10</sup> Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq – Toshkent. Akademnashr, 2014. – 493 b.



kimdir chaqiradi. Er ko'cha tomon yurib ketadi. Xotin esa oshni o'zi damlaydi, tuzini ko'radi, tuzi pas ekan deb, tuz soladi. Er ko'chadan qaytib kelgach, xotinning telefoni jiringlaydi. Xotin dugonasi bilan gaplashish uchun uyga kirib ketadi. Oshni damlab, o'choqdagi cho'g'ni tortgan er xotinning orqasidan uyga kiradi. Xotining telefondagi gapini eshitib lol qoladi.

“ – Asti so'rama, dugonajon, shunaqangi bema'ni kun bo'ldiki, zerikkanimdan naqyorilib o'lay deyapman. Bir nimalarni bahona qilib vahliroq qaytsam kerak...Chiqqin-a oldimga kechqurun, hasratlashamiz...Er eshik dastasini tutgan ko'yi haykaldek qotdi. Allabir zamondan keyingina uni qo'yvorib, ortga chekindi. Garangsirab qozonning boshiga bordi. Nima qilarini bilmay, g'ayriixtiyoriy ravishda atrofida aylana boshladi. Xuddi xayolida aylanayotgan o'sha bir juft so'z kabi. Bu so'zlar esa xonaga kirib qolgan bir juft xira pashshani eslatardi: miyaning ichida tinimsiz g'ing'illardi: BEMA'NI KUN! BEMA'NI KUN! BEMA'NI KUN!.. G'IING, G'IING, G'IING...Er beixtiyor hovli tomondagi eshikdan pastga, daryoga qarab enib bordi. Suvning bo'yiga cho'kdiyu nigohini oqimga berdi...”<sup>11</sup>

Shu parchada “So'z”ning barcha vazifasi namoyon bo'ladi. Er xotin uchun kuyib pishdi, kunning yaxshi o'tishi uchun tinimsiz izlandi, mehnat qildi. Xotin esa dugonasiga shunday kunni “bema'ni kun” deb atadi. Ana endi erning ongidagi evrilishlar yuzaga chiqadi. Dilidaginitiliga chiqarmaydi, lekin ich-ichidan eziladi. Erga bo'lgan xotinning munosabati. Xotin hech qachon eridan nolimaydi, unga ko'nglidagini aytmaydi.

Shu o'rinda ayolning holati ma'naviy qashshoq insonni bizga namoyon qiladi. Ayol ma'naviy qashshoq, chunki erining unga bergan shuncha mehri va munosabatini birgina so'z bilan yo'qqa chiqaradi. Ayol uchun hamma narsani muhayyo qilgan er ko'ngli o'ksib, dili vayron bo'lib, xotini hech qachon tushunmagan ekanligini his qilib, yuragi ezilib, savollarga javob topa olmaydi. Agar xotin ham er kabi ma'naviy boy bo'lganida telefonda dugonasiga bunday gap aytmas edi. Er va xotin o'rtasidagi ko'p yillik iliq munosabatlar birgina so'z orqali oila deb atalmish qo'rg'onning buzilishiga sabab bo'ladi.

Turmush o'rtog'ining ahvolidan habari yo'q ayol karaxt bo'lib qolgan eriga “oshga qaramaysizmi tagiga olib ketadi-ku”. “Sen oshni aytasan, buyoqda mening hayotim tagiga olib ketmoqchi-ku!. Osh tagiga olgan bo'lsa olgandir, uni qaytadan boshlash mumkin, lekin umrni-chi? Agar u tagiga olsa, yangitdan boshlash mumkinmi?” – degisi keldi.

#### **XULOSA**

Bu hikoyada ma'naviy qashshoq bo'lgan ayol obrazi ifodalanadi. Ko'p yillardan beri bilgan insonni ham anglab tushunish, uning asli kim-u ko'nglida nima borligini bilish murakkab hodisaligini tasvirlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq – Toshkent. Akademnashr, 2014. – 491 b.
2. Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq – Toshkent. Akademnashr, 2014. – 493 b.
3. Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq – Toshkent. Akademnashr, 2014. – 494 b.
4. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
5. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
6. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
7. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
8. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH- TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
9. Bakhtiorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.

<sup>11</sup> Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq – Toshkent. Akademnashr, 2014. – 494 b.

10. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.

11. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

12. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.

13. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

14. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi // *Научно-практическая конференция*. – 2021.

15. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2021. – Т. 2. – №. 2.

16. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т.

17. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т. 8.

18. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2020. – Т. 2. – №. 2.

19. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

20. VuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI // *PEDAGOGS jurnali*. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.

21. Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари // *Общество и инновации*. – 2021. – Т. 2. – №. 3/5. – С. 49-52.

## BILISH JARAYONLARINI O'RGANISHDA BOLALARNING LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Mamatkulova Lobar Tolibjonovna**

*Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti Logopediya kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning bilish jarayonlarini o'rganishda lug'at boyligini oshirib borish yo'llari yoritib berilgan

**Аннотация:** В данной статье описаны способы увеличения словарного запаса при обучении познавательным процессам детей.

**Abstract:** This article describes ways to increase vocabulary in learning cognitive processes of children.

**Kalit so'zlar:** bilish jarayonlari, nutq, lug'at boyligi, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar, suhbat, logopedik o'yinlar

Respublikamizda ta'lim-tarbiya ishlariga yangicha munosabatda bo'lish, yuksak

madaniyatli kasb egasi, metodik jihatdan mahoratli, zamonaviy o'qitish texnologiyalarni va innovatsiyalarni mukammal egallagan kadrlarni talab etmoqda.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarga logopedik ishni tashkil etishning asosiy vazifasi ularni har tomonlama rivojlantirish bilan bir qatorda bu toifadagi bolalarni ijtimoiy tomondan orqada qolishlikka olib keluvchi ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi turli xil nuqsonlarni tuzatish yengillashdirish, kompensatsiya qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Nutqni o'z vaqtida to'g'ri egallash, bolaga atrofni o'rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z xulqini boshqarishga yordamlashadi, bola ruhiy faoliyatini rivojlanishiga ko'maklashadi va maktabda talim tarbiya berish jarayonini yengillashdiradi.

Bolalarning bilish jarayonlarini o'rganishda suhbat metodi bolalar nutqini kuzatish, lug'at boyligi haqida ma'lum xulosalarni beradi. Lug'at boyligini tekshirishda narsalarni nomlash, narsalar nomini umumlashtirish va boshqalar qo'llaniladi. Bolaga narsalarning harakati, sifati va belgilari taklif etiladi. O'yinchoqlar, idish-tovoqlar, uy jihozlari, kiyimlar, tana a'zolari, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, o'simliklar, kasblar, yil fasllari mavzusiga mos narsalar tanlanadi.

Bolaga yana quyidagi vazifalar taklif etiladi:

- rasmlar bo'yicha va ko'rsatilgan ish harakatini nomlash: "Bola nima qilyapti?"

- bola ish harakatini nomlash bilan savolga javob berishi kerak. "Men nima qilyapman?" ish harakati amalda namoyish etiladi;

- narsalarni nomlash. Bola nomlashi kerak bo'lgan narsalar yoki ularning harakati, sifat belgilari tasvirlangan narsalar rasmi ko'rsatiladi. Bunda logoped bolaga savollar orqali murojaat etadi: "Bu nima?", "Bu kim?", "Nima qilyapti?", "Qanday?", "Kimniki?";

- tasvirlanishiga ko'ra narsalarni nomlash: "Qaysi hayvon sut beradi?", "Nima bilan yozamiz?" va boshqalar;

- umumlashtiruvchi so'zlarni ajratish: bir qator narsalarni yoki narsalarga oid rasmlarni bitta umumiy so'z bilan nomlash. Masalan: olma, anor, uzum, bexi, shaftoli, anjir, limon, yoki ularning rasmlari ko'rsatiladi va savol beriladi: "Bu ko'rsatilgan narsalarni bir so'z bilan qanday nomlaymiz?" bunda imkoni boricha turli bo'g'inli so'zlar talaffuzi tekshiriladi: parafaziya, perseverasiya, eliziya, kontaminasiyaning bor yoki yo'qligi belgilanadi. Rasmlardan foydalangan holda ularni harakati bilan nomlash taklif etiladi. Bolaga rasmlarni ko'rish taklif etiladi, bunda bola rasmdagi narsa qanday harakat qila olishini aytib berishi lozim (qaldirgoch uchayapti, qo'g'irchoq o'tiribdi). Logopedik mashg'ulotlarda didaktik o'yinlarning ahamiyati katta, bu o'yinlarni keng qo'llash bola tafakkuri, idroki, zehni, xotirasi, irodasi, bilim olishga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolada atrof olamni bilishga bo'lgan qiziqish ortadi, ziyrakligi, ixtiyoriy diqqati, topqirligi tashabbuskorligi mustahkamlanadi. O'yinlar o'z mazmuniga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi: Didaktik o'yinlar; dramalashtirilgan o'yinlar; syujetli - roli; harakatli o'yinlar. Didaktik o'yinlarda bolalarning aqliy jihatdan o'stirish uchun kerakli bo'lgan muhim sifatlar hosil bo'ladi. O'yinlar bolalarning yoshiga va ruhiy rivojlanishiga qarab tanlanadi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolada mustaqillik, faollik, ijodkorlik masalaga ongli yondoshish malakasi o'stirib boriladi. O'yin ko'rgazmalilik, oddiydan murakkabga o'tish usullari orqali olib boriladi. Logopedlar ta'limiy o'yinlarni o'tkazish davomida bola harakatini faollashtiradi, mustaqil harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'yindan to'g'ri foydalanilsa bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi ya'ni, aqliy tarbiyasiga asossolinadi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalar eshitish, ko'rish, sezish a'zolari orqali turli narsalar va ularni yasashda ishlatiladigan materiallarning xossalarini, ularni bir-biriga taqqoslashni, guruhlarga ajratishni o'rganadilar. Ta'limiy o'yinlar guruhlarda quyidagicha o'tkaziladi:

- O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar - "Ayiqlarga nima kerak?", "Jajji oyoqchalarimiz", "Zumrad uchun ko'ylaklar".

- Stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar - "Nima qaerda yuradi?", "Men aytgan narsani

ko`rsat", "Kimning qo`lida nima bor?".

- Og`zaki usuldagi ta`limiy o`yinlar- "Qo`g`irchoq Lolaxonni cho`miltiramiz", "Ajoyib xaltacha", "Shaklini top", "Rangini top" kabi o`yinlar kiradi. Eshitish va ko`rish a`zolarini faollashtirish uchun "Juftini top", "Qaysi daraxtning mevasi?", "Mevasini top", "Onasini top", "Mevalar va barglar", "Domino", "Yovvoyi va uy hayvonlari", "Bu uychada qanday hayvon yashaydi", "Bu kim yoki nima?" singari o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. Nutqida nuqsoni bo`lgan bolalar bilan olib boriladigan didaktik o`yinlar so`z va gaplarni tahlil qilishga, so`zlarda tovush va harflarning o`rnini aniqlash, jummalarni to`g`ri tuzishga o`rgatadi. Quyida bolalar bilan tarbiyaviy mashg`ulotlarda, oila sharoitida, o`yin

faoliyatida olib boriladigan didaktik o`yinlardan misollar keltiramiz:

**"Jonli so`zlar "o`yini.** O`yin guruhga mo`ljallangan bo`lib, tarbiyachi dastlab doskaga uchta bolani chiqaradi va o`yin qoidasini tushuntiradi: bolalar so`z bo`ladilar. Demak, uch so`zdan iborat bo`lgan gap tuzamiz. Masalan, Lola - "bog`da", Jasur - " pishdi", Aziz - "mevalar" degan so`zni ifodalaydilar. Keyin tarbiyachi bolalarni chapdan o`ngga qarata ketma - ket joylashtirib, gap "yozishlarini " taklif qiladi. Vazifa bajarib bo`lingach, jonli so`zlar o`z so`zlarini aytadilar, bolalar esa aytilgan gapni eshitadilar.

**"Sehrlil qalamchalar" o`yini.** O`yin uchun bir necha rangli qalamchalar va ular yordamida chizilgan turli narsa va buyumlar rasmi kerak bo`lib, ular doskaning o`rtasiga joylashtiriladi. O`yinni yakka holda yoki guruh bilan o`ynash mumkin. Tarbiyachi bolalar diqqatini doskaga qo`yilgan "sehrlil" qalamchalarga qaratadi. Ular mana bu rasmni bir zumda chiza oladilar. Keling, hozir ular nimalarning rasmini chizganliklarini aniqlaymiz. Tarbiyachi birin - ketin ko`rsatadi, bolalar esa ularni nomlaydilar. Tarbiyachi: - Bolalar, endi har bir qalamcha qaysi rasmni chizganini aniqlaymiz. Hozir har biringiz o`zingizga yoqqan rangdagi qalamchani tanlab olasiz. Qalamchangiz qaysi rasmni chizganini ular qoldirgan izdan yurib aniqlaysiz va nomlaysiz. Agar siz rasmda nima aks ettirilganini to`g`ri topsangiz uni aniq, ravon talaffuz qilsangiz rasmni o`zingizga olishingiz mumkin. Shu tartibda bolalar qalamchalar chizgan rasmlarni aniqlaydilar.

Bilish jarayonlarini o`rganishda bolani xotira, idrok, tafakkur, tasavvur va diqqat orqali fikrlash doirasini kengaytirish hamda lug`at boyligini oshirish har tomonlama ustuvor vazifa hisoblanadi. Ko`pchilik bolalar o`z harakatlari bilan atrofdagilarni e`tiborini o`ziga jalb qilishni xush ko`radi. Bunda ayrim bolalarda o`yin faoliyatida o`zlarini ko`rsatishga xarakat qiladi. Bolalar o`yin faoliyat davomida mulokatga kirishishadi, o`zaro harakatda bo`lib ijtimoiy ro`llarni o`zlariga qabul qilib oladilar. Logopedik o`yin nutq nuqsoniga ega bolalarning nuqsonini koreksiyalash, o`z o`ziga bo`lgan mehnat malakalarini shakllantirish va tarbiyalash jarayoniga qaratiladi. Nutqida nuqsoni bo`lgan bolalarning bilish jarayonlarini va emotsional holatni koreksiyalashda ularning yosh va individual xususiyatlarini, imkoniyatlarini inobatga olinadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova, Mukarram. "On the basis of games for children with speech deficiency literacy teaching." *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11.2 (2021): 1496-1501.

2. Bozorov O. Bo`lajak logopedlarni kasbiy tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv//Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований. – 2021. – №. Conference TSPU. – С. 3. Mamatkulova, L. T. (2022). Defects in the written speech of elementary school students with intellectual disabilities and their elimination. *Confrencea*, 6(6), 16-17

# BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLAR ORQALI NUTQ O'STIRISH MASALASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Jamolova Lubat Ilhomovna**

*BuxDPI II bosqich magistranti*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida bolalar nutqini o'stirishga oid innovatsion metodlar ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar:* Bog'lanishli nutq, shakllanish, bola, tevarak-atrof, munosabat, muomala shakli, katta rol, maktabgacha, katta yosh, bolalarning og'zaki nutqi, malaka va ko'nikmalar va hokazo.

Hozirgi zamon talablariga muvofiq maktabgacha katta yoshdagi bolalar adabiy talaffuz me'yorlariga binoan o'z lug'atidagi barcha tovush va so'zlarni aniq va tiniq talaffuz etib, urg'ularning to'g'riligiga rioya qilmog'i lozim. Tadqiqotchilar va maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining fikrlariga ko'ra maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutq shakllanishining eng qulay shart-sharoitlarini aniqlash murakkab vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi tufayli barcha sohalarda tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar uzluksiz ta'lim tizimiga ham tegishli bo'lib, maktabgacha ta'lim zimmasiga alohida majburiyat yuklaydi. Ma'lumki, bolalarni maktabga tayyorlashda ona tili muhim o'rin tutadi. Ona tilini o'rganish narsa va hodisalarni idrok etish, o'zini qiziqtirgan masalalar to'g'risida fikryuritish, o'ylash, nutq o'stirishni rivojlantirishga yordam beradi. Tovush va so'zni to'g'ritalaffuz etish bola shaxsining shakllanishida katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ona tilini o'rganishga oid mashg'ulotlar jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar (6-7 yosh) nutqini shakllantirishga alohida e'tibor berilmog'i lozim.

Hozirgi zamon talablariga muvofiq maktabgacha katta yoshdagi bolalar adabiy talaffuz me'yorlariga binoan o'z lug'atidagi barcha tovush va so'zlarni aniq va tiniq talaffuz etib, urg'ularning to'g'riligiga rioya qilmog'i lozim. Tadqiqotchilar va maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining fikrlariga ko'ra maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutq shakllanishining eng qulay shart-sharoitlarini aniqlash murakkab vazifalardan hisoblanadi. Hozirgi paytda 6-7 yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqoriroq talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi.

Shunga ko'ra 6-7 yoshdagi bolalarning tevarak-atrofn o'rganish jarayonida nutqini rivojlantirishning samarali yo'llari hamda vositalarini ishlab chiqishda tayanch bo'ladigan nazariy, metodik qoidalarni ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Bolani maktabga tayyorlash o'ta muhim vazifalardan biri bo'lib, har bir ota-onadan katta mas'uliyatni talab qiladi. Bu jarayonda bolani maktabga tayyorlash uchun o'y sharoitida ham bola bilan shug'ullanish, uni mustaqil fikrlashga o'rgatish mumkin. Buning uchun uy sharoitida bola bilan muammoli savollarga javob izlash orqali ularning ham dunyoqarashini tekshirish, ham nutqlarini shakllantirishga yordam berish ko'zda tutiladi. Muammoli savollar bolaning ziyorligini tekshirish uchun, uning mantiqiy fikrlashini baholash uchun yordam beradi. Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda muhim o'rin eallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha s-z, p-f, t-d, p-b, u-o', x-h, q-g' tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olmaydilar. Nutq jarayonida ketappan - ketayapman, Hojaxon - Shohjahon, Yustam - Rustam, qalg'a - qarg'a kabi talaffuz etishda yo'l qo'yadigan xatoliklarning oldini olish, ya'ni to'g'ri talaffuz etishga yo'llash, ovoz balandligiga, tovush sur'atiga e'tibor berish metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ba'zi bolalar o'zidan kichiklarni jerkib, ovozini ko'tarib muomala qiladilar. Shunda ular talaffuziga e'tibor qaratish, nutq madaniyatiga, me'yorda so'zlab, muomala qilishga o'rgatish zarur. Chunki bolalikda tarkib topgan muomala madaniyati inson umrining oxirigacha muhrlanib qoladi.

Bolalarning tevarak-atrofn kuzatib borishi natijasida talaffuzi ham ijobiy tomonga o'zgara boshlaydi: tovushlarni to'g'ri talaffuz qila boshlaydilar, jumlar mazmuni kengaya boradi, grammatik

tomondan gapni to'g'ri tuza boshlaydilar, lug'at boyligi ham ortadi. Bolalarning o'zlari kichik-kichik hikoyalar tuza boshlaydilar va bu hikoyalarni erkin bayon qila oladilar. Ularda kattalar bilan muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Shunga ko'ra bolalar nutqida tovush madaniyatini takomillashtirish, atrofdagi narsalar, predmetlar, hodisalar nomini ifodalovchi so'z boyligini kengaytirish, faollashtirish, monologik nutqning oddiy shakllariga rioya etish, o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri va aniq ifodalay olish ko'nikmalarini paydo qilish muhim va zarur hisoblanadi. Bu talablar bolalarda borliqni, tevarak-atrofnii idrok etish, uni tushunish, his etish, hikoyalar tuzish, o'z fikrini bayon qila olish, ifodali o'qish faoliyati jarayonida tarkib toptiriladi.

Ma'lumki, bog'lanishli nutqda bolalarning atrofdagilar bilan voqea-hodisalar ta'siri natijasida o'zaro munosabati, aloqasi ifodalanadi. Bu ifoda bir yoki bir necha jumalalarda o'z aksini topishi mumkin. Bog'lanishli nutqning shakllanishida bolaning tevarak-atrof bilan munosabati, muomala shakli katta rol o'ynaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning og'zaki nutqqa doir, malaka va ko'nikmalari mavjud bo'lganligini hisobga olib, ularda bog'lanishli nutqni shakllantirishda, avvalo, tevarak-atrofnii kuzatishda nimalarga e'tibor berishimiz kerakligini aniqlab olishimiz zarur. Bular, avvalo, ona-Vatan haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishdan boshlanadi. Bunda, birinchi navbatda, bolalar so'z boyligini kengaytirishda Respublikamiz tabiati, kasb-hunarga oid, qurilish va qishloq xo'jaligida foydalaniladigan mashinalar, narsalarning o'ziga xos belgilari va ranglari, mehnatga munosabatni ifodalovchi tushunchalar, nom va so'zlar bilan boyitish zarur. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish: ona tilidagi antonim, sinonim, omonim so'zlarni tushunish va to'g'ri qo'llashga doir tushunchalar, so'zlar bilan boyitishga erishish lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bolalarni narsalarning nomlarini to'g'ri aytishga, ularning o'xshash va farqli tomonlarini tushunish, shakli, rangi, sifati, xossalarini, jinsi va turiga oid yo'naltiruvchi lug'atini faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, nutq madaniyatini shakllantirish, dialogik va monologik nutqni takomillashtirish va nihoyat savod o'rgatishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonova M. "O'zbek bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik taqqiqi. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2014.
2. Lutfullayeva D. "Assotsatsiya tilshunoslik nazariyasi". Toshkent Meriyus. 2017.
3. Xudoyberganova D. "Matnning antroposentrik tadqiqi". Toshkent. Fan. 2013. b-28.
1. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. "Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari." *Conferences*. 2021.
2. Bakhtiyorovna, Nodira Adizova. "Place Names and Related Concepts Study." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 153-157.
3. Bakhtiyorovna, Nigora Adizova, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "Anvar obidjon is a children's poet." *Middle European Scientific Bulletin*.
4. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Boymuradova Sadoqat. "Use Foreign Experience to Improve the Reading Literacy of Primary School Students." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 306-309.
5. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.11 (2021): 330-335.
6. Адизова, Нодира. "Mikrotoponimlar tasnifi (Buxoro viloyati misolida)." *Общество и инновации* 3.3/S (2022): 128-132.
7. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lyubat Ipkhomovna. "Ta'lim Muassasalarida Ta'lim-Tarbiya Jaraenlarida Interfaol Metodlardan Foydalanişning Hozirgi Kun'dagi Xolati." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 330-333.
8. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.



9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.

10. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.

11. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.

12. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'ZGARTIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI."

*Buxoro*

*davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

13. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'ZGARTIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

14. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.

15. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.

16. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslari samaradorligini ta'minlovchi integratsion yondashuv metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.

## **BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHI DAVRIDAGI BOLALARDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Sayfullayeva Aziza G'ulomjonovna**

*Turon-Zarmed universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda tahsil oladigan bolalarda psixik rivojlanish xususiyatlari haqida fikrlar yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены особенности психического развития детей, обучающихся в начальной школе.

**Annotation:** This article discusses the features of the mental development of children studying in primary school.

Inson yashashi va faoliyati jarayonida jismoniy va aqliy mehnat bilan shug'illanib boradi. Kuchli jismoniy mehnat bilan shug'illanish natijasida tanamizda jismoniy toliqish va charchoq paydo bo'lsa, tinimsiz aqliy mehnat bilan shug'ullanish esa ruhimizda psixologik charchoq va zo'riqish hosil qiladi.

Bu holatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida esa yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich maktab (7-11) yoshga to'g'ri keladi. Maktabgacha yosh bilan taqqoslanganda asosiy faoliyat turi o'qish hisoblanadi. Asosiy faoliyat turning almashinuvi bolaning psixologik rivojlanishiga ham ta'sir etadi. Har qanday o'tish yoshi kabi, bu yosh ham o'z vaqtida ilg'ash va qo'llab quvatlash zarur bo'lgan rivojlanishning yashirin imkoniyatlariga boy.

Ko'pgina insonlar bolalikni qayg'usiz va baxtli davrlar deb hisoblashadi, ammo hayotning bu bosqichi ham qayg'u va xavotirlanishlardan xoli emas. Haqiqatdan ham bolalarning ko'p qismi notanish insonlarga va vaziyatlarga duch kelganlarida ba'zi bir emotsional va xulq atvoriy og'ishishlarni namoyon qiladilar. Masalan, ular ko'pincha xavotirlikni his qiladilar. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, bolalarning deyarli yarmi ko'pgina xavotirlanishlardan aziyat chekar ekan. Maktab - sog'lik va shaxsiy xavsizlik bolalarni ayni xovotirlikka soluvchi maskan hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham inson hayotining eng murakkab davrlaridan biridir. Psixo-fiziologik o'zgarishlar, bosim ostidan ijtimoiy va akademik talablar, o'zining imkoniyatlariga noadekvat baho berish ularni qo'zg'aluvchan hamda tushkin holatlarga solib qo'yadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida maktabga qadam qo'yganida hayotida muhim psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'qituvchini tinglash, o'qish, yozish, tushunganlarini so'zlab berish va hakazo.

7-11 yoshli bola psixikasi bilim olishga yetarli darajada taraqqiyot bosqichiga erishadi.

Bola o'zi bilib bilmay o'z aqliy taraqqiyotini o'stirishga tirishadi, chiroyli fikrlashgata shna bo'ladi va bu uning psixik taraqqiyotidagi eng muhim o'zgarish hisoblanadi.

Inson shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhit (shaxslararo munosabat, o'zaro fikr almashish, hamkorlik)ning ahamiyati juda katta. Bola hech qachon bir o'zi jamiyatdan ajralgan

holda mukammal shaxs bo'la olmaydi. U faqat odamlar orasida, jamiyatda tarbiyalangandagina individualizatsiyani namoyon eta olishi darajasidagi shaxs bo'la olishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qo'rquv holati, hissiy emotsional va irodaviy xususiyatlarining o'zgarishiga bog'liqligi, ularda o'ta kuchli xovotirlanish, depressiya, stress kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

Shunga ko'ra biz quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

- Ijtimoiy muhit va unda sodir bo'ladigan voqea hodisalar boshlang'ich sinf o'quvchilarning ichki dunyosiga ta'siri ularda qo'rquv va xavotirlanishni keltirib chiqaradi, atrofdagilar ularni tushunchalarining yetarli emasligi sababli ular bilan hisoblashmaydilar, ularning ehtiyoj va talablarini "bolalarcha o'jarlik" deb qabul qiladilar.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qaramlikdan ozod bo'lish, kattalikka intilish (mustaqil hayot tarzini o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib tashkillashtirish) ehtiyojini tushunmaslik, ularning imkoniyatlarini cheklab qo'yish, o'z -o'ziga bo'lgan ishonch hissining susayishiga olib keladi.

- o'z-o'ziga noadekvat baho bergan va jamoa tomonidan tan olinmagan bolalar olamida qo'rquv va xovotirlanish holatini tez-tez namoyon bo'lib turishi shaxslararo munosabatlarda esa o'z navbatida salbiy xususiyatlar yani yuqori darajadagi ruhiy zo'riqish, o'z-o'zini baholashning noadekvatligi (o'zini haddan tashqari past baholash) odamovilik kabilarni keltirib chiqaradi.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kattalar tomonidan tan olinmasligi, o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizlik va omadsizliklar ularda qo'rquv va xovotirlanish holatlarini yuzaga keltiradi.

- xavotirlanish holatining yuzaga kelishi o'z-o'zini anglashdagi nuqsonlar bilan ham bog'liq.

- ta'lim jarayonida qobiliyat va imkoniyatlarini to'la namoyon qila olmaslik ham xavotirlanish holatini yuzaga keltiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, uning qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi bilan boshqa yoshdagi o'quvchilardan (jumladan, o'smirlardan) ajralib turadi.

Bu davrga kelib, bola o'z diqqatini muayyan obyektga, narsa hodisalarga yo'naltirishga, to'plashda va uni mustahkamlashda hamda taqsimlashda ma'lum darajada ko'nikmani egallagan bo'lib, o'z diqqatini boshqarish, zarur paytda uni shaxsan tashkil qilishga intiladi. Uning xotirasi g'aroyibotlarga boy, voyaga yetgan kishini taajjubga soladigan ma'lumotlar va hodisalarni puxta esda saqlash, esga tushurish imkoniyatiga egadir.

7-11 yoshli bolalar maqsadli diqqatga ega bo'lmaydilar, ular asosan bevosita o'zlari uchun qiziq bo'lgan, yorqinligi va noodatiyligi bilan ajralib turuvchi (ixtiyorsiz diqqat) narsalarga e'tibor beradilar.

O'quvchilar endi darslar jarayonida kuchsiz tarqoq diqqat ya'ni parishon diqqatga teskari barqaror (uzoq muddatgacha bir narsaning o'ziga qarab tura oladigan) diqqatda bo'lishlari lozim bo'ladi.

O'quvchi faoliyatining o'qish turida kuchli va nihoyatda barqaror diqqatning ahamiyati juda kattadir. Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi diqqat obyektining mazmundorligiga bog'liq. Diqqatning obyektiga qanchalik mazmundor bo'lsa diqqat ham shu qadar kuchli va

barqaror bo'ladi. Bu esa o'quvchining bilimlarni egallash sifatini yaxshilaydi.

Ta'lim o'quvchidan muayyan darajadagi uyushqoqlikni, intizomlikni, irodaviy zo'r berishlikni, faollikni, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakatlar o'rnini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy mehnat egallay boradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablar tobora ortib, murakkablashib boraveradi. Talabning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'sishini taqozo etadi.

O'qish kundalik aqliy mehnat, irodaviy zo'r berish, diqqatni taqsimlash ekanligi bois o'quvchilarda psixologik charchoq va zo'riqishlarga sabab bo'ladi.

Bu kabi sabablarning oldini olish maqsadida o'qituvchi quvnoq daqiqalarning turlarini biridan foydalanishlari mumkin.

Quvnoq daqiqalar o'z nomi bilan aytilganidek o'quvchilarga quvonch bag'ishlaydi. Diqqatning kuchi va barqarorligiga kishining ayni paytdagi umumiy kayfiyati ham ta'sir qiladi. Yaxshi kayfiyat har qanday ishda diqqatimizning kuchini oshiradi.

O'quvchilarning ko'p vaqt harakatsiz o'tirishi organizmning quyi qismlarida, qorinda qon yurishmay qolishiga, bosh miyaning qon bilan to'la ta'minlanmasligiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, asab hujayralarining hayotiy faoliyatiga shikast yetkazadi. Natijada diqqat ham beqarorlashadi.

1-2-sinf o'quvchilari tez charchaydi, ayniqsa yozma ishlarda.

Bundan tashqari ko'p vaqt bir joyda qimirlamay o'tirganda, belning tolishi, ruchkani ko'p vaqt qo'lda tutish natijasida barmoqlarning qotib qolishi kuzatiladi. Oqibatda o'quvchilar tez charchaydigan, ish qobiliyati susayib darsdan chalg'iydigan va parishonxotir bo'lib qoladilar.

Darslar davomida o'qishning kundalik aqliy mehnat ekanligini (irodaviy zo'r berish, yoqtirmagan narsasi bilan shug'illanish, diqqatni taqsimlash, o'z xulqini iroda etish zaruriyatini) o'quvchi anglab yetadi. Agar o'quvchi shunga o'xshash aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasdan o'qishga kirishgan bo'lsa, u holda o'qishdan ko'ngli soviydi, umidsizlanish tuyg'usi, hissi vujudga keladi. Bu o'rinda o'qituvchi bolaga o'yin faoliyatidan ko'ra o'qishning qiziqariligi, sir sinoatga boyligi haqida ma'lumot berishi va bu faoliyatga kirishib keta olishga tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchining bu harakatlarining samarasi o'quvchida o'qishga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'lishi bilan belgilanadi.

Bu davrda bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'noli so'zlarni esda olib qolishga harakat qiladilar. Ularning bilimni egallashga bo'lgan qiziqishlari, o'z aqliy mehnatlarining samarasini ko'rish bilan bog'liqdir. „Bola shirin so'zning gadosi“ shunday ekan bolani har kuni maktabga zo'r ishtiyoq bilan kelishi o'qish faoliyatiga jiddiyroq qarashi uchun darslarni ko'tarinki ruhda tashkil qila olishga bog'liq.

O'quvchi tinimsiz aqliy faoliyat bilan shug'illanish natijasida o'qishdan ko'ngli sovimasligi uchun quvnoq daqiqalar o'tkazish orqali bolaning charchog'ini chiqarish barobariga ularning kayfiyatlarini ko'tara olish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Quvnoq daqiqalarning bir qancha turlari mavjud bo'lib ulardan keng tarqalgan usuli bu she'riy usuldir.

She'riy usulda quvnoq daqiqa o'tkazishning muhim jihatlaridan biri har bir narsa obrozar vositasida aks ettirilishidadir. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi yaqqol obrazli predmetlarni eslab qolishga ko'proq moyil bo'ladi. Bu esa bolaning o'y-hayollariga kuchli ta'sir qilib ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Soat chiq-chiq etadi,  
Damlar o'tib ketadi,  
Kun va tun necha soat,  
Kimning aqli yetadi.  
Biz o'qiymiz o'rganamiz,  
Charchaganda dam olamiz,  
Hali katta bo'lganda,  
O'qib olim bo'lamiz.  
Yozdik yozdik charchadik,  
Ruchkani qo'ydik,dam oldik.

Bundan tashqari charchoqlarni yana yo'qotish uchun 1-2 daqiqa davomida 3-4 ta jismoniy mashqlardan iborat bo'lgan quvnoq daqiqalar ham o'tkazish mumkin. O'quvchilarning charchoq va zo'riqishlarining oldini olish maqsadida darsdan tashqari vaqtlarda tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish ham muhim ahamiyatga egadir.

Ta'kidlab o'tilgan barcha mulohazalar, tavsiflar maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlikning asosiy omillari, shuningdek, eng muhim shart-sharoitlari bo'lib hisoblanadi. 7-yoshli bolaning ta'limiga psixologik tayyorgarligi to'grisida fikr yuritganimizda, biz muayyan reja asosida tartibli, ko'p qirrali, maqsadga yunaltilgan, o'zaro bog'liq va mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lgan boshlang'ich ta'lim uchun zamin vazifasini o'tuvchi ruhiy taraqqiyotning zarur ko'rsatgichi va darajasini nazarda tutamiz. Bu borada yana shu narsani ko'shimcha qilish o'rinligi, ta'lim uchun ruhiy taraqqiyot darajasidan tashqari, bolaning turmush sharoiti va faoliyati tafovutlari o'ziga xosligi uning sihat-salomatligi, metodik jihatdan tayyorgarligiga, sodda ko'nikmalarni egallaganligi kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bildirilgan mulohazalarning barchasi boshlang'ich ta'limiga psixologik jihatdan tayyorgarligining ob'yektiv tomonlarini o'zida aks ettiradi. Biroq, boshlang'ich ta'limiga psixologik jihatdan tayyorligining sub'yektiv tomoni ham mavjuddir. Bola maktabda o'qish xoxishi, intilishi, predmetlarga qiziqishi, ishtiyoqi katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishishning istagi mazkur tayyorlik bilan uzviy bog'liqdir. Unda bu davrga kelib o'qish, bilim olish yuzasidan turli tasavvurlar shakllanadi. Shuning uchun u maktab jamoasining barcha a'zolarining mas'uliyatli vazifalarini e'tirof etadi va ularga itoatkorlik tuyg'usi, ularning ko'rsatmalarini bajarishga moyillik tug'uladi. Lekin bolalarning barchasi bu narsaga bir tekis munosabatda bo'ladi, deb bo'lmaydi, shu boisdan ular o'rtasida individual farq vujudga keladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning akalari va opalarining maktabdagi «noxush kechinmalar va vaziyatlar» to'grisidagi noxush axborotlari, kino va teleekrandagi maktab xayotiga bag'ishlangan filmlardagi vaziyatlar o'zaro umumlashgan tasavvur obrazlarini yaratib, bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. O'qishga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan bolalar ta'lim muhitiga kirishishga qiynaladilar; qator ruhiy to'siqdarga duch keladilar, buning natijasida yangi vaziyatga va jamoaga, notanish odamlarga moslashish juda og'ir kechadi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar

1. R. Safarova "Savodga o'rgatish darslari" –T.; "Ma'naviyat" 2003.
2. Z. Nishonova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti" –T.;2006.
3. E. G'oziyev "Umumiy psixologiya" –T.; 2002.
4. N. Yo'ldashev " Bolalarni birinchi sinfga tayyorlash" "Qarshi" 2014.
5. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
6. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
7. 1.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
8. 2.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – No. 27.
9. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
10. Jumayev R. Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –№. 23
11. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
12. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
13. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–

107.

14. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 106-109.

15. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 715-719.

16. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.

17. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.

18. Нуруллаева, Сарвиноз Маждовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).

19. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFDADA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – S. 358-362.

20. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.

21. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

22. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

## XALQ MAQOLLARINI O'QISH ORQALI O'QUVCHILARDA MA'NAVIY-AXLOQIY BARKAMOLLIKNI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Z. Ibragimova

*BuxDPI 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq maqollarini o'qish orqali ma'naviy barkamolligini shakllantirish usullari haqida mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, maqol, milliy mafkura, ma'naviyat, komil inson.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiyki boyliklarni-bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan – bir yo'li ta'lim standart tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm – fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy– axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

Maqol xalqning ko'p asr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha –qavlun-gapirmoq, aytmoq, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil etadi. Demak, maqol xalq ommasining muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosalari, hukmi va tavsiyalarini mujassamlashtirgan o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lgan ifoda va iboralardan iborat.

Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og'zaki ijodida mazmun va shakl jihatidan bir-biriga yaqin hamda hamohang maqollar o'xshashliklar, umumiyliklar mavjud.

Maqol qator xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqlanib turadi. Chunki xalq doston va ertaklari, afsona va rivoyatlari, naql va latifalari voqelikni epik planda rang-barang obrazlarning xatti-harakati kechinmalari orqali aks ettirsa, maqollar voqealikni xalqning bevosita ana shu voqealik haqida xulosalar; hukmlari orqali aks ettiradi.

Maqollarda ibratli fikr aytiladi. Biroq har qanday ibratli fikr maqol bo'lavermaganidek, ibratli fikrning maqolga aylanishi uchun muayyan shartlar mavjud. Ana shunday shartlardan

biri maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar moba0ynidagi hayotiy tajribasiga sinalgan bo'lishligidadir. Hayotiy tajribada sinalgan fikr esa kishini ishontira oladi. Ikkinchi sharti shuki, maqolda ifodalangan ibratli fikr alohida shaxslargagina emas, balki umuminsoniy

xarakter kasb etishida ko'zga tashlanadi. Nihoyat, uchinchi sharti-ibratli, sinalgan umuminsoniy fikr ixcham, mukammal badiiy shaklga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Manashuning uchun ham xalq maqollari juda ham sekinlik bilan yaratilish va unutilish xususiyatiga ega. Maqollardagi bu xususiyat jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy strukturasi, bu strukturaning barqarorlik yoki beqarorlik darajasi bilan bog'liq holda amal qiladi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar bilan shartlangan holda maqollar mazmunida turli darajada o'zgarishlar-torayish yoki kengayishlar yuz beradi. Mana shu faktning o'ziyoq maqolning jamiyat hayoti xalq turmushi bilan bevosita bog'lanishda ekanligini ko'rsatadi. Demak, maqollar xalq hayotini, uning o'tmishdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush darajasini o'rganishda nodir manbalik vazifasini o'taydi. Darhaqiqat, maqollar turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, xalqning etik va estetik normalarini etiqodiy tasavvurlarini, maishiy turmushi va mehnat tarzini, sevgi va nafratni, orzu va intilishlarini obyektiv baholashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham rus yozuvchisi L.N.Tolstoy "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman" deb yozganida to'la haqli edi.

Maqol xalq hayoti, orzu-intilishlari va dunyoqarashini ko'p asrlik tajribalarida sinovdan o'tkazib aks ettirishi tufayli kundalik turmushimizda katta g'oyaviy tarbiyaviy rol o'ynaydi. Chunki, maqolda aks etgan voqea-hodisa yo keskin tasdiq etiladi, yo inkor qilinadi. Demak, har bir maqol kishiga izchil g'oyaviy yo'nalish beradi, undagi ideallarning yuksalishiga ko'mak beradi. Haqiqiy xalq maqolida mehnatkash omma manfaatlari, ideallari aks etar ekan, maqolga murojaat etgan har bir kishi o'z xalqi va vataniga ilk mehr bilan qarashga o'rganadi, adolat va ozodlik, mardlik va bahodirlik, insonparvarlik va do'stlik, tinchlik va mehnatsevarlikka intiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964.
2. Afzalov M. Xalq ertaklarining tasnifi. – Toshkent: 1972.
3. Imomov K. O'zbek satirik ertaklari. – Toshkent: Fan, 1974. – 208 b.
4. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh. Dolimov Z. "O'qish kitobi": 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Yangiyo'l poligraf servis" 2013.
5. Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinfuchun.– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
6. Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinfuchun.– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
7. Avliyoqulov N.X. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari".- T., 2001
8. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. "Ona tili va o'qish savodxonligi". 1-sinf uchun darslik 1-2-qismlar. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
9. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. "Ona tili va o'qish savodxonligi". 2-sinf uchun darslik 1-2-qismlar. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
10. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, Zeboxon Ro'zmetov. "Ona tili va o'qish savodxonligi". 3-sinf uchun darslik 1-2-qismlar. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
11. M.Umarova, X.Xamrakulova, R.Tojiboyeva. "O'qish", 3-sinf uchun darslik, Toshkent, "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
12. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. "O'qish", 4-sinf uchun darslik, Toshkent, "Yangiyo'l poligraf servis" nashriyoti, 2020.
13. Safarov Firuz Sulaymonovich, Istamova Shohida Maqsudovna. Types of lexical meanings. Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 6, 2020. P. 481– 484.
14. Safarov Firuz Sulaymonovich. The Representation of the Reportedspeech Through. European journal of life safety and stability (EJLSS). ISSN 2660-9630. Volume 15, 2022, P. 21 – 26.
15. Firuz Safarov, Nodira Xudoyberdiyeva, Nilufar Xolmurodova. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. Journal Pedagogos Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.
16. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. Journal Pedagogos Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
17. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.



## BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Ilyasova Dilshoda Akmal qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*1-kursmagistranti*

**Ilmiy rahbar: Masharipova Umida Abduvoxidovna**

*PhD, BTOO'M kafedrası dotsenti, TDPU*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mustaqil ishlarini tashkil qilishning ahamiyati va dolzarbligi, ularni olib borish tartiblari nazariy jihatdan yoritib berilgan. Mustaqil ishlash tizimining asosiy didaktik vazifalarini – o'quvchilarning chuqur va mustahkam bilimlarini o'zlashtirishi, mustaqil bilim olish, ularni qo'llash qobiliyatini shakllantirish usullari xususida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ishlar, topshiriqlar, ijod, bilim, qobiliyat.

Rivojlanib borayotgan davlatimizning bugungi kunda barcha sohalarida xalqaro standartlarga tayangan holda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini ham chetlab o'tmaganligi darsliklarning ketma-ket tarzda o'zgartirilishida ham ko'rinadi. Ayniqsa, ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinf darsliklarining xalqaro standartlarga javob beradigan tarzda o'zgartirilishini "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanining "Ona tili" va "o'qish" fanlari negizidan olingan holda tayyorlanishi buning yaqqol asosidir. Yangi joriy qilingan darslikavvalgilaridan katta farq bilan ajralib turadi. Yangi darsliklar ishlab chiqilgani sari ta'limga oid bo'lgan hujjatlar ham o'zgarib bormoqda.

Aynan mustaqil ish aqliy mehnatning yuqori madaniyatini rivojlantirish, bu nafaqat o'qish, kitob o'rganish, yozuvlarni yuritish texnikasini, balki, birinchi navbarda, mustaqil faoliyatga bo'lgan ehtiyojni, masalaning mohiyatini chuqur o'rganish istagini o'z ichiga oladi. Bunday ish jarayonida maktab o'quvchilarining individual qobiliyatlari, moyilliklari va qiziqishlari to'liq namoyon bo'ladi, fakt va hodisalarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, mustaqil fikrlashni o'rgatadi, bu esa ijodiy rivojlanishga va ularni yaratishga olib keladi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining mazmuni va o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablarda "Boshlang'ich ta'lim bolaning mantiqiy tafakkur qilish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini moddiy borliq go'zallilarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi",- deb ta'kidlanadi.

O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- berilgan har bir topshiriq o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va imkoniyatlariga mos bo'lishi hamda qiziqish uyg'ota olishi;
- mustaqil ish topshiriqlari soddadan murakkabga qarab yo'naltirishi va eng muhimi o'quvchiga tushunarli bo'lishi lozim;
- mustaqil ishni bajarishda o'quvchilarda o'ziga ishonch hissi uyg'otish, topshiriqni bajarishga kirishishda o'zlarida qat'iyat va dadillik sezishi;
- mustaqil bajaradigan topshiriqlar individual tarzda amalga oshirilishi (hamma o'quvchi uchun bir xil topshiriq berish – mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga e'tibor berish kerak;
- topshiriqlar turini almashtirib turishga alohida ahamiyat berish lozim, chunki

o'qituvchi har safar o'quvchilarga yangi turdagi mustaqil ishlarni berishi kerak, chunki bir xil ko'rinishdagi topshiriqlar o'quvchilarda zerikish holatiga sabab bo'lishi mumkin.

– topshiriqlarni barcha o'quvchilarni bir vaqtda boshlab, berilgan muddatgacha tugatishini eslatib o'tish lozim, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim bo'ladi;

– ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi (partalarning ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi lozim);

– mustaqil ish topshiriqlarini darsning turli bosqichlarida tashkil qilish mumkin.

Ma'lumki, darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar dars tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o'quv materiallarining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinfda ona tilidan o'rganiladigan har bir mavzuning qiyinlik darajasiga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi.

Ona tili darslarida o'tkaziladigan mustaqil ishlarga quyiladigan talablar qo'yiladi:

– mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondan asoslangan bo'lishi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, bilimiga mos bo'lishi, o'quvchilarni tilni o'zlashtirishga qiziqtirishi lozim;

– o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq o'quvchilarning o'quv materialini faol idrok etishini ta'minlash zarur;

– mustaqil ish hayotiy bo'lishi, o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo'lmog'i kerak.

Bilimning onasi takrorlash bo'lganidek o'quvchilarning dars davomida olgan bilimlarini mustahkamlab beruvchi faoliyat bu – mustaqil ishlash ko'nikmasi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich ta'limdan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – T.: RTM, 2017.

2. K.Qosimova, Matchonov S., X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.:Noshir. 2009.

3. MatchonovS., va boshq "O'qish kitobi" 4-sinflar uchun darslik uchun darslik, "Yangiyo'l poligraf servis" 2020.

4. Iroda Azimova va boshqa. "Ona tili va o'qish savodxonligi". 1-sinflar uchun darslik, -T.: "Respublika ta'lim markazi", 2021.

5. Iroda Azimova va boshqa. "Ona tili va o'qish savodxonligi". 2-sinflar uchun darslik, -T.: "Respublika ta'lim markazi", 2021.

6. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.

7. Masharipova, U. (2019). FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS PRIMARY SCHOOL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).

8. Masharipova, U. A. (2021). The Formation of Innovative Culture of Future Teachers of Primary School in the Process of Professional Development. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(2), 33-35.

9. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745.

10. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).

11. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 55- 58.

# BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MA'NAVIYATINI HADISLAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH YO'L VA USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Murtazoyeva Zarnigor

BuxDU 2-bosqich magistranti

**Kalit so'zlar:** ta'lim, maktab, oila, ma'naviyat, xushxulqlik, salomlashish, sharqona odob, tarbiya usullari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish zamiridagi ta'lim va tarbiyani yosh xususiyatiga ko'ra hadislardan namunalar bilan boyitishda foydalanishning yo'l va usullariko'rsatib o'tildi.

**Ключевые слова:** воспитание, школа, семья, духовность, хорошие манеры, приветствие, восточные манеры, методы воспитания

**Аннотация:** в данной статье были показаны пути и методы обогащения обучения и воспитания учащихся начальных классов примерами хадисов по возрастным особенностям.

**Key words:** education, school, family, spirituality, good manners, greeting, oriental manners, education methods

**Annotation:** in this article, the ways and methods of enriching the education and upbringing of elementary school students with examples of hadiths according to age characteristics were shown.

Bugungi kunda ta'limning muhim jihatlardan biri o'quvchining rivojlanishi uchun qulay pedagogik muhitni vujudga keltirishdan iboratdir. Avvalo ta'lim va tarbiya bir maqsadni — barkamol inson shaxsini tarbiyalashni nazarda tutadi. Ya'ni ta'lim ishi tarbiya bilan birga qo'shilib ketadi va bir bir-birini to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Dars jarayonida olib borilgan tarbiyaviy ishlar sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bilan qo'shiladi.

Har bir odam o'z hayot yo'lida qancha muvaffaqiyatlarga erishgan yoki imkoniyatlamini qo'ldan boy bergan bo'lsa, buning hammasiga, avvalo uning fe'l atvori, olgan tarbiyasi sababchidir.

*Xushxulqlilik — kamolot belgisidir*

Xo'sh, xushxulqlilik, tarbiyalanganlikning asosiy belgilari nimalardan iborat?

Ulardan ayrimlarini sanab o'tamiz:

- Jahl chiqqanda o'zini bosa olish;
- har bir ishni qilganda «yetti o'lchab bir kesish»;
- bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga etkaz may qo'ymaslik;
- topgan tutganini tejab tergab sarflash va hokazolar.

Xushxulqlik, yaxshi muomala, shirin so'zlik va olijanoblik — yaxshi tarbiya ko'rganlikning asl belgilaridir.

Xushxulq yaxshi tarbiya ko'rgan kishi yaqinlari, yori do'stlari bilan uchrashganda, odamlar yonidan o'tayotganda, biror xonadonga qadam qo'yganda yuzida tabassum ila, «Assalomu alaykum» deb salom beradi. Salom berish, salomga alik olish ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Salomning naqadar ulug'ligi hadis sharifida ham shunday ta'riflanadi: Salom - Allohning yerdagi ismlaridan biridir. Bir birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Zero, musulmon kishi odamlar oldidan o'tib borayotib ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni eslatgani uchun bir daraja ko'p savobga erishadi. Mabodo alik olmasa, unga zarari yo'q, chunki ulardan yaxshiroq va afzalroq zotlar, ya'ni farishtalar alik olishadi».

Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Chunonchi, Qur'oni karim oyatlari mazmuni, Payg'ambar alayhissalom hadislarini, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini hadislar vositasida ma'naviy tarbiyalashda o'qituvchi bir nechta metodlardan foydalanishi mumkin. Aniqrog'i, tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarda axloq odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ulaming ongi va irodasiga ta'sir

etish yo'llariga aytiladi. Tarbiya usullari tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgandir.

Ajdodlarimiz davr sinovidan o'tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarini yaratganlar, shu asosda yoshlarni ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Bolalarda insoniy his-tuyg'ularni tarbiyalashning asosi- kishilarga mehr muhabbat qo'yish, izzat hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarni himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostto'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalangan. Chunonchi, tushuntirish, odatlantirish (o'rgatish, mashq qildirish), bolalarning kundalik hayoti rejimi, ibrat (namuna, o'rnak) ko'rsatish, maslahat berish, o'git nasihat, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, tilak istak bildirish, ma'qullash, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash, ta'qiq qilish, man etish, ta'na, gina, (o'pka) qilish, qoralash, Ollohdan qo'rqishga undash, taribeh berish, uzr so'rash, majbur qilish, masxara mazax qilish, zaharxandalik, ayblash, uyaltirish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, nafrat bildirish, aybiga iqror qildirish, ont qasam ichi rish, la'natlash, so'kish, urish kaltaklash; jamoa hukmiga havola qilish kabi usullar tarbiyada qo'l kelganligi ta'kidlanadi.

Tarbiya usuli ham ta'lim usuli kabi yolg'iz o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyatiningina emas, balki o'quvchilarning faol ishtirokini ham o'z ichiga oladi. Bolalarning yoshi ulg'aygan sari ularning tarbiya jarayonidagi faolligi va mustaqil ligi osha boradi, ular tarbiyachilar rahbarligida va o'z tashabbuslari, intilish va istaklari bilan yangi yangi axloqiy fazilatlar orttirib, mukammallashtirib boradilar.

O'qituvchi qo'llayotgan usul va vositalar ta'sirida bolaning ongida va xulqida ham o'z shaxsini o'zgartirish istagi vujudga keladi. Bola o'zini o'zi tarbiyalamasa, aql farosatini ishga solmasa, tarbiyadan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Har bir bola o'zining xulq atvoriga talabchan bo'lishi va o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarining tar kib topishi uchun astoydil tirishmog'i lozim. O'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni kichik yoshdan boshlab o'zini o'zi eplash, tuta bilish, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilish, rost so'zlash, kattalarga hurmatda bo'lish, o'zidan kichiklarga mehribonlik ko'rsatish kabilarga o'rgatib, odatlantirib borishlari lozim. Umuman, o'zini o'zi tarbiyalash axloqiy barkamollikka ishtiyoq tug'dirishdir.

Tarbiya usullari nazariyasida yana yo'l va vosita tushunchasi ham qollanadi. Yot usulga nisbatan xsusiy tushuncha bo'lib, usulga bo'ysunadi, xizmat qiladi. Masalan: bolalarni axloq odob qoidalariga o'rgatish, odatlantirish uchun mashqlardan foydalanamiz. Bu usulga turli yo'llari xizmat qiladi, ya'ni ko'rsatamiz, o'rgatamiz ta'kidlab, esiga tushirib turamiz yoki ma'ruza, suhbatlar or qali axloqiy fazilatlar mazmunini ochib beramiz.

Bu o'quvchining ongiga ta'sir etish maqsadidagi ishontirish yo'llaridir. Lekin ishontirishda bolaning faqat ongigagina ta'sir etish orqali natijaga erishish qiyin bo'ladi, shuning uchun aytayotganlarimizning to'g'riligini isbotlash va uni aniqlashtirish uchun ko'rsatish usulidan foydalanamiz: xushxulqlik va badxulqlikka oid hikoyat, rivoyat, hikmatlardan foydalanamiz va hokazo. Bularning biri odatlantirish usulining yo'li bo'lsa, ikkinchisi ishontirish usulining yo'lidir. Mohir tarbiyachi bolaga tarbiyaviy ta'sir etishda uning yoshi va shaxsiy xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasi, o'zi bilan bola o'rtasida vujudga kelgan munosabat, o'quvchi intilishlarining o'ziga xosligi, faoliyatda qatnashishdan bolaning ko'zlagan maqsadini hisobga olib, bolaga ta'sir etishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan usulni to'g'ri tanlay oladi.

Usullar tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'zaro bog'liq bo'lib, uning bir turi ikkinchisi bilan qo'shib ketadi. Hech bir usulni aloxida, yakka holda qo'llab bo'lmaydi. Masalan, o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilari bilan ishlashda, ular uchun yangi bo'lgan o'quv mehnatini o'rgatish ishini o'quvchilarning xulq atvor qoidalarini, maktabda va uyda kun tartibi aniq bo'lishi muhimligini, qunt bilan, zo'r berib mehnat qilish zarurligini uqtirishda tushuntirish yo'lini qo'llaydi. Tushuntirish bilan bir qatorda o'qituvchi o'z o'quvchilarini har kuni axloq odob qoidalarini mashq qildiradi, sinfga to'g'ri kirib kelishga, o'qituvchi va bolalar bilan salomlashishga, parta qopqog'ini taraqlatmay ochib yopishga, ish joyida tartib saqlashga, o'qituvchiga murojaat qilish va hokazolarga odatlantirib boradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амонов У. С. НАУЧНЫЙ ПОДХОД А. ФИТРАТА К ПОСЛОВИЦАМ //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
2. Amonov U. S. O 'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) MQ Salohiddinova, BuxDU boshlang 'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
3. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
4. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
5. Xalq pedagogikasi – inson kamolotining asosi. T: O'Zpfti
6. Амонов У. С. НАУЧНЫЙ ПОДХОД А. ФИТРАТА К ПОСЛОВИЦАМ //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
7. Amonov U. S. O 'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) MQ Salohiddinova, BuxDU boshlang 'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
8. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
9. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
10. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
11. Bakhtiyorova, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
12. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.
13. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
14. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
15. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
16. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
17. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.
18. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
19. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
20. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
21. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –№. 23

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Eshova Dilbar Shonazarovna

*BuxDPI o'qituvchisi*

Maxmudova Maftuna

*BuxDPI 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bolalarda ijodiy dunyoqarashni shakllantirishda turli omillar turlicha ta'sir etadi. Bu omillar ichida ijodiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish eng asosiysi hisoblanadi. Zero, bolada tasavvur, tushunchalarning shakllanish jarayoni aynan maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanadi va bu davr dunyoqarashni shakllanishning mazmunini hajm jihatidan eng salmoqli bosqichdir. Shuning uchun ham tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha yoshidagi davri asosiy davr hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** *Ijodiy qobiliyatlar, ijodkorlik, tasavvur, qobiliyat, mantiqiy fikrlash, tafakkur.*

**Ключевые слова:** *Творческие способности, креативность, воображение, способности, логическое мышление, мышление.*

**Key words:** *Creative abilities, creativity, imagination, ability, logical thinking, thinking.*

Mustaqillik yillarida respublikamizda ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohatlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib bugungi kunda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir. Maktabgacha ta'limning bosh maqsadi bolalarni maktabdagi o'qishga sifatli tayyorlash bo'lib, ularni sog'lom har tomonlama rivojlangan mustaqil shaxs sifatida shakllantirish, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan barkamol shaxsni voyaga yetkazishdan iboratdir. Shu boisdan ham maktabgacha ta'lim -bola hayotining muhim davrlaridan biri hisoblanadi. Ayni davrdagi maktabgacha ta'lim muassasalari avvalgisidan butkul farq qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarda yaratilgan shart sharoitlar, ushbu tizim uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnologiyalar, didaktik materiallar va o'yinchoqlar bilan muntazam ta'minlanib borishining davlat nazoratida bo'lishi kishini quvontiradi. Maqsad esa bitta bolalarni barkamol tarzda voyaga yetkazish ularni maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini oshirishdir. Maktabgacha yosh - bu o'zini yorqin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, bolaning ijodkorligini rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri "Ijodkor bolani" tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Ijodkorlik yangi tadqiqot predmeti emas. Biroq, ilgari jamiyatda odamlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ehtiyoj yo'q edi. Iste'dodlar o'z-o'zidan paydo bo'ldi, adabiyot va san'at durdonalari, ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar yaratildi va shu bilan rivojlanayotgan insoniyat madaniyati ehtiyojlarini qondirdi. Bizning davrimizda vaziyat tubdan o'zgardi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hayot tobora rang-barang va murakkablashib bormoqda. Bu esa odamdan qoliplashgan odatiy harakatlarni emas, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, tez yo'naltirilganligini va yangi sharoitlarga moslashishini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy dunyoda insonning ijodiy qobiliyatlari uning intellektining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi. Tarbiyachi pedagoglar taqlid qilish ijodkorlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi ekanligini unutmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun unga yaqin odamlar orasida bola o'zini tanitadigan ijodiy shaxs bo'lishi kerak. Bola uchun ijodiy xulq-atvor namunasi sifatida nafaqat ota-onalar (yoki ota-onalardan biri), balki boshqa kattalar ham (o'qituvchilar, oila do'stlari va boshqalar) harakat qilishlari mumkin. Agar bolalar uchun ota-onalar ko'proq



ijodiy xususiyatlarga ega bo'lgan "ideal qahramon" bo'lsa, ayniqsa samarali bo'ladi. Aslini olganda "Ijodkorlik" - bu har xil turdagi ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlarini.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Ijodkorlik ko'plab fazilatlarining birlashuvidir. Psixologlar ijodkorlikning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat deb hisoblashadi:

1. Muammoni boshqalar ko'rmaydigan joyda ko'rish qobiliyati.
2. Aqliy operatsiyalarni yiqitish, bir nechta tushunchalarni bitta bilan almashtirish va axborot nuqtai nazaridan tobora ko'proq sig'imga ega bo'lgan belgilarni qo'llash qobiliyati.
3. Bir masalani yechishda olingan ko'nikmalarni boshqa masalani yechishda qo'llash qobiliyati.
4. Voqelikni qismlarga ajratmasdan, yaxlit holda idrok etish qobiliyati.
5. Uzoq tushunchalarni osongina bog'lash qobiliyati.
6. Xotiraning kerakli vaqtda kerakli ma'lumotni berish qobiliyati.
7. Fikrlashning moslashuvchanligini ko'rsatish.
8. G'oyalarni yaratish qulayligi.
9. Yangi nostandart g'oyalarni yaratish qobiliyati, ijodiy fikrlashni rivojlantirish.
10. Faoliyatingizning "mahsulotingizni" yaxshilash qobiliyati.
11. Turli xil fikrlarni ifodalash qobiliyati.
12. Asl g'oyani yaxshilash uchun tafsilotlarni takomillashtirish qobiliyati.

Qobiliyatlarni shakllantirish haqida gapirganda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qaysi yoshda rivojlantirish kerakligi masalasiga to'xtalib o'tish kerak. Psixologlarda ijodiy qobiliyatlarni juda erta yoshdan boshlab rivojlantirish kerak degan faraz mavjud. Bu gipoteza fiziologiyada o'z tasdig'ini topadi. Bolaning miyasi ayniqsa tez o'sadi va hayotining birinchi yillarida "pishadi". Bu kamolot, ya'ni miya hujayralari sonining o'sishi va ular orasidagi anatomik bog'lanishlar mavjud tuzilmalar ishining xilma-xilligi va intensivligiga ham, yangilarining shakllanishiga atrof-muhit tomonidan qanchalik rag'batlantirilishiga bog'liq. Psixologik nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar o'ta izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyoni o'rganishga intilish kata bo'ladi. Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun asos - bu birinchi navbatda erkinlikdir. Ota-onalar bolani majburlamasliklari kerak. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun sabrtoqat va muayyan taktika talab etiladi - ota-ona bolaning fikrini tinglashi, har qanday ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishi kerak. Ota-onalar va o'qituvchilar qiziquvchanlikni rag'batlantirish, ularga bilim berish, turli tadbirlarga jalb qilish orqali bolalar tajribasini kengaytirishga hissa qo'shadilar. Tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlari katta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda ancha erkindir.

Bolalar ijodkorlikni namoyon qilishi uchun ularga ushbu xususiyatlarning barchasi birlashtirilishi kerak. Bizga ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirish bo'yicha turli mashg'ulotlar tashkil qilinib bolalar ijodiy fikrlashga yo'naltiriladi. Ushbu berilgan bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. «Ijodkorlik» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- san'at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;
- milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;
- san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;

- insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Bolaning ijodkorligini nafaqat maxsus darslarda rivojlantirish mumkin. Balki bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin ham katta ahamiyatga ega. O'yin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir. Aynan o'yinda bola ijodiy faoliyatning birinchi qadamlarini qo'yadi. Kattalar nafaqat bolalar o'yinini tomosha qilishlari, balki uning rivojlanishini boshqarishlari, boyitishlari, o'yinga ijodiy elementlarni kiritishlari kerak.

Bola fantaziyasini uning ijodiy fikrlashini rivojlantirishning yana bir yorqin manbai ertakdir. Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun pedagoglar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab ertak usullari mavjud. Ular orasida: ertakni «buzib ko'rsatish», teskari yo'nalishda ertak o'ylab topish, ertakning davomini o'ylab topish, ertakning oxirini o'zgartirish. Siz bolalar bilan ertak yozishingiz mumkin.

Hozirgi globallashuv davrida innovatsiyon texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda bolalarning fikrlash doirasi hamda ularning ijodiy qobiliyatlari ham kengayib bormoqda. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari va fikrlashlarini rivojlantiruvchi bir qator yangi dasturlar joriy etilmoqda. Jumladan: Mental arifmetika- san'at va aql idrokni rivojlantiruvchi dasturdir. Ushbu dastur yordamida bolalar nafaqat o'qishda muvaffaqiyatga erishadilar, balki hayot motivatsiyasiga ega bo'lib, ijodiy qobiliyatlari kengaymoqda. Mnemonika usuli ham tezkor xotira va ijodiy fikrlash tezligini rivojlantiruvchi dasturdir. Zamonaviy ota-onalar va o'qituvchilar o'zlariga birinchi navbatda bolani ijodiy rivojlantirish vazifasini qo'yadilar. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Shu sababli, ko'pincha o'quv dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ metodidan foydalanish va shu jarayonga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil qilish muhim bir jarayon bo'lib hisoblanmoqda.

Ushbu tizimga asoslangan o'yinlar va vazifalar faol ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, bolalar va kattalar uchun ijodiy shaxsni shakllantirish jarayonini yanada hayajonli qiladi. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, maktabgacha yosh ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari masalasi bo'yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilgandanso'ng, xulosa qilishimiz mumkinki, ularni aniqlashga bo'lgan yondashuvlar farqiga qaramay, tadqiqotchilar bir ovozdan ijodiy tasavvur va ijodiy fikrlash sifatini ijodiy qobiliyatlarning muhim tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko'rsatishadi. Shundan kelib chiqib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash mumkin

- tasavvurni rivojlantirish;
- ijodkorlikni shakllantiruvchi tafakkur sifatlarini rivojlantirish.

Bolalarning ijodiy rivojlanishining muhim sabablaridan biri ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Maktabgacha pedagogika" F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M.N. A'zamova. T. 2019
2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
3. O'yin orqali ta'lim olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
4. S.X. Jalilova, S.M. Aripova "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" Toshkent 2017
5. Z. Nishonova, G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" Toshkent 2006
6. Doniyorov, A., (2020). An incomparable book of a great scholar. Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research, (8), 63-71.
7. Omonov, Q., & Karimov, N. (2020). Importance Of Ancestral Heritage. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(09), 196-202.
8. Ziyamukhamedov, J. PU Sungling's Creative Legacy as a Classic Example of Medieval Chinese Literature. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(1). (2022).
9. Z.S.Teshaboyeva "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" (Chirchiq -2020) 85-90 bet
10. Эшова Д. III. Методы развития творческих способностей у детей дошкольного возраста //Academy. – 2020. – №. 12 (63).

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ERTAK JANRINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

M. Temirqulova

*BuxDPI I bosqich talabasi*

**Annostatsiya.** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodiga oid eng sermahsul janr hisoblanmish ertakning boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati, qaysi usullarda o'qitilishi haqida fikr yuritilgan. Ertaklar har bir xalqning tarixini, ma'naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e'tiqodini boshqa qardosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi.

**Kalit so'zlar:** ertak, janr, xususiyat, xalq, elat, to'qima, imon-e'tiqod, ma'naviy-madaniy, epik sarguzasht, hajviy.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение сказки, которая считается наиболее продуктивным жанром народного творчества, в воспитании младших школьников и способы ее преподавания. Сказки являются важным ресурсом для изучения истории, духовного и культурного быта, внутреннего мира, веры, общественных отношений с другими народами, традиций, климата и природных условий места проживания каждого народа.

**Ключевые слова:** сказка, жанр, черта, народный, фольклорный, текстильный, вера-вера, духовно-культурный, былинно-приключенческий, комический.

**Annotation.** This article discusses the importance of the fairy tale, which is considered the most productive genre of folk art, in the education of primary school students, and in which ways it is taught. Fairy tales are an important resource for studying the history, spiritual and cultural lifestyle, inner world, faith, social relations with other peoples, traditions, climate and natural conditions of the place of residence of each nation. passes.

**Key words:** fairy tale, genre, feature, folk, folk, textile, faith-faith, spiritual-cultural, epic adventure, comic.

Hozirgi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ulkan yangiliklar amalga oshirilmoqda. Yangilanayotgan O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida yondashilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev xalq ta'limini yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni ko'rsatib berar ekan, shunday ta'kidlab o'tganlar: "Nafaqat yoshlar balki butun jamiyatimizga zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, „Eng kata boylik- bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng kata qashshoqlik – bu bilimsizlikdir"! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak".

Hozirgi ta'lim-tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayanishga alohida e'tibor qaratilmoqda va inson ma'naviyatini shakllantirishga birlamchi vazifa sifatida yondashish ustuvor bo'lib bormoqda. Uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lmish boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflardagi ona tili va o'qish savodxonligining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularning og'zaki va yozma nutqi hamda tafakkurini o'stirish, faollik, mustaqillik, ijodkorlik kabilarni shakllantirish hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishga muhim vazifa sifatida yondashiladi. Bu borada ertaklarni o'qitishning katta ahamiyati bor desak, yangilishmagan bo'lamiz.

Ma'lumki, ertaklar xalq og'zaki ijodiyotining eng qadimiy ommaviy va keng tarqalgan janrlardan biri hisoblanadi. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik turiga mansub. Uning o'ziga xos xususiyati voqeabandligi, biror voqeani mukammal hikoya tarzida bayon qilinishidir. Ertaklar turmush voqeligini ajoyib va g'aroyib, jozibali qilib kishilarda badiiy zavq uyg'otadigan

qilib aks ettirilgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinflardagi ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari o'rganilishi lozim bo'lgan materialning mazmuni va tuzilishini belgilaydi. Shunday ekan boshlang'ich sinflarda ko'plab ertaklar o'rganiladi.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'qitish o'qituvchilar oldiga quyidagicha talablarni qo'yadi:

- 1) Ertak matnlari asosida o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini oshirish;
- 2) O'quvchilarning matn mazmunini to'la tushunishga o'rgatish;
- 3) Ertakdagi obrazlarni bir-biridan farqlay bilishga erishish;
- 4) O'quvchilarni voqea-hodisalarni, hayotiy faktlarni to'g'ri tushunishga o'rgatish;
- 5) O'quvchilarning estetik zavq olishlariga erishish;
- 6) Ertaklardagi qiyin so'zlarning to'g'ri tushunilishiga yordam berish;
- 7) O'z axloqiy sifatlarini obrazlarning axloqiy sifatleri bilan qiyoslab ko'rish orqali ma'lum xulosa chiqarishga o'rgatish;
- 8) O'quvchilarning ertaklarni to'liq holda ikkinchi shaxsga aytib berishlariga erishish.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanish qulay:

1. O'quvchilarda ertaklarga qiziqish hissini uyg'otish maqsadida, ularning leksik va sintaktik xususiyatlarini qo'llagan holda, og'zaki hikoya qilib berilishi va shunday hikoya qilib so'zlashlari talab etilishi lozim. Chunki ertak mazmunining o'quvchilarga to'la yetib borishi uchun o'qituvchi yoki o'quvchi uni mustaqil badiiy hikoya qilishi lozim.

2. Ertak hikoya qilib berilgandan so'ng, mustaqil o'qitilishi, o'qish jarayonida ayrim (tushunilishi qiyin) so'zlarga izoh beriladi.

3. Ertakning g'oyasi savol- javob yo'li bilan tushuniladi.

4. Ertak syujeti asosida rasmlar chizilishi lozim.

5. Ertak qahramonlarining sifatleri hayotdagi ayrim kishilar xarakterlariga, sifatlariga solishtirib o'quvchilar xulosalarini mustaqil aytishlari o'quvchilardan talab qilinadi.

6. Ertak mazmuni asosida o'quvchi aqliy faoliyatining rivojlantirilishiga doir mustaqil ish qo'llanadi.

Boshlang'ich sinflarda ertak matnlari o'qilganda, o'quvchilaridan quyidagilar talab etilishi lozim:

1. Ertakdagi har bir so'z va gapning ma'nosini bilishga intilish.

2. Har bir mantiqiy tugallanmagan qismning ma'nosini anglash va so'zlab berish.

3. Ertakdagi asosiy va ikkinchi darajali fikrni topa olish, ularni bir- biriga taqqoslay olish.

Bir so'z bilan aytganda, ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali muvofiqlashtirib, o'quvchi shaxsini kamol toptirishni ta'minlashda xalq ertaklarining o'rni beqiyosdir. O'quvchi o'zi sevib qolgan ertak ijobiy qahramonlaridan o'rnak olishga, halollikda, to'g'riso'zlikka, mehnatsevarlikka intiladi. Salbiy qahramonlardan esa nafratlanib, ularga o'xshamaslikka harakat qiladi.

Demak, o'quvchilarning ham bilimga qiziqishini oshirishda, ham ularni komil inson qilib tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish ijobiy natija ko'rsatadi. Shu bilan birga ertak o'quvchilar nutqini o'stirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ertak matni bog'lanishli nutqni o'stirish uchun zarur material beradi, ertaklarning tili g'oyat sodda, aniq, o'ziga xos obrazli ifodalarga boy bo'lib, o'quvchilarning fikrini, nutqini o'stirishda g'oyat muhimdir. Ertak voqealari esa bolalarning tassavurini o'stiradi, tushunchalarini kengaytiradi hamda ijodiy qiziqish uyg'otadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. -T.: Fan, 1964
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: 1999.

3. O'zbek xalq ijodi. O'zbek xalq ertaklari. Gulpari. –T.: Cho'lpon, 1969.
4. O'zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. 2-tom. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1964. – 516 b.
5. Imomov K. O'zbek xalq ertaklari \ O'zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. –B.62-69.
6. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. –T.: Fan, 1991. –B. 67
7. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – С. 3-5.
- Hayitov H. A. Literary influence and artistic image //Экономика и социум. – 2019. – №. 8. – С. 11-14.
8. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. XX ASR QISSACHILIGI TARAQQIYOTIDA FOLKLORNING LATIFA JANRI TA'SIRI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 302-304.
9. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – С. 101-105.
10. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZBEK QISSALARITAHLLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 350-352.
11. Ahmadovich H. H. et al. O'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYATO'G'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 349-350.
12. Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 293-294.
13. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 332-334.
14. Ahmadovich H. H. et al. O 'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARS DAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 343-345.
15. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 306-309.
16. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 100-102.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QOG'UZ VA KARTON BILAN ISHLASH MAZMUNI BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Dilnoz Jo'rayeva**

*Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti BuxDPI dotsenti,  
p.f.f.d Saidova M.J. taqrizi asosida*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida qog'oz va karton bilan ishlash mazmuni bilan tanishtirish metodikasi, usullari asosida yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** texnologiya darslari, qog'oz va karton, kompetensiya, milliy dastur, qirqish, buklash, o'lchash.*

Birinchi sinfda o'quvchilar eng avvalo faqat dars mashg'ulotlaridagina emas, balki



boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Bu barcha o'quv anjomlari daftarlar, kitoblar, o'quv qo'llanmalari, nashr qilinadigan qog'oz turlari, yozadigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan, kitob va gazeta qog'ozlaridir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy xususiyatlari rangi, qalinligi, zichligi, siyohni ishlash xususiyati, satxining xarakteri, silliq, g'adir-budirligi bilan tanishadilar. O'quvchilar amaliy mashg'ulotlarda qog'oz varag'ini buklaydilar va to'g'rlaydilar, ularni qismlarga bo'lib yirtadilar, qirqadilar va bo'yaydilar. Shu bilan birga qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarni shaklini yasaydilar. "Qog'oz va karton bilan ishlash" o'quvchilarning garmonik rivojlantirishida katta ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa, rangli qog'oz bilan ishlash ularning ijodiy

qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyasini boyitadi, kuzatuvchanligi, diqqat va tasavvurini faol lashtiradi, irodasini tarbiyalaydi, qo'l texnologiyasiga, chamalash va rangni sezishni o'stiradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasbhunarga yo'naltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish layoqatlarini shakllantirishdan iborat.


Boshlang'ich sinf o'quvchilari qog'oz va kartonga ishlov berishda quyidagi usullarni o'rganadilar:

- Qog'ozni turi, navi, rangi, o'lchamiga qarab tanlash usullari;
- Qog'ozdan turli o'lchamdagi maketlar yasaganda, qog'ozga ishlov berishning eng oddiy usullari va metodlari sifatida qog'ozni markazidan buklab va to'rt burchak qilib buklash (uzunasiga va ko'ndalangiga) usullari;
- Ingichka qog'oz parchalarini to'g'rilash, bukilgan joylarini ikki tomonidan qaratib buklash usullari;
- O'lchami 45-90 gradus burchak hosil qilib buklash usullari;
- Qog'ozni buklab, belgilangan chiziq bo'yicha qaychi bilan qirqish, asbobni ushlash texnologiyasi, texnika xavfsizlik choralarini qo'llash usullari;
- Qog'ozni andoza bo'yicha belgilab olish. Qalam bilan chiziq bo'yicha oddiy metod orqali belgilash usullari;
- Qaychi bilan kvadratlar, turli burchaklar, uchburchaklar, doiralar qirqish usullari;
- Qaychi bilan murakkabroq shakllar: barglar, qo'ziqorinlar, mevalar, sabzavotlarni qirqish usullari;
- Qog'ozdan qirqilgan applikasiya kompozitsiyalari detallariga yelim surtish usullari;
- Applikasiya detallarini bosqichma-bosqish yelimlab yopishtirish. Tayyor kompozitsiyalarni quritish usullari;
- Qog'ozning yelim surtiladigan detallarini oldindan ko'chirib buyum qismlarini bir-biriga texnologiya asosida yelimlash.
- Turli xildagi o'yinchoqlarni kvadrat asos va to'g'ri burchak asosidan bukib yasash usullari;
- Daftar, kitoblarni muqovalash texnologiyasi va usullari;
- Qog'ozni eish, buklash va turli xildagi shakllar yasash usullari.

Shuningdek o'quvchilar ishlov berilayotgan materiallarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, ish usullaridan ongli foydalanishlari, amaliy mashg'ulot jarayonida fan asoslarini o'rganish vaqtida egallagan bilimlarini amalda qo'llashlari lozim.

### **Qog'ozni buklash usullari.**

- qog'ozni teng ikkiga buklanadi;
- stol ustiga qo'yiladi;
- o'ng hamda chap qo'l bilan qog'ozni o'ziga yaqin






turgan tomonining ikki uchidan ushlab turiladi;

➤ uni pastki uchlari bilan tenglashtiriladi.

➤ so'ng qog'ozning uchlarning qirrasini bir-biriga to'g'ri tushishi kerak.

➤ oxirgi bosqichda qog'oz qo'l bilan tekislanib, uning bukilgan chizig'i ustidan tirnoq bosib yurgiziladi.



***Qog'ozni bukilgan joyidan yirtish.***

**1- Usul: Qog'ozni yirtishdan oldin, avval ehtiyotlik bilan ochiladi, uning bir tomoni o'ng qo'l bilan bosilib, chap qo'l bilan bukilgan chiziqdan sekin yirtiladi.**



1-bosqich.



2 – bosqich.

**2- Usul: Bukilgan chiziq ustiga chizgichni qo'yib ham qog'ozni yirtish mumkin.**



1- bosqich.



2 – bosqich.



3 - bosqich

***Qog'ozni bukilgan joyini pichoqda qirqish.***

• Qog'ozni buklab, tirnoq bilan bosib iz tushiriladi;

• Shundan so'ng uning buklangan chizig'ini o'ng tomonga qilib stol ustiga qo'yiladi;



**Oxirgi bosqichda esa uning orasiga pichoqni tiqib yurgiziladi.**


***Qog'ozni qaychi bilan qirqish.***

• Qaychi o'ng qo'lida ushlanadi;

• Ish vaqtida qaychini to'g'ri ushlab turish lozim;

• Qirqilayotgan qog'ozni undagi kesish chizig'i aniq ko'rinishi uchun aylantirib turiladi.





### **Qog'ozni yopishtirish.**

- Birinchi navbatda stolning ustiga gazeta yoziladi;
- So'ng uning ustiga kerakli o'lchamda qirqib olingan rangli yoki istalgan qog'oz qo'yiladi;
- Yelim yordamida o'rtasidan chetiga avval chap, so'ngra o'ng tomonga qarab yelim surtiladi;
- Yelim tez, yupqa, e'tibor bilan suriladi;



Yelim surilgan qog'ozni yopishtiriladigan predmetning ustiga qo'yib, uning ustidan g'ijimlanishlar bo'lmasligi uchun asta sekin bosib tekislanadi.

### **Qog'oz va kartonni o'lchash usullari.**

- Texnologiya darslarida qog'ozni o'lchash usullari o'quvchilarda unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi.
- Ular matematika darslarida doimiy qo'llanadigan asboblari yordamida bajariladi.
- Amaliy ish jarayonida o'quvchilarga: oddiy chizg'ich, turli shakldagi chizg'ich turlari va sirkuldir.



Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy xususiyati, afzalliklari shundaki, amaliy mashg'ulot jarayonida buyumlarning, narsalarning umumiy ko'rinishidagi yig'ma, chizma va buyumning namunasidan, andozasidan yoki faqat texnikaviy rasm va chizmalardan keng foydalaniladi. O'qituvchi texnologiya darslarida o'quvchilarning yig'ma chizmani o'qishga, chizma va namunadan barcha detallarni, ularning o'lchamini aniqlab olish va har qaysi detalni, andozani mustaqil belgilab anglab olishga o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarga

namunalar, maketlar va texnologiya darsidagi chizmani ko'rsatib, o'quvchilar bilan maketni, buyumni yasash uchun nechta detal tayyorlash kerakligini, ularning o'lchami shakli qanday bo'lishini bosqichma-bosqich aniqlab borishadi.

O'quvchilar chizmaga qarab to'g'ri to'rtburchak, uchburchak shaklida ekanligini aytadilar. So'ng qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar oldindan quyidagicha tayyorgarlik ko'rib kelishadi:

➤ stolning ustiga qog'oz yozib, ish uchun kerakli bo'lgan ish anjomlari va materiallarni olib tayyorlaydilar.

➤ har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerakli bo'ladigan ish anjomlarini yozib oladilar.

Xulosa. O'quvchilar ishlayotgan materiallarga nisbatan tejamkorlik, estetik did, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda munosabatda bo'lishlari, o'z ishini rejalashtira bilishlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, shu bilan birga ish joylarini toza va ozoda tutishlari, sinf xonasini tozalab qo'yishlari lozim bo'ladi. Shuningdek barcha fanlarda qo'llanilganidek, texnologiya darslarida ham ta'limning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, texnologiya darslarida turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, andoza, turli predmetlar shuningdek, texnik vositalardan juda ham keng foydalaniladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, "Qog'oz va karton bilan ishlash" mashg'ulotlarida o'quvchilar qog'ozni egish, buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o'rganib boradilar. Ana shunday mashg'ulotlar davomida o'qituvchi quyidagi ko'rsatmali qurollardan oqilona foydalanishi mumkin. Shu bilan o'quvchilar bu ko'rgazmalarni yasashning ketma-ketligiga rioya qilgan holda, mashg'ulot davomida uning yasash texnikasini o'rganib borishlari mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy o'quv dasturi "Texnologiya"
2. Kurbanov A. Boshlang'ich sinflarda texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlar. Uslubiy qo'llanma. –Samarqand. 2020. –110 sahifa.
3. Z.D.Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo'rayev "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" Buxoro-2020
4. R.A.Mavlonova, M.T.Satbayevalarning "Mehnat o'qitish metodikasi" – Toshkent -2013

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODIYOTINING O'RNI VA MILLIY AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Qahhorova Abera Sharopovna**

*BDPI 2-bosqich magistranti.*

**Annotasiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda tasavvurni rivojlantirish usullarining ahamiyati bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** urf-odat, folklor, ertak, SWOT texnologiyasi

**Abstract.** The article describes the importance of imagination development methods in the development of creative activity of elementary school students.

**Keywords:** tradition, folklore, fairy tale, SWOT technology

**Аннотация.** В статье раскрывается значение методов развития воображения в развитии творческой активности учащихся начальных классов.

**Kirish:** O'zbekistonimizning har bir hududida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Har bir hududning folklor qo'shiqlari, urf-odatlari, milliy kiyimlari, milliy raqs va hunarmandchiligi, tarixi va yashash tarzi o'ziga xos. Uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi, hatto insoniyat yaralishining ilk bosqichlaridanoq desak ham mobolag'a bo'lmaydi. U og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'tib, xalqning iste'dodli vakillari ijrosida sayqal topadi. Folklor asarlari dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'shanday holicha saqlanib qolmay, ijodiy qayta ishlanib, turli o'zgarishlarga uchrab, yangi yangi ma'lumotlar bilan boyib, tarixiy sharoitga

moslashib , shu bilan birga yozma adabiyotga ijobiy ta'sir etadi. Garchi biz ilk folklor namunalarning asl holiga qiziqadigan bo'lsakda, yuqorida ro'y beradigan o'zgarishlarning ham bir qator ijobiy tomonlarini ko'rishimiz mumkin:

-tarixiy voqea-hodisalarga aniqlik kiritish;

-ma'lum davr mobaynida oddiy xalq va davlat amaldorlari ruhiyati yoinki ular

o'rtasidagi munosabatlar;

-qadimiy urf-odatlar va madaniy hayot tarzi, mehnat jarayonlari

- yozuvchi va shoirlar, qissaxon-u baxshilar va laparchilarning, shu jumladan oddiy xalqning ruhiyati , kechinmalari;

Yuqoridagi tadqiqatlardan kelib chiqib, ma'lum xalqning folklori o'sha xalqning , madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va hatto iqtisodiy tomonlama tarixini o'rganishda tarixchilar uchun samarali xizmat qilishi tayin deb ayta olamiz. Zero, folklor bu ajdodlarimizning tafakkuri va dahosini namoyon etuvchi ma'naviy xazina hisoblanadi. Demak asosiy maqsad va vazifa ana shu manaviy xazinani asrab avaylash, qolaversa , uni yosh avlodga yetkazish hisoblanadi.

Bolalar ertaklarni o'qigandan ko'ra eshitishni yoqtirishlari hayotiy haqiqat. Kichkina paytlarida uxlashdan oldin ertak eshitib uyquga ketish, ertak aytib berishimizni so'rashlaridan ham buni anglash mumkin. Sababi, ertakni o'qib tushungandan ko'ra tinglab tushunish qobiliyati ertaroq rivojlanadi. Bolalarning multfilmlarni xush ko'rish sababi ham ertaklardagi qahramonlarning xatti- harakatlarini, qahramonliklarini eshitganlaridagi tasavvur ko'rgan paytida yanayam jonlanadi va qiziqishni orttiradi. Ertaklarda voqealar qachon, qaysi vaqt ro'y bergani aniq bayon qilinmasa ham ular hech qachon ahamiyatini, ohorini yo'qotmay keladi. Xalq og'zaki ijodining bu o'lmas namunalari maktab darsliklaridan ham joy olgan bo'lib, joriy 5- sinf adabiyot darsligida „Uch og'a-ini botirlar“, jahon adabiyotidan Aka-uka Grimmlarning „Botir tikuvchi“ ertaklari kiritilgan. Bu ertaklar dars jarayonida zamonaviy multimedia vositalar yordamida tushuntirilganda o'quvchilarning shuuriga singishiga, asosiy tarbiyaviy g'oyasini saqlagan holda yetib borishiga erishiladi, deb hisoblaymiz. „Uch og'a-ini botirlar“ ertagida mo'ysafid otaning o'gillariga: „To'g'ri bo'ling - bexavotir bo'lasiz, maqtanchoq bo'lmang - xijolat tortmaysiz, dangasa bo'lmang - baxtsiz bo'lmaysiz“, deya tarbiyalashiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, katta hayotda haqiqiy inson bo'lishda bu xislatlar muhim ekanligini anglash mumkin. Dars jarayonida ertakdagi shu va boshqa epizodlarni rollarga bo'lib, audio shaklda taqdim etish, ertak asosida yaratilgan multfilmdan parchani „Karaoke“ usuli orqali qo'yib berish mumkin. Bunda monitor orqali mutfilm ko'rinib turgan holda uning patski qismida qahramonlarning nutqlari ovozsiz karaoke shaklida namoyish qilinadi, o'quvchilar esa rollarga bo'linib ularni ijro etishi mumkin. Ushbu usul orqali o'quvchi o'sha ijro etgan obrazini yanada chuqurroq his qilishi, ertakning didaktik g'oyasini anglashi, karaoke vositasida so'zlarni to'g'ri o'qishni, talaffuz me'yorlarini o'zlashtirishi kabi natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Shuningdek, darsning mustahkamlash qismidan 5-8 daqiqa ajratilib, interfaol o'yinlar, mashqlar, korssvord, animatsion ko'rinish, video, audio materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday vositalarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy dasturlar ko'makdosh bo'ladi:

*Web Page Maker QR-kodli topshiriq iSpring Quiz Maker Learning Apps.org*



*EdrawMax*



*iSpring Suite*



*MindMaple*



*Crossword Forge*







O.Abdullayeva „Umumiy oʻrta taʼlimda ertak oʻqitish metodikasi“ tadqiqotida ertak oʻrganish darslarining qurilishini quyidagicha qismlarga ajratgan edi: 1. Ertak bilan tanishtirish: a) oʻquvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash; b) oʻqituvchining ertakni ifodali oʻqishi, yod aytib berishi. 2. Ertakni oʻquvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat oʻtkazish; 3. Ertakni qismlarga boʻlib oʻqish va tahlil qilish; 4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish; 5. Ertakni soʻzlab berish; 6. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak gʻoyasini ochib berish) 7. Maʼlum topshiriq asosida ertakni qayta oʻqish; 8. Vazifani tekshirish va yakunlash; 9. Uyda ertakni oʻqib (yoki aytib) berishga tayyorlanish“. Darhaqiqat, muayyan badiiy matn maʼlum bosqichlar asosida oʻzlashtirilgandagina kutilgan ijobiy natijaga toʻliq erishish mumkin. Ertak matni ustida ish olib borganda oʻquvchilarning ertak mazmuniga mos savollar tuzishi, ularga javob berishi, reja tuzishi, bosh qahramonlar xususiyatlarini muhokama qilishi, biron epizodini tasvirlab berishi mumkin. Masalan, yuqorida taʼkidlab oʻtilgan. Aka-uka Grimmlarning „Botir tikuvchi“ ertagidagi Gansga xos boʻlgan xususiyatlarni „SWOT texnologiyasi“ orqali sanab bering“,

Oʻquvchilar taxminan quyidagicha bajarishlari mumkin:

„SWOT“ tahlili: S — Strengths (Kuchli tomonlari), W — Weaknesses (Zaif, kuchsiz tomonlari), O — Opportunities (Imkoniyatlari); T - Threats (Xavf-xatar yoki toʻsiqlar)

Mazkur metoddan „Botir tikuvchi“ ertagini oʻrgatish davomida foydalanish mumkin. Yaʼni guruhlariga boʻlingan oʻquvchilar oldiga Oansning kuchli tomonlari, kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari va bunga toʻsiq hoʻluvchi omillarni aniqlash vazifasi topshiriladi.

Eʼtibor qiladigan boʻlsak, tikuvchi butun asar davomida biror kimsaga yomonlik tilamaydi. Lekin uning yaxshi insonligiga shubha qiluvchi hasadgoʻylar unga har xil tuhmat-u boʻhtonlar yogʻdirishadi va oxirida oʻzlari qiynalib qolishadi. Ertakda toʻgʻrisoʻzlik, mehnatsevarlik, halol va mard boʻlish kerakligi gʻoyasi ilgari surilgan. Oʻqituvchi har bir asarning xoh u sheʼriy, xoh nasriy asar boʻlsin dars yakunida xulosalovchi fikr aytishi lozim. Shundagina oʻquvchilarning asarni toʻgʻri anglay olishiga erishish mumkin boʻladi. Zotan, ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatlarini muhokama qilib, baholash koʻnikmasini oʻstirishi bilan birga yaxshilikning doimo gʻalaba qozonishiga ishonch uygʻotadi. „Oʻquvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida „kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi)“, „Nima uchun?“, „... nima uchun jazolandi? (yoki ragʻbatlantirildi?)“, „Nima uchun ertakdagi baʼzi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari yordam berdi? (yoki baʼzilaridan yuz oʻgiradi?)“ kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib xulosa chiqaradilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va sanʼat, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz maʼnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (Oʻzbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi maʼruza).

2. Afzalov M. Oʻzbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964. – 68 b.;

3. Imomov K. Mirzayev T. Sarimsoqov B. Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. - Toshkent: «Oʻqituvchi», 1990.4-14-betlar.

4. Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzali ijodi.-Toshkent.: “Musiqqa” 2010- yil.7-9 bet

5. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022
6. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qoʻllanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
8. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).
9. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 41-43.
10. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
11. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
- 12.1. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
- 13.2. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
14. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
15. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т. 23. –№. 23
16. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
17. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
18. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.
19. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools." European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 14 (2022): 106-109.
20. Ergashovna, Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades." ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH 10.5 (2021): 715-719.

## BADIY MATN TAHLILI ORQALI UNI IDROK QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH AN'ANALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Nishonova Nigora Azamatovna,**

*BuxDPI magistranti*

**Ziyodulloeva Sadoqat Murodullayevna**

*Vobkent tuman 4-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy matn tahlili orqali uni idrok qilish ko'nikmasini shakllantirish an'analari haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** badiiy matn, tayanch kompetensiyalar, fanga oid kompetensiyalar, ta'lim, kommunikativ kompetensiya, mehnatsevarlik kompetensiyasi.

O'quvchilarni xalqaro PIZA baholashning asl mohiyati ham aslida bolalarda tafakkur uyg'oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o'rgatish desak yanglishmaymiz. Ayniqsa, ona tili va adabiyot darslarida turli she'r va hikoyalar mazmuni nazariy jihatdangina emas, amaliy mushohadaga erishilishi mumkin. Ya'ni yosh qalblarning sezgi va hissiyotlariga ijobiy ta'sir qilish uchun har qanday hikoya mazmuni ular ruhiyatiga singdirilib, so'ngra mustaqil topshiriqlar orqali munosabat aniqlansa, maqsadga erishiladi.

Umuman, boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy ijod namunalari faqat yod



olish, mazmunini soʻrash bilan cheklanmasdan, ularni anglash va his qilish, shu asosda oʻz munosabatini, mantiqiy xulosalarini rasm chizish, sheʼr yozish, esse, ijodiy ish, kichik loyiha ishlarida aks ettirishga, badiiy talqin etilgan voqea, muammoni hal etish rejasini aniq dalillarda ishlab chiqilsa oʻquvchi tafakkuri teranlashadi. Mantiqiy mushohada orta borgan sari darslarning rang-barang koʻrinishlari ham yuzaga keladi. Natijada, oʻquvchilar har bir hikoya yoki sheʼrni oʻzlari uchun bir tadqiqot ishidek qabul qiladilar.

Chunki bu yoshdagi bolalarning ichki olami nihoyatda boy. Ular hali koʻp narsani bilmasa-da, lekin bilishdan iborat maʼnaviy ehtiyoj jarayonini boshdan kechiradi. "Bolalarga oʻzlari sezgan va oʻylaganlarini gapirib berish gʻoyat qiyin, chunki ularni soʻzda ifodalashga toʻgʻri keladi", – deb yozgan edi Yanush Korchak taxallusi bilan butun dunyoga tanilgan polyak adibi Genrika Goldshmit. - Bundan ham ogʻirroqʻi esa yozish. ... lekin bolalar shoir va faylasufdirlar. "Darhaqiqat, u oʻzining pedagogik tajribasi, bolalar shifokori sifatidagi bilimi, betakror yozuvchilik iqtidori orqali bolalik dunyosining koʻpgina sir-asrorlarini ilgʻay olgan; xususan, bola qalbining erkinligi qushga, kapalakka va gulga qiyoslanishini, hamchunin ular oʻzlariga jonivorlar, hasharot-u hayvonlarni aka-uka, yoxud, tengqur doʻstdek tutishini taʼkidlaydi. Chindan ham shunday. Bolalar tabiatidagi "shoirlik"-ularning hamma narsadan hayratlanishlari, har bir hodisadan hayajonlanishlari boʻlsa, "faylasuflik" - hayratni va hayajonni qoʻzgʻagan shu narsalar va hodisalarning asl mohiyatiga qiziqishlaridir. "Bu nima?", "Bu nega bunaqa?", "U nima deydi?", "U nega katta yoki nega kichik?", "U qanday oʻsadi?", "Nega qattiq?", "Nega yumshoq?", "Suv nega qotadi?", "Quyosh qanday qizitadi?", xullas, shu xildagi sanoqsiz savollar bu yoshdagi bolalarning qiziqishlari hosilasi boʻlib, ana shu savollarga topgan va topolgan javoblari-olamni oʻzlashtirish yoʻllaridir. Olam ular uchun jumboqqa aylanarkan, ularning oʻzlari ham "nimavoy"ga aylanishlari tabiiydir. Shu maʼnoda N. Nosov yaratgan Pochemuchka (Nimavoy-oʻzbek tilida Bilmasvoy tarzida tarjima qilingan)-bu yoshdagi bolalarning umumlashma obrazi darajasiga koʻtarilgan. Bunday umulashma obrazni Q.Muhammadiyning "Tabiat alifbesi" turkumiga kiruvchi lirik qahramon timsolida ham koʻrish mumkin. U ham butun vujudi bilan "Yongʻoqni nega yongʻoq deymiz?" yoki, "Yongʻoqning qobigʻi nega qattiq?" "Olcha nega qip-qizil?", "Oʻrik nega sargʻayib pishadi?", "Jiydaning shoxi nega egigʻi?", "Shaftolining bargi nega achchiq?", "Sada nega meva qilmas?", "Dada, bogʻbon nega tokni qirqib turadi?" yoki, "Tok daraxti bir xil-u uzumlari nega har xil?", "Mol nega kavsh qaytaradi?", "Chittak nega chittak?" singari son-sanoqsiz savollarga aylangan. Q.Muhammadiy bu savollarga poetik javob berish maqsadida "Nima toʻgʻrisida asar yaratmasin, nima haqda gapirmasin, doim oʻsha narsadan inson hayotini koʻzda tutib, maʼno izlaydi. Shoir shu maʼnoni topadi ham. Bu maʼno doim bolalarning hayotdan oladigan birinchi taassurotlarini izohlaydi, uning dunyoqarashi shakllanishiga xizmat qiladi." Eng muhimi, bolada insonni sevish, kasb-u koriga ragʻbat bilan qarash, shu asosda hayotni anglash va sevish tuygʻusini ardoqlab oʻstiradi.

Boshlangʻich sinflarda hikoya sujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini oʻrganish boʻyicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda oʻquvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi. Oʻqish kitoblarida hikoya janri sinfdan-sinfga oʻtilgani sayin oshib borishi, mavzu-mundariyasi kengaya borgan ayonlashadi. Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yoʻli, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat boʻlib qolishi mumkin.

Metodist olimlarning tadqiqotlariga koʻra, oʻquvchilar asarni idrok qila olishlari uchun uni ongli oʻqishga oʻrganisklari lozim. Bu yaxshi oʻqish sifatini oshirib, matnning mazmuni, gʻoyasi, obrazlar olami, badiiy vositalar ahamiyatini anglashga yordam beradi. Muhimi esa oʻqilgan badiiy matn haqida oʻquvchining oʻz tushunchasi, fikri paydo boʻlishidir. Yaʼni ona tili va oʻqish savodxonligi, Oqish darsliklarida keltirilgan hikoya, qissadan parcha, yoki sheʼriy

hikoyalardagi syujet voqealariga shaxsiy munosabat bildira olish malakasi shakllanadi. Badiiy matnni idrok qila olish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili fani savodxonligi bilan ham chambarchas bog'liq albatta.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. – T.: Tasvir – 2021.
2. Nishanova Z., Alimova G., Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T.: - 2006.
3. G'afforova T., Shodmonov E. 1-sinf Ona tili.-2017
4. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – С. 3-5.
- Hayitov H. A. Literary influence and artistic image //Экономика и социум. – 2019. – №. 8. – С. 11-14.
5. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. XX ASR QISSACHILIGI TARAQQIYOTIDA FOLKLORNING LATIFA JANRI TA'SIRI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 302-304.
6. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – С. 101-105.
7. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 350-352.
8. Ahmadovich H. H. et al. O'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYA TO 'G'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 349-350.
9. Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 293-294.
10. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 332-334.
11. Ahmadovich H. H. et al. O'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARS DAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 343-345.
12. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 306-309.
13. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 100-102.
14. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
15. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
16. AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN'S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)
17. Нигора Бахтиёровна Адизова, Ҳилола Худойбердиева. ҚИЗИҚМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress
18. Nigora Baxtiyorovna Adizova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarining o'rni va ahamiyati. Scientific progress
19. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
20. . NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
21. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545

# MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHI BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJODIY MAZMUNDAGI TOPSHIRIQLARNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

F. M. Kasimov

BDPI professori, p.f.n.

Ashurova Go'zalxon

BDPI 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada matematika darslarida o'quvchi biluv faoliyatini o'stiruvchi ijodiy mazmundagi topshiriqlar o'rni, ijodiy topshiriqlar va ularning tizimi oldiga qo'yilgan talablar, milliy dastur asosida yaratilgan boshlang'ich sinf matematika darsliklarida ijodiy mazmundagi topshiriqlar va bu topshiriqlar ustida ishlash metodikasi haqida fikr yuritiladi,

**Kalit so'zlar:** Biluv faoliyati, topshiriq, ijodiy mazmundagi topshiriq, ijodiy toshiriq ko'rinishlari, metod, vosita.

Insonlar orasida bir naql bor: Matematika fanlar ichida shoh, uning sirlaridan bolingiz oh. Mamlakatimiz prezidenti Sh.M. Mirziyoyev bu fan to'g'risida fikr bildirib, "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi"-deb, bejiz aytmaganlar. Bu fanning dastlabki poydevori boshlang'ich sinflardan boshlanadi. O'quvchilarning matematikadan puxta bilimga ega bolishlari ularda mustaqil ishlash, ijodiy ko'nikmalarning shakllanishiga bog'liq.

Maktabga endi qadam qo'yan bola o'quvchi maqomini oladi. Unda asta-sekinlik bilan o'quv-biluv faoliyati shakllana boshlaydi. O'quv faoliyati o'quvchi xotirasiga qaratilgan bo'lsa, biluv faoliyati o'quvchi tafakkuriga qartilgan faoliyat turidir. O'quvchida biluv faoliyati shakllanishi va rivojlanishida o'quv topshiriqlari, ayniqsa, ijodiy mazmundagi topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining biluv faoliyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ijodiy mazmundagi topshiriqlar turlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'quvchilar tomonidan mustaqil misol va masalalar tuzish, ularni o'zgartirishga doir;
- misol va masalalarni biror belgisiga ko'ra sinflarga ajratishga doir (kombinatorik xarakterdagi topshiriqlar);
- taqqoslashga doir;
- masalalarni turli usullarda yechishga doir;
- ma'lumotlari yetishmaydigan, yoki ortiqcha ma'lumotli masala-topshiriqlar;
- ko'p yechimli masala-topshiriqlar;
- nostandart yechim yo'liga ega bo'lgan masala-topshiriqlar;
- algebraik va geometrik mazmundagi ijodiy topshiriqlar;
- muammoli masala-topshiriqlar;
- ifoda, tenglama, tengsizliklar tuzish va ularni bajarishga oid topshiriqlar.

Albatta boshlang'ich sinflarda matematika ta'limi jarayonida tadqiq qilinadigan bunday ijodiy mazmundagi topshiriqlar tasnifi nisbiydir.

Matematikadan ijodiy mazmundagi topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiq:

- ijodiy mazmundagi topshiriqlarning o'quv materiali mazmuniga tengligi;
- ijodiy mazmundagi topshiriqlarning o'quvchilar yoshi, real o'qish imkoniyatlariga mosligi;
- ijodiy topshiriqlarning ta'lim jarayoni bosqichlariga teng kuchliligi;
- topshiriqlarning bir-biriga bog'liqligi;
- o'quv topshiriqlarning bir-birini to'ldirishi;

-o'quv topshiriqlarning kompleksligi.

Ijodiy mazmundagi topshiriq o'quvchidan o'rganilgan bilimlarni tadbiq etish bilanbirga mustaqil fikr yuritishni,izlanishni,tegishli xulosa chiqirishni talab etadi.Birinchi sinfda"100 ichidagi sonlar" mavzusida bajariladigan ayrim topshiriqlar yuzasidan mulohaza yuritamiz.Ikki xonali sonlarni taqqoslashga doir

52...48, 98...97, 65...56, 78...78 misollar o'quvchi o'quv faoliyatini mustahkamlashga qaratigan bo'lsa,o'quvchi biluv faoliyatini shaklantirishga doir quyidagi topshiriqni bajartirish yaxshi samara beradi.

Topshiriq:Juftliklardan qaysi biri kata ekanligini izohlang:

- a) 9... va 8...
- b) 6... va ...8
- c) ...3 va ...8
- d) 7... va ...8

Ushbu topshiriq 100 ichida ikki xonali sonlarni taqqoslashga oid ko'p yechimli topshiriq.Butopshiriqning murakkabligi o'quvchining misollar ustida qilinadigan mushohadasida ko'zga tashlanadi: a) birinchi misolda o'nlik xonada turgan raqam9,birlik xonadagi raqam tushirib qoldirilgan.Demak,son to'qqizinchi o'nlik sonlari bo'lishi mumkin.Ikkinchi o'nlik son raqami 6,birlik raqami tushirib qoldirilgan.Bu son 60,61,62,63,64,65,66,67,68,69 bo'lishi mumkin.Ikkala sonda tushirib qoldirilgan raqamlar o'rniga xohlagan raqamni qo'yib, 9..soni 6..sonidan kata ekanligi izohlanadi.b) ikkinch misolda chap tomondagi sonning o'nlar xonasidagi raqam 6,birlar xonasidagi raqam tushirilib qolgan.Demak bu son 60,61,62,63,64,65,66,67,68,69 sonlari bo'lishi mumkin.Taqqoslanuvchi o'ng tomonda turgan ikki xonali sonning o'nlar xonasidagi raqam tushirilib qolgan,birlar xonasidagi raqam 8.Bu sonlarni taqqoslar ekanmiz,quyidagicha fikr yuritamiz:Agar o'ng tomondagi sonning o'nlar xonasiga 7,8,9 raqamlarini qo'ysak,o'ng tomondagi ikki xonali son chap tomondagi ikki xonali sondan kata bo'ladi.Agar o'ng tomondagi ikki xonali sonning tushirib qoldirilgan o'nlar xonasida 1,2,3,4,5 raqamlarini qo'ysak,chap tomondagi ikki xonali son o'ng tomondagi ikki xonali sondan katta bo'ladi.Agar o'ng tomondagi ikki xonali son o'nlar xonasida 6 raqamini qo'ysak,bu 68 bo'ladi.Chap tomondagi ikki xonali son birlar xonasiga 9 raqamini qo'ysak,chap tomondagi ikki xonali son katta bo'ladi,8 raqamini qo'ysak,taqqoslanuvchi sonlar teng bo'ladi,1dan 7gacha raqamlarni qo'ysak,chap tomondagi ikki xonali son o'ng tomondagi ikki xonali sondan kichik bo'ladi.Topshiriqdagi qolgan misollar bajarilishida shunga o'xshash mulohaza yuritiladi.

Milliy dastur asosida yaratilgan matematika darsliklarida ijodiy mazmundagi topshiriqlar salmog'i oshganligi quvonarli hol. Hozirgi kunda Milliy dastur ya'ni xalqaro talablar asosida ishlab chiqilgan darsliklar o'quvchi ijodiy faoliyatini oshirishda samara beradigan topshiriqlar asosida tuzilgan hisoblanadi. Masalan, 3-sinf Matematika darsligini qarab chiqsak unda o'quvchilarni fikrlashga majburlaydigan, ijodkorligini oshiradigan turli topshirilar keltirilgan. Masalan, darslikning 12-betida keltirilgan 4-topshiqqa e'tibor qilsak:

Keyingi shaklni chizamiz. U nechta kvadratdan iborat?



Bu topshiriq orqali o'quvchilarning mantiqiy fikr yuritishlari, ijodkorlik qobiliyati oshirilishi, shu bilan bir qatorda ularning diqqatli bo'lishini ta'minlaydi. Darslikda bundan tashqari yana ko'plab o'quvchilar ijodiy faolligini oshiruvchi topshiriqlar keltirilgan.

Umuman olganda, o'quvchi biluv faoliyatlari rivojlanishida ijodiy mazmundagi o'quv topshiriqlari muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS'SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
2. Qosimov F. M., Qosimova M. M. Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1138-1145.
3. Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.
4. Kasimov F., Kasimova M., Uktamova D. Specific principles for constructing a system of educational tasks //Bridges to science: research works. – 2019. – С. 211.
5. Qosimov F. M., Qosimova M. M. МАТЕМАТИКАДАН ИЖДИЙ О'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 206-211.
6. Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.
7. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Хакимова М. Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62.
8. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Умарова Г. У. Учебные задачи как средство активизации учебной деятельности учащихся на уроках математики //Обучение и воспитание: методика и практика. – 2015. – №. 19. – С. 54-60.
9. Rayxonov S., Qosimov F., Qosimova M. Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar yechishga o'rgatish. – 2017.
10. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 358-362.
11. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.
12. QOSIMOV F. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI SODDA MASALALAR BILAN TANISHTIRISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
13. Fayzullayevich F. K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – Т. 6. – №. 06. – С. 107-111.
14. Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.
15. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS'SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
16. Kasimov F. F. O. G. L. MASALANI MUHOKAMA QILIB YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA XULOSA CHIQRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1038-1047.
17. Muhammedovich K. F. et al. SEARCH FOR DIFFERENT SOLUTIONS TO THE PROBLEM //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 72-78.
18. Qosimova M., Qosimov F. KO 'PAYTIRISH VA BO 'LISHGA DOIR MASHQLAR TIZIMINI TUVSIZ BO 'YICHA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI UCHUN USULIY TAVSIYALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 18. – №. 18.
19. Qosimova M., Qosimov F. IKKI SONNING YIG 'INDISI (YOKI AYIRMASI) VA KARRALI NISBATIGA KO 'RA SHU SONLARNI TOPISHGA DOIR MASALALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 18. – №. 18.
20. Qosimova M., Qosimov F. ARIFMETIK MASALALARNI YECHISHDA TAVSIYA ETILADIGAN ILMIY-USULIY MULOHAZALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.

## BIR HIKOYA TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Qayumova Maqsad

*BuxDUPI II bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida keltirilgan hikoya tahlilga tortilgan. "Shippak" deb nomlangan ushbu hikoyani dars jarayonida o'tish metodikasi to'g'risida fikr yuritilgan. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvirlaydi.

**Kalit so'zlar.** Hikoya, matn, tinglash, so'zlash, tahlil qilish, qiyoslash.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, qahramon tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Dastavval hikoya haqida ma'lumot beradigan bo'lsak.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvirlaydi. Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, qahramon tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va boralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish muhim o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan hikoya yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya sujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi. 2-sinf Ona tili o'qish savodxonligi" kitobining 1-qismida "Nobel olaman", "Shippak", "Sharikning tug'ilgan kuni", "Qish ro'moli", "Qora oltin", "Nonushtaga "5" baho" va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Ona tili o'qish savodxonligi" kitobining 1-qismidagi "Shippak" hikoyasini olaylik. Undagi Firdavs ismli bola uyquchiligi tufayli darslarga kech qolib borishi tasvirlangan. Malika esa o'z vaqtida uyg'ongani, nonushta ham qilib bo'lganligini buvisi aytib beradi. Tabiiyki, o'quvchilar orasida ham bunaqa o'quvchilar mavjud. Hikoyada Firdavsning yomon bola emasligi, ammo sal uyquchiligi aks ettirilgan. O'quvchilarga o'qib berilgach o'quvchilarga qaysi obraz salbiy qaysi biri ijobiy ekanligi so'raladi va shu tariqa hikoya tahlili boshlanadi. Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinflarda hikoya sujeti, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Hikoyani o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va hikoyani jonlantiradi, hikoya mazmunini yaxshi



tushunish, o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi. Bu hikoyani asosan tarbiyaviy jihattadan o'quvchilarga juda katta tasir qiladi. Firdavsning onasi va buvisining "Uyg'on kech bo'di", - degan gaplariga parvo ham qilmasdan yotishi, ammo otasining shunchaki ovozi eshitishi bilan uyg'onib ketishi haqida fikrlash lozim. O'quvchilarga ota-onamiz va bobo va buvilarimizni aytgan gaplariga quloq solishlari kerakligi, darslarga o'z vaqtida kelishlari kerakligi o'quvchilarga tushuntiriladi. O'quvchilardan yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zaro savol-javob qilish lozim.

Masalan, ertalab kim nechida uyg'onadi va kimga birinchi yuz-qo'lini yuvib salom berada va boshqalar shu orqali o'quvchilar o'zlarini o'zaro tarbiyalaydilar.

Shundan so'ng hikoya so'ngida berilgan:

1. Firdavs qanday bola?

2. Malika Firdavsga kim bo'ladi?

3. Firdavsning oilasini qanday tasavvur qildingiz?

Sizningcha, bu xonadonda nechta odam yashaydi va ular kim?

4. Ovozning momaqaldiroqdek jaranglashi qanaqa bo'ladi?

5. Ona nima uchun choyni piyoladan piyolaga shopirdi? savollarga javob topishlari oson bo'ladi.

Bu hikoyani tanlashdan maqsad uyquchi Firdavs nazmida ba'zi bir ota-onasini gapiga quloq solmaydigan uyquchi o'quvchilar obrazini ochish va bunaqa o'quvchilarning aksi, ya'ni teskarisi bo'lgan Firdavisning ukasi Malika obrazi bilan esa ot-onasi va bobo-buvisini aytganlarini qilib, o'z vaqtida uyg'ongani uchun hamma ishlariga ulgurish mumkinligi izohlab o'tiladi. Har bir hikoyaning o'z hayotiyliigi mavjud va u turli xil davrlarda turlicha jonlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbek tilining imlo lug'ati", Toshkent-1995-yil, "O'qituvchi" nashriyoti.
2. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva. "Ona tili", 5-sinf darsligi. Toshkent-2012-yil, "Ma'naviyat" nashriyoti.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. "Ona tili", 6-sinf darsligi. Toshkent-2013-yil, "Tasvir" nashriyoti.
4. "O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim". Umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun o'quv modullari, 1-modul, Toshkent-2013-yil.
5. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. - T.: O'qituvchi, 1980.66-bet
6. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
7. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
8. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
9. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
10. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
11. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
12. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.
13. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
14. Amonov U. S., Safarova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.

15. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

16. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.

17. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2021. –Т. 2. –№. 2.

18. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т.

19. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.

20. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2020. –Т. 2. –№. 2.

## MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH – METODIK MUAMMO SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Qosimov Firdavs**

*BuxDU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari mustaqil ta'limini tizimli tashkil etish, ularda mustaqil fikr yuritish, ijodiy qobiliyatlari, shaxs bo'lib kamol topishi hamda talabalar mustaqil ishi jarayonida o'qituvchining roli va ahamiyati, boshqaruv funksiyalari, axborot kommunikativ texnologiyalaridan, mobil texnologiyalardan foydalanib, talabalarning mustaqil ishlarining tashkil etilishini zamonaviy shakllari haqida aytib o'tilgan.

*В данной статье системная организация самостоятельного обучения учащихся начальных классов, их самостоятельное мышление, творческие способности, личностное развитие, а также роль и значение учителя в процессе самостоятельной работы учащихся, функции управления, информации. современные формы организации самостоятельной работы студентов с использованием коммуникативных технологий и мобильных технологий.*

*In this article, the systematic organization of independent education of primary education students, their independent thinking, creative abilities, personal development, and the role and importance of the teacher in the process of independent work of students, management functions, information It was mentioned about modern forms of organization of students' independent work using communication technologies and mobile technologies.*

**Kalit so'zlar:** Masofaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, masofaviy o'qitish, masofaviy ta'limni tashkil qilish usullari

**Ключевые слова:** Дистанционное обучение, инновационные технологии, методы организации дистанционного обучения

**Keywords:** Distance learning, innovative technologies, distance learning, methods of organizing distance learning, distance learning system

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobini "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-§ da "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik yo'nalishlarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarining zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy faoliyatlarini, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda kredit-modul tizimi asosida tehsil olayotgan talabalarning mustaqil bilim olishiga e'tiborning kuchaygani, ayniqsa, masofadan ta'lim olayotgan talabalarning mustaqil ish ko'lamini oshishi talabalarga mustaqil bilim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish ko'nikmalar shakllanishini, manbalar ustida izlanishlar olib borishni, bilimlarni kengaytirishni

taqazo qiladi. O'quv jarayonida, ayniqsa, masofaviy ta'lim sharoitida talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish, mustaqil ish topshiriqlari tizimini ishlab chiqish, talaba mustaqil ishini nazorat qilish, talaba mustaqil ishini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish kabi masalalar yechilishi kutilayotgan muammolar sirasiga kiradi.

Kredit-modul tizimida ta'limni tashkil etishda o'qituvchi va talaba hamkorligida ishlash imkoniyati yuqori bo'ladi. Bu ta'lim tizimida talabaning mustaqil ishi muhim rol o'ynaydi.

Masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishini tashkil etish shakllari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-o'quv manbalarini aniqlash, ulardan maqsadga muvofiq holda foydalanib, berilgan mavzuni o'zlashtirish;

-o'qilgan, o'zlashtirilgan manbalar bo'yicha annotatsiya tayyorlash;

-belgilangan mavzular yuzasidan boshlang'ich sinf darsliklari, o'qituvchi kitoblarini tahlil qilish;

-o'quv topshiriqlari tizimini tayyorlash;

-berilgan mavzular yuzasidan kurs ishi, referat, maqolalar tayyorlash;

-o'quvchi o'quv-biluv faoliyatini oshirishga qaratilgan usul, vosita, metodlarni tadbiq etish metodikasini takomillashtirish.

Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari:

Talaba mustaqil ishi to'g'risida muayyan fan(kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

-berilgan mavzu bo'yicha axborot(referat) tayyorlash;

-seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

-laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;

-hisobot ishlarini bajarish;

-ma'naviy bitiruv ishi va dissertatsiyasini tayyorlash;

-nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

-amaliyotda mavjud muammolarning yechimini topish(keysstodi);

-ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash.

Masofaviy ta'limga o'qituvchi talabaning o'zlashtirish, bilim olish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng asosiy jihat talabaning mustaqil ta'im olishiga qaratiladi. Masofaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishda "дрижер" vazifasini bajaradi. Chunki, ko'p masala o'qituvchining o'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan qo'yiladigan maqsadni to'g'ri tanlashiga tavsiya etiladigan adabiyotlarning, manbalarining maqsadga muvofiqligiga, talabaning mustaqil ishlash imkoniyati kengligiga, axborot-kommunikatsiya qurilmalarining sozligiga bog'liq bo'ladi.

Bu darsda qo'yilgan yo'nalishlar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Birinchidan, o'qituvchi va talaba muloqotining maqsadga muvofiq holda tashkil etish, kompyuter, internet, axborot texnologiyalar vositasida "ustoz-shogirt" munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yish.

Ikkinchidan, talabalarni shaxsiy ta'lim trayektoriyasiga asoslangan holda, o'quv mashg'ulotini tashkil etish va talabalarni individual mustaqil ishni belgilash va bu mustaqil ishni bajarish yuzasidan yo'l-yo'riq (instruktor) ishlab chiqish.

Uchinchidan, talaba mustaqil ta'limi yuzasidan foydalanilgan o'quv adabiyotlari(manbalari)ni to'g'ri tavsiya etish va mustaqil ish shakli, turi, bajarish uslubi, qabul qilish vaqtini belgilash.

To'rtinchidan, talaba mustaqil ishini nazorat va baholashni to'g'ri tashkil etish.

Yuqorida sanab o'tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'limini tizimli tashkil etish, ularda mustaqil fikr yuritish, ijodiy qobiliyatlari shaxs bo'lib kamol topishiga imkoniyat bo'ladi. Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarining mustaqil ishlari jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasida sifatli muloqot, talabalar mustaqil ishi jarayonida o'qituvchining roli va ahamiyati, boshqaruv funksiyalari, axborot

kommunikativ texnologiyalaridan, mobil texnologiyalardan foydalanib, talabalarning mustaqil ishlarining tashkil etilishini zamonaviy shakllari – metodik muammo sifatida yoritilishini taqozo qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yakubova.D.U "Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari pedagogic muammo sifatida"
2. *Sciens and Education Sciartifie journal/ISSN2181-0842. December 2021/Volume S ISSN4E12 617-621сr*
3. ADIZOVA, Nodira. "TOPONIMLAR TARKIBIDA TOPOASOS, TOPOFORMANT HAMDA INDIKATOR TUSHUNCHALARI (BUXORO TUMANI MISOLIDA)." *EDAGOGIK AHORAT*: 47.
4. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA." *PEDAGOGS* jurnali 1.1 (2022): 52-53.
5. Adizova N. B. The Role Of Ethnotoponyms In The Bukhara District Microtopony //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 2. – C. 131-134.
6. Adizova N. B. THE ROLE OF ETHNOTOPONYM IN THE TOPONYM OF BUKHARA DISTRICT //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – C. 414-416.
7. Адизова Н. Mikrotoponimlar tasnifi (Buxoro viloyati misolida) //Общество и инновации. – 2022. – T. 3. – №. 3/5. – C. 128-132.
8. Qosimov F. M., Qosimova M. M. МАТЕМАТИКАДАН IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.
9. Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
10. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Хакимова М. Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – C. 58-62.
11. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Умарова Г. У. Учебные задачи как средство активизации учебной деятельности учащихся на уроках математики //Обучение и воспитание: методика и практика. – 2015. – №. 19. – C. 54-60.
12. Rayxonov S., Qosimov F., Qosimova M. Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar yechishga o'rgatish. – 2017.
13. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 358-362.
14. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.
15. QOSIMOV F. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI SODDA MASALALAR BILAN TANISHTIRISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.
16. Fayzullayevich F. K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – T. 6. – №. 06. – C. 107-111.
17. Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
18. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS'SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 2. – №. 2.
19. Saidova M. J. DIRECTIONS AND CONTENT OF THE ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING //Conference Zone. – 2022. – C. 7-15.
20. Jonpo'latovna S. M. et al. 2-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING O 'QUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 63-65.
21. Saidova M. J. MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 43-46.

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY RIVOJLANISHI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

D. Sh. Mirzayeva

*BuxDU katta o'qituvchisi*

Sultonova Firuza, Hikmatova Dildora

*BuxDU talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarining bir turi sifatida maktabgacha ta'lim tashkiloti, bolalarning tarbiyasi, ta'limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo'nalganligi bilan bog'liq umumiy xususiyatlarga ega ekanligi va maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishi psixologik-pedagogik muammosi yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается психолого-педагогическая проблема творческого развития дошкольников, так как дошкольная образовательная организация как вид образовательного учреждения имеет общие черты, связанные с хорошей направленностью на воспитание, образование, развитие и здоровье детей.

**Annotation.** This article discusses the psychological and pedagogical problem of the creative development of preschoolers, since a preschool educational organization as a type of educational institution has common features associated with a good focus on the upbringing, education, development and health of children.

Bugungi kunda jahonning ilg'or mamlakatlari qatori Respublikamizda ham ta'lim tizmini islox qilishga katta e'tibor berilmoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta'lim tizmining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" kitobida: "O'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa-kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi" - degan fikrni e'tirof etadilar.

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga mos yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi va bunda pedagoglarning faolligi, ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

Art-pedagogika yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishini nazariy tahlil qilish maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni badiiy va estetik tarbiyalashning eng muhim yo'nalishini ochib berdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanish xususiyatlari, tarbiyalanuvchilarining axloqiy va estetik shaxsining barcha sohada muntazamligi va intensivligini oshirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishi zamonaviy dunyoda psixologiya va pedagogika fanining dolzarb muammosidir. Ushbu muammoni hal qilish ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni chuqur va tizimli o'rganish va ushbu yo'nalishdagi eksperimental ma'lumotlarni sharhlashdan iborat. Ijodiy kamol toptirish orqali har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash yosh avlodning ma'naviy izlanishlari, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish bilan chambarchas bog'liqdir. Bundan kelib chiqadiki, ilmiy va amaliy ishlar maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy rivojlanishining psixologik-pedagogik yo'nalishining yangi uslubiy pozitsiyalarini topishga imkon beradi.

Psixologik nuqtai nazardan maktabgacha yosh ijodiy rivojlanish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu "o'sish" davrida bolalar juda izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyoni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq kuchli bo'ladi. Ma'lumki, tajriba va bilimlarni to'plash bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun zaruriy shartdir. Bolalarda qiziqishni saqlab qolish va maktabgacha yoshdagi bolalarni turli xil ijodiy faoliyatga jalb qilish kerak, masalan: san'at, musiqa, raqs, obrazli harakat, dramatisatsiya va adabiy nutq. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirish vositalaridan biri art-pedagogika bo'lib, uning mazmun-mohiyati, eng avvalo, tarbiyaviy funktsiyada yotadi.

Art-pedagogikaning metod va usullari shaxsning axloqiy, estetik, kommunikativ va refleksiv asoslariga ta'sir qiladi va san'at yordamida bolaning ijtimoiy-madaniy moslashuviga yordam beradi. Psixoterapevtik funktsiyani bajarishda art-pedagogika maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik muammolarini yengishga yordam beradi, hissiy muvozanatni tiklaydi, bolalarni salbiy tajribalardan, ichki qisilishlardan ijobiy rangli his-tuyg'ularga va ijodiy harakatlar erkinligiga o'tkazadi.

Shuni inobatga olib maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun art-pedagogika metod va usullardan foydalaniladi. Bolalarda art-pedagogika texnikasidan foydalanish jarayonida bola shaxsining kuchli tomonlari dolzarblashadi, bolaning ongi va xulq-atvori sohalari kengayadi, u turli vaziyatlardan nostandart optimal yo'llarni topishni o'rganadi. San'at texnologiyalari va usullaridan foydalanish bolaga o'z muammolarini yengish, hissiy muvozanatni tiklash yoki hatti-harakatlaridagi buzilishlarni bartaraf etish, intellektual rivojlanishiga yordam beradi. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tizimida art-pedagogika metodlaridan faol foydalanilmoqda.

Ijodkorlik yangi o'rganish mavzusi emas. Inson qobiliyatlari muammosi har doim odamlarda katta qiziqish uyg'otgan. Holbuki, ilgari jamiyatda kishilar ijodini o'zlashtirishga alohida ehtiyoj bo'lmagan. Iste'dodlar o'z-o'zidan paydo bo'lib, o'z-o'zidan adabiyot va san'at durdonalarini yaratdi: ular ilmiy kashfiyotlar qildilar, ixtiro qildilar va shu bilan rivojlanayotgan insoniyat madaniyatining ehtiyojlarini qondirdilar. Shuni aytish joizki maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishida psixologik-pedagogik muammolarini turli xil usullar va metodlar bilan bartaraf etish, mahoratli, zamonaviy bilimga ega bo'lgan tarbiyachining vazifasidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзаева Д. Ш. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1408-1413.
2. Курбанова, Д. Ш. М. З. "АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ КОРРЕКЦИИ СТРАХОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА."
3. Хасанова Г. К., Мирзаева Д. Ш. Условия успешного воспитания и обучения детей //Наука и инновации-современные концепции. – 2019. – С. 86-90.
4. Mahmudovna, N. M., Shavkatovna, M. D., Supxonovna, H. N., & Choriyevna, R. L. (2022). FUNDAMENTALS OF USING STEAM TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. *International Journal of Early Childhood*, 14(03), 2022.
5. Мирзаева, Дилфуза. "Арт педагогикаси воситасида мактабгача таълим ташкилоти болалари ижодкорлигини ривожлантириш." *Общество и инновации* 3.1/S (2022): 141-148.
6. Mirzaeva, D. (2022). Art Therapy as a Means of Adaptation of Young children to pre-school: Art Therapy as a Means of Adaptation of Young children to pre-school. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 11(11).
7. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH* 3 (No. 1), 546-550
8. O.R.Avezov. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. *PEDAGOGIK MAHORAT* 3 (No. 13), 145-150
9. O.R.Avezov. Ekstremnaya psixologicheskaya pomosh v ekstremalnih situatsiyax. *Vestnik integrativnoy psixologii* 4 (No. 21), 34-37.
10. O.R.Avezov. Ekstremal vaziyatlarda shaxsning stressli holati va xulq-atvor reaksiyalari. *Psixologiya* 3 (No. 23), 94-98
11. O.R.Avezov. Ekstremal va favqulotda vaziyatlar to'g'risida zamonaviy tushunchalar. *Pedagogik mahorat* 4 (No. 24), 106-109
12. O.R.Avezov. PSYCHOLOGICAL RELATIONS BETWEEN FAMILY MEMBERS. *Innovative, educational, natural and social sciences*, 2022
13. O.R.Avezov. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. *Psixologiya* 3 (No. 25), 46-53
14. O.R.Avezov. Favqulotda va ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko'rsatish. "XXI asr psixologiyasi" //Xalqoro ilmiy-amaliy anjumani materiallari//. 2021. Tom-4. B- 19-24
15. O.R.Avezov. Mutaxassislikka kirish. *Darslik*. B.2021 y. 243 bet
16. O.R.Avezov. Формирование узбекского этноса. *РЕМ: Psychology. Educology. Medicine*, 119-124



## O'QITISHGA YONDASHUVLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Sodiqova Yulduz Kamolovna**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika insituti Maktabgacha ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrası assistenti*

**Umarova Feruza**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika insituti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 112-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'limda ustuvor bo'lgan masalalar haqida fikr yurilgan. Sohaga innovatsion yondashuv masalalari tahlil etilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlar haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Ilk qadam dasturi, UNICEF, Yo'l xaritasi, "Ketrinq" xizmati, BMT konvensiyasi.

Hozirgi kungacha mustaqil O'zbekistonimizda farzandlarimiz ravnaqi uchun juda ko'p ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shular qatorida, Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ham katta etibor qaratilgan. Prezidentimiz Savkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan yo'lga qo'yilgan "2017-2021 yillarda mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi"ning to'rtinchi yo'nalishini asosiy bir bo'g'ini, ta'lim madaniyat, ilm-fan, adabiyot sanat va sport sohalariga e'tibor qaratilib, unda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini takomillashtirish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etishni o'z ichiga qamrab olgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarorida ta'kidlanishicha, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayorlash bo'yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish - Bolalarni maktabga tayorlashning muqobil shakli bo'lgan qisqa muddatli guruhlar tashkil etilishi natijasida 305 ming nafar 5-6 yoshdagi kichkintoylar har yili ushbu guruhlarda maktab ta'limiga tayorlash - Qisqa muddatli guruhlar uchun O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekistondagi xalqaro bolalar fondi (UNICEF) tomonidan ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bunga asos bo'la oladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashish ham mumkin O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalar uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmitubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimijoriy etildi.

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish

o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlabchiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi.

Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarning qamrovi 10 foizga oshishi, 2018 yilda esa maktabgacha ta'lim muassasalarini saqlash xarajatlari joriy yilga nisbatan 32 foizga o'sishi kutilmoqda.

Ular doirasida 2018 yil davlat budjetidan 427 bog'chada qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish uchun 771 milliard so'm mablag' ajratish, jumladan, 14 tasini yangidan qurish, 256 tasini rekonstruksiya qilish va 157 tasini kapital ta'mirlash rejalashtirilayotganligi, davlat- xususiy sherikchilik asosida yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, 2018 yil 1 yanvardan boshlab, 5 yil davomida xususiy bog'chalar tomonidan tabiiy gaz va elektrenergiyasi uchun sarflanadigan mablag'ning yarmi davlat budjeti hisobidan qoplanishi, bog'chalarda bolalarni sog'lom ovqatlantirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlash maqsadida 2018 yildan boshlab har bir maktabgacha ta'lim muassasasiga 10-15 nafar fermerni sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish uchun birlashtirilishi, bolalar bog'chalariga tayyor sifatli issiq ovqat yetkazib beradigan davlat korxonasi tashkil etilib, "Ketring" xizmatini yo'lga qo'yish mexanizmining ishlab chiqilishi, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti faoliyatining takomillashtirilishi, maktabgacha ta'lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgachata'lim pedagoglariga qo'yiladigan talablarning qayta ko'rib chiqilishi tom ma'noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Istiqbolda belgilanayotgan bunday ulkan vazifalarning amalga oshirilishi sohaning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishni talab etadi. Shu bois, ilg'or xorijiy tajriba asosida "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqishdan iborat o'ta dolzarb vazifa yuklatildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilot bozor munosabatlari sharoitida sifatni ta'minlovchi ta'lim tashkiloti sifatida namoyon bo'lishi ham o'rganilmagan. Shunday vaqtda o'ziga xos xususiyatlarini bilmasdan bunday sharoitda ta'lim sifatini takomillashtirish konsepsiyasini yaratish mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim tizimini uning sifatiga muvofiq modernizatsiyalashning tahlili quyidagilar o'rtasidagi bir qator ziddiyatlarni namoyon qildi:

- maktabgacha ta'lim muassasalarining ijtimoiy belgilangan maqsadlarga erishish usul va vositalarini tanlash doirasidagi bir talay huquq va vakolatlari hamda ularni amalga oshirishning ilmiy- asoslangan mexanizmi mavjud emasligi;

maktabgacha ta'lim muassasasida shaxs va jamiyatning sifatli ta'lim olishga ehtiyoji va kutayotgan natijasi, talablarini qondirish uchun sharoit yaratishga qo'yiladigan talablar hamda real amaliyotning haqiqiy holati;

ta'lim sifatini boshqarishga ijodiy yondashuvdan foydalanish zaruriyati hamda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarida sifatni boshqarish obyektini tizimli ko'ra bilish mavjud emasligi tufayli ta'lim jarayonining alohida tomonlariga lokal ta'sir amaliyoti;

maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining zarur darajasini ta'minlash maqsadida faoliyat va rivojlanish jarayonlarining o'zaro aloqalarini o'rnatish zaruriyati hamda maktabgacha ta'lim pedagogik tizimlarini asosan ular ega bo'lgan potensialni qo'llab-quvvatlash va erishilgan natijalarni saqlab qolishga yo'naltirish;

ta'lim sifatini obyektiv baholash zaruriyati hamda tegishli baholash texnologiyalarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;

Insoniyat o'z taraqqiyoti mobaynida har biri o'z alohida xususiyatlariga ega bo'lgan bir necha davrlarni bosib o'tdi. Sivilizatsiya taraqqiyotining u yoki bu davrining o'ziga xosligini belgilovchi ustuvor belgi sifatida "inson - inson" va "inson - tabiat" tizimlaridagi munosabatlar maydonga chiqadi.

Tadqiqot yo'nalishidagi mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning maqsadli funksiyalari quyidagilardan iborat ekanligini e'tirof etish imkonini berdi:

Birinchi, salomatlikni asrovchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi jarayoni ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib tashkil etilishda va amalga oshirilishda namoyon bo'ladi, shuningdek, bola vujudining aniq ekologik va ijtimoiy muhitda barqaror hayotchanligini saqlashga yo'naltirilgan bo'ladi;

Ikkinchi - rivojlantiruvchi funksiya, ta'lim jarayonining "madaniyatli kishi" asosini shakllantirishga qaratilganligidan iboratdir, bu "...bolaning aqliy, ma'naviy va jismoniy layoqatlarini to'laqonli" ("Bola huquqlari to'g'risida konvensiya", 29-modda) rivojlantirishda barcha bolalarga teng dastlabki shart-sharoitni ta'minlash (BMT konvensiyasi) bilan to'la bog'liqdir;

Uchinchi - tuzatuvchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni malakali tuzatishni amalga oshirish bilan bog'liq;

To'rtinchi - bola yoshi rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishida uzviylikni ta'minlash funksiyasi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan prinsiplarga quyidagilar kiradi:

- barcha asosiy yo'llar bo'yicha bolaning to'laqonli rivojlanishini ta'minlash prinsipi;
- bolaning yosh va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun maktabgacha ta'limning o'zini-o'zi qoplashi prinsipi;
- ta'lim jarayonini amaliy tashkil etish prinsipi, u yetakchi va o'ziga xos bolalar faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligiga, bola rivojlanishining amaliy asoslarini predmetli boyitishni taqozo qiluvchi zaruratga asoslanadi;
- maktabgacha ta'limning shaxsiga qaratilganlik tavsifi;
- bola tomonidan ijtimoiy-madaniy tajribani ijodiy "o'zlashtirishni" ta'minlash prinsipi, u ijodiy faoliyatni shakllantirish vositalarini "ishga solishni" nazarda tutadi;
- ularni amalga oshirish maqsadlari va vositalarining birligi prinsipi.

Maktabgacha bolalikning o'z qiymatini saqlash nuqtai nazaridan ta'lim jarayonini tashkil etishga va amalga oshirishga qaratilgan sanab o'tilgan prinsiplarni biz sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning qadriyat hosil qiluvchi me'yoriy asosi sifatida ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'lumot olishiga davlat belgilaydigan me'yorlar va talablar sifati ularning jamiyat ijtimoiy- madaniy ehtiyojlariga mosligi, shuningdek, ularning bolani rivojlantirishning to'laqonligi va yaxlitligini ta'minlash bilan birga maktabgacha ta'lim bolalikning o'z mohiyatini saqlashga yo'naltirilganligi bilan aniqlanadi.

Ta'lim jarayonining sifati uning mazmunining, shakl va usullarining sifati, uning ishtirokchilarining o'zaro hamjihatligi bilan ta'minlanadi.

Resurs ta'minoti jarayonining sifati kadrlar, moliya-iqtisodiy, dasturiy-uslubiy, ruhiy, sanitariya-gigiyenik va tibbiy sog'lomlashtirish, ijtimoiy-pedagogik resurslar va shart-sharoitlarning sifatidan tarkib topadi.

Natijalarning sifati bolalarning salomatligi holati, bolalarning shaxsiy yutuqlari, pedagoglarning shaxsiy kasbiy yutuqlari, maktabgacha ta'lim muassasasining yutuqlari kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

MTMda bolalar faoliyatini tashkil etish jarayoni, tizimli sifatning barcha xususiyatlarini va tavsiflarini umumlashgan holda o'zida tashuvchi maktabgacha ta'lim sifatining tizim hosil qiluvchi birligi hisoblanadi. Bolalar faoliyatining muayyan turlarini shakllantirish jarayonlari sifatining jami bolalarni rivojlantirish jarayonlarining u yoki bu sifatini shakllantiradi (jismoniy, ijtimoiy, bilim olish, badiiy-estetik), ulardan o'z navbatida ham alohida olingan yosh guruhi, ham butun maktabgacha ta'lim muassasasi yaxlit ta'lim jarayonining sifati hosil bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilot ta'minlaydigan ta'limning sifat holati doimiy hisoblanmaydi: u yangi xususiyatlarning paydo bo'lishiga qarab o'zgaradi. Tashqi va ichki omillardan kelib chiquvchi tashqi va ichki hamjihatlik ularning paydo bo'lishining manbai hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim sifati jarayon va natijaning, haqiqiy va potensial, ichki va tashqi sifatning birligi sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilot bolalar ta'limiga davlat va jamiyat talablarini aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma beradigan maqsadlar tizimining markaziy sifat hosil qiluvchi tashqi omili hisoblanadi. Bunday maqsadlar hamisha jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlariga xos bo'lgan muayyan ijtimoiy andozalar bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasi, malakalilik, mustaqillik, erkinlik va mas'uliyat, tabiat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, o'z xatti-harakati va faoliyatini boshqarish mahorati, hayotning yangi sifatini yaratish maqsadida madaniy-tarixiy makonni faol, ijodiy o'zlashtirish layoqati uning o'ziga xos tavsiflari hisoblanadi. Bizningcha, sifatga yo'naltirilgan ijtimoiy buyurtma aynan shunday asosiy tavsiflarga ega shaxsni shakllantirishni nazarda tutishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI
2. Karimov U., Muxammadiev A.Sh. Ta'lim tizimini axborotlashuvida oliy o'quv yurti ilmiy universal kutubxonalarini avtomatlashtirishning roli. Xalqaro konferensiya materiallari. —Fan, texnika va ta'limda infokommunikatsion va hisoblash texnologiyalarill, Toshkent, 2004.- S.
3. “Илк қадам” давлат ўқув дастури. Тузувчилар: Грошева И.В.,Евстафева Л.Г., Маҳмудова Д.Т., ва бошқалар. – Тошкент, 2018 йил.
4. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006. Internet saytlari
5. Amonov U. S. O 'qish darslarida maqol janridan foydalanish usullari va ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US
6. O.R.Avezov. Ekstrennaya psixologicheskaya pomosh v ekstremalnih situatsiyax. Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 21), 34-37.
7. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
8. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "linguistic classification of toponyms of bukhara district." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 2.09 (2021): 1-
9. Safarov F. S. et al. The effect of a tissue biostimulator on embryonic and post-embryonic development of lambs //Uchen. Zap-azerb. sel'.-khoz-Inst. Ser. zhivot. – 1970. – №. 2. – С. 38-41.
10. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – С. 3-5.
11. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174

12. Ergashovna S. G. Formation of concepts about length in primary school students, developing length measuring skills. – 2021.

13. O'ktamovna X. N. O'zbek romanlarida tarixiy inversiyani berish usullari va vositalari //Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 430-433.

14. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 248-250.

15. Ahmadovich K. H., Bahridinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 141-145.

16. Ahmadovich K. H., Zokirovna Z. A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 25. – С. 133-137.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEZAYTISHNING BOLALAR NUTQIGA TA'SIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

O'ralova Muxlisa

*BuxDUPI I bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Bu maqola boshlang'ich sinflarda tez aytishning bolalar nutqiga ta'siri va foydali taraflari haqida ma'lumot beriladi. Boshlang'ich sinflarda bolaning nutqini rivojlantirish uni tog'ri va ravon gapirishda va har bir harfni tog'ri talaffuz qilishda darsliklarda beriladigan tez aytishning ham ahamiyati katta. Tez aytish- o'zbek xalq og'zaki ijodining bir turi hisoblanadi. Tez aytish qadimdan-qadimdan ota bobolarimiz tomonidan og'izdan og'izga o'tib hozirgacha saqlanib kelmoqda.

**Kalit so'zlar.** Tez aytish, nutq, uzluksiz ta'lim, ma'naviy o'yin, so'z o'yini

**Аннотация.** В этой статье представлена информация о влиянии и пользе быстрой речи в начальных классах на речь детей. В начальных классах большое значение имеет развитие речи ребенка и в приведенном в учебниках быстром произношении, чтобы правильно и бегло говорить и правильно произносить каждую букву Быстрое произношение является видом узбекского народного творчества. Поговорка быстро сохранилась у наших предков с незапамятных времен.

**Ключевые слова.** Быстрый разговор, речь, дополнительное образование, духовная игра, игра в слова.

**Abstract.** This article provides information about the effects and benefits of rapid speaking in primary grades on children's speech. In the primary grades, the development of the child's speech is also important in the rapid pronunciation given in the textbooks in order to speak correctly and fluently and to pronounce each letter correctly. Rapid pronunciation is a type of Uzbek folk art. Saying quickly has been preserved by our ancestors from time immemorial.

**Keywords.** Quick talk, speech, continuing education, spiritual game, word game.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'limga bo'lgan e'tibor juda katta. Yoshlarimizni ta'lim bo'yicha sport bo'yicha erishayotgan yutuqlarini biz faxr bilan ayta olamiz. Bunga sabab yurtimizda ta'limni birinchi o'ringa qo'yayotganimiz va prezidentimizning biz yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlari deb bemalol ayta olaman. Shunday ekan bizni ta'lim tizimimiz ham uzluksiz ta'limni tanladi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxs jamiyat va davlat iqtisodiy, ilmiy- texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Bu ta'lim ijodkor, ijtimoiy, faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatdosh kadrlar ham tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Ta'limning eng asosiy poydevori bu boshlang'ich ta'limdan boshlanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Boshlang'ich ta'lim- umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantiradi. Boshlang'ich sinflarda bolalarni o'qish savodxonligini oshirish, bola nutqini ravon va ta'sirchanligini oshirishda tez aytishning o'rni ham bo'lakcha .

Boshlang'ich sinflarda bolaning nutqini rivojlantirish uni tog'ri va ravon gapirishda va har bir harfni tog'ri talaffuz qilishda darsliklarda beriladigan tez aytishning ham ahamiyati katta. Tez aytish- o'zbek xalq og'zaki ijodining bir turi hisoblanadi. Tez aytish qadimdan ota bobolarimiz tomonidan og'izdan og'izga o'tib hozirgacha saqlanib kelmoqda. Tez aytishning tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. U asosan yoshi kattalar o'rtasida to'y tomoshalarda,

marosimlarda, o'tirishlarda tez aytishlarda musobaqalashib, madaniy hordiq olishgan, hozirgi kunda bolalar o'rtasida musobaqalar olib borilmoqda.

Tez aytish bolalar nutqiga ta'siri ikki xil bo'ladi: birinchisi bola nutqining ravon bo'lishiga; ikkinchisi hozirjavoblikka o'rgatadi.

Bu tez aytish o'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lib qadimgi o'yinlar qatoriga kiradi. O'yinlarni asosan ikkiga bo'lsak: moddiy vositalar(qog'irchoq,tosh,to'p) yordamida bajariladigan o'yinlar; ma'naviy badiiy-ifodaviy vositalar (fikr,so'z,qo'shiq,raqs,teatr kabilar) yordamida amalga oshadigan o'yinlar. Tez aytish bu o'yinlarning ikkinchisiga tegishlidir. Tez aytish bolalarda fikrlash qobilyatini, so'z boyligini oshirishga va ravon nutq egasi bo'lishiga yordam beradi. Tez aytishni ko'proq mashq qilgan odam biror bir tadbirda, insonlar orasida, kundalik muloqotda hech bir chalkashliklarsiz so'zlashadi. Tez aytish ko'pchilik turkiy tillarda turlicha aytiladi. Asosan insonlarning nutqida yanglishlik kuzatilishi uchun biroz murakkabroq bo'ladi.

Masalan, qirg'izlarda (jantilmach), qozoq va qoraqalpoqlarda (jantilpash), turklarda(yaniltmach), turkman va ozarbayjon xalqlari yangiltmach deb nomlashganlar. Tez aytishda har bir tovush o'rnini tog'ri talaffuz qilish shart. Tez aytishda qofiyadosh so'zlar qo'llanilganligi sababli adashib ketish darajasi yuqori. Tez aytish o'yini quyidagicha o'ynaladi:

Bu o'yinda bir nafasda kim ko'proq o'zi tanlagan tez aytishni ravon, chiroyli va ko'p aytsa o'sha inson g'olib bo'ladi. O'zbek xalq og'zaki ijodida tez aytishning yuz xil varianti bor.

Bulardan namunalar quyidagilar:

- Asalari asalni ayiqdan ayamadi
- Bashar bilan Yashar yashil yarim sharda yashar
- Bir tup tut tagida bir tup turp
- Izg'irin Izzatni izillatdi
- Oq choynakka oq qopqoq ko'k choynakka ko'k qopqoq
- Qishda kishmish pishmasmish pishsa kishmish qishmasmish
- Soli hovlida xoli qoldi
- Tolib tandir tagidan tanga topdi
- Sumalakning sim-sim siri sayyohlarga so'roq bo'ldi
- Tyanshan tog'ining tagida traktor tarillab turibdi, tarillab turgan traktorning tagida

Tamaraxonim tansaga tushib turibti

- Bedanalar bedanazorda sayrayverib, Berdiboyni bezor qildi.
- Gulsara gul saralab gul sandi
- Ikki ayiq qayiqqa qaradi, oq ayiq oldin qaradimi, qora ayib oldin qora ayiq oldin

qaradimi?

- Boshqotirma Boltavoyning boshini qotiradi
- Niyoz piyoz archidi, Fayoz piyoz artdi; Piyozdan Niyozning ko'zi achidimi,

Fayoznikimi?

- Non yasashasizmi, sholi sanashasizmi?
- Mashhura moshxordani shoshib shimirdi
- Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uloqcham uzun quloq va hakazolar.

Tez aytish nutq ravon bo'lishga ta'sir qiladi dedik. Ravon nutq nima? Bu nutq kishilar muloqatini va o'zaro bir- birlarini tushinishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutq bu fikrlar ravonligidir unda bolaning mantiqiy fikrlash o'zi qabul qilayotganlarni to'g'ri baholash va ularga erkin fikr bildira olishdir.

Bundan kelib chiqib shuni aytish lozimki, bola nutqini o'stirishda tez aytishning ham ahamiyati katta ekan. Bola qancha tez aytishlardan ko'proq mashq qilsa, chiroyli va ravon gapiradi, har bir harf bo'ladimi yoki biror so'zmi aniq hamda chiroyli va gapira oladi. Nutqi ravon kishini tinglash ham yoqimli, ham maroqli bo'ladi. Uning nutqidan hech kim zerikmaydi, u gapirgan vaqtda tinlovchilar bor vujudi bilan uning gaplarini tinlaydi. Yurtimizda so'z erkinligi bo'lganligi sababli har kim o'z fikrini ommaviy tarzda (og'zaki va ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda yozma) bayon etish huquqiga ega. Konstitutsiyada



belgilangan 29-moddada "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga ega",- deyilgan. Bu bilan birga mamlakatimiz prizedenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilni "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb nomladi. Bundan ko'zlangan maqsad shu ediki Xalqning dardini tinglash va uning muammolariga yechim topish asosiy masala hisoblanardi. Xalqimiz ham o'z muammolarini yetkazib berishda so'z erkinligidan foydalanishgan. Asosan xalq orasidan nutqi ravon insonlar chiqib o'zlarini qanaqa muammo qiynayotganini yetkazib berishgan. Xalqimiz orasida: "Ish bilganga bir tanga, Gap bilganga ming tanga"- maqoli ham yuradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek folklori: Pedagogik institutlar uchun xrestomatiya, tuzuvchi H. Zarif, Toshkent, 1941, 1-kitob.
2. Жаҳонгиров Ф., Тез айтиш. Ўзбек тили ва адабиёти, №3 (1972), 49-52.
3. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
4. . NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
5. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: HORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
6. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
7. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
8. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
9. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
10. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January.* P. 266 – 274.
11. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
12. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
13. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimo Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
14. Саидова, Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах." *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.
15. Saidova, G. E. "BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNING O 'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH." *Conferencea* (2023): 33-37.
16. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S //MEMORIES""", EPRAInternational Journal of Multidisciplinary.
17. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadridin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.
18. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin
19. Нуруллаева, Сарвиноз Маждидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
20. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
21. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

## РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Сайфуллаева Нозима Баходировна

Старший преподаватель Бухарского государственного  
университета

*Аннотация:* В статье дано краткое описание актуальности математики, ее взаимосвязи с человечеством на всех ступенях повседневной жизни.

*Ключевые слова:* математика, математические науки, роль математики в современном мире.

*Annotation:* The article gives a brief description of the relevance of mathematics, its relationship with humanity at all levels of everyday life.

*Key words:* mathematics, mathematical sciences, the role of mathematics in the modern world.

Математика является значительной и важной частью общечеловеческой культуры. Накопление математических фактов на протяжении тысячелетий развития человечества привело к возникновению математики как науки около двух с половиной тысяч лет тому назад. Обращаясь к истории философии, следует отметить, что ученые, создававшие математику, рассматривали ее как составную часть философии, которая служила средством познания мира.

Математика имеет богатейшие возможности воздействия на выработку научного мировоззрения и достижение необходимого общекультурного уровня. Пытаясь объяснить окружающий мир, задавая вопрос "почему?", древние философы-софисты пришли к необходимости выделения математических знаний в самостоятельную науку. История зарождения великих математических идей, судьбы выдающихся математиков (Архимед, Галуа, Паскаль, Галилей, Гаусс, Эйлер, Ковалевская, Чебышев и др.) дают пищу для ума и сердца, примеры беззаветного служения науке, приводят к философским размышлениям и нравственным поискам.

Логические рассуждения представляют собой один из методов математики. Поэтому ее изучение формирует логическое мышление, позволяет правильно устанавливать причинно-следственные связи, что, безусловно, должен уметь каждый человек. Стиль изложения математики, ее язык оказывают влияние на развитие речи. Каждый культурный человек должен иметь представление об основных понятиях математики, таких как число, функция, математическая модель, алгоритм, вероятность, оптимизация, величины дискретные и непрерывные, бесконечно малые и бесконечно большие.

Математика уверенно расположилась в самых разных частях и уголках современного мира. Что же дает людям математика, которая не открывает новых способов передвижения, как физика, и не создает новых вещей, как химия?

Наиболее распространенный ответ на эти вопросы еще не так давно состоял в том, что математика умеет хорошо вычислять и тем самым позволяет осуществлять математическую обработку цифровых данных, связанных с тем или иным изучаемым процессом. Однако при всей важности вычислительного аспекта математики, особенно в последние годы в связи с бурным ростом вычислительной техники, он оказывается неглавным при попытке объяснить причины математизации современного мира. Главная же причина этого процесса такова: математика предлагает весьма общие и достаточно четкие логические модели для изучения окружающей действительности в отличие от менее общих и более расплывчатых моделей других наук. Объектами исследования математики служат логические модели, построенные для описания явлений в природе, технике, обществе. Математической моделью изучаемого объекта называется логическая конструкция, отражающая геометрические формы этого объекта и количественные соотношения между его числовыми параметрами. При этом математическая модель, отображая и воспроизводя те или иные стороны рассматриваемого объекта, способна замещать его так, что исследование модели даст новую информацию об этом объекте, опирающуюся на принципы математической теории, на сформулированные

математическим языком законы природы. Если математическая модель, верно отражает суть данного явления, то она позволяет находить и необнаруженные ранее закономерности, давать математический анализ условий, при которых возможно решение теоретических или практических задач, возникающих при исследовании этого явления. Такие модели формулируются на особом языке — языке чисел, различных символов.

Научное изложение должно быть ясным, точным, вполне определенным и кратким. Язык науки не должен создавать дополнительные трудности при восприятии сообщаемой информации, должен доносить идеи и факты в однозначном, не допускающем разночтения виде. Именно поэтому в науке должен применяться особый язык, максимально точно передающий присущие ей особенности. Кроме того, этот язык должен обладать свойством универсальности для применения в различных научных отраслях. Таким языком и является математика. Об этом было прекрасно сказано французским физиком-теоретиком начала XX века Луи де Бройлем: «... где можно применить математический подход к проблемам, наука вынуждена пользоваться особым символическим языком, своего рода стенографией абстрактной мысли, формулы которой, когда они правильно записаны, по-видимому, не оставляют места ни для какой неопределенности, ни для какого неточного истолкования».

Владение математикой дает людям мощные методы изучения и познания окружающего их мира, методы исследования как теоретических, так и практических проблем. Использование математического моделирования, дедуктивных методов и специального математического аппарата сближает гуманитарные и естественные науки. Одним из основных стимулов интеграции естественных и гуманитарных наук является математизация гуманитарных наук. Прежде в гуманитарных науках редко использовался дедуктивный вывод (один из признаков научности), считавшийся у математиков единственно приводящим к «истинному» доказательству. Сегодня он используется в рамках многих гуманитарных наук. Наблюдается и обратное явление.

Широкое проникновение математики и ее методов в другие отрасли знания является главнейшей формой взаимодействия наук, способствует сближению различных отраслей знания. Так, например, связь между физикой и химией очень часто осуществляется через математику. Математика изучает количественные закономерности, присущие всем предметам, явлениям действительности, и поэтому является необходимой всем областям знаний. Математика дает им мощный вычислительный аппарат, язык формул и т.д., без которых науки не могут развиваться успешно.

Одной из особенностей математизации знаний является ее универсальность, состоящая в том, что математические методы в наше время проникают во все сферы жизни людей. Люди в своей повседневной деятельности постоянно пользуются понятиями и выводами математики, нередко даже не задумываясь об этом. В современном производстве, в технике математика применяется особенно широко. Без всякого преувеличения можно сказать, что ни одно современное техническое усовершенствование невозможно без более или менее сложных математических расчетов.

Связь математики с материальным производством можно обнаружить на всех этапах развития человечества. При этом чем шире и разнообразнее практическая деятельность людей, тем шире и разнообразнее требования к математике, тем необходимее становится ее применение. Связь математики с производственной деятельностью человека имеет тенденцию к усложнению, становится многоступенчатой.

Для чего же необходимо изучение математики современному человеку?

**Во-первых**, математика выполняет важную роль в развитии интеллекта, формировании мышления и личностных качеств человека. Как говорил М.В. Ломоносов, математика «ум в порядок приводит». Поэтому, одной из основных целей обучения математике является развитие мышления, прежде всего формирование абстрактного мышления, т.е. способности к абстрагированию, и умения "работать" с абстрактными, "неосвязаемыми" объектами.

**Во-вторых,** математика изучает модели реальных процессов и явлений, описываемых на математическом языке. Человек, знающий математический язык, способен глубже проникнуть в суть реальных процессов, правильно ориентироваться в окружающей действительности.

**В-третьих,** математика — значительная часть общечеловеческой культуры, такая же важная, как история, философия, экономика, литература, русский язык. Все наилучшие достижения человеческой мысли и составляют основу гуманитарного образования, необходимого каждому человеку нашего времени.

**В-четвертых,** человек, формулирующий математическое утверждение, проводящий математическое доказательство, оперирует не обыденной, а предметной речью, строящейся по определенным законам.

И, наконец, обучение математике наиболее адекватно соответствует системе принципов теории развивающего обучения: обучение на достаточно высоком уровне трудности, быстрый темп обучения, приоритет теории, дифференцированный подход к учащимся и самое главное – осознанность процесса обучения. Изучая математику, человек постоянно осознает свое развитие.

#### Список используемой литературы и источников:

1. Аксенова. М. Д. - Энциклопедия для детей. Т. 11. Математика/ Главный ред. М.Д. Аксенова. - М. Аванта, 2000г.
2. Глейзер.Г.И. «История математики в школе»
3. Сергеев И.С. «Примени математику»
4. Спивак А.В. Математический праздник. 4.1 - М.: Бюро Квантум, 2000

#### XITOIY XALQ ERTAKLARIDA TOSHBAQA OBRAZI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Shahnoza Nurmatova Akbarovna**

*O'zFA tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Har bir xalq og'zaki ijodida obrazlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa ertaklardagi obrazlar, ularda yashiringan ma'no, kodlar, ramzlar bir so'z bilan o'sha xalqning tili, ma'naviyatiyu-mintalitetining ko'zgidir. Shunday ekan obrazlarga yuklatilgan vazifa ham muhim bo'lib, ularni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Ayniqsa o'zga xalqning ma'naviy qadriyatlarini bilan yaqindan tanishishda obrazlarda yashiringan ramzlarni anglash muhim.*

**Kalit so'zlar:** *toshbaqa, kod, ramz, madaniyat, dunyoqarash.*

**Аннотация:** *Образы играют важную роль в любом фольклоре. Особенно образы в сказках, смысл, коды и символы, скрытые в них, являются, словом, отражением языка, духовности и менталитета этого народа. Поэтому задача, поставленная перед изображениями, тоже важна, и изучать их необходимо внимательно. Важно понимать символы, скрытые в изображениях, особенно при знакомстве с духовными ценностями чужого народа.*

**Ключевые слова:** *черепаха, код, символ, культура, мировоззрение.*

**Abstract:** *Images are important in every folklore. Especially the images in fairy tales, the meaning, codes, and symbols hidden in them are, in a word, a reflection of the language, spirituality and mentality of that people. Therefore, the task assigned to the images is also important, and it is necessary to study them carefully. It is important to understand the symbols hidden in images, especially when getting to know the spiritual values of a foreign nation.*

**Key words:** *turtle, code, symbol, culture, worldview.*

Hayvonlar, ularning ramziy obrazlari nafaqat Xitoy madaniyatida balki xalq og'zaki ijodida ham muhim o'rin tutadi. Aynan hayvon obrazlarining ramziy ma'nosi tufayli ko'p narsani anglab yetish, xalqning dunyoqarashiyu qadriyatlaridan xabardor bo'lish mumkin. Shuningdek, ular ma'lum bir zoologik kodni tashkil qiladi, uning kodlanishi Xitoy xalqi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini to'liqroq va yetarli darajada tushunishga imkon beradi, bu esa tegishli muloqot uchun zarurdir. Xitoy kosmogonik modelining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri sifatida toshbaqa obrazi alohida e'tiborga molik Toshbaqa muqaddas hayvondir. U Xitoyda boshqa barcha dengiz jonzoqlariga qaraganda ko'proq hurmatga sazovor. Toshbaqa obrazi afsonalarda uchraydi: Nui-va (yarim ayol, yarim ilon - afsonaviy birinchi ajdod-demiurg) ulkan toshbaqaning panjalaridan yer chegaralarini o'rnatish

uchun foydalanilgan, ular okeanlarda suzib yurgan, o'lmaslar bilan sehrli orollarni saqlab qolgan. Shuning uchun afsonaviy toshbaqa koinot ramzidir. Xitoyda bu sudraluvchiga qarab fol ochish usuli ham bo'lgan. "Folbin toshbaqaning harakatlariga, bo'ynining burilishiga, "ko'zlarining ifodasiga"<sup>12</sup> mos ravishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi yoki yomon narsani bashorat qilishi mumkin edi. Toshbaqa qobig'i xitoyliklar tomonidan qadim zamonlardan beri folbinlik amaliyotida ishlatilgan. Toshbaqa obrazi uzoq umr ko'rish ramzi sifatida daosizm ta'limotida ishlatilgan. Bu juda tabiiy, chunki Daosizm dunyoqarashining tarkibiy qismida: "Odamlar har xil usullar bilan mukammallikka erisha oladilar, bu uzoq umr ko'rishda (o'lmaslik), g'ayritabiiy qobiliyatlarda, xarizmada, tabiat kuchlarini bilish va ularni o'zlashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi."<sup>13</sup> deya ta'kidlangan. Keksa toshbaqa dono bo'lishi kerak. "Toshbaqa va ilon bilim va o'rganish ramzlari sifatida qabul qilingan. "Qadimgi toshbaqaning donoligi" ertagida toshbaqa kuchli, aqlli va uzoq umr ko'radi An'anaviy Xitoy madaniyatida toshbaqa obrazi ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, u ijobiy, boshqa tomondan, salbiy ma'noga ega. Chunki u "tug'ilgan sanasini va qarindoshligini eslay olmaydi". Xitoyliklar uchun esa muhim hayotiy konstantalardan biri bu oila va oilaviy munosabatlardir. Shuning uchun salbiy ma'nolarni anglatuvchi 龟gui ("toshbaqa") morfemasi bo'lgan so'zlar mavjud: 龟妞 "guiniu" – "fohishaxona xizmatkori"; 龟孙 guisun ("toshbaqa nabirasi") – "toshbaqa avlodi, nasli" kabi. Obraz chegaralari har doim cheksiz. "Obraz voqelik va mavhum tafakkur o'rtasidagi o'ziga xos "ko'priki"ni ifodalaydi; o'zaro mulohaza tizimidan foydalanib, u haqiqatda boy, qarama-qarshi mazmunni ifodalaydi va doimiy ravishda o'zidan kontseptual fikrni hosil qiladi; bu fikr, albatta, obrazdan kelib chiqadi ... Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz xitoy ertaklarida toshbaqa obrazi bir xil emas degan xulosaga keldik, chunki u ikki tomonlama bahoga ega: ijobiy va salbiy, bu xulosa chiqarishda qiyinchilikka olib keladi. Obrazning yagona gipersxemasini aniqlashda Xitoyning an'anaviy va zamonaviy madaniy kontekstini hisobga olish talab qilinadi; obraz uzoq vaqt yashashga qodir bo'lgan hayvon sifatida tavsiflanadi, shuningdek uajdodlarini unutilib yuboradigan salbiy hususiyatga ega. Boshqa tomondan, u boyliklarni qo'riqlaydigan kuchli hayvon.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Цюй Цзиньян. Обзор 80-летнего китайского фольклора // Восточный форум. 1996. № 1. С. 90–94;
2. Алексеев В.М. Китайская народная картина. Духовная жизнь старого Китая в народных изображениях. М., 1966. 260 с.
3. Волшебные сказки Китая. Сост. И. Махоничева. Новосибирск, 1991.
4. Древнее зеркало: Китайские мифы и сказки. М., 1993.
5. 杜而未. 凤麟龟龙考释 [Дракон, феникс, черепаха и цилинь – персонажи китайского фольклора]. Тайбэй, 1971.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA KICHIK EPIK ASARLARNI INNOVATSION TAHLILLARI MASALASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Amonova Shaxlo Aminovna**

*BuxDPI II bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darklarida kichik epik asarlarni innovatsion tahlil qilish metodikasiga oid ilmiy-nazariy tahlillar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Adabiyotshunoslik, falsafa, estetika, san'atshunoslik, ta'lim, tarbiya, boshlang'ich tushunchalar, namoyon bo'lishi, o'ziga xosligi, yozuvchi uslubi, estetik ideali, badiiy g'oya, xarakterlar va hokazo.

Estetik tushuncha va kategoriyalar, ularning umumiy va xususiy jihatlari, o'zaro ta'siri masalalari adabiyotshunoslik, falsafa, estetika va san'atshunoslik fanlarida batafsil o'rganilgan va qizg'in bahs-u munozaralarga sabab bo'lgan. Bu muammolar shaxs va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun umumestetik muammo sifatida olimlarimiz tomonidan tadqiq qilingan. Jahon va rus adabiyotshunosligida estetik kategoriyalar tabiati,



<sup>12</sup> Сидихменов В. Я. Указ. соч. - С. 77.

<sup>13</sup> Торчинов Е. Даосизм: Опыт историко-религиоведческого описания. - СПб., 1993. - С. 15

o'zaro aloqasi, umumiy va xususiy jihatlari ancha keng tadqiq etilgan. O'zbek adabiyotshunosligida esa drama, komediya, tragediya janrlari xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa-da, nasriy asarlarda komiklik va fojiaiviylik, makon va zamon, obraz va obrazlilikning o'zaro aloqasi, namoyon bo'lishi, o'ziga xosligi, yozuvchi uslubi, estetik ideali, badiiy g'oya, xarakterlar bilan bog'liq jihatlari, deyarli, o'rganilmagan. Ijtimoiy hayot, uning turli jabhalarida estetik kategoriyalar va tushunchalar chambarchas aloqadorlikda mavjud, o'zbek nasrida ular butun murakkabliklari bilan badiiy voqealikka aylangan asarlar ham ancha. Boshlang'ich sinf darliklaridagi barcha hikoya va qissalar yuqoridagi fikrimizni asoslaydi. Adabiy asarlarni o'rganish orqali o'quvchiga nafosat tarbiyasi singdiriladi. Badiiy tarbiya adabiyot fanini o'qitish orqali fanga oid muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarda shakllantirishni ko'zda tutadi. Ayni chog'da o'quvchining olam ranglari, hayotning mohiyati, go'zallik tushunchalarini anglab yetishiga ko'maklashadi. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi hissiyoti tarbiyalanadi. Uning go'zallik haqidagi tushuncha va tasavvurlari takomillashtiriladi. Bu borada badiiy asar tahliliga tayanib ish olib boriladi. Badiiy asarlar tahlili orqali o'quvchining mustaqil fikrlash salohiyati o'sadi, og'zaki va yozma nutqi takomillashadi, o'quvchida o'z fikrlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash malakalari shakllantiriladi. Hammani bir qolipda fikrlashdan ozod qilib, ma'lum mavzu yuzasidan rang-barang fikr mulohazalar yuzaga kelishida eng samarali hisoblangan tahlil usullariga tayanib ish yuritilsa, adabiy ta'lim o'zining bosh maqsad muddaosiga erishadi. Shu bois mazkur o'quv qo'llanmada adabiy asarlarni tahlil qilishning zamonaviy usullari va ularni qo'llash bo'yicha ilmiy nazariy va amaliy tavsiyalar berilgan. Ta'limning turli bosqichlaridan o'rganilishi ko'zda tutilgan badiiy asarlarni tahlil qilishning ilg'or usullari yoritilgan.

Badiiy asar tahlili adabiyot o'qitish metodikasi fanining alohida va muhim bo'limi hisoblanadi. Adabiy ta'limning sifati, samarasi va zamon talabalariga javob bera olish darajasi ko'p jihatdan adabiy asarlarni o'rganish qanday tashkil etilganligi bilan belgilanadi. Adabiy ta'limni ilmiy metodik yo'nalishda olib borish, adabiy asarlarni umumta'lim tizimida estetik tamoyillarga tayanib tahlil qilishni tashkil etish, samarali ta'lim metodlarini ishlab chiqish, noan'anaviy usul va vositalarni yaratish adabiy asar tahlili metodikasining umumnazariy masalalarini tashkil etadi.

Tilimizda faol qo'llanuvchi «san'at» so'zining ma'no ko'lamini ancha keng, buni yangi «Izohli lug'at»da uning beshta ma'nosi izohlanganidan ham bilsa bo'ladi. Darhaqiqat, «rassomlik san'ati», «kulolchilik san'atini egallamoq», «yuksak san'at bilan ishlangan», «san'atini namoyish etmoq», «harbiy san'atda beqiyos» kabi birikmalarning har birida «san'at» so'zi o'zining turli ma'no qirralarini namoyon etadi. Biroq jonli so'zlashuvda nechog'lik keng ma'no diapazonlarida qo'llanmasin, tabiiyki, bizni uning lug'aviy ma'nosi emas, istilohiy ma'nosi qiziqtiradi. Istilohiy ma'noda san'at deganda insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni o'zlashtirish (va o'zgartirish) ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda shuning natijasi o'laroq vujudga kelgan narsalar jami tushuniladi. Istilohning mazkur keng ma'nosida go'zallik qonuniyatlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san'atga aloqador hisoblanadi. Keng ma'nodagi san'at o'z ichida «amaliy» va «badiiy (nafis)» san'at turlariga ajraladi[10.502]. Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, modelyerlik, dizayn kabi qator sohalarni, badiiy san'atlarga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr kabilarni mansub etamiz. Modomiki keng ma'nodagi «san'at» ichida amaliy va badiiy san'atlar ajratilar ekan, ularning umumlashtiruvchi va farqli jihatlari bo'lishi lozim. Ularni umumlashtiruvchi jihat shuki, har ikkisi ham go'zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yaratiladi.

Badiiy obraz vositasida fikrlashi va ifodalashi san'atning spetsifik, ya'ni tur sifatida belgilovchi xususiyati bo'lib, u obrazlilik deb yuritiladi. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglayanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san'atga xos fikrlash tarzi



«obrazli tafakkur» deb yuritiladi.

Xullas, badiiy asarlarni hajmi kichik bo'lgan epic asarlarni innovatsion tahlillari boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri taraqqiyoti va dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
2. . NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
3. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
4. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
5. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
6. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
7. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
8. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagog* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
9. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
10. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Center "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
11. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
12. Saidova, Gavhar Ergashovna. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах." *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.
13. Saidova, G. E. "BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH." *Conferencea* (2023): 33-37.
14. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S //MEMORIES""", EPRA International Journal of Multidisciplinary.
15. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadridin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.
16. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin
17. Нуруллаева, Сарвиноз Маждидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
18. Хайитов Х. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
19. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
20. Tog'ayev O. "Adiblar va janrlar". Toshkent, Adabiyot va san'at. 2005. b-352.
21. Normatov U. "Bugungi nasrimizning yetakchi tamoyillari". O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent. 2001. 3-son. B-3.
22. Hamdam U. "Badiiy tafakkur tadriji". monografiya va maqolalar. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2002. b-199.

**BOSHLANG`ICH SINFI O`QUVCHILARDA HUQUQIY ONGINI  
RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MA`NAVIY MEROSIMIZDAN  
FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Jumayeva Feruza Faxriddinovna**

*BuxDPI tayanch doktoranti*

***Abstract:** The article highlights the pedagogical importance of using examples of Uzbek folklore to develop legal consciousness in elementary school students.*

***Key words:** folk art, proverb, national games, legal education, legal consciousness, legal literacy, moral education, social norms*

Barcha sohalarda o`z ta`sirini yaqqol namoyon etayotgan globallashuv jarayoni XXI asrda mamlakatimiz milliy merosini asrash va qadrlash kabi dolzarb vazifalarni oldimizga qo`ydi. Millatning, xalqning milliy merosining azaliy duru-javohirlarini o`z ichiga olgan folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib kelmoqda. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo`shiq, afsonalar, ertak va dostonlarda o`zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og`zaki ijodi o`zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g`oyalar bilan yo`g`rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog`liqligi bilan ham g`oyatda e`tiborlidir. Bularning hammasi bir bo`lib faqat yaxshi tarbiyani targ`ib qiladi. Bolalar xalq og`zaki ijodining pedagogika bilan bog`lanishi alladan boshlanadi. Maqollar esa xalqning aqlu-farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Bola ta`lim-taibiyasida maqollarning o`rni katta. Maqollar onavatanini sevishga, uning har bir qarich yeri uchun kurashga («El qudrati-chin qudrat, Vatan tuprog`i - qimmat.»); kasb-hunar egasi bo`lishga («Yigit kishiga yetmish hunar ham oz»); ahil bolib mehnat qilishga («Yomg`ir bilan yer ko`karar, Mehnat bilan - el.»); to`g`ri so`z va halol kishilar bo`lib kamol topishga («Dili pokning ishi - pok, Dili pokning yo`li - pok.»); yaxshi odob va olijanob xulqli bo`lishga («So`z kishining-o`zagi, Odob kishining - bezagi.») yo`naltiradi. O`z o`rnida bu xalq og`zaki ijodi namunalari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida»gi PF-5618-son Farmonida[1] o`quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonlik darajasini oshirishga eng avvalo, asosiy vazifalardan biri bu, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish; aholi o`rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo`yicha huquqiy-ma`rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o`rgatish bilan uyg`un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg`ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish kabi muhim davlat ahamiyatidagi vazifalarni bajarishda asosiy didaktik-metodik vosita vazifasini bajaradi. Chunki, bolalar folklori namunalari yosh avlodni intizomli, jasur, qat`iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o`rtoqlariga yordam berishga tayyor bo`lish singari yaxshi sifatlariga ega bo`lib o`sislariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o`qish kitoblariga kiritilgan. O`quvchilarga maktabda o`qitiladigan hikoya, ertak, she`r, masal kabi adabiy janrlarga xos badiiy xususiyatlarini o`qib o`rganishga yo`llash, asarni mustaqil tahlil qila olish, uning mazmuni va g`oyasini o`zlashtirish, o`qish malakasi, nutq madaniyatini egallash asosiy ahamiyatga ega bo`ladi, hamda boshlang`ich sinfi o`quvchilari ishni mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag`ishlaydi. Bu yoshdagi bolalarni tevarak-atrofdagi turli voqea-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ularning olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda mufassal javob berilgan. Bevosita huquqiy ta`lim mazmuni barcha o`quvchilar egallashi ko`zda tutilgan bilim, malaka va ko`nikmalar tizimi ham tarbiyalovchi, ham rivojlantiruvchi harakterda bo`lishi zarur. Shundagina u o`quvchilarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining rivojlanishini, huquqiy dunyoqarashining shakllanishini ta`minlaydi, ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash mumkin bo`ladi. Bunda o`rganiladigan huquqiy ongni shakllantiruvchi fanlar materiallari hajmini

aniqlash, bu fanlar bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklarini o'quvchilarni zo'riqtiradigan materialdan xoli qilish, o'quv materiallarida bayon qilinadigan asosiy tushunchalarni qisqa va ravon bayon etish, yoshlarga huquqiy manbalar bilan mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratish huquqiy ong, huquqiy savodxonlik shakllanishini yengillashtiradi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya tizimida ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan unumli foydalanish pedagogik jarayonlarning samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali ijodiy va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol, o'z mustaqil fikriga ega, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimida ayniqsa innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash jamiyat talabiga aylanib bo'ldi. Chunki, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi vashu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «O'quv loyiha» metodi, «Beshinchisi ortiqcha», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Qaynoq kartoshka», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning eng asosiy shaklidir. O'yin texnologiyalarida o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida hissiy-estetik, intellektual-axloqiy rivojlanadi. O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan K.Gross, K.Byuller, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyevlar o'yinlarni nazariy jihatdan ijtimoiy tabiatiga ko'ra tadqiq etgan bo'lsalar, sharqda o'yinlar asosan ta'limiy va tarbiyaviy vazifani bajarib kelgan. O'yinlar bolalar folklorining murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniladi. O'yinlarni D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadi[2]. O'yinlarda yosh organizmning talab va ehtiyojlari qondirilib, ijodiy faollik yaratiladi. Topqirlik, tezkorlik, shijoat tarbiyalanadi, bilishga bo'lgan kognitiv talab ham o'yin orqali ado etiladi. O'yinlarning mazmuni, tashkil etilishi jihatidan: kreativ (ijodiy) va qoidali o'yinlar turlaru mavjud[3]. Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zlari o'ylab topadilar. Unda ko'proq obrazlar ishtirok etadi. Bir qarasangiz sahna ko'rinishining sodda variantiga o'xshab ketadi. Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiriladi. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatligidir

Darsda aniq vaziyatlardan misollar, badiiy va adabiyot materiallaridan foydalanish bizga quyidagi ijtimoiy pedagogik imkoniyatlarni beradi:-o'quvchilar e'tiborini qonunning ijtimoiy, siyosiy va axloqiy ahamiyatiga e'tibor qaratish;- o'quvchilarni huquqning ayrim normalarini amalga oshirishga oid misollar bilan tanishtirish asosida ushbu normalarning mohiyatini ongiga yetkazish;- nazariyadan amaliyotga, qonunning makon va zamonda konkret qo'llanilishiga ko'prik qurish;- quruq nazariyadan amaliyotga o'tadigan shaxsning axloqiy va psixologik munosabatiga ta'sir qilish, ong va ongostining eng yashirin burchaklariga kirishga harakat qilish, shu bilan ta'lim va tarbiya o'rtasidagi aloqani mustahkamlash imkonini beradi[4];-qonunga itoat etish va hurmat qilish har qanday ijtimoiy faoliyatning asosi bo'lishi lozim;- ma'lum bir ijtimoiy huquqiy jarayonda hissyotlarni his etish orqali huquqiy ong darajasini rivojlantirish

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 342-son qarori. 2019 yil 20 aprel, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2019 y., 09/19/342/2995-son]

2. N.Sharipova Boshlang'ich sinfda o'yinlar vositasida o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish yo'llari. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 February 2022

3. Mardonova G.A. O`zbek milliy o`yinlari. Ommabop-adabiy nashr – Toshkent: Bookmany print. 2022. - 8 b.
4. Aliyev G.A. Aspekti pravovogo vospitaniya // Psixopedagogika. 2004. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aspekty-pravovogo-vospitaniya>(data obrasheniya: 2.10.2018)
5. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. 2 tomli. 1-tom/Mas`ul muharrir akademik Sh.Z. Urazayev - T.: O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998,- 41 b.
6. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
7. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
8. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
9. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
10. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
11. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
12. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi // *Научно-практическая конференция*. – 2021.
13. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagog* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
14. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" *Scientific Journal*. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
15. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools // [www.auris-verlag.de](http://www.auris-verlag.de). – 2017.
16. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics // *Middle European Scientific Bulletin*. Volume 8, January 2021, 174
17. Саидова, Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах." *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.
18. Saidova, G. E. "BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNING O 'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH." *Conferencea* (2023): 33-37.
19. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S // "MEMORIES""", *EPRA International Journal of Multidisciplinary*.
20. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadriddin Ayni's Works // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.
21. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
17. Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
18. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ // *Интернаука*. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
19. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! // *Интернаука*. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

## BOLALAR ADABIYOTI SO'Z SAN'ATI VA TARBIYA VOSITASIDIR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Kurbanova Gulzoda Yunusovna

*BuxDPI o'qituvchisi*

To'xtayeva O'g'iloy

*BuxDPI 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada har tononlama barkamol yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri ekanligi, bu borada ayniqsa bolalar adabiyoti kata rol o'ynashi haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается, что воспитание нового поколения детей является одной из важнейших задач нашей страны на сегодняшний день, и детская литература в этом плане играет большую роль.

**Annotation** This article considers that the upbringing of a new generation of children is one of the most important tasks of our country today, and children's literature plays a big role in this regard.

**Kalit so'zlar:** ravon til, yuksak g'oya, sadoqat ruhi, ko'ngil xazinasining qulfi,

Barkamol avlodni tarbiyalash mustaqil O'zbekistonimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi. Bu borada badiiy adabiyot, ayniqsa, bolalar adabiyoti katta rol o'ynaydi. Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kitobxonlar qalbida o'y-fikrlar uyg'otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g'oyalarga, ulkan va porloq, ishlarga ilxomlantiradigan bo'lishi zarur. Eng muhimi mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak. Bolalar adabiyoti yoshlarni imon-e'tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir. Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik nuqtayi nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq, va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi. Alisher Navoiy "Maxbub-ul qulub" da tilni "ko'ngil xazinasining qulfi", deb ta'riflaydi. Buyuk shoir kishilarni qisqa va mazmunli, chuqur mantiq, bilan so'zlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir. Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga mudabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo'lishi, ular qalbida chuqur o'y-fikrlar uyg'otishi, yorqin obrazlar va yuksak g'oyalarga boy bo'lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilxomlantirishi zarur. Eng muhimi mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda yoritilishi lozim. Bolalar adabiyoti yoshlarni imon-e'tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir. Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shunday ekan, kelajak yosh avlodni adabiyotga qiziqtirish ular ongiga ma'rifat insonga havodek zarur ekanligini singdirish biz kabi ilm ahli vakillari yelkasida turgan ulkan vazifa va burch ekanligini aslo unutmasligimiz zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017, 103-105 bet
2. Mirziyoyev Sh.M Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2017,14-15 bet.
3. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. T. "Fan", 1989.
4. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
5. . NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
6. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROT NOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
7. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
8. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
9. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
10. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
11. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
12. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" *Scientific Journal*. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
13. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
14. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
15. Саидова, Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах." *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.
16. Saidova, G. E. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH." *Conferencea* (2023): 33-37.
17. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S //MEMORIES""", EPRAInternational Journal of Multidisciplinary.
18. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadriiddin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.
19. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel" Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
17. Нуруллаева, Сарвиноз Маждидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
18. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
19. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.



## BOLALAR FOLKLORI VA BADIY ADABIYOT

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Xurshida Hamroqulova

*Toshkent amaliy fanlar universiteti professori filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bolalar folklorida keng tarqalgan chandish janrining xususiyatlari va uning bola poetik tafakkuridagi oʻrni hamda mazkur janrning oʻzgacha koʻrinishlari bolalar dabiyotida, xususan, Kavsar Turdiyeva ijodida qay tarzda aks etgani masalasiga bagʻishlangan. Shu orqali bolalar folklori va bolalar adabiyoti taʼsiri masalasiga oʻrin berilgan.

**Kalit soʻzlar:** chandish janri, chandish shartlari, bolalar folklori, oʻyin qoʻshiqlari, bolalar adabiyoti, taʼlim, tarbiya,

**Аннотация:** данная статья посвящена особенностям жанра чандиш, широко распространенного в детском фольклоре, и его роли в поэтическом мышлении ребенка, а также тому, как специфические проявления этого жанра нашли отражение в детской литературе, в частности, в творчестве Кавсар Турдиевой. Таким образом, место было отведено вопросу о влиянии детского фольклора и детской литературы.

**Ключевые слова:** жанр чандиш, термины чандиш, детский фольклор, игровые песни, детская литература, образование, воспитание

**Abstract:** This article is devoted to the characteristics of the chandish genre, which is widespread in children's folklore, and its place in children's poetic thinking, as well as how the special aspects of this genre are reflected in children's literature, in particular, in the works of Kavsar Turdiyeva. Thus, a place was devoted to the question of the influence of children's folklore and children's literature.

**Key words:** chandish genre, chandish terms, children's folklore, game songs, children's literature, education, upbringing,

Bolalar folklori va bolalar adabiyotini bir-biridan ajratib boʻlmaydi. Kishilik taraqqiyotining qay bir bosqichida folklorning bemisl taʼsirini tuygan bola adabiy asarlarning ahamiyati undan kam emasligini anglab yetadi. Negaki, har ikki maʼnaviyat chashmasi bola poetik tafakkuri, maʼnaviyati, kamolotiga jiddiy sabab boʻluvchi omillardir. Bolalar folklorida badihalarning oʻrni kattaligi sir emas. Sababi bolalar tafakkurida akslangan voqelik jiddiy oʻylov yoki ogʻir-bosiq muhokama tarzidagi fikrlovdan farqli tezkorlikni va hozirjavoblikni talab qiladi. Oʻylovsiz aytilgan ekspromt shakldagi badihalarni bolalar ijrosida koʻplab uchratish mumkin. Ularning turlari ham koʻp. Masalan, aytishuvlar (ikki yoki undan ortiq bolalarning taraf-tarafa boʻlinib ijro etishga moʻljallangan), hazil-mutoyibaga hamda kichkintoylar aql-idrokiga xos tegishmachoqlar, masxaralamalar turli davr bolalar ijodkorligining oʻziga xos namunasi boʻla olgan.

Bolalar folklorida yana shunday janrlar ham borki, ular vaqt va zamon hukmidan tashqarida boʻladi. Ular doimiy ravishda bola poetik tafakkurining oʻsishiga taʼsirini koʻrsataveradi. Ana shunday janrlardan biri chandishdir. Chandish 4-5 yoshdan 10-12-yoshgacha bolalar orasida koʻp uchraydi. Ayni mana shu davrlar bolaning olamni bilishga intilish davri hisoblanadi. Yana bu davrda bola oʻz nutqiga eʼtibor berishga, oʻzgalardan alohida ekanligini his qilishga intiladi. Bir soʻz bilan aytganda, 4-12 yosh davri bolaning alohidashaxs boʻlib shakllanish davri hisoblanadi. Bolalarning tengdoshlari, mahalladoshlari orasida, jamoaviy oʻyinlarda oʻzini tezroq va koʻproq namoyish qilishida bolalar folklorining taʼsiri kattadir. Shuningdek, bolani soʻzlarni oʻzlashtirishda ularni boshqasiga muqoyasa qilishga intilishi ham ayni mana shu shaxs boʻlib shakllanish davri bilan bogʻliqdir. Shuning uchun bu davr bolalar folklorida tabiiy ravishda qofiyali soʻzlar, sheʼriy misralar koʻp va xoʻp uchraydi. Chandishlarda bola faqat soʻzdan kelib chiqadigan mohiyatga emas, koʻproq qofiya orqali yetkazilayotgan hukm – chandishga eʼtibor qaratadi. Shu bois bu chandishlarda baʼzan maʼnodan yiroq soʻzlar ham uchrab turadi. Mana shu vaqtlarda kattalarning bolalarga eʼtibori zarur boʻladi. Ular shu kabi chandishlarni nazorat qilishlari muhimdir.

Chandishlarning dialog shakli qatʼiy boʻlib, tuzilishiga koʻra savol, ilgak va chandimoqdan iborat. Aytaylik, quyidagi birinchi misra–savol, ikkinchisi javob – ilgak va uchinchi misra chandish:

– Bir degin.

- Bir.
- Burningning uchi kir.

**Yoki**

- Uch degin.
- Uch.
- Burning puch.

Shu tartibda birlikdagi sonlarning o‘ngacha, o‘nlik sonlarning yuzgacha miqdorida chandishlar uchrashi mumkin. Mana shu o‘rinlarda chandishga zeb berayotgan xususiyat qofiyadir. Agar chandishda qofiya bo‘lmasa, u o‘zining ta’siri va ahamiyatini yo‘qotadi. Bolaning chandish aytayotgandagi alohida sifati ham so‘zlarga mos qofiyalarni o‘rinli topa olishida ko‘rinadi.

Chandish mavzusi bola so‘zga qofiya topa bilgani qadar davom etishi mumkin. Chandish ham bolalar folklorining boshqa janrlari kabi mustaqil poetik janrdir. Chandishlarning o‘ziga xos talablari bor:

1. Chandish kamida ikki kishining ishtirokini talab qiladi.  
 2. Chandishlar savol, javob va hukm – chandish tarzida bo‘ladi. Hukm chandib olish yoki laqqillatish hukmida bo‘ladi.

3. Chandish boshdanoq qarshi tomonni bir chandib uni mot qilishga qaratilganini har ikki taraf ham bilib turadi. Shuning uchun javob beruvchi tomon bundan xafa bo‘lishi kerak emas. Shunga qaramay, chandishlar kattalar nazorati ostida o‘tsa, bolalar o‘rtasida nizo kelib chiqmaydi. Chunki bu janr o‘z nomi bilan chandish-da.

4. Chandishlarda qarshi tomonni, ya’ni savolga javob beruvchi kishini mot qilishga qaratilgan hukmda kuchli kinoya ham mavjud bo‘ladi.

5. Chandishlar navbatma-navbat ijro etiladi.

6. Chandishlar qofiyali tarzda ijro etiladi. Qofiya chandishning badiiyati sifatida bolani so‘zga bo‘lgan munosabatini tarbiyalashda alohida ahamiyatga egadir.

7. Chandish biror songa (ko‘proq), biror so‘zga javob tarzida bo‘lishi mumkin:

- Yetti de.
- Yetti.
- Ertalab ketdi;
- Iroda de.
- Iroda.
- Yur, yuraver piyoda.

8. Savolga javob tarzida bo‘lishi mumkin:

- Bu nima?
- Piyoz.
- Onagga xat yoz.

9. Aldov tarzida aytilishi mumkin:

“– Orqangga qara, chuqur.

Aldanishini xayoliga keltirmagan bola orqasiga o‘giriladi. Shu zahoti unga tegishiladi

– Ko‘rmadingmi, orqang bukur” [Boychechak, 1984:195]

E’tibor berilsa, ko‘pincha barmoq tizimidagi vaznning to‘la ko‘rinishi chandishlarda muayyan ohangni, shu orqali bu chandishning yodda oson va tez saqlanib qolishini ta’minlab beradi.

- Iroda de.
  - Iroda.
  - Yur, yuraver piyoda. Agar shu chandishni 3 qatorda emas, 2 qator shakliga keltirsak:
    - Iroda de. – Iroda
    - Yur, yuraver, piyoda
- shaklidagi 7-7 bo‘g‘inli vazn hosil bo‘ladi.

Odatda, bolalar folklori janrlari bolalar o‘yinlari bilan birga ijro etiladi. Bu esa ko‘proq qat’iy tizim-tartibni talab etadi. Masalan, chorlamada aytib o‘yinga chaqirilishi, bolalarning

ikki va undan ortiq guruhga bo‘lib o‘ynashi shart qilinsa, quvlashmashoqda maxsus aytimlardan so‘ng sanoq oxirida qolgan bolaning quvlashi shart qilinadi. Berkinmashoqda topuvchining maxsus aytimni aytib bo‘lganidan so‘ng topishi shart qilinsa, chandish maxsus ijro, muayyan vaqt, joy talab etilmaydi. U xohlagan vaqtda ijro etilishi mumkin.

Bolalar folklori janrlari bolalar adabiyoti vakillari uchun ijod manbai bo‘lib kelgan. Chunki kichkintoylar xalq poetik ijodining yaratuvchisi sifatida adiblarimizga ilhom bag‘ishlagan. O‘yinlarda tashkilotchi, kuzatuvchi – xolis hakam, ijrochi – o‘yinchi vazifalarini mustaqil bajaraverishi bolalar adabiyotining o‘ziga xos rivojlanish tamoyillarini ham belgilab beradi.

Chandishlar bolalar adabiyoti ijodkorlari asarlarida tarbiya vazifasini ham bajaruvchi janr hisoblanadi. Kavsar Turdiyevaning “Quyoshli shaharcha” hikoyalar turkumidagi “Ishkalvoy yoki muloyimlik kuni” hikoyasida ham chandishning yana bir sifati ko‘rinadi.

Hikoyada bolalar adabiyotining yetakchi xususiyati hisoblanmish didaktikaga alohida urg‘u beriladi. Sarlavhadan qahramonlar nomigacha ramzlarga asoslangani va hikoyaning asosiy tirgagi etib chandish tanlab olingani ham didaktik talablardan kelib chiqqan. Asar ramzlari pirovardida o‘quvchini tarbiyalashga qaratilgan. Umuman, Kavsar Turdiyevaning bir turkum hikoyalarida Ziyrakvoy, Qoyilbek, Ishkalvoy, Hasadvoy kabi kishi sifatleri bilan bog‘liq obrazlar talaygina. Va ularning har biri alohida asarlarda o‘ziga xos ma’no-mazmun tashiydi. Hikoya qahramoni Ishkalvoy hammani chandish bilan siylashi ham bejiz emas. Chunki chandish orqali bolalar o‘rtasida nizo ham kelib chiqishi mumkinligi yuqorida bayon etildi. Yozuvchi chandish uchun ismni tanlab berishi ham bejiz emas, negaki, bolalar o‘rtasida chandishlar ismlar bilan ham, laqablar bilan ham yuz berishi ko‘p kuzatiladi. Shuning uchun chandish shaxsning nafsoniyatiga tegadigan tarzda tanlanishi kishini ajablantirmaydi. Hikoyada “– Ziyrak. – Qulog‘ingga taqqin zirak; – Hasad – Aftingni tuzat; – Ishkal. –Boshingkal” tarzidagi bir qator chandishlar keltiriladiki, muallif bu kabi shaxsiyatga teguvchi chandishlar o‘rniga ibrat beradigan so‘zlar topishni qahramonlari orqali o‘quvchilarga yuqtira boshlaydi.

Hikoya qahramonlaridan biri Qoyilbek:

“ – Kelinglar shunday so‘zlar topaylikki, ular odamda chandish emas xursandchilik, yurakda yorug‘lik qoldirsin. Unda nomlari ham chandish emas quvontirish bo‘lsin.

– Qanaqasiga? – so‘radi Ishkal, – qani aytib ko‘r-chi!

– Masalan, qani Ishkalvoy degin.

– Ishkalvoy!

– Kelgin, ichgin choy! Yoki yana. Bo‘lgin do‘stga boy.

– Voy menga ham shunday quvontirishlar aytinglar-chi! – erib ketdi Hasadvoy.

– Hasad degin!

– Hasad!

– Uyingni yashnat! Olgin meva to‘la savat! Aqllilik senga odat!

– Voy!– dedi Ishkalvoy, – yaxshi gap odamga yokar ekan a!

– Ha!– cho‘zdi Hasadvoy. Juudaaayayam.

– Do‘stlarim, –dedi Qoyilbek. – Shaharchamizda “Yoqimli so‘zlar yoki quvontirishlar kuni”ni o‘tkazamiz. “Muloyimlik kuni” desak ham bo‘ladi” [Sharq yulduzi. K.Turdiyeva, 2021: 158].

Muallif chandish kishini kamsitishga, uning nuqsonlarini yuziga solishga emas, balki, uning fazilatlarini ham bayon etish, yoki o‘zi xohlagan sifatlarni o‘zgalarda ko‘rish xususiyatini ham kamol toptirishga qaratadi. Shu tariqa asarning ishkalliklarga boy Ishkalvoyi hikoya davomida o‘zgarishga yuz tutadi. Muallif hikoyani shunday davom ettiradi: “Shunday qilib quvnoq shaharchada har oyning qaysidir sanasida muloyimlik kuni o‘tkaziladigan bo‘ldi. Aynan shu kuni hamma, hatto urishganlar ham bir-biriga eng yaxshi so‘zlar bilan murojaat qilishar ekan. Bu kuni har daqiqada “labbay” so‘zi jaranglar, agar kimdir bilmasdan birovni xafa qilib qo‘ysa, to uning ko‘nglini olmaguncha kechirim so‘rar ekan. Garchi bayram bo‘lmasa-da hamma bir-biroviga gul, bog‘idagi mevalardan, pishirgan shirinliklardan hadya

qilar ekan. Odamlarning bir-biriga mehrini ko‘rgan quyosh ham, oy ham, shamol ham, yomg‘ir ham ularga yaxshilik qilgisi kelar ekan. Oy qorong‘uda kelayotgan odamning yo‘lini yoritishga shoshilar, kimdir issiqdan qiynalayotganini ko‘rsa, quyosh asta bulut orqasiga bekinar, shamol esa mayin shabadasini esdirar ekan. Bu shaharchada muloyim so‘zlar lug‘ati chop etilib, hammaga tarqatilibdi. Aynan muloyimlik kuni hamma uni o‘zi bilan olib chiqar ekan. Muloyim so‘zlar esdan chiqmasligi uchun”[Sharq yulduzi. K.Turdiyeva:159].

Hikoyaning nihoyasi esa o‘quvchini xushyorlikka da‘vat qiladi:

“Siz ham ularni bilarsizlar-a? Masalan, ovqat yeb o‘tirgan odam oldidan o‘tsangiz “Yoqimli ishtaha”! Ishlab turgan odam yonidan o‘tsangiz “Xormang” deyishni. Agar bilmasdan bironing oyog‘ini bosib olsangiz yoki urilib ketsangiz-chi?” “[Sharq yulduzi.K.Turdiyeva:159].

Shu tariqa chandishdan boshlangan hikoya asar qahramoni Ishkalvoyni tamomila boshqa o‘zanga soladi. Bolalar adabiyotining bosh vazifasi ham ana shunda.

Bolalar adabiyoti bolalar folkloridan suv ichadi. Agar bolalar folklori bola poetik tafakkurini shakllantirsa, bolalar adabiyoti bu tafakkurni rivojlantiradi, unga husn beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boychechak. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1984.

2. K.Turdiyeva. “Quyoshli shaharcha”. Sharq yulduzi // 2021-yil 6-son, 156-159-betlar.

## БУХОРО БОЛАЛАР ФОЛЬКЛОРИНИНГ БАДИИЙ ВА КОМПОЗИЦИОН ТАҲЛИЛИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**С. С. Авезов**

*БухДУ мактабгача таълим кафедраси доценти, филология  
фанлари номзоди*

**Аннотация.** Мақолада ўзбек болалар фольклорининг бир қисми саналган Бухоро болалар фольклори намуналари таҳлили, бадиияти ва табиати хусусида назарий мулоҳазалар баён этилган.

**Калит сўзлар:** умумўзбек болалар фольклори, Бухоро болалар фольклори, мавсумий ва маросим фольклори, матн композицияси, аллалар, термалар, ҳаракатли ўйинлар

**Аннотация.** В статье описаны анализ, искусство и характер бухарских образцов детского фольклора, входящих в состав узбекского детского фольклора.

**Ключевые слова:** общий узбекский детский фольклор, бухарский детский фольклор, сезонный и обрядовый фольклор, текстовая композиция, алларские термины, подвижные игры.

**Annotation.** The article describes the analysis, art and nature of Bukhara children’s folklore samples, which are part of Uzbek children’s folklore.

**Key words:** general Uzbek children’s folklore, Bukhara children’s folklore, seasonal and ritual folklore, text composition, allar terms, action games.

Умумўзбек фольклорининг ажралмас таркибий қисми саналган Бухоро фольклори жуда катта тарихий даврни бошидан кечириб, ўзида юксак халқ ижодкорлигини жамлаб келмоқда. Бухоро фольклорида эса болалар ижодкорлиги муҳим аҳамият касб этади.

Бухоро болалар ўйинлари мазмун ва мундарижа жиҳатидан бой, ранг-барангдир. Болалар фольклори жанрий жиҳатдан икки қисмга бўлиб ўрганилади. Болаларнинг мавсумий ва маросим фольклори бўлса, иккинчиси болалар ўйин фольклоридир.

Болалар мавсумий ва маросим фольклори мавзу жиҳатидан кенг бўлиб, унга алла, болалар қўшиқлари, термалар, айтишувлар, Рамазон қўшиқлари, муножотлар, насиҳатлар, юмористик шеърлари ва бир қанча жанрий таркибдан иборат.

Ана шундай жанрлардан бири-алладир. Алла оналар қўшиғи бўлиб, унда болани дам олдириш, ухлатиш учун айтиладиган қўшиқлар саналади. Бу қўшиқларнинг асосий ғоявий мазмуни оналарнинг қалбларидаги ички руҳий тўлқинлари ва Оллоҳга нидолари

сифатида юзага келган. Ўзбек олимларидан Ғози Олим Юнусов<sup>14</sup>, Элбек,<sup>15</sup> кейинчалик О.Сафаров<sup>16</sup> “Бойчечак” тўпламида 250дан ортиқ алла матнларини келтирган бўлса, олима М.Ёқуббекова шу мавзуда номзодлик ишини ҳимоя қилган.<sup>17</sup> Профессор 2003 йилда “Алла-ё, алла”<sup>18</sup> тўпламида ўзбек оналари алласини бир жойга тўплаб нашр эттирди. Уларнинг кўп қисмида Бухоро оналар ижодкорлиги аниқ кўриниб туради.

Сан-ку манинг биргинам, алла-ё, алла,  
Бошимдаги гулгинам, алла-ё, алла,  
Гулгинамни йитирдим, алла-ё, алла  
Йиғлаб куним ўткирдим, алла-ё, алла

Кўринадик, матнда Бухоро вилояти шевалари жуда кўп учрайди. Улар сан, ман, йитирмоқ, ўткирмоқ каби сўзлардир. Адабий тил меъёрида сан, ман-сен, мен, йитирдим-йўқотдим, ўткирдим-ўтказмоқ маъноларида қўлланилади. Бу алла воқеий бўлиб, она якка-ягона фарзандини бошидаги гулга қиёс этмоқда. Бироқ она ана шу ягонасидан-гулидан ажралиб қолади. Алла-ё, алла сўз компоненти нафақат болани аллаловчи оҳанг, балки онанинг дил изҳорини ифода этувчи восита бўлиб хизмат қилмоқда.

Алла жанрининг ўзига хос хусусияти шундаки, матнда «алла», «алла-ё, алла» каби сўз компонентлари узлуксиз такрорланиб келади. Сўз компоненти ҳаракат компоненти билан баровар тарзда она образи томонидан интим оҳангда амалга оширилади. Бешикнинг бир ритмик меъёрида тебраниши боланинг оромини таъминлайди. Гарчи боланинг қўл-оёқлари бешиқда боғлиқ ҳолда бўлса-да, ўзини алла оҳангида эркин ҳис қилади. Онанинг у ҳақдаги орзу-ҳавасга тўлган қувончи, дард-аламга йўғрилган ҳасратлари ифодаланган алла нидоси оҳангида ухлаб қолади.

Алла сўзи мисранинг зачинида қўлланадиган матнлар ҳам учрайди:

Алланинг оти яхши  
Минг қайғудан бир шод яхши.  
Қадринг билмас қариндошдан  
Билса қадринг ёт яхши<sup>19</sup>

болалик пайдо бўлгандан буён мавжуд эканлигини ҳис қилиш мумкин. Бу жанр нафақат Ўрта Осиёда, балки дунё бўйича тарқалган мўъжизавий қўшиқдир: “Алла” сўзи тарихий генетик жиҳатидан жуда қадимий бўлиб, онанинг боласи бахти, соғлиқ-саломати учун Оллоҳга муножоти, илтижоси ва ички руҳий кечинмаларидир:

Алла демак – ҳақ демак  
Ҳақдан сени тиларман,  
Алла қўзим, алла.<sup>20</sup>

Алла – онанинг Парвардигорга илтижоси бўлибгина қолмасдан, фарзанди, нури дийдасига чексиз меҳри, ҳаётдаги орзу, тилаги ва ягона умиди эканлиги она томонидан изҳор этилади. Буларнинг бари оналарнинг беқиёс ижодкорлик намунаси бўлиб, руҳий – ҳиссий туйғулар бадиий тасвирий ифодалар мисолида ташбеҳона акс эттирилган. Матнда боланинг табиати, хатти-ҳаракати жонли образда ифода этилган.

Болалар ўйинлари эса болалар томонидан бажариладиган ўйинлар мажмуасидир. Ўйинлар-болалар ижодкорлигидир. У-яхлит бир композицияга эга. Профессор О.Сафаров «Ўзбек халқ болалар ўйинлари» китобида 300 дан ортиқ ўйинларнинг тур ва хусусиятлари атрофлича ёритилган.<sup>21</sup> Ўйин жараёни таркибий жиҳатдан учга бўлинади: анъанавий дебоча (чорлама, чеклашмачоқ, санама), ўйиннинг ўзи ва

<sup>14</sup> Ғози Олим Юнусов. Алла тўғрисида бир неча сўз. “Маориф ва ўқитувчи” журнали, 1926, 4-сон

<sup>15</sup> Элбек. Сайланма

<sup>16</sup> Ёқуббекова Алланинг поэтик хусусиятлари, тарихий генетик асослари, Тошкент, НДА

<sup>17</sup> Сафаров О. Бойчечак, ФАН, 1984, 19-бет.

<sup>18</sup> Алла-ё, алла (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: О. Сафаров), Тошкент, 2003.

<sup>19</sup> Бухор элда гул сайли (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Д. Ўраева ва Д. Ражабов.) – Тошкент, Мухаррир, 2010, 164-бет.

<sup>20</sup> Ўша асар, 26-бет

<sup>21</sup> Safarov O. O'zbek xalq bolalar o'yinlari. - Toshkent, Sharq, 2011, 112-bet

якуни(тарқалмачок)дан иборатдир.Ўйинлар мазмун-моҳиятига кўра икки катта гуруҳга ажратилади:1.Ҳаракатли ўйинлар.2.Маънавий (сўз)ўйинлар.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Аvezов С.С.Санама жанри табиати ва бадиияти .Монография.-Тошкент, Фан,2008.
- 2.Бойчечак.(Тўпловчи ва тузувчи:Сафаров О,Очилов К)-Тошкент,ҒАҲН, 1984.
- 3.Бухор элда гул сайли...(Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:Д.Ўраева, Д.Ражабов)-Тошкент, Муҳаррир,»2016
- 4.Мелников М.Н.Русский детский фольклор.(Учебные пособия), Москва,Просвещение, 1987.
- 5.Mirzayev T.,Safarov O.,O'rayeba D.O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi (O'quv qo'llanma),-Toshkent, Aloqachi, 2008.
- 6.Раҳматов Ў.,Жўраева М.Фольклоршунослик дарғалари.-Тошкент,Firdavs-Shoh,2022.
- 7.Safarov O.o'zbek xalq og'zaki ijodi.Darslik-Toshkent,Musiqa,2010.
- 8.Safarov O.O'zbek bolalar poetic folklori.-Toshkent,O'qituvchi,2006.

## O'QUVCHI-YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHDA MA'NAVİY-MA'RIFIY TADBIRLARNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Abduraxmanov Sherzod Nazarbayevich

*BuxDPI o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Vatanga bo'lgan e'tiqod, sadoqat, fidokorlikni talqin etish, Vatanni ardoqlash, uni sevish o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** e'tiqod, sadoqat, fidokorlik, Vatan, harbiy-vatanparvarlik, tashabbuskor, xalq manfaati, sinf, maktab, tuman, shahar, viloyat, respublika bosqichlari va hokazo.

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli mutaxassis kadrlarni yetishtirish uchun zamin yaratilmoqda.

Maktablarda vatanparvarlik sohasi bo'yicha madaniy-ma'rifiy tadbirlar, mavzuli kechalar va tanlovlari uyushtirish, teatrlardan parchalar namoyish qilish.

Vatanparvarlik yo'nalishida madaniy-ma'rifiy tadbirlarni oldindan tayyorlangan reja asosida, harbiy faxriylar va boshqa taniqli shaxslar, olim, san'atkor, yozuvchi, shoirlarni taklif qilgan holda mavzuli kechalar shaklida tashkil etish mumkin. Shunga o'xshash tartibda harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi qo'shiq tanlovlari, shu yo'nalishdagi spektakllardan lavhalar namoyish qilish tashkil etiladi. Bu tadbirlar o'quvchilarning ona Vatanga mehrini, uni turli tahdidlardan himoya qilishga tayyorliklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tadbirlarni tayyorlash, tashkil qilish, o'tkazishga rahbarlik tegishli mas'ul pedagog xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

**O'quvchi yoshlar ishtirokida "Vatanimni ko'z qorachig'idek asrayman", "Yurt taqdiri mening taqdirim" mavzularida insholar tanlovini tashkil etish.** Bunday insho tanlovlari o'quvchilarning vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi dunyoqarashini shakllantirish hamda mustahkamlashga qaratiladi. Insholar tanlovini turli bosqichlarda (sinf, maktab, tuman, shahar, viloyat, respublika bosqichlarida) tashkil etish mumkin. Insholarni yozishga tayyorgarlik davrida o'quvchilarga zarur yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, maslahatlar berib borish maqsadga muvofiq. Insholar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarda mazkur masalalar bo'yicha qat'iy ishonchga asoslangan fikr-mulohazalar yuzaga keladi va ular mustahkam e'tiqod uchun asos bo'ladi.

Shunday filmlar namoyish etilishi vaqtini tegishli teledasturlar bo'yicha oldindan belgilab borish, shuningdek, filmlarning mavjud videomateriallarini kerak vaqtda namoyish etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda ularning muhokamasini sifatli o'tkazishni ta'minlash zarur. Muhokamaga rahbarlik qiluvchi pedagog o'quvchilarning bildirgan fikr- mulohazalari



to'g'riligini kuzatib, tegishli izoh yoki tuzatishlar kiritib boradi. Kelgusida ma'lum telekanallar orqali belgilangan vaqtlarda shu yo'nalishdagi filmlarni muntazam ravishda namoyish qilib borilishini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Maktab o'quvchilari uchun yaratiladigan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ruxsati asosida yaratiladigan darslik, o'quv qo'llanma hamda o'quv-metodik qo'llanmalarga buyuk sarkardalarimizning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni kiritish, ularning jasurligi, fidoyiligi va qahramonliklari haqida yorqin misollar asosida hikoya so'zlab berish.

Shuni hisobga olgan holda buyuk sarkardalarimizning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni tegishli o'quv fanlari bo'yicha darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarga kiritish zarur. Buyuk sarkardalarimizning jasorati, fidoyiligi va qahramonliklari to'g'risida yorqin misollar asosida hikoya qilib berish mashg'ulotlari yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishning katta ahamiyatga ega bo'lgan vositalaridan hisoblanadi. Darsliklarga kiritilgan bunday ma'lumotlar o'quvchilar o'rganishi uchun materiallarni, o'quv- metodik qo'llanmalarga kiritilganlari esa pedagog-xodimlarning o'quvchilar bilan mazkur mashg'ulotlarni amaldagi talablar darajasida olib borishlari uchun zarur metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Temurbeklar nomini olgan harbiy ta'lim muassasalari, texnikumlar va akademik litseylarning maxsus guruhlari va harbiy qismlarga sayohatlar uyushtirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari bilan harbiy qismlarga sayohatlar tashkil etish harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonining haqiqiy muhit, aniq va jonli asosda bo'lishini ta'minlash uchun zarur. Ekskursiyaning samarali bo'lishi uchun uning ob'yekt rahbariyati bilan kelishilgan muayyan reja asosida olib borilishi, shu bilan birga, o'quvchilarga ekskursiyaga borish oldidan undan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni, nimalarga e'tibor berishni, tegishli tartibga rioya qilishni tushuntirish zarur. Ekskursiyadan keyin o'quvchilar bilan suhbat o'tkazib, olgan ma'lumotlari, taassurot va xulosalarini umumlashtirish maqsadga muvofiq.

"Mard o'g'lon" davlat mukofotini qo'lga kiritgan iqtidorli yoshlar bilan davra suhbatlarini tashkil etish, ularning hayot yo'llari va erishgan yutuq hamda natijalarini o'quvchilar orasida targ'ib qilish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bunday uchrashuvlarda yosh davrida "Mard o'g'lon" davlat mukofotiga sazovor bo'lgan yurtdoshlarimizning Vatan oldidagi xizmatlari, ko'rsatgan mardlik, jasurlik, fidoyiliklari, erishgan yutuq va natijalari bilan tanishish, bevosita suhbat qilish o'quvchilar uchun yaxshi ibrat maktabi bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda tegishli imkoniyat mavjud bo'lganda, albatta, bunday uchrashuvlarni o'tkazib borish lozim. Uchrashuvning qanchalik qiziqarli, sermazmun va samarali bo'lishi unga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rishga bog'liq bo'lib, buni doim hisobga olish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.
2. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 1(1), 20-27.
3. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
4. N.A Bakhtiyorovna, N.A Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
5. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).
6. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." Scientific progress 2.7 (2021): 1003-1009.
7. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. . – №. 6. – С. 403-407.
8. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied

Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

9. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. etal. BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.

10. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.

11. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.

12. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concentration "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.

13. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174

14. Саидова, Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах." Вестник науки и образования 7-3 (61) (2019): 35-37.

15. Saidova, G. E. "BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARNING O 'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH." Conferencea (2023): 33-37.

16. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S "MEMORIES", EPRA International Journal of Multidisciplinary.

17. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadridin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

18. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin

19. Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

20. Хайитов Х. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

21. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

## XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI ASOSIDA MILLIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Gulhayo Nurullayeva

Buxoro shahar 23-IDUM o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqning o'zligini mujassam etgan folklor asarlarining har tomonlama yetuk, komil shaxs tarbiyasidagi roli haqida fikr yuritilgan. Asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari – qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql va dostonlarda milliy qadriyat, urf-odat, vatanparvarlik, insoniylik kabi tuyg'ularning tarannumi to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Yosh avlodni yoshligidan ma'naviyatli qilib tarbiyalashga e'tibor berib borilsa, u o'zining katta samarasini berishi, shunga ko'ra xalq og'zaki ijodining barcha janrlari, xususan, topishmoq, maqol, ertak, tez aytish, qo'shiqlar o'quvchilarni ma'naviy yetuk, sog'lom avlod qilib tarbiyalashda asosiy omil hisoblanishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, tarbiya, qadriyat, an'ana, urf-odat, komillik, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql

**Аннотация.** В данной статье размышляется о роли фольклорных произведений, воплощающих самобытность народа, в воспитании зрелой и совершенной во всех отношениях личности. В произведениях узбекского фольклора, передаваемых из поколения в поколение на протяжении столетий, - песнях, пословицах, загадках, легендах, повестях, анекдотах, сказках, былинах - выражены национальные ценности, традиции, патриотизм, человеколюбие. о своих гимнах. Если уделить внимание духовному воспитанию подрастающего поколения с юных лет, то это даст большие результаты, соответственно, все жанры народного творчества, в частности, загадки, пословицы, сказки, скороговорки, песни подчеркиваются, что является главным фактором воспитания духовно зрелого и здорового поколения.

**Ключевые слова.** Образование, образование, ценность, традиция, обычай, совершенство,

пословица, загадка, легенда, повествование, анекдот, сказка, поговорка

**Abstract.** This article reflects on the role of folkloric works embodying the identity of the people in the education of a mature and perfect person in all respects. In the works of Uzbek folklore passed down from generation to generation for centuries - songs, proverbs, riddles, legends, narratives, anecdotes, fairy tales, tales and epics, national values, traditions, patriotism, and humanity are expressed. It has been discussed about their hymns. If attention is paid to the spiritual education of the young generation from a young age, it will give great results, accordingly, all genres of folk art, in particular, riddles, proverbs, fairy tales, quick sayings, songs it is emphasized that it is the main factor in raising a spiritually mature and healthy generation.

**Keywords.** Education, education, value, tradition, custom, perfection, proverb, riddle, legend, narrative, anecdote, tale, saying.

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajakdagi boshqaruvchilari — yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoqda. Mustaqillikka erishgan birinchi kunimizdanoq umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarni har tomonlama tiklash, ularga chuqurroq nazar tashlash uchun zamin yaratildi. Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, yuksak ma'naviy xislatlarga ega, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z ona-Vataniga fidoiy, barkamol insonlarni tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor masalalardan biri sifatida qarala boshlandi. Yurtimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish maqsad qilingan va bu amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o'rni va roli alohida ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim-tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayanish tobora qaror topib bormoqda va ko'ngil tarbiyasiga, ya'ni inson ma'naviyatini shakllantirishga birlamchi vazifa sifatida yondashish ustuvor bo'lib bormoqda. Binobarin, yosh avlodni yoshligidan ma'naviyatli qilib tarbiyalashga e'tibor berib borilsa, u o'zining katta samarasini beradi. Shunga ko'ra xalq og'zaki ijodining barcha janrlari, xususan, topishmoq, maqol, ertak, tez aytish, qo'shiqlar o'quvchilarni ma'naviy yetuk, sog'lom avlod qilib tarbiyalashda asosiy omil hisoblanadi

Xalqning bu boyligi, birinchi navbatda asrlar davomida avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari – qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql va dostonlarda o'z aksini topgan. Chunki ularda xalqning pedagogik g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma'naviy-axloqiy ideallari o'ziga xos yo'sinda aniq, ibratli va qiziqarli tasvirlangan, hikoya qilingan voqea-hodisalarda o'rnak bo'ladigan o'gitlar berilgan, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an'analari, urf-odatlar va falsafasi bayon etilgan. Xalq og'zaki ijodi asarlari badiiy jihatdan yuksak takomilga ega ekanligi, tinglovchilarning, ayniqsa, yosh bolalarning oson tushunishiga, idrok etishiga qulayligi tufayli xalq pedagogikasining eng muhim, ko'p qamrovli va tarbiyaviy ta'siri g'oyat kuchli tarmog'i hisoblanadi. Chunonchi, maqollar xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida vujudga kelgan fikrlarni lo'nda, aniq va obrazli ifodalovchi bir vosita bo'lsa, naqlar hayotiy tajribalari, nasihatombuz fikrlari, donishmandligi, axloq qoidalariva falsafasini sodda syujet, ibratli mazmunda ifodalovchi hikoyalardir. Ertaklar esa falsafa, axloq, din, badiiy to'qima va hayolotga asoslangan xalq donishmandligining mahsulidir. Shu bois ertakdagi to'qima voqea-hodisalar silsilasida xalqning ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlar, axloq-odobning o'ziga xos milliy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Rivoyatlar ham asosan ijtimoiy-maishiy voqealarni, tarixiy shaxs va hodisalarni uydirmalar vositasida bayon etuvchi kichik hajmlilik hikoyalar bo'lib, ularda lutf va nazokat, aql va idrok, ishq va vafo, adolat va sahovat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik madh etiladi, zulm va zo'rlik, haqsizlik va bosqinchilik qoralanadi.

Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining yirik namunasi hisoblangan dostonlarda umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo'lib, ularda xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlar, marosimlari, an'analari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yo'lidagi mardonavor kurashlari, vatanparvarligi, sevgi-muhabbatga sadoqati, kelajakka yaqqol ifodalangan.

O'zbek olimi M. Haydarov yozishicha: "Xalq og'zaki ijodi namunalaridagi odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasidagi pandnomalar bag'oyat hayotiy, xalqchil va ibratlidir. Xususan an'anaviy xalq ertaklari, qo'shiqlar va maqollar-odobnoma darslari ekanligini, folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnomaligini unutmasligimiz kerak"<sup>1</sup>. Xalq

<sup>1</sup> M.Haydarov. Xalq og'zaki ijodi na'munalarida tarbiya masalalari.-T.: Fan, 2004.-B.-12.

pedagogikasining sharqona an'analari, oilaviy-maishiy yo'nalishlari, o'ziga xosligi, ommaviy bayram-sayllar, marosimlar, urf-odatlar va udumlarda ifodalanishi o'sib kelayotgan yosh avlod tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi. Folklorshunos olim ta'kidlashicha: "Xalq og'zaki ijodida hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi".

O'quvchilarga xalq og'zaki poetik ijodi namunalarini o'qishni o'rgatish va bu ishga rahbarlik qilish, avvalo adabiyot o'qituvchisidan, qolaversa, har bir fan o'qituvchisidan juda katta pedagogik mahorat va qobiliyatni talab qiladi. Chunki madaniy o'qish malakalarini egallash, xalq kitobxonlarining tilini tushunish, o'quvchini ularning o'ziga xos tili va nutqqoidalari bilan tanishtirish, unda xalq og'zaki ijodi janrlarini chuqur tahlil qilish malakasini tarkib toptirish va shu asosda milliy qadriyatlarni ularga singdirish muhim pedagogik muammodir. O'quvchilarda xalq og'zaki ijodiga ijobiy munosabatni vujudga keltirish uchun avvalo maktabning tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, o'qituvchilar, kutubxonachilar ana shusohada tegishli tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim. Chunki o'quvchilar uchun, eng avvalo, zarur kitoblarni tavsiya etish, ularning mohiyati, o'ziga xos jihatlari, mazmuni, ijobiy va salbiy obrazlarini atroflicha bilish kerak. Shundagina yoshlarda xalq og'zaki ijodi namunalari aks ettirilgan kitoblarni tanlashga, uni mustaqil o'qishga va tahlil qilishga qiziqish uyg'otish mumkin. Aks holda esa o'quvchilarning qiziqishini so'ndirib qo'yish hech gap emas. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi asarlarini sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish va boshqarishi g'oyat muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi asarlarini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik sifatlarini, o'ziga xos xususiyatlari bilan birga, og'zaki ijodning har bir janriga, tomonlariga, undagi personajlar, obrazlarning fe'l-atvorlarini, xalq ertaklaridagi inson bilan, tabiat o'rtasidagi bog'lanishlarni ham hisobga olish zarur.

Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodida inson qadr-qimmati va sha'nini ulug'lovchi, ma'naviy kamolotini belgilovchi omillar, imon-e'tiqodining butunligi, vatanparvarlik, do'st- birodarlik, yaxshilik, ezgulik, ahillik sahifalari rang-barangdir. Bu sahifalarning har biri yosh avlod uchun odobnoma, ibratnoma deb baholanishga tamomila haqlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.//Toshkent: O'zbekiston, - 2017, 593 b.
2. D. O'rayeva, M. Qurbonova. O. Safarov va bashqalar. O'zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori. T.: O'qituvchi, 2007-yil.
3. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. T., 1964.
4. O. Safarov. Folklor – bebaho xazina. Saylanma. Toshkent:Muharrir 2010.
5. M.Haydarov. Xalq og'zaki ijodi na'munalari tarbiya masalalari.-T.: Fan, 2004.-B.-12.
6. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
7. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
8. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
9. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOVIY KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH." E Conference Zone. 2023.
10. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." PEDAGOGS jurnali 1.1 (2022): 52-53.
11. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 2.10 (2022): 296-298.
12. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 2.1 (2022): 513-516.

13. Adizova, Nodira. "BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

14. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.

15. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

16. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.

17. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 2. –№. 2.

18. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т.

19. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.

20. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2020. –Т. 2. –№. 2.

21. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

22. BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.

23. Хайтов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/С. – С. 49-52.

## INKLYUZIV TA'LIMNI UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

### Shoaxmedova Surayyo Kamilovna

*Аннотасија:* Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida tashkillashtirilgan umum ta'lim maktablarida Inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha yoritib berilgan.

Maqolada Inklyuziv ta'limni umum ta'lim maktablarida joriy etish bo'yicha inklyuziv tizim asoslab berilgan.

*Таянч соʻзлар:* Alohida yordamga muhtoj bolalar, Logoped, inklyuziv ta'lim, nutq nuqsonlari.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar bolalarning ta'lim va tarbiyasiga bo'lgan qarashlarning o'zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Umumiy va maxsus ta'limning integratsion jarayonlarida tendensiyalar mavjud bo'lib, buning natijasida nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalash muammosi asosiydan hisoblanadi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga erta tashxis qo'yish va ularga yordam ko'rsatish davlat tizimi ilmiy o'rganish va amaliyotga joriy etish uchun dolzarb bo'lib bormoqda. Shunga ko'ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo'llab-quvvatlash zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41- moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" deb belgilab qo'yilganligi ham ta'lim sohasiga bo'lgan ulkan e'tibordir. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta'limga bag'ishlanganligi diqqatga sazovordir. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limini yanada takomillashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish 20-modda. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorda inklyuziv ta'limning barcha subyektlari

uchun psixologikpedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan. 2021/2022o'quv yilidan respublikamiz miqyosida umumta'lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta'lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflariga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi. Inklyuziv ta'lim subyektlarini psixologikpedagogik qo'llab-quvvatlash alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchilari kamsitilmasdan sifatli ta'lim olish, rivojlanish buzilishlarini tuzatish va ijtimoiy moslashish, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordami ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi. Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan bolalar: - eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar); - ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar); - somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar); - nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish); - tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi – pakanalik); - aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar; - aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji); - intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar; - Xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar; - intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda). Ushbu shaxslar uchun eng mos muloqot va ma'lum darajadagi va ma'lum bir yo'nalishdagi ta'lim olish, shuningdek, ushbu o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi, shujumladan alohida ta'lim ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish orqali eng qulay bo'lgan sharoitlarni yaratish lozimdir. Shunday qilib, inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish ushbu ta'lim modelida tashkiliy, huquqiy, uslubiy axborot va kadrlar muammolarining paydo bo'lishiga olib keladi

O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunning 23- moddasiga ko'ra rivojlanishida jismoniy yoki psixik kamchiliklari bulgan aloxida yordamga muxtoj bolalar ta'lim olish xukukiga ega.

Bizning mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalarga yordamni tashkil etish - inson haqida g'amxo'rlik ko'rsatilishi, ijtimoiy himoya, mehr va muruvvatning yorqin namunalaridan biridir. Hozirgi kunda alohida yordamga muhtoj, imkoniyatlari cheklangan bolalarga yordam O'zbekiston Respublikasida uch vazirlik qoshidagi muassasalarda amalga oshirilmoqda: Bular mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza kilish vazirligi, Sog'likni saqlash hamda Xalq ta'limi vazirliklari.

#### ***Inklyuziv ta'lim tushunchasi***

Inklyuziv ta'lim bu – davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus talimga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

“Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridanqat'iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko'chmanchi xalqlarga tegishli bo'lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchilikni tashkil etgan oilalarning bolalari kiradi” (Harakat Rejasiga kirish 3-chi band).

Inklyuziv ta'lim vazifalari:



- Ta'lim muassasasida ta'limda aloxida extiyoji bulgan imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zarur psixologo – pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- Maxsus ta'lim muassasasi uquvchilarini umumta'lim maktablari bilan uyg'unlashtirgan holda faoliyat olib borish yuli bilan o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar urtasidagi tusiqlarni bartaraf etish, bolaning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;

Imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ruyobga chiqarish;

- Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari:

- inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi;
- inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili;
- bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili;
- markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili;
- inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili;
- inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili;
- malakaviylik tamoyili.

Xorijda integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya

Xorijdagi rivojlangan davlatlarda nogiron bolalar bilan ishlashning bo'yicha ma'lum me'yorlari, shakllari va metodlari shakllanib bo'lgan. Tabiiy-ki, har bir mamlakatda aholining mazkur kategoriyasiga yordam ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular milliy xususiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, psixologik-pedagogik an'analar, ma'lum ilmiy yondashuvlarga mo'ljallanganligi kabilar asosida shakllanadi. Shu bilan birga mazkur bolalarga yordam ko'rsatishda inobatga olish shart bo'lgan bir necha umumiy tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, imkoniyatlari cheklangan bolani ijtimoiy hayotga(shu bilan birga ta'lim-tarbiyaga) imkon qadar maksimal darajada integratsiyalash.

Ikkinchidan, mazkur bolalarni oilada tarbiyalashning ustivorligi.

Uchinchidan, kamchiliklarni erta tashxis etish va davolashga yo'nalganlik.

To'rtinchidan, har bir konkret holatda bolani rehabilitatsiyasi va abilitatsiyasiga individual yondashish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bozorov O. Bo'lajak logopedlarni kasbiy tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv //Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований. – 2021. – №. Conference TSPU. – С. 401-407.

2. Муминова Л.Р. Логопедик текшириш ва ўқитиш. - Т.: Ўқитувчи, 1993.URL: <http://www.sisf.uz/>

3. Муминова Л.Р. Ўзбекистон Республикасида инклюзив таълим концепцияси. Ривожланишида нуқсонли болалар нутқини логопедик кўриқдан ўтказиш методикаси. - Т., 2009.

4. Муминова Л. Ўзбекистон Республикасида инклюзив таълим концепцияси. Ривожланишида нуқсонли болалар нутқини логопедик кўриқдан ўтказиш методикаси. – Т., 2009.

5.Nigora B. Zairova, . (2022). The use of articulatory states of sounds in the elimination of phonetic-phonemic speech deficits of students in general education schools in logopedic training. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 23–27. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume04Issue11-05>

6. Surayyo K. Shoakhmedova. (2022). USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN WORK WITH CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 81–86. <https://doi.org/10.37547/tajjir/Volume04Issue11-14>

# ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ И ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Дустова Дилдора Собиржановна

преподаватель кафедры начальное образование Бухарского  
государственного педагогического института

**Аннотация.** В данной статье раскрыты некоторые аспекты формирования эстетической культуры студентов в процессе преподавания русского языка. Рассмотрены и проанализированы профессиональные и личностные качества учителя начального образования в области эстетической подготовки, разработаны методические рекомендации.

**Ключевые слова:** Эстетическая культура, начальное образование, профессиональные и личностные качества, профессиограмма, процесс преподавания, народное искусство, эстетический идеал, творческие способности.

**Annotation.** This article reveals some aspects of the formation of the aesthetic culture of students in the process of teaching the Russian language. The professional and personal qualities of a primary education teacher in the field of aesthetic training are considered and analyzed, methodological recommendations are developed.

**Key words:** Aesthetic culture, primary education, professional and personal qualities, profession, teaching process, folk art, aesthetic ideal, creative abilities.

Современная концепция высшего образования в Узбекистане предусматривает перенос акцентов с узко-профессионального подхода к подготовке специалистов на многостороннее, интеллектуальное.

Традиция обращения к различным формам и видам искусства в целях эстетического воспитания, особенно учителя начального образования в процессе развития его духовного личностного потенциала, имеет многовековую историю. Особенно яркое отражение в формировании эстетической культуры личности имеют многовековые традиции национального изобразительного и декоративно-прикладного искусства Узбекистана. Мы исходили из этого, что в профессиограмму учителя, особенно педагога начальных классов такой компонент, как эстетическая культура занимает важное место в общей культуре учителя. Как следует из анализа научных исследований и специальной литературы, эстетическое воспитание является неотъемлемой частью эстетической культуры личности. И русский язык несёт в себе огромный образовательный и воспитательный потенциал. Таким образом, возникает необходимость определения и трактовки понятия эстетического воспитания, как составляющий эстетической культуры, нравственное, эстетическое развитие личности студентов.

Конечную цель образования можно представить в виде профессиограмм и проектируемых моделей специалистов. «Профессиограмма -это система знаний, убеждений, умений, навыков, профессионально значимых качеств, обеспечивающих возможность успешной работы учителя по образованию и воспитанию подрастающего поколения»[1, с.76].

В результате анализа и обобщения специально-педагогической литературы в ходе нашего исследования мы определили профессиограмму учителя русского языка в системе начального образования в сфере эстетической культуры как базис, основу регламентирующий технологию построения, требований, предъявляемых профессией к личностным качествам, психологическим способностям и педагогического мастерства педагога-наставника начального образования с комплексом знаний, умений и навыков формирование эстетической культуры личности.

Во многих педагогических словарях профессиограмма рассматривается, как документ, в котором дана полная квалификационная характеристика учителя с позиций требований, предъявляемых к его знаниям, умениями, навыкам, к его личности, способностям, психофизиологическим возможностями уровню подготовки. Данные определения раскрывают содержательное наполнение требований, предъявляемых к

личности учителя. Таким образом, общим для всех профиограмм педагогов русского языка является учет следующих компонентов: постановка цели подготовки будущего учителя в процессе обучения русскому языку, содержания подготовки учителя; наиболее эффективные технологии обучения, возможность осуществления мониторинга качества подготовки учителя с учетом требований профиограммы. Гуманизация образования повлекла за собой некоторую смену акцентов в профиограмме учителя. Осуществление учителем эстетического воспитания в начальной школе требует от учителя начального образования высокого уровня развития эстетической культуры. Личность студента-будущего учителя-это эстетически развитый интеллект , ставящий и решающий воспитательные цели с позиций национальной и мировой культуры и искусства, совершенства, гармонии и красоты. Профиограмма учителя в области эстетической подготовки выступает как составная часть общей педагогической подготовки учителей всех направлений обучения ,в том числе начального образования . В последнее десятилетие вопрос разработки научных основ профессиональных требований к формированию личности учителя приобрёл особую актуальность, как в узбекской педагогической науке , так и в педагогической науке многих других стран. Именно на основе разработанной педагогической наукой основных дидактических положений психолого-педагогической и профессиональной будущих учителей по всем предметам были внедрены в практику обучения и современные стандарты образования. Сточки зрения нашего исследования особый интерес вызывают работы, связанные с эстетической культурой и эстетическим воспитанием школьников и студентов. И в этом плане профиограммы, составленные А.А.Бальян, О.В.Кременцовой, Г.А.Петровой, имеют следующие общие характеристики: потребность в эстетическом и художественномсамообразовании; эстетико-художественная компетентность; высокий художественный вкус, идеал; культура речи; эстетика внешнего вида; знание психолого-педагогических основ" эстетического воспитания учащихся; высокий уровень развития творческих способностей, устойчивый и эстетически-осознанный интерес учащийся молодёжи к искусству родного края.

К примеру, исследователь данного направления педагогической науки Г.А.Петрова отмечает необходимость создания специальной эмоционально-эстетической среды, развития соответствующих умений и навыков которые мы предлагаем расширить исходя из задач нашего исследования .

а) умение создавать соответствующий эмоционально-эстетическую атмосферу в аудитории и во внеаудиторных, самостоятельных занятиях;

б)использование и анализ произведений изобразительного и декоративно-прикладного искусства Узбекистана на занятиях, в процессе самостоятельного образования, а также проведения внеаудиторных мероприятий.

И если в профиограмме Г.А.Петровой большее внимание уделяется системе знаний, умений, навыков в области искусства и эстетического воспитания [1,С.26] Р.Я. Азизова в пособии « В союзе с красотой» упор делает на формировании эстетической культуры на материале текстов по народному искусству [2,с.6]. В свою очередь известны художник и педагог –учёный Б.М.Неменский делает упор на гармоничном сочетаний лучших традиций национального и мирового культуры и искусства. [3,с.13]

Анализ специальной литературы показал, что во многих источниках отмечается настоятельная необходимость в самостоятельном развитии эстетических интересов, творческих способностей студентов.

Профиограмма учителя практического курса русского языка направления начального образования педагогических институтов в области эстетической культуры представляет систему следующих навыков в эстетической подготовки будущих учителей.

**Потребностно-мотивационный показатель**, то есть воспитание устойчивого и осознанного интереса к овладению историей и теорией мировой художественной культуры, потребности к глубокому изучению лучших образцов национального изобразительного и декоративно-прикладного искусства родного края, глубокоеосознание необходимости таких знаний для будущей педагогической деятельности.

Также в структуру профиограммы будущего учителя начального образования в

области эстетической культуры должны войти, как неотъемлемая составная часть:

-уровень развития эстетического мышления эстетического сознания, эстетического восприятия, воображения, вкуса, эстетическое развития, на основе искусства, исследовательской деятельности; активное отношение к духовным ценностям, участие в создании эстетического многообразия мира; художественно-гуманитарный тип организации методологических, теоретических знаний в области эстетического воспитания;

6. Адизова, Нодира Бахтиёрвна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
7. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
8. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
9. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi // *Научно-практическая конференция*. – 2021.
10. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
11. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" *Scientific Journal*. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
12. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools // *www. auris-verlag. de*. – 2017.
13. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics // *Middle European Scientific Bulletin*. Volume 8, January 2021, 174
14. Саидова, Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах." *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.
15. Saidova, G. E. "BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNING O 'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH." *Conferencea* (2023): 33-37.
16. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S // *MEMORIES*""", EPRA International Journal of Multidisciplinary.
17. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadridin Ayni's Works // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.
18. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
19. Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
20. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ // *Интернаука*. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
21. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! // *Интернаука*. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

## **"GAP" BO'LIMI TA'LIMIDA "KEYS STADI" METODINING O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**R. X. Jumayev**

*BuxDPI dotsenti*

**S. Sh. Toshturdiyeva**

*BuxDPI talabasi*

Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O'quvchi o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq imkoniyat qidiradi. "Gap" mavzusi boshlang'ich sinflarning barchasi o'rgatiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O'quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi – gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning uyushiq bo'laklarini o'rganishga o'tadi.

Gap ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadi. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib

bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydi. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazish ma'qul.

Boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar: 1) amaliy o'rganiladigan; 2) nazariy o'rganiladigan bilimlarga bo'linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o'rganish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi va to'rtinchi sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda "Gap", "Darak gap", "So'roq gap", "Buyruq gap", "His-hayajon gap", "Sodda gap", "Gap bo'laklari", "Gapning uyushiq bo'laklari", "Undalmali gaplar" mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi.

III sinfda gap tugallangan mazmun bildirishi, bir yoki bir necha so'zdan tuzilishii haqidagi qoida takrorlanib mustahkamlanadi. Bolalarga bir so'z ham gap bo'la olishini tushuntirish qiyin, shu sababli bir so'zli gap tahlil uchun berilmaydi. Bunday gaplar uchragan vaqtda o'qituvchi bir so'z ham gap bo'lishi mumkinligini aytib o'tadi: **Tong.** *Yo'lak bo'ylab borar ekansiz, maysalardagi beg'ubor shabnam tomchilarini ko'rib, maftun bo'lasiz.*

"Tong" so'zi tugallangan fikrni bildirayapti, shuning uchun u gap hisoblanadi. Gapda ikki bosh bo'lak: ega va kesim mavjud bo'ladi. III sinf o'quvchilariga ega gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildiradi. Ega **kim? kimlar? nima? nimalar?** so'roqlariga javob bo'ladi. Ega va kesim gapning bosh bo'laklari degan sintaktik tushuncha beriladi. Bosh bo'laklarni ajratishda savollardan foydalanish muhim. Gapdan ega va kesimni tez va to'g'ri aniqlashga o'rgatish uchun har darsda bolalarning saviyasiga mos sintaktik tahlil o'tkazashish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham bo'lishi, ular ega yoki kesimni izohlashi, ya'ni ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarga yoki o'zidan boshqa ikkinchi darajali bo'laklarga bog'lanib kelishi haqida bilim va malakalarni shakllantirish talab etiladi. Mashqlar yordamida o'quvchilar gapdagi bir-biri bilan bog'langan so'zlarni aniqlaydi, ularni juftlab yozadi, aralash berilgan so'zlardan gap va matnlar tuzib, gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi tushunchalarini mustahkamlaydi. Bunda o'quvchilarning qaysi so'zdan qaysi so'zga qarata so'roq berishni o'rganib olishlari muhimdir.

O'qituvchi o'quvchilarning so'z turkumlari bilan gap bo'laklarini aralastirmasliklariga ahamiyat beradi. Har bir so'z so'z turkumi bo'lish mumkinligini, lekin har bir so'z ham gap bo'lagi bo'la olmasligini tushuntiradi. Masalan, bog'lovchi – yordamchi so'z turkumi, lekin unga savol berib bo'lmaydi, shuning uchun gap bo'lagi bo'la olmaydi. Sinfda gap bo'laklari va so'z turkumlari yuzasidan tayyorlangan ko'rgazma osib qo'yilgan bo'ladi, o'quvchilar undan grammatik tahlilda foydalanadi. Barcha o'quvchilar gap bo'lagi, ya'ni sintaktik tushuncha ekanligini va "so'z turkumi"ni grammatik tushuncha ekanligini chegaralab, farqlay olishlari lozim.

IV sinf ona tili darslarida gap va uning bo'lagini ta'riflashda ularning uch belgisidan, ya'ni mazmuni, shakli va ohang belgilaridan foydalaniladi. To'rt yillik ta'limda "Gap tugallangan mazmun bildiradi" (III sinf) deb o'rgatilgan bo'lsa, keyinchalik (IV sinfda) "Tugallangan mazmun anglatgan so'z yoki so'zlar yig'indisi" deb ta'riflanadi. Bu gapning mazmuniy belgisi sanaladi. Ushbu ta'riflar sintaktik tushunchalarni o'rgatishda qo'l keladi. Ayniqsa, so'z birikmasini topish, uni hosil qilish yo'llari xususida amaliy mashqlar, grammatik tahlillar o'tkaziladi. Masalan, so'z birikmasi – mazmunan va grammatik bir-biriga bog'langan ikki so'z. Bir so'z o'qituvchi tomonidan aytiladi. Shu so'z o'quvchilar tomonidan kengaytiriladi: **Gul - qizil gul, daftar - akamning daftari, bormoq - maktabga bormoq.** Demak, kengaytirilgan so'z – so'z birikmasi. Aytilgan so'z – hokim, qo'shilgan yokikengaytirilgan so'z-tobe ekanligi uqtiriladi: **Chiroyli gulxan.** Chiroyli (qanday?) gulxan (nima?).

So'z birikmasini gap ichida aniqlash. **A'lochi o'quvchilar vatanini sevadi.** Bunda ega va kesim so'z birikmasi hosil qilmasligi, ular gap asosi ekanligi uqtiriladi. (Qanday?) a'lochi o'quvchilar, (nimani?) vatanini sevadi. O'quvchilar sevadi – gap asosi. So'z birikmasini topish gapni tahlil qilish va yoki o'qituvchi tomonidan berilgan chizma asosida gap tuzish orqali ham amalga oshiriladi: **Biz bog'dan shirin va mazali mevalarni yig'ishtirdik.**

1. Biz yig'ishtirdik (gap asosi) shirin va mazali (qanday?) bog'dan (qaerdan?) yig'ishtirdik kabi.

2. ----- .....
3. ----- .....

Bu vazifalar, albatta, II–III sinfda olib borilgan soʻz birikmasi haqidagi amaliy mashqlarning davomi sifatida murakkablashtirib olib boriladi. Gap boʻlaklari IV sinfda hamana shu tarzda avval mazmuniy shaklda oʻrgatilib, keyin esa sintaktik xususiyatlari oʻrganiladi. II-III sinfda ega va kesim gapning bosh boʻlaklari ekanligi haqida maʼlumotlar berilgan, ularning savollari, qoʻllashishi haqida amaliy mashqlar bajarilgan. IV sinfda ushbu sintaktik tushunchalarni taʼriflashda shakliy belgidan foydalaniladi. Masalan, ikki va undan ortiq sodda gaplarning oʻzaro bogʻlovchilar yoki bogʻlovchilarsiz bir-biriga bogʻlangan qoʻshma gaplardan foydalanishni oʻrganadi. Unda oʻquvchilar sodda gap bilan qoʻshma gapni bir-biriga qiyoslab, ularning farqlarini, qoʻshma gaplar ikki mustaqil sodda gaplardan tuzilishini oʻrganadi: **1. Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga. 2. Biz ozod va obod vatanimiz kelajagiga ishonamiz, shuning uchun uning ravnaqi uchun kurashamiz. 3. Osmonni bulut qopladi, lekin yomgʻir yogʻmadi.**

Oʻquvchilarga qoʻshma gaplar ohang, teng va ergashtiruvchi bogʻlovchilar yordamida hosil boʻlish amaliy tushuntiriladi. Oʻquvchilar bilan sintaktik mashqlarni amalga oshirishda gapning maʼno va tarkibiy turlari (sodda va qoʻshma gaplar), gap boʻlaklari, soʻz va soʻz birikmalari xususidagi maʼlumotlar kengaytiriladi. Ular bunday mashqlar orqali gapning maʼnosiga, mazmun-mahiyatiga, ohangiga qarab turlarini ajratadi (darak, soʻroq, buyruq, hishayajon), berilgan gaplarni sintaktik tahlil qiladi. Gaplarning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarini topib, tayyor berilgan gaplarni grammatik tahlil qiladi. Shu yoʻl orqali oʻquvchilar gapni toʻgʻri tuzish va mutaqqil tarzda ongli ravishda bayon etishga oʻrganadi.

Gapda soʻzlarning bogʻlanishini aniqlash, berilgan soʻzlardan soʻz birikmalari, soʻz birikmalaridan gap tuzish ham sintaktik mashqlar hisoblanadi. Matndagi tinish belgilarni oʻrganish, tinish belgilari tushirilib berilgan matnga, oʻzlari tuzgan gap va matnlarga tinish belgilar qoʻyish va izohlash kabi punktuastion mashqlar ham sintaktik mashqlar bilan birga bajariladi: **“Koʻngilda ajib bir shodlik, goʻzallik nafosat tuygʻularini olib kirgan bahor diyorumizga tashrif buyuradi. Tong yoʻlak boʻylab borar ekansiz maysadlardagi begʻubor shabnam tomchilarini koʻrib maftun boʻlasiz”** kabi matnlar tuzdirilib, tinish belgilarini qoʻyish olingan bilim asosida nazorat qilinadi.

Boshlangʻich sinf ona tili darslarida sintaksisning muhim belgilarini dastlabki bosqichdan tortib, to IV sinfgacha boʻlgan davrda turli sintaktik mashqlar orqali oʻrganishga, tushuntirishga katta eʼtibor beriladi. Avvalo, soʻroqlar yordamida gap tuzish va uni yoyishni oʻrganadi, gap oxirida ovozning pasayishi asosida toʻxtam (pauza) qilishni, yozuvda gap oxiriga nuqta qoʻyilishini, gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan yozilishini oʻrgangan edi.

IV sinfda oʻquvchilar gapning uyushiq boʻlaklari bilan tanadi. Ular bir kesim bilan bogʻlangan bir necha ega (**Laylak, zogʻcha bir oyoqda turib uxlaydi**) yoki bir egaga bogʻlangan bir necha kesim (**Biz oʻqiyimiz, yozamiz, gapirib beramiz**) gapning uyushiq boʻlagidir. Uyushiq boʻlaklari sanash ohangida, aytilib, ular orasida vergul qoʻyiladi, degan mazmunda maʼlumotlar oladi, bu egallangan sintaktik tushunchalar mashqlar yordamida mustahkamlanib, takomillashib borilaveradi.

Oʻqituvchi oʻquvchilar diqqatini sanash ohangi va tinish belgisini toʻgʻri ishlatishga qaratadi. Dars jarayonida oʻquvchilar uyushiq boʻlaklar ishtirokida gap tuzishni va yigʻiq gapni yoyiq gapga aylantirishni amalda mashq qiladi: **Qushlar uchib keladi. (Qachon?). Bahorda qushlar uchib keladi. (Qaerga?). Bahorda qushlar issiq mamlakatlarga uchib keladi.**

Boshlangʻich sinflarda ham muhim sintaktik tushuncha boʻlgan “Gapda soʻzlarning bogʻlanish” ni tushintirishga alohida eʼtibor beriladi. Bolalar ega va kesim gap hosil qilishni bilgach, **kim?** va **nima qildi?** soʻrogʻini berish bilan kesimni topishni oʻrganadi va gapda soʻzlarning bogʻlanishi ustida ishlay boshlaydi: **Bulbul sayradi.** Nima qildi? **Sayradi** – kesim. Nima sayradi? **Bulbul** – ega.

Oʻquvchilar ikkinchi darajali boʻlak bilan tanishgach, bosh boʻlaklar bilan ikkinchi darajali boʻlak, ikkinchi darajali boʻlak bilan boshqa ikkinchi darajali boʻlak oʻrtasidagi

bog'lanishni topishga, tahlil qilishga munosabat ifodalashga o'rgatiladi. Gapda so'zlarning bog'lanishini o'zlashtirish va gapda o'zaro bog'langan so'zlarni topish uchun bir gap bo'lagidan ikkinchi gap bo'lagiga so'roq berishni amalda mashq qilish talab etiladi.

Gapda o'zaro bog'langan so'zlarni topish, bir so'zdan ikkinchi bir so'zga so'roq berish ko'nikmasi juda muhim ko'nikma bo'lgani uchun bular yuzasidan mashq qilish maktabning yuqori sinflarida ham davom ettiriladi. Gapdan tashqari, sintaksisning asosiy birliklaridan yana biri so'z birikmasi sanaladi. "So'z birikmasi" boshlang'ich sinflarda alohida mavzu sifatida o'rgatilmaydi. Lekin so'zlarning bog'lanishi, "o'zaro bog'langan so'zlar", hatto, "so'zning birikmasi" kabi atamalar ishlatiladi. So'z birikmasi ongda aks etgan borliq elementlarining o'zaro munosabatini ifodalaydi". Masalan, **qizil gul, maktabga bormoq, o'qish xonasi, aqlli bola, mazmunli kitob** kabi o'zaro bog'langan so'zlar, ya'ni so'z birikmasi hisoblanadi. Shunday qilib, maktabda ona til darslaridan nazariy bilimlarini o'rganishdan maqsad fikrni og'zaki va yozma tarzda grammatik to'g'ri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq, olgan nazariy bilimlarni amalda qo'llashni esa maqsadga muvofiq va muntazam o'rgatib borish talab etiladi.

Dars jarayonida sintaktik tushunchalarni o'zlashtirish bosqichida va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablasha borishini va o'quvchilarning erkin ijodiy fikri mustaqilligi o'sib borishini hisobga olgan holda, mavzuga doir mashqlarni bajarish izchilligini aniqlash ko'zda tutiladi.

Shunday qilib, o'quvchilar ushbu sintaktik tushunchalar va malakalar orqali mustaqil gap tuza olish, matn yaratish, gap qurilishida gap bo'laklarining qo'llanish o'rnini aniqlash, shu asosda fikrlarini grammatik to'g'ri shakllantirish, og'zaki va yozma nutqiy matn tuzish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish qisoblanadi. Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustidaishlash markaziy o'rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladi. O'quvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydi. So'zning leksik ma'nosi va uning qo'llanish xususiyatlari so'z birikmasi yoki gapda ma'lum buladi. So'z gapda bir ma'noli buladi (gapdan tashqari bir necha ma'no ifodalash mumkin).

Metodist olim T.G.Ramzaeva boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yunalishga bo'ladi:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning muhim belgilarini o'rgatish).

2. Gap tuzilmasini o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash).

Z. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga kura turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.

5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish, (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish.

Ishning bu besh yunalishi bir-biriga o'zaro ta'sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o'rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadi, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARINING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). -2023. -Т. 27. -No. 27.

2. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). -2023. -Т. 27. -No. 27.

3. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2023. –Т. 27. –No. 27.
4. Jumayev R. Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2022. –Т.23. –No. 23.
5. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2022. –Т. 23. –No. 23.
6. Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AYNINING “ESDALIKLAR” ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzukul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –2022. –No. 3. –С. 34-37.
7. Xoliqulovich J. R. Using anthropometric units in "Esdaliklar" by Sadriddin Ayniy //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. –2022. –Т. 2. –No. 2. –С. 295-298.
8. Jumayev R. SADRIDDIN AYNINING “ESDALIKLAR” ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO‘LLANISHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2021. –Т. 7. –No. 7.
9. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2021. –Т. 2. –No. 2.
10. Xoliqulovich J. R. Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 11. –No. 1.
11. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadriddin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.
12. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2020. –Т. 2. –No. 2.
13. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S "MEMORIES", EPRA International Journal of Multidisciplinary.
14. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadriddin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.
15. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДА ТУРКИЙ-ЎЗБЕКЧА ҚАТЛАМГА МАНСУБ ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.
16. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДА КОМОНИМЛАРНИНГ ЛЕКСИК ТАҲЛИЛИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

## РАЗВИТИЕ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С ДЕТСКИМ ЦЕРЕБРАЛЬНЫМ ПАРАЛИЧОМ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Попова Юлия Юрьевна**

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами Факультет “Специальной педагогики и инклюзивного образования” преподаватель кафедры «Логопедия»*

**Игамбердиева Камола Шухратовна**

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами Факультет: «Специальной педагогики и инклюзивного образования» Направление: «Логопедия» Студентка группы лого 203*

**Аннотация:** В статье представлены основные сведения об этиологии детского церебрального паралича, видах нарушения, а также влиянии недостатка на развитие речевого аппарата и речевой деятельности.

**Ключевые слова:** паралич, дисфункция, моторика, развитие, гиперкинез, гипокинез, этиология, тонус.

**Annotation:** The article presents basic information about the etiology of cerebral palsy, types of disorders, as well as the impact of the deficiency on the development of the speech apparatus and speech activity.

**Keywords:** paralysis, dysfunction, motility, development, hyperkinesis, hypokinesis, etiology, tone.

Детский церебральный паралич (ДЦП) - группа стабильных нарушений развития моторики и поддержания позы, ведущих к двигательным дефектам, обусловленным повреждением или аномалией развития головного мозга у плода или новорожденного ребёнка

На 1000 новорожденных приходится 2-3 ребенка с данным заболеванием.

К причинам возникновения Детского церебрального паралича относят:

1. Преждевременные роды; осложнения во время родов; тугое обвитие пуповиной.
2. Слишком крупный плод; низкая масса тела при рождении, особенно, если масса тела меньше 1 кг.
3. Множественные плоды (двойня, тройня и более).
4. Врожденные патологии строения головного и спинного мозга; нарушения кровообращения головного мозга у плода; преэклампсия и эклампсия.
5. Инфекционные заболевания, перенесенные матерью во время беременности; заболевания щитовидной железы и сахарный диабет у матери.

По Международной классификации болезней и проблем Десятого пересмотра, Детский церебральный паралич подразделяется на:

Спастический церебральный паралич - напряженные мышцы. Данный вид паралича является наиболее распространенным, и составляет 80% всех случаев.

Спастическая диплегия - форма детского церебрального паралича, при которой отмечается нарушение нормальной работы мышц верхних и нижних конечностей, нарушение роста костей, а также отклонение в их развитии, вследствие поражения головного мозга. Диплегия характеризуется поражением обеих сторон – нижних или верхних конечностей, в большинстве случаев происходит поражение ног.

Детская гемиплегия - синдром, который проявляется полной утратой произвольных движений в конечностях на одной стороне тела.

Дискинетический церебральный паралич - неконтролируемая двигательная деятельность. При дискинетическом ДЦП наблюдаются неконтролируемые движения рук или ног; они могут быть как медленные и гибкие, так и быстрые и порывистые.

Атаксический церебральный паралич - это нарушение контроля и координации движений тела, особенно при ходьбе. При атаксическом типе отмечается плохая координация, а также слабость мышц.

### **Речь ребенка с Детским церебральным параличом**

Особенности нарушений речи и степень их выраженности зависят, в первую очередь, от локализации и тяжести поражения мозга. Отставание в развитии речи при ДЦП связано также с ограничением объема знаний и представлений об окружающем, недостаточностью предметно-практической деятельности и социальных контактов, детям не хватает общения со сверстниками.

Часто родители вносят свой вклад в речевые нарушения своих детей. К примеру, очень заботливые родители постоянно выполняют за ребенка всю работу, они предугадывают его желания.

У преобладающего количества детей с церебральным параличом в раннем возрасте крайне медленно увеличивается активный словарь, длина предложения, речь долго остается неразборчивой. Пассивный словарь (понимание обращенной речи) обычно значительно больше активного.

На начальном этапе становления речи многие звуки отсутствуют, в дальнейшем часть из них произносится неправильно либо заменяется близкими по структуре воспроизведения, что приводит к общей невнятности речи.

В тяжелых случаях дети не различают звуки на слух, не выделяют звуки в словах, не могут повторить слоговые ряды. В более легких случаях отмечаются трудности звукового анализа слов лишь с дефектно произносимыми звуками. В дошкольном возрасте многие дети общаются с окружающими с помощью простых коротких предложений из двух– трех слов. Даже имея достаточный уровень речевого развития, дети не реализуют своих возможностей в общении (на заданные вопросы часто дают стереотипные однословные ответы).

Грамматические формы и категории усваиваются крайне медленно и с большим трудом, что во многом обусловлено ограничением речевого общения, нарушением слухового восприятия, внимания, низкой речевой активностью и недоразвитием познавательной деятельности.

Возрастная динамика речевого развития детей с церебральным параличом во



многим зависит от состояния интеллекта. Чем выше интеллект ребенка, тем более благоприятная динамика развития речи, лучше результаты логопедической работы.

Для лучшего результата важно мотивировать ребенка на занятия. Ежедневно демонстрировать, как слова действуют на маму быстрее крика и не доводят до плача самого малыша, привлекают внимание сверстников и не отторгают их. Ребенок должен понимать, что говорить – это удобно, интересно, полезно и речь помогает во всех делах и развлечениях.

Если ежедневно, регулярно пощипывать, поглаживать, разминать кожу щек, губы, вероятность парезов и параличей значительно снижается.

Чаще всего специалисты начинают дыхательную гимнастику со статических упражнений, не требующих участия рук и ног. Например:

1. Лечь на спину, вытянув конечности. Сделать глубокий вдох, глубокий выдох с втягиванием живота.

2. Стоя, сидя или лежа выполнять ритмичное носовое дыхание с закрытым ртом в привычном для ребенка темпе, 30–60 с.

Но так же существуют и более сложные упражнения. Такие как:

1. Сидя или стоя. Ноги вместе, руки на поясе. Повороты туловища в стороны. При выполнении упражнения – выдох, при возвращении – вдох.

2. Лежа на спине. Поднимание рук вверх и опускание их вдоль головы – вдох. При возвращении – выдох.

### Список использованной литературы

1. Юсупов Дильмурад. «Наши дети уникальные, а не „умственно отсталые“! / Д. Юсупов – Текст: непосредственный // Газета.uz. – 2019.

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 29.04.2019 г. № УП-5712 «Об утверждении концепции развития системы народного образования республики Узбекистан до 2030 года».

3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 13.10.2020 г. № ПП-4860 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания детей с особыми образовательными потребностями».

4. «Детский церебральный паралич» Автор: Сальков Владимир Николаевич, Шмелева Светлана Васильевна, Коноваленко Светлана Владимировна Редактор: Самуйлова И. Н. Издательство: ГЭОТАР-Медиа, 2020 г.

5. «Адаптивная физическая культура. Комплексы упражнений для детей с ДЦП. Формы атонически-астатическая и гиперкинетическая. практическое пособие» Автор:Рябова Елена Владимировна Издательство:Владос Год выпуска:2020

## DIZARTRIYALI BOLALARDA HARAKAT BUZILISHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Raxmatova Gulnoraxon Po'latxonovna**

*Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 79-sonli imkoniyati cheklangan bolalar ushun ixtisoslashtirilgan maktab-internat logopedi*

*Annotatsiya:Ushbu maqolada dizartriya bolalarda umumiy harakat ko'nikmalari,harakat buzilish turlari,ko'rinishlari va harakatlarni rivojlantiruvchi mashqlar yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: dizartriya,gipertonus,gipotonus,distoniya,nutq,tovush.*

Bolaning homilalik va ilk rivojlanish davridan boshlab onaga g'amxo'rlik qilish keyinchalik bolalarda uchrab turadigan nutq kamchiliklarining oldini olishga imkon beradi. Bola nutqidagi kamchiliklar o'zgaralar nutqini tushinishdagi qiyinchilik ularni atrofda bilan muloqatda bo'lishi o'z tengdoshlariga qo'shib ketishini qiyinlashtiradi. Nutq tafakkur qilish orqali atrofni ko'ra olish bo'lganligi sababli bola ulg'aygan sari atrof muhitdagi tasavvurlari shakllanadi va uni aks ettirish so'z boyligi orqali takomillashib boradi. Nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadi va bir-birlariga ta'sir etadi.Inson nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq

a'zolarining harakatlari aniq va to'g'ri bo'lishi kerak.

Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoyillariga ta'rif bergan dastlabki tadqiqotchilardan biri R.Y.Levina hisoblanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa tibbiyotining nutq buzilishlarini o'rganish borasida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarining katta ta'siri bo'lib, A. Kusmaul nutq buzilishlarining dastlabki turlari haqidagi yig'ilgan tasavvurlarini tanqid ostiga oldi; ularni bir tizimga keltirdi, atamalar ustida ishladi.

Nutqning rivojlanishi bolaning butun aqliy rivojlanishining eng muhim qismidir, chunki u boshqa aqliy jarayonlarning shakllanishiga ta'sir qiladi va shuning uchun har xil turdagi nutq buzilishlarining oldini olish va tuzatish nima uchun juda muhim ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Dizartriya (motor nutq buzilishi) - nutq mushaklarining innervatsiyasi buzilishi tufayli nutqning talaffuz tomonining buzilishi. Dizartriya - markaziy asab tizimining organik shikastlanishining natijasi bo'lib, unda nutqning motor mexanizmi buziladi.

Gipertonus, gipotonus turi bo'yicha artikulyar mushaklarning (yuz, til, lablar, yumshoq tanglay mushaklari) innervatsiyasi buzilishi.

1. Gipertonus - til, lablar, yuz va bo'yin muskullarida tonusning kuchayishi. Gipertonusda mushaklar taranglashadi.

2. Gipotonus - mushak tonusining pasayishi. Gipotonusda til ingichka, og'iz bo'shlig'ida tekislanadi; lablar bo'shshagan, mahkam yopila olmaydi. Shu sababli, og'iz odatda yarim ochiq, gipersalivatsiya ifodalanishi mumkin.

3. Distoniya - mushak tonusining o'zgaruvchan tabiati. Tinch holatda mushaklarning past tonusi qayd etilishi mumkin, gapirishga urinayotganda va nutq paytida ohang keskin ortadi. Distoniya artikulyatsiyani sezilarli darajada buzadi. Distoniyada tovush talaffuzining o'ziga xos xususiyati tovushlarning buzilishlari, o'rnini bosishlari va o'tkazib yuborilishining nomuvofiqligidir. (Distoniya giperkinetik dizartriya bilan qayd etiladi.) Nevrologik patologiyasi bo'lgan bolalarda ko'pincha artikulyar mushaklarda ohang buzilishining aralash va o'zgaruvchan holati qayd etiladi; individual artikulyar mushaklardagi ohang turli yo'llar bilan o'zgarishi mumkin. Artikulyar apparatlar mushaklarining cheklangan harakatchanligi - mushaklar parezining asosiy ko'rinishidir. Til va lablarning artikulyar mushaklarining harakatchanligining yetarli emasligi tovush talaffuzining buzilishiga olib keladi. Umuman olganda, artikulyatsiya buziladi. Ovoz, ayniqsa, til mushaklarining harakatchanligini keskin cheklanishi kuzatiladi.

Buzilish turiga qarab dizartriyadagi tovush talaffuzidagi barcha nuqsonlar ikki toifaga bo'linadi: antropofonik (tovushlarning buzilishi) va fonologik (almashtirishlar, chalkashliklar). Dizartriyada nutqning tovush tuzilishining eng tipik buzilishi tovush buzilishidir.

Dizartrik bolalar bilan umumiy harakat ko'nikmalarini takomillashtirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, fazoda mo'ljal olish; diqqat va xotiraning barcha turlarini faollashtirish. bola nutqini rivojlantirishi va ularning nutqidagi buzilishlarni tuzatish ishlari amalga oshiriladi. Bu ishlar nafas olish, ovozni rivojlantirish; nutqning o'rtacha tezligini va uning intonatsion ekspressivligini rivojlantirish, artikulyar motorika va yuz harakatlarini rivojlantirish; nutqni harakat bilan muvofiqlashtirish; tovushni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish va fonemik eshitishni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Dizartrik bolalarda nafaqat artikulyatsiya, balki ularning mayda qo'l va umumiy harakatlarida ham kamchiliklar mavjud. Buning sababi mushak tonusining buzilishidir. Ko'pincha ularda keskin harakatlar, ba'zida, aksincha, mushaklarning harakatida pasayish kuzatiladi va buning natijasida umumiy harakatlarning nomutanosibligi kuzatiladi.

Dizartrik bolalarda sezgi va mayda qo'l harakatini rivojlantirish orqali ularni nutq kamchiliklarini bartaraf etish imkoniyatlari yanada kengayadi. Mashg'ulotlar davomida mayda qo'l harakatini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Savatcha"ni yasatamiz, "Rangli tomchilar", "Munchoqlarni teramiz", "Qaychi bilan qanday qirqamiz" mashqlarini keltirishimiz mumkin.

Insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri o'zaro bir biriga ta'sir ko'rsatishdir. Ammo ko'pgina dizartrik bolalar fikrlarini nutqda aniq bayon ettirishga nuqsonlari sababli qiynaladi.

Shuning uchun logoped birinchi bo'lib dizartrik bolalarga psixologik ta'sir yordamida ularning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishi darkor.

## Foydalangan adabiyotlar

1. Ayupova, Mukarram, and Aziza Jumabayeva. "Pedagogical and psychological characteristics of speechimpaired children in preschool education." *Science and Education* 2.5 (2021): 544-549.
2. Bozorov O. Bo'lajak logopedlarni kasbiy tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv //Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований. – 2021. – №. Conference TSPU. – С. 401-407.
4. Ayupova.M.Y. Logopediya Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2019

y

## QUYI ZARAFSHON HUDUDI QORATANLI QO'NG'IZLARI FAUNASINING EKOLOGO-FAUNISTIK TAVSIFI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Alimova Luiza Xalilovna**

*Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi, liz.a@mail.ru*

**Xalimov Fazlitdin Zakirovich**

*Samarqand davlat universiteti, dotsent,*

**Annotatsiya:** Maqolada Quyi Zarafshon hududida tarqalgan qoratanli qo'ng'izlar faunasining ekologiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** qoratanli qo'ng'izlar, fauna, dominant turlar, biotsenoz.

Zarafshon daryosi quyi oqimi biotsenozlari qoratanli qo'ng'izlar faunasida *Adesmia planidorsis* (dominantlik darajasi 17,33%), *Stenosis sulcicollis* (8,97%), *Scleropatrum brevisculus* (7,60%), *Cyphogenia lucifuga* (6,23%), *Trigonoscelis apicalis* (6,08%), *Scleropatrum seidlitzii* (5,78%), *Zophosis scabriuscula* (5,78%) va *Ocnere pilicollis* (5,17%) turlari dominant turlar, *Tentyria gigas* (4,26%), *Scleropatrum hirtulum* (3,80%), *Cyphogenia limbata* (3,65%) va *Blaps scutellata* (3,04%) subdominant turlar jumlasiga kiradi. Aniqlangan turlarning 8 tasi kam sonli tur, 25 tasi (shu jumladan, tadqiqotlarda tabiiy sharoitda qayd qilinmagan turlar ham) esa juda kam sonli turlar jumlasiga kiritildi (2-ilova).

Qora tanli qo'ng'izlar faunasining ekologik xilma-xilligini baholash maqsadida, oldingi boblardagi kabi, jamoaning turlarga boyligi, taqsimlanishning tekisligi va dominantlik me'yorlarini ko'rsatuvchi indekslar hisoblab topildi (4.1.jadval).

Olingan ma'lumotlar (Margalef indeksi-6,93, Shennon indeksi – 3,05, Menxinik indeksi – 1,79) qora tanli qo'ng'izlar faunasi turlar xilma-xilligining vizildoq qo'ng'izlarga nisbatan ham yuqoriroq ekanligidan dalolat beradi. Ushbu indekslar qiymatining oshib borishi jamoaning turlarga boyligining yuqori ekanini ko'rsatadi. Shunday holat turlarning taqsimlanish tekisligi ko'rsatkichida (Shennon bo'yicha taqsimlanish tekisligi) ham namoyon bo'ladi. Vizildoq qo'ng'izlarda bu ko'rsatkich 0,71 ga teng bo'lgan bo'lsa, qora tanli qo'ng'izlar uchun uning qiymati 0,80 ni tashkil etadi. Bu holat turlarning jamoadagi hissasi vizildoq qo'ng'izlarga nisbatan yanada tenglashganligidan dalolat beradi. Lekin yuqorida qayd qilinganidek, dominant turlarning jamoadagi haqiqiy hissasi dominantlik me'yorlari indekslarining qiymati orqali baholanadi. Aniqlangan indekslar qiymati (Simpson indeksi - 0,07, Berger-Parker indeksi - 0,17) jamoada dominant turlarning hissa past ekanligidan dalolat beradi.

### 1-jadval.

#### Zarafshon daryosi quyi oqimi hududi qora tanli qo'ng'izlar faunasining ekologik xilma-xilligini baholash natijalari

Ekologik xilma-xillik indekslari	Indeks qiymatlari
Turlarga boyligi indekslari:	
Margalef indeksi: $D_{Mg} = (S-1) / \ln N$	6,93
Shennon indeksi: $H' = -\sum p_i \ln p_i$	3,05
Menxinik indeksi: $D_{Mn} = S / \sqrt{N}$	1,79
Taqsimlanishning tekisligi indekslari:	
Shennon bo'yicha taqsimlanishning tekisligi: $E = H' / \ln S$	0,80

Dominantlik me'yorlari:	
Simpson indeksi: $D(S\lambda) = \frac{\sum(n_i(n_i-1))}{N(N-1)}$ .	0,07
Berger-Parker indeksi: $d = N_{max} / N$	0,17

Yuqorida aytilgan fikrlar qora tanli qo'ng'izlar faunasining sifat va miqdoriy tarkibi haqida umumiy xulosalar bersada, tadqiqot hududidagi bir-biridan gidrotermik va edafik ko'rsatkichlari bilan keskin farq qiluvchi cho'l va madaniy biotsenozlar faunasida keskin farqlar yuzaga chiqadi. Cho'l biotsenozlarida qoratanli qo'ng'izlar faunasining xilma-xilligi aholi maskanlari va agrobiotsenozlarga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniqlandi va bu yerda 21 avlodga mansub 33 tur qo'ng'izlar tarqalgan.

Tadqiqot hududi cho'llarida *Blaps* va *Trigonoscelis* avlodlarining 4 tadan turi, *Cyphogenia* avlodining 3 ta turi, *Zophosis*, *Tenebrio*, *Podhomala* va *Lasiostola* avlodlarining 2 tadan turi tarqalgan. Qolgan 14 avlodning faqat bittadan turi qayd qilindi.

Cho'l biotsenozlarida *Adesmia planidorsis* (30,32%), *Cyphogenia lucifuga* (10,9%), *Trigonoscelis apicalis* (10,64%), *Ocnerna pilicollis* (9,04%), *Cyphogenia limbata* (6,38%), *Blaps scutellata* (5,05%) yaqqol dominant turlar hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахманов Г.М., Набоженко М.В., Абдурахманов А.Г., Иванушенко Ю.Ю., Даудова М.Г. Географические связи жуков-чернотелок (Coleoptera: Tenebrionidae) Тетийской пустынно-степной области Палеарктики с историческим обзором // Юг России: экология, развитие. 2016. Т. 11, №3. С. 35-89. DOI: 10.18470/1992-1098-2016-3-35-89.

2. Алексин В.А. Чернотелки (Coleoptera, Tenebrionidae), вредящие сахарной свекле на юго-востоке европейской части СССР. Энтомол. обозр. 1971. Т. 4, вып. 2. С. 292-308.

3. Alimova L.X., Xalimov F.Z., Buxoro va Qorako'l oazisi vizildoq qo'ngizlarining (coleoptera, carabidae) taksonomik tarkibi. Alimova L.X., Xalimov F.Z., Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. –Namangan, 2022 №.11. - B. 108-113.

4. Таксономический состав фауны жуков-щелкунов (Coleoptera, Elateridae) Нижнего Зарафшана. ЛХА., Р.А. Хамзаев. Узбекский Биологический Журнал, 32-36

## ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA SINTAKTIK MAVZULAR USTIDA ISHLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**D. X. Shodmonqulova**

*Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti*

**Z. N. Sag'dullayeva**

*Nizomiy nomidagi TDPU 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi so'zlarning o'zaro bog'lanishi (so'z birikmalari) haqida berilgan bilimlar tahlil qilingan va ushbu bilimlar yuzasidan qo'shimcha takliflar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** sintaksis, sintaktik bilimlar, so'z birikmasi, gap bo'laklari, bosh bo'laklar, ikkinchidarajali bo'laklar, uyushiq bo'laklar.

So'z birikmasi sintaksisi har bir sinf kesimida mavjud bo'lgan va gap sintaksisi haqida tasavvur hosil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi bilimlar tizimidir. Boshlang'ich sinflar kesimida olib qaraydigan bo'lsak, so'z birikmasi sintaksisi aynan shunday nom bilan keltirilgan emas, chunki bu bola uchun tushunarsiz, degan qarash mavjuddir. Lekin xuddi shu mavzuga oid bilimlar o'quvchilarga 1-sinfdan boshlab amaliy tarzda berib boriladi. Masalan, 1-sinflar uchun 2021-yilda nashr qilingan Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida ham turli topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning o'zlari so'zlarning o'zaro bog'lanishiga oid topshiriqlarni bajarishiga muhim ahamiyat berilgan. Jumladan, "Ular sizga kim?" mavzusidagi 8-topshiriqda quyidagicha vazifa beriladi:

"Oila a'zolari uchun mos so'zlarni yonma-yon yozing.  
Namuna: Aka - botir".

Ushbu topshiriq orqali o'quvchilar bir-biriga mos so'zlarni aniqlashda so'roq berish usulini qo'llaydi: Aka qanday? - Aka - botir. Natijada ularda so'zlarning o'zaro bog'lanishini tushunishlarida so'roq berish malakasi amaliy tarzda shakllana boshlaydi. Shuningdek, 2-sinf Ona tili darsligida so'zlarning o'zaro bog'lanishi haqida "So'zlar mazmun jihatidan o'zaro bog'lanib, gap hosil qiladi", degan qoida ham kiritilgan bo'lib, bunda o'quvchilar gap tarkibidagi so'z birikmalariga oid bilimlarni hech qanday grammatik tahlillsiz, mazmun jihatidan bir-biriga bog'lab o'rganishlari nazarda tutilgan. Jumladan, yuqorida berilgan qoidadan keyin berilgan mashqda quyidagicha shart kiritilgan: "Gapni o'qing va yozing. Gapda o'zaro bog'langan so'zlarni aniqlang. Buning uchun avvalo gapning asosini aniqlang va belgilang. Mevali daraxtlar bahorda gullaydi". Ushbu mashqni bajarish tartibi ham berilgan bo'lib, o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda bu jarayonni amalga oshiradi. Masalan, (Nimalar?) Daraxtlar (nima qiladi?) gullaydi. Daraxtlar so'zidan mazmunan unga bog'langan so'zga so'roq bering: (qanday?) mevali daraxtlar. Gullaydi so'zidan mazmunan unga bog'langan so'zga so'roq bering: (qachon?) bahorda gullaydi.

Hozir amalda bo'lib turgan 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida esa so'zlarning bog'lanishi yuzasidan nazariy bilimlar berilishi ko'zda tutilgan emas. Faqatgina berilgan matnlar bilan ishlash jarayonida amaliy tarzda ish olib borilishi nazarda tutilgan. Jumladan, "Maktabim - ikkinchi uyim" mavzusida quyidagicha topshiriq berilgan: "Berilgan so'zlardan mosini qo'yib, matni to'ldiring.

sinfxona, uviversitet, sanash, o'qish, madrasa, yurtimiz, maktabxona, yozish, qorixona \_\_\_\_\_da qadim zamonlardan beri maktablar bo'lgan. Tarixda maktablar \_\_\_\_\_ deb atalgan. Bunday maktablarda bolalar faqat \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ni o'rganishgan. Ta'limning yuqori bosqichi esa \_\_\_\_\_larda davom etgan".

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar har bir so'zni bo'sh o'rinlarga qo'yib, talaffuz qilib ko'rishlari, aynan mos so'zni topish uchun so'zlarga so'roq berishlari, vergul belgisi mavjud o'rinlarda so'zlarni ohang orqali ajratib talaffuz qilishlari mumkin. Bunda o'quvchilarda sintaksis bo'limiga oid so'zlarning bog'lanishi yuzasidan amaliy bilim va ko'nikmalar hosil qilinishiga erishiladi. Ko'rinib turibdiki, hozirgi 3-4-sinf o'quvchilarining so'z birikmalariga oid bilimlar bilan tanishuvlari 2- sinfdan boshlab nazariy tarzda amalga oshirilgan bo'lsa, endilikda 2-sinfda ham bunday bilimlarga faqatgina amaliy tarzda yondashilgan xolos.

"Gapda so'zlarning bog'lanishi" mavzusi 3-sinf darsligida ham berilgan bo'lib, 2-sinfda o'rganilganlardan asosiy farqi uning gap bo'laklari mavzusidan keyin o'rganilishi, so'zlarning bog'lanishi so'roqlar yordamida aniqlanishi haqida ma'lumot berilganligi va kelishik qo'shimchalari haqida boshlang'ich bilimlar berilganligidir. Jumladan, quyidagi qoidalar keltiriladi:

1. "Gapda so'zlar mazmunan o'zaro bog'lanadi. Gapda so'zlarning bog'lanishi so'roqlar yordamida aniqlanadi".

2. "-ning, -ni, -ga, -da, -dan qo'shimchalari gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydi: Ukam bog'chaga boradi."

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilari, ayniqsa 3-sinf o'quvchilari uchun juda ko'p yangi qoidalar va atamalar berilgan bo'lib, o'quvchilar o'zlari o'qigan har qanday gapning ham mazmunini chaqa olmaydi. Shunday ekan, birinchi qoidadan so'ng, albatta namuna uchun gap berilishi va izohlanishi kerak deb hisoblaymiz. Masalan, Sayyora bog'da lola terdi. Kim terdi? - Sayyora terdi. Qayerda terdi? - bog'da terdi. Nima terdi? - lola terdi.

Jumladan, ushbu qoidani ko'rib chiqamiz:

"Gapda so'zlar o'zaro -ni, -ning, -ga (-ka, -qa), -da, -dan qo'shimchalari yordamida bog'lanadi". Bu qoida 3-sinf darsligida keltirilgan "-ning, -ni, -ga, -da, -dan qo'shimchalari gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydi" degan qoida bilan bir-biridan farq qilmaydi.

O'quvchilarda so'z birikmasi haqida tasavvur hosil qilish maqsadida namuna sifatida quyidagi gapni berish mumkin: *Nigora rasmni qora qalamda chizdi*. So'z birikmalari: rasmni chizdi, qora qalamda, qalamda chizdi. So'z birikmalari tarkibidagi kelishik qo'shimchalarining to'q rang bilan ajratib yozilishi o'quvchilarda so'z birikmalarini hosil qilayotgan qo'shimchalarga nisbatan e'tiborni oshiradi va yuqori sinfda o'rganiladigan kelishik

qo‘shimchalari haqidagi bilimlarga zamin hozirlaydi. Shuningdek, ushbu qoidaga mutanosib ravishda berilgan mashqlar tarkibidagi shartlarda ham o‘zgarish bo‘ladi, ya‘ni so‘z birikmasi haqidagi bilimlarni mustahkamlashga oid shartlar ham kiritiladi. Masalan, darslikdagi 28-mashqda berilgan “So‘roqlar yordamida gapdagi so‘zlarning bog‘lanishini aniqlang vachizmada tasvirlang” shartini “So‘roqlar yordamida gapdagi so‘z birikmalarini aniqlang va chizmada tasvirlang”ga o‘zgartirish mumkin. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi mumkin: “So‘z birikmasi haqidagi bilimlar 4-sinf o‘quvchilari uchun og‘irlik qilmaydimi? Axir bu mavzu yuqori sinfda o‘rganiladigan mavzu hisoblanadi-ku”. Bu savolga ham atroflicha javob berishga harakat qilamiz. 41-sahifadagi 2-mashqda tasvirlanganlarning rangini topib yozish kerak. Bu mashq orqali o‘quvchilarga narsa-buyumlar sifatini ayta oladi, sintaktik jihatdan qaraydigan bo‘lsak ular sifatlovchi aniqlovchi bilan amaliy tomondan tanishyapti. Mashqni bajarishan oldin har bir o‘quvchi mashq shartini tushunganligiga ishonch hosil qilish lozim. Buning uchun avval o‘quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq: “Ayting- chi, nimalarni ko‘ryapsiz?”, “Ularning rangi qanday?”. Berilgan savol yuzasidan o‘quvchilardan javob olingach, ularga berilgan narsalarning nomini rangi bilan moslab yozishini tushuntirish kerak. Bunda o‘quvchi rasmdagi narsalarning nomi va rangini bilishi hamda rangni bildiruvchi so‘zlarni nomlar bilan birgalikda so‘z birikmasi tarzida yozib berishi zarur. **Javob:** 1. Qizil lola. 2. Oq ayiq. 3. Yashil daraxt. 4. Sariq quyosh. 5. Ko‘k kit. 6. Qora qarq‘a. O‘quvchilar yozib bo‘lishgach, har bir o‘quvchidan yozgan so‘z birikmalarini o‘qib, mazmunini tushuntirib berishi so‘raladi.

Birinchidan, o‘quvchilarga ikki yil mobaynida “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi” mavzusi ostida bilim berilib, so‘z birikmalari haqidagi bilimlarga zamin hozirlangan edi. Qolaversa, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga oladigan bo‘lsak, ular bir yil davomida anchagina ulg‘ayadi va endilikda ularga gap bo‘laklari haqida ham bilimlar berilmoqda. Gap bo‘laklari ham, so‘z birikmalari ham sintaksis bo‘limining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Shunday ekan, bu davrda o‘quvchilarni “so‘z birikmasi” atamasi bilan ham tanishtirish mumkin.

Qolaversa, yuqori sinfda ham so‘z birikmasiga oid sintaktik bilimlar o‘rganilsa-da, o‘quvchilar bilimi talab darajasida emasligi, bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilarda ham ona tili bo‘yicha milliy o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarga ega emasliklari, ya‘ni mavjud bilimlarni hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega emasliklarini hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu mavzu anchagina murakkab ekanligi, uni o‘rganishni ertaroq boshlash va ko‘proq takrorlash zarurligi ayon bo‘ladi.

Shunday ekan, o‘ylaymizki, ushbu jarayon qanchalik barvaqt amalga oshira boshlansa va ko‘proq takrorlashga erishilsa, o‘quvchilarning sintaktik bilimlarini yana-da oshirishga yaxshigina hissa qo‘shishga muvaffaq bo‘lishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 1-sinflar uchun darslik. Toshkent. Respublika ta‘lim markazi. 2021.
2. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 1-sinflar uchun mashq daftari. Toshkent. Respublika ta‘lim markazi. 2021.
3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 2-sinflar uchun darslik. Toshkent. Respublika ta‘lim markazi. 2021.
4. . Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 2-sinflar uchun mashq daftari. Toshkent. Respublika ta‘lim markazi. 2021.
5. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi”. 3-sinflar uchun darslik. Toshkent. Respublika ta‘lim markazi. 2022
6. “Ona tili fanidan o‘quv dastur”. Toshkent-2017.
7. Qosimova K., Fuzailov S., Ne‘matova A. “Ona tili” 2-sinflar uchun darslik. Toshkent. “Cho‘lpon”. 2018.
8. Qosimova K. va b. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent, “NOSIR”-2009.
9. “Umumiy o‘rta ta‘limning ona tili bo‘yicha milliy o‘quv dasturi”. Toshkent-2020.
10. G‘afforova T., Shodmonov E., G‘ulomova X. “Ona tili” 1-sinflar uchun darslik. Toshkent. “Sharq”. 2019.



## SHE'RIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Shodmonqulova D. X.

*Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti*

Sayfullayeva A.R.

*Nizomiy nomidagi TDPU 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** mazkur maqola boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan she'r va she'riy asarlar mazmun-mohiyatini, undagi ma'no jim-jimadorligini va shoir ichki kechinmalarini to'laqonli tushunib yetishi uchun bir qator texnologiyalar ustida ishlangan va bir nechta qo'shimcha usullar yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** she'r, janr, she'riy asar, qofiya, ohangdoshlik, ohangdosh so'zlar, bo'g'in, badiiy san'at

**Abstract:** this article was worked on a number of technologies to fully understand the content and essence of poetry and poetic works given in elementary school textbooks, the silence of the meaning in it and the inner experiences of the poet, and several additional methods were covered.

**Keywords:** poem, genre, poetic work, rhyme, melody, melodic words, syllable, fine art.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan badiiy asarlar va janrlar orasida eng muhim adabiy janrlardan biri she'r hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar uchun boshqa janrlar, misol uchun hikoya, ertak, doston kabi janrlar she'riy tarzda berilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Boshlang'ich sinflarning Ona tili va o'qish savodxonligi darsligiga kiritilgan she'lardan asosiy maqsad bolani emotsional ruhda tarbiyalash, o'zganing fikrini tushunib yetish, tasavvurini kengaytirish va shoir ichki kechinmalari tushunib yetishdan iborat. O'quvchilar she'riy ohangni anglab yetmasdan, tarkibidagi so'zlarning ma'nosini to'liq tushunmasdan, she'rni o'qiy olmaydi.

3-sinfda Anvar Obidjonning "O'rmonda ziyofat"<sup>22</sup> she'rini tahlil qilish jarayonida, albatta, tabiat manzarasiga to'xtalib o'tish lozim, va shu bilan birga unda tasvirlangan atrof-muhit haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi. Ma'lumki, she'r tahlili uning sarlavhasidan boshlanishi lozim. Shuning uchun birinchi navbatda e'tiborimizni "o'rmon" degan so'zga qaratishimiz kerak. Sarlavha, albatta, butun she'rni nima haqida ekanligini anglatib turadi. O'quvchilar bilan o'rmon haqida suhbatlashar ekanmiz, u qanday joy, qanday o'rmonlar bor, qanday hayvonlar yashaydi kabi savollar orqali o'quvchini tabiiy fanlardagi bilimlari bilan bog'lab olib borishimiz lozim.

Tabiatshunoslik darslarida o'tilgan o'rmon mavzularini eslash orqali integratsiyaviy yondashuvni yo'lga qo'yish mumkin. Keyinchalik she'rdagi muhim detallardan biri asar muallifiga ham katta e'tibor qaratiladi. "O'rmonda ziyofat" (Anvar Obidjon) she'rida shoining boshqa asarlari va ulardagi bog'liqliklar haqida fikr yuritiladi.

Anvar Obidjon – istedodli adib hamda bolalar yozuvchisi. U butun umrini vatanga muhabbat, unga sidqidildan xizmat qilish, uning nomini tillarda doston bo'lishiga sarfladi. U 1947-yil 8-yanvar kuni Farg'ona viloyatida tug'ilgan va 73 yil yashab, 2020-yil 11- aprel kuni vafod etgan. Anvar Obidjon o'zbek jurnalisti va shoiridir. Uning birinchi she'ri "G'uncha" jurnalida "Shikafjon" nomi bilan chiqdi. Anvar Obidjon "Ona yer"(1975), "Olovjon va uning do'stlari"(1983), "Bezgakshamol"(1985), "Akanq qarag'ay Gulmat"(1987), "Oltin yurakli Avtobola"(1986) kabi asarlari mavjud.

Anvar Obidjon 1997-yil "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan, 1998-yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoniga sazovor bo'lgan. Bu orqali o'quvchilarni adabiyot borasidagi bilimlarini oshirish va shoir va boshqa adabiyotshunos yozuvchilarni tanitish mumkin. She'r matni ustida ishlash o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Dastlabki ishni she'rdagi ma'nosi izohlanishi kerak bo'lgan so'zlarga qaratishda boshlasak, o'quvchi o'qiyotgan va tinglayotgan vaqtda unga ma'no tushunish oson kichadi. Demak, "O'rmondagi ziyofat" she'rida izohlanishi kerak bo'lgan so'zlar quyidagilar:

**Xonaki** – uya oid, uyda tayyorlangan.

**Ofitsiant** – restoran, kafe va sh.k da mijozlarga xizmat qiluvchi, ulardan buyurtma olib, ovqat keltirib beruvchi odam.

<sup>22</sup> 3-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism 127-bet

*Gard* – chang, un, ko‘mir kabilarning kukun yuqisi.

*Kunjara* – urug‘ yoki mag‘izlarning yog‘i siqib olinganda keying qoldig‘i. Asosan, chorva ozuqasi sifatida ishlatiladi.

*Kirpi* – shevada tipratikan

*Chag‘ir* – ola-bula, kulrang

*Suli* – hayvonlarga yem uchun ekiladigan g‘alla o‘simligi va uning doni, g‘allasi.

Bu kabi ma‘nosi izohlanayotgan so‘zlar ro‘yxati o‘quvchlarni o‘zbek tilidagi lug‘at boyligini va ular izohlab kelayotgan ma‘no orqali o‘quvchilarning tushunish doirasining kengayishiga yordam beradi.

She‘r mazmuni bo‘yicha voqealarni yoritib beruvchi topshiriqlar ham berib boriladi. Misol uchun: ziyofatda kimlar mezbonlik qildi va ularning tayyorgarlik jarayonlari qaysi misralarda ifodalanganligini ko‘rsating. Javobini quyidagi misralar orqali yoritib berishimiz mumkin.

*Pishar turli taomlar*

*Qozonda “jaz-jaz”.*

*Bo‘rivoy – o‘t qalovchi,*

*Quyvon – bosh oshpaz.*

3-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi 1-qismida she‘r topshirig‘i sifatida jadval to‘ldirish berilgan. Bunda o‘quvchilar she‘r matnidagi hayvonlarning qayerdan kelganligi va nima bilan oziqlanganligini aks ettirishlari kerak bo‘ladi. Misol uchun: hayvon – kuchuk, qayerdan – qishloqdan, oziqlanishi – suyak.

O‘quv qo‘llanma sifatida joriy etilgan darslik bo‘yicha ishlash davom ettirilsa, klaster metodidan to‘laqonli foydalanilgan. Bu o‘quvchilarni ma‘nodoshlik va mos keladigan tushunchalar ustida ishlashga undaydi. Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilar bir-biriga mos so‘zlarni aniqlashda she‘rni yana qayta o‘qishga majbur bo‘ladi va bu esa o‘z navbatida she‘rni tushunib yodlashga asos bo‘ladi. *Tipratikan (kirpi), chang, g‘ubor, (g‘ubor)* kabi misollar keltirishimiz mumkin. O‘quvchilarning so‘z boyligi, tushunish doirasi va yana bir qator ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularning grammatika oid bilimlarini o‘stirish ham maqsadga muvofiq. 2022-yil nashr qilingan 3-sinf darsligi bo‘yicha grammatikani shakllantirishga doir berilgan topshiriqda so‘z turkumlariga urg‘u berilgan, asosan sifat so‘z turkumiga.

Topshiriq: She‘r matnidan qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni aniqlab yozing. Namuna: *qanday? – hashamdor.* 2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi “Piyodalar qo‘shig‘i”<sup>23</sup> she‘rida harakat va holatni ifodalovchi so‘zarni topish so‘ralgan va shu orqali fe‘l so‘z turkumiga urg‘u berilgan. O‘quvchilarda harakat va holatni ifodalovchi fe‘llar, ularni farqlash va qo‘llash o‘rinlar o‘rgatib boriladi. Bu she‘r orqali nasriy yo‘nalishdan farqli o‘laroq yo‘l qoidalari, avtomobil yo‘llaridan foydalanish kabi bilimlar berib boriladi. Darslikda berilganshe‘r va she‘riy asarlarning ajralib turadigan jihatlaridan biri shuki, o‘quvchi o‘z tasavvurida shakllangan she‘riy tasvirni chizma, ya‘ni rasm orqali ham ifodalay oladi.

Boshlang‘ich sinf darsligida berilgan asarlar barchasi o‘quvchilarni komillik sari yo‘naltiradi va yetuk kadr bo‘lib yetishib chiqishiga asoslanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi”. 1-sinflar uchun darslik. Toshkent. Respublika ta‘lim markazi. 2021.
2. Bakiyeva H. Boshlang‘ich sinflarda so‘z ustida ishlash metodikasi. – Toshkent, 2019.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X. va b. O‘qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. – T.: Yangiyo‘l poligraf servis. 2020.
4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2014.
5. Rasulov R. (2020). Kelajak – til sohiblariniki. Til va adabiyot ta‘limi.
6. Sobitova T. (2020). Orzigul dostonidagi ma‘naviy va lafziy san‘atlar. Ilmiy axborotnoma SamDU.
7. Sobitova T. (2020). Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni.
8. “Umumiy o‘rta ta‘limning ona tili bo‘yicha milliy o‘quv dasturi”. Toshkent-2020.

<sup>23</sup> 2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism, 96-bet.

# HOZIRGI O'ZBEK TILIDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV BO'YOQDORLIKNING IFODALANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Dilorom Shodmonqulova

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
dotsenti*

Zebo To'liqinova

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi o'zbek tilida emotsional-ekspressiv bo'yoqlarning qaysi uslubda va qanday qo'llanilishi, so'zlarning kishida emotsiya darajasini hosil qilish jarayoni, bo'yoqdorlikning ilmiy, badiiy ahamiyati va nutqda to'g'ri qo'llanishi to'g'risida yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** leksika, denotativ ma'no, uslubiy bo'yoq, ifoda semalari, konnotativ sema, hissiy so'zlar, salbiy munosabat, ijobiy munosabat, kinoya, kesatiq, ko'chma ma'no, leksik usul, kontekstual usul, affiksatsiya usuli, fonetik usul.

**Abstract:** In this article, explained about in what style and how emotional-expressive colors are used in modern Uzbek language, the process of creating emotional level of words in a person, the scientific and artistic significance of color and its correct use in speech.

**Key words:** lexicon, denotative meaning, stylistic color, expression schemes, connotative scheme, emotional words, negative attitude, positive attitude, irony, idiom, figurative meaning, lexical method, contextual method, affixation method, phonetic method.

His-tuyg'u bu o'ziga xos tushunchadir. Tuyg'ular o'sha xalqning tuyg'u va obyektiv narsalarga qiziqishlariga mos keladi. Bu emotsiya (hissiyot)lar mavhum bo'lsa-da, rang-barangdir. Masalan, quvonch, g'azab, qayg'u va baxt kabi hissiyotlar. Ushbu insoniy hissiy tajribalar turli xil tizimlarga ega bo'lgan har xil tillarning lug'atlarida mavjud, ya'ni turli xil hissiy tushunchalarni ifodalash uchun tillarda ma'lum bir so'zlar qo'llaniladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilimiz hamda milliy tilimizda ifodaviylik, ta'sirchanlikni ifodalovchi so'zlarimiz mavjud, ba'zida esa so'zlarni ko'chma ma'nolarda ishlatish orqali munosabatimizni bildiramiz. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tunganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'no emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik kasb etadi.

Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'rxshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Ko'chimlarning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi bir necha turlari farqlanadi.

Emotsionallikni yana bir ko'rinishi bu kinoyadir. Nutqning ta'sirchanligini oshirishda kinoya ham alohida o'rin tutadi. Bunda so'z yoki ibora o'z ma'nosiga tamomila qarama-qarshi bo'lgan ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Kinoya so'zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatiqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv-kulgi aralash munosabatini ifodalash vositalaridan bo'lganligi uchun ham so'z yoki iboraning to'g'ri ma'nosiga zid, ya'ni inkor, emotsional-ekspressiv bo'yoqli ma'no voqelanadi. Bunday kinoyaviy ma'noning voqelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham alohida rol o'ynaydi. Masalan, *Bugun jug'rofiya o'qituvchisi darsga kelmadi. Xomtok qilaman deb so'ridan yiqilib, oyog'ini sindiribdi. Ajoyib "xushxabar" dan keyin bir zumda sinf bo'shadi-qoldi* (Said Ahmad) parchasida *xushxabar* so'zi "shumxabar" tarzidagi kinoyaviy ma'noda qo'llangan. Kinoyada so'z yoki iboraning tildagi ma'nosi bilan nutqda reallashgan ko'chma ma'nosi o'rtasidagi zidlik kuchli ta'kid oladi va shunga ko'ra birdaniga diqqatni jalb etadi.

Baholash og'zaki nutqning ajralmas qismidir, chunki u so'zlovchining subyektiv fikrini (ma'qullash yoki rad etish) aks ettiradi. Hissiylik baholash bilan o'zaro ta'sir qiladi. Baholash neytral-mantiqiy ifodalangan taqdirda hissiyotdan voz kechishi mumkin (masalan, yaxshi, chiroyli, yomon, yomon va boshqalar). Boshqa tomondan, hissiyot o'z ichiga oladi va baholash. Shunday qilib, hissiyot va baholash tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

**O'zbek tili leksikasida so'zlar emotsional-ekspressiv jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:**

1. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf (hissiy bo'yoqsiz) so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida faqat denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) mavjud bo'ladi: yuz, oriq, ozg'in, jilmaymoq kabi. Hissiy bo'yoqsiz so'zlar ma'lum narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani ifoda qiladi, leksik ma'noga ega bo'ladi, lekin ular so'zlovchining turlicha munosabatini bildiruvchi qo'shimcha ottenkaga ega bo'lmaydi. Yer, non, tog', joy, kitob, katta, ko'k, bormoq, etmoq, ko'karmoq, ishlamoq singarilar hissiy bo'yoqsiz so'zlardir.

2. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor (hissiy bo'yoqdor) so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) bilan birga uslubiy bo'yoqlar (ifoda semalari, konnotativ semalar) ham mavjud bo'ladi: turq (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq), dirdov (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq), qiltiriq, ipiltiriq (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq), irshaymoq (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq) kabi hissiy bo'yoqdor so'zlar, leksik ma'no bilan birga so'zlovchining ma'nosi so'zanglashilayotgan narsa, belgi, harakatga hahosini, turlicha munosabatini ham ifodalaydi. Chehra, tabassum, miriqmoq, do'mboq, momoqaymoq, badbashara, pismiqlik, kalla, bashara so'zlari hissiy bo'yoqdor so'zlar sanaladi.

**Hissiy bo'yoqdor so'zar voqea-hodisalarga so'zlovchining obyektiv munosabatini ifodalash nuqtayi nazaridan ikki guruhga ajratiladi:**

1) ijobiy hissiy bo'yoqdor so'zlar; 2) salbiy hissiy bo'yoqdor so'zlar.

Ijobiy hissiy bo'yoqdor so'zlar suyish, erkalash, hurmatlash singari ma'nolarni ifodalaydi. Bularga lo'bar, tanti, suluv, go'zal, alomat, do'ndirmoq, onajon, kenjatoy, dilbar, tamtam, toyloq so'zarini kiritish mumkin. U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi (M.Ismoil). Ona bolasini bag'riga bosdi. Terlab tuproqqa qorishgan yuzlaridan o'par, yig'lar edi. Oh, bolaginam, bolaginam! (Said Ahmad) **Izoh:** yaxshi, yomon, g'azab va nafrat kabi so'zlarda uslubiy bo'yoq bordek tuyuladi, aslida esa ularda uslubiy bo'yoq yo'q, bu so'zlar belgi yoki voqelikni atash (nomlash) bilan cheklanadi, shunga ko'ra emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor so'zlar sanalmaydi.

**Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi quyidagi usullarga tayanadi:**

1. **Leksik usul.** Bunda uslubiy bo'yog'i bor bo'lgan so'z nutqqa kiritiladi (yuqoridagi misollar).

2. **Kontekstual usul.** Bunda uslubiy bo'yog'i yo'q bo'lgan so'z ma'lum kontekst yoki nutqiy muhit ta'sirida uslubiy bo'yoqdor so'zga aylantiriladi. (bu haqida "ifoda semalari" da batafsil ko'rishimiz mumkin).

3. **Affiksatsiya usuli.** Bunda betaraf ma'noli so'zlarga subyektiv baho ifodalovchi affiksalar morfemalar qo'shiladi. (Bu haqida «ifoda semalari» da batafsil ko'rishimiz mumkin).

4. **Fonetik usul.** Bunda so'z tarkibidagi undoshlardan biri qavatlantiriladi (geminatsiya), unlilar cho'ziladi, urg'uning o'rni o'zgartiriladi, shular hisobiga ekspressivlik ta'minlanadi. Misollar: *Ishqilib, Zamira bechora uyatga chidayolmay ketib qolgan. Yashshamaqurlar...* (Pirimqul Qodirov). *Akam bechora go'shangada ko'rib, hayro-o-o-on bo'lib qolganlar.* (Mirmuhsin). Emotsional-ekspressiv so'zlarni nutqda uslubiy xoslangan so'zlardan farq qiladi, lekin bu tushunchalar bir-biriga bog'liq.

So'zlashuv uslubiga xoslangan so'zar oddiy, erkin muomalada qo'llaniladigan so'zlardan tashkil topadi. Bunday so'zlar u yoki bu darajada adabiy til me'yorlariga to'la mos kelmaydigan fonetik, grammatik xususiyatlarga ega bo'ladi. Ketvorgan, po'rim, papalamoq, to'zim, lekigin, o'ng'ay, jichcha, boyaqish, mullajiring, o'lguday, ketvorgan, palakat, bevosh, bundaga, axiyri, dalli-g'uli, valakisalang, jillaqursa, o'lmang, yashang, o'lib-tirilib so'zlari

so'zlashuv uslubiga xoslangan so'zlar hisoblanadi. Misollar: O'lmang, Juda tadbirli odan siz-da! (Yashin). Biz tomonlarga kelganingiz esa zap yaxshi ish bo'ldi-da! (so'zlashuvdan). Tomorqadagi bir qator shaftolilarni silkib qoqadi-da, daraxtlar ostida cho'qqayib o'tirib, o'lguday eydi (Oybek). So'zlashuv uslubiga xoslangan so'zlarning ancha qismi hissiy bo'yoqqa ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

N. Mahmudov va Y. Odilovning "O'zbek tili enantioseмик so'zlarining izohli lug'ati" da tavsiflangan so'zlarda namoyon bo'lgan zid ma'nolarini ko'rib chiqishimiz mumkin. O'z ma'nosiga zid holda ishlatilgan nutqiy ko'chma ma'no asosida voqelangan kinoyani qay holatda qo'llashni o'rganamiz.

DONO 1 Aqlli, har narsani biladigan: Donolar dunyoni demish ko'pkari, Boqing, O'zbekiston dadil ot soldi! (A. Oripov) 2 Aqlsiz, ko'p narsani bilmaydigan: Ammo oyog'ining ostidan narini ko'rmaydigan, vaholanki, hayotdan faqat nuqson izlaydigan ayrim "dono" vaysaqilar, afsuski, bor. (O.Usmonov)

KAMTARIN 1 Juda kamtar, xokisor. Kamtarin bo'l, hatto bir qadam

O'tma g'urur ostonasidan. Piyolani inson shuning-chun O'par doim pe-shonasidan. (E. Vohidov) 2. Juda maqtanchoq. Agar Kesakpolvonni nazarda tutib, shunday desangiz, adashasiz. Chunki u "kamtarin" banda qudrat bobida o'zidan oldin faqat Asadbekni ko'radi. (Tohir Malik)

XUSHBO'YLIK 1 Bir kun burun shovullab yog'gan yomg'ir va tong tarovati bois olam bag'oyat chiroyli hamda tiniq, havo esa musaffo va xushbo'y edi. Bu xushbo'ylikni rasadxona ortidagi tog'dan yelayotgan mayin shaboda olib kelardi. (Nabi Jaloliddin) 2 Qo'lansa hidlilik, badbo'ylik. Bulardan bir qadoq sovun olmoq uchun yo dimog'ni ro'mol bilan bog'lash kerak, yoki burunni yeng ichiga olib turish kerak. Dunyodagi hidlar ichida sovun bozorining hididay "xushbo'ylik" jahonda bo'lmasa kerak. (G'afur G'ulom)

SHAROFAT 1 Xosiyat, yaxshilik: Xolisani aytganda, shularning sharofati bilan qishda loyi, yozda tuprog'i ko'pchib yotadigan qo'rg'on ko'chasi bir tekis qilib asfaltlandi, gaz quvuri keldi, kechalari chiroq o'chib qolmaydigan bo'ldi. (Erkin A'zam) 2 Kasofat, yomonlik. Sharif Vallomatning "sharofat"i bilan ishdan ketib, tish kavagiga bekitganini ham yeb-yitirib, hattoki bir-ikkita gilamlarini ham sotib, shipshiydam uyda xotini-yu uchta bolasi bilan g'arib bo'lib o'tirganini bilardi. (Murod Muhammad Do'st)

HUSNIXAT 1 Chiroyli yozuv. U kishi Ufa shahrida ta'lim olgan muallimani yollab onamni o'qitgan ekanlar. Men oyimning pinjiga suqilib o'tirib, husnixat mashq qilardim. (Said Ahmad) 2 Xunuk yozuv, badxat. Professor Mannopov vrachlarga xos "husnixat" bilan bloknotiga lotin alifbosida yozib qo'ydi. (Said Ahmad)

Har bir tilning o'z adabiy me'yorlari bo'ladi va o'z tilini hurmat qilgan inson so'z birliklaridan qoidalarga amal qilgan holda foydalanadi. Shu orqali u o'z tilining ta'sirchan va ifodaliligini a'lo darajada yoritib beradi. O'z nutqimiz bilan boshqalarni jalb qilish, ularni tilimizga e'tiborli bo'lishi uchun so'zlarimizga subyektiv ma'nolarni to'g'ri yuklashni bilishimiz zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. Jamolxonov, Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, Talqin, 2005.
2. Shayxislamov N. Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishning asosiy yo'nalishlari //Science and Education.-2020.-T. 1.-N. 4.
3. Равшанова Г. Р. КРЕАТИВЛИК-ШАХСНИНГ ЯХЛИТ ТАРЗДА РИВОЖЛАНИШИ ОМИЛИ //Science and Education. 2020. Т. 1. №.3.
4. Халилова М. А. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МЕСТОИМЕНИЯ В ШКОЛЕ //Science and Education. 2020. Т. 1. № 6. 4. Гофурова Ю. К. ПРОИСХОЖДЕНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА. РУССКИЙ ЯЗЫК XVIII-XIX ВЕКОВ //Science and Education 2020. Т. 1. №. 5
5. N. Mahmudov Y. Odilov, O'zbek tili enantioseмик so'zlarining izohli lug'ati, 2019.

# BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INTERFAOL DARSLAR OLIB BORISH MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Ayjamal Baxitjanovna Chinaliyeva

*Nizomiy nomidagi TDPU doktoranti*

*ANNOTATSIYA: Mazkur maqolaning asosiy mazmunini boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha o'rganilgan nazariy va ilmiy-amaliy ma'lumotlar asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'limdan foydalanish hamda foydalanishdan ko'zlanadigan maqsadlar haqidagi fikr-mulohazalar boyitadi.*

*АННОТАЦИЯ: Основное содержание данной статьи обогато мнениями о применении лично-ориентированного образования и целях его использования на основе теоретических и научно-практических данных по повышению профессиональной компетентности учителей начальных классов.*

Maktablarimiz darsliklarning yangi avlodi, modernizatsiya qilingan dasturlar, tajribasinovlardan o'tgan, takomillashtirilgan standartlar bilan ta'minlandi. Maktablarning moddiy bazasi mustahkamlanmoqda. Yangi maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, joriy va kapital ta'mirlash, zamonaviy asbob-uskunalar, texnika vositalari bilan ta'minlash, kompyuterlashtirish, o'quvchilar va o'qituvchilarni ijtimoiy himoya qilish, moddiy va ma'naviyrag'batlantirish ishlari dasturlar, rejalar asosida olib borilmoqda.

Maktablarning moddiy bazasi qancha rivojlanmasin, darslik, dastur, standartlar takomillashtirilmasin, o'quvchiga puxta va chuqur bilim berish, uni erkin va ijodiy fikrlashga o'rgatish bugungi o'qituvchining kasbiy mahorati, bilimdonligi, zamonaviy darslarni, ilg'or texnologiyalarni qay darajada o'zlashtirganligi, interfaol darslarni tashkil eta olish ko'nikma, malakalariga bog'lanib qolaveradi.

Umuman bugungi pedagogik oliy ta'lim bitiruvchisi yangicha sharoitda, yangicha usullarni qo'llab darsni tashkil eta oladimi?

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlovchi omillardan bo'lgan innovatsion texnologiya, yangi pedagogik texnologiya, jumladan interfaol ta'limni o'quv jarayoniga joriy etish shu kunning zaruriyatiga aylanmoqda.

Bu esa o'z navbatida, ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, liberilizatsiya qilish (erkinlashtirish), demokratlashtirish, bolaga do'stona munosabatda bo'lish, hamkorlik va hamijodkorlikda tashkil etishni taqozo etmoqda.

Qisqa qilib aytganda, o'quv jarayoni markazida o'quvchi bo'lmog'i lozim. O'quv jarayoni o'quvchiga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi talab etilmoqda.

Shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchining o'quv-biluv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, qiziqish, xohish, talab-istaklarni ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni ta'lim jarayoniga individual yondashuv deganda nimani tushunish kerak?

O'quvchi shaxsiga qaratilgan ta'lim:

Ta'lim jarayonida:

- O'quvchi faolligini oshirish;
- O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- O'quvchining ijodiy fikrlashini tashkil etish;
- O'quvchining mustaqilligi, erkinligini ta'minlash;
- O'quvchilarning qiziqishlari asosida ish yuritish (motivatsiya);
- O'quvchining imkoniyatlarini ishga solish;
- O'z qiziqishlari orqali qo'shimcha ta'lim olishga yo'llash (sinf dan) maktabdan tashqari ta'lim olishga yo'llash;

O'z-o'zini rivojlantirish, tarbiyalantirish.

Yuqoridagi keltirilgan individual xususiyatlarini rivojlantirish asosida o'quvchida mustaqil bilim olish ko'nikma va malakasini hosil qilishdan iboratdir.



Bizga ma'lumki, pedagogika universitetlarining bitiruvchilari boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv predmetlarini deyarli to'la o'zlashtiradi, ammo zamonaviy usulda darslarni rejalashtirish, tayyorlash va o'tkazishda qiyinchiliklarga duch keladi. Qanday qilib ular talabalik yillaridayoq zamonaviy dars usullarini o'zlashtirib olishlari mumkin? degan savolga duch kelamiz.

Sir emas o'quv jarayonini isloh etish darsni isloh qilishdan boshlanadi. Darsni isloh etishni nimadan boshlash kerak?

- darsga mas'uliyatli munosabatda bo'lish;
- darsga yangicha yondashuvni yo'lga qo'yish;
- darsda o'quvchiga individual yondashuv;
- darsni o'quvchining faolligi, hamkor va hamijodkorligi asosida tashkil etish;
- interfaol, innavatsion, ilg'or texnologiyalarni qo'llashdan boshlash kerak.


Bizning kuzatuvlarimiz, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lg'usi o'qituvchilarni interfaol darslarni olib borishga tayyorlashni quyidagi 3 yo'nalishda olib borganda ijobiy natijalar berishi mumkin.

I yo'nalish. Talabalarni 1-kursdan boshlab, institutni bitirgunga qadar psixologiya, pedagogika, metodika, informatika, pedagogik amaliyot jarayonida ta'lim modeli, interfaol ta'limni mazmun- mohiyatini va uni amaliyotga kiritish mexanizmi o'rganish – o'rgatish.

II yo'nalish. Har bir guruhlarda 5-6 talabadan iborat interfaol ta'limni o'rganib, o'zlashtirib boruvchi kichik ijodiy guruhlar shakllantirish. Ularni interfaol ta'lim metodlarining har bir usulini o'rgangandan keyin seminar-treninglar, davra suhbatlari, munozaralarini maxsus jadval asosida o'tkazib borish. Talabalarni doimiy harakatdagi bir-biriga o'rgatish, o'qitish tizimini yo'lga qo'yish.

III yo'nalish. Talabalarni shaxsiy dasturlari asosida ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borishni yo'lga qo'yish. O'quv yili davomida ilmiy – metodik adabiyotlar va kundalik davriy matbuot materiallari, ilg'or pedagogik tajribalar, internet materiallarini izlash, to'plash, ularning bankini yaratish va ulardan foydalanish.

An'anaviy ta'lim va interfaol ta'limning mazmuni, mohiyati va farqlari. Mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.



**Passiv usul (an'anaviy).** O'quvchi o'qituvchining so'zidan, aytib berishi, hikoya, bayon etishidan o'quv materiallarini o'zlashtiradi. Uy vazifalarini qo'llanma, darsliklardan o'qib o'rganadi. Bunday jarayonda o'quvchi va o'qituvchi orasida qayta aloqalar tizimi o'rnatilmagan. O'quvchi o'z qobiliyati darajasida, qiziqishi, istagi, xohish darajasida o'zlashtiradi. Unda ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirish kafolatlanmaydi.

Kamchiliklar: qayta aloqalar yo'lga qo'yilmaydi, ta'lim mazmuni ijrosi asosan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi, o'quvchilar passiv eshituvchi va mustaqillik yo'q, dars bir

qolipda o'tadi, barcha masalalar o'qituvchiga bog'liq. Avtoritar pedagogikaga asoslangan.

**Faol usul.** An'anaviy usuldan keng foydalaniladi. O'qituvchi ta'lim mazmunini bayon etish bilan bor kuchini, mahoratini ishga soladi. Ko'rgazmali qurollar, didaktik tarqatma maetrialar yordamida ta'sirchanlik bilan tushuntirishga harakat qiladi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan mavzu yuzasidan fikr almashadi, ularni faollashtiradi. Ijodiy ishlar berish orqali mashqlar yechdirishga harakat etadi. Uy ishlari, mustaqil mashqlar yechishga undaydi. O'quvchilar faolligida ta'lim mazmunini o'zlashtirishda bir muncha yuqori ko'rsatkichga eradi. Bunday ta'lim usulida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotga kiradi, ayrim muammolarni yechishga o'quvchilarni jalb etadi. Shuning uchun ham bu usul hamkorlik, hamjihatlikda kechadi. Bu esa o'z navbatida o'quv-biluv jarayonida o'quvchini faolligi birmuncha oshadi. Hamkorlik pedagogikasiga suyanadi.

**Interfaol usul.** Dars jarayonini tashkil etishda o'quvchilarga ijodiy fikr yuritish uchun qulay muhit yaratiladi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning o'zaro fikr almashishlariga imkon beradi. O'zaro axborot olish va berish uchun sharoit tug'diriladi. Yechimi kutilayotgan masalalarni hamkorlik va hamjihatlikda muhokama etadi, yechim topadi, vaziyatdan chiqishda ham hamijodkorlikda bo'ladi. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadi. Bir-birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladi. Bir-birlarini tushunish ularda qiziqish paydo qilib, vaqt o'tganini bilmay qoladi. Har bir ishtirokchi ta'lim mazmunini mualliflaridek his qiladi. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga va sifat-samaradorlikka eradi. Shuning uchun ham bu usul hamijodkorlik pedagogikasi deb yuritiladi.

Interfaol usul nima va u nimani anglatadi? Interfaol usullar o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiradi. Interaktiv ingliz so'zidan olingan bo'lib, "Interakt", ya'ni Inter – bu "o'zaro", akt – harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini beradi.

Interfaollik asosida tashkil etilgan darslar o'quvchini erkin fikr yuritishga va axborotlarni faollikda hal etishga o'rgatadi. Guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, o'z fikrlarini yozma bayon etish ko'nikma, malakalarini shakllantiradi. Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy metodlardan voz kechish degani emas, balki dars mazmunini o'zaro faollikda, hamkor va hamijodkorlikda hal etishni tashkil eta olishdir.

Interfaol ta'limni quyidagi metodlari mavjud:

- Muammoli ta'lim;
- Loyihali ta'lim;
- O'yin orqali kechuvchi ta'lim;
- Kreativ ta'lim;
- Evristik ta'lim;
- AKT ta'limlaridir.

Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi.

Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аноркулова Г.М., Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. Методологические основы системного подхода при подготовке учителей профессионального обучения. Молодой уче би 93:13, С. 588-590. (2015).

2. Дилова Н. Ф. Уқувчи шахсини ривожлантиришда ҳамкорлик педагогикасининг урни. Замонавий таълим. 1-сон. (2017).

3. Indiaminov N. va b. Ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ta'lim texnologiyalari. 2014(8).

4. Nisanbayeva, A. (2023). THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE METHODS AND APPROACHES IN TEACHING NATIVE LANGUAGE. Science and innovation, 2(B2), 177-178.

# SHAXSNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISH – BARKAMOL TARBIYA G'OYASINING ASOSI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**A. K. Nisanbayeva**

*Nizomiy nomidagi TDPU professori*

**G. A. Abduxashimova**

*Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolaning asosiy mazmunini boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha o'rganilgan nazariy va ilmiy-amaliy ma'lumotlar asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'limdan foydalanish hamda foydalanishdan ko'zlanadigan maqsadlar haqidagi fikr-mulohazalar boyitadi.

**Аннотация:** Основное содержание данной статьи обогатоено мнениями учителей начальных классов о применении личносно-ориентированного образования и целях его использования на основе усвоенных теоретических и научно-практических сведений о всестороннем развитии личности.

Barkamol tarbiya g'oyasi jamiyat hayotida ro'y bergan ma'naviy o'zgarishlarning asosidir. Barkamol tarbiya g'oyasi shaxsning har tomonlama shakllantirish, xalqning ma'naviy kamoloti darajasi bilan bog'liq. Yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgan xalqgina milliy o'zlikni to'la va to'g'ri anglash imkoniga ega bo'ladi. Milliy o'zlikni, manfaatlarni, taraqqiyoti istiqbolini chuqur, xolisona, odilona anglagan xalqgina keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'la olishini tarix saboqlari har doim isbotlab kelgan. Albatta ushbu narsalarda shaxsni har tomonlama rivojlantirish asosida ma'naviy tiklanish, poklanish va yuksalishning mustaqil O'zbekiston sharoitida muhim naziriy muammolarini o'rganish ham katta ahamiyati ega. Shaxsni har tomonlama shakllantirishni hisobga olib yondashish barkamol tarbiya g'oyasini amalga oshirish yangi yo'llarini izlashdir.

Shaxsni kamol toptirish ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilashning hozirgi kunda katta e'tibor berish uchun zarur bo'lgan ko'plab nazariy muammolardan bo'lib, shulardan biri-barkamol tarbiya g'oyasining ildizlarini o'rganishdir. Barkamol tarbiya g'oyasining insonning tug'ma xusasiyati emas. Barkamollik faqat insonga xos fazilat bo'lib u jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanadi. Odam farzandi barkamollik bilan tutash bo'lganidagina inson degan buyuk va sharaflil nomga munosib bo'ladi. Shu sababli ham barkamol tarbiya inson kamolotining asosiy belgisi hisoblanadi. Barkamol avlod mohiyati ustida alohida to'xtab, u «insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi» degan chuqur falsafiy fikrlarni aytgan.

Demak, barkamollik insonga xos bo'lgan irsiy imkoniyatlar, qobiliyat kurtaklarining hayot tajribasi, ajdodlar merosi va namunasi, bilim, axloq, odob asosida shakllanib, shaxsning hayoti va faoliyatiga maqsad va yo'nalish beruvchi ruhiy asosdir. Har qanday rivojlangan hayvonning bolasini qanchalik tarbiyalashga urinmaylik, unda ong paydo bo'lmaydi, ma'naviy rivoj topmaydi. Demak barkamollik faqat insonga xos bo'lgan fazilatdir.

Barkamollik insonga xos bo'lgan ichki ruhiy holatgina emas, balki jamiyat, davlat, millat, shaxs rivojlanish va kamolotining asosiy omilidir.

Barkamol tarbiya g'oyasi insonning muayyan maqsad, kelajakka ishonch, kuch va qudrat baxsh etadi. Inson aqli va qo'li bilan nimaniki yaratmasin, ular g'oya va tushuncha, bilim, iste'dod, qobiliyat sifatida shakllanadi. Demak shaxsni shakllantirish millat, davlat, jamiyat ma'naviyatining bir bo'lagi hisoblanib, odamlar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar, jamiyat hayotidagi sharoit va imkoniyatlar asosida amalga oshadi.

Ijtimoiy borliqning ijtimoiy ongga ta'siri katta, albatta. Lekin barkamol tarbiya g'oyasi inson ongidagi soyasigina emas. Balki, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sharoitlar ta'sirida shakllanadi. Jamiyat taraqqiyoti haqidagi har qanday g'oyalar, qarashlar avval insonning shaxsida, tafakkurida shakllanadi. Keyin e'tiqodga aylanib, uning hayotiy faoliyatiga, jamiyat

taraqqiyotiga yo'nalish beradi. Barkamol tarbiya g'oyasi maqsadlar bilan bog'langan inson faoliyatiga tasir etish esa ma'rifiy, tarbiyaviy, mafkuraviy tadbirlar asosida amalga oshadi. Shaxsni har tomonlama shakllantirish-bu barkamol tarbiya g'olarining maqsad va manfaatlarga asoslangan holda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning uzviyligiga erishi, fuqarolarni tushunish, ularning taqdirini o'zaro hurmat qilish va ushbu yo'nalishlarga kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida rivojlantirish muhimdir. Albatta bunda o'qituvchining o'quvchilar bilan hamjihatligi shaxs hayoti va taqdirida muhim o'rin tutadi.

Shaxsni har tomonlama shakllantirish bu jamiyatning axloqiy, huquqiy mezonlarini, yuksak insoniy fazilatlarini kundalik faoliyatida ham, boshqalar bilan munosabatda bo'lish mezonlarini jamiyat maqsadlarini uyushtiradigan, yaxlit jamoaga birlashtirishda ruhiy omillar xisoblanadi.

Shaxsni har tomonlama shakllantirish mazmun jihatdan serqirra va keng ko'lamlidir. Barkamol tarbiya g'oyasining mohiyati, qirralari, rivojlanish imkoniyatlari shunchalik kattaki, uni o'lchab ham, poyoniga yetib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olam... Inson uni inson darajasiga ko'taradigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tom ma'noda qamray olmaydi.

Barkamol tarbiya g'oyasi shaxs ehtiyojlarning mazmuni va darajasi bilan bog'liq.

Shaxsni har tomonlama shakllantiruvchi asosiy kuch - iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy taraqqiyot zaruriyatlari bilan mushtaraklashgan ehtiyojdir. Shaxsda ehtiyot bo'lmasa unda hech qanday taraqqiyot va yuksalish bo'lmaydi. Ehtiyojning o'zi ham ma'naviyatlilik darajasi bilan belgilanadi.

Shaxs rivojlanishining oxirgi nuqtasi bo'la olmaganidek, barkamol tarbiya g'oyasining ham so'ngi chegarasi bo'lmaydi. Barkamol tarbiya g'oyasining har bir bosqichi konkret davrlarning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan belgilanadi. Barkamol tarbiya g'oyasi o'z navbatida shaxsni yangi, yana-da kengroq shakllanishi uchun zamin bo'ladi. Binolarin, barkamol tarbiya g'oyasi yangi cho'qqilariga yetish ehtiyoji, shaxs va jamiyat kamolotning hal qiluvchi omili sifatida inson faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Barkamol tarbiya g'oyasi biror chegaraga borib tugallanmaydi ham. Barkamol tarbiya g'oyasi doimo izlash-inson kamolotini belgilovchi ehtiyoj, hayotini maqsadi va mazmunidir. Agar insonda shu ehtiyoj bo'lmasa, kamolot sari intilish bilan bog'liq bo'lgan zarurat ham bo'lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nisanbayeva, A. (2023). THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE METHODS AND APPROACHES IN TEACHING NATIVE LANGUAGE. *Science and innovation*, 2(B2), 177-178.
2. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
3. Rustamova, Z. (2022). O'ZBEK TILI DIALEKTAL KORPUSINI YARATISHNING LINGIVISTIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B8), 1255-1258.
4. Нисанбаева, А., & Чиналиева, А. (2022). ШАХС ФАОЛИЯТИДА МОТИВАЦИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 781-786.
5. Kaldibaevna, N. A. (2022). The System of Learning Word Composition and Formation in Mother Language Lessons of the Primary Class. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 48-51.
6. Bakiyeva, X. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQI VA TAFAKKURINI O'STIRISH-TIL TA'LIMINING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA. *Prospects of Uzbek applied philology*, 1(1).

# O'ZBEK BOLALAR EPIK POEZIYASI TARAQQIYOTIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Nusratova Hamida

TDPU dotsenti

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada o'zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotida xalq og'zaki ijodining o'rni, bunda folklorizmlardan unumli foydalanish, masal, ertak, rivoyat janrlari stilizatsiyasi tufayli masal ertak, she'riy adabiy ertak, naql ertak singari oraliq shakllari haqida tahliliy misollar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* masal ertak, she'riy adabiy ertak, naql ertak, oraliq shakllar, ballada, she'riy rivoyat, doston, masalnavislik, xalq og'zaki ijodi janrlari.

O'zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotida xalq og'zaki ijodining o'rni benihoya ulkandir. Bunda folklorizmlardan unumli foydalanish, masal, ertak, rivoyat janrlari stilizatsiyasi tufayli masal ertak, she'riy adabiy ertak, naql ertak singari oraliq shakllarning yuzaga kelish holati chuqurlashib bordi. Shu tufayli o'zbek bolalar adabiyotida liro-epik asarlar yaratish tamoyili kuchayib, ularning g'oyaviy-mavzuviy miqyosi kengayib bormoqda. Xalq og'zaki ijodi, mumtoz merosimiz an'analari va jahon, qardosh xalqlari adabiyotlari ijodiy tajribalarini o'zlashtirish zaminida o'zbek bolalar adabiyotida liro-epik tur g'oyaviy-badiiy jihatdan yetila bordi. Buning natijasi o'laroq hozirgi zamon bolalar adabiyotida o'nlab masallar, balladalar, ertaklar va dostonlar maydonga keldi. Q.Muhammadiyning "Dunyoda eng kuchli nima?", "Solijon", Sh.Sa'dullaning "Laqma it", "Ikki donishmand", P.Mo'minning "O'rinbosarlar". "Eh, rosa shirin ekan", "Xolning jiyron velosipedi", "Oltin nay", "Jalil eshitgan ertak", Q.Hikmatning "Toshbaqalar hujumi", "Bobodehqon hangomasi", "Chovkar". "Chirchiq farzandi", R.Bobojonning "Cho'pon o'g'li", M.A'zamning "Aqlli bolalar", "Bedananing buvisi". T.Adashboyevning "Dovonlar", "Harflarning sarguzashti", E.Raimovning "Bir dona yaproq", R.Tolibning "Sehrgar do'stim bor", "Maqtanchoq", S.Barnoyevning "Biz dehqon bolasimiz", "Oltin shahar haqida afsona", "Oltin oshiqlar" kabi poema, ertak – dostonlar va she'riy ertaklari yaratildi.

Folklor janri, shakli, obrazlari va badiiy tasvir vositalari bolalarni katta olam muammolari, go'zalliklari, tashvishlari bilan tanishtirishda, ular dunyoqarashini shakllantirishda yaqindan yordam beradi. Ayniqsa, halq ijodidagi qahramonona ruh, adolatning nohaqlik, yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishi yosh bolalarning ruhi va intilishi, orzu-umidlariga mos keladi. Shuning samarasi o'laroq o'zbek bolalar she'riyatida xalq ertaklari va dostonlari materiallari, syujeti, shakli zaminida liro-epik asarlar vujudga keldi va rivoj topib bordi.

Bu sohada S.Barnoyevning xizmatlari alohida e'tiborga loyiq. Uning o'zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotidagi o'rnini yaratgan asarlari orqali ko'rsatish mumkin. Ular janriga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

1. Masallar.
2. Balladalar.
3. She'riy ertaklar.
4. She'riy rivoyatlar.
5. Dostonlar.

Xalq ijodidan ilhomlanib yaratilgan asarlar bolalar ma'naviy-ijtimoiy onglarini o'stirishda, axloqiy-estetik tushunchalarini chuqurlashtirishda muhim rol o'ynashini yaxshi tushungan S.Barnoyev ijodida bu janrlar o'zining tadrijiy takomilini topganligini quyida ko'rib chiqamiz.

Adabiyotimizda so'nggi yillarda masal janri rivojlandi. Yunon adabiyotida Ezopdan boshlangan bu hodisa jahon xalqlari adabiyotlarida mustahkam o'rin oldi, hatto ayrim adabiyotlarda faqat masalnavislik bilan shug'ullanib shuhrat topgan ijodkorlar (I.A.Krilov,

o'zbek adabiyotida Yamin Qurbon) ko'zga tashlana boshladi. Alisher Navoiy, Gulxaniy, Hamza, Elbek kabi ijodkorlar esa bu janr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Chunki "masal qisqa hajmli, nasr va nazmda yoziladigan, voqelikni allegorik hamda simvolik obrazlar vositasida ifoda etuvchi mustaqil syujetga hamda asardan asarga o'tib yuruvchi tradision obrazlarga ega bo'lgan satirik, yumoristik, pand nasihat kabi g'oyalarni targ'ib qiluvchi asardir"<sup>24</sup>. "O'zbek bolalar poeziyasida masalchilik janri ham g'oyat sust o'smoqda, - deb yozadi S.Mamajonov. - Shoirlar goh yo'l- yo'lakay bitta- ikkita masal yozib qo'yadi. Bolalar Gulxaniyning "Zarbulmasal"ini, Hamza, N.Krilov, S.Mixalkov masallarini nihoyatda sevadi". 30-yillarda o'zbek poeziyasida masalchilik ancha jonlangan edi<sup>25</sup>. Zero, masal voqeabandligi, qiziqarliligi bilan bolalar o'qishiga qulayligidan A.Avloniy, S.Aziziyar ilk darsliklarga masal namunalarini kiritib, undan didaktik maqsadlarda foydalanish namunasini ko'rsatgan edi. Shu bois Hamza va Elbek kabi shoirlar ham bu janrga ko'p e'tibor bergandi. Buning sababi, birinchidan, bolalarning masalning asosi bo'lgan majoziy voqelik va obrazlarga qiziqishlari bo'lsa, ikkinchidan, qissadan hissa chiqarish xususiyatining ustuvorligi, uchinchidan, bunday asarlardan tarbiyaviy vosita quroli sifatida foydalanishning qulayligidir.

S.Barnoyev ham shu maqsaddan kelib chiqib, asosida masal janrida o'z qalamini sinab ko'rdi va aytish mumkinki, hatto ozmi-ko'pmi muvaffaqiyatga erishdi. Shoir bu janrga qo'l urarkan, dastlab o'zbek klassiklari Navoiy, Gulxaniy, Hamza, Elbek va boshqalarning, rus va jahon masalnavislari tajribalarini ijodiy o'zlashtirishga harakat qildi. Masalda, Krilov ta'biri bilan aytganda, "haqiqat yarim ochiq tarzda" beriladi. Undan nima uchun, asosan, masal janrida ijod qilishi sababini so'rashganida: "Bu janr hamma uchun tushunarli: uni dehqonlar ham, bolalar ham o'qiydi.." deb javob bergan ekan. Xuddi ommapobligi tufayli masalga S.Barnoyev ham rag'bat bilan qaradi.

Shoirning masallari rang-barang mavzularda yozilgan. Uning "Yulduzxon va Bahorjon" kitobiga kiritilgan "Tez yordam", "Qushlar ansambli", "Konsert" kabi asarlari masal janrida yozilgan bo'lsa, "Olmaxon" ning janrini esa shoirning o'zi "masalnamo" deb belgilagan.

Masalchilikda qushlar obraziga murojaat qilish an'anasi Elbekning "'Qora qushlar ila Toshbaqalar", "Olaqarg'a bilan Qurbaqa", A.Rahmatning "Qaldirg'och", Sh.Sa'dullaning "Ayyor chumchuq", Q. Muhammadiyning "Chumchuqcha haqida ertak", "Zag'izg'on" kabi masallarida ko'zga tashlanadi. Ustozlar an'anasini davom ettirgan S.Barnoyev ijodida ham bu obraz, aniqrog'i, dangasa chumchuq obrazi yaratilganini ko'rish mumkin.

Shoir masallari taraqqiyotga g'ov bo'layotgan har qanday illatlar bilan bo'lgan eng muhim, zaruriy muammolarni hal qilishda hajvning o'ziga xos vositalaridan biriga aylanaolgan. "Tez yordam" masalida kichkina chumoli to'rt tomonga qo'ng'iroq qilib, tez yordam chaqiradi, o'rmon yonayapti deya barcha hayvonlarni uyg'otishga kiradi. Kichkina masalda turli hayvonlarning obrazlari yaratilgan. Shoir ularning har biriga xos sifatlarini aniq, lo'nda tasvirlash orqali yosh kitobxonni qiziqtirish yo'lidan boradi: "Olashaqshaqning shaqillashi", arslonning o'kirishi, yo'lbarsning bo'kirishi, "dumi daroz tustovuq" kabilar tabiiy tasvirlanadi. Chumolining qo'ng'irog'idan hamma hayvonlar bezovta bo'lib qoladi. Shunda tadbirkor tulki "o'rmonning egasi" filni uyg'otmaslikni maslahat berib qoladi. Karkidon, g'oz, xo'rozlar chumolini fikridan qaytaradi. Shunda "xayolga cho'mgan" chumoli boshqacha yo'l tutadi: qaytadan qo'ng'iroq qilib, hammani to'yga chaqiradi, bu esa o'rmonning egasi filga ham yoqib tushadi. Bu masal Alisher Navoiyning "Sher bilan Durroj" hamda Hamzaning "Toshbaqa bilan chayon" masaliga o'xshab ketsa-da, unda xatosini tushungan va darhol uni tuzatganchumolining harakati oqlanadi. Shoir unda katta g'oyani ifodalamoqchi bo'ladi: yaxshi ishqilsang, hammaning hurmatini qozonasan, yaxshi xabar bilan chumoli hammaning ko'ziga

<sup>24</sup> Xolmatov Sh. O'rta Osiyo xalqlari adabiyotlarida masal janri. Samarqand. 1989. - 11-b.

<sup>25</sup> Mamajonov S. Bolalar poeziyasi / Ishonch va burch. Toshkent. 1982. - 61-b.



yaxshi ko'rinadi va tezda tilga tushadi. Ko'rinadiki, xalqning o'z hayotiga oid haqiqatni kulgi, kinoya, masxara yo'sinida ifodalash tarzida yuzaga kelgan masal – majozilik orqali shoir ilgari surgan masalani yaqqol ifodalaydi. G'oyani yorqin ifodalash uchun shoir chiroyli o'xshatishlar, sifatlashlardan foydalanishga harakat qilgan, shunday bo'lsa-da, g'oyaning aniq emasligi, bolaning tasavvuriga sig'masligi masal mazmuniga biroz soya tashlab turibdi. Masal sodda tilda yozilgan, bola uni qiziqish bilan o'qiydi, faqat qissadan hissa chiqarishda biroz qiynaladi.

S.Barnoyevning "Konsert", "Qushlar suhbat", "Tez yordam " kabi kichik masallarida folklorning ta'siri kuchli bo'lganligidan ular xalq og'zaki ijodidagi kabi tabiiy soddaligi, ohang ravonligi bilan ajralib turadi, ularda bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlari hisobga olingan. Shunga ko'ra bu masallar bolalarda estetik zavq uyg'otishga va ularga yangi axloq me'yorlarini o'rgatishga xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslar keyingi vaqtlarda o'zbek epik she'riyatimizda qisqa masallarning tez-tez uchrab turishi mazkur janrning taraqqiy etayotganligidan dalolat berishini ta'kidlaydi<sup>26</sup>. Bu fikrni bolalar uchun yaratilayotgan masallar misolida ham aytish mumkin. Jumladan, S.Barnoyevning "Qushlar suhbat", "Mushukvoyning deganlari", "Mushuk-sichqon o'yini", "Qo'rqmas - qo'rqoq" kabi kichik masallarida maqtanchoqlik, qo'rqoqlik kabi salbiy xususiyatlar qoralansa, "Chumolilar" masalida mehnatsevarlikni ulug'laydi.

Xullas, shoir mumtoz masalchilikdagi an'analardan ijodiy foydalanib, o'zbek bolalar epik poeziyasida masal janrini rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi. Eng muhimi, ilg'or an'analarni davom ettirish bilan birgalikda masallarida hozirgi zamon bolalari hayotidagi muammolarni aks ettirib, bolalar masalchiligi mazmun mundarijasi va obrazlari olamini boyitdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Doniyorov X., Mirzayev S. So'z san'ati. Toshkent. 1962 . B. 149.
2. Mamajonov S. Bolalar poeziyasi / Ishonch va burch. Toshkent. 1982. - B. 61.
3. Masharipova, U. (2019). FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS PRIMARY SCHOOL. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6).
4. Rustamova, Z. (2022). LINGUISTIC BASIS OF CREATION OF DIALECTAL CORPUS OF UZBEK LANGUAGE. Science and Innovation, 1(8), 1255-1258.
5. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 740-745.
6. Nusratova, H. (2021, October). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.80. 81.021 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrasida dotsenti, PhD. In Научно-практическая конференция (pp. 51-52).
7. Nusratova H. Egamqulova I. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH 21 ASR TALABI DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7424038>
8. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6).
9. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(10), 55- 58.
10. Obidjon o'g'li, Y. O., & Xolmirzayevna, R. Z. (2023, April). KORPUS-TABIIY TILLARNING MILLIY XUSUSIYATINI SAQLAB QOLISHDA MUHIM INSTRUMENT. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 61-64).

<sup>26</sup> Doniyorov X., Mirzayev S. So'z san'ati. Toshkent. 1962 . 149-b.

## O'QUVCHILARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA SHARQ ALLOMALARINING ILMIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Davronova Nigina

KIUT 1-kurs magistranti

*Amnontatsiya: Pedagogika fani g'arbda paydo bo'lgan va bizning yurtlarga sovet hukumronligi davrida kirib keldi. Ushbu maqolamizda pedagogika fanining tarixi bilan tanishamiz. Uning rivojlanishi va kengayishiga oid ma'lumotlarga ega bo'lamiz.*

*Kalit so'zlar: Pedagogika, Suqrot, Arastu, Aflotun, Yunoniston, Rim, Sparta.*

Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnini yangi ijtimoiy formatsiya quldorlik tuzumi egalladi. Qadimiy Sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo boldi hamda moddiy va ma'naviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim xalqlari bu madaniyatni rivojlantirishda katta hissasini qo'shdi. Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlichayondashdi va rivojlantirdi. Masalan, Xitoyda qog'oz ixtiro qilindi, Hindistonda hisoblashning o'nlik tizimi kashf etildi, Mesopotamiyada esa Yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va daqiqalarga bo'lish o'ylab topildi. Eramiz boshlanishidan oldin O'rta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li qurildi. So'ngra O'rta Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengizga tomon Buyuk ipak yo'li ochildi. Natijada O'rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markaziga aylandi. Bu esa o'z navbatida O'rta Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ta'sir etdi, yozuvning tarqalishiga yordam berdi. Ayniqsa, qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi. Yunoniston uncha katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan tashkil topgan. Uning mo'tabar shaharlari Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina)dir. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo'ldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmron edi. Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edi. Lakoniya (Sparta)da kemalar to'xtaydigan qulay gavanlar bo'lmaganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. 9 ming oiladan iborat bo'lgan quldorlar 250 mingdan ko'proq aholiga hukmronlik qilardi. Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, uning asosiy maqsadi spartaliklaming bolalarini baquvvat, jismoniy sog'lom, bardoshli, chiniquqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi. Spartaliklaming bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «agella» deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga yetguncha tarbiyalanar edi. Ular «pedonom» rahbarligida jismoniy sog'lom bo'lish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og'riqqa bardosh berishga o'rgatilar edi. Ta'limning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi. Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablaridagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi: «O'qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi». Spartada ta'lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da, ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday qulni oldirar edi.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yol bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar, bolalarni savol-javob jarayonida aniq va lo'nda javob berishga o'rgatgan. Yigitlar 18–20 yoshga etganda «Efeblar» o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar. Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab, qullarni itoatda saqlashini ta'minlar hatto jangga ham qatnashardi. Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta'lim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar, qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V–IV asrlarda madaniyat gullab yashnadi. Fan, me'morchilik va haykaltaroshlik rivoj topdi. Ham

jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk kishini tarbiyalash bosh maqsad edi. Afinada eng ko'rkam va barkamol inson (ideal) hisoblangan. Bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zgor ishlariga o'rgatilar, chunki xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas edi. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13–14 yoshgacha «grammatist» (savod o'rgatish ma'nosida) yoki «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil oigan. Bu xususiy maktablarda o'qish pullik bo'lgan. Shuning uchun kamxarj fuqarolarning bolalari ushbu maktablarda ta'lim ololmagan. Maktablarda «didaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edi. (Men o'qitaman, degan ma'nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» – ta'lim nazariyasi kehb chiqqan). O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borar edi, bunday qul pedagog deb atalgan («pays» - bola, «agogeyn» - etaklab borish degan so'zlardan olingan). Grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi, o'qishda harflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalangan va ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblagan. Kifarist maktabida adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, musiqa, ashula, deklamatsiyalar o'rgatilar edi. O'g'il bolalar 13-14 yoshga yetganidan keyin palestra («kurash maktabi») deb atalgan o'quv yurtiga o'tar, bu yerda ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanardi. Masalan: sakrash, yugurish, kurashish, disk va nayza uloqtirish, suvda suzish kabilar. Palestrada o'qish tekin bolgani uchun yoshlarning ko'pchiligi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Badavlatroq oiladan bolganlari esa palestrani tugatgach gimnasiya (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilar, tahsilni tugatganlar davlat boshqaruvi qatnashishlari mumkin edi. Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bolgan yoshlar Efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirardi. Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sabab ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savodi bor ota-onalar bolalariga o'qishni o'zlari o'rgatar edi. Bu davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'yilib bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edi. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'g'risida moddiy g'amxo'rlik qilishdan ozod etilgan. Yunonistonda maktabva madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining tug'ilishiga imkon yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokrit asos soldi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surdi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi» deb yozadi u. Demokrit «ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni hosil qiladi» deb tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidladi. U doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlana borgan sari mehnat yengil bo'lib boradi deydi. U yomon o'rnakdan ehtiyot bo'lish kerak, deb ta'kidlaydi va yaxshi xulq hosil qilishda mashqning ahamiyati katta deb hisoblaydi. Demokrit axloqni odamning o'z tabiatidan kelib chiqib asoslashga harakat qiladi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidladi, bilish jarayonida sezgi va tafakkur rolini ko'rsatdi. Uningcha sezgilarimiz orqali olingan bilim «qorong'i»; u olamning mohiyatini ochib berolmaydi; aql orqah olingan bihm «yorug'», haqiqiy bilimdir. Tabiat sirlarini faqat fikrlash yo'li bilan bilib ohsh mumkin. Demokritning axloqiy va pedagogik qarashlari diniy qobiqdan xoli edi. Shuning uchun ham o'zidan keyingi faylasuf olimlarga katta ta'sir etdi. Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo'lib xizmat qildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rauf Parfi. "Sharq Yulduzi" j, 1992-yil, 5-son.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992-yil.
3. A. Fitrat. "Hind sayyohining qissasi". Sharq yulduzi, 1991yil
4. J. G'. Yoldoshev. O'zbekiston Respublikasi ta'lim-taraqqiyot yo'lida, – T.: "O'qituvchi", 1994-yil.
5. J. G'. Yo'ldoshev. "Xorijda ta'lim" – T.: Sharq nashriyot- matbaa konserni bosh tahririyati. – T.: 2005-yil.
6. A.A. Konstantinov, E.N.M edinskiy, M.F. Shabayeva "Pedagogika tarixi" – O'qituvchi, 1976-yil

7. Xayrullayev M.M. Uyg' onish davri va Sharq mutafakkirlari. – T.: O'zbekiston, 1971-yil.
8. Xayrullayev M.M. O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida: Xalq pedagogikasi – inson kamolotining asosi. I-kitob. – T.: O'zPFITI, 1992-yil.
9. Xo'jaev G. Bobur – gumanist, ma'rifatparvar. – T.: O'qituvchi, 1983-yil.
10. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig /Saodatga yo'llovchi bilim/ – T.:Fan, 1971-yil.
11. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Yulduzcha, 1990-yil.
12. K.Xoshimov, S.Ochilov – Tuzuvchi m ualliflar.:O'zbek pedagogikasi antologiyasi. II jildlik; Ijild. T.: O'qituvchi, 1995-yil. II jild. T.: O'qituvchi, 1999-yil.
13. Qadimiy hikmatlar /Tuzuvch N.Rahmanov, – T.: Adab. va san'at nashr. 1987-yil.
14. Qayumov A. Qadimiyat obidalar. – T.: Badiy adabiyot nashriyoti, 1972-yil.
15. Yursinboyev Jahongir Mehrojidin o'g'li.(2022). DOR UL-HIKMA VA MA'RIFA O'RTA OSIYO OLIMLAR JAMIYATI ASOSI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 6
16. STEPS FOR DEVELOPING HISTORICAL KNOWLEDGE SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS T.S.PhD Abdurashidovna - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022

## O'ZBEK XALQ FOLKLORI – INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Mamatova Aziza Bo'riboevna**

*Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi*

**Аннотация:** *Ushbu maqola imkoniyati cheklangan bolalar nutqini inklyuziv ta'lim sharoitida o'zbek xalq folklori asosida rivojlantirishga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida o'zbek folklori asosida bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari ham ochib berilgan.*

**Таянч so'zlar va tushunchalar:** *inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim, maktab yoshi, nutqiy nuqson, ta'lim-tarbiya, korreksiya, reabilitatsiya, emotsional holat, ijod, folklor, san'at, ertak, doston, epos.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена развитию речи детей с ограниченными возможностями в контексте инклюзивного образования на основе узбекского фольклора. В статье также раскрыты способы развития детской речи на основе узбекского фольклора в среде инклюзивного образования.*

**Ключевые слова и понятия:** *инклюзивное образование, специальное образование, школьный возраст, дефект речи, образование, коррекция, реабилитация, эмоциональное состояние, творчество, фольклор, искусство, сказка, эпос, эпос.*

**Resume:** *This article is dedicated to the development of speech of children with disabilities in the context of inclusive education based on Uzbek folklore. The article also reveals ways to develop children's speech based on Uzbek folklore in the context of inclusive education.*

**Key words and concepts:** *inclusive education, special education, school age, speech defects, education, correction, rehabilitation, emotional state, creativity, folklore, art, story, epic, epos.*

Jahon tajribasida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning har tomonlama va to'laqonli ijtimoiy reabilitatsiyasini joriy etish maqsadida inklyuziv ta'lim strategiyasini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari maxsus pedagogika sohasiga tatbiq etilmoqda. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning inklyuziv ta'limini amliyatga joriy etish, inklyuziv ta'lim falsafasini rivojlantirish umumta'lim maktablarida korreksion ta'lim mazmuni samaradorligini oshirish, inklyuziv ta'lim amaliyatga joriy etish, folklor vositasida o'quvchilar nutqini rivojlantirish borasida yirik loyihalarni amaliyatga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot tashkilotlarida inklyuziv ta'lim maktablaridagi imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga har tomonlama moslashtirish, mavjud kamchiliklarni erta korreksiyalash, bartaraf etish, ikkilamchi nuqsonlarni oldini olish, umumta'tim tizimiga moslashtirishning xilma-xil, eng maqbul texnologiyalarini takomillashtirish, o'quvchilar nutqini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'quv jarayoniga qiziqishlarini oshirish, ta'lim mazmuniga yakka yondashish uslublarini qo'llash, inklyuziv ta'limning nazariy asoslarini takomillashtirish, imkoniyati cheklangan o'quvchilar nutqini folklor vositasida rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga juda yuqori darajada e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda nogironligi bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, nutqini rivojlanganlik darajasini o'rganish, koxlear implant, ruhiy rivojlanishi orqada qolgan va Daun sindromli bolalarni nutq komponentlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlashning mustahkam huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Aholini ijtimoiy himoya qilish nogiron va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash"[3] ustivor vazifa etib belgilangan. Inklyuziv ta'lim sharoitidagi imkoniyati cheklangan boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'zbek folklori vositasida rivojlantirish milliy pedagogik imkoniyatlarni kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, Vazirar mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda 638-son Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish dolzarb masaladir.

Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish tizimi samaradorligini yanada oshirish, o'quvchilardagi mavjud ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlarni imkon qadar korreksiyalash, kompensator imkoniyatlarni kengaytirish masalasi ushbu ta'lim shaklining eng asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Zero, inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchining ruhiy va jismoniy rivojlanishi, umumta'lim maktab dasturini o'zlashtirishi, o'z sog'lom tengqurlari bilan muloqotga kirishishida nutqning me'yorda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar nutqini korreksiyalash va rivojlantirish ushbu toifa o'quvchilarni har tomonlama jamiyatga moslashtirishning eng asosiy omilidir. Chunki nutq - bu insoniyatning ijtimoiy va tarixiy tajribasini o'zlashtirish funksiyasini bajaradi. Nutqning bu funksiyasi tufayli, L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, o'quvchi o'zining oldingi rivojlanish tarixi davomida insoniyat tomonidan to'plangan madaniy va tarixiy tajribani o'zlashtiradi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida o'qitish vatarbiyalashda nutq katta ahamiyat kasb etar ekan o'quvchi nutqini shakllantirishning eng muhim vositasi bu kichik folklor bo'lib hisoblanadi. O'zbek milliy folklor namunalarini asrab- avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida xalq og'zaki ijodi namunalariga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, o'quvchilarning milliy ruhda tarbiyalanishi uchun sharoit yaratish eng avvalo uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limiga ulkan vazifa yuklar ekan o'zbek folklori asosida imkoniyati cheklangan o'quvchilar nutqini rivojlantirish bugungi kunning eng ustivor vazifalaridan bo'lib hisoblanadi. Chunki kichik folklor janri asosida imkoniyati cheklangan o'quvchilar nutqining barcha komponentlari-fonetik, leksik, grammatik, shuningdek bog'langan va mustaqil nutqni rivojlantirishga katta imkoniyati yaratadi. Inklyuziv ta'lim sharoitidagi imkoniyati cheklangan o'quvchilarning nutqini kichik folklor vositasida rivojlantirish modeli va texnologiyasi kichik folklor namunalarini o'zlashtirish inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning nafaqat nutqini balki, bilish jarayonlarini rivojlantirishda, shaxsiy sifatlarini tarkib toptirishda, dunyoqarashini kenagaytirishda va ma'naviy axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ham majmuaviy yondashuvni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi N PQ-4860 sonli Qarori
3. O.Safarov "O'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent "Musiqqa" 2010 yil
4. L.R.Mo'minova, R.Kabulova, S.Po'latova "Maktabgacha ta'lim muassalarining katta va

## DUDUQLANISHNI BARTARAF ETISHDA RITMNI SHAKLLANTIRISH MASHQLARIDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Abutova Shohista O'mirbek qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi*

**Nizomova Malika**

*Nizomiy nomidagi TDPU 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada nutqning og'ir nuqsonlaridan biri bo'lgan duduqlanishi bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash va yordam berish masalasi ko'rib chiqilgan. Duduqlanishni bartaraf etish uchun tavsiya etilgan mashqlar ritmik namunani o'zlashtirish va rivojlantirish, ritmik ishning davomiyligi va pauzalar nisbatini o'zlashtirishdan iborat.

**Tayanch so'zlar va tushunchalar:** og'ir nutq buzilishlari (ONB), duduqlanish, pauzalarni farqlash va kuzatish qobiliyatini shakllantirish, ritmik mashqlar.

**Аннотация:** В статье рассматривается вопрос психолого-педагогического сопровождения и помощи детям с заиканием, одним из тяжелых нарушений речи. Рекомендуемые упражнения для устранения заикания состоят в овладении и развитии ритмического рисунка, освоении соотношения длительности ритмической работы и пауз.

**Ключевые слова и понятия:** формирование умения различать и наблюдать тяжелые речевые нарушения (ОНБ), заикание, паузы, ритмические упражнения.

**Resume:** The article discusses the issue of psychological and pedagogical support and assistance to children with stuttering, one of the most severe speech defects. The recommended exercises for eliminating stuttering consist in mastering and developing a rhythmic pattern, mastering the ratio of the duration of rhythmic work and pauses.

**Key words and concepts:** severe speech disorders (ONB), stuttering, formation of the ability to distinguish and observe pauses, rhythmic exercises.

Duduqlanish nutq apparati mushaklaridagi tortilishlar tufayli yuzaga keladi. Tortilishlar ba'zi bolalarda artikulasiya bo'limida, boshqalarida - ovoz yoki nafas olish bo'limlarida yuzaga kelishi mumkin. Periferik nutq apparatining turli qismlarida og'zaki muloqot jarayonida vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan tutilish turiga ko'ra, duduqlanishning uchta shakli (yoki turi) ajratiladi: klonik, tonik, aralash.

Ritmik qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida harakatlanuvchi namunalashtirish usuli qo'llaniladi, ya'ni ma'lum bir ritmik tuzilishga moslashish. K.V. Tarasova ritmik tuyg'u quyidagi ketma-ketlikda rivojlanishini ta'kidlaydi: sur'atning rivojlanishi (tez, o'rtacha, sekin), keyin metrik munosabatlarning rivojlanishi (oddiy ikki, uch va to'rt qismli o'lchamlar) va undan keyin - ritmik namunani o'zlashtirish (oddiy va murakkab tuzilish, oddiy ritmlar teng davomiyliklardan, murakkablari esa teng bo'lmagan ritmik birliklardan iborat). Bolalarni qarsak chalish, ovoz bilan ritmlarni o'zlashtirish, farqlash va ifodalash, musiqa asboblarini chalish, harakatlarida mashq qildirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Signalchilar". Materiallar. Signal bayroqchalari (har bir bolaga ikkitadan), V. Vitlin tomonidan qayta ishlangan fransuz xalq kuyi fonogrammasi.

O'yin jarayoni. Bolalar o'qituvchiga qarab bir qator turadi. Unga taqlid qilib, qo'l harakatlarini bajaradi: qo'llarni navbatma-navbat yon tomonlarga o'girish "uzun" tovushini, qo'llarning keskin bosh uzra ko'tarilishi - "qisqa" tovushlarni bildiradi.

"Musiqiy yo'lakchalar". Materiallar. Magnit taxta (molbert), orqa tomonida yopishtirilgan magnitlari mavjud baxmal qog'ozdan kesilgan to'rtburchaklar va kvadratchalar.

O'yinning 1- usuli. Doskada o'qituvchi ritmik namunalarining vizual-ko'rgazmali sxemasini tuzadi, unda to'rtburchaklar "uzun" (yarimtalik, choraktalik) tovushlarni va kvadratlar - "qisqa" (nimchorakta) tovushlarni ko'rsatadi. Bolalar bu ketma-ketlikni o'zlarining gilamchalarida namunalashtiradi. Bevosita bir vaqtda taqlid qilish orqali o'qituvchi bolalarni biron bir unli tovushga iaratilgan ritmik namunani kuylashga undaydi.

Bolaning qo'shiq aytishi qo'lning to'rtburchaklar va kvadratlar zanjiri bo'ylab



harakatlanishi bilan mustahkamlanishi juda muhim: barmoqni to'rtburchak bo'ylab olib borib, bola tovushini chiqarib uzoq vaqt davomida o'sha tovushni talaffuz qiladi, barmoqni kvadratga qo'yib esa tovushni qisqa talaffuz qiladi.

O'yinning 2 usuli. O'qituvchi unli tovushda ritmik namunani davomiylikka mos ravishda kuylaydi, bolalar to'rtburchaklar va kvadratlar yordamida vizual-ko'rgazmali sxemani namunalashtiradi.

### "Bulut" ritmik o'yini

Matn	Harakatlarning tavsifi
Katta bulut yig'lardi: - Naqadar omadsizman	Logoped matnni talaffuz qiladi.
Kap-kap-kap, kap-kap.	Bolalar navbat bilan ritmik ravishda tizzalariga bir qo'li kaftlari bilan, keyin boshqasi bilan uradi.
Ayvonda g'amgin o'tiribman, Daryo yaqinidagi tepalikda.	Logoped matnni talaffuz qiladi
Kap-kap-kap, kap-kap.	Bolalar tizzalariga 2 qo'l kaftlari bilan uradi.
O'rmon yaqinida uzoq yig'ladim, Keyin butunlay g'oyib bo'ldim.	Logoped matnni talaffuz qiladi
Kap-kap-kap, kap-kap.	Bolalar kaftini kaftiga uradi.

Keyinchalik shakllangan ritmik yo'nalishlar nutq materialiga o'tkaziladi. Matn borasidagi barcha ishlar quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:

1. She'r (matn) ritmini tinglash.
2. Ritmga mos qarsak chalish.
3. Ritmga mos toptash.
4. Bir vaqtning o'zida ritmga mos qarsak chalish, toptash.
5. Qarsak chalish, oyoqni do'ppillatish, ritmni talaffuz qilish.
6. She'r (matn) so'zlarini tinglash.
7. Matnni harakatlar bilan ifodalash.
8. Matnni harakatlarsiz ifodalash.

Musiqqa, harakat va nutq sinteziga asoslangan ritm tuyg'usini rivojlantirish bo'yicha ishlarni to'g'ri tashkil etish bolalarga nafaqat elementar ritmik tuzilmalarni o'zlashtirishga, balki ular asosida nutqning fonetik tomonini o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni (so'zlarning ritmik tuzilishi, og'zaki, mantiqiy urg'u, modulyatsiyalar, pauzalar) yaratishga, shuningdek, nutq-harakat jarayonining fazoviy-vaqtga nisbatan tashkil etilishini yaxshilash imkonini ham beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белякова Л.И. Основные логопедические технологии, формирование плавной речи у заикающихся // Дефектология. - 2001. - №4. - С. 49-53.
2. Волкова Г.А. Логопедическая ритмика. -М.: Владос. - 2002. - 272 с.
3. Ворошилова Е.А. Система работы с заикающимися дошкольниками // Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. -2006. - №2. - С. 30.
4. Гладковская Л.М. Использование песка и воды в индивидуальной работе с заикающимися детьми 5-6 лет // Логопед. - 2008. - №1. - С. 49-56.
5. Гладковская Л.М. Подгрупповые комплексные занятия для старших дошкольников, страдающих заиканием // Логопед. - 2008. - №8. - С. 60-67.
6. Гончарова Н. Коррекция заикания // Дошкольное воспитание. - 2005. - №3.- С. 59.
7. Комплексный метод преодоления заикания у детей в условиях санатория: [Электронный ресурс] / www.kved // Курортные ведомости. -2009. - № 1 (52).
8. Руденко И.И. Логопедическая ритмика для дошкольников с речевой патологией // Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. - 2005. - №1. - С. 14-17.
9. Abutova, S. O. (2022). RULES FOR COMMUNICATING WITH PRESCHOOL CHILDREN WHO STUTTER. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(12), 48-55.
10. Takhirova, M. E. (2022). THE MEANING AND ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE SYSTEM OF TRAINING SPEECH THERAPISTS. *International Journal of Pedagogics*, 2(12), 10- 13.
11. Abdullayeva, Y. (2022). THE IMPORTANCE OF COMPUTER PROGRAMS IN FORMING THE VOCABULARY OF CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCIES. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 87-92.

## РИВОЖЛАНИШИДА МУРАККАБ НУҚСОНЛИ БОЛАЛАР ТАЪЛИМ ОЛИШ ИМКОНИАТЛАРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Гапурова Дилноза Таджибаевна

Низомий номидаги ТДПУ ўқитувчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада ривожланишида мураккаб нуқсонли болалар таълим тизими ва мазмунини такомиллаштириш, модернизациялаш борасида амалга оширилган илмий тадқиқот ишлари, меъёрий ҳужжатлар, таълим олиш имкониятларининг таҳлили баён этилган.

**Калит сўзлар:** Болалар ҳуқуқи ҳақидаги Конвенсия, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури», «Махсус таълим зарурияти», Инклюзив таълим, Инклюзив таълим технологияси, ўқув дастури, восита, метод.

Ҳар қандай жамиятда ёш авлоднинг ҳар томонлама етуқ, комил инсон бўлиб вояга етишига, муносиб фуқаролар сифатида улғайиб, давлат тараққиёти ва гуллаб-яшнашига улуш қўшишларига умид боғланади. Бутун жаҳон болаларига тегишли бўлган болалар ҳуқуқи ҳақидаги Конвенцияда, Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонунида, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» сингари қатор муҳим меъёрий ҳужжатларда кўрсатилишича, барча болалар, шу жумладан, жисмоний ёки руҳий ривожланишида нуқсони бор болалар ҳам меҳнат қилиш, таълим олиш, ҳаётда ўз ўрнини топиш ҳуқуқларига эгадирлар.

1993 йил 1 декабрда 153 мамлакатда болалар ҳуқуқлари ҳақидаги Конвенциянинг ратификация қилиниши воситасида, уларда болалар келажагини муҳофаза қилишга тайёр эканлик намоиш этилди. Конвенция бутун жаҳон болалар ҳуқуқлари ҳақидаги Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг шартномасидир. Конвенция – бола ҳуқуқлари ҳақидаги универсал расмий Кодексдир. Конвенцияда болалар ҳуқуқлари тўрт тоифага ажратиб берилган бўлиб, улар 54 моддани ўз ичига қамраб олган.

1994 йилда ЮНЕСКО «Махсус таълим зарурияти» номли ҳужжатни тайёрлаб, унда махсус таълимга муҳтож болалар ва ёшлар учун таълимни ташкил этиш ҳамда такомиллаштириш масалаларини кўриб чиқди. Ушбу таълим турида асосий ўрин реабилитация масалаларига ажратилган.

Ҳужжатда: «Махсус таълимни алоҳида ёрдамга муҳтож инсонларга ташкил этишдан мақсад – жисмоний ёки руҳий ривожланишида нуқсони бор болалар ва ўсмирларни мустақил, ҳамма қатори яшаш шароитида жамиятга тиклаш», – деб таъкидланган.

Е.Л.Гончарова, О.С.Никольская, О.И.Кукушкина таъкидлашича, алоҳида таълимга эҳтиёжи бўлган бола максимал даражада ривожланиши, таълим ва тарбия олиши учун зарур шароитларга эга бўлиши лозим. Шунингдек, имконияти чекланган болаларнинг ҳар бир тоифаси учун ҳар бир ёшга, ривожланиш хусусиятига ва таълим босқичига қараб алоҳида таълимни тенг даражада аниқ, батафсил ва илмий асосланган ҳолда олиб борилиши зарурлигини билдиради.

Имконияти чекланган болалар нормал ривожланишдаги болалар каби топшириқ ва вазифаларни тезлик билан мукамал амалга ошира олмасаларда аммо имконият даражасида бажара оладилар. Имконияти чекланганлик – этиб келинмоқда. Дакар декларацияси асосида қабул қилинган “Таълим ҳамма учун” режа-дастурига мувофиқ бутун жаҳонда умумий таълим тизимига инклюзив таълимни жорий этиш масаласи алоҳида аҳамият касб этмоқда [9]. Бутунги кунда “имконияти чекланганлик” тушунчасига нисбатан ижтимоий ёндашув аҳамиятининг ошиб бориши бу тоифадаги шасхларнинг нафақат ўзгалар ёрдамига муҳтож бўлган, жамиятнинг алоҳида - нофаол тоифасини ташкил этишидан қатъий фарқли ўлароқ, ривожланишининг дастлабки даврлариданоқ улардаги нуқсонларнигина эмас, балки бошқалар каби жамиятга фаол интеграциялашуви ва ижтимоийлашув имкониятларини ҳам ўрганиш, коррекцион- педагогик технологиялар ва методлар орқали ўзининг турли соҳалардаги эҳтиёжларини қондиришга қодир бўлган шахс даражаси томон камол топишига қўмаклашиш зарурлиги эътироф этилмоқда.

Имконияти чекланган болаларда ижтимоий тажрибанинг пайдо бўлиши ва такомиллашуви нормал ривожланишдаги болаларга нисбатан мураккаброқ кечади. Чунки жисмоний ва психик нуқсонлар уларнинг ёшига мутаносиб равишда ҳаётининг турли соҳаларидаги билим, кўникма ва малакаларни эгаллашлари ва ижтимоий-маданий муносабатларга эркин киришга олишларига ҳалал беради.

Таълим муассасасида имконияти чекланган болалар ва ўсмирларнинг таълим олишлари учун зарурий психолого-педагогик, коррекционшароитларни яратиш, уларнинг имкониятига йуналтирилган умумтаълим дастурлари ва коррекцион ишларни амалга ошириш орқали руҳий ривожланиши, ижтимоий мослаштиришни амалга ошириш лозим.

Жаҳонда жисмоний ёки руҳий ривожланишида нуқсони бўлган болалар сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий соҳаларда жамият ҳамда давлатни ривожлантиришнинг тенг ҳуқуқли иштирокчиси экани эътироф қилинмоқда.

Махсус таълимга эҳтиёжи бўлган болаларни мактабгача таълим, умумий ўрта таълим олишини йўлга қўйиш, уларнинг ижтимоий ҳимоя тизимини мустаҳкамлаш, ногиронлиги бўлган болаларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ҳамда инклюзив таълимга жалб этиш UNICEF ташкилоти томонидан қўллаб-қувватланмоқда [2]. Болада нуқсон бўлишига қарамай, унга қўлидан келадиган иш турини ўргатиш, ўқитиб тарбиялаб, жамиятда ўз ўрнини топиб кетишига ёрдам бериш (ижтимоий реабилитация қилиш) зарурдир [8].

Мамлакатимизда имконияти чекланган болалар таълим-тарбияси ва уларнинг ижтимоий ҳаётга мослашувига қулай шароитлар яратиб берилмоқда. Уларни жамиятга интеграция қилиш, аввало, имкон қадар саломатлигини тиклаш мақсадида «Имконияти чекланган болалар учун умумий таълим лойиҳаси» асосида иш юритиб келинмоқда. Бунда, асосан, инклюзив таълим имкониятларидан фойдаланиш кўзда тутилмоқда.

Натижада инклюзив таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик хусусиятларини, ўзига хос имкониятларини чуқурроқ ўрганиш, у билан боғлиқ муаммоларни аниқлаш, самарадорлик жиҳатларини асослаб бериш долзарб илмий муаммога айланмоқда. Чунки инклюзив таълим усули барча болаларнинг руҳий-жисмоний ҳолатидан қатъи назар таълим жараёнида тўлақонли иштирок этишини таъминлашга қулай имконият яратади.

Айниқса, у алоҳида ёрдамга муҳтож болаларнинг атрофдагилар билан мулоқотда бўлиши, ижтимоий муҳит талабларига жавоб бера оладиган бўлиб улғайиши, ўз кундалик-маиший эҳтиёжини қондира олиш кўникмаларини эгаллаши, ҳаётга мослашиб, умумтаълим мактабларида соғлом тенгдошлари билан тенг шароитларда ўқий олиши, улар билан ўзаро дўстона муносабатга киришиши, дарсларни ўз вақтида ўзлаштириши, топшириқларга масъулият билан ёндашиши учун қулайликлар туғдиради.

Инклюзив таълим нафақат ногирон болалар ўртасида, балки соғлом турмуш тарзига асосланган оилада тарбияланаётган болалар ўртасида, мактабгача таълим муассасаларида, мактабларда, академик лицей ва касб-ҳунар коллежларида ҳам фанларни ўзлаштириш даражаси турлича бўлган ўқувчилар учун қулай имкониятлар ярага олади. У орқали ўқувчиларнинг бир-бирига ижобий таъсир кўрсата олишига эришиш яхши натижа келтиради. Лекин баъзан соғлом болалар билан ногирон болалар орасидаги тафовут сезилиб қолиши, ногирон бола ўз тенгдошларига қўшилмай, тортиниши, ўз имкониятларидан фойдалана олмаслиги сабаб уялиб туриши, камситилиши, айримлари эса оилада ҳаддан ташқари эрка ўстирилганлиги туфайли қайсарлик, инжиқлик қилиши кузатиладики, бундай шароитда таълим амалиёти ва таълим хизматларини ташкиллаштиришда ўзгаришлар қилишга тўғри келади.

Буларнинг барчаси инклюзив таълим жараёни ўзига хос мураккабликларга эга эканлигини ва шу соҳада ишлайдиган ўқитувчилар, синф раҳбарлари, тарбиячилар, касбий маҳорат усталари зиммасига жиддий талаблар ва масъулиятлар юклашини ойдинлаштиради. Олиб борилган изланишлар ва тадқиқотлар асосида инклюзив таълим технологиясига қўйидагича таъриф бериш мумкин: «Инклюзив таълим технологияси

(ИТТ) – бу узлуксиз таълим тизимида махсус ёрдамга муҳтож болалар ва ёшлар учун меҳрибонлик билан тизимли ёндашадиган, индивидуаллашган, шароитга қараб ўзгарувчан, махсус ўқув дастурлари, материаллари, воситалари ва методлари ёрдамида таълим-тарбиянинг педагогик-психологик жиҳатларини замонавий талабларга мос олиб бориладиган жараёнди» .

Инклюзив таълимни оиладан мактабгача таълим муассасаларида, умумтаълим мактабларида, касб-хунар коллежлари ва олий ўқув муассасаларида жорий этиш натижасида имконияти чекланган инсонларга нисбатан умумий муносабат ўзгараётгани маълум бўлди. Бу эса уларнинг ҳаётда муваффақият қозониши учун омил бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Имконияти чекланган инсонлар учун ишлаб чиқилган ва жамиятга режали асосда жорий этилаётган инклюзив таълим стратегияси ўқишнинг узлуксиз ва муттасиллигини таъминлайди. Оила – болалар боғчаси – мактаб – касб-хунар коллежи – иш билан таъминлаш – ушбу тизим келажақда ота-оналарга имконияти чекланган болаларини умумтаълим муассасалари ва олий ўқув юртларига бемалол, хавфсирамасдан олиб келишлари учун замин яратади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги Қонуни.
2. Арипова Ш.Д. Болалар нутқининг грамматик қурилишини ривожлантиришда коррекцион-педагогик иш тизими. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореф. – Т., 2018. - 58 б.
3. Арсланова М.М. Имконияти чекланган болаларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг айрим методологик масалалари. “Халқ таълими” илмий-методик журнали. 2018. № 4. 128-132 бет.
4. Гончарова Е.Л., Никольская О.С., Кукушкина О.И. Дети с особыми образовательными потребностями в системе понятий культурно-исторической психологии // Альманах Института коррекционной педагогики. 2019. Альманах № 39
5. Назарова Н.М, Моргачёва Е.Н, Фуряева Т.В. Сравнительная специальная педагогика. 2-е издание. Академия. М.: 2012.
6. Шомахмудова Р.Ш. / Махсус ва инклюзив таълим / - Т.: 2017. 214 б.
7. Шомахмудова Р.Ш. ва б. Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиш услублари. Услубий тавсиянома Т.: 2008. 90 б.
8. Шомахмудова Р.Ш. ва б. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. Ўқув методик қўлланма Т.: 2007. 52 б.
9. Якубжанова Д.Б. Бўлажак дефектологларда касбий ижодкорликни ривожлантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: 2017. – 54 б.

## ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY-OMMABOP ASARLARNI O‘RGATISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Abdullayeva Feruza Nurillayevna**

*BuxDU o‘qituvchisi.*

**Avazova Feruza Akmal qizi**

*BuxDU talabasi*

**Аннотация:** *Boshlang‘inch sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida ilmiy ommabop maqolalar rang-barang va ularga keng o‘rin ajratilgan. Ilmiy-ommabop badiiy maqola – bu dunyoviy bilimlarga badiiy va pedagogik ishlov berish yo‘li bilan shakllantirilgan, bolalarbop badiiy asar janridir.*

**Калит созлар:** *ilmiy-ommabop, boshlang‘ish, o‘qish, darslik, maqola, bola, ta‘lim, tarbiya*

**Аннотация:** *В учебниках по родному языку для начальных классов и грамоте чтения научно-популярные статьи красочны и занимают достаточно места. Научно-популярное художественное произведение – жанр детского художественного творчества, сформированный путем художественно-педагогической обработки мировоззренческих знаний.*

**Ключевые слова:** *научно-популярное, начало, чтение, учебник, статья, ребенок, образование,*

воспитание.

**Abstract:** *In primary grade mother tongue and reading literacy textbooks, scholarly popular articles are colorful and given ample space. Scientific popular art article is a genre of children's art work formed by artistic and pedagogical processing of worldly knowledge.*

**Keywords:** *scientific-popular, beginning, reading, textbook, article, child, education, upbringing*

Boshlang'ich sinflarning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida ilmiy-ommabop maqolalarga keng o'rin ajratilgan. Ilmiy-ommabop maqolalar boshlang'ich sinflarning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklariga kiritilgan umumiy asarlarning 20 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi. Ammo shunga qaramasdan, ilmiy-ommabop maqolalarni boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasi haligacha alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganilgan emas. Bu sohaga mansub metodik maqolalar barmoq bilan sanarli darajada.

Boshlang'ich sinflarda ilmiy-ommabop maqolalarni o'qitish usuliyotiga doir izlanishlar kamchil bo'lishi bilan birga, ularning umumfilologik asoslari ham to'liq o'rganilmagan. Hozirgacha o'zbek adabiyoti nazariyasida ilmiy-ommabop maqolalar nima? - degan savolga javob yo'q. Bular boshlang'ich sinflarning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklariga kiritilgan ilmiy-ommabop maqolalarni umumfilologik, ham usuliy jihatdan tadqiq qilishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinflarning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklaridan o'rin olgan ilmiy-ommabop maqolalar darsliklarga kiritilgan ertak, she'r, hikoya, masal kabi janrlardan uchxususiyatiga ko'ra farq qiladi:

a) ilmiy-ommabop maqolalarda tabiat, jamiyat, inson ongiga oid bilimlar xususida xabar beriladi. Shu tufayli, ularni tavsiflash uchun "Ilmiy" termini qo'llanadi. Hayot, kundalik turmush, yashash tarzimizning turli sohalariga oid bilimlarni o'zida aks ettirish, bolalarni fuqarolik ruhida tarbiyalashning manbai bo'la olish bunday maqolalarning bosh vazifasidir;

b) ilmiy-ommabop maqolalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, real bilish imkoniyatlari, qiziqishlariga moslab berilishi zarur. Haligacha metodik adabiyotlarda ikkinchi sinf darsliklariga kiritilgan ilmiy-ommabop maqolalarning hajmidan uchinchi yoki to'rtinchi sinf darsliklaridan o'rin olgan maqolalarning farqi o'rganilgan emas. Boshlang'ich sinf darsliklaridagi ilmiy-ommabop maqolalar matnining optimalligini o'rganish vaqti keldi.

d) ilmiy-ommabop maqolalarda tabiat, jamiyat hodisalariga badiiy ishlov berilgan. Binobarin, ularning matnida o'xshatish, taqqoslash, qarama qarshi qo'yish, tasvir, obrazlilik kabi badiiy usullardan foydalaniladi. Masalan, 1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidan o'rin olgan "Asalari qanday boqiladi" matnini olib qaraylik. "Jajji akademik" jurnalidan olingan. Matn besh abzasdan iborat. Unda asalarilarni boqish haqida tushunarli qilib tasvirlangan.

Ilmiy-ommabop badiiy maqolalarning yuqoridagi uch xil xususiyatini inobatga olib, ularni quyidagicha ishchi ta'rif berish mumkin: Ilmiy-ommabop badiiy maqola – bu dunyoviy bilimlarga badiiy va pedagogik ishlov berish yo'li bilan shakllantirilgan, bolalarbop badiiy asar janridir.

Ilmiy-ommabop badiiy maqolalar badiiy asarning mustaqil janri bo'lganligi tufayli o'qish kitoblariga kiritiladi. Ularning mavzusi rang-barang bo'lib, tarix va geografiya, tabiat manzaralari, do'stlik-o'rtoqlik, yaxshiyu yomon va oqu qorani tanish, bilish masalariga bag'ishlanadi. Boshlang'ich sinflar "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarining tahlili ilmiy-ommabop badiiy matnlarning quyidagi turlarini ajratish imkonini beradi.

Tarixiy mavzulardagi ilmiy-ommabop badiiy maqola. Bunday matnlarda vatanimizning o'tmishi va hozirgi ahvoli to'g'risidagi tarixiy hodisalar, sanalar xususida bilim beradi. 4-sinf "O'qish" darsligining "Ulug' va aziz vatanim, mangu bo'l oman" bo'limidaberilgan "Mangulikka tatigulik kun" matni tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop badiiy maqoladir. Uni o'rganish jarayonida bolalar 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston mustaqilligining e'lon qilinishi, 1-sentyabr esa Mustaqillik kuni ekanligini bilib oladi.

Arxitektura va shahar qurilishi mavzularidagi ilmiy-ommabop badiiy maqolalar. Shunday mavzuga 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi "Borish kerak bo'lgan shahar" matni misol bo'la oladi. Bu ilmiy-ommabop maqolani o'rganish paytida bolalar Samarqand dunyoning eng qadimgi shaharlaridan biri ekanligi, "ulug' shahar" degan ma'noni

anglatishi, qadimgi yodgorliklari haqidagi tushunchalarni o'zlashtiradi.

Fuqarolik tarbiyasi mavzusidagi ilmiy-ommabop badiiy maqolalar O'zbekiston madhiyasi, bayrog'i, gerbi va boshqa simbolikalar bo'yicha o'quvchilarda bilim, tasavvurlarni rivojlantirishni mo'ljallab darsliklarga kiritilgan. Masalan, 3-sinf darsligida "O'zbekiston respublikasining davlat gerbining mohiyati - Respublika mustaqilligining ramzi ekanligi bilan tanishiladi. Bolalar xumo qushi haqida tasavvurga ega bo'ladi, davlat gerbida berilgan tasvirlardayo, tog', paxta, boshqoq, chiqib kelayotgan zarrin quyosh kabilarning ma'nosini o'zlashtiradi.

O'qish kitoblarida axloq-odob, ekologik mavzular bo'yicha kiritilgan ilmiy-ommabop badiiy maqolalar ham anchagina topiladi. 3-sinf darsligida "Qobusnoma" dan olingan "Ota- onani hurmatlash haqida", Rasululloh "Hadis" laridan keltirilgan "Onani rozi qilish haqida" matnlarni odob-axloq mavzusiga misol bo'la oladi. "Yer sevarni - el sevar" matni esa ekologik mavzudagi ilmiy-ommabop maqoladir. Matnda oq sut berib voyaga yetkazgan ona va ona yer o'zaro taqqoslanadi, yerni asrash bu yon - atrofnii bog' rog'larga aylantirish demakdir degan xulosa chiqariladi.

Yil fasllari va odamlar mehnatiga oid ilmiy-ommabop badiiy maqolalar Respublikamizning turli viloyatlarida yil fasllarining o'ziga xos xususiyatlari, har bir faslda bajariladigan mehnat turlari haqida ma'lumot beriladi. 3-sinf "ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida shunday maqolalardan 7 ta berilgan.

Agar boshlang'ich sinflarning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklari bo'yicha xulosa chiqarmoqchi bo'lsak, ilmiy-ommabop badiiy maqolalarning yettita turini ajratish mumkin: tarixiy, arxitektura va shahar qurilishi, fuqarolik tarbiyasi, axloq-odob, ekologik, yil fasllari, odamlar mehnati. Bu turlarga oid ilmiy-ommabop badiiy maqolalarning barchasi dunyoviy bilimlar manbai bo'lib, ularning har biri o'ziga xos o'qitish usuliyotiga ega. Masalan yil fasllariga oid ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni kuzatish, tarixiy mavzudagi asarlarni esa sayohat natijalari bilan bog'lab o'qitish eng samarali yo'l hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva F. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 3. - №. 3.
2. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. - 2022. - Т. 2. - №. 3. - С. 47-50.
3. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). - 2021. - Т. 8. - №. 8.
4. Nurullayevna A. F. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIYOMMABOP MAQOLALARNI O'RGATISH //БАРҚАРОПЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. - 2022. - Т. 2. - №. 4. - С. 406-409.
5. Kurbanova S. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ-ЦЕЛОСТНАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА КУРБАНОВА ШОИРА НАРЗУЛЛАЕВНА, АБДУЛЛАЕВА ФЕРУЗА, ОЧИЛОВА ГО //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 1. - №. 1.
6. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очилова Г. О. Педагогическая технология-целостная система образовательного процесса //новые педагогические исследования: сборник статей IV. - 2021. - С. 20.
7. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 6. - С. 1030-1035.
8. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY-OMMABOP MAQOLALARNI O'RGATISHNING METODIK IMKONIYATLARI: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9. 09.034 Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно- методический журнал*, (9), 243-246.
9. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 6(6), 1433-1436.
10. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(6), 1-5.



## ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ЛОГОПЕДА С ДРУГИМИ УЧАСТНИКАМИ КОРРЕКЦИОННОГО ПРОЦЕССА

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Б. Х. Хусниддинова**

*преподаватель кафедры логопедии, ТГПУ им. Низами*

В логопедической литературе неоднократно отмечается необходимость комплексного подхода к диагностике и коррекции речевых нарушений, что предполагает взаимодействие различных специалистов - логопеда, врачей разных специальностей, педагогов и др. Е. М. Мастюкова [1] пишет, что «весь персонал, работающий с ребенком должен соблюдать профессиональную этику. Диагноз и прогноз каждого ребенка должны быть предметом профессиональной тайны специалистов». При устранении речевых нарушений ведущим является логопедическое воздействие, которое реализуется в воспитании, обучении, коррекции, компенсации, адаптации, реабилитации.

Особое значение придается проведению комплексного медико-психолого-педагогического обследования человека, страдающего речевым нарушением. Имеются отдельные замечания относительно возможного повода для взаимодействия логопеда и других специалистов. Так, например, Шохор-Троцкая [2] подчеркивает, что логопеду необходимо «обязательно выяснить у врача характер нарушения мозгового кровообращения или особенностей черепно-мозговой травмы» у больного с афазией. Она же отмечает, что для логопеда важен «хороший контакт с лечащим врачом больного». Е. М. Мастюкова [1] полагает, что «любой ребенок с отставанием речи нуждается в консультации детского психоневролога».

Высказывается мнение о том, что «успешное исправление речевых нарушений во многом зависит от совместных усилий всех специалистов», «возможностей и правильной совместной работы педагога-дефектолога, логопеда, врача, психолога и родителей». Подчеркивается, что установление контакта с лицом, имеющим речевое нарушение (например, афазия), является «результатом сплава научных познаний» специалиста, «и его умений вступать в контакт ... искусства общений» с ним. Установлению контакта логопеда с детьми, подростками или взрослыми с нарушениями речи придается приоритетное значение для благополучного течения последующей коррекционной работы.

Учет индивидуальных особенностей ребенка - как позитивных, так и негативных - признается важным принципом коррекционной работы всех специалистов. Среди эмоциональных реакций, которые нужно учитывать в процессе знакомства и установления контакта с ребенком, прежде всего надо иметь в виду страх, гнев и удовольствие. При этом своеобразии эмоциональных реакций у детей проявляется в их кратковременности, интенсивности и неадекватности раздражителю. Перед контактом с ребенком необходимо отключиться от личных забот и настроиться на понимание, сочувствие, сопереживание, сострадание чувствам ребенка и его родителей, создать «доминанту на лицо другого». Ребенок должен почувствовать внимание, любовь и защиту.

Предпосылкой успеха при логопедическом воздействии является создание благоприятных условий для преодоления нарушений речи: эмоционального контакта логопеда с ребенком; интересной формы организации занятий, соответствующей ведущей деятельности, побуждающей познавательную активность ребенка; сочетания приёмов работы, позволяющих избежать его утомления. Воздействие на ребенка с речевым нарушением связывается с нормализацией социальных контактов с окружающими людьми.

В зависимости от различных факторов (вида речевого нарушения,

психофизиологических особенностей ребенка, применяемых технологий коррекционной работы и др.) логопед отбирает и применяет различные способы коррекции. Например, при коррекции заикания с использованием определенной последовательности форм речи чрезмерную (или неадекватную) речевую активность детей рекомендуется на отдельных этапах развития самостоятельной речи «тактично сдерживать», нельзя заставлять детей повторять сказанное слово или фразу с заиканием.

Чаще и подробнее в специальной литературе раскрываются задачи и основные направления взаимодействия логопеда и воспитателя специальных дошкольных групп.

Единообразие подходов логопеда и воспитателя к речевой работе с детьми, преемственность в требованиях, а также в содержании и методах коррекционной, учебной и воспитательной работы, комплексность и многообразие средств развития речи и устранения ее недостатков, использование ведущего вида - игровой деятельности - залог успеха в логопедической работе. Воспитатель детского сада для детей с нарушениями речи выполняет помимо общеобразовательных задач и ряд коррекционных, направленных на устранение недостатков в сенсорной, аффективно-волевой, интеллектуальной сферах, обусловленных особенностями речевого дефекта. В задачу воспитателя входит также создание доброжелательной обстановки в детском коллективе, укрепление веры детей в собственные возможности, сглаживание отрицательных переживаний, связанных с нарушением речевой деятельности, формирование интереса к занятиям.

қызметі әлі де басым мәнге ие. Қызбаламен жұмыс кезінде жұмсақ ән режимін сақтау қажет. Дәл осы әншілік іс-әрекетте олардың музыкалық образдарды өзіндік шығармашылық интерпретациялау қабілеті ең сәтті және "айқын" көрінеді. Ән айту үшін қолданылатын репертуарда үш бөлім бар: халық әндері, классикалық шығармалардан алынған тақырыптар, отандық және шетелдік композиторлардың әндері. Мен балалар алдында заманауи проблемалар, жалпыадамзаттық тақырыптар ашылатын әндерді таңдажым. Балаларды, жасөспірімдерді ойлауға, ойлауға үйрету керек. Балаларға өмірдіңөзі сияқты, шексіз өзгеретін, құпияға айналуға қабілетті музыка беруге тырыстым. Сабақтағы вокалды - хор жұмысының тиімділігі көбінесе оқушылардың оқу-танымдық процеске деген белсенділігі мен қызығушылығының дәрежесімен, сондай-ақ олардың тәуелсіздігімен анықталады. Сабақтағы оқушылардың оқу-танымдық іс-әрекетіндегі тәуелсіздік аналитикалық ойлау деңгейімен де сипатталады. Аналитикалық ойлауды қалыптастыру кезінде мен оқушыларды өз іс-әрекетінің және оқу жолдастарының іс-әрекетінің нәтижелерін талдау және бағалау қабілетіне жеткізуге тырыстым. Осылайша, олар бақылау және өзін-өзі бақылау дағдыларын қалыптастырады, яғни оқушылардың өз жұмысын, жолдастарының жұмысын бақылау, талдау және интроспекция, өз қателіктері мен жолдастарының қателіктерін табу. Мұғалімнің оқытудағы музыкалық-дидактикалық принциптер мен әдістерді сақтауы және оларды балалардың жас ерекшеліктеріне сәйкес ұтымды қолдану практикалық іс-әрекетте музыкалық материалды мұқият игеруге және жаңғыртуға мүмкіндік береді. Мен көз жеткізген ең бастысы мектепте мұғалім болып жұмыс істеу, егер ол білім процесіне құмар болмаса, сабаққа қызығушылық танытпаса, баланы үйрету мүмкін емес. Менің ойымша, мұғалім мен оқушының сәтті қарым - қатынасының алғашқы постулаты-баланың сабаққа деген қызығушылығы. Сабақты қызықты етудің, балалардың белсенділігін арттырудың көптеген жолдары бар. Оқу пәніне деген қызығушылықты дамытуда сіз тек зерттелетін материалдың мазмұнына сене алмайсыз, сонымен қатар студенттердің таным процесіне қатысатын әдістері де маңызды. Менің ойымша, музыка мұғалімінің басты міндеті-қазіргі әлемде барабар бағдарлай алатын эстетикалық сауатты адамды қалыптастыру. Белгілі бір адам қандай мамандық таңдаса да, ол оқитын және жұмыс істейтін болса да, оны өнер қоршап алады. Біз, ересектер, біздің жетістіктеріміз бен бастамаларымызды байқағанды жақсы көреміз. Біздің ортақ іске қосқан оң үлесіміз еңбегі үшін бағаланады. Менің ойымша, оқушылар үшін ересектерге қарағанда, олардың психологиялық атмосферасы маңызды. Сондықтан оқушының кішкене жетістігін де көтермелеу, оның өнерді танудағы жеке жетістіктерін атап өту, сабақта шығармашылық атмосфера мен өзара түсіністік қалыптастыру қажет. Содан кейін балалардың көпшілігі бізге құрметпен жауап береді және өнерге деген сүйіспеншілік өмір бойы серік болады.

#### Әдебиеттер:

1. Бернштейн Н. А. Очерки по физиологии движения и физиологии активности. -М.: Издательство «Медицина», 2011. - 349 с.
2. Гарипова Н. М. Интонационная природа музыки: монография. - Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2012. - 560 с.
3. Гарипова Н. М. Развитие креативности в процессе аналитико-слуховой музыкальной деятельности // Проблемы музыкальной науки. - 2009. - № 2 (5). - С. 218-221.
4. Леонтьев А. Н. Проблемы развития психики. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972. -575 с.
5. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Позитивиздат, 1977 -304 с.
6. Леонтьев А. Н. Избранные психологические произведения. - М.: Педагогика, 1983. -Т. 2. - 318 с.
7. Медушевский В. В. Интонационная форма музыки. - М.: Композитор, 1993. - 263 с.
8. Теплов Б. М. Психология музыкальных способностей // Психология музыки и музыкальных способностей: хрестоматия / сост-ред. А. Е. Тарас. - М.: АСТ; Мн.: Хар-вест, 2005. - С. 16-360.
9. Чистович Л. А., Кожевников В. А. Восприятие речи // Физиология сенсорных систем. - Л.: Наука, 1972. - С. 427-514.

# МУЗЫКАЛЫҚ БІЛІМ БЕРУДЕГІ СТИЛЬДЕУ ӘДІСТЕРІ МЕН ЖОЛДАРЫН ЗЕРТТЕУ ( ОҢТҮСТІК ҚАЗАҚСТАН КОМПОЗИТОРЛАРЫНЫҢ МУЗЫКАЛЫҚ ШЫҒАРМАЛАРЫ НЕГІЗІНДЕ)

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Бекеева Балжан Құдіретқызы

*МС 19-1к топ студенті*

Арипбаева Л.Ш.

*Жетекшісі: п.ғ.к.,доцент*

Бұл біліктілік жұмысында "Музыкалық білім берудегі стильдеу әдістері мен жолдарын зерттеу ( Оңтүстік Қазақстан композиторларының музыкалық шығармалары негізінде)" тақырыбы қарастырылды.

Бірінші тарау заманауи отандық композиторлардың шығармашылығындағын теориялық негізі мен мәселесін теориялық тұрғыдан қарастыруға, стиль ұғымын музыкалық мәдениеттегі құбылыс ретінде қарастыруға арналды. Зерттеу көрсеткендей, қазіргі кезеңдегі музыкалық шығармалардағы стильдеу процестерін зерттеу өзекті және қызықты болып қала береді. Заманауи отандық композиторлардың шығармашылығындағы стильдеу принциптерін қарастыру параграфында композиторлардың классикалық музыкада, музыкалық мәтінде де, оны білдіру құралдарында да стильдеуді қабылдауға деген қызығушылығы ашылды. Отандық композиторлардың шығармашылығындағы стильдеу принциптерін зерттеу музыкалық өнердегі стильдеу мен стильдеу принциптерін ғылыми негіздеуде проблемалар бар екенін көрсетті. Дегенмен, жас ұрпақтың заманауи рухани құндылықтарын байытатын музыка сабақтарында музыкалық шығармалардың принциптерін қолдану.

Екінші тарауда музыкалық білім берудегі заманауи әдістер мен әдістер қарастырылды, жұмыстың практикалық бөлігінде сабақтың моделі ұсынылды, онда Қазақстан композиторларының шығармашылығы мысалында стильдеу мәселесі нақты қарастырылды. Нәтижесінде біз келесі тұжырымдарға келдік:

- Стильді қалыптастыру өңдеу өзгерістерінің динамикасы, сонымен бірге ғасырлар бойғы сәйкестендірудің элементі сақтай отырып, музыкалық шығармалды сәндеу жалғасуда, заманауи композиторлардың шығармалы көркемдік нұсқаларда жаңа стилистикалық модельер қолданылды. Музыкалық өнердегі стильдеу мәселесін біртұтас түсінуге және стиль бірлігі мәселесінде классикалық түсінікті қайта қарастыруға авторлық іздеу қазіргі кезеңде жалғасуда. XX ғасырдың екінші жартысынан бастап отандық композиторлардың шығармашылығындағы стильдеу принциптері жаңа идеялар мен музыкалық қайта құруларды іздеу процестерін көрсетеді.

- Отандық музыкалық оқытуда оқушыларды отандық музыканың музыкалық кеңістігіне қосу үшін жағдай жасайтын көптеген әдістерді қолданудың тұрақты жүйесі қалыптасты, бұл олардың эстетикалық талғамын, музыкалық естуін және т.б. қалыптастырады.

- Музыка сабағында сәндеу принциптерін қолдану оқушының танымын кеңейтеді, оны есту және визуалды қабылдау деңгейінде музыкалық атмосфераға қосады, музыкалық шығармаларды анықтауға көмектеседі, шығармашылық қабілеттерін дамытуға ықпал етеді. Сондықтан мектептегі білім беру жүйесінде стильді модельдеу әдісін тиімді қолдану қажет

## Әдебиеттер:

1. Гилфорд, Дж. Три стороны интеллекта [Текст] / На русском языке опубликована в сборнике переводов «Психология мышления», под редакцией А.М.Матюшкина. – Москва: Прогресс, 1965. – 534 с.
2. Давыдов, В.В. Эльконин Д. Б. Вопросы психологии учебной деятельности младших школьников [Текст] / В. В. Давыдов, Д. Б. Эльконин, Москва: Просвещение, 2008. – 196 с.
3. Ересь, Е. П. Способности и их развитие [Текст] / Е. П. Ересь. – Москва: Знание, 1957.
4. Ильин, Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности [Текст] / раздел 1, гл.1 Е.



П. Ильин. – Санкт-Петербург: Питер, 2011. – 23 с.

5. Концепции Ж.Пиаже, под ред. Реана А. А. 2002 Часть1, Глава 8 / «Психология человека от рождения до смерти» [Электронная библиотека] – Режим доступа: <http://pedlib.ru>, свободный, Яз. русс.

6. Лехова, В. П. Дедуктивные рассуждения в курсе математики начальных классов [Текст] / Начальная школа, [электронная библиотека] – Режим доступа: <https://studwood.ru>, свободный, Яз. русс, № 5, 1988. – 28-31 с.

7. Лук, А. Н. Мышление и творчество [Текст] / А. Н. Лук, Мышление как обработка информации – Москва, Политиздат, 2000. – 144 с.

## ЎҚИТУВЧИНИНГ КОНФЛИКТЛИ ВАЗИЯТЛАРГА НИСБАТАН МАДАНИЯТИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Шамсиддинова Д.Х.

Низомий номидаги ТДПУ иккинчи босқич магистранти

**Аннотация:** таълим жараёнида ўқитувчининг конфликтли вазиятларда ўзини бошқара олиши, конфликтларни бартараф этиши, қутилмаганда содир бўладиган зиддиятларни олдиндан кўра олиши, муносабатларни адолатли ҳал этишини белгилайдиган функциялардан моҳирона унумли фойдаланиш маданияти яхши натижаларга эришишига йўналтирилади.

**Калит сўзлар:** функция, конфликтология, конфликт, педагогик жараён, манфаатлар, зиддиятлар ечими, компромиссга келиш

**Аннотация:** Вступая в противоборство, учителя могут добиться реализации поставленных целей. Но часто трудно предугадать даже не очень отдаленные последствия, которые за этим последуют. При этом последствия могут носить как положительный, так и отрицательный характер для участников конфликта. Для этой цели учитель должен относиться к конфликту культурно, и показать свои положительные эмоции.

**Ключевые слова:** функция, конфликтология, спорные ситуация, педагогический процесс, культурный, выгодные интересы, противоречивые развязки, быть согласованным

**Annotation:** From the point of view of functions, conflict is a rather contradictory phenomenon. By entering into confrontation, teachers can achieve their goals. But it is often difficult to predict even not very distant consequences that will follow. In this case, the consequences can be both positive and negative for the parties to the conflict.

**Keywords:** function, conflict management, controversial situation, pedagogical process, beneficial interests, conflicting outcomes, to be agreed

Ўқитувчи ўқувчилар билан мулоқот жараёнида ҳамиша фаол ютуқлар билан муваффақиятларга эриша олмайди. Турли характерга эга бўлган ўқувчилар қутилмаганда зиддиятли вазиятларни келтириб чиқариши мумкин. Жаҳон илм аҳли тилида конфликт номи билан машҳур бўлган конфликтли вазиятлар ўқитувчидан турли конфликтларга нисбатан ниҳоятда эҳтиёткорона муносабатда бўлишни талаб қилади. Ўқитувчи ҳар қандай вазиятда ҳам ўзининг ниҳоятда маданиятли инсонлигини намоён қилиши керак. Ҳатто конфликтологик вазиятларни ҳам чуқур идрок билан маданиятли ёндашиб ҳал қилиши лозим. Биз қуйида конфликтли вазиятларда ўқитувчининг маданиятини белгиловчи функцияларни баён қиламиз:

1. **Конфликтни инкор этиш функцияси.** Мазкур функция агар конфликтли вазият ўз мазмунига кўра жуда катта эътиборни талаб қилмайдиган масалалар негизида содир бўлган ҳамда унинг кенгайиб кетишига асос бўлмаган ҳолларда қўлланиладиган методлар мажмуаси саналади. Бунда ўқитувчи ўз кучи ва энергиясини янада муҳимроқ масалаларга йўналтиришни танлайди ҳамда конфликтни инкор этиш орқали ечимга олиб келинади. Аммо баъзи вақтларда конфликтни эътиборга олмаслик, янада каттароқ зиддиятли вазиятларни келтириб чиқариши мумкин. Чунки конфликтни инкор этиш ҳар доим ҳам зиддиятни ечимга олиб келишини аниқламайди. Бундай вазиятда ўқитувчи зиддиятли вазиятга ўз таъсирини ўтказишдан маҳрум бўлиб қолади. Ўқитувчи таъсирининг йўқлиги уни педагогик жараёндан чиқариб юборади. Конфликтли вазиятга ўқитувчи таъсирини тўхтатиб қўяди. Конфликт ўқитувчидан ташқарида яшай бошлайди. Натижада конфликтни ечимга олиб келиш вазияти қўлдан бой берилган бўлади. Шунга

кўра, ўқитувчининг саъй-ҳаракатлари ҳар доим конфликт ечимга йўналтирилган бўлиши

даркор.

**2. Конфликтларни бартараф этиш функцияси.** Конфликтни ечимга олиб келишда томонларнинг галабага эришиш функцияси фақат бир томоннинг ютуғини англамайди, балки зиддиятда иштирок этаётган барча томонларнинг бирдай ютуғини англатади. Бироқ баъзи вақтларда кўпчилик ўқитувчилар анъанавий тарзда айнан ўзлари ҳақиқатнинг ютиб чиқишини истаган ҳолда ҳаракат қилишади. Натижада умумий ҳақиқат эмас, балки айнан ўқитувчи ҳақиқати ютиб чиққан бўлади. Аммо мана шундай тарзда эришилган ўқитувчи ҳақиқати томонлар манфаатларига зид бўлиши ҳамда педагогик жараён самарадорлигига путур етказиши мумкин. Бундай қилинганда, педагогик жараёнининг ўқитувчидан ташқари барча иштирокчилари тафаккурида адолатсизлик рўй берганлиги, адолатсизлик ўрин тутганлиги борасидаги фикр келиб чиқади ва мана шу ўқитувчи томонидан амалга оширилган адолатсизлик улар онгида ўрнашиб олади. Педагогик жараён иштирокчилари ўқитувчи “ҳақиқатини” қабул қила олмайди. Улар ўқитувчи ҳақиқати адолатли эканлигини инкор этади. Ўқитувчи эса мана шу адолатсизликни юзага чиқарган инсон сифатида роль ўйнай бошлайди. Табиий равишда талабалар олдида ўқитувчи ҳурмати пасайиб боради ҳамда талаба адолатсизликни ўқитувчи қилиши мумкинлигига ўз кўзи билан иқрор бўлади. Шунга кўра, ўқитувчи конфликтли вазиятларда ўз ҳақиқатини ўрнатиши эмас, балки зиддиятни адолатли ечимга олиб келиши зарур. Конфликтни ечимга олиб келишда эса барча томонларнинг манфаатларини ҳисобга олиши, ўз кучи ва тажрибасини конфликт ечимига қаратиши, томонларга нисбатан эса эътиборли, ҳурматли ва нейтрал позицияда туриши тақозо этилади. Конфликт ечимида ҳар бир томон мазкур ечимдан қониқиб, “Мен ютқазмадим, мен ютдим” деган фикрда қолсагина, ўқитувчи ҳақиқатан ҳам конфликтни адолатли ечимга олиб келган бўлади. Бинобарин, педагогик конфликт ечими ўқитувчи ҳақлигини англамайди, балки ўқитувчининг зиддиятни ечимга олиб келишда барча иштирокчи томонлар манфаатларини уйғун ҳолда назарга олганлиги ва барча томонларни қониқтирган ечим топилганлигини англатади [1]. Шунга кўра, ўқитувчи ўз ҳақиқатини ўрнатишга эмас, балки умумманфаатларини эътиборга олиб, уларни келиштириш ва бир нуқтага олиб келишни таъминлаши тақозо этилади. Шу билан бирга, ўқитувчи зиддиятли вазиятда иштирок этаётган томонларнинг ҳар бирининг манфаатларини назарга олишга ўргатиши зарур бўлган шахс сифатида майдонга чиқади. Агар конфликтли вазиятда томонлар фақат ўз манфаатларини ҳимоя қилиш йўлидан кетишса, мазкур зиддият ҳеч замон ҳамма томонларни бирдай қониқтирган ечимга олиб келмайди. Агар конфликтда ҳар бир томон фақат ўз манфаатларини муҳофаза қилишга ўтса, бу конфликтнинг деструктив ҳолатга ўтганлигини англатади ва уни ечимга олиб келиш қийинлашади. Конфликтнинг деструктив ҳолатида томонлар ўз манфаатларини муҳофаза қилиш истагида бир-бирини қўрқитиш, таҳдид қилиш, ўзини устун қўйиш, ўзгаларни ўз томонига оғдириш, зўғим ўтказиш, бировнинг устидан кулиш, уни таҳқирлаш кабиларни келтириб чиқара бошлайди. Агар бир томон санаб ўтилган деструктив амалларга ўтса, табиий равишда иккинчи томон ҳам уларни қўллай бошлайди. Натижада муносабатлар узоқ муддатга чуқурлашиб кетади. Агар ўқитувчининг ўзи ўз обрўсининг пасайиб кетишидан чўчиб талабага нисбатан мана шундай амалларни бажара бошласа, унинг ҳурмати барчанинг олдида, яъни барча талабалар, ҳамкасблар ва бутун педагогик жамоа олдида ҳам жуда пасайиб кетади. [2.]. Бинобарин, ўқитувчи функцияси ўз ҳурматини бетарафлик асосида мунтазамлигини таъминлаш ва барча томонлар манфаатларига бирдай муносабат билдиришда намоён бўлади. Ўқитувчи учун конфликтли вазият асосида вужудга келган ҳар қандай зиддиятнинг ечимга олиб келиниши ва барча томонларнинг мазкур ечимдан қониқиб, зиддиятни эсдан чиқарганлиги, зиддият уларнинг ҳаётидан чиқиб кетганлиги, уларни бошқа ҳавотирга солмаётганлиги бош ютуқ саналади.

**3. Ўқитувчининг конфликтли вазиятларга маданий ёндашиш маҳорати**

**функцияси.** Педагогик конфликтларнинг ечимига олиб келишда ўқитувчида қуйидаги компромиссга келиш маданияти мавжуд бўлади: томонлар ва уларнинг характерхусусиятлари, улар манфаатларига мослашиши, уларнинг манфаатларини англашга уриниш, баъзи масалаларда бирор томонга ён бериш, мурасага келиш, томонлар манфаатларини конфликтли вазиятдан олдинги ҳолатда сақлаб қолишга уриниш, конфликт ечимида воситачилар ёрдами ва иштирокидан фойдаланиш. Мослашиш ва ён бериш жараёнида бошқа томон манфаатларининг муҳимлиги ва бошқа томон қарашларида икки томон учун фойдали бўлган ўринларнинг мавжудлиги тан олинади. Натижада бошқа томон фикр ва қарашлари қабул қилинади. Аслида бошқа томон қарашлари қабул қилинган бўлса ҳам, мана шу қарашни қабул қилган томон ҳам ютуққа эришади. Чунки мазкур қараш барча томон манфаатларини ҳам инобатга олади ва муваффақият учун хизмат қилади. Ён бериш бошқалар фикр ва қарашларига эътибор, уларнинг таҳлил қилишда очиқлик ва самимийлик, ўзга фикрлар орасидан мақбул ғояларни топа билиш ва уларни ҳамкорликда қабул қилиш, ўзининг нейтрал ва рационал муносабатини кўрсата олиш каби амаллар орқали ўзини намоён этади. Шахслараро мана шундай мақбул келишувга эришиш учун кенг имкониятлар яратиб беради. Бироқ ўзга томон фикр ва қарашларини қабул қилиш, иккинчи томоннинг ютқазishi, ўз манфаатларига зарар етказishi, бировга бўйсунуш, мулзам бўлиш, йўқотиш сифатида баҳоланса, бу ҳолатлар конфликтнинг эскалацияси, яъни янада кучайишига сабаб бўлади. Ўқитувчининг ўзи эса конфликтли вазиятда умуман ўзини устун қўйиш, бошқа томонни таҳқирлаш, ўзгани мулзам қилиш, психологик ва жисмоний зўравонлик ўтказиш, ўз фикрини куч билан сингдириш, ўзгаларга тазйиқ ўтказиш каби амаллардан ҳеч вақт фойдаланмаслиги талаб этилади. Компромисс томонларнинг у ёки бу даражада манфаатлари инобатга олинганлигини тасдиқлаб беради. Ҳар бир томон ўз манфаатларидан энг муҳимлари қабул қилинганлиги, бироқ баъзи бошқа фикрлар инобатга олинмаганлигини англайди ва шу натижага рози бўлади. Томонлар манфаатларидаги қабул қилинган ўринлар аҳамияти қабул қилинмаган жиҳатлардан устунроқ мавқега эга бўлади. Бироқ кўпчилик конфликтли вазиятларда табиий равишда бир томон бошқасига нисбатан кўпроқ компромиссга боради. Агар мана шу томон қарашларида бирор-бир норозилик пайдо бўлса, конфликт бироз вақт тинч ва осуда ўтиб туради, кейинчалик эса янги куч ва энергия билан конфликт қайта пайдо бўлиб, яна томонлар муносабатларига раҳна сола бошлайди.

**4. Ўқитувчининг конфликтли вазиятларда ўқувчилар билан маданий ҳамкорлиги функцияси.** Ҳар қандай конфликтда унда иштирок этаётган томонларнинг мавжуд муаммони ҳамкорликда муҳокама этиш, зиддиятдан чиқиш йўл, усул ва воситаларини таклиф этиш, компромиссларга бориш, конфликтни енгиб ўтишга иштиёққа хоҳишни тарбия қилиш зиддият жараёнида ҳар икки томоннинг ютиб чиқиши ва “ғалаба-ғалаба” шароитининг амал қилишини таъминлайди. Бироқ конкрет вазиятда зиддиятга кирган томонлар ҳар доим бунга тўғри ва мутаносиб англайвермайди. Шунинг учун мана шу вазифани бажаришда ўқитувчининг маданий муносабати жуда аҳамиятли саналади. Бинобарин, ҳар қандай конфликтли вазиятда томонлар ҳамкорлигини ўрнатиш муҳимдир. Ҳамкорлик учун томонларнинг қарашлари, фикрлари ва нуқтаи назарларидаги яқинлик, ўзаро такрорланувчи ва ҳар икки томон учун қадрли бўлган муносабатларнинг мавжудлиги, умумий манфаатлар ва мақсадларнинг юзага келиши, ҳар икки томондан ҳиссий-эмоционал ва ақлий тафаккур фаолиятлари тақозо этилади. Ўқитувчи конфликтологик вазиятларда ўқувчилар, ҳамкасблар, раҳбарият ўртасидаги ҳамкорликка масъул ҳисобланади. Ҳамкорликни ўрната билиш, конфликтни бартараф этиш, ўқитувчининг маданий қобилиятидан дарак беради. Конфликтли вазиятдаги ҳамкорлик биргаликда турли муаммоларни муҳокама этиш ва тегишли қарорлар қабул қилишни англайди.

Мазкур функцияни амалга ошириш учун ўқитувчи ўз маданиятини намоён этиб, конфликтологик вазиятда иштирок этаётган барча томонларнинг манфаатлари ва

эҳтиёжларини инобатга олиши ва ўрганиши, уларни амалий қабул қилиши ва таъминлаш чора-тадбирларини кўриши, уларнинг кадриятлар тизимини ҳурмат қилишга чақиритиши, муҳокамаларда объективликни таъминлаши, муаммоларни шахсдан айри ҳолда кўриши тақозо этилади [3, 44-б.].

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Thomas K.W. Conflict and negotiation // Handbook of industrial and organizational psychology/ Eds. M.D. Dunnette. Palo Alto, CA, 1992. – P. 889-935.
2. Рыбакова М. М. Конфликт и взаимодействия в педагогическом процессе. – М.:Педагогика, 1991. – 168 с.
3. Халиков А.А. Педагогик маҳорат. //Дарслик. – Тошкент, Молия. 2015.- 435 бет.
4. Ahmadov O. БУХОРО АМИРЛИГИДА ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИ. ЮТУҚЛАРИ ВА МУАММОЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
5. Ахмедов О. Ш. ОБРАЗОВАНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ПРАВИТЕЛЕЙ) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.
6. Ahmadov O. БУХОРО BOSMAXONA VA NASHRIYOTLARIGA TEXNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
7. Ahmadov O. XIX аср охири-XX аср биринчи чорагида Бухорода таълим-тарбия тизимининг манбавий асослари ва адабиётлар таснифи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 4. – №. 4.
8. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022
- 16.Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo‘llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. 2023.
10. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROT NOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).
11. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 41-43.
12. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
13. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
14. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
15. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – №. 27.
16. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
17. Jumayev R. Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –№. 23
18. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
19. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
20. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.

# БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Керимбаева Набира Каржаубаевна

Нукус давлат педагогика институтининг докторанти

**Аннотация:** Олий таълим ташкилотларида бўлажак ўқитувчиларнинг назарий ва амалий мустақил таълим олишлари учун улкан имкониятлар мавжуд. Бироқ кўп ҳолатларда ўқув-тарбияжараёнида педагогларда мустақил таълим олиш кўникма ва малакаларини шакллантириш масаласига долзарб педагогик муаммо сифатида қаралмайди. Ушбу мақолада мустақил таълим мазмунини таҳлил этиши ва ишлаб чиқишга замонавий нуқтаи назардан ёндашиш ёритилган.

**Калим сўзлар:** мустақил таълим, тизимлилик, изчиллик, дифференциаллаш, касбий компетентлик, когнитив, педагогик муаммо, индивидуал метод, истеъдод.

**Abstract:** There are great opportunities for theoretical and practical independent education of future teachers in higher education institutions. However, in many cases, the issue of formation of self-learning skills and qualifications of pedagogues in the educational process is not considered as an actual pedagogical problem. This article describes a modern approach to the analysis and development of the content of independent education.

**Key words:** independent education, systematic, consistency, differentiation, professional competence, cognitive, pedagogical problem, individual method, talent.

Ҳозирги кунда бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини мустақил таълим жараёнида ўқитишнинг тизимлилик, изчиллик, дифференциаллаш ва индивидуаллаштириш тамойиллари, ташкилий-тузилмавий, мотивацион, когнитив, фаолиятли, рефлексив компонентлари мазмуни билан босқичма-босқич аниқлаштириш асосида такомиллаштириш янада долзарб муаммо сифатида эътироф этилмоқда. Маълумки, бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш мустақил таълимнинг дидактик векторли инвариатив, вариатив ва манзилли топшириқлар мазмуни субъект-субъект муносабатларида ижтимоий идентификациянинг устуворлигига таянадиган педагогик механизм сифатида шакллантирилади. Бу ўз навбатида, шахсий фикрига эга бўлган ва мустақил қарор қабул қила оладиган, ўзгалар фикрини тинглаб, уни эътиборга олган ҳолда ҳулоса чиқара олувчи шахсни тарбиялаш муҳим аҳамият касб этмоқда. Жамиятда содир бўлаётган бугунги янгиликлар ва иқтисодий ўзгаришлар таълим тизими мазмунини мос равишда лойиҳалаш ҳамда стандартлаштиришни талаб қилмоқда. Узлуксиз таълим тизимининг барча кўламлиларида (босқичларида) ҳам мустақил таълимнинг ўзига хослиги, унинг замонавий таълимдаги ўқитишнинг шакл ва воситалари, усулларидан тубдан фарққилишидадир.

Бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш, уларда билимга булган талабларини янада кучайтириш, мустақил фикр юритиш кўникмаларини шакллантириш орқали салоҳиятли, қўйилган муаммони ҳал қила олиш лаёқатига эга педагогларни тайёрлаш соҳа ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини оширишга ихтисослашган таълим тизими олдида турган муҳим вазифалардан ҳисобланади. Ҳозирги замонавий таълим йўналиши давлат талабларида ўқитувчиларнинг тайёргарлик даражасига қўйилган умумий малака талабларида тайёрланаётган кадрлар ўз соҳасига оид қарорларни мустақил қабул қила олиши, рақобатбардош касбий тайёргарликка эга бўлиши, ўз ижодини илмий асосда ташкил этиши ҳамда мустақил равишда ўз билим, маҳорат, тажриба ва малакасини ошириб бориш каби хусусиятларга эга булиши қайд этилган. Мактаб таълимида бундай қобилиятларга эга бўлган кадрларни тайёрлашда мустақил таълим алоҳида ўрин эгаллайди.

Олий таълим ташкилотларида бўлажак ўқитувчиларнинг назарий ва амалий

мустақил таълим олишлари учун улкан имкониятлар мавжуд. Бироқ кўп ҳолатларда ўқув-тарбия жараёнида талабаларда мустақил таълим олиш кўникма ва малакаларини шакллантириш масаласига долзарб педагогик муаммо сифатида қаралмайди, мустақил таълим мазмунини таҳлил этиш ва ишлаб чиқишга замонавий нуқтаи назардан ёндашилмайди, унинг самарали метод, шакл ҳамда воситаларидан фойдаланишга етарлича эътибор берилмайди. Шунга ўхшаш бошқа масалалар бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда ихтисослашган муассасаларда кадрлар тайёрлашда бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил таълимини ташкил этиш, амалга ошириш, назорат қилиш борасида қатор педагогик муаммолар мавжудлигини кўрсатади.

Мазкур масалаларни илмий-педагогик нуқтаи назардан ўрганиш, таълим жараёнида педагогларнинг мустақил таълим олишга булган эҳтиёжини эътиборга олиш ва мустақил билим эгаллашлари учун етарли шарт-шароит яратиб бериш зарурати, ўқитувчиларнинг мустақил таълим олишларини ташкил этиш, амалга ошириш ва назорат қилиш бўйича касбий-педагогик тайёргарлигининг замон талаблари даражасида эмаслиги, педагогларда мустақил таълим олиш бўйича билим, кўникма ва малакаларининг етарли даражада шаклланмаганлиги, талабалар мустақил таълим олишларини ташкил этиш, амалга ошириш ва назорат қилишга оид ўқув-методик адабиётлар, тавсияномалар, ишланмалар, йўриқномалар, кўрсатмаларнинг етарли эмаслиги натижасида ўқитувчилар малакасини ошириш институтларида кадрларнинг айримларида мустақил ҳолда қарор қабул қилиш ва ўз нуқтаи назарини ҳимоя қила олиш кўникмаларининг тўлиқ шаклланмаганлиги бу масалаларнинг ниҳоятда долзарблигини кўрсатади.

Таълимнинг янги замонавий шакллари ҳамда анъанавий шакллари уйғунлаштирилган ҳолда мавжуд бўлиб, у ўқув фаолиятида касбий фаолиятнинг реал вазиятларини моделлаштириш имконини беради, бунда таълим ва тарбия жараёнлари орасидаги узилиш барҳам топади, замонавий мутахассис моделига мос келадиган касбий компетентлик шаклланиб боради. Инновацион компетентликнинг шаклланишида асосий ўринни педагогларнинг мустақил ишлари эгаллайди. Бунга эса, таълим жараёнида педагогларни муаммоли топширик ва вазифаларни мустақил ҳолда хал қилишга ўргатиш оркали эришиш мумкин. Ушбу умумий мақсаддан келиб чиққан ҳолда, мустақил таълим ўқитувчиларни ҳар қандай шароитда ва ҳолатда ўзларининг ақлий салоҳиятларини тўла ишга солиш, зарур булган билимларни излаб топиш, амалий фаолиятларига тадбиқ этишга одатлантириб боради. Бир сўз билан айтганда, ижтимоий ҳаётда ва ишлаб чиқиш жараёнида тўлақонли, рақобатбардош мутахассис сифатида фаолият юритишга тайёрлайди. Ўқитувчи ўқувчини фаоллаштирадиган, ўзи ва ўрганувчи учун қулай бўлган йўллар, усул ва услублар, ўқитишнинг индивидуал метод ва воситаларни излайди, уларни такомиллаштиради. Ўқув режаси, дастур ва дарсликларда белгиланган ўқув материаллари ўзлаштирилади. Амалий фаолиятда қўллашга, кафолатланган натижаларга эришишга ўргатилади. Бу жараёнда имкон қадар бўлажак ўқитувчининг мустақил фаолият юритишига эътибор қаратиш ижобий натижа беради.

Малака ишидаги мустақил таълимда педагог ўқув дастури ва дарсликларидан ташқаридаги ихтисослигига алоқадор бўлган билимларни излаб топишга, тажриба-синовлар ўтказган ҳолда уларни янада бойитишга эришади. Бу, ўз навбатида, ташаббускор, бунёдкор ва ижодкор кадрларнинг шаклланишига туртки бўлади. Асосийси, мактабда қулай инновацион муҳит яратади. Мустақил таълим педагоглар ўртасида ижобий маънодаги рақобатни келтириб чиқаради. Талабалар бир-бирларидан ўрнатилган ҳолда ўзларининг ақллари, кучларини, вақтларини фойдали фаолият билан шуғулланишга йўналтирадilar. Турли хил танловларга тайёргарлик кўриш, фан олимпиадаларида иштирок этиш ва ғолиб бўлишга интилиш, илмий-ижодий



кўргазмаларда қатнашиш орқали талаба истеъдодининг муайян қирралари очилади.

Мустақил таълим ёшларнинг шахс сифатида камол топишларига ҳам ижобий таъсир кўрсатади. Унда характер хусусиятларининг барқарорлашуви, айниқса, иродавий сифатларнинг мустақамланиши, ўз-ўзини бошқариш каби фазилатларнинг такомиллашиши рўй беради. Улар атроф-муҳитдаги нарса ва ходисаларга бефарқ бўлмаслик, уларни тўғри баҳолай олиш, ўзларининг мустақил фикрларини билдириш ва далиллашга одатланадилар. Алоҳида ижодий муҳит яратиш натижасида педагогик муаммо бўйича маълумот ва тажриба алмашиш содир бўлибгина қолмай, алоҳида бирга ижод қилиш муҳитини яратиш ҳисобига, янги фикрларга беғаразликка эришилади, у кейинчалик инновацион компетентликнинг қўлланишига асос бўлиб хизмат қилади.

Компетентликнинг ўзи бўлажак ўқитувчиларда умумий дунёқарашнинг кенглиги ва маданиятнинг юқорилиги, ўз билимларини амалиётда ривожлантиришга лаёқатлилиқ, ижтимоий ва психологик-педагогик тадқиқотлар методларини билиш, педагогик ва бошқарув кўникмаларининг зарурий мажмуасига эга булишни назарда тутати. Бошқача қилиб айтганда, компетентлик касбий билим ва кўникмаларнинг мавжудлиги, шунингдек, уларни амалий фаолиятда қўллаш ва такомиллаштиришга лаёқатлилиқ билан белгиланса, инновацион компетентлик эса мутахассиснинг шахсий имкониятлари йиғиндиси, унинг ўз билимлари ва тажрибаларини амалий фаолиятда ижодий равишда қўллай олиш қобилиятидир.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Буряк В.К. Самостоятельная работа учащихся. – Москва: Просвещение, 1984. –56 б.
2. Zohidova S. R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini. Takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari. Diss.avtoreferati. Samarqand – 2019.
3. Hamzaev H.X. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Ped.fan.bo'y.fal.dok ... dis. – n.: qdu, 2019
4. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2013.– 128 b.

## ТАЛАБАЛАРНИНГ ИНТЕГРАТИВ КОММУНИКАТИВ ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

С. Ю. Пахратдинов

*мустақил изланувчи*

**Annotation:** Measures are being taken to further improve the education system and its quality. In this context, it is important to focus on improving the quality and efficiency of primary education and the provision of qualified personnel, which is crucial in this field.

**Annotatsiya:** Boshlang'ich ta'lim doirasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ya'ni bolada ijobiy munosabatni shakllantirish, o'qish savodxonligini tarkib toptirish, ularda mantiqiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish, ularni og'zaki va yozma mulohazalar meyorlarini egallashga hamda o'z-o'zini boshqarishda ritorikaning o'rni haqida mulohazalar yuritilgan.

**Аннотация:** В данном статье анализирован специальных исследований позволяющий заключить, как функции риторики в процессе развития личности учёные связывают с решением задач самоопределения личности и развития её самосознания с формированием «сильной языковой личности», существенными сторонами которой являются владение основами построения речи.

Ўқув босқичининг қонуниятлари тингловчилар ва ўқитувчининг онгли равишда ўзаро боғланган фаолияти орқали амалга оширилади. Тренинг элементларининг тузилиши ва функционал муносабатларини кўриб чиқиш ўқитувчилар ва талабалар аудиторияси учун ўқув машғулотининг мақсадини белгилаш, уларни фаол ва онгли равишда билим олишга ва мустақил ўрганиш жараёнида мустақамлашга, келажакдаги

касбий фаолиятнинг турли типик вазиятларида фанлараро соҳалардан фойдаланиш учун мураккаб муаммоларни ҳал қилиш кўникмаларини шакллантиришга ундашдан иборат.

Шу билан бирга, ўқитувчи фанлараро билим соҳасига эга бўлган машғулотларни ўтказишда ўқитиш усуллариининг яхши, ягона услубий базасига, уларни амалга оширишнинг тегишли илмий усулларига эга бўлиши, шунингдек, интеграциялашган синфлар материални ишончли эгаллаши керак.

Талабалар билан интеграциялашган дарсларни ўтказишда ўқув фаолиятини бошқариш босқичига қуйидагилар киради:

- тингловчиларнинг қобилиятларини диагностика қилиш;
- фанлараро билим соҳасини ўрганиш даври учун аниқ интеграллашган дарснинг мақсадларини ва иш тизимини аниқлаш;
- интеграциялашган дарсга киритилган турли ўқув фанлари ўқув материалининг ҳажми ва мазмунини аниқлаш;
- индивидуал талабанинг ҳамда бутун ўқув гуруҳининг ўқув фаолиятини педагогиква психологик таҳдил қилиш;
- интеграциялашган дарслар натижаларини баҳолаш, эришилган даражанинг талабанинг касбий тайёргарлигининг асосий мақсад ва вазифаларига мувофиқлиги;
- қайта алоқа элементидан фойдаланиш ва ўқув фаолиятини тузатиш (агар керак бўлса).

Шундай қилиб, мутахассисни касбий тайёрлашнинг умумий режасида қуйи тизим сифатида ишлайдиган талабаларни интеграциялашган коммуникатив тайёрлаш тизими ўзига хос хусусиятларга эга ва фанлараро алоқадорлик билан машғулотларни ўтказишнинг янги мазмуни, усуллари, шакллари ва воситаларини ишлаб чиқишни талаб қилади.

Гуманитар фанларни ўқитишда риторикадан фойдаланиш асосида талабаларнинг коммуникатив компетенцияларини ривожлантиришнинг педагогик шартларини белгилайди:

- талабаларнинг коммуникатив компетенцияларини ривожлантириш жараёнини амалга ошириш учун гуманитар фанлар ўқитувчиларнинг тайёргарлигини шакллантириш;
- риторика курсини ўрганиш жараёнида талабаларнинг коммуникатив қобилиятларини ривожланиш даражасини диагностикаси ва уларни такомиллаштириш прогнози;
- риториканинг педагогик ва лингвистик воситаларини бошқа фанларнинг ўқув ва илмий материалларига киритиш;
- коммуникатив фаолиятни амалга ошириш учун талабаларнинг ижобий ҳиссий ва шахсий мотивациясини яратиш;
- ўқув жараёнини ҳар бир талаба учун шахсий мазмун билан тўлдирадиган вазифа билан унинг касбий коммуникатив фаолиятга интилишини «қўзғатадиган» фаол таълим усуллари ва шакллари қўлланилган.

Олий таълим ташкилотларида талабаларни касбга тайёрлаш жараёни ва мазмуни интеграциясини кучайтиришнинг назарий шартларини кўриб чиқиш қуйидагилар билан чиқаришга имкон беради:

- интеграциянинг муҳим характеристикалари қуйидагилардан иборат: гетероген, илгари бир-биридан фарқ қиладиган элементларнинг ўзаро таъсирида; фанлараро билимларнинг сифат ва миқдорий ўзгаришларида; ўзининг мантиқий ва мазмуний асосива ўзига хос тузилиши мавжудлигида; ориентация ва нисбий мустақилликнинг педагогик мақсадида;
- касб-ҳунар таълимининг интеграл моҳияти ва мазмунини ҳаётнинг ўзи, мутахассиснинг касбий фаолияти мазмуни ва тузилишини, унинг функция ва вазифаларини ўзгартириш орқали қайта белгилаб беради;
- таркибни интеграциялашув жараёнининг ҳаракатлантирувчи кучи мутахассислар тайёрлашнинг ан'анавий ўрнатилган фан тизими ва фанлараро билимларни синтез қилишни талаб қиладиган янги мураккаб касбий муаммоларни ҳал қилиш зарурати ўртасидаги зиддиятдир.

Мутахассисни ўзига хос педагогик жараён сифатида интеграл коммуникатив тайёрлаш муайян дидактик шароитларда амалга оширилади:

- коммуникатив ва махсус билимларни интеграциялашда тизимни ташкил этувчи омил университет талабаларини тайёрлашнинг умумий якуний мақсадидир; қилишга, касбий кўникма ва малакаларни эгаллашга умумий ёндашувни шакллантириш ҳақида гапиришга имкон беради.

- фанлараро билимларни (турли хил курслар, бўлимлар, билим элементлари) интеграциялашуви асосий касбий тушунчалар, мутахассислик категориялари атрофида ягона услубий позициядан келиб чиқади;

Касбий фаолиятни универсаллаштириш турли соҳаларда мутахассисларни тайёрлаш мақсадларининг маълум бир умумийлиги ҳақида гапиришга имкон беради, бу эса касбий билим ва кўникмаларни бир амалий вазиятдан бошқасига ўтказиш имконини беради. Бу ҳолатлар талабаларда (мутахассислигидан қатъий назар) касбий тайёргарлик мазмунини шакллантиришга, шунингдек, фанларнинг илмий асосларини таҳлил

Талабанинг касбий тайёргарлиги мақсадларини амалга ошириш ушбу жараёни бошқаришга комплекс ёндашувни назарда тутди. Бунда бошқарув субъектнинг объектга уни янги ҳолатга ўтказиш учун мақсадли таъсири сифатида қаралади. Бошқарув тизими бошқариладиган ва бошқарувчи қуйи тизимларни ўз ичига олади. Улар бирликда. Субъектлар ва объектларнинг ўзаро таъсири бевосита ва тескари алоқа муносабатларида намоён бўлади.

Таълимда бошқарув таҳлил, режалаштириш, мувофиқлаштириш, назорат қилиш каби асосий функциялар орқали амалга оширилади. Ушбу функциялар орқали талабаларнинг интеграциялашган касбий йўналтирилган психологик-педагогик тайёргарлигини бошқариш ҳам амалга оширилади, бу бошқарув фаолиятининг барча турларига хос бўлган умумий хусусиятлар билан бир қаторда ўзига хос хусусиятларга эга:

- ўқитувчилар томонидан талабаларнинг касбий йўналтирилган психологик- педагогик фаолияти мақсадларини тушуниш;

- жамиятнинг ҳозирги ҳолатини, замонавий технология фанининг ривожланишини ҳисобга олиш;

- оптимал психологик-педагогик таъсирлар тизимини тартибга солиш.

Бошқарув жараёни талабаларнинг психологик-педагогик тайёргарлиги мақсадларини оптимал тарзда амалга оширишни таъминловчи маъмурий, педагогик тамойилларни ўзида мужассамлаштиради.

Интегратив вазифаларни ишлаб чиқишда вазифани тўғри шакллантиришни ҳисобга олиш керак, шунда у тингловчилар томонидан қабул қилинади ва келажакдаги касбий фаолиятга қўйиладиган талаблар тўплами сифатида тушунилади.

Ҳар қандай фанни ўқитишда кўникмаларнинг учта асосий, ўзаро боғлиқ тури шаклланиши керак:

- фан бўйича билимлардан фойдаланган ҳолда типик мавзуга оид вазифаларниҳал қилиш қобилияти (типик кўникмалар).

- ўқув вазифаси ҳодисалар, атамалар, турли фан соҳалари тушунчалари ўртасидаги объектив, интеграл алоқани акс эттириши керак;

- тарбиявий вазифаларда исботлаш асосида интернинг тушунчаларини шакллантириш, тингловчилар онгида касбий фаолиятдаги ҳодисалар ўртасидаги барқарор алоқани ўрнатиш ва мустаҳкамлаш имкониятларини таъминлаш керак.

Ҳар қандай фанни ўқитишда кўникмаларнинг тўртта асосий, ўзаро боғлиқ жиҳатлари шаклланиши керак:

- фан бўйича билимлардан фойдаланган ҳолда типик предметга оид вазифаларниҳал қилиш қобилияти (типик кўникмалар).

- мавзу бўйича билим материали бўйича мантиқий техникани амалга ошириш қобилияти (мантиқий кўникмалар).

- фан бўйича билимлардан фойдаланган ҳолда ностандарт вазифаларни ҳалқилиш қобилияти (ижодий кўникмалар).

- тарбиявий ишнинг умумий усулларини амалга ошириш қобилияти (машқ

кўникмалари).

Санаб ўтилган кўникмалар ҳар қандай фан бўйича ҳар бир ўқув курсида режалаштирилиши ва шаклланиши керак. Афсуски, ўқитиш амалиётида кўпинча маълум турдаги кўникмаларга устулик берилади: ижодий, мантиқий, типик. Шундай қилиб, кўпинча типик муаммоларни ҳал қилиш қобилиятини шакллантириш машғулотнинг иккинчи даражали натижаси ҳисобланади. Аммо бундай фикр мутлақо этарли эмас, чунки типик муаммоларни ҳал қилиш қобилиятини шакллантириш ҳар доим ҳар қандай машғулотнинг энг муҳим мақсади бўлган ва шундай бўлади. Бусиз на касбий фаолиятга тайёргарлик, на ижодий муаммоларни ҳал қилиш мумкин эмас.

Талаба турли фанларни ўқитишда якуний ва оралиқ малакаларни эгаллайди, бу эса алоҳида фанларни ўқитиш натижаси бўлиши керак бўлган турли даражадаги масалаларни ечиш қобилиятини шакллантиришни таъминлайди. Албатта, маълум бир фанни ўргатиш ўқувчилар томонидан фаннинг турли мавзу ва бўлимлари бўйича ўрганиш натижалари бўлган оралиқ кўникмаларни, яъни бу мавзу ва бўлимларни ўргангандан сўнг талабалар эга бўлиши керак бўлган кўникмаларни эгаллашни назарда тутади. Ушбу кўникмаларни фан бўйича якуний кўникмаларнинг таркибий қисмлари деб аташ мумкин.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637- сонли Қонуни.
2. Рождественский Ю.В. Теория риторики. - М., 1999.
3. Халиков А.А. Педагогик маҳорат . Дарслик – Тошкент, MOLLYA-IQTISOD – 2013. – 446 бет.
4. Юнина Е.А., Сагач Г.М. Общая риторика (современная интерпретация). - Пермь, 1992. - 195 с.

## БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ РОЛИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Татлимуратов Адилбай Татлимуратович

*Бердақ номидаги ҚДУ мустақил изланувчиси*

Жисмоний тарбия фани замонавий ёш авлодни тарбиялашда ҳал қилувчи роллардан бирини ўйнайди. Ўқувчининг ҳар томонлама ривожланишида ажралмас қисми бўлган жисмоний тарбия ўқувчиларни тарбиялашга ўз хиссасини қўшади. Жисмоний тарбия мактаб ўқув дастурида инсон ривожланиши, соғлом турмуш тарзи асослари, восита кўникмаларини ўрганувчи ягона фан ҳисобланади. Жисмоний тарбия мавзуси туфайли ўқувчи психомотор, когнитив ва ҳиссий соҳаларда индивидуал равишда ривожланиши мумкин. Мотор кўникмаларини, соғлом турмуш тарзини, ҳаёт давомида жисмоний тайёргарликни сақлаш зарурлиги ҳақидаги билимларни ривожлантириш ўрта мактабда жисмоний тарбия фанидан дастурнинг умумэйтироф этилган мақсади ҳисобланади.

Ушбу муаммо давлатнинг биринчи шахлари томонидан фаол муҳокама қилинмоқда ва энг юқори даражада ҳал қилиниши керак. 2020 йил сентябрь ойида бўлиб ўтган “умумтаълим муассасалари ўқувчиларининг соғлигини жисмоний тарбия ва спорт воситалари билан сақлаш ва мустаҳкамлаш” республикаларимизнинг жисмоний тарбия ўқитувчилари ишининг натижаси сифатида “Ўзбекистон – спорт кучи” форумининг якуний резолюциясига таклифлар ва манфаатдор давлат тузилмалари ва ташкилотларига қаратилган тавсиялар бўлди. Халқ таълими вазирлигига спорт федерациялари билан биргаликда таълим муассасаларида жисмоний тарбия ўқитишнинг замонавий усуллари ва технологияларидан фойдаланишни таъминлайдиган профессионал дастурларни ишлаб чиқиш тавсия этилди. Жисмоний тарбия ўқитувчилари ушбу фанни ўқитишнинг инновацион дастурлари, усуллари ва технологияларини, шу жумладан Ўзбекистон спорт федерацияси тажрибасини жорий

этиш зарурлигини таъкидладилар.

Мустақилликнинг қисқа даври ичида Ўзбекистонда таълим-тарбия соҳасини модернизациялаш, унга яратувчилик сифатларини киритиш, инновацион ғояларни жорий қилиш борасида улкан ютуқлар қўлга киритилди. Ўзбекистон Республикасида узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш, унинг сифат ва самарадорлигини ошириш давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан биридир. Юқори даражадаги билимга эга, маънавий бой, соғлом, баркамол авлодни тарбиялаш “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва (2022) да кўзда тутилган асосий мақсадлардан биридир.

Жисмоний тарбия фанининг белгиланган мақсадларига қарамай, бугунги ёш авлод кам жисмоний фаоллик, спорт билан шуғулланиш учун мотивация етишмаслиги, соғлом турмуш тарзини тўғри бошқариш тўғрисида етарли маълумотга эга эмаслиги ва натижада кўплаб турли хил касалликлар юзага келиши билан ажралиб туради. Болалар саломатлиги марказининг илмий тадқиқотларига асосланиб, шуни таъкидлаш мумкинки, катта ёшдаги ўсмирларнинг куч қобилияти ҳар ўн йилликда камайиб бормоқда [135]. 15-17 ёшли ўғил болалар учун қўлни сиқиш кучининг қиймати йигирма йил олдинги тенгдошларининг натижаларига нисбатан 10 кг га, қизлар эса 6 кг га камайди. Айниқса, кўпинча мактаб ўқувчиларининг соғлиғидаги бузилишлар критик даврларда қайд этилади: бошланғич мактаб ўқувчиларида - 7, 10 ёшда ва ўспиринларда - 12 ёшдан 17 ёшгача. Бугунги кунда Ўзбекистондаги болаларнинг деярли 60 фоизининг соғлиғида патологиялар кузатилган [5].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак” [10, 104], “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” [11], “Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз [12] каби асарларида мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий ўсишини белгилаб беради.

Ушбу Қарорлар мамлакатимизда ўқувчиларни жисмоний тарбиялаш тизимининг тарихий тажрибаларини қиёсий-таҳлилий ўрганиш, амалий тажрибаларини танқидий мушоҳада қилиш, умумлаштириш асосида жисмоний тарбия ўқитувчиларининг касбий педагогик маҳоратини оширишни тўғри ташкил қилиш, унинг истикбол стратегиясини аниқлаш имкониятини беради. Бунинг учун мақсадли педагогик тадқиқотларни амалга ошириш зарурати пайдо бўлмоқда.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларига жисмоний тарбия мазмунини илмий асосда ўргатиш, унинг ташкилий ва инновацион асосларини модернизациялаш, келажакда ривожланиш тенденцияларини ишлаб чиқиш педагогика фани олдида турган долзарб масалалардан биридир. Бунда касбий педагогик фаолиятнинг мақсади жамият томонидан белгиланиши ҳамда унинг натижаси жамият манфаатлари билан боғликлиги, ёшларни ижтимоий муносабатлар томон йўллаши, ижтимоий тажриба орттириш учун инсондаги табиий имкониятларни рўёбга чиқаришга замин яратади.

Ҳозирги замон жисмоний тарбия ўқитувчиси ўз касбий-педагогик маҳорати асосида узлуксиз равишда таълим-тарбия жараёнини замон талаблари доирасидаташкил этишдан иборат. Жисмоний тарбия ўқитувчисининг педагогик касбий маҳорати муайян вақт давомида мунтазам шаклланиб, такомиллашиб борадиган жараёндир. Жисмоний тарбия ўқитувчиларининг касби-педагогик маҳорати қуйидаги фаолиятда ўз ифодасини топади:

- ижодий фаолият фалсафасини жисмоний тарбия концепциялари билан мунтазам уйғунлаштириб бориш;

- жисмоний тарбияга оид педагогик тадқиқот методларини эгаллаш;

- ўз соҳаси бўйича муаллифлик концепцияларини яратиш қобилияти;

- тажриба-синов ишларини режалаштириш ва амалга ошира олиш;

- узоқ йиллар давомида ўз педагогик маҳоратига эга бўлган тадқиқотчи-педагоглар тажрибаларини қўллаш олиш;

- ҳамкасб педагоглар билан доимий ҳамкорликда фаолият оли бориш;

- ижобий тажрибаларни биргаликда қўллаш, фикр алмашиш ва методик ёрдам кўрсата олиш;

- зиддиятларни олдиндан башорат қила олиш қобилиятига эга бўлиш, олдини олиш ва бартараф этиш;

- янгиликларни жисмоний тарбия дарсларига татбиқ этиш, уларни ўз педагогик маҳоратига мослаштира олиш.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Свищев, И.Д. Интеграция научных знаний в подготовке специалистов по физической культуре и спорту / И.Д. Свищев, С.В. Ерегина // Детский тренер. - 2014- N 2. - С. 6-11.

2. Холодов, Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2000 г.

3. Умумий урта таълим мактаблари учун Жисмоний тарбиядан Давлат таълим стандарти. - Тошкент, 2017, 06 февраль.

### **МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА РИТОРИКА ЎРГАТИШ УЧУН ТАЙЁРЛАШНИНГ ГУМАНИСТИК ЙЎНАЛИШЛАРИ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Шамуратова Хурлиман**

*Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти  
мустақил изланувчиси*

Мактабгача ёшдаги болаларга риторикани ўргатиш бўйича талабаларни келажакда педагогик фаолиятга тайёрлашнинг инсонпарварлик йўналиши, биринчи навбатда, инсон маданиятини фаол ижодий ва амалий ривожлантириш учун шарт- шароит яратиш, маданият олами ҳақидаги ўз тушунчасини, ўзининг ижтимоий-маданий позициясини шакллантириш инсонпарварлик умуминсоний қадриятларни ўзлаштириш билан боғлиқ бўлиши керак. Е.Н.Шиянов педагогик қадриятларни “педагогик фаолиятнинг ўзига хос хусусиятлари бўлиб, улар нафақат ўқитувчининг эҳтиёжларини қондиришга имкон беради, балки унинг инсонпарварлик мақсадларига эришишга қаратилган ижтимоий ва касбий фаолияти учун йўл-йўриқ бўлиб хизмат қилади” деб ҳисоблаган. Улар орасида мулоқотга бўлган эҳтиёжни қондирадиган ва унинг доирасини кенгайтирадиган қадриятлар (болалар, ҳамкасблар билан мулоқот, маънавий қадриятларалмашинуви ва бошқалар) ажралиб туради. Г.Б.Корнетов гуманистик педагогиканинг асосий мақсади “динамик ўзгарувчан ижтимоий-маданий муҳитда ўз-ўзини аниқлаш, ўз- ўзини ривожлантириш ва ўз-ўзини англаш қобилиятига эга бўлган эркин, ижодий шахсни тарбиялашдир” деб таъкидлайди.

Таъкидлаш лозимки, мактабгача ёшдаги болаларга риторикани ўргатиш бўйича бўлажак мактабгача таълим ўқитувчисининг касбий тайёргарлиги жараёни қуйидаги мезонлар асосида олиб борилса, янада самаралироқ бўлади:

- умуминсоний қадриятлар, ахлоқий тушунчалар, анъаналар билан мақсадли равишда бойитиб бориш;

- олий таълим ташкилотларида барча таълим субъектларининг инсонпарварлик, шахсга йўналтирилган муносабатлар асосида тарбиялаш;

- педагогик фаолиятда ўқитувчи ва талаба ўртасидаги ўзаро коммуникатив муносабатларни ташкил этишнинг асосий шакли диалогни янада такомиллаштириб бориш;

- у «ўз-ўзини ...» - ўз-ўзини тарбиялаш, ўз-ўзини баҳолаш, ўз-ўзини таҳлил қилиш, ўз тақдирини ўзи белгилашни амалга оширишга қаратилган.

Бугунги кунга қадар мактабгача таълим ўзгарувчан таълимнинг ўқувчиларга йўналтирилган моделига ўтди. Э.В.Бондаревская, И.Б.Котова, С.В.Кульневич, В.А.Петровский, Е.Н.Шиянов каби олимлар ушбу моделнинг қуйидаги хусусиятларини



ажратиб кўрсатадилар:

- бола ўз субъектив тажрибасининг ўзига хослигини, айнан унинг ўзига қаратилганлигини, индивидуаллигини тан олиши;

- таълимни ўзаро боғлиқ иккита компонентдан иборат эканлигини, ўзаро ажралмас объект сифатида кўриб чиқиш: ўқитиш ва тарбиялаш;

- болалар тажрибасининг икки турининг (индивидуал ва ижтимоий-тарихий) ўзаро таъсири, индивидуал тажрибани ўзгартириш, уни ижтимоий мазмун билан бойитиш;

- ҳамкорлик, шериклик муҳити орқали ҳар бир боланинг субъектив тажрибасини шакллантириш;

- ўқув жараёнида субъектив тажрибани доимий равишда ўзгартириш орқали шахсий ривожланиш.

В.В.Сериковнинг таълимнинг шахсга йўналтирилган концепциясига кўра, таълимнинг асосий мақсади боланинг шахс бўлишга бўлган эҳтиёжидир. Бу эҳтиёжни рўёбга чиқариш учун мотивация, танлаб олиш, акс эттириш, ўз-ўзини англаш каби шахсий хусусиятларни юзага чиқарадиган шарт-шароитларни яратиш керак. Шахсга йўналтирилган таълим моделининг энг муҳим таркибий қисмлари – бу шахснинг шахс сифатидаги кадр-қимматини тан олиш, унинг эркин ривожланиш ҳуқуқи, ахлоқий ва эстетик эҳтиёжларини рўёбга чиқариш, ички позициясини эркин ифодалашдир. Онтогенез жараёнида бу фазилатлар аста-секин боланинг ҳиссий соҳаларининг ривожланиши билан боғлиқ ҳолда шаклланади, мактабгача ёшдаги болаларда ҳиссий ва коммуникатив кўринишларнинг адекватлиги ва хилма-хиллигини шакллантиради, умуминсоний қадриятларни шахсий қадриятларга айлантиради. Шахснинг барча ижтимоий қимматли хусусиятларини ўзида мужассам этган индивидуаллик, унинг имкониятлари ва хусусиятларига мос келадиган ривожланиш ва таълим имкониятларини ижодий излаш жараёнида шаклланади.

Шундай қилиб, гуманистик йўналтирилган дидактик тизим умуминсоний қадриятлар тизимини, таълимнинг янги мазмунини ўзлаштириш орқали бола ва ўқитувчининг ўзини ўзи англашига қаратилган таълим мақсадларини, таълим жараёни, таълимнинг шахсга йўналтирилган усуллари ва шакллари мажмуи, уларни ўқитувчи ва талабалар томонидан танлаш, педагогик ва касбий мулоқотнинг демократик услубини ўз ичига олади. А.В.Петровский ўқув жараёнини инсонпарварлаштиришнинг қуйидаги тамойилларини ўз тадқиқотларида ишлаб чиққан:

- боланинг педагогик жараёнда чинакам инсон ҳақидаги тушунчаларни билиши ва ўзлаштириши;

- боланинг ўзини алоҳида индивид – шахс сифатида ҳис этиши;

- бола манфаатларининг умуминсоний манфаатлар билан мос келиши;

- педагогик жараёнларда боланинг ғайриижтимоий салбий кўринишларни кўзғатиши мумкин бўлган воситалардан фойдаланишга йўл қўйилмаслиги;

- педагогик жараёнда болага унинг индивидуаллигини энг яхши намоён қилиш учун зарур жамоат майдонини тақдим этиш;

- педагогик жараёндаги фаолиятларни инсонпарварлаштириш;

- педагогик жараённинг сифатига қараб, ижтимоий муҳитда пайдо бўлган бола шахсиятининг фазилатларини, унинг таълим ва ривожланишини аниқлаш.

А.В.Петровский таъкидлаганидек, ўқув жараёнида ҳар бир боланинг имкониятини очиб беришга, унда энг юқори даражадаги котнтив эҳтиёжни шакллантиришга имкон берадиган ва ўқитишдан воз кечиш ҳисси ривожланишига йўл қўймайдиган инсонпарварлик позицияларига риоя қилиш жуда муҳимдир.

Ш.А.Амонашвили ўқув жараёнида ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида, болаларнинг ўзлари ўртасида инсонпарварлик муносабатларини ўрнатишни олдиндан белгилаб берадиган шарт-шароитларни яратишни таклиф қилади. Бу, биринчи навбатда, боланинг таълим ва тарбиясини унинг эҳтиёжлари ва қизиқишлари нуқтаи назаридан бошқаришдир. Таълим ва тарбия мазмуни, асосан, уларнинг шахсий манфаатлари ва

эҳтиёжларидан қатий назар белгиланади. Асосий психологик-педагогик вазифа эса болаларнинг ушбу таркибни қабул қилиши, унга қизиқиши, ўқув ва когнитив фаолиятга қизиқишини таъминлашдир. Бундай ёндашув билан Ш.А.Амонашвили, мақсадни белгилаш ва воситаларни танлаш болаларнинг когнитив соҳасининг хусусиятларини максимал даражада ҳисобга олган ҳолда қўрилади деган хулосага келади.

И.Б.Котова, Е.Н.Шиянов таълимда инсонпарварлаштиришни таълим жараёнини ташкил этишда анъанавий, авторитар ёндашувнинг ўрнини босувчи, педагогик назария ва амалиётда қадрият йўналишларининг устувор йўналишларини ўзгартириш сифатида белгилайди: доминант ижтимоий йўналтирилганликдан шахсни ривожлантиришга интилиш ғоясини илгари суради. Гуманистик ёндашув ғояси таълимни шахснинг ўзидан келиб чиқадиган ривожланиш сифатида талқин қилишга асосланган бўлиб, унда ўзини тўлиқ амалга ошириш истаги дастлаб пайдо бўлган.

Л.А.Байкованинг фикрича, таълим жараёнини инсонпарварлаштириш бутун бир қатор талабларни амалга ошириш орқали амалга оширилади. Тадқиқотчи қуйидаги илмий фикрларни таъкидлаб ўтади:

- бола – ким бўлишидан қатъий назар, уни сўзсиз қабул қилиш, унга нисбатан барқарор ижобий муносабат;

- шахсга ҳурмат кўрсатиш ва ҳар бир инсонга нисбатан ўз кадр-қимматини сақлаб қолиш;

- шахснинг бошқалардан ажралиб туриш ҳуқуқини билиш;

- танлаш эркинлиги ҳуқуқини бериш;

- боланинг шахсиятига эмас, балки унинг фаолияти, ҳаракатларига баҳо бериш;

- ҳар бир болани ҳис қилиш (эмпатия), муаммога унинг позициясидан маълум бир боланинг кўзи билан қараш қобилияти;

- боланинг индивидуал - психологик ва шахсий хусусиятларини ҳисобга олиш (асаб тизимининг тури, темпераменти, фикрлаш хусусиятлари, қобилиятлари, қизиқишлари, эҳтиёжлари, мотивлари, йўналиши, ижобий – тушунча, фаолиятнинг шаклланиши).

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Гиндин, С.А. Риторика и проблемы структуры текста [Текст] / С.А. Гиндин // Общая риторика / Ж.Дюбуа [и др.]; пер. с фр. Е.Э. Разлоговой, Б.П. Нарумова. - М.: Прогресс, 2018. - С. 355 - 366.

2. Кохтев, Н.Н. Риторика: учеб. пособие [Текст] / Н.Н. Кохтев. - М.: Просвещение, 1994. - 207 с.

3. Марченко, О.И. Риторика как норма гуманитарной культуры: учеб. пособие для вузов [Текст] / О.И. Марченко. - М.: Наука, 1994. - 191 с.

## TARBIYACHILARDA SUGGESTOPEDIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Asqarova Kamolaxon G'ayratjon qizi

*Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** Bo'lajak o'qituvchi shuni bilishi kerakki, suggestopedik yondashuv nostandart o'qitish usullaridan foydalanishni, xotirani kuchaytirish va materialni o'zlashtirish uchun musiqa, o'yinlar, teatr va boshqa usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** Suggestopedik ko'nikmalar, introspektsiya, ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, taklif terapiyasi.

Hozirgi kunda bo'lajak tarbiyachilar ma'naviyatini yuksaltirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularda vatanparvarlik, yuksak ma'naviyat g'oyalari, yangi islohotlarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Suggestopedik ko'nikmalar-bu suggestopediya g'oyalariga asoslangan tarbiyachi va bolaning ta'limiy faoliyat jarayonida o'zaro ta'sir qilish usullari. Tarbiyalanuvchilarda taklif terapiyasi ko'nikmalarini

shakllantirish uchun siz quyidagi metodologiyani taklif qilishingiz mumkin:

1. Suggestopediyaning asosiy tamoyillarini o'rganish suggestopedik ko'nikmalarni shakllantirishning muhim bosqichidir. Bola shuni bilishi kerakki, suggestopedik yondashuv nostandart o'qitish usullaridan foydalanishni, xotirani kuchaytirish va materialni o'zlashtirish uchun musiqa, o'yinlar, teatr va boshqa usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

2. Treninglar va mahorat darslarini o'tkazish-bo'lajak o'qituvchi taklif terapiyasi usullarini amalda qo'llashi kerak. Buning uchun siz treninglar va mahorat darslarini o'tkazishingiz kerak, unda ishtirokchilar nostandart o'qitish usullari bilan ishlash tajribasiga ega bo'ladi.

3. Qo'shimcha adabiyotlar va materiallar bilan ishlash - suggestopedik ko'nikmalarni shakllantirish uchun tarbiyachilarga suggestopedik yondashuvni va uning amalda qo'llanilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan adabiyot va materiallarni o'rganish kerak.

4. Ta'limiy faoliyatda birgalikda rejalashtirish va o'tkazish - amaliy tajriba taklif terapiyasi ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, bo'lajaktarbiyachining oldingi bosqichlarni qanchalik yaxshi o'zlashtirganligini baholash uchun birgalikda rejalashtirish va ta'limiy faoliyatda o'tkazishni tashkil etish taklif etiladi.

5. Introspektsiya va fikr-mulohazalarni tashkil qilish-har bir darsdan so'ng tarbiyachi xavf va imkoniyatlarni hisobga olgan holda o'tgan ta'limiy faoliyatni tahlil qilishi kerak. Shuningdek, bolalarni fikrlarini tinglash va ish usullarini takomillashtirish uchun fikr-mulohazalar o'tkazilishi mumkin.

Shunday qilib, suggestopedik ko'nikmalarni shakllantirish birgalikda harakat va bilimlarni talab qiladigan jarayondir. Nafaqat nazariyani bilish, balki amaliy faoliyatda nostandart o'qitish usullari bilan ishlash tajribasiga ega bo'lish ham muhimdir. Yuqorida aytib o'tilgan barcha usullar va g'oyalarni hisobga olgan holda, o'qituvchilar kelajakda talabalarni rivojlantirish va o'qitish uchun samarali muhit va sharoitlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

"Ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish: muammolar va istiqbollar"

Zamonaviy jamiyat odamlardan nafaqat ma'lum faktlar va formulalarni bilishni, balki moslashuvchan fikrlash, ijodiy va innovatsion bo'lish qobiliyatini ham talab qiladi. Ta'lim sohasida ushbu ko'nikmalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, shuning uchun ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy maktabda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri bu ijodiy ish uchun vaqt etishmasligi. Maktab dasturlari ko'pincha tajriba va mustaqil ijodiy jarayon uchun imkoniyatlardan mahrum. Dasturlar bolalarga ijodkorlikni namoyon etishda erkinlik qoldirmasdan, tor doiraga mos keladi. Bundan tashqari, bolalarga har doim ham ta'limiy faoliyat jarayonini ijodiy tarzda olib borish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega emaslar.

Professor-o'qituvchining asosiy quroli muloqotdir. Uning bo'lajak tarbiyachilar bilan og'zaki o'zaro ta'sirining tuzilishini tahlil qilishga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zaro ta'sirning taxminan 2/3 qismi professor-o'qituvchi nutqiga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, suggestopediya professor-o'qituvchi va bo'lajak tarbiyachilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning deyarli har bir daqiqasida nomoyon bo'ladi. Suggestopedik mexanizmidagi biron bir elementlar mos kelmasa, suggestopediya qiluvchining so'zlari yoki iboralari suggestopediya qiluvchining ishonchsizlik holatini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, kontrsuggestopediya ma'lum bir ijobiy, tarbiyaviy salohiyatga ega.

**SUGGESTOPEDIYA SHAKLLANTIRISH MAHORATLARI**

**"Qush, hayvon, gul, daraxt, meva, sabzavot" o'yini**

**Maqsad:** Jonivorlar, parrandalar, gullar, sabzovotlarning nomlarini topib aytishga o'rgatish.



### **Borishi:**

Tarbiyachi bolalarga ko'ptokni otadi, "Qush" desa, bola—"Bedana" deb javob beradi. Tarbiyachi "Hayvon" desa, bola "bo'ri", "Gul" desa, bola "Atirgul" deb javob beradi, "Daraxt" desa, bola "Chinor" deb javob beradi, "Meva" desa, bola "Olma" deb javob beradi, "Sabzovot" desa, bola "Sabzi" deb javob beradi. O'yinda barcha bolalar faol ishtirok etadilar.

Bolalarning eng qiziqarli va sevimli faoliyatlaridan biri bu o'yinchoqlarni ko'rib chiqish va tasvirlashdir. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishning ma'nosi juda keng. U tarbiyalanuvchilarda birgalikda hikoya qilish malakalarini rivojlantiradi, axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi, diqqat, xotira va irodani mashq qildiradi. Hayotda hosil bo'lgan idroklarini, tajribalarni mustahkamlaydi; kam gapiradigan bolalarning nutqiy muloqotga kirishib ketishiga ta'sir etadi, ularning hayotlarini quvnoq va sermazmun qiladi; bog'langan nutqning rivojlanishiga yordam beradi, lug'atini faollashtiradi. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzish maktabgacha ta'limning kichik guruhlaridan boshlab savod o'rgatish davri jarayonigacha davom etadi. O'yinchoqlar bo'yicha faoliyatni tashkil etishda o'yinchoqlarni tanlashga jiddiy e'tibor berish kerak. Kichik guruh bolalariga tasvirlash ushuni taklif etiladigan o'yinchoqlar o'zining ba'zi bir xususiyatlariga ega: o'yinchoqlar nomi bo'yicha bir xil bo'lishi mumkin, biroq tashqi ko'rinishi jihatidan bir-biridan farq qilishi kerak (katta va kichkina ayikontrsuggestopediyahalar; sochi mayda o'rilgan, do'ppi kiygan va sochiga lenta taqilgan qo'g'irchoq; qish va yasli piramidalar, kubiklar va hokazolar). O'yinchoqlarni bu tartibda tanlash bolalarning lug'atini faollashtirishga va taqqoslash ustidan foydalanish asosida bog'lanishli nutqini rivohantirishga yordam beradi.



Bolalarga mavzu sifatida o'zlariga tanish bo'lgan, yaqinda bo'lib o'tgan aniq-ravshan voqealar taklif etiladi: "Bizning bayram", "Biz onamizga qanday sovg'a tayyorladik?", "Biz anhorga qahday bordik?". Yaqin atrofdagi kishilar mehnati bilan bog'liq bo'lgan mavzularni ham taklif etish mumkin: "Oshxohada kim ishlaydi?". Shuningdek, ota-onalarning mehnatlari bilan bog'liq bo'lgan mavzularda ("Mening otam vaonam qaerda ishlaydilar?") hikoyalar tuzdirish mumkin. Yuqoridagi mavzularda faoliyato'tkazishdan avval tarbiyachi bolalarni oshxonaga

olib boradi, farrosh mehnati bilan tahishtiradi, ota-onalarga bolalariga o'z kasblari haqida (Qayerda kim bo'lib ishlaydi? bu kasb nimasi bilan muhim?) gapirib berishlarini aytadi. Sayrlar, tarbiyalanuvchilarning mehnat, tabiat to'g'risida kichik hikoyalar tuzishlari ushuni asos bo'lib hisoblanadi. Avval bolalar buyum va narsalar yoki tabiatdagi mehhat hamda turli hodisalar haqida voqeaviy hikoyalar tuzishga o'rgatiladi. ("Biz qanday qilib kuchukchani boqdik?", "Biz tomorqada qanday ishladik?") Tarbiyachi hikoya ushuni mavzu tanlar ekan, u bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yaqin bo'lgan tabiat manzaralari bilan tanishtiradi, sayr yoki sayohatning maqsadini va mazmunini va belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarni hikoya tuzishga tayyorlash ishlari sayohat, kuzatishlar vaqtida olib boriladi. Tarbiyachi sayrda, sayohatda ko'rgan kuzatganlari bo'yicha bolalarga savollar beradi.



Faoliyat oxirida tarbiyachi: "Bog'imiz haqida nima deyish mumkin, u qanday?" degan savol beradi va hajmi uncha katta bo'lmagan hikoyaning nammasini beradi. Tarbiyachi bolalarning taassurotlarini mustahkamlash maqsadida ta'limiy o'yin o'tkazadi. Rasmni ko'rishni taklif etadi yoki she'r aytib beradi. Taklif etilgan mavzuda hikoya qilishga o'rgatishni jamoa bo'lib hikoya tuzishdan boshlash ma'qul.

Tarbiyachi hikoyani boshlaydi, tarbiyalanuvchilar esa uchun katta bo'lmagan tasvirlashlar bilan hikoya qilib beradilar. Tarbiyachi hikoyani yozib borishi va faoliyatning oxirida o'qib bersa

maqsadga muvofiq boladi. O'z tajribalaridan (xotiradan) hikoya tuzishning muhim metodik usullardan biri - bu bolalar diqqatli qandaydir, qaysidir voqeani eslash hamda uni o'z hikoyasi yuzasidan o'tkazadigan suhbatida esga tushirishni aytadi, hikoyaning asosiy qismlarini belgilaydi (nimani avval hikoya qilamiz, keyinchi, qanday (nima bilan) yakunlaymiz).

Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari asta-sekinlik bilan rasmda tasvirlangan tabiat manzaralarini (peyzajni) tasvirlash bilan o'z hikoyalarini to'ldirib boradilar. Masalan, "Qishki o'yinlar" rasmi yuzasidan tarbiyalanuvchi shunday hikoya qilishi mumkin: "Bu rasmda qish tasvirlangan. Kun iliq va quyoshli. Osmon ko'm-ko'k".

Rasm bo'yicha hikoya qilishga bunday tasvirlashni kiritish tarbiyalanuvchilarni naturmort va manzarali(peyzajli) rasmlar bo'yicha hikoya tuzishga tayyorlaydi. Hikoyaning bu turi maktabga tayyorlov guruhida tashkil etiladi. Tarbiyalanuvchilarni manzarali va naturmort rasmlar bo'yicha hikoya qilishga o'rgatishning qiziqarli va samarali uslubiyotini N. M. Zubareva ishlab chiqqan. Jumladan, ushbu uslubiyotni u quyidagicha yoritadi: " Tarbiyachi manzarali rasmni idrok qilishga sekin-astalik bilan, ularning emotsional kayfiyatlariga tayangan holda, tabiatni kuzatish bilan bog'lab o'rgatib boriladi. Manzarali rasmni idrok qilishni tevarak-atrofdagi tabiatning chiroyini va rang-barangligini kuzatish bilan (quyoshning chiqishi va botishi, ob-havo, momaqaldiraq, oqshom, (bulutli, ochiq, izg'irin shamol va boshqalar) bog'lab olib borish kerak. Manzarali rasmni ko'rib chiqishda ushbu savollardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi: Rassom bizga bu o'rmon haqida (ushbu maysazor, daraxt, o'tloq haqida) nimalarni hikoya qilib bermokontsuggestedepiyahi bo'lgan? Nima ushun rassom o'zining rasmini shunday nomlagan? Rassomga nima chiroyliroq va qiziqroq ko'rinadi? Tarbiyachining "nima to'g'risida ..." "nima haqida ... ",degan savollari rasmning tavsifini aniqlashga, tabiat manzarasi to'g'risida aniq tavsif berishga yordam beradi. U yoki bu rasmning badiiy g'oyasini yaxshi tushunish va ahiqlash ushun musiqadan, poetik (she'riy) asarlardan foydalanish ma'qul. Bu tarbiyalanuvchilarda, bir tomondan, barqaror diqqatning vujudga kelishiga yordam bersa, ikkinchi tomohdan, ularning kayfiyatini ko'taradi, tasvirlash uchun o'xshatishlar, epitelar, taqqoslashlar va kinoyalarni tanlashga yordam beradi".

Masalan, Zafar Diyorning "Qor", Safo Ochilning "Ko'klam qo'shig'i", Shukur Sa'dullaning "Bahor keldi" she'rlaridan, tabiat to'g'risidagi o'zbek xalq laparlari va qo'shiqlaridan foydalanish mumkin.

Rasmning g'oyasini tushunishga yordam berishda manabu metodik usul yordam berishi ham mumkin: tarbiyachi bolalardan qor bilan o'ynayotganlarida, uyda onalari bo'lmaganda, shifokor emlash uchun kelganda va hokazo vaziyatlarda kayfiyatlari qanday bo'lishini so'raydi. Tarbiyachining namuna-hikoyasi yoki adabiy asarni o'qib berishi katta ahamiyatga ega. Masalan, V.Baksheyevning "Yashil bahor", O.Tansiqboyevning "Kuz" rasmini ko'zdan kechirishda faoliyatni Quدرات Hikmatning "Bu qaysi fasl?"asari, O'tkir Hoshimovning "Tomchi haqida ertak" hikoyasidan parcha o'qib berish bilan yakunlash mumkin.

Savod o'rgatishga tayyorlov guruhida naturmortlarni ko'rib chiqish va tasvirlash faoliyati tashkil etiladi. Tarbiyachi doskaga uncha murakkab bo'lmagan rasmlar (naturmortni) yoki rasmda tasvirlangan idishlardan, gullardan, mevalardan stol ustida, xuddi rasmda tasvirlangandek, "naturmort" yasaydi. So'ngra tarbiyalanuvchilarning o'zlari narsa- buyumlardan "naturmort" yasaydilar va bir vaqtning o'zida "naturmortni" tasvirlaydilar: bo'yoqlarning mosligini, rangini, narsalarning shaklini aytib tasvirlaydilar, keyin esa rasmdagi "naturmort" bilan solishtiradilar. "Stoldagi naturmort"ni ko'rib chiqish bolalarga narsa- buyumlarning turli sifat belgilarini va xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi, ularning estetik sifatleri to'g'risidagi tasavvurlari doirasini kengaytirishga ta'sir etadi. Bola sekin-astalik bilan mustaqil ravishda naturmortlarni tasvirlashga o'tadi. Ushbu naturmort rasmlardan foydalanishi mumkin: D. Nalbahdyan "Gullar", I. Levitan "Siren", A.Laktinov "Fevral", I. Mashkov "Taruuz bilan naturmort", R. Kanchalov "Deraza oldidagi siren", A. Fatxuuin "Nishona". Shuningdek, tarbiyachi faoliyatda fotoetud reproduksiyalaridan ham foydalanishi mumkin. Y. Ryumkinning "Olmalar", Y.Ignatovichning "Momaqaldiraq" va "Moychechak" rasmlarini ko'zdan kechirish yaxshi natijalar beradi. Savod o'rgatish davrida bolalarni o'yinchoqlarga qarab hikoya qilishga o'rgatish mumkin.



### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya.
2. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. - Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 34 bet.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni., - T.:O'zbekiston. 2020.
4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nash 2022
- 5.

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ С ОБЩИМ НЕДОРАЗВИТИЕМ РЕЧИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Туркменова Алфия Рустамовна

преподаватель кафедры «Логопедия» Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

**Аннотация:** В статье представлены основные предпосылки развития ручной деятельности детей с общим недоразвитием речи. Данная проблема является хорошо изученной, но в связи с тем, что количество детей с общим недоразвитием речи растет, важным становится более глубокое изучение аспектов данной проблемы. В статье представлены компоненты ручной деятельности и значимость его развития.

**Ключевые слова:** Рече-ручная деятельность, деятельность, компоненты ручной деятельности, мелкая моторика, рука, движение пальцев рук.

**Abstract:** The article presents the main prerequisites for the development of manual activity in children with general underdevelopment of speech. This problem is well studied, but due to the fact that the number of children with general underdevelopment of speech is growing, it becomes important to study the aspects of this problem more deeply. The article presents the components of manual activity and the significance of its development.

**Key words:** Speech-manual activity, activity, components of manual activity, fine motor skills, hand, finger movement.

Речевая деятельность – это деятельность, имеющая социальный характер, в ходе которой высказывание формируется и используется для достижения определенной цели (общения, сообщения, воздействия). Психолог Л. С. Выготский характеризовал речевую деятельность как процесс материализации мысли, т. е. превращения ее в слово.

Рече-ручная деятельность – это развитие речи детей через разнообразные виды ручного творчества: декоративно-прикладного творчества, пальчиковую гимнастику, словесные игры. Всякая деятельность имеет определенную структуру. В ней обычно выделяют действия и операции как основные составляющие деятельности.

В теоретической концепции речевой деятельности Н.И. Жинкина и И.А. Зимней речь как процесс порождения и восприятия речевых высказываний рассматривается одновременно и как совокупность способов осуществления речевой деятельности.

Проблема развития связной речи у детей с ОНР нашла свое отражение в работах В. П. Глухова, Т. Б. Филичевой, Л. Н. Ефименковой, Т. А. Ткаченко, Н. С. Жуковой и др. Мотивация речевой деятельности и механизмы ее становления у детей дошкольного возраста изучались в трудах В.Г.Асеева, Л.И.Божович, В.К.Вилюнас, Е.Г.Ильина, А.Н.Леонтьева, М.И.Лисиной, И.А.Зимней и др. Бесспорным является положение о том, что мотивация речи определяет качественные особенности речевых высказываний, обеспечивает успешность речевой деятельности и достижение высокого уровня ее развития.

Известный исследователь детской речи М.М. Кольцова отмечает: «Движения пальцев рук исторически, в ходе развития человечества оказались тесно связанными с речевой функцией». Именно руки дали возможность развивать путём жестов тот



первичный язык, с помощью которого проходило общение первобытных людей. Развитие функции руки и речи шло параллельно. Примерно таков же ход развитие речи ребёнка. Сначала развиваются тонкие движения пальцев рук, затем появляются артикуляция слогов. Все последующие совершенствование речевых реакций стоит в прямой зависимости от степени тренировки движений пальцев рук. Таким образом, «есть основания рассматривать кисть руки, как орган речи -такой же, как артикуляционный аппарат. С этой точки зрения проекция руки, есть ещё одна речевая зона мозга».

«Рука - это вышедший наружу мозг человека» (И.Кант). Движение пальцев и кистей рук имеют особое развивающее воздействие. Доказано, что одним из показателей нормального физического и нервно - психического развития ребёнка является развитие его руки, ручных умений или, как принято говорить, мелкой моторики. Мелкая моторикарук связана с развитием левой височной и левой лобной областей головного мозга, которые отвечают за формирование функций. По умелости детской руки специалисты наоснове современных исследований делают вывод об особенностях развития центральной нервной системы и её мозг. Сенсомоторное развитие в дошкольном возрасте составляет фундамент умственного развития, а умственные способности начинают формироваться рано и не сами собой, а в тесной связи с расширением деятельности, в том числе и в общей двигательной, и ручной.

В процессе ручной деятельности, манипуляций с материалами идёт естественный массаж биологически активных точек расположенных на ладонях и пальцах рук, что положительно сказывается на общем самочувствии ребёнка. Формируется общая умелость рук, в том числе и мелкая моторика - движения рук совершенствуются под контролем зрения и кинестетических ощущений, поэтому приобретаемые навыки оказывают колоссальное влияние на развитие физических и психических процессов и на всё развитие ребёнка в целом. Кроме того, решается большая часть мыслительных задач - рука действует, а мозг фиксирует ощущения, соединяя их со зрительными, слуховыми, тактильными восприятиями в сложные, интегрированные образы и представления.

На занятиях по ручному труду детей можно познакомить с новыми словами, учить понимать, различать и понимать слова, обозначающие внешние признаки предметов, признаки действий. Разнообразный наглядный материал помогает уточнить понимание названий предметов, действий, признаков. Ребёнок приучается вслушиваться в короткую фразу взрослого, понимать смысл постепенно усложняемых высказываний, новых слов и уточняет их лексические, грамматические и фонетические оттенки.

В продуктивной трудовой деятельности значительно быстрее происходит развитие восприятия и речи у детей с общим недоразвитием речи, так как речь приобретает действительно практическую направленность и имеет большое значение для выполнения предложенной деятельности. Различные виды продуктивной деятельности благоприятны для развития речи и тем, что при осуществлении легко можно создавать проблемные ситуации, способствующие появлению речевой активности. Проблемные ситуации формируют коммуникативную направленность речи.

Ручная деятельность имеет большое познавательное, воспитательное и коррекционное значение благодаря своей наглядности. Дети быстрее и полнее усваивают речевой материал, так как на занятиях по ручному труду в качестве наглядной опоры часто используются натуральные объекты. Определённый набор фраз, слов, произносимых взрослыми во всевозможных речевых комбинациях, делает слово мобильным, подвижным. Его структурный облик уточняется. Слово прочно входит сначала в пассивный, а затем в активный словарь ребёнка во всём многообразии его форм. Особенно высокие показатели наблюдаются при каждодневном использовании всего

наглядного материала, всех демонстрируемых действий, предметов, их признаков и закреплении значений.

Дети лучше усваивают речевой материал, когда постепенно, в течение всего периода работы, находятся в условиях самостоятельного, усиленного выполнения поручений воспитателя, как до знаний, так и после них. Дети как бы играют с материалом, производя с ним различные действия.

Продуктивная трудовая деятельность благоприятна для развития речи, прежде всего тем, что ребёнок сам непосредственно действует с предметом. Огромное влияние этого фактора для развития речи ребёнка отмечено М.М. Кольцовой. В описанных ею опытах дети дошкольного возраста почти в два раза быстрее начали реагировать на слово, обозначающее предмет, если имели возможность этим предметом манипулировать.

В продуктивной деятельности создаются условия для осуществления тесной связи слова с действием, с признаками действия. Обеспечить связь слова с предметом значительно легче, чем связать слова с действием: можно показать сам предмет, игрушку или муляж, наконец, можно использовать картинку. Значительно труднее показать через картинку связь слова с движением или состоянием предмета. В трудовой деятельности это происходит естественно, поскольку ребёнок сам выполняет разнообразные действия. Именно на этих занятиях дети хорошо усваивают последовательность действий и причинно - следственные связи различных действий и явлений.

На занятиях следует так же привлекать образные сравнения, стихотворные тексты, которые помогают создать характеристику предмета, развивают у детей образное восприятие, обогащают речь выразительными средствами.

Собранные сухие ветки, корни, шишки, сучки имеют причудливую форму. Предлагается внимательно посмотреть, на что похоже? Что напоминает? Это побуждает детей к фантазии, сравнению со сказочными героями, из какого материала, что можно сделать (человечков, ослика, птичку и т.д.) Рассматривая семена крылатки клёна, предложить детям подумать на что похожи, (крылышки у кузнечика, уши у зайца). Из собранных семян на прогулке сделать «собрать» поделку. При изготовлении поделок из природного материала по образцу (картинке, схеме) придерживаться определённой последовательности: 1.Рассмотрение и анализ образца; 2.Определение природного материала, последовательности изготовления; 4.Подбор способа соединения частей (на пластилин, при помощи проволоки т.д.); 5.Подбор инструментов (шило, ножницы, и т.д.); 6.Изготовление игрушек;

7.Анализ и оценка выполненной работы.

Обучение ручному труду невозможно без формирования таких мыслительных операций, как анализ, синтез, сравнение, обобщение. При обучающем воздействии взрослого у ребёнка формируется ручная умелость, которая позволяет в процессе ручного труда создавать поделку, близкую к реальному объекту.

Первый компонент ручной деятельности включает способы использования орудий и материалов (ножницы, клей, пр.).

Второй складывается на основе установления связи предмета с тем изобразительным движением, которое следует воспроизвести для передачи его формы.

Третий компонент формируется на основе действия восприятия, когда движения управляются зрительным контролем, представлением об особенностях того предмета, который должен сделать ребёнок.

Задачей педагога в работе с детьми по данному направлению, является развитие мелкой моторики, способствующей коррекции речи; совершенствование навыков ручного труда; развитие умения видеть прекрасное и желание создавать красивое своими руками.

## Список литературы

1. Баева В. Воспитатель в группе детей с ОНР // Дошк. воспитание. – 2007. - № 7. – С. 75-77
- Бондаренко Л. Н. Применение игровой обучающей ситуации при формировании словаря у детей 5-6 лет с общим недоразвитием речи // Логопед. - 2008. - № 1. - С. 33-40.
2. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. – Санкт-Петербург: Союз, 1999. – 215 с.
3. Зимовнова М. Н. Работа с детьми с ОНР: Взаимодействие логопед. и психокоррекц аспектов // Дет. сад. Управление. – 2006. - № 19. – С. 10-11.

## ABDURAUFI FITRATNING EPOS – XALQ DOSTONLARIGA OID ILMIY YONDASHUVI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Ulug'murod Amonov

*BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning xalq og'zaki ijodining yirik janri bo'lmish doston haqidagi nazariy qarashlari yoritilgan. Dostonning kelib chiqish ildizlari, tasnifi haqidagi mulohazalari o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, doston, "Alpomish", ertak, hikoya, baxshi, "qahramonlik dostonlari", "klassik dostonlar", "taqlidiy-klassik dostonlar", "yangi zamon dostonlari".

Abdurauf Fitrat o'z davrida o'zbek folklorini yaxlit tizim sifatida qarab, unga xos janrlarning tabiati xususida 1926-yilda adabiyot sohasi mutaxassislarini tayyorlab yetishtirish uchun yaratilgan "Adabiyot qoidalari (adabiyot muallimlari va adabiyot havasliolari uchun qo'llanma)" sida ayrim nazariy qarashlarini bayon etdi. Jumladan, u xalq dostonlari haqida ham o'z qarashlarini bildirdi. Uning fikricha: "Doston – bu, asosan, ertakdir. Biroq o'zining qahramonlarining bo'lushi, uzun ham kengligi, sof tizim yoki tizim-sochim aralashligi, baxshilar tomonidan cholg'i bilan aytilishi bilan ertaklardan ayriladi".

Ko'rinyaptiki, Fitrat doston va ertaklarning tabiatan yaqinligini, ya'ni ularning har ikkalasi ham epik ijod turi ekanligini anglagan. Ayni paytda ularning o'ziga xos xususiyatlari asosida bir-biridan farqlanuvchi ikkita janr ekanligini ham unutmagani.

Abdurauf Fitrat o'z kuzatishlari asosida dostonlarning ertaklarga qaraganda epik ko'lamdorligini, hajmi katta bo'lishini, asosan, baxshilar tomonidan soz vositasida ijro etilishini ilg'agan. Yana uning she'riy va nasriy qismlardan tuzilishini bilgan. Shular asosida u doston va ertak janrlarini farqlashga da'vat etgan.

Fitrat doston janriga misol tariqasida o'zbek xalq qahramonlik eposi "Alpomish" dan parchalar keltiradi. Olim ushbu doston qahramonlari va uning yetakchi sujet voqealari haqida ma'lumot beradi. Dostonning qaysi o'rnida nasrdan, qaysi o'rnida nazmdan foydalanilganligini o'z ilmiy kuzatishlari asosida quyidagicha bayon etadi: "Dostonda qahramonlarning o'zaro so'zlari tizim bilan boradi. Baxshi bularning qayoqqa borg'anlarini, nimalar qilg'anlarini sochim bilan aytadi. Sochimplari yengil, ochiq, qulay onglashilardir. So'zning tabiiy borishini buzmasdan, ora-sira saj'lar yasaydi. Ba'zi joylarda sochimlar yarim tizim shaklini oladi".

Abdurauf Fitrat "Alpomish" dostonidagi she'riy parchalarning vazni, qofiya tizimini ham e'tiborsiz qoldirmagan. Muhimi shundaki, Fitrat faqat "Alpomish" dostoni emas, balki butun o'zbek xalq dostonchiligining betakror namunalari, ularga xos xususiyatlar borasida ham to'xtalishga uringan. Jumladan, u bu haqda shunday yozgan: "Bundan burun ham yozishga o'tkarilgan el dostonlari bizda ko'bdir: «Sanavbar», «Tohir-Zuhra», «Bahrom-Gulandom». Xivalik Nurmuhammad Andalibning «Yusuf-Zulayho» hikoyasi shu yo'sinda yozilgan, hatto bosilgan el dostonlarimizdandir. (Bularning hammasi sariq qog'ozda, yomon yanglish, o'qulmas yoziy (yozuv) birla toshbosmada bosilgan, tekshirishka yaramaydi. Ilmiy markazimiz himmat

qilsa-da, shularning hammasini yig'ib, tuzatib, bostirilsa).

Ko'rinyaptiki, Fitrat o'zbek xalq dostonlarini tezroq yozib olib, xalq mulkiga aylantirish yo'lida alohida jonkuyarlik va jonbozlik ko'rsatib, bunga hammani jalb qilishni o'z insoniy burchi deb anglagan ma'rifatparvar shaxslardan biri bo'lgan. Olim bu dostonlarning eng muhimi «Ahmadbek», «Yusufbek» dostonlari ekanligini alohida qayd qila turib, "shu dostonlarning-da hammasi sochim-tizim aralashdir. Sochimlarida «Alpomish» dostonida bo'lg'an fasihlik yo'qdir. Sababi bular(ni) baxshilar aytqoncha yozilmay, u zamongi yozish yo'llariga ergashtirilganibo'lsa kerak. Tizimlari yuqorida ashula shaklida ko'rganimiz to'rtliklardan tuzulgan" deya ularning badiiyati haqida muhim ma'lumot berib o'tadi.

A. Fitrat xalq dostonlari ta'rifi bilan bir qatorda tasnifini ham tavsiya etishga uringan. U dostonlarni "qahramon dostonlari", "klassik dostonlar", "taqlidiy-klassik dostonlar", "yangi zamon dostonlari" tarzida "to'rtka ajratmoq mumkindir" degan fikrni bildiradi. Biroq bunda uning og'zaki va yozma tarzda yaratilgan dostonlarni o'zaro qo'shib yuborganligi seziladi. Negaki, olimning "klassik dostonlar" haqidagi fikri beixtiyor mumtoz yozma adabiyotdagi dostonlarga qaratilganligi ravshanlashadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.
2. U.S.Amonov, Sh.R.Saparova. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation. ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.11, Issue 6, June 2021. Impact factor: SJIF 2021=7,492. p-403. <https://saari.com>
3. U.Amonov, M.Eshonqulova - Buxoro bolalar folklorshunosligi asoschisi. Buxoro, 2022. <https://doi.org/10.5281/zenodo>.
4. У.С. Амонов Научный подход а. Фитрата к пословицам Современные тенденции развития науки и ..., 2016
5. U.S Amonov Folklore in the works of abdurauf Fitrat Theoretical & Applied Science, 2016
6. Amonov Ulugmurod Sultanovich Scientific-Theoretical and Practical Directions of Uzbek Folklore of the Twentieth Century European Journal of Life Safety and Stability 2022/2/24
7. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
8. .NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
9. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
10. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
11. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
12. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
13. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
14. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagog* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
15. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
16. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning

Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.

17. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174

18. Саидова, Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах." *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.

19. Saidova, G. E. "BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARNING O 'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH." *Conferencea* (2023): 33-37.

20. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S //MEMORIES""", *EPRAInternational Journal of Multidisciplinary*.

21. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadridin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

## O'QUVCHI O'QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Saidova Shahlo Tolibovna

*BUXDUPI 2- bosqich magistranti*

*Anotatsiya.* Ushbu maqolada ta'limni ijodiy tashkil etishning umumiy asoslari o'rganildi. Unda falsafiy, psixologik, pedagogik va boshqa ijtimoiy fanlarning yutuqlaridan foydalanib ta'limni ijodiy tashkil etishning kompleks va shu bilan birga umumiy nuqtayi nazarlari bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** topshiriq, o'quv topshirig'i, ijodiy topshiriqlar, biluv topshiriqlari, pedagogik tadqiqot, psixologik tadqiqot.

Inson aqliy va amaliy faoliyatining barcha jabhalarida keng qo'llanadigan xrestomatik tushunchalardan biri topshiriq kategoriyasidir. Mehnatning ijtimoiy taqsimlanishiga muvofiq har bir kasb egasi o'z oldiga o'zi mashg'ul sohaga mos keladigan topshiriqlarni qo'yadi. Shu jihatdan qaraganda, topshiriq jamiyatni rivojlantirishning maqsadi, usullari, vositalariniqamrab oladi.

Pedagogik tadqiqotlarda inson oldiga bajarish uchun qo'yiladigan topshiriqlar uch guruhga ajratiladi: ishlab chiqarishga oid topshiriqlar. Bunday vazifalarni barcha kasb egalari o'z oldiga qo'yadi va bajaradi: o'qituvchi o'qitish, shifokor davolash, muhandis qurishga oid topshiriqlarni hal etadi; ilmiy xodimlar o'z oldiga ilmiy muammolarni qo'yadi. Maktab o'quvchilari oldiga qo'yiladigan topshiriqlar. Bular o'quv-biluv topshiriqlari sanaladi.

Adabiyotlarda mutaxassislar "topshiriq" tushunchasiga ta'rif berish uchun "maqsad", "holat", "shart", "shakl" kabi turli kategoriyalardan foydalangan: S.L.Rubinshteyn insonning ongli faoliyati topshiriqlarni bajarishdan iborat deb yozadi-da, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Shart tarkibiga kiritilgan maqsad topshiriqni belgilaydi". A.N.Leontyevning yozishicha, "topshiriq – ma'lum shart asosida berilgan maqsad"dir. O'quv topshiriqlarini o'rganishga oid aksariyat psixologik tadqiqotlarda S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyevlarning ta'riflari asos qilib olingan.

"Topshiriq" tushunchasiga Ya. A. Ponomarev "holat", "o'quv holati" kategoriyalaridan kelib chiqib ta'rif bergan: "subyektning (topshiriqni bajaruvchining – B.A.) xatti-harakatlarini qanoatlantiradigan holat topshiriq deb sanaladi.

L.M.Fridmanning asarlarida muammoli holat xususiyatlari asosida o'quv topshiriqlariga ta'rif berilgan: muammoli holatning har qanday belgili modeli (yozuv bilan qayd etilgan modeli – B.A.)ni topshiriq deb ataymiz. Bizning kuzatishimizcha, o'quv topshiriqlarining didaktik ta'rifini O.Roziqov bergan. U o'quv topshirig'ining mohiyatini aniqlash uchun uni o'quv materialini bilan taqqoslab, quyidagicha ta'riflagan: o'quv topshirig'i – bu o'qitish (o'qituvchi faoliyati – B.A.) va o'qish (o'quvchi faoliyati – B.A.) ehtiyojiga ko'ra o'quv materialining

o'zgartirilgan shakli.

O'quv topshiriqlariga berilgan ta'riflarning birortasini ham inkor qilmaymiz. Chunki ularning har biri o'ziga oid ilmiy asosga ega bo'lib, ularda o'quv topshiriqlarining ma'lum nuqtayi nazari inobatga olingan. S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev ta'rifida o'quvtopshiriqlarining psixologik, A.F.Esaulovdan keltirilgan definitsiyada topshiriqlarning kibernetik, Ya.A.Pononyov, L.M.Fridman bergan aniqlikda har qanday topshiriqning ongda muammoli holat hosil qilishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, bu ta'riflarning aksariyati didaktik ta'rif bo'lmay, psixologik, kibernetik, sistemologik aniqliklardir. Bundan O.Roziqov bergan ta'rif mustasno. Shu tufayli uni instrumental ta'rif sifatida qabul qilamiz.

O'quv topshiriqlari mazmun, funktsiyalariga ko'ra keng hodisa bo'lib, ularni dastavval ikki katta guruhga ajratamiz: bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'nalgan topshiriqlar. Bu guruhga oid topshiriqlarning xususiyatlari E.I.Maksimova, M.S.Nikolaevaning nomzodlik dissertatsiyalarida keng yoritilgan. Ilmiy tadqiqotlarda shu ko'rinishdagi o'quv topshiriqlarining quyidagicha tiplari qayd etilgan: o'quv materialini o'rganishga tayyorlovchi, o'quv materialini bevosita o'rganishga daxldor, o'quv materialini mustahkamlashga aloqador o'quv topshiriqlari. Zero, ular o'quv faoliyatini amalga oshirish vositalari – bilish faoliyatiga mansub biluv topshiriqlaridir. Biluv topshiriqlari bolalar tafakkuriga mo'ljallangan vazifalar bo'lib, bilish faoliyatini amalga oshirish yo'li bilan hal etiladi. Ular o'quv materialini doirasida tashkil qilinadi. Ularni bajarish jarayoni bolalarning amaliy faoliyatidan boshlanadi. Bola amaliy faoliyatdan xulosalar chiqarishga qarab boradi. Biluv topshiriqlarini bajarish yo'li bilan o'quvchi asta-sekin bilish jarayoni xususiyatlarini o'rganadi, ijod qilish jarayoni sirlarini ham o'zlashtiradi. Ijodiy topshiriqlar vositasida bolalar maktab ta'limi doirasidan tashqariga chiqish yo'llarini ham o'rganadi. Biluv topshiriqlari o'quv topshiriqlari bilan ta'limiy muammolar orasidagi oraliq zveno hisoblanadi. Biluv topshiriqlarini bajarish o'quvchilarda muammolarni hal qila olish va ijodkorlikni shakllantiradi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning yetakchi vositasi biluv topshiriqlaridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan biluv topshiriqlari o'quvchilarning kuchi yetadigan, o'quv materialining barcha tarkibiy qismlarini o'ziga qamrab oladigan, o'quvchilarni bilishga rag'batlantiradigan shaklda tuzilishi lozim. Biluv topshiriqlari o'quvchilarning bilish faoliyatiga mo'ljallab tuzilgan, o'quvchini amaliy faoliyatdan xulosalar chiqarishga yetaklaydigan, ularni mustaqil fikrlash hamda izlanishga rag'batlantiradigan vazifalardir.

Psixologiya va didaktika sohasidagi murakkab muammolardan biri umuman o'quv topshiriqlarining, bizning holatda biluv topshiriqlarining qurilishi, ularning tarkibiy qismlari masalasidir. Maxsus adabiyotlarni o'rganib chiqish shunday xulosaga olib keldiki, hozirgi paytda o'quv topshiriqlari, biluv topshiriqlari, ijodiy topshiriqlarning tarkibini o'rganishga yondashishning uch xil ko'rinishi mavjud: mantiqiy yondashish; kibernetik yondashish; maxsus yondashish. Bu yondashishlarning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

I. O'quv topshiriqlari tarkibini o'rganishning an'anaviy yo'li mantiqiy yondashishdir. D.Poya1 o'quv topshiriqlari tarkibini o'rganishga mantiqiy jihatdan yondashishgan. D.Poyaning yozishicha, har qanday topshiriqning tarkibiy qismlari uchta: noma'lum, berilganlar, shart; O.Roziqov o'quv topshiriqlari tarkibida mantiqan to'rtta element ajratadi: berilgan ma'lum va noma'lumlar o'rtasidagi munosabat; moddiylashgan faoliyat; bola oldiga qo'yilgan talab; topshiriqni bajarish sharti.

II. O'quv topshiriqlarini o'rganishning yana bir yo'li kibernetik yondashishdir. Bizning kuzatishimizcha, o'quv topshiriqlarini o'rganishga kibernetik yondashish L.M.Fridman tadqiqotlarida asoslangan. Uning qayd etishicha, har qanday topshiriq predmet sohasi, munosabat, talab, operatoridan iborat.

III. Maxsus yondashish – o'quv topshiriqlarini umumiy didaktik nuqtayi nazardan o'rganishni O.Roziqov boshlab bergan edi. Uning tadqiqotlarida o'quv topshiriqning to'rt tarkibiy qismi – mazmun, maqsad, funktsiya va uni bajarish usuli topshiriqlarning invariantlari sifatida tahlil qilingan.



Jamiyat nuqtayi nazaridan ijodiy ta'lim zamon talablariga komil insonni tarbiyalash ehtiyojlariga muvofiq, istiqbolga yo'nalgan pedagogik amaliyot bo'lib, uning o'qituvchilar tajribasidan munosib o'rin olishi yangi-yangi ta'lim tizimlari, tamoyillari, vositalari, tashkiliy shakllarining kashf qilinishiga olib keladi. Bu kelajakda ijod didaktikasini asoslash, uning pedagogik fanlar tizimidagi o'rnini belgilashga imkoniyat yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (matematika).
2. Adizov R.B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari (Monografiya) – Toshkent 2007-y, 217 bet
3. Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2022). MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(2), 206-211.
4. Qosimov F.M. Matematika ta'limini ijodiy tashkil etish. (Monografiya) -Buxoro, 2020. -230 bet.
5. Qosimov F.M. Ijodiy topshiriqlar va ular tizimiga qo'yiladigan talablar. Boshlang'ich ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. -Buxoro, 2021. -116-117 betlar
6. N. B. Adizova, M. Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. *Актуальные вопросы современной науки и образования*, 121-123
7. N. A. Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. *Middle European Scientific Bulletin*
8. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
9. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
10. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
11. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
12. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
13. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
14. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" *Scientific Journal*. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
15. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
16. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// *Middle European Scientific Bulletin*. Volume 8, January 2021, 174
17. Саидова, Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах." *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.
18. Saidova, G. E. "BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNING O 'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH." *Conferencea* (2023): 33-37.
19. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S "MEMORIES", *EPRAInternational Journal of Multidisciplinary*.
20. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadridin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

## O'ZBEK XALQ O'YINLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Hafizov Shahriyor Shavkatovich

*BuxDPI 1-kurs magistranti*

Ma'lumki, milliy-madaniy merosimizning bir bo'lagi bo'lgan milliy o'yinlarni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmagan bir davrlarda yashab o'tdik. Aksincha, ulardan tor maqsadlar yo'lida foydalanib kelingan zamonlarni ko'rdik.

Mustaqillik sharofati bilan ajdodlarimizdan meros milliy sport turlari va xalq o'yinlarining boy an'analari va qadriyatlarini yanada rivojlantirish borasida bir muncha ishlar amalga oshirildi. Ko'p harakat qilgan organizm yashovchan bo'ladi.

Bobolarimiz kechirayotgan hayot tarzlariga, harakatlarga qarab o'yinlarni kashf etganlar. Odam umri davomida qiladigan hatti-harakatlar, tirikchilik tashvishi, chetdan bo'ladigan turli qarshiliklarni yengish, oilani himoya qilish kabi hayotiy vaziyatlar bu o'yinlarga mavzu bo'lgan. Dastlabki o'yinlar insoniyatning bolaligi bo'lgan terib yeyish davri bilan bog'liqligi fikrimiz isbotidir. Keyinchalik o'yinlar mundarijasiga ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bog'liq turlari kirib keldiki, bu hayotiy jarayonlar, yashash uchun harakat qilish, intilish bilan bog'liqdir. Ta'bir joiz bo'lsa, bu o'yinlar o'sha davrdayoq odamlarning tabiat injiqliklariga dosh berishlariga, turli kasalliklarni yengib o'tishlariga zamin hozirlab bordi. O'yinlarda tevarak-atrofdagi yuz berayotgan voqea-hodisalar syujetlari jonlantirib borilgan. Syujetlar odamlarning hayoti bilan bevosita bog'liq holda shakllangan. O'yinlar insonni ma'nan, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalaydi. Chunki o'yinlar jamiyat hayotida mehnatdan keyingi hodisa sanaladi. Ibtidoiy zamonlarda odamlar o'yinlar orqali ovchilik jarayonlarini aks ettirganlar.

O'zbek xalqida yigitning belbog'i ham, qizning ro'moli ham oddiy mato, aksessuarlar emas. Ular mardlik, or-nomus, hayo, sadoqat, poklikning matoda namoyon bo'lishi. Shuning uchun ham xalqimizda belbog' qadimdan azizlangan. O'z so'zida turadigan, aytganidan qaytmaydigan yigitlar "Belida belbog'i bor" deb maqtalgan. Belbog' yigitning ko'rki, nomusi, ori sanalgan. Xalq to'qigan doston va ertaklarda ham belbog'ga nisbatan yuqori baho beriladi. Demak, o'g'il bolalar o'yinlari orasida belbog'ning vosita sifatida ishlatilishida katta milliy ma'no bor.

"Belbog'" o'yinining eng afzal tomonlaridan biri unga maxsus tayyorlanadigan vosita shart emas. Qolaversa, bu o'yin bilan istalgan joyda hamroh bo'lish mumkin. Bahsga kirishgan bolalar bo'yi, yoshi, kuchi teng bo'lishi talab qilinadi. O'yin davomida ishtirokchi nimalarga e'tibor berishi kerak? Eng avvalo, u ziyrak bo'lishi, o'yinboshining xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib turishi kerak. Sababi, o'yinboshi "boshlang" ishorasini berganda bir lahza kech boshlangan harakat insonning mag'lub bo'lishiga sababchi bo'ladi. Oyoqlar tagiga tashlangan belbog'ni birinchi bo'lib egallab olish va uni bosh uzra baland ko'tarishga raqibdan oldinroq ulgurish kerak. Xalq o'yinlarida bosh kiyimning vosita sifatida tanlanishi ham bejiz emas. Bosh kiyim insonning obro'si, hurmati, shaxsini anglatadi. Hatto boshdagi do'ppining holatiga qarab egasining qanday insonligini bilib O'zbek milliy o'yinlari qiyin emas. "Zar qalpoq" o'yini bolalarni ziyrak va tiyrak bo'lishga o'rgatadi. Ya'ni qalpoqni qo'yniga yashirgan ishtirokchining ko'zlariga qarab qalpoq qaysi bolaning qo'ynida ekanligini topish kerak. Bunda ziyraklik ish beradi. Har bir bolaning ko'ziga diqqat bilan tikilish, uning ko'zlari tubidagi sirni anglay olish kerak. Agar ana shu sezgirlik ishtirokchida yetishmasa pand yeydi. "Zar qalpoq" o'yinida mag'lub bo'lgan ishtirokchi tengqurlarining har xil shartlarini bajaradi. Shartlar ishtirokchilarning kayfiyati, faslga bog'liq tanlangani uchun xilma-xil bo'lib, raqsga tushish, qo'shiq, tez aytish, topishmoqning javobini topish, she'rni yoddan o'qish kabi bo'lishi mumkin. Demak, ishtirokchi ana shu narsalarga ham doim tayyor turmog'i kerak. Xalq o'yinlari orasida tabiat bilan, ayniqsa do'stlarimiz sanalgan qushlar bilan bog'liq o'yinlar ko'plab uchraydi. Bu esa bejiz emas. Demak, bobolarimiz qushlarning hayotini diqqat bilan kuzatib borgan.

Qoraqalpoq xalqiga xos bo'lgan "Shag'ala" o'yinida aynan ana shu jihatlarni ko'rish mumkin. Yerga tugib, tashlab qo'yilgan belbog' ramziy ma'nodagi baliqdir. "Katta

chag'alay"lar "polopon"ga ana shu "baliq"ni olish ilmidan saboq berishyapti.

O'yinda ishtirok etayotgan bolalar qushlarga qiyosan qanotlarini keng ochib turadi. Ularning mehribon tovushi yosh "chag'alay"ga kuch va quvvat beradi. Polopon rolini bajarayotgan bola qanotlarini keng yozib katta "chag'alay"lar atrofida aylanadi. Bu bilan o'zining tajribasiz ekanligini, mabodo "baliq"ni olishni eplolmasa, ulardan ma'naviy ko'mak zarurligini eslatib turadi. Katta "chag'alay"lar esa uni bor ovozlari qo'llab turadi. Bu manzarabarchaga tanish. Qushlarning hayoti ham odamlarnikiga qaysidir ma'noda o'xshab ketadi. Bu o'yinni o'ynayotganda bolalar qalbida atrofdagilarni qo'llab-quvvatlash qanchalar muhim ekanligini unutmaslikka undaydi. Bu bolaning mana shu o'yindan olgan dastlabki sabog'idir. Milliy o'yinlarimiz orasida vositali, harakatli, kasb-hunarga oid turlari qatori mavsumiy o'yinlar talaygina. Chunki bizgacha yashab o'tgan ajdodlarimiz insonning har tomonlama kamolotga yetishuvida o'yinlar uzviyligi va uzluksizligiga ham e'tibor qaratganlar. Shundan ham ular orasida yilning barcha fasllariga mos o'yinlar o'ylab topilgan. Bahoriy o'yinlar keng o'tloqlar, soy bo'ylari, qirda o'ynalgan. Bu ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson ruhiyatining tabiat bilan uyg'unligidir. Chunki o'yinlarning zavqu shavq bilan o'ynalishida tabiatning ko'rkam tarovati hissador bo'ladi. O'yinlar uchun tanlanadigan liboslarda ham aynan tabiat go'zalligi aks etadi. O'g'il bolalar kiyadigan yaktaksimon liboslarga yo'rma usulida kashtalar tikiladi. Kimlardir kamalak jiloli beqasam libosni afzal ko'radi. Qizlar uchun esa yorqin rangdagi shoyi, atlas liboslar, bosma do'ppilardan yaxshiroq libos yo'q. Bunday libosning o'ziyoq inson ko'ngil olamini tovlantirib yuboradi. "Churrak" o'yini o'rdaklar hayotidan olingan. O'rdaklar ham o'z poloponini uchishga va hayotda rizq topib yashashga o'rgatadi. U to erkin qanot qoqquncha nazoratda saqlaydi. O'yin bolalarni uquvli qiladi. Bir xil uzunlikdagi cho'plarni tekis va chiroyli qilib yo'niladi. Mana shu ish jarayonida bolalarningdidi ham imtihondan o'tadi. Chunki kimdir cho'pni chala, qobig'ini tekis yo'nmasdan tayyorlasa, kimdir aksincha, pishiq qiladi. Demak, cho'plardan iborat maxsus yo'lakni hozirlashning o'ziyoq bolalarni hayotga tayyorlaydi. Endi o'rdak bolalari ramziy ma'noda "uchishga" hozirlik ko'radi. Ularni bitta nazoratchi bola kuzatib turadi. O'zbek milliy o'yinlari mana yo'lak bo'ylab yugurib o'tgan "polopon" bola nazoratchi qoshiga enib borib, yerga engashgancha, bir qo'li bilan qulog'ini ushlab yetti marta aylanadi. Bu unchalik oson emas. To'g'ri, har doim mashq qilib, chiniqib yurgan bolalar uchun oson. Ammo hamma bolalar ham shunday emasku. Demak, ular bu mashqni bajarish asnosida chiniqib boradi. Chunki hayotda nimagadir erishmoq, safning oldida bormoq, boshqalarga o'rnak bo'lmoq uchun aqliy salohiyat bilan bir qatorda jismoniy quvvat ham yuqori bo'lishi kerak.

"Soqqa oshiq" o'yini ajdodlarimizning ovdagi hatti-harakatlarini ifodalaydi. O'yinboshi keksa ovchi. U ov tartibiga ko'ra ish tutadi. O'rtaga terilgan yong'oqlar yovvoyi hayvonlar. Ikki tomonga tortilgan chiziq lar esa xavfli maydonni eslatuvchi ihota chiziqlaridir. Ichkariga kirgan ovchini halokat kutgan. Ovchini butun jamoa qo'llab-quvvatlab turadi. Qadimda ovga ham erkaklar ko'pchilik bo'lib borishgan. Katta, chapdast, kuchli va jasur erkaklar ov maydoniga kirgan. Eng jasur, chapdast ovchi boshlab borgan. Yoshlar esa ularning hatti-harakatini kuzatib turishgan. Mana shu tariqa ov sirlari o'rgatib borilgan. "Soqqa oshiq" o'yini vositali o'yinlar sirasiga kirib, undagi vositalar kichik toshcha, yong'oqlar va oshiqdir. U bolalarda mo'ljalni aniq olish texnikasini rivojlantiradi va hayotda halol bo'lishga o'rgatadi. Uni bemalol hovlida, uy atroflarida o'ynasa bo'ladi. Hayotda hamma ovchi bo'lmaydi.

Lekin hatti-harakatda, so'zlashayotganda, muomala madaniyatida bu o'yinda ort tirgan ko'nikma asqotadi. Ya'ni bu o'yin orqali ortiqcha his-hayajonga berilmaslik, muomalada ehtiyotkor bo'lish va kreativlik kabi xislatlar tarbiyalanadi.

"Yong'oq" o'yini ham qadimiy ov o'yinlaridan hisoblanadi. Bolalar tomonidan kavlangan chuqurcha – ov maydoni. Ovda har xil holat sodir bo'lishi mumkin. Yovvoyi hayvonlar jarlik ichida, ovchilar esa yuqoridan turib ularni mo'ljalga oladi. O'yinda "yovvoyi hayvon"ni mo'ljalga olish otilgan yong'oqning chuqurchaga tushishi bilan belgilanadi. Qaysidirishtirokchi navbati yetib kelmagani uchun mutlaqo yong'oqlaridan ayrilishi mumkin. Bunga ham chidash kerak, mardlik kerak. Kimdir esa o'z qo'yini yong'oqqa to'ldira olishi hammumkin. Demak, har bir bolaning qanday yutuq yoki mag'lubiyatga uchrashi o'ziga bog'liq. Mo'ljalni to'g'ri ololgan, e'tiborli bola g'olib bo'ladi. Bu esa bolalarda o'z ustida ishlash,

harakatni kuchaytirishga turtki bo'ladi. O'yinlarda yosh organizmning talab va ehtiyojlari qondirilib, ijodiy faollik yaratiladi. Topqirlik, tezkorlik, shijoat tarbiyalanadi. Qolaversa, o'yin orqali bolalar juda ko'p narsalarni bilib oladi. Demak, bilishga bo'lgan kognitiv talab ham o'yin orqali ado etiladi. O'yinlar rang-barang. Ularning mazmuni, tashkil etilishi, qo'llaniladigan buyumlari turlicha. Ular orasida kreativ (ijodiy) va qoidali o'yinlar mavjud. Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zlari o'ylab topadi. Unda ko'proq obrazlar ishtirok etadi. Bir qarasangiz sahna ko'rinishining sodda variantiga o'xshab ketadi. Bu albatta ehtiyojga quriladi. Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiriladi. "Qarmoqcha" o'yini. U baliq ovi haqida baliqchi ham, baliqlar ham bolalarning o'zi. Ularning qanday tanlanishini ishtirokchi bolalarning o'zlari hal qiladi. Ovchi obrazidagi bola yarim cho'k tushgancha qo'llari bilan uchiga qum to'latilgan qopcha o'rnatilgan arqonni aylantira boshlaydi. Bolalar esa ramziy ma'nodagi qarmoqqa tushib qolmaslik uchun jon holatda sakrayilar. Shuning uchun ham "Qarmoqcha" o'yinida chaqqonlik, sezgirlik, ziyraklik kerak. Sustkash bola qarmoqqa tushib qoladi. Ovchi ham faol harakat qilishi kerak. Lekin ko'zlangan reja, maqsad, kutayotgan natija amalga oshmay qolishi ruhiyatga ta'sir qilishi mumkin. Odamni mag'lubiyat ham tarbiyalaydi. Ammo aslo chekinish kerak emas.

"Joyingni top" o'yini. Tevarak-atrofdagi kattalar, tengdosh bolalar hayoti, faoliyati bu o'yin mazmuni uchun asos bo'lgan. O'yinda qisqa masofa belgilangan. Har bir bola to'g'ri to'rtburchak ichida tez va chaqqon harakat qilib o'zi istagan burchakni egallashi kerak. O'rtada turgan qorovul esa bunga yo'l qo'ymaslikka intiladi. To'rtta burchakni ishg'ol etgan bolalar uning qo'lga tushmaslikka harakat qiladi. Qorovul qaysi bolani ushlab olsa o'rin almashadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. "Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari." *Conferences*. 2021.
2. Bakhtiyorovna, Nodira Adizova. "Place Names and Related Concepts Study." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022):153-157.
3. Bakhtiyorovna, Nigora Adizova, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "Anvar obidjon is a children's poet." *Middle European Scientific Bulletin*.
4. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Boymuradova Sadoqat. "Use Foreign Experience to Improve the Reading Literacy of Primary School Students." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 306-309.
5. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.11 (2021): 330-335.
6. Адизова, Нодира. "Микротопонимлар таснифи (Бухоро вилояти мисолида)." *Общество и инновации* 3.3/S (2022): 128-132.
7. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lyubat Ilhomovna. "Таълим Муассасаларида Таълим-Тарбия Жараёнларида Интерфаол Методлардан Фойдаланишнинг Ҳозирги Кундаги Ҳолати." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 330-333.
8. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "Interfaol mashqlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish." *E Conference Zone*. 2023.
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "Faol ta'lim asosida darslarni tashkil qilish-ta'lim samaradorligini oshirish omili sifatida." *Pedagogs jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
10. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "Basic principle of personalized educational technology." *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali* 2.10 (2022): 296-298.
11. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "Этимология некоторых топонимов бухарской области." *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali* 2.1 (2022): 513-516.
12. Bakhtiyorovna, A.N., and A.N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
13. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang'ich Sinf Ona Tili Va O'qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.
14. Шавкатович, Ҳафизов Шаҳриёр. "ЎЗБЕК ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ ТАРИХИ." *E Conference Zone*. 2023.

## O'QUVCHILARDA SANOGEN FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Eshquvvatov Ilhom Sa'dulla o'g'li

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan umumiy ta'lim o'quvchilarida sanogen fikrlashni shakllantirish ko'nikmalari yoritilgan.

*Kalit so'z va tushunchalar:* fikr, tafakkur, sanogen fikrlash, pathogen tafakkur, sog'lom fikr, nosog'lom fikr

XXI asrga kelib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi toboranamoyon bo'lmoqda. Bu esa yuqori saviyaga ega bo'lgan shaxslarni tayyorlash muammosini yanada dolzarblashtirmoqda. Bu esa, uzluksiz ta'lim tizimida har tomonlama yetuk, ijodkor shaxsni tarbiyalash, uzluksiz rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizim tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligini ta'minlash, shuningdek ularni amalga oshirishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlashni taqozo etadi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan umumiy ta'limning bosh va asosiy maqsadi ham innovatsion-tanqidiy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat. Mazkur holat o'z-o'zidan, o'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Salomatlik psixologiyasida "sanogen tafakkur" masalasi alohida yo'nalish sifatida ajratilgan. Umuman olganda, sanogen tafakkur muammosi ko'plab xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan [1, 2, 4, 5].

Sanogen (sog'lom) tafakkur ("sanos" (lot.) - davolamoq, sog'lomlashtirmoq, tasalli bermoq, ruhlantirmoq, tartibga keltirmoq va "geno" (lot.) - davolaydigan) sog'lomlashtiradigan, tasalli beradigan va ruhlantiradigan tafakkurni keltirib chiqarishdir [3, 8- b.].

Sanogen tafakkur yuritish hayot falsafasining, ong va tana salomatligining eng ishonchli yo'llaridan biridir. Ushbu tafakkur tarzi yangi hissiy-aqliy odatlarni yuqori darajada o'zlashtirishga imkon beradi, o'tmishdagi patogen (nosog'lom) fikrlash tajribasini to'playdi. Ya'ni, sanogen tafakkur bu insonning hayotiy faoliyatida yuzaga kelgan inqiroz holatini ruhiy qo'llab-quvvatlash yordamida, hissiy-emotsional o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish orqali bartaraf etish usuli bo'lib, sanogen tafakkurning asosi insonning ichki olamidagi qarama-qarshiliklarni ijobiy hal qilishidir.

Sanogen fikrlash bola shaxsining individual rivojlanish kontekstida mavjud [6]. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida sanogen fikrlashni shakllantirish usullari ishlab chiqilgan [7]. Bunda o'qituvchining sanogen fikrlashiga bolani sanogen tarbiyalash vositasi sifatida jiddiy e'tibor beriladi. "Sanogen tafakkur" tushunchasiga his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog'lomlashtiruvchi tafakkur sifatida ham qaraladi. Mazkur ta'riflarda "sog'lom" va "tafakkur" tushunchalari ajratib ko'rsatilmoqda. Dastlab ushbu tushunchalarning asl ma'no-mazmunini bilishimiz talab etiladi.

"Sog'lom" so'zi:

- dard-kasaldan xoli, sog';
- sog'liqni saqlash talablariga to'la javob beradigan;
- beg'ubor, toza, sof va pok;
- zararli ta'sirdan, salbiy xislat, illat va shu kabilardan holi;
- ruhiy jihatdan shikast yetmagan, raso;
- g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy jihatdan toza, pok degan ma'nolarni beradi [8, 153 b.].

"Tafakkur" so'zi arabcha "fikr" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish degan ma'nolarini bildiradi [8, 245 b.].

Demak, sanogen tafakkur insonning aqliy va hissiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u sog'lom fikrga yo'naltirilsa sog'lom tafakkur shakllanadi. Ya'ni, sanogen tafakkurga muayyan vaziyatlarda inson xulq-atvori va hayotini boshqara oladigan aqliy xatti-harakatning alohida bir

shakli sifatida qarash mumkin. Sanogen tafakkur faoliyatda namoyon bo'ladi va shakllanadi, ya'ni o'quv sohalarni o'rganish jarayonida o'quvchilar faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish orqali fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

O'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish zaruriyatini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

**birinchidan**, yaqin vaqtgacha sanogen tafakkur muammosining asosan psixologik jihatlarini ko'rib chiqilgan. Zamonaviy voqelik nuqtayi nazaridan, uning pedagogik jihatlarini o'rganish uchun jiddiy ehtiyoj mavjud;

**ikkinchidan**, sanogen tafakkur shaklining pedagogik hodisa sifatida mohiyatini ochib berish, uning tarkibiy qismlarini aniq belgilash, shaxsning patogenli (nosog'lom) fikrlashga nisbatan barqaror munosabatlarini belgilovchi omillarni aniqlash;

**uchinchidan**, sanogen tafakkur xususiyatlarini rivojlantirish jarayoni unga ta'sir etuvchi omillarni, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirishni va ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

O'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish tizimli va faoliyatli yondashuvni talab etadi. Shundan kelib chiqib, sanogen tafakkurni rivojlantirishning asosiy komponentlarini quyidagicha etib belgilashimiz mumkin:

- **motivatsion** - sanogen fikrlashga nisbatan qiziqish uyg'otish;

- **mazmunli** - sanogen tafakkur haqidagi bilim va ko'nikmalarni; umummadaniy, kasbiy va maxsus xarakterdagi kompetensiyalarni qamrab oladi;

- **faoliyatli** - harakat usullarini qamrab oladi, fikrlashga oid mantiqiy jarayon, shuningdek, amaliy faoliyat usullari;

- **refleksiv** - shaxsning kasbiy va ijodiy faoliyati haqida fikrlashi va tahlil etishi;

- **qadriyatli** - shaxsning o'z-o'zini, tafakkur tarzini rivojlantirishga nisbatan qadriyatli munosabatning mavjudligini belgilaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish ko'p darajali bo'lib, bunda oliy ta'limning o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega:

- qulay va psixologik xavfsiz ta'lim muhitini yaratish tamoyili;

- shaxsning o'z-o'zini ijodiy faollashtirish tamoyili;

- o'qitishni zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida amalga oshirish (ko'rgazmalilik tamoyili);

- muammoli-izlanishli faoliyat tamoyili;

- yosh va individual yondashuv tamoyili.

Xulosamiz shundan iboratki, o'quvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish ularning kelgusidagi faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish, yuqori kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlash bilan birgalikda, quyidagi ijobiy holatlarni keltirib chiqaradi:

- sanogen fikrlash tarzi shaxsning ham ruhiy, ham jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishiga xizmat qiladi;

- sanogen fikrlash o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida to'g'ri ko'rsatmalar va xulosalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beck J. (1995) Cognitive therapy: basics and beyond. – New York: Guilford Press.
2. Орлов Ю.М. Саногенное мышление. – М.: Спайдинг. 2003
3. Орлов Ю.М. Оздораваивающее мышление. Издание 2-е. Исправленное. – М.: Спайдинг. 2006
4. Рубцова, Л.В. Саногенное мышление: метод обучения. Комплекс. – Новосибирск: Изд. НГПУ. 2010
5. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Основы педагогики индивидуальности: Учеб. пособие Калининград. ун-т. – Калининград: 2000. Глава 1. п.1.1. Интеллектуальная сфера как цель развития.
6. Васильева Т.Н. Формирование саногенного мышления младшего школьника: Учеб. пособие. – Калининград: Калинингр. гос. ун-т. 1997.
7. Гасанова Д.И. Саногенное мышление: вопросы теории и практики. // Психолого-педагогические науки. Научный журнал. 2009.



## O'ZBEK NASRIDA MAQOL SAN'ATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Azimova Gulmira Zokir qizi

BuxDPI 7-3BT-21 guruh magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr nasrida maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z kabi janrlar ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy ruh, adabiy ta'sir, xalq og'zaki ijodi, maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi.

Maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, donolar yoki donishmandlar so'zi, oqinlar so'zi va otalar so'zi atamaları bilan el orasida yurgan bu janr namunalari g'oyat ommaviy bo'lib, umumfolklor hodisasi hisoblanadi. Ilmiy taomilda esa maqol atamasi iste'moldadir. Maqol arabcha «qavolla» so'zidan olingan va «aytmoq, so'zlamok» ma'nolarini anglatadi. Xalq orasida «qavlida sobit» yoki «qavlida tuturuqsiz» iboralari bor: birinchisida «so'zida qat'iyatli, bir so'zli» ma'nolari anglashilsa, ikkinchisida «so'zida turmaydigan, o'z so'zi ustidan chiqa olmaydigan, so'zi bilan ishi bir bo'lmagan» ma'nolari ifodalangan. Binobarin, «maqol» so'zi o'zbek tilida ikki ma'noda, avvalo, o'z lug'aviy ma'nosida «so'z, nutq»ni anglatga, ikkinchidan, istilohiy ma'noda folklorda keng tarqalgan janrni ifoda etadi.

Maqol, masal va naql janrlarining yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatgan, masal va naqlning xulosasi, qissadan chiqarilgan hissasiga aylanganligi tufayli ba'zan masal va ba'zan naql istilohlari bilan ayqashib ketgan. Aslida esa «masal» so'zi ham arabcha bo'lib, «o'xshamoq» ma'nosini anglatga-da, o'zbek tilida maqol va biror maqsadni izohlashga qaratilgan majoziy hikoya singari ikki ma'noda qo'llanadi. Biroq XX asrga kelib uni maqol ma'nosida istifoda etish cheklana borildi. Faqat tojik folklorshunosligida maqolni masal istilohi bilan atash qaror topgan.

«Naql» so'zi ham maqol ma'nosida qo'llansa-da, arabcha so'z bo'lib, «ko'chirmok» ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida esa «bayon qilmoq, hikoya qilmoq, rivoyat qilmoq» singari ikkinchi bir ma'noga ega va xalq og'zaki nasrining mustaqil aforistik janrini ifodalovchi ilmiy istiloh sifatida qo'llanadi. «Yaxshi naql-tomiri aql» maqolida «naql»-maqol ma'nosidadir.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona axloq-odob qoidalari deb atash mumkin. Zero maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafaviy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi. Har bir xalq maqolda o'sha xalqning qalbi, milliy saviyasiga xos qarashlari ifodalansa-da, ulardagi g'oya umumxalqqa tegishlidir. Shu xususiyatlariga ko'ra, maqollar ham milliy, ham umuminsoniy mohiyat kasb etgan.

Maqollar insonlarning turli sohalardagi faoliyatlarini jarayonida uzoq muddatli sinovlardan o'tgan turmush tajribalarining hosilasi – barqaror va o'zgarmas, to'g'ri va haqqoniy xulosasi tarzida yuzaga kelgan.

Maqollar ham she'riy, ham nasriy shaklda bo'lib, na lirik, na epik turga mansub. Shu sababli ular ham, topishmoqlar, irimlar va obrazli iboralar kabi paremik turga kiritilib, yozib olinishi va to'planib kitobat qilinishi *paremiografiya*ga daxldor bo'lsa, paydo bo'lishi, taraqqiyot tamoyillari va qonuniyatlari, badiiyati *paremiologiya*da o'rganiladi.

Maqollar tuzilishiga ko'ra, bir va bir necha sintaktik butunlik asosida tashkil topgan. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko'pincha darak gap yo'sinida bo'ladi: «Ayol tilini ayol biladi, «Arg'imchiga qil - quvvat», «Vatanni sotgan er bo'lmas», «Gavhar yerda yotmas», «Yomon it egasini qopar», «Ishni ishchandan o'rgan» kabi. Ko'p sintaktik butunlikdan iborat maqollar esa ko'p qismli yoki murakkab maqollar deb yuritiladi. Bunday maqollar bir-biriga o'xshash yoki zid fikrlar bayonidan iborat bo'ladi. Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan; bir qismi tasviriy mohiyatga ega bo'lsa, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir: «Aytmas yerda tilingni tiy, mehmonga borsang nafsingni tiy», «Bulbulning sayrashini guldin, mehr xazinasi tildir», «Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy

so'zing bo'lsin», «Yolqitsa ham-yog' yaxshi, yondirsa ham-yoz yaxshi», «Ishonish bilan kasal bo'lsang –umid qilsang, tuzalasan» kabi yuzlab maqollarda ikkinchi qism zarbli va asosiyog'itni ifodalaydi.

Maqollar jonli so'zlashuv tilida yaratilgan va shu taxlitda so'zlanadi. Aksariyati to'g'ri ma'nolarda qo'llansa, ma'lum qismi ko'chma (ramziy va majoziy) ma'no tashiydi: «Avval o'yla, keyin so'yla», «Yosh kelsa-ishga, qari kelsa-oshga», «Mehnat, mehnatning tagi rohat», «Vatani borning – baxti bor, mehnati borning – taxti», «Vataning tinch – sen tinch» maqollarida to'g'ri ma'no ustivor; «Dunyoni suv olsa–o'rdakka ne g'am?», «Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi» singari maqollar ko'chma ma'nolardagina hikmatlilik kasb etgan.

Maqollarni tasnif qilishning xilma-xil ko'rinislari mavjud. Jumladan, alifbe tartibida, mavzulari, sinonimik yoki antonimik mohiyatiga ko'ra, to'g'ri yoki ko'chma ma'no tashishiga hamda qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligiga-xronologiyasiga ko'ra guruhlash yo tasnif qilish paremiologiyada an'anaga aylangan. Ammo hozircha o'zbek maqolshunosligida alifbe tartibiva mavzusiga ko'ra tasnif qilish an'anasiga ikki jildlik «O'zbek xalq maqollari (1987) va ko'p jildlik «O'zbek xalq ijodi» ruknida «O'zbek xalq maqollari» (1989) to'plamini tuzishda amal qilingan. Shunday esa-da, o'zbek xalq maqollarini yozib olish tarixi ancha qadimiy bo'lib, ikki yo'nalishda davom etganini kuzatish mumkin:

Birinchi yo'nalish - **maqollarni jonli so'zlashuvda qanday aytilsa, shu holatida xalqdan yozib olish va kitobat qilish.** O'zbek xalq maqollarini ilk bor yozib olish va kitobat qilish XI asrning buyuk filologi Mahmud Qoshg'ariy nomi bilan bog'liq. U juda ko'p turkiy qabila va xalqlar orasida bo'lib, xalq ijodiyotining boshqa janrlariga mansub namunalari qatorida anchagina maqolni ham yozib olib «Devonu lug'otit turk» asarida darj qildi va shu asosda maqollarni kitobat qilish an'anasini ham boshlab berdi. Tubandagi maqollar shular jumlasidan bo'lib, ularning hozirgi nusxalari bilan yondosh berish asosida har biriga oid transformatsiya jarayoni hamda ma'no tovlanishlarini kuzatish mumkin: M. Qoshg'ariyda:

Kishi olasi ichtin,  
Yilqi olasi toshtin.  
Hozirgi nusxasi:  
Mol olasi – toshida,  
Odam olasi –ichida.

Maqol mazmunida hech qanaqa o'zgarish bo'lmasa-da, undagi sintaktik bo'laklar o'rin almashgan. Qadimiy o'zbekcha «kishi» so'zi arabcha «odam» va turkiy xalqlarning otga sig'inishi asosida qo'llangan «yilqi» so'zi umumlashtiruvchi ma'noga ega arabcha «mol» so'zi bilan almashgan. Bu eski o'zbek tili so'z boyligiga arablashtirish nechog'li kuchli ta'sir ko'rsatganini ayonlashtiradi. Shuningdek, o'rin-payt kelishigini ifodalovchi– «tin» qo'shimchasi «-da» bilan almashinib, tilning grammatik qurilishiga xos o'zgarishni namoyon etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A Kichik asarlar.T., G'afur G'ulom.1969.-B.182.
2. Qodiriy A Kichik asarlar.T., G'afur G'ulom.1969.-B.187.
3. Ahmadov O. БУХОРО АМИРЛИГИДА ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИ. ЮТУҚДАРИ ВА МУАММОЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
4. Ахмедов О. Ш. ОБРАЗОВАНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ПРАВИТЕЛЕЙ) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.
5. Ahmadov O. BUXORO BOSMAXONA VA NASHRIYOTLARIGA TEXNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
6. Ahmadov O. XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimining manbaviy asoslari va adabiyotlar tasnifi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 4. – №. 4.
7. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |6.Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022

8. Baxtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. 2023.

9. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROT NOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

10. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 41-43.

11. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.

12. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

13. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.

14. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – №. 27.

15. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.

16. Jumayev R. Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т.23. –№. 23

17. M.I. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)

18. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)

19. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022); EJHSS. 103–107.

20. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadriddin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

21. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin

22. Нуруллаева, Сарвиноз Маждидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

23. Хайитов Х. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

## XALQ ERTAKLARI O'QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASHNING SAMARALI VOSITASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Fattullayeva Mahzuna Maqsud qizi**

*BuxDPI magistranti*

**Annotasiya:** Maqolada o'quvchilarning ertak o'qitishda nazariy asoslariga katta ahamiyat bergan holatda, xalq ertaklari o'quvchilarning axloqiy tarbiyalash, pedagogik amaliyot davrida ulardan foydalanish ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ertak, xalq ertak, poetik ijod, adabiy ta'lim, nasr, epik badiiy asar.

Bugungi kunda adabiy ta'lim oldiga o'quvchi yoshlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarini puxta o'zlashtirishlari, ularning badiiy estetik didlarini shakllantirish va rivojlantirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish, har tomonlama yetuk shaxsning aqliy va ruhiy kamolotiga erishish, ongu tafakkurini o'stirish, mustaqil fikr kishisini tarbiyalab voyaga yetkazish kabi muhim vazifalar qo'yilgan. Mazkur vazifalarni ado etishda adabiyot fani umumta'lim tizimidagi boshqa o'quv fanlari orasida salmoqli o'rinni egallaydi. Adabiy ta'limning bosh maqsadini ham sog'lom, ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash tashkil etadi. Bu

maqsad va vazifalarni bajarishda o'zbek adabiyoti namunalari qatorida adabiy ertaklarning ham imkoniyatlari mavjud. Kelajagimiz egalari bo'lmish bugungi kun yoshlari qalbiga go'zal fazilatlarini singdirishda o'qish darslarida o'rganiladigan badiiy asarlar, jumladan, inson tarbiyasi haqidagi axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega adabiy ertaklar chinakam didaktika manbai hisoblanadi. Shunday ekan, adabiy ertak darslarining to'g'ri tashkil etilishi adabiy ta'limdan ko'zlangan maqsad sari yana bir dadil qadamdir.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid me'yoriy hujjatlar ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qiladi. Bu o'rında adabiy ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv, yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanilishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir. Yangi pedagogik texnologiya ta'limning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsuli hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda ertaklar orqali o'quvchilar o'z-o'zini tarbiyalashda 4 ta vazifa nazarda tutiladi:

a) o'quvchining o'zida ijobiy xislatlarini taraqqiy ettirishga va o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlardan xalos bo'lishga intilish;

b) o'quvchiga o'z shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishiga, o'z xulq-atvoridagi xususiyatlarini diqqat bilan va oqilona tushuna olishida, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab olishida yordamlashish;

c) o'z-o'zini tarbiyalash rejasini tuzishda, bola xulq-atvori hislatlarini qaysi xususiyatlarini taraqqiy ettirish, qaysisiga barham berish kerakligini aniqlash;

d) tarbiyachi o'quvchining o'z-o'zini tarbiyalashiga xoslangan oqilona yo'llarini aniqlashi.

Buyuk rus o'qituvchisi K. D. Ushinskiy ertaklar haqida yuksak fikrda bo'lib, u o'quvchilar o'rtasida ertaklarning muvaffaqiyati sababini xalq amaliy san'atining soddaligini bolalar psixologiyasining bir xil xususiyatlariga mos kelishida ko'rdi. Ma'lumki, Ushinskiyning pedagogik ideali aqliy va axloqiy-estetik rivojlanishning uyg'un kombinatsiyasi bo'lib, pedagogning qat'iy ishonchiga ko'ra, xalq ertaklari materialidan ta'limda keng foydalanilsa, bu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. Ertaklar tufayli bola qalbida mantiqiy fikr bilan go'zal she'riy obraz ulg'ayadi, tafakkur taraqqiyoti fantaziya, tuyg'u rivojlanishi bilan birga boradi.

#### Foydalanilgan adabiyot:

1. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. "Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari." *Conferences*. 2021.
2. Bakhtiyorovna, Nodira Adizova. "Place Names and Related Concepts Study." *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)* 14 (2022): 153-157.
3. Bakhtiyorovna, Nigora Adizova, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "Anvar obidjon is a children's poet." *Middle European Scientific Bulletin*.
4. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Boymuradova Sadoqat. "Use Foreign Experience to Improve the Reading Literacy of Primary School Students." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 306-309.
5. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.11 (2021): 330-335.
6. Адизова, Нодира. "Mikrotoponimlar tasnifi (Buxoro viloyati misolida)." *Общество и инновации* 3.3/S (2022): 128-132.
7. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lyubat Ilkhomovna. "Таълим муассасаларида таълим-тарбия жараёнларида интерфаол методлардан фойдаланишнинг hozirgi kundagi holati." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 330-333.
8. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
10. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF

PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.

11. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.

12. Адизова, Нодира. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

13. Адизова, Нодира. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

14. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.

15. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.

16. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences*. 2023.

17.

## 1-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDAGI ERTAKLAR VA ULARNING TASNIFI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Ulug'murod Sultonovich Amonov**

*BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Eshonqulova Malika Zayniddin qizi**

*TURON ZARMED universiteti o'qituvchisi, 7-IBTU-21 garuh magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ertak, uning kelib chiqish ildizlari, tarmoqlari, 1-sinf o'quvchilari uchun darslikda qaysi ertaklar keltirilganligi, ularning mazmun-mohiyati o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** ertak, xalq og'zaki ijodi, muallifi bor ertaklar, ovozli ertaklar, rasmi ertaklar, xayoliy ertaklar, hayotiy ertaklar.

**Ertak** – xalq og'zaki ijodining asosiy poetik janrlaridan biri. Ertak to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asardir. Asosan nasriy shaklida yoziladi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofida tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib va g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhimmezon bo'lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig'idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta'minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta'limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o'ziga xos badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan yoki mavjud bo'lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig'ida tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra, ertakni 2 guruhga – xayoliy uydirmalar asos bo'lgan ertak, hayotiy uydirmalar asos bo'lgan ertaklarga bo'lish mumkin.

Xayoliy uydirmalar asosidagi ertak sujeti – mo'jizali, sehrli;

Hayotiy uydirmalarga asoslangan ertak sujeti esa – hayotiy tarzda bo'lib, unda real voqea-hodisalar tasvirlanadi.



Ertakda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi:

Birinчисida ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinчисida, asosan, bosh qahramonning o'zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo'lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinчисida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi.

Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g'ayritabiiy kuch-qudrati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aqlidroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi.

Ertak janri obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rni va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy ertaklardir. Majoziy ertaklarning ("Susambil", "Bo'ri bilan tulki", "Tulkining taqsimoti", "Ikki boyqush" va boshqalar) syujetasosida ko'chma ma'no, allegorik obrazlar yotadi. Masalan, laqmalik va qonxo'rlik bo'ri orqali, ayyorlik va tilyog'lamachilik tulki orqali ifodalangan.

Ertak 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi kitobining 2-qismida turli shakllarda uchraydi. 2-qism darslik 3 bob, 9 bo'limdan iborat:

### I SAN'AT VA MADANIYAT

1. Ertakdagi qahramon.
2. Birinchi kitobim.
3. Mehmon bo'lish yaxshi-da.

### II TIL VA DIL

1. She'r bo'ladigan so'zlar.
2. Sanamalar.

### III FAN VA TEXNOLOGIYALAR

1. Oy yerdan kattami?
2. Siz buni bilasizmi?
3. O'quv yili oxirida takrorlash.
4. Matnlarda qo'llangan so'zlar lug'ati.

San'at va madaniyat bo'limida asosiy urg'u ertaklarga qaratilgan. Ertak-xalq to'qigan badiiy asar. Hali kitob yo'q vaqtda odamlar bir-biriga ertaklar aytib berishgan. Bir kishi birovdan eshitgan ertagini boshqa kishiga so'zlab bergan. Shu yo'l bilan ertaklar avloddan avlodga o'tgan. Har bir xalqning o'z milliy ertaklari bor. "Zumrad va Qimmat", "To'g'rivoy bilan Egrivoy", "Uch og'ayni botirlar" o'zbek xalq ertaklaridir.

Ertak qahramoni- ertakdagi voqeaning asosiy qatnashchisi.

Ertakdagi qahramon bo'limida uch xil ertak keltirilgan.:

*Rasmlı ertaklar:*

- 1) Rasmdagi qahramonlar qaysi ertak qahramoni(6-7-bet);
- 2) Rasmga mos ertakni toping (8-bet);
- 3) "Zumrad va Qimmat" ertagidagi voqealar ketma-ketligini belgilang.(9-bet);
- 4) "Serkaboyning hiylasi" nomli ertakka mos qahramonlarni topish(10-bet).

*Ovozli ertak:*

1. "Serkaboyning hiylasi" nomli ovozli ertak(10-bet).

*She'riy ertaklar:*

1. "Jonli savatcha" (14-15-betlar).



Albatta, xalqimizning ma'naviy an'alariga, hikmatli so'z, matal, maqol va ertaklarning insonparvarlik mohiyatiga e'tibor qaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlar va ularning eng kenja qatlami bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini yuksak ma'naviyat va ma'rifat sohibi qilib tarbiyalashda ming yillar davomida saqlanib kelinayotgan xalq maqollari, matallar va hikmatli so'zlarning o'rni kattadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.
2. U.H.Umirov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent–2002.
3. Azimova I. v.b. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchundarslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
4. Azimova I. v.b. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchundarslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
5. Ahmedova N. Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish usullari. Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari. «O'zbek tili» doimiy anjumani beshinchi yig'ilishi tezislari to'plami (1999 yil 29-30 aprel) – Toshkent.: «Sharq», 1999. – 76-77b.
6. U.S.Amonov, Sh.R.Saparova. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation. ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.11, Issue 6, June 2021. Impact factor:SJIF 2021=7,492. p-403. <https://saarj.com>
7. U.Amonov, M.Eshonqulova Buxoroning ikki farzandi haqida mulohazalar.- "Technische Universitat munchen"<https://doi.org/10.5281/zenodo.7383200> 2022.
8. U.Amonov, M.Eshonqulova - Buxoro bolalar folklorshunosligi asoschisi. Buxoro, 2022. <https://doi.org/10.5281/zenodo>.
9. У.С. Амонов Научный подход а. Фитрата к пословицам Современные тенденции развития науки и ..., 2016
10. U.S.Amonov Folklore in the works of Abdurauf Fitrat Theoretical & Applied Science, 2016
11. Amonov Ulugmurod Sultanovich Scientific-Theoretical and Practical Directions of Uzbek Folklore of the Twentieth Century European Journal of Life Safety and Stability 2022/2/24
12. Urinova Maftuna Numon qizi The academy of science of the republic of Uzbekistan Uzbek language, Instituti of Literature and Folklore 132-136p.

## FINLANDIYA TA'LIM TIZIMIDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Hakimova Marjona Iskandarzoda

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti pedagogika fakulteti  
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqish talabasi*

**Ilmiy rahbar ass. Akramova Lola Ulmasovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada butun dunyo tan olgan Finlandiya ta'lim tizimida matematika fani hamda matematika o'qitish metodikasining ahamiyati, shuningdek, dars jarayonida qanday metod va texnologiyalardan foydalanish eng samarali hisoblanishi to'g'risida keltirilgan. Shu bilan birga Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning boshqa ta'lim tizimlaridan bir nechta farqi aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Finlandiya ta'lim tizimi, boshlang'ich ta'lim, o'quv metodlari, toq va juft metodi, PISA, matematika, matematika o'qitish metodikasi.

**Abstract:** This article describes the importance of mathematics and mathematics teaching methods in the world-recognized Finnish education system, as well as what methods and technologies are considered the most effective in the teaching process. At the same time, the Finnish education system its specific features and several differences from other educational system have been mentioned.

**Key words:** Finnish education system, primary education, teaching methods, odd and even method, PISA, mathematics, mathematics teaching methodology.

**Аннотация:** В данной статье описывается значение математики и методов обучения математике во всемирно признанной финской системе образования, а также какие методы и технологии считаются наиболее эффективными в учебном процессе. В то же время финская система образования

*имеет свою специфику отмечены особенности и ряд отличий от других образовательных систем.*

**Ключевые слова:** *финская система образования, начальное образование, методы обучения, нечетный и четный метод, PISA, математика, методика преподавания математики.*

*“Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarasa, ta‘lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgaraydi.”*

*Shavkat Mirziyoyev*

Nufuzli xalqaro tashkilotlarining tadqiqotlar va izlanishlariga ko‘ra, finlandiyalik maktab o‘quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etadi. Ular shuningdek, dunyodagi eng ko‘p kitob o‘quvchi bolalar hisoblanadi. Bundan tashqari, finlandiyalik maktab o‘quvchilari tabiiy fanlar bo‘yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo‘yicha esa beshinchi o‘rinni egallaydi. Biroq ular bu yutuqlardan hech qachon to‘xtab qolishmaydi. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlandiyalik maktab o‘quvchilari darslarga u qadar ko‘p vaqt ajratishmaydi. Ular dars jarayonida dunyo tan olgan dars metodlaridan foydalanadi. Shuning uchun, so‘nggi paytlarda Finlandiyadagi ta‘lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan hisoblanib, yuqori darajada rivojlangan. Ayniqsa, matematika o‘qitish metodikasi eng yuqori darajada deya dunyoda tan olinadi va bu borada katta yutuqlarga erishilgan. Finlandiya ta‘lim tizimida qo‘llaniladigan metod hamda texnologiyalar garchand g‘ayrioddiy tuyulsada ko‘plab ijobiy yutuqlarga erishishga sababchidir. Shulardan bitta oddiy misol keltiradigan bo‘lsak, Finlandiyada fandan yuqori va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bir biriga yordamchi yoki o‘quvchi bir biriga ustoz metodi, yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, juft yoki toq metodida o‘qitish juda ham ommalashgan. Juft metodi bu yuqori va past o‘zlashtiruvchi ikkita o‘quvchiga dars o‘tiladi va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchi tushunmagan qismini o‘quvchining tushunishi oson bo‘lgan atamalar bilan yuqori o‘zlashtiruvchi o‘quvchi past o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga tushuntiradi. Toq usul esa past o‘zlashtiruvchi o‘quvchi bilan fan o‘qituvchisi shug‘ullanadi, undan keyin maktabning to‘garak o‘tuvchi o‘qituvchisi shug‘ullanadi va oxirgi bosqichda esa past o‘zlashtiruvchi o‘quvchining ota onasi shug‘ullanib boshqa sinfdagi tez o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga yetib olishlariga yordam beradi. Bu ikkita metodning afzalliklari juda samarali natija berishida bo‘lib, bir necha yillardan beri sinalgan metodlardan biri bo‘lib kelmoqda. Fin o‘qituvchilari tamonidan bu metod a‘lo darajada o‘zlashtirilgan va amaliyotda tatbiq etib kelinmoqda.

Finlandiya so‘ngi 30 yil ichida ta‘lim tizimida katta islohatlar olib bordi va yutuqlarga erishdi. Finlandiya maktablarida yana bitta metodlardan biri unda deyarli raqobat yo‘q. Ya‘ni o‘quvchilarga baho qo‘yishda. Finlandiyada baho tizimi mavjud emas. O‘quvchilarning qaysi biridir ikki oldi yoki uch oldi va hokazo kabi ajratish mavjud emas. Finlandiyada maktab o‘quvchilari bitiruvchi sinfgacha bo‘lgan davrgacha kredit ballni har bir o‘quvchi masalan, matematika fanidan maktab bitirguniga qadar davr ichida 300 kredit ball to‘plagan bo‘lishga majburdir. Ikkinchi raqobatning mavjudmasligiga yana misollardan bittasi ularda forma kiyish yoki qandaydir kiyinishga bo‘lgan talabning mavjudmasligidir. Finlandiyada har bir o‘quvchi o‘z xohishiga va imkoniyati darajasida ko‘ra kiyina olishidir. Finlandiya maktablarida sinf xonalarida deyarli shovqin bo‘lmaydi. O‘quvchilar bir biri bilan taqqoslanmaydi. Agarda o‘quvchi o‘zlashtira olmasa u bilan fan o‘qituvchisi ko‘proq shug‘ulanadi.

So‘ngi yillarda Finlandiya Xalqaro PISA reytingida matematika fanidan 5-o‘rinni egallab kelmoqda. Finlandiya maktablarida dars soatlari kam bo‘lishiga qaramasdan o‘zlashtirish yuqori darajada. Finlandiya maktablariga bolalarni 7 yoshidan qabul qiladi. Ularning fikricha bu eng to‘g‘ri qaror. Finlandiya maktablarida ta‘lim quyi va yuqori bosqichlarda olib boriladi. Quyi bosqich (boshlang‘ich ta‘lim (7-12 yoshlar) 1-sinfdan boshlab 6-sinfgacha bo‘lgan sinflarni hamda yuqori bosqich -yuqori sinf o‘quvchilari 7-9 sinf (13-16 yoshlar) o‘quvchilarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinflarida umumiy matematika fanining uchdan ikki qismi o‘qitiladi. Asosiy darsni boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi amalga oshiradi. Dars berish jarayonida Finlandiya boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlarining tajribalaridan va shaxsiy metodlaridan kelib chiqib asosiy darsni beradi. Finlandiya o‘qituvchilarning asosiy maqsadi o‘quvchini qiziqtirish vanatijaga erishish hisoblanadi.

Finlandiyada o‘quv materiallari matematik ta‘limga qiziqadigan va hozirda maktablarda

ishlaydigan oddiy o'qituvchilar tomonidan tayyorlanadi. Shuning uchun ular maktablardagi sharoitlarni juda yaxshi biladi. Hozirda ikki xil turdagi parallel darsliklardan foydalaniladi. Bu darsliklar bir-biridan biroz farq qilsa ham, barcha o'quv qo'llanmalari umuman o'xshashdir. Barcha darsliklarda muammolar va statistik ma'lumotlarni yechish uchun turli xil materiallar, guruh ishlari va loyihalar uchun g'oyalar mavjud. Ular shuningdek asosiy mashqlar to'plamini hamda barcha talabalar uchun qiyinroq topshiriqlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, matematikaga qiziqqan o'quvchilar uchun qiyin topshiriqlar to'plami mavjud. O'qituvchilar o'z o'quvchilari uchun darsliklar va boshqa materiallarni tanlash bilan bir qatorda o'qitish metodikasi uchun mas'ul.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Finlandiya maktablaridagi ta'lim tizimi qisqa satriklarda mana shunday. Ehtimol, u kimgadir noto'g'ridek tuyulishi mumkin. Finlar mukammallikka da'vogarlik qilmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo'lishi mumkin deb o'ylaydi. Ular mamlakatdagi maktab tizimi jamiyatdagi o'zgarishlarga qanchalik to'g'ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qiladi. Shunisi quvonarliki, finlarning farzandlari tunda asabiy zo'riqishdan uyg'onmaydi, tezroq katta bo'lishni orzu qilmaydi, ularda maktabga nisbatan nafrat yo'q, o'quvchilar navbatdagi imtihonlarga tayyorlanib, o'zlari va butun oila a'zolarini qiynamaydi. Xotirjam, sermulohaza va baxtli fin bolalari kitoblar mutolaa qiladi, tarjimasiz filmlar ko'radi, kompyuter o'yinlari o'ynashadi, rolik va velosipedlarda uchadi, musiqa va teatr pesalari yaratadi, qo'shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida ta'lim olishga ham ulguradi. Finlandiya ta'lim tizimining mo'jizasi hamda yutuqlarini men aynan mana shunda deb o'ylayman.

#### Foydalanilgan adabiyot

1. <https://www.infofinland.fi/en/living-infinland/education/the-finnish-education-system>; Finlandiya o'rta ta'lim maktablarini matematika fani o'qituvchilari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar.
2. Andrews. P., Ryve. A., Hemmi. K. & Sayers. J. (2014). PISA; TIMSS and Finnish mathematics teaching (TIMSS va fin matematikasini o'qitish): an enigma in search of an explanation. In Educ.Stud.Math DOI 10.1007/s10649-014-9545-3
3. Heidi Krzywacki . Leila Pehkonen and Anu Laine. University of Helsinki. Promoting mathematical thinking in Finish mathematics education.
4. Timoti Uoker "Finlandiya ta'lim mo'jizalari".

### O'ZBEK TILI NUTQ MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA O'XSHATISHLARNING QO'LLANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Safarov Firuz Sulaymonovich**

*BuxduPI dotsenti*

**Istamova Nasiba Amrillo qizi**

*BuxDUPI 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek tili nutq madaniyatining shakllanishi va unda o'xshatishlarning qo'llanilishi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, grammatika, fonetika, tasviriylilik, nutq, stilistika, o'xshatish.

O'zbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan stilistika-uslubshunoslik til birligining aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qo'llanishi, nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barchavositalarining nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma'no nozikliklarini aniqlash bilan shug'ullanadi. "Stilistika tilda mavjud bo'lgan barcha vositalar, leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma'lum bir tipdagi shakl, so'z va konstruksiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi. Me'yor qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi. Shunga ko'ra stilistika so'z sa'nati ifoda vositalar haqidagi bir fandir". Tildagi ana shunday muammolar bilan shug'ullanadigan uslubshunoslikning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

1. Tilning leksik resurslarini o'rganuvchi yo'nalish.
2. Funktsional stilistika-vazifaviy uslubshunoslik.
3. Badiiy adabiyot uslublari.
4. Amaliy uslubshunoslik.

Mavzu nuqtayi nazaridan bu o'rinda bizni vazifaviy uslubshunoslik qiziqtiradi. Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida, avvalo ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydi va qo'llaydi. Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu qatlam nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishni taqazo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani-vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltirdi. O'zbek tili uslublarini vazifaviy jihatdan tasnif qilish amalda til va tildan tashqarida bo'lgan omillarga tayanadi.

O'zining boy tarixi va lug'at boyligiga ega bo'lgan o'zbek tili, o'z navbatida nutqiy jarayonda qo'llanishning ham bitmas-tuganmas imkoniyatlarga ega. O'zbek tilining hozirgi taraqqiyot bosqichi uning barcha yaruslarida stilistik va tasviriylik imkoniyatlarining kengligidan dalolat beradi. Ta'lim jarayonida uning ana shu stilistik resurslar bilan tanishtirib borish, ulardan nutqiy jarayonda foydalanish singari o'rgatish fanni o'qitish oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Uslubiy resurslar o'zbek tilining barcha qatlamlarida bir xil emas. Tasviriylik oz yoki ko'p bo'lishidan qat'iy nazar, ularning barchasi muhim bir vazifaga-nutqning to'g'ri, aniq, mantiqiy ta'sirchan xullas, mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Shu yo'l orqali funktsional jihatdan farq qiladigan har bir nutq uslubi o'zaro bog'liqlikda aniq ifoda bilan hamda tarixiy shakllangan va an'anaviy muomala muhiti bilan doimo aloqada bo'lgan tilning barcha sathlarida so'zlashishning alohida aktlari shaklida amalga oshiriladigan vositalar bilan yaratiladi. Nutq ta'sirchan, aniq, maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi uchun undan foydalanuvchi tilning stilistik resurslari va me'yorlarini yaxshi bilishi lozim".

Tilshunosligimizning madaniy tarixi ulug' mutafakkirimiz Alisher Navoiyga borib taqaladi. Ul zot tilshunoslik munosabatlarini belgilashda til va nutq munosabatini ochish, til va nutq birliklarini ma'lum darajada farqlash imkoniyatini berdi. Hozirgi tilshunoslikda til va nutq bir-biridan izchil ravishda farqlanadi. Til va nutq munosabatini ochish lingvistik tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. Shu kunga qadar bu ikki hodisani bir-biridan farqlash dastlab mashhur nemis olimi Vilgelm Gumboldtdan boshlangan va u Shveysariyalik olim Ferdinand De Sossyur lingvistik ta'limotining asosini tashkil qiladi, deb hisoblab kelindi.

Lekin Alisher Navoiy asarlariga e'tibor berilsa, bu olim Vilgelm Gumboldt va F. De Sossyurlardan ancha oldin til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlaganini guvohi bo'lamiz, Alisher Navoiy imkoniyat tarzidagi so'z (til birligi) sohibi ixtisos (so'zlovchi) tomonidan turli xil jilvalantirilishi (nutq birligi sifatida reallashtirilishi) mumkinligini bayon qilgan. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ta'kidlashicha, so'z go'yo durdir. Durning joylashish o'rni dengiz tubi bo'lsa, so'zning joylashish o'rni ko'ngildir(xotiradir). "Dur g'ovvos yordamida dengiz tubidan tashqariga chiqarilib, jilvalantirilsa va g'avvosning qiymati javharni jilvalantira olish qobiliyatiga qarab belgilansa, so'z sohibi ixtisos tomonidan ko'ngildan tashqariga olib chiqiladi va notiqning qiymati so'z qo'llash mahoratiga qarab belgilanadi. Dengiz qarida harakatsiz imkoniyat tarzida turgan durlar g'avvos yordamida harakatga keltirilsa, ko'ngil tubidagi imkoniyat tarzidagi so'zlar ham so'zlovchi tomonidan nutqiy jarayonda o'z jilvasini topadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.N. B. Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
2. N. A. Bakhtiyorovna, N. A. Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
3. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROT NOMASI." *Buxoro*

davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

4. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.

5. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.

6. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

7. Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi // *Научно-практическая конференция*. – 2021.

8. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.

9. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" *Scientific Journal*. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.

10. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concentration "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools // *www. auris-verlag. de*. – 2017.

11. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics // *Middle European Scientific Bulletin*. Volume 8, January 2021, 174

12. Саидова, Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах." *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.

13. Saidova, G. E. "BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNING O 'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH." *Conferencea* (2023): 33-37.

14. Xoliqulovich J. R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S "MEMORIES", *EPRA International Journal of Multidisciplinary*.

15. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadridin Ayni's Works // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

16. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*

17. Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).

18. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ // *Интернаука*. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

19. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! // *Интернаука*. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

## SHARQ VA G'ARB ALLOMALARINING MATEMATIKAGA OID QARASHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Murodova Maqsuda Maxsudovna**

*Buxoro davlat pedagogika instituti 7-3*

*BTU-21 guruh magistranti*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada sharq va g'arb allomalarning matematikaga oid qarashlari, allomalarning matematika faniga qo'shgan hissasi, mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlarning mazmuni haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika fanidagi kashfiyotlar, matematik asarlar, o'rta asrlar matematiklari, Sharqda matematika rivoji, G'arbda qilingan matematika yangiliklari, matematik fikrlar, olimlar hayoti.

**Аннотация:** В данной статье выражены взгляды восточных и западных ученых на математику, вклад ученых в науку о математике, содержание работ, проводимых в нашей стране.

**Ключевые слова:** открытия в математике, математические труды, математики средневековья, развитие математики на Востоке, математические инновации на Западе, математические идеи, жизнь ученых.

**Abstract:** In this article, the views of Eastern and Western scholars on mathematics, the contributions of

*scholars to the science of mathematics, and the content of the works carried out in our country are expressed.*

**Key words:** *discoveries in mathematics, mathematical works, mathematicians of the Middle Ages, development of mathematics in the East, mathematical innovations made in the West, mathematical ideas, life of scientists.*

Sharq-u G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olimu shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: «tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir» [1].

Sharqning ulug' allomalari va mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot poydevori. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak.

Ilm-fan, taraqqiyot avvalo nimaga bog'liq? O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'loqining paydo bo'lishi va voyaga yetishi – bularning barchasi, birinchi navbatda, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandlik va savdo- sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Sharq olamida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo'lgani haqida qadimgi baqtriya, so'g'd, o'rxun, xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy tasviriy san'at asarlari va haykalchalar, arxitektura namunalari dalolat beradi.

XI-XIII asrlarda asos solingan Xorazm davlati, Fors ko'rfazigacha bo'lgan hududlardagi qo'shni xalqlar yerlarini birlashtirgan holda, Osiyo qit'asining katta qismini qamrab olgan. Milodgacha bo'lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiy xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq, O'rtayer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog'lab kelgan Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati beqiyos bo'lgan.

Buyuk Ipak yo'li – Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq, O'rta yer dengizi mintaqasi kabi hududlar o'rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki qit'alar va davlatlar o'rtasida axborot almashuvini ta'minlashga xizmat qildi, yangi texnologiya va ishlanmalarning (ipak, chinni buyumlar, porox, qog'oz va boshqa ko'plab mahsulotlar) tez tarqalishida, qishloq xo'jaligi ekinlari va agrotexnologiyalarning, madaniy qadriyatlarining rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajardi, shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashuvi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Bu davrlarda turli mamlakatlar xalqlarining ilmiy bilim va yutuqlar bilan bir-biriniboyitib borishi bilan Buyuk Ipak yo'li alohida rol o'ynadi. Buyuk Ipak yo'li orqali Yevropaga, Yevropadan esa Osiyoga Sharq va G'arb olamidagi ulug' alloma va mutafakkirlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar yetkazildi. Sokrat, Platon, Aristotel, Ptolomey va antik davrga mansub boshqa buyuk allomalarning ilmiy asarlari, g'oya va kashfiyotlarini o'rganish uchun amaliy imkoniyat vujudga keldi.

Ma'lumki, o'sha davrlarning an'analariga ko'ra, ma'rifatparvar mutafakkir va faylasuflar, olimlar va shoirlar odatda hukmdorlar va sultonlar saroylarida panoh topganlar. Ular orasida IX-XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi va "Baytulhikma", ya'ni "Donishmandlik uyi" degan nom bilan shuhrat qozongan Bag'dod akademiyasida, shuningdek, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabida samarali mehnat qilgan bir guruh olimlar butun dunega dong taratdi.

Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda jahonning boshqa



mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Sharq uyg'onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Agar Yevropa Uyg'onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san'at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa, Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo'ladi.

O'rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida Xorazm Ma'mun akademiyasi alohida o'rin tutgan. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan bu dargohda yuzdan ortiq allomalar, iste'dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Xorazmiy shunday deydi: Imom Ma'munning fanga qiziqishi va bu sohadagi olimlarning ishlarida uchraydigan qiyinchiliklarga yordam berishi kabi fazilatlarimni hisoblash haqida qisqacha asar yozishga da'vat etdi. Bu asarni yozishda o'quvchilar uchun tushunarli, yengil, foydali va kishilar o'rtasidagi muammo- larda hisoblash ishini osonlashtirishga yordam beradigan, ayniqsa meros taqsim qilishda, bitim tuzishda, savdo ishlarida, yer o'lchash va shunga o'xshash boshqa hisoblashlarda qo'llanma bo'lishini maqsad qildim deb yozgan. Xorazmiy yozgan "Arifmetika traktatlari", "Algebra", "Hindlar astranomik jadvalidan chiqarish"- "Sadiant", "Tuzatilgan Ptolemey vatarlar jadvalidan chiqarish" kabi asarlarida arifmetik, algebraik va geometrik materiallarni sistemalashtirdi. Qisqasi Xorazmiy Bobil, Yunon, Hind, Misr matematiklari qoldirgan boy merosni chuqur o'rganib, tahlil qilib, sistemalashtirib, rivojlantirib kelajak avlodga taqdim etdi. Haqiqatda Osiyo va Yevropa olimlari, Jumladan Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom va boshqalar algebrani AlXorazmiy kitoblaridan o'rgandi. Sharq ilm-fani siymolaridanyana biri bu Umar Xayyomdir. Umar Hayyom-G'iyosiddin Abdulfath Umar Ibrohim al Xayyom (taxminan 18.5,1048-1123)-faylasuf, astronom, matematik, fors-tojik shoiri. Xayyom matematikani o'rganib, uning taraqqiyotiga muhim hissa qo'shdi. U tenglamalarni tahlil qilib, ularni 25 ko'rinishga ajratdi, uchinchi darajali tenglamalarni yechish haqida fikr yuritdi. Uchinchi darajali tenglamalarni 14 sinfga ajratib, ularni yechish usullarini, yechimlarining chegarasini, musbat yechimlar sonini aniqlash kabi masalalarni hal qildi.

**Xulosa.** Shunday ekan, inson hech qachon bir joyda turib qolmaydi u rivojlanadi. Maqolam so'ngida muhtaram birinchi Prezidentimizning "Beshikdan tobutgacha ilm izla" degan gaplarini keltirib misol tariqasida ajdodlarimizni aytib o'tayin ul zotlar ilm axtarib Bag'doddan Qoshg'argacha bo'lgan jamiki shaharlarni kezib u yerlardagi dong'i dunyoga ketgan ustozlardan talim olib, ilm o'rganib yurganlar va o'zlari ham ulardan o'tgan olimlar bo'lib yetishgan. Ilmga chanqoq talabalar shuni unitmangki, ilm yo'lida ming-minglab yo'l bosgan va ming yildan beri unitilmas bo'lib kelayotgan ajdodlarimizga munosib avlod bo'laylik. Zero vatanni kelajagi va istiqboli siz va biz kabi yoshlar qo'lidir. Biz buni aslo unitmasligimiz darkor.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni T.: 2020-y 23 sentyabr
2. Ш.К. Амоношвили. Каждому ребенку-индивидуальной подход. Воспитание основы. ("Начальная школа", 1991).
3. R.A. Mavlonova va boshq. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., TDPU, 2007.
4. M.M. Axmetjanov, G.Dj. Tosheva "Zamonaviy pedagogning o'quv va metodik faoliyati" Durdonaxona Buxoro 2020 –y. 6- bet.
5. Murodova M. M. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI TABIATSHUNOSLIK FANI BILAN INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 77-79.
6. Адизова Нигора Бахтиёровна. Оксокол Бува, Бола Ва Хон Образлари Қизикмачоқлар Талқинида. Journal of innovations in social sciencesjournal of innovations in social sciences. 02 Issue: 01 | 2022.

7. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
8. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
9. AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN'S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)
10. Нигора Бахтиёрровна Адизова, Хилола Худойбердиева. ҚИЗИҚМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress
11. Nigora Baxtiyorovna Adizova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. Scientific progress
12. N. B. Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
13. . N. A. Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
14. A. N. Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
15. A. N. Bakhtiyorovna, AN Bakhtiyorovna. The role of the fun genre in children's spiritual development. Middle European Scientific Bulletin 4, 38-40
16. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.

## **НАУЧНО ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Ахмадов Олимжон Шодмонович**

*доцент кафедры начального образования БугППИ, кандидат педагогических наук*

**Одилова Наргиза Акрамовна**

*магистрант 1-курса БухГПИ*

**Аннотация:** В данной статье описывается роль естествознанию в развитии творческого мышления учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** творческое мышление, образование, учащийся начальных классов, «Об образовании».

Для того, чтобы эффективно развивать творческое мышление, увлеченность, личности ученика начального класса, возможности, прежде всего, важно обеспечить условия, при которых у начинающего класса есть возможность продемонстрировать свое творческое мышление, уверенность в себе на уроках, принятие обоснованных решений в процессе обучения. Выполнение поставленных творческих заданий, а также создание творческого мировоззрения.

Как вы знаете, с принятием закона Республики Узбекистан «Об образовании» был создан фундамент системы непрерывного образования. Следовательно, статья 26 Закона «Об образовании» гласит, что широкомасштабное применение передовых педагогических технологий в учебном процессе является одной из наиболее актуальных задач для всех типов образовательных учреждений. В развитых странах большое внимание уделяется образованию молодежи, и государственные программы воспринимаются этими греками как таковые. В связи с этим в системе непрерывного образования нашей республики организованы фундаментальные вопросы воспитания молодого поколения нашего будущего как современной гармоничной личности, обладающей интеллектуальной целостностью, творческим мышлением, духовной зрелостью, физической силой, инновационным развитием.

Достиженные в них результаты являются дидактической основой в продвижении

системы мышления учеников младшего школьного возраста, благодаря которой содержание начального образования не достигается в формировании и развитии на основе современных требований. В то же время уровень общественной организации в современном образовании повышает актуальность формирования творческого мышления у учащихся первого класса, а также использования передовых достижений науки и технологий.

В результате проведенных исследований по развитию творческого мышления у учащихся начальных классов, разработки инновационных методов и технологий при внедрении определенной образовательной системы в преподавании естественных наук в образовательный процесс и создании комплекса творческих мероприятий на основе творческого мышления, предназначенных для эффективного использования в определенных дисциплинах, оптимальная организация.

Кроме того, указ президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года о реализации стратегии дальнейшего развития PF-4947 создал широкие возможности для решения проблемы, которая возникает в настоящее время. Также в указе президента Республики Узбекистан о государственной программе "Молодежь - наше будущее" от 17 июня 2018 года говорится, "воспитывать гармоничных, стремящихся и бдительных молодых людей, обладающих современными знаниями и навыками, способных взять на себя ответственность за достойное будущее".

Творческие или умелые занятия по естественным наукам помогают учащимся начальных классов в развитии захватывающего воображения, а также в формировании многих практических навыков и компетенций. Например, выращивание ниши, уход за цветком, отношение к животному миру, внимание вашей семьи и друзей к медицине, чтобы сохранить лекарство своими руками, развитие всего этого у начинающих школьников согласуется с целью.

Творческое мышление нужно начинать развивать уже в начальной школе, применяя такие методы, которые будут побуждать учащихся к активному творческому мышлению, к гибкости, скорости и оригинальности. Данный вид мышления развивается только в том случае, если учащиеся при решении проблемной задачи сталкиваются с учебными трудностями, для которых не существует шаблонов решения. Но также ребенок может предложить решение, которое известно было ранее и использовалось на практике, но он самостоятельно додумался до этого решения. Именно, в таких ситуациях мы сталкиваемся с творческим процессом, который основан на догадке, интуиции ребенка. В этом случае важен сам механизм деятельности младшего школьника. В этой деятельности формируется умение решать нестандартные математические задачи. Можно сказать, что продуктивность мышления зависит от рабочей атмосферы, которая должна быть оптимальной.

Формируясь в процессе учебной деятельности как необходимые средства ее выполнения, рефлексия и планирование становятся особыми мыслительными действиями, обеспечивающими ребенку новое и более опосредованное отражение окружающей действительности. По мере становления этих мыслительных действий у младших школьников принципиально иным образом развиваются и основные познавательные процессы: мышление, восприятие, память, внимание. А также, по сравнению с дошкольным возрастом, качественно меняется содержание этих процессов и их форма.

И еще одна важная особенность заключается в следующем: идея постановки целей, создания талантов позволяет ученику начальной школы обрести уверенность в себе, устраняя иллюзию невозможности войти в окружающий его реальный мир без помощи окружающих его взрослых. Но независимость, уверенность в себе создали необходимые условия для того, чтобы ученик начальной школы был по-настоящему счастлив, и

сформировали его научное мировоззрение.

Как известно, эмоциональным украшением студентов является настрой и единство в выборе темы, вида деятельности. Соответственно, в психологии, в образовательном процессе студентов, используются два вида интереса: первый - прямой интерес, второй - косвенный интерес. Каждый учитель хочет дополнить косвенное отношение своих учеников к его науке.

Творческое мышление обогащается через учебную деятельность путем активизации интеллектуальных и умственных сил. В учебной деятельности от ребенка требуют постоянной активности, ведь не зря говорят, что познание – активный процесс. Умственную активность детей приходится стимулировать и это приводит к тому, что умственные способности быстро развиваются и это способствует развитию наблюдательности, активизации воображения, памяти, а также формируются устойчивые волевые качества индивида. Именно этот набор качеств является фундаментом творческого мышления. На этом этапе содержанием служит не только учебный материал, но и повседневная жизнь ребенка, увиденная им в процессе учебной деятельности в совсем ином свете. Младшие школьники впервые раскрывают свои способности в творческом процессе: без страха решают задачи на творческое мышление, соригинальностью подходят к своей домашней жизни, легкостью переносят свои знания из одной области в другую

Только если мы сможем сформировать творческое мышление у учащихся начальной школы, мы станем свидетелями совершенства в осуществлении собственного вида деятельности.

### Список литературы

1. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – Т. 10. – №. 12. – С. 1224-1227.
2. Ahmadov O. БУХОРО АМИРЛИГИДА ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИ. ЮТУҚДАРИ ВА МУАММОЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
3. Ахмедов О. Ш. ОБРАЗОВАНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ПРАВИТЕЛЕЙ) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.
4. Ahmadov O. BUXORO BOSMAXONA VA NASHRIYOTLARIGA TEXNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
5. Ahmadov O. XIX аср охири-XX аср биринчи чорагида Бухорода таълим-тарбия тизимининг манбавий асослари ва адабиётлар таснифи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 4. – №. 4.
6. Аҳмадов О. Ш. МОЛОДЕЖЬ, ВЛАСТЬ, ОБЩЕСТВО: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ.
7. Ражабов ҚҚ, И. Қ., Исмаилов, А. Ф., Ахматов, А., Амонова, Ф., Жумаев, Р. Ф., Ахмадов, О. Ш., ... & Исамова, П. Ш. ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH.
8. Olimjon A. БУХОРОДА ЯНГИ УСУЛ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИДАГИ ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ЎРНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
9. Khasanov, Ahmadov O. Sh. "MAHMUDHO 'JA BENBUDIY-TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI YO 'LBOSHCHISI." MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2.21 (2023): 143-150.
10. Olimjon A. XIX ASR OXIRI XX ASR I-CHORAGIDA BUXORODA JADID MAKTABLARINING TA'LIM-TARBIYA TIZIMI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

# BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TABIIY VA TURLI XIL MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda tabiiy va turli materiallarning ahamiyati yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: kreativlik, boshlang'ich sinf, rivojlantirish, texnologiya, qobiliyat, tabiiy material, turli xil material.*

Bugungi kunda dunyo ta'lim taraqqiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi avvalambor ta'lim jarayoniga innovatsion hamda kreativ yondashish kerakligini taqozo etmoqda. Chunki jahonda har qaysi jamiyatning rivojlanishi va yo'nalishini begilab beruvchi omil innovatsion-kreativ ijodkorlik ta'siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida ijodkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSH, Kanada, Finlandiya, Singapur, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda o'qitish jarayonlari innovatsion-kreativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Natijada yuqoridagi davlatlar ta'lim sohasi jahonda yetakchilik qilmoqda.

Texnologiya ta'limini O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, 2025-yilgacha O'zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiyasi, fan taraqqiyoti va texnik-texnologiyalarning rivojlanishi, bozor munosabatlari va inson kapitaliga qo'yilayotgan yangi talablar hamda zamonaviy kreativ yondashuv asosida modernizatsiyalash lozim.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Xususan texnologiya darslarida, tabiiy va turli xil materillar bilan ishlash jarayonida bunga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'quvchi texnologiya darslari jarayonida o'zini bir qadar erkin his qiladi, ijodiy fikrlaydi, tafakkur hamda tasavvur olamiga erk beradi. Urug'lardan, barglardan, har xil plastmassa idishlardan, plastlindan turli xil hayvonchalarni, applikatsiya va mozaikalarni ijodiy yondashgan holda tayyorlaydi. Natijada o'quvchilarda kreativ qobiliyatlar shakllana boradi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, o'quvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflar turli materiallardan applikatsiyalar yasashlari mumkin. Masalan meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak va danak po'choqlari bilan xilma-xil applikatsiya va mozaika ishlarini bajarishlari mumkin.

Meva va sabzavot urug'lari turmushda chiqindi materiali hisoblanadi. Turli meva urug'lari yoki danaklari ajratib olingandan so'ng uni yaxshilab yuvib, ortiqcha narsalardan tozalanib quyosh tushmaydigan joyda quritiladi. Bu urug'lardan texnologiya darslarida turli materiallardan mozaika yasashda foydalanish mumkin.

Bunda o'quvchilar har bir narsaga kreativ yondashgan holda keraksiz chiqindi materiallardan ajoyib, ko'zni quvontiradigan buyumlar yasashlari mumkin. Boshlang'ich sinf texnologiya darsi jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish o'qitishning yangi shakl hamda metodlarini tadbiq qilish, o'quvchilarda qiziqishni oshirishga, darslarning samaradorligini kuchaytirishga, bilish faolligini oshirishga kattayordam beradi. Texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun turli materiallardan aplikatsiyalar va mozaikalar yasashga o'rgatishda avval o'quvchilarni tabiat qo'yniga ekskursiyaga olib chiqib atrofdagi mavjud turli materiallarni to'plashga o'rgatish keyin esa bu turli materiallarni quritish va saqlashga o'rgatishni talab etadi.

Bu esa atrof-muhitga e'tiborni, tabiatga muhabbatni, asrab-avaylashni o'rgatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshligidanoq turli texnologiya jarayonlariga tayyorlash ularni kelajakda yetuk bilimli mutaxassis va kasb-hunar egasi, har qanday sohaga kreativ yondasha oladigan shaxs bo'lib yetishishlarida yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'RVMsining "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 11.06.2019 yil 487-sonli Shavkat Mirziyoyev Miromonovich.PQ.
2. O'RQ "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2019y 22-dekabrda, Senat tomonidan 2019y 14-dekabrda ma'qullangan.
3. Мирзаева, Дилфуза. "Арт педагогикаси воситасида мактабгача таълим ташкилоти болалари ижодкорлигини ривожлантириш." Общество и инновации 3.1/S (2022): 141-148.
4. Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна, and Азизабону Элмуродовна Хамраева. "АРТПЕДАГОГИКА В СИСТЕМЕ ВОСПИТАНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ." ИЖТИМОЙИ ФАНЛАРДА ИННОВАЦИЯ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ 2.2 (2022): 87-91.
5. Tilavova, M. M., & Alimova, M. A. Q. (2021). TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QO 'L MENHATIDAN FOYDALANISH TALABLARI. Scientific progress, 2(7), 975-982.
6. Mukhamadovna, T. M. (2021). Challenges of Feminism and Gender Equalization. Middle European Scientific Bulletin, 10.
7. Нигматова Мавджда Махмудовна, Мирзаева Дильфуза Шавкатовна РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ АРТ ПЕДАГОГИКИ // Вестник науки и образования. 2021. №14-3 (117)
8. Mukhamadovna, T. M., Djanshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. Middle European Scientific Bulletin, 11.
9. Тилавова, М. М. (2020). Гендерный подход на уроках технологии. In European research: innovation in science, education and technology (pp. 33-35).
10. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 332-334.
11. Ahmadovich H. H. et al. O 'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 343-345.
12. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.
13. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 100-102.
14. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 248-250.
15. Ahmadovich K. H., Bahridinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – C. 141-145.
16. Ahmadovich K. H., Zokirovna Z. A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 25. – C. 133-137.
17. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 7. – C. 130-133.
18. Turdiyeva, Mohira Juraqulovna, and Gulzoda Mardon Qizi Davronova. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILİYATLARINI YUZAGA CHIQRISHDA O'YINCHOQLARNING ROLI." Scientific progress 2.7 (2021): 996-1002.



# BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d.,*

Sharipova Feruza Shakar qizi

*Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faolligi, izlanuvchanligi, xotirasining yaxshilanishi, topqirligi kabi xususiyatlari shakllantirish haqida so'z yuritiladi. Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan o'rinli foydalanish, o'quvchilarni fikrlashga, o'zgal fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** darslik, kompetensiyaviy ta'lim, nutqiy kompetensiya, ona tili fanini o'qitishning vazifalari.

Kompetensiyaviy ta'lim o'quvchilarning ma'lum bilimlar yig'indisini egallashnigina emas, balki shaxsning rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu sababli barcha fanlarga tegishli bo'lgan tayanch kompetensiya va har bir fanga doir kompetensiyalar berilgan. Jumladan, ona tili faniga oid nutqiy va lingvistik kompetensiyalar mavjud bo'lib, ular alohida ahamiyatga ega.

**Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi** - o'quvchilarni fikrlashga, o'zgal fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish va ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Nutqiy kompetensiyada tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish rivojlantirilsa, lingvistik kompetensiyada tilshunoslik fanining bo'limlari: fonetika, sintaksis, leksikologiya, morfologiya, punktuatsiyaga oid tushunchalar rivojlantiriladi.

## **Nutqiy kompetensiyada o'quvchilar:**

- tinglangan matn, mashq va topshiriqlardagi yoki diktant matnini tushuna oladi;
- mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qiy oladi;
- fikrini to'g'ri bayon qila oladi, urg'uni to'g'ri qo'ya oladi;
- o'rganilgan mavzular doirasida lug'at, saylanma, ta'kidiy diktantlarni hamda 85-95 ta so'zdan iborat bo'lgan nazorat diktantini yoza oladi;
- husnixat va imlo qoidalariga amal qiladi;
- 8-10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi;
- mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.
- yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi.
- so'zlarni morfologik tahlil qila oladi;
- o'rganilgan ifoda vositalarini og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llaydi;

Bizga ma'lumki, mavzuni tushuntirish va fikrni ifodalash uchun ona tilida bir qancha imkoniyatlar bor. Ularni xilma-xil shakl va ko'rinishlarga ega bo'lgan suratlar, mediamanbalar orqali ma'lumotlarni o'quvchiga yetkazish mumkin. O'quvchilarga grammatik tushunchalarni rivojlantirishda, tilshunoslik fanining bo'limlarini soddaroq tushuntirishda daraxt, uning shoxlari va barglariga taqqoslab, "Shajara daraxti" ga qiyoslagan holda izohlasak, yanada esda qolarli hamda tushunarli bo'ladi. Boshlabg'ich "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida so'zlarning to'g'ri yozilishi, imlo qoidalari, tinish belgilarning ishlatilish o'rinlari haqida ma'lumotlar berilgan. O'quvchilarga bo'limlar va mavzularni o'rgatishda ularning bog'liqligi va ifodalanish tartibini "Shajara daraxti" orqali tushuntirish qiziqarli bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytilish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida grammatik kompetensiyaning shakllanishida yuqorida ko'rsatilganidek taqqoslashning yangicha "Shajara

daraxti" ko'rinishida ta'lim jarayonida qo'llash orqali ijobiy natijaga erishish mumkin. Bunday taqqoslash orqali yosh o'quvchilar tilshunoslikka oid mavzularni yengil o'zlashtira oladi. Ayniqsa, ona tili fanida berilgan mashqlarni bajarish, matnlar ustida ishlash, ularni fonetik, leksik, morfologik tahlil qilish hamda bo'limlarning bog'liqlik jihatlarini keng o'rganadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiiq qila olishi, ta'limning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Ma'lumki, bugungi kunda dars jarayonida "Grafik test" o'yini, "Rost-yolg'on" o'yini, "Zehn matni" usuli, "Begona so'z" kabi metodlardan foydalanilmoqda. Innovatsion metodlar yordamida tashkil etilgan darslar, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiyasi bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Innovatsion metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Shuning uchun ham bugungi kunda bunday metodlardan dars davomida foydalanish keng tarqalgan.. Zamonaviy metodlarning qanday qo'llanishini ko'rib chiqsak:

#### **"Rost-yolg'on" usuli**

Bu metod asosan aniq ma'lumotlar berilgan matn bilan ishlanadigan fanlarda ko'p qo'llaniladi. Masalan: "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida qo'llashimiz mumkin. Hozir siz bilan ona tili va o'qish savodxonligi darsida qo'llanilishini ko'ramiz.

Ot so'z turkumi "kim?", "nima?", "qayer?" so'roqlariga javob beradi.

"Qalam" narsaning nomini bildiradi.

"Chiroyli", "bejirim", "go'zal" so'zlari narsalarning sanog'ini bildiradi .

Fe'l so'z turkumi harakatni bildiradi.

-li, -siz, -dor, be- so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar.

-ning, -ni, -ga, -da , -dan kelishik qo'shimchalar.

Ega va kesim gapning ikkinchi darajali bo'laklari.

Gapda eganing tagiga bir to'g'ri chiziq, kesimining tagiga ikki to'g'ri chiziq chiziladi.

Shaxs va narsalarning sanog'ini va tartibini bildirgan so'zlar son so'z turkumi hisoblanadi.

So'z ma'nolarini o'zgartiradigan qo'shimchalar so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar deyiladi.

So'z yasovchi qo'shimchalar , so'zlarga qo'shilib so'z ma'nolarini o'zgartirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matematik bilimlar rivojlantiriladi.

Berilgan ma'lumotlarning aniqlik darajasiga ko'ra jadvolga joylashtirish topshirig'i

beriladi. O'quvchilar ma'lumotlarni kitob bilan solishtirib, keyin jadvalni to'ldiradi.

R os t	Yolgo 'n
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ot so'z turkumi "kim?", "nima?", "qayer?" so'roqlariga javob beradi.</li> <li>- "Qalam" narsaning nomini bildiradi. Fe'l so'z turkumi harakatni bildiradi.</li> <li>- -ning, -ni, -ga, -da, -dan kelishik qo'shimchalar.</li> <li>- Gapda eganing tagiga bir to'g'ri chiziq, kesimining tagiga ikki to'g'ri chiziq chiziladi.</li> <li>• Shaxs va narsalarning sanog'ini va tartibini</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- "Chiroyli", "bejirim", "go'zal" so'zlarinarsalarning sanog'ini bildiradi.</li> <li>- -li, -siz, -dor, be- so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar.</li> <li>- Ega va kesim gapning ikkinchi darajali bo'laklari.</li> <li>• So'z ma'nolarini o'zgartiradigan qo'shimchalar so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar deyiladi.</li> </ul>
<p>bildirgan so'zlar son so'z turkumi hisoblanadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- So'z yasovchi qo'shimchalar, so'zlarga qo'shilib so'z ma'nolarini o'zgartirishga xizmat qiladi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matematik bilimlar rivojlantiriladi.</li> <li>• Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matematik bilimlar rivojlantiriladi.</li> </ul>

Bu o'yin o'quvchilarni xotirasini yaxshilaydi va aniq ma'lumotlarni, yillarni eslab qolishga yordam beradi. Matn bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: "Noshir", 2009. -163 b.
2. Ona tilidan Milliy o'quv dasturi. -T.: "Respublika ta'lim markazi", 2021.
3. Adizova N.B., Jumayev R.X., Qo'ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o'qitish metodikasi. - Buxoro: "Durdona", 2021. - 292 b.
4. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun, Ro'zmetova Z Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism: 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Respublika ta'lim markazi".
5. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism: 2-sinf uchun darslik. – T.: "Respublika ta'lim markazi".
6. Azimova I, Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun Ona tili va o'qish savodxonligi 1-2-qism: 1-sinf uchun darslik. – T.: "Respublika ta'lim markazi".

## CHAPAQAY O'QUVCHILARNING MAKTABGA MOSLASHUVI VA BUNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Subhonova Sabohat Usmonovna

*BuxDPI magistranti*

**Kalit so'zlar:** moslashuv, adaptatsiya, moslashuv reaksiyasi, sezgi, chapaqaylik, obrazli harakat, qo'l motorikasi.

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda o'quvchilardagi chapaqaylik muammosi haqida yoritilgan. Ularni bartaraf etishga doir ota-onalar uchun tavsiyalar ham berib o'tilgan.

Adaptatsiya [lot. adaptatio – moslashuv] – 1) organizmning turli yashash sharoitlariga moslashishi; 2) sezgi a'zolarining o'ziga ta'sir etadigan qo'zg'atuvchilarga moslashishi natijasida ularda sezgirlik darajasi o'zgarishi

(masalan, ko'zning yorug'lik yoki qorong'ilikka moslashuvi). Qo'zgatuvchining ta'sir kuchi o'zgarishi bilan sezgirlik ham o'zgaradi.

Moslashuv konsepsiyasi atrof-muhit va obyektning dialektik birligini, qarama-qarshi

tomonlar birligi va kurashini o'z ichiga oladi. Chunki bizning fikrimizcha, moslashish to'g'risida sub'ekt va ob'ekt, sub'ekt va sub'ektning o'zaro ta'siri jarayoni sifatida yana bir muhim nuqtayi nazar mavjud. O'zgarishlar yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi, xususiyatlarning yangi kombinatsiyasi, xususiyatlarning qisman yo'qolishi yoki to'liq yo'qolishi va boshqalar bilan bog'liq.

Bolaning maktabga qabul qilinishi – nafaqat bola uchun, balki butun oila uchun qiyin vaqt. Bu yangi turmush tarzi va jamiyat sharoiti, jamiyatda yangi mavqeni egallashi, kattalar va tengdoshlari bilan yangi munosabatdir. O'quvchi hayoti qat'iy qoidalar tizimiga bo'ysungan, barcha bolalar uchun uning asosiy mazmuni bilimlarni o'zlashtirish hisoblanadi.

Bolalarda nafaqat kun rejimi, balki ota-onalar, o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan talablari ham o'zgaradi.

Bu yoshdagi bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini o'rganishda quyidagi psixologik-pedagogik nazorat ishlarini olib borish mumkin:

1. Bolani qurshab turgan tashqi muhitga munosabati, bilimlar zaxirasi.
2. Maktabga bo'lgan munosabati va rivojlanganlik darajasi.
3. Mustaqil fikrlashi va nutqining rivojlanganlik darajasi.
4. Hissiy – obrazli tasavvurning rivojlanganlik darajasi.
5. Qo'l harakati motorikasining rivojlanganlik darajasi.

Yuqorida keltirib o'tilgan omillar bolaning yuqori darajada ta'lim olishida namoyon bo'lishi uchun qo'shimcha tayyorgarlik ko'rish maslahati beriladi.

Aksariyat hollarda ota-onalar o'zlari "bolani maktabga borish vaqti keldi", yoki "yana biron yil o'ynab olsin", deb belgilaydi. Qoidaga ko'ra, ota-ona o'z farzandining sodda tajribalariga asoslangan holda, oldindan aniqlashga harakat qiladi. Muammoni bog'cha tarbiyachisi yoki o'qituvchi, ko'p hollarda esa uyda qarindoshlari, bilimdon qo'shnilar bilan muhokama qiladi. Va shunda bolani maktabga tayyorlashda uning bo'yi, og'irligi, o'qish va yozishga uquvi asosiy dalil bo'ladi.

Bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi hisobga olinmaydi, aniqlamaydi. Biroq aynan bolaning psixologik tayyorgarligi o'quv faoliyatining ichki tavsifnomasi sifatida o'quv motivi va bilishga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar ta'lim jarayonigacha o'z bilimi va o'yin orqali hosil bo'lgan ko'nikmalarni kattalar bilan munosabati va tasvirlar orqali namoyon etishi mumkin.

Bola stol yonida o'tirib rasm chizyapti. Ona bola chizgan rasmga qarab

"yana qandaydir bo'lmag'ur narsalarni chizyapsanmi?", kel yaxshisi kitob o'qiydiz, deydi. Bir qaraganda oddiy ko'rinishdagi vaziyat. Ona bola bilan muhimroq ish ustida shug'ullanmoqchi. Aslini olib qaraganda 3-4 yoshli bola uchun rasm oddiy qiziqish – o'yin emas. Bu bolaning psixik va shaxsiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratuvchi, etakchi faoliyat. Demak, bolada o'yin vaziyatida yangi bilim va usullar harakatini ko'rish mumkin, u hali o'zi bilmagan narsalarni o'rganishga harakat qilmoqda.

Farzandingiz chizgan rasmga diqqat bilan qarang, nima chizganligi haqida gaplashing, imkoni boricha unga ko'proq savollar bering. Ko'proq diqqat va sabr-toqatni namoyon qiling, tasvirlangan predmet, gul, hayvonlar, qushlar va h.k haqida qo'shimcha ma'lumotlar bering.

Bu yoshdagi bola uchun diqqat barqarorligi tavsifli bo'lib, xotira faol rivojlanadi, so'z boyligi ortib boradi, fikrlashi rivojlanadi. Bola bu yoshda tashqi ko'rinishlarni umumlashtiradi, predmetlarni sifati bo'yicha birlashtiradi, ulardan foydalanishda harakat usullarini belgilaydi. Ular endi o'zlariga tanish bo'lgan vazifada sabab natijaviy aloqalarni tiklash qobiliyatiga ega bo'ladi. Eng muhimi, jismoniy rivojlanish tezlashadi. Sizning diqqat- e'tiboringiz muhim ahamiyatga ega. Axir bolalar kattalar kayfiyatiga nisbatan o'ta xissiyotli bo'ladi. Bunday murakkab mashg'ulot natijasini baholash qiyin, maktabda bu eng qulay holda yuzaga keladi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi yaxshi shakllangan, tafakkuri rivojlangan bo'lib, muloqot qilish uquviga va qo'l yozuvi shakllangan bo'ladi. Albatta, bular shakllanishida sizning xatti-harakatingiz, ishtirokingiz katta ahamiyatga ega. Bu xatti-harakatlaringiz va ishtirokingiz bilan psixoprofilaktikaga yordam bergan bo'lasiz.

1. Adizova N.B., Qo'ldoshev R.A., Jumayev R.X., Ismatov S.R. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: O'quv qo'llanma. Buxoro, Durдона. 2021. 292
2. Azimov Y.Y., R.A.Qo'ldoshev. «Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari» (Metodik qo'llanma)-Toshkent. «Turon Zamin Ziyo» nashriyoti, 2017.-132
3. Azimova I. A. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.
- 4.NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
4. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
- 5.AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
- 6.Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.
7. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILISIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
8. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
9. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.
- 10.Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
- 11.Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
- 12.Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
- 13.Ulug'murod Sulstonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sulstonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
- 14.Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 2. –№. 2.
- 15.Xoliqulovich J. R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т.
- 16.Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.
- 17.Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2020. –Т. 2. –№. 2.
- 18.Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 7. – C. 130-133.
- 19.BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 415-417.
- 20.Хайтов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 49-52.
- 21.

## BOTH CREATIVE AND TEACHER

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Amonov Ulug'murod Sulstonovich**

*Bukhara State Pedagogical Institututi Associate Professor of Primary Education Department, Ph.D. Phone: +998902987848*

### **Saparova Shahlo Ramazonovna**

*Faculty of Pedagogical Education of Bukhara State University Basic doctoral student of the Department of Primary Education Methodology, ZARMED University Faculty of Pedagogical Education and Sports Teacher of the department of preschool education and sports Phone: +998914039787; email: [saparova.shahlo@mail.ru](mailto:saparova.shahlo@mail.ru)*

**Annotation:** *In this article, a representative of modern literature and a pedagogue brief information about Elbek's work is given. Elbek's creativity in addition to being engaged, elementary school students and textbooks and training manuals created for teachers are cited.*

**Key words:** *parables, poems for children, collections, education manuals.*

If we look at the past, we will enlighten our nation and our identity many of our creators and the works they have created are the eyes of many of us appears in front of us. One of our creators is modern literature representative is Elbek. Elbek's real name is Mashriq Yunusov, born in 1898. He lives in a farmer's family in the village of Xumson, Bo'stonliq district, Tashkentregion was born. Elbek despite his young age due to difficulties in his marriage, he came to

Tashkent and worked as a hired worker in many places. That's about it, in his epic «O'tmishim» he wrote:

Qarol bo'lib ishladim,  
Bir burda non tishladim.  
Turmushim kun-kun og'ir  
Bo'ldi, yiqildim oxir...

During his 40-year life, Elbek wrote poems and epics, textbooks and manuals, wrote prose works and parables. «Elbek started the parable. Not through translation took the path of giving birth to parables. There is another person on this road has not been seen»,- wrote literary critic Abdurahman Sa'diy.

Indeed, in the 20s and 30s of the last century, Elbek wrote «Maymunning qoziligi», «Jinning olov yoqishi», «Kampirning tovuqlari», «Ikki tulki», «Kuchsizlar dunyosi», «Yer bilan tog' o'rtasida», «Yelkan bilan kema», «Qora qushlar bilan toshbaqalar», «Ot bilan Odam», «Chumoli ila Chivin», «Quyruqsiz maymun», «Qaysi biri bo'ri» like different topics and different levels created parables. They have the ideas of fighting for rightness and justice pushed.

«Which in the parable of «one is a wolf», Elbek refers to the promises of the Bolsheviks about freedom and independence skepticism was expressed. Tsarist Russia is really Turkestan conquered and established the Wolf's violent attitude towards the Sheep. And the Bolsheviks, saying that they will save Turkestan from the tsarism, changed it had begun to understand the complexity of colonialism. Elbek, the same situation noticed and expressed figuratively in the example:

Bo'rimi yo aytgil endi kim vahshiy?  
Qutqarding sen meni bo'ri tishidan.  
Hamda qo'rqinch shul o'limning vahmidan  
Eng so'ng o'zing bo'ridan-da o'zdirding,  
Ko'rdim endi chin bo'ri ham sen o'zing!

Elbek wrote many funny poems for children. He announced in collections such as «Ko'zgu», «Yolqinlar», «Bahor», «G'unchalar». This to introduce children to nature in their poems, to insects, the Motherland in exchange for arousing feelings of love for plants and birds tried to teach the lesson of love.

Along with this work, Elbek also taught and wrote used textbooks in the course of his work. He writes about it like this:



«The problem cannot be solved by teaching from books alone. Maybe, if to be able to animate the things written in the book and to understand what they have learned should be implemented. Of course, although there are few teachers for this work, should be looked at a work that shows the ways of learning like these books their forgiveness is touching. They were written for kazakh-kyrgyz schools with this wish in mind knowledge of this work accepted in primary schools that it is also used in Uzbek schools of the Pedagogical Commission of the Council

I fulfilled this task as he found me worthy and handed it over to me.» (September 1923)

Elbek for students of the 2nd-4th grade «Yozuv yo'llari» (1921), «O'rnak», «Go'zal yozg'ichlar» (1925) has created training manuals and collections. Folk art Bo'stanliq in 1921-22 in order to collect and study its materials district, and in 1932 to Ohangaron and Chirchik districts and Fergana organized an expedition to the valley. Elbek collected as a result of scientific trips widely used the materials in the «Bilim» collection for grades 1-3. «Ashulalar to'plami» (published 2 times in 1934-35), «Laparlar» and he published the collections «Ertaklar» (1935).

He considered Fitrat, who gave him the nickname Elbek, as his spiritual teacher and wrote the poem «Til» in response to his poem. He was accused of nationalism during the years of repression, and on August 7, 1937 was imprisoned as an «enemy of the people» and deprived of liberty for 12 years done. In 1938, he died of a serious illness in Magadan. However, his modest creativity is still with our students and teachers today serves as a special guide for.

#### References:

1. Bolalar adabiyoti va folklori fanidan o'quv-uslubiy majmua. Buxoro-2012. 269-278-betlar.
2. H.Uzoqov. Elbek. Tanlangan asarlar. "Sharq" nashriyot matbaa kontserni bosh tahririyati. Toshkent. 1999.
3. H.Uzoqov. "O'z elining begi edi". "Qishloq hayoti" gazetasi, 1988-yil, 20- oktabr.
4. U.S.Amonov, Sh.R.Saparova. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation. ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.11, Issue 6, June 2021. Impact factor:SJIF 2021=7,492. p-403. <https://saarj.com>.
5. Amonov U.S. "Elbek. Armug'on yolqinlar". Toshkent. "Turon zamin ziyo" 2017. 55 bet.
6. Amonov Ulugmurod Sulstonovich. "Новые грани творческого наследия Элбека". "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2020-yil. 4-son. 62-63-betlar.
7. Shahlo SAPAROVA. "The classification of Elbek poems in 5 directions". "Pedagogik mahorat" jurnali. 2021-yil, dekabr. 175-177-betlar. [ped\\_mahorat@umail.uz](mailto:ped_mahorat@umail.uz) 363-bet. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6568979>
8. Safarov Firuz Sulaymonovich, Istamova Shohida Maqsudovna. Types of lexical meanings. Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 6, 2020. P. 481– 484.
9. Safarov Firuz Sulaymonovich. The Representation of the Reported speech Through. European journal of life safety and stability (EJLSS). ISSN 2660-9630. Volume 15, 2022, P. 21 – 26.
10. Firuz Safarov, Nodira Xudoyberdiyeva, Nilufar Xolmurodova. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.
11. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
12. Феруз Сулаймонович Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
13. Safarov Firuz Sulaymonovich. Elementary School Dictionary Activation Methods. European Journal of Life Safety and Stability. (EJLSS) ISSN 2660-9630. Volume 12, 2021. P. 203 – 209.

## 1920-1940 YILLARDA YARATILGAN DARSLIK LARNING G'OYAVIY YO'NALISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ma'rifatparvarlar yaratgan darsliklarda ilm va ustozlarni ardoqlash g'oyalarning ustivorligi, ijobiy axloqiy sifatlarning ulug'lanishi yaqqol ko'rinadi. Darsliklarda mavzular so'ngida qissadan hissa tarzidagi g'oyaviy-mantiqiy xulosalar va xalq maqollari berilib, ulardagi barcha she'r, qissa, hikoya va ertaklar o'quvchilarning yoshiga mosligi bilan ahamiyatlidir.

**Kalit so'zlar:** darslik, mazmun, matn, ma'rifatparvar, kitob, boshlang'ich ta'lim, savod.

Yangi madaniy harakatlikning namoyondalari bo'lgan ma'rifatparvarlarning darsliklari ko'rgazmalilik, osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga o'tish, matn bayonining sodda va tushunarligi, integrativ metod kabilarga asoslanadi. Darsliklardagi matnlarni mazmun va xarakteriga qarab 3 guruhga bo'lish mumkin:

1) folklor hamda mumtoz adabiyot namunalari olingan o'quv materiallari Masalan: Ali Asqar Kalinning «Muallimi soniy» darsligidagi ayrim matnlar, Shakuriyning «Jameul-hikoyat» darsligidagi o'quv materiallari kabilar;

2) rus mumtoz adabiyotidan qilingan tarjimalar asosida tanlangan o'quv materiallari Masalan, M.Behbudiy «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» darsligini tuzishda Shamsiddinbek Somiyning 6 jildlik mashhur «Qomus ul-a'lom» va I.Gasprinskiyning «Turkiston ulamosi» kitoblaridagi hujjat va dalillarga tayanadi; A.Sa'diy «Og'zaki va yozma adabiyotning nazariyasi va amaliyoti» darsligini yaratishda Shalgina, Veselovskiy, Buxarin, Lunacharskiy, Lvov-Rogachevskiy, Frich, Kulikovskiylarning asarlaridan foydalangan;

3) darslik mualliflari ijodiga mansub bo'lgan, ular tomonidan mustaqil tarzda tuzilgan o'quv materiallari, masalan, Shakuriyning «Jameul-hikoyat» darsligidagi hikoyalar.

Ma'rifatparvarlarning darsliklarida do'stlik, ezgulik madh etiladi. Aksariyat darsliklardagi hikoyalar o'zaro mantiqan bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Darsliklardan o'quv materiali sifatida xalq maqollari ham o'rin olgan.

Yuqoridagilar asosida quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Ma'rifatparvarlarning boshlang'ich ta'lim islohoti sohasida ilgari surgan g'oyalari, asosan, quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun savodga o'rgatish usulini o'zgartirish;

- o'qitishda ko'rgazmalilikka e'tibor berish;

- maktabni muayyan didaktik qurilishga ega bo'lgan, ta'lim amaliyotiga yaroqli, ona tilidagi darsliklar va ularni o'qitish metodikasi bilan ta'minlash;

- eski maktab va madrasalardagi o'qitish tizimini tubdan yangilash;

- ta'lim islohoti g'oyalari targ'ib qilishda matbuotdan unumli foydalanish;

- ta'lim tizimida o'zgarishlarni amalga oshirish uchun jahondagi ilg'or tajribalarni ta'lim amaliyotiga ijodiy tatbiq etish;

- nafaqat o'g'il, balki qiz bolalarning ham yetarlicha bilim olishlariga imkoniyat yaratish kabilar.

Turkistonda darsliklar yaratilishi tarixi bevosita sinf-dars tizimiga asoslangan yangicha ta'limning shakllanishi va rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bular ta'lim mazmuni, shakli, o'qitish mezonlari, manbalari, g'oyaviy yo'nalishi kabilarga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Biz quyida Milliy uyg'onish davrida yaratilgan darsliklarda mualliflar tayangan didaktik tamoyil va mezonlar haqida fikr yuritimiz.

1. Ma'rifatparvarlar darsliklar yaratishda, avvalo, o'z pedagogik tajribalariga, so'ngra rus pedagoglari maslahatlariga amal qilganlar. Masalan, Behbudiy «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» darsligini tuzishda tatar pedagogi Ismoilbek Gasprinskiy maslahatlariga amal qilgan.

2. Darsliklarni qiyosiy tahlil etish ularning tarkibiy tuzilishi, tayanilgan didaktik tamoyil va mezonlarida birlik mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, Behbudiyning «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» darsligi bilan M.Abdurashidxonovning «Adibi soniy» darsliklarining tarkibiy tuzilishi, tayanilgan didaktik tamoyil va mezonlarida o'xshashlik mavjud.

3. Darsliklardagi o'quv materiallari o'zining pedagogik ahamiyatiga ko'ra quyidagi yo'nalishlarda berilgan:

a) axloqiy tarbiyaga yo'naltirilgan pand-nasihati mazmunidagi o'quv materiallari, ular janr jihatdan hikoyat, masal, topishmoq, maqol kabilarga mansub;

b) darsliklarda taqdim etilgan o'quv materiallari oddiydan murakkabga borish tamoyilida joylashtirilgan.

Tanlangan o'quv materiallari mazmuni va joylashtirish tartibiga ko'ra darsliklar, ulardagi matnlarning g'oyaviy-tarbiyaviy mazmuni o'xshash: tanlangan didaktik matnlar mazmun va shakliga ko'ra sharqona, milliy ruhga ega. Darsliklardagi o'quv materiallari pand-nasihat, matal, hikoyat, ertak kabilardan iborat didaktik matn shaklida berilgan. O'quv materiali tarkibida o'quvchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan ijobiy fazilatlariga ta'rif berilgan bo'lib, ularda go'zal axloq egasi bo'lgan insonning jamiyatdagi mavqei qay darajada yuksak bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, darsliklarga o'quv materiallari tanlashda o'quvchining yoshi, bilim darajasi hisobga olingan.

*Tahlil etilgan darsliklarning o'zaro farqli jihatlari quyidagilardan iborat:*

- muayyan fan sohalariga oid ma'lumotlardan, jumladan, tarix, geografiya, turk yoki fors-tojik tili, arifmetika va h.k.lardan foydalanilganligi;

- o'quv materiallarining ikkinchi qismi yoritilgan mavzuga oid savol-topshiriqlardan iboratligi;

- ayrim darsliklarga g'oyaviy-mafkuraviy o'quv materiallarining kiritilganligi.

Tahlillar asnosida darsliklarda berilgan o'quv materiallari quyidagi didaktik tamoyillar asosida tanlanganligi aniqlandi:

- **onglilik va faollik** asosiy didaktik tamoyil sifatida darsliklarga o'quv materiallarini tanlashga asos bo'lgan. Ta'lim jarayonida onglilik va faollik o'quv materiali mazmunidagi tushuncha, g'oya hamda dalillarni tahlil qilish, solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish,

xulosalash shaklida taqdim etilgan bo'lib, u o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratildi. Bunda darslikdagi savol va topshiriqlar qisqa, ixcham, shogirdlar uchun tushunarli bo'lishi, shuningdek, javob ham shunga mos qisqa bo'lib, fikr aniq ifodalanishiga erishildi;

- o'quv materiallarining tushunarlilik tamoyiliga tayanilgan holda bayon etilishi ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Darslik mualliflari buni o'sha davrdayoq to'g'ri anglab yetganlar. Ma'rifatparvarlar ta'limni o'quvchi yoshi va dunyoqarashiga mos tarzda yangillatish maqsadida darslikda bayon etilgan o'quv materiallarining tushunarli bo'lishiga alohida ahamiyat qaratdilar. Buni darsliklarning nashrdan-nashrga til jihatdan mukammallashib borganligida ham ko'rish mumkin;

- darsliklarda berilgan o'quv materiallarida **nazariya bilan amaliyot, ya'ni nazariy ma'lumotlar bilan amaliy topshiriqlar uzviy bog'liq** tarzda berilgan. Masalan, Elbekning «O'rnak» darsligining har uch qismida nazariy ma'lumotlar amaliy topshiriqlar bilan o'zaro uyg'un holda taqdim etilgan;

- darsliklarda o'quv materiallari **ilmiylik, tizimlilik, izchillik va tadrijiylik** asosida bayon etilgan;

- o'quv materiallari bayonida **ko'rsatmalilikka** alohida ahamiyat berilgan. Ba'zi mualliflar o'z darsliklarini rasmi, bezakli qilib chop ettirishga harakat qilganlar. Masalan, M.Rasuliyning «Bolalar bog'chasi» kitobida va H.H.Niyoziyning aksariyat darsliklarida ko'rgazmalilikka alohida ahamiyat berilgan. Chunki ko'rgazmalilik asosida o'quvchilarning tasavvuri, dunyoqarashi jadal rivojlanishini ma'rifatparvarlar to'g'ri anglab yetganlar;

- darsliklarda taqdim etilgan o'quv materiallarida **puxtalik** va **mustahkamlik** tamoyiliga katta e'tibor berilgan. Unda dalillarning aniqligi, ilmiy jihatdan tekshirilganligiga diqqat qaratilgan. Biroq hamma vaqt ham mualliflar puxta o'quv materiallari tanlashga erisha olganlar deb bo'lmaydi. Jumladan, M.Behbudiyning «Kitobi muntaxabi jo'g'rofiyai umumiy» nomli darsligida «Marsda odam yashaydi va ularning bilimi bizdan zo'r, durbin bilan qaralsa, daryolarning suvlari ko'rinadi» kabi noto'g'ri, noilmiy qarashlar bayon etilgan o'quv materiallari berilgan.

## Adabiyotlar

1. Умняков И.И. К истории новометодной школы в Бухаре // Бюллетень Средне-Азиатского Государственного Университета.- Выпуск 16.- Ташкент, 1927.- С.84.

2. Мирзозода Х. С.Айни ва масъалаи мактаб дар ибтидои асри XX // Мактаби Совети.- 1977.- № 5.- С.27.

3. Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро.- Душанбе: Адиб, 1987.- С. 48.
4. Мулло Насреддин,- Баку.- 1910.- № 23.- С. 4. О принадлежности этой статьи перуС.Айни. Самад В. Аз каъри Хазар то авчи зуҳал.- Душанбе: Маориф, 1991.- С. 121-122.
5. Бепдрикков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане.- М., 1960.- С.260.
6. Kuldoshev R. A. Scientific Basis of Construction of Elementary School Textbooks //INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 44-48.
7. Avezmurodovich Q. R. JADID MAKTABLARIDA YARATILGAN DARSLIKLAR VA ULARNING METODIK IMKONIYATLARI: Qo ‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich Buxoro davlat universiteti //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 221-225.
8. Qo‘ldoshev R. A. Textbook: Unity of Content and Form //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 226-231.

## TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**G.V. Izbullayeva**

*BDPI dotsent*

Talabaning mustaqil ta'lim yuklamasi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Talabaning mustaqil ta'limi auditoriya va auditoriyadan tashqarida (o'quv yuklamasida ajratilgan auditoriya soatini inobatga olmagan holda) bevosita o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish yoki talabaning fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil o'qib-o'rganishi tarzida amalga oshiradigan o'quv ishlari majmuini anglatadi.

Mustaqil ta'lim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ish – o'quvchi tomonidan o'quv rejaning tarkibiy qismlari bo'yicha kompetensiyalarni o'zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish maqsadida bajariladigan o'quv jarayonining bir qismi;

Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 16 iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-son buyrug'i asosida Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari. Talabalarning mustaqil ta'limi quyidagi turlarda tashkil etilishi lozim:

auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish; auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish.

Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: - ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

- seminar-konferensiyalarga tayyorgarlik ko'rish;
- kollokviumlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ko'p so'raladigan savollar (FAQ-frequently asked questions) orqali o'zini qiziqtirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;
- forumlarda ishtirok etish – fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;
- web-kvest – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan (modul)ga oid bilimlarini mustahkamlash;
- nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
- sinov (zachyot)ga tayyorgarlik ko'rish;
- imtihonga tayyorgarlik ko'rish.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- ma'ruzalar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish; - keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash;

Ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

1. Tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma'lumotnoma tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish.

Axborot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlarga quyidagilar kiradi: mavzu bilan bog'liq saytlarga taqriz yozish; ma'lum mavzuga doir tarmoqdagi mavjud referatlarni tahlil etish, ularni baholash; ma'ruza rejasiga doir o'z variantini yoki uning ma'lum bir qismini yozish; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish; amaliy mashg'ulotlardan lavha tayyorlash; mavzuga doir ma'ruza tayyorlash; mavzuga doir munozara o'tkazish; professor-o'qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan web-kvestda ishlash.

2. Tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferensiyalardan foydalanish. Tarmoqda dialogni amalga oshirishni quyidagicha ko'rinishda tashkil etish mumkin: o'tkazilgan yoki o'tkazilishi ko'zda tutilgan ma'ruzalarni muhokama qilish; mutaxassis yoki talabalar bilan sinxron telekonferensiya (chat)da muloqotni amalga oshirish.

3. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratish – html-muharriri, web-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: saytda talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlarni

joylashtirish; mavzuga doir adabiyotlar ro'yxatini chop etish; individual va kichik guruhlarda ishlashga doir mavzuli web-sahifalarni yaratish; mavzu bo'yicha ishlash uchun web-kvestlar yaratish va ularni kursga doir saytda joylashtirish.

Topshiriq shakli: Axborotni izlash

Mustaqil ishning maqsadi: har xil turdagi ma'lumotlarni qidirish asosida o'quv faoliyatini loyihalash va o'zgartirish qobiliyatini rivojlantirish.

Axborot izlash – bu tuzilmagan hujjatli ma'lumotlarni qidirish.

Vazifani bajarish: 1) bilim sohasini aniqlash; 2) ma'lumotlar turi va manbalarini tanlash; 3) axborot modelini to'ldirish uchun zarur bo'lgan materiallar to'plami; 4) eng foydali ma'lumotlarni tanlash; 5) axborotni qayta ishlash usulini tanlash (klassifikatsiya, klasterlash, regressiya tahlili va boshqalar); 6) naqshlarni izlash algoritmini tanlash; 7) to'plangan ma'lumotlarda naqshlar, rasmiy qoidalar va tarkibiy munosabatlarni izlash; 8) olingan natijalarni ijodiy talqin qilish.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida talabalarning kasbiy faoliyatning namunaviy vazifalarini hal qilish qobiliyati; fan va ta'limning zamonaviy muammolari haqidagi bilimlardan o'quv vakasbiy muammolarni hal qilishda foydalanishga tayyorlik.

Topshiriq shakli: Hisobot tayyorlash

Mustaqil ishning maqsadi: ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, nazariy tadqiqot usullarini o'zlashtirish, talaba tafakkurining mustaqilligini rivojlantirish.

Hisobot - ma'lumotni o'z ichiga olgan va ushbu vaziyat bilan bog'liq masala yoki tadqiqotning mohiyatini aks ettiruvchi ommaviy xabar yoki hujjat.

Hisobot turlari: Yozma hisobot:

- qisqacha (20 betgacha) - o'rganish davomida olingan eng muhim ma'lumotlarni umumlashtiradi;

- batafsil (60 betgacha) - nafaqat sarlavhalar bilan matn tuzilishini, balki diagrammalar, jadvallar, rasmlar, fotosuratlar, ilovalar, izohlar, havolalar, giperhavalalarni ham o'z ichiga oladi.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari:

- talabalarning ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish va ularni aniq o'quv va tadqiqot muammolarini hal qilishda qo'llash qobiliyati;

- tadqiqot muammolarini original hal qilish uchun individual ijodiy qobiliyatlardan foydalanishga tayyorlik;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida kasbiy faoliyatning standart vazifalarini hal qilish qobiliyati.

Topshiriq shakli: Konspekt yozish

Mustaqil ishning maqsadi: nazariya va amaliy masalalarni xulosa shaklida yozma ravishda malakali bayon qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Konspekt (lotincha conspectus – ko'rib chiqish, taqdim etish). 1) asosiy axborot manbasi (maqola, kitob, ma'ruza va boshqalar) mazmunini tizimli, ixcham, mantiqiy va izchil yetkazuvchi yozma matn; 2) axborot manbayi, rejasini, undan ko'chirmalarni va uning tezislarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan yozishning sintezlovchi shakli.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: talabalarning ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish va ularni aniq o'quv va tadqiqot muammolarini hal qilishda qo'llash qobiliyati; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida kasbiy faoliyatning standart vazifalarini hal qilish qobiliyati.



Topshiriq shakli: Taqriz yozish

Mustaqil ishning maqsadi: axborot madaniyati darajasini oshirish; yangi bilimlarni egallash; o'quv kursining predmeti bo'yicha zarur ko'nikmalarni rivojlantirish.

Taqriz – ijodiy baho beriladigan ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili yoki kengaytirilgan annotatsiya.

Topshiriqni bajarish ilmiy maqola, monografiyadan olingan taassurot yoki subyektiv munosabat yoinki mazmunning quruqqina tavsifi emas, balki mazmunning mavzu va g'oyasi, ilmiy tahlil, iqtiboslar orqali ochib berish, haqqoniy ilmiy-estetik tahlil qilish.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olib badiiy, ilmiy madaniyat asosida talabalarning kasbiy faoliyatning standart muammolarini hal qilish qobiliyati.

Topshiriq shakli: Glossariy tuzish

Mustaqil ishning maqsadi: axborot madaniyati darajasini oshirish; yangi bilimlarni egallash; o'quv kursining predmeti bo'yicha zarur ko'nikmalarni rivojlantirish.

Glossariy - ixtisoslashgan atamalar va ularning ta'riflari lug'ati.

Topshiriqni bajarish: 1) ishni diqqat bilan o'qing; 2) eng keng tarqalgan atamalarni aniqlash; 3) umumiy mavzu bilan birlashtirilgan atamalar ro'yxatini tuzing; 4) atamalarni alifbo tartibida joylashtirish; 5) lug'at maqolalarini tuzing: - nominativ holatda atamaning aniq tahririni bering;

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: tartiblash, tadqiqot va izlanuvchanlik ko'nikmalarini takomillashtirish.

Topshiriq shakli: Matnni sharhlash

Mustaqil ishning maqsadi: o'quv jarayonini faollashtirishga, vazifalarini ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi.

Sharh – izohlash, tushuntirish orqali matnga izoh berish, unga ilmiy izoh, ma'lumot beruvchi qismi.

Kurs ishining bajarilishi: Sharh muallif tomonidan tayyorlanib, ma'lum bir asar yoki matnning tarixi, uning boshqa voqea-hodisalarga, fanlarga, shaxslarga, zamon va makonga bog'liqligi xususidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Sharhda muallif ishora etgan ba'zi voqea va faktlar, u yoki bu sabab bilan oshkora yozilmagan yoki yozilishi lozim topilmagan narsalar talqin qilinadi, ba'zi so'z, so'z birikmasi va iboralarning mohiyati ochib beriladi. Sharh qisqa va foydalanishga qulay bo'lib, odatda, matndan keyin alohida maqola yoki ma'lumot tariqasida joylashtiriladi. Mumtoz asarlarga sharh alohida kitob shaklida berilishi ham mumkin;

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: keng dunyoqarash, mantiqiy tafakkurni oshirish, shaxsiy fikr-mulohazani bildirishni ta'minlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirish talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori

2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 16 iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-son buyrug'i

3. Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки : [учеб.-метод. пособие] / [А. В. Меренков, С. В. Куньшиков, Т. И. Гречухина, А. В. Усачева, И. Ю. Вороткова; под общ. ред. Т. И. Гречухиной, А. В. Меренкова] ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал.

## O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDA NUTQ ODOBI MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Komilova Dildora Shavkatovna**

*Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** maqolada nutq odobi, nutq madaniyati, o'zbek xalq pedagogikasida nutq odobi talqini, nutq madaniyati nazariyasida adabiy til milliy tilning oliy shakli deb e'tirof etilishi, Nutq madaniyati va notiqlik san'ati asoslarini yosh avlodga o'rgatish, o'qitish, ularda komil inson nutqi malakasi va namunasini shakllantirish, o'tmish ajdodlarimiz asarlarida nutq odobi va til madaniyati haqidagi qarashlari, notiqlik, nutq madaniyatiga ega bo'lish har bir inson uchun zaruriy vosita ekanligi haqida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** nutq odobi, nutq madaniyati, adabiy til, milliy til, notiqlik san'ati, nutqi malakasi, ajdodlar merosi, leksikografiya, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va maxsus lug'at

Nutq odobi ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, Nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq odobi bu og'zaki va yozma adabiy til me'yorlarini egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati hisoblanib, tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirishni o'rganuvchi bo'limi hisoblanadi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor.

Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega.

Nutq madaniyati, ya'ni nutq odobi tushunchasi adabiy tilni o'zlashtirishdagi quyidagi ikki bosqichni: nutqning to'g'riligi va nutqiy mahoratni o'zida mujassam etadi.

**Nutqning to'g'riligi** muayyan tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan «ideal» yoki umum tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir.

**Nutqiy mahorat** esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtayi nazaridan eng maibuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir. Yuksak Nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mexr- muhabbatini namoyon qiladi.

Nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasi til me'yoridir va uning asosiy vazifasi ijtimoiy til amaliyotiga faol ta'sir ko'rsatish maqsadida obyektiv til me'yorlarini ularning barqarorlashgan shakllarida, ziddiyatlarida, vujudga keluvchi tamoyillarida o'rganishdir.

Zamonaviy nutq madaniyati nazariy va amaliy fan bo'lib, u til amaliyotiga ta'sir etish maqsadida adabiy til tarixi, grammatika, uslubshunoslik, tilshunoslik bshlimlarining yutuqlari va xulosalarini umumlashtiradi. Nutq madaniyati nazariyasida adabiy til milliy tilning oliy shakli deb e'tirof etiladi; badiiy adabiyot tili o'zining eng yaxshi namunalari bilan xalqning madaniyat sohasidagi yutuklari va an'alarini mustahkamlaydi va boyitadi.

XV asrdan boshlab o'zbek adabiy tilining nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lganligini Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiylarning nodir asarlarida o'z aksini topgan. Shu bilan birga ushbu allomalarning ijodi mahsuli natijasida nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shilgan.

Nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. «Yaxshi so'z - jon ozig'i»,

«Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin», «O'ynab gapirsang xam o'ylab gapir», «Har neni yemak - hayvonning ishi, har neni demak - no-donning ishi» kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida Nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

Hozirda nutq odobi deb yuritilayotgan nuqtayi nazarlar juda qadimda yashab o'tgan ajdodlarimizning tafakkuri mevasidir. Buning yorqin namunalari yozma manbalarda, xalqning udumlarida saqlanib, bizgacha yetib kelgan: xalqning og'zaki tilidagi, lahja va shevalardagi til va nutqqa oid fikrlari; qadimiy yozma obidalar (toshbitiklardagi matnlar, tarixiy memuarlar, mumtoz adabiyot asarlari va boshqalar); xalq og'zaki ijodi asarlari - doston va ertaklar, maqol va matallar; qadimdan turli shakllarda saqlanib bizgacha yetgan mifologik asarlar - afsonalar, latifalar, miflar; "Ibratli hikoyalar", "Hikmatlar" nomi bilan bizgacha yetib kelgan yozma asarlar shular jumlasidandir. Xorazm zaminida yaratilgan qomusiy asar "Avesto" dagi fikrlar, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino asarlaridagi nutq odobiga oid mulohazalar tahlil qilingan. "Avesto" da til, nutq, nutq odobi, tilga munosabat, tilni ulug'lashga oid fikrlar ham mavjud. Unda juda ko'p joyda takror aytilishicha, o'sha davr dini va ma'naviyati asosini e'tiqod, ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amaltushunchalari tashkil qilgan. Keltirilgan ezgu so'z tushunchasi xalq uchun foydali bo'lgan fikrni ifodalagan, uni nutq odobi va madaniyatiga amal qilgan nutq hamda kishilarga manfaat keltiruvchi va ta'sir etuvchi, qolaversa, ularni tarbiyalovchi vosita, so'z deb tushunmoqkerak.

Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida so'zning, so'z san'atining ahamiyati va mavqeini yuqori qo'yib, shunday yozadi: "Bilgilkim, hamma hunarlardan so'z hunari yaxshi...". Kaykovus so'z hunarining quroli bo'lmish til va so'zlarning qadrini ham yuqori baholaydi: "So'zni juda ham qimmatli deb bilgil, chunki (so'z) xor narsa emasdir". Muallif tilni egallash, undan yaxshi foydalana olish har bir kishi uchun taalluqli, deb biladi: "Kishi suxandon va notiq bo'lishi lozim".

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham til, til odobi, nutq, muomala, yaxshi va yomon so'z, yoqimli va mayin so'z, ezmalik va chaqimchilik, to'g'ri va yolg'on so'z haqida aytilgan fikrlar uchraydi.

O'zbek xalqi o'tmish davrlardan yetib kelgan, nihoyatda boy adabiy, madaniy - ma'naviy, lisoniy merosning sohibidir. Ushbu ko'p qirrali merosning tarkibiy qismini o'tmish ajdodlarimiz yaratgan va o'zlari izchil amal qilib kelgan nutq odobi va madaniyatiga oid fikrlar, qoidalar majmui bo'lgan lisoniy, ilmiy - axloqiy ta'limot tashkil qiladi. Ushbu ta'limotning negizi va mohiyati, ilmiy tamoyillari, an'ana va talablari ulug' mutafakkirlar Kaykovus, Mahmud Koshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy va boshqalarning asarlarida bayon qilingan.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati asoslarini yosh avlodga o'rgatish, o'qitish, ularda komil inson nutqi malakasi va namunasini shakllantirish haqida gap borar ekan, o'tmish ajdodlarimiz bu masalada qoldirgan qimmatli lisoniy merosni chetlab o'tish mumkin emas. Ushbu fikr nutq madaniyati va notiqlik muammolarini ilmiy tadqiq qilish uchun ham tegishlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islamov O'. Navoiy g'azallarida kalom va takallum so'zlari // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2007. – №6. –B. 42-46.
2. Islamov O'. Nutq madaniyati Alisher Navoiy talqinida //O'zbekiston yosh adabiyotshunos va tilshunoslarining "Yoshlar yili"ga bag'ishlangan an'anaviy anjumani materiallari. Ilmiy maqolalar to'plami.– Toshkent

**2–SHO‘BA: SIFATLI TA’LIMNI TASHKIL  
ETISHDA XORIJ TAJRIBASI, XALQARO  
BAHOLASH DASTURLARINING (PIRLS,  
TIMSS, EGRA VA EGMA)  
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI  
MODIFIKATSIYASI**

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

A.R. Hamroyev

*BuxDU professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-intellektual darajasini rivojlantirishda xalqaro baholash talablaridan kelib chiqib, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning intensiv shakl va metodlarini amaliyotga tadbiiq etish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** xalqaro baholash dasturi, PIRLS tadqiqotlari, ma'naviy-intellektual daraja, kitobxonlik madaniyati, xalqaro talablar, standartlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается внедрение интенсивных форм и методов формирования культуры чтения у учащихся, исходя из требований международного оценивания в развитии духовно-интеллектуального уровня учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** международная программа оценки, исследование PIRLS, духовно-интеллектуальный уровень, культура чтения, международные требования, стандарты.

**Annotation:** This article discusses the implementation of intensive forms and methods of forming a culture of reading in students, based on the requirements of international assessment in the development of the spiritual and intellectual level of primary school students.

**Keywords:** international evaluation program, PIRLS research, spiritual-intellectual level, reading culture, international requirements, standards.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limni tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida ta'lim sifatiga mas'ul idora, tashkilotlar oldiga "...uzluksiz ta'lim tizimini mazmunini sifat jihatidan, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" kabi qator muhim vazifalar qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda ona tili ta'limining o'zni alohida ahamiyatga ega. Jumladan, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning bilimni baholash jahon standartlari asosida amalga oshirish bugungi kunda o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

PIRLS xalqaro boshlang'ich sinf bitiruvchi o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish savodxonligini baholash dasturi o'tkazish davrlarida zamonga moslashtirib, topshiriqlar mazmuni va mohiyatini takomillashtirib boradi. Masalan, 4-o'tish davri (PIRLS-2016 yil)da o'quvchilar topshiriqlarni kompyuterda onlayn tarzida o'tkazilib, natijalari elektron hisoblashga o'tkaziladi.

2021-yilda o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotlarida raqamli format, internet orqali muloqot qilishning ko'p sonli turlari (forum, chat, blog), ko'p hollarda, matn o'zaro bog'langan veb-saytlar kabi raqamli shakllarga o'tish rejalashtirildi. Lekin, shu bilan birga, an'anaviy format ya'ni kitoblar, jurnallar, xujjatlar va gazetalardagi kabi an'anaviy yozuv shakllarida ham beriladi. O'quvchilarga beriladigan materiallar rag'batlantiradigan va bir butun samaradorlikni oishiradigan va qiziqarli va tasavvur qilish jihatdan yoqadigan sifatida taqdim etiladi.

PIRLS-2021 dasturida moslanuvchan dizayn qo'llanildi. Xalqaro dasturda qatnashayotgan mamlakatlar o'quvchilari o'qish va qismlarni boshqarishadi, har bir mamlakatda alohida turli xil darajadagi test shakllari moslashtirib beriladi. Mazkur yangi g'oya boshlang'ich sinf bitiruvchilarining turli xil o'qish qobiliyatiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun o'qish darajalarining PIRLS o'lchovini takomillashtirib, o'quvchilarning faolligini oshirib boradi.

“Agar bu bolalar murakkab matnni o‘qishsa, unda ular faqat aniq tasvirlangan tafsilotlarni topib olishlari mumkin. Ammo agar bolalarga oddiy matn berilgan bo‘lsa yoki matn qismlarga bo‘lib taqdim etilsa, ular og‘zaki va noverbal tekshiriladigan ma‘lumotni topib chiqarib (grafikalar yoki diagrammalar yordamida), voqea voqealari va qahramonlar harakatlarining sabablari to‘g‘risida sodda xulosalar chiqarishlari, voqealar va asosiy g‘oyani sharhlay boshlaydilar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Jumayeva Habiba G'aforovna

*BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, bugungi jamiyatda kichik maktab yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning dolzarbligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodkorlik faoliyatiga o'rgatishning zamonaviy imkoniyatlari va ahamiyati, zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida o'quvchilar ijodiy qobiliyatini tashkil etish samaradorligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, xalqaro tajribalar, PIRLS, TIMSS, motivatsiya, globallasuv, ta'lim, o'quvchi, yangilik, zamonaviy ta'lim.

2019-yil 26-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish chora tadbirlari tog'risidagi PQ-4537-son qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2021-yilgacha maktablarnng kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi, 2030-yilga qadar esa 50 foizini, zamonaviy maktablarga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi. Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor, uning inson

kapitaliga, inson rivojida berayotgan e'tibori bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibor rivojlangan mamlakatlardagi shart-sharoitlarga yetib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi sa'y harakatlarining biri – bu pedagog- kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. O'qish savodxonligini tadqiq etishda ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) PIRLS tadqiqoti (Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti) mazkur assotsiatsiyaning 1991-yildagi o'qish savodxonligini tadqiq etish dasturiga qo'shimcha holda 2001-yildan joriy etila boshlandi. Har besh yilda o'tkaziladigan ushbu xalqaro tadqiqot bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib-tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. Odatda, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash tadqiqotiga (Trends in International Mathematics and Science Study-TIMSS) qo'shimcha tarzda ishlab chiqilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) Boston kollejida olib boriladigan TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan IEA xalqaro assotsiatsiyasining Amsterdam va Gamburg shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma'lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Har bir baholash sikli o'tkazilishi bilan PIRLS tadqiqotlari qamrov doirasining yangilab borilishi ishtirokchi mamlakatlarga o'zlarining yangidan-yangi g'oyalari hamda ularning o'quv dasturlari, standartlari, qamrov doiralari va yo'riqnomalari haqida so'nggi ma'lumotlarni o'rtoqlashish imkonini beradi. Bu esa qamrov doiralari ta'limiy jihatdan mos bo'lishiga sharoit yaratib, har bir o'tkaziladigan baholashjarayonlarining bir-biriga bog'liqligini oshiradi va qamrov doiralari, topshiriqlar hamda tartiblarni yanada takomillashishiga xizmat qiladi. Ijodkorlik deganda, insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tag zamirida amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, ijodiy fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan qaray olishni anglatadi. Ijodiy fikrlash- bu shunday fikrlashki, natijada ma'lum bir muammoni tubdan yangi yoki takomillashtirilgan yechimini topish demakdir. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashning eng muhim nazariy va amaliy jihatlarini bilishimiz kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni muhim ahamiyatga ega. Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib hayotga tadbiiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va iste'dod, barcha yoshlarimizga tug'ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga ya'ni oila, mahalla, o'quv muassasalari zimmasiga tushadi.

O'qishdan ko'zlangan maqsad bilan bir qatorda, PIRLS tadqiqoti o'quvchilardan o'zlarining badiiy savodxonliklarini oshirish va ma'lumot olish, undan foydalanishlari uchun o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerakligiga e'tibor qaratadi. O'qishdan ko'zlangan har ikkala maqsad ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun birdek muhim bo'lgani bois, PIRLS tadqiqoti har bir maqsadni baholovchi, bir xil miqdordagi materiallardan tashkil topadi. Shunga qaramasdan, onlayn tarzda o'qish asosan ma'lumot olish maqsadida amalga

oshirilishi uchun, PIRLS tadqiqoti topshiriqlari ma'lumot olish va ulardan foydalanish maqsadidagi o'qishga qaratiladi. Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatлари takomillashib, kamol topadi. Bola shaxsining ijodkor bo'lishiga o'qituvchi va murabbiylar sharoitlar yaratib berishi lozim, shunda jamiyatimizda yangi ixtirolar, innovatsiyalar paydo bo'ladi.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova N.B., Raimqulova M. Use of Alisher Navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, – 121-123.
2. Adizova N.B. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI. *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
3. Adizova Nigora, E. Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540- 545.
4. Ahmadovich H.H. O'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 343-345.
5. Аверина И.С., Щебланова Е.И. Вербальный тест творческого мышления «Необычное использование». Пособие для школьных психологов. - М.: Сборъ, 1996. - 60 с
6. Акимова М.К., Козлова В.Т. Упражнения по развитию мыслительных навыков младших школьников. - Обнинск: Принтер, 1993. - 20 с.
7. Amonov U.S. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi, Sh.R. Safarova BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
8. Амонов У.С. НАУЧНЫЙ ПОДХОД А. ФИТРАТА К ПОСЛОВИЦАМ //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
9. Баранчикова Л.А. Трудовая деятельность младших школьников как средство формирования экологических знаний и умений: Автореф. дисс. кандидата пед. наук. - М., 1999. - 20 с.
10. Jumayeva H.G'. Methodology for Improving the Creative Abilities of Students in Primary School Native Language Education //International journal of inclusive and sustainable education. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 236-238.
11. Jumayeva H.G'. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 45-47.
12. Safarov F.S. Elementary School Dictionary Activation Methods. European Journal of Life Safety and Stability. (EJLSS) ISSN 2660-9630. Volume 12, 2021. P. 203 – 209.
13. Saidova M.J. DIRECTIONS AND CONTENT OF THE ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING //Conference Zone. – 2022. – С. 7-15.
14. Волкова М.Г. Развитие способностей у детей - основа жизненного успеха. - М.: НИИВШ, 1989. - 120 с.
15. Xoliqulovich J.R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDIN AINI'S //MEMORIES, EPRAInternational Journal of Multidisciplinary.
16. Ёринова М., Нуруллаева С. ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
17. G'aforovna J. H. The Importance of Project Education in Improving the Creative Activity of Students in Primary Grade Mother Tongue Education //American journal of science and learning for development. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 203-206.

# STEAM METODIKASINING ILMIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Bobomurodova Latofat Elmurodovna**

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti)*

**Elmurodov Ramazon Erkin o'g'li**

*(Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, "Texnologik ta'lim" yo'nalishi 4 – kurs talabasi)*

**Annotatsiya:** Maqolada STEAM metodikasining ilmiy jarayonlardagi ahamiyati, ushbu metodika nima uchun muhim ekanligi, lozim bo'lgan tashkiliy va uslubiy ishlar bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, STEAM, integratsiya, soha, ishlab chiqarish, faoliyat, kompetensiya.

Mamlakatimizda yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, jahon miqyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarni optimallashtirish, bunda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, san'at va matematika) rivojlantirishiga oid masalalar, o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, zamonaviy o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bo'yicha alohida talab hamda vazifalar qo'yilgan.

STEAM ta'limi ta'lim oluvchilar ilmiy usullarni amalda qanday qo'llash mumkinligini tushunishni boshlaydigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ta'limda juda uzoq vaqt davomida biz o'quvchilarimizni "yaxshi ish"lashlarini ta'minlash uchun o'qitish prezumptsiyasi bilan ishladik. Lekin bu nimaga o'xshaydi? Biz o'quvchilarni hatto mavjud bo'lmagan ishlarga tayyorlamoqdamiz.

Biz dunyo go'zal, oddiy ammo, o'z huquqlarini barchasini o'rganish murakkab jarayon deb o'ylaymiz. Nega biz kattalar uni maktab deb nomlangan joyda g'isht devorlari va sinf eshiklari orqasida qutiga solib qo'yish qobiliyatimiz yoki huquqimiz borligiga ishonamiz? Haqiqiy dunyoga eshiklarini ochganimizda va xuddi shu amaliyotlarni o'qitish va o'rganish davrimizga joylashtirganimizda nima qilishimiz kerakligini anglab yetamiz. Shunda biz nihoyat g'isht devorlarini va sinf eshiklarini olib tashlashimiz mumkinligiga ishonch hosil qilamiz.

STEAM – bu standartlar, baholash va darslarni loyihalash, ularni amalga oshirish o'rtasida kuchli aloqani talab qiladigan ta'limiy kompleks yondashuv. STEAM tajribalari fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san'atning ikki yoki undan ortiq standartlarini o'z ichiga oladi va bir-birlari orqali o'qitiladi hamda baholanadi.

Har qaysi sohani o'rgatishingizdan qat'i nazar, 6 ta qadam mavjud. Har bir qadamda siz markaziy muammo yoki muhim savolni hal qilish uchun tarkib va san'at standartlari bo'yicha ishlayapsiz. Ushbu jarayonning ajoyib tomoni shundaki, siz STEAM sinfida haqiqiy o'quv jarayonini yengillashtirish uchun darsni rejalashtirishga yordam berishda uni osongina ishlatishingiz mumkin. Keling, har bir qadamni ko'rib chiqaylik.

1. Fokus. Ushbu bosqichda biz javob berish uchun muhim savolni yoki hal qilish uchun muammoni tanlaymiz. Bu savol yoki muammoning STEM bilan qanday bog'liqligi va siz tanlagan san'at mazmuni sohalariga aniq e'tibor qaratish muhimdir.

2. Batafsil. Tafsilotlar bosqichida siz muammo yoki savolga hissa qo'shadigan elementlarni qidirmoqdasiz. Boshqa sohalar bilan bog'liqlikni kuzatayotganingizda yoki muammo nima uchun mavjud bo'lsa, siz o'quvchilar allaqachon savolga javob berishlari kerak bo'lgan juda ko'p asosiy ma'lumotlar, ko'nikmalar yoki jarayonlarni topa boshlaysiz.

3. Kashfiyot. Kashfiyot – bu faol tadqiqotlar va asl o'qitish. Ushbu bosqichda o'quvchilar mavjud yechimlarni, shuningdek, mavjud bo'lmagan yechimlar asosida ishlaydigan narsalarni o'rganmoqdalar. O'qituvchi sifatida siz ushbu bosqichdan o'quvchilaringiz mahorat yoki jarayonda bo'lishi mumkin bo'lgan bo'shliqlarni tahlil qilish, ko'nikmalar yoki jarayonlarni aniq o'rgatish uchun foydalanish mumkin.

4. Dastur. Bu yerda o'yin-kulgi sodir bo'ladi! O'quvchilar muammo yoki savolga chuqur sho'ng'ib, mavjud yechimlarni, shuningdek, hal qilinishi kerak bo'lgan narsalarni tahlil qilgandan so'ng, ular muammoning o'z yechimini yoki tarkibini yaratishni boshlashlari mumkin. Bu yerda ular kashfiyot bosqichida o'rgatilgan ko'nikmalar, jarayonlar va bilimlardan foydalanadilar va ularni ishga soladilar.

5. Taqdimot. O'quvchilar o'zlarining yechimini yoki tarkibini yaratgandan so'ng, uni baham ko'rish vaqti keldi. Ishning fikr-mulohaza uchun va savol yoki muammo atrofidagi o'quvchining o'z nuqtai nazariga asoslangan holda ifoda etish usuli sifatida taqdim etilishi muhimdir. Bu, shuningdek, fikr-mulohazalarni engillashtirish va o'quvchilarga ma'lumot berish va olishni o'rganishga yordam berish uchun muhim imkoniyatdir.

6. Havola. Bu qadam pastadiri yopadi. O'quvchilar baham ko'rilgan fikr-mulohazalar va o'z jarayonlari va ko'nikmalari haqida fikr yuritish imkoniyatiga ega. Ushbu mulohaza asosida o'quvchilar o'z ishlarini kerak bo'lganda qayta ko'rib chiqishlari va yanada yaxshi echim topishlari mumkin.

Bu ajoyib savollar. Javoblar ikkita chuqur tushunchaga to'g'ri keladi:

1. Savodxonlik har bir kontent sohasining bir qismidir.

Siz matematika, san'at, o'qish, ijtimoiy fanlar va musiqa bo'yicha savodli bo'lishingiz mumkin. Savodxonlik – bu ma'lumotni qanday iste'mol qilishimiz va almashishimizga kiritilgan umumiy komponentlarga ega harakat.

2. Tabiiy ravishda moslashtirilgan standartlarni tanlash muhimdir.

STEAM – bu aniqlangan tarkib sohalari bo'yicha standartlarni moslashtirish va darsda barcha sohani ham adolatli baholashni o'z ichiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Avezov O.R. Ekstremnaya psixologicheskaya pomosh v ekstremalnih situatsiyax. Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 21), 34-37.

2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022.

3. Ahmadovich H.H. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 332-334.

4. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.

5. Bobomurodova L.E. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2022.

6. Jonpolatovna S.M., Gulomovna U.S. Effectiveness of the Use of Information Technologies in Fulfilling Creative Tasks in Primary School Mathematics //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 11. – C. 26.

7. Jonpo'latovna S.M., Amonjonovna F.M. First Improving the quality of education through the use of individual assignments in classroom mathematics lessons //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 13-20.

8. Kasimov F., Kasimova M., Uktamova D. Specific principles for constructing a system of educational tasks //Bridge to science: research works. – 2019. – C. 211.

9. Muxammedovich Q.F., Muxammedovna Q.M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.

10. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Diss. ped. fan. dok. (DSc). – Toshkent, 2019.

11. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS'SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 2. – №. 2.

12. Saidova M. J. MODERN CONDITIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH DISTANCE LEARNING //Conference Zone. – 2022. – C. 16-21.

13. Saidova G.E. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades". *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 715-719.

14. Saidova G.E. "BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferencea* (2023): 33-37.

15. Saidova G.E. and Sayfullayeva N.B. "MODERN TEACHING TECHNOLOGIES IN TEACHING MATHEMATICS IN ELEMENTARY GRADES". *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.10 (2019).

16. Sharipov Shavkat Safarovich, Muslimov Narzulla Alixanovich. "Texnik ijodkorlik va dizayn" - T.: 2007.

## XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING BOSHLANG'ICH SINFLARDA QO'LLANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Abduraimova Nodira Ulug'bek qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish uchun badiiy matndan keng foydalanish va uning ustida ishlashda samarali ish turlari va metodlarni qo'llash haqida so'z yuritilib, namunalar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** nutq o'stirish, ko'nikma, metodika, badiiy matn, hikoya janri, ona tili va o'qish savodxonligi, PIRLS topshiriqlari, charxpalak metodi, pinboard metodi.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о широком использовании художественного текста для развития речи учащихся начальной школы и применении эффективных видов работы и методов в работе над ним, приводятся примеры.

**Ключевые слова:** развитие речи, умения, методика, художественный текст, жанр рассказа, родной язык и грамотность чтения, задания PIRLS, метод charxpalak, метод доски.

**Abstract:** This article talks about the wide use of artistic text for the development of speech of elementary school students and the application of effective types of work and methods in working on it, examples are given.

**Key words:** speech development, skills, methodology, artistic text, story genre, mother tongue and reading literacy, PIRLS tasks, charxpalak method, pinboard method.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi.

O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, PIRLS ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga tasirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi.

O'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yo'zma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Ho'zirgi vaqtda PIRLS tarifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda mano hosil qila olish qobiliyati hamdir.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita maqsadiga qaratilgan: Bular: badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

PIRLSda har bir matn parchasi yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnini o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi. O'quvchilar oddiy



---

xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda aniq yoki umumiy manolarga etibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin To'liq javob berish uchuno'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar tarkibi 1000 ta so'zgacha bo'lib, badiiy matnlar asosiy mavzuga ega, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladigan, axborot matnlari o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib bergan bolishi kerak. Matnda hech qanday so'zlashuvga oid so'z yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi. Matnning mazmuni 910 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlarigamos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi hamda o'quvchi uchun unchalik tanish bo'lmasligi lo'zim.

O'qish darslarida PIRLS testlaridan foydalanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularda o'qib tushunish malakasi rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu tadqiqotning ijobiy tomonlari bilan birgalikda salbiy tomonlari ham bor, deb o'ylayman. Mening fikrimcha, PIRLS tadqiqotlari uchun tanlangan matnlar 10-14 yoshli o'quvchilarning yosh xususiyatlariga biro'z to'g'ri kelmaydi. Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha yaratilgan qo'llanmalarda berilgan ba'zi matnlarni tahlil qilib, bu matnlar biroz bizning millatga to'g'ri kelmasligining guvohi bo'ldim. PIRLS tadqiqoti o'tkazilganda matnlar o'zimizning millatga moslab olinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy etibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishgaqaratilmoqda. PIRLSning o'qishdagi yutuqlarni baholash doiralari IEA tomonidan 1991-yilda o'qish savodxonligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan foydalangan holda, ilk marotaba, 2001-yildagi tadqiqotlar uchun ishlab chiqilgan. Shundan buyon PIRLSning baholash doiralari tadqiqotning har bir davri uchun, shu jumladan, 2021-yildagi tadqiqot davri uchun ham yangilandi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardanfoydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi m'anoni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon "konstruktiv" – inglizcha "construct" yaratmoq deyiladi). O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi. PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish hamda uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish. Butun dunyobo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan

o'qishlari bilan bevosita

bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmlil kitoblar) yoki o'quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bolishni asosiy maqsad qilib olgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova Nigora Baxtiyorovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. Scientific progress.
2. Adizova Nigora Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022.
3. Adizova Nodira and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH". *E Conference Zone*. 2023.
4. Ahmadovich H.H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – C. 101-105.
5. Ahmadovich H.H. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 350-352.
6. Amonov U.S., Saparova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
7. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda shaxsning stressli holati va xulq-atvor reaksiyalari. Psixologiya 3 (No. 23), 94-98.
8. Bakiyeva H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(6).
9. Jabborovna S.X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 55- 58.
10. Masharipova U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
11. Nusratova K. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745.
12. Safarov F., Xudoyberdiyeva N., Xolmurodova N. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. *Journal Pedagog* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.
13. Saidova M. Educate students by solving textual problems //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
14. Saidova M.J. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 5. – C. 103-107.
15. O'rinova M. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*.
16. Xoliqulovich J.R. Using anthropometric units in "Esdaliklar" by Sadridin Ayniy //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. –2022. –T. 2. –No. 2. –C. 295-298.

# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGI ASOSIDA PIRLSGA TAYYORGARLIK DARSLARINI TASHKIL ETISH (2-sinf darsligi asosida)

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Akramova Surayyo Renatovna

BuxDU katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada PIRLS ga tayyorgarlik darslarini tashkil etish usullari va ahamiyati boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslari asosida yoritib berilgan.

PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos ravishda boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida samarali ish turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday darslarni tashkil etishda o'qituvchilar maxsus tayyorgarlik ko'rishlari, har bir matnning o'ziga xos jihatlarini o'rganishlari lozim. Buning uchun, avvalo, PIRLSga tayyorgarlik ishini 2-sinf dan boshlash lozim. 1-sinf da, avvalo, darslar savodga tayyorlash ishlari bilan o'tadi va yilning o'rtasidan boshlab o'qish fani boshlanadi, 1-sinf bolalarida o'qish ko'nikmasi shakllanib boradi. Shuning uchun ham PIRLSga tayyorgarlik ishlarini 2-sinf dan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi asosida tayyorgarlik ishlarini olib borish kerak. Yaxshiroq o'qish malakasini oshirish uchun dalillarga asoslangan didaktik yondashuvlardan foydalanish lozim.

Mana shunday PIRLSga yana xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik bosqichi uchun 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi asosida turli xildagi hozirgi zamon standartlariga mos va yoshlarni o'ziga tezda jalb qila oladigan test va topshiriqlar mavjud bo'lib, bolalarni 4-sinf gacha bo'lgan davrda bolalarni rivojlantirib boradi. Darslarda ham mana shu test va topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tuzilgan topshiriqlarning rang-barang ekanligi ham shu yosh doirasidagi bolalarning qiziqishini yanada orttiradi. Demak, bolalarni PIRLSga tayyorlash bosqichi anchagina oson kechadi.

Siz o'z tana qismlaringizni bilarmidingiz?(hamma tana qismlaringizni?)

2 ta bir biriga o'xshagan barmoq izini topish mumkin deb o'ylaysizmi?

Kislorod nima ?


Inson kislorodni qayerdan oladi?

Yuragingiz qayerda joylashganini bilasizmi?

Xulosa qilib aytganda, ushbu topshiriqlardan tuzilgan qo'llanma PIRLSga tayyorgarlik bosqichi uchun 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi asosida tuzilgan bo'lib, ushbu darslik, asosan, milliy dastur asosida ishlangan va matnlarni ravon tushunish, ifodali o'qish, matnning asosiy mohiyatini ang'lay olishi, matn yuzasidan savollarga javob bera olishi va, shuningdek, ertaklarning xulosasini ayta olishi, ertak qahramonlarining ichki dunyosini bilib olishi, suhbatni tinglab tushunishi, tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay olishi lozim. Yana o'quvchi berilgan savolni tushunishi va mantiqli javob bera olishi kerak. Shu bilan birga, matnning asosiy mazmunini ochib beradigan gaplarni topa olishi va matnni qayta boshqa nom bilan nomlay olishi lozim. O'quvchilar ilmiy matnlarni tushunishi, asardagi qahramonlar harakatlariga baho bera olishi lozim. Mana shunday ko'nikmalarni hosil qilishi uchun o'quvchi bilan pedagoglar juda ko'p ishlashi lozim. O'zbekistonlik o'quvchilar PIRLSda yuqori natijalarni qo'lga kiritishlari uchun ularga barcha sharoitlar yaratilgan. Faqatgina berilgan resurslardan unumli foydalanish va o'quvchilarni o'qishga bo'lgan muhabbatini kuchaytirish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-son farmoni. <https://lex.uz>.



2. Adizova N.B., Adizova N.B. The role of the fun genre in children's spiritual development. Middle European Scientific Bulletin 4, 38-40 b.
3. Adizova Nodira. "Nominal description of the Bukhara". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.11 (2021): 330-335.
4. Ahmadovich K.H., Bahridinovna S.G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – C. 141-145.
5. Amonov U.S. O'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 U.S. Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), M.Q. Salohiddinova, BuxDU boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
6. Amonov Ulug'murod Sultonovich. BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov, BDU o'qituvchisi, Sh.R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
7. Avezov O.R. PSYCHOLOGICAL RELATIONS BETWEEN FAMILY MEMBERS. Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
8. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-sinf darsligi. – Toshkent, 2021-yil.
9. Bakhtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lyubat Ikhomovna. "Таълим Муассасаларида Таълим-Тарбия Жараёнларида Интерфаол Методлардан Фойдаланишнинг Ҳозирги Кундаги Ҳолати". *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 330-333.
10. Safarov Firuz, Xudoyberdiyeva Nodira, Xolmurodova Nilufar. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.
11. Saidova M.J. Educate students by solving textual problems //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
12. Saidova M.J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de.–2017. – 2017.
13. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va shu soha mutaxassisleri uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.
14. Xoliqulovich J.R. SADRIDDIN AYNINYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich. Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –2022. –№. 3. –С. 34-37.
15. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева Сарвиноз. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА ART-ТЕРАПИЯ USULLARINI QO'LLASHNING DIAGNOSTIK RIVOJLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Umedjon To'raqulovich Jumayev**

*BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda davlatimiz maktabgacha ta'lim tizimida ulkan islohotlar kuzatilmoqda. Bu O'zbekistonning jahon ta'lim maydoniga faol kirib borishiga yo'naltirilgan yangi maktabni shakllantirishning navbatdagi bosqichini anglatadi. Shu munosabat bilan, turli-xil pedagogik tizimlarning o'zaro ta'sirini tashkil etish, ilg'or tajribada sinab ko'rish alohida ahamiyatga ega innovatsion texnologiyalar, davlat an'anaviy ta'lim tizimiga qo'shimcha va alternativani tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, ART terapiya, pedagogika, yondashuv, tajriba, tizim, san'at.

**Аннотация:** Сегодня в системе дошкольного образования нашей страны наблюдаются огромные реформы, что означает очередной этап становления новой школы, направленной на активное вхождение Узбекистана на мировую образовательную арену. В связи с этим организация взаимодействия различных педагогических систем, апробация инновационных технологий, имеющих особое значение, составляют дополнение и альтернативу традиционной государственной системе образования.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, ВРТ-терапия, Педагогика, Подход, Опыт, Система, Искусство.

**Annotation:** Today, huge reforms are observed in the preschool education system of our country, which means the next stage in the formation of a new school aimed at the active entry of Uzbekistan into the world educational arena. In this regard, the organization of the interaction of various pedagogical systems, the testing of innovative technologies of particular importance, constitute an addition and alternative to the traditional state education system.

**Key words:** Preschool education, ART therapy, Pedagogy, Approach, Experience, System, Art.

Bugungi kunda davlatimiz maktabgacha ta'lim tizimida ulkan islohotlar kuzatilmoqda. Bu O'zbekistonning jahon ta'lim maydoniga faol kirib borishiga yo'naltirilgan yangi maktabni shakllantirishning navbatdagi bosqichini anglatadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonining pedagogik nazariyasi va amaliyotiga yondoshishda muhim o'zgarishlar yuz bermoqda: yangi mazmun, yangi yondashuvlar, yangi huquqlar, xulq-atvor va xatti-harakatlar turlari, shuningdek, yangi pedagogik mentalitet birinchi o'ringa chiqmoqda.

Shu munosabat bilan, turli-xil pedagogik tizimlarning o'zaro ta'sirini tashkil etish, ilg'or tajribada sinab ko'rish alohida ahamiyatga ega innovatsion texnologiyalar, davlat an'anaviy ta'lim tizimiga qo'shimcha va alternativani tashkil etadi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, davlat ijodiy shaxsni tarbiyalash zarurligini anglagan, ammo aniq madaniy va ijodiy rivojlanish hali ishlab chiqilmagan. An'anaviy pedagogika maktabiga badiiy pedagogika va unga tegishli komponenti art-terapiya singari innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb masala ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu ta'lim texnologiyasi pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik va ijtimoiy-madaniy faoliyat kabi fanlarning birlashishi chegarasida paydo bo'ldi va muqobil yoki maxsus ta'lim amaliyotidakeng qo'llaniladi. Shu bilan birga, badiiy pedagogika va badiiy ta'limning tor atamasi o'rtasidagi mohiyatan farqni ta'kidlash kerak.

San'at pedagogikasi ta'lim doirasida nafaqat badiiy ta'limni, balki badiiy vositalar yordamida tuzatish va rivojlantirish jarayonining barcha tarkibiy qismlarini ham ko'rib chiqishga imkon beradi. ART terapiya orqali Badiiy pedagogika tomonidan amalga oshiriladigan asosiy maqsad muammolarga duch kelgan bolalarni badiiy rivojlantirish va badiiy madaniyat asoslarini shakllantirish, shaxsni badiiy vositalar yordamida ijtimoiymoslashtirishdir.

ART-terapiya – bu an'anaviy talqin: eng rivojlangan, tez-tez ishlatiladigan va texnik jihatdan eng sodda art-terapiya. Bu rasm, haykaltaroshlik, me'morchilik. Unga an'anaviy ravishda rasmning barcha turlari (aslida chizish, rasm, grafika, monotip va boshqalar), mozaikalar, bo'yanish va tanani bo'yash bilan ishlash (butun tanaga yoki yuzga rasmlarning bir turi sifatida), installyatsiyalar kiradi. Modellashtirishning barcha turlari, kollajlar, badiiy fotosuratlar (fototerapiya) va juda ko'p sonli san'at turlari, bu yerda, to'g'ridan-to'g'ri sizning qo'llaringiz bilan biron-bir narsa amalga oshiriladi.

Shunday qilib, san'at darslari bolalarning hissiy rivojlanishiga hissa qo'shadi, ularning samarali faoliyatining motivatsion va ehtiyojga asoslangan tomonlarini shakllantiradi, idrokning farqlanishiga, kichik qo'l harakatlariga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, aqliy rivojlanishga ta'sir qiladi. "San'at har doim oddiy hissiyotni yengib chiqadigan narsani olib yuradi. Og'riq va hayajon, san'at tufayli kelib chiqqanida, oddiy og'riq va hayajondan ko'ra ko'proq narsani olib yuradi. San'atdagi his-tuyg'ularni qayta ishlash ularni qarama-qarshi tomonga aylantirishdan iborat, ya'ni san'at o'z-o'zidan olib boradigan ijobiy his-tuyg'ular.

Insonning o'ziga xos xususiyati – bu uning ichki dunyosini ko'rsatish qobiliyati va ayni paytda zarurati. Bu xususiyat sizga tashqaridan kelgan ma'lumotlarni faol ravishda qayta ishlash imkonini beradi. Natijada, shaxs psixikasida turli moslashuv mexanizmlari shakllanadi. Ular insonga hayotga yaxshiroq moslashishga, o'zgaruvchan dunyoda yanada muvaffaqiyatli bo'lishga imkon beradi. Inson dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lish jarayonida o'zini shaxs sifatida anglashga, hayotdagi rolini tushunishga, iz qoldirishga intiladi. Bu iz nafaqat xo'jalik faoliyati shaklida, balki uning faol aqliy faoliyati mahsulotida ham saqlanib qoladi. Uning namoyon bo'lishining eng yorqin shakllaridan birini san'at va ijodkorlik deb hisoblash mumkin. San'at va ijodkorlik tashqi dunyo bilan o'zaro aloqada axborotni qayta ishlash jarayonlarining natijasidir. Bundan tashqari, agar bu jarayonlar, umuman olganda, konstruktiv xarakterga ega bo'lsa, shaxs uyg'un rivojlanadi.

Bolalar va kattalar uchun art-terapiya ijodiy ish turlaridan foydalangan holda maxsus

texnika va mashqlar majmuasidir. Ushbu usullar psixologik holatni yaxshilash va tuzatish uchun ishlatiladi. Birinchi marta bolalar bilan art-terapiya Ikkinchi jahon urushidan keyin Qo'shma Shtatlarda qo'llanilgan. Keyin bu usul kontsentratsion lagerlardan olib chiqilgan bolalardagi muammolarni aniqlash uchun ishlatilgan. Bugungi kunda art-terapiya nafaqat mashhurligini yo'qotmadi, balki juda kengroq dasturni oldi. Psixologik amaliyotning rivojlanishi bilan psixologik holatini tuzatishga muhtoj bo'lgan odamlar bilan ishlash usullari rivojlandi.

Bolalar badiiy terapiyasining vazifalari ma'lumki, chap yarim shar mantiqiy fikrlash uchun javobgardir. Huquq hissiyotlar va tajribalarni san'at va ijod orqali chinakam ifodalashga yordam beradigan jarayonlar uchun tetik bo'lib xizmat qiladi. Bolalar bilan art-terapiya mashg'ulotlari ikkala yarim sharning ishini sinxronlashtirishga imkon beradi. Va natijada, miya yarim sharlarining birgalikdagi ishi ichki muammolarni, qo'rquvni, komplekslarni va psixologik muvozanatdagi boshqa og'ishlarni amalga oshirish va tuzatishga qaratilgan bo'ladi. Bolalar art-terapiyasi quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi: Bolaning psixologik muammolarini aniqlang. Bostirilgan his-tuyg'ularni, his-tuyg'ularni va fikrlarni chiqarishning eng og'riqsiz usuli. Davom etayotgan psixoterapiya samaradorligini oshirish. Farzandingizni hissiyotlar va his-tuyg'ularga e'tibor berishga o'rgating.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova N.B., E.Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545.
2. Adizova Nodira. "Nominal description of the Bukhara". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.11 (2021): 330-335.
3. Ahmadovich H.H., Amrulloevna S.D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 248-250.
4. Ahmadovich K.H., Bahridinovna S.G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – C. 141-145.
5. Alekseeva M.Y. O'qituvchi ishida art-terapiya elementlarini amaliy qo'llash. Chet tili o'qituvchisi uchun o'quv-qo'llanma. 2003-yil.
6. Amonov U.S., Saparova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
7. Dilova N.G., Saidova M.J. Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – T. 2. – №. 12. – C. 190-196.
8. Grishina A.V. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida art-terapiya yordamida o'smirlarning ijodiy individualligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun referat. Volgograd: Volgograd davlat pedagogika universiteti, 2004-yil.
9. Gaybullaevna D.N., Jonpulatovna S.M. Innovative approach to education is a factor for developing new knowledge, competence and personal qualities //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – T. 10. – №. 1. – C. 148-153.
10. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Хакимова М.Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62.
11. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Умарова Г.У. Учебные задачи как средство активизации учебной деятельности учащихся на уроках математики //Обучение и воспитание: методики и практика. – 2015. – №. 19. – С. 54-60.
12. Safarov Firuz Sulaymonovich, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
13. Сафаров Феруз Сулаймонович. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
14. Saidova G.E. "MANTIQIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.



15. Saidova G.E. Sanokulova S.F. EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH* . – 2020. – S : 118-120.

16. Saidova M.J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de.–2017. – 2017.

17. Vachkov I.V. Ertak terapiyasi: psixologik ertak orqali o'z-o'zini anglashni rivojlantirish, 2003-yil.

18. Xoliqulovich J.R. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich. Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –2022. –No. 3. –С. 34-37.

19. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева Сарвиноз. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).

## **PIRLS-2021 DASTURI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH VA MATNNI TUSHUNISH DARAJALARINI BAHOLASH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Ergashova Mehriniso Husniddinovna**

*BuxDPI 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PIRLS dasturida kreativ fikrlash, matnni tushunish va xulosa chiqarish ahamiyati, shu bilan birgalikda, o'quvchilarning shu yo'nalish bo'yicha baholash jarayonlaridagi ishtiroki bo'yicha muhim fikr va ilmiy qarashlar o'z ifodasini topgan. Ushbu maqola matnni tushunish va xulosalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** kreativ fikrlash, ijodiy qobiliyat, tushunish, tajriba, xulosa, g'oya, dastur, xorij tajribasi, savodxonlik.

Jadal suratlarda rivojlanib borayotgan dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topib, takomillashuviga, jumladan, tabiiy fan, o'qish va gumanitar fanlarning rivojlanishida kreativ fikrlash, xulosa chiqarish va tushunish jarayonlari asosiy turtki hisoblanadi. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlash natijasida xuloasalar chiqarish tasodifiy keladigan fikrlardan tubdan farq qiladi. Bu jarayon bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya hisoblanib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalariga erishishlarida qulay imkon hozirlaydi. O'quvchilarning matnni tushunish darajalarini xorij tajribalari asosida baholash dasturning ishlab chiqilishi ta'lim siyosati va pedagogikada ijobiy va samarali o'zgarishlarga imkon yaratishi mumkin. O'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xorij talablari asosida qay darajada rivojlanganligini ko'rsatib beradigan, taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitish jarayonlarini yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlil va natijalarni taqdim etadigan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini baholovchi yirik baholash dasturi hisoblanadi. Baholash dasturi o'quvchilarning barcha vakillari ishtiroki orqali amlaga oshirilmaydi. Unda faqat saralab olingan vakillar ishtirok etadi. Jumladan, o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning ota-onalari, maktab direktorlari bilan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifati rivojiga keskin ta'sit qiluvchi omillarga oid qimmatli ma'lumotlar yig'iladi. Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan o'qib tushunish ko'nikmasiga PIRLS quyidagicha ta'rif beradi: o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilshakllarini tushunish, ulardan foydalanish bilan birgalikda bir matndan turli xil shakldagi ma'nolarni hosil qilish qobiliyatidir.

Mazkur xalqaro baholash dasturi to'rtinchi sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholab beruvchi TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan. PIRLS xalqaro dasturi Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi hamda IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorligida boshqariladi. Ushbu xalqaro baholash dasturi har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Ilk bora 2001-yilda jahon mamlakatlari ishtirokida o'tkazilgan. PIRLS xalqaro baholash dasturi sinovlarida matnni o'qib tushunish jarayonida tanlangan matn barcha qatnashuvchi mamlakatlarga, o'quvchilarning yoshi va imkoniyatlariga mos bo'lishi talab etiladi. Tadqiqotlardagi matnlar quyidagicha

murakkablik darajasiga ega bo'lishi ko'zda tutiladi:

1. O'rtacha daraja uchun 500 tadan 800 tagacha so'z;
2. O'quvchilarning o'qish savodxonligi past darajadagi mamlakatlar uchun 400-500 ta;
3. PIRLSda esa taminan 1000 ta so'zdan iborat bo'lishi kerak.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligi darajalari eng yuqori, yuqori va o'rta daraja kabi darajalar asosida baholanadi.

### **PIRLS dasturing ta'lim sifatida tutgan o'rni qanday?**

O'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyati tasodif orqali yuzaga kelmaydi. U ma'lum vaqt doirasida tajribalar asosida olingan xulosalar yordamida yuzaga chiqadi. Bunga o'qibtushunish, xulosa chiqarish kabi jarayonlar zamin hozirlaydi. Ko'rib turganingizdek, u bevosita kreativ fikrlashga bog'lanadi. O'quvchilarning fikrlash doiralarning kengayishi innovatsion g'oyalarning bunyod bo'lishiga sabab bo'ladi. Yuqorida ilmiy bilim va tajribalar asosida namoyish etilgan PIRLS xalqaro dasturi esa uni samarali va ijobiy tomonga o'zgartishga xizmat qiladi. Ushbu taqdiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qay tarzda yangi loyihalar, jumladan, bir qator vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchi yuqorida ko'rsatilgan jarayon orqali faol qatnashuvchi hisoblanib, turli ma'no yaratadi, taqdim etilgan matn ustida chuqur mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llay oladi. Shu bilan birgalikda, ushbu taqdiqot orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar hosil bo'ladi:

1. Diqqatni jamlash va shu orqali aniq ko'rastilgan ma'lumotlarni topa olish;
2. To'gridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;
3. Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qila olish;
4. G'oyalar va axborotlarni talqin qilish va uyg'unlashtira olish.

Ushbu dastur faqat baholash olish imkoniyatidan tashqari, qatnashuvchi mamlakatlarga ta'lim sifatini boshqa jahon mamlakatlari bilan taqqoslay olish imkonini taqdim etadi va rivojlanish, tarqiy qilishda qanday omillar lozimligini belgilab berishi bilan bir qatorda ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ongida yangi fikrlar, loyiha va innovatsion g'oyalar, yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlarda keskin mulohaza yuritib, yechim kiritish imkonini taqdim etadi. Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Mohir kitobxon bo'lib borayotgan yosh avlodga alohida e'tibor beradi, maktabda va kundalik hayotda o'qishning turli nazariyalarini aks ettiradi, konstruktiv va interaktiv jarayonlarda o'quvchiga tajriba hosil qilishga yordam beradi. Kundalik hayotda oddiy axborotlar qabul qilish orqali yangi g'oyalar hosil qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktablarda ham o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishni nafaqat jamiyat, balki mehnat bozori ham talab qilmoqda. Yuqorida asoslab o'tilgan ilmiy-tajriba va kuzatishlar esa kreativ fikrlashni bevosita mushohada yuritish va fikrlash orqali xulosa chiqarishga bog'ladi. Mamlakatimiz ilk bor xorij tajribasiga hamohang holda 2021-yilda PIRLS xalqaro dasturida ishtirok etdi. Ushbu ishtirok O'zbekiston Respublikasining ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash, jumladan, o'quvchilar bilimni xalqaro darajaga olib chiqish imkonini yaratadi. Mazkur xalqaro dastur faqat ijodkor shaxslarni ajratib olishni maqsad qilmaydi, aksincha, o'quvchilar g'oyalarni qidirish hamda ifodalashda ijodiy fikrlash qobiliyatini va bu qobiliyatning o'qitish yondashuvi, maktab faoliyati va ta'lim tizimining boshqa xususiyatlari bilan bog'liqligini tavsiflaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z qobiliyatlarini kashf etishga, rivijlantirishlariga va aniqlashlariga, shu bilan birgalikda, kreativ qobiliyatlarini namoyon qilishlarida ko'mak beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning o'qib tushunish jarayoni asosida paydo bo'ladigan kreativ fikrlash, mulohaza yuritish, yangi g'oyalar shakllanishi ta'lim sifatining yuqori darajada rivojlanishida, jamiyatimizning muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. PIRLS taqdiqoti orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni mohir kitobxon qilib tarbiyalay olamiz hamda ularda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiramiz. Bu yo'nalishni baholashning ham o'ziga xos tartiblari bor. Yosh avlod kerakli bilim, ko'nikmalarni egallab, bu tajribalarni yurtimiz ravnaqi uchun hissa qo'shish yo'lida sarflashsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy o'quv dasturi. – Toshkent. – 2021.
2. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
3. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda shaxsning stressli holati va xulq-atvor reaksiyalari. Psixologiya 3 (No. 23), 94-98.
4. Avezov O.R. Ekstremal va favqulotda vaziyatlar to'g'risida zamonaviy tushunchalar. Pedagogik mahorat 4 (No. 24), 106-109.
5. Amabile T.(1996), Creativity In Context: Update To The Social Psychology Of Creativity, Westview Press, Boulder, CO.
6. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
7. Ahmadovich H.H. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXODIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 332-334.
8. Ahmadovich H.H. O'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARS DAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 343-345.
9. Bakhtiyorovna A.N., Bakhtiyorovna A.N. The role of the fun genre in children's spiritual development. Middle European Scientific Bulletin 4, 38-40
10. Ismailov A.A., Tuychiyeva X.G., Mamadjonov K.A., Tog'oyeva G.O. "Treninglar o'quv dasturi". – Toshkent, – 2021.
11. Jonpolatovna S.M., Gulomovna U.S. Effectiveness of the Use of Information Technologies in Fulfilling Creative Tasks in Primary School Mathematics //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 11. – C. 26.
12. Jonpo'latovna S.M., Amonjonovna F.M. First Improving the quality of education through the use of individual assignments in classroom mathematics lessons //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 13-20.
13. Muhammedovich Q.F., Muhammedovna Q.M. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'RTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 358-362.
14. Rayxonov S., Qosimov F., Qosimova M. Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar yechishga o'rgatish. – 2017.
15. Uzreport.news:https://www.uzreport.news.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO TAJRIBALAR: YANGI AVLOD DARSLIK LARI, MILLIY DASTUR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Qandimova Nasiba**

*BuxDPI 1-kurs magistrant*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini oshirishda yangi o'quv darsliklari, ularning samaradorligi va ahamiyati, Milliy dastur va raqamli texnologiyalarning uzviyligi va bir-biri bilan bog'liqligi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** demokratlashtirish, tafakkur, integratsiya, xalqaro baholash tizimi, STEAM baholash tizimi, multimedia vositalari, smart doska, raqobatbatdosh.

**Международный опыт начального образования:** Учебники нового поколения Национальная программа и интеграция цифровых технологий.

**Аннотация:** В данной статье новые учебники их эффективность и значение в повышение качества образования в начальных классах.

**Ключевые слова:** демократизация, мышление, интеграция, STEAM, соревнования.

**International experiences in primary education:** New generation textbooks, National program and integration of digital technologies.

**Annotation:** This article describes the new textbooks, their effectiveness and importance, the coherence and interrelationship of the National program and digital technologies in improving the quality of education in primary grades.

*Key words: democratization, thinking, integration, international evaluation systym, STEAM , multimedia tools, smart board, compatative.*

Yurtimiz ta'lim tizimi juda keng qamrovli islohotlarni, shu bilan birga, yangidan barpo qilish ishlarini amalga oshirishdek o'ta murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Albatta, bundan ko'zlangan maqsad maktablar faoliyatini demokratlashtirish, har tomonlama salohiyatga ega yosh-avlodni tarbiyalash, ular ruhiga insonparvarlik hissini singdirish, shu asosida, o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini tubdan yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha, sog'lom fikrlar, tafakkur demakdir. Ta'lim ijrochilaridan uning qadr-qimmatini, obro'-nufuziga teng ravishda tashabbuskorlik, fidokorlik shu o'rinda ishbilarmonlik ham bo'lmog'i lozimdir.

Tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda barcha sohalarida, shu bilan bir qatorda, ta'limda ham ulkan yangiliklar, islohotlar olib borilmoqda. Albatta, kelajakka yo'l ta'limdan boshlanadi. Jahon standartiga mos bo'lish, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan yuksak mahorat talab etadi. Ular ta'limda an'anaviy usullardan emas balki, noodatiy yo'nalishlarda, darsni integratsiyalashtirgan holda, xalqaro baholash tizimiga mos keladigan usullarni tanlab dars mashg'ulotlarini olib borishlari ta'lim samarasini ancha yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qiladi. Boshlang'ich maktab ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Chet el tajribasi bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, ta'lim poydevori bo'lmish yoshlarimiz uchun yaratilayotgan, qaytadan ishlanib nashr qilinayotgan, xorij ta'lim tizimiga asoslangan va tatbiq etilayotgan yangi avlod darsliklari o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirish bilan birga ularni mustaqil fikrlashga, o'z fikr erkinligiga ega bo'lishga undamoqda. Amaldagi o'quv darsliklarining mazmuniga nazar soladigan bo'lsak, deyarli 90% nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan. Ammo yangi Milliy o'quv dasturi 50% nazariya, 50%amaliyotni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, aksariyat o'quvchilarning fikrlashiga asoslangan. Garchi, yangi avlod darsliklari jahon darajasidagi ilg'or tajribalarga asoslangan bo'lsada, milliyligimiz bilan uyg'unlashgan holda o'quvchilarga o'qitib kelinmoqda. Hozirda tatbiq qilinayotgan Milliy o'quv dasturi o'quvchining maktabda olgan bilim, ko'nikmalarini hayotda qo'llay olishga qaratilganligi bilan eskisidan farq qiladi. Chunki u o'quvchida zarur bo'lgan hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Milliy o'quv dasturini amalga oshirish uchun unga zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar amaliyotga kiritilishi kerak bo'ladi. Shuningdek, Milliy o'quv dasturiga asoslangan yangi avlod darsliklarini yaratilishi yangicha yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. O'z navbatida, u o'zining baholash tizimiga ega ekanligi bilan ham farqlanadi. Shu bilan birga, Milliy o'quv dasturining quyidagi afzalliklari ham mavjud:

- Mavzular mazmunan spiralsimon o'rganiladi;
- O'quvchi faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar sinflar kesimida beriladi;
- STEAM fanlararo integratsiya ta'minlanadi;
- O'qituvchi kitobida har bir mavzuni o'qitishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beruvchi ilg'or metodlar beriladi;
- O'quv tadqiqotlarini o'tkazish uchun amaliy mashg'ulotlar va loyihalashlariga alohida soatlar ajratiladi;
- Milliy baholash tizimi yaratiladi.

O'quvchilarning risoladagidek bilim olishi, mustaqil hayotga tayyorlash, bilim samaradorligini oshirishda maktab darsliklari, Milliy o'quv dasturi bilan uyg'unlikda hamda hozirgi zamonning tobora ravnaq topib borayotgan sohasi: raqamli texnologiyalar asosiy vositalardan hisoblanadi. Mamlakatimiz kelajagining bunyodkori sanalmish yoshlarimiz XXI asr ko'nikmalari rivojlangan, raqobatdosh, kreativ fikrlaydigan mustaqil shaxs bo'lib kamol topishlari uchun hozirgi kunda ular ta'limini ayniqsa, kompyuterlardan ayri holda tasavvur etish juda qiyin. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vositalari rolini multimedia,

kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizor liniyalari, smart doskalar, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Raqamli texnologiyalar kompyuter va bilimlarga asoslangan holda jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining yangicha turini barpo etish hisoblanadi. O'quvchilar bevosita dars davomida kompyuterlardan foydalanishi, hatto dars mashg'ulotlarini online o'zlashtirishi ham raqamli texnologiyalarning hayotimizga bevosita singib ketayotganini anglatadi. Ayniqsa, yangi avlod darsliklarida alohida ishlab chiqilgan video darslar, har bir mavzu uchun tayyorlangan audiomatnlar, multimedia vositalari dars davomida o'quvchilarga namoyon qilinishi ularni darsga diqqatli bo'lishlari uchun dasturul amal bo'la oladi. Qolaversa, bitta dars vaqti, imkoniyatlari tejaladi.

Darhaqiqat, yuqoridagi integratsiyalashuv natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta'lim maqsadlarininamalga oshirishda qulay shart-sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o'quvchining vaqti, kuchi tejaladi; ortiqcha jismoniy zo'riqishlarning oldi olinadi; ta'lim samaradorligi oshadi. O'quvchilar zarur ko'nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o'quv predmetlari mazmunini uyg'unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova Nodira and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH". *E Conference Zone*. 2023.
2. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. PEDAGOGIK MAHORAT 3 (No. 13), 145-150
3. Avezov O.R. Ekstrennaya psixologicheskaya pomosh v ekstremalnih situatsiyax. Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 21), 34-37.
4. Baxtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH – TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
5. Ergashovna Saidova Gavhar. "BOSHLANG'ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV". *E Conference Zone*. 2023.
6. Fayzullayevich F.K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – T. 6. – №. 06. – C. 107-111.
7. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax, - 2007
8. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO'LLANISHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –T. 7. –No. 7.
9. Muxammedovich Q.F., Muxammedovna Q.M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
10. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – T: "Ilm ziyo", - 2009
11. Saidova Gavhar. "BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI". ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 28.28 (2023).
12. Саидова М., Рахмонова А. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mustaqil topshiriqlardan foydalanish usullari va ahamiyati //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 84-90.
13. Saidova M.J. MODERN CONDITIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH DISTANCE LEARNING //Conference Zone. – 2022. – C. 16-21.
14. Safarov Firuz Sulaimonovich. The Representation of the Reportedspeech Through. European journal of life safety and stability (EJLSS). ISSN 2660-9630. Volume 15, 2022, P. 21 – 26.

15. Safarov Firuz, Xudoyberdiyeva Nodira, Xolmurodova Nilufar. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.
16. Xoliqulovich J.R. Using anthropometric units in “Esdaliklar” by Sadridin Ayniy //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. –2022. –Т. 2. –No. 2. –С. 295-298.
17. Yusupov E. Inson kamolotining ma'navoy asoslari. – Toshkent. Pedagogika Universiteti. 1998.
18. O'rinova Maftuna. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel “Signs of the End Times” by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin.
19. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева Сарвиноз Мажидовна. “ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ”. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

## ART-TERAPIYA YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Umedjon To'raqulovich Jumayev

*BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya olayotgan bolalarda ART-terapiya yordamida bolalarda uchraydigan turli xildagi nuqsonlarni bartaraf etishda va hozirgi davrda ko'pgina zamonaviy mualliflar ta'kidlaganidek, art-terapiya va uning usullari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri bo'lib ta'lim sohasida xizmat qilayotgani barchaga ma'lum.

**Kalit so'zlar:** ART-terapiya, maktabgacha ta'lim, ijodkorlik tafakkur, terapevtik, san'at, kasallik, zamonaviy, qobiliyat

**Аннотация.** В данной статье проводится лечение детей, обучающихся в дошкольном образовательном учреждении, с помощью ВРТ-терапии для устранения различных дефектов, встречающихся у детей, и как утверждают многие современные авторы, арт-терапия и ее методы являются наиболее эффективными в развитие творческих способностей детей. Всем известно, что она служит одним из инструментов в сфере воспитания.

**Ключевые слова:** ART-терапия, Дошкольное образование, Креативное мышление, Терапевтическое, Искусство, Болезнь, Модерн, Способность

**Annotation.** In this state, the treatment of children, trained in preschool educational institutions, with the help of VRT-therapy for the elimination of various defects encountered in children, and how many modern authors, art therapy and ee methods are most effective in developing creative abilities of children.

**Keywords:** ART-therapy, Preschool education, Creativity Thinking, Therapeutic, Art, Illness, Modern, Ability

ART-terapiya – bu atama birinchi marta **Adrian Xill** tomonidan **1938 yilda**



sanatoriylarda sil kasalligi bilan og'rikan bemorlar bilan o'zining badiiy ishini tasvirlab bergan. Keyinchalik, bu atama terapevtik san'atning barcha turlariga (musiqa terapiyasi, drama terapiyasi, raqs harakati terapiyasi va boshqalar) nisbatan qo'llanila boshlandi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida zamonaviy ta'limning jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, o'zgarib turadigan hayotiy vaziyatlarga moslasha oladigan, vaziyat va muammolarni nostandart tarzda hal qilish yo'llarini izlay oladigan ijodiy bolalarni talab darajasida tarbiyalash bugungi davr talabi ekanligini yana bir marotaba eslatilgan. Psixologik tadqiqotlarda ijodkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq sohalar alohida o'rin egallaydi – ijodiy muammolarni hal qilish muvaffaqiyatini belgilaydigan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari shaxsiy xususiyatlari, bolalik davrida ijodkorlikni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Ko'pgina zamonaviy mualliflar ta'kidlaganidek, *art-terapiya va uning usullari insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir.*

Aqli shaxsning shakllanishi imo-ishoralar, mimikalar, pantomima, raqs, tosh san'ati – tasvirlarning xalqaro tilining rivojlanishi bilan bog'liq. San'at muloqot qilish maqsadida, aloqa vositasi sifatida, hissiy tilning bir turi sifatida paydo bo'lgan. Zamonaviy prototip artterapiya san'atning arxaik shakllarida – xalq amaliy san'atida saqlanib qolgan. Bu yerda “kollektiv ongsizlik” ning ramziy tiliga tayanish eng to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan. Simvallashtirishga moyil bo'lgan odam ongsiz ravishda atrofdagi olamning predmetlari va shakllarini ramzlarga aylantirgan va bu ramzlardan dinda ham, tasviriy san'atda ham foydalangan. Qadimgi ildizlarga qaramasdan, davolash, tuzatish va profilaktika ishlarida mustaqil yo'nalish sifatida, art-terapiya faqat bir necha o'n yilliklarga ega. Uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar bolalar va ibtidoiy san'atga qiziqish bilan birga XX asrning oxirida paydo bo'la boshladi. O'z his-tuyg'ularini o'z-o'zidan ifodalash, an'analar bilan cheklanmagan samimiylik, ijodkorlikning o'zi va tomoshabinlar tomonidan musavvinning professionalligiga haqiqiy baho emas balki – bu san'at uchun ham, artterapiya uchun ham muhimdir.

Art-terapiya nimadan iborat bo'lishi haqida bir nechta nuqtai nazarlarning mavjudligi juda tabiiy. Bundan tashqari, art-terapevtik vizual ish turli xil materiallarning keng tanlovini o'z ichiga oladi. Ko'pincha, bo'yoqlar, qalamlar, mumli qalamlar yoki pastellar bilan bir qatorda, jurnallar, rangli qog'oz, folga, to'qimachilik, gil, plastilin va boshqalar ishlatiladi. Har xil o'lchamdagi qog'oz, turli o'lchamdagi cho'tkalar, katta maydonlarni bo'yash uchun gubkalar, qaychi, iplar, yopishqoq lenta va hokazo.

*Art-terapiyaning boshida* insonning ijodiy tafakkuriga ishonch turadi. Ammo ART terapiyaning vazifasi hamma odamlarni rassom yoki aktyor qilish emas, balki muammoni hal qilish uchun bolalarda yakuniy ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan faollikni uyg'otishdir.

Psixologiya va tibbiyotda taqdim etilgan art-terapiya turlari mavjud san'at turlariga mos keladi. Aslida art terapiya, musiqa terapiyasi, raqs terapiyasi, drama terapiyasi, ertak terapiyasi, biblioterapiya, niqob terapiyasi, etnoterapiya, o'yin terapiyasi, rang terapiyasi, fototerapiya, qog'irchoq terapiyasi, origami va boshqalar mavjud. Bundan tashqari, ushbu turlarning har birida ichki va shaxslararo ziddiyatlarni, inqirozli vaziyatlarni, asriy inqirozlarni, travmalarni, nevrotik va psixosomatik kasalliklarni va boshqalarni hal qilish uchun ishlatiladigan ko'plab art-terapiya usullari mavjud.

Bolalar bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan art-terapiyaning ba'zi turlari va usullari:

**Rasm chizish asosiy** art-terapiya usullaridan biridir. Siz har qanday narsa bilan chizishingiz mumkin, lekin shuni esda tutish kerakki, asabiy odam bo'rdan foydalanganda yaxshiroqdir, chunki tarqaladigan akvarel tashvishga sabab bo'lishi mumkin. Bo'rni boshqarish

osonroq va odam bu tuyg'uni hayotga olib boradi. Va agar odamda komplekslar bo'lsa, unda akvarel bilan bo'yash yaxshiroqdir – bu unga o'zini bo'shashtirishga yordam beradi.

**Kollaj** gazeta va jurnal parchalari, tabiiy materiallar, fotosuratlar, rangli qog'ozlardan tayyorlangan. Kollajni yaratishda badiiy qobiliyatning yetishmasligi bilan bog'liq hech qanday keskinlik yo'q, shuning uchun u har kimga muvaffaqiyatli natijaga erishishga imkon beradi.

**Biblioterapiya.** Muayyan shaxs yoki guruh muammolariga bag'ishlangan kitoblarni tanlash. O'qib bo'lgach, mazmunning umumiy tahlili amalga oshiriladi.

**Modellashtirish** uchun plastilin, loy, ishlatiladi. Guruh a'zolari o'zlarining qo'rquvlarini shakllantirishlari, qarashlari va sindirishlari, keyin esa qarama-qarshi holatni – quvonch, baxtni yaratishlari mumkin.

**Dramoterapiya.** Turli mavzudagi sahna ko'rinishlari xotira, iroda, tasavvur, his-tuyg'u, diqqat va tafakkurga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Spektakl guruh a'zosining hayotidagi vaziyatlarni, uning boshqa odamlar bilan munosabatlari va mojarolarini o'ynashi mumkin.

**Fototerapiya.** Muallifning bir qator fotosuratlarini olinadi, keyin tahlil qilinadi. Oilaviy fotosuratlardan foydalanish juda muhim, chunki tasvirlangan voqealar o'tmishda qolgan bo'lsa-da, ongsiz ravishda odamga ta'sir qilishda davom etadi. Fotosuratlar o'tmishni eslashga, xatolarni tushunishga, shikoyatlarni ko'rishga yordam beradi.

**Maska terapiyasi.** Niqob yuzga qoliplanadi. Birinchidan, teriga krem surtiladi, uning ustiga qog'ozning birinchi qatlami yotqiziladi, ikkinchisi esa tepaga yopishtiriladi. Keyin olib tashlanadi va quritiladi, keyin bo'yaladi.

**Art-terapiya jarayonida markaziy shaxs** bemor sifatida bemor emas, balki o'z-o'zini rivojlantirish va o'z imkoniyatlari doirasini kengaytirishga intilayotgan shaxsdir. Demak, F.Nitshe salomatlik kasallikdan xoli bo'lish emas, balki insonning unga dosh bera olish qobiliyati ekanligini ta'kidlagan. Tasviriy san'at jarayonida aynan ana shu qobiliyat o'zini namoyon qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adizova. N, Raimqulova M. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123.
2. Адизова Нодира. "Mikrotoponimlar tasnifi (Buxoro viloyati misolida)". *Общество и инновации* 3.3/S (2022): 128-132.
3. Ahmadovich H.H. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 350-352
4. Ahmadovich H.H. O'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYA TO'G'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 349-350.
5. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. PEDAGOGIK MAHORAT 3 (No. 13), 145-150
6. Avezov O.R. Ekstremnaya psixologicheskaya pomosh v ekstremalnih situatsiyax. Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 21), 34-37.
7. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
8. Amonov Ulug'murod Sultonovich. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh.R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
9. "Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi". (2010)
10. Berkinblit M.B., Petrovskiy A.V. "Fantaziya va haqiqat".
11. Barysheva T.A., Zhigalov Y.A. Ijodkorlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari. 2006 yil.
12. Bakhtiyorovna N.B., Bakhtiyorovna N.B. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin.

13. Bakhtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lyubat Ikhomovna. "Таълим Муассасаларида Таълим-Тарбия Жараёнларида Интерфаол Методлардан Фойдаланишнинг Ҳозирги Кундаги Ҳолати". *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 330-333.

14. Jumayev R. Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2022. –Т.23. –No. 23.

15. Jonpolatovna S.M., Gulomovna U.S. Effectiveness of the Use of Information Technologies in Fulfilling Creative Tasks in Primary School Mathematics //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 11. – С. 26.

16. Jonpo'latovna S.M., Amonjonovna F.M. First Improving the quality of education through the use of individual assignments in classroom mathematics lessons //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 6. – С. 13-20.

17. Qosimov F.M., Qosimova M.M. MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 206-211.

18. Saidova M.J. Directions and Content of Educational Information //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 210-217.

19. Saidova G.E. "MANTIQIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.

## TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIGINI ART-PEDAGOGIK KUZATIB BORISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna**

(Buxoro Davlat Universiteti)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda art-pedagogik kuzatishda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish haqida yoritilgan. "Art-pedagogik faoliyat"ni kasbiy g'oyalar va maqsadlarni san'at vositasida amalga oshirishning pedagogik-psixologik mazmuni belgilab berilgan.

**Kalit so'zlar:** art-pedagogik faoliyat, art-pedagogik kuzatib borish, art-pedagogik muhit, san'at, spontan

**Annotatsion.** This article describes the development of the professional training of teacher in art-pedagogical observation to improve the quality of education.

**Key words:** art-pedagogical activity, art-pedagogical monitoring, art-pedagogical environment, art, spontaneous.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik kuzatib borish konsepsiyasining terminologik asosi quyidagi tushunchalar tizimi tashkil etadi: "art-pedagogik kuzatib borish", "art-pedagogik faoliyat", "art-pedagogik vositalar", "art-pedagogik o'zaro ta'sir", "art-pedagogik jarayon", "art-pedagogik muhit".

"Art-pedagogik faoliyat"ni kasbiy g'oyalar va maqsadlarni san'at vositasida amalga oshirish uchun buyurtma qilingan pedagogik harakatlar majmui bo'lgan kasbiy-pedagogik faoliyatning mustaqil turi sifatida ko'rish mumkin. Art-pedagogik faoliyatning asosiy sohalari bu – ta'lim ichidagi san'at, pedagogika, psixologiya va inson bilimlarining boshqa sohalari imkoniyatlarini birlashtirishga asoslangan axloqiy va estetik o'zaro ta'sir tizimining yaratilishini ajratib ko'rsatish mumkin.

Art-pedagogik faoliyatda o'qituvchi kasbiy faoliyatining alohida turi sifatida taqsimlashning o'ziga xosligi, avvalambor, qo'llaniladigan vositalarning ustuvorligi bilan bog'liq bo'lganligidadir.

I.A. Kolesnikova asarlarida "vositalar" ta'lim (tarbiya)ning muhim asosi sifatida qaralishi aytib o'tilgan. Ta'lim maqsadi va pedagogik jarayonning natijasi o'rtasida vosita bo'lib, vositalar pedagogik o'zaro ta'sir uchun mavzu muhitini ta'minlaydi. Vositalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- san'at asarlarini idrok etish, talqin qilish, baholash obyektiv sifatida;
- badiiy tasvirlar;
- ishtirokchilarning rejalashtirilgan badiiy faoliyati;
- ishtirokchilarning badiiy faoliyati natijalari.

Ularning barchasi ta'lim jarayonining mazmuni bilan birlashib, art-pedagogik vositaning sifati va funksiyalariga ega bo'ladilar. O'quv jarayonida turli xil san'at turlari (musiqqa, teatr, rasm, kino) asarlaridan foydalanish mumkin. Art-pedagogik jarayon doirasidagi badiiy asar pedagogik mazmun va kasbiy pedagogik xarakterdagi vazifalar kontekstida idrok etish, talqin qilish, baholash obyektiga aylanadi.

Art-pedagogik o'zaro ta'sirning asosi hisoblanadi, nafaqat badiiy asar, balki ta'lim jarayoni materialini muhokama qilish uchun boshlang'ich sanoq nuqta bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan alohida badiiy obraz ham bo'lishi mumkin. Badiiy obraz – bu badiiy ijod voqeligining eng umumiy hodisalarini ifodalovchi ilmiy tushunchasi (kategoriyasi) hisoblanadi.


Shundan kelib chikadiki, art-pedagogikani badiiy obrazlarda yetakchi vosita deb atash mumkin.

O'quv jarayoni ishtirokchilarining badiiy faoliyati art-pedagogik vositasi sifatida keng qo'llaniladi, bu holda badiiy ijod jarayonining o'zi alohida pedagogik ahamiyatga ega bo'ladi. Badiiy va ijodiy vazifani bajarishda ishtirokchilar turli texnika va materiallardan foydalanishlari mumkin. Art-pedagogik faoliyatda ishtirokchilarning spontan (kutilmaganda) badiiy ijodi, ko'pincha, spontanlik, bir lahzalik his-tuyg'ularni, kayfiyatlarni, fikrlarni, uyushmalarni aks yettirishda erkinlik bilan tavsiflanadi. Badiiy faoliyatdagi spontanlik ishtirokchilar psixikasining ongli va ongsiz, oqilona va irrasional jarayonlarining sintezini faollashtiradi,

ularning ijodda o'zini namoyon qilishining haqiqiyiligini ta'minlaydi.

Ba'zi hollarda art-pedagogik jarayon ishtirokchilarining badiiy faoliyati rejalashtirilgan mashg'ulot rejimi va bashorat qilinadigan natija bilan yanada ongli va uyushgan xarakterga ega bo'lishi mumkin. Rejalashtirilgan badiiy faoliyat, o'z-o'zidan farqli o'laroq, badiiy g'oyani, shu jumladan, tayyorgarlik ishlarini (eskizlar, zardo'zlik buyumlari va h.k.) amalga oshirishning uzoq davrini nazarda tutadi. Bunday faoliyat prosessual xususiyatlariga ko'ra professional rassomning ishiga yaqinroq, ammo maqsadi bilan farq qiladi. Ishtirokchilarning badiiy faoliyati natijasida olingan natijalar art-pedagogik vosita maqomini olgan holda pedagogik aks yettirish jarayonida idrok yetish va talqin qilish obyektiga aylanadi.

**Art-pedagogik vositalarning xilma-xilligi rasmda keltirilgan:**



Art-pedagogik kuzatib borishning prosessual tomonini tavsiflovchi asosiy tushunchalarga quyidagilar kiradi: "badiiy-pedagogik jarayon", "badiiy-pedagogik o'zaro ta'sir", "badiiy-pedagogik muhit". Art-pedagogik jarayon ta'lim jarayonini anglatadi, uning

ajralmas qismi pedagogik vazifalarni hal qilish va pedagogik g'oyalarni amalga oshirishga qaratilgan, badiiy vositalardan foydalanish hisoblanadi. Masalan, o'qituvchi talabalarga o'quv materialining ahamiyatini aniqlashtirish, dars mazmunining sub'ektiv tajribasiga erishish, muayyan muammoni o'rganishdan oldin tegishli motivasiyani ta'minlash uchun san'at vositalaridan foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, art-pedagogik o'zaro ta'sir biz tomonidan "o'qituvchi (universitet o'qituvchisi) ta'lim mazmuni san'at vositasi – talaba (talaba)" tizimida yuzaga keladigan o'ziga xos munosabatlar va aloqalar to'plami sifatida belgilanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova Nigora Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. *Journal of Advanced Research and Stability*. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
2. Adizova Nodira. "Nominal description of the Bukhara". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.11 (2021): 330-335.
3. Amonov U.S. O'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 U.S. Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M.Q. Salohiddinova, BuxDU boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
4. Amonov U.S., Saparova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
5. Muhammedovich Q.F., Muhammedovna Q.M. BOSHLANG'ICH SINFDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – С. 358-362.
6. Mahmudovna Nigmatova Mavjuda. "FUNDAMENTALS OF USING STEAM TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN". *International Journal of Early Childhood* 14.03 (2022): 2022.
7. Mirzaeva D. Art Therapy as a Means of Adaptation of Young children to pre-school: Art Therapy as a Means of Adaptation of Young children to preschool //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – T. 11. – №. 11.
8. Mirzayeva D.S. Maktabgacha pedagogika //Durdona nashriyoti. Buxoro. – 2021.
9. Qosimovna H.G. The concept of the development of the giftedness of Preschool Children of Creative Self-Realization //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 10. – №. 1.
10. Qosimovna Hasanova Gulnoz. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI MULOQOTGA O'RGATISH METODIKASI". *Scientific Impulse* 1.4 (2022): 1373-1378.
11. Rakhmonovich A.B., Bakhtiyorovna A.N. [THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN'S FOLKLORE](#). *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*.
12. Saidova M.J. DIRECTIONS AND CONTENT OF THE ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING //Conference Zone. – 2022. – С. 7-15.
13. Сафаров Феруз Сулаймонович. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" *Scientific Journal*. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
14. Саидова Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах". *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.
15. Супханова Н.Х. "ОБУЧЕНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ." *Вестник науки и образования* 17-3 (120) (2021): 55-57.
16. Turdiyeva M.J., Islomova M.I. A MODEL FOR DEVELOPING THE CREATIVE ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN BASED ON A PERSON-CENTERED APPROACH //Builders Of The Future. – 2021. – С. 10-14.
17. Turdieva M. PRESCHOOL AGE IS AN IMPORTANT TIME TO FOCUS ON CREATIVITY //Материали конференцій МЦНД. – 2021.
18. Xoliqulovich J.R. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –2022. –№. 3. –С. 34-37.
19. O'rinova Maftuna. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs

## BOSHLANG'ICH SINFDAN BADIY MATNLAR USTIDA ISHLASHDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING IJOBIY AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Avazova Durdona Erkinovna

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada PIRLS xalqaro tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasi va sifati taqqoslanadi. Shuningdek, Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va o'quvchilarning o'qish savodxonligini aniqlashga qaratilgan metodik tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, OECD, PISA, badiiy tajriba, pedagogik yangilik, texnologiya, axborot texnologiyalari, Progress in International Reading Literacy Study, kichik badiiy hikoya, Test topshiriqlari, metod va tavsiyalar.

**Аннотация:** В данной статье проводится сравнение уровня и качества понимания прочитанного учащимися начальных классов в международном исследовании PIRLS. Также представлены проводимые в республике реформы и методические рекомендации, направленные на определение читательской грамотности учащихся.

**Ключевые слова:** PIRLS, ОЭСР, PISA, художественный опыт, педагогическая инновация, технология, информационные технологии, «Прогресс в международном изучении читательской грамотности», короткометражка, тестовые задания, методы и рекомендации.

**Abstract:** This article compares the level and quality of reading comprehension by primary school students in the international PIRLS study. The reforms carried out in the republic and methodological recommendations aimed at determining the reading literacy of students are also presented.

**Keywords:** PIRLS, OECD, PISA, artistic experience, pedagogical innovation, technology, information technology, “Progress in the international study of reader literacy”, short film, test tasks, methods and recommendations.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlar, jumladan, OECD tashkiloti bilan PISA-2021 xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bo'yicha kelishuvga erishildi. Uchrashuvda PIRLS dasturining 2021-yil uchun mo'ljallangan tadqiqotlarida O'zbekistonning ishtirok etishi tashabbusi IEA tashkiloti tomonidan katta olqishlar bilan qarshi olindi va tashkilot tomonidan barcha kerakli yordam va tavsiyalar berilishi ta'kidlandi. Shuningdek, yig'ilishda PIRLS-2021 tadqiqotlarida ishtirok etish bilan bog'liq tashkiliy masalalar, ya'ni ishtirok etish shartlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bosqichlari, tadqiqotlarning samarali tashkil etishiga qaratilgan yo'riqnomalar va boshqa ko'plab vazifalar atroflicha muhokama qilindi.

Shuning uchun bugun har bir fan o'qituvchisi xalqaro baholash tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi va o'quvchilarni PISA va PIRLS baholash imtihonlariga tayyorlashi muhim vazifalardan biridir. Xo'sh, PIRLS nima?

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfdan tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnini o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

Bugungi axborot muhitining xususiyatlarini inobatga olgan holda, kitob o'qishga muhabbat uyg'otish oson emas. Bola kitoblarni ishtiyoq bilan qo'lga olishi uchun bir qancha omillar mos kelishi kerak: maktabda o'qitishga alohida e'tibor qaratish, oilada o'qishga bo'lgan munosabat va pirovardida har bir o'quvchining moyilligi. Ushbu vazifa O'zbekistonning zamonaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi: Ma'lumki, davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev yangi tizim asosida ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy sohalarda ishlarni yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surdi. To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini, kitobxonlikka muhabbatni yuksaltirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga



qaratilgan.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni, odatda, savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi.

So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash umumlashtirish uchun foydalaniladi. Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar manosini tushunmaydigan so'z va iboralar manosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So'z manosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo'lgan so'zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi. Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va, shu asosda, o'quvchilar nutqini ostirish markaziy orin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar oylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga tasir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy goyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi. Badiiy asarni tahlil qilishdasyujetni toliq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, mazmun va voqealar orasidagi boglanishni toliq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi. Hikoyani o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan goyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash

jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzishi, so'z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Kichik badiiy hikoyani izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti sxemasi e'tiborga olinadi:

1) hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyada tasvirlangani kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika...);

2) hikoyani (to'liq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini) o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchining ifodali o'qishi;

3) idrok etishni tekshirish (qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar ortasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);

4) hikoyani qayta o'qish (hikoyani qismlarga bolish, o'quvchilarga o'qitish, ayrim so'zlar manosini tushuntirish);

5) hikoyaning har bir bo'limi yuzasidan suhbat o'tkazish va sarlavha topish;

6) hikoyaning ayrim bo'limlarini ifodali o'qish;

7) reja asosida qayta hikoyalash;

8) hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda);

9) hikoyani ifodali o'qish va ifodali qayta hikoyalash.

Bu hikoyani o'qish darsi rejasining varianti bo'lib, o'zgarishi ham mumkin. Ammo shuni unutmash kerakki, badiiy hikoyani o'qish darsida uning mazmunini, asosiy fikrini bilish bilan birga, asarning tarbiyaviy (badiiy asar misolida o'quvchilarni tarbiyalash), xususan, estetikasiri ham ko'zda tutiladi va ifodali qayta hikoyalashga katta ahamiyat beriladi. Quyida 4-sinf hikoya matni ustida ishlashda PIRLS topshiriqlaridan namuna keltirildi.

O'qituvchi badiiy matni ustida ishlash jarayonida ham har bir o'quvchini mustaqil, erkin fikrlashga, matn mazmuni yuzasidan o'z fikrini bildirishga o'rgatib borishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlashda PIRLS topshiriqlaridan foydalanish jarayonining

muvaffaqiyatini ta'minlash o'qituvchi tomonidan samarali metodlarning tanlanishiga ham bog'liq. Binobarin, to'g'ri tanlangan samarali metodlar ko'zlangan maqsad yo'lida aniq harakatlanish, kutilgan natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlashda samarali metodlar bilan birga, ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning o'quv-bilish faolligini oshirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmoni.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент –“Ўзбекистон”. - 2016. 56 Б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Тошкент –“Ўзбекистон”. - 2016. 488 Б.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатлари таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент –“Ўзбекистон”. - 2016. 488 Б.
5. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Ona tili. O'qish. Matematika. Atrofimizdagi olam. Tabiatshunoslik (1–4-sinlar)). – T.: RTM, 2010. – 144 b.
6. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich ta'limdan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – T.: RTM, 2017. – 215 b.
7. Amonov U.S. O'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 U.S. Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M.Q. Salohiddinova, BuxDU boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
8. Ahmadovich H.H. O'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 343-345.
9. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O'qituvchi, 2006. – 208 b; 51-52-b.
10. Matchonov S., G'ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: Yangiyul poligraph service, 2008. – 224 b.
11. Matchonov S. va boshq "O'qish kitobi" 4-sinlar uchun darslik uchun darslik, "Yangiyul poligraf servis" 2020.
12. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS. Основная информация об исследовании PIRLS. Институт стратегии развития образования Российской академии образования, Центр оценки качества образования. [www.centeroko.ru](http://www.centeroko.ru)
13. PIRLS-2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. [www.timssandpirls.bc.edu](http://www.timssandpirls.bc.edu).
14. Qosimova K., Matchonov S., X.G'ulomova, Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir. 2009.
15. Safarov Firuz Sulaymonovich. Elementary School Dictionary Activation Methods. European Journal of Life Safety and Stability. (EJLSS) ISSN 2660-9630. Volume 12, 2021. P. 203 – 209.
16. Saidova M.J. MODERN CONDITIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH DISTANCE LEARNING //Conference Zone. – 2022. – С. 16-21.
17. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: Fan, 2008. – 160 b.

## XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

S.T. Ergasheva

*Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, mustaqil*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash va xorijiy davlatlar tajribasi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, PIRLS xalqaro tadqiqoti, o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim samaradorligiga erishish omillari aytib o'tilgan. Bundan tashqari aniqlangan muammolar bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida o'qish savodxonligini baholash bo'yicha tahlil natijalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qish savodxonligi, xalqaro baholash, PIRLS, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, matn, nutq.

**Аннотация.** В статье рассказывается об оценке читательской грамотности младших школьников и опыте зарубежных стран. Также было упомянуто международное исследование PIRLS, проблемы, возникающие в процессе обучения, факторы достижения образовательной эффективности в развитых странах. Кроме того, был изучен зарубежный опыт по выявленным проблемам. В исследовании представлены результаты анализа оценки читательской грамотности.

**Ключевые слова:** Грамотность чтения, международная оценка, PIRLS, анализ, синтез, сравнение, обобщение, текст, речь.

**Annotation.** The article discusses the assessment of reading literacy of Primary School students and the experience of foreign countries. Also mentioned are the PIRLS international study, problems arising in the course of study, factors for achieving educational effectiveness of developed countries. In addition, foreign experience on identified problems has been studied. The results of the study are the results of the analysis on the assessment of Reading Literacy.

**Keywords:** Reading literacy, International Assessment, PIRLS, analysis, synthesis, comparison, generalization, text, speech.

PIRLS xalqaro tadqiqoti o'quvchilarning matnni o'qib tushunishlari, yangidan-yangi g'oyalar, boshqa madaniyatlar va turli mamlakatlar haqida tasavvurga ega bo'lishlariga imkon beradigan qobiliyat haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bundan tashqari, u shaxsni hamda jamiyatni o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, shuningdek, "biror harakatni bajarish uchun o'qish", vositasi sifatida yozma matnlar va boshqa turdagi ma'lumotlar ustida mulohaza yuritishni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, bunday yondashuv bugungi jamiyatda yanada yaqqol sezilib, jamiyat o'quvchidan o'qish orqali olgan ma'lumotlardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etmoqda. Endilikda o'quvchilardan ravon o'qish va asosiy tushunish ko'nikmasi orqali tushungan yoki idrok etganlarini yangi vaziyatlar yoki loyihalarga nisbatan qo'llay olish qobiliyatini namoyon etishga o'tishni talab etilmoqda.

PIRLS xalqaro tadqiqotining qamrov doirasida keltirib o'tilganidek, ushbu tadqiqotda to'rtinchi sinf o'quvchilarining turli xil matnlarni o'qish va o'qigan matnlarining ma'nosini tushunish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

O'qish o'quvchilar tomonidan, asosan, maktabda yoki maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, bunda o'qish savodxonligini baholash ikkita maqsadga qaratiladi:

1. Badiiy tajriba orttirish.
2. Axborotni olish va undan foydalanish.

Baholashda matnni tushunishga mo'ljallangan har bir savol ushbu to'rtta tushunish jayonlarini aniqlash va baholashga qaratiladi.

O'quvchilarning matnlarni tushunishini baholash uchun PIRLS tadqiqotida turli xil savol formatlari qo'llaniladi. Birinchi turi – javob varianti tanlanadigan yopiq savollar, bunda o'quvchilarga savolga eng yaxshi javob bo'lishi mumkin bo'lgan javobni tanlash uchun to'rtta variant beriladi. To'rtta variantli har bir savolda bitta to'g'ri javob bo'ladi. Bu turdagi savolga berilgan to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.

Baholashda qo'llaniladigan formatning boshqa turi – bu o'quvchining savolga o'zi javob berishi talab etiladigan ochiq savollardir. Ushbu savol formati yordamida o'quvchilar bir nechta variantlardan birini tanlash o'rniga, savol(lar)ga javob(lar)ni o'zlari yozishlari kerak bo'ladi. Ba'zi hollarda o'quvchilar savollarga javob berish uchun tanlovni amalga oshiradilar (masalan, "Ha" yoki "Yo'q"), so'ngra ushbu tanlov uchun matndan dalillarni keltirgan holda izoh yozadilar. Bu turdagi savollarga berilgan javoblarga muayyan ball belgilash aniq mezonlarga asoslangan ko'rsatmalar yordamida, maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilgan baholovchilar tomonidan amalga

oshiriladi.

PIRLS tadqiqotida yana ikkita savol turidan foydalanadi, bular:

1. O'quvchilar tomonidan savolga bir nechta to'g'ri javob tanlanadigan savollar (odatda bu turdagi savollarda "tegishli bo'lgan barcha javoblarni belgilang" iborasi qo'llaniladi);

2. O'quvchilar matnda tasvirlangan yoki hikoya qilingan voqealarni matnga asoslangan holda to'g'ri ketma-ketlikda belgilashlari lozim bo'lgan savollar.

Ochiq savollarni baholashda bir ballik, ikki ballik va uch ballik baholash mezonlari joriy etiladi. Qabul qilinadigan javob (1 ball). Bunday javoblar matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda so'ralgan barcha elementlarni o'z ichiga oladi. Matndagi g'oyalar yoki ma'lumotlarga asoslangan javoblar to'g'ri deb sanaladi.

Qabul qilinmaydigan javob (0 ball). Bunday javoblar matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi tushunilmaganligini ifodalaydi. Javobda savolda so'ralgan elementlarning bir qismi yoki barchasini taqdim etishga urinishlar bo'lishi mumkin, ammo javoblar matndagi ma'lumotlar yoki tushunchaga ko'ra noto'g'ri ekanligini anglatadi. Shuningdek, javobda juda noaniq yoki savol bilan bog'liq bo'lmagan tushunchalar yoki ma'lumotlar keltirilgan bo'lishi mumkin.

To'liq tushunish (2 ball). Bunday javoblar o'quvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda so'ralgan barcha elementlarni o'z ichiga oladi. Zarur bo'lganda, javob so'zma-so'z tushunishni emas, balki tushunish darajasini namoyon etadi va ularda matnga mos keladigan tegishli talqinlar, xulosalar yoki baholar beriladi. Yoki javoblarga asoslangan holda talqin qilish, xulosa qilish yoki baholashni qo'llab-quvvatlash uchun to'liq va yetarli tushunchalar yoki ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Qisman tushunish (1 ball). Bunday javoblar matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismini qisman tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda so'ralgan elementlarning barchasini emas, balki bir nechtasini o'z ichiga olishi mumkin. Yoki ularda savolga javob beradigan barcha elementlar qayd etilgan bo'lishi mumkin, ammo savolda mavhumroq tushunchani izohlash, xulosa qilish yoki tushunish so'ralganda faqat so'zma-so'z tushunish namoyish etilishi mumkin. Agar savolda talqin qilish, xulosa qilish yoki baholash uchun izoh berish so'ralsa, javoblar matnga asoslanmagan bo'lishi yoki matnga aloqasi bo'lmagan, noaniq ma'lumotlar keltirilishi mumkin.

Mutlaqo tushunmaslik (0 ball). Bunday javoblar matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi mutlaqo tushunilmaganligini ifodalaydi. Javobda savolda so'ralgan

elementlarning bir qismi yoki barchasini taqdim etishga urinishlar bo'lishi mumkin, ammo javoblar matndagi ma'lumotlar yoki tushunchaga ko'ra noto'g'ri ekanligini anglatadi. Shuningdek, javobda juda noaniq yoki savol bilan bog'liq bo'lmagan tushunchalar yoki ma'lumotlar keltirilgan bo'lishi mumkin.

Keng tushunish (3 ball). Bunday javoblar o'quvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi keng tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda talab qilingan barcha elementlarni o'z ichiga oladi. Zarur bo'lganda, javob nisbatan murakkab, mavhum yoki matnning mavzusi yoki asosiy mavzusi uchun markaziy bo'lgan g'oyalar va ma'lumotlarni tushunilganligini ifodalaydi. Bunda ular matnni to'g'ridan-to'g'ri tushunishni namoyon etgan holda savolga binoan xulosalar, izohlash yoki baholashlar uchun matnni keng qamrovli izohlaydi.

Qoniqarli tushunish (2 ball). Bunday javoblar o'quvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi qoniqarli tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda talab qilingan barcha elementlarni o'z ichiga olishi mumkin, ammo matndagi tushunchalarni yoki nisbatan murakkab yoki mavhumroq deb hisoblanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tushunilganligini anglatuvchi dalillarini ifodalamaydi.

Minimal tushunish (1 ball). Bunday javoblar o'quvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi minimal darajada tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda talab qilingan elementlarning barchasini emas, balki bir nechtasini o'z ichiga oladi. Ular matndagi aniq tushunchalarni yoki ma'lumotlarni tushunganliklarini so'zma-so'z ifodalashlari mumkin, ammo savolga ko'ra ular o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Savolga ko'ra, xulosa qilishyoki talqin

qilish uchun matn yordam berishi kerak bo'lsada, javoblar faqat matnda yetarli bo'lmagan yoki aloqador bo'lmagan dalillarni o'z ichiga olishi mumkin.

Qoniqarsiz tushunish (0 ball). Bunday javoblar o'quvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi qoniqarsiz tushunilganligini ifodalaydi. Javobda savolda so'ralgan ba'zi bir elementlarni keltirish uchun urinishlar kuzatilishi mumkin, ammo ular matndagi g'oyalar yoki ma'lumotlarga asoslangan holda noto'g'ri yoki noo'rin ekanligini anglatadi.

Shuningdek, izohlanmagan javoblarga "0" ball qo'yiladi. Bunga chizilgan va o'chirilgan urinishlar, o'qishga yaroqsiz va topshiriqqa doir bo'lmagan javoblar, chizmalar kiradi.

O'quvchilarning javoblari kim tomonidan baholanishidan qat'iy nazar, tizimli baholanishi juda muhimdir. Bu har bir baholovchi o'quvchilarning javoblarini boshqa baholovchilar kabi baholashi lozim ekanligini anglatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Afflerbach, P., & Cho, B.-Y. (2009). Identifying and describing constructively responsive comprehension strategies in new and traditional forms of reading. In S.E. Israel & G.G. Duffy (Eds.), *Handbook of research on reading comprehension* (pp. 69-p). New York, NY: Routledge.
2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. *European journal of life safety and stability (ejlss)*. [Www.ejlss.indexedresearch.org](http://www.ejlss.indexedresearch.org) Volume 14, 2022.
3. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
4. Ahmadovich H.H. O'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYA TO'G'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jumali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 349-350.
5. Bakhtiyorovna Nigora Adizova and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "Anvar Obidjon is a children's poet". *Middle European Scientific Bulletin*.
6. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 368-b.
7. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ ([buxdu.uz](http://buxdu.uz)). – 2022. – Т. 23. –№. 23.
8. Jonpolatovna S.M., Gulomovna U.S. Effectiveness of the Use of Information Technologies in Fulfilling Creative Tasks in Primary School Mathematics //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 11. – C. 26.
9. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Умарова Г.У. Учебные задачи как средство активизации учебной деятельности учащихся на уроках математики //Обучение и воспитание: методики и практика. – 2015. – №. 19. – C. 54-60.
10. Leu, D., Kinzer, C., Coiro, J., Castek, J., & Henry, L. (2013). New literacies: A dual-level theory of the changing nature of literacy, instruction, and assessment. In D.E. Alvermann, N.J. Unrau, & R.B. Ruddell (Eds.), *Theoretical models and processes of reading* (6th ed., pp. 1150–1181). Newark, DE: International Reading Association. 56-bet.
11. Stiggins, R. (1982). An analysis of the dimensions of job-related reading. *Reading World*, 21(3), 237-247 b.
12. Saidova, G.E. "MANTIQIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jumali* 1.1 (2022): 60-61.
13. Saidova M.J. Teaching future primary school teachers to pass mathematics lessons through innovative technologies //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – T. 5. – C. 254-261.
14. Tashkenbayeva U.N. "O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnoma". – Toshkent. 2020.

## TIMSS TADQIQOTLARIDA MATEMATIK BILIM VA KO'NIKMALAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Muxtarova Lobar Abdimannabovna

*Termiz davlat pedagogika institute pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik savodxonlik uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Matematik mulohazalarni yuritish, matematik tushunchalarni, usullarni, faktlarni va vositalarni qo'llash kabi matematik savodxonlik faoliyat sifatidagi mohiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** matematika, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, matematik savodxonlik, kontekst, matematik tushunchalar va belgilar.

**Аннотация:** статья посвящена вопросам формирования и развития системы математических знаний и умений, необходимых для математической грамотности у учащихся начальной школы. Раскрывается сущность математической грамотности как такой деятельности, как ведение математических рассуждений, применение математических понятий, методов, фактов и средств.

**Ключевые слова:** математика, рассуждение, решение задач, математическая грамотность, контекст, математические понятия и символы.

**Abstract:** the article focuses on the formation and development of the system of mathematical knowledge and skills necessary for mathematical literacy in elementary school students. The essence of mathematical literacy as an activity is revealed, such as conducting mathematical reasoning, applying mathematical concepts, methods, facts and tools.

**Keywords:** mathematics, reasoning, problem solving, mathematical literacy, context, mathematical concepts and symbols.

“Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”. Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish hamda mamlakatimiz yoshlarining matematika sir-asrorlaridan bahramand bo'lishlariga sharoit yaratib berish uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Matematik savodxonlik – shaxsning matematikani turli kontekstlarda formalizatsiya qilish, qo'llash va talqin qilish qobiliyatidir. U hodisalarni tushunish, tushuntirish va bashorat qilish uchun o'z ichiga matematik mulohazalarni yuritish, matematik tushunchalarni, usullarni, faktlarni va vositalarni qo'llash kabi jihatlarni olgan. Matematik savodxonlik insonlarga dunyoda matematikaning o'rnini tushunish, konstruktiv, faol va fikrlaydigan fuqaroga zarur bo'lgan mulohazalarni yuritish hamda qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.

Matematik savodxonlikning aniqlashtirilgan ta'rifi matematik vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga olgan. Ularga ishlatilishi umume'tirof bo'lgan va kengaytirilishi davom etgan XXI asrning texnologiyasiga mansub fizik va raqamli qurilmalar kiradi. Ravshanki, bu ko'nikmalarga ega bo'lish sharti zamonaviy insonning muvaffaqiyatli bo'lishiga zarurdir.

Matematik savodxonlikni baholashni tashkil qilishning asosida quyidagi uchta o'zaro bog'liq jihatlar turadi:

1. Topshiriqlarda ishlatiladigan matematik tushunchalar majmui (*mazmun*),

2. Muammoni taqdim etadigan vaziyat (*kontekst*)

3. Bu kontekstda berilgan muammoni yechishga zarur bo'lgan matematika bilan bog'lash uchun o'quvchi faoliyatini tasvirlaydigan matematik aqliy *jarayonlar*.

Matematik savodxonlik tushunchasi turli yillardagi tadqiqotlarda turlicha talqin qilingan. Oxirgi tadqiqot natijalariga ko'ra unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: tanqidiy fikrlash; ijodkorlik, kreativlik; tadqiqot va tahlil qilish; mustaqillik, tashabbuskorlik va qat'iylik; ma'lumotlardan foydalanish; tizimli fikrlash; muloqot qilish; mulohaza yuritish.

Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'lay olish va olingan natijalardan muammoning



yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini-o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lganasoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Matematik savodxonlik har bir kishiga matematika olamini tushunishga, uning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini anglashga, faol, mulohazali va ishning ko'zini biladigan (konstruktiv) XXI asr fuqarosi uchun zarur bo'lgan, asosli mulohazalar yuritish orqali maqbul qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o'zida shakllantirishga yordam beradi.

Ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS – matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoring dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi hamda sifatini solishtirishga, milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

IEA tomonidan 1995-yilgacha o'tkazilgan matematik va tabiatshunoslik ta'limi sohasidagi barcha tadqiqotlar bir xil kesimda o'tkazilgan. 1995-yil TIMSS tadqiqoti bitta kesimda emas, balki ketma-ketdagi ikkita 3-4 va 7-8-sinflar kesimida o'tkazilgan. Ushbu yondashuv muhim afzalliklarga ega edi. U ma'lum bir yosh guruhidagi o'quvchilarni qamrab olish va o'quv yutuqlarini baholashga imkon berdi. Masalan, 1995-yilda TIMSS tadqiqotida o'rganilgan ettinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilari soni o'n uch yoshdagi o'quvchilarning deyarli ko'p qismini qamrab olgan. Shu bilan birga, alohida yoshdagi o'quvchilarni o'quvyutuqlaridagi o'zgarishlarni taqqoslash, kuzatish va tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, sakkizinchi sinf o'quvchilarining 13,5 yoshdagi o'quv yutuqlari va 12,5 yoshdagi ettinchi sinf o'quvchilarining o'quv yutuqlari bilan taqqoslash amalga oshirildi va shu tariqa bir yillik o'qishning o'quv samaradorligi aniqlandi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, 1995-yil TIMSS tadqiqotida vazifa maktabdagi turli bosqichdagi o'quvchilarning o'quv yutuqlarini taqqoslash edi, shuning uchun uchta guruh o'quvchilari tanlangan. Tanlashda bittasi boshlang'ich sinflardan (3-4) iborat bo'lib, unda to'qqiz yoshli o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Ikkinchi guruhda o'n uch yoshdagi asosiy maktabning ikkita sinfini (7-8) o'quvchilari qatnashgan. Uchinchi guruhga o'rta maktablarning bitiruvchi o'quvchilari kiritilgan.

**Shaxsiy hayot bilan bog'liq kontekstlar**, odatda, o'quvchi, oilasi, do'stlari va tengdoshlarining kundalik hayotiy bilan bog'liq (urtoqlari bilan muloqot, sport mashg'ulotlari, do'konlarda savdo-sotiq, dam olish, uy yumushlari).

**Ta'lim/Kasbiy faoliyatga doir kontekstlarda** berilgan masalalarda maktab hayoti yoki mexnat faoliyat bilan bog'liq. Ular o'lchash, narxni hisoblash, qurilish uchun materiallarni harid qilish (masalan, maktab matematika kabinetiga kitob javonini yasash uchun), buyurtma bo'yicha to'lash, muayaan ishni bajarish.

**Ijtimoiy hayotga oid kontekstlar** jamiyatning (mahalliy, milliy yoki umuminsoniy) hayoti bilan bog'liq. Maxalliy jamiyat bilan bog'liq vaziyatlar o'quvchi atrofida vujudga kelgan muammolarga (masalan, valyuta ayirboshlash, bankka omonat qo'yish) bag'ishlangan. Kengroq jamiyatda vujudga kelgan muammolar sifatida saylov tizimlari va saylov natijalari bilan bog'liq muammolarga (masalan, prezident saylovlari natijalarini bashorat qilish), transport, hukumat qarorlari, demografik muammolar, milliy statistika va iqtisodiyot masalalari qaralishi.

**Ilmiy faoliyatga oid kontekstlar**, odatda, matematikani fan va texnologiyaga, fizik hodisalarga bag'ishlangan (masalan, mavjud statistik ma'lumotlar asosida zilzila ro'y berish-bermasligi to'g'risida hulosa chiqarish). Bu kontekstlarda ob-havo yoki iqlim, ekologiya va tibbiyot, koinot, genetika muammolari qaralishi mumkin. Ularda nazariy savollar (masalan, aholining turli taqsimotlari) yoki bevosita real hayotga bog'liq bo'lmagan sof matematik masalalar (masalan, uchburchakning ikki tomoni berilganda uchinchi tomonni topish).

Hammamiz farzandlarimizning matematikada muvaffaqiyat qozonishini xohlaymiz. Ko'pincha, matematikadan sinovga tayyorgarlik materiallariga haddan tashqari ishonish o'quv vaqtini o'g'irlyadi, shu bilan birga, o'rganish va motivatsiyaga zarar yetkazadi. Darslik hamda

o'quv metodik-qo'llanmani yaratishda xalqaro davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi. Xalqaro tashkilotlar ekspertlarining tavsiyalari inobatga olindi. Darslikda mavzular sodda, tushunarli tilda, hayotiy masalalar yordamida yoritilgan va rang-barang rasmlar bilan bezatilgan. Fanlararo integrasiya ta'minlangan. Darslik, asosan, o'quvchilarda matematik bilim, tasavvur, tafakkur, mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning imkoniyatlari, yoshi, individual xususiyatlari, XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lishlarini inobatga olgan holda yozilgan. Topshiriqlar soddadan murakkabga tomon spiralsimon tarzda rivojlanib boradi.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PF-4708-sonli "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. Adizova Nigora Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. *Journal of Advanced Research and Stability*. Volume: 02 Issue: 01 | 2022.
3. Ahmadovich H.H., Aminovna A.Sh. BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 100-102.
4. Ahmadov O. БУХОРО АМИРЛИГИДА ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИ. ЮТУҚЛАРИ ВА МУАММОЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
5. Ахмедов О.Ш. ОБРАЗОВАНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ПРАВИТЕЛЕЙ) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.
6. Avezov O.R. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. *Psixologiya* 3 (No. 25), 46-53.
7. Baxtiyorovna Nodira Adizova. "Place Names and Related Concepts Study". *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 153-157.
8. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. – №. 27.
9. Maxmudova D.M. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения International Conference "PISA" xalqaro dasturida matematik savodxonlik. Chirchik, Uzbekistan 1476-1480 bet.
10. QOSIMOV F. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI SODDA MASALALAR BILAN TANISHTIRISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
11. Safarov Firuz Sulaimonovich. The Representation of the Reportedspeech Through. *European journal of life safety and stability (EJLSS)*. ISSN 2660-9630. Volume 15, 2022, P. 21 – 26.
12. Saidova M.J. Directions and Content of Educational Information //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 210-217
13. Саидова М., Рахмонова А. Boshlang 'ich sinf matematika darslarida mustaqil topshiriqlardan foydalanish usullari va ahamiyati //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 84-90.
14. Саидова Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах". *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.
15. TIMSS Monograph No.2. Research Questions and Study Design. General editor, David F. Robitaille.
16. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash". "Sharq". NMAK – Toshkent. 2019.
17. O'rinova Maftuna (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*.
18. Shodmonovich A.O. Education in the emirate of Bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – Т. 10. – №. 12. – С. 1224-1227.

## МАКТАБЛАРДА ЗАМОНАВИЙ СИФАТЛИ ТА'ЛИМНИ ТАШКИЛ ETISHDA XALQARO BAXOLASH DASTURLARINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

O.Sh.Ahmadov

BuxDPI dotsenti, p.f.f.d (PhD)

S.Sultonov

BuxDPI magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy ta'lim va sifatli ta'limni tashkil etish uchun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi. Milliy baxolash dasturlarimizni rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish uchun dastur amal bo'lib xizmat qiladigan baxolash dasturlarining tashkillashtirish yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** PISA ([ing. Programme for International Student Assessment](#)), TIMSS bu "Trends in International Mathematics and Science Study", PIRLS Progress in International Reading Literacy Study,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllantirilmoqda. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi.

PISA ([ing. Programme for International Student Assessment](#)) turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning [savodxonligini](#) (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur tadqiqoti. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(IHTT), Organization for Economic Cooperation and Development(OECD) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot ilk bora 2000-yili o'tkazilgan va 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi.

O'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi, targ'ib qilmaydi va umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.

PISA testlari 5 ta yo'nalish bo'yicha o'qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik o'tkaziladi.

2021 yilda o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etadi.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016 yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021 yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi.

Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Progress in International Reading Literacy Study xalqaro baxolash dasturida natijalarni e'lon qilish uchun quyidagicha darajalar va ballar bilan baxolanadi.

Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining

ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi

Quyida daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

TIMSS bu "Trends in International Mathematics and Science Study", ya'ni 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ta'limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir. 1995, 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019 yillarda bo'lib o'tgan edi. TIMSS-ning 2019-yilgi tadqiqoti 64 davlatni qamrab oldi. 2019 yilda ham boshlang'ich va matematik tayyorgarlik bo'yicha Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Tinch okeani: Singapur, Koreya Respublikasi, Gonkong, Tayvan va Yaponiya etakchi mamlakatlar guruhida bo'lgan.

TIMSS-ni baxolash darajalari: h- mamlakatning o'rtacha ko'rsatkichdan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori. = o'rtacha ball o'rtasida statistik jihatdan muhim farq yo'q. mamlakatning o'rtacha balli ko'rsatkichdan statistik jihatdan sezilarli darajada past. TIMSS 2023 taqvimining yillik tayyorgarlik bosqichlari 4 ga bo'linadi birinchisi 2021 yil Fevral oyida Milliy tadqiqot koordinatorlarining birlashgan yig'ilishi. Ikkinchisi 2022 yil Mart-aprel - ommaviy sinov ishlari olib borildi. Uchunchisi 2023 yil Ma'lumotlar yig'ilib jamlanadi. To'rtinchisi 2024 yil Dekabr oyida yig'ilgan natijalar e'lon qilindi.

TIMSS tadqiqot quyidagi vositasilar asosida tashkil qilinadi.

- matematika va tabiiy fanlar tsikli fanlaridan topshiriqlar (4 va 8-sinflar);
- ta'lim muassasalari rahbarlari uchun anketa (4 va 8-sinflar);
- o'qituvchilar uchun so'rovnoma (4 va 8-sinflar);
- Ota-onalar uchun so'rovnoma (4-sinf).

TIMSS testi to'rtta topshiriq blokidan iborat hisoblanib (ikkitasi matematikadan va ikkitasi tabiatshunoslik). 4-sinf o'quvchilarini barcha testlarni bajarish uchun 15 daqiqa tanaffus bilan 72 daqiqa ajratildi (ikki qism 36 daqiqa). 8-sinf o'quvchilari uchun barcha testlarni bajarish uchun 15 daqiqa tanaffus bilan 90 daqiqa berildi (ikki 45 daqiqadan iborat qismlarga bo'lingan holda).

O'zbekiston Respublikasi Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish zamon talabi ekanligini hozirgi islohotlarning ijobiy samarasi bilan belgilasak mubolag'a bo'lmaydi. Maktablarimiz o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashiti takomillashtirish uchun xalqaro baxolash dasturlari muxim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Мирзиёев Ш.М. «Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз». Том I. Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – 592 б.
2. Мирзиёев Ш.М. «Халқимизнинг розилити бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир». Том II. Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – 508 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга мурожаатнома. Т.: Ўзбекистон, 2018. – 80 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга мурожаатнома // Халқ сўзи; 2020. 29 декабрь.
5. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – Т. 10. – №. 12. – С. 1224-1227.
6. Ahmadov O. БУХОРО АМИРЛИГИДА ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИ. ЮТУҚЛАРИ ВА МУАММОЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
7. Ахмедов О. Ш. ОБРАЗОВАНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ПРАВИТЕЛЕЙ) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.
8. Ahmadov O. BUXORO BOSMAXONA VA NASHRIYOTLARIGA TEXNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Ahmadov O. XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimining manbaviy asoslari va adabiyotlar tasnifi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 4. – №. 4.

10. Аҳмадов О. Ш. МОЛОДЕЖЬ, ВЛАСТЬ, ОБЩЕСТВО: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ.

11. Olimjon A. БУХОРОДА ЯНГИ УСУЛ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИДАГИ ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ЎРНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

12. Khasanov, Ahmadov O. Sh. "MAHMUDHO 'JA BENBUDIY-TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI YO 'LBOSHCHISI." MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2.21 (2023): 143-150.

13. Olimjon A. XIX ASR OXIRI XX ASR I-CHORAGIDA BUXORODA JADID MAKTABLARINING TA'LIM-TARBIYA TIZIMI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

## ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ (PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS) В РАЗВИТИИ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Рузиева Майрам Амруллаевна**

*преподаватель Бух ГПИ*

**Соколова Елена Олеговна**

*студентка Бух ГПИ*

**Аннотация:** *Статья посвящена рассмотрению сущности международных оценочных программ PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS и их значения в развитии грамотности учащихся.*

**Ключевые слова:** *PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, грамотность, международные оценочные программы.*

Международное исследование качества чтения и понимания текста PIRLS позволяет сравнить уровень и качество чтения и понимания текста учащимися начальной школы в различных странах мира, а также выявить различия в национальных системах образования.

Исследование проводится циклично — один раз в пять лет, и к настоящему времени проведено пять раз: в 2001, 2006, 2011, 2016 и 2021 годах.

Проект PIRLS был создан под эгидой Международной ассоциации по оценке учебных достижений (IEA). Вся ответственность за организацию международных исследований возложена на бостонский колледж Chestnut Hill (Массачусетс, США).

Подготовка заданий для международных исследований происходит в центре данных в Гамбурге (Германия).

В исследовании PIRLS оцениваются два вида чтения, которые чаще других используются учащимися во время учебных занятий и вне школы:

1. чтение с целью приобретения читательского литературного опыта;
2. чтение с целью освоения и использования информации.

В соответствии с концептуальными положениями исследования при чтении художественных и информационных (научно-популярных) текстов оцениваются четыре группы читательских умений:

1. нахождение информации, заданной в явном виде;
2. формулирование выводов;
3. интерпретация и обобщение информации;
4. анализ и оценка содержания, языковых особенностей и структуры текста.

Оценка результатов

Для качественной и количественной оценки выполненных работ в PIRLS используется следующая система:

- задания с выбором ответа оцениваются 1 баллом;
- задания на установление последовательности событий оцениваются 1 баллом;
- задания со свободно конструируемым ответом оцениваются от 1 до 3 баллов в

зависимости от сложности задания.

Для окончательной обработки результатов использовалась современная теория тестирования.

Международное мониторинговое исследование качества школьного математического и естественнонаучного образования TIMSS (англ. TIMSS — Trends in Mathematics and Science Study) — это программа, организованная Международной ассоциацией по оценке учебных достижений IEA. Данное исследование позволяет сравнить уровень и качество математического и естественнонаучного образования учащихся 4-х классов начальной школы и учащихся 8-х классов в различных странах мира, а также выявить различия в национальных системах образования.

Исследование проводится циклично — один раз в четыре года, и к настоящему времени было проведено семь раз: в 1995, 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 и 2020 годах.

При этом трижды с 1995 года (последний раз в 2015 году) проводилось «расширенное» исследование (Advanced TIMSS), включающее в себя изучение достижений обучающихся последнего класса школы (в России и Узбекистане это 11-й, в США — 12-й и т. д.).

Международное исследование PISA

Международная программа по оценке образовательных достижений учащихся (англ. Programme for International Student Assessment, PISA) — тест, оценивающий функциональную грамотность школьников в разных странах мира и умение применять знания на практике. Проходит раз в три года. В тесте участвуют подростки в возрасте 15 лет. Был разработан в 1997 году, впервые прошёл в 2000 году. Тест организует Организация экономического сотрудничества и развития в консорциуме с ведущими международными научными организациями, при участии национальных центров. Руководит работой консорциума Австралийский совет педагогических исследований (ACER) при активном содействии Нидерландского национального института педагогических измерений (CITO), Службы педагогического тестирования США (ETS), Национального института исследований в области образования (NIER) в Японии; Вестат США (WESTAT) и других авторитетных в мире образования организаций.

#### **Исследованная литература:**

1. Официальный сайт исследования PISA: <https://www.oecd.org/pisa/>
2. Официальный сайт исследования PIRLS и TIMSS: <https://timssandpirls.bc.edu/>
3. Официальный сайт исследования TALIS: <https://www.talis-group.com/ru/home.html>
4. Сайт wikipedia: <https://ru.wikipedia.org/>



**3–SHO‘BA: MILLIY DASTUR VA YANGI  
AVLOD DARSLIKLARINING TATBIQI –  
YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH VA TA‘LIMNI  
SIFATINI OSHIRISH DRAYVERI**

# BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLIKLARINING ZAMON TALABIGA MOSLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

S. S. To'rayeva

*A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Maktab darsliklari ta'lim jarayonining asosiy vositasi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limfanlari darsliklari qanchalik mukammal tuzilsa, ta'lim sifati ham shu darajada yuqori bo'ladi. Bugun darsliklarga qo'yilgan talab soat sayin o'zgarib bormoqda. Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarni yaratilganiga ikki yildan oshdi. Bu darsliklar mazmuni o'qituvchilar va o'quvchilarni qoniqtiradimi? Bu maqolada boshlang'ich ta'lim darsliklariga qo'yilgan talablar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Darslik, didaktik, psixologik xususiyatlar, ona tili va o'qish savodxonligi, belgilangantalablar, ellektizm hodisasi.

Maktab ta'limi tizimi yo'nalishida fan darsliklariga bo'lgan e'tirozlar 2021-2023-yillarda juda ham ko'payib ketdi. Bunga sabab o'qituvchining yangi darsliklarga moslasha olmasligimi, o'qitish metodikasining sayozligidami, yoki haqiqatan ham darsliklar belgilangan talablar darajasida ishlab chiqilmaganligidami?

Maktab ta'limi mazmunini boyitish va uni yanada takomillashtirishda zamonaviy darsliklar yetakchi o'rin egallaydi. Ular bilimlar tizimining asosiy yo'naltiruvchisigina bo'lib qolmay, balki butun o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning muhim vositasi hisoblanadi.

**Darslik** – o'quv fani dasturiga mos bilimlarning mustahkam bayoniga ega bo'lgan va rasman tasdiqlangan o'quv kitobi.

Darsliklarning mazmuni ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi talablariga javob berishi, o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha chuqur va puxta bilim olishini ta'minlash zarur. Maktablarning milliy darsliklari yosh navqiron avlodda to'g'ri va keng dunyoqarashni shakllantirishga, onglilik, vatanparvarlik kabi yuksak ma'naviy xislatlarni tarbiyalashga yo'naltiradi. Darsliklar o'quvchilarning bilim va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, o'quvchilarda o'z bilimlarini uzluksiz takomillashtirish va mustaqil bilim olishga intilishini tarbiyalashga yordam berishi zarur.

Darsliklar umumiy o'rta ta'limning asosiy vositasi hisoblanar ekan, vaqt o'tishi bilan ularni mazmun va mohiyat jihatidan yangilash, qayta tiklash, davlat tomonidan belgilangan talablarga mos holda takomillashtirib borish taqozo etiladi.

Darsliklarning tarkibiy tuzilishini belgilashda quyidagilarni hosobga olish lozim:

–darslikda o'quv dasturida belgilangan mavzularning izchil bayon qilinishiga e'tibor berish;

–bayon qilinayotgan tushuncha, qoida, qonunlar zamonaviy ilmiy bilimlarga tayangan bo'lishiga erishish (yosh xususiyatni inobatga olib);

– o'quv fani ichida mavzulararo hamda o'quv fanlariaro aloqadorlik, uyg'unlikni ta'minlash;

–berilgan materiallarni bob, bo'lim, mavzularga ajratish;

–har bir bo'lim alohida o'rganilishi kerak bo'lgan va aniq egallangan darajani tashkil etilishi lozim. 523und abo'lim mazmuni tarix, ilm va amaliyot bilan bog'lanishi kerak;

–o'quv materiallari o'zaro mantiqiy bog'liqlikda bayon etilishi zarur;

–bayon nuqtai nazaridan nazariy amaliy materiallar bilan bog'lanishi hamda xulosalarning asoslanganligi nihoyatda zarurdir;

–o'quv-biluv faoliyatining bo'limlar bilan bogliqligi, ya'ni dalillardan namunaga qarab;

–namunadan farazga, farazdan natijaga qarab borish lozim. Xulosa natijalaridan tajribaga, tajribadan amaliyotga o'tiladi;

–bayon qilingan o'quv materiallari o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi ta'minlanmog'i lozim;

– o‘quvchining aqliy taraqqiyoti, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etiladigan tushunchalarni tanlashga erishish, ya‘ni har bir darsda o‘quvchini mantiqiy fikrlashga o‘rgatadigan o‘quv materiallarini belgilab berish kerak.

Biz yuqorida darsliklarga qo‘yilgan talablarni ko‘rib chiqdik. Xo‘sh, hozirgi boshlang‘ich ta‘lim fanlari darsliklari qaysi jihatlari bilan ustun turadi, darslikning qaysi jihatlari oqsaydi. Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra mazkur darsliklar amaliyotdan nazariyaga qarab borish, o‘quvchida yangicha, mustaqil va mantiqiy fikrlashga yo‘nalganligi bilan ajralib turadi. Darsliklar o‘quvchining darsda zerikib qolishini oldini oladi. Ammo bu yangi darsliklar xato va kamchiliklardan xoli emas.

Odatda, dastur mazmuniga mos darsliklar ishlab chiqilishiga o‘rganib qolganmiz, aslida ham o‘zi shunday bo‘lishi kerak: DTS=>o‘quv dasturi=>darslik. Bu tizim buzilsa, ta‘lim sifati izdan chiqib ketishi hech gap emas. Ammo keyingi yillarda ishlab chiqilgan dastur va darsliklarda juda ham ko‘p qarama-qarshiliklar, nomutannosibliklar kuzatilmoqda. Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni ilg‘or mamlakatlarning ta‘lim tizimidan andoza olishga harakat qilsa-da, afsuski, bu tizim ayni damda eklektizm holatida. *Eklektizm, eklektika (yunoncha: — tanlovchi) — turli xil, hatto bir-biriga qarama-qarshi qarash, g‘oya, nazariyalarning “eng yaxshisi”ni tanlab olishga intilish.* Darsliklarining muntazam o‘zgarib turishi, ularlarning belgilangan talablarga javob bermasligi, yangi darsliklarning o‘quv jarayoniga vaqtida yetkazilmasligi o‘z- o‘zidan ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir qiladi.

Yangi darsliklar mazmuniga bir e‘tibor qarataylik. Biz yuqorida darsliklar dastur asosida tuzilishi kerakligini qayta-qayta ta‘kidladik. Milliy o‘quv dasturining tasdiqlangan nusxasi o‘qituvchilar qo‘lida bormi o‘zi? Dasturning bir necha nusxasi bo‘lib, ular ayrim jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Boshlang‘ich ta‘limning asosiy fanlaridan ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi Milliy dasturga mos tuzilganmi o‘zi?

Ona tili va o‘qish savod xonligidagi ayrim mavzularning dasturga, yoki dasturdagi mavzularning darslikka mosligini solishtirib ko‘ramiz:

1-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi dasturi, IV bo‘lim, “San‘at va madaniyat” (22 soat). Ertakdagi qahramon. Berilgan ertak matnni tarkibidagi ayrim so‘zlarning talaffuzi va imlosi. D-t, b-p, z-s, j-ch, g-k, v-f undoshlarining talaffuzi va imlosi.

1-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida shu bo‘limni o‘qitish uchun 18 ta sahifa ajratilgan. Darslikda shu bo‘limda o‘tilishi kerak bo‘lgan “d-t, b-p, z-s, j-ch, g-k, v-f undoshlarining talaffuzi va imlosi” mavzusiga oid biror topshiriq ham mavzu ham kiritilmagan. Biror mavzu tarkibida ham jarangli undosh tovushlarning jarangsiz juftini o‘rgatishga oid o‘quv materiali mavjud emas.

Xuddi shu dasturning “Til va dil” (21 soat) V bo‘limida “Tasviriy ifoda, undan foydalanish. Berilgan matn tarkibidagi tasviriy ifodalarni aniqlash, ularning nutqni boyitishdagi ahamiyati haqida suhbatlashish” kabi mavzular berilgan. Ammo 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida tasviriy ifodaga oid biror topshiriq yoki mavzu umuman mavjudemas. Bundan tashqari, darslik mualliflari juda kam vaqt mobaynida darslikni nashrga tayyorlaganligi sabab, ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida imloviy, uslubiy va ishoraviy xatolar talaygina. Jumladan, darslikdagi ayrim matnlarda o‘ va g‘ harflarining ko‘chish belgisi noto‘g‘ri qo‘llanilgan. 2-sinfda Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining 106-sahifasida (5- bo‘limi. Kasblar) berilgan mashqda Grammatik xatolikka yo‘l qo‘yilgan, chunonchi, *-uvchi qo‘shimchasini qo‘shib kasblar nomini hosil qiling.*

O‘zbek tilida -uvchi qo‘shimchasi -v(-uv) – fe‘lning harakat nomi shaklini yasovchi qo‘shimcha, -chi – ot yasovchi qo‘shimchalarining birkuvidan hosil bo‘lgan murakkab qo‘shimcha. Qo‘shimcha haqida tasavvurga ega bo‘lmagan o‘quvchiga murakkab qo‘shimchalar xususiyatini o‘zlashtirish bir muncha qiyinlik qilishi mumkin. Balki, darslik mualliflari boshqa maqsadni nazarda tutgandir, ammo bu xato‘ usul; Darslikda berilgan

topshiriqlar jumlasini tuzishda ham tilning tejamkorligi va sayqalligi inobatga olinmagan, masalan xuddi shu sahifada quyidagi tushuntirish matni berilgan: *Ayrim so'zlarga -uvchi qo'shimchasini qo'shish bilan kasb nomlarini hosil qilish mumkin. Masalan, tik+uvchi=tikuvchi. Lekin hamma so'zga ham bu qo'shimchani qo'shib, kasb nomini hosil qilib bo'lmaydi. Masalan, chiz+uvchi=chizuvchi. Rasm chizadigan odamni chizuvchi deyilmaydi. Uni rassom deyiladi.* Berilgan matnning so'ngidagi ikki jumla "*Rasm chizadigan odam chizuvchi deyilmaydi. U rassom deyiladi*" mazmunida tuzilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Darslik mundarijasi ham belgilangan talab darajasida tuzilmagan, ya'ni faqat ona tili o'qish savodxonligi darsligining bo'limlari sahifasi ko'rsatilgan. Agar o'quvchi biror asar yoki she'ni darslikdan izlamoqchi bo'lsa, butun bo'limni yoki kitobni varaqlab chiqishiga to'g'ri keladi.

Ona tili fani Milliy dasturi va yangi darsliklar o'rtasidagi nomutanosiblar anchagina, o'ylamizki, bu kamchiliklar vaqt davomida o'z yechimini topadi.

Bu kabi muammolar o'qituvchini fanni o'qitishda aniq metodik rakursni belgilab olishiga katta to'sqinlik qiladi. Natijada o'qituvchi oldidagi muammoni yechish masalasi murakkablasha boradi. Ta'lim tizimini sifatli tashkil etishda muqobil dastur va darslik yaratilmas ekan, samaradorlik darajasi sekin astalik bilan tushib boradi. Faqatgina mahoratli pedagoggina bunday vaziyatda to'g'ri yo'lni o'zi uchun belgilab oladi, har qanday vaziyatda ham o'quvchisining bilim darajasini rivojlantirish harakat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Respublika ta'lim markazi. Ona tili fani milliy o'quv dasturi, 2022-2023-o'quv yili. 216 b.
2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
3. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.11 (2021): 330-335.
4. Amonov U.S. O'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 U.S. Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M.Q. Salohiddinova, BuxDU boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
5. Ahmadovich H.H., Amrulloevna S.D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 248-250.
6. Avezov O.R. Ekstremal va favqulotda vaziyatlar to'g'risida zamonaviy tushunchalar. Pedagogik mahorat 4 (No. 24), 106-109.
7. Boshlang'ich ta'lim sifati qiyosiy tahlil shaklida. Xalq ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti. Ilmiy-uslubiy jurnal. 2022-yil, noyabr 4-son.
8. Fayzullayevich F. K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – T. 6. – №. 06. – C. 107-111.
9. Firuz Sulaymonovich Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagogics* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
10. Jonpo'latovna S.M., Amonjonovna F.M. First Improving the quality of education through the use of individual assignments in classroom mathematics lessons //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 13-20.
11. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [vaboshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
12. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [vaboshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
13. Safarova R., Musayev U., Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R., O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatdbiq etish yo'llari. – Toshkent, "Fan", 2005-yil. 255 b.

14. Saidova M.J. Directions and Content of Educational Information //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 210-217.

15. Saidova, G.E. "PIRLS-BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 194-196.

16. Xoliqulovich J.R. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –2022. –No. 3. –С. 34-37.

17. O'rinova Maftuna. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*.

## 1900–1920-YILLARDA YARATILGAN DARSLIKLARNING MAZMUNI VA SHAKLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich**

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Yangi usul maktablari ochish bilan bir qatorda, ushbu maktablar uchun darsliklar yaratildi. Yozilgan darsliklar madrasa va maktabxonalar darsliklaridan farq qilib, ularda darslik yaratish tamoyillariga, darslikning muayyan metodik maqsadlarga xizmat qilishi, ko'rgazmali bo'lishi, o'quvchilar yoshi va dunyoqarashiga mos bo'lishi zarurligi kabilarga amal qilingan edi.

**Kalit so'zlar:** darslik, maktab, madrasa, ta'lim, o'quvchi, madrasa.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida darsliklar yaratishga katta e'tibor berilgan. O'sha davrda ziyolilarning aksariyati darslik yaratishga kirishgan edi. Buning asosiy sabablaridan biri, yangi ochilgan maktablarda darsliklar va o'quv qo'llanmalarga juda katta ijtimoiy-pedagogik ehtiyojning mavjudligida edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Elbek, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma'rifatparvarlar darsliklar va o'quv adabiyotlari yaratish sohasida jonbozlikko'rsatdilar. Ular yangi usul maktablari ochish bilan bir qatorda, ushbu maktablar uchun darsliklar yaratdilar. Ularning yozgan darsliklari madrasa va maktabxonalar darsliklaridan farqqilib, ularda darslik yaratish tamoyillariga, darslikning muayyan metodik maqsadlarga xizmat qilishi, ko'rgazmali bo'lishi, o'quvchilar yoshi va dunyoqarashiga mos bo'lishi zarurligi kabilarga amal qilingan edi. Yangi usul maktablarining savod o'rgatish davriga tovush-harf usuli kirib kelishi bilan hijja usuli inqirozga uchray boshladi. Rus-tuzem va yangi usul maktablarining ochilishi maktabxonalarning tugab borishiga, ularda yangicha ta'lim usullarining qo'llanishi esa ta'lim islohotining tezlashishiga sabab bo'ldi.

Yangi usul maktablaridagi o'quv dasturi turkiy yoki forsiy tilda o'qish, yozish, arifmetika, tabiiyot, tarix, jo'g'rofiyani o'z ichiga olardi. Mazkur o'quv dasturi asosida o'quvchilar nisbatan ancha keng bilimlarni egallardilar. Toshkentdagi madrasalardan birida dars beruvchi Munavvarqori yangi dastur mualliflaridan biri bo'lgan.

Dastur quyidagi fanlardan iborat edi:

- 1) diniy ta'limot;
- 2) muqaddas an'analar;
- 3) islom ta'limoti tarixi;
- 4) arab grammatikasi;
- 5) meros huquqi;
- 6) arifmetika;
- 7) butunjahon jo'g'rofiyasi;
- 8) islom tarixi;

9) *muqaddas tarix;*

10) *arabiy va turkiy imlo.*

*Oktabr to'ntarishidan keyingi ziddiyatlarga to'la yillarda Munavvarqori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy kabi ma'rifatparvarlar o'z pedagogik faoliyatlarini davom ettirib, darslik, risola va maqolalar chop ettirdilar. Maktablarda o'quvchilar sonining ortib borishi bilan, darsliklarga bo'lgan talab va ehtiyoj ham kuchayib bordi.*

O'zbekistonda o'quv-metodik talablarga javob beradigan darslik yaratish sohasida ilk qadamni ilg'or pedagog Saidrasul Aziziy qo'ydi. U 1902-yilda o'zbek tilida yangi "savtiya" usulida "Ustodi avval" alifbesini yaratdi. Albatta, birinchi darslik bo'lganligi uchun unda bir qator kamchiliklar bo'lishi tabiiydir. Shundan so'ng Munavvarqori Abdurashidxonov 1907-yilda "Adibi avval" alifbe darsligini yaratdi. 1917-yilgacha Sayidrizo Alizodaning "Birinchi yil", Abdulvahob Ibodiyning "Tahsili alifbo", Rustambek Yusufbek o'g'lining "Ta'limi avval", Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" kabi bir qator alifbe darsliklari nashr qilindi va maktablarda o'qitildi.

Ta'kidlash joizki, ma'rifatparvarlarning maktablarni o'quv-qo'llanma va darsliklar bilan ta'minlashga qaratilgan harakatlari ona tili, o'qish, geografiya, tarix fanlaridan ilk darsliklar yaratishga ham qaratilgan edi.

O'zbek ma'rifatparvari, savodsizlikni tugatishda faol ishtirok etgan o'qituvchi Muhammadrasul Rasuliy (1884-1935) 1907-yil 1-oktabrdan boshlab Beshyog'och dahasidagi Arpapoya mahallasida 4-rus-tuzem maktabining o'zbekcha sinfida muallimlik faoliyati bilan shug'ullangan bo'lib, 1917-yilgacha rus-tuzem maktablari, 1917-yildan keyin esa sovet maktablarida ishlagan. Uning bir qator darsliklari singari "Rahbari forsiy" darsligi ham Toshkentda bir necha marta (1911, 1914, 1917-yillarda) chop etilgan.

Darslikning birinchi nashrida ushbu kitob "Makotibi ibtidoiyaning 3-4-sinf shogirdlarina" mo'ljallanganligi ko'rsatilgan. Darslik o'quvchilarga fors tilini o'rgatishga mo'ljallangan bo'lib, fors tili grammatikasiga oid bir qancha masalalar bayonida o'zbek tili grammatikasiga doir masalalar ham yo'l-yo'lakay eslatib o'tilgan. Muallif ushbu darslikni tuzishda qiyosiy metoddan foydalangan.

M.Rasuliyning "Qiroati forsiy yoxud muntaxabi guliston", "Bolalar bog'chasi" nomli darsliklari ham mavjud. "Qiroati forsiy yoxud muntaxabi guliston" darsligi 1916-yil Toshkentda nashr qilingan. Darslikdan forscha qisqa hikoya va she'rlar o'rin olgan. Undagi mavzular 54 darsga taqsimlangan, ba'zi forscha so'zlarga o'zbekcha izoh berilgan. Darslikda ko'rgazmalilik tamoyiliga amal qilinib, o'quv materialini mazmuniga ko'ra turli rasmlardan foydalanilgan. Undagi ba'zi hikoyalar ruschadan tarjima qilingan. Masalan: "Bobo ila nabira", "Qo'rqoq", "Aqli qishloqi" va h.k.

Muhammad Rasul Rasuliyning "Bolalar bog'chasi" darsligi ham mavjud bo'lib, u eski o'zbek yozuvida nashr etilgan. Darslik 1917-yil Toshkentda "Osiyo" nashriyotida chop qilingan bo'lib, 48 betdan iborat. Darslikning birinchi betida dastlab muallifning ism-sharifi, kitobning nomi rus va eski o'zbek yozuvida berilgan. Uning dastlabki sahifasida quyidagi gaplar mavjud: "Ibtidoiy maktablarning birinchi sinf shogirdlari uchun turli kitoblardan olinub, ochuq til va yengil tartiblar ila yozilmish musavvar (rasmli) qiroat kitobidir. Noshiri Turkiston kutubxonasi. Takror tabaa noshirlar shirkatila murattabiga (tartibga keltirilgan) maxsus, ikkinchi ta'bi (nashri), 1336-hijriy-qamariy, 1917 melodi-shamsiy".

Darslik boshlang'ich sinflar uchun o'qish kitobi hisoblangan. Ushbu rasmi darslikdagi hikoyalar bir-birini mazmunan to'ldirib, boyitib boradi. Darslikda Sharq an'anaviy uslubi qo'llanilib, hikoyalar nihoyasida baytlar berilgan. Har bir hikoya tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bolalar yoshi va dunyoqarashiga mos sodda bayon uslubida yozilgan. Darslikda integratsiya tamoyillaridan unumli foydalanilgan bo'lib, unda bolalarni axloq-odobga o'rgatish, turli fan sohalaridan boshlang'ich ma'lumotlar berishga harakat qilingan. Ushbu darslik



o'quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini rivojlantirishga qaratilganligi bilan diqqatga molikdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро,- Душанбе: Адиб, 1987.- С.29.
2. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda shaxsning stressli holati va xulq-atvor reaksiyalari. Psixologiya 3 (No. 23), 94-98.
3. Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1987. – С. 48.
4. Avezmurodovich Q.R. JADID MAKTABLARIDA YARATILGAN DARSLIKLAR VA ULARNING METODIK IMKONIYATLARI: Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich. Buxoro davlat universiteti //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 221-225.
5. Адизова Нодира. “Mikrotoponimlar tasnifi (Buxoro viloyati misolida)”. *Общество и инновации* 3.3/S (2022): 128-132.
6. Adizova Nigora Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022.
7. Amonov Ulug'murod Sultonovich. BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov, BDU o'qituvchisi. Sh.R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi. //Научно-практическая конференция. – 2021.
8. Бепдриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. – М., 1960.- С.260.
9. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2023. –Т. 27. –№. 27.
10. Kuldoshev R.A. Scientific Basis of Construction of Elementary School Textbooks //INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 44-48.
11. Khaitov N., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.
12. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Хакимова М.Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62.
13. Мирзозода Х. С.Айни ва масъалаи мактаб дар ибтидои асри XX // Мактаби Совети. – 1977.- № 5. – С. 27.
14. Мулло Насреддин, – Баку. – 1910.- № 23.- С. 4. О принадлежности этой статьи перу С.Айни. Самад В. Аз каъри Хазар то авчи зуҳал. – Душанбе: Маориф, 1991.- С. 121-122.
15. Qo'ldoshev R.A. Textbook: Unity of Content and Form //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 226-231.
16. Сафаров Феруз Сулаймонович. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. “Science and Education” Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072. – 1085.
17. Saidova M.J. Teaching future primary school teachers to pass mathematics lessons through innovative technologies //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – Т. 5. – С. 254-261.
18. Saidova G.E., Sanokulova S.F. “EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES”. *EUROPEAN RESEARCH*.-2020. – S. 118-120.
19. Умняков И.И. К истории новометодной школы в Бухаре // Бюллетень Средне-Азиатского Государственного Университета. – Выпуск 16. – Ташкент, 1927. – С. 84.
20. Ёринова Мафтуна, Нуруллаева Сарвиноз Мажидовна. “ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ”. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).

## USING 3D PRINTING TO ENHANCE STEM TEACHING AND LEARNING

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Assoc. Prof. Dr. Yılmaz GÜR, Prof. Dr. Sare Çelik

Balikesir University, Mechanical Engineering Department

**Key words:** STEM, 3D printing, teaching, learning.

**Abstract** STEM stands for Science, Technology, Engineering, and Mathematics, and STEM education refers to an interdisciplinary approach to teaching and learning that integrates these four disciplines to promote critical thinking, problem-solving, and creativity among students. STEM education prepares students with the skills and mindset needed to thrive in the modern workforce and encourages diversity and inclusivity in STEM fields.

3D printing, also known as additive manufacturing, is a rapidly evolving technology that has the potential to greatly enhance STEM teaching and learning. 3D printing allows students to design and create physical objects, providing them with a hands-on learning experience. Students can design and print 3D models of scientific concepts, engineering prototypes, mathematical shapes, and other STEM-related objects. 3D printing can help students visualize abstract concepts that are difficult to understand through traditional teaching methods. 3D printing encourages students to think critically and solve problems creatively. Students need to plan, design, and optimize their 3D models, which requires them to apply critical thinking, problem-solving, and iterative design skills. This can enhance their overall problem-solving abilities, which are essential in STEM fields.

No matter what the curriculum is, 3D printing can help students and teachers work better. 3D printing elevates students from being passive consumers of information on a screen with no thought given to productivity. Unlike conventional classrooms where students are easily bored, they become active and engaged participants through the conception, design, and execution of their projects and interacting with the 3D printer and the teacher.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHDA EKOLOGIK MASALALARNING ROLI (YANGI AVLOD DARSliklari ASOSIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

M.Qosimova

*BuxDU dotsenti*

Sh.Qahramonova

*BuxDU 3-bosqich talabasi*

Bugungi kunda fan-texnika jadal suratlar bilan rivojlanayotgan bir paytda ekologiyaning buzilishi ko'pchilikni tashvishga solyapti. Tevarak-atrofnin toza tutish, inson hayoti uchun zarur bo'lgan tabiat ne'matlarini avaylab-asrash bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir.

Inson tabiat ne'matlaridan foydalanar ekan, ulardan tejab, sof toza holicha kelgusi avlodga yetkazish uchun oqilona yo'l tutishi lozim. Shu sababdan, boshlang'ich sinf ostonasidan o'quvchilarni tevarak-atrofnin toza tutish, tabiat ne'matlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik muhitni yaxshilash yo'lida o'z hissasini qo'shish tuyg'usini shakllantirish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining muhim vazifalaridan biridir. Matematika darslarida matnli masalarni yechish jarayonida shu tuyg'uni shakllantirish bo'yicha ancha ishlarni amalga oshirish mumkin.

Darhaqiqat, ekologik mazmundagi ko'plab hayotiy masalalar matematika darslarida yechilishini nazarda tutsak, bu o'quvchilarda ekologik bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu bilan, o'quvchilarni tabiatni sevishga, unga mehr-muhabbat bilan qarash, tabiat qonuniyatlariga bo'ysunish, uni tafakkur qila olish o'rgatib boriladi.

1-4 sinf o'quvchilari bilan tevarak atrofini toza tutish borasida tizimni ishlarning olib borilishni, matematika darslarida turli mazmundagi masalalarni yechish ularda ekologik tarbiya elementlarini shakllanishiga xizmat qiladi.

Quyidagi masalani qaraylik:

1- Savatda bir necha olma bor edi. Bog'dan yana 72 ta olma uzib kelib, savatga solingandan keyin savatdagi olmalar 97 ta bo'ldi. Avval savat nechta olma bo'lgan?

Ushbu masala 2-sinfda yechiladigan masala bo'lib, o'quvchi bir jihatdan masalani yechimini  $97-72=25$  (ta) olma bo'lganini topish bilan birga, o'quvchilar meva – olma xususiyatlari, foydali tomonlari bilan tanishadilar. Tabiatning havosini tozalashda ham yashil o'simliklarning foydasi, mevali daraxtlarning ekologik xususiyatlari to'g'risida ma'lumot beriladi.

2-masala: 500 kilogramm toza qog'oz olish uchun 20 ta daraxtni kesib, qayta ishlash zarur. 120 tonna toza qog'oz olish uchun qancha daraxtni kesish kerak? Agar 1 tonna makalaturadan 800 kilogramm toza qog'oz olinsa, 250 tonna makalatura nechta daraxtni kesishdan saqlaydi? Bunday mazmundagi masalalarning boshlang'ich sinfda yechilishi o'quvchilarni yangi son ma'lumotlar bilan tanishtirish bilan birga, ekologiyamizni asrash tuyg'usini kuchaytirdi. Masala yechimini keltiramiz:

1) 1ta daraxt qayta ishlanib, undan necha kilogramm toza qog'oz olinishi mumkin?

$$500:20=25(\text{kg})$$

2) 120 tonna necha kilogramm?

$$120\text{t} = 120000 (\text{kg})$$

3) 120000kg toza qog'oz olish uchun nechta daraxt qayta ishlanishi kerak?

$$120000:25=4800 (\text{ta})$$

Endi masalaning ikkinchi qismini muhokama qilib bajaramiz.

4) 250 tonna ichida 1 tonna necha marta bor?

$$250:1=250 (\text{marta})$$

5) 250 tonna makalaturadan qancha toza qog'oz olindi?

$$800*250=200000 (\text{kg}) = 200 (\text{t})$$

6) 200 tonna toza qog'oz olish uchun 250 tonna makalatura kerak ekan, bu nechta daraxtni kesishdan saqlaydi.

$$200000:25=8000 (\text{ta})$$

Ushbu masaladan ko'rinyaptiki, qariyb 2 ta tuman miqyosida bir o'quv yilida yig'ilgan makalaturadan 8 ming atrofida daraxt saqlanib qolar ekan. Bu tevarak atrofimizni toza havo bilan ta'minlashga katta yordam beradi.

O'quvchilarga ma'lumki, daraxt o'zidan kislorod ishlab chiqaradi. Kishi esa bu kisloroddan nafas oladi. Shu bilan birga, daraxt shamol, garmsellarni to'sadi, havoni tozalaydi. Shu borada quyidagi masalani o'quvchilarga yechtirish muhim rol o'ynaydi:

4-masala: Agar har bir o'quvchi 2 tadan daraxt niholini o'tqazib, parvarish qilsa, sinfdagi 30 o'quvchi nechta daraxt ko'chati o'tqazgan bo'ladi? Bir maktab miqyosida (taxminan 18 ta sinf) nechta ko'chat o'tqaziladi? Bir tuman miqyosida (taxminan 30ta maktab) qancha daraxt o'tqaziladi?

Bunday masalalar o'quvchilarni tevarak atrof muhitini obodonlashtirishga, chiroyli manzarali daraxt ko'chatlarini o'zlari yashab turgan hudud atrofida, maktablari chegarasida o'tqazishlari ishtiyoqini orttiradi. Har bir o'quvchi o'zi daraxt ekishni o'rganishga olib keladi. Bu mehnat tarbiyasi hamdir.

Masala o'quvchilar bilan muhokama qilib yechiladi.

1) 30 o'quvchi nechta daraxt ko'chatini o'tqazadi?

$$2*30=60 (\text{ta})$$

2) Bir maktab o'quvchilari nechta daraxt ko'chatini o'tqaziladi?

$$60*18=1080 (\text{ta})$$

3) Tuman miqyosida nechta daraxt ko'chatini o'tqaziladi?

$$1080*30=32400 (\text{ta})$$

Javob: 60 ta, 1080 ta, 32400 ta

Bu ma'lumotlarni viloyat, Respublika miqyosida ham aniqlash mumkinligini

o'quvchilarga aytib, viloyatimizda nechta tuman borligini, Respublikamizda nechta viloyat borligini o'quvchilardan so'rab, ularni mustaqil tarzda viloyat, hamda Respublika miqyosida nechta daraxt ko'chatini o'quvchilar yordamida o'tqazilishini aniqlash topshirilishi mumkin.

Bu masala bilan bog'liq quyidagi masala ham o'quvchida ekologiyani toza tutish, daraxtlarning ahamiyatli jihatlari to'g'risida tafakkur qilishga undaydi:

5-masala. Kishi 1 sutkada o'rtacha 600 gr kisloroddan nafas olib, 650 gr karbonad angidridni tashqariga chiqaradi. 1 ga yerdagi daraxtzor (o'rmon) 1 kunda 240 kg karbonad angidrid gazini yutib, 200 kg kislorod chiqaradi. Agar qishloq aholisi 150000 kishidan iborat bo'lsa, odamlar istiqomat qilishi uchun qishloq hududi atrofi qancha maydonni daraxtzordan iborat bo'ladi?

Masala o'quvchilar tomonidan muhokama qilib yechiladi.

1) Qishloq aholisi 1 kunda qabcha kisloroddan nafas olishadi?

$$600 \cdot 150000 = 90000000 \text{ (gr)} = 90000 \text{ (kg)} = 90 \text{ (t)}$$

2) Kishilar nafas olish uchun qancha maydon daraxtzorlardan iborat bo'lishi kerak.

$$90000 : 200 = 450 \text{ (ga)}$$

3) Qishloq aholisi 1 kunda qancha karbonad angidrid dazini chiqaradilar?

$$650 \cdot 150000 = 97500000 \text{ (gr)} = 97500 \text{ (kg)}$$

4) Qishloq aholisi tomonidan chiqarilgan karbonad angidridni tozalash uchun qancha maydon daraxtzor bo'lishi kerak?

$$97500 : 240 = 406 \text{ (ga)}$$

Demak, taxminan 450 ga o'rmonzor (daraxtzor) bo'lishi kerak. Bu yerda avtomobillarning chiqaradigan chiqindi gaz, korxonalar ishi atmosferaga chiqargan chiqindi gazlari inobatga olinmadi. Bu to'g'rida ham aniq ma'lumotlarga tayangan holda ekologiyani isrof qilmaslik, uni avaylab asrashga doir qator matnli masalalarni tuzib, o'quvchilarga havola qilish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergashovna Saidova Gavhar. "Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades". *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 715-719.

2. Ergashovna Saidova Gavhar and Sayfullayeva Nozima Baxodirovna. "MODERN TEACHING TECHNOLOGIES IN TEACHING MATHEMATICS IN ELEMENTARY GRADES". *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.10* (2019).

3. Jonpolatovna S.M., Gulomovna U.S. Effectiveness of the Use of Information Technologies in Fulfilling Creative Tasks in Primary School Mathematics // *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630). – 2021. – T. 11. – C. 26.

4. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Умарова Г.У. Учебные задачи как средство активизации учебной деятельности учащихся на уроках математики // *Обучение и воспитание: методики и практика*. – 2015. – №. 19. – С. 54-60.

5. Kasimov F.M. & Qosimova M.M. TECHNOLOGY OF WORK ON COMPARISON TASKS.

6. Muhammedovich Q.F. & Muhammedovna Q.M. (2022). BOSHLANG'ICH SINFDAN O'RTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI. *BAKQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAIN ILMIIY JURNALI*, 2(4), 358-362.

7. Qosimova, M.M., & Usmonova, Z.U. (2022). BOSHLANG'ICH SINFDAN MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TEJAMKORLIK KO'NIKMASINI TARKIB TOPTIRISH. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 75-77.

8. Qosimov F.M. & Qosimova M.M. (2022). MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAIN ILMIIY JURNALI*, 2(2), 206-211.

9. Qosimov M.F. & Kasimov F.F. (2021). Methods of teaching to solve non-standard problems. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.

10. QOSIMOVA M. (2020). ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS: ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 2(2).

11. Saidova M.J. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning // *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*. – 2022. – T. 5. – C. 103-107.

12. Jonpo'latovna S.M., Komilqizi K.K. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 170-179.

13. Saidova M.J. Directions and Content of Educational Information //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 210-217.

## **JADID MAKTABLARIDA DARSLIK SIFATIDA O'QITILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI VA ULARNING METODIK IMKONIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Axrorov Ixtiyor Doniyorovich**

*BuxPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jadid maktablarining ravnaq topishi ta'lim-tarbiya va darslik adabiyotlari hamda o'qitish usullari tarixiy manbalar asosida ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** *Usuli savtiya, Usuli maddiya, Usuli tadaris "Qadimchilar", "Kitobat ul-atfol", rus-tuzem.*

Jadid maktablari taraqqiyotining yangi davri – bunday maktablar uchun zamon

talablariga to'la javob bera oladigan pedagoglar tarbiyalab yetishtirish, ilg'or pedagogik g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish, yangi texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish XX asrning 10-yillaridan ko'zga tashlana boshladi. Buning uchun endi ushbu maktablarning nazariy asoslarini yaratish, yangi, zamonaviy o'qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o'qituvchilarni bahramand qilish kerak edi. Mana shunday buyuk vazifani ado etish zamonasining ulug' mutafakkirlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat zimmasiga tushdi.

Jadid pedagoglarining dars berish usullari, o'qitish uslubiyotiga munosabatlari haqida ma'lumotlar juda kam saqlangan. Ammo ushbu masalalarga munosabat ular yaratgan darsliklarda, o'quv qo'llanmalarda, zamondoshlari xotiralarida turli shakllarda o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham ularning metodika sohasidagi faoliyatlarini darsliklari tahlili bilan qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir. Jadid maktablarida xat-savodga o'rgatishda qo'llangan usullardan biri usuli maddiyadir. **"Usuli maddiya"**, dastlab, XIX asrning birinchi choragida olmoniyalik pedagog Iogann Gerbert (1776 - 1841) tomonidan yaratildi. Bu usul o'qish va yozishga o'rgatishda hijo usuliga nisbatan birmuncha qulayliklarga ega edi. Alifbo tartibidagi undosh harflarning nomiga unli tovushlar qo'shib, turli bo'g'inlar hosil qilinadi. Be+o=bo, te+u=tu, mim+i=mi va boshqalar. Muallim bu bo'g'inlarni o'qiydi, uning ortidan o'quvchilar bir necha marta, to yod bo'lib ketguncha takrorlaydilar. Shu zaylda undosh harf nomiga unli tovush qo'shish bilan 130 dan ortiq hijo hosil qilish mumkin. Bu bo'g'inlarni yodlab, esda saqlash o'quvchilar uchun ancha qiyinchilik tug'diradi. Usuli maddiya metodi asosida Abdulla Avloniyning *"Birinci muallim"*, Abdulvahob domla Ibodiyning *"Tahsil ul- alifbo"*, Muhammadamin ibn Muhammadkarim Hojining *"Rahbari avval"*, Mulla Rustambek ibn Yusufbekhojining *"Ta'limi avval"* alifbolari yaratilgan, ular *"usuli qadim"* va *"usuli jaded"* maktablarida keng qo'llangan. **"Usuli savtiya"** metodi va uning o'qitish tizimiga kirib kelishi haqida o'zbek tilida maxsus birorta qo'llanma yaratilgan emas. Ismoilbek Gaspralining yaqin hamkori, *"Tarjimon"* gazetasida ham faoliyat ko'rsatgan, *"usuli savtiya"* maktablarining Qrimdagi tashkilotchilaridan Hasan Sabriy Ayyazov 1906-yilda *"Usuli tadris va ta'lim-tarbiya"* nomli metodikaga oid asar yaratdi. Unda muallif quyidagilarni yozadi: *"Usuli savtiya"* ismindanda anglashildig'i kabi savtiy usul demakdur. *"Qor"* kalimasini chujuqlara go'stirajakda: *"qof", "alif", "ro" demayub, "q", "o", "r" diya go'stirmalidur"*. *"Usuli savtiya"* metodi uzoq tarixga ega va uni musulmon olamida hanafiya mazhabining asoschisi, faqih Imom A'zam Abu Hanifa yaratgan, arab mutafakkiri, tarixchi-olim Ibn Xaldun Abdurahmon rivojlantirgan va ibtidoiy maktablarda asosiy metod sifatida qo'llangan. Ammo XVI asrdan boshlab usuli savtiya metodi o'qitish tizimidan chiqarib tashlangan, faqat quruq yodlashga asoslangan usuli hijo asosiy o'qitish metodi sifatida qolgan. Usuli savtiya metodida o'zbek tilida birinchi yaratilgan asar Saidrasul Saidaziziyning *"Ustodi avval"* alifbo darsligidir. Muallif o'z alifbosida ushbu metodning ba'zi bir xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi: *"Harflarni o'ylab turilgan ovozda aytmoq harflarning asl savti va nomi o'lur. Agar (qof) harfini ko'rsatub,*

*(qof) deb aytilsa, go'daklar umon qilsalar bo'lurki, uch harf jam' bo'lganda nomi "qof" bo'lurmukin deb. Vaholanki, shunday emas"*<sup>31</sup>

XX asr boshlarida jadid maktablari uchun ilk darsliklar yaratish ham ko'proq Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Avloniy zimmasiga tushdi. Ular turli fanlar bo'yicha yigirmadan ortiq darslik yaratdilar. Mahmudxo'ja Behbudiyning muhim darsliklaridan biri *"Kitobat ulatfol"* dir. U bundan yuz yil muqaddam yozma nutq o'stirishday nihoyatda murakkab va mas'uliyatli masalasiga alohida e'tibor bergan. Muallif *"Kitobat ul-atfol"* darsligida o'quvchilar xat, insho yoki maqola yozayotgan vaqtlarida nimalarga ahamiyat berishlari zarurligini 18 moddada ko'rsatib o'tadi.

Bolalar ruhiyatini yaxshi bilgan Behbudiy yozma nutq o'stirishda o'quvchilar uchun nihoyatda qulay va ularni qiziqitira oladigan xat yozdirish usulidan foydalanadi. Chunki yosh bolalar ota-onalariga, do'stlariga xat yozishga ancha qiziqadilar. Darslik muallifi xat yozish odobi, qoidalari, rumuzlar – his-tuyg'u belgilari (tinish belgilari) bo'yicha rahbarlik qilishda o'qituvchilarga qimmatli uslubiy yo'riqlar beradi. Ushbu darslik o'lka miqyosida ta'lim-tarbiya muassasalari eski va yangi maktablar uchun katta ahamiyat kasb etdi. Asar haqida *"Turkiston viloyatining gazetisi"* da maxsus taqriz-maqola ham e'lon qilindi. Unda quyidagilarni o'qiydiz: *"Bu yaqin kunda bizning idoramizg'a Samarqand shahrida barpo bo'lub, "usuli savtiya va*



jadida" tariqi bila ta'lim va ta'limi rivoj topib turmush maktabi ibtidoiyaning mutasaddilaridan hurmatli fozil muhtaram Mahmudxo'ja Eshon mufti janoblarining ehtimomlari bila "Majmuai kitobat va inshodin bir necha juz'" ("Kitobat ul-atfol") nomli majmuachalaridan namuna barobarinda hadya yuborilmush ekan"<sup>32</sup>.

Abdulla Avloniy ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi tarixida mumtoz o'rinni egallaydi. U o'z faoliyatida, ayniqsa, ifodali o'qish metodiga katta ahamiyat berdi. Bu hol uning darsliklarida ham o'z ifodasini topdi. Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" va "Maktab gulistoni" majmualarida ifodali o'qishning qator shakllari – deklamatsiya (individual o'qish), xor bo'lib o'qish, rollarga bo'lib o'qish kabi turlariga oid chiroyli matnlar berilgan. Ma'lumki, o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish adabiy o'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko'rgazmali vosita vazifasini bajaruvchi ifodali o'qish natijasida asar voqealari, g'oyasi o'quvchi ko'zi oldida namoyon bo'ladi. Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e'tibor bergan bo'lsa, asarni tushunib o'qishga, ifodali o'qishga, badiiy asarni san'at asari kabi his qilishga shunchalik ko'p diqqat qiladi. O'quvchilarning xor bo'lib o'qishlarini o'qituvchi Abdulla Avloniy dirijor kabi (u dirijorlik san'atidan ham xabardor edi U.D.) boshqarib borgan.

Abdulla Avloniyning maktabda ifodali o'qishga oid darslari kata shuhrat qozondi. 1914-yil 27-fevral. Toshkentdagi "Kolizey" teatri 2000 dan ortiq tomoshabin bilan liq to'lgan. Behbudiyning "Padarkush" dramasi sahnada ilk bor qo'yilishi. Spektal adabiy o'qishga ulanib ketdi: Avloniy o'quvchilari "Padarkush" dramasi hamohang ilm-ma'rifatga da'vat ruhi barq urib turgan "Oila munozarasi" she'rini ifodali o'qidilar, tomoshabinlar zo'r olqish bilan kutib oldilar. Avloniy tavsiya qilgan ifodali o'qishning mazkur turlari, birinchidan, o'quvchilarda kitobga, so'z san'atiga havas uyg'otsa, ikkinchidan, o'quvchilar faolligini keskin oshiradi, ya'ni dars davomida o'quvchilarning deyarli hammasi faqat tinglovchi emas, ishtirokchi sifatida qatnashadi, ularning butun harakati bir masalani yoritishga qaratiladi.

Avloniy ifodali o'qish darslariga estetik tarbiya vositasi sifatida ham qaradi. U xalqni ilm-ma'rifatga targ'ib qilish maqsadida o'qitishda o'sha davr texnika vositalaridan ham foydalandi. U o'z maktabi o'quvchilariga "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" darslik- majmuasidagi ba'zi she'rlarni xor bo'lib o'qishga o'rgatdi. Ta'limning muvaffaqiyatli chiqqanini ko'rgan Avloniy "Maktabga targ'ib" she'rini alohida diqqat bilan kuyga soladi va uni xor bo'lib ijro etishga o'rgatadi.

Qadimchilar – eski maktab tarafdorlari, rus-tuzem maktabining yoqlovchilari va usuli jadid fidoiylari o'rtasida qizg'in bahs boradi. Ayniqsa, bu muammo "Turkiston viloyati gazetisi" da 1905-1906 yillarda qizg'in tus oladi. Gazetaning 1906-yil, 27-sonida Mahmudxo'ja

<sup>31</sup> Саидрасул Саидазизов. Устои аввал. 8-нашр. Т.: Илбин. 1910, 7-бет.

<sup>32</sup> // Туркистон вилоятининг газети, 1908, 20 сентябрь.

Behbudiyning "Samarqand usuli jadid maktabining imtihoni xususida" maqolasida Samarqandda ish ko'rayotgan Shakuriy domla maktabining xususiyatlari, muvaffaqiyatlari haqida gapiradi. Shogirdlardan imtihon olish marosimiga esa butun Samarqand ahli ag'niyo, anbiyo, muftiy, pristuf, maorif nozirlari va hatto savdogarlar, do'kondorlar ham taklif etiladi. Hukumat tomonidan vakil bo'lib Likoshin bilan Vyatkin keladi. Rosa ikki kun, soat o'ndan oltigacha bolalardan imtihon olinadi. Natija juda a'lo bo'lib chiqadi.

Qatnashgan ag'niyolarning ko'pchiligi shogirdlar ilmiga tahsinlar o'qiydi. Hatto, bizning farzandi arjumandlarimiz ham ilm yo'llarini shunchalik tez egallab olar ekan-ku, deb ba'zilar o'ta hayajonlanganidan yig'lab yuboradilar. Hoji Mavlonbek janoblari olti soat qadar muttasil turib, bolalarning qiroat va ilmi dinidin bergan javoblariga yig'lab muallimga 15 so'm hadya berdilar, deb yozadi Behbudiy bu voqea haqida.

"Turkiston viloyatining gazetisi" 13-sonida "Musulmon maktablarida o'qitish" degan maqola chiqadi. Bunda S.A. deb imzo chekuvchi muallif eski musulmon maktablarida o'qitish ishlari o'ta qoloqligi haqida batafsil yozadi. Eski maktablarda o'zim ham o'qiganman, domlamiz yaxshi o'qiydigan, qobiliyatli bolani yomon o'qiydigan bolaga qo'shib qo'yar, o'zi esa bechora go'daklarni umrini zoe etib, o'rtaga kirib uxlar edi. Haligi ikki shogird kelishib, domlaga

yolg'ondan birga shug'ullandik, deb javob berar edi.

Maktablarimiz hali-hanuz shundayligicha turibdi, deydi va hozirgi zamonning eng qulay o'qitish usuli bu – usuli jadiddir. Biz ana shu yo'lni ko'proq qo'llashimiz kerak, deganfikir bildiradi. Ushbu maqolaga javoban gazetaning 23-sonida Toshkentlik mulla Hasan domla, mulla Mansur Xo'ja muftiy o'g'li imzoli mualliflarning “Toshkentdagi rus-tuzem uchilishesining imtihoni xususida” degan maqola chiqadi.

Unda muallif kuyinib, siz biz eski maktab domlalarini faqat shogirdlar o'rtasiga kirib uxlashdan yoki namat puli yig'ib, panjshanbalik yeyishdan o'zga ishi yo'q, deb yozibsiz. Janob mulla, deb murojaat qiladi muallif, o'zingiz ham shu maktabda ta'lim olgansiz-ku axir! Ko'rdik yangicha o'qitishning oqibatini. Toshkent shahridagi 3-5 nomerli rus-tuzem maktablarining imihonlarida qatnashdik. Shogirdlarning hatto musulmonchilikning oddiy farzandlaridan ham xabari yo'q. Bir shogirdan namozda qancha farz bor, deb so'rasak, u qirqta, deb javob berdi. Ba'zilar esa indamay turaverdi. Axir, muallimlar bu yerda (qishda) issiq pechkalarda, davlatdan maosh olib ishlaydilar-ku. Yana zar yoqalik chakmon, mukofotlar ham ularga tegadi. Ularning ko'rsatgan hunarlari esa bundan ortiq emas. Hatto, shu imtihonda ushbu shogirdlarning muallimlaridan biri uyalganidan qochib chiqib ketdi, deydi va eski usulni tanqid qilgan muallifga qarata: “O'sha eski tartib xususida yozgan mulla, o'sha imtihon majlisida bormu yo'qmukinlar, ul vazifalik domlalariga ham nasihat bersalar edi”, deb muallifga kinoya qiladi.

Ko'rib turganingizdek, ba'zilar rus-tuzem maktabi bilan usuli jadid maktablarini bir-biridan ajratmay har ikkisiga ham “kofurlar maktabi” sifatida qarashgan. Bu maqoladan so'ng avvalgi eski maktablarni tanqid ostiga oluvchi muallif yana ushbu gazetada chiqish qiladi. Muallif gapning indollosini aytar ekan, eski maktablardan ham, qulvachchalar tayyorlovchi rus maktablaridan ham ustun turuvchi, qalbida vatan, millat, iftixori jo'sh urgan komil farzandlarni yetishtiruvchi bu – usuli jadid maktabidir, deydi. Bu maktab shogirdlari dinini, iymonini qo'ldan bermay, dunyoga ochiq ko'z bilan boqadi. Erkinlikni, hurlikni vataniga qaytaradi. “Bu maktablarni ochsak, kelar avlod bizga rahmat aytar, bu dunyoi, oxiratimiz obod bo'lur”, deydi muallif.

Xulosa qilib aytganda, Saidrasul Saidazizov, Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, Fitrat, Hamza kabi jadid pedagoglari XX asr tongida birinchilardan bo'lib o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarga asos soldilar, og'zaki va yozma nutq o'stirishning, ifodali o'qishning yangi shakllarini ishlab chiqdilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adizova Nigora Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. *Journal of Advanced Research and Stability*. Volume: 02 Issue: 01 | 2022.
2. Адизова Нодира Бахтиёровна. “ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ”. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.
3. Amonov U.S., Saparova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
4. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUFI FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
5. Axmadovich H.H., Shixnazarovna J.A. O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH // *PEDAGOGS* jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.
6. Axmadovich X.X. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI // *PEDAGOGS* jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 281-285.
7. Axrorov I. ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI // *Talqin va tadqiqotlar*. – 2023. – T. 1. – №.
8. Bakhtiorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. “BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY”. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
9. Donyorovich A. I. JADIDLARNING DARSLIKLAR YARATISH FAOLIYATIGA OID AYRIM MULOHAZALAR // *Conferencea*. – 2023. – C. 118-123. Saidrasul Saidazizov. Ustodi avval. 8-nashr. T.: Ilin. 1910, 7-bet.
- 10.
11. Habibova G.G'. “Jadid maktablarida ta'lim-tarbiya metodlari tasnifi.” – Buxoro: Durdona.

2022.b-36-38.

12. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadridin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.
13. Kasimov A. A., Axrorov I. D. The methodical principles of organizing students independent work in mathematics //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11. – С. 38.
14. RAHMATOV H., AXROROV I. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA DIDAKTIK O'YINLAR //EDAGOGIK AHORAT. – С. 118.
15. Rakhmonovich A.R., Bakhtiyorovna A.N. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN'S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL).
16. Safarov Firuz Sulaymonovich, Istamova Shohida Maqsudovna. Types of lexical meanings. Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 6, 2020. P. 481– 484.
17. Safarov Firuz Sulaymonovich. The Representation of the Reported speech Through. European journal of life safety and stability (EJLSS). ISSN 2660-9630. Volume 15, 2022, P. 21 – 26.
18. Turkiston viloyatining gazetasi, 1908, 20-sentabr.
19. Xoliqulovich J.R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDIN AINI'S //MEMORIES, EPRA International Journal of Multidisciplinary.
20. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Маждидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

## MILLIY DASTUR VA YANGI AVLOD DARSLIKLARINING TATBIQI ASOSIDA O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Shodiyeva Matluba Jo'rayevna

*Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini mudiri Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy dastur va yangi avlod darsliklari asosida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, **kollaboratsiya, kommunikativlik, kritik va kreativ tushunchalarining batafsil tahlili** keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy dastur, yangi avlod darsliklari, **kollaboratsiya, kommunikativlik, kritik, kreativ.**

**Аннотация.** В данной статье описаны научно-педагогические основы формирования у учащихся навыков XXI века на основе национальной программы и учебников нового поколения. Также представлен подробный анализ коллаборативных, коммуникативных, критических и творческих концепций.

**Ключевые слова:** национальная программа, учебники нового поколения, сотрудничество, коммуникативное, критическое, творческое.

**Abstract.** This article describes the scientific-pedagogical basis of developing 21st century skills in students based on the national program and new generation textbooks. A detailed analysis of collaboration, communicative, critical and creative concepts is also provided.

**Key words:** national program, new generation textbooks, collaboration, communicative, critical, creative.

Ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishni ta'minlaydigan tizimli o'zgarishlarning umumiy asosidir. Shunga muvofiq, O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi: mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash; dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish; pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish.

Respublikada uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tubdan isloh qilish uchun, avvalo, ta'lim jarayonini ilg'or, ilmiy-metodik jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy metodika bilan ta'minlash, o'qituvchi-pedagoglarni zamon talabi va jamiyat ehtiyojlari asosida kasbiy rivojlantirish muhim

ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yangi ijtimoiy voqelik sharoitida ta'lim mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi uchun muhim manba bo'lib qolmoqda. Yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim mazmunini yangilash, shaxs, jamiyat va davlatning ta'limga bo'lgan ehtiyojini o'zgartirish jarayonida kattalar ta'limi uchun ijtimoiy buyurtma shakllantirilib, u innovatsion kasbiy faoliyatga qodir, zarur metodik madaniyat darajasiga ega, yangi avlodga ta'lim beruvchi o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarda ifodalanadi. Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan bu o'zgarishlar o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish va shu asosda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'qitish jarayonida yangicha yondashuvlar paydo bo'lishini belgilaydi.

Respublikamizda so'nggi yillarda "... inson kapitalini rivojlantirish, maktab o'qituvchilarini belgilangan xalqaro standartlar asosida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash, Milliy o'quv dasturida joriy qilinayotgan yangi metodikalar bo'yicha o'qituvchilarni o'qitish, ularning malakasini oshirish" ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu orqali zamonaviy avlodning o'zini o'zi rivojlantirish (self-development), bajarish orqali o'rganish (learning by doing) muhiti yaratiladi hamda ikkita eng muhim strategik maqsad – sifatli ta'lim olish imkoniyatini berish va inson kapitalini (human capital – inson va jamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar yig'indisi) mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga erishiladi.

Zamonaviy avlodga ta'rif berilganda alpha-generation, millenniallar (millennials), senteniallar, Z-avlod, homelander, homeland generation, new silent generation, next-avlod, virtual avlod, millenitlar, exo-bumerlar kabi tushunchalardan foydalanilmoqda. Bunda zamonaviy avlodda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Partnership for 21st Century Skills tomonidan raqamli jamiyatda samarali faoliyat olib borish, ijtimoiy va kasbiy hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun talab qilinadigan mahorat va kompetensiyalar (Four Cs) quyidagilarni o'z ichiga oladi: collaboration (hamkorlik), communication (muloqot), critical thinking (tanqidiy tafakkur), creativity (ijodkorlik). Quyida **kollaboratsiya**, kommunikativlik, kritik – tanqidiy tafakkur va kreativ – ijodkorlik ko'nikmalarini batafsil ko'rib chiqamiz.

**Kollaboratsiya** (collaboration) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligi. Hamkorlik – bu umumiy maqsadlarga erishish uchun har qanday sohada ikki yoki undan ortiq tomonlarning (ham odamlar, ham tashkilotlar) birgalikdagi faoliyati jarayoni, bunda o'zaro manfaatli hamkorlik yuzaga keladi: axborot, resurslar, tajriba almashiladi va natijada yangi mahsulot yaratiladi. Hamkorlik – bu umumiy maqsadlarga erishish uchun ikki yoki undan ortiq odamlar yoki tashkilotlarning har qanday sohada birgalikdagi faoliyati jarayoni bo'lib, unda bilim almashish, o'rganish va kelishuvga erishish mumkin (konsensus).

Kommunikativlik – shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o'rnatish, axborot to'plash, turli ijtimoiy munosabatlar o'rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorini kuzatish, shuningdek, axborot almashinish jarayonidir.

*Kommunikativ kompetensiya* – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasidir. Kommunikativ kompetensiya – guruhlarda va jamoalarda ijodiy ishlay olish, hamkorlik qila olish. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish bo'yicha fanning ta'limiy maqsadlarini va baholash mezonlarini aniqroq va yaqqolroq belgilovchi quyidagi tamoyillar belgilandi.

Bilish, o'rganish – o'rganilgan materialni bilib olish, qayta aytib bera olish.

Tushunish, idrok qilish – o'rganilgan materialni xotirada saqlab qolish, mohiyatini idrok etish va tushunganlikni namoyish qilish, bir darvdan boshqa davrga ko'chira olish, u yoki bu holatga tanqidiy baho bera olish, munozaralarda ishtirok eta olish, o'zining fikrini va qarashlarini fanda olgan bilimlari asosida himoya qila olish.

Qo'llay olish – o'rganilgan umumiy tushuncha, atamalarni, muammoli vaziyatlarga, misol orqali tadbiiq eta olish hamda samarali qo'llay olish; jamoada ishlay olish va yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish; turli xil rollar va mas'uliyatlarni qabul qila olish; boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish.

Analiz (tahlil) va sintez, filtr qilish – berilgan muammoni hal qilish uchun zarur

ma'lumotlarni turli xil manbalardan to'plash, tartibga solish, tahlil qilish; o'rganilgan bir butun materialni mayda bo'laklarga, tarkibiy qismlarga ajrata olish va ular orasida munosabatlarni o'rnatish va tahlil qila olish; aniqlangan xususiy natijalarni umumlashtirib, asosiylarini ajratish, xulosa chiqara olish.

Tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash – masalani anglashda va murakkab qarorlar qabul qilishda puxta dalillar keltirishdan foydalanish; tizimlar, voqealar va hodisalar, vaziyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash.

Baholash va xulosa chiqarish – voqea va hodisalarga baho bera olish, muammoli vaziyatni ma'lum ichki yoki tashqi mezonlar asosida baholash va taqqoslash, sabab va oqibatlarini o'rganish, natijalarni tahlil qilish asosida tanqidiy fikrlash, xulosa chiqarishdir.

Partnership for 21st Century Skills tomonidan olib borilgan tadqiqotlar doirasida ishlab chiqilgan kompetensiyalar tizimida Critical thinking yetakchi o'rinni egallagan.

Critical thinking – bu tanqidiy nuqtai nazardan narsa va hodisalarni tahlil qilish uchun asosli xulosalar ishlab chiqish, vaziyatni oqilona baholash, izohlash, olingan natijalarni vaziyatlar va muammolarga to'g'ri qo'llash imkonini beradigan ko'nikmalar tizimi. Critical thinking eng muhim soft skills – yumshoq ko'nikmalardan biri hisoblanadi.

Jamiyatdagi barcha korxonalar, tashkilotlarda innovatsion hamda kreativ fikrlashga zarurat tug'diradigan global muammolarni hal qilish uchun innovatsion bilim va yaratuvchanlik qobiliyatiga

tobora ehtiyoj sezilmoqda. Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur va kerak bo'ladigan sifatli ta'lim berish hisoblanadi, kreativ fikrlashhozirgi yoshlarning rivojlanishi uchun zarur ehtiyojdir.

Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamli, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni baholashda turli g'oyalarni ishlab chiqish, kreativ g'oyalarni ishlab chiqish hamda g'oyalarni baholash va takomillashtirish kompetentligiga e'tibor qaratiladi.

Xo'sh, o'quvchini qanday ijodiy fikrlashga o'rgatish mumkin? O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish, darslarni yangi texnologiya va metodlar orqali o'tish o'quvchida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga ulardagi ijodiylik, yaratuvchanlik qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'quvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'rif berish mumkin. Uning zamirida originallik, amaliylik, noodatilik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash bir narsaga turli tomondan yondashishni anglatadi.

Kreativ tafakkur barcha faoliyat turlariga tegishli. Bundan lingvistik kreativlik ham mavjud bo'lib, bu tilning turli sath birliklaridan foydangan holda obrazli fikrlash, ma'lum tafakkur mahsuli bo'lmish tushuncha yarata olish imkoniyatidir. Tilda tushunchani turli shaklda ifodalash imkoniyati mavjud.

Bunda o'quvchi qaysi usulni va qolipni tanlashi, qanday yo'l bilan ifodalashi, albatta, unda kreativ kompetensiyaga qanchalik egaligiga ko'ra belgilanadi. Tomas Edisonning ta'kidlashicha, "kreativlik – g'ayriixtiyoriy jarayon" hisoblanadi. Kreativlik shaxs ega bo'lgan bilimning ko'pqirrali ekanida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechishda noodatiy yondasha olish, kutilmagan qarorlar chiqara olishda namoyon bo'ladi.

Kreativ fikrlovchi insonlar biron bir manzarani o'zgacharoq tasavvur etadi, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqay oladi. Mana shunday kreativ tafakkurni rivojlantirish tashkil etilgan darsning qaysi metod va usullardan foydalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun

o'qituvchidan o'z fani yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga, ta'limdagi samarali metod va usullardan ham xabardorlikni talab etadi. Chunki kelajakdagi yangi innovatsiyalar va ixtirolarning barchasi aynan kreativ kompetensiya orqali vujudga keladi.

Xulosa shuki, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini, ta'lim jarayonini tashkil qilishning yangi shakllarini amaliyotga joriy qilish, shuningdek, o'quvchilarning zamonaviy talablarga asoslangan zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimligidan kelib chiqib, bugungi globallashuv davrida ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchilarning innovatsion faoliyat yuritishlari muhim hisoblanadi. Zero, jahon sivilizatsiyasi davri hozirgi avlodni mumtoz pedagogik nazariyalar bilan emas, balki yangilangan o'quv-tarbiya tizimi asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shunga muvofiq, boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarini egallashi, o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirishi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi hamda ta'limiy muhitni shakllantirishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son Farmoni.
3. Avezov O.R. Ekstrennaya psixologicheskaya pomosh v ekstremal'nix situatsiyax. Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 21), 34-37.
4. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda shaxsning stressli holati va xulq-atvor reaksiyalari. Psixologiya 3 (No. 23), 94-98.
5. Fayzullayevich F.K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – T. 6. – №. 06. – C. 107-111.
6. Muxammedovich Q.F., Muxammedovna Q.M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
7. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/5. – С. 59-68.
8. Saidova G.E. "MANTIQIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". PEDAGOGS *jurnali* 1.1 (2022): 60-61.
9. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH*.- 2020.-S: 118-120.
10. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINIF MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – C. 21-24.
11. Shodiyeva M. Boshlang'ich ta'limni o'qitish jarayonini takomillashtirishda milliy uyg'unlikka ustuvorlik va xalqaro tajribalar. Metodik qo'llanma. – Toshkent.: "Qamar-media" nashriyoti, 2020. – 176 b.
12. Shodiyeva M. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. Metodik qo'llanma. – Toshkent.: "Qamar-media" nashriyoti, 2021. –110 b.

## BOSHLANG'ICH SINIFDA KICHIK EPIK ASARLARNI ESTETIK TASNIFLASH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Jabbarova Aziza Shixnazarovna**

*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining nodir durdonalari bo'lgan kichik epik asarlar ilmiy-nazariy estetik tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Jahon adabiyoti, qissa, hikoya, adabiy tur, adabiyot nazariyasi, badiiy matn, talqin, tadqiq, janr va hakoza.

**Аннотация:** В данной статье представлен научно-теоретический эстетический анализ малых эпических произведений, являющихся редкими шедеврами узбекской литературы.



**Ключевые слова:** *Мировая литература, рассказ, повесть, литературный жанр, литературная теория, художественный текст, интерпретация, исследование, жанр и т.п.*

**Abstract:** *This article presents a scientific and theoretical aesthetic analysis of small epic works, which are rare masterpieces of Uzbek literature.*

**Key words:** *World literature, short story, story, literary genre, literary theory, artistic text, interpretation, research, genre and etc.*

O'zbek adabiyotining rivojida epik asarlar muhim o'rin tutadi. Milliy nasrimizning Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi darg'alari o'tgan asr boshlarida qissaning jahon badiiy tafakkuri durdonalari bilan bo'ylasha oladigan namunalarini yaratdilar. Bu avlod vakillari o'zbek qissachiligiga asos soldilar hamda uni muayyan taraqqiyot bosqichiga ko'tardilar. Keyinchalik, Asqad Muxtor, Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Ne'mat Aminov singari yozuvchilar qissa janrining adabiyotimizda to'la shakllanib, badiiy-estetik jihatdan takomillashuviga hissa qo'shdilar.

Badiiy asar tahlili adabiyot o'qitish metodikasi fanining alohida va muhim bo'limi hisoblanadi. Adabiy ta'limning sifati, samarasi va zamon talabalariga javob bera olish darajasi ko'p jihatdan adabiy asarlarni o'rganish qanday tashkil etilganligi bilan belgilanadi. Adabiy ta'limni ilmiy metodik yo'nalishda olib borish, adabiy asarlarni umumta'lim tizimida estetik tamoyillarga tayanib tahlil qilishni tashkil etish, samarali ta'lim metodlarini ishlab chiqish, noan'anaviy usul va vositalarni yaratish adabiy asar tahlili metodikasining umumnazariy masalalarini tashkil etadi.

Adabiyotshunoslik sohasida erishilgan yutuqlarga, ilg'or g'oyalarga, fan asoslariga tayanib, adabiyot o'qitish metodikasida ta'lim uslubiyoti tadqiq etiladi, adabiyotshunoslikning tahlil usullaridan adabiy asar tahlilida foydalaniladi.

Adabiyot nazariyasining nazariy tamoyillariga adabiyot o'qitish metodikasining barcha sohalarida, xususan, adabiy asar tahlilida ham qat'iy amal qilinadi: adabiy turlar va janrlar, tasviriy vositalar, she'riy san'at turlariga adabiy asar tahlilida bevosita murojaat qilinadi, nazariy bilimlarga tayanib tahlil yuritiladi.

Pedagogika va didaktika bilan chambarchas bog'liqlikda adabiy asar tahlili metodikasi oxir-oqibat yosh avlodning barkamol, oqil insonlar sifatida shakllanishga ta'sir ko'rsatadi, ezgulikni, go'zallikni his qiluvchi, qadrllovchi, ma'naviyati barkamol shaxslarni voyaga etkazishga xizmat qiladi.

Adabiy asar tahlili metodikasi oliy maktablar magistratura yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan va kelajakda umumta'lim tizimi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarda ishlab, o'quvchilarda adabiy asarlarni o'rganish, estetik tahlil qilish malakasini tarkib toptirish va takomillashtirishlarida yordam beradi; adabiy asarlarni tahlil qilish vositasida o'quvchi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning estetik didlarini, nutqini, fikrlash salohiyatini o'stirishni ko'zdatutadi.

Demak, epizodlar ustida olib boriladigan amaliy ish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tanlangan epizod o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlash: Ushbu epizod o'quvchi – kitobxonni asar voqealari, qahramonlari olamiga yaqinlashtirishga xizmat qildimi? Epizod tasviri qanday kechinma yo fikrlarni uyg'otdi?

2. Asarning syujeti va kompozitsiyasida tanlangan epizod qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlash, "bu epizod qahramon xarakterini yoritishga xizmat qiladimi?", "Asar voqealari rivojiga tanlangan epizodning ta'sirini o'quvchilar seza oldilarmi?" kabi savollar yechimini topish.

3. Epizodlarni o'quvchilarga ifodali o'qitish va asar matniga bog'lab tahlilga yo'llash.

4. Epizodlar ustida ishlash bosqichlari o'quvchilarning yoshi, adabiy tayyorgarlik darajasi, kitobxonlik saviyasiga moslab tashkil etilishini o'qituvchi yodda saqlashi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kichik epik asarlarga xos ifoda usuli, syujet qurilishi, kompozitsion aniqlik, obrazlilik, tilning soddaligi va boshqa unsurlardan ijodiy foydalanish o'zbek bolalar adabiyoti realizmini, xalqchilligini, janriy xilma-xilligi, g'oyaviy-badiiy ko'lamdorligi va saviyasini ta'minlamoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. – B. 22.
3. Asmus V.F. Voprosi teorii I istori estetiki. – M.: Iskusstvo, 1968. – S. 653.
4. Abdusamatov H. O'zbek satirasi masalalari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1968. – B. 208.
5. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. – Toshkent: Fan, 1978, 1979.
6. Avezov O.R. Формирование узбекского этноса. РЕМ: Psychology. Educology. Medicine, 119-124.
7. Адизова Нодира Бахтиёровна. “АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ”. *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
8. Amonov Ulug'murod Sultonovich.. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonovm BDU o'qituvchisi. Sh.R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
9. Bakhtiyorovna N.A., Dilsora E. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545 b.
10. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №2. – С. 140-144.
11. Khoja o'g'li T., Ahmadovich K.H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.
12. Саидова М. Масофавий о'қитишни ташкил этиш шакллари ва ularning о'зига хос хусусияtlari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 141-150. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik. B.2021 y. 243 bet.
13. Сулаймонович Феруз Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. “Science and Education” Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
14. Xoliqulovich J.R. Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т.
15. O'rinova Maftuna (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel “Signs of the End Times” by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI SINFDAN TASHQARI DARSLARDA DIVERGENT FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Nigora Adizova Baxtiyorovna**

*BuxDPI dotsenti*

**Kalit so'zlar:** *eksperiment, divergent fikrlash, eksperimental, motivatsiya, kognitiv va shaxsiy-refleksiv, aqliy faoliyat.*

**Annotatsiya:** *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari darslarda divergent fikrlashini shakllantirishning nazariy va amaliy usul, vosita va mezonlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining divergent fikrlash mezonlari va ko'rsatkichlari tuzilishi aniqlangan va shu asosida aniqlik, haqiqiylik va barqarorlik tamoyillarining xususiyatlari tavsiflanadi. Divergent fikrlashni baholash uchun diagnostika vositalari: ratsionga ega, yuqori darajadagi haqiqiylik va ishonchlilik tanlanib olinadi.

Kichik maktab o'quvchilarining turlicha fikrlashlari o'rganishda uchta mezon motivatsion, kognitiv va shaxsiy-refleks bo'yicha baholash. Divergent fikrlashning kognitiv mezoni ko'rsatkichlarini o'rganish kichik maktab o'quvchilari (eruditsiya, umumiy xabardorlik, samarali aqliy faoliyat) testlar yordamida amalga oshirildi.

Shaxsiy-refleksiv mezon (ma'noni shakllantirish harakatlari, kognitiv faoliyatning mustaqilligi, faollik, aks ettirish) usullari: ijodiy shaxsiy xususiyatlar, o'z-o'zini baholash, shaxsning ijodiy xususiyatlari, suhbatlar usuli kabi maxsus tashkil etilgan pedagogik vaziyatlarda bajariladi.

Yosh bolalarning divergent fikrlash shakllanishining uch darajasi maktab o'quvchilari (idrok, o'zgartirish, bilimlarni ijodiy qo'llash), ularning xususiyatlari tavsiflanadi. va eksperimental faoliyat uchun qo'shimcha ta'lim o'qituvchilari, o'quvchilarning ota-onalari ularning qiziqishlari va moyilliklari to'g'risida xabardorligini o'rganish, bolalarni intellektual faoliyatga jalb qilish, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish zarurati umumiy intellektual

yo'nalishdagi voqealar.

Eksperimentni aniqlash bosqichining natijalari kichik maktab o'quvchilarida, ayniqsa, "mahsulli aqliy faoliyat", "mustaqillik", "refleksiya", "ichki motivatsiya" nuqtai nazaridan, divergent fikrlashning boshlang'ich darajasi ancha past ekanligini ko'rsatdi. Aniqlanishicha, umumiy intellektual yo'nalishdagi sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun rivojlanayotgan muhit turli xil fikrlash, samaradorlik va mehnatga jalb qilishda yetarli darajada yuqori malakaga ega bo'lmagan qo'shimcha ta'lim o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan. Shuningdek, e'tibor bering boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalarining ta'lim muassasasida maktabdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish, qiziqishlari, bolalarning u yoki bu intellektual faoliyatga moyilligi haqida past darajada xabardorligini, inobatga olganda, olingan ma'lumotlar ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda maktablarda tafakkurning ushbu turini shakllantirish muammosiga yetarlicha e'tibor berilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Kichik maktab o'quvchilarida turlicha fikrlashni shakllantirish metodologiyasi sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayoni uch bosqichdan iborat edi: propedevtik, faol va rivojlanuvchi. Propedevtik va rivojlanish bosqichlari bir o'quv yilini qamrab oladi. Pedagogik ta'sirning qo'llaniladigan shakllari va vositalari divergent fikrlashning motivatsion, shaxsiy-refleksiv va kognitiv tarkibiy qismlarining barcha tarkibiy elementlarini shakllantirishga qaratilgan edi. Propedevtik bosqichda, birinchi va ikkinchi pedagogik shartlar, faoliyat va rivojlanish bosqichlarida - barcha pedagogik shart-sharoitlar to'liq amalga oshiriladi.

Propedevtik bosqichda maktabdan tashqari mashg'ulotlarda yangi, nostandart g'oyalarga sezgirlikni rivojlantirish orqali kichik maktablarning axborot-qidiruv ishlarini faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi; individual va guruhli introspeksiya usullari bilan tanishishni boshlash; adekvat o'z-o'zini hurmat qilishning shakllantirib borish zarurdir.

Birinchi pedagogik shartni qo'llash orqali birinchi sinf o'quvchilarining motivatsion sohasiga pedagogik ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning kognitiv qiziqishini saqlab qolishga yordam beradigan, yangi narsalarni olishga bo'lgan ehtiyojni rag'batlantiradigan simulyatsiya va didaktik o'yinlar bilim va ko'zlangan maqsadga erishishda ish faoliyatini yaxshilash davomida darsda, usul va metodlar faol qo'llaniladi: "Motivni kiritish", "Xatoni qo'lga oling!", "O'z misollari", "Smayllar", "Ajablanish!" kabi usullar diagnostika vositalari sifatida ham ishlatilgan.

Shu bilan parallel ravishda pedagogik kompetentsiyani rivojlantirish amalga oshiriladi. O'qituvchilar. "Kengaytirilgan rag'batlantirish" usullarini o'zlashtirgan, "Kengaytirilgan maqtov", "Maqtov – ko'ngil vitamini" mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tadi.

Ikkinchi shartni amalga oshirish vositasi umumta'lim muassasasining rivojlanayotgan muhitini tashkil etishda ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarining o'zaro hamkorligini loyihalash bo'lib, bu ta'lim va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning yaxlitligini ta'minlaydi. Divergent fikrlashning shaxsiy-refleksiv komponentini shakllantirish kichik o'quvchilarga minimal o'qituvchi yordami bilan ma'lum bir fakt yoki hodisa bo'yicha mulohazani izlash imkonini beradigan chora-tadbirlar majmuasi bilan ta'minlanadi; kognitiv maqsadlarni aniqlash, birlamchi o'tkazish nazorat savollari zanjiri orqali muammoli vaziyatni yaratish va qayta ishlash natijasida tashkil qilinadi.

Faoliyat bosqichi maqsadli rivojlanishni nazarda tutgan talabalar tomonidan ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish, qarama-qarshiliklarni shakllantirish ko'nikmalari; ijodiy, muammoli "nostandart" vazifalarni jamoaviy va mustaqil hal qilish algoritmlarini o'zlashtirish; ijobiy o'zini-o'zi tushunchasini rivojlantirish; ichki kognitiv faoliyat uchun motivatsiya, o'smirlarning o'zini o'zi nazorat qilish metodikaning tashkiliy-pedagogik shartlarini uzluksiz amalga oshirish orqali maktab o'quvchilari faoliyati tahlil qilinib boriladi. Bu bosqichda barcha tashkiliy-pedagogik shartlar amalga oshirildi. Vazifalar boyitish orqali hal qilinadi. Shakllar va ularni yaratish, vositalari bilan, "TRIZ" intellektual ijod to'garagini joriy etish bilan o'quvchilarning divergent fikrlashlari kengaytirib boriladi.

Shunday qilib, maktabning rivojlanayotgan muhitini baholashning birinchi sharti sifatida ko'p funksiyali va ko'p o'lchovli, bu kengaytirish imkonini berdi va kichik yoshdagi o'quvchilarning individual tashrif yo'nalishlarini erkin tanlash orqali to'garak birlashmalarida ish shakllarini boyitib boradi. Umumiy intellektual yo'nalishdagi sinfdan tashqari mashg'ulotlarni sifatli tashkil etib boorish doimiy nazoratda bo'lishi kerak. Kichik maktab

o'quvchilarining maktabdan tashqari mashg'ulotlarda sezilarli natijalarga erishish imkoniyati o'qituvchilar tomonidan bolalarning tanlovlarda, viktorinalarda, olimpiadalarda ishtiroketishini tashkil etish orqali ta'minlanib boriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova N.B. Sinfdan Tashqari Mashg'ulotlar Jarayonida Kichik Yoshdagi Maktab O'Quvchilarining Divergent Fikrlashini Shakllantirish. Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences Hosted from USA, 26 th -28th –February.
2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). [Www.ejlss.indexedresearch.org](http://www.ejlss.indexedresearch.org) Volume 14, 2022 |
3. Adizova Nigora Baxtiyorovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. Scientific progress.
4. Adizova N.B., Raimqulova M. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123 b.
5. Adizova Nodira. "BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI". *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
6. Adizova Nodira. "BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI". *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
7. Amonov U.S., Saporova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
8. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
9. Axmadovich X.X. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 281-285.

Bakhtiyorovna A.N., E.Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545.

10. Bakhtiyorovna N.A., Bakhtiyorovna N.A. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin.

11. Хайитов Х.А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 679-687.

12. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2020. –Т. 2. –№. 2.

13. Ленкова А.А. Дивергентное мышление как предмет психолого-педагогического исследования! А.А. Ленкова // Сибирский педагогический журнал.- 2010. 11. - С. 250-255. - (0,5 п.л.).

14. Ленкова А.А. Методологические основания формирования дивергентного мышления младших школьников в процессе внеучебной деятельности / А.А. Ленкова // Письма в Эмиссия. Оффлайн (The Emissia.Offline Letters). 2011. - № 9 (Электронный журнал). - ТРТ1http://www.emissia.org/offline/2011/1/1642.htm (0.5 п.л.) (дата обращения: 01.10.2011).

15. Rakhmonovich A.B., Bakhtiyorovna A.N. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN'S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)

16. Safarov Firuz, Nodira Xudoyberdiyeva, Nilufar Xolmurodova. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.

17. Sulaymonovich Firuz Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.

18. Xoliqulovich J.R. THE NAMES OF PLACES ASSOCIATED WITH FOLK CRAFTS IN SADRIDDIN AINI'S //MEMORIES, EPRAInternational Journal of Multidisciplinary.

19. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Boltayeva Sitora Fayzulloyevna**

*BuxDPI magistri*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish borasida, shuningdek, Respublikamizda PIRLS tadqiqoti haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** ifodali o'qish, to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish, to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish, urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovoznining past-balandligi.

**Annotation:** this article contains information on the development of Reading Literacy in primary school students, as well as information about the PIRLS study in our Republic.

**Keywords:** expressive reading, correct, fast, conscious and expressive reading, correct, fast, conscious, expressive reading, emphasis, tempo and rhythm of speech, pause, low-altitude of sound.

Hozirgi davr ta'lim nazariyasida pedagogik texnologiya tushunchasiga keng urg'u berilmoqda. Pedagogik texnologiyaning mazmuni o'qituvchi tomonidan o'quvchiga aqliy, ruhiy, axloqiy jihatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan iboratdir.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar hisobga olinadi. Ruhshunos olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo'lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsional-estetik his etish ham kiradi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi

o'quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholashidagi psixologik xususiyatlari o'rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'lishlari aniqlangan:

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat.
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o'quvchilarda chegaralangan bo'ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko'p ishlatadilar.

Asardagi qahramonlarning xarakteri ularning axloqiy sifatlarini anglash asosida tushuniladi. Bunda qahramonning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir. Ushbu jarayonda asar qahramonlarining axloqiy sifatlari ustida qo'proq ishlash lozim.

**Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:**

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, syujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfdan o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga hissiy ta'siridir. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmatini, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab olib boshlaydilar.

O'quvchilarning nutqini o'stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atining bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar.

#### ***Respublikamizda PIRLS tadqiqoti.***

PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o'rinlidir. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi VMning 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Respublikamizning xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi" xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanmada PIRLS tadqiqoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, PIRLS tadqiqotining topshiriqlaridan, ya'ni matnlar va savollaridan bir nechta namunalar hamda ularning baholash mezonlari keltirilgan. Shuningdek, 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish uchun PIRLSda berilgan matnlarning har biriga alohida mashq daftarlari ishlab chiqilgan. Mazkur ish daftari o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, o'qiganlarini tahlil qilish, talqin qilish hamda to'g'ri xulosa chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha didaktik material hisoblanadi. Ushbu daftarni tayyorlashda PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) tadqiqotining ochiq manbalaridan foydalanilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova Nigora Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. *Journal of Advanced Research and Stability*. Volume: 02 Issue: 01 | 2022.
2. Avezov O.R. Psixologicheskie osnovi sozdaniya i razvitiya obrazovatelnoy sredi innovatsionnogo obucheniya. *Vestnik integrativnoy psixologii* 4 (No. 23), 168-171.
3. Davydov V.V. Ta'limni rivojlantirish muammolari / V.V. Davydov. – M., 2016 yil.
4. Ismoilov A., Norboyeva D., Kucharova K., Qosimova Z., Aminova N.. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash (o'quv qo'llanma). – T.: Sharq NMAK, 2019.
5. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ХИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ // *Journal of Integrated Education and Research*. – 2022. – Т. 1. – №.2. – С. 140-144.
6. Qosimova M., Qosimov F. КО'PAYTIRISH VA BO'LISHGA DOIR MASHQLAR TIZIMINI TUZISH BO'YICHA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI UCHUN USULIY TAVSIYALAR // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz). – 2022. – Т. 18. – №. 18.
7. Qosimova M., Qosimov F. ИККИ SONNING YIG'INDISI (YOKI AYIRMASI) VA KARRALI NISBATIGA KO'RA SHU SONLARNI TOPISHGA DOIR MASALALAR // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz). – 2022. – Т. 18. – №. 18.
8. Саидова Гавхар Эргашовна. "Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах". *Вестник науки и образования* 7-3 (61) (2019): 35-37.
9. Saidova G. E. "BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferencea* (2023): 33-37.
10. Саидова М. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari // *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.
11. Саидова М., Файзуллаева С. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini o'stirishda raqamlarni o'rgatishning integratsion va innovatsion yondashuvi // *Общество и инновации*. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 118-126.
12. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari // *Общество и инновации*. – 2022. – Т. 3. – №. 3/5. – С. 59-68.
13. Safarov Firuz Sulaimonovich. The Representation of the Reported speech Through. *European journal of life safety and stability (EJLSS)*. ISSN 2660-9630. Volume 15, 2022, P. 21 – 26.
14. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassisleri uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil.

15. Xoliqulovich J.R. Using anthropometric units in “Esdaliklar” by Sadridin Ayniy //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. –2022. –T. 2. –No. 2. –C. 295-298.

16. O’rinova Maftuna (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel “Signs of the End Times” by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin.

## BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING O’QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Adizova N.B.** BuxDPI, dotsenti

**Boymurodova S.I.** BuxDPI, magistranti

**To’rayev S.D.** BTRBI assistenti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qish savodxonligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar xususida fikr yuritilgan. Tushunish – aynan o’qish savodxonligi samarali tashkil qilishda asosiy mezon bo’lib xizmat qiladi.*

***Kalit so’zlar.** O’qish savodxonligi, og’zaki nutq, lug’at boyligi, ravonlik, tushunish.*

Mamlakatimiz bugungi kunda keng qamrovli islohotlarni, ijtimoiy jarayonning har bir sohasida tub burilishlarni, qayta qurish ishlarini amalga oshirmoqda. O’zgarishlar davridata’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda, shiddat bilan rivojlanishni taqozoetadi. Ta’lim orqali jamiyatda kelajakdagi maqsadlarni bajara olishga qodir bo’lgan yangi avlod shakllantiriladi. Bugungi zamon har bir sohada o’ziga ishongan, xalqaro miqyosda tenglasha oladigan, tanqidiy va kognitiv fikrlay oladigan kadrlarni yetishtirib berishni talab etmoqda. Shu boisdan qonunchilikda ham bir qator o’zgarishlar kiritildi.

O’zbekistonda boshlang’ich sinf o’quvchilarini xalqaro tajribalarga mos ravishda milliy tizimda o’qitishga, xalqaro baholash dasturlarining mazmunini darsliklar mazmuni bilan integratsiya qilishga katta e’tibor berilmoqda.

O’qishni tushunish hayotning barcha jabhalarida singib ketishi mumkin bo’lgan turli ko’nikmalarni o’z ichiga oladi. O’qish va yozish amaliyoti o’qish savodxonlini oshirishda eng muhim ko’nikmalardan biri hisoblanadi. O’zbekistonning davomchilari bo’lmish kelajak avlodni vatanimizni buyuk davlat darajasiga ko’taradigan ijodkor shaxs darajasiga yetkazishda boshlang’ich ta’lim poydevor vazifasini bajaradi. Boshlang’ich sinf o’qituvchisining asosiy maqsadi ongi va tafakkuri endi rivojlanib kelayotgan boshlang’ich sinf o’quvchilarini bilimli va fikrlash doirasi keng bo’lishini ta’minlashdan iborat. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ta’lim tarbiya berish va o’qish savodxonligini oshirishdagi eng muhim vazifalardan biri Ona tili va o’qish savodxonligi darslarida amalga oshiriladi. Milliy dastur asosida tuzilgan bunday yangi zamon darsliklarida aynan o’qish savodxonligiga katta urg’u berilgan. Boshlang’ich sinf o’quvchilari bu darslik bilan ishlash jarayonida o’zlari uchun barcha imkoniyatlar dunyosini ochadilar, dunyoqarashlarini kengaytiradilar. Ular o’zlarining fikrlarini ravon ifoda etishga va teran fikrlash qobiliyatiga ega bo’ladilar. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 5 ta tashabbusning 4-si Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o’rtasida kitobxonlikni keng targ’ib qilish bo’yicha tizimli ishlarni tashkil etish borasida O’zbekiston Respublikasining 2021-yilda barcha 4-sinf maktab o’quvchilarining o’qish ko’nikmasini baholashda PIRLS baholash tizimida ishtirok etish alohida e’tiborga molikdir. O’qishni o’rganish, o’qish savodxonligini oshirish shubhasiz, boshlang’ich sinf o’quvchilarining eng muhim va asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O’qish savodxonligi – bu turli xil bosma va raqamli matn turlarini mustaqil o’qish,

tushunish, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatidir. O'qish savodxonligi turli maqsadlarda, masalan, shaxsiy zavqlanish dunyoni o'rganish va jamiyatda ishtirok etish uchun talab qilinadi. O'qish savodxonligini rivollantirishda bir qator omillar ta'sir etadi:

Og'zaki nutq – samarali muloqotchi bo'lish uchun nutq va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi va u o'qishni o'rganish va o'qish savodxonligini oshirishda uchun asos yaratadi. O'quvchilarni boy, kontekstsiz, kengaytirilgan suhbatga jalb qilish o'qish savodxonligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi hamda o'g'zaki nutqini boyitadi.

Lug'at boyligi – shu o'rinda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda nutq madaniyatini o'stirish hamda yozma va o'g'zaki nutq mashqlarini uyg'unholda olib borish bilan birga, o'z navbatida, lug'atlar bilan ishlash ham o'qish savodxonligini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ravonlik – matnni to'g'ri va samarali o'qiy olish. Ovozli o'qish jarayonida o'quvchilarda ravon o'qish, o'z nutqini to'g'ri ifodalay olish qobiliyati shakllanadi. Ravonlikka matnni tushunish va ushbu matndan ma'no yaratish o'rtasidagi bog'liqlik sifatida qaraladi. O'qish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalar bu qobiliyatlarni tizimli va aniq ta'lim berilganda, boy til va adabiy muhitga duchor bo'lganda yaxshi rivojlanadi.

Tushunish – shunchaki matnni tushunish emas. U bashorat qilish, tahlil qilish, qayta hikoya qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish matnlarni baholash va tanqid qilishni o'z ichiga oladi. Bu bolalar o'zlarining shaxsiy bilimlarga kirishishlarini va buni turli xil ko'nikmalar va usullar bilan bir qatorda og'zaki va yozma sharhlay olishlarini o'z ichiga oladi. Matnni tushunishda mavjud bilimlardan foydalanish ham asosiy sanaladi. O'qishning ko'plab sabablari va maqsadlari, ulardan ma'no olishning ko'plab usullari mavjud. Matnlarning maqsadlari, sabablari va turlari turlicha bo'lib, bu o'quvchilarning ma'lumot qidirish va olish usullariga ta'sir qiladi. O'quvchilarning matn mazmunini tushunishlari va undan foydalana olishlari turli xil o'qish usullarini birlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi xalqaro talablarga mos tarzda oshirish uchun milliy va ilg'or tajribalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ,bu jarayonda o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarini ham yo'lga qo'yish, elektron tarzdagi ta'limni rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimova I.A. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.
2. Adizova Nodira and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH". *E Conference Zone*. 2023.
3. Amonov U.S. O'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124. U.S. Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M.Q. Salohiddinova, BuxDU boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
4. Amonov U.S., Saparova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
5. Ahtamovich H.H., Shixnazarovna J.A. O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.
6. Axmadovich X.X. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 281-285.
7. Avezov O.R. O'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish (suisid)ga ijtimoiy muhitning ta'siri. "Aktualnie nauchnie issledovaniya v sovremennom mire //Xalqaro ilmiy-amaliy ...
8. Avezov O.R. ПСИХОЛОГИЯ В СИСТЕМЕ НАУК. NovaInfo. Ru 3 (57), 546-550.

9. Bakhtiyorovna N.A., Bakhtiyorovna N.A. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin.
10. Bakhtiyorovna N.A., Dilsora E. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545 b.
11. Jumayev R. SADRIDDIN AYNINYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO'LLANISHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 7. –No. 7.
12. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 2. –No. 2.
13. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Хакимова М.Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62.
14. Kadan G., and Aral, N. (2017). Examining universal values in terms of cartoons. Journal of Research in Education and Teaching, 6(4), 104-117.
15. Рахматуллаева Л.И. Методика преподавания родного языка родного языка. Учебное пособие. – Т.: Молия — Иктисод, 2007.
16. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.
17. Саидова М. Masofaviy o'qitishni tashkil etish shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 141-150.
18. Saidova G.E. "MANTIQIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". PEDAGOGS *jurnali* 1.1 (2022): 60-61.
19. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
20. G'ulomov A.K. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Avtoreferat. Pedagogika fanlari doktori diss. – T; 1991.

## EGALIK QO'SHIMCHALARINI O'QITISHDA SO'ZNI TEJAB ISHLATISHNI O'RGATISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Safarov Firuz Sulaymonovich**

*BuxDPI dotsenti*

**Haydarova Adiba Anvarovna**

*BuxDPI 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 4-sinf o'quvchilariga egalik qo'shimchasini tejab ishlatishni o'rgatish usullari darsliklarda berilgan mashq va topshiriqlar misolida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'z:** tejamkorlik, o'zbek tili grammatik qurilishi, egalik, egalik qo'shimchasi, egalik qo'shimchasini tejab ishlatishga doir topshiriqlar.

Hozirgi kunga kelib, yurtimizda ta'lim sifatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlar olib borilmoqda. Buning uchun, avvalo, ta'lim sifati bo'yicha yuqori cho'qqilarga erishgan Yevropa davlatlari ta'lim tizimidan andoza olinayotgani hech kimga sir emas. Maktab darsliklari, xususan boshlang'ich sinf darsliklari tubdan yangilandi. Bu darsliklar xalqaro baholash dasturiga mos ravishda yaratilgan bo'lib, o'quvchilarni kreativ fikrlashga undaydi. Darslikning bunday afzalliklaridan tashqari kamchilik tomonlari ham bor. Chetdan kelgan darsliklarning to'g'ridan to'g'ri o'zbek tiliga tarjima qilinganligi sababli matn va topshiriqlarda biroz g'alislilik uchraydi. Matnlarda ayrim so'zning tejab-tejalmay qo'llanilishiga qat'iy rioya qilinmagan. Avvalo, egalik qo'shimchasini olib qaraylik.

Egalik kategoriyasi o'zbek tilshunosligida turlicha talqin qilinadi.

1980-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida shunday yoziladi. "Predmetning 3 shaxsdan biriga mansubligini ko'rsatuvchi morfema egalik affiksi deyiladi. Egalik affikslari shaxs ma'nosi bilan birgalikda, uning (shaxsning) sonini (birlik, ko'pligini) ko'rsatadi: savolim – savolimiz kabi". Ko'rinadiki, egalik qo'shimchalarida 3 xil ma'no mujassamlashgan deb ko'rsatilgan: egalik (xoslik), shaxs va son.

Son ma'nosiga munosabatiga ko'ra egalik qo'shimchalari 3 turga bo'linishi jadvalda ko'rsatilgan: -m, -ng birlik, -miz, -ngiz ko'plikni ifogalovchi, -i birlik va ko'plikka betaraf qo'shimcha sifatida ko'rsatilgan.

Ushbu darslikda egalik qo'shimchalarining ishlatilishida 2 holat bor, deb ko'rsatiladi: mening kitobim.

1. Egalik affiksi o'zi qo'shilgan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi.

2. Egalik affiksi o'zi qo'shilgan o'zak doirasida ishlatiladi: onam, o'qishing. Biroq darslikda bu ikki holatning farqi, ya'ni qachon kitobim, qachon mening kitobim, deb qo'llanishi izohlanmagan.

G'. Zikrillayev egalik qo'shimchalarining son ma'nosiga munosabatiga 3 ga bo'linishini ko'rsatadi: -(i)m, -(i)ng birlikni, -(i)miz ko'plikni ifodalaydi, -(i)ngiz, -(i)si qo'shimchalari ikkala songa ham betaraf. Shunga ko'ra, kitobingiz, kitoblaringiz deganda tinglovchining, kitoblari deganda o'zga shaxsning bitta yoki ko'pligi anglashilmaydi.

G'. Zikrillayev egalik ma'nosining qo'shimcha va so'z bilan ifodalanishini aniq belgilab beradi: Egalik qo'shimchasi bilan kishilik olmoshining qo'llanishida farq bor. Egalik qo'shimchasi nohissiy bayonga xos bo'lib, ko'p uchraydi. Kishilik olmoshi hissiy bayonga xos bo'lganidan kam ishlatiladi. Aniqroq qilib aytganda, kishilik olmoshi qaratqichni ta'kidlash, ajratib ko'rsatish taqozo qilganda qo'llanadi. Aks holda, qaratqichni ifodalash uchun egalik qo'shimchasining o'zi yetarli bo'ladi.

Egalik qo'shimchalari 4-sinf ona tili darsligida "Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi" nomi bilan alohida mavzu qilib kiritilgan. Darslikdagi egalik qo'shimchalari talqinida bir nechta e'tirozli nuqta mavjud:

1. Egalik qo'shimchalari son ma'nosiga ko'ra 2 ga ajratiladi: -m, -im, -ng, -ing, -i, -si egalik qo'shimchalari birlik ma'nosini bildiradi. -imiz, -miz, -ingiz, -ngiz, -(lar)i egalik qo'shimchalari ko'plik ma'nosini bildiradi. Vaholanki, egalik qo'shimchalari G'.Zikrillayev to'g'ri ko'rsatganidek, 3 ga bo'linadi: -(i) m, -(i)ng birlikni, -(i) miz ko'plikni bildirib, - (i)ngiz, - (s)i qo'shimchalari ikkala songa ham betaraf. Masalan, "Bobomni katta mirob deyishadi", "Ukangni tebratib tur" gaplarida -m, -ng, qo'shimchalari bobo, ukaning bir kishiga tegishli ekanligini bildiriyapti. "Maktabimizga ota-onalarni, yozuvchi hakim Nazirni taklif qildik" gapida -imiz qo'shimchasi maktabning ko'p kishiga tegishli ekanligini bildirgan. Endi -(i)ngiz, - (s)i qo'shimchalarining son ma'nosiga munosabatini qaraylik:

1. Aka, aka maktabingizdan menga ham ikkita "besh" olib keling. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning do'sti ekan. 2. Fan cho'qqilarini zabt etishingizda mazkur darslik ko'makchingiz bo'lsin. Bolalarning qo'lida qalam, daftar. Birinchi banddagi misollarda -ingiz, -i qo'shimchalari birlikni (bir kishini), ikkinchi bandda ko'plikni bildiriyapti. Bu esa ularning birlik va ko'plikka betaraf ekanligini isbotlaydi.

2. III shaxs ko'plikdagi egalik qo'shimchasi sifatida -lari qo'shimchasi kiritiladi: kitoblari. -lar ni egalik qo'shimchasi tarkibiga kiritib bo'lmaydi. Chunki egalik qo'shimchasi o'zi qo'shilgan otning emas, o'sha ot tegishli bo'lgan kishi yoki narsaning shaxsi va sonini ko'rsatadi. Masalan: kitobim-kitob ko'p, egasi bitta. Kitoblari shaklidagi -lar esa kitob egasiningemas, kitobning ko'pligini bildiradi. Masalan: "Siz, albatta, Quddus Muhammadiyning asarlarini topib o'qing" gapida -lar asarning ko'pligini bildiriyapti.

3. Darslikda egalik qo'shimchasi va qaratqichli kishilik olmoshining ma'nodoshligi va qo'llab-qo'llanmasligi bayon qilinmaydi. Holbuki, egalik ma'nosining faqat qo'shimcha va qo'shimcha hamda so'z (lug'avuy vosita) bilan ifodalanishi orasidagi farqni bilish juda zarur. Aks holda, birinchisining o'rnida ham ikkinchisi qo'llanadi. 4-sinf darsligida shunday holatlar uchraydi: Men o'zimning fikrimni aytmoqchiman. Kishining go'zalligi uning tilidan bilinur. Bizning nutqimiz gaplardan, gaplar so'zlardan tuziladi. Bu gaplarda qaratqichli o'zlik va kishilik olmoshi ortiqcha qo'llangan. Bu esa o'zbek tilining bosh xususiyati-tejamkorlikka

ziddir. Quyidagi gaplarda ham olmosh tejalishi kerak, negaki qaratqichni ta'kidlash, ajratib ko'rsatish nazarda tutilmagan. Mening otam – Xursand Yo'lchiyev kolxozda ishlaydi. Bizning Vatanimizda sportga katta e'tibor beriladi. Bizning shahrimizda maktab yoshidagi bolalar uchun ajoyib saroylay qurilgan.

4-sinf o'quvchilarini egalik qo'shimchalarini qo'llashda tejamkorlikka o'rgatish uchun, avvalo, ularga egalik qo'shimchalari va qaratqichli kishilik olmoshlarining ma'nodash ekanligini tushuntirish lozim. Buning uchun o'qituvchi doskaning bir tomoniga qaratqichli kishilik olmoshlarini boshqa tomoniga egalik qo'shimchalarini olgan so'zlarni yozadi.

sening	kitobim
mening	kitobing
uning	kitobi
sizning	kitobimiz
ularning	kitobingiz
bizning	kitobi

Keyin esa o'quvchilarga chap va o'ng tomondagi ma'nosi bir-biriga mos keladigan so'zlarni bog'lab, so'z birikmasi hosil qilishni so'raydi. O'quvchilar quyidagi so'z birikmalarini tuzadi:

mening	kitobim
sening	kitobing
uning	kitobi
bizning	kitobimiz
sizning	kitobingiz
ularning	kitobi

Bunday mashqlarni bajargandan so'ng, o'quvchilarni egalik qo'shimchalarini qo'llashda tejamkorlikka o'rgatish uchun ularga mustaqil topshiriqlar berish mumkin. Bunday topshiriqlar ikki turli bo'lishi mumkin:

1. O'quvchilarga qarashlilik ma'nosi faqat egalik qo'shimchasi va ham egalik qo'shimchasi ham qaratqichli olmosh bilan ifodalanadigan gaplar tuzishni topshirish.

2. Gazeta, jumallardan qaratqichli olmosh ortiqcha, noo'rin qo'llangan. Gaplarni topib, yozib olishni topshirish.

Yuqorida ko'rsatilgan mashq va topshiriqlar yordamida 4-sinf o'quvchilarini egalik qo'shimchalarini tejab ishlatishga o'rgatish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022.
2. Adizova Nigora Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022.
3. Adizova Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI". *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
4. Amonov U.S. O'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124. U.S. Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M.Q. Salohiddinova, BuxDU boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
5. Amonov U.S., Saporova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
6. Baxtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH – TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
7. Ikromova R., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. "4-sinf ona tili darsligi" – Toshkent, 2020. Zikrillayev G'.N. O'zbek tili morfologiyasi. – Buxoro, 1994. 163b.
8. Safarov F. O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati Nomzodlik dissertatsiyasi. Buxoro, 2004.



9. Safarov Firuz, Nodira Xudoyberdiyeva, Nilufar Xolmurodova. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.
10. Sulaymonovich Firuz Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.
11. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". EUROPEAN RESEARCH.- 2020.-S: 118-120.
12. Сулаймонович Феруз Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
13. Саидова М. Масофавий о'qitishni tashkil etish shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 141-150.
14. Zikrillayev G'.N. va b.Istiqlol va ona tili ta'limi. (To'plam). –Toshkent: "Fan", 2000. – 112 b.
15. Zikrillayev G'.N. Istiqlol va adabiy til. –Toshkent: "Fan", 2004. – 120 b.
16. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

## O'QUVCHI-YOSHLAR MA'NAVIY TAFAKKURINI TARBIYALASHDA MA'NAVIY VA MA'RIFIY ISHLARNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**N.B. Adizova**

*BuxDPI dotsenti*

**F.Ibrohimova**

*BuxDPI 1-bosqich magistr*

**Annotasiya.** Maqolada o'zbek xalqi o'z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, xarakteri, tuyg'usi, mijosi, xulq-atvori, axloqi, didi, ta'bi bilan alohida ajralib turishi, bola axloqini, odobini takomillashtirish avvalo oilada amalga oshirilishi haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyat, komil inson, ta'lim-tarbiya, faoliyat, milliy urf-odatlar, odob, axloq.

**Аннотация.** В статье рассказывается о том, чем отличается узбекский народ своим психическим обликом, национальным характером, характером, чувствами, клиентом, поведением, этикой, вкусом, характером, а также совершенствованием детских нравов и этикета, прежде всего, в семье. предусмотрена обратная связь.

**Ключевые слова:** Национальные ценности, совершенный человек, воспитание, деятельность, национальные традиции, этикет, нравственность

Ma'naviyat va ma'rifatning bir-biri bilan bog'liqligi, ko'pincha, jamoatchilik tomonidan uyg'un ijtimoiy muomala sifatida tasdiqlanadi. Ma'naviyat shaxs kamolotining mezon, insoniylik mohiyati va jamiyat taraqqiyotining omilidir. Ya'ni inson dunyoqarashi, hayotiy bilim, ko'nikmalari, ruhiyati jamiyatga ongli munosabati va uning insonparvarligi, vatanparvarligi, mehnatsevarligi, axloqiy fazilatlari, estetik didi, huquqiy madaniyati, o'z insoniy, fuqarolik burchiga sodiqligi, iymon-e'tiqodi kabilar. Ma'rifat ana shu insoniy fazilatlarni shakllantirish omili. Ma'rifatli kishi ma'naviyatli bo'lishi, ma'naviyatli doim ma'rifatga intilishi dialektik haqiqat. Bugungi kunga kelib ma'naviyatning ma'rifatga bog'liqligi aksiomaga aylandi. Yuqoridagi fazilatlar mohiyati haqida bilim, ko'nikma, malaka bo'lmasa va bular e'tiqod, amaliy faoliyat, madaniyat hayot tarziga aylanmasa, u ijtimoiy ahamiyat kasb etmasligi tabiiy.

Demak, inson ma'naviyati tarbiyalangan darajasida bo'lsa, ma'rifat uni shakllantiruvchi ta'lim, tarbiya mustaqil bilim olish va targ'ibot, bir tomondan, ma'naviyat, ma'rifat ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyilligiga ham asoslanadi. Lekin ma'rifat umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish, insoniy hayotning barcha qirralarida ongli turmush tarzini, madaniyatini tarkib toptirish jihatlari bilan o'ziga xos tamoyillar va usullariga ega.

Ma'rifat shaxsning muqtaqil bilim olishi, ilm ziyosidan muntazam bahramand bo'lishi bilan birga, u ijtimoiy tarbiya, ommaviy targ'ibot manbaidir. Mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifatni umumxalq ishi, davlat ahamiyatiga molik dolzarb masala sifatida qo'yilishida ana

shu xususiyatlardan kelib chiqib yondashish lozim. Agar ma'naviyat, ma'rifat tom ma'noda umumxalq ishiga aylansagina, ma'naviyat-ma'rifat markazlari, shu soha bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy institutlar, ta'lim-tarbiya muassasalarida ilmiy boshqarish uchui yangi qonuniyatlari va pedagogik asoslarga amal qilinishi zarur.

Ma'naviyat va ma'rifat ishlarining asosiy maqsadi, vazifalari, mazmuni va metodlarining o'zaro bog'liqligi ekanligini ta'kidladik. Shunga ko'ra, ma'naviyat va ma'rifat ishlarining maqsadi hamda vazifasi komil insonni shakllantirishdir, uniig mazmuni va metodlari ana shu bosh vazifadan kelib chiqadi.

Demak, ma'rifatning maqsadi – jamiyat, xalq va aynan, shaxsning ma'naviy siyrati, komil inson modeli. Hayotda isbotlanganidek, quruvchi nima qurayotganining loyihasini bilganidek, ziyokor kimni tarbiyalamoqchi, nimani shakllantirmoqchi ekanini oldindan tasavvur qilishi kerak. Obyektiv va subyektiv shart-sharoitni hisobga olib, ma'naviyat-ma'rifat ishlari maqsadi to'g'ri qo'yilsa, shunchalik samarali bo'ladi.

Komil insonni shakllantirishning tarkibiy qismlari: aqliy, axloqiy, estetik, huquqiy, ekologik, mehnat va jismoniy tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat ishlarida uzviylik hamda izchillikni ta'minlaydi.

O'quvchi-yoshlarni ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda ma'naviyat va ma'rifatni izchil amalga oshirishning o'ziga xos ruhiy-pedagogik bosqichlari mavjud. Avvalo, ijtimoiy ong ma'naviy his-tuyg'uni shakllantirish, uning hayotda tutgan o'rni haqida tasavvur, tafakkur tarkib toptirish; ma'naviy-axloqiy tushunchalar, e'tiqod, ma'naviy xulq-atvor, ko'nikma, ma'rifiy madaniyat shakllantirish.

Ma'naviyat-ma'rifat ishlarining maqsad va mazmuni komil insonni shakllantirish, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy omili ta'limida o'zaro bog'liqligi xaqida qisqacha mulohaza yuritdik. Ana shu mazmun va vazifalardan kelib chiqadigan metodlar, vositalar uyg'unligi, o'ziga xosligi masalasiga alohida to'xtalamiz.

O'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligi texnologiyasini yo'lga qo'yishda til o'rganishning ahamiyati kattadir. "Til bilgan, elni bilar" deb bekorga aytmaydilar.

Til o'rganish o'z mohiyatiga ko'ra, yuksak ma'naviy tafakkur va axloqiy faoliyat masuli. O'z ona tiliga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni mukammal egallamagan, u yoki bu tilning mavjud imkoniyatlaridan to'la foydalana olmaydigan inson, muayyan so'zboyiligiga ega bo'lmagan shaxsni har tomonlama uyg'un rivojlangan komil inson deb bo'lmaydi. Xoh og'zaki, xoh yozma nutqi bo'lsin, kambag'al til, g'arib kishiga o'xshab mutafakkir bo'la olmaydi, chuqur va atroflicha keng fikrlay olmaydi, narsa va hodisalar haqida va hatto, o'z his-tuyg'ulari haqida ham to'g'ri mulohaza yurita olmaydi. Bunday insonlar ilm- fanning qaysi sohasi bo'lmasin – matematikami, fizika yo kimyomi, rassomchilik, muhandislik va hokazolarda yukcak ma'naviy tafakkur hosili tilning bevosita ishtiroki bor. Zero, til va tafakkur o'zaro ajralmas va bir butun. Tilsiz, fikrsiz inson faoliyatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Shuning uchun ham til boyliklarini avaylab-asrashga, uni keng yoyishga, turmushda foydalanishga, boshqa tillar bilan aloqalarini rivojlantirishga, xullas, tilning shaxslararo va ijtimoiy aloqa vositasi hamda aniq faoliyat sifatidagi vazifalarini to'la-to'kis bajarish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan xatti-harakatlar millat taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyat tarzida baholanishi mumkin.

O'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligida tillarning o'zaro aloqadorligini. bir-birini boyitish orqali erkin taraqqiy etish tabiati, ularning dunyo tillari oilasida o'z mavqelarini mustahkamlab borishini ta'minlaydi. Bu esa muomalada tilning erkin qo'llanilishini ta'minlashi, o'ziga xos ichki tabiati va imkoniyatlariga boyish, rivojlanish qoida va qonuniyatlariga alohida etibor berishni taqozo etadi. Til insonning o'zligini, muomalada erkinligi va mustaqilligini saqlab qola olgandagina va muttasil takomillashuvini ta'minlaydigan, o'z ichki imkoniyatlarini to'la namoyon qila olgandagina, boshqa tillar bilan aloqaga kirishganda o'z milliy qiyofasini va xususiyatlarini saqlab qolgan holda, o'zga tillar bilan muomalaga kira oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Адизова Нигора Бахтиёрвна, Ҳилола Худойбердиева. ҚИЗИКМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress.
2. Adizova N.B., M. Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123.
3. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
4. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
5. Avezov O. R. PSYCHOLOGY IN THE SCIENCES. Science Journal “NovaInfo” (Vol.3, No. 57) 3 (No. 57), 546-550
6. Bakhtiyorovna N.B., Bakhtiyorovna N.B. Anvar Obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin.
7. Bakhtiyorovna N.B., E.Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545.
8. Bakhtiyorovna N.B., Bakhtiyorovna N.B. The role of the fun genre in children's spiritual development. Middle European Scientific Bulletin 4, 38-40.
9. Khoja o'g'li T., Ahmadovich K.H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.
10. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.
11. Rakhmonovich A.B., Bakhtiyorovna A.N. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN'S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)
12. Safarov Firuz Sulaymonovich. Elementary School Dictionary Activation Methods. European Journal of Life Safety and Stability. (EJLSS) ISSN 2660-9630. Volume 12, 2021. P. 203 – 209.
13. Xoliqulovich J.R. Influence of Sadridin Aini life and works in spiritual and moral development of students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т.
14. Xoliqulovich J.R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.
15. O'rinova Maftuna (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel “Signs of the End Times” by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin.

## BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA ERTAKLARNI MULTIMEDIA ASOSIDA O'QITISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Abdiqodirova Iroda Norqul qizi**

*BuxDPI II bosqich magistri*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada folklor adabiyotining paremik janrlaridan biri ertakni multimedia asosida o'qitish va dars jarayoniga joriy qilish metodlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Annotation:** in this article, one of the paremic genres of folklore literature, the method of teaching and introducing the fairy tale on the basis of multimedia, into the lesson process, is scientifically and theoretically analyzed.

**Kalit so'zlar:** sayt, dastur, axborot, karaoke, va hokazo.

Kompyuter, planshet, smartfonlar hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylanib ulgurgan bugungi kunda, ular haqiqatdan ham ko'plab mushkullarimizni oson qilishga yordam beradi. Ayniqsa, yosh avlod o'zlarining bir kunini ham telefonlarsiz tasavvur qila olishmasa kerak! Turli saytlar, o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar-u, guruhlariga qiziqishlari yuqori. “Axborotlar filtri”ni ta'minlash har qachongidan ham dolzarblik kasb etayotgan bu fursatda yoshlarning mafkurasi, dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday xavfdan saqlashimiz, ularni bilim olishga, kitob bilan do'st tutinishga undashimiz lozim. Shuning uchun kompyuter texnologiyalaridan ta'lim jarayonida ham foydalanilganda yanada unumli va samarali natijaga erishishi mumkin. Jumladan, ertaklar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy namunalaridan biri bo'lib, ular bolada botirlik, yurtga fidoyilik, sadoqat, mehr-shafqat, saxovat, odamgarchilik va boshqa insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi. Dars jarayonida ertakdagi shu va boshqa epizodlarni rollarga bo'lib, audio shaklda taqdim etish, ertak asosida yaratilgan multfilmdan parchani “Karaoke” usuli orqali qo'yib berish mumkin.

Bunda monitor orqali mutfilm ko'rinib turgan holda uning patski qismida qahramonlarning nutqlari ovozsiz karaoke shaklida namoyish qilinadi, o'quvchilar esa rollarga bo'linib ularni ijro etishi mumkin. Ushbu usul orqali o'quvchi o'sha ijro etgan obrazini yanada chuqurroq his qilishi, ertakning didaktik g'oyasini anglashi, karaoke vositasida so'zlarni to'g'ri o'qishni, talaffuz me'yorlarini o'zlashtirishi kabi natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Shuningdek, darsning mustahkamlash qismidan 5-8 daqiqa ajratilib, interfaol o'yinlar, mashqlar, korssvord, animatsion ko'rinish, video, audio materiallardan foydalanish, maqsadga muvofiq. Bunday vositalarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy dasturlar ko'makdosh bo'ladi:

Bu dasturiy vositalarni kompyuter yoki smartfonga internet tarmog'idan yuklab olgan holda o'ratib, sinfda proyektor yoki elektron doska yordamida ishlatish mumkin. Jumladan, Learning Apps.org sayti orqali hamma fanlarga oid turli xil mashqlar, topshiriqlar yaratish mumkin. Masalan, ertaklar mavzusida quyidagicha qahramonlarning rasmlari, harakatli shakllar, boshqotirmalar ishlash mumkin. Ertak matni ustida ish olib borganda o'quvchilarning ertak mazmuniga mos savollar tuzishi, ularga javob berishi, reja tuzishi, bosh qahramonlar xususiyatlarini muhokama qilishi, biron epizodini tasvirlab berishi mumkin. Masalan, yuqorida ta'kidlab o'tilgan Aka-uka Grimmlarning "Botir tikuvchi" ertagidagi Gansga xos bo'lgan xususiyatlarni "SWOT texnologiyasi" orqali sanab berishda o'quvchilarni quyidagicha baholash mumkin:

**"SWOT" tahlil metodi:**

S – Strengths (Kuchli tomonlari);

W – Weaknesses (Zaif, kuchsiz tomonlari);

O – Opportunities (Imkoniyatlari);

T - Threats (Xavf-xatar yoki to'siqlar).

Mazkur metoddan "Botir tikuvchi" crtagini o'rgatish davomida foydalanish mumkin. Ya'ni guruhlarga bo'lingan o'quvchilar oldiga Oansning kuchli tomonlari, kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari va bunga to'siq bo'luvchi omillarni aniqlash vazifasi topshiriladi. E'tibor bo'lsak, tikuvchi butun asar davomida biror kimsaga yomonlik qiladigan tilamaydi. Lekin uning yaxshi insonligiga shubha qiluvchi hasadgo'ylar unga har xil tuhmat-u bo'htonlar yog'dirishadi va oxirida o'zlari qiynalib qolishadi. Ertakda to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, halol va mard bo'lish kerakligi g'oyasi ilgari surilgan.

O'qituvchi har bir asarning xoh u she'riy, xoh nasriy asar bo'lsin, dars yakunida xulosalovchi fikr aytishi lozim. Shundagina, o'quvchilarning asarni to'g'ri anglay olishiga erishish mumkin bo'ladi. Zotan, ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatlarini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga, yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida "kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi)", "Nima uchun?", "... nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)", "Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga, hatto, tabiat kuchlari yordam berdi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)" kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib xulosa chiqaradilar. Ertaklar katta-yu kichik har bir yoshdagi insonlar uchun birdek yoqimli donishmandlik manbayidir. Davrlar o'tib borsa ham, ular xalqimizning, adabiyotimizning, ma'naviyatimizning asosiy vositalaridan biri sifatida ahamiyatini yo'qotmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adizova Nodira. "BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI". *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
2. Адизова Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ". *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
3. Ahmadovich Hayitov Hamza. "Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam". *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 14 (2022): 101-105.
4. Adizova N.B., Raimqulova M. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123 b.
5. Amonov U.S. O'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124. U.S. Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD) M.Q. Salohiddinova, BuxDU boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.

6. Amonov U.S., Saparova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.

7. Bakhtiyorovna N.A., Bakhtiyorovna N.A. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin.

8. Hayitov H.A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

9. Hayitov Hamza Ahmadovich. "SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA OHANG TALQINI". *Мироваянаука* 8 (2019): 3-5.

10. Hayitov Hamza Ahmadovich. "LITERARY INFLUENCE AND ARTISTIC IMAGE". *Экономикаисоциум* 8 (2019): 11-14.

11. Jumayev R. Homonyms and their Classification in Sadridin Ayni's Works //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

12. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДА ТУРКИЙ-ЎЗБЕКЧА ҚАТЛАМГА МАНСУБ ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

13. Safarov Firuz, Nodira Xudoyberdiyeva, Nilufar Xolmurodova. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. *Journal Pedagog* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.

14. Sulaymonovich Firuz Safarov, Ibrohimova Marg'iyona Isomiddin qizi. 3-sinfda "Sifat" so'z turkumini o'rgatishda so'zlarning birikuvchanligi ustida ishlash. *Journal Pedagog* Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 266 – 274.

15. O'rinova Maftuna (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*.

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA TIL O'RGANISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK YONDASHUVI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Shuxratjonova Rixsinisaxon Nasrulla qizi**

*Namangan davlat universiteti Psixologiya yo'nalishi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yurtimizda chet tilini o'rgatishga qaratilgan e'tibor va o'quvchi yoshlarning maktabga ilk qadam qo'yishlaridan boshlab, ularga chet tilini sifatli va samarali o'rgatish usullari va buborada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar xususida atroflicha fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** xorijiy tillar, o'quvchi, zamonaviy o'qituvchi, metodlar, integratsiya, mehanik xotira, psixik jarayonlar, o'quv bilish faoliyati.

**Аннотация:** в данной статье основное внимание уделится преподаванию иностранных языков в нашей стране и подробно рассматриваются методы качественного и эффективного обучения учащихся иностранным языкам с первых ступеней школы и задачи, которые предстоит решать в связи с этим.

**Ключевые слова:** иностранные языки, студент, современные преподаватель, методы, интеграция, механическая память, психические процессы, учебная познавательная деятельность.

**Annotation:** this article focuses on the teaching of foreign languages in our country and discusses in detail the methods of effective teaching of foreign languages to students from the first steps of school and the tasks to be performed in this regard.

**Keywords:** foreign languages, student, modern teacher, methods, integracy, mechanical memory, mental processes, learning cognitive activity.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga, ularning ta'lim va tarbiyasiga juda katta e'tibor berib kelinmoqda. Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Ertangi kun yoshlar qo'lida" — deya, e'tirof etib barcha e'tiborni ta'lim va tarbiya sohasiga qaratyapdilar. Bugungi kunda yoshlar zamon bilan hamnafas yashashlari lozimligini inobatga olgan holda, yoshlar yaxshi natijalarga erishishlari uchun barcha imkoniyat eshiklari ochib berilmoqda. O'quvchilarga horijlik tengdoshlaridan kam bo'lmagan holda IT va xorijiy tillarni o'rganishlariga sharoit yaratib berilmoqda. Yildan yilga xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bunga sabab esa davlatimiz rahbarining bu sohani rivojlantirish borasida olib borgan oqilona siyosatlaridir.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 2021-yil 6-may kuni — "Chet tillarini o'qitish chora tadbirlari" yuzasidan videoselekt yig'ilishi o'tkazilib, unda xorijiy tillarni o'rgatish tizimini tubdan isloh qilish lozimligi va xorijiy tillarni o'rgatishning samarali

usullarini izlab topish kerakligi asosiy vazifa sifatida e'tirof etildi. Yig'ilishda tizimdagi muammolar atroflicha tahlil qilinib, ustuvor vazifalar ham belgilandi. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari kamida 2ta chet tilini bilishlari kerakligi – Vazirlar mahkamasi huzurida *xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi* tashkil etilishi kabi vazifalar asosiy deb belgilandi. Agentlik zimmasiga ko'plab vazifalar yuklatildi. Ulardan eng asosiysi — bog'cha – maktab – oliy ta'lim – korxonalar zanjirini uzviy bog'liq holda olib borish va yuqori natijalarga erishish vazifasidir. Belgilab berilgan bu vazifalardan so'ng ko'pgina islohotlar o'tkazildi, yangiliklar kiritildi. Boshlang'ich ta'lim sohasida ham tubdan o'zgarishlar davri boshlandi. Amaldagi darsliklar zamonaviy va davr talabiga javob bera oladigan darsliklar bilan almashtirila boshlandi.

Davlat ta'lim standartlari esa Milliy o'quv dasturi bilan almashtirilib, ham zamon talabiga ham milliyligimizga mos kela oladigan dasturga aylantirildi. Bugungi kunda har bir ota-ona farzandini yaxshi ta'lim va tarbiya olishini xohlaydi. Buning uchun farzandlarini yaxshi maktabga berishni, yaxshi jamoada o'qitishni istaydi.

Shunday ekan, maktab jamoasidan ko'proq mehnat qilish talab etiladi. O'quvchilar maktabga kelgan ilk kunlaridan boshlab ta'lim va tarbiya olishni boshlaydi. Bu vaqtda ustozdan katta mahorat talab etiladi. Bolaning ta'lim olishga qiziqishi ham ustozga bog'liq. 2012-yil 10-dekabrda chet tillarini 1-sinfdan boshlab o'qitish lozimligi haqidagi qaror qabul qilinib, 2013-yildan e'tiboran 1-sinf o'quvchilarga ingliz tili o'rgatila boshladi. Hozirgi kunda bolalar zamonaviy texnologiyalar bilan birga, o'yin faoliyatini tashkil etilyapti, so'ngra maktabga kelyapti. Ko'pgina narsalarni biladigan bolani maktabga e'tiborini qaratishning yagona usuli bolani maktabga va o'tiladigan fanlarga qiziqtirishdir.

Bolalarga maktabga ilk qadam qo'ygan vaqtdan boshlab chet tilini o'rganishning qanchalar foydali ekanligi to'g'risida tushunchalar berish bolani chet tiliga qiziqtirishning asosiy omili hisoblanadi. Chet tiliga qiziqtirish olishni ta'minlay olinsagina bolada rivojlanish bo'ladi. Bolalarni chet tiliga qiziqtirish uchun hayotiy misollardan foydalanish talab etiladi. Misol tariqasida esa xalqimizning "Til bilgan – el biladi", "Bir tilda so'zlasha olsang bir insonsan, ikkita tilda so'zlasha olsang ikki insonsan" kabi mazmundor g'oyalar singdirilgan mulohazalarni o'quvchilar ongiga singdirish va o'quvchilar taniydigan mashhur insonni misol qilib ko'rsatilib, uning faoliyatidagi yutuqlari, natijalari xorijiy tilni bilishi bilan bog'liqligi alohida e'tirof etilsa, bolada qiziqish ortadi. Shu bilan birga, bolaga chet ellik tengdoshlari bilan aloqa o'rnatishi mumkinligi, rivojlangan chet davlatlarida o'qish imkoniyatiga ega bo'lishlari, sayohatga borganda qiynalmasliklari, kelajakdagi ish faoliyatlarida ham xorijiy tilni bilishlari foyda berishi yaxshilab tushuntirilib, keyingina dars o'tilsa yaxshiroq samara beradi. Bunga sabab hayotda har bir inson birinchi navbatda, o'zi uchun qiziq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanishni xohlashi, bu sohada ko'proq harakat qilishiga imkon beradi. O'quvchilarga chettilining foydali tomonlarini ko'rsatib berishda o'qituvchi va murabbiylardan katta mahorat talab etiladi. Dars jarayonida bolaning bilish, psixik jarayonlari, diqqati, fikrlashi, idroki, tasavvuri, xotirasi va ta'lim olishga qiziqishi maktab psixologi tomonidan shakllantiriladi. Xorijiy til darslarida ijodiy ko'tarinkilik muhitini vujudga keltirish, o'quvchining qiziqishi, bilish jarayoni, nutqi, shahslararo munosabatlari rivojlantirib boriladi.

O'quvchilarga faqatgina ingliz tili darsida emas balki boshqa fanlar bilan ham bog'lagan holda o'tilsa yanada samaraliroq bo'ladi. O'quvchilarga haftada faqatgina ikki soat ingliz tilining o'tilishi shu bilan birga, faqatgina grammatik mavzularning tushuntirilishi o'quvchilarda ingliz tiliga nisbatan qiziqishning susayishiga sababchi bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun ona tili, tabiiy fanlar, matematika kabi darslarda ham ayrim so'zlarni ingliz tilida o'rgatish – darsni qiziqarli bo'lishi bilan birgalikda o'quvchining ko'proq shu tildagi so'zlar bilan tanishishiga, lug'at boyligi oshishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, darslar davomida turli xil interfaol usullardan, metodlardan foydalanish ona tili fani bilan ingliz tilini integratsiya qilish orqali ham amalga oshirilsa yuqori samara beradi.

Davlatimizda 2-sinfdan boshlab rus tili o'rgatiladi. Rus tili bizdagi aholining aksar qismi so'zlashadigan til bo'lganligi uchun ko'pgina so'zlar tilimizga o'zlashtirilib bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Agarda bola ikkita xorijiy tilda tushunib, so'zlay olish ko'nikmasiga ega bo'lsa, keyingi faoliyatida katta yutuqlarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf



o'quvchilarida mexanik xotira yaxshi bo'lganligi bois, ularda til o'rganish kattalarga nisbatan osonroq kechadi. Shu sababli, bolalarga iloji boricha xorijiy ilmi o'rganishlariga sharoit yaratib berish va xorijiy tilni o'rganishga qiziqtirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich ta'limda olinadigan bilimlar hayotning asosiy poydevori hisoblanadi. O'quvchilar bu davrda qanchalik ko'p bilim olib, yuqori natijaga erishishsa, shunchalik mustahkam poydevorga ya'ni kelajakka ega bo'ladilar. Buning uchun esa biz kabi pedagog psixologlardan o'z kasbimizga mehr berib, tinmay o'z ustimizda izlanishimiz talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev. SH. M. Taraqqiyot strategiyasi. 2022-2026.
2. Avezov O.R. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. Psixologiya 3 (No. 25), 46-53.
3. Avezov O.R. Favqulotda va ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko'rsatish. "XXI asr psixologiyasi" //Xalqoro ilmiy-amaliy anjumani materiallari//. 2021. Tom-4. B- 19-24.
4. Adizova Nigora Baxtiyorovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. Scientific progress.
5. Адизова Нигора Бахтиёровна, Хилола Худойбердиева. ҚИЗИҚМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress.
6. Amonov Ulug'murod Sultonovich. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi. Sh.R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
7. Baxtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
8. Bakhtiorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY". *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.
9. Egamberdiyev N. Xodjayev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari fan va texnologiyalar. 2013.
10. Fayzullayevich F.K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – T. 6. – №. 06. – C. 107-111.
11. Karimova N.R. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. 2020.
12. Khoja o'g'li T., Ahmadovich K.H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 9. – C. 1-4.
13. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №.2. – C. 140-144.
14. Сулаймонович Феруз Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
15. Саидова М. Во'лажак boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 101-104.
16. Saidova G. E. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferencea* (2023): 33-37.
17. Tolipov O'. Ro'ziyeva D. Pedagogika. 2019.
18. Xoliqulovich J.R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –T. 8.
19. O'rinova Maftuna (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin.

# BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsent v/b, PhD.*

**Normurodova Nigora Erkin qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining berilish tartibi, o'quvchi bilan mustaqil ishlash, fikrlashga undovchi ijodiy xarakterdagi mashqlar bilan ishlash hamda o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda mashqlar tahlili, so'zlar izohini yoritish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili va o'qish savodxonligi darsligi, mashqlar tahlili, tushunilishi qiyin so'zlar izohi, ijodiy fikrlash, yozma nutq.

Bugungi kunda ta'limning sifat samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Milliy o'quv dasturi ta'lim tizimini keng isloh qilish, fanga doir bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirish, ta'lim mazmunini tubdan yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik tufayli xalqimiz yangi tarixiy davrga qadam qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimiga, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etadi. "Ta'lim to'g'risida"gi hamda Xalq ta'limi vazirligining yangi darsliklar avlodini yaratish to'g'risidagi qarori va talablaridan kelib chiqib, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan yangi ona tili darsliklari nashr qilinmoqda. Ushbu darsliklar oldiga bir qator talablar qo'yilmoqda. Darsliklarning yangi avlodi, avvalo, unda berilgan o'quv topshiriqlari o'quvchini faol ishlashga, shuningdek, mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o'rgatadigan shaklda tuzilmog'i zarur.

Hozirda amaldagi boshlang'ich sinf ona tili darsliklari zamon talablariga javob beradimi?, degan savolga javob izlash maqsadida, mazkur darsliklarni tahlil etishni maqsad qildik. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarini tahlil qilishda Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursunlar hammuallifligida 2021-yilda chop etilgan 2- sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan mavzular va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qay tartibda berilganlik jihatlarini o'rganishda quyidagi holatlari kuzatildi:

1. Mundarija bo'yicha mavzularning yoritilishi;
2. Mantiqan o'ylantiruvchi matnlar savoliga e'tibor berish;
3. Darslikda keltirilgan muammolarni o'rganish;
4. Ona tili faniga doir mashqlarning berilishi;
5. Bir necha fanlarga oid ma'lumotlarning yoritilishi o'rganildi.

Darslikda o'quvchini mustaqil ishlash, fikrlashga undovchi ijodiy xarakterdagi mashqlar nihoyatda oz miqdorni tashkil qiladi. Negaki, ona tili fanida o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda mashqlar bilan ko'proq ish olib borish yaxshi natija beradi. Ayniqsa, darslikda har bir bo'lim yuzasidan nomlanish maqsadga muvofiq, lekin o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishda yetarli emas. Masalan, 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslikning 14-sahifasida berilgan "Katta bo'lsam nobel mukofotini olaman" 1-bo'limida berilgan topshiriq va savollar kichik yoshdagi o'quvchilar uchun biroz qiyinchilik tug'diradi. Negaki o'quvchilarga har bir so'zlarning, ayniqsa, nobel, olim, mikroskop, soha, mutaxassis so'zlarining nima ekanligi haqida izoh berilmasligi ular uchun tushunarsiz bo'ladi. Ushbubo'limlarda mashqlar yozish va uni to'g'ri bajarilishi haqida deyarli hech narsa kiritilmagan. Shu bois, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi qo'shimcha tarzda ma'lumotlarni to'g'ri yetkazish muhim sanaladi.

Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turliko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta

ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib, unga o'z fikrini erkin bayon etish va yozishga imkoniyat beradi. Bu imkoniyat qanday yaratiladi? Dastlab, o'quvchilariga yozma savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi.

Masalan: 1. Qaysi gullarni yoqtirasiz? 2. Fasl nomlarini ayting. 3. Qushlar nomini bilasizmi?

Ushbu savollar orqali o'quvchilarning qiziqishi va ularning e'tibori jalb qilinadi. So'ngra dars jarayonida quyidagi "Xatolarni belgilayman" deb nomlangan usul qo'llaniladi. Bu usul o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish va ta'lim jarayonining sarmahsul, tartibli o'tishiga ko'mak beradi. Darsning mazkur bosqichida o'quvchilarni g'oyalar va takliflar bilan chiqishga chorlash va shu vaqtning o'zida barcha g'oya hamda takliflarni yozib borish lozim.

"Xatolarni belgilayman" deb nomlangan usul orqali o'quvchilarning zukkoligi, so'zlar tartibini to'g'ri qo'llay olishi e'tiborga olinadi. Bir necha xato so'zlar ekranda namoyish etiladi.

Ularning to'g'ri variantlari o'quvchilar tomonidan doskada bajariladi: **Kitop – kitob, soat-sog'at, daftar – daptar, tabiat –tabiyat, ayna – oyna, stol – ustol, kata - katta, maktab- maktab**

Agar o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarishdan maqsad nimaligini bilmasa, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qila olmaydi. Takomillashgan o'quv tizimida o'quvchi istaklari bilan tavsiya etilgan mavzu mos kelmasligi katta qiyinchiliklar tug'dirdi. Ba'zida o'qituvchilar

o'tayotgan darslarida dastur mavzularini o'quvchida boshlang'ich istak asoslariga mos ravishda amalga oshirishda qiynaladilar. Bunda innovatsion texnologiyalar ular uchun zaruriy ko'mak bo'lib xizmat qiladi. Uning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

Bunday holatda qiziqarli innovatsion texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarning ona tili fanidan mavzuga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, darslik mazmunini tushunishga tayyorlashi, matnlar tahlilini tushunishi — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, mavzular yuzasidan chuqur mushohada yuritishga yo'naltiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish ham xuddi matn tahlilidagi kabi so'z, so'z birikma, gap va matnning tartibini o'rgangani singari amalga oshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalqaro baxolash dasturi orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyati, matnlar mazmunini turli xil shakllar yordamida o'zlashtira olishlarini baholashimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'grisida"gi 997-sonli qarori.

2. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Ona tili (1-11 sinf). 2020.

3. Adizova Nigora Baxtiyorovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. Scientific progress.

4. Adizova N.B., Raimqulova M. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123 b.

5. Baxtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.

6. Bakhtiorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY". *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.

7. Amonov U.S., Saparova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.

8. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.

9. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 2-sinf uchun. K.Mavlonova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. B. – 6.
10. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili oqitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009. –352 b.(92, 352 b).
11. Safarov Firuz Sulaymonovich. Elementary School Dictionary Activation Methods.European Journal of Life Safety and Stability. (EJLSS) ISSN 2660-9630. Volume 12, 2021. P. 203 – 209.
12. Саидова М. Бо'лажак бoshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.
13. То'хлиев В., М.Шамсиева, Т.Зиядова. "O'zbek tili o'qitish metodikasi". Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006-y.
14. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent.2010 y.
15. Xoliqulovich J.R. SADRIDDIN AYNINYING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –2022. –№. 3. –С. 34-37.
16. Xoliqulovich J.R. Using anthropometric units in "Esdaliklar" by Sadriddin Ayniy //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. –2022. –Т. 2. –№. 2. –С. 295-298.
17. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Yoqubova Hilola Asrorjon qizi Yoqubova Bonuoy Alisher qizi

*BuxDUPI 2-bosqich magistranti*

**D.B. Axmedova**

*f.f.f.d. (PhD) dotsent*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ilg'or metodlardan foydalanish, xususan, "Loyiha metodi"ni boshlang'ich sinflarda qo'llash o'quvchilar uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan maktab mavzusidagi muayyan muammolarni o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tushunishga yordam berishi haqida tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ijodkorlik, interfaol metodlar, "Loyiha metodi", qobiliyat, topqirlik, ko'nikma, ijodiy yondashuv.

Ijodkorlik ko'plab fazilatlarining birlashuvidir. "Falsafiy ensiklopediya"da ijodkorlikka shunday ta'rif berilgan: "Ijodkorlik – ilgari hech qachon bo'lmagan yangilikni yuzaga keltiradigan faoliyatdir".

Ijodkorlik uchta asosiy guruhga bo'linadi:

- 1) motivatsiya bilan bog'liq qobiliyatlar (qiziqishlar va moyilliklar);
- 2) temperament (emotsionallik) bilan bog'liq qobiliyatlar;
- 3) aqliy qobiliyatlar.

Bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ilg'or metodlardan foydalanish ham samarali natijalar olishimizga yordam beradi. Zamonaviy, ilg'or metodlarimizdan biri "Loyiha metodi"ni boshlang'ich sinflarda qo'llash o'quvchilar uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan maktab mavzusidagi muayyan muammolarni o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tushunishga yordam beradi.

"Loyiha metodi" asosida o'qitiladigan har bir o'quvchida shaxsiy ishonchning o'sishiga yordam berish, uning o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi va refleksiyasiga yordam berish, ko'rsatilganlar "yutuq vaziyati"ni darsda (yoki darsdan tashqari) so'zda emas, amalda his qilish orqali o'quvchi o'zining kerakligi, omadli ekanligini va turli muammoli vaziyatlarni bartaraf qila olish qobiliyatiga ega ekanligini bilishiga olib keladi.

O'quvchilar "Loyiha metodi" asosida o'qish jarayonida o'zini va o'zidagi imkoniyatlarini his qiladi. Jamoada birgalikda ishlash davomida o'z hissasini anglaydi hamda loyiha

topshirig'ini bajarish jarayonida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, loyihani bajarish vaqtida o'quvchilarda natijaga erishish uchun jamoa bo'lib ishlashning ahamiyatini anglash rivojlanadi. O'quvchining ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida hamkorlik faoliyati, ularda kommunikativ xususiyatni rivojlantirishni ilhomlantirish, muammolarni hal qilishda o'z yondashuvi, o'z nuqtayi nazariga ega bo'lish ko'nikmasi va shu bilan birga, boshqalarni eshita bilish, o'zida ba'zida o'z fikriga to'la qarama-qarshi bo'lgan boshqalarni eshita bilish xususiyatini rivojlantiradi. Loyihalar metodi o'quvchilarda mushohada-tafakkur qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

"Loyiha metodi" orqali o'quvchida quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirish maqsad qilib qo'yiladi:

1. Tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish;
2. Muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammolarni anglash, manba va adabiyotlardan zaruriy ma'lumotni ajratib olish va ulardan foydalanish;
3. Amaliy vaziyatlarni kuzatishni tashkil qilish, ularning natijalarini belgilash va tahlil qilish;
4. Farazlar qurish, ularni tekshirishni amalga oshirish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish.

O'qitish amaliyotida "Loyiha metodi" qo'llanilganda, o'quvchida turli qobiliyatlar rivojlanadi, an'anaviy o'qitishda esa (dars o'tishda) "bilimlar" beriladi. An'anaviy ta'limda o'quvchiga bilim berishda o'qitishning tasviriy-tushuntirish metodi ustuvor bo'ladi. O'quv jarayoni bu metod bilan to'la nazorat qilinadi, o'quvchilarning ustidan nazorat, mavzuni reproduktiv shakldagi so'rovi amalga oshiriladi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi bilimlar, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, faoliyatning yetakchi ko'rinishini qayta tasvirlash bo'ladi. "Loyiha metodi" esa o'qitilayotganlarning shaxsiga qaratilgan bo'ladi. Shaxsning rivojlanish ko'rsatkichlaridan biri o'quvchilarning mushohada qilish ko'nikmalari (sintez, qiyoslash, umumlashtirish, turkumlash, induksiya, deduksiya, mavhumlashtirish va boshqalar)ni o'zlashtirishlari hisoblanadi. Eng asosiysi esa, o'quvchida o'z shaxsining o'sishiga ehtiyoj, qiziqish paydo bo'lishi, o'zini o'zgartirish, hissiy-obrazli sohaning rivojlanishi, hissiy qadriyat munosabatlari malakasini olish bo'ladi. Loyiha asosida ana shu tarzda o'qitish sinf-dars tizimiga muqobil turadigan samarali metoddir, lekin an'anaviy me'yorni to'la siqib chiqarishi mumkin emas. Chunki jahon ta'lim tizimida yuz yil davomida pedagogik usullar, yondashuvlar, texnologiyalarning oltin zahirasi to'plandi. Mutaxassislar fikricha, "Loyiha metodi" ta'limning boshqa ko'rinishlariga qo'shimcha sifatida foydalanilib, shaxs o'sishining jadallashuvi sifatida yuzaga chiqadi.

Boshlang'ich ta'lim darsliklarida "Loyiha metodi" dan foydalanilgani bu metodning o'quvchilar badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda nechog'lik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Misol uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" (3-sinf) darsligining "Tomorqa" bo'limi 8-soatida "Pomidor yetishtiramiz" mavzusida loyiha tayyorlash topshirilgan. Loyiha tayyorlash uchun namuna va quyidagi ko'rsatmalar berilgan:

- a. Kerakli narsalar;
- b. Yetishtirish jarayoni;
- c. Olinadigan foyda.

Bunda o'quvchilar erkin fikrlab, chizmalar asosida ijodiy yondashib fikrlarini yozib, keyingi darsda esa tayyorlagan loyihalarini sinfdoshlari oldida taqdimot qilish imkoniyati ham berilgan. Bu topshiriqdan asosiy maqsad o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish hamda ularga ko'pchilik oldida nutq so'zlashni o'rgatishdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Адизова Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ". *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 513-516.

2. Adizova Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI". *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

3. Amonov U.S. O'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124. U.S. Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD) M.Q. Salohiddinova, BuxDU boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.

4. Bakhtiyorovna N.A., Bakhtiyorovna N.A. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin.

5. Bakhtiyorovna N.A., Dilsora E. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545 b.

6. Mavlonova K. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.

7. Mavlonova K. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. [Matn]: 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b.

8. Зиёмухаммадов Бўри. Педагогик махорат асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент – “ТИБ-КИТОБ”. – 2009.

## BOSHLANG'ICH SINIF DARSLIKLARIDAGI NOTANISH SO'ZLARINING XUSUSIYATIGA BOG'LIQ RAVISHDA ULARNI TUSHUNTIRISH USULINI TANLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Rajabova Xurshidabonu G'olib qizi

*BuxDPI 2-bosqich magistranti*

**Tayanch so'zlar:** so'z boyligi, notanish so'zlar, so'z ma'nosini tushuntirish usullari, rasmini ko'rsatish, sinonim keltirish, xususiy tushunchalarni sanash, morfemalar orqali aniqlash, tasviriy yo'l bilan tushuntirish.

**Ключевые слова:** словарный запас, незнакомые слова, способы объяснения значения слов, показ картинки, приведение синонима, подсчет конкретных понятий, определение через морфемы, объяснение описательным способом.

**Key words:** vocabulary, unfamiliar words, ways of explaining the meaning of words, showing a picture, bringing a synonym, counting specific concepts, defining through morphemes, explaining in a descriptive way.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish kitobida uchraydigan o'quvchilar uchun tushunarsiz so'zlar mazmuniy xususiyatiga ko'ra turlichadir. Shuning uchun bu so'zlarning ma'nosini tushuntirishda ularning xususiyatiga mos ravishda eng samarali usulni tanlash lozim. Bu o'rinda bir necha darslikdagi so'zlar misolida so'z ma'nosini tushuntirishning samarali usulini tanlash haqidagi fikrlarimizni bayon qilamiz.

1-sinf ona tili darsligida o'quvchilarga ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlar ancha uchraydi. Ularning ma'nosini yuqorida ko'rsatilgan va boshqa usullar bilan tushuntirish mumkin. Darslikda uchraydigan quyidagi so'zlarning ma'nosini rasmini ko'rsatish yo'li bilan tushuntirish mumkin: yalpiz, isiriq, kiyiko'ti, ermon, kashta, garmdori, qal'a, fabrika, raketa, chang'i, qur'on, so'na, so'gal, sa'va, to'ng'iz, turna, sholi, sharshara, charos, shabnam, gumbaz, marvaridgul, soda, sa'va, olxo'ri, qoveqav, husayni, chang'i, konki, pmaroxod, qayin, zarg'aldoq, do'lana, tola, parovoz, teplovoz, elektrovoz, vagon, tog'olcha, metro, kamalak, tuman, mosh, binafsha, chuchmoma, gulsapsar, norin, shilpildiq, qorag'ay, karvon, zangori, feruza, peshayvon, na'matak, qirg'iy, olcha.

Quyidagi so'zlarning ma'nosini ularga sinonim keltirish orqali tushuntirish mumkin. Istiqolol – mustaqillik, nurafshon – yorug', muborakbod etmoq – tabrikلامoq, samo – osmon, ko'k, gulshan – gulzor, sabo – shabada, munosabat – bog'lanish, dorivor – shifobaxsh, yaproq – barg, hadya etmoq – bermoq, sovg'a qilmoq, tub – tag, ahil – inoq, huvullamoq – bo'shamoq, javon – shkaf, dastyor – yordamchi, alloma – olimlar, muhlat – vaqt, darg'azab bo'lish – g'azablanish, shu'la – nur, ehtirom – hurmat, badavlat – boy, tazyiq – zug'um, an'ana – odat, ta'na – dashnom, ta'ziya – aza, ma'lumot – xabar, ma'yuslanmoq – xafa bo'lmoq, chashma – buloq, choq – payt, arg'imchoq – ip, darz – yorug', ranj – qiyinchilik, ganj – boylik, xazina, sust – sekin, bol – asal, tabassum – kulgu, muddat – vaqt, tasalli – yupanch, musaffo – sof, toza, mutolaa – o'qish, do'kon – magazin, zoriqmoq – muhtoj bo'lmoq, noyob – topilmas, undirmoq – o'stirmoq, mamnun – xursand, gavjum – to'la, surkash – surtish, ohista – sekin, et – go'sht, daromad – kirim, xontaxta – stol, javon – shkaf, xazonrezgilik – barglarning to'kilishi, ezgulik – yaxshilik, baldoq – halqa, najot – yordam, mo'tadil – o'rtacha, sarvqomat – tik, chanqagan –



suvsiragan, so'yla – gapir, so'zla, toblanmoq – chiniqmoq, gazlama – mato, yo'ldosh – hamroh, choyshab – ko'rpa, silliq – tekis, intizom – tartib, olam – dunyo, mug'ombir – ayyor, chaqa – tanga, parranda – qush, istirohat – dam olish, nishon – mo'ljal, tebranmoq – qimirlamoq, husn – chiroy, sohil – qirg'oq, pardozi – bezak, chaman – gulzor, parvarish qilmoq – boqmoq, olishmoq – kurashmoq, urishmoq, jaji – kichkina, mitti, mador – quvvat, g'ubor – chang, dog', jussa – gavda, o'git – nasihat, yumush – ish, jamlamoq – to'plamoq, lazzat – rohat, jasorat – jasurlik, ulug' – buyuk, tortig' qilmoq, sovg'a qilmoq, suyukli – sevimli, boqmoq – qaramoq, maftun bo'lmoq – mahliyo bo'lmoq, beg'ubor – toza, sov, ko'lanka – soya, ensiz – qisqa, enli – keng, g'alati – qiziq, hushyor – sezgir, ziyrak, sayyoh – sayohatchi, turist, ilk – birinchi, tashna – suvsiz, chanqoq, hangumang – hayron, bezovta – notinch, maysa – o't.

Bu usulni qo'llaganda o'qituvchi shuni nazarda tutishi kerakki, so'zlarni sinonim orqali tushuntirish o'quvchilar har bir izohlovchi sinonimning ma'nosini yaxshi tushungandagina maqsadga eltadi. Shuning uchun so'zning ma'nosini tushuntirish uchun keltiradigan sinonim sifatida faqatgina bolalar yaxshi tushunadigan umumiste'mol so'zlarni tanlash kerak.

Darslikdagi quyidagi so'zlarning ma'nosini ular nomlaydigan narsalarni sanab keltirish orqali tushuntirish mumkin.

Hasharot bu – qurt, chumoli, ari, qo'ng'iz, o'rgimchak.

Meva – olma, nok, anjir, o'rik, shaftoli.

Matn – hikoya, she'r, ertak.

Poliz – qovun, tarvuz, handalak.

Ajdod – ota, bobo, buvi, bobokalon.

Avlod – farzand, nevara, evara, chevara.

Texnika – traktor, mashina, dazmol.

Oromgoh – orom – o'zak, goh – so'z yasovchi qo'shimcha, joy degan ma'noni anglatadi.

Demak, bu so'z orom, dam oladigan joy ma'nosini bildiradi. Xabardor – xabar – o'zak, dor – so'z yasovchi qo'shimcha, egalik ma'nosini bildiradi. Demak, bu so'z xabari bor degan ma'noni bildiradi, qalamkash – qalam – o'zak, kash – so'z yasovchi qo'shimcha, tortmoq, chizmoq degan ma'noni bildiradi. Demak, bu so'z qalam bilan ishlovchi kishini, ya'ni shoir, yozuvchilarni bildiradi. Ma'rifatparvar – ma'rifat – o'zak, parvar – so'z yasovchi qo'shimcha, otdan anglashilgan narsani tarbiyalash, shunga yaxshi munosabat kabi ma'nolarini bildiradi. Demak, bu so'z ma'rifatni sevuvchi, unga intiluvchi degan ma'noni bildiradi. Da'vogar – da'vo – o'zak, gar – so'z yasovchi qo'shimcha, otdan ishlab chiqaruvchi kasb yoki faoliyat egasini bildiruvchi shaxs oti yasaladi. Demak, bu so'z da'vo qiluvchi degan ma'noni bildiradi. Ta'sirchan – ta'sir – o'zak, chan – so'z yasovchi qo'shimcha, egalik, ortiqlik ma'nosini bildiradi. Demak, bu so'z ta'siri bor, kuchli yoki ta'sirga tez uchraydigan degan ma'noni bildiradi. Ma'murchilik – ma'mur – o'zak, chilik – so'z yasovchi qo'shimcha. Bu so'zning ma'nosini bilish uchun o'zakning ma'nosini bilish kerak. Ma'mur so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida obod, farovon, to'kin deb izohlangan. Demak, ma'murchilik so'zi to'kinchilik ma'nosini bildiradi. Childirimkash – childirma – o'zak, kash – so'z yasovchi qo'shimcha kasb-hunar egasi bo'lgan shaxs oti yasaydi. Demak, bu so'z childirma chaluvchi degan ma'nonini bildiradi.

Gulchambar – guldan qilingan chambarak.

Sharsimon – shar – o'zak, simon – so'z yasovchi qo'shimcha, o'xshash degan ma'noni bildiradi. Demak, bu so'z sharga o'xshash degan ma'noni bildiradi.

O'quvchilarga so'z yasovchi qo'shimchani ma'nosi bir marta tushuntirilsa, shu qo'shimcha qo'llangan boshqa so'zlarning ma'nosini ularning o'zi aniqlayveradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. 1-qism. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
2. Baxtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
3. Bakhtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY". *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.10 (2022): 296-298.

4. Львов М.Р. Речь младших школьников и пути её развития. – Москва: «Просвещение», 1975. – 176 с. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Sharq", 2015. – 112 b.
5. Сафаров Ф. С. Бошланғич синф ўқувчиларига мавхум тушунчаларни образ воситасида тушунтириш. – "Педагогик маҳорат" журнали. Бухоро, 2013, 2-сон, 50 – 53-б.
6. Текучев А. В. Методика преподавания русского языка в средней школе. Москва, 1980. – 224 с.
7. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Sharq", 2015. – 112 b.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TEXNOLOGIYA DARSLARIDA MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TEXNOLOGIYA TA'LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Nozima Tursunova Ilhomovna**

*BuxDPI II bosqich magistranti*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida Milliy o'quv dasturi asosida texnologiya ta'limini tashkil etish metodikasi, usullari asosida yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** texnologiya darslari, kompetensiya, milliy dastur, milliy o'quv dasturi afzalliklari.*

Hozirgi vaqtda texnologiya fanining amaldagi joriy holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ladi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ta'lim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta'kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha harajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini ishlab chiqish va joriy etish vaziflari belgilandi. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muhandislik- kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda sanoatlashgan mamlakatda ta'lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oxirgi 30 yil ichida jamiyatni o'zgartirdi. Shu bilan birga, katta mehnat migratsiyasi, rivojlanmagan ijtimoiy infratuzilma qashshoqlik va ishsizlikning yuqori darajasi, infratuzilmaning eskirganligi, kadrlar kompetensiyalarining iqtisodiy rivojlanish strategik maqsadlariga nomuvofiqligi, intellektual mulkni himoya qilish muammolari, oliy ma'lumot olish imkoniyatlarining cheklanganligi, yuqori texnologiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, inson kapitali va imidjiga zarur miqdordagi investitsiyalarning sarflanmasligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, o'rta bo'g'in rahbar va xodimlarining past darajadagi malakasi, ishchilarda mehnatga nisbatan rag'batning yo'qligi, ishchi va muhandis-texnik kasblar obro'sining tushgani, eskirgan ish usullaridan foydalanish kabi muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar o'z iqtisodiy doktrinalarida tashqi tahdidlarga qarshi kurashishga, rivojlanayotgan mamlakatlar esa ichki tahdidlarga qarshi kurashishga ko'proq e'tibor berishadi.

Eng yangi avlod texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini pasaytirishi, shuningdek, o'sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkin. Xususan, sanoatda kutilayotgan yangi texnologik o'zgarishlar sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitish o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda maktabdan keyingi ta'lim bosqichi yoki mustaqil hayotga qadam qo'yishda zarur bo'ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni shakllantirishda asosiy yechim bo'lib xizmat qiladi.

Texnologiya fanini o'zlashtirgan umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilari sanoat sohasining barcha tarmoqlarida xususiy injiniring, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik bazalarining yanada rivojlanishi, bir so'z bilan aytganda, yuqori qiymatli raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida "drayver" rolini bajaradi. Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Isroil, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ham texnologiya fani umumiy ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.



Texnologiya fani bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari,

bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi; o'quvchilarda vatanparvarlik vamiilliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o'rta ta'limning zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" nomli PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi Respublika ta'lim markazi Umumiy o'rtata'lim Milliy O'quv Dasturi.

3. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2021-yil 23- sentabr O'RQ-637-son.

4. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (Texnologiya)

5. QOSIMOV F. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI SODDA MASALALAR BILAN TANISHTIRISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

6. Саидова М. Масофавий о'qitishni tashkil etish shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 141-150.

7. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". EUROPEAN RESEARCH.-2020.-S: 118-120.

8. Tilavova M.M. Boshlang'ich sinf mehnat darslarini tashkil etish texnologiyasi. T., 2008.

## YANGI AVLOD ADABIYOTLARINI YARATISHDA-BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHIDA FAOLIYAT YURITADIGAN PEDAGOGLARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Siddikov Xasan Taxirovich

Urganch davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasasida faoliyat yuritadigan pedagog-o'qituvchilarning boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirish usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, tolerantlik, intellekt, kreativlik, davlat ta'lim standartlari, nazariy bilimlar, modernizatsiya, malakaviy amaliyot.

Bugungi kun o'zbek pedagogikasi millat ruhi va tidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarida "Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz. Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi, hammasining zaminida tarbiya yotadi", degan fikrlar ta'kidlanadi. Ma'lumki, pedagogika jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan holda taraqqiy etadi. Bugungi kunda esa ana shu jarayon avj pallasiga kirdi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o'zgarish sezilmaydi. Modomiki, zamon jadal sur'atlarda o'zgaryapdimi, demak, pedagogika ham shu o'zgarishlarga hamohang bo'lmog'i darkor.

Pedagogika nima? U nima bilan shug'ullanadi? Pedagogika – tarbiya haqidagi fan. Pedagogika - o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan. Bu ta'riflardan voz kechmagan holda ta'lim-tarbiya muassasalarida shunga mutasaddi shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatni pedagogikaning bahsi deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Pedagogikada "tarbiya" so'zi turli ma'noda ishlatiladi. Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma'noda, ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy

vositalarini: oilani, maktabgacha tarbiya, o'quv-tarbiya muassasalarini, mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo'nalishida olib boradigan harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu tarbiya vositalari o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Pedagogik adabiyotlarda va amaliyotda "tarbiya" so'zi aniq, tor yo'nalishni belgilash uchun ham ishlatiladi. Shu ma'noda, tarbiyachi rahbarligida aniq maqsadga qaratilgan jarayon tushuniladi.

O'qitish – o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi. Ma'lumot – bunda nafaqat o'qitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi. Ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi ko'zda tutiladi. Inson kamoloti – bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi tushuniladi. Insonning shakllanishi – bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi. 2019-yil 23-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Respublikamiz xalq ta'limi xodimlari bilan qilgan muloqotida "...bugungi ustoz shogirdlarini o'z orqasidan ergashtira olishi lozim, agar ergashtira olmasa u ustoz emas," degan fikrlarni ta'kidlab o'tdilar. Demak, bugungi ustoz o'z shogirdlari oldida tashabbuskor, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishongan bo'lishi lozim. Kasbiy faoliyatga (kompetent) ega bo'lish uchun esa quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- a) kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish;
- b) yangidan-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- c) hamkorlik bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish.

O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchining salomatligiga ham muhim talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari yaxshi rivojlangan, ko'rish qobilyati yaxshi bo'lishi, uzoq vaqt tik tura olishi va o'quvchilar bilan chiroyli muloqatga kira olishi lozim. Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida ham o'qituvchining nutq gigiyenasiga doir maslahatlar bergan: "Uzoq muddat davomida qattiq tovush bilan baqirish ko'p miqdorda havoni tashqariga chiqarishni talab qiladi. Bularning har ikkisi ham xavflidir". Jamiyatda ro'y berayotgan barcha islohotlar, ta'limning yangi bosqichlarga ko'tarilishi, ilm-fan texnikasining jadal rivojlanishi, eng asosiysi yurtimizda ijod va Prezident maktablarining tashkil etilishi ham ta'lim tizimidagi innovatsiyalar hisoblanadi. Shuningdek, bugungi pedagog nafaqat ta'lim beruvchi, balki shu bilan bir qatorda tarbiyachi hamdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy- ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019- yil 3-maydagi PQ-4307-son qarorining tasdiqlanishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. "Ushbu UMT konsepsiyasi kompetensiyaviy faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvlar uyg'unligiga asoslanadi. Shuningdek, yoshlarda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodaviylik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni go'daklikdan boshlab bosqichma- bosqich shakllantirishga asoslangan" bu esa hozirgi zamon pedagogidan katta kuch va mas'uliyat talab etadi. Kreativ so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib "create" – yaratish, yondashish degan ma'noni anglatadi. Kreativlik – bu o'qituvchining yaratuvchanligi, o'z sohasi bo'yicha ijodiy faol faoliyatidir. Kreativlik bir necha faoliyatni qamrab oladi:

1. Akmelogik yondashuv.
2. Akseologik yondashuv.
3. Kreativ yondashuv.
4. Refleksiv yondashuv.

1. Akmeologik yondashuv bu – o'qituvchining o'z faoliyatida erishgan eng yuqori cho'qqi hisoblanadi.

2. Akseologik yondashuv – bunda o'qituvchi pedagogik faoliyatida qadriyatlarga, milliy urf-odatlariga e'tibor berishi ko'zda tutiladi.

3. Kreativ yondashuvda o'qituvchining ijodkorligi namoyon bo'ladi.

4. Refleksiv yondashuvda o'qituvchi o'zining kundalik faoliyatini oldindan tasavvur qiladi, bugun ta'lim jarayonida qanday faoliyat yuritadi va dars oxirida o'z mehnatini tahlil qiladi.

Bugungi kunda ta'lim mazmunida modernizatsiya ishlari, ya'ni DTS da, o'quv rejasida va fan dasturlarida ham islohatlar olib borilmoqda. Bugungi zamon o'qituvchisi yuqoridagi islohatlarni ham hisobga olishi zarur.

Pedagogning kreativligi haqida fikr yuritganda biz standart va nostandart ta'lim shaklida ham fikr yuritmoqdamiz.

Standart – bu ta'lim mazmuniga mos shakldir, bunda o'qituvchi subyekt, o'quvchi, tinglovchi obyekt sifatida faoliyat olib boradi.

Nostandart ta'lim shaklida o'qituvchi ham o'quvchi, tinglovchi ham subyekt sifatida faoliyat olib boradi, o'qituvchi ta'lim jarayonida mustaqil qarorlar chiqarishi mumkin bo'ladi. O'qituvchining kompetentligida kasbiy bilim va madaniyat tushunchalarini to'g'ri tahlil qilishi lozim. Kasbiy bilim – bu o'qituvchining o'z sohasini mukammal bilishi bo'lsa, madaniyat tushunchasida uning nutq madaniyati, estetik va boshqa tomonlari namoyon bo'ladi. Kreativlik qobiliyatiga ega mutaxassis o'z bilimini izchil boyitib borishi, yangilikka intiluvchan mahorat egasi bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchi kompetentligini ta'minlaydi. Ta'lim tizimini boshqarish orqali har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishish maqsadida yangi o'quv dasturlari, darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, zamonaviy axborot vositalari yordamida video darsliklar, multimedialar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, "Yilning eng yaxshi o'qituvchisi" ko'rik-tanlovlari va musobaqalar tashkil qilinmoqda, biroq fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish darajasi sezilmayapti. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi tinglovchilar (o'quvchilar) uchun qiziq bo'lmayotganidadir, o'quvchilar uchun muayyan qolipga solingan bir xil dars o'tish usuli va o'quvchilarga bilimni bir xilda so'ralmaslik usulidir, rag'batlantirish berilmayotganligidir. Bugungi kunda ko'plab pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqotlarda intellekt va kreativlik tushunchalarining aloqadorligi haqida turlicha fikrlar mavjud. Intellekti yaxshi rivojlangan o'qituvchida kreativlik yuqori bo'ladi. Bu esa ish samaradorligini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflarda ko'zda tutilgan ta'lim samaradorligi boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida e'tirof etilgan g'oyalari asosida yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, o'quv jarayonini tashkil etishning metod va mexanizmlari, o'qitishning innovatsion g'oyalari va vositalariga bog'liq, albatta. Lekin bu pedagogik jarayonda yuksak pedagogik malaka va kasbiy bilimga ega, dars mobaynida muammoli vaziyatlarni yarata oladigan va uni yechimi taklif eta oladigan boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd qilish lozim bo'ladi. Yuqori sinf o'qituvchisi tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarning fundamental asoslari va umumiy qonuniyatlari, ularni kishilik jamiyatidagi o'rni va ahamiyatini tizimli o'rgatishga, bilim berishning differensial jihatlariga ko'proq maqsadni yo'naltirsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik-psixologik bilimlar majmuasi, ta'lim samaradorligini oshirish metodlari, omil va vositalari bilan qurollangan, matematika, ona tili, tabiat, inson va jamiyat ta'lim sohalarining ilmiy-nazariy asoslarini mukammal bilgan holda bolaning yosh (fiziologik va psixologik) xususiyatidan kelib chiqib fanning umumiy jihatlarini o'rgatishga, ya'ni integrativ ta'lim berishga yo'naltiradi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolani o'yin faoliyatidagi elementlarni ta'limiy faoliyatga yo'naltirishni boshqara olish, mas'uliyatni his qilish, ayrim muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qila olish, vaqtni rejalashtirish,



o'quvchilarni istak-xoxishlariga e'tiborli bo'lish, shuningdek, ezgulikni qadrlab istiqbolli kelajakni ko'zlash fazilatlarining shakllanishiga mas'ul tarbiyachi hamdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yana bir muhim sifatlaridan biri-ta'limiy faoliyatni boshlang'ich va umumta'lim fanlarining uzviylik jihatlari hamda boshlang'ich ta'lim bosqichi fanlarining o'zaro aloqadorlik tamoyillari asosida tashkil etishidir. Yana bir muhim narsaga e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz, o'qituvchilik kasbining mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda o'qituvchilik kasbining asosiy xususiyatlari pedagogika fani orqali shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ta'lim jarayonini loyihalash, pedagogik texnologiyani o'zlashtirish, kommunikativ sifatlar va tadqiqotchilik faoliyatiga oid ko'nikmalar past darajada ekanligi tadqiqotlarda o'rganilgan va ushbu holatning sabablari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tish lozim:

- pedagogik amaliyot davrida bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilar jamoasi bilan individual muloqot o'rnatishga e'tibor qilinmaganligi;

- ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmasiga ega emasligi;

- bo'lajak o'qituvchilarning interfaol usul vositasida dars o'tishlariga yetarlicha ahamiyat berilmaganligi;

- pedagogika nazariyasi va amaliyoti bilan yetarli darajada tanish emasliklari

Tajriba va tahlillar asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va ularga qo'yiladigan talablarni optimallashtirishga qaratilgan quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- Ilmiy va ilmiy-pedagogik salohiyatdan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari tarkibini belgilash va ularga ajratiladigan qabul kvotalarini haqiqiy talab va ehtiyoj nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish.

- Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yosh o'quvchilarning ruhiy-fiziologik holatlarini e'tiborga olgan holda o'qitiladigan fanlar miqdorini belgilash.

- Viloyatlardagi o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari xodimlari tomonidan bevosita maktablarda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalarini ko'rib chiqish.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga oid qiziquvchanlik xususiyatlarini hisobga olgan holda universal bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar tayyorlash maqsadida o'quv rejasiga "Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi", "Olam tuzilishining yagona manzarasi", "Yosh davrlari psixologiyasi", "Pedagogik psixologiya" kabi maxsus kurslarini kiritish.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika fanini o'qitishda fanlararo aloqadorlik prinsipi asosida o'qitishning ishlab chiqilgan nazariy g'oyalari asosida o'quv jarayonida qo'llashga yo'naltirilgan dars loyihalarini ishlab chiqishni yo'lga qo'yishimiz lozimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.Mirziyoyev 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-sonli qarori (lex.uz/ru/docs/-4320700)

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-176 bet.

3. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. -T.: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni. 1998. -144 bet.

4. Avezov O.R.Psixologicheskie osnovi sozdaniya i razvitiya obrazovatelnoy sredi innovatsionnogo obucheniya. Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 23), 168-171

5. Avezov O.R.Sog'lom ona va bola jamiyat kelajagi. Pedagogik mahorat 4 (No. 9), 142-143

6. Avezov O.R.O'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish (suisid)ga ijtimoiy muhitning ta'siri. "Aktualnie nauchnie issledovaniya v sovremennom mire //Xalqaro ilmiy-amaliy ...

7. Mavlvanova R., N.Raxmankulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya" Toshkent "Voris-Nashriyot" . -2013, 240 b.

# TEXNOLOGIYA DARSLARINI MILLIY DASTUR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING HOZIRGI HOLATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Nozima Tursunova Ilhomovna**

*BuxDPI II bosqich magistranti*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada texnologiya darslarini milliy dastur asosida tashkil etishning hozirgi holati yoritib berilgan.

*Kalit so'zlar:* texnologiya darslari, kompetensiya, milliy dastur, milliy o'quv dasturi afzalliklari, innovatsiya, shaxsiy sifatlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar istiqbollar, ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi. O'quvchilarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash jarayonida maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash asosiy vazifa sifatida belgilab berildi. O'qituvchilik katta san'atdir. Bu san'atga pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun o'qituvchilik kasbiga, ya'ni kelajak avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy- siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar. Mashhur pedagog, o'zbek maktabi asoschisi Abdulla Avloniy ham o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasida qarashlarini ifodalab, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida otaonalar o'ziga xos rol o'ynashi, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida esa o'qituvchining o'rni beqiyos ekanini ta'kidlaydi. Ya'ni bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning "diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa", o'quvchi "fikrining quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur". Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fani o'qituvchidan nafaqat kasbiy tayyorgarlikni, balki yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lish, texniktexnologik tafakkur, ijodkorlik qobiliyati, ta'limga innovatsion yondashuv kabi tendensiyalardan xabardorlikni talab qiladi.

Texnologiya fani o'qituvchisining vazifalari. Texnologiya fani darslarini tashkil qilish o'qituvchiga katta talablarni qo'yadi. Jumladan, nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga nisbatan o'ta hushyor bo'lish, barcha ishlarni oldindan ishlab chiqilgan va belgilangan tartib bo'yicha tashkil etish zarur. Bu jarayonda o'qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Darslarni tashkil qilishda XXI asr ko'nikmalariga amal qilish va ularni o'quvchilarda ham shakllantirib borish:

- savodxonlik (tillarni bilish, raqamli savodxonlik, ilmiy savodxonlik, media (AKT) savodxonlik, moliyaviy savodxonlik, fuqarolik va madaniy savodxonlik kabilar);
- kompetensiyalar (tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, muammoni yecha olish, tadqiqotchilik ko'nikmalari va metodlari, kommunikativlik, hamkorlikda ishlay olish kabilar);
- shaxsiy sifatlar (moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, liderlik, tirishqoqlik, qiziquvchanlik, mas'uliyatlilik, mustaqillik, vatanparvarlik kabilar).

2. Texnologiya fani o'qituvchisi yoki o'quv ustasi barcha darslarga oldindan har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rish zarur: Nazariy darslarga tayyorgarlik ko'rganda:

- nazariy darslar uchun barcha hujjatlar (darslik, o'quv metodik qo'llanmalar, didaktik tarqatma materiallar va boshqalar)ni oldindan tayyorlab qo'yishi;
- ko'rgazmali o'quv qurollari, elektron resurslardan mavzuga mos holda foydalanishni rejalash;
- darsda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan o'rinli

foydalanish. Amaliy mashg'ulot darslariga tayyorgarlik ko'rganda:

- amaliy mashg'ulot darslari natijalarini oldindan mo'ljallash;
- barcha asbob-uskunalar, moslama va dastgohlarni ishga sozlab qo'yish;
- o'quvchilar bajaradigan amaliy ishlarga mos material yoki xomashyoni oldindan tayyorlab qo'yish;

– ishlarni belgilangan xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda tashkil qilish. Loyiha ishi mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rganda: – loyiha ishi mashg'ulotlari natijalarini oldindan mo'ljallash;

– barcha asbob-uskunalar, moslama va dastgohlarni ishga sozlab qo'yish; – o'quvchilar bajaradigan amaliy ishlarga mos material yoki xomashyolarni oldindan tayyorlab qo'yish.

3. Darsga kirishishdan oldin o'quvchilar bilan dastlabki instruktaj (yo'riqnoma) o'tkazish. Instruktaj (fransuzcha "instruire" – o'rgatish, ko'rsatma berish) – topshiriqni tushuntirish va taqdim etish turi. Instruktaj tushunchasi o'rnida "yo'riqnoma" tushunchasi ham ishlatiladi. Tarkib jihatidan instruktaj (yo'riqnoma) odatda kirish, joriy va yakuniy qismlarga bo'linadi.

4. O'quvchilarga xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalariga oid instruktaj bergach, u bilan tanishganlik to'g'risida maxsus daftarga imzo qo'ydirib olish hamda tegishli qoidalarni o'rganib olgunga qadar o'quvchilarni amaliy ishga qo'ymaslik kerak.

5. O'quvchilarga xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalarini tushuntirib borish. Jumladan, o'qituvchi ishni bajarish tartibini tushuntirish bilan bir qatorda ishning buzilishiga olib keladigan sabablarni ta'kidlab o'tishi va buning oldini olish choralarini ko'rsatib berishi zarur.

6. O'quvchilarni xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda maxsus ish kiyimida (xalat yoki fartukda) bo'lishini tekshirish. Kiyimlar betartib bo'lmasligi, tugmalari qadalgan, yenglari shimarilgan yoki tugmalari qadalgan bo'lishi, galstuk yoki sharflar osilib qolmasligi (sharflar odatda yechib qo'yiladi), qizlarning sochlari ishdanoldin turmaklanib, ro'mol ostiga olinishi kerak.

7. Asbob-uskunalar, moslama va dastgohlarning ishga yaroqliligini nazorat qilish.

8. Mashg'ulot davomida o'quvchilar ish o'rinlarini tartibli va ozoda tutishlarini kuzatib borish.

9. Mashg'ulot vaqtida o'quvchilarning asbob-uskunalaridan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy amal qilishlarini nazorat qilib borish.

10. O'quvchilarning jadval asosida navbatchilik qilishlarini tashkillashtirish: – ish o'rinlariga asbob-uskuna va xomashyolarni tarqatish;

– mashg'ulotdan so'ng asbob-uskunalarini yig'ishtirib, joy-joyiga qo'yish.

11. Dori qutisini ishlatilishiga qarab to'ldirib borish, birinchi yordam uchun zarur bo'lgan dori-darmonlarning hamma vaqt mavjud bo'lishini nazorat qilish.

12. Barcha umumta'lim fanlari, xususan, STEAM fanlari bilan o'zaro fanlararo integratsiyani ta'minlash va ulardan foydalanish.

Texnologiya fanini o'qitishning konseptual asoslari sifatida shuni qayd etish joizki, texnologiya fanini zamonaviy talablar asosida o'rganish:

❖ texnologiyalarni o'zgartirish jarayonida tushunish, qo'llash, nazorat qilish, mukammallashtirish va baholash;

❖ loyihalashtirish, izlanish, boshqarish kabi universal faoliyatni o'zlashtirish;

❖ qarama-qarshiliklar masalasini yechish mahoratini namoyon qilish orqali samarador va to'g'ri texnologiyalarni tanlash;

❖ nostandart fikrlash va faoliyat yuritish ko'nikmasini shakllantirish orqali yangi mahsulot, xizmatlar va mehnatga ta'sir o'tkazishning yangi uslublarini yaratish va h.k.

❖ ta'lim jarayonida har xil kasbiy ko'nikmalarni egallash orqali mustaqil hayotda zarur bo'ladigan bo'lajak kasbni to'g'ri tanlash;

- ❖ mehnat qilish, yangi bilimlarni egallash, mukammallikka erishish uchun o‘z ustida mustaqil ishlash va amaliy faoliyat yuritish;
- ❖ tez o‘zgaradigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchan, noaniq vaziyatlarda mustaqil ta‘lim olishga tayyor o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash kabilar asosida tashkil etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Umumiy o‘rta ta‘lim muassalarida ma‘naviy-ma‘rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish” konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yildagi 588-son. // <http://www.lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta‘limi Vazirligi Respublika ta‘lim markazi Umumiy o‘rta ta‘lim Milliy O‘quv Dasturi. (Texnologiya)
3. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Умарова Г.У. Учебные задачи как средство активизации учебной деятельности учащихся на уроках математики //Обучение и воспитание: методики и практика. – 2015. – №. 19. – С. 54-60.
4. M.Tilavova “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma M.Buxoro: OOO“Sadrididdin Salim Buxoriy “Durdona, 2021-312b.
5. Saidova M.J. BOSHLANG‘ICH SINIF MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.
6. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.
7. Tilavova M.M. Boshlang‘ich sinf mehnat darslarini tashkil etish texnologiyasi. T., 2008.

### TURKISTON JADID MAKTABLARI TARAQQIYOTIDA ISMOIL GASPRINSKINING O‘RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Axrorov Ixtiyor Doniyorovich*

*Buxoro davlat Pedagogika intituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqning ma‘rifati, millatning taraqqiysi uchun kurashgan buyuk ma‘rifatparvar ziyoliy Ismoilbek Gasprinskiy jadid maktablariga asos solishi ta‘lim-tarbiya va darslik adabiyotlar nashriga oid faoliyati tarixiy manbalar asosida ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Abdulg‘ani Boy Xusayinov, “Xo‘jayi sibyon”, “Forscha alifbolar tarixi”, “Guldastayi adabiyot”, forsiy, turkiy, Tarjimon va hokazo.

Islom azaldan ikki narsaga – ma‘rifat va ibodatga tayanadi. Shuning uchun ham musulmonlar istiqomat qiladigan hamma joyda masjid va maktab bor, - deydi I.Gasprinskiy. Avvalgi vaqtlarda bunday musulmon maktablari yetarli edi, ammo hozirgi paytda ular isloh etishni talab qilayapti. Shuning uchun 1884-yilda biz ta‘limning yangi tizimi (usuli jadid) hakidagi masalani pishitishga kirishdik va Bog‘chasaroyda maktab ochdik. Unda bolalarga yangi **tovush** usuli asosida savod o‘rgatilar edi. Bu maktabning muvaffaqiyati boshqalarga hamdalda bo‘ldi bu usulning dovruq‘i, hatto, Turkistonning eng olis viloyatlarigacha yetib borishga sabab bo‘ldi.

Gasprinskiy (G‘asprali) Ismoilbek (1851.21.3, Boqchasaroy yaqinidagi Ajiko‘y qishlog‘ida tug‘ilgan) – jadidchilik harakatining asoschisi, yozuvchi va publitsist. Gasprinskiyning otasi Mustafo Gasprinskiy Rossiya harbiy dvoryani (praporshchik) bo‘lib, Yalta shahri yaqinidagi Gaspra qishlog‘idan edi. Gasprinskiy qishloq musulmon maktabi, Oqmachit (hozirgi Simferopol) gimnaziyasi va Voronejda, Moskva kadetlik korpusida o‘qidi (1864–67).

Rusiya imperiyasidagi milliy pedagogika tarixining eng yorqin sahifalari jadidchilarning ta‘lim sohasida olib borgan islohotlari bilan bog‘liq. XIX asr oxirida boshlangan ushbu islohotning nazariyotchisi ham amaliyotchisi Ismoil Gasprinskiy edi. Jadidchilikning o‘zi paydo bo‘lishi ham mana shu islohot bilan chambarchas bog‘lik. Ta‘lim sohasida islohot nima uchun

zarur bo'lib qoldi? Nima uchun jadidchilik harakati vakillari o'z e'tiborlarini birinchi navbatda maktabga qaratdilar? Gasprinskiy islohot haqida gapirar ekan, musulmon jamiyatini muntazam bir shaklga olib kelish, uni zamonaviylashtirish va zamonga muvofiq o'zgarishlarga tayyorlashni nazarda tutadi.

Gasprinskiyning hisob-kitoblariga qaraganda, 1881-yili Rusiyada 16 million musulmon bor edi. Ularning qo'l ostidagi 16 ming boshlang'ich maktab va 214 madrasada yarim million bola tahsil olgan. Xo'sh, bu maktablarda tahsil qoniqarlimidi? Yo'q, o'quvchilar besh yilda ham besh satr yozish yo o'qishni eplay olmas edilar. Maktablar rasman diniy hisoblanib, shariat idoralarining nazorati ostida bo'lgan. Aslida esa bu maktablarni kech kim nazorat ham, taftish ham qilmas edi. Lekin omma afkori harakatga keltirilsa, maktab ishiga jalb etilsa, bir qancha ishlarni amalga oshirish mumkinligini anglagan Gasprinskiy butun kuchini shu ishga tashladi va islohot kilish uchun barchani da'vat qila boshladi. Eski maktablar islohini amalda ko'rsatishga harakat qilgan Gasprinskiy 1884-yili birinchi "usuli jadid" namuna maktabini ochdi.

"1884 sanasi Boqchasaroyda bir maktabni usuli jadidaga qo'ygan edim, deb yozadi Ismoilbek, samarasi umid qilganimdan ham yaxshiroq bo'ldi".

Yangi maktab uchun Gasprinskiy o'zi alifbo yozib, o'sha yili "Tarjimon" bosmaxonasida nashr qildirdi. Bu uning mashhur kitobi "Xo'jayi sibyon" ("Bolalar o'qituvchisi") edi. Bu alifbo kitobi 1910-yilga qadar 27-marta qayta nashr qilindi. Namuna maktabining birinchi muallimi Gasprinskiyning shogirdi Bakir afandi Emakdor edi. Yangi maktabda diniy ilmlar bilan bir qatorda turkcha o'qib-yozish, matematika, tarix, geografiya fanlari ham o'quv dasturiga kiritilgan edi. Gasprinskiy yozadi:

"Bogchasaroyning "qaytmaz og'a" mahallasidagi haroba maktab binosi bir oz ta'mir qilindi va talabadan Bakir afandi Emakdor taklif qilinib usuli savtiya, didaktika va pedagogikaning eng ilg'or jihatlari bu afandiga o'rgatilib, "birinchi muallim" tayyorlandi.

Mana shu tayyorlangan dastur asosida 1884-yili "Birinchi maktabi jadidni" ochdim. Maktabda o'tiladigan alifbo men tomonimdan yozilgan "Xo'jayi sibyon" edi. Maktabda o'qitish muddati uch yil. Dastur - turkcha bo'lib, yozmoq, Qur'on qiroati, ilmi hol, usnixat, turkiy til grammatikasi, zehni hisob, arifmetikadan to'rt amaliyot, islom tarixi hamda geografiya, tarix va gigiyenadan juda sodda va o'quvchiga ma'lumot berishdan iborat edi".

Gasprinskiy ta'kidlashicha, ushbu birinchi yangi usul maktabida bolalar tekinga o'qitilib, hatto kitob va daftarlari ham maktab tomonidan berilgan.

Yangi maktabda dars 12 bola bilan boshlangan. Har kuni darslar to'rt soatdan iborat bo'lib, qirq besh kun davom etgan. Qirq oltinchi kuni birinchi imtihon kuni, deb e'lon qilinib, shaharning mo'tabaroni taklif qilinadi. Taklif qilingan 200 kishidan 30 kishi imtihon marosimiga keladi. Qolganlari esa "bo'lmagan ish", deb kelmaydilar. 1898-yili Ismoil Gasprinskiy tarafidan "Tarjimon" bosmaxonasida yangi usul muallimlari uchun qo'llanma hisoblangan "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" kitobi nashr qilinadi. Kitobda muallif yangi usul maktablari tashkili, o'quv jarayoni, ularni eski usuldan farqlarini aniq ko'rsatib beradi.

Usuli savtiyani amaliyotda qo'llanishini jadallashtirish uchun, yuqorida aytib o'tganimizdek, Gasprinskiy boshlang'ich sinflar uchun darslik tayyorlab nashrdan chiqardi. U tomonidan tayyorlangan darslik 4 qismdan iborat bo'lib, osondan qiyinga yo'naltirilgan edi. Darslikdagi har bir dars oldingisini davom ettiradi. Bu usul o'quvchilarni dars mazmunini oson o'zlashtirishlari uchun juda qulay edi. Gasprinskiy islom mutassibligini yenggan holda darslikda har bir mavzu bolaga yanada tushunarliroq bo'lishi uchun turli predmetlar, hayvonlar, qushlar va hasharotlar rasmlarini ko'rgazma sifatida ilova qiladi. Bu darslikning nomi "Xo'jayi sibyon" edi. Darslikning muqovasida "Bolalarning besavodligi uchun ota-onalari mas'uldir", degan shior katta kilib yozib qo'yilgan.

Darslikning birinchi qismi alifbodan boshlanadi. O'quvchi bir harf bilan tanishgandan so'ng muallim unga harfning yozilish shakllarini ko'rsatadi. O'quvchilar bir vaqtning o'zida o'tilgan harfni ham o'qishni, ham yozishni o'rganib boradilar. O'quvchi harfni esida oson saqlab qolishi uchun harf katta qilib yozilib, yonida shu harf bilan boshlanadigan predmet yoki hayvon rasmi berilgan. Alifboni to'la o'rganish uchun 27 maxsus dars belgilangan. O'quvchi

alifboning hamma harflarini to'la o'zlashtirib olganidan keyin kichkina hikoyalar o'qishga o'tadi. Hikoyalar o'qib tugatilganidan so'nggina arab tili asoslarini o'rganishga o'tiladi. Buning uchun 13 dars belgilangan.

Darslikning ikkinchi qismi muqovasida "Turk tilini o'rganish uchun maxsus darslik" degan yozuv bor. Bu qism "Ona tili va arab tili asoslari" mavzusi bilan boshlanadi. Muallif bu yerda bolalar berilgan matnlarni anglagan holda to'la tushunishlari kerakligini uqtiradi. Bolaning o'qish malakasini shakllantirish uchun bu qismga bir necha hikoyalar kiritilgan. Gasprinskiy, har bir o'quvchi hikoyani og'zaki o'qiganidan so'ng so'zlab berishi va uni to'la o'zlashtirganidan so'ng keyingisiga o'tishi kerakligi to'g'risida tavsiyalar beradi.

Uchinchi qism o'qishga o'rgatish va foydali xabarlar" deb nomlangan. O'qish uchun quyidagi matnlar tavsiya kilinadi: "Qrim", "Dunyo odamlari", "Ishonch", "Axlok", "Cho'pon qizi" (she'r), "Eshak va bulbul", "Chumoli va chigirtka", "Tirishqoq bola", "Rus tarixidan", "Vulqon", "Tulki va turna", "Qrim xonligi", "Ikki rus bolasi", "qayiqda sayohat", "Biz o'qishimiz kerak".

To'rtinchi qism ham oldingisi kabi nomlangan bulib, o'qish uchun quyidagi matnlar berilgan: "Qrim-yashil orol" (she'r), "Asir va sher", "Ikki buyuk shoir" (Navoiy va Pushkin), "Rusiya aholisi", "Shimol mamlakatlari", "Dengiz baliqlari", "Janub mamlakatlari", "Xo'ja Nasriddin" (latifalar). Ushbu kitob oz muddatda 4 ming nusxada tarqaldi.

Gasprinskiy o'z g'oyalarini targ'ib qilish maqsadida turli yo'llardan unumli foydalanishga harakat qildi. Xususan, har yili o'tkazilib turgan, Kavkaz, Osiyo va Rusiyaning turli taraflaridan musulmon savdogarlari keladigan Makariya yarmarkasi ana shu yo'llarning biri edi.

"Kavkaz, Osiyo va Rusiyaning har tarafidan musulmon sadogarlari ko'plab yig'iladigan Makariya yarmarkasi Nijniy Novgorod shahrida iyul oyining 15 dan avgustus oyining 25 iga qadar davom etar edi.

Men har yili bu yarmarkaga borib, besh- o'n kun davomida yangi usulni targ'ib qilar edim".

1887-yili Boqchasaroydagi birinchi namuna maktabi muallimi Bakir afandi Emakdor Ryazan viloyati, Xon Kermon shahriga yuboriladi va u yerda "Ikkinchi namuna maktabi" ta'sis kilinadi. Nijniy Novgorod, Tambov, Penza viloyatlari musulmonlari orasida usuli savtiya va islohi tadriski o'rgatish va yoyish Bakir afandi zimmasiga yuklatiladi.

Xulosa o'rni shuni ta'kidlash kerakki, dunyo mamlakatlarini hayratiga sabab bo'lib kelayotgan Sharq didaktik tarbiya madaniyati tarixi va milliy o'quv dasturlarining, zamonaviy ta'lim, yangi avlod darsliklarining ma'naviy ildizlari jadid maktablari tizimidan suv ichib, nur emganligi bilan o'zgacha ahamiyatlidir. Bugungi zamon pedagogikasi, ta'lim-tarbiya tizimi, milliy darsliklar, yangi avlod darsliklarining yuksak strategiyalar asosida vujudga kelishida Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining sharaflari va jasoratli yuksak zahmatlari o'ziga xos ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Turkiston jadidlarining ta'lim va tarbiyaga oid faoliyatini chuqur ilmiy tahlillar asosida talqin qilish bugungi zamon ilm- fani oldida turgan muhim vazifadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axrorov I. ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №.
2. Bakhtiyorovna A.N. and A.N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district". *Middle European Scientific Bulletin* 4 (2020): 41-43.
3. Donyorovich A. I. JADIDLARNING DARSLIKLAR YARATISH FAOLIYATIGA OID AYRIM MULOHAZALAR //Conferencea. – 2023. – C. 118-123 \
4. Farxodjonova N.F."Jadid harakati namoyondalarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri". Xorazm. Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 11\3. 2022. B-84-85.
5. Gafarov S. Ismail Gasprinskiy - velikiy prosvetitel. S.: Tarpan, 2001, str. 57-58.
6. Ismail Gaspirinskiy I Turkestan. Sbornik statey. Tashkent. Shark. 2005.
7. Inqilob jurnali. 1922-yil 3-son.
8. Ismoil Gasprinskiy. Turk yurduchilarina. Turk yurdu, 1-jild, 1912, 8-son, 237-bet.
9. Jumayev R. Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2020. –T. 2. –No. 2.



10. Kasimov A. A., Axrorov I. D. The methodical principles of organizing students independent work in mathematics //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11. – C. 38.
11. Mahmudxuja Beubudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1997, 163-bet.
12. Qosimov B. Milliy uyg'onish. T.: Ma'naviyat, 2002, 20-bet.
13. RAHMATOV H., AXROROV I. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA DIDAKTIK O'YINLAR //EDAGOGIK AHORAT. – C. 118.
14. Yangi gap. \ \ Turkiston. 1923. 7-fevral.

## ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI HIKOYALAR ORQALI O'QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Alimova Mavluda Adiz qizi**

*BuxDPI tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida dunyo to'g'risidagi tasavvurlar dastlab kichik-kichik nasriy asarlarni o'qish orqali shakllanadi. Ayniqsa, hikoya va ertaklar hajman kichik, tili sodda, bola uchun tushunarli bo'lganligi uchun ham ularni o'qish o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirmaydi. Ushbu maqolada Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklaridagi hikoyalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish to'g'risida ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** darslik, ona tili va o'qish savodxonligi, o'quvchi, hikoya, nasr, fikrlash, boshlang'ich sinf, rivojlantirish.

**Annotation:** Young schoolchildren's ideas about the world are first formed by reading small prose works. Especially since the stories and fairy tales are small in size, the language is simple and understandable for children, reading them is not difficult for students. This article presents some information about the development of thinking skills of primary school students through stories in the Mother Tongue and Reading Literacy textbooks.

**Keywords:** textbook, mother tongue and reading literacy, reader, story, prose, thinking, primary grade, develop.

**Аннотация:** Представления младших школьников об окружающем мире формируются сначала при чтении небольших прозаических произведений. Тем более, что рассказы и сказки небольшого размера, язык простой и понятный для детей, чтение их не составляет труда для школьников. В данной статье представлены некоторые сведения о развитии навыков мышления учащихся начальных классов через рассказы в учебниках «Родной язык и читательская грамотность».

**Ключевые слова:** учебник, родной язык и грамотность чтения, читатель, рассказ, проза, мышление, начальный класс, развивать.

Fikrlash – bu voqelikni bilishning eng yuqori darajasi. Fikrlashning hissiy asosini sezish, idrok qilish va tasvirlash tashkil etadi. Fikrlash xususiyati har bir sog'lom insonda mavjud. Kichik yoshdagi bolalardan boshlab to'yetuk insonlargacha barcha fikrlaydi, tasavvur qiladi, o'ylaydi. Insonda fikrlash qobiliyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, u shunchalik yetuklikka qarab boradi. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kichik yoshdan boshlash bu komil insonni tarbiyalash demakdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini o'qituvchilar dars jarayonida bevosita rivojlantirib borishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi ona tili va o'qish savodxonligi darslarida berilgan hikoyalar hayotiyligi va kundalik turmushimizda uchraydigan voqealar aks ettirilganligi uchun ham o'quvchilarda ularni o'qishga qiziqish ortib boradi hamda pedagoglarga bir muncha yengilliklar yaratib beradi. Hayotiy voqealarga asoslangan hikoya va matnlarni o'qish orqali ularning tasavvur doiralari yana kengayadi, fikrlash jarayoni esa oson kichadi.

Keling, Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf (1-qism) darsligidagi "Izzatning jo'jalari" hikoyasini tahlil qilib chiqsak:

### **Izzatning jo'jalari**

Munisa uyda yolg'iz zerikdi. Hovlidan chiqib qarasa, qo'shnisi Izzatlarning eshigi ochiq turibdi. Munisa ularning darvozasidan mo'raladi. Izzat hovlida o'ynab o'tirardi.

- Izzat! – chaqirdi Munisa. Izzat uni ko'rib jilmaydi.

- Esingdami, jo'jalarini ko'rsatmoqchi eding, - dedi.

- Yur, ko'rsataman, - dedi Izzat

Izzat Munisani tovuqxonaga boshladi.

- Bizda-chi, beshta jo'ja bor. Ular sariq tovuqning bolalari.

Katakda kattakon sariq tovuq edi. Uning yonida jo'jalari chip-chiplab yurardi. Onatovuq yer titib, ularga nimalarnidir topib berar edi. Bolalarni ko'rdi-yu, darrov qurillab hurpaydi.

- Tovug'ing qizg'anchiq ekan, - dedi Munisa, - men jo'jalarini ko'rmoqchidim.

- Birpas berkinib tursak, bolalari yana chiqadi, - dedi Izzat.

Ular biroz yashirinib turishdi. So'ng jo'jalar birin-ketin onasining pinjidan chiqishdi. Munisa ularni miriqib tomosha qildi.

### *Muhabbat Hamidova*

Jo'jalar... Bolalar uchun kuzatish hamma vaqt maroqli bo'lgan mashg'ulot. Uning chiroyliligi, yoqimtoyiligi ularni o'ziga jalb qiladi. Har bir bola hech bo'lmaganda bir marotaba uni kuzatishga va tutishga harakat qilgan. O'quvchilar hikoya orqali maroqli bo'lgan bu mashg'ulotning zavqini yana bir bor o'zlarida his qilishadi. Ushbu hikoya kundalik turmushimizda uchratish mumkin bo'lgan voqealardan olingan bo'libgina qolmay, bolalar uchun notanish bo'lgan yana bir holatni ochib beradi. Nima uchun tovuq jo'jalarini ko'rsatishga qizg'anchilik qildi?

Nima uchun Munisa va Izzat yashiringanlaridan keyin tovuq o'z jo'jalarini erkin qo'yib yubordi? Mana shu kabi ma'lumotlarni o'quvchilar hikoya orqali o'rganib olishadi. Ona tovuq o'z jo'jalarining xavfsizligi uchun hurpayib oladi va ularni begonalardan himoya qiladi. Begonalar ko'zga ko'rinmay qolishi bilan ona tovuq o'zini erkin his etadi va jo'jalarini qanotlari ostidan qo'yib yuboradi. O'qituvchi bu hikoyani o'tayotgan paytda onalik hissi, onaning farzandlarini qay darajada himoya qilishi, farzandlarining xavsizligi unga nechog'lik muhim ekanligini tushuntirib borishi kerak. O'quvchilar esa ushbu hikoya orqali o'zlariga notanish bo'lgan holatning sababini tushunib olishadi.

**"Mozaika"**, ya'ni mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinishni hosil qilish. Bunda qushlar, hayvonlar, daraxtlar, mevalarning rasmlari bo'laklarga bo'linib, har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruhlarning qatnashchilari bo'lakchalarni bir butun ko'rinishga keltiradilar. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradilar.

**"To'xtab o'qish" usuli.** O'qituvchi matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to'xtab, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan matnga tegishli bo'lishi zarur. Yoki o'quvchi matn o'qish jarayonida to'xtatilib, nima haqida o'qiganligi so'raladi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

**"Zanjir" usuli.** Bu usulni she'r, topishmoq, maqollar berilgan darslarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar tartib bilan ketma-ket berilgan she'r misrasi yoki topishmoq qatorini aytadilar. Bu usul qo'llanganda o'quvchi uyalib qolmasligi uchun berilgan she'r, maqol, topishmoqni yod olishga majbur bo'ladi.

**III Reja. "Rasmi rebus" o'yini, "Rasmi rebus" o'yini, BBB (bilardim, bildim, bilmoqchiman) o'yini, BBB (bilardim, bildim, bilmoqchiman) o'yini, "Enyerjaynyer" o'yini, "O'z guruhingni top" o'yini.**

**"Kim tez bajaradi" o'yini.** O'quvchilar uch guru liga bo'linadilar. Har bir guruhga 5 tadan hayvonlar yoki qushlar rasmlari teskari qilib beriladi. Belgilangan vaqt ichida (1-2 daqiqada) o'quvchilar hayvon yoki qushlarni yovvoyi yoki uy hayvonlari ifiiruhlariga ajratadilar. Topishmoqni birinchi bo'lib xatosiz bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

**BBB (bilardim, bildim, bilmoqchiman) o'yini.**

Bu o'yinni "Suv – hayot manbayi", "Gigiyena – ozodalik kabi mavzularni o'tgandan so'ng o'y-nash mumkin. O'quvchilar uch guruhga bo'linadilar. Uchta guruhga ham jadval beriladi. Uch ustundan iborat bo'lgan jadvalning birinchi ustuniga mustaqil tarzda suv haqida bilganlarini yozish tavsiya etiladi. Ikkinchi ustunga dars davomida hamda darslikdan bllib olgan bilimlarini yozadilar.

Uchinchi ustunga esa imkon qadar bugungi kun tulabi, muammolar, bilishi zarur bilimlar haqida yozadilar.

*Masalan:*

Bilardim	Bildim	Bilmoqchiman
Itmigsiz	Hidsiz	Zararlanish mumkinmi?
Tiniq	Bug'-par	
Suyuq	Muz-qattiq	Suvsizlikka chidash mumkinmi?
Ichiladi	Havo bor	O'zbekistonda daryolar ko'pmi?
Yuviniladi	Qum bor	
Loyqa	Shaklsiz	

**"Enyerjaynyer" o'yini.** Bu o'yindan "Ob-havo", "Qish", "Yil fasllari" kabi mavzular o'tilganda foydalanish mumkin. O'quvchilar doira shaklida turib oladilar. O'qituvchi o'rtada qo'l harakati orqali tabiat hodisalarini avval sekin, so'ng tezlashgan holatda ko'rsatadi. O'quvchilar soat mili bo'ylab ushbu harakatlarni so'zsiz davom ettiradilar.

1. Shamol (qo'llar bir-biriga sekin ishqalanadi, so'ng bu harakat tezlashadi).
  2. Yomg'ir (qo'llar qarsillatiladi).
  3. Jala (qo'llar chirmashtirilib, yelkalariga uriladi).
  4. Do'l (tizzalarga shapatilab uriladi).
- Harakat asta-sekin teskarisiga qaytariladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nuriddinova M.I. "Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi". – Toshkent. 2005 y.
2. Sayfullaev G.M. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma. – Buxoro. 2020.
3. Sayfullaev G.M. Biologiya promislovix xishnix vidov rib, Nizovya basseyna reki Zarafshan. – Buxara. 2020.
4. Sayfullaev G., Alimova L., Ollokova U. Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us //Bridge to science: research works. – 2019. – C. 206-208.
5. Sayfullayev G. Methods of teaching younger students the ability to solve cognitive tasks of environmental protection //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 5. – №. 5.

## ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Latipova Shahrinoz Bobirovna

*BuxDPI magistranti*

***Anotatsiya:** boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush, unli va undosh, bog'in tushunchalariga nisbatan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish, va bugungi kunda bu kompetensiyalarda foydalana olish masalalari maqolada yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** tovush, unli, undosh, bo'g'in, kompetensiya, talaffuz, ovoz, shovqin, moslashuvchanlik, ko'nikma, malaka.*

Bugungi tez va o'zgaruvchan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda yosh avlodni yuksak ma'naviyatli va intellektual rivojlangan shaxs qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriyetish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Yildan yilga ta'lim sifatimiz takomillashtirilib borilyabdi. Bunda eng asosiy bo'g'in esa boshlang'ich sinf davridir. 1-sinfga qadam qo'ygan o'quvchiga alifbe kitobi berilishi bilan ularga maktab, dars, tabiat va artof muhitga oid tushunchalar beriladi. Bu davr bolalarda maktabga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Shundan so'ng alifbe davri boshlanadi, ya'ni tovushlar va harflar, bo'g'inlar tushunchalari shakllantirishga qadam qo'yiladi.

Bolalarda, avvalo, tovush va harf tushunchalarining farqini tushintirishimiz kerak. Kichik yoshdagi bolalar uchun tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta'rif berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida to'g'ri ilmiy tasavvur, amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning talaffuzi va tovushlarning tarkibiga bog'liqligini kuzatish hisoblanadi. **Tovush** haqidagi tasavvurni o'quvchilarda bir unli va bir undosh bilan farqlanadigan soda so'zlar bilan shakllantirish mumkin. Masalan: aka, uka, opa, ona, gul kabi so'zlar o'quvchilarda tovush haqidagi tasavvurni o'rgatishda juda qo'l keladi. **Harf** – tovushning yozuvdagi ifodasidir. Harfni biz o'qiy olamiz va ko'ra olamiz. Tovushni esa eshita olamiz va ko'ra olamiz. Keyingi qadam unli va undosh tovushlar tushunchalarini o'quvchilarda farqlay olish kompetensiyalarini shakllantirish. Alifbe kitobida so'zlardagi unli va undosh tovushlar qizil va ko'k ranglar bilan ko'rsatilgan. **Unli tovushlar** – og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi, faqat ovozdan iborat (ya'ni unli larni xohlagancha cho'za olamiz) va bo'g'in hosil qila oladi. **Undosh tovushlar** esa og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi, ovoz va shovqindan iborat va bog'in hosil qilish xususiyatiga ega emas. O'quvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yo'l qo'ymaslik, aksincha, 1-sinfdanoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq a'zolarining vaziyatini kuzatish ko'nikmasini o'stirib borish lozim. Bunday



kuzatishlar 4-sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Unli tovushlar orqali bo'g'inlar hosil qilinadi. Bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko'ra, o'quvchilarda so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi.

O'quvchilar so'zni bo'g'inlarga bo'lishda so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o'rgatish davridayoq hosil qiladilar. Bolalar yozilgan so'zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so'zda nechta unli bo'lsa, uni shuncha qism (bo'g'in)ga bo'ladilar. 1-sinfda o'quv yilining birinchi yarmida og'zaki va yozma tarzda bo'g'inlarga bo'lish, shuningdek, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, muayyan bo'g'inli so'z tanlash mashqlari har darsda o'tkaziladi. So'zni bo'g'inlarga to'g'ri va tez bo'lish ko'nikmasini hosil qilish 1-sinfda o'tkaziladigan muhim mashqlar qatoriga kiradi. O'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallashda mana shu ko'nikmaga tayanadilar. Tovush, unli, undosh, bo'g'in tushunchalari 2-sinfda yana kengroq o'rganiladi. Va shu davrdan o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish boshlanadi.

“Kompetensiya” lotincha – erishyapman, munosibman, loyiqman degan ma'nolarni bildiradi. O'qitishning lingvistik asoslari kommunikativ kompetensiyaning lingvistikaga oid ta'lim mazmunini aks ettirib standart, dastur va darsliklarda bayon etiladi. U yoki bu sohadagi bilim, tajriba, nutqiy yoki lingvistik kompetensiya esa nutq jarayonida erkin so'zlay olish malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi.

2-sinf darsligi 1-bo'lim: “Vatanparvarlik nima?” mavzusi

3-topshiriq: “O'zbekiston” deganda xayolingizga qaysi so'zlar kelyabdi? Ularni bo'g'inga ajratib yozing.

Namuna: Va-tan, ...

O'zbekiston tarkibidagi respublika va 12 ta viloyat nomini yozing.

O'quvchilar bu topshiriqni o'zlari mustaqil 1-sinfda egallagan bilimlari orqali bajaradilar.

Endi 3-sinfda bu bilimlar yanada mustahkamlanadi va amaliyotda tatbiq qilishga ko'proq diqqat qaratiladi. O'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay olish, talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish goidasiga rioya qilish, o'zlashtirgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda o'rinni qo'llay olish, nutqda so'zlarning grammatik shakllaridan to'g'ri foydalana olish, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyalari shakllantiriladi.

3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi “Tabiatni asraymiz” mavzusini.

3-topshiriq: Matnda uchragan quyidagi so'zlarni bir necha marta talaffuz qilib yozing. So'zlarning izohini lug'atdan bilib oling.

Ozon, atmosfera, molekula, xlor, ftor, brom, muzlatkich, sovitkich, Freon, krem.

O'quvchilar bu topshiriq orqali so'zlarni eshitib, xotirasida saqlab to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova Nigora Baxtiyrovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022.

2. Adizova Nodira. “BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'QITISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI”. *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).

3. Адизова Нодира Бахтиёровна. “АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ”. *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.

4. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.

5. Avezov O.R. [Psixologicheskie osnovi sozdaniya i razvitiya obrazovatelnoy sredi innovatsionnogo obucheniya](#). Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 23), 168-171.

6. Fayzullayevich F.K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – T. 6. – №. 06. – C. 107-111.

7. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САЊЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 2. –№. 2.
8. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №.2. – С. 140-144.
9. Mengliyev B.R. Til ta'limida kompetensiyaviy yondashuv// Ma'rifat. 2014.8-9 betlar.
10. Omonova D.N. Methodological fundamentals of linguistic competence in language teaching based on integrative approach // Middle European Scientific Bulletin.2021. – С.55-67.
11. Rakhmonovich A.R., Bakhtiyorovna A.N. [THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN'S FOLKLORE.](#)
12. Саидова Г., Н. Авлиёкулова. – Общество и инновации, 2022/4/28. [Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.](#)
13. Saidova G.E. – PEDAGOGS jurnali, 2022. [PIRLS-BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI.](#)
14. Саидова Г., А. Каххорова. – Общество и инновации, 2022/5/15. [Xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish.](#)
15. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH.*- 2020.-S: 118-120.
16. Саидова М. Во'лажак boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.
17. То'rayeva.S. Boshlang'ich sinf ona tili fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosidagi o'quv dasturi, darslik, metodik qo'llanmalar va ularning tahlili. – Buxoro: 2020 – yil.
18. Usmonov N., Xolboyeva G. va boshqalar. Boshlang'ich ta'limda kompetentlikni rivojlantirish omillari. Toshkent. "Fan va texnologiya", 2016. 152 bet.
19. Ёринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).*

## BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Idiyeva Niginabonu Erkin qizi**

*BuxDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi 2-kurs magistranti*

**Kalit so'zlar:** *axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, axborot texnologiya, interfaol metod, internet.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida axborotlar bilan ishlashda axborot texnologiyalarining tutgan o'rni haqida mulohaza yuritilgan.*

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish dars mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va kreativ, mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlamabarkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib borayotgani hech kimga sir emas. Bunday ekanligining sabablaridan biri, shu kungacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlantirishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, Sinkveyn, BBB, "Beshinchisi (oltinchisi, ... ) ortiqcha, 6\*6\*6, Bahs-munozara, Rolli o'yin, FSMU kabi metodlar, pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda. Shuning uchun umumta'lim maktablarida malakali kasb egalarini tayyorlash,

ularni mustqail fikrlashga o'rgatish, ijodkorlikka o'rgatishda zamonaviy yondashish – innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli nihoyatda katta. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid malaka va interfaol metodlar o'quvchilarni bilimli, yuqori kompetensiyaga erishishlarini ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, o'quvchi yoshlarga zamon talablari darajasida bilim beruvchi pedagog, avvalo, o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va ularni amaliyotga tatbiq eta olishi kerak. Matematika o'qitishda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash, axborotlarni tahlil etish, ular ustida ishlash, yechim topa olsih yo'llarini qidirish, mulohaza yuritishga qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan savodli shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi.

Matematika juda murakkab fan bo'lib, har bir o'qituvchining vazifasi o'quvchilar tomonidan ushbu fanning asoslarini to'liq o'zlashtirishdir. Matematika darslarida aqliy yuklamaning ortishi o'quvchilarning o'rganilayotgan materialga qiziqishini, butun dars davomida faolligini qanday saqlab qolish haqida o'ylashga majbur qiladi. O'qituvchi oldida matematikani o'qitishning maksimal samaradorligini ta'minlash uchun o'qitish vositalari va usullarini tanlash masalasi turibdi.

Ayni paytda maktablar zamonaviy kompyuterlar, interaktiv jihozlar, elektron resurslar, internet tarmog'i bilan ta'minlangan. Bu esa maktab o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalariga tobora ko'proq qaram bo'lib borayotgan dunyoda talabalar va o'qituvchilar ularni yaxshi bilishlari kerak. O'qituvchi esa o'z o'quvchilari, ularning kelajagi haqida qayg'ursa, ularga yangi hayotiy ko'nikmalarni egallashga yordam berishi kerak.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishga, o'quvchilarning bilim faolligini faollashtirishga, o'quvchilar konstruktorlik va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda fikrlash, matematik mantiq, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, mustaqil bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy ustunligidan kelib chiqadigan yana bir muhim ahamiyati shundaki, axborot-kommunikatsion texnologiyalar boshlang'ich sinf matematika darslarida integratsion tarzda amalga oshirilishi natijasida o'quvchi yoshlar ta'lim mazmunini chuqur anglab, berilgan vazifalarni to'liq mustaqil bajarishiga, masofaviy ta'lim olishga, xalqaro ta'lim tizimlarini kuzatib borishga imkon va turtki bo'ladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'qituvchidan anchagina mehnat ham talab qilsa-da, ammo yuqori natija beradi va o'qituvchiga qulay, tezkor ishlash imkonini yaratib beradi.

Shunday qilib, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish zamonaviy ta'limga tegishli muammo hisoblanadi. Bugungi kunda har qanday maktab intizomi bo'yicha o'qituvchi AKTdan foydalangan holda dars tayyorlash va o'tkazishi zarur. AKTdan foydalanilgan dars ko'rgazmali, rang-barang, ma'lumotli, interaktiv bo'lib, o'qituvchi va o'quvchining vaqtini tejaydi, o'quvchiga o'z tezligida ishlashga imkon beradi, o'qituvchiga o'quvchi bilan har xil va individual ravishda ishlashga imkon beradi, o'quv natijalarini tezkor kuzatib borish va baholash imkoniyatini yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016.
2. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Хакимова М.Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62.
3. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Умарова Г.У. Учебные задачи как средство активизации учебной деятельности учащихся на уроках математики //Обучение и воспитание: методика и практика. – 2015. – №. 19. – С. 54-60.
4. Qosimov F.M., Qosimova M.M. Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi. – Buxoro, 2016.
5. Qosimov M.F., Kasimov F.F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
6. Rayxonov S., Qosimov F., Qosimova M. Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar yechishga o'rgatish. – 2017.
7. Saidova G. E. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferencea* (2023): 33-37.

8. Saidova, G.E. "PIRLS-BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 194-196.
9. Saidova G.E. "MANTIQUIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.
10. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH*.-2020.-S: 118-120.
11. Saidova M.J. Ta'limda multimedialardan foydalanish va uning didaktik imkoniyatlari. Boshlang'ich ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – Buxoro. 2021.
12. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/5. – С. 59-68.
13. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.
14. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.
15. Саидова М. Masofaviy o'qitishni tashkil etish shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 141-150.
16. Yarashov M.J., Barotova F.B. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish metodikasi. Boshlang'ich ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – Buxoro, 2021.
17. [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)
18. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi**

*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Bu maqolada boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining dunyoqarashini va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar bilan ishlash haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** mantiqiy tafakkur, mantiq, mantiqiylik, mantiqiy topshiriq, raqamli texnologiya.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish borliqni, voqeilikni, idrok etish usuli sifatida tafakkur bilan bog'liq bo'lib, boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar bilan ishlash, mantiqiy masalalar ustida ishlash, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan ongli foydalanish, mustaqil ishlashni tashkil etish jarayonida shakllanadi.

O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan talablar ko'p hollarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilmaydi. Ta'limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e'tiborni qaratish ta'lim sifati va samaradorligining pastlashiga olib keladi. Vaholanki, mantiqiy tafakkuri keng bo'lgan o'quvchilargina bilimlarni mustaqil o'zlashtira oladi. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish juda muhimdir.

"Mantiq" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, yunon tilidan olingan "fikir", "so'z", "qonun" ma'nosini anglatadigan "logika" so'zining arab tilidagi ifodasi hisoblanadi (falsafa qomusiy lug'ati).

"Mantiqiylik" bu mantiq, mantiqiy asos, qonuniylik, asosiylik demakdir.

Hech kimga sir emaski, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning asosi matematika fanidir. Matematik misol-masalalarni yechish boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining fikrlash, katta qulaylik yaratadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki, kichik maktab yoshida o'quvchilar o'zlari uchun kerak bo'ladigan bilimlarning tayanch asosini oladilar. Aynan shu bilimlari kelajakda o'rganiladigan fanlar uchun qulaylik yaratadi va dasturilamal sifatida xizmat qiladi.

Nizomiy nomidagi TDPU fan doktori, professor – Ibragimov Rasqul tomonidan yozilgan

“Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari” nomli doktorlik dissertatsiyasida keng yoritilgan bo‘lib, dissertatsiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish jarayoni psixologik, falsafiy tarafdin keng ochib berilgan.

Shuni takidlab o‘tish kerakki, boshlang‘ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun ko‘proq mantiqiy topshiriqlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Aynan mantiqiy topshiriqlar ustida ishlash uchun maktab boshlang‘ich sinf darsliklariga murojaat qilamiz.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular ortasidagi boglanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yol bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurdagiga nisbatan chuqurroq va to‘laroq aks etadi.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda bolalar ongini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Chunki, hozirgi kunda raqamli texnologiyalar insonlar hayotida o‘z o‘rnini egallab ulgurdi. Ammo bolalarning bo‘sh vaqtlarini keraksiz kompyuter o‘yinlari va telefon o‘yinlaridan asrash uchun fan topshiriqlarini ham elektron va qiziqarli ko‘rinishga olib kelish zamon talabi bo‘lib bormoqda.

Raqamli texnologiya – elektron ma‘lumotlar bilan ishlash imkoniyatini beruvchi vositalar bo‘lib, ular insonlar hayotini, yashash tarzini yaxshilashga, xizmatlarni osonlashtirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimova M. BOSHLANG‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARINI O‘TISHDA “DAY GAME” DAN FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3. 3.
2. Ibrohimova M.F. IMPROVING INTEGRATION IN TEACHING ARITHMETIC PRACTICES IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 31.
3. Ibrohimova M. Boshlang‘ich matematika darslarida arifmetik amallarni qo‘llashda ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
4. Ibrohimova M. Problems That Arise In the Classroom in the Educator and Their Optimal Solutions //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
5. Ibrohimova M. Boshlang‘ich matematika darslarida arifmetik amallarni qo‘llashda ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
6. Jonpulatovna S.M., Qizi I. M. F. Improve Pupils’ Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T.
7. Qosimov F.M., Qosimova M.M. MATEMATIKADAN IJODIY O‘QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 206-211.
8. Qosimov M.F., Kasimov F.F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
9. QOSIMOV F. BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI SODDA MASALALAR BILAN TANISHTIRISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.
10. Saidova M., Karimova K. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini masala yechishga o‘rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – T. 3. – №. 3/S. – С. 59-68.
11. Saidova M.J. BOSHLANG‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.
12. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.
13. Saidova M. Masofaviy o‘qitishni tashkil etish shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari //Общество и инновации. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 141-150.
14. Saidova G. E. “BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING O‘QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH”. *Conferencea* (2023): 33-37.



15. Saidova, G.E. "PIRLS-BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 194-196.

16. Saidova G.E. "MANTIQIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.

17. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH*.-2020.-S: 118-120.

## BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON RESURLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda pedagogikaga talablarni kuchaymoqda, ammo, shu bilan birga, rivojlanish ham bo'lmoqda. Aynan bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishda axborot texnologiyalari, elektron resurslardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, rivojlanayotgan davlatlar bilan teng miqyosda rivojlanayotgan ekanmiz, bo'lajak tarbiyachilar ham elektron resurslardan foydalanishlari va ularni to'laqonlik tushunishlari muhim.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, kasbiy kompetensiya, pedagog, elektron resurs, ta'lim, tarbiyachi, bola.

**Abstract:** Currently, demands for pedagogy are increasing, but at the same time there is development. It is important to use information technologies and electronic resources in improving the professional competence of future pedagogues. Since we are developing on an equal scale with developing countries, it is important for future educators to use electronic resources and fully understand them.

**Key words:** competence, professional competence, pedagogue, electronic resource, education, educator, child.

**Аннотация:** В настоящее время требования к педагогике возрастают, но в то же время происходит и развитие. Важно использовать информационные технологии и электронные ресурсы в повышении профессиональной компетентности будущих педагогов. Поскольку мы развиваемся в равных масштабах с развивающимися странами, будущим педагогам важно пользоваться электронными ресурсами и полностью их понимать.

**Ключевые слова:** компетентность, профессиональная компетентность, педагог, электронный ресурс, образование, воспитатель, ребенок.

Xalqaro miqyosda bo'lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi. Albatta, bunda yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev say-harakatlari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga e'tiborlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz, deb o'ylaymiz. Prezidentimizning joriy yil 19-oktyabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi", deb ta'kidladi. Albatta, har qanday sohani rivojlantirish maktabgacha ta'limdan va uning uzluksizligidandir, chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlarini bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasining kelajagidir. Axir bola butun hayotida oladigan bilimining 70%ini maktabgacha yoshdagi davrda egallaydi. Bu borada esa maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya beruvchi tarbiyachilar va bo'lajak mutaxassislarning bilimli, psixologik, kasbiy kompetentligini rivojlantirib tayyorlash muhim o'rin tutadi.

Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga pedagog - psixolog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan,



kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, hamkasblari bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi. Kasbiykompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, eng muhimi, ilmiy ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.<sup>34</sup>

Aynan kasbiy kompetentlik omillarida yangi axborotlarni o‘rganish va ularni topish deya aytilar ekan, biz o‘z-o‘zidan axborot texnologiyalari va resurslariga murojaat qilamiz. Bilamizki, hozirgi davr axborotlashgan davrdir. Shunday bir jadal rivojlanayotgan davrda bizni axborot to‘laqonlik o‘rab olgan. Biz axborotlarni kamaytirib yoki undan voz kecha olmas ekanmiz, undan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganishimiz va uni pedagogik faoliyatimizga kirgizishimiz zarur.

Umuman olganda, pedagogik faoliyatga axborot texnologiyalarni kirgizish, mutlaq qulaylikni va tezkorlik ta‘minlab beradi. Oliy ta‘lim amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ularda ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasining rivojlanganligi bilan uzviy aloqador. Mazkur jihat bo‘lajak tarbiyachilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish muammosini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi. Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlik umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu ijtimoiy-madaniy kompetentlik hisoblanadi. Zero, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘quvchiga bilim beradi, ma‘lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o‘rtasida vositachi rolini ham bajaradi. “Bola shaxs-jamiyat” munosabatlari o‘zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo‘lishi o‘qituvchining qanchalik ijtimoiy hayotda kompetentli, omilkor ekangigiga ham bog‘liqdir.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida biz turli xil ta‘limiy uslublardan foydalanamiz. Masalan, amaliy, interfaol, an’anaviy usullar, ammo ularning barchasi kasbiy kompetensiyalari shakllantirish uchun yetarli bo‘lmaydi. Shu sababdan, ham elektron resurslar katta yordam beradi. Oliy ta‘limda ham elektron resurslardan keng foydalanish imkoni bor. Hozirgi kunda barcha sinf xonalar elektron resurslar bilan jihozlangan, hattoki maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ham to‘laqonli jihozlanmoqda. Shunday ekan, bo‘lajak tarbiyachilar nafaqat foydalanish balki yaratish qobiliyatini ham shakllantirishi mumkin. Biz elektron resurslarda foydalanishda faqatgina video materiallar bilan cheklanib qolishimiz kerak emas. Axborot texnologiyalar orqali biz doimiy yangiliklar yaratishimiz zarur. Masalan, tasviriy san‘at faoliyati rasmlar chizdirib yoki bo‘yoq berilgandan so‘ng ularni 3D formatida bolalarga ko‘rsatishimiz mumkin. Hozirda bunga imkoniyatlar bor.

Shunday misollarni, albatta, oliy ta‘lim muassasalarida ham amalga oshirish mumkin. Bilamizki, yangilik qila olish qobiliyatini o‘stirishda oliy ta‘lim bo‘lajak tarbiyachilar uchun zamin bo‘ladi. Shuning uchun pedagoglar ham elektron resurslardan foydalana olishni bilishlari va yetkaza olishlari zarur.

Bo‘lajak tarbiyachilarda yangilik yarata olish qobiliyatini oshirish, axborot texnologiyalardan turli xil vaziyatda kompleks yondasha olishi, undagi vazifalarni bajara olish kompetensiyasini shakllantirish zarur. Hozirgi kunda ma‘lumotlar ko‘p, ammo uni saralaybilish bilish qobiliyatini o‘rganishi asosiy omil hisoblanadi.

Bo‘lajak tarbiyachilar kelajak egalari bo‘lgan bolalarni o‘qitar ekan, unga mas‘uliyat bilan yondashishlari muhimdir.

Hozirgi vaqtda raqamli makonning jadal rivojlanishi tufayli o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi doimiy takomillashtirishni talab qilinadi. Raqamli kompetensiyani

---

<sup>34</sup> **Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Berdiyeva Halima Bo‘ronovna**  
O‘zbekiston Respublikasi, Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasida tadqiqotchisi

rivojlantirish uchun zamonaviy o'qituvchi raqamli pedagogik vositalarni yuqori darajada bilishi yetarli bo'lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyalari.
2. Development of digital Competence of a Future Teacher in the context of Informatization and Digitalization of Modern Teacher Education Irina M Agibova, Tatyana A, Kulikova Natalya A, Poddubnaya Olga V. Fedina.
3. Formation of future teachers digital competencies in the process of online lectures SHS Web of Conferences 87, 00097 Natalia Lobachova, Elzara Koykova and etc.
4. Fayzullayevich F.K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – T. 6. – №. 06. – C. 107-111.
5. Graber a.O, Valli L, Neton K. Upper Elementary Math Lessons/Case studies of real teaching Roman and little field publishers in 2011-195p.
6. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINIF MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – C. 21-24.
7. Саидова М. Масофавий о'qitishni tashkil etish shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 141-150.
8. Yangibaeva E. Formation of elementary mathematical representations in preschoolers in different types of activity: Methodological manual. – Nukus. 2001.

## MASALANI MUHOKAMA QILIB YECHISH YUZASIDAN USULIY TAVSIYALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Shoyeva Yulduz Amin qizi**

*BuxDPI II kurs magistri*

**Annotatsiya:** Bu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quvchilarida masalani muhokama qilib yechish ko'nikmasini shakllantirish yo'llari yuzasidan usuliy tavsiyalar va ularning afzalliklari haqida ma'lumtlar keltirilgan

**Kalit so'zlar:** masala, masala muhokamasi, masala qisqa sharti, masalani jonlantirish, masalani yechish usullari.

**Аннотация:** В данной статье представлены методические рекомендации и информация об их преимуществах для учителей начальных классов по

**Ключевые слова:** проблема, обсуждение проблемы, краткое условие задачи, оживление задачи, методы решения задачи

**Abstract:** This article provides methodological recommendations and information about their advantages for primary school teachers on ways to develop problem-solving skills in their students.

**Key words:** problem, discussion of the problem, short condition of the problem, animating the problem, methods of solving the problem.

Masalani muhokama qilib yechishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan chuqur bilim va katta mahorat talab qiladi. Tajribada masala muhokamasi bo'yicha turli xil yondashishlarni ko'rish mumkin. Ayrim o'qituvchilar masala muhokimasidan keyin masala qisqa shartini tuzib, yechimni keltirilsa ayrimlari masala muhokimasiga ko'p e'tibor bermaydi. Masala yechimini izlashda muhokima albatta bo'lishi shart.

Garchand, o'quvchi masalani mustaqil yechgan paytda ham o'quvchi uni mantiqan fikrlaydi, ongida shu muhokamani o'tkazadi.

Quyida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ayrim metodik tavsiyalarni keltirib o'tamiz:

1. Har bir yechiladigan masalaning dasturiy o'rnini bilish va masala muhokimasini o'quvchi yosh xususiyati bilim doirasi, masala turi va uning yechish usuliga e'tibor berish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchini matematika bo'yicha Milliy o'quv dasturini bilishi, unga qattiq amal qilgan holda o'quv topshiriqlarni bajartirish shart.

Xususan, masala muhokamasini o'tkazayotgan paytda o'quvchilarning bilim darajasi hamda yosh xususiyatlari inobatga olinishi muhimdir. Chunki 1-sinfda yechiladigan masala

muhokamasi, shu turga mansub 2-sinfda yechiladigan masala muhokamasidan farq qiladi. Masala muhokamasini o'tkazish jarayonida o'qituvchi masalaning qaysi turga mansubligi, u masalani yechish usullariga e'tibor berishi o'quvchilarda masalani muhokama qilish ko'nikmasi shakllanishiga muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Masalani muhokama qilishdan oldin masala qisqa shartini "Ratsional" usulini tanlash zarur. Masala qisqa shartiga ko'ra masala muhokama qilinadi. Tajribada masala muhokama qilinib yechgandan so'ng masalaning qisqa shartini tuzish hollari uchrab qoladi. Masala – bu muammo bo'lsa, qisqa shart bu "masala strukturasi" ya'ni muammoni o'quvchi tilida yaqqol tasvirlashdir. Masala muhokamasi esa shu muammoni yyechish yo'lini izlash hisoblanadi. Masala qisqa shartini tuzish o'quvchidan qancha mahoratni talab qilsa, uning muhokamasini o'tkazish ham undan ko'proq mahorat talab etadi. Chunki o'quvchida masalani muhokama qilish ko'nikmasi shakllanishi ko'p jihatdan o'qituvchining bu borada olib borgan metodik uslublari, mahoratlariga bog'liq bo'ladi.

3. Masalani muhokamasining qaysi usuli (analiz, sintez, analitiko – sintetik) dan foydalanish masala turi va o'qituvchi bilim va mahoratiga bog'liq. Qaysi vaqtda masala muhokamasining analiz (masala savolidan berilganiga qarab borish) usulidan, qachon masalaning muhokamasini sintetik (masaladagi berilganlardan masala savoliga qarab borish) usulidan foydalanish qulayligini o'quvchi biladi. Kapitan kema shturvakini qaysi tomongabursa, kema shu tomonga qarab yurgani kabi o'qituvchi masala muhokamasini o'tkazish bo'yicha savollarga qay tartibda qo'ysa, o'quvchi shu savollarga bilimlariga tayangan holda javob berishadi. Bunday uslub o'quvchi uchun yo'l-yo'riqdir. Chunki o'quvchi masalani o'qituvchi o'rgatgan usulda muhokama qiladi. Ayrim masalalar borki, ularni bir necha usulda yyechish mumkin, har bir usulga xos masala muhokamali bo'ladi.

4. Masala muhokamasini o'tkazishda o'quvchi o'quv faoliyatlarini tashkil etish shakllariga e'tiborini qaratib, umumsinf (jamo) da, guruhlarda va yakka tartibda mulohaza yuritishni amalga oshirish. O'quvchilar ko'pchilik holda jamoa ishtirokidagi masala muhokamasini o'tkazadilar. Lekin guruhlarda (Masalan, bir partada o'tiruvchi 2 o'quvchi ishtirokida) ham masala muhokamasini tashkil etishni amaliyot taqozo etmoqda. Misol tariqasida o'qituvchi har bir partada o'tiruvchi o'quvchilarga rasm asosida masala tuzish va uning muhokama qilib yechish topshiriqini bersa, o'quvchilar birga ishlab o'quv topshirig'ini maqsadga muvofiq holda bajarishadi.

Shuningdek, o'quvchilarning yakka (individual) ishini tashkil qilishda, masalani mulohaza yuritish topshirig'ini faol o'quvchilar qiziqib amalga oshirishadi. Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishga oid umumsinf, guruh va yakka tartibdagi ishlar mutanosibligini ta'minlash ham zarur.

5. Masala muhokamasini o'tkazish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlariga ko'proq e'tibor berish ularning mantiqiy tafakkurini o'stiradi, ijodkorligini oshiradi. O'qituvchi masala muhokamasiga xos yo'naltiruvchi savollarni berar ekan, o'quvchi bu savolga o'ylab, fikr yuritib javob berishi va o'quvchini shunga o'rgatish kerak. Aks holda o'quvchi o'ylamay, fikrlamay, taxminiy javoblarni beradi. Masala yuzasidan savolni o'rinli qo'yish ham san'atdir. O'quvchining bilim doirasiga mos, u fikrlab javob topadigan savollar berilishi kerak. Muhokama jarayonida ortiqcha savollarning qo'yilishi no'rin fikr va mulohazalar bayoni o'quvchilarni mulohaza yuritishda chalg'itadi. Imkon qadar o'quvchi mustaqil fikr yuritib, o'z fikr-mulohazalarini bayon etishga harakat qilsin. Bu borada, o'qituvchi "drijyor" bo'lishi kerak. O'quvchi javobini tashlab, uni to'g'ri yo'lga solib berishi masala muhokamasini mazmunli chiqishiga sabab bo'ladi.

6. Masala muhokamasini o'tkazishda qo'shimcha yordamchi vositalaridan ham foydalanish mumkin. O'quvchi masala mazmunini to'la tushunishi, yaqqol tasavvur qilishi hamda masala yechimini izlashda masala qisqa shartidan tashqari, chizma, rasm, harakatlanuvchi vosita, diagrammalar va boshqa o'qitish vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev SH. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent: "O'zbekiston". NMIU, 2017.

2. Hakimova M.H. "Matematika o'qitish metodikasi" (amaliy mashg'ulot 1-modul) – Buxoro: "Durdona". 2021.
3. Jumayeva M.E., Tadjiyeva Z.G'. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". – Toshkent: "Fan va texnologiya". 2005.
4. Jumayev M. va boshqalar. "Matematika o'qitish metodikasi" Darslik. – T. 2008.
5. Qosimov F.M., Qosimova M.M. MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMYI JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.
6. Qosimov M.F., Kasimov F.F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
7. Rayhonov Sh., F.Qosimov, M.Qosimova "Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar ustida ishlash". – B.2017.
8. Saidova G. E. "BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferentia* (2023): 33-37.
9. Saidova, G.E. "PIRLS–BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 194-196.
10. Saidova G.E. "MANTIQUIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIVIALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.
11. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH.*-2020.-S: 118-120.
12. Саидова М. Во'лажак бoшлaнғич синаф о'қитувчиларининг методик таййоргарлигини тақомиллаштираш имқониятлари //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.
13. Саидова М., Файзуллаева С. Boshlang'ich sinif o'quvchilarining matematik savodxonligini o'stirishda raqamlarni o'rgatishning integratsion va innovatsion yondashuvi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 118-126.
14. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinif o'quvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 59-68.
15. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINIF MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.
16. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.

## O'QUVCHILARDA KASBIY NUTQ KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Temirova Kumushoy Sadriddinovna**

*BuxDPI magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilar kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik aspektlari, kompetensiya turlari yoritilgan bo'lib, ingliz tili darslarida kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirish ahamiyati tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, nutq, kasbiy, rivojlantirish, standart, ta'lim, yondashuv, kommunikativ, intellektual, lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, moslashtirish.

Respublikamizda ta'lim sohasini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga moslashtirish, innovatsion o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha katta tajriba to'plandi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikaniya texnologiyalari, xorijiy tajribalar tatbiq qilinmokda. Gumanitar fanlarni o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, gumanitar fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish maqsadida 2020-yil 19-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti.Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi 11-sonli buyrug'i qabul qilindi. Bu buyruq ta'lim- tarbiya jarayonini yanada rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. Oliy ta'limda ingliz tili darslaridatalabalar

kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirish maqsadida tashkil qilish va talabalarning egallagan bilimlarini amaliyotda foydalana olish malakalari takomillashtirishga olib keladi.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish uchun innovasion texnologiyalardan uzviy,

integrativ asosda foydalanish bugungi kun talabidir. Zamonaviy rivojlangan jamiyatga ilmi, ma'naviyatli, barqaror rivojlanish talablariga javob beradigan, respublikamiz kelajagi uchun qayg'uradigan intellektual yetuk avlodni tarbiyalash zarur. O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bosqichlarida chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Chet tili kommunikativ kompetensiyasi – o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir. Lingvistik kompetensiya til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi. Sotsiolingvistik kompetensiya so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda, kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiymadaniy kompetensiyani o'z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlarini va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi.

Bolalar nuqini rivojlantirishda quyidagi metodlar guruhlarini ajratish mumkin:

Ko'rgazmali usullar – kuzatish, uning turlari: binoni ko'zdan kechirish, ekskursiya, tabiiy buyumlarni ko'rib chiqish. Pedagog kuzatishdan ob'ektni to'g'ridan-to'g'ri (gullar ochilishi, toshbaqa harakati va boshq.) va vositali (agarda ob'ektni bevosita kuzatishning imkoni bo'lmasa (yovvoyi hayvonlar, shaharlik bolalar uchun qishloq aholisining mehnati, qishloq aholisi uchun shahar transporti kabi) kuzatish mumkin bo'lgan holatlarda – suratlar, fotosuratlar, kinofil'mlar, diafilmlar va videofilmlar namoyishida foydalanadi. Ko'rgazmali narsalar, hodislar ko'rgazmali usullardan foydalanishda suhbat, mulohaza mavzusini belgilaydigan manba bo'lib xizmat qiladi.

So'zli usullar – kattalar va bolalarning so'zlari har qanday ko'rgazmali va amaliy metod tarkibiga kiradi. Biroq, bolalarda so'zli-mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi tasavvurlarning yig'ilishiga qarab nutqni rivojlantirishning so'zli usullari mustaqil metod tusini oladi. Unga badiiy asarlarni o'qish, she'r yod olish, bolalarning hikoyalari, suhbatlar va tarbiyachining hikoyalari kiradi. So'zli usullar sof ko'rinishda bolalar bog'chasida juda kam qo'llaniladi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari ko'proq ko'rgazmalilikka tayanishni talab qiladi. Shuning uchun deyarli barcha so'zli usullarda ko'rgazmali usullardan (narsa, o'yinchoqni qisqa vaqtgako'rsatish, illyustratsiyalarni ko'zdan kechirish) yoki bolalarni dam oldirish maqsadida ko'rgazmali ob'ektni namoyish qilishdan foydalaniladi.

Metod deb bilimlarni biridan ikkinchisiga berish maqsadida o'qituvchi va o'quvchi tomonidan amalga oshirilayotgan harakatga aytiladi. O'qitish usuli – bu metodning bir elementidir. Usullarni ko'rgazmaviyligi va emosionalligiga qarab so'zli, ko'rgazmali, o'yinli usullarga ajratish mumkin. Eng ko'p tarqalgan so'zli usullardan biri –nutqiy namunadir. Nutqiy namuna – bu tarbiyachining to'g'ri, ilgaridan mashq qilingan nutqiy faoliyatidir. Nutqiy namunadan izohlash, ko'rsatmalar berish bilan birgalikda foydalaniladi. Namuna bolalarga aniq, tushunarli, baland va bosiq ovozda namoyish qilinadi. Takrorlash – esda saqlab qolish maqsadida aynan bitta nutqiy elementdan (tovush, so'z, ibora) bir necha marta foydalanish. Takrorlash tarbiyachining o'zi yoki bola (ikki nafar bola) tomonidan hamda bolalar tomonidan jo'rovoz bo'lib amalga oshiriladi. Tushuntirish – tarbiyachi tomonidan narsa yoki hodisa mohiyati ochib beriladi. Ko'rsatma berish – bolalarga qanday harakat qilish, qanday qilib natijaga erishish mumkinligi tushuntiriladi. Ko'rsatmalar o'rgatuvchi, tashkiliy va tartibga keltiruvchi bo'ladi.

Demak, ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini va nutqiy



kompetensiyalarini rivojlantirishga har bir dars davomida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 14б.
2. Adizova Nodira. "BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI". *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
3. Адизова Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ". *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
4. Bakhtiyorovna N.A., Bakhtiyorovna N.A. [Anvar obidjon is a children's poet](#). Middle European Scientific Bulletin.
5. Bakhtiyorovna N.A., Dilsora E. [Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games](#). The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545 b.
6. Махмудов М. Болаларнинг ўқув мақсади – таълимни илмий лойиҳалаш омили//Халқ таълими. –2005. –№5. –49 б.
7. Сулаймонович Феруз Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
8. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 59-68.
9. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINIF MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.

## KASRLARGA OID TOPSHIRIQLARNI BAJARISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI DUCH KELADIGAN QIYINCHILIKLARGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Mexmonova Sitora Imomovna

*BuxDPI magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darsligidagi "Kasrlar" mavzusi va kasrlar ishtirokidagi topshiriqlar tahlil qilinadi. Kasrlarni o'rganishda o'quvchilar duch keladigan muammolar sabablari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** kasrlar, sur'at, maxraj, kasrlarning o'qilishi, butun, qism va bo'laklar.

Kasrlar tushunchasini boshlang'ich sinf o'quvchisi, asosan, 3-sinf matematika darslarida o'rgana boshlasada, 2-sinfda "Butun va bo'laklar", "Butunni teng bo'laklarga bo'lish", "Butunning yarmi", "Butunning 3 dan 1 qismi", "Butunning choragi" va "Butunning nimchoragi" kabi mavzularni o'rganish jarayonida "Kasrlar tushunchasi" mavzusi uchun tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olishadi. Ya'ni "Kasrlar" mavzusi yuqorida sanab o'tilgan mavzularining uzviy davomidir. "Milliy o'quv dasturi" va "Yangi avlod darsliklari" ning boshlang'ich sinf matematika kursida olib kirgan yangiliklardan biri bo'lib, bundan oldin kasrlar haqida o'quvchilar ilk bor 5-sinfda tanishganlar va o'rgana boshlashgan. "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga bag'ishlangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni negizida o'rta ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida yaratilgan hozirgi 3-sinf matematika darsligining 4-bobi "Kasrlar" deb nomlangan bo'lib, "Kasrlar haqida tushuncha", "Bir xil maxrajli kasrlarni qo'shish va ayirish", "Kasrlarni taqqoslash", "Teng kasrlar" kabi jami 13 darsdan iborat. Kasrlarga oid topshiriqlarning xilma-xil turlaridan namunalari berilgan bo'lib, bu topshiriqlarni xususiyatiga ko'ra quyidagicha turlarga ajratib guruhlab olsa bo'ladi:

I. Ifodalashga oid topshiriqlar:

- Kasr sonlarni shakllarda, qog'ozda yasama modellar va so'z orqali ifodalash. 88-bet 3-topshiriq, 89-bet 3-topshiriq, 90-bet 6-topshiriq, 91-bet 1-topshiriq.



• Shakl, soʻz va model koʻrinishidagi qismlarni kasr son koʻrinishida ifodalash. 88-bet 2-topshiriq, 89-bet 6-topshiriq, 90-bet 3- va 5-topshiriq, 91-bet 2-va 3-topshiriq, 92-bet 2-, 3-,5-, 6-, 7-topshiriqlar, 93-bet 6-topshiriq , 7-bet 3-topshiriq.

Moslashtirishga oid topshiriqlar. (“Juftini top” oʻyini orqali) 91-bet 5-topshiriq, 92-bet 1-topshiriq, 95-bet 3-topshiriq, 100-bet 5-topshiriq.

Taqqoslashga oid topshiriqlar.

• Maxraji bir xil boʻlgan kasrlarni taqqoslash. 99-bet 2-,5-,6-topshiriqlar.

• Surati bir xil boʻlgan kasrlarni taqqoslash. 100-bet 1-,3-,6-topshiriqlar.

II. Teng kasrlarga oid topshiriqlar. 98-bet 6-topshiriq, 99-bet 3-topshiriq.

III. Kasrlar ustida amallar bajarishga oid topshiriqlar.

a) toʻgʻridan toʻgʻri.

b) modellar yordamida.

• Maxraji bir xil boʻlgan kasrlarni qoʻshish. 93-bet 2- va 7-topshiriq, 94-bet 4-, 6-, 7- va 8-topshiriq, 97-bet 4- va 7-topshiriq.

• Maxraji bir xil boʻlgan kasrlarni ayirishga oid topshiriqlar.95-bet 5- va 6-topshiriq, 96-bet 1-, 2-, 3- va 7-, 8-topshiriqlar, 97-bet 2- va 6-topshiriqlar.

IV. Kasrlarga oid matnli masalalar: 89-bet 5-topshiriq, 90-bet 4-topshiriq, 91-bet 4-topshiriq, 93-bet 3- va 5-topshiriqlar, 94-bet 1-va 3-topshiriqlar, 95-bet 2-va 4-topshiriqlar, 96-bet,4-va 6-topshiriqlar, 97-bet 5-topshiriq, 98-bet 4-topshiriq, 100-bet 2-topshiriq.

**Kasrlar va ularga oid topshiriqlarni tushunib bajarishda nega oʻquvchilar qiynalishadi?**

Bu savolga quyidagilar sabab boʻlishi mumkin:

• Oʻqilishi. Natural sonlar 1 soʻz bilan ifodalaniladi. Masalan, bir, qirq bir, uch yuz oʻttiz ikki va hokazo. Kasrlarni oʻqishda esa –dan qoʻchimchasi bor va bu oʻquvchilarni chalgʻitadi.

• Yozilishi. Natural sonlar bir qatorda yoziladi, kasrlar esa kasr chizigʻi bilan ajratilgan 2 qatorda yoziladi. Shunda kasr chizigʻining osti va ustidagi raqamlarni yaxlit bir son sifatida qabul qilishlari qiyin boʻladi.

• Taqqoslash. Natural sonlarni kichikdan kattaga va kattadan kichikka qarab tartiblash va taqqoslash juda qulay. Masalan, 1 soni 2 dan kichik va avval 1, keyin 2, 3 va 4 keladi va hokazo. Kasrlarda esa bu qonuniyat ish bermaydi. Kasrlarni tartiblashda faqat maxraj yoki surʼat emas, balki ikkisiga ham ahamiyat berish kerak boʻladi. Shu sababli, boshlangʻich sinf oʻquvchilar, asosan, maxraji bir xil kasrlarni taqqoslashadi.

• Qoʻshish va ayirish. Natural sonlarni qoʻshish va ayirishning ahamiyatini tushungan, oʻquvchilar kasrlarni qoʻshishda maxrajlari bir xil boʻlish sharti va -, + amallari faqat surʼatlar bilan bajarilishi oʻquvchilarda turli savollar tugʻilishiga sabab boʻladi.

• Son oʻqida tartiblash. Natural sonlarni son oʻqida tartiblash oson. Kasrlarni son oʻqida tartiblash esa murakkab. Yaʼni kasr sonning mahrajiga qarab alohida son oʻqlarida tartiblanadi. Yaʼni 1/12 bilan 1/5 sonlarini bir son oʻqida tartiblash mumkin emas.

Yuqorida sanab oʻtilgan qiyinchiliklarni yengishda oʻquvchilarga yordam sifatida boshlangʻich sinf oʻqituvchisi quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

• Oʻqilishida oʻquvchilarni chalgʻituvchi –dan qoʻshimchasini kelib chiqishi bilan qoʻllash.Masalan, boshida 1/5 (beshdan bir)ni 5 boʻlakdan biri sifatida oʻqish va barmoqlardan foydalangan holda amaliy koʻrsatish tavsiya etiladi. Keyinchalik qisqartirish va soddalashtirish maqsadida beshdan bir, oʻndan yetti kabi oʻqish taklifi bilan oʻquvchilarga yuzlanish mumkin boʻladi. Bunda multimediali taʼlimiy taqdimot va videorolik tayyorlash mumkin.

• Yozilishidagi chalgʻituvchi – (kasr chizigʻi)ning mazmuni ochib berish tavsiya etiladi.


Oʻquvchilar bilan quyidagicha suhbat uyushtirsa boʻladi:

-Biz bir butunni teng boʻlaklarga qanday ajtardik?


-Boʻldik.

-Kasr sonimizdagi kasr chizig'i bo'lish ma'nosini anglatadi.Ya'ni bo'lingan 5, 6, 7...bo'lakning 1, 2, 3...qismi,degan ma'noni bildiradi.

Bundan tashqari, ta'limiy ilovalardan foydalanib kasr sonda 2 ta raqam bir son va miqdorni anglatishni tushuntirish oson bo'ladi. Masalan, "Fractions for kids "ilovasidagi kasrni yozishga doir topshiriqlarni birgalikda bajarish mumkin.



• Taqqoslashga oid qiyinchilikni yengishda butun qancha ko'p bo'lakka ajralsa, bo'laklar hajmi kichrayib borishini tushuntirish birlamchi qadam bo'ladi. Bunda biz "Math is fun" ta'limiy saytidan foydalanishimiz mumkin.




Shunda maxrajni qiymati oshgan sari kasr son kichrayishi va surati oshgan sari kasr son kattaroq qiymatni anglatishi xulosa qilinadi.Avval maxraji bir xil kasrlarni suratiga qarab kattasi topiladi,keyinchalik maxraji turli bo'lgan kasrlarning maxraji kichik bo'lgani katta qiymatni ifodalashini o'rgatish tavsiya etiladi.

• Kasr sonlar ustida + va – amallarini bajarishda ko'rgazmalilikka e'tibor qaratish zarur. Amaliy ko'rsatib berish esa juda samarali bo'ladi. Bunda maxrajlar o'zaro teng bo'lish va faqat suratlar ustida amallarni bajarish shartlari belgilab olinadi. Bunday topshiriqlarni ham ilovalar yordamida bajarish mumkin.



• Son o'qida ifodalashda bir xil maxrajli larni alohida qilib tartiblash so'ng ustma-ust qo'yish mumkin.Buni amalish bajarish mumkin, qog'oz yoki lentani son o'qi sifatida qabul qilib kasrlar tartib bilan yozib chiqiladi va har bir lentalar ustma-ust qo'yib ko'riladi.



Kasrlar haqidagi tushunchalarning boshlang'ich sinf matematika darsligiga va o'quv mazmuniga olib kirilishi, yuqori sinf matematika darslarida o'quvchilarning ratsional sonlar va algebrik tushunchalarni o'zlashtirishlari uchun ahamiyatli bo'lib, boshlang'ich va yuqori sinf matematika darslarining uzviyligini ta'minlaydi. Kasrlar mavzusining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, turli xil metod va yondashuvlar bilan darslarni boyitib borilsa, o'quvchilarning o'zlashtirishlari yaxshilanib boradi. Asosan, darslarni amaliy mashg'ulot sifatida olib borish, masalan, oziq-ovqatlarni bo'laklarga bo'lish va taqsimlash kabi topshiriqlarni bajarish orqali tushuntirilsa, o'quvchilar kasr sonlarning mazmunini yanada yaxshiroq ilg'ashadi. Bo'lakli tayyor modellar bilan ishlash va shu modellarni tayyorlash jarayoniga o'quvchilarni jalb etish ham samara berishi mumkin. Darslarni qanday metod, yondashuv va ped.texnologiyalar bilan tashkillashtirish o'quvchilar duch kelayotgan qiyinchilik va tipologik xatolarini tahlil qilgan holda tanlanadi va asosiy maqsad mavzuni iloji boricha samarali tushuntirishga erishish hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent: "O'zbekiston". NMIU, 2017.
2. Hakimova M.H. "Matematika o'qitish metodikasi" (amaliy mashg'ulot 1-modul) – Buxoro: "Durdona". 2021.
3. Jumayeva M.E., Tadjiyeva Z.G'. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". – Toshkent: "Fan va texnologiya". 2005.
4. Jumayev M. va boshqalar. "Matematika o'qitish metodikasi" Darslik. – T. 2008.
5. Qosimov F.M., Qosimova M.M. MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.
6. Qosimov M.F., Kasimov F.F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
7. Rayhonov Sh., F.Qosimov, M.Qosimova "Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar ustida ishlash". – B.2017.
8. Saidova G. E. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferencea* (2023): 33-37.
9. Saidova, G.E. "PIRLS-BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 194-196.
10. Saidova G.E. "MANTIQIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.
11. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH*.-2020.-S: 118-120.
12. Саидова М. Во'ljak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.
13. Саидова М., Файзуллаева С. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini o'stirishda raqamlarni o'rgatishning integratsion va innovatsion yondashuvi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 118-126.

14. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/5. – С. 59-68.
15. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINIF MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.
16. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.

## KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA MAZMUN MOHIYATI VA O'QUVCHILARDAGI KOMMUNIKATIV QOBILIYAT IFODASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Habibova Kumushoy Hamidovna**

*BuxDPI II kurs magistranti*

**Homidova Malika Olimovna**

*Buxoro viloyat Vobkent tuman 4-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiya mazmun mohiyati va boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kompetentlik, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, moslashuvchanlik, hamkorlik, muomala madaniyati, samaradorlik, natija.

O'qish darslari orqali insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Ma'lumki, mustaqillik yillarida o'qish darsliklarining bir nechta yangi avlodi nashr etildi. Bu o'qish kitoblarida badiiy ijodning turli janrlariga mansub namunalarning berib borilishi bolalar kitobxonligi malakasini shakllantirishga ham hissa qo'shdi albatta! Metodist olim Safo Matjonovning ko'rsatishicha, "Ayrim o'qituvchilar epik asarlar tahlilini jo'nlashtirib, yozuvchini o'qituvchi bilan yonma-yon qilib qo'yadilar. Holbuki, o'quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga "Qahramonning bu ishi to'g'rimi?", "Uning o'rnida bo'lganda nima qilar eding?" kabi ijodiy fikrlashga qaratilmagan savollar o'rniga "Shu vaziyatda qahramon o'zini boshqacha tutishi mumkin edimi?", "Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holatda tasvirlaydi?" singari savollar qo'yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug'iladi".

Kommunikativ kompetentlikda muloqot qobiliyati muhim hisoblanib, u o'zida quyidagilarni qamrab olishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan:

- muloqot qilish kerak bo'lgan kommunikativ vaziyat;
- muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan dasturlash;
- kommunikativ vaziyatda aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish kabi.

Kommunikativ qobiliyat umumiy madaniyatni va uning professional faoliyatida o'ziga xos namoyonlarini sintez qiluvchi integral sifatdir. Kommunikativ kompetensiyaning shartlaridan biri, muayyan qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng muhimlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham tatbiq qilish mumkin. Masalan, biror matn yoki hikoyani o'qiganda uni tushunmagan yoki to'liq anglamagan bo'lsa, bu haqda fikr bildirishga shoshmaslik; tushunish uchun doimiy tayyorgarlik; aniqlik; muloqot jarayonida noma'lum, noaniq so'zlardan qochish kerakligi; termin va atamalarni tushunmasa, ulardan foydalanmaslik; nutq va ma'lumotdan tashqari, fikr ifodalashda tashqi belgilar: yuz ifodalari, imo-ishoralari, intonatsiyasi, o'zini qanday tutish kabilarga e'tibor qaratish.

Ta'bir joiz bo'lsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bu qoidalarni asosan badiiy kitob o'qish ko'nikmasini egallash, hikoyalarni ijodiy so'zlash, rasmlarga qarab hikoya tuzish orqali o'zlashtirib boradilar. Kommunikativlik kompetensiyasining rivojlanishi, shu ma'noda, bolalar kitobxonligi orqali ancha faollashadi. Zero, badiiy kitoblarda asar qahramonlarining yuqoridagi

holatlari teran aks etadi. Ayniqsa, bolalar asarlarida aynan kichkintoylarning fe'l-atvori, madaniy muloqotlari, poetik fikrlashi ijodkorlar tomonidan keng tasvir etiladi. Hatto unda asar personajlarining o'z nohaqligini anglash, muloqot paytida ba'zan nuqtai nazarlari noto'g'ri bo'lishi mumkinligi, xatolardan ogohlantirish kabilar ham kuzatiladiki, bu ham bo'lsa kommunikativ kompetentlik qoidalaridan hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilarga har qanday xabarning samaradorligi o'z vaqtida amalga oshiriladigan eng munosib vaziyatni tanlashda keskin oshishi, yangi, kutilmagan vaziyatlarning ta'siri ostida o'z nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqishga tayyor bo'lishni, suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish qobiliyatini anglatishda ham asarlar muhokamasi muhim rol o'ynaydi. Muhimi, fikr-mulohaza kommunikativ kompetensiyaning asosiy maqsadiga erishishni ta'minlashi anglashila boradi. Kommunikativ kompetensiya asosini muloqotni tashkil qilish – o'quvchilarda sinfdoshlararo muloqot ko'nikmasi; muloqot bog'liqligini, kontaktni saqlash, teskari aloqani o'rnatish; muloqot natijalarini tahlil qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishda ham aynan bir asar, yoki she'r tahliliga bag'ishlangan tadbirlar, suhbatlar muhim rol o'ynaydi.

Shu ma'noda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish – bu yosh avlod ma'naviy olami, ta'lim-tarbiyasi uchun zarur bo'lgan tizim, o'zaro munosabatlarning muayyan doirasidagi harakatlar samarasidir.

Aslida ham kommunikativ kompetensiya – bu shaxslararo tajribani shakllantirishning darajasi, ya'ni ta'lim bilan o'zaro muloqot qilish shaxs talab qiladigan boshqalar, o'z qobiliyatlari va ijtimoiy mavqei doirasida ushbu jamiyatda muvaffaqiyatli ishlash uchun muhim.

Umuman, boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish orqali ulardagi muloqot qobiliyati har tomonlama takomillashib boradi, kitob o'qishga motivatsiya uyg'onadi hamda raqobatbardosh kadr tayyorlashga asoslangan mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan etuk inson bo'lib yetishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev SH. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent: "O'zbekiston". NMIU, 2017.
2. Abdullayev M., Abdullayeva M., Abdullayeva F., Abdurazzoqova G. va boshq. Mustaqillik: ilmiy-ommabop lug'at. T.:Sharq, 2006.
3. Abdullaeva Q., Safarova R., Bikboeva N. Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi G'G' Boshlang'ich ta'lim, 6-son. -T.: 1998.
4. Hakimova M.H. "Matematika o'qitish metodikasi" (amaliy mashg'ulot 1-modul) – Buxoro: "Durdona". 2021.
5. Jumayeva M.E., Tadjiyeva Z.G'. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". – Toshkent: "Fan va texnologiya". 2005.
6. Jumayev M. va boshqalar. "Matematika o'qitish metodikasi" Darslik. – T. 2008.
7. Matchonov S.2020. Adabiy ta'lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy estetik tafakkur muammolari. Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy axborotlar.
8. Qosimov F.M., Qosimova M.M. MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.
9. Qosimov M.F., Kasimov F.F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
10. Rayhonov Sh., F.Qosimov, M.Qosimova "Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar ustida ishlash". – B.2017.
11. Saidova G. E. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferencea* (2023): 33-37.
12. Saidova, G.E. "PIRLS–BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 194-196.
13. Saidova G.E. "MANTIQUIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.



14. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH*.-2020.-S: 118-120.

15. Саидова М. Во'лаjak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.

16. Саидова М., Файзуллаева С. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini o'stirishda raqamlarni o'rgatishning integratsion va innovatsion yondashuvi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 118-126.

17. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/5. – С. 59-68.

18. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINIF MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.

19. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.

## IJTIMOY TARMOQLARDAN TO'G'RI MAQSADDA FOYDALANISH ORQALI MEDIAMADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

### **Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi**

*Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasini mudiri, pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,*

### **Bo'riyeva Shaxnoza Inat qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy maktab o'quvchilariga ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siri muammolari va bu salbiy ta'sirlar o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayotgani masalalari ko'rib chiqilgan. Ijtimoiy tarmoqlar haqida (Telegram, Instagram, Fesebook, Whatsapp). Shuningdek, maqolada o'quvchilarning mediakompetentligini rivojlantirish orqali yuqorida berilgan muammolarni yechish yo'llari haqida fikrlar berilgan. O'quvchi yoshlarning mediamadaniyatini rivojlantirish muammosini yechish yo'llari haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** mediata'lim, mediakompetentlik, media, internet, texnologiya, tafakkur, ijtimoiy tarmoq, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, kiberjinoyatchilik.

Hozirda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda o'quvchi yoshlarning axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediamadaniyatni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash lozim. Ommaviy axborot vositalari, kompyuter o'yinlari va ko'ngilochar dasturlarini faol istemol qilish holati kattalar tomonidan nazoratga olinmaydi va ta'lim-tarbiya standartlari talablariga javob bermaydi. Oqibatda, nutqiy tafakkur o'z o'rnida rivojlanmaydi, chunki, ommaviy ko'rsatuvlarni ko'rish va kompyuter o'yinlarini meyoridan ortiq o'ynash jarayonida maktab o'quvchilari ichki va tashqi nutqdan foydalanmaydilar. So'z o'rnida ta'kidlashimiz joizki, eng avvalo yoshlarga internetdan foydalanish madaniyatini, mediamadaniyatni o'rgatish kerak. O'quv jarayonida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishning asosiy shartlari: zamonaviy ta'lim usullaridan bo'lgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, eng so'nggi ta'lim vositalarini qo'llash yoshlarni teran fikrlashga o'rgatadi. Afsuski, mamlakatimizda maktab o'quvchilarining mediasavodxonligiga yetarlicha e'tibor berilmaydi, mediata'limning joriy etilishi alohida dolzarb ahamiyatga ega. Mediata'lim o'quvchilarni tarbiyalashda, ta'lim berish va madaniy rivojlantirishda katta o'rin egallaydi. Zamonaviy maktab o'quvchilari, odatda, kattalardan ko'proq ommaviy axborot vositalari va kompyuter uskunalariidan foydalanishda ustunliklarga ega bo'lalilar.

Zamonaviy maktab ta'lim muassasalariga ommaviy axborot vositalari, interaktiv



texnologiyalar, ta'lim olishda elektron turdagi darsliklar tezkor ravishda kirib bormoqda. O'quvchilar doimo o'sib borayotgan axborot oqimlariga duch keladilar qidiruv malakalarini ishga solish orqali olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda tanqidiy baholash jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishadi albatta. Bunday sharoitda ularga mediata'limning roli ancha ortadi. O'qituvchidan yuksak eruditsiya, ulkan ijodiy va ilmiy salohiyat tashabbuskorlik talab qiladi. Muhtaram Prizentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jiplashib, tinimsiz o'qib o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamadan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi", deya ta'kidladilar. Darhaqiqat bugungi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib bor imkoniyatlarimizni ishga solsak ertangi kunda jamiyatimizga yetuk kadrlar bo'lib yetishamiz. Ta'lim sohasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda, ilg'or xorijiy davlatlarning pedagogik tajribalari asosida darslarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchining mustaqil fikrlashga muammoli vaziyatlardan chiqishga xulosa qilishga o'rgatadi. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga ta'lim ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri axborot kommunikatsion texnologiyalari o'zining ko'plab qulay jihatlari bilan muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, har qanday ko'rgazmali vosita berilgan bilimning o'quvchi ongida to'liq aks etishi, tasavvurlarini paydo qilishi, xotirasida uzoq vaqt qolishiga sabab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilari mediamadaniyatini rivojlantirish globallashtirish sharoitida muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Mediamadaniyat haqida Marshall Maklyuen "Inson tom ma'noda savodli bo'lishi uchun, avvalo, media olamida savodli bo'lishi kerak", degan edi. Mediata'limning umumiy mohiyati yosh avlodni uning hayotida tobora mustahkam o'rin egallab, unga keng ko'lamlil axborot muhitini taqdim etayotgan ommaviy axborot vositalari materiallari yordamida tarbiyalashdan iborat.

Bugungi kunda O'zbekistonda "Telegram" messenger foydalanuvchilar 80%ni WhatsApp foydalanuvchilari 22%ni hamda "Fasebook" foydalanuvchilari 6%ni tashkil qiladi. O'zbekiston aholisining qariyb 70% qismi internet foydalanuvchisi hisoblanadi. O'zbekistonda foydalanuvchilar tomonidan eng ko'p "Instagram" ijtimoiy tarmog'idan foydalaniladi. Hozirgi kunda ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar soni 4,8 milliondan ortiq hisoblanadi. Foydalanuvchilarning asosiy qismi yoshlarni tashkil etmoqda. Axborot asri insoniyatga tezkor axborot taqdim qilish bilan birgalikda undan noo'rin foydalanish tufayli ko'plab muammolarni shakllantirmoqda, bu o'z navbatida eng katta ta'sirini yoshlar o'rtasida namoyon etmoqda. Shu sababli, yoshlarning axborotdan samarali foydalanishlari yoki ijtimoiy xavfli axborotlarga qarshi mediamadaniyatni shakllantirish talabi ortib bormoqda. Ta'limning ustuvor vazifalaridan biri, bu ta'lim oluvchi ongu shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlar qaror toptirish, unda kelajakda axborotlashgan jamiyatda o'z munosib o'rnini topishi uchun amaliy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan o'quvchi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir. Ma'lumki, XX asr 90-yillaridan boshlab axborotlashtirish sohasi keskin rivojlanib ketdi. XXI asr axborotlashtirish asri deb atalmoqda. Axborot texnologiyalari tufayli insonning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyati, uning kundalik muloqot sohasi dunyo sivilizatsiyasi ishlab chiqqan tajriba, bilimlar va ma'naviy qadriyatlarni jalb etish hisobiga chindan ham behad kengaymoqda, iqtisodiyotning o'zi esa moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish sifatida kamroq, axborot mahsulotlari, xizmatlarini yaratish va tarqatish sifatida ko'proq xususiyat kasb etmoqda. Mediata'lim xalqimizning urf- odatlariga, milliy qadriyatlariga tayangan holda, umuminsoniy qadr-qimmatlarga asoslanib tashkil etilishi kerak. Mediata'lim yoshlarimizni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan xavfsiz va samarali muloqot qilishga tayyorlaydi, ularda mediaogohlikni, mediasavodxonlikni, mediamadaniyatni va mediakompetentlikni shakllantiradi. Shuning uchun maktab o'quvchilarini mediasavodxonlikka o'qitish davlatimiz ta'lim siyosatida ustuvor yo'nalish

bo'lishi kerak. Millatimizning kelajagi, aynan, zamonaviy maktab o'quvchilarining mediasavodxonligiga bog'liq bo'ladi.

Axborot olish madaniyati, ya'ni axborot savodxonligi bo'yicha xorijiy mamlakatlarga nazar solinsa, kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. "Axborot savodxonligi" atamasi aynan mana shu e'tibor natijasida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, axborot savodxonligi bo'yicha milliy forumlar yaratilgan bo'lib, yigirma beshtadan ziyod turli tashkilot va muassasalarni birlashtirgan. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi glaballashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini aytib o'tish zarur: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz havf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim". To'g'ri, haqiqatni rad etmagan holda, shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, internet tarmoqlari ta'lim olish, dam olish yoki do'stlar bilan muloqot qilishning ajoyib vositasidir. Shu boisdan ham, internet tarmoqlaridan foydalanuvchilar soni yildan yilga oshib borayotganligini inobatga olsak, axborot manbai sifatida ommaviy axborot vositalari, internetdan axborotlar izlash kundan kunga jadallashmoqda. Bu esa qaysi sohaga oid bo'lishidan qat'iy nazar, internetning milliy segmentida o'z axborotlarimizni tobora ko'paytirib borishni taqozo etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, har qanday mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlariga qarshi kurashda muhtaram Prezidentimizning asarlari dasturulamal vazifasini bajarishi kerak. Jumladan, "Besh muhim tashabbus va Harakatlar strategiyasi" buning yorqin timsoli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, global o'zgarishlar davrida, jamiyatda axborot tahdidlariga qarshi samarali kurashish omillaridan biri aholida, ayniqsa, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish ularni turli xil tahdidlardan asrash, ularning mediasavodxonligini shakllantirish ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda bilim va ko'nikmalar berish targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish muhim hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мокрушина Е.В. / Воздействие политического PR на молодёжь в социальных сетях // URL:psujourn.narod.Ru/vestnik/vyp 6/moc soc. htm.

2. Qo'ng'irov I.H., Kungirova Sh.I. "Glaballashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari – T. 2020 yil, B-191.

3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.:O'zbekiston, 2017. – B. 25.

4. O'zbekiston Respublikasi „Ommaviy axborot vositalari to'g'risida“gi qonun\_2018 yangi tahrir;

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi“ to'g'risidagi farmonida\_2017; PF-4947sonli

6. Ijodkor o'qituvchi ilmiy uslubiy jurnal \_2022 yil 17 son Maqsudov U.

7. O'quvchi yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi \_2016

Toshkent.

8. Ўқувчи-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини ривожлантириш технологияси / Б.Ходжаев, М.Махмудова – Тошкент: “Tafakkur qanoti”, 2016.
9. Очиқ ахборот тизимларида ахборот- психологик хавфсизлик: ўқув қўлланма Умаров Б., Ахмедова М. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги; Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари ун-ти : - Т.: Chashma Print, 2013. .
10. Информационная культура личности: учебно-методическое пособие. – М.: Либерей-Библинформ, 2007.
11. <http://uz.infocom.uz/2016/03/30/axborot-olish-madaniyatini-shakllantirishdajitimoiy-meyorlarning-orni/>
12. Internet va axborot: xizmatlar, foydalanish asoslari. o'quv qo'llanma // Quدراتxo'jayev Sh. Toshkent. Istiqlol, 2001

## **BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH HAMDA ULARNING DIDAKTIK ASOSLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Karimova Kamola Komil qizi**

*BuxDPI II kurs magistranti*

***Annotatsiya.** Ushbu tezis matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish, ulardan foydalanishning didaktik asoslari va dars jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash jarayonida nimalarga alohida e'tibor qaratish masalalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lim, axborot texnologiyalari, dars, individual, kognitiv fikrlash, kreativlik, ko'nikma, malaka.*

Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalarini tatbiq qilish kundan-kunga kengayib, sohadagi imkoniyatlari takomillashib rivojlanib bormoqda. Bu axborot savodxonligi va madaniyati insonning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining kalitiga aylanishi bilan bevosita bog'liq. Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalariga murojaat qilish o'quvchilardagi ijtimoi hayotga doir axborotlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish, axborot bilan ishlashdagi amaliy usullarni egallash, texnik vositalarni qo'llash yordamida axborotlarni almashish kabi qulayliklarni beradi. Bu o'quvchilarning olingan bilimlarni ongli tarzda o'zlashtirishiga ko'maklashadi.

Boshlang'ich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bir qancha funksiyali vazifalarni bajarish yordamida o'quvchiga individual tarzda fikrlashga zamin yaratadi; har qaysi o'quvchini faol kognitiv jarayonga choralash; o'quvchilarni olingan material asosida o'z nuqtai nazarini bayon etishga va uni himoya qilishga o'rgatish.

***Axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida dars jarayonini quyidagicha tashkil etish mumkin:** estetik jihatdan boy hamda sifatli; rang barang va qiziqarli; bir qancha didaktik mahsulotni o'zida jamlagan holda bo'ladi.*

Axborot texnologiyalari orqali o'z-o'zini tarbiyalash, o'quv jarayonida rag'batlantirish ko'rsatkichi oshadi.

Ular kreativlik, turli malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish hamda ularni takomillashtirish uchun barcha kerakli imkoniyatlarni yaratadi. Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf darslarida foydalanish va uni darslarda joriy etishda quyidagi bir qator muammolar o'z yechimini topishi kerakligi ta'kidlanadi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarni puxta o'rgatishda o'ziga xos innovatsion texnologiya turi axborot texnologiyasi ekanligi;
2. Boshlang'ich sinf fanlarini axborot texnologiyalari orqali o'tishda ehtiyoj seziladigan mavzular bazasini shakllantirish lozim;
3. Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf darslarida foydalanish uchun uni didaktik vositalari tizimini ishlab chiqish zarur;

4. O'qituvchi boshlang'ich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan qo'llashda didaktik vositalardan foydalanish uchun maxsus ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Ta'lim sohasi har bir jabhaning negizi bo'lganligi sababli, unda axborot texnologiyalaridan foydalanish kelajakdagi yutuqlar uchun kafolatdir. Barcha yangilik, yutuqlar uchun ko'prik vazifasini o'tashi aniq. Har qanday darsda axborot texnologiyalaridan foydalanishning zamirida ta'lim olish sifatini yaxshilash, o'quvchilarni qiziqtirish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, turli sohada bir vaqtning o'zida o'z qobiliyati, salohiyatini namoyon qilish nazarda tutiladi. O'quvchilar bilan axborot texnologiyalari orqali dars jarayonini olib borishda bir nechta qoidalarga rioya qilish zarur:

- a. Darsning asosiy maqsadi, undan ko'zlangan natija axborot texnologiyalaridan foydalanish oqibatida o'z ahamiyatini yo'qotmasligi kerak.
- b. O'quvchilarning darsga diqqatini bo'lib qo'yadigan darajada bo'lmasligi kerak.
- c. Nafaqat dars mavzusi, balki boshqa bilimlarini ham mustahkamlashga xizmat qiladigan materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq.
- d. Dars jarayonida tartibsizliklar yuzaga keltirmaslik lozim.
- e. Foydalaniladigan axborot texnologiyalari o'quvchilarning yosh xususiyati, qiziqishlariga mos bo'lishi zarur.

Mana shunday talablar bajarilgandagina dars jarayonini axborot texnologiyalari yordamida tashkillashtirish o'zining yuqori samarisini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G., Shodiyev A.A. Axborot texnologiyalari. — Toshkent, 2004. - 76 b
2. Abdullayeva B.S., Saidova M.J. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. 2022, - 485 b.
3. Qosimov F.M., Qosimova M.M. MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.
4. Qosimov M.F., Kasimov F.F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
5. Rayhonov Sh., F.Qosimov, M.Qosimova "Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar ustida ishlash". – B.2017.
6. Saidova G. E. "BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferencea* (2023): 33-37.
7. Saidova, G.E. "PIRLS–BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 194-196.
8. Saidova G.E. "MANTIQUIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.
9. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH.*- 2020.-S: 118-120.
10. Саидова М. Во'ljak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.
11. Саидова М., Файзуллаева С. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini o'stirishda raqamlarni o'rgatishning integratsion va innovatsion yondashuvi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 118-126.
12. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 59-68.
13. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINIF MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.

14. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – C. 14-18.
15. Saidova M.J. Ta'limda multimedia texnologiyalardan foydalanish. – Buxoro. 2021-yil 308 b.
16. Saidova M.J. Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish: Ped. fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2020, 142 b.
17. Saidova M.J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
18. www.ziyounet.uz

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA VAQTGA OID TUSHUNCHALARNI O'RGATISH METODIKASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Muxammedova Muattar Iskandar qizi**

*BuxDPI 2-bosqich magistranti*

**Fayzullayeva Sarvinoz Nabi qizi**

*BuxDPI 2-bosqich magistranti*

*Annotatsiya:* Tezisdan boshlang'ich sinf o'quvchilariga vaqtga oid tushunchalarni o'rgatish yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* Vaqt, vaqtning xossalari, vaqtning yo'naltirilganligi, vaqt o'lchov birliklari.

Vaqt – bu falsafiy kategoriya bo'lib, materiyaning shartli taqqoslanuvchi harakat o'lchami.

Falsafada vaqt tushunchasi qaytarmas davr bo'lib, bu davrda mavjud jarayonlar sodir bo'ladigan holat tushuniladi. Vaqt tushunchasi odamning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi.

**Vaqt xossalari.** Dastavval, vaqt davriy, ya'ni yo'naltiruvchi xarakterga ega. Hisob sistemasiga nisbatan vaqt teng o'lchovli va teng bo'lmagan o'lchovlarga ega. Yerning quyosh atrofiga aylanishi yoki odam qon tomirining urishi teng o'lchovli emas.

Teng o'lchovli atom vaqtini olish mumkin. Sekund etaloni qilib, atomning nurlanish davri olingan. Qaysi kim atomning 2 ta o'ta yupqa holati mos keluvchi davrini ifodalaydi.

**Vaqtning yo'naltirilganligi.** Hozirgi zamon ko'pchilik olimlarning ko'rsatishicha o'tgan va hozirgi davr orasida printsipial farq mavjud.

Hozirgi zamon fan ravnaqi darajasiga ko'ra, ma'lumot o'tgan davrdan kelgusi davrga ko'chiriladi. Ammo aksincha emas. Darhaqiqat, o'tgan davrga qarab, nima ishlar qilinganligi, tarixiy voqealar sodir bo'lish haqida aniq ma'lumotlar ayta olmaymiz. Lekin taxminiy ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Ayrim tadqiqot ishlarida qandaydir qonuniyatni kelgusi davrda sodir bo'lishi haqida informatsiyani olish mumkin. Shu nuqtai nazardan, vaqtni o'tgan zamondan kelgusi zamonda yo'naltirilgan vaqt sifatida qarash mumkin.

**Vaqtga bog'liqlik.** Biz yashaydigan olamning har bir holatini vaqtga bog'lash mumkin. Darhaqiqat voqealarning sodir bo'lishi, falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, tug'ilish, yashash va tanazzul bevosita vaqtga bog'liq. Har bir jonzot Oллоh xohishi birla dunyoga keladi, ma'lum muddat umr ko'radi va tanazzulga uchraydi. Bu vaqt bilan o'lchanadi, vaqtga bog'liq bo'ladi.

Tun-kunning sodir bo'lishi, fasllarning o'zgarishi, yillar, asrlarning o'tishi vaqtga bog'liq bo'ladi.

Fizik holatlarni quyidagi 3 ta guruhga ajratish mumkin.

1. Statsionar holat, qaysikim, vaqt o'tishi bilan uning karakterli belgilari o'zgarmaydi.
2. Statsionar bo'lmagan holatlar. Vaqt o'tishi bilan uning karakterli husususiyatlari o'zgaradi.

Masalan: ba'zi bir fizik jismlarning vaqt o'tishi bilan bir holatdan 2-holatga o'tishi.

Masalan, atirning suyuq holatidan gaz holatiga o'tishi, muzning qattiq holatidan suvga

aylanishi.

3. Kvazi stattsionar holati Qaysi kim bunday holatlarga uzoq davrga borib taqaluvchi masalalar berilgan holatlarga misol bo'la oladi.

Vaqt kontsepsiyasi:

Vaqt to'g'risidagi tushunchani to'la karakterlaydigan, hamma tan olgan yagona nazariya mavjud emas. Vaqt tushunchasini karakterlovchi turli xil nazariyalar mavjud. Shulardan ba'zilarni qarab chiqamiz

a) klassik fizika

Bu nazariyada vaqt tushunchasi usluksiz miqdor bo'lib, voqeaning xarakteristikasi hisoblanadi. O'lchov sifatida voqeaning ketma-ket va davriy vaqtini ifodalaydi. Bu printsiptiga asoslanib soat ishlaydi.

Klassik fizikada vaqt olamdagi istalgan materiallar va fazodan farqli ravishda vaqt o'z-o'zidan mavjud.

Olamda mavjud jarayonlarning ifodalaydigan tushuncha – bu vaqtdir.

Olamdagi barcha jarayonlar murakkabligiga holatiga bog'liq bo'lmagan holda vaqt tushunchasi bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli, klassik fizikada vaqt absalyut miqdor sifatida qaraladi. Isak Nyuton quyidagi fikrni bildirdi: absalyut, haqiqiy matematik vaqt o'z-o'zidan hech qanday narsaga, munosabat bo'lmagan holda teng o'lchamli davrni o'tadi. Har qanday harakat absalyut vaqtning o'lchovidan tezlanishi yoki sekinlashishi mumkin. Vaqtning o'tgan, hozirgi, kelgusi davrlari bir xil o'lchamlarida o'lchangan. Shu sababli uni davr o'lchovlaridayordamida o'lchash mumkin bo'ladi.

Vaqtning ma'lum, qiymatlari uchun mos sonni qo'yish mumkin. Klassik fizikada vaqt aniq o'lchov asboblari yordamida o'lchanadi.

Termodinamikada vaqt qaytarmas o'lchov sifatida qabul qilingan.

Kvant mexanikasida vaqt tushunchasini tashqi tomondan qaralganda o'zgaruvchi miqdor sifatida qaraladi.

Astronomiyada vaqt yerning o'z o'qi atrofida aylanishi sifatida talqin etiladi. Hisoblashlarda vaqtning turli hil to'plamlaridan faydalaniladi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

a) mahalliy, haqiqiy quyosh vaqti- quyoshning meridiandan o'tish vaqti kunning 2-yarim. Bunday vaqt qiyosh vaqti deb ataydilar.

b) mahalliy o'rta quyosh vaqti- quyoshning yil davomida harakati nazarda tutilgan vaqti (farq-15 min)

v) halqaro vaqt (Grindvich vaqti)- bu vaqtga asoslangan atom soatlari ham mavjud. Bu vaqt qiy yer sharining barcha joylarida ishlatadilar. Kosmonavtika, astronomiya va boshqa sohalarida ishlatiladi uni qisqartirib, UTS – inglizcha UNIVERSAL TIME COORDINATED belgilanadi.

g) poyaslar vaqti Yer shari 24 ta soat poyasiga bo'lingan. Aholi punktlari belgilangan soat poyaslari bilan ishlaydi. Har bir qo'shni poyas bir soat farq qiladi.

d) Dekret vaqti- 1930 yilda sobiq SSSR davlatining barcha territoriyalarida davlat dekretiga asoslanib vaqt bir soat oldin qilib ko'rsatiladi. Grindvich vaqtiga nisbatan uch soatga farq qiladi.

e) Yozgi vaqt- har mart oyining oxirgi yakshanbasida bir soat vaqt kechga suriladi.

j) yulduzli vaqtlar-teng kunlikdan boshlab hisoblaydigan vaqtlar.

Vaqt o'lchov birliklari:

Ming yil-hozir 3000 yilni boshlagan davrda yashayapmiz.

-100 yil- bir asr

-yil- yerning quyosh atrofida 1 marta aylanishga ketgan vaqti

- oy- 30 yoki 31 kun

-dekada 10 kun

- hafta- 7 kun

-sutka- 24 soat

-soat- 60 min

-minut- 60 sekund

-sekund



- millisekund
- nanosekund
- mikrosekund

Boshlang'ich sinf matematika kursini o'qitishda vaqtning quyidagi o'lchov birliklari o'rganiladi:

Yil, oy, hafta, kun, sutka, soat, minut, sekund, asr.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. . "Turon-Iqbol" 2016 yil 426b.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2015 yil.
3. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun ) Toshkent. "O'qituvchi" 2014 yil.
4. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006 yil. 20 b/t.
5. Tadjiyeva Z.G., Abdullayeva B.S., Jumayev M.E., Sidelnikova R.I., Sadikova A.V. Metodika prepodavaniya matematiki. -T. "Turon-Iqbol" 2011. 336s.
6. Qosimov F.M., Qosimova M.M. MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.
7. Qosimov M.F., Kasimov F.F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
8. Rayhonov Sh., F.Qosimov, M.Qosimova "Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalr ustida ishlash". – B.2017.
9. Saidova G. E. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferencea* (2023): 33-37.
10. Saidova, G.E. "PIRLS-BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 194-196.
11. Saidova G.E. "MANTIQUIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.
12. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH.*- 2020.-S: 118-120.
13. Саидова М. Во'ljak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.
14. Саидова М., Файзуллаева С. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik savodxonligini o'stirishda raqamlarni o'rgatishning integratsion va innovatsion yondashuvi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 118-126.
15. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 59-68.
16. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIK DARSALARIDA CREATIVE TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.
17. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.
18. Saidova M., Dilova N., Abdullayeva B., "Ta'limda multimedia texnologiyalardan foydalanish". – Toshkent: "O'qituvchi". 2021- yil.
19. Saidova G., Yusufzoda Sh., Yarashov M., "Matematika o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar". – Buxoro: "Durdona" nashriyoti. 2021- yil.

# INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Jumayeva Habiba G'aforovna

*Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida stajyor-tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda maktablarda ta'lim-tarbiya masalalariga keng ko'lamda e'tibor berilmoqda. Shunday ekan, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy qobiliyatlarini o'rgatishni takomillashtirish orqali ularda kreativ fikrlash xususiyatlarni tarbiyalashi lozim. Mazkur maqolada shu haqida so'z yuritilmoqda.

**Kalit so'zlar:** ijodiy qobiliyat, boshlang'ich sinf, o'qish, darslik, ta'lim, tarbiya, metodika, qobiliyat, sinf, ona tili va o'qish savodxonligi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga etkazib berish, ularda mlum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Quyida ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritilmoqda.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Interaktiv** (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib, "interact"- "inter"-bu o'zaro, "act"-bu "harakat qilmoq?" ma'nosini anglatadi.

Umumlashtirganda esa interaktiv usullar – (Interaction – inglizcha –aro, o'zaro, ast-harakat ma'nosini anglatadigan so'zlardan iborat) o'zaro harakat, yoki hamkorlik asosida harakatni bildiradi.

Interfaol ta'lim bu:

- ✚ strategiya va metodologiya;
- ✚ doimiy muloqotga asoslangan metodlar tizimi;
- ✚ birgalikdagi o'qish va faol ishtirok etishdir.

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, talabalar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, auditoriya jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, talabalarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Inter ingliz tilidagi "inter" old qo'shimchasidan iborat bo'lib, u tom ma'noda o'zaro ta'sir, yo'nalganlik ma'nosini anglatadi. Bu erda inter so'zi keng doirada, xalqaro miqyosdagi ta'sir, harakat, yo'nalganlik mazmuniga ega. Interfaol atamasiga kelsak, u «interactive» ya'ni keng xalqaro miqyosdagi harakat faolligini bildiradi. Lotincha inter so'zining ma'nosi – ichki potentsial imkoniy quvvat degani.

Ma'lumki, har bir inson o'z ichki imkoniy quvvatiga va o'zgalarda qaytarilmas fazilatga ega.

Interaktiv usul tarbiya nuqtai nazaridan, har bir kishini ruhiy, ilohiy tavsifini ko'zda tutgan holda, xalqaro miqyosdagi ta'lim-tarbiya yangiliklarni hamda ma'naviy manbalarimizdagi aks ettirilgan intellektual salohiyatimiz ko'nikmalariga asoslanib komil farzand tarbiyalash demakdir.

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qullanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga pedagoga va o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ta'lim-tarbiya jarayonida ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy tavsifdagi izlanishlarni talab qiladigan masalalarni hal qilish uslublari bilan tanishadi. Bugungi kun ta'lim oluvchidan faol harakat qilishni, mustaqil qaror qabul qilishni, hayotning o'zgarayotgan sharoitlariga tez moslashishni talab qiladi. Buning uchun, ta'lim oluvchi zarur bilimlarni mustaqil egallash va amaliyotda qo'llash; muammolarni yechishga qaratilgan qarashlarni taklif qilish, yangi muammolarni aniqlash va yechish; erkin va mustaqil fikrlash; innovatsion g'oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo'lish; o'zining intellektual salohiyati rivojlantirish ustida mustaqil ishlash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullayeva Q., Ochilov M., Nazarov K., Fuzailov S., Bikboyeva N. Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. – T.: OZPFITL, 1994. – 29 b.
2. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишининг назарий асослари. Пед. фан. док... дисс. – Бухоро, 2002. – 276 б.
3. Адизов Б. Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишининг назарий асослари. Пед. фан. док... дисс. – Бухоро, 2002. – 276 б.
4. Azimova I., Mavlonova K., Azimova I., Quronov S., Shokir Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-2-qism: 1-sinf uchun darslik. – T.: "Respublika ta'lim markazi", 2021. – 104 b.
5. Hamroyev R.A Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish (Ped.fan.dok. diss.). Buxoro; 2020.
6. Jumayeva H. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
7. Jumayeva H. Loyihaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
8. Jumayeva H.G. Methodology for Improving the Creative Abilities of Students in Primary School Native Language Education //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 236-238.
9. Mavlonova K., Azimova I., Quronov S., Shokir Tursun, Ro'zmetova Z. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism: 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: "Respublika ta'lim markazi", 2022. – 144 b.
10. Mavlonova K., Azimova I., Quronov S., Shokir Tursun va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism: 2-sinf uchun darslik. – T.: "Respublika ta'lim markazi", 2021. – 120b.

# BOSHLANG'ISH SINIF TARBIYA DARSLARIDA O'QUVSHILARNING IJTIMOIIY VA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING UZVIYLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Hakimova Nargiza Supxonovna

*Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi (PhD)*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ish sinf tarbiya darslarida o'quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishning uzviyligi, huquqiy ong boshlang'ish sinf o'quvchisi shaxsi huquqiy madaniyatining tizimli elementi ekanligi, bolaning bilim olish jarayonida ota-ona va o'qituvchi e'tiborining zarurligi, kishik yoshdagi o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallash tashabbusini paydo qilishning psixologik ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalar, uzviylik, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, hayotiy ko'nikmalar, ta'lim sifati, o'qituvchi mahorati, refleksiya, kreatiolik, innovatsiya

Shaxs huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi uning ma'naviy-amaliy tarkibiy qismlaridan tashkil topgan jami huquqiy faoliyatdir. Agar huquq sohasidagi amaliy faoliyat qonun ijodkorligi, huquqiy tartibga solish, huquqni qo'llash va amalga oshirish bo'lsa, nazariy faoliyat ishlab shiqarish (ilmiy, ijodiy) va reproduktiv (huquq nazariyasi o'quvshilari faoliyati) turlaridan iborat.

Huquqiy ongli kichik boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsi huquqiy madaniyatining tizimli elementi bo'lib, uning alohida sifat holatida nafaqat elementlardan biri, balki uning huquqiy madaniyatining asosiy ko'rsatkishi sifatida ham harakat qiladi. Bu ko'p jihatdan, jamiyatdagi huquqiy munosabatlarning holati, ijtimoiy tuzilmalarni boshqarish uslubi va usullari, qonun hujjatlari va uni amalga oshirish amaliyoti, jamiyatda hukmronlik qiladigan ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi.

Kishik boshlang'ish sinf o'quvchisining huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida uning faoliyat subyekti sifatidagi umumlashtirilgan xususiyatlaridan kelib chiqish kerak, ular orasida nafaqat obyektlar va g'oyalar dunyosini o'zlashtirish, balki ishlab chiqarish qobiliyatini ham aniqlaydi. Ularni o'zgartirish, yangilarini yaratish, vazifalarni qabul qilish, uni amalga oshirishning barsha bosqichlarida faoliyatga munosabat, shaxsning qobiliyati va istagi, agar kerak bo'lsa, ularni mustaqil ravishda aniqlash;

- qabul qilingan yoki mustaqil ravishda ishlab shiqilgan ko'rsatmalar va topshiriqlarga muvofiq amalga oshiriladigan ko'nikmalarga, faoliyatning indikativ asoslariga yega bo'lish;

- boshqa odamlar ushuni o'z ahamiyatini anglash, faoliyat natijalari ushuni javobgarlik, tabiiy va ijtimoiy voqelik hodisalari ushuni javobgarlikka jalb qilish, nizoli vaziyatlarda axloqiy tanlov qilish qobiliyati, qaror qabul qilish istagi, tanlovni asoslash, "men" ishida;

- aks ettirish qobiliyati, unga bo'lgan ehtiyoj o'z xatti-harakatlarini, istaklar va qabul qilingan maqsadlarga muvofiq faoliyatni ongli ravishda tartibga solish sharti sifatida, bir tomondan, cheklovlar, "o'z erkinligining yetishmasligi chegaralarini anglash", boshqa tomondan;

- yuqorida ko'rsatilgan barcha ko'rinishlarda shaxsning faol pozitsiyasini anglatuvchi "integratsion faoliyat" – ongli maqsadni belgilashdan dialektik operatsiya va faoliyat usullarini konstruktiv sozlashgacha;

- faoliyat va munosabatlar natijalarini faol, tanqidiy va innovatsion tarzda aks ettirish va bashorat qilish istagi va qobiliyati;

- o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini-o'zi belgilash, o'zini-o'zi aniqlash, o'z taqdirini o'zi belgilash va hokazolarni amalga oshirishga e'tibor qaratush;

- maqsadni hisobga olgan holda o'z faoliyatiga, unga hamroh bo'lgan holatlarga mustaqil ravishda tuzatishlar kiritish qobiliyati; "tashqi dunyo"dan, tashqi ta'sirlardan ishki mustaqillik, mustaqillik ularni mensimaslik ma'nosida emas, balki qarashlar, e'tiqodlar, ma'nolar, motivlarning barqarorligi, ularni tuzatish, o'zgartirish,

- eng muhim individual protsessual xususiyatlarga ega bo'lish (ko'nikmalarning ko'p

qirraliligi, mustaqillik, ijodkorlik va boshqalar), o'ziga xoslik, o'ziga xoslik, ular subyektlararo samarali munosabatlar ushuni asos bo'lib, o'zaro ta'sir, hamkorlik, muloqot qilish istagini rag'batlantiradilar.

Huquqiy psixologiya boshlang'ich sinf o'quvchisining huquqiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida uning huquqqa, qonuniylikka, jamiyatda faoliyat yurituvchi huquqiy institutlar tizimiga munosabatini ifodalovchi ijtimoiy-psixologik keshinmalar va his-tuyg'ular to'plamidir.

Jamiyat rivojlanishining turli davrlari huquqiy xulq-atvor normalari va qoidalari, nimaga kerakligi, muayyan ijtimoiy vaziyatlarni tartibga solish usullari to'g'risida o'zlarining, ba'zan noaniq g'oyalarni talab qiladi. Aslida, biz ijtimoiy-huquqiy ongning obro'li subyektlarning buyruqlari va ularning ixtiyoriy qarorlari bilan yemas, balki uning rivojlanishining ma'lum bir ishki mantig'iga bo'ysunadigan hodisa sifatida qaraydigan taqdirdagina aniqlash mumkin bo'lgan ijtimoiy tartibga solish qonunlari haqida ketmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi ijtimoiy-huquqiy ongning attitudinal-xulq-atvor komponentining muhim elementi huquqiy mentalitet bo'lib, uning subyekt sifatidagi faoliyatining ma'nosini ko'p jihatdan belgilaydi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash zarurki, "ongning murakkab ruhiy tuzilishi sifatida ma'no, avvalo, tarbiyadan kelib chiqishi kerak, o'z tajribasiga ega bo'lmasdan turib, o'zganing shaxsiy tajribasi bilan samarali shug'ullanish mumkin emas".

Bolaning huquqiy madaniyatining aqliy komponenti – bu xatti-harakatlarning o'zi emas, balki o'zini tutishga ma'lum bir "yashirin", "aks ettirilmagan" tayyorlik. Mentalitetning o'ziga xos xususiyatlari va nigilistik huquqiy xulq-atvor o'rtasidagi munosabatlar muammosini o'rganayotganda, ongning o'zgarish tuzilmalariga, huquqiy ongning tasviriy qatlamida ildiz otgan va ijtimoiy ongda ifodalangan shaxsning hayoti va aksi "madaniy avtomatizmlar"ga e'tibor qaratish lozim. Bu yerda, ongning ushbu fundamental tuzilmalari ko'plab madaniy omillar, til, din, tarbiya, ijtimoiy muloqot bilan belgilanishini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy munosabatlar tizimi, ularning "o'zligi", ko'p jihatdan, millatning ijtimoiy-huquqiy hayotining algoritmini belgilab beruvchi mentalitetning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. O'qituvchi tomonidan o'z faoliyatida o'z tarbiyalanuvchilarining milliy mentalitetini tushunish, bilish, intuitiv his qilish va hisobga olish kichik boshlang'ich sinf o'quvchisining shaxs sifatida ma'naviy va huquqiy fazilatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning zarur va muqarrar shartidir.

Boshlang'ich boshlang'ich sinf o'quvchisining ijtimoiy-huquqiy madaniyati real mavjudotda beshta aniq funksiyani bajaradi:

- ✓ kognitiv jihatdan o'zgartiruvchi;
- ✓ huquqiy tartibga soluvchi;
- ✓ qiymat-me'yoriy ;
- ✓ huquqiy ijtimoiylashtiruvchi;
- ✓ kommunikativ.

Ularning asosiy tushunchasi, birinchi navbatda, hayotning huquqiy sohasida ma'naviy qadriyatlarni saqlash, huquqiy tajribani keyingi avlodlarga yetkazish, odamlarning huquqiy ongini va uni qayta ishlab chiqarish mexanizmlarini qo'llab-quvvatlashga to'g'ri keladi. Munosabatlarning hayotiy sohalariga ta'siri. O'quvchining huquqiy madaniyatining samarali ishlashi ushuni tegishli muhit zarur.

Zero, jamiyatda yuksak madaniyatli, rivojlangan adolat tuyg'usi va huquqiy madaniyat tashuvchisi bo'lgan, shakllanish jarayoni ularning axloqiy shakllanishi va huquqiy ijtimoiylashuvining umumiy jarayonlariga organik ravishda kiritilgan fuqarolar bo'lishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qosimov F.M., Qosimova M.M. MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.

2. Qosimov M.F., Kasimov F.F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.

3. Rayhonov Sh., F.Qosimov, M.Qosimova "Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar ustida ishlash". – B.2017.
4. Saidova G. E. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH". *Conferencea* (2023): 33-37.
5. Saidova, G.E. "PIRLS–BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 194-196.
6. Saidova G.E. "MANTIQUIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH". *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 60-61.
7. Supkhanovna H. N. Formation of Socio-Legal Competences in Primary Class Students //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – S. 247-249.
8. Supxonovna H. N. Social Competencies of Primary School Students //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2022. – T. 1. – №. 2. – S. 110-112.
9. Saidova G.E., Sanokulova S.F. "EFFICIENCY OF USING THE TECHNOLOGY OF DIDACTIC GAMING EDUCATION IN THE ELEMENTARY CLASSES". *EUROPEAN RESEARCH.*-2020.-S: 118-120.
10. Саидова М. Во'лажак бoшлaнғич синаф о'қитувчиларининг методик таййоргарлигини тақомиллаштириш имкониётлари //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.
11. Саидова М., Файзуллаева С. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarining matematik savodxonligini o'stirishda raqamlarni o'rgatishning integratsion va innovatsion yondashuvi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 118-126.
12. Саидова М., Каримова К. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 59-68.
13. Saidova M.J. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.
14. Saidova M.J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.

## **ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH UCHUN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Karimova Dilnoza**

*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 50-umumta'lim maktabining  
birinchi toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda ta'limning barcha turlariga ilg'or pedagogik texnologiyalar maqomi ostida o'qitishning yangi uslub va shakllari kirib ulgurdi. Shuningdek, ta'limga axborot kommunikatsiya texnologiyalar (AKT) ni joriy qilish ham dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Haqiqatan ham, bugungi kunda ta'limni, jumladan, ona tili va adabiyot fanlarini ham ilg'or pedagogik texnologiyalar va AKTsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu boradagi asosiy muammo – mazkur texnologiyalarni mahorat bilan oqilona qo'llash, dars jarayonida ularning qo'llanishi lozim bo'lgan eng uyg'un nuqtalarni topishdan iborat. Ta'limda turli interfaol usullardan foydalanish yaxshi, ular dars samaradorligini oshirishi tabiiy.

Chinakam dars – tom ma'nodagi ijod mahsulini. Darsni ijod mahsuliga aylantirish uchun o'qituvchidan chuqur bilim va katta tajriba talab etiladi. Chunki darslarning bir xil qolipda o'tilishi bugungi kun o'quvchisi uchun zerikarli bo'lmoqda. Bir xildagi darslar o'quvchilarda darsga bo'lgan e'tiborni, mas'uliyatni susaytiradi, demakki, fanga bo'lgan qiziqishi ham pasayadi. O'qituvchi har bir darsga ijodiy yondashib, o'quvchilarning ijodiy salohiyatiga turtki bo'ladigan, ularni mantiqiy fikrlashga, yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga asos bo'ladigan usullardan foydalanishi zarur. Shunda o'quvchi kelgusi darsga oshiqadi, darsga bo'lgan qiziqishi kuchayib, dars samaradorligi ta'minlanadi.



Quyida tajribamda sinalgan usullardan namunalar keltirib o'tmoqchiman:

**"Fikrni davom ettiring" topshirig'i:**

Bu topshiriqda o'quvchilarga ma'lum bir fikr berilib, uni mantiqan davom ettirish topshiriladi. Bundan ona tili va adabiyot darslarida o'tilgan va yangi mavzularni mustahkamlashda foydalansa bo'ladi. Masalan, ona tili darslarida har bir qatorga bir mavzu beriladi. O'qituvchi qoidaning boshini aytib, fikrini to'xtatadi. Shu qatorning o'quvchilari qoidani davom qildirib, shu mavzu bo'yicha bilganlarini aytadilar. Masalan:

1-qator: Shaxs, narsa-buyum, joy nomlarini bildirib, ... .("Ot" mavzusi bo'yicha 1-qator o'quvchilari bilgan ma'lumotlarini aytadilar).

2-qator: Qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lib, ... . ("Sifat" mavzusi bo'yicha 2-qator o'quvchilari bilgan ma'lumotlarini aytadilar).

3- qator: Qancha?, nechta?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lib, ... . ("Son" mavzusi bo'yicha 3-qator o'quvchilari bilgan ma'lumotlarini aytadilar).

Adabiyot darslarida esa adiblarning hayoti va ijodini o'rganishda yaxshi samara beradi. Masalan, A.Qodiriyning hayoti va ijodini o'rganishda quyidagicha topshiriq berish mumkin:

1. Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda ... .

2. Uning 1913-1916-yillar oralig'ida yozilgan ilk asarlari: ... .

3. 1922-yilda Abdulla Qodiriyning ... .

4. 1932-1934-yillarda zamonaviy mavzudagi ... .

5. Abdulla Qodiriy birinchi bo'lib ...

**"Maktub" usuli.** Ushbu usuldan foydalanib, "Men kimman?" o'yini asosida o'tilgan mavzularni qayta mustahkamlash mumkin. Bunda, o'qituvchi oldindan tayyorlangan maktublarga ijodkorlar nomidan topshiriqlar yozadi, o'quvchilar rangli maktublardan birini tanlab, undagi ijodkorni topishlari kerak bo'ladi.

1-maktub: "Men 1936-yilning 28-dekabrida Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilganman. Men tog'am qo'lida tarbiya topganman. Ilk she'riy to'plamim "Tong nafasi", ilk dostonim "Nido", "Faust" asarini o'zbek tiliga tarjima qilganman. Men kimman? (E.Vohidov).

2-maktub: "Men 1878-yilning 12-iyulida Toshkent shahrining Mergancha mahallasida dunyoga keldim. Ilk she'riy mashqlarim 1894-yildan boshlab yozila boshlagan. Gazetchilik bilan shug'ullanganman. "Turon" nomli jamiyat va teatr tashkil qilganman. Asarlarim: "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni". Men kimman? (A.Avloniy).

3-maktub: "Men Eronning Sheroz shahrida tug'ildim. "Guliston" va "Bo'ston" asarlarim nomimni dunyoga tanitdi. Umrim davomida 20 yildan ko'proq sayohatlarda bo'ldim. Men kimman?" (S.Sheroziy).

4-maktub: "Men Qo'qonning Bekvachcha mahallasida tug'ilganman. Dastlabki ta'limni ustozim mulla Abduxalildan olganman. Onam Oyshabibi qobiliyatli ayol edi. Xattotlik san'atini Muhammad Yusufdan o'rganganman, sayohatnoma janrining shakllanishi va takomilga erishuvida o'z hissamni qo'shganman. Men kimman?" (A.Avloniy).

**"Anogramma" mashqi.** Bunda o'quvchiga berilayotgan so'zlar faqat biror hodisa, mavzu asosida yoki boshqa biror jihatlari bilan umumiy xususiyatga ega bo'lib, ular ichida faqat bittasi "begona" bo'ladi. O'quvchi ana shu so'zni aniqlay olishi va javobini izohlay olishi kerak. Anogrammaga misollar:

1. Kishilik, o'zlik, gumon, ko'rsatish, belgilash, holat.

Javob: Holat so'zi, chunki berilgan misollar olmoshning ma'no turlari bo'yicha. Holat olmoshning turiga kirmaydi

2. To'ldiruvchi, aniqlovchi, ega, kesim, ravish, hol.

Javob: ravish so'zi, chunki u gap bo'lagi emas.

3. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, sifatdosh.

Javob: sifatdosh so'zi, chunki u mustaqil so'z turkumiga kirmaydi.

4. Suvchi, gulchi, bog', bog'bon, o'qituvchi, shifokor, huquqshunos.

Javob: bog' so'zi, chunki u shaxs oti emas.

5. "Mehrobdan chayon", "O'tgan kunlar", "Uloqda", "Dahshat", "Kalvak Maxsumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi?" .

Javob: "Dahshat" hikoyasi A.Qodiriy qalamiga mansub emas.

6. "Munshaot", "Vaqfiya", "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Navodirun-nihoya", "Tazkirat ush-shuaro", "Xamsa".

Javob: "Tazkirat ush-shuaro" asari A.Navoiy qalamiga mansub emas.

7. Tazod, tashbih, intoq, iqtibos, musamman, tajnis, ishtiyoq.

Javob: musamman so'zi, chunki u she'riy san'at hisoblanmaydi.

8. G'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, masnaviy, muvashshah, murabba'.

Javob: muvashshah so'zi, chunki u she'riy janr hisoblanmaydi.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida ana shunday interfaol usullardan foydalanilsa, dars ham qiziqarli, ham samarali bo'ladi. O'quvchilarga mavzuni tez o'zlashtirib olishiga yordam beradi. O'quvchi faolligini oshiradi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchi baholanadi. O'quvchilar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganishga va uni xotirada saqlashga, boshqalarga yetkazishga erishiladi. O'quvchilar yangi bilimlarni egallaydi. Yakka va guruh bo'lib ishlashni o'rganadilar, nutqi rivojlanadi. O'qituvchi mavzuning dars jarayonida ta'limning ilg'or usullari vositasida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi.

Bugungi kun talabiga mos ravishda darslarni tashkil qilish har bir pedagog oldidagi muhim ustuvor vazifa sanaladi. Zero, dars-teatr, ammo undagi ishtirokchilar tomoshabin emas. Shunday ekan, har bir dars-buyuk asardir. Uni tashkil qilish va dars samaradorligiga erishish har bir o'qituvchining o'z qo'lidadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aliyev A.T. "Pedagogik texnologiyalar va ularning ahamiyati". "Tafakkur" nashriyoti, - Toshkent. 2019.
2. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. "Sharq" nashriyoti, - Toshkent. 2020
3. Adizova Nodira. "BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI". *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
4. Адизова Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ". *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
5. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
6. Avezov O.R. [Psixologicheskie osnovi sozdaniya i razvitiya obrazovatelnoy sredi innovatsionnogo obucheniya](#). *Vestnik integrativnoy psixologii* 4 (No. 23), 168-171.
7. Bakhtiyorovna N.A., Bakhtiyorovna N.A. [Anvar obidjon is a children's poet](#). *Middle European Scientific Bulletin*.
8. Bakhtiyorovna N.A., Dilsora E. [Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games](#). *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 3 (31), 540-545 b.
9. Hodjiyeva O.F. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhit yaratish yo'llari. Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari. Maqolalar to'plami. "Fan" nashriyoti, - Toshkent. 2006.
10. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 2. –№. 2.
11. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №.2. – С. 140-144.
12. Сулаймонович Феруз Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
13. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).

INKLYUZIV TA'LIM: AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI,  
XUSUSIYATLAR VA TAVSIYALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Shoxista Shodiyevna Nizomova**

*BuxDU dotsenti, f.f.f.d (PhD),*

**Ubaydullayeva Pokizabonu Qahramon qizi**

*BuxDU talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim va uning afzalliklari kamchiliklari, xususiyatlar va tavsiyalar va uni yosh bosqichlaridagi ahamiyati va undan foydalanishni shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** inklyuziv ta'lim, tarbiya, o'yin, metod, yosh bosqichlari, pedagogik texnologiya, ijodiy o'yin.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено инклюзивное образование и его преимущества, недостатки, особенности и рекомендации, а также его важность и использование на юношеских этапах.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, обучение, игра, метод, возрастные этапы, педагогическая технология, творческая игра.

**Annotation:** In this article, inclusive education and its advantages, disadvantages, features and recommendations are discussed, as well as its importance and use in the youth stages.

**Key words:** inclusive education, education, game, method, age stages, pedagogical technology, creative game.

Istiqloq yillarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni o'rgatish,

pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o'quv-tarbiya jarayonida qo'llay olishlariga erishish, shuningdek, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berish, pedagogik va axborot texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda pedagog-o'qituvchilarning mahoratini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. "Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha "inclusive" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oladi" deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'lig'i cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Bunday holda, ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. O'rnatish va asboblar maxsus bolalarga moslashtirilgan bo'lishi kerak, va boshqa talabalar va o'qituvchilar har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini tushunishlari va qabul qilishlari kerak.

Ta'limning boshqa shakllari singari, inklyuziv ta'lim ham afzalliklari va kamchiliklariga ega. Ushbu ta'lim mashg'ulotning afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Odamlarning keng doirasi, shu jumladan, sog'lig'i cheklanmagan odamlar, ya'ni oddiy odamlar bilan o'zaro munosabatlar. Inklyuziv ta'lim paydo bo'lishidan oldin, alohida ehtiyojga ega odamlar o'rtasida bunday muloqot qilish imkoniyati deyarli mavjud emas edi. Turli xil nogiron kishilarning aksariyati uchun ijtimoiy doiralar rehabilitatsiya markazlariga yaqin qarindoshlari va boshqa tashrif buyuruvchilar bilan cheklangan.

2. Boshqa bolalar bilan teng ravishda jamiyatga qo'shilish qobiliyati. Maxsus ehtiyojga ega bo'lgan odamlar, shuningdek, ko'rgazmalar, muzeylar, teatr tomoshalari kabi madaniy tadbirlarga tashrif buyurishlari mumkin. Biroq, ular o'zlarining ehtiyojlariga moslashtirilgan, to'siqsiz muhit deb nomlangan muhit bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

3. O'qish va undan keyingi davrda tuzatish, psixologik, ijtimoiy yordam olish. Bunday ko'mak inklyuziv tarzda o'qitish uchun maxsus tayyorlangan o'qituvchilar tomonidan ta'minlanadi.

4. Aloqa va sotsializatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish. Jamiyat bilan o'zaro munosabat repetitor yordamida amalga oshiriladi: maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan va ularga ega bo'lmagan odamlar o'rtasida vositachi. Ta'limning barcha bosqichlarida maxsus o'quvchiga repetitor hamroh bo'ladi.

Inklyuziv ta'limning ijobiy va salbiy tomonlarini tortib, ushbu turdagi ta'limning kamchiliklarini hisobga olish kerak. Inklyuziv ta'limning kamchiliklariga quyidagilarni kiritish

mumkin:

1. Maxsus ehtiyojli bolalarni kuzatib borish uchun tayyorlangan malakali kadrlar – o'quvchilar, o'qituvchilar, psixologlar, defektologlar, logopedlar yetishmasligi.

2. O'qituvchilar tarkibi ko'pincha ehtiyojlari bo'lgan talabalarga nisbatan yumshoq munosabatda bo'lishadi, shuning uchun ularning bilimlarini baholash ob'ektiv emas.

3. Milliy o'quv dasturi ko'pincha ba'zi o'quvchilarni ma'lum bir bosqichda o'qishni davom ettirishga to'sqinlik qiladi.

4. Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning ota-onalari ko'pincha ma'lumotlarga ega emaslar. Natijada, bolalar faqat o'rta ma'lumot olishadi va o'qishni davom ettira olmaydilar.

5. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun nafaqat inklyuziv, balki umumta'lim maktablari ham zarur.

Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish

imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish demakdir. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish vayozihga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

So'nggi o'n yilliklarda jamiyatning nogiron kishiga munosabati tubdan o'zgarib boshladi, uni jamiyatning teng huquqli va munosib a'zosi deb tan oldi, ammo baribir o'zining qo'shimcha muammolari bor. Odatda, oilada nogiron bola paydo bo'lishi bilan moddiy, maishiy, moliyaviy va uy-joy muammolari ko'paymoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, nogiron bolalari bo'lgan oilalar orasida eng katta foiz to'liq bo'lmagan onalar oilalari. Ota-onalarning 15 foizi nogiron bola tug'ilishi sababli ajrashgan, onaning qayta turmush qurish imkoniyati yo'q. Shuning uchun, nogiron bola oilasining muammolari to'liq bo'lmagan oilaning muammolariga qo'shiladi. Oiladagi psixologik iqlim bog'liq shaxslararo munosabatlar, ota-onalar va qarindoshlarning ma'naviy va psixologik manbalari, shuningdek, tarbiyalash, o'qitish va tibbiy- ijtimoiy rehabilitatsiya shartlarini belgilaydigan oilaning moddiy va turmush sharoitlaridan. Ota-onalarning nogiron bolaning paydo bo'lishiga bo'lgan munosabati bo'yicha oilalarning 3 turi mavjud: mavjud muammoni tushunmaslik bilan bog'liq passiv reaksiya bilan; giperaktiv reaksiya bilan, ota-onalar intensiv davolanayotganda, ular "shifokorlar-yoritgichlar", qimmatbaho dorilar, yetakchi klinikalar va boshqalarni topadilar; o'rtacha ratsional pozitsiya bilan: barcha ko'rsatmalarning izchil bajarilishi, shifokorlar, psixologlarning tavsiyalari. Oilabilan maslahat, profilaktika va tarbiyaviy ishlar hamkorlik g'oyasiga asoslanadi, uning ta'lim qobiliyatini oshiradi, ota-ona va bola o'rtasida uyg'un munosabatlarni o'rnatadi. Ushbu ishning maqsadi – ota-onalarning ta'lim jarayonida oilaning roliga bo'lgan psixologik munosabatlarini o'zgartirish; bola bilan munosabatlar uslubini o'zgartirish; oilaning pedagogik imkoniyatlaridan kengroq foydalanish. Bundan tashqari, ijtimoiy ish talabalar va ota-onalarni ularning huquqlari va majburiyatlari, qonunchilik hujjatlari bilan tanishtirishni, shuningdek, nogironlar bilan bog'liq jamoat va davlat tashkilotlari to'g'risida ma'lumot berishni o'z ichiga oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2017 йил 30 сентябрдаги ПФ-5198-сонли Фармони.
2. O'zbekiston Respublkasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi.
3. Адизова Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ". *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
5. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
6. Avezov O.R. [Psixologicheskie osnovi sozdaniya i razvitiya obrazovatelnoy sredi innovatsionnogo obucheniya](#). Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 23), 168-171.
7. Bakhtiyorovna N.A., Bakhtiyorovna N.A. [Anvar obidjon is a children's poet](#). Middle European Scientific Bulletin.
8. Bakhtiyorovna N.A., Dilsora E. [Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games](#). The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545 b.
9. Hodjiyeva O.F. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhit yaratish yo'llari. Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari. Maqolalar to'plami. "Fan" nashriyoti, - Toshkent. 2006.
10. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2021. –Т. 2. –No. 2.
11. Khaitov N., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ

ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №.2. – С. 140-144.

12. Сулаймонович Феруз Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.

13. Ёринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

14. Musurmonova, O. *Umumiy pedagogika*. Yoshlar nashriyot uyi, 8-oktabr 2020-yil — 48-49 bet. ISBN 978-9943-6679-0-7. 10-noyabr 2022-yilda qaraldi.

## INNOVATIVE AND INCORPORATING WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF PRESCHOOL EDUCATION

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Eshim Mardanov**

*(a docent at Uzbekistan – Finland Institute of Pedagogy),*

**Nafosat Salimova**

*(a student of Master's degree at Samarkand State Institute of Foreign Languages),*

**Lobar Abdusaidova**

*(a student at Uzbekistan – Finland Institute of Pedagogy). Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishda sifat va samaradorlikka erishishning innovatsion, inkorporatsion usullari: muammo va yechimlar. +998912981954*

**Annotation.** *This article analyses the different ways to implement in the preschool education in order to enhance its efficacy. The authors have discussed and analyzed the possible methods to implement, together with providing relevant examples and merits and demerits.*

**Key words:** *preschool education, play based learning, nature-based learning, technology-based learning, mindfulness-based learning, multi-sensory learning, collaborative learning.*

Preschool education plays a vital role in shaping a child's cognitive, emotional, and social development. However, traditional methods of teaching may not always be effective in engaging and motivating young learners. To improve the efficiency of preschool education, it is important to incorporate innovative and engaging teaching methods that cater to different learning styles and abilities. In this article, we will explore some of the ways in which preschool education can be made more efficient and effective.

### **Play-Based Learning**

Play-based learning is an innovative method that uses play as a way of teaching young children. This method involves providing children with toys, games, and activities that are designed to be both fun and educational. Play-based learning encourages children to use their imagination, creativity, and problem-solving skills, and helps to make learning more interesting and relevant.

Research has shown that play-based learning can lead to improvements in children's cognitive, emotional, and social development [1]. By providing children with a more active and hands-on learning experience, play-based learning can help to make learning more engaging and effective.

### **Nature-Based Learning**

Nature-based learning is an innovative method that involves using nature as a way of teaching young children. This method involves taking children outdoors and allowing them to



explore and interact with the natural world. Nature-based learning encourages children to use their senses, curiosity, and creativity, and helps to foster a sense of respect and appreciation for the environment.

Research has shown that nature-based learning can lead to improvements in children's cognitive, emotional, and social development [4]. By providing children with a more immersive and experiential learning experience, nature-based learning can help to make learning more engaging and effective.

#### **Technology-Based Learning**

Technology-based learning is an innovative method that involves using technology as a way of teaching young children. This method involves providing children with access to educational apps, games, and websites that are designed to be both fun and educational. Technology-based learning encourages children to use their imagination, creativity, and problem-solving skills, and helps to make learning more interactive and engaging.

Research has shown that technology-based learning can lead to improvements in children's cognitive, emotional, and social development [5]. By providing children with a more personalized and interactive learning experience, technology-based learning can help to make learning more engaging and effective.

#### **Mindfulness-Based Learning**

Mindfulness-based learning is an innovative method that involves teaching young children to be present in the moment, and to focus on their thoughts and feelings without judgment. Mindfulness-based learning can help to reduce stress and anxiety, and can improve children's ability to concentrate and learn.

Research has shown that mindfulness-based learning can lead to improvements in children's emotional and social development, as well as their academic performance [6]. By promoting a positive and calm learning environment, mindfulness-based learning can help to make learning more effective and efficient.

#### **Multi-Sensory Learning**

Multi-sensory learning is an innovative method that involves using multiple senses as a way of teaching young children. This method involves providing children with activities that involve touch, sight, sound, and smell, and that are designed to be both fun and educational. Multi-sensory learning encourages children to use their senses and imagination, and helps to make learning more interesting and relevant.

Research has shown that multi-sensory learning can lead to improvements in children's cognitive, emotional, and social development [2]. By providing children with a more immersive and multi-dimensional learning experience, multi-sensory learning can help to make learning more engaging and effective.

#### **Collaborative Learning**

Collaborative learning is an innovative method that involves children working together in groups to solve problems and complete tasks. This method encourages children to use their communication, collaboration, and problem-solving skills, and helps to foster a sense of teamwork and cooperation.

Research has shown that collaborative learning can lead to improvements in children's cognitive, emotional, and social development [3]. By providing children with opportunities to work together and learn from each other, collaborative learning can help to make learning more engaging and effective.

In conclusion, there are many innovative and incorporating ways to improve the efficiency of preschool education. Play-based learning, nature-based learning, technology-based learning, mindfulness-based learning, multi-sensory learning, and collaborative learning are just a few examples of the many methods that can be used to engage and motivate young learners. By incorporating these methods into preschool education, we can help to create a more efficient and effective learning environment for all children.

#### **LIST OF USED LITERATURE:**

1. Bergen, D., & Fromberg, D. (2009). *Play and learning in early childhood education*. Pearson.
2. Fernald, A. (2008). Fast mapping in word learning. *Developmental Science*, 11(2), 280-288.

3. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. *Educational Researcher*, 38(5), 365-379.
4. Kellert, S. R. (2005). *Building for life: Designing and understanding the human-nature connection*. Island Press.
5. Plowman, L., & Stephen, C. (2005). *Children, play, and computers in pre-school education*. Routledge.
6. Schonert-Reichl, K. A., & Lawlor, M. S. (2010). The effects of a mindfulness-based education program on pre- and early adolescents' well-being and social and emotional competence. *Mindfulness*, 1(3), 137-151.

## BOLA RIVOJLANISHI SOXALARINING KOMPETENSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Sodiqova Yulduz Kamolovna**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika insituti Maktabgacha ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrası assistenti,*

**Osomiddinova Zuxra**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika insituti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 112-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish masalasi dolzarbliigi borasidagi fikrlar keltirilgan. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining metodologik asoslari ko'rsatib berilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Hamda bola tarbiyasiga va uning kelajagiga doir hikmatli so'zlar tahliliy o'rganilgan. Hamda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish masalasi dolzarbliigi borasidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** bola, rivojlanish sohalari kompetensiyalari, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi.

Bugungi avlod istiqbolda yangi O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlashi uchun ham jismoniy va ma'naviy sog'lom, intellektual salohiyatli bo'lishi talab etiladi. Bu talab maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarida voyaga yetayotgan yosh avlodning ta'limi va tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni oshirishni taqozo etadi. Shu maqsadda, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi. 2020-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlashtirish to'g'risida"gi VMQ 802-sonli Qarori[1] qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari belgilab berildi.

Bugungi kunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishda biz 2020 yil 22 dekabrda qabul qilingan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim standartlariga ko'ra ish yuritimiz. Bu standartga ko'ra bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

**kommunikativ kompetensiya** — muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi;

**o'yin kompetensiyasi** — bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi;

**ijtimoiy kompetensiya** — hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati;

**bilish kompetensiyasi** — atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

“Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola: o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi; turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi; turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi; o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi; shaxsiy gigiena malakalarini qo'llaydi; sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi; Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari borasidagi ilmni o'rganar ekanmiz, bunda rivojlangan Sharq mamlakatlaridan Yaponiya va Xitoyning o'ziga xos jihatlari borligiga amin bo'ldik. Masalan, Yaponiyada bu kompetensiyalar maktabgacha tarbiya berishdagi beshta yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, bular quyidagilardan iborat. – ijtimoiy munosabatlar; – salomatlik, havfsizlik; – til; – atrof muhit; – his-tuyg'ularini ifodalash [8]. Bu yo'nalishlarning bizning maktabgacha ta'lim dasturlarimizga ham xos bo'lgan jihatlari mavjud ekan. Faqatgina nomlanishidagi farqlarni anglashimiz mumkin. Shu bilan birga bizning standartga muvofiq “ijodiy rivojlanish” kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga Yaponiya maktabgacha ta'limida alohida berilmagan ekan. Bolaning ijodiy rivojlanish kompetensiyasiga alohida e'tibor berish esa katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi bolalar istiqboldagi kashfiyotchilar bo'lishi kutilmoqda. Ularning intellektual salohiyati kelajakdagi mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy kuch sifatida e'tirof etilmoqda va shuninguchun ham juda katta e'tibor qaratimoqda. “Bolalardagi shumtakaliklarni yo'q qilsangiz, hech qachon donishmandlarni yarata olmaysiz”, - deydi, g'arb olimi Jan Jak Russo. Bu fikrda ham bir hikmat bor. Bola o'zi qiziqqan o'yinchoqni o'ynashi yoki uni buzishi mumkin. Tarbiyachi unda “bu bizniki” degan tushunchani to'g'ri shakllantirsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, biz bolalarga qanchalik ko'p ta'qiq qo'ysak, ularning ijodkorligi shunchalik kamayib boraveradi. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari borasidagi ilmni o'rganar ekanmiz, bunda rivojlangan Sharq mamlakatlaridan Yaponiya va Xitoyning o'ziga xos jihatlari borligiga amin bo'ldik. Masalan, Yaponiyada bu kompetensiyalar maktabgacha tarbiya berishdagi beshta yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy munosabatlar;
- salomatlik, havfsizlik;
- til;
- atrof-muhit;
- his-tuyg'ularini ifodalash.

Bu yo'nalishlarning bizning maktabgacha ta'lim dasturlarimizga ham xos bo'lgan jihatlari mavjud ekan. Faqatgina nomlanishidagi farqlarni anglashimiz mumkin. Shu bilan birga, bizning standartga muvofiq “ijodiy rivojlanish” kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga Yaponiya maktabgacha ta'limida alohida berilmagan ekan. Bolaning ijodiy rivojlanish kompetensiyasiga alohida e'tibor berish esa katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi bolalar istiqboldagi kashfiyotchilar bo'lishi kutilmoqda. Ularning intellektual salohiyati kelajakdagi mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy kuch sifatida e'tirof etilmoqda va shuning uchun ham juda katta e'tibor qaratimoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish lozim. Xo'sh, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak? degan muhim savol yuzaga keladi.

Bolalarni maktabga muvoffaqqiyatli o'qishi uchun ularni fanlar bo'yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni haddan ziyod yuklatish o'qishga bo'lgan xohishni susayishga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga

qiziqishi, o'zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma'lum darajasini shakllantirishdir. "Bolalardagi shumtakaliklarni yo'q qilsangiz, hech qachon donishmandlarni yarata olmaysiz" - deydi, g'arb olimi Jan Jak Russo. Bu fikrda ham bir hikmat bor. Bola o'zi qiziqqan o'yinchoqni o'ynashi yoki uni buzishi mumkin. Tarbiyachi unda "bu bizniki" degan tushunchani to'g'ri shakllantirsa maqsadga muvofiq bo'ladi.[9, 668-bet] Demak, biz bolalarga qanchalik ko'p ta'qiq qo'ysak, ularning ijodkorligi shunchalik yo'qqa chiqaveradi. Aksincha, biz ularni to'g'ri yo'naltirgan holda ham tarbiyalashimiz ham ijodkorligini shakllantirishga ko'maklashishimiz kerak. Xitoy davlatida maktabgacha ta'lim tizimi davlat va xususiy muassasalar tomonidan taqdim etilgan. Xitoy Xalq Respublikasi hukumati xususiy maktabgacha ta'lim muassasalarini har tomonlama rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi. Yosh avlod uchun umumiy ta'lim dasturi mavjud bo'lishiga qaramay, davlat va xususiy bolalar bog'chalarida bolalarni o'qitish jarayonida ba'zi farqlar mavjud. Davlat muassasalarida ta'lim bolalarni maktabga tayyorlashga va ish bilan tanishtirishga, xususiy maktablar esa bolalarning estetik va madaniy rivojlanishiga ko'proq e'tibor qaratadi.

Ko'rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhlarida emas, balki bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo'lsak, uni oldinroq ham boshlash mumkin. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba'zi bir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo'lganidek, uni qisqa muddat ichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga kelishishga o'rgatish ham mushkul bir vazifadir. Bu borada, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining savodxonligi muhim sanaladi.

Mazkur dastur bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g'amxo'rlik qilish, erkin ijodiy o'z-o'zini ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko'zda tutadi. Shu sababli, rejalashtirish bilan bir qatorda, bola rivojlanishini kuzatib borish pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolani va uning o'zini tutishi sabablarini yaxshiroq tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko'rish, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish yo'llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini sistematik kuzatib boradi. Pedagogik kuzatuvlar asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish amalga oshiriladi va takomillashtirib boriladi.

Bolaning individual rivojlanishini kuzatish uchun O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablarida aks ettirilgan sohalar va kichik sohalar hamda kutilayotgan natijalar (malaka va ko'nikmalar) olingan. Bolaning rivojlanish xaritasi 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, har bir bola uchun individual tarzda yiliga uch marta to'ldiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasidan chiqishda 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi to'ldiriladi (faqat maktabgacha ta'lim muassasa bitiruvchilari uchun).

Maktabga tayyorlik, deganda bolada umumiy kompetensiyalarni va rivojlanish sohaları kompetensiyalarining shakllanganligi tushuniladi. Bu xarita maktabgacha ta'lim

muassasasining har bir bitiruvchisi uchun to'ldiriladi. Unda Davlat dasturiga muvofiq rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) bo'yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi. Shuningdek, birinchi prezidentimiz Islom Karimov hamda amaldagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalari ham bolaning rivojlanish sohaları kompetensiyalarini o'rganishda metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Bu borada, mamlakatimiz mustaqilligining me'mori Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida shunday yozadi; - "Odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi - bularning barchasi, avvalo, uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi. Aynan, mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg,,ubor ongi bamisoli bosma qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib-singdirib oladi. Uning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga

takomillashib boradi”.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2017 йил 30 сентябрдаги ПФ-5198-сонли Фармони.
2. O'zbekiston Respublkasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi.
3. Адизова Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ". *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.
4. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
5. Avezov O.R. [Psixologicheskie osnovi sozdaniya i razvitiya obrazovatelnoy sredi innovatsionnogo obucheniya](#). Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 23), 168-171.
6. Bakhtiyorovna N.A., Bakhtiyorovna N.A. [Anvar obidjon is a children's poet](#). Middle European Scientific Bulletin.
7. Bakhtiyorovna N.A., Dilsora E. [Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games](#). The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545 b.
8. Hodjiyeva O.F. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhit yaratish yo'llari. Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari. Maqolalar to'plami. "Fan" nashriyoti, - Toshkent. 2006.
9. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 2. –№. 2.
10. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №.2. – С. 140-144.
11. Сулаймонович Феруз Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.
12. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).

## КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ - ОСНОВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Миртурсунова Юлдуз Абдумаликовна

*и.о.доцента Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами e-mail: [mirtursunovaulduz@gmail.com](mailto:mirtursunovaulduz@gmail.com)*

**Аннотация:** В статье предпринята попытка описать сущность понятия «коммуникативная компетентность», а также критерии, степени и условия развития коммуникативной компетентности будущих учителей, показатели развития коммуникативной компетентности.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, интерактивный аспект, перцептивный аспект, коммуникативное ядро.

**Annotation:** The article attempts to describe the essence of the concept of "communicative competence", as well as the criteria, degrees and conditions for the development of communicative competence of future teachers, indicators of the development of communicative competence.

**Key words:** communicative competence, interactive aspect, perceptual aspect, communicative core.

В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан

определены такие приоритеты, как «постоянное повышение качества и уровня профессионализма учителей». [ПФ-4947, 2017:] Стремительное развитие общества делает насущной необходимостью подготовку специалистов, которые востребованы в новых политических и социально-экономических условиях. Современное общество предъявляет все более высокие требования к коммуникативным качествам человека, позволяющим ему быть конкурентоспособным в новых условиях на рынке труда и в социуме [Марциновская, 2009: 339]. Это ставит на первый план задачу формирования коммуникативной компетентности каждого участника образовательного процесса.

*Коммуникативная компетентность* – это категория оценочная, характеризующая человека как субъекта определенного социума в системе общественного труда. Она предполагает глубокое понимание сути коммуникативных задач, знание содержания темы общения, наличие опыта в данной области и активное его использование, умение выбирать соответствующие конкретным обстоятельствам коммуникативно-речевые средства и способы, чувство ответственности за результаты, умение вносить изменения в процесс достижения коммуникативных целей [Кузнецова, 2010: 71].

В настоящее время в педагогике радикально пересматриваются вопросы мировоззрения человека, меняется положение человека в общественной жизни и переоценивается образование подрастающего поколения, что приводит к изменению взаимоотношений между субъектами этих процессов.

На наш взгляд важен трехсторонний подход к понятию коммуникативной компетенции как совокупности трех взаимосвязанных коммуникативных, интерактивных и перцептивных компонентов. В то же время *коммуникативный аспект* общения отражает интерактивно-организационный аспект передачи информации учащимся, а *перцептивный аспект* – их восприятие друг друга и устанавливаемые на этой основе взаимопонимание и эмоциональную связь.

Коммуникативные способности учителя в теории педагогического образования выражаются в разных понятиях: «педагогическое мастерство», «квалификационные требования», «профессиограмма», «профессиональная подготовка», «профессиональная компетентность». В целом, описанные выше педагогические категории, которые описывают одно явление, имеют различные семантические аспекты и используются в разных контекстах.

В тесной связи с понятие «коммуникативная компетенция» существует и термин «коммуникативное ядро личности», введенный в науку Бодалевым А.А. [Бодалев, 1995:] Коммуникативного ядро личности как психологическое явление представляет собой основу, позволяющую каждому человеку общаться более успешно. Такая основа существует как у взрослых, так и у детей, и коммуникативное ядро может включать в себя личные черты и качества. Учитывая взаимодействие этой общей и профессиональной коммуникативной компетенции, можно выделить следующие критерии ее проявления:

*первый критерий* - общие коммуникативные ценности. В них включается ценность человека для педагога, ценность процесса общения, ценность традиционных форм коммуникации для педагога;

*второй критерий* был определен как общие коммуникативные навыки педагога в реализации межличностного общения. Это его умение общаться с близкими, родными людьми, коллегами по работе, родителями учеников;

*третий критерий* – это степень, в которой учитель включает общие коммуникативные ценности в свой профессиональный идеал, поскольку уровень развития этих ценностей имеет большое значение как в повседневном, так и в педагогическом общении. Кроме того, они служат особой основой для гуманного, фасилитаторского диалога педагога с детьми, основанного на необходимости сосредоточения внимания на учениках и сознании этого как ведущей ценности их работы и необходимости изменения своих методов работы в соответствии с изменениями личности ученика;

наличие у учителя профессиональных коммуникативных навыков стало *четвертым критерием* оценки уровня коммуникативной компетентности, поскольку



профессионально-педагогическое общение имеет ряд особенностей, отличающих его от повседневного.

Необходимость определения критериев коммуникативной компетентности учителя позволила выделить три уровня коммуникативной компетентности: высокий, средний и низкий.

*Высокий уровень* коммуникативной компетентности характеризуется ярко выраженной направленностью человеческого взаимодействия учителя с учениками, в котором оба участника выступают в качестве субъектов этого процесса, в котором личность каждого понимается и воспринимается как уникальная, необратимая. Кроме того, педагог чувствует потребность в общении с учениками и на практике использует этические формы общения. У такого учителя значительно развиты вербальные и невербальные коммуникативные навыки, при этом не наблюдается несовместимости вербальной и невербальной составляющих общения. Педагог умеет регулировать свое психофизиологическое состояние. Он использует метод сотрудничества как выход из конфликта.

*Средние уровни* коммуникативной компетентности предполагают недостаточно выраженные ценностно-коммуникативные ориентации учителя. Отношения с обучаемыми, которые со стороны определяются как гуманные, имеют тенденцию играть более социальные роли. Такие педагоги не испытывают особой потребности в общении с детьми, само общение строго ограничено, часто без положительных эмоциональных выражений. При этом вербальные и невербальные коммуникативные навыки значительно развиваются в рамках профессиональных потребностей. Педагог умеет регулировать свое психофизиологическое состояние, в этом случае может возникнуть определенная эмоциональная нестабильность.

*Низкий уровень* коммуникативной компетентности определялся у педагогов при исключении ими одной или нескольких коммуникативных ценностей из своих ценностных ориентаций. Общение учителя и ученика нельзя назвать гуманным: ученики чувствуют себя некомфортно; фон урока более негативный. В поведении педагога наблюдается несоответствие между вербальной и невербальной организацией общения. Учитель часто не умеет регулировать свое психологическое и физиологическое состояние.

Исходя из вышесказанного, коммуникативная компетенция -это динамический продукт, который в своем развитии проходит два этапа - общую и профессиональную коммуникативную компетенцию (в которой они сосуществуют на определенном этапе развития человека), а также может развиваться от уровня к уровню. Это развитие происходит через спонтанное овладение «языком» общения и обучение ему. Когда речь идет о профессии, которая прямо или косвенно связана с общением, справедливо будет сказать, что этот процесс будет продуктивным при специально организованном обучении и выполнении определенных условий. И, прежде всего, будущий учитель должен обладать хорошими знаниями.

#### **Использованная литература:**

1. Бодаев А.А. Личность и общение. – М. Международная педагогическая академия, 1995. – 328с.
2. Кузнецова В.В. Коммуникативно-речевая компетенция – основа профессиональной культуры учителя // «Человек и образование», - 2010. - №2. (23). – 73с.
3. Марциновская Т.Д., Григорович Л.А. Психология и педагогика. – М.: Проспект, 2009.- 454с.
4. Указ Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Собрание законодательства Республики Узбекистан. - №6.

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH – KASBIY FAOLIYATNING MUHIM QISMI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Nuradilova Aselxan Dilshodxo'ja qizi**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi O'zbekiston,  
Toshkent,*

**Ortiqova Dilsabo Munavvarjon qizi**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi  
O'zbekiston, Toshkent.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularning kasbiy tayyorgarligining muhim qismlari hamda xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, nutqiy kompetensiya, boshlang'ich sinf o'quvchilari, muloqot qobiliyatlari, notiqlik mahorati.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы развития речевой компетенции будущих учителей начальных классов, важные составляющие и особенности их профессиональной подготовки.

**Ключевые слова.** Будущие учителя начальных классов, речевая компетентность, учащиеся начальных классов, коммуникативные навыки, навыки публичных выступлений.

**Abstract.** This article discusses the development of speech competence of future primary school teachers and the important parts and features of their professional training.

**Keywords.** Future primary school teachers, speech competence, primary school students, communication skills, public speaking skills.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Mamlakatimizda istiqloqlning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, jismonan va ma'nau yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda"<sup>1</sup> – deya ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ham alohida ta'kidlab o'tdilar. Yurtboshimizning so'zlaridan kelib chiqib, aytish

mumkinki, mamlakatimiz bo'ylab amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va islohotlar, tabiiyki, ta'lim jarayonida o'quvchilarda kompetensiya turlarini shakllantirish talabini kuchaytirmoqda. Bugungi ta'lim jarayonlarida o'quvchilarimizning har tomonlama yetuk bo'lib yetishishi uchun bu borada chuqur izlanib, shu izlanishlar natijasiga munosib ravishda amaliy harakatlar qilish lozim.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kompetent mutaxassis va kasbiy kompetensiyani rivojlantirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"<sup>2</sup> muhim ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda shaxslararo munosabat madaniyatini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining muhim qismidir. Nutqiy kompetensiyalari yozma va og'zaki shaklda samarali muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. Bu aniq yozish, ishonchli gapirish va

faol tinglash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni qiziqtirish va rag'batlan-tirish uchun tildan foydalanishlari, shuningdek, tushunchalarni mazmunli tushunti-rishlari kerak. Shuningdek, ular o'quvchilarning muvaffaqiyati uchun qulay bo'lgan o'quv muhitini yaratish uchun tildan foydalanishlari muhim<sup>3</sup>. Nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari notiqlik mahorati bo'yicha treninglar, yozma mahorat darslari, bahs-munozara kabi davra suhbatlarida ishtirok etadilar. Bundan tashqari, ular til ta'limi va muloqot qobiliyatlari bilan bog'liq konferensiyalar va seminarlar orqali kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanishlari ham ahamiyatli hisoblanadi.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ish olib borishda o'qituvchilar ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olishi, shuningdek, jamiyatda o'z maktabining vakili bo'lishlari zarur<sup>35</sup>. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning munosib bo'lishlarida quyidagi xususiyatlarni keltirib o'tamiz:

- fikr va ma'lumotlarni yetkazish uchun aniq va to'g'ri gapirishi;
- faol tinglay olishi va tushunganini izohlashi;
- til birliklari va grammatikadan o'rinli foydalanishi;
- nutq uslubini turli auditoriyalarda moslashtira olishi;
- imo-ishoralar, yuz ifodalari va ko'z bilan aloqa qilish kabi tegishli og'zaki bo'lmagan (noverbal vositalar) muloqot usullaridan foydalanishi;
- o'quvchilarni mazmunli muloqotga jalb qilish uchun samarali savol berish usullaridan foydalanishi;
- taqdimotlar, tadbirlarda notiqlik mahoratini namoyish etishi va rivojlantirib borishi;
- mavzularni tushuntirishda multimedia vositalaridan unumli foydalanishlari muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar va hamkasblar bilan muloqot qilishda tildan qanday foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar beradigan tajribali o'qituvchilardan ham amaliy maslahat olish imkoniyatlarini izlashlari, maqsadga muvofiq. O'qituvchilik kasbini mukammal o'rganish orqali bo'lajak o'qituvchilar tilni ta'lim va muloqot uchun samarali vosita sifatida qanday ishlatish haqida qimmatli tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.

---

<sup>35</sup> Xalikov A.A. O'qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishda kasbiy kompetensiya va layoqatlilikni shakllantirish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2018. № 2. 11-15-b.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatining muhim qismidir. Bo'lajak o'qituvchilar ko'nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishi uchun amaliyot mashg'ulotlari, sohaga oid o'qish materiallari, notiqlik va muloqot bilan bog'liq darslar yoki seminarlar, yoki tajribali o'qituvchilarning murabbiyligi kabi imkoniyatlardan foydalanishlari zarur. Bu ularga boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun fanga oid mavzularni samarali tushuntirish va savollariga javob berish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoni.
2. Aytbayev D.T. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (Ijtsrd) International Science journal. Wydawnictwo Naukowe "Science". Polsha. 2021-yil;
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мақтабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2017 йил 30 сентябрдаги ПФ-5198-сонли Фармони.
4. O'zbekiston Respublkasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi.
5. Адизова Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР

УСУДИ". *Scientific progress* 2.7 (2021): 1003-1009.

6. Amonov U.S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.

7. Avezov O.R. [Psixologicheskie osnovi sozdaniya i razvitiya obrazovatelnoy sredi innovatsionnogo obucheniya](#). Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 23), 168-171.

8. Bakhtiyorovna N.A., Bakhtiyorovna N.A. [Anvar obidjon is a children's poet](#). Middle European Scientific Bulletin.

9. Bakhtiyorovna N.A., Dilsora E. [Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games](#). The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545 b.

10. Hodjiyeva O.F. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhit yaratish yo'llari. Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari. Maqolalar to'plami. "Fan" nashriyoti, - Toshkent. 2006.

11. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). –2021. –Т. 2. –№. 2.

12. Khaitov N., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №.2. – С. 140-144.

13. Сулаймонович Феруз Сафаров. Фонетический строй языка и взаимообусловленность национальной музыки. "Science and Education" Scientific Journal. ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3, Issue 3. P. 1072 – 1085.

14. "Ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalari". Yig'ilish. 9- oktyabr, 2017-yil.

15. Xalikov A.A. O'qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishda kasbiy kompetensiya va layoqatlilikni shakllantirish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2018 yil. № 2. 11-15-betlar.

16. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

17. Shodiyeva M.J. Boshlag'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi, – Toshkent, 2019. 135 b.

## BO'LAJAK LOGOPEDLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Turdaliyeva Shahlo Husniddinovna

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak logopedlarni ta'lim jarayonini va bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlarini hal qilish uchun mo'ljallangan asosiy vazifalar bayon etilgan.

**Аннотация:** В данной статье изложены основные задачи, предназначенные для решения образовательного процесса будущих логопедов и работы по подготовке будущих специалистов к профессиональной деятельности.

**Abstract:** This article outlines the main tasks designed to solve the educational process of future speech therapists and work on preparing future specialists for professional activity.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Shuningdek, professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot

maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi.

Shuni aytish joizki, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Zamonaviy davrda pedagogik ilmlar tasnifida aynan mutaxassis-kadr kompetensiyasi masalasi o'z dolzarbligi, katta qiziqish uyg'otayotganligi va ta'lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda. Faol va harakatchan, tashabbus ko'rsatib, o'zining professional maqsadlarini aniq angelaydigan, innovatsion tafakkurga ega va ta'limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish va ta'minlash, bu masalasini ta'lim va tarbiya jarayonining eng muhim unsurlaridan biri ekanligini targ'ib qilish taqozo etilmoqda. Mazkur tushunchaning ijtimoiy mazmuni juda keng bo'lib, u ishlab chiqarishning qariyb barcha yo'nalishlarida qo'llaniladi<sup>36</sup>.

Kompetensiya turli sohalarda mutaxassislari faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar majmuiga teng bo'lib, uning kelib chiqish tarixi boshqaruv nazariyasi, ish jarayonini ishlab chiqarish maqsadiga adekvat va to'liq mos tarzda to'g'ri boshqarish asosida uning samaradorligi so'zsiz ta'minlash, menejmentlik amaliyoti, ishlab chiqarish jarayonidagi yuqori va pastki xodimlar mehnat muomalasini qo'yilgan maqsad va samaradorlikka yo'naltirish bilan bog'liqdir<sup>37</sup>.

Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuvning dolzarbligini Vatanimiz ta'lim-tarbiya tizimida ham sezish mumkin. Kompetensiya eng avvalo, davlat va jamiyat tomonidan beriladigan ishonch, vakolat 10 ekanligini ta'kidlash zarur. Aniqrog'i, mamlakatimiz manfaati uchun xizmat qilish kompetensiyasi – vakolati zarurligini ko'rishimiz mumkin.

Kompetensiya – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik<sup>38</sup>. “Kompetensiya” (lot. *competo* -

---

<sup>36</sup>Muslimov N. A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013. – 128 b.

<sup>37</sup>Kadirova, M. T. Kompetentlik yondashuvi nazariyasi va uning pedagogik mazmuniga doir qarashlar / M. T. Кадырова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 43 (333). — С. 343-345. — URL: <https://moluch.ru/archive/333/74450/> (дата обращения: 21.11.2022).

<sup>38</sup> Pedagogikadan atamalar lugati (Dictionary of Pedagogy terms), Tashkent: science, 2008, 196 p

erishyapman, munosibman, loyiqman)

1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;

2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba.<sup>39</sup>

V.A. Bolotov va V.V. Serikovlarning fikriga ko'ra, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv talabning bilimdonligini emas, balki muammolarni hal qila olish qobiliyatini ko'rsatadi va eng birinchi darajadagi zarur qobiliyat deb baholaydi.

Ye.V. Bondorevskaya va S.V. Kulnevichning ilmiy ishlarida talabalar yig'adigan kompetensiya unsurlari faqat asosiy maqsadga, pedagogik faoliyat olib borish uchun yo'naltirilishi yoki zarur bo'lishi lozim deb hisoblaydi.<sup>40</sup>

V.S. Yelegina va S.M. Poxlebaev tomonidan Rossiyaning “Фундаментальное исследование” jurnalining 2012 yil 3 sonida e'lon qilingan “Компетентный подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе” ilmiy maqolasida kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida talaba o'z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonishning usullari, yo'llari, metodlari, yondoshuvlari va uslublarini o'zlashtirib oladi. Aynan talaba tomonidan yaratilgan ijodiy natija talaba bilan o'qituvchining hamkorlikdagi ijodiy natijasi hisoblanadi. Talabning o'zlashtirishiga baho berishdan maqsad, berilgan ta'limning qanchalar samarador bo'lganligi darajasini aniqlash, bu birinchidan, maktabda olgan

nazariy bilimlari darajasini bilish, ikkinchidan undagi kompetensiya shakllanishi, amaliyot paytidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi.<sup>41</sup>

Shunga ko'ra, bo'lajak logopedlarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Vazifalari esa: - bo'lajak logopedlarga pedagogik kompetentlikka doir manbalardan foydalana olishga o'rgatish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

- bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri – ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid istiqbolli yo'nalishi bo'lgan pedagogik kompetentlik yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish;

- pedagogik kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan qurollantirish; - ta'lim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash;

- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Aytish lozimki, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak logopedlarning bilim samaradorligini oshirish, dars va ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish:

- tizimda yuqori malakali pedagoglar kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini uzluksiz va sifatli ravishda oshirib borishga;

- ta'lim muassasalarida o'qituvchilar kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzluksiz sifatli metodik xizmatni tashkil etishga;

- mavjud fan xonalari, o'quv laboratoriya asbob uskunalar, jihozlar va kompyuter

<sup>39</sup> . Uzbekiston milliy entsiklopediyasi (The National Encyclopedia of Uzbekistan), Vol. 4, Zebunniso-Konigil, Tashkent, 2002, 704 p

<sup>40</sup> Бондоревская Е.В., Кулневич С.В. Педагогика. 2004. № 10

<sup>41</sup> Елегина В.С., Похлабаев С.М. Компетентный подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе. Фундаментальное исследование. 2012 № 3.

texnikasidan, umuman olganda, barcha shart-sharoitlardan samarali foydalanishga;

- sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va umumta'lim maktablari hamkorligida ilg'or ish tajribalarini amaliyotga joriy etishga;

Eng asosiysi, xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan logopedlarning kasbiy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy logoped o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi – kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir.

Shuningdek, - dunyo va mamlakatda ta'lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta'minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

- kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta'lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;

- o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- o'quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog'ligi, texnik hamda axborot xavfsizligini ta'minlashga tayyor bo'lish;



- dars jarayonida media resurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda media xavfsizlik meyorlariga amal qilish;

Shunga ko'ra, bo'lajak yosh logopedlarimiz yangi zamonga mos hayotiy mo'ljallarini belgilashda chalg'imaslik, axborot makonida o'zlariga kerakli manzilni aql-idrok, halollik va mehnatsevarlik bilan topish, Vatan taraqqiyoti va yurt farovonligiga o'z hissasini qo'shish kabi fazilatlarni tarbiyalash biz pedagoglarning burchidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: От идеи к образовательной программий. Педагогика. 2003. № 3.
2. Бондоревская Е.В., Кулневич С.В. Педагогика. 2004. № 10.
3. Kadirova M.T. Kompetentlik yondashuvi nazariyasi va uning pedagogik mazmuniga doir qarashlar/M.T. Kadirova. - Текст : непосредственный // Молодой ученый.-2020.- №43(333).-С.343-345. - URL: <https://moluch.ru/archive/333/74450/> (дата обращения: 21.11.2022).
4. Елегина В.С., Похлебаев С.М. Компетентносний подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе. Фундаментальное исследование. 2012 № 3.
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. 128 b.
6. Pedagogikadan atamalar lug'ati. – Toshkent: Fan, 2008. -196 b.
7. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi (The National Encyclopedia of Uzbekistan), Vol. 4, Zebunniso-Konigil, Tashkent, 2002, 704 p

## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINFDAN INTEGRAL TA'LIMDAN FOYDALANISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Qurbonova Sh.N.**

*BuxDU o'qituvchisi. Muzaffarova Niginabonu, BDU talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni texnologiya darslarida samarali qo'llashning muhim jihatlari, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida bayon etilgan. Integrallashgan darslar o'quvchilarni ta'lim olishning dastlabki bosqichlaridanoq dunyoni yaxlit ko'rishga o'rgatish, unda barcha elementlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq ekanligini bilishga o'rgatadi.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, integrallashgan o'qitish, dars shakllari, o'qitish xususiyatlari, faoliyat, mehnat ta'limi.

**Методологические особенности использования интегрированного обучения в начальной школе на уроках технологии.**

**Аннотация.** В статье описаны важные аспекты и особенности эффективного использования интегрированного обучения на уроках технологии в начальных классах. Интегрированные уроки учат школьников с первых ступеней обучения видеть мир как единое целое, усваивать, что все элементы взаимосвязаны.

**Ключевые слова:** интеграция, интегрированное обучение, формы, тип урока, особенности подготовки, деятельность, трудовое воспитание.

**Methodological features of the use of integrated learning in the primary school in technology lessons.**

**Annotation.** The article describes the important aspects and features of the effective use of integrated learning in technology lessons in primary school. Integrated lessons teach schoolchildren from the first stages of learning to see the world as a whole, to learn that all elements are interconnected.

**Keywords:** integration, integrated learning, forms, type of lesson, training features, activities, labor education.

Zamonaviy sharoitda bunga erishishning eng samarali usuli boshlang'ich maktabda bolalarning yoshi va psixologik-pedagogik xususiyatlariga mos keladigan integratsiyalashgan darslardir. Integratsiyalashgan darslar unga darslarning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish

imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otishva faolligini rag'batlantirishga yordam beradi. O'z navbatida, integratsiyalashgan darslar boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy ijodiy salohiyatini ochib berishga imkon beradi. Integratsiyalashgan darslarning pedagogik va uslubiy imkoniyatlaridan professional foydalanish uchun o'qituvchi ularni boshlang'ich sinflarda tashkil etish xususiyatlarini bilishi kerak.

Biz boshlang'ich maktabda integratsiyalashgan darslarning quyidagi xususiyatini - ularning funktsiyalarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu yondashuv nuqtai nazaridan integratsiyalashgan darslarning quyidagi funktsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- uslubiy – talabalar tomonidan ilmiy bilimlar asoslarini, bilimlarni ilmiy asoslangan usullar majmuasidan foydalanish orqali o'zlashtirishga qaratilgan;

- g'oyaviy – o'quvchilarning umuminsoniy va reallik haqidagi bilimlarini kengaytirishga, o'quvchilarning dunyo haqidagi umumiy tasavvurlarini, shaxs haqidagi bilimlarini, madaniyat va ta'limning inson hayotidagi o'rni haqidagi bilimlarini kengaytirishga qaratilgan;

- tarbiyaviy – o'quvchilarning bilim ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishning muayyan darajasiga erishishga qaratilgan;

- o'quvchining umumiy madaniyatini rivojlantirishni, o'zini va boshqalarni hurmat qilishni, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor madaniyati modellarini saqlab qolish istagini ta'minlaydi;

- rivojlanayotgan – kognitiv faollikni rivojlantirishga, fikrlash inertsiyasini bartaraf etishga, dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan;

- kommunikativ – o'tmish va hozirgi kun o'rtasidagi aloqani o'rnatish jarayonida, sinfdoshlar va o'qituvchi bilan muloqotda amalga oshiriladi;

- konstruktiv – o'quv materialini mazmunini, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan;

- kompensatsion – o'quv materialini tizimlashtirish, o'quvchilar an'anaviy darsda ololmagan materialni qoplash orqali amalga oshiriladi;

Integrallashgan darslarni larning o'ziga xosligi shundaki, bu darslar bitta o'qituvchi tomonidan olib boriladi va ularning pedagogik salohiyatini rivojlantirish funktsiyasini bajaradi. O'z navbatida, integrallashgan darslar o'qituvchiga alohida mavzularni o'rganish vaqtini qisqartirish va ma'naviy-axloqiy tarbiya va sinfdan tashqari ishlar dasturini amalga oshirishga ko'proq e'tibor berish imkonini beradi.

Fanlarning integratsiyalashuvi bolalar mehnatining mazmuni va tashkil etilishi zamonaviy ta'lim talablaridan, aniq mahalliy ishlab chiqarish va xalq xo'jaligi ehtiyojlaridan kelib chiqib, amalga oshirilishini taqozo etadi. Texnologik fanning bu shakli talabalarni umumiy mehnat va maxsus kasbiy malakalar bilan tanishtiradi.

Fanlararo aloqalarni tashkil etish bilan bir qatorda, yaxlit o'quv vazifalarini yaratish va o'quvchilarni bir jarayonga jalb qilish ularning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur olamini boyitish, shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Boshlang'ich sinflarda bizni o'rab turgan olam, texnika fanlari, tasviriy san'at darslarida insoniyat tomonidan qo'llaniladigan mehnat qurollari turlicha: tabiiy materiallar, ularning xossalari, amaliy ahamiyati ochib beriladi. Bu texnologiya fanining nufuzini yanada oshiradi va bolalarda iqtisodiy tafakkurni har tomonlama rivojlantirish, uning ijobiy yo'nalishini shakllantirish imkonini beradi. Shuni yodda tutish kerakki, fanlar bilan bog'liq holda olib boriladigan fan-texnika ta'limida har bir fan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bu ijtimoiy foydali mehnatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning jismoniy va aqliy nuqsonlarini bartaraf etish, epchillik va ish samaradorligini oshirishdir. Musiqa darslarida mehnat ta'limining muhim xususiyati nafaqat mavzuni tashkil etish, balki mehnatga emotsional va ma'naviy

tayyorgarlikdir.

Ona tili, matematika, tevarak-atrof, odob-axloq darslarida mehnat tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. Talabalar maktab xodimlarining kundalik mehnati, kichik oila a'zolarining mehnati, yopiq o'simliklar, ekologiya va salomatlik, shuningdek, poyabzal va ustki kiyimlarni tozalash bilan tanishadilar, atrof-muhitni tashkil etish asosida og'zaki muloqotni yaxshilaydilar. Talabalarni mehnatga tayyorlashga o'rgatishda quyidagilar ham muhimdir:

- texnologiya darslarida mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan amaliy bilim, ko'nikma va malakalar bilan matematik hisoblar, o'lchovli bilimlar beriladi;

- odob darsida o'quvchilar o'zbek va Sharq mutafakkirlarining mehnat, mehnatsevarlik, kasb tanlash haqidagi qarashlari bilan tanishadilar.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, murakkab fan natijalari talabalarning ijodiy g'oyalari va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Bu nafaqat texnologiya sohasidagi ta'lim faoliyatini jadallashtirish, tizimlashtirish va optimallashtirish, balki turli sohalar madaniyatini egallash imkonini beradi.

Ushbu fanlarning o'xshashligi tufayli texnologiya, odob-axloq, ona tili, matematika, bizni o'rab turgan olam, jismoniy tarbiya va boshqa fanlar mazmunining integratsiyalashuvi darsning mazmunli, qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

O'qituvchi va o'quvchi talaba harakatlarining mos kelishini nazarda tutuvchi didaktik tizimga ega. Ammo o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmunida quyidagi farqlar mavjud:

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi va o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida turli fanlararo aloqalarni tushunishlari, kerakli va turli xil fanlararo bilimlarni tanlashlari kerak.

2. Sinov bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha tushunchalarini umumlashtiradi va o'quvchilar oz irodasini oz bilimlarini kengaytirishga qiziqishga yo'naltirishlari kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muxamadovna T.M., Djamshitovna K.M., Narzullayevna QS San'at o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili sifatida //O'rta Yevropa ilmiy axborotnomasi . 2021.– T. 11.

2. Narzullaevna K.S., Nilufar T. Qog'oz va karton bilan ishlash texnologiyasi darslarini o'tkazish metodikasi //ACADEMICIA: AN XALQARO KO'P TARMOQLI TADQIQOTLAR JURNALI .– 2021. – T. 11. - yo'q. 1. - S. 588-596.

3. Narzullaevna K.S. (2021). Barkamol avlodni shakllantirishda ta'lim jarayonining o'rni va zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish usullari.

4. Olloqova O'g'iljon, M. (2022). Fonetik bilimlar orqali o'quvchilarning pragmatic kompetensiyasini rivojlantirish. Ilmiy tadqiqotlar va rivojlanish tendentsiyalari xalqaro jurnali, 6 (6), 1541-1545.

5. Qurbonova S.N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. - 2021. - T. 2. - yo'q. 6. - B. 1030-1035.

6. Qurbonova Sh.N. \_ Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya va ularningqo'llanishi //“ Pedagogik mahorat ” Maxus son. –T., 2020. -102 b.

7. Qurbonova S. San'at talabalarning dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili sifatida //ILMIY MARKAZ Nashrlar ( buxdu . uz ). - 2020. - T. 1.

8. Qurbonova S. (2021). Barkamol avlodni shakllanishida Talim jarayonini orni va unda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan yubor yo'llari . MARKAZ ILMIY nashrlar (buxdu.uz), 8(8).

9. Qurbonova Shoira Narzullayevna. (2023). TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA ULARNING MOHIYATI. Ustozlar Uchun, 16(1), 327–331.

10. Samadovna R.Z., Narzullayevna K.S., Ergashevna S.G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi // Tanqidiy sharhlar jurnali. - 2020. - T. 7. – № 6. - S. \_ 485-491 .

11. Tourbanova S.N. & qizi Razzoqova N.B. (2022). Barkamol avlodni shakllantirishda ta'lim

jarayonining o'rnini va unda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish o'llari. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(10), 84-88.

12. YARASHOV, M. (2023). Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rnini. *markaz ilmiy nashrlar (buxdu.uz)*, 30 (30). z ), 30 (30).

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNING SHAKLLANTIRILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Narzieva Dilorom Botirovna**

*Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasida tadqiqotchisi  
Buxoro shahar 67-maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori*

8. Саидова Гульрух Халим кызы ТПУ . Подготовка будущих учителей начальных классов к организации творческой деятельности как педагогическая проблема. имени Низами: ACADEMICIA: Международный междисциплинарный исследовательский журнал ISSN: 2249-7137 Том 12, выпуск 04, апрель 2022.УЗБЕКИСТАН-с-159 .
9. [https://scholar.google.com/citationshview\\_op=list\\_works&hl=ru&hl=ru&user=dfUC9OYAAAAJ](https://scholar.google.com/citationshview_op=list_works&hl=ru&hl=ru&user=dfUC9OYAAAAJ)
10. <https://scolar.google.com/citations?user=LrrORX0AAAAJ&hl=ru>
11. <https://scholar.google.ru/citations?hl=ru&user=Tz5-Y7EAAAAJ>

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Normurodova N.**

*TDPU Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi kafedrası  
dotsenti*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyasilari haqida ma'lumot berilgan. Kompetensiyaning asosiy ta'riflari va mazmuni yoritib berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyasilari sifatining hozirgi holati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalari metodika orqali ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, tayanch kompetensiya, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, bilim, ko'nikma, malaka.

Mustaqillik bizning mamlakatimizda ta'lim sohasida ta'lim mazmunini o'zgartirish, maktabni ixtisoslashtirish, majburiy to'rt yillik boshlang'ich ta'limga yo'naltirilgan islohotlar bilan boshlandi. Ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy darajalardagi mamlakatdagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar insondan ta'lim sifatiga, ta'lim xizmatlari darajasiga, butun hayot davomida o'z-o'zini baholash va mustaqil ta'limga boshqacha yondashuvni talab etdi. Hayotning o'zi maktab ta'limini o'zgartirishni talab etadi: "bilim berish" printsipidan "zarur bilim va ko'nikmalarni egallashga o'rgatish" printsipiga o'tish kerak. Bugungi kunda maktab o'z oldiga bu maqsadlarni qo'ymaydi va eski an'anaga ko'ra "bilim beradi", o'zi uni tekshiradi va nazorat qiladi. Maqsadni belgilashning o'zgarishi – XXI asrning asosiy talabi bo'lib, ta'lim tizimidagi kompetentli yondashuv bilan bog'liq. Bunda nisbatan mahalliy pedagogik nazariyadan u ta'limsohasida o'tkazilayotgan siyosatning kontseptual asosi roliga da'vogar bo'lgan asta-sekin ijtimoiy ahamiyatli hodisaga aylanadi.

Ta'lim falsafasi va tarixi nuqtai nazaridan kompetentli yondashuv pedagogika fani doirasida mustahkamlangan bilim, ko'nikma, malaka tushunchalariga izohlashga xizmat qiladi. Bilimlilikning kompetentli modeli hayot vazifalari butun ko'lamini bajarishga ijtimoiylashuv, ta'lim, umumiy va kasbiy tayyorgarligi mahsuli bo'lib, erkin insonparvar yo'nalgan tanlovni

amalga oshirishga tayyor, mas'uliyatli individ bo'lishi kerak bo'lgan, o'zgaruvchan "ochiq" jamiyat bilan bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining "Ona tili" darslarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdan iborat. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. O'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish uchun xalq og'zaki ijodi, xalq ertaklari, hikoyalar, afsonalar, bolalar entsiklopediyasi hamda tasviriy ifodani aks ettiruvchi bolalar kitoblari asosiy o'rin tutadi. Bundan tashqari Sharq mutafakkirlarining merosi, she'r va g'azallari, badiiy ijod namunalari dasturi amal bo'lib xizmat qiladi. Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Amur Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari allomalarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta'limiy qarashlariga tayanib ish ko'rilsa, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish ishlari yanada mukammallik kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish ta'lim jarayonining asosi bo'lgan, doimiy diqqat va e'tiborni talab qiladigan, o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan pedagogik muammodir.

Markaziy Osiyoda ta'lim metodlarining rivojlanish tarixi o'rganilganda, ta'limda turli usullarning amaliyotda qo'llanilganini ko'rish mumkin. Jumladan, Abu Ali ibn Sino "Tadbir al-ma'nozil" asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetgunigacha ma'lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini aytadi. U bolalarni yakka tartibda o'qitishdan ko'ra jamoa tartibida o'qitishni afzal deb biladi va bu uslubning ustunligi haqida shunday deb yozadi: "O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'quvchilar birga bo'lganlarida doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z tasavvuri va nutqlarini rivojlantiradilar".

Bizning tadqiqot ishimizda kompetentli yondashuv oliy ta'lim muassasasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitlarida rivojlantiriladigan o'qituvchi kasbiy kompetentligining tuzilmaviy komponentlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu, ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Shu tariqa, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va kompetentli yondashuv birligi bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini har tomonlama tadqiq etish imkonini yaratadi. Qo'yilgan muammoni hal etish uchun «kompetentlik», «kasbiy



kompetentlik», «o'qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchalari mohiyatini aniqlashga asosiy yondashuvlarni tahlil qilamiz.

Adabiyotlarni o'rganish natijalari ko'rsatishicha: birinchidan, «kompetentlik» tushunchasining falsafiy va psixologik lug'atlardagi talqini mavjud emas, ikkinchidan, ba'zi mualliflar psixologik-pedagogik adabiyotlarda «kompetentlik» va «kompetentsiya» tushunchalarini ajratmaydilar.

«Kompetentsiya» va «kompetentlik» tushunchalarini farqlash uchun mazkur tushunchalar o'zbek tili atamalar lug'atida, boshqaruv bo'yicha atamalar lug'ati va boshqalarda qanday ifodalanganligini tahlil qilamiz. «Kompetentsiya» tushunchasi lug'atlarda quyidagicha talqin etiladi:

bu muayyan organ yoki mansabdor shaxsning qonun bilan, mazkur organ ustavi yoki boshqa qoidalar bilan belgilangan vakolatlari (huquq va majburiyatlari) yig'indisi kimdir yaxshi xabardor bo'lgan masalalar sohasi.

Mazkur ta'riflardan ko'rinib turganidek, kompetentsiya tushunchasi turlicha talqin etiladi. Xodjaevning fikricha kompetentsiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – sub'ektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishiga tayyorligi boshqacha qilib aytganda, bu sub'ektning muayyan kasbiy masalalarini yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.

Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetentsiya insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda, ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin. Demak, bizning fikrimizcha ham, kompetentsiya insonga nafaqat kasbiy, balki uning butun hayotiy faoliyati davomida kerak bo'ladigan qobiliyatlar yig'indisidir. Ularni to'la egallamay turib, hech bir mutaxxasis o'z pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli yurita olmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normurodova N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish // TDPU ilmiy axborotlari. Ilmiy-nazariy jurnal. – Toshkent, 2020. – № 12. – B. 312-314.
2. Normurodova N. Razvitiye professional'noy kompetentosti budущеgo uchitelya nachальных klassov // Язык i aktual'nye problemy obrazovaniya: Materialy V Mejdunarod. nauchno-prakt. konf. – Moskva, 2020. 21 yanvarya 2020 goda. – S. 416-421.
3. Sharafjon Sariyev "Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish" qo'llanma Toshkent, 2010 (75 b)
4. S.Matchonov, X.G'ulomova, Z.Dolimov "4-sinf o'qish darslari"(O'qituvchi kitob) "Yangiyo'l poligraph serice" 2007 192 b
5. Сулова Г.В. Оценка качества чтения и понимания текста учащимися начальной школы. // Инфоурок. Библиотека материалов. //www.infourok.ru

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Egamqulova Iroda Safar qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU magistranti*

**Ilmiy rahbar: Nusratova Hamida**

*TDPU Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirishda fanlararo integratsiyaning o'rni bayon etilgan. Shuningdek kreativ tafakkurni shakllantirishda fanlararo integratsiyadan foydalanishning birnecha usullari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, integratsiya, kreativ tafakkur, metod.

Bugungi butun dunyoda ro'y berayotgan globallasuv jarayonida mamlakatimiz yanada taraqqiy etib borishi uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo

etmoqda va bu borada ko'plab ishlar olib borilmoqda. Ilmiy jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va loyixalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda boshlang'ich ta'limning o'rni, global ilmiy jarayonda filologik ta'limni rivojlantirish hamda tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda integratsion ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talaygina ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda integratsion ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda barcha fanlarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hamda mahoratli pedagoglarni har tomonlama barkamol inson sifatida ko'rish, ularga o'zi qiziqishlarini inobatga olga holda qo'shimcha bilimlar berish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilishlariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsad qilib olingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan o'yin-ta'limiy faoliyat sifatida, bola shaxsini rivojlantirishda didaktik o'yinlar mavzulari doirasida reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini kuchaytirish vazifasi qo'yilgan. Chunki, integratsiya boshlang'ich ta'lim jarayonini, o'qitish vazifalarini va tarbiya asoslarini uyg'unlikda amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalari ilm-fan, ishlab chiqarish va amaliyot birligi ta'minlaydi. Shu sababli

hozirgi zamon boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini hal qilish dolzarb bo'lib turibdi.

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta'lim-fan- ishlab chiqarish integratsiya tez-teztilga olinmoqda. Ta'limning hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" dagi ahamiyatli g'oyalardan biridir. Shuning uchun ham ta'limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Integratsiya-ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. Professor R.A.Mavlonova shunday yozadi: "Integratsiya - "butun" degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qismi va integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik.

<<Integratsiya>>so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, <<integer>>butun so'zidan kelib chiqqan.

Uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim texnologiyalari mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonida tashkil etishda nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi har tomonlama rivojlangan ma'naviy-barkamol yoshlarni tarbiyalab ularni raqobatbardosh, yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi amaliyotida interfaol ta'limlaridan tobaro kengroq foydalanilmoqda. Quyida o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish uchun fanlararo integratsiyadan foydalanishga doir bir nechta usullarni keltiramiz.

1-usul: O'quvchilarga 1-sinfda ona tili va o'qish savodxonligi darsida uy hayvonlari mavzusini o'tish jarayonida ingliz tili, matematika va tabiat darslari bilan integratsiya qilish mumkin. Masalan o'quvchilarga uyga topshiriq sifatida 5tdan uy hayvonining nomini ingliz tilida yod olish, ularning oyoqlari sonini v anima bilan oziqlanishini o'rganib kelishtopshirig'ini berish mumkin.

2-usul: 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsida sabzavotlar mavzusini o'rganish jarayonida tabiat va texnologiya darslari bilan integratsiya qilish mumkin. Masalan, o'quvchilarga qaysi sabzavotlar qaysi mavsumda o'sishini o'rganish va o'rgangan sabzavotlarini qog'oz yoki plastilin yordamida yasab kelish topshirig'ini berish mumkin.

3-usul 1-sinf matematika darsida chizg'ich bilan ishlash mavzusini o'rgatishda tasviriy san'at darsi bilan integratsiya qilgan holda, uyga vazifa sifatida o'ziga yoqqan kitobini chizg'ich yordamida o'lchash va uning rasmini chizish topshirig'ini berish mumkin.

Ma'lumotlarni kuzatish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldikki, o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish zamon talabi. Bu jarayonda esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining roli katta. Ular o'z o'quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlab borishi va doimiy ravishda rivojlantirib borishlari zarur. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ

fikrlashni odatga aylantira oladilar. Xato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok.dis. – Toshkent, 2003. – 276 b.
3. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. 40bet.
4. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'lanma. –T.: Fan, 2005, 66 b.
5. Nusratova, H. (2021, October). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.80. 81.021 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrasi dotsenti, PhD. In *Научно-практическая конференция* (pp. 51-52).
- 1%. Nusratova H. Egamqulova I. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH 21 ASR TALABI DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7424038>

### O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Safayeva Diyora**

*Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Avezov Muzaffar**

*Urganch davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari va bu borada nazariyachi olimlarning fikrlari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Oliy ta'lim, o'qituvchi, kompetentlik, axborot, bilim, ko'nikma, malaka, tajriba.

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda.

Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda. Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta'lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya'ni ta'lim maskanlarining maqsadini bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta'lim standartlarini o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta'limda tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati tinglovchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar tinglovchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda, talabalar juda ko'p axborotni behuda jamg'arilishi, ta'limning samarasi past ekani va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgari to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi.

Yuqoridagi dolzarb muammolarni bartaraf etish maqsadida, ta'lim jarayonlarini turli yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muhtaram

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqiyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ham mustaqil O’zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e’tibordan holi emas. Shunday ekan, biz o’qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo’li - oliy ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabdan bilim va ko’nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog’liqlikda, o’z navbatida, o’qitish metodlarini tanlash tizimi ham o’zgarishga uchraydi. O’qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo’llash ta’lim jarayonida qo’yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo’li oliy ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko’nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi.

Mazkur talab bilan bog’liqlikda, o’z navbatida, o’qitish metodlarini tanlash tizimi ham o’zgarishga uchraydi. O’qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo’llash ta’lim jarayonida qo’yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Kompetent yondashuv oliy ta’limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko’rib chiqish hamda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada) - “bilim - ko’nikma - malaka”ni oltita birlik (sekstet) - “bilim - ko’nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi – kompetensiya - kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab “kompetensiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur.

Kompetensiya (lotincha so’z bo’lib, “erishaman, to’g’ri kelaman” ma’nolarini bildiradi) - sub’yektning maqsadni qo’yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu sub’yektning muayyan faoliyat obyektini bilan bog’liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta’riflar kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat bilan bog’liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o’rta ta’lim bilan bog’liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo’lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

Kompetensiya - lotincha “Competentia” so’z bo’lib, o’zbek tilidagi lug’aviy ma’nosi “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo’lgan” kabi ma’nolarni bildiradi. Kompetentlik – biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishidir. L.M. Mitina pedagogik kompetentlik deganda, predmet haqidagi bilimlar, o’qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko’nikma va malakasi, shuningdek, o’z-o’zini rivojlantirish, o’z-o’zini takomillashtirish, o’z-o’zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg’un birlashishini tushungan.

U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo’lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz:

Xulosa qilib aytish lozimki, shaxsga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat ta'lim oluvchiga ta'limning yo'naltirilishi, balki o'qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Ta'lim tizimida kompetentli yondoshuv ta'lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi, ta'lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ro'lida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. O'qituvchining kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta'limda tub o'zgarishlarni amalga oshirish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova Nigora Baxtiyorovna. [Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati](#). Scientific progress.
2. Adizova Nodira. "BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI". *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
3. Amonov U.S., Saparova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
4. Bahramov A. Tabiatshunoslik darsligi. 3-sinf. –T: "Cho'lpon" nashriyoti. 2014.
5. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №.2. – С. 140-144.
6. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Safarov Firuz Sulaymonovich. Elementary School Dictionary Activation Methods. *European Journal of Life Safety and Stability. (EJLSS) ISSN 2660-9630. Volume 12, 2021. P. 203-209.*
8. Семина Е.А. (2010). Компетентностная модель выпускника педагогического вуза - будущего учителя математики. *Альманах современной науки и образования.* - № 5 (36). - С. 133-135.
9. Xoliqulovich J.R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.
10. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).

## LOGOPEDNING KOMMUNIKATIV KOMPENTENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQ NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN MULOQOTINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Y.Q. Abdullayeva

*Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Logoped tomonidan rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaga korreksion-pedagogik va ijtimoiy-psixologik yordamni tashkil etish mazmuni yoritilgan. Logopedning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola bilan muloqoti muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur komponent sifatida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Logoped, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola, muloqot, pedagogik faoliyat, komponent, korreksion-pedagogik tizim, ijtimoiy-psixologik yordam.

Logoped tomonidan rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaga korreksion-pedagogik va ijtimoiy-psixologik yordamni tashkil etish maxsus pedagogikasining dolzarb vazifalaridan biridir. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaga ta'lim va tarbiyani sifat jihatidan yangi bosqichda

tashkil etish ushbu toifadagi bolalar bilan ishlash uchun bo'lajak logopedlarni tayyorlashga boshqa yondashuvlarni shakllantirishni talab qiladi. Ushbu sharoitda ustuvorlik bolaning mavjud nuqsonlarni o'z vaqtida tashxislash, oldini olish va korreksion ishni amalga oshirishga qodir, usul va vositalarni tanlashda moslashuvchanlikni ko'rsatadigan kompetentli mutaxassislarni tayyorlashga beriladi. Logopedning kasbiy tayyorgarligi jarayoni nuqtai nazaridan kasbiy kompetensiya sifatida samarali kasbiy faoliyatga tayyorligi va qobiliyati namoyon bo'ladi. Logopedning kasbiy kompetentligi tarkibiga kiradigan va mutaxassisning kasbiy faoliyati samarali bajarilishini ta'minlaydigan komponentni ajratish zarur bo'ldi. Shu maqsadda biz logopedning kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqdik va amaliyotchilar o'rtasida so'rov o'tkazdik, uning davomida ushbu ko'rinish mutaxassisining eng muhim, ularning fikriga ko'ra, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatni aniqlaydigan ko'nikmalari, ko'nikmalari, fazilatlarini aniqlash kerak bo'ldi. Tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha — "eng muhim", "muhim", "ahamiyatga ega" — sifatlar bo'yicha barcha respondentlarning 66% uslubiy savodxonlikni eng muhimlari orasida birinchi o'ringa qo'ydi; qatnashchilarning 86%

eng muhim sifat orasida ikkinchi joyda muloqot qilish qobiliyatini qayd etishdi; muhim ko'nikmalarini orasida bola idrok turli kanallar ta'sir-63%, ularning his-tuyg'ular boshqarish 73% tashkil etdi. Ushbu sifatning har birining tuzilishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi tarkibida kommunikativ komponent mavjud. Logoped ishining mazmuni bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga ko'maklashish, bolaning rivojlanishidagi mavjud nuqsonlarni korreksion va kompensiyasidan iborat bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan logopedning bola bilan pedagogik o'zaro munosabatlarni o'rnatish qobiliyati bilan belgilanadi.

Shaxslararo muloqotda namoyon bo'ladigan munosabatlar har doim kommunikativ harakatlar tizimidir, uning asosiy xususiyati muloqotda bo'lgan odamlar harakatlarining subyektiv ma'nosining mavjudligidir. Shunday qilib, logopedning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola bilan muloqoti muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur komponent va shartdir.

V.N. Parfenovning ta'kidlashicha, har qanday faoliyat muloqotsiz mumkin emas, u buni shaxslarning o'zaro ta'siri jarayoni deb tushunadi. Bundan tashqari, u faoliyat jarayoni uchun foydali bo'lgan o'zaro ta'sirni o'rnatish uchun muloqot zarurligini ta'kidlaydi. M.S. Kogonning fikri ham A.A. Leontiyevning nuqtai nazariga yaqin, unga ko'ra muloqot "mavzuning amaliy faoliyati'ni ifodalovchi kommunikativ faoliyat turi sifatida qaraladi.

G.M. Andreyevaning ta'kidlashicha, muloqot orqali faoliyat nafaqat tashkil etiladi va rivojlanadi, balki boyitiladi, unda odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosida yangi muloqotlar va munosabatlar paydo bo'ladi. Ko'pgina odamlarning ma'lum bir faoliyatda bir vaqtning o'zida ishtirok etishi ularning o'zaro ta'siriga bo'lgan ehtiyojni anglatadi: faoliyat haqida bilim va g'oyalar almashish uchun ham, ushbu faoliyat va bir-biriga munosabatlarni rivojlantirish uchun ham.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, buni aytish kerakki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola bilan kompetentli pedagogik o'zaro munosabatlarning belgilovchi sharti pedagog-defektologning pedagogik ta'sir vositalarini – pedagogik texnikani, bolalar bilan barcha og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot vositalarini mukammal egallash hisoblanadi. Bola bilan malakali o'zaro munosabatlarni amalga oshirish uchun pedagog-defektolog ma'lum ko'nikma va bilimlarga muhtoj. Kompetensiya yondashuvi pozitsiyasidan ular ushbu toifadagi bola bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish va amalga oshirishda mutaxassis pedagog-defektologning ma'lum darajadagi kompetensiyasini (qobiliyatsizligini) tavsiflovchi kompetensiyalarni shakllantiradi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola bilan o'zaro munosabatlarning kompetensiya tuzilishini o'zaro ta'sir qiluvchi va o'zaro ta'sir qiluvchi komponentlardan iborat deb hisoblaymiz: motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv.



*Motivatsion komponentga* ongli ravishda faoliyatga intilishni ifodalovchi motivlar tizimi kiradi, barcha aqliy lahzalarning umumiyliigi, ular insonning xatti-harakatlarini bir butun sifatida ifodalaydi,

*Kognitiv komponent* – bu o‘zaro ta‘sirni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonlari, ularning o‘quv jarayonidagi roli (logopedning bilim tizimi kasbiy faoliyatning uslubiy asosi sifatida) haqida nazariy bilimdonlik sanaladi.

*Refleksiv komponent* – bu refleksiv faoliyatga tayyorlik (ularning kasbiy faoliyatini tushunish, ko‘nikmalarini baholash qobiliyati va imkoniyati).

Shunday qilib, logopedning rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bola bilan o‘zaro munosabatlar kompetensiyasi mazkur yo‘nalish mutaxassisining kasbiy va pedagogik kompetensiyasining alohida turi sifatida ajralib turadigan logoped shaxsining integral tarkibiy ta‘limi bo‘lib, bu o‘zaro ta‘sir qilish istagi va qobiliyatida ifodalanadi, uning davomida bolaning shaxsini rivojlantirish, uning ijtimoiylashuvi, bolaning aqliy va jismoniy tizimlari faoliyatining buzilishini oldini olish va korreksion, bolada mavjud bo‘lgan nuqsonlarni qoplash vazifalari samarali hal qilinadi. Pedagog-defektologning rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bola bilan o‘zaro ta‘sirining kompetensiyai tizimli ravishda motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlarning bloki bilan ifodalanadi.

Bizning fikrimizcha, har bir komponent kasbiy harakatlar usullari va logopedning zarur ko‘nikma va qobiliyatlari bilan belgilanadigan kompetensiyalar to‘plami bilan tavsiflanadi. Bu logopedni tayyorlashning zaruriy tarkibiy qismi bo‘lib, mazkur yo‘nalish mutaxassisining kasbiy va pedagogik kompetensiyasining ma‘lum bir turi sifatida aniqlangan va kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bola bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish uchun bo‘lajak logopedlarning bilim ,malakasini maqsadli shakllantirishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdullayeva, Y. (2022). THE IMPORTANCE OF COMPUTER PROGRAMS IN FORMING THE VOCABULARY OF CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCIES. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 4(11), 87-92.
2. Abutova, S. O. (2022). RULES FOR COMMUNICATING WITH PRESCHOOL CHILDREN WHO STUTTER. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(12), 48-55.
3. Baymatova, M.S. Диалоговая компетентност в профессиональном развитии учителя начальных классов / M.S. Baymatova // Нач. шк. плюс до и после : науч.-метод. и психолого-пед. журн. - 2004. - №12. - S. 12-16
4. Bozorov O. Bo‘lajak logopedlarni kasbiy tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv //Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований. – 2021. – №. Conference TSPU. – С. 401-407.
5. Dorofeyev, A. Профессиональная компетентност как показатель качества образования А. Dorofeyev // Висш, образование в России : науч.- пед. журн. - 2005. - №4. - S. 30-33.
6. Dubrovina, I.V. Об индивидуальных особенностях школьников I.V. Dubrovina - М. - 1995. - 244 s.
7. Khusniddinova, B. K. (2022). INTERACTION OF A SPEECH THERAPIST WITH OTHER

## БЎЛАЖАК ЛОГОПЕДЛАРНИНГ ИНКЛЮЗИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Абидова Н.З.

*Низомий номидаги ТДПУ доценти, PhD.*

Бўлажак логопедларнинг инклюзив таълимга тайёрлиги касбий ва психологик тайёргарлигини ўз ичига олади. Касбий тайёргарлик, ўз навбатида, қуйидаги таркибий қисмларни ўз ичига олади: ахборотга тайёрлик, педагогик технологияларни билиш, психология ва коррекцион педагогика асосларини билиш, болаларнинг индивидуал фарқларини билиш, бўлажак логопедларнинг дарсни моделлаштиришга ва ўқув жараёнида ўзгарувчанликдан фойдаланишга тайёрлиги, болаларнинг индивидуал хусусиятларини, турли хил ривожланиш нуқсонлари билиш.

Бир қатор тадқиқотчилар “инклюзив тайёрлик” тушунчасига тўхталди, бу шахснинг мураккаб ажралмас субъектив сифати, шу жумладан, психологик ва педагогик тузилмалар, шунингдек, амалий тажриба (В.В. Хитрюк) сифатида тушунилади ва касбий педагогик фаолиятнинг хусусиятлари, шу жумладан, касбий муҳим шахсий фазилатлари билан белгиланади (О. А. Козирева).

Инклюзив таълимга тайёрлик ва инклюзив компетенциянинг турли таркибий қисмлари ҳам ажралиб туради: шахсий-семантик, когнитив, технологик (А.Д. Гонеев, Е.Г. Самарцева); мотивацион, когнитив, ижодий, фаолиятли (Ю.В. Шумиловская); қиймат-мотивацион, когнитив, рефлексив, коммуникатив, таъсирчан, операцион-фаолиятли (О.А. Козирева). Инклюзив компетенциянинг таркибий қисмлари қуйидаги компетенцияларни ўз ичига олиши мумкин: академик, касбий, ижтимоий ва шахсий (В.В. Хитрюк); касбий (когнитив, дизайн, конструктив, ташкилий); ва шахсий (коммуникатив, рефлексив-перцептив, прогностик) (О.А. Ус).

Бўлажак логопедларнинг инклюзив компетенцияси инклюзив таълим соҳасида касбий ва педагогик функцияларни амалга ошириш, ўқувчиларнинг турли хил таълим эҳтиёжларини баҳолаш ва алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларни ўқув жараёнига қўшилишини кафолатлаш, уларнинг ривожланиши учун қулай муҳитни ташкил этиш қобилияти сифатида (Д.Н. Корнеев, Н.Ю. Корнеева, А.А. Саламатов); уларнинг функционал вазифаларини бажариш қобилияти сифатида (С.А. Курносова, Т.С. Овчинникова, Ю.В. Петрова); инклюзив амалиётни амалга оширадиган бўлажак логопедларнинг максимал самарадорлигини таъминлайдиган интеграл ва шахсий таълим сифатида (А.О. Козирева) белгиланади.

Кўриб турганимиздек, тадқиқотчилар “бўлажак логопедларнинг инклюзив компетентлиги”, “бўлажак логопедларнинг инклюзив компетенцияси” тушунчаларини, уларнинг мазмунига турли нуқтаи назарларни илгари сурдилар.

Бироқ инклюзив муҳитни муваффақиятли ташкил этиш нафақат бўлажак логопедга боғлиқ, балки алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларнинг ота-оналари ҳам инклюзив амалиётларда иштирок этишга тайёрлиги жуда муҳим саналади. Таълим муассасаси ишининг муҳим йўналиши бўлажак логопедлар ва ўқувчиларнинг ота-оналарини алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларни қабул қилишга тайёрлаш ва уларнинг ижобий ижтимоийлашуви учун шароит яратишдир.

Ота-оналарнинг инклюзив таълимга муносабати С.В. Алёхина, Е.А. Богомолова, Л.В. Косиковаларнинг асарларида кўриб чиқилган; ота-оналарнинг инклюзив таълимга тайёрлиги В.Н. Поникарова, Н.А. Пономарева, И.Н. Симаева, В.В. Хитрюк томонидан

ўрганилган; ота-оналарнинг инклюзив таълимга психологик тайёргарлиги Т.Н. Адеева, Е.С. Глухова, Г.Т. Карабалаева, С.А. Литвина томонидан ўрганилган; инклюзив маконда ота-оналарнинг психологик тўсиқлари И.Г. Саитгалиева, Е.С. Фоминих томонидан тасвирланган; И.Г.Саитгалиева инклюзив таълимда ота-оналарнинг компетенциясини шакллантириш моделини тақдим этади.

Бироқ ҳозирги вақтда ота-оналарнинг инклюзив компетентлиги ва инклюзив компетенциялари кам ўрганилган ҳодисалардир. Тадқиқотчилар ота-оналарнинг психологик тайёргарлиги, инклюзия ривожланишига ҳисса қўшадиган фазилатлар, хусусиятлар ва шахсий муносабатлар тўплами тушунчалари билан ишлайди (Т.А. Адеева), ота-оналарнинг инклюзив таълимга тайёрлиги инклюзив таълим маконидаги ўзаро алоқа ва мулоқот табиатини белгиловчи когнитив, ҳиссий ва конатив компонентларда мувофиқлаштирилган ниятларни ифодалайди (И.Н. Симаева, В.В. Хитрюк); инклюзив таълим жараёнида ота-оналарнинг малакаси болани тўлиқ ривожлантириш ва тарбиялаш, унинг манфаатларини ҳимоя қилиш ва унинг тўлиқ шахсий ва ижтимоий ўсиши учун зарур бўлган эҳтиёжларини англаш учун педагогика, психология, социологиянинг зарур соҳаларида интеграл шахсий билим олишини англатади (М.В. Жигорева, Г.В. Кочеткова); ота-оналарнинг инклюзив компетенцияси инклюзив таълимнинг хусусиятлари, турли болаларнинг шахсият фазилатлари, болаларнинг турли хусусиятларини қабул қилиш ҳақидаги билимларнинг мавжудлиги сифатида қаралади (Н.Н. Седих).

Бир қатор тадқиқотлар инклюзив тайёрлик кўрсаткичлари сифатида қуйидагиларни таъкидлайди: фаолиятнинг мақсад ва вазифаларини аниқлаш ва ундан фойдаланиш, вазифаларни ҳал қилиш, бошқаларга ижобий муносабат қобилияти (С. О. Шиндряев); мақсадларни қабул қилиш ва инклюзив таълим вазифаларини билиш, алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга нисбатан ижобий психологик муносабатларнинг мавжудлиги, ривожланиш хусусиятлари ҳақида асосий билимларнинг мавжудлиги; алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болалар, уларнинг ота-оналари, бўлажак логопедлар билан ўқув ва синфдан ташқари ишларда етарли даражада ўзаро бағрикенглик муносабатлар ўрнатиш (Т.Н. Адеева).

Ўқув жараёни субъектларининг инклюзив компетентлиги ва инклюзив компетенциясини ўрганишнинг энг қийин масалалари алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган бола ўқувчилар ва уларнинг алоҳида таълимга муҳтож тенгдошларида ушбу тоифаларни ўрганишдир. Тадқиқотчилар, асосан, ўқувчилар ўртасидаги коммуникатив ҳамкорликнинг хусусиятларини (Т.В. Вачков, Г.Т. Лискова, Е.Н. Кондрашова, Е.М. Колесова), алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга бағрикенглик муносабат масалаларини (Е.Ю. Клепцова, О.Ю. Коновалова, Н.С. Кожанова, М.А. Писаревская, Л.С. Фролова, С.А. Черкасова, К.С. Шалагинова), инклюзив синфда психологик иқлимни аниқлаш (Н.Л. Коновалова, О.А. Курмишова, И.А. Туниманова).

Амалиёт шуни кўрсатадики, алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларнинг кўплаб ота-оналари ўз фарзандларини умумий таълим муассасаларида ўқитиш истагини билдиради. Ушбу тоифадаги баъзи болалар учун умумий мактабда ўқиш алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган бола тенгдошлар орасида бўлиш тажрибасининг етишмаслиги билан боғлиқ бир қатор қийинчиликларни келтириб чиқаради. Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болалар кўпинча махсус компетенцион болалар боғчаси гуруҳларига қатнайдилар, бу ерда ўқувчилар сони кам, бўлажак логопедлар томонидан кўпроқ эътибор берилади.

Шуни таъкидлаш керакки, ўқувчиларнинг инклюзив компетенциясига бағишланган ишлар деярли йўқ ва мавжуд тадқиқотлар фақат тавсифловчи хусусиятга эга.

Бўлажак логопедларнинг инклюзив компетенцияси биз томонидан ўқувчиларнинг турли хил таълим эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда ва алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болани умумтаълим муассасаси муҳитига киритишни таъминлайдиган келажакдаги логопедларнинг инклюзив таълим жараёнида касбий функцияларни бажариш, ривожланиш ва ўзини ривожлантириш учун шароит яратиш каби қобилиятини белгилайдиган интеграл шахсий таълим сифатида тушунилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Abidova N. Inclusive Education Of Children With Special Educational Needs / The American Journal of Social Science and Education Innovations. Vol. 3 No. 03 (2021). P. 476-480.
2. Лисовская, Т.В. Компетентностный подход во включенном (инклюзивном) образовании / Т.В. Лисовская // Дефектология. — 2006. — № 5. — С. 9-12.
3. Хитрюк, В.В. Готовность педагогов к инклюзивному образованию: ценностный аспект / В. В. Хитрюк // Вестник Московского городского педагогического университета. — 2013. — № 4. — С. 102-110.

## ABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANISH ORQALI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

S.M. Seytimbetov

CHDPU o'qituvchisi, Chirchiq shahri, O'zbekiston Respublikasi,  
elektron pochta: [seytimbetov.s@cspu.uz](mailto:seytimbetov.s@cspu.uz)

**Annotatsiya:** maqolada talabalarning ijodkorlik qobiliyatini AutoCAD grafik dasturidan foydalanish orqali rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. An'anaviy usulda (qo'lda) egri chiziqlar va sirtlarning yaqqol tasvirlarini qurish, ularni ikki o'lchamli chizmalarini tuzishga nisbatan bir necha marta ko'p mehnat talab qilishi, lekin ularni AutoCAD grafik dasturi yordamida bajarish osonligi va qulayligi tushuntirib o'tilgan

**Kalit so'zlar:** egri chiziqlar va sirtlar, sirtlarni konstruksiyalash, AutoCAD grafik dasturi, qattiq jismlar va sirtlar, ko'rinish, aylanish o'qi.



Ma'lumki, an'anaviy usulda (qo'lda) egri chiziqlar va sirtlarni yaqqol tasvirlarini qurish, ularni ikki o'lchamli chizmalarini tuzishga nisbatan bir necha marta ko'p mehnat talab qiladi. Lekin ularni AutoCAD grafik dasturi yordamida bajarish oson va qulaydir. Shuningdek,

AutoCAD grafik dastur sirtlarni konstruksiyalash jarayonida quyidagi grafik amallarni avtomatik bajarish afzalliklariga ega:

1. Sirtlarning o'zaro kesishuvini avtomatik bajarish;
  2. Turli qirqimlar va kesimlar bajarish;
  3. O'zaro kesishuvchi sirtlarni asosiy va qo'shimcha ko'rinishlarga o'tkazib, o'zaro vaziyatlarini o'zgartirish;
  4. Ob'ektlarning yuzalarini tabiiy ranglarga bo'yash;
  5. Bo'yalgan ob'ektlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan aslidagidek holatda bajarish;
  6. Konstruksiyalangan sirtlarni fazoning istalgan nuqtasidan ko'rish va kuzatish hamda uzluksiz namoyish etish;
  7. Konstruksiyalangan sirtlarni tarkibiy qismlarga ajratish yoki aksincha bir butun jisimga keltirish;
  8. Kesuvchi va kesiluvchi ob'ektlar uchun umumiy bo'lgan qismini yasash.
- Sirtlarni konstruksiyalashda ikki o'lchamli asosiy ko'rinishlardan va uch o'lchamli izometrik tasvirlardan foydalaniladi.

**«По сечениям» - kesim yuzalari o'zgarib boruvchi jismlarni yasash.**

Bu buyruqdan foydalanib yasovchisining kesimi o'zgarib boruvchi va yo'naltiruvchisi egri chiziq bo'lgan sirtlar yasaladi. Masalan, yaratilayotgan obyekt sirti egri sirt bo'lib, uning boshlanish kesimi to'g'ri to'rtburchak ko'rinishida va yakunlovchi qismi esa aylanadan iborat bo'lsin. Yo'naltiruvchi sifatida biron tekis egri chiziq tanlansin (1-rasm, a)).



a)

b)


1-rasm

1. “По сечениям” buyruq tugmasi yuklanadi. So‘ralgan kesim yuzalari ketma-ket ko‘rsatiladi va “Enter” bilan tasdiqlanadi.

2. “Enter” bilan tasdiqlangandan so‘ng “Задайте опцию” - opsiyani berish so‘raladi va unga javoban “Путь” yuklanib yasovchi yoy ko‘rsatiladi. Natjada 1-rasm, b) dagidek kanal sirti hosil bo‘ladi.

Ma‘lumki, mashina va mexanizmlar tarkibining ma‘lum qismini murakkab sirtlar tashkil etadi. Murakkab sirtlar esa, biz yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek yasaladi. Shunday ekan yuqorida keltirilgan jismlar va sirtlarni AutoCAD grafik dasturi yordamida chizishni o‘zlashtirib, olingan tushincha, ko‘nikma, malaka va tajribalar asosida sirtlarni oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlarga asosan konstruksiyalash mumkin bo‘ladi.

Masalan: giperbolik paraboloid (egar) sirti oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlarga asosan konstruksiyalansin (2-rasm).



2-rasm


1. Konstruksiyalanayotgan sirtning yasovchilari (parabola)ni va yo‘naltiruvchilari (giperbola)ni yasab olamiz (3-rasm).




3-rasm

2. Endi “По сечениям” buyruq tugmasi yuklanadi. So‘ralgan yasovchilar ko‘rsatiladi va “Enter” bilan tasdiqlanadi. “Enter” bilan tasdiqlangandan so‘ng “Задайте опцию” - opsiyani berish so‘raladi va unga javoban “Направляющие” yuklanib yo‘naltiruvchilar ko‘rsatiladi (4-rasm, a). Natjada 4-rasm, b) dagidek egar sirti hosil bo‘ladi.

Sirt yakuniy shaklni egallagandan so‘ng uning statik va aerodinamik yuklarga bardoshlilik hisob kitobi amalga oshiriladi.



a)



b)

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maratovich, S. S. (2022). TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI GEOMETRIK SHAKLLARNI PARAMETRLASH MASALALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(3), 27-32.
2. Seytimbetov, S. M. (2022). Muhandislik kompyuter grafikasi fanidan foydalanib talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish. *Science and Education*, 3(11), 829-833.
3. Maratovich, S. S. (2022). TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI KONSTRUKSIYALASH MASALALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH. *ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI*, 1, 114-119.
4. Alimov F. v/b "Kompyuter grafikasi va asoslar". –T.: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati". 2012-y.

## БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МОДЕЛИ ВА ТЕХНОЛОГИЯСИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

Тошпулатова Д.К.

Тошкент давлат педагогика университети ўқитувчиси  
[durdonatoshpulatova93@gmail.com](mailto:durdonatoshpulatova93@gmail.com)

**Аннотация.** “Технология” атамаси чет эл усулларида олинган бўлиб, у ерда турли хил ташкил этилган ўқув жараёнларини тавсифлаш учун фойдаланилади. Технологиялардан фойдаланиш дидактик муаммоларни ечишда ўқувчиларга таъсир ўтказиш усуллари тақомиллаштиришга қаратилган.

**Калит сўзлар.** Изоҳли-иллюстрацияли ўқитиш технологияси, йўналтирилган таълим технологияси, ички механизмларни фаоллаштиришга қаратилган технология, дифференциалли ўқитиш технологияси.

“Технология” атамаси чет эл усулларида олинган бўлиб, у ерда турли хил ташкил этилган ўқув жараёнларини тавсифлаш учун фойдаланилади. Технологиялардан фойдаланиш дидактик муаммоларни ечишда ўқувчиларга таъсир ўтказиш усуллари тақомиллаштиришга қаратилган.

Педагогик технологияларнинг турлари жуда кўп, улар турли сабабларга кўра ажралиб туради. Дидактикада учта асосий технологиялар гуруҳи мавжуд

1. **Изоҳли-иллюстрацияли ўқитиш технологияси**, моҳияти бу ўқувчиларга маолумот бериш, ўқитиш ва уларнинг репродуктив фаолиятини ташкил қилишда ҳам умумий таълим, ҳам махсус (мавзу) кўникмаларини ривожлантириш.

2. Шахсий ўзини ўзи ривожлантиришга **йўналтирилган таълимни** субъектив асосга ўтказишга қаратилган **ўқувчиларга йўналтирилган таълим технологияси**.

3. Ички механизмларни фаоллаштиришга қаратилган ўқув услубига асосланган **ривожлантирувчи таълим технологияси** ўқувчининг шахсий ривожланиши.

Ушбу гуруҳларнинг ҳар бири бир нечта таълим технологияларини ўз ичига олади. Масалан, шахста йўналтирилган технологиялар гуруҳига кўп даражали (табақалаштирилган) ўқитиш технологияси, жамоавий ўзаро ўрганиш, билимларни тўлиқ ўзлаштириш технологияси, модулли ўқитиш технологияси ва бошқалар киради. Ушбу технологиялар ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш, ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги ўзаро таъсир усуллари тақомиллаштиришга имкон беради.

Энг машҳур ёки энг кўп ишлатиладиган технологияларни профессор И.В. Душина табиатшунослик фанларини комплекс ўқитишда қўллаган.

**Тарбиявий иш услубларини шакллантириш технологияси** қоидалар, намуналар, алгоритмлар, бирор нарсани тавсифлаш ва тавсифлаш режалари кўринишида тақдим этилади. Ушбу технология бир қатор дарсликларда кенг акс эттирилган ва кўплаб ўқитувчилар амалиётида жуда яхши ўзлаштирилган. Ўқитувчи биринчи навбатда ушбу технологияга эътибор қаратиши мақсадга мувофиқдир.

**Йўналтирувчи сигнал варақалари технологияси** (мантикий маълумотномалар).



Ўқишдаги мантиқий уланиш схемаларининг ўрни Н.Н. Баранский, “схемалар асосий ва асосийни ажратиб кўрсатишни ўргатади, мантиқий алоқаларни топишга ва ўрнатишга ўргатади, ўқувчиларга дарсни ўрганишда сезиларли ёрдам беради”. Ўқитувчилар доимий равишда алоқа схемаларидан фойдаланадилар.

#### **Мактаб ўқувчиларининг ўқув фаолиятини шакллантириш технологияси.**

Ушбу технологиянинг моҳияти шундаки, ўқув фаолияти ўқувчиларнинг ўқув фаолиятининг махсус шакли сифатида қаралади. Бу ўқув вазифалари орқали билимларни эгаллашга қаратилган. Дарс бошида синфга дарс давомида ечиладиган тарбиявий вазифалар (доскада, плакатда ва ҳоказоларда) таклиф этилади ва дарс охирида ушбу вазифаларга мувофиқ ассимиляция натижаларини диагностика текшируви тестлар ёрдамида амалга оширилади. Технология ўқитувчи курс (бўлим, мавзу) бўйича ўқув вазифалари тизимини яратишини, унинг фаолияти ва у билан боғлиқ бўлган мактаб ўқувчиларининг лойиҳаларини ишлаб чиқишини назарда тутаяди.

**Дифференциалли ўқитиш технологияси.** Уни қўллашда синф ўқувчилари ўқувчиларнинг типологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда шартли гуруҳларга бўлинади. Гуруҳларни тузишда мактаб ўқувчиларининг ўқишга шахсий муносабати, тайёргарлик даражаси, ўрганиш қобилияти, мавзунини ўрганишга, ўқитувчи шахсига бўлган қизиқиши ҳисобга олинади. Кўп даражали дастурлар тузилади, дидактик материал мазмуни, ҳажми, мураккаблиги, вазифаларни бажариш усуллари, шунингдек, таълим натижаларини диагностика қилиш билан фарқланади.

Бу жуда яқиндан технология ва ўйин фаолияти билан боғлиқ. Ўқувчилар ва ўқитувчининг ўзи фаол бўлган тақдирда, ўқув ўйини жиддий тайёрлангандагина ижобий натижа беради. Таълим вазифалари, ўйиннинг ҳар бир позицияси аниқ кўрсатилган, қийин вазиятдан чиқишнинг мумкин бўлган услубий усуллари кўрсатилган, натижаларни баҳолаш усуллари режалаштирилган ўйиннинг яхши ишлаб чиқилган сценарийси алоҳида аҳамиятга эга. Ўйинларнинг кўп турлари мавжуд.

**Коммуникатив-диалог фаолияти технологияси** ўқитувчидан ижодий ёндашишни ва ўқув жараёнини ташкил қилишни, эвристик суҳбат техникасини ўзлаштиришни, синф билан мунозара ўтказишни ва ўқувчилар ўртасида мунозаранинг пайдо бўлиши учун шароит яратишни талаб қилади. Турли табиатшунослик курслари мавзуларида кўплаб муаммолар, ўқув мунозарасини ташкил қилиш учун саволлар мавжуд.

**Модулли технология.** Модул ўқитувчи ўқув материалининг мазмуни ва уни ўқувчилар томонидан ўзлаштириш технологиясини бирлаштирган махсус функционал бирлик деб аталади. Ўқитувчи мактаб ўқувчиларининг мустақил ишлаши учун махсус кўрсатмалар ишлаб чиқади, бу ерда маълум бир ўқув материални ўзлаштириш мақсади аниқ кўрсатилган, ахборот манбаларидан фойдаланиш бўйича аниқ кўрсатмалар беради ва ушбу маълумотларни қандай ўзлаштиришни тушунтиради. Худди шу йўриқномада тест топшириқларининг намуналари келтирилган.

**Лойиҳалаш фаолияти технологияси.** Ушбу технологиянинг маноси тадқиқот фаолиятини ташкил этишдан иборат. Лойиҳаларнинг ҳар хил турлари мавжуд: ижодий, информацион, ҳаёлий, тадқиқот ва бошқалар.

Шундай қилиб, ушбу технологияларни интеграциялашган ўқитишда қўллаш орқали ўқитувчи жараёни янада тўлиқ, қизиқарли ва бойроқ қилади. Табиатшунослик, она тили ва математика фанлари предметлари кесишган жойда бундай яхлитлик дунёқараш ва дунёқарашни шакллантириш учун зарурдир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Абдуллаева Б.С. Академик лицей ўқувчиларининг математик тафаккурларини ривожлантириш (умумлаштирувчи дарслар мисолида): Дис. ... пед. фан. ном. – Тошкент: ТДПУ, 2002. – 146 б.

2. Галперин П. Я. Боланинг интеллектуал ривожланишини ўрганишга. // Психология саволлари, 1969, №1.

3. Лисова Г.Г., Аштрафзиянов А.И., Никифорова Т.А., Прилежхаева Л.Г., Салиев Н.Н. Услубий мақолалар тўплами "Интеграция ривожланувчи таълим учун". ANO SOSH "Premier". 2014 йил

4. Тошпулатова Ш.О. Ўқувчиларнинг мантикий фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш. Пед. фан .....(PhD) дисс. автореф. – Самарқанд. 2019. 14-20 б.
5. Тошпулатова Д.К. “The role of mental arithmetic in improving mathematical literacy in primary school”. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Published 18.12.2019.
6. Тошпулатова Д.К. “The role of mental arifmetics and thinking skills in mathematics lessons of primary schools”. International Engineering Journal For Research & Development – 2020.
7. Тошпулатова Д.К. “Бошланғич таълим жараёнини такомиллаштиришда интерфаол методлардан фойдаланиш”. «Хоразм Маъmun академияси» – Хива, 2020 214-217 б.
8. Тошпулатова Д.К. “Бошланғич синф ўқувчиларининг мантикий ва ақлий фаолиятининг потенциал имкониятларини ўрганиш даражаси”. «Жамият ва инновациялар», Special Issue – 2 (2021).
9. Юсупова Ш.М. Она тилини интеграл ўқитиш шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг мантикий фикрлашини ривожлантириш: Дис..... пед. фан. док. – Х., 2010. – 17 б.

## БЎЛАЖАК ЧАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИГА КОМПЛЕКС ЁНДАШУВ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Б.А. Холиқов**

ОРИЕНТАЛ университети ўқитувчиси

**Аннотация:** Комплекс ёндашув асосида бўлажак чақириққача ҳарбий таълим ўқитувчиларининг касбий компетенцияларини ривожлантириш жараёни ижтимоий-педагогик зарурат сифатида назарий ва амалий шарҳларни талаб қилмоқда. **Бўлажак** чақириққача ҳарбий таълим ўқитувчиларининг **касбий компетенцияларини ривожлантиришининг долзарб муаммолари ушбу мақолада ёритилган.**

**Калитли сўзлар:** ҳарбий таълим ўқитувчилари, компетенция, инновацион технология, психологик сифатлар, жисмоний тайёргарлик, комплекс ёндашув.

**Annatation:** The process of developing professional competencies of military education teachers before the next call based on a comprehensive approach requires theoretical and practical reviews as a socio-pedagogical necessity. Actual problems of developing professional competences of military education teachers before the next call are covered in this article.

**Key words:** military, education teachers, competence, innovative technology, psychological qualities, physical training, comprehensive approach.

Бугунги кунда шахснинг касбий компетенцияларини шакллантириш жараёнига комплекс ёндашиш зарурияти кучаймоқда. Чунки касбий компетенциялар бир қатор ижтимоий, педагогик тушунчаларни ўзлаштиришни тақозо этади.

Бўлажак чақириққача ҳарбий таълим ўқитувчиларининг касбий компетенцияларини ривожлантириш жараёнига комплекс ёндашиш ушбу мақсадга йўналтирилган таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш ва педагогик ходисаларни ҳар томонлама чуқур таҳлил қилишда муҳим аҳамиятга эга.

Ватан ҳимоячилари ҳисобланган бўлажак ҳарбий кадрларнинг ўз вазифаларини муваффақиятли бажаришлари учун етарли билим ва кўникмаларни ҳосил қилиш яхлит педагогик тизимни ташкил этишни талаб қилади. Ўзбекистон Республикаси Қуроли Қучлари сафида хизмат қиладиган офицерларнинг ҳар томонлама ривожланишлари, касбий маҳоратга эга бўлишлари учун ҳарбий таълим жараёнида етарли асос яратилади.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги тизимидаги барча олий ҳарбий таълим муассасалари ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикасининг 2002-йил 12-декабрдаги “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги 436-П-сон Қонуни, Ўзбекистон Республикасининг 2020-йил 23-сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни, [Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 9 январдаги “Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси тўғрисида”ги ЎРҚ-458-сон Қонунлари](#) ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005-йил 19-апрелдаги “Ўзбекистон Республикасида ҳарбий таълим тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-

тадбирлар тўғрисида”ги Ф-2193-сон Фармойиши, 2017-йил 16-февралдаги “Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-4958-сонли Фармонлари ва бошқа қонуности ҳужжатлар талаблари асосида амалга оширмоқда.

Ўзбекистон Республикасида кейинги уч йил ичида мудофаа соҳасида кўплаб ислохотлар амалга оширилди. Қуроли Кучларни шакллантириш жараёнида, айниқса, кадрлар масаласига жиддий эътибор қаратилди. Кўйилган вазифаларни муваффақиятли ҳал этиш учун мудофаа соҳасидаги илмий-амалий тадқиқот ва ишланмаларни мувофиқлаштириш, мамлакатимизда ҳарбий таълимни ривожлантириш каби устувор мақсадларни амалга оширишда асосий ўрин эгаллаган Қуроли Кучлар Академиясининг янгидан ташкил этилганини таъкидлаш лозим.

Шу мақсадда, ОТМ ларида ҳарбий кадрларни тайёрлаш, уларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш жараёни олдига қуйидаги вазифалар қўйилмоқда:

- ҳарбий кадрлар тайёрлаш тизими мазмунини мунтазам янгилаш;
- талабалар ва тингловчиларнинг ҳарбий соҳадаги замонавий билимлар билан қуроллантиришга эришиш;
- инновацион технологиялар ёрдамида бўлажак офицерларнинг касбий компетенцияларини шакллантириш кабилар.

Олий таълим муассасаларида таҳсил олиш талабалардан катта масъулиятни талаб қилади. Айнан ушбу турдаги таълим муассасаларида талабаларда объектив дунёқараш, ватанпарварлик, шижоаткорлик шаклланади. Қарашлар ва эътиқодлар тизимли тус олиб, талабаларда ҳарбийларга хос бўлган бир қатор психологик сифатлар: сезгирлик, хушёрлик, қатъиятлилик, мардлик, жасорат кўрсатишга мойиллик, масъулиятлилик, фуқаролик позициясига эгаллик кабилар аниқ намоён бўлади. *Дарҳақиқат, мамлакатимиз хавфсизлиги ҳарбий кадрларнинг касбий компетентлиги қай даражада шакланганлигига боғлиқ.*

Олий таълим муассасаларида бўлажак чақириққача ҳарбий таълим ўқитувчиларининг билим, кўникма ва малака даражаси касбий маҳорат ва амалий тажриба, ижтимоий фаоллик, ақлий фаолият, маънавий-ахлоқий, психологик-педагогик ва жисмоний тайёргарлик, шунингдек, касбий фаолиятнинг турли вазиятларида юзага келган хавф-хатарга мос равишда ҳаракат қилиш қобилияти – унинг касбий компетенцияларининг ривожланганлигига боғлиқ. Шунинг учун ҳам комплекс ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш масаласи бутунги кунда алоҳида долзарблик касб этмоқда.

Абу Наср Форобий ўзининг “Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида” номли асарида ҳарбийларни, яъни жангчилар, посбонлар, ҳарбий хизматчиларни алоҳида табақага ажратади. Мутафаккир ҳарбийларни шаҳарнинг тўлақонли аҳолиси сифатида кўрган ва ҳарбийлар давлат таркибида доимо мавжуд бўлиши керак ва барча каби унинг ажралмас қисми бўлиши зарурлигини таъкидлаган.

Х.Худойбердиевнинг таъкидлашича: “Ҳарбий-педагогик жараённинг йўналиши ва мазмуни ижтимоий ҳодиса сифатида бир қатор омилларга боғлиқ. Авваламбор, ҳарбий хизматчилар таълими ва тарбияси жараёни мамлакатдаги ижтимоий тизимга боғлиқ. Таълим ҳамда тарбия принципларининг моҳияти ва мазмуни ҳам ана шу талаблардан келиб чиқади”.

Комплекс ёндашув асосида бўлажак чақириққача ҳарбий таълим ўқитувчиларининг касбий компетенцияларини ривожлантириш жараёни ижтимоий-педагогик зарурат сифатида назарий ва амалий шарҳларни талаб қилади. Шунинг учун, аввало, “компетенциявий ёндашув”, “компетенция”, “компетентлик”, “касбий компетенция” тушунчаларининг маъносини ойдинлаштириб, уларнинг ўзаро муносабатларини аниқлаш зарур.

Педагогика фани назарияси ва амалиётида “компетентлик” ва “компетенция” тушунчалари бир вақтда қўлланилмоқда. Компетенция таълим олувчиларнинг тайёргарлигига аввалдан қўйилган талабларни аниқлаш, компетентлик шахснинг мавжуд сифатлари ва эгаллаган соҳасига муносабати, ўзлаштирган тажрибаси билан белгиланади.

Компетенциявий ёндашув бўлажак офицерларнинг стандарт ҳамда ностандарт вазиятларда тўғри ҳаракатланишини таъминлайди. Ҳарбий мутахассисларни тайёрлаш жараёнининг педагогик тавсифини яратиш имконини беради. Ушбу жараёнга комплекс ёндашиш учун қулай шароит яратади.

Компетенциявий ёндашув кучайиб ва мураккаблашиб бораётган қуро-яроғ ва ҳарбий техника ҳамда яратилаётган вазиятларнинг хавфлилик даражаси билан бўлажак офицернинг тайёргарлик даражаси ўртасидаги номуносибликни бартараф этишга қўмаклашади. Шунингдек, олий ҳарбий таълим муассасасининг кундалик фаолиятини белгилаб турувчи меъерий ҳужжатларда акс этган, қуро-яроғ динамикаси, бўлажак офицерни тайёрлаш статистикаси ва ҳарбий-касбий фаолиятга курсантларни тайёрлашни ташкиллаштиришга қўйилаётган асосий талаблар ўртасидаги қарама-қаршиликнинг мавжудлиги кузатиламоқда.

Сўнги йилларда компетенциявий ёндашувга бағишланган педагогик тадқиқотлар қўлами кенгайиб бормоқда. Таълимда компетенциявий ёндашувдан фойдаланиш устуворлигини И.Зимняя интеграция тенденцияси, жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви, Европа олий таълим тизимининг уйғунлашуви, таълимнинг барча босқичларида унинг сифатини ошириш зарурати билан боғлиқ деб ҳисоблайди.

Д.Ивановнинг фикрига кўра, компетенциявий ёндашув муаммоси замонавий Ғарб таълимида марказий ўринга қўйилмоқда, чунки ахборот технологиялари ёрдамида тақдим этиладиган маълумотларнинг қўлами кенгаймоқда. Инсон муваффақиятга эришиши учун ўз компетенцияларини қайта-қайта тўлдириши ва ўзгартириши, хатто янги ихтисосликка оид билимларни ўзлаштириши лозим. Касбий маҳсулдорлик ахборот оқимларини бошқариш, муаммоларни ечиш, мақсадга эришиш учун етишмаётган билимларни ва бошқа манбаларни излаш лаёқатига эга бўлиш лозим.

Бугунги кунда малака моделидан компетентлилик моделига ўтиш тенденцияси давом этмоқда. Т.В. Гериш ва П.И. Самойленколарнинг фикрларига кўра, таълим ва меҳнат орасидаги ўзаро алоқадорликни таъминлаш таълим стандартларини ишлаб чиқиш учун технологик схемадан кўра кўпроқ услубий хусусиятга эгадир. Таълимга бўлган ёндашувнинг ўзгариши диққат-эътиборни жараёндан ўқув натижаларига йўналишини ва шунга мос равишда баҳолаш усулларини такомиллаштириш, дастурларнинг интенсивлиги, ўқишни ташкил этишни ўзгартириш, шунингдек ўқитувчи ва таълим олувчининг ўқув жараёнидаги ҳамкорлигини англади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 4-августдаги “Ўзбекистон Республикаси Қуроли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-3898-сон Қарори.

2. Мирзиёев Ш.М. Хавфсизлик Кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги “Қуроли Кучларимиз – мамлакатимиз барқарорлиги ва тараққиётининг мустаҳкам кафолатидир” мавзусидаги нутқи //Халқ сўзи газетаси. 2018 йил, №3.

3. Алимардонов З.Ш. Олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлажак офицерларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш. Педагогика фан. бўйича фал. докт. (PhD) дисс... – Тошкент: УДЖТУ, 2019. – 174 б.

4. Адизова Нигора Бахтиёровна, Ҳилола Худойбердиева. [ҚИЗИҚМАЧОКЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ](#). Scientific progress.

5. Adizova Nigora Baxtiyorovna. [Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati](#). Scientific progress.

6. Baxtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. “FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA”. *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.

7. Baxtiyorovna Adizova Nodira and Jamolova Lubat Ilhomovna. “BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY”. *BARQARORLIK*

8. Jumayev R. SADRIDDIN AYNINING “ESDALIKLAR” ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO'LLANISHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т. 7. –No.

7.

9. Khaitov N., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №.2. – С. 140-144.

10. Татур Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалистов // Высшее образование сегодня. 2004. № 3.

11. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. “ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ”. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.4 (2020).

## NUTQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA NOAN’ANAVIY TA’LIM METODLARI, DIDAKTIK O’YINLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Roziqova Ra’no Rustamovna**

*BuxDPI II bosqich magistranti*

**Kalit so’zlar:** metod, kompetensiya, noan’anaviy ta’lim, samaradorlik, interfaol, ijodiy fikrlash, nutq, ta’lim oluvchi.

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda zamonaviy ta’limni tashkil etishda interfaol metodlarning o’rni, innovatsion texnologiyalardan foydalanganda darsning samaradorligining ortishi haqida fikr va mulohazalar berib o’tilgan.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko’nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko’nikma hamda malakalar darajasini baholash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni va ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi. Har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o’z imkoniyati, qobiliyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

Noan’anaviy (interfaol) ta’lim metodlaridan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo’llanilayotgan ilg’or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlantirish mamlakatlarda o’quvchilarning o’quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi innovatsion texnologiyalarni qo’llash borasidagi katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol yoki noan’anaviy metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

**Interfaol metodlar:** “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b.

**Interfaol ta’lim strategiyalari:** “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga, qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.

**Interfaol grafik organayzerlar:** “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg’ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko’rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan



bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyo qarashini o'stirish ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalaish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faoligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva F.N. Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayonlari. Boshlang'ich ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. -Buxoro. 2021. -300b
2. Rahima Mavlonova, Nargiza Rahmankulova, Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya, Toshkent - 2013.
3. Ishmuhammedov R., Yo'ldosheva M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent – 2017.
4. Jumayev E.T., Tursunov O.Q. Pedagogik texnologiyalar. -Qarshi. 2016.
- 5.

### VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI CHAQIRIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK DARSLARINI TASHKIL ETISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Raximov Farrux Boltayevich**

*BuxDPI Harbiy ta'lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usuli yaratilgan, virtual ta'lim texnologiyalarni joriy etish metodikasini takomillashtirishni keng yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** virtual ta'lim, o'quvchi, maktab, kompyuter, tahlil, loyihalashtirish, qo'llash, internet, baholash, virtual borliq, Perseptiv – mnemonik, Didaktik, Rivojlantiruvchi.

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchi va talabalar ovoqli (tasvirga olish, qayta ishlash, videomontaj), grafik axborotli (skanerlash, qayta ishlash, grafikli hujjatlarni yaratish) va multimediali vosita (kompyuterli namoyish-tajribalar)li ma'lumotlar bilan ishlash hamda Internet texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha barcha imkoniyatlar yaratilib, o'qitiladigan o'quv materiallarni (konferensiya, konkurs, ma'ruza, seminar, tajribalarni namoyish etish, onlayn rejimda virtual ekskursiyalarni o'tkazish) taqdim etishning yangi shakllaridan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi.


Ushbu imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan oliy ta'lim muassasalarida o'qitish texnologiyasi va metodikasi ham o'zgarib bormoqda. Porfessor-o'qituvchilar o'z faoliyati davomida passiv materiallar bilan birgalikda, o'quv axborotlarini taqdim etishning yangi shakllari ( video dars, video konferensiya, vebinar, forum, chat, multimediali ilovalar, audio va video)dan foydalanib, samarali natijalarga erishib kelmoqda. «Shu bilan birga mashg'ulotlarni



o'tkazishning yangi shakli Internet tarmog'i yordamida darslarni onlayn rejimda (to'g'ridan-to'g'ri efirda) amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi».

Internet texnologiyalarni qo'llab o'qitish bugungi kunda ta'lim va tarbiya tizimining yangi bosqichi hisoblanib, ana'naviy o'qitish tizimi uchun ham, masofaviy o'qitish tizimi uchun ham virtual ta'lim platformalari va ularga mos virtual ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilmoqda, bu esa tarmoq texnologiyalari orqali o'quv materiallarini va talabalar o'rtasida samarali muloqotni tashkillashtirish hamda ularning samarali mustaqil faoliyati uchun keng ko'lamli sharoitlar yaratadi. Bu esa chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitish uchun zamonaviy o'qitish vositasi hisoblanadi.

Virtual ta'lim texnologiyalarini yaratishning didaktik, psixologik va psixofiziologik talab hamda tamoyillariga tayangan holda "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanidan o'quv jarayonini loyihalashtirish mumkin (rasmga qarang).



Ushbu rasmda ko'rsatilgan virtual ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish uchun tuzilgan jamoa turli xil mutaxassislardan tashkil topishi, ya'ni, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, pedagogika va psixologiya o'qituvchilari, dasturchi va dizayner bo'lishi talab etiladi. Mazkur jamoa yordamida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan talabalar uchun pedagogik va psixologik jihatda to'liq javob beruvchi virtual ta'lim texnologiyalarini yaratish imkoniyati tug'iladi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini Internet tarmog'iga mo'ljallangan virtual ta'lim texnologiyalarini dars (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va mustaqil o'quv faoliyatida foydalaniladi. Ushbu zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanishni qulayligi, ularning manbalarining ochiqligi, ya'ni, xoxlagan vaqtda va joyda tarmoq orqali foydalanish imkoniyati mavjud. Masalan, «Kalashnikov avtomati, stvol osti granatamyot GP-5 va parchalanuvchi qo'l granatalarining qismlari» mavzusini o'rganayotganda, bu jarayonni dinamikasi qanday sodir bo'lishini kuzatish uchun bir nechta video roliklar, animatsiyalar yordamida taqdim etiladi. «Materialning bunday vizual taqdimoti tufayli talabalar ushbu mavzuni o'rganishni jiddiy qabul qilishadi va haqiqiy qurollardan foydalanish va ularning qismlari ishlash xususiyatlarini ochib beradigan ilmiy dalil sifatida qiziqishadi». Shuning uchun virtual ta'lim texnologiyalarini chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarining barcha bosqichlarida qo'llash lozim, ya'ni: olgan bilimlarni takrorlashda; yangi materialni tushuntirishda; olingan bilimlarni mustahkamlashda; nazoratlarga tayyorgarlik ko'rishda simulator sifatida.

Global tarmoqning imkoniyatlari chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik ta'limning jamoaviy imkoniyatlarini ta'minlaydi. Tinglovchi onlayn aloqa muhiti orqali tengdoshlari bilan o'quv loyihalarni jamoaviy bo'lib bajarishi imkoniyati tug'iladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilar majburiy darslardan ozod bo'lganliklaridan so'ng, turli jo'g'rofik hududlarda interfaol muhokmalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Internet tarmog'i orqali masofaviy o'qitishni boshqaruvchi professor-o'qituvchiga talabalar bilan savol-javob va tushunmagan mavzularni tushuntirish uchun ma'lum vaqtni rejalashtirib, o'sha vaqtda onlayn munozaralar olib borish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida chaqiriruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan didaktik namuna sifatida xizmat qiladigan, masofaviy virtual ta'lim texnologiyalarini qo'llash uchun yagona tayanch tizim joriy etilmagan. Chaqiriruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik ta'limi sohasini isloh qilishning asosiy bosqichlaridan biri, bu zamonaviy virtual ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish orqali amalga oshirish mumkin.

Umuman olganda chaqiriruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini Internet tarmog'i orqali masofaviy o'qitish imkoniyatlarini tahlil qilish quyidagi afzalliklarni ajratib ko'rsatish mumkin: moslashuvchanlik, qulay vaqtda va joyda foydalanish imkoniyati; tartibga

solinmagan vaqt davri; modullik va o'zgaruvchanlik. Mustaqil o'quv kurslari (modullar)dan individual yoki guruh ehtiyojlariga javob beradigan o'quv rejasini tuzish qobiliyati; parallel. Kasbiy faoliyat bilan parallel ravishda, ya'ni, ishlab chiqarishni to'xtatmasdan, ularning ta'lim darajasini doimiy ravishda oshirish imkoniyati; keng qamrov. Talabalarni bir vaqtning o'zida ko'plab ma'lumotlarga (elektron kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari va boshqalar) murojaat qilish; tarmoq orqali bir-birlari va professor-o'qituvchilar bilan aloqa qilish; global auditoriyaning potensial kengayishi; rentabellik. O'quv va texnik vositalaridan unumli foydalanish, o'quv ma'lumotlarini konsentrlangan, yaxlit taqdim etish, unga kirish imkoniyatini oshirish va mutaxassislarni tayyorlashda xarajatlarini kamaytiradi.

Virtual ta'lim texnologiyalari nazariy va amaliy materiallar yetkazishga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Bu talabaning amaliy faoliyatida olingan bilimlardan foydalanishni ta'minlaydi. Virtual ta'lim texnologiyalari yordamida taqdim etiladigan o'quv materiallari talabalar tushunishi lozim bo'lgan bilimlar tizimi va hajmini aniqlashi kerak, shuningdek, dars mazmunining o'zgarmas yadrolarini kengaytiruvchi va chuqurlashtiradigan ma'lumotni o'z ichiga olishi lozim, bu esa mashg'ulotda tabaqalashtirish va individuallashtirish tamoyillarini amalga oshirishga imkon beradi. Tabiiy hodisalarga hissiy munosabatda bo'lish tajribasini shakllantirish uchun darslik talabalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda hissiy ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan materiallardan iborat bo'lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farrux RAXIMOV. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishlarida virtual ta'lim texnologiyalari yordamida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitish samaradorligini oshirish. Ta'lim va inavotsion tadqiqotlar jurnali 2022 yil 4-son

2. **Rakhimov Farrukh Boltayevich.** THE SIGNIFICANCE OF VIRTUAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. **Web of Scientist: International Scientific Research Journal.** ISSN: 2776-0979. Vol. 4 No. 1 (2023): wos. **Published:** 2023-01-06

3.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna**

*BuxDPI o'qituvchisi Izatullayeva Muyassarbonu, 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish, kompetensiya turlari xususida fikr bayon etilgan. . Didaktika va metodologiyada asosiy, umumiy fan va fan kompetensiyalarining mazmunini aks ettirish uchun ularni maxsus texnologiya asosida qurish zarur. Fanga (ona tili, o'qish, matematika, tabiatshunoslik) tegishli ta'lim kompetensiyalari ro'yxati tuziladi. Buning uchun fanga oid kompetensiyalarni (kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, o'quv materiali, kompetensiya, fanga oid kompetensiya, tayanch kompetensiya.

Jahon ta'lim tizimida ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalaridan keng foydalanish, ta'limga yangicha yondashuvlarni joriy yetish, hayotimizning barcha jabhalarini izchil va barqaror rivojlantirish munosib kelajak barpo yetishning muhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, Finlandiya, Koreya, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya federatsiyasi, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Italiya kabi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirilib, rivojlantirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi[3]:

**Kommunikativ kompetensiya** – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** – mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablarining tuzilishida kompetensiyalarni tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish nazarga tutiladi. Bunda:

tayanch kompetensiyalar – ta'lim mazmunining umumiy(metapredmet) qismiga tegishli; fanga oid kompetensiyalar – ma'lum o'quv fan doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetensiyalar – bu kasbiy va mehnat muammolarini hal qilishga qaratilgan va bitiruvchining mehnat bozoridagi ijtimoiy va mehnat munosabatlariga integratsiyalashuvining omili bo'lgan barcha(ko'pchilik) kasblar va mutaxassisliklar uchun o'zgarmas faoliyatning universal usulidir [4]. Dunyoda tayanch kompetensiyalarning yagona ro'yxati yo'q. Chunki har bir davlat yoki mintaqaning o'ziga xos an'analari, mentaliteti, ehtiyojlari va strategiyasi bor. Shuning uchun tayanch kompetensiyalar ro'yxati har bir davlat uchun jamiyat tomonidan fuqarolarga qo'yiladigan ijtimoiy talablar va majburiyatlarga, shuningdek mamlakat yoki mintaqaning ijtimoiy muhitiga muvofiq standartlashtiriladi va belgilanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining kompetensiyasi - bu o'quvchining ajralmas xususiyati, maktab fanlarini o'zlashtirish jarayonida olingan bilimlarni va uning xulq-atvorini, atrofdagi voqelikni hisobga olgan holda modellashtirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi deya ta'riflaydi Korotina Y.V.[7]. V.I.Yablonskiy mutaxassisning kompetensiya modeli mutaxassisliklarni tavsiflashda professional yondashuv asosida ishlab chiqilishi mumkinligini aytadi. Shuningdek, mutaxassisning kompetensiyalari yig'indisini va ularning shakllanish darajasini aniqlashda quyidagicha yondoshadi [8]: o'quvchining kasbiy muhitda talabga ega bo'lishini:

"Kompetensiya" tushunchasi paradoksal bo'lib, o'rganilayotgan fanlar bo'yicha bitiruvchilarning hayotidagi muvaffaqiyatni yoki ularning kasbiy faoliyatini bashorat qilmaydigan juda keng tarqalgan vaziyatni tushuntirish uchun zarurdir (McClelland). Kompetentlik - bu J.Ravenning fikricha, uning qabul qilish darajasida biror narsa qilish uchun motivatsiyalangan qobiliyati.

«Kompetentlik» tushunchasi asosiy tushuncha sifatida ta'tiflangan bo'lib, u o'z navbatida «bilim yoki ko'nikma, malaka kabi tushunchalarga qaraganda chuqurroq ma'noga ega va ularni o'zida aks ettiradi.

«Kompetentlik» tushunchasi nafaqat kognitiv va operatsion-texnologik tashkiliy komponentlarni, balki motivatsiya, axloqiy, ijtimoiy va xulqatvor tushunchalarini ham o'z ichiga oladi[14].

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da bilim, ko'nikma, malaka va malakalar quyidagicha izohlanadi: Bilim – bu odamlarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma'lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Ko'nikma – bu shaxsning oldingi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni bajarish qobiliyati. Malaka – (psixologiyada) muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida egallangan mahorat; (huquqshunoslikda) ishni bajarish uchun qanday kasb qay saviyada egallaganligini ko'rsatuvchi daraja. Kompetensiya – bu o'quvchining egallagan bilimlarini tushunish iqtidori, uni anglashi va undan

foydalana olish qobiliyati. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limdagi o'zlashtirish darajasi bilan cheklanib qolmasdan, yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, o'zlashtirgan bilimlarini tushunish va kundalik faoliyatida qo'llashga o'rgatish kerak. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar asosida bilim berish, o'qitishda innovatsion texnologiyalardan (elektron ta'lim vositalari) foydalanish, ularning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish zarur.

O'quvchilarni kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning kontseptual asosi sifatida pedagogik jarayon loyihasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish metodologiyasini ajratib ko'rsatish muhimdir. Bu tegishli yordamni – jarayonlar, ta'lim texnologiyalari, tashkiliy-pedagogik muhitni aniqlash va takomillashtirish usullari ishlab chiqishni talab qiladi. Zamonaviy o'qitishni tashkil etishda pedagogik jarayonni tavsiflashda pedagogik shart- sharoitlar tushunchasi juda faol qo'llanilganligi sababli pedagogik shart-sharoitlar haqida alohida gapirish mantiqan to'g'ri keladi. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayonida kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish omili sifatida qarash; o'z o'rnida, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayonida kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish tadqiqotimizda asosiy o'rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Икрамова Х.З., Бегматова Н.Х., Эшбоев Э.А. Ахборот технологиясидан фойдаланишни ўрганиш. –Тошкент: Фан ва технология, 2011. -117 б.
2. Вербицкий А.А. Компетентный подход и теория контекстного обучения: Материалы к четвертому заседанию методологического семинара. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 84 С.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон —Умумий ўрта ва ўрта махсус таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида || ги Қарори
4. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования гос впо нового поколения. Методическое пособие. – М.: Исследовательский центр проблем качество подготовки специалистов, 2006. – 72 С.

## ОСВЕЩЕНИЕ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ПРОБЛЕМАТИКИ В ДРЕВНЕЙШИХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Турдиева Нигора Саидовна**

*Старший преподаватель БухГУ*

**Акрамова Умида Исмаиловна**

*Студент БухГУ*

**Аннотация:** В статье рассмотрены актуальные мысли о воспитании, такие как передача знаний от поколения к поколению, патриотизм, толерантность, уважение к старшим, любовь к ближнему и место народного творчества при воспитание подрастающего поколения.

**Ключевые слова:** Культура, воспитание, материалы фольклора, гуманизм, творческое наследие.

Культура Узбекистана имеет богатую и многообразную историю, уходящую корнями вглубь веков. Богатство нашей древней культуры мы изучаем на основе трех основных источников:

1. Материалы фольклора.
2. Творческое наследие наших великих предков и ученых.
3. Артефакты, найденные при археологических раскопках.

Результаты археологических исследований и письменные источники позволяют говорить о значительной роли этого региона в развитии древних цивилизаций. Появление ранних форм культуры в Узбекистане засвидетельствовано уже в эпоху палеолита (13-5 тыс. лет до н.э.). Наскальные росписи в ущелье Зараут-сай на юге Узбекистана отличает живое видение первобытным человеком мира природы и наивный реализм его передачи. Ко

времени неолита (5 тыс. до н.э.) относятся силуэтные рисунки на скалах Ходжикента, Бостанлыка, расположенных в северо-восточных районах Узбекистана.

Эпоха Бронзы на территории Узбекистана (2 тыс. до н.э.) характеризуется становлением городских цивилизаций с развитым уровнем художественного ремесла, культур степного круга. Керамика, земледельческих поселений Ферганы, Приамударьинского оазиса с геометрическим, растительным и зооморфным орнаментом, ювелирные украшения с символично-знаковой орнаментацией отражают древние религиозно-культурные представления народов, проживающих на этой территории.

Наряду с развитием различных отраслей экономики в этих странах уникальный путь развития прошла и культура. Это развитие включает в себя империю Ахеменидов, возникшую в IX-VI вв. до н.э., Греко-Бактрийское государство, сформировавшееся в середине III в. до н.э., Кушанское государство в I в.н.э., правление эфталитов в V в. века, затем империя Сасанидов и, наконец, Тюркское хаканство. Древняя культура наших предков включает в себя богатое образовательное наследие.

Жизнь тюрко и персо язычных народов как искусство, возникшее как комплекс мудрости и разделявшее практическое отношение к существованию, сохранилось в памятниках духовной культуры и дошли до нас в трудах древнегреческого историка Геродота «История», Страбона «География», Махмуда Кошгари «Девони лугоги-турк», Орхун-енисейские письменности и в других подобных литературных и исторических источниках. Эти памятники свидетельствуют о том, в какой степени материальная и духовная культура играет важную роль в формировании человека. В частности, если воспитание влияло на умственное и нравственное развитие человека, то формирование личности, в свою очередь, способствовало формированию человеческого общества.

Знание исторического процесса позволяет составить полную картину постепенного развития человеческого мышления с древнейших времен, а вместе с тем и становления человека. Например, в книге «История» греческого историка Геродота приведена важная информация об образовательных и воспитательных взглядах древних персов, саков и массагетов, о сражениях Ширака, Томариса, Спитамена. Народная педагогика – это мысли людей по различным вопросам воспитания, которые сохранялись в устном виде и передавались в традициях, обычаях, обрядах, ритуалах, играх, фольклоре и т.д. Закрепляя сложившиеся традиции, народная педагогика проявлялась в материальных законах и обычаях. Узбекская народная педагогика впитала в себя вековые обычаи по воспитанию детей. Узбекский народ создал эпические поэмы, разнообразие сказки, песни, пословицы и поговорки, загадки и притчи, имеющие непреходящее познавательное и воспитательное значение.

Свое отношение к роли воспитания народ выразил в пословице: «Дитя – драгоценность, но большая драгоценность – это воспитание». Тематика узбекских пословиц многообразна. Большинство пословиц – это кодекс народной педагогики. В них заключены неписанные законы и правила взаимоотношения людей, педагогические нормы общежития, понятия человека о добре и зле, трудолюбии, методах и средствах воспитания, обучения и т.д. Весьма многочисленны узбекские народные песни обладающие педагогическим содержанием, например, «Ёр-ёр» (свадебная песня), исполняемая хором, «Лапар», «Улан», «Лирик терма», «Хуш келибсиз» и др. Народные сезонные песни – «Хуп хайда», «Читтигул», «Ё хайдар» (вызывание ветра), «Суз хотин» (вызывание дождя)

В народной педагогике песни всегда были важным средством воспитания. Стремление народа воспитать гармоничную, физически сильную и здоровую личность, приводило к созданию различных форм физических упражнений в виде игр. Можно перечислить множество игр, которые дошли к нам с древнейших времен («Кураш», «Олчин уйин», «Улок» «Конные игры» и др.).

Важным средством игрового созидательного общения были загадки, которые занимали почетное место в устном народном творчестве. Загадки и поныне живут в народе не только как вид и средство развлечения, но и как своеобразная школа воспитания, развития детской сообразительности, смекалки. Особое место в народной педагогике занимает народный эпос – дастаны. В них находят свое отражение нравственные и

этические идеи: трудолюбие; прочное единство людей; совместное согласное ведение хозяйства; гуманизм; уважительное отношение к старшим, женщинам; забота о малолетних детях; человечность; правдивость; отвага, беспощадность к врагам.

#### ЛИТЕРАТУРА:

1. Турдиева Нигора Саидовна, & Турдиева Нигора Саидовна. (2022, 20 декабря). ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ НА РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНИКА. МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ «ВРЕМЯ НАУЧНОГО ПРОГРЕССА», Варшава, (Польша).
2. Турдиева, Н. (2022). Планирование и учет воспитательно-образовательной работы в начальной школе. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 24(24). извлечено от
3. Турдиева Н. С. ИЗ ОПЫТА УЗБЕКИСТАНА ПО ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПЕДАГОГОВ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. – 2019. – С. 107- 110.
4. Saidovna T. N. Pedagogical ethics and pedagogical tact //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 3. – С. 305-310.
5. Saidovna T. N. The Concept of the Teacher's Pedagogical Technique //European Multidisciplinary Journal of Modern Science. – 2022. – Т. 4. – С. 877-883.
6. Turdieva, N. S. (2021). Didactic conditions for the formation of attitudes toward education as a value among primary school pupils. *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
7. Турдиева, Н. (2022). Использование метода "Кластер" в образовательном процессе начальной школы. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 25(25). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8420](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8420)
8. Нигора Турдиева Саидовна, & Сауле Жубакова Сайбулатовна. (2023, 2 февраля). ОСВЕЩЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОБЛЕМАТИКИ В ДРЕВНЕЙШИХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ. МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ ПО ОБРАЗОВАНИЮ, ИССЛЕДОВАНИЯМ И ИННОВАЦИЯМ, Самара, Российская Федерация.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7600189>

#### BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FINLANDIYA TA‘LIM TIZIMIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

N.A.Kadirova

*BuxDPI, f.f.f.d., dotsent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xosligi, unda boshlang'ich ta'limning o'rni va boshlang'ich ta'limga qaratilgan munosabatlar xususida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab, ta'lim, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, yuqori ta'lim, dastur, ishonch.

Finlandiya ta'lim tizimi dunyoning yetakchi o'rinlarini egallashi barchaga ayon. Finlarning ta'kidlashicha, ular ishonch asosida o'z ta'lim tizimlarini barpo etishgan. Shu o'rinda o'qituvchilik kasbi ham eng obro'li, sharaflil kasb hisoblanishi ham tahsinga loyiq. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni oliy ta'limga saralab olish muhim sanaladi. Bo'lajak o'qituvchilarni o'qishga qabul qilish jarayoni ham noodatiy. Abiturient kirish imtihonlarini topshirganidan so'ng 5 nafar ekspertdan tashkil topgan komissiya a'zolariga 25 daqida mobaynida savollarga javob berishi talab etiladi. Ekspertlar tomonidan abituriyentda o'qituvchilik qobiliyati mavjudligini, uning kelajakda bolalarga ta'lim bera olish ko'nikmasining mavjudligi aniqlashga doir savollar beriladi. Ushbu intervyu ya'ni savol- javobdan muvafaqqatli o'tgan abituriyent pedagogika ta'lim yo'nalishiga qabul qilinadi. Pedagogik qobiliyati bo'lmagan talabalar institutni bitirgunlariga qadar hech qanday samara bermaganligi tadqiqotlarda isbotlangan.

6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan barcha yoshlar maktabgacha ta'lim (maktabga tayyorlov kurslari), boshlang'ich va o'rta va yuqori ta'limda tahsil olishadi. Finlyandiya ta'lim tizimi cheklanmagan. Talabalar, agar ular ushbu darajadagi qabul talablariga javob bersalar, ta'limning istalgan sohasi bo'yicha o'qishlarini davom ettirishlari mumkin. Finlandiyada barcha maktablar teng, ya'ni ixtisoslashtirilgan yoki maxsus maktablar mavjud emas. Maktablar darajalanmaydi. Barchasi bir xil qoidalar asosida o'qitadi.

6 yoshli bolalar uchun maktabgacha ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim maxsus ta'lim markazlarida ham, maktablarda ham amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar



o'zlarining yoshi va qobiliyatlariga muvofiq turli xil ta'lim sohalaridan asosiy ko'nikmalar, bilim va qobiliyatlarni o'zlashtiradilar. O'yin orqali o'rganish esa asosiy mashg'ulotlardan biri hisoblanadi. Ushbu bir yil davomida o'quvchilar maktabga tayyorlov kurslarida tahsil olishadi. Bu ta'lim bosqichi odatda bir yil, ammo ta'limda oqsayotgan o'quvchilarning ota-onasining talabiga muvofiq ikki yilga cho'zilishi mumkin.

Shundan so'ng o'quvchi yagona tuzilmali boshlang'ich va o'rta ta'limda ilm olishni davom ettiradi. Bu bosqichdagi ta'lim bola 7 yoshga to'lgan yili boshlanadi va 9 yil davometadi. Mahalliy hokimiyat har bir o'quvchiga o'z uyi yaqinida joylashgan maktabdan joy ajratadi. Shu bilan birga, ota-onalar yoki vasiylar o'zlari xohlagan boshqa maktabga joy olish uchun ariza berishlari mumkin, agar ular uchun joy bo'lsa, o'quvchi shu maktabda o'qishni boshlashi mumkin.

Boshlang'ich va o'rta ta'lim yagona tuzilma doirasida va umumta'lim maktablarida amalga oshiriladi. Umumta'lim maktablarida 1 – 9-sinflar mavjud. Odatda, birinchi olti yillik sinflarda, ya'ni boshlang'ich ta'limda ko'pgina fanlar sinf o'qituvchisi tomonidan olib boriladi. Faqatgina san'at, xorijiy til darslari fan o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Keyingi uch yilda esa fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini o'tkazishadi.

O'quv yili avgust oyining o'rtalaridan iyun oyining boshigacha bo'lgan 190 kundan iborat. Haftada minimal darslar soni 20 dan 30 gacha o'zgarib turadi, bu sinfga va ixtiyoriy fanlar soniga bog'liq. Kundalik va haftalik dars jadvallari maktablarda belgilanadi. Ota-onalar farzandlarining o'qishdagi ahvolidan xabardor bo'lishlari, o'qituvchi bilan muloqot qilishi uchun "Wilma" dasturi yo'lga qo'yilgan. Ota-onalar farzandining ta'lim olish jarayoniga befarq emas. Ular o'qituvchilar bilan kunlik muloqotni olib borishadi. boshlang'ich ta'limda o'quvchilar baholanmaydi. Kunlik darsga qatnashishlari Wilma dasturida ranglar bilan belgilanadi. Masalan, yashil rang yaxshi natija, sariq rang yomon natija, va h.k.

Maktab davrida o'quvchilar mashg'ulotlar davrida jinsga qarab ajratilmaydi. Hamma teng! Misol tariqasida, texnologiya darslarining birida barcha tikish-bichishni o'rgansa, boshqasida esa mix qoqish yoki yog'ochni arralashni o'g'il-qizlar birdek o'rganishadi. Maktablardagi sharoit uy sharoitlariga moslashtirilgan bo'lib, uni oddiy boshlang'ich maktabida yoki maxsus nogironligi bo'lgan bolalar maktabida ham ko'rdik. Maktablarda o'quvchilarga sifatli ta'lim berish bilan bir qatorda, to'g'ri ovqatlanish qoidalariga amal qilingan holda bepul ovqatlar ham beriladi. O'quvchilar ertalab soat 8:30 dan 13:00 gacha dars jarayoni bilan mashg'ul bo'lishadi. Ayrim ota-onalarning ishda bo'lganligi sababli, o'quvchilar qo'shimcha (pulli) mashg'ulotlarga qatnashishi yoki qiziqishi bo'yicha turli to'garaklarga borishi mumkin. Umuman olganda, maktab davrida bola vaqtini behudaga sarflanishiga imkoniyat yaratilmaydi, aksincha uning rivolanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Har bir guruhda 20-25 nafar o'quvchi tahsil oladi. 1-sinflarda darslar 60 daqiqada davom etib, kuniga 4 ta dars o'tiladi. Keyingi sinflarda darslar 90 daqiqada davom etsa-da, 5 daqiqali kichik tanaffuzlar oralig'i bilan o'tkaziladi. Darslar qiziqarli, zamonaviy texnologiyalar vositasida hayot bilan bog'lab o'qitiladi. Barcha fanlardan sharoitlar a'lo darajada yaratilgan.

Oddiy umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan bir qatorda nogironligi bo'lgan bolalar ham o'qish imkoniyatiga ega. Ammo aqlan yoki jismonan zaif bo'lgan bolajonlar uchun alohida **Valteri** nomli maxsus ta'lim muassasi ham mavjud.

*Valteri* - Finlyandiya milliy ta'lim agentligi qoshida faoliyat yurituvchi milliy ta'lim va konsalting markazi. Valteri Finlyandiya bo'ylab bolalar va yoshlarning o'qishi va maktabda tahsil olishi uchun har tomonlama professional yordam beradi. Ushbu markaz aqliy hamda jismoniy nuqsoni bor bo'lgan, ko'makka ehtiyojmand individual har bir bola yoki yoshlarning ehtiyojlariga, ayrim hollarda butun mehnat jamoasi, tuman yoki viloyat hokimiyatlarining ehtiyojlariga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Ushbu markazning maqsadi imkon qadar nogironligi bo'lgan bolalar va yoshlarga o'z mahallasidagi maktabda ta'lim olish imkonini berishdir. Markaz xodimlari nuqsoni bor bo'lgan, ko'makka ehtiyojmand bolalarni ertaroq aniqlash va ularga turli soha vakillari bilan birgalikda yordam berishga harakat qilishadi. Finlandiyaning turli qismlarida 5 ta Valteri Maktabi faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari 3 ta Valteri ta'lim va konsalting (maslahatlashuv) markazlari ham

mavjud. Bugungi kunga qadar 250 nafar bolalar ushbumaktab va markazda tahsil olishgan.

Ushbu ta'lim maktabi yoki markazi turli xizmatlarni amalga oshiradi. Masalan, doimiy qo'llab-quvvatlash xizmatlari.

Qo'llab-quvvatlash davrlarida yordamga muhtoj bolalar va yoshlarga o'sishi va o'qishi uchun *kuchaytirilgan* yoki *maxsus* yordam ko'rsatadi. Ularning maqsadi bolalar va yoshlarni ko'p tarmoqli qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliyotlar, usullar va qo'shimcha yordamlarni izlab topishdir. Qo'llab-quvvatlash muddatlari o'quvchining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan. O'quvchilarning o'qishi o'z mahallalaridagi maktabda yoki Valteri maktabida tashkil etilishi mumkin.

O'quvchilar maktabda yoki markazda ta'lim olish jarayonida oila a'zolari, o'qituvchilar, yordamchi-o'qituvchilar, terapevtlar bilan birgalikda baholanadi. Ya'ni o'quvchining o'qish davri o'rganilib, tahlil qilinadi. Ushbu maktabning baholash tizimi ko'p qirrali bo'lib, funktsional imkoniyatlarning turli sohalarini hisobga oladi. Baholar asosida maktab xodimlari bola yoki o'smirning o'qishi va maktabda tahsil olishini qo'llab-quvvatlash uchun qanday yordam kerakligi haqida ma'lumotlar yig'ib borishadi. Shu bilan birga oddiy maktabdan ushbumaktabga bolani ko'chirish, reabilitatsiya, neyropsixiatrik murabbiylik, onlayn o'qitish, shaxsiylashtirilgan materiallar va Valteri maktabiga qabul qilish kabi xizmatlarni ham ko'rsatishda ko'maklashadi. Maktabdagi barcha xarajatlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Maxsus guruh mutaxassislari har bir nogironligi bo'lgan bolani chuqur o'rganishadi va maxsus maktabda tahsil olishi lozimligi to'g'risida qaror qabul qilinadi. Har ehtiyojmand bir bola ushbu maktab yoki markazga kelib o'qishidan oldin mahalliy davlat organi tomonidan maxsus voucher (to'lov cheki) bilan ta'minlanadi. Finlyandiya hukumati ushbu xizmatlarni sotib olishda mahalliy davlat organlarini qo'llab-quvvatlaydi. 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan ehtiyojmand bolalar ota-onalaridan biri bilan, 10 yoshdan oshgan bolalar esa bir o'zlar Valteri maktabida tahsil olib, yashshadi. Darslar dushanbadan jumaga qadar olib boriladi. Darsdan keyingi vaqtlarda bolalar qiziqishlariga qarab to'garaklarga qatnashishi mumkin.

Rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitish bilan bog'liq mavzularda mahalliy va milliy miqyosda keng ko'lamli treninglarni tashkil etishadi. Maktab barcha qulayliklarga ega. Har bir fan uchun mo'ljallangan xonalar maxsus jihozlangan. Bolalarni qiziqtirish, ularning o'sishi hamda o'qishini rivojlantirishga kata e'tibor qaratiladi. Suzish havzasi, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish xonasi, gimnastika xonalari bolalarning jismonan rivojlanishiga xizmat qiladi. San'at, musiqa, texnologiya xonalari esa bolalarning ijodiy ko'nikmalarini o'stirishda ahamiyatli. Har qanday nogironligi bo'lgan bolalar uchun sharoitlar tayyorlangan, masalan, ko'zi ojizlarning bemalol harakatlanishi uchun yo'laklarda qulayliklar yaratilgan. Finn ta'lim tizimiga muvofiq har bir bola kundalik ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Ushbu maktab bolalari ham bundan mustasno emas. Ya'ni nogironligi bo'lgan bolalar ham ovqat pishirishni, tikish-bichishni, ro'zg'or buyumlaridan foydalanishdan tortib, ularni tuzatishlarni bilishi lozim.

Umuman olganda, fin ta'lim tizimi sifatli ta'lim berish, yoshlarning ilk davrlaridanta'lim olishga qiziqishini orttirishga qaratilgan. Bolalarning bilimni boyitishga barcha sharoitlar yaratilib qo'yilgan. Bizlar ham o'z bilimimiz, tajribalarimizdan kelib chiqib, farzandlarimizni o'qitishimiz, ularning bilim olishlariga munosabatlarini o'zgartirishimiz lozim, deb o'ylayman.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.weforum.org>
2. "Human Development Report Education index". *United Nations Development Programme Human Development Reports*. Retrieved 2021-05-14.
3. McFarland, J.; Hussar, B.; Zhang, J.; Wang, X.; Wang, K.; Hein, S.; Diliberti, M.; Forrest Cataldi, E.; Bullock Mann, F.; Barmer, A. (2019). *The Condition of Education 2019 (NCES 2019-144)* (PDF). Washington, DC: National Center for Education

# OXUNJON SAFAROVNING BOLALAR ADABIYOTI VA FOLKLORIGA DOIR TADQIQOTLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

O'rinova Maftuna No'mon qizi

O'zRFA tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro zaminida tug'ilib, ijod va ilmga umrini baxshida etgan yetuk shoir va adabiyotshunos, folklorshunos olim Oxunjon Safarovning ilm-fan oldidagi xizmatlari haqida fikr yuritilgan. Olimning o'zbek bolalar adabiyoti hamda o'zbek bolalar folklori yo'nalishida amalga oshirgan tadqiqotlari hamda nashr qilgan to'plamlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar.** Bolalar adabiyoti, bolalar folklori, tadqiqot, tahlil, to'plam, adabiyotshunos, folklorshunos.

Oxunjon Safarov 1940-yilning 18-fevralida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Dodbog'ni qishlog'ida tug'ilib, ziyoli oilada kamol topdi. U dastlab o'z qishlog'idagi boshlang'ich maktabda, so'ngra Abu Ali ibn Sino nomidagi o'rta maktabda tahsil oldi. Uning yetuk folklorshunos va adabiyotshunos olim bo'lib shakllanishida oila muhitining ta'siri juda katta bo'ldi. Chunki oila a'zolari so'z sehrini anglaydigan, xalq og'zaki ijodi durdonalarini sevuvchi ma'rifatli kishilar edi. Olim o'z suhbatlarida folklorga muhabbat ammasi Musallam ayaning davraga fayz bag'ishlovchi o'ynoqi baytlaru muxammaslari, Safar ota, onalari Muazzam ayadan olgan o'gitlari orqali paydo bo'lganini ta'kidlar edi:

Onam allalari ruhimdan sekin  
Og'riqni quvgani, qo'llagani rost.  
Bobom ertaklari – nahoriy epkin,  
Folklorning bag'riga yo'llagani rost.  
Shukrona aytaman, ziyokor otam  
Xalq mehri neligin o'rgatib ketdi.  
Duolar aylabon mehribon onam  
Men olim atalgan kunlarga yetdi.

Bolalikdan shakllangan muhabbat esa uni xalq og'zaki ijodiyotining to'plovchisi va tadqiqotchisi sifatida taniqli olimga aylantirdi. Ta'kidlash kerakki, folklorshunos olim bo'lish oson emas. Buning uchun teran fikrli, iqtidorli, zehni, fidoiy, bag'rikeng, mehnatsevar inson bo'lish lozim. Oxunjon Safarovda tajassum topgan ushbu fazilatlar uni adabiyotshunos olim sifatida ham gavdalandirdi. Uning dastlabki tadqiqotlari adabiyotshunoslik sohasiga taalluqli edi. O'zbek mumtoz adabiyotini dildan sevgan Oxunjon Safarov "Navoiy so'z va uning qudrati to'g'risida" (1968), "Bolalarimizning o'z Navoiysi bo'lsin" (1983), Boburga bag'ishlangan "Poet i mislitol" (1983), "Alisher Navoiy - folklorshunos" (1991), "Tut ta'rifida ikki g'azal.", (1993), "Alisher Navoiy mavsum va marosim qo'shiqlari ta'rifida" (2001) kabi qator maqolalar yaratdi. Qolaversa, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini ham bolalar adabiyotshunosi sifatida boshladi. Oxunjon Safarov 1956-1961-yillarda Buxoro davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetini tamomlab, shu ta'lim dargohida o'qituvchi sifatida ishlay boshladi. 1968-1971-yillarda professor J.M.Hojimatov rahbarligida "Shukur Sa'dulla – bolalar adibi" mavzusidagi tadqiqotini muvaffaqiyatli himoya qilib, 31 yoshida filologiya fanlari nomzodi darajasiga erishdi. O.Safarovning o'zbek bolalar adabiyotshunosligini fan sifatida shakllantirishda va taraqqiy toptirishda qilgan xizmatlari e'tirofqa loyiq. Uning 1976-yilda hammualliflikda yaratilgan "O'zbek bolalar adabiyoti" darslik-xrestomatiyasi, Shukur Sa'dulla ijodiga bag'ishlangan "Bolalik kuychisi" (1978), G'.G'ulomning bolalarga qoldirgan adabiy merosini umumlashtirgan "Zamonlar tongining charoqlarisiz" (2003), Quddus Muhammadiy merosi tadqiqiga bag'ishlangan "She'rim-ochil dasturxon" (2008) kabi ijodiy portretlari, bolalar kitobxonligiga doir "O'zbek bolalar kitobxonligi asoslari" (2007) va 1988-yilda yaratilgan "O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon" singari monografiyalari o'zbek bolalar adabiyotining asosiy muammolariga bag'ishlanganligi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu salmoqdor tadqiqotlar ko'p yillardan buyon vatanimizda sog'lom va zukko avlodni tarbiyalashda xizmat qilib kelmoqda. Bolalar adabiyotidan yig'ilgan bilim va tajribalar keyinchalik olimni bolalar folklori poetikasi bo'yicha yetuk tadqiqotchi bo'lib yetishuviga asos bo'lib xizmat qildi. Olimning tadqiqotlarida bolalar adabiyoti va bolalar folklorini o'rganish omuxta kechganligiga guvoh bo'lamiz. O.Safarov 1986-yilning 31-iyunida "O'zbek bolalar

poetik folklorining janriy tarkibi va badiiyati” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga erishdi hamda professorlik unvonigacha bo’lgan yo’lni bosib o’tdi. Bolalar folkloriga doir ushbu fundamental tadqiqot olimning uzoq kuzatuvlari va chuqur tahlillari asosida yuzaga keldi.

Oxunjon Safarov salkam yarim asrga yaqin muddat davomida o’zbek bolalar folkloriga doir materillarni to’plab, turli to’plamlarga darj qildi. Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, qisman Xorazm va Turkmaniston Respublikasining Farob tumani hamda Chorjo’y shaharlari va qishloqlarida bolalar folkloriga doir kuzatish ishlarini olib bordi, yozib oldi. Natijada shu yillarda (XX asrning 70-80-yillarida) yigirma ming satr atrofida bolalar qo’shiqlari, mingdan ziyod bolalar o’yinlari to’plandi. 10580 satrni o’z ichiga olgan “Boychechak”, 3000 satrga yaqin “Alla-yo alla”, 1000 tacha o’yindan iborat “Chittigul” (2005), o’yinlar tasnifi aks yetgan “O’zbek xalq bolalar o’yinlari” (2011) to’plamlari o’zbek folklori xazinasini boyitdi. To’plangan manbalar asosida uch tomlik “O’zbek folklori ocherklari” fundamental tadqiqotining birinchi jildi uchun “Bolalar folklori” bo’limini yozib berdi. O’zbek bolalar folklorining alla, aytim-olqish, bolalar taqvim va marosimi qo’shiqlari hamda bolalar o’yinlaridan tanlab olingan bir qator namunalarini rus va ingliz tillariga tarjima qildirib, “Oyning ikki pallasi” (Toshkent), “O’zbek xalq qo’shiqlari” (Leningrad), “O’zbek xalq ijodiyoti javohirlari” (mazkur to’plamlar rus va ingliz tillarida nashr yetilgan) to’plamlarida chop etilishiga muvaffaq bo’ldi.

Olimning bolalar adabiyoti va folkloriga doir izlanishlarini bepoyon ummonga qiyos etsa bo’ladi. Yuqorida keltirganlarimiz dengizdan tomchi xolos. Shunday ekan, ularni tadqiq vatahlil etish o’zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligi oldidagi dolzarb masalalardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov O. Buxoro folklorini to’plash va o’rganish tarixidan. – T., O’zbek tili va adabiyoti. 2003-yil, 1-son. 10-bet.
2. Safarov O. Alla-yo alla. –Toshkent: “O’qituvchi”, 1999.
3. Safarov O. Folklor – bebaho xazina. –Toshkent: “Muharrir”, 2010.
4. Safarov O. To’y muborak, yor-yor. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000.
5. O’rayeva D. Oxunjon Safarov. –Toshkent: “Muharrir”, 2010.

## TABAQALASHTIRILGAN IJODIY TOPSHRIQLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**M.Hakimova**

*BuxDU katta o’qituvchisi*

**B.Yuldashev**

*BuxDPI o’qituvchisi*

*Tayanch so’zlar: topshiriq, ijodiy topshiriq, tabaqalashgan ijodiy topshiriq, ijodiy faoliyat*

Boshlang’ich ta’lim uzluksiz ta’limning asosiy tarkibiy qismi ekan, boshlang’ich maktab ostonasidan o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka o’rgatish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biridir.

Boshlang’ich sinf matematika darslarida o’quvchining mustakil fikrlash ko’nikmasini, ijodiy faoliyatini tarkib toptirishda ijodiy topshiriqlarning o’rni benihoya katta. Bunday ijodiy topshiriqlar jumlasiga quyidagi ko’rinishdagi topshiriqlarni kiritish mumkin:

- umumiy qonuniyatni topishga doir topshiriqlar;
- matematik tushunchalar (sonlar, ifodalar, geometrik figuralar va boshkalar)ni tizimlashtirishga doir topshiriqlar;
- muammoli topshiriqlar;
- matematik obyektlarning shakllarini almashtirishga oid topshiriqlar;
- turli usullarda yechish mumkin bo’lgan masala-topshiriqlar;

ortiqcha ma'lumotga ega masala-topshiriqlar;  
sharti yetarli bo'lmagan masala-topshiriqlar;  
o'quvchilar tomonidan mustaqil misol, masala, tenglama, tengsizliklarni tuzishga oid topshiriqlar;

standart bo'lmagan topshiriqlar.

Albatta ushbu topshiriqlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi, agar topshiriqlar didaktik tamoyillar talablariga muvofiq tuzilgan bo'lsa. Bunday tamoyillardan biri o'quvchining induvidial xususiyatini hisobga olishdir. O'quvchiga induvidial yondashishni yo'lga qo'yishning bir vositasi bu tabaqalashtirilgan ta'limdir.

Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, ijodiy topshiriqlar ustida tabaqalashtirilgan holda ishlash o'quvchining o'zlashtirishiga yaxshi samara beradi.

Sinf o'quvchilari shartli ravishda uchta guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, ikkinchi guruhga «o'rta» bahoda o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, uchinchi guruhga «yaxshi» va «a'lo» bahoda o'zlashtiruvchi o'quvchilarni kiritish mumkin. Albatta bu shartli bo'linish, bir guruhdan ikkinchi guruhga o'quvchi o'tishi mumkin (uning o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi). Quyida bir necha tabaqalashtirilgan ijodiy topshiriqlar bo'yicha ishlash texnologiyasini beramiz.

1-misol. Ifoda qiymatini hisobla.

$$100-(75-55)+80 \quad (420-300):(90:30)+15$$

$$600+(20+20) \cdot 4 \quad (55+45)-(890-870):2$$

1-guruh uchun topshiriq. Amallar tartibi qoidalarini esla va ifoda qiymatlarini hisobla.

2-guruh uchun topshiriq. Ifodalarni 2 guruhga ajrat va ularning qiymatlarini hisobla.

3-guruh uchun topshiriq. Ifodalarni qanday xususiyatlariga qarab ikkita guruhga ajratish mumkinligini aniqla. Ularning qiymatlarini hisobla.

2-misol Tenglamalarni yeching.

$$2000+x=3564 \quad x+865=1000$$

$$7002-x=5343 \quad x-517=415$$

1-guruh uchun topshiriq. Tenglamalarni yech.

2-guruh uchun topshiriq. Tenglamalarni yech va ularni tekshir. Qanday qoidaga asoslanib yechganingni tushuntir.

3-guruh uchun topshiriq. Tenglamalarni uchta guruhga ajrat. Har bir guruh tenglamasi qanday qoidaga asoslangan holda yechilishini tushuntir. Ayirish amali bilan berilgan tenglamadagi yechim chegaralarini aniqla.

3-misol. Quyidagi masala berilgan. «Maktab hovlisida 6ta topshirik o'gil bola va 3ta qiz bola o'ynayotgan edi. 5 o'quvchi uyinni tark etdi. Nechta bola qoldi?»

1-guruh uchun topshiriq. Masalani yech. Masalani yana boshqa usulda yechish mumkinligini o'ylab ko'r.

2-guruh uchun topshiriq. Masalani 2 usul bilan yech. Yechimlarni taqqosla.

3-guruh uchun topshiriq. Masala shartini shunday o'zgartirki, masala 3 usul bilan yechilsin va masalani uch usul bilan yech.

Agar aynan bitta masalani yechishning turli usullari mavjud bo'lsa (yoki topilsa), ulardan qulayini topish muammosi tug'iladi. Misol tariqasida Quyidagi masalani keltiramiz. «Bog' tugri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning eni 200 metr va perimetri 1000 metrga teng. Bogning buyini toping.». Masalani yechish usullari Quyidagicha bo'ladi.

$$1\text{-usul: } 1) 200+200=400(\text{m}) \quad 2\text{-usul: } 1) 1000:2=500(\text{m})$$

$$2) 1000-400=600(\text{m}) \quad 2) 500-200=300(\text{m})$$

$$3) 600:2=300(\text{m})$$

Ushbu masala-topshiriq o'quvchilarga tabaqalashtirilgan holda Quyidagi variantlarda berish mumkin.

1-guruh uchun topshiriq. Masalani yech. Boshqa usulda yechish yo'lini o'ylab ko'r.  
2-guruh uchun topshiriq. Masalani turli usullarda yech. Yechimlarni tekshirib ko'r.  
3-guruh uchun topshiriq. Masalani turli usulda yech. Qulay usulni tanla. Masala savolini shunday o'zgartirki, unda bo'ning yuzi kelib chiqsin.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida mazmunan bir xil, ammo yechish usullari turlicha bo'lgan shunday masalalar uchraydiki, ularni yechish o'quvchidan ancha ijodiy fikrlash talab etadi. Misol tariqasida 4-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan Quyidagi masalani keltiramiz. «Yuzi 100m<sup>2</sup> bo'lgan tugri to'rtburchakning tomonlari uzunliklari qanday bo'lishi mumkin?» Albatta bu masala yechimi faqat natural sonlar to'plamida

Ushbu masala tabaqalashtirilgan holda Quyidagi guruhlariga topshiriladi:

1-guruh uchun topshiriq. Masalani yech. Masala yechimlarining hamma hollarini topishga harakat qil.

2-guruh uchun topshiriq. Masalani yech. Masalaning barcha yechimi hollarini keltir.

3-guruh uchun topshiriq. Masalani yech. Barcha yechim yo'llarini keltir. Yechimlar ichida to'g'ri to'rtburchak perimetri eng kichik bo'lgan javobni tanla.

Umuman olganda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari, ijodkorliklarini o'stirishda tabaqalashtirilgan ijodiy topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

## INGLIZ TILI DARSLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TASHKIL QILISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Isomiddinova Nozima Nazir qizi**

**BuxDPI 1-kurs talabasi**

**Saidova Zakira Tolibovna**

**BuxDPI o'qituvchisi, муस्ताқил тадқиқотчи**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili o'qitish, interaktiv o'qitish, interfaol metodlar Effective use of interactive methods in English lessons

**Abstract:** This article discusses the use of interactive methods in English language classes.

**Keywords:** English language teaching, interactive teaching, interactive methods

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Ingliz tili darslarida innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tuq'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.



2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.
6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastyonin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova **innovatsion jarayon tuzulmasining** uch blokini farqlaydi:

**Birinchi blok** - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

**Ikkinchi blok** - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

**Uchinchi blok** - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir.

Innovation pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsifiyadigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

fikrning ravonligi; fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi; o'ziga xoslik (originallik); qiziquvchanlik; farazlar yaratish qobiliyati; xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin: birinchi bosqichda tayyor metodik tavsianomalar tuzukkina ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda esa o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

Shu jihatdan ushbu mavzyda maktab o'qituvchisi innovatsion faoliyatining shakllanish konsepsiyasi, innovatsiyaning ijtimoiy-madaniy va hayot-faoliyati aspektlari haqida bahs yuritiladi.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng hamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harmer, J. (1998). How to teach English: An introduction to the practice of English language teaching. Edinburgh Gate, Harlow, England.
2. J. C. Richards and S.R.Rodgers. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor

### MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA PREDMETLARNING O'LCHAMLARI HAQIDAGI G'OYALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Ostonov Q.**(*pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*)

**Mardonov E.M.**(*pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti*)

**Nazarova S.M.** (*O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti magistranti*)

**Аннотация:** *ob'ektlarning o'lchamlari haqida g'oyalarni shakllantirishda maxsus didaktik material qo'llaniladi. Ikkinchi yosh guruhda, taqqoslash uchun bolalarni mutlaq (uzun - qisqa) va nisbiy qiymatni (uzunroq - qisqaroq) aniqlashga taklif qilib, ikkita ob'ektni olish kifoya. Ushbu guruhdagi didaktik materialga qo'yiladigan asosiy talab - taqqoslanadigan xususiyat aniq ifodalanishi va mavzuni haqiqatan ham tavsiflashi kerak.Шунинг учун бу мақолада мактабгача yoshdagi bolalarda predmetlarning o'lchamlari haqidagi g'oyalarni shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlari муҳокама этилган ва тегишли услубий тавсиялар келтирилган.*

**Калит сўзлар:***объект, предмет, ўлчам, узун, қисқа, кенг, тор, мактабгача ёшдаги болалар, топшириқлар, ўйинлар, уч ўлчовли предметлар.*

Ob'ektlarning o'lchamlari haqida g'oyalarni shakllantirishda maxsus didaktik material qo'llaniladi. Ikkinchi yosh guruhda, taqqoslash uchun bolalarni mutlaq (uzun - qisqa) va nisbiy qiymatni (uzunroq - qisqaroq) aniqlashga taklif qilib, ikkita ob'ektni olish kifoya. Ushbu guruhdagi didaktik materialga qo'yiladigan asosiy talab - taqqoslanadigan xususiyat aniq ifodalanishi va mavzuni haqiqatan ham tavsiflashi kerak.

Birinchi darslarda bolalarda turli uzunlikdagi har qanday ob'ektlarni taqqoslashda ular uzun - qisqa, uzunroq - qisqaroq deb ta'riflanishi haqida umumlashtirilgan fikrni shakllantirish uchun ularning doirasini asta-sekin kengaytirib, tekis narsalardan foydalanish afzalroqdir; turli xil kenglik - keng - tor, kengroq - tor va hokazo. Shuni yodda tutish kerakki, boshqa rang qiymatni ta'kidlash imkonini beradi, shuning uchun birinchi navbatda taqqoslash uchun turli rangli ob'ektlarni taklif qilish kerak. Har bir darsda bolalarga tarqatma materiallar bilan harakat qilish imkoniyati berilishi kerak (kengligi bir xil bo'lgan turli uzunlikdagi qog'oz chiziqlari va aksincha, bir xil uzunlikdagi turli xil kenglikdagi lentalar; turli uzunlikdagi, har xil kenglikdagi lentalar; har xil qalinlikdagi mato parchalari va boshqalar). Tarqatma materiallar bilan harakatlar har bir bola tomonidan ob'ektlarni har tomonlama tekshirish imkoniyatini beradi[1].

Ikkinchi yosh guruh bolalarini o'qitish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlab, ikkita tekis ob'ektni solishtirganda, bolalarga uzunlikni eng oson ajratiladigan uzunlik, keyin boshqa o'lchovlar sifatida ko'rsatish va nomlash o'rgatiladi. Har bir o'lchov uchun ob'ektlarni alohida-alohida taqqoslash 3-4 darsda amalga oshirilishi kerak. Bolalar bilan ishlashning boshlang'ich nuqtasi imtihondir - uning natijalaridan u yoki bu mazmunli faoliyatda foydalanish uchun ob'ektlarni maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlarda muhokama etilishi lozim.

Ijobiy ta'sir uzunlik, kenglik va hokazolarni ko'rsatish, barmoqni belgilangan uzunlik bo'ylab

chizish, yoyilgan barmoqlar yoki qo'llar bilan "o'lchash", turli xil kattalik belgilarini qo'llash yoki qoplama orqali solishtirish kabi usullardan foydalanish orqali erishiladi.

So'rov har bir o'ziga xos uzunlikning yo'nalishini aniqlash imkonini beradi, bu ularning farqi uchun zarurdir. Bolalar uzunligini ko'rsatishda qo'l chapdan o'ngga, ob'ekt bo'ylab, kenglikni ko'rsatib, harakatlanishini bilib oladi, ob'ekt bo'ylab harakatlanadi, balandlik pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga ko'rsatiladi va qalinligi yoyilgan barmoqlar bilan ko'rsatiladi va suyultirish darajasi ob'ektning qalinligiga bog'liq. Dumaloq ob'ektlarning qalinligi ularni o'rab olish orqali ko'rsatiladi. Ko'rib chiqilgan kattalik belgisini ko'rsatish 2-3 marta takrorlanishi kerak, har martar harakat chizig'ini biroz siljtiladi, shunda bolalar bu belgini ob'ektning biron bir chizig'i yoki tomoni bilan bog'lamaydilar.

Bilish jarayonida harakatlar doimo so'z bilan birga bo'lishi kerakligini hisobga olib, tekshirilayotgan kattalik belgilarini nomlash kerak. Buni dastlab tarbiyachi bajaradi, so'ngra bolalardan uzunlik, kenglik, balandlik, qalinlik so'zlarini mazmunli ishlatishni talab qiladi.

Bolalarni ob'ektlarni o'lchamlari bo'yicha taqqoslashda mashq qilish uchun quyidagi vazifalarni berish mumkin, masalan: stol ustiga qo'yilgan turli uzunlikdagi ikkita chiziqdan uzun yoki aksincha, qisqasini ko'rsating; bolalarga turli uzunlikdagi namunalar navbat bilan taqdim etiladi; bir xil uzunlikdagi chiziqni topish kerak; ikkitadan eng uzunini olish kerak; uning uzunligini ko'rsating, keyin qisqasi uzunligini ko'rsating; ikkita uzun qalam toping, uni tepaga qo'ying va uning ostiga qisqa qalam qo'ying[2].

O'qituvchi bolalarning topshiriqlarni qanday bajarishini tekshiradi, ularni tanlangan buyumning o'lchami haqida aytib berishga taklif qiladi, nima uchun ushbu elementni tanlaganliklarini tushuntiradi. Ushbu mashqlar jarayonida bolalarda ko'z bilan chamalash paydo bo'ladi, o'lchovli munosabatlarni farqlash qobiliyatida tajriba to'planadi, bu bilimlarning hissiy asoslarini sezilarli darajada kengaytiradi; ob'ektlarning hajmini belgilashda tegishli so'zlardan foydalanish orqali bolaning nutqi boyitiladi va takomillastiriladi. Asta-sekin, bunday javoblar bolalar uchun mavjud bo'ladi: "Bu qisqa bar"; "Qo'g'irchoq o'z uyiga uzoq vaqt ketadi, chunki yo'l uzoq"; "Men tor lentaning kengligini ko'rsatdim" va hokazo.

Bolalarni ob'ektlarning o'lchamlarini nomlashga, ularni bir-biri bilan solishtirishga va qarama-qarshi qo'yishga o'rgatish kerak: "Qizil lenta ko'kdan qisqaroq, ko'k esa qizildan uzunroq, yuqori quti esa torroq. pastki, pastki qismi esa yuqoridan kengroq, yashil qalam sariqdan qalinroq, sariq esa yashildan yupqaroqdir. Kengaytmalarning o'zlarini tanib olish yosh bolalar uchun juda qulaydir, lekin asosiysi ularning nomlarining to'g'riligini farqlashdir va bu butunlay bolalar bilan olib boriladigan ta'lim ishlariga bog'liq.

Yosh bolalar bilan ishlashda o'yin holatlariga katta o'rin berilishi kerak, masalan: "Ayiqlarni skameykalarga qo'yamiz" (uzoq uchun - ko'p, qisqasi uchun - bitta). "Keling, mashinalarni garajlarga joylashtiramiz" (keng - tor, baland - past). "Kim tezroq uyiga yetib oladi?" (uzun - qisqa trek). "Qo'g'irchoqlar, ayiqlar uchun kamon uchun lentalarni oling." Bilimlarni aniqlashtirish, mustahkamlash uchun "Top va tasvirlab bering", "Nima bor?", "Juft ol" kabi o'yinlar.

O'rta guruhda ularga o'lchamlari jihatidan qarama-qarshiligi kamroq bo'lgan uchdan beshgacha narsalarni solishtirish o'rgatiladi. Shu bilan birga, bolalar o'lchamni qiyosiy baholashni o'zlashtiradilar (uzunroq, qisqaroq, hatto qisqaroq, eng qisqasi nafaqat kamayib, balki ortib borayotgan darajada o'zaro teskari munosabatlarni o'rnatishda. Taqqoslanayotgan ob'ektlarning o'lchamlaridagi farq). asta-sekin 5 dan 2 sm gacha pasayadi. Dastavval bolalarga namunadan foydalanib, ob'ektlarni ketma-ket tartibda joylashtirishga o'rgatiladi, keyin esa qoida bo'yicha (eng uzun chiziqdan boshlang va hokazo).

Bolalarning oldida bir qator ob'ektlarning namunasi yaratib, uni tekshirar ekan, o'qituvchi ob'ektlarning izchil joylashishiga, qatorning yo'nalishiga (ko'tarilish yoki pasayish) va ikkita qo'shni ob'ekt o'rtasidagi doimiy farqga e'tibor qaratadi. Ikkinchisini aniqlash ko'pincha bolalar uchun qiyin bo'lganligi sababli, avvaliga oldingisiga nisbatan har bir keyingi element uchun maxsus chizilgan

chiziq (belgi) yoki boshqa rang bilan "qo'shimcha qism" bilan belgilash mumkin. Namuna tahlili ketma-ketlikni o'rgatishning samarali usuli hisoblanadi, chunki u vizual tarzda taqdim etilgan ob'ektlarni tekshirishga qaratilgan va "tartib munosabatlari" tushunchasini va uning xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi [3].

Tanlash qoidasi (har safar barcha chiziqlardan eng uzun yoki eng qisqasini tanlang) tartiblangan qatorni qurish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu harakatlar ketma-ketligini belgilaydi - elementlarni amaliy yoki vizual taqqoslash va to'g'ri tanlash. Tartib munosabatlari va uning xossalarini anglash bu holda berilgan harakat usuli asosida, mustaqil ravishda, topshiriq natijasida yuzaga keladi. Bu yerda, xuddi yosh guruhdagi kabi, o'yin vaziyatlari keng qo'llaniladi: "Keling, zinapoya quramiz", "Keling, narsalarni tartibga keltiramiz", "Tartibga solamiz", "Xo'roz qaysi pog'onada?" va h.k.

O'rta guruhda bolalar bir vaqtning o'zida uzunligi va kengligi bo'yicha tekis narsalarni solishtirishga o'rgatiladi (bir xil uzunlikdagi, lekin turli xil kenglikdagi lentalar va boshqalar).

Keyinchalik, ob'ektlarning uch o'lchovliligi haqidagi g'oyalarni shakllantirishga o'tish kerak. Shu maqsadda fazoga nisbatan doimiy pozitsiyani egallagan ob'ektlar (masalan, mebel qismlari), keyin esa boshqa ob'ektlar (qurilish materialining qismlari, konstruktiv hunarmandchilik va boshqalar) uchun uzunlik, kenglik, balandlik aniqlanadi. Uch o'lchamni tanlash va aniqlash turli hajmdagi ob'ektlarni taqqoslashda amalga oshiriladi. Natijada, bolalar barcha uch o'lchamning o'lchamiga qarab ob'ektlar katta yoki kichikroq deb ataladi degan xulosaga kelishadi[4].

Katta va tayyorgarlik guruhlarida ob'ektlarni uzunligi, kengligi, balandligi va hajmi bo'yicha bir butun sifatida tartibga solish masalasini hal qilish davom etmoqda. Vazifalarning murakkabligi shundaki, bir xil ob'ektlar u yoki bu atributga ko'ra bir qatorga joylashtiriladi (masalan, tayoqlar avval uzunligi, keyin esa qalinligi bo'yicha yotqiziladi). Yana bir murakkablik shundaki, o'qituvchi qatorda ko'rsatgan ob'ekt nafaqat qo'shnisi bilan, balki oldingi yoki keyingi ob'ektlar bilan ham taqqoslanadi. Buning natijasida bolaga qatordagi har bir element oldingi barcha elementlardan kichikroq (kattaroq) va keyingi barcha elementlardan kattaroq (kamroq) ekanligi ayon bo'ladi. Shunday qilib, nafaqat kattalikning nisbiyligi, balki tartiblangan elementlar orasidagi munosabatlarning tranzitivligi ham amalga oshiriladi ( $a > b$  va  $b > c$  bo'lsa, u holda  $a > c$ ).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. Метлина Л.С. Математика в детском саду. М.: «Просвещение», 1984. 256 с.
- [2]. Формирование элементарных математических представлений у дошкольников. Под редакцией А.А. Столяра. М.: «Просвещение», 1988. – 303 с.
- [3]. Леушина А.М. ФЕМП у детей дошкольного возраста. М.: «Просвещение», 1974. – 368 с.
- [4]. Фрейлах Н.И. Методика математического развития. – М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М, 2012. – 208 с.

### **INTERFAOL USULLAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HISOBLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Kasimov Fayzullo Muxamedovich*  
(BDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti, p.f.n)

*Usmonova Zulfiya Ilxomovna*  
TURON ZARMED universiteti o'qituvchisi,  
BDPI 2- bosqich magistranti

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada interfaol usullar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida hisoblash malakasini shakllantirishda metodik muammo ekanligi asoslangan. Hisoblash usuli, hisoblash malakasi tushunchalari mazmuni, hisoblash malakasining to'g'rilik, anglab yetganlik, ratsionallik, umumlashganlik kabi sifatleri sharhlangan.

**Kalit so'zlar:** interfaol usul, hisoblash usuli, arifmetik amallar, to'g'rilik, anglab yetganlik,

ratsionallik, umumlashganlik.

Hozirda o'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish o'qituvchi oldida turgan nihoyatda muhim vazifadir. Darsda o'qituvchi boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani amalga oshirishda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi natijasida malakaga aylanuvchi o'quv harakatining tahlili bizga "hisoblash malakasi" tushunchasining mazmunini ochib berish imkonini beradi. Bu tushunchaning mazmunini ochib berishda ixtiyoriy o'quv malakasi uchun qaratilgan umumiy qoidalarni oydinlashtirib olmoq zarur. Hisoblash malakasi barcha turdagi o'quv malakalariga xos bo'lgan xislatlardan tashqari, o'zining maxsus xususiyatlariga ham egadir. Bu xususiyatlar tashkil etuvchilari hisoblash malakalaridan iborat bo'lgan faoliyatning mazmunli tomoni sifatida ta'riflanadi. Hisoblash malakasi tushunchasini nazariy asoslab berish uchun avvalo quyidagi masalalarni oydinlashtirib olamiz, ya'ni hisoblash usuli va hisoblash malakasining mohiyati, hamda shakllangan hisoblash malakasiga tavsif beramiz. Avvalo, "hisoblash usuli" tushunchasining mazmuni nimadan iborat ekanini ko'rib chiqamiz.

7 va 5 sonlarini qo'shish kerak bo'lsin. Amaliyotda qo'llanib kelinayotgan metodik sistemaga muvofiq bu hol uchun hisoblash usuli quyidagi qator operatsiyalarni o'z ichiga oladi: 1) 5 sonini 2 va 3 sonlari kabi qulay qo'shiluvchilar yig'indisi bilan almashtirish; 2) 7 soniga qo'shiluvchi 3 sonini qo'shish; 3) hosil bo'lgan natijaga, ya'ni 10 soniga qo'shiluvchi 2 sonini qo'shish. Bu erda operatsiyalarni tanlash va ularning bajarilish tartibi hisoblash usulining nazariy asoslaridan kelib chiqqan holda, ya'ni songa yig'indini qo'shish xossasini qo'llash orqali aniqlanadi (5 ni yig'indi bilan almashtirish, keyin esa ketma-ket songa qo'shiluvchilarni qo'shish); bundan tashqari, bu erda boshqa bilimlar, ancha ilgari shakllangan hisoblash malakalari ham qo'llanildi (birinchi operatsiyani bajarishda birinchi o'nlik tarkibini bilish kabi bilimlardan foydalanildi:  $10=7+3$ ;  $5=3+2$ ; ikkinchi va uchinchi operatsiyalarni bajarishda esa sonni yig'indiga qo'shish xossasidan tashqari, 10 ichida sonlarni qo'shish:  $7+3=10$  va  $10+2=12$  ko'rinishidagi sonlarni qo'shish malakalaridan foydalanildi). Shunday qilib, aytish mumkinki, berilgan sonlar ustidagi hisoblash usuli qator operatsiyalar yig'indisidan tarkib topadi. Bu operatsiyalarni bajarish esa berilgan sonlar ustida bajarilishi kerak bo'lgan arifmetik amal natijasiga olib keladi; ta'kidlab o'tish kerakki, har bir usulda operatsiyalarni tanlash uchun uning nazariy asosi sifatida qo'llaniluvchi nazariy qoidalar bilan aniqlanadi.

Endi hisoblash malakasiga tavsifnoma beramiz. Hisoblash malakasi - bu hisoblash usullarini yuqori darajada o'zlashtirish. Hisoblash malakasiga ega bo'lmoq - har bir hol uchun arifmetik amal natijasini topishda qaysi operatsiyalarni qanday tartibda va etarli darajada tez bajarishni bilish. To'laqonli hisoblash malakasi to'g'rilik, anglab etilganlik, rasionallik, umumlashganlik, avtomatizm va mustahkamlik kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. **To'g'rilik** - o'quvchi berilgan sonlar ustidagi amal natijasini to'g'ri topadi, ya'ni u hisoblash usulini tashkil etuvchi operatsiyalarni to'g'ri tanlaydi va bajaradi. **Anglab yetilganlik** - o'quvchi qaysi bilimlar asosida operatsiyalar tanlanganini va ularning bajarilish tartibini anglab yetadi. Bu o'z navbatida operatsiyalar tizimining to'g'ri tanlanganining isbotidir. Anglab yetilganlik o'quvchining istalgan vaqtda misolni qanday echganligi va nima uchun shunday echganligini tushuntirib bera olishida namoyon bo'ladi. Biroq bu o'quvchining doimo har bir misolning yechilishini tushuntirib berishi lozim degani emas. Malakalarni o'zlashtirish jarayonida tushuntirishning asta-sekin yig'ilishi keyinroq keltiriladi. **Rasionallik** - o'quvchi aniq sharoitlar bilan mulohaza yuritib, berilgan hol uchun rasionallik qulayroq bo'lgan usulni tanlaydi, ya'ni mumkin bo'lgan operatsiyalar ichidan boshqalariga nisbatan bajarilishi oson va natijaga tezroq olib keluvchisini tanlaydi. Tabiiyki, malakaning bu sifati natijaga erishishning turli usullari mavjud bo'lgan holda o'quvchining bilimlarini qo'llab, bir necha usullar ichidan rasionallik bo'lganini tanlab olishida namoyon bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, rasionallik malakaning anglab etilganligi bilan bevosita boglangan ekan. **Umumlashganlik** - o'quvchi hisoblash usulini ko'pgina hollar uchun ham qo'llashi mumkin, ya'ni u hisoblash usulini yangi hollarga ham olib o'ta oladi. Umumlashganlik rasionallik

kabi hisoblash malakasining anglab etilganligi bilan uzviy bog'langan. Biroq hisoblashning turli hollari uchun ham birdan-bir yagona nazariy asosga ega bo'lgan usul umumiy hisoblanadi. **Avtomatizm** (yig'ilganlik) - o'quvchi operasialarni ajratadi, hamda ularni tez va yig'ma rejada bajaradi. Ammo har vaqt operasiya tizimining tanlanishini tushuntirib berishga qaytishi mumkin.

Keltirilgan sifatlarga ega bo'lgan hisoblash malakasini shakllantirishga boshlang'ich maktab matematika kursining tuzilishi va mos keluvchi metodik usullarni qo'llash orqali erishiladi. Boshlang'ich sinflar uchun amaldagi matematika dasturida ko'zda tutilgan usullarning nazariy asoslariga mos ravishda usullarning guruhlarini quyidagicha ajratish mumkin:

1. Nazariy asoslari arifmetik amallarning aniq ma'nosi -bo'lib hisoblangan usullar. Bularga quyidagilar kiradi:  $a+2$ ,  $a\pm 3$ ,  $a+4$ ,  $a+0$  ko'rinishidagi hollar uchun 10 soni ichidagi sonlarni qo'shish va ayirish usullari, ko'paytirishning jadval ichidagi natijalarini topish (faqat boshlang'ich bosqichda) va qoldikli bo'lish usuli, birni va nolni ko'paytirish usullari.

2. Nazariy asos bo'lib arifmetik amallarning xossalari xizmat qiluvchi usullar. Bu guruhga ko'pgina hisoblash usullari taalluqlidir. Qo'shish va ayirishning quyidagi hollari:  $3+7$ ,  $45+0$ ,  $26+4$ ,  $50-6$ ,  $8+4$ ,  $13-5$ ,  $48+6$ ,  $40+37$ ,  $26+23$ ,  $75+19$ ; 100 dan katta bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish uchun shunga o'xshash usullar;  $16*5$ ,  $5*16$ ,  $19*30$ ,  $270:30$  ko'rinishidagi hollar uchun ko'paytirish va bo'lishning shunga o'xshash usullari, yozma ko'paytirish va bo'lish usullari.

3. Nazariy asos arifmetik amallarning tashkil etuvchilari va natijalari orasidagi bog'likliklardan iborat bo'lgan usullarga  $8-6$ ,  $24: 8$ ,  $80: 20$ ,  $72: 24$ ,  $7:1$ .  $0: 5$  ko'rinishidagi hollar uchun bajariladigan usullar kiradi.

4. Nazariy asos bo'lib tashkil etuvchilardan birining o'zgarishi bilan arifmetik amal natijasining o'zgarishi hisoblangan usullar. Bu sonlarni qo'shish va ayirishni bajarishda ( $57+18$ ,  $432-189$ ) yaxlitlash usullari va 5 ga, 25 ga, 50 ga ko'paytirish va bo'lish usullari.

5. Nazariy asosi sonlarning raqamlanishi bo'lgan usullar. Bu  $a+1$ ,  $10+7$ ,  $17-10$ ,  $17-7$ ,  $63*100$ ,  $240:10$  ko'rinishidagi hollar uchun usullar va katta sonlar ichida shunga o'xshash bo'lgan usullardir.

6. Nazariy asosi qoida bo'lgan usullar. Bunga  $a \times 1$  va  $a \times 0$  ikki hol uchun taalluqli bo'lgan usullar kiradi. Sonlarni birga, nolga ko'paytirish qoidasi butun musbat sonlarni ko'paytirish qoidasining natijasi bo'lganligidan ular o'quvchilar tomonidan oson umumlashtiriladi va hisoblashlar bajariladi.

Ko'rib turibmizki, barcha hisoblash usullari u yoki bu nazariy asosda ko'rilmogda. Har bir holda ham o'quvchilar hisoblash usullarining asosida yotuvchi mos nazariy qoidalardan foydalanishning tub mohiyatini anglab yetadilar. Bu esa o'quvchilarning anglab yetilgan hisoblash malakalarini egallashlarining zaminidir. Har bir guruhning hisoblash usullarini ochib berishda yondoshishning umumiyliigi - bu o'quvchilarning umumlashgan hisoblash malakalarini egallashlarining garovidir. Bir hisoblash holi uchun turli usullarni tuzishda turli nazariy qoidalarni qo'llash mumkinligi o'zgarishlarga boy bo'lgan rasional hisoblash malakalarini shakllantirishning zamini bo'lib hisoblanadi (masalan, qo'shishning  $39+18$  holi uchun).

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy O'quv Dasturi (Matematika)
2. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. -Toshkent, 2016. -426 bet.
3. Зайниддинова М.А. Оғзаки машқлар тизими орқали бошланғич синф ўқувчиларининг ҳисоблаш малакаларини шакллантириш. Пед.ф.н...дисс. – Т., 1996. - 123 б.
4. Xalillayev A., Xudoynazarov E.Og'zaki hisoblashga doir mashqlar to'plami. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2011.- 106 b.
5. Usmonova Z.I. Methodology for Forming Computational Skills in Primary School Students. International Conference on Academic Integrity 41-43.



6. Usmonova.Z.I. Improving the Methodology for Forming Computational Skills in Primary. International Journal on Integrated Education 576-579.
7. Usmonova.Z.I. Methods of using interactive methods in the formation of computational skills in elementary school students. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367.30-31.
8. Kasimov F. M., & Usmonova,Z.I Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hisoblash malakasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi. International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands : 47-51.
9. Usmonova Z. Milliy Dastur talablariga asoslangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida hisoblash malakasini shakllantirish yo'llari.Ta'lim,fan va innovatsiya. ISSN 2181-8274.2023- yil 1-son, 123-127 betlar.
10. Kasimov F. M., & Usmonova,Z.I Methods and tools for forming calculation skills in students o through interactive methods in primary class mathematics education. Neo science peer reviewed journal volume 6, Feb. 2023 ISSN (E): 2949-7701.Page 63-71.

## KASRLAR MAVZUSINI O'RGATISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Ochilova Laylo Temirovna**

**Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

***Annotatsiya.** Kasr tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo'laklarga bo'lish, kesish, sindirish, maydalashdan kelib chiqadi deyiladi. Boshlang'ich sinfdan oldin, ya'ni maktabgacha yoshdayoq kasr tushunchasining boshlang'ich ma'lumotlari berilgan. Maqolada kasrlarni o'rgatishda innovatsion usullardan foydalanish haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** kasr, ulush, to'g'ri kasr, noto'g'ri kasr, butun, bo'lak, usul, innovatsiya*

***Аннотация.** Говорят, что понятие дроби возникает в результате деления, разрезания, дробления и дробления различных вещей на равные части. Базовые знания о понятии дробей получают до начальной школы, т.е. в дошкольном возрасте. В статье говорится об использовании инновационных методов в обучении дробям.*

***Ключевые слова:** дробь, доля, правильная дробь, неправильная дробь, целое, часть, метод, инновация.*

***Annotation.** It is said that the concept of a fraction arises as a result of dividing, cutting, crushing and crushing various things into equal parts. Basic knowledge about the concept of fractions is obtained before elementary school, i.e. at preschool age. The article talks about the use of innovative methods in teaching fractions.*

***Keywords:** fraction, share, proper fraction, improper fraction, whole, part, method, innovation.*

Hozirgi kunda jamiyatimizda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar – yetuk rivojlangan, ijodiy fikrlaydigan, barkamol, faol shaxsni taqozo etadi.

Matematika darslarida aqliy yuklamaning ortishi bugungi kun pedagogini o'quvchilarning o'rganilayotgan materialga qiziqishini, butun dars davomida faolligini qanday saqlab qolish kerakligi haqida o'ylashga majbur qiladi. Matematikaga qiziqishning paydo bo'lishi ko'p jihatdan uni o'qitish metodikasiga, o'quv-tarbiya ishlarining qanchalik mohirona qurilishiga bog'liq.

Shu sababli bugungi kunda maktab o'quvchilarining fikr-mulohazalarini faollashtiradigan, kreativ fikrlaydigan, ularni mustaqil bilim olishga undaydigan yangi samarali texnologiyalar va o'qitish usullarini izlash ishlari olib borilmoqda. O'qituvchi har bir o'quvchining faol, ishtiyoq bilan ishlashi haqida o'ylashi va bundan qiziquvchanlik, kognitiv qiziqishning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun boshlang'ich nuqta sifatida foydalanishi kerak.

Boshlang'ich maktab yoshida ma'lum bir fanga doimiy qiziqish va moyillik shakllanadi, aynan shu davrda matematikaning jozibador tomonlarini ochishga harakat qilish kerak bo'ladi.

Zamonaviy o'qituvchi: "Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayonida qanday qo'llash kerak?" degan savolni o'ziga berishi lozim.

O'qituvchining maqsadi - o'quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'limni, yangi bilimlarni o'rgatishdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, yangi ta'lim texnologiyalarini faqat amalda o'zlashtirish mumkin.

Innovatsiya so'ziga P.S. Lerner "Innovatsiya - bu shunchaki innovatsiya yoki qandaydir yangilik emas, balki tizimga yangilikni ta'minlovchi asosiy elementlarni joriy etish orqali tubdan yangi sifatlarga erishish" deb ta'rif beradi

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasrlar haqidagi dastlabki bilimlarni o'zlashtirishlari biroz qiyindek. Shu sababli kasrlar mavzusini o'rgatishda innovatsion usullardan, xususan kompyuter texnologiyalaridan foydalanilsa ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Kasr tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo'laklarga bo'lish, kesish, sindirish, maydalashdan kelib chiqadi deyiladi. Boshlang'ich sinfdan oldin, ya'ni maktabgacha yoshdayoq kasr tushunchasi haqidagi ilk ma'lumotlar beriladi. Masalan tarbiyachi bolalarga faoliyatlari davomida ulush degan so'z haqida ma'lumot beradi. Olma, tarvuz, bodring, non va boshqalarni bir necha bo'laklarga bo'lib ko'rish orqali bolalarga ulushlar haqida aytib o'tiladi.

Shu maqsadda bolalarni ulushlar bilan tanishtirish, taqqoslashni o'rgatish, sonning ulushlari va ulushi bo'yicha sonni topishga doir masalalarni yechish ko'zda tutiladi. Aytib o'tilgan barcha masalalar ko'rgazmali qilib ochib berildi.

Ko'rgazmali tushuntirishda, masalan, olmani teng ikkiga bo'lish, yordamida kasr hosil qilinadi. Shunga mos olmani teng bo'lmagan ikki bo'lakka bo'lib, u yarim olma emasligini, demak, kasrni hosil qilmaslikni, tushintirishi kerak. Faqat teng bo'lakka bo'lganidagina kasr son yoki butunning ulushi hosil bo'lishini mustahkam singdirish lozim.

Butunning teng bo'laklariga **kasr** deyiladi.

Berilgan narsani yoki bir butun qism qancha teng bo'lakka bo'linganligini ko'rsatuvchi son kasrning **maxraji**, shunday qismdan nechitasi olinganligini ko'rsatuvchi son kasrning **surati** deyiladi. Umumiy holda kasrni  $\frac{b}{a}$  tarzda ifodalash lozim. Ushbu kasr "a dan b" deb o'qiladi.

Kasrlar odatda 3 xil ko'rinishda bo'ladi

1. To'g'ri kasr  $\frac{7}{9}$

Agar kasrning surati uning maxrajidan kichik bo'lsa, bunday kasrlarni to'g'ri kasrlar deyiladi


2. Noto'g'ri kasr  $\frac{9}{7}$

Agar kasrning surati uning maxrajidan kata yoki teng bo'lsa, bunday kasrlarni noto'g'ri kasrlar deyiladi

3. O'nli kasr  $\frac{6}{10}$ , 0,6

Agar kasrning maxraji 10 ning darajalaridan iborat bo'lsa bunday kasrlarni o'nli kasrlar deyiladi.

Turli xil geometrik shakllar bilan ishlayotganda bu shakl yordamida ulushlarni hosil qiladilar hamda uning ba'zi shakllarini keltirib chiqaradilar. Masalan, kvadratni teng 4 bo'lakka bo'lishda, uni ikkita yo'l bilan bo'lib, burchaklarining o'zoro tengligiga hamda tamonlarining o'zoro tengligiga asoslanib shuningdek, kvadrat simmetriyasi haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar.



Shuningdek boshqa o'quvchilarga doirani, ba'zilarga to'g'ri to'rburchakni 4 bo'lakka bo'lish topshiriladi.




Bundan keyingi ish teng bo'laklarni ulushlardan bittasini, ikkitasini, uchtasini olib ularni qanday sonlar bilan yozish mumkinligiga o'qitiladi. Kasrlarni ikkidan bir, uchdan bir, to'rttdan bir kabi o'qish, qancha qismi olinoyotganligi orasidagi bog'lanishlarni hosil qilish lozim.



Shu asosda surat va maxraj hamda kasr kabi yangi atamalar kiritmasdan o'qiladi. Lekin chiziqning pastida bo'tinni nechaga bo'lgan son, yuqorisiga necha ulushni olgan son yozilishi tushuntiriladi.

Ushbulardan keyin o'quvchilarga bir nechta savollar beriladi yoki ko'rsatila



Kasrlar mavzusini o'rgatishda innovatsion texnologiyalar, kompyuter texnologiyalarining

o' rni beqiyos.

#### Adabiyotlar.

1. Temirovna, O. L. (2021, June). EQUATION, IDENTITIES, EQUIVALENT EQUATION, EQUATION WITH ONE UNKNOWN OF THE FIRST ORDER, FRACTIONAL RATIONAL EQUATIONS AND THEIR SOLUTION. In *Archive of Conferences* (pp. 103-106).
2. Ochilova, L. T. (2022). МАТЕМАТИКАДАН ИЖДИЙ ТАФАККУРНИ О 'СТИРИШДА ТРИЗ ПЕДАГОГИСИДАН ФОЙДЛАНИШ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 178-181.
3. Temirovna, O. L. (2022). METHODS AND TECHNIQUES OF CRITICAL THINKING TECHNOLOGY IN MATHEMATICS LESSONS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 246-250.
4. Очилова, Л. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИКТ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ РЕШЕНИЮ УРАВНЕНИЙ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 100-105.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO TAJRIBALAR. O'ZBEKISTONNING TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA ILK MAROTABA QATNASHISHI. TIMSS TOPSHIRIQLARIDAN NAMUNALAR.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Nargis Boymurodova*

*Buxoro davlat Pedagogika instituti ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi, 1-bosqich magistranti*  
**ANNOTATSIYA**

Bu maqolada boshlang'ich sinflarda xalqaro tajribalarni kiritilishi, ulardan ko'zlangan asosiy maqsadi haqida ma'lumot beradi. TIMSS xalqaro tadqiqotiga mos keluvchi topshiriqlar, matematika fanining samaradorligini oshirishda tadqiqotning ahamiyati yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro baholash tadqiqoti, matematika va tabiiy fanlar, topshiriqlar, TIMSS, PIRLS, IEA rahbariyati.

#### **ABSTRACT**

This article provides information about the introduction of international experiences in primary classes, the main goals of them. The tasks corresponding to the TIMSS international study, the importance of the study in improving the effectiveness of mathematics science are highlighted.

**Keywords:** international evaluation research, mathematic and natural sciences, tasks, TIMSS, PIRLS, the leadership of IEA.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimi juda jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Bundan asosiy maqsad maktab ta'lim tizimini yanada yaxshilash, har tomonlama yetuk salohiyatga ega yosh avlodni tarbiyalash, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash va shu yo'sinda ta'lim sifatini tubdan yaxshilash va yanada takomillashtirishdir. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda barcha sohalar singari ta'lim sohasida ham ulkan yangiliklar va islohotlar olib borilmoqda. Chunki, xorijiy mamlakatlar qatoriga qo'shilish uchun eng avvalo, ta'lim tizimini yanada yaxshilash darkor. Jahon standartlariga mos bo'lish uchun ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan yuksak kasbiy mahoratni talab qiladi. Buning uchun esa ular ta'limda yangicha bir yondashuvlar asosida, xususan, xalqaro baholash tizimiga mos keladigan usullarni tanlab darslarni olib borishlari ta'lim sifatini yanada yuqoriroq ko'tarishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, hozirgi kunda xalqaro tajribalarga mos yangi milliy dastur ishlab chiqildi. Bu dastur tarkibida xalqaro baholash dasturlari ham kiritilgan bo'lib, bu orqali O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarga ega davlatlar tajribasini o'rganishiga ko'maklashadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida "PISA" (The Programme for



International Student Assessment) o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan. Shunga binoan xalqaro baholash dasturini yurtimizda tadbiiq etmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS – 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmii yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumii o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish;

PISA – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

Bu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodii va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik esa bu ko'nikmalarni o'zi rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, TIMSS – bu, ta'lim tizimidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan amalga oshiriladigan, ta'lim tizimlarida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha erishgan yutuqlarini baholashga yo'naltirilgan dastur sanaladi. Qolaversa, mazkur platforma o'qitish hamda ta'lim olishni yaxshilashga ko'maklashish uchun millii ta'lim tizimidagi farqlarni o'lchash hamda tavsiflashga asoslangan. O'zbekiston ilk marotaba ishtirok etayotgan mazkur xalqaro tadqiqot dunyoning 60 ga yaqin davlatida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Tadqiqotda qatnashish orqali ta'lim sifati, o'quvchilarning maktabda olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish, mantiqii va ijodii fikrlash ko'nikmalarini baholashga erishiladi. Shu bilan birga, mamlakatdagi jorii etilgan o'quv dasturlari va o'qitish usullari, o'quvchilarning bilimi va savodxonligini xorijii mamlakatdagi tengdoshlari bilan solishtirish orqali, strategik va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati ortadi. Ushbu tadqiqotning tajriba-sinov jarayonida ishtirok etgan jami 29 ta maktab xalqaro hamkor tashkilotlar tomonidan tasodifiylik tamoyili asosida tanlab olinib, barcha hududlardan kamida ikkitadan maktab, shuningdek, har bir maktabda ikkitadan sinf o'quvchilari ishtirok etdilar. TIMSS dasturi o'quvchilarga ta'lim olish imkoniyati va o'quvchilar yaratilgan shart-sharoitlardan qanday foydalanishi to'g'risidagi omillarni o'rganadi. Tadqiqot har bir mamlakat o'quv dasturida belgilab qo'yilganidek o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan ta'lim olishi kerakligi, undagi jarayonni osonlashtirish uchun tizimini qanday tashkil etish zarurligi, aslida sinfxonalarda nima o'qitilayotgani va o'quvchilar nimani o'rgangani haqida ma'lumotlarni tahlil qiladi. Dasturning baholash ramkalari ikkita o'lchov asosida amalga oshiriladi. Bular – baholanadigan mavzuni ko'rsatadigan mazmun sohasi va o'quvchilar fikrlash jarayonini belgilaydigan kognitiv soha. Matematika mazmun sohalari:

- 4-sinf: sonlar, o'lchashlar va geometriya, ma'lumotlar bilan ishlash;
- 8-sinf: sonlar, algebra, geometriya, ma'lumotlar bilan ishlash, statistika va ehtimollik.

Tabiiy fanlarning mazmun sohalari:

- 4-sinf: hayot haqidagi fan, fizika, Yer haqidagi fan;
- 8-sinf: biologiya, kimyo, fizika, Yer haqidagi fan.

Matematika va tabiiy fanlarning kognitiv sohalari:

4- va 8-sinflar: bilish, qo'llash va mulohaza yuritishni o'z ichiga oladi.

Quyida 4-sinflarda matematika fanidan o'quvchilarning bilimni baholashga yo'naltirilgan TIMSS test topshiriqlaridan namunalar:

1.  $9 \cdot 22$  ga eng yaqin bo'lgan javob qaysi?  
(C) A)  $5 \cdot 20$  B)  $5 \cdot 25$  C)  $10 \cdot 20$  D)  $10 \cdot 25$
2.  $3 + 8 = \square + 6$  Tenglik to'g'ri bo'lishi uchun bo'sh katakchaga qaysi son yozilishi kerak? (5) A) 17 B) 11 C) 7 D) 5
3. Daraxtning 4 ta shoxi bor. Har bir shoxida yana 4 tadan shoxchalari bor, bu shoxchalar ham yana 4 tadan mayda shoxchalarga bo'lingan va ularning har birida bittadan olma bor. Barcha olmalar soni nechta? ( $4 \cdot 4 \cdot 4 = 64$ )
4. Ilhom bozordan 1 kg lik tarvuz olib keldi. Tarvuz 99% suvdan iborat edi. ilhom tarvuzni quyoshda unutilib qoldirdi. Savol: quyoshda qolib ketgandan so'ng tarvuzning og'irligi necha kg bo'lib qoldi? (500 gr)
5. Sinfda 30 ta o'quvchi o'qiydi. Ularda 20 tasi rus tilini biladi. 18 tasi ingliz tilini biladi. Savol: Nechtasi har ikkala tilni ham biladi? (12 nafari rus tilini, 10 nafari ingliz tilini, 8 nafari har ikkala tilni biladi)
6. Beshta 1 yordamida 100 sonini qanday hosil qilish mumkin? ( $111 - 11 = 100$ )
7. Elektropoezd sharqqa tomon 80 km/soat tezlik bilan harakatlanmoqda. Shamol esa sharqdan g'arbga qarab 15 km/soat tezlik bilan esmoqda. Poyezddan chiqayotgan tutun qaysi tomonga qarab harakatlanadi? (Elektropoezdlar tutun chiqarmaydi (albatta yong'in chiqmasa))
8. O'rdaklar suv ichishga qator bo'lib ketayotgan edi. O'rdaklardan biri oldinga qarab, 17 ta boshni ko'rdi. Ortiga qarasa — 42 ta panja kelayotgan ekan. Jami nechta o'rdak suv ichishga ketmoqda?

(Javob: 39 ta. Oldinda 17 ta o'rdak. Ortida esa 21 ta. Shuningdek boshini orqa-oldinga burgan o'rdakning o'zi ham).

Shunga o'xshash topshiriqlarni bajarish o'quvchilarni ko'proq o'ylashga va ularni tafakkurlarini o'stirishga yordam beradi va eng muhimi olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishni o'rganishadi va tajribalari ham oshib boraveradi. Xalqaro TIMSS tadqiqotining ham mazmun mohiyati ham shundan iborat.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori .

2. TIMSS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to'plami. O'quv qo'llanma. Toshkent, Qamar-media. 2021.

### **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING QIZIQARLI MASALALARNI YECHISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Ochilova Laylo Temirovna*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*  
*Xudoyberganova Laylo*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi*

*Annotatsiya.* Bu maqolada boshlang'ich sinflarda matematikadan qiziqarli va mantiqiy masalarni yechish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida matnli masalalarni ahamiyati o'quvchilarning masalalarni muhokama qilib yechishga o'rgatish orqali xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish haqida yoritilgan.

*Kalit so'zlar.* masala, masala turlari, qiziqarli masala, mantiqiy tafakkur, kreativ fikrlash, faoliyat.

*Аннотация.* В этой статье рассказывается, как решать интересные и логичные задачи по математике в начальной школе, и как формировать выводы, обучая учащихся обсуждать и решать текстовые задачи в общеобразовательных школах.

*Ключевые слова.* проблема, типы задач, интересная задача, логическое мышление, творческое мышление, активность.



*Annotation.* This article explains how to solve interesting and logical problems in mathematics in elementary school, and how to form inferences by teaching students to discuss and solve word problems in secondary schools.

**Keywords.** *problem, types of tasks, interesting task, logical thinking, creative thinking, activity.*

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Prezidentimiz har bir qadamda, har bir so'zlarida ta'limga e'tibor haqida ta'kidlab o'tmoqdalar

– Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, – dedi davlatimiz rahbari. – Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir.<sup>1</sup>

Ilm-fan jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtda boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, aniq fanlarning o'qitilishi asosiy diqqat-e'tiborda ekanini ta'kidlash joiz.

Dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta'kidlandi. Xalq ta'limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o'quv dasturini ishlab chiqib, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo'yildi.

Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham mantiqiy fikrlashni oshirish, og'zaki hisoblash ko'nikmalarini shakllantirish asosida o'quvchilar qobiliyati va qiziqishlarini rivojlantirish kabilar yoritilgan.

Mantiqiy masalalar bolalarning tafakkurini shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Masalalarni yechish orqali o'quvchilar fikrlashni va xulosa chiqarishni o'rganishadi.

Har qanday masalani yechish uchun o'quvchi bir necha bosqichlardan o'tishi kerak.

1- bosqich. Masala mazmuni bilan tanishish.

2- bosqich. Masalaga yechim izlash.

3- bosqich. Masalani yechish.

4- bosqich. Masalani yechimini tekshirish.

Bu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularning har biri ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Biz bu yuqoridagi bosqichlardan birinчисini ko'rib chiqamiz.

Masala bilan tanishish. Har qanday masalani yechishdan oldin uni diqqat bilan o'qishi, ko'z oldiga keltirishi lozim. Shundagina bu masalaga yechim topish tez va oson bo'ladi. Bolalarni masala o'qitishga o'rgatish ham juda muhim hisoblanadi. Amallarni belgilab beruvchi "bor edi", "qoldi", "ishlatildi", "marta ko'p", "marta kam" kabi so'zlarga va sonlarga e'tibor berish zarur. Odatda o'quvchilar masalani bir necha marta o'qishadi, biroq masalani bir marta o'qiganda eslab qolishga asta-sekin o'rgatish kerak. Chunki bu holda ular masalani diqqat bilan o'qiydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurlarni o'stirishda matnli masalalar asosiy vositalardan biri sanaladi. Masalalar yechish bolalarda avvalo mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish ularning dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega. har bir o'zlashtirilayotgan matematik tushuncha qandaydir topshiriq, misol yoki matnli masalalar zahirida o'quvchilarga havola etiladi.

O'quvchilarning mustaqil mantiqiy fikrlash faoliyatlarini rivojlantirishda matematikaning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'quvchilarning maktabda ta'lim olishlari davomida juda ko'p sondagi (taniqli metodik-matematik olim kolyaginning hisob kitoblariga qaraganda o'rtacha 15.000

---

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqidan

ga yaqin) har xil mazmundagi masalalarni hal qilishlariga to'g'ri keladi. Yana shuni aytish joizki pedagogik psixologiyaning eng so'ngi yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchilarni masalalar yechishga mustaqil mantiqiy fikrlashga olib kelishlari kerak. Buni amalga oshirish uchun "taqqoslang", "qarang", "xulosa chiqaring", "o'ylab ko'ring" kabi ko'rsatmalarni o'zi yetarli emas. O'quvchilar istalgan masalalarni yechishga ijodiy yondashishlari uchun ularning aqliy faoliyatini maxsus usullar bilan qurollantirishi lozim yani ularni fahmlay olishi idrok qilishi va xulosa chiqarishga o'rgatish kerak.

Ovoz chiqarib mulohaza yuritishda: o'quvchilarda tarqoq holdagi fikrni so'zlar, yani biron ma'noni anglatuvchi nutq birliklari yordamida ifodalashga imkon beradi. Yana nutq jarayonida fikrni ifodalash aqliy faoliyatni rivojlanishiga ko'maklashadi. Shu tariqa bolalarning nutqiy tafakkur faoliyati faollashadi.

**Boshlang'ich sinf matematika darslaridan o'rin egallagan qiziqarli va mantiqiy masalalar muhim vazifa bajaradi. Ular o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, xulosa chiqarishni shakllantiradi. boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishni o'rgatishning ahamiyati ular ustida ish olib borish metodikasiga bog'liq. Bu o'z navbatida boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan puxta bilim, yuqori malaka va mahorat talab etadi.**

#### **Adabiyotlar**

1. S. Alixonov. Matematika o'qitish metodikasi. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. - 304 b.
2. Temirovna, O. L. (2021, June). EQUATION, IDENTITIES, EQUIVALENT EQUATION, EQUATION WITH ONE UNKNOWN OF THE FIRST ORDER, FRACTIONAL RATIONAL EQUATIONS AND THEIR SOLUTION. In *Archive of Conferences* (pp. 103-106).
3. Ochilova, L. T. (2022). МАТЕМАТИКАДАН ИЈОДИЙ ТАФАККУРНИ ОЎЎТИРИШДА ТРИЗ ПЕДАГОГИКСИДАН ФОЙДЛАНИШ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 178-181.
4. Temirovna, O. L. (2022). METHODS AND TECHNIQUES OF CRITICAL THINKING TECHNOLOGY IN MATHEMATICS LESSONS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 246-250.
5. Очиллова, Л. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИКТ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ РЕШЕНИЮ УРАВНЕНИЙ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 100-105.
6. Boshlang'ich sinf matematika darsliklari.

#### **BOSHLANG'ICH SINFLARIDA DIDAKTIK MATERIALLARNING BERILISHI VA UNING AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Shodiyeva Mehribon Amin qizi –*

*BuxDPI 2-bosqich magistranti*

*Ilmiy rahbar: D.B.Axmedova –*

*BuxDU doktoranti (DSc), f.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim va tarbiyaning yangi avlod darsliklari asosida uyg'un holda olib borilishi hamda "Tarbiya" darsliklaridagi didaktik xususiyatlarga oid fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** didaktik adabiyot, estetik dunyoqarash, interfaol metod, badiiy savodxonlik, boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsliklari, badiiy vosita, obraz, Milliy dastur, yangi avlod darsliklari.

Boshlang'ich ta'limning vazifasi ham bolalarda, eng avvalo, ta'lim va tarbiyani uyg'un holda olib borishdir. Dars jarayonida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda hamda mavzularga bevosita bog'liq holda didaktik adabiyot namunalariidan foydalanish orqali o'quvchilarning ma'naviy olamini yanada boyitish, tafakkur olamini kengaytirish, bilim, ko'nikma va malakalarini

mustahkamlashga erishish mumkin. Darsda berilgan mavzular mohiyatidan kelib chiqib, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga mos bo'lgan didaktik adabiy parchalardan keltirish lozim. Bu jarayonda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish barobarida didaktik adabiyotga nisbatan mehrini uyg'otish mumkin. Didaktikaning bosh maqsadi ham komil insonni tarbiyalashdir. Boshlang'ich ta'lim darsliklarida ham mavzular va sinflar kesimida didaktik adabiy ruhni sezishimiz mumkin. Mavzularga oid turli ibratli fikrlardan foydalanishda muallif asardagi asosiy g'oyani to'g'ri tushuntirish hamda uni yetkazib berishda munosib interfaol metod, vosita va pedagogik texnologiyalarni tanlay bilishi muhimdir. Boshlang'ich sinf darsliklariga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, mavzular kesimida ibratli fikr-mulohazalar, turli janrdagi asarlardan namunalarni ko'rishimiz mumkin. Boshlang'ich ta'limda sifat va samaradorlikka erishishning asosiy mezonlaridan biri sifatida o'zaro integratsiyani to'g'ri tashkil etishni nazarda tutishimiz mumkin. Jumladan, axborot texnologiyalari vositasida darslar jarayonida mavzuga oid didaktik materiallarni turli multimediali, audiomatnli yoki qisqa videofilm ko'rinishida namoyish qilish orqali o'quvchilarda bir vaqtning o'zida ham axborot resurslariga, ham didaktik asarlarga nisbatan qiziqish hosil qilish mumkin. Bu jarayonning o'ziga xos tomoni shundaki, o'quvchilarda estetik dunyoqarash hamda badiiy tafakkur elementlari asta-sekin shakllanib boradi.

Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinovalarning "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" nomli darsligida "Boshlang'ich adabiy ta'limdagi badiiy asarlar tahlilida asarning estetik qimmatini, badiiy go'zalligiga ham alohida e'tibor qaratilishi, shu asnoda o'quvchilarning badiiy savodxonligi ham ta'minlanishi zarur. O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata bilish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qilishi maqsadga muvofiqdir", - degan fikrlar aytib o'tilgan. Jumladan, 1-sinf "Tarbiya" fani darsligining "Men O'zbekiston farzandiman" bobidagi "Vatan ishonchi", "Salomlashish odobi", "Bilim olish sirlari", "Maktabim – gulshanim" kabi mavzular, "Go'zal xulq – inson ko'rki" bobida berilgan "Sehrli so'zlar", "Tashqi ko'rinish odobi", "Yaxshi va yomon odatlar"; 2-sinfda berilgan "Yaxshi va yomon odatlar", "Yolg'onning umri qisqa", "Birlashgan o'zar", "Insonparvarlik", "Do'stlik – oliy fazilat", "Ziyorat odobi"; 3-sinfda berilgan "Munosib farzand", "Eng buyuk sharaf", "Bilim olish odobi", "Vaqtning ketdi – baxting ketdi", "Kitob – bilim manbayi", "Inson odobi bilan go'zal", "Mehr-oqibat – insoniy fazilat", "Qari bilganni pari bilmas", "Tejamkorlik"; 4-sinfda berilgan "Vatan madhi", "Kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish", "Tejamkor bo'lish", "Rostgo'y bo'lish", "Bobolarimizning bebaho merosi", "Maktab – eng buyuk dargoh", "Kitob – buyuk donishmand", "Bilim – tengsiz xazina", "Yaxshilik qilish hikmati", "Rostgo'ylik", "Halollik – muvaffaqiyat kaliti", "Tejamkorlik", "Fazilatlar – inson ko'rki", "Baxt oiladan boshlanadi", "Oilaviy kitobxonlik – muvaffaqiyat poydevori", "Ona – ulug' zot" kabi mavzularni o'tish jarayonida bevosita didaktik asarlarimizda keltirib o'tilgan ibratli fikrlardan namunalarni aytishimiz mumkin. Milliy dasturimizning vazifasi ham aynan o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, amaldagi yangi darsliklarimizda berilgan matnlar ham o'quvchilarni bevosita tafakkur qilish va og'zaki nutqini boyitishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkin, bugungi kunda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Milliy dastur va yangi avlod darsliklarining maqsadi va vazifasi ham shundan iborat. Bu borada boshlang'

Ich sinf darsliklarida didaktik adabiy asarlardan keltirilgan parchalarning o'rni va ahamiyati beqiyos.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Husanboyeva Q. va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent: "Innovatsiya -Ziyo", 2020.

2. N. Ismatova va b. Tarbiya: 1-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
3. N. Ismatova va b. Tarbiya: 2-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
4. D.Ro'ziyeva va b. Tarbiya: 3-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.:Sano standart, 2020.
5. S.Shermuxeamedova va b. Tarbiya: 4-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.:O'zbekiston, 2020.
6. D.B.Axmedova, M.A.Shodiyeva. Boshlang'ich sinflarda didaktik adabiy asarlardan foydalanish – estetik tarbiya vositasi. "Scientific aspects and trends in the field of scientific research" Xalqaro ilmiy-onlayn konferensiyasi. 2023. 144-bet.

## ULUSH VA KASR SON TUSHUNCHASINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*BuxDPI 2-kurs magistranti Raximova Nargiza Mexriddinovna*

*Annotatsiya: O'quvchilarga ulush va kasr son tushunchasini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish masalalari*

**Kalit so'zlar:** sonning ulushi, kasr son maxraji va surati, butun son, interfaol metodlar.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy interfaol strategiyalar bo'lgan bilimlarni samarali o'zlashtiradi. Chunki bugun sinflarni to'ldirib o'tirgan o'quvchilar sho'x beg'ubor bolalik gashtini surayotgan, ba'zan xayolparast bolalardir. Ular orasida hatto 45 daqiqalik dars jarayonining nihoyasini intiqlik bilan kutib, ta'limga yuzaki qaraydigan o'quvchilar ham yo'q emas.


Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Bugungi kunda respublika ta'lim

muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda: 1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blis-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b. Yangi materialni o'rganish va mustahkamlash (interfaol ma'ruza, ko'rsatmali qurollar, video va audiomateriallardan foydalanish. Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k. 3. Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b.

Klaster metodi. Klaster (g' uncha, bog' lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u tahsil oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.



Boshlang'ich sinflarda ulushlar va kasrlar tushunchalarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda ta'lim sohasida dolzarb masalalardandir. Shunday ekan, dars jarayonida ulardan foydalanish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish oshadi va dars samaradorligiga erishiladi, vaqtdan yutish imkoniyati tug'ildi, ya'ni mavzuning tushuntirilishiga, o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishlariga kam vaqt sarflandi, o'quvchilarning o'zlari ulush va kasrga doir shakllarni ekranda rangli tarzda ko'rib boradilar, uning xossalarini misollar yordamida ko'rish imkoniyati oshadi, ko'rgazmalilik ta'minlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum (OO'Y uchun). -Toshkent: "O'qituvchi", 2004-yil. -328 b.

2. O'rinboeva L. va boshq. Matematika (3-sinf darsligi). -Toshkent: "Respublika ta'lim markazi", 2022. - 192 b.

3. Bikbayeva N.U. Matematika (4-sinf darsligi). -Toshkent: "Respublika ta'lim markazi", 2020. - 208 b.

4. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

6. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)



## DIALOGIK NUTQ – BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH OMILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

**Azimova K.K.** Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishda dialogik nutqning ahamiyati, ayniqsa ona tili darslarida bularning o'rni va ahamiyati haqida atroflicha fikr mulohazalar yuritilgan.

**Tayanch atamalar:** O'quvchi, nutq, dialogic nutq, tarbiya, ko'nikma, yosh o'quvchi, topshiriq, maktab, ijod, ma'naviy tarbiya, mushohada, maslahat, baho, maqsad.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение диалогической речи в формировании учебных мотивов у учащихся начальных классов, особенно на занятиях по родному языку.

**Основные термины:** Ученик, речь, диалогическая речь, воспитание, умение, юноша, задание, школа, творчество, духовное воспитание, наблюдение, совет, оценка, цель.

**Abstract:** In this article, the importance of dialogic speech in the formation of learning motives in primary school students, especially in the mother tongue classes, is discussed.

**Basic terms:** Student, speech, dialogic speech, education, skill, young student, assignment, school, creativity, spiritual education, observation, advice, assessment, goal.

Tevarak-atrofnı o'rganish jarayoni bola tafakkurini rivojlantirishda boshqa hech narsa bilan almashtirish mumkin bo'lmagan hissiy rag'batlantirishga sabab bo'ladi. Bunday rag'batlanish kichik maktab yoshidagi bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Chunki tevarak-atrofdagi predmetlar, voqeliklar asosida tug'iladigan hissiyot bola tafakkurida rivojlanib, uning xulqiga, hatti-harakatlariga ko'chadi. Shuning uchun ham bolaning tevarak-atrofdagi voqelikni bilib borishi, uning go'zalligini, bitmas- tunganmas murakkabliklarini his etishi, ijtimoiy munosabatlar va kattalar dunyosiga kirib borishi, uning har tomonlama kamol topishi bilan birga, unda xulq-atvor me'yorlarining tarkib topib, shakllanib borishiga olib keladi. Zero, bolalik dunyoni zavqlanib, hissiyotlarga to'lib idrok etish, uni kashf etish bilan uyg'undir.

Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish, xilma-xil va betakror dunyoni metodik tomondan qiziqarli, turli shakl va vositalardan foydalangan holda zamon talablari asosida bolalarga yetkazishni tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu borada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolalarning yoshi, o'ziga xos xususiyatlari, axloqiy fazilatlarini, boshqalarga munosabati kabi juda ko'p talablarni hisobga olishdir.

Ma'lumki, pedagogik texnologiya deganda o'quv-tarbiya jarayonini oldindan ma'lum tizimda uzviy loyihalash, ma'lum pedagogik tizimning hayotda amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi degan ma'no tushuniladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish ham ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya'ni bolalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari ifodalangan bir butun tizim texnologiyasidir.

Ayni muammoga oid tadqiqotlar jarayonida hozirgi davr talabi darajasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari ishlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning bir butun tizimi, mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari aniqlab chiqildi hamda eng yangi talablar darajasida uni amalga oshirish metodlari, shakllari va vositalari texnologiyasi ishlab chiqildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida maqsadga muvofiq ravishda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish ham aslida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, bunda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya'ni bolalar bilan so'zlashishdir. So'zlashish og'zaki nutqning eng oddiy shakli bo'lib, unda bola o'zini tutishi, ko'z qarashi, hatti-harakati, ovozining past-balandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So'zlashish – dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofnı bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat



joylarida, ko'pchilik o'rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e'tibor qaratiladi.

Kundalik hayot va taassurotlar asosida uyushtiriladigan muloqot erkin muloqot bo'lib, yo'l-yo'lakay o'tkazilsa-da, o'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga ma'naviy-axloqiy tarbiya malakasining o'zlashtirilishiga zamin bo'ladi. Bolalarda ko'proq guruh bilan qilingan sayrlarda tevarak-atrofnı kuzatib, o'qituvchisi va do'stlari bilan so'zlashadi, uyda esa oila a'zolari bilan muloqot natijasida bog'lanishli nutqi shakllana boradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Вкготский Л.С. Педагогическая психология. –М., 1996. – С.84.
2. Коротов В.М. Идуему на первые уроки. –М., 1971. –С.15.
3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoillari. –T.: O'zbekiston, 2000. –B.30-34.
4. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. –T.: O'qituvchi, 2000. –B.35.
5. Фукина Г.И. Проблема познавательного интереса в педагогике. – М., 1971. – С. 53-54.

#### BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLIKLARIDA BIRGALIKDA ISHLASHGA DOIR MASALALARNING KIRITILISHI. (YANGI AVLOD DARSLIKLARI MISOLIDA )

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Qosimova M.M. BuxDU dotsenti  
Mirziyoyeva M. 3-bosqich talabasi*

Murakkab matnli masalalar ichidan bir xil ketma-ketlikda bajariladigan va bir xil amallar bilan yechiladigan qator masalalarni ajratish qiyin emas. Bunday masalalarni bir turdagi masalalar deb aytilish mumkin. Lekin ba'zi muhim belgilarga ega bo'lgan murakkab masalalarni metodika kursida **tipik arifmetik** masalalar deb qabul qilingan.

Tipik masalalarning o'ziga xos belgisi ularning tipik bo'lmagan masalalarga qaraganda ancha qiyinroq bo'lishi va ularni yechish uchun maxsus mulohaza usullarini qo'llash zarurligidadir.

Biz quyida birgalikda yechishga doir tipik arifmetik masalalarni yechish usullari haqida to'xtalib o'tmoqchiman

Mazkur tipga qarashli masalalarning mazmuni turlicha bo'ladi.

a) bir qancha kishi, brigada yoki ishlash vositalari (traktor, ekskavator, buldozer) ma'lum bir ishni alohida bajarganda, ish qancha vaqtda tugallanishi aytilib, ular birgalikda ishlaganda, ishning tugashi muddatini topish so'raladi;

b) bir necha kishi, brigada yoki ishlash vositalari birganlikda ishlaganda ma'lum bir ishning tugallanish muddati berilib, shulardan bittasini yolg'iz o'zi ishlaganda shu ish uchun sarflanadigan muddatni topish so'raladi. (boshqalarning yolg'iz ishlaganlarida ishni tugatish muddatlari beriladi);

v) bir qancha ishchi yoki brigada bir vaqtda ma'lum bir ishni boshlab, bir necha kun o'tgach, ularning ba'zilarini boshqa ishga ko'chirganda, butun ish yoki qolgan ish necha kunda tugallanishi so'raladi;

g) bir qancha ishchi yoki brigada bir vaqtda ma'lum bir ishni boshlab, bir necha kun o'tgach, ularga yangi yordamchilar qo'shilganda butun ish, yoki ishning qolgan qismi necha kunda tugallanishi so'raladi va xokazo.

Bunday masalalarni yechishni, yolg'iz bajarish muhlati soat bilan berilgan bo'lsa, bir soatligini, kun bilan berilgan bo'lsa, bir kunligini topishdan boshlash kerak. Birgalikda ishlashga doir masalalar boshlang'ich sinif darsliklarida uchraydi. Ammo bunday tipdagi masalalarni yechish jarayonida o'quvchilar ayrim xatolarga ham yo'l qo'yishini tez-tez kuztish mumkin.

Quyidagi masalani qaraylik.

Masala: 150 ta velosipedni ta'mirlash kerak. Usto bu ishni 10 kunda, shogirdi esa 15 kunda bajaradi. Ular birga ishlashsa bu ishni necha kunda bajarishadi?

Masalaning qisqa sharti:

Usto- 10 kunda

150 ta velosiped -? kunda

Shogird -15 kunda

Ushbu masala yechish uchun berilganda quyidagi yechim variantlarini ko'rsatishadi.

1-variant: 1)  $10+15=25$  (kunda)

2)  $150:25=6$  (kun)

2-variant: 150:  $(10+15)=150:25=6$ (kun)

3-variant: 1)  $150:10=15$  (ta)

2)  $150:15=10$ (ta)

3)  $15+10=25$  (ta)

4)  $150:25=6$  (kun)

Javob: Usta va shoigird birga ishlashsa bu ishni 6 kunda bajarishadi.

Bu yechim variantlarini tahlil qilinganda, har gal uchalla yechim variantlarida natija 6 chiqqan bo'lsa, ham 1 va 2- yechim variantlari **xato** yechimlaridir.

Agar o'quvchiga har bir amaldan so'ng "nimani topding?" degan savol berilganida ular amal natijalarini izohlab berisha olmaydi. Darhaqiqat "10 ga 15ni qo'shib nimani topding?" degan savolga yoki, "150 ni 25 kunga bo'lib nimani topding?" kabi savollarga masala yechimiga mos javob topa olmaymiz. Shuning uchun bu masalaning to'g'ri yechimi 3-variant yechimidir.

150 ni 10 ga bo'lib, ustoning bir kuniga nechta velosiped tamirlaganini aniqlaymiz. 150 ni 15 ga bo'lib, shogirdning bir kunda nechta velosiped tamirlaganini aniqlaymiz. 10 ga 15 ni qo'shib usta va shogird bir kunda nechta velosiped tamirlaganini topamiz, va 150 ni 25 ga bo'lamiz. Usta va shogird birgalikda 150 ta velosipedni necha kunda tamirlanganlari topiladi.

Ushbu masalani yana bir ajoyib xususiyati shundaki, 150 soni o'rniga, 300, 450, 1800 va boshqa sonlarni qo'ysangiz ham masala o'zgarmaydi. Masalani quyidagi adekvat ko'rinishidagi masala sifatida bayon qilish mumkin.

Masala. Bir ishni usta 10 kunda, shogird 15 kunda bajarishadi. Ular birga ishlashsa bu ishni necha kunda bajarishadi?

Bu masala 4-sinf o'quvchilari yechadigan masala bo'lib, sonning ulushini va ulushga ko'ra sonni topishga doir masaladir.

Quyidagi masalalarni qaraylik. Turli miqdordagi yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan 3 ta yuk mashinasi bor. Bazadagi yukni har bir mashina yolg'iz o'zi tashiganida: birinchi mashina 10 soatda, ikkinchi mashina 12 soatda va uchinchi mashina 15 soatda tashiy oladi. Bu mashina birga ishlaganda shu yuk necha soatda tashib olishadi. Masalani shartini tuzamiz:

1 - avt yolg'iz - 10		soatda	birgalikda necha soatda?
2 - avt yolg'iz - 12		soatda	
3 - avt yolg'iz - 15		soatda	
1) Birinchi avtomobil		yolg'iz o'zi bir soatda yukning qanday qismini tashiydi?	
1 :		$10 = \frac{1}{10}$ (qism)	

2) Ikkinchi avtomobil yolg'iz o'zi bir soatda yukning qanday qismini tashiy oladi?

$$1 : 12 = \frac{1}{12} \text{ (qism)}$$

3) Uchinchi avtomobil yolg'iz o'zi bir soatda yukning qanday qismini tashiydi?

$$1 : 15 = \frac{1}{15} \text{ (qism)}$$

4) Uchala avtomobil bir soatda yukning qanday qismini tashiydi?

$$\frac{1}{10} + \frac{1}{12} + \frac{1}{15} = \frac{1}{4} \text{ (qism)}$$

5) Uchala avtomobil birgalikda butun yukni necha soatda tashiydi?

$$1 : \frac{1}{4} = 4 \text{ (soat)}$$

Javob: 4 soat.

2-masala. Bir ishchi topshiriqni 12 kunda bajarish kerak edi. U ish boshlagandan  $4\frac{1}{3}$  kun o'tgach, unga boshqa bir ishchi yordamga keldi va butun ish 8 kunda bitkazildi. Ikkinchi ishchining yakka o'zi ishlaganida butun ishni necha kunda bitkaza olardi

Masalani muhokama qilib, quyidagi savol ketma-ketligida yechilishini keltiramiz.

1) Birinchi ishchi bir kunda ishni qanday qismini bajara oladi.?

$$1 : 12 = \frac{1}{12} \text{ (qism)}$$

2) Birinchi ishchi  $4\frac{1}{3}$  kunda ishning qanday qismini bajargan?

$$4\frac{1}{3} * \frac{1}{12} = \frac{13}{36} \text{ (qism)}$$

3) Ishning qancha qismi qolgan?

$$1 - \frac{13}{36} = \frac{23}{36} \text{ (qism)}$$

4) Ikkala ishchi birgalikda necha kun ishlagan?

$$8 - 4\frac{1}{3} = 3\frac{2}{3} \text{ (kun)}$$

5) Birinchi ishchi  $3\frac{2}{3}$  kunda ishning qanday qismini bajargan?

$$3\frac{2}{3} * \frac{1}{12} = \frac{11}{36} \text{ (qism)}$$

6) Ikkinchi ishchi  $3\frac{2}{3}$  kunda ishning qanday qismini bajargan?

$$\frac{23}{36} - \frac{11}{36} = \frac{1}{3} \text{ (qism)}$$

7) Ikkinchi ishchi yolg'iz o'zi ishni necha kunda bajara oladi?

$$3\frac{2}{3} : \frac{1}{3} = 11 \text{ (kun)}$$

Javob: 11 kun.

Masala: Bikbayeva N, Grifanova K 4-sinf Matematika. 2020yil 112-bet. 4-masala

Gisht teruvchi ikki usta birgalikda ishlab 119920 ta g'isht terdi, Birinchi usta 17 kun ishladi va har kuni 2860 ta g'isht terdi. Qolgan g'ishtni ikkinchi usta 23 kunda terdi. Ikkinchi usta har kuni nechtadan g'isht tergan?

Bu masalani o'quvchi tahlil qilar ekan ikki usta birgalikda ishlab 119920 ta g'isht terganini, birinchi usta har kuni 2860 tadan g'isht terib 17 kun ishlaganini, qolgan g'ishtlarni ikkinchi usta 23 ta terгани ma'lumligini ta'kidlagan holda ikkinchi ustaning bir kunda tergan g'ishtlarning miqdorini topish talab qilinganini bilib olishi kerak. Masala dastlab tahlil qilinib qisqa shart asosida masala yechimi izlanadi. Masala mazmun jihatdan birgalikda ishlashga doir bo'lsada, unda masalada ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallar bajarishda ham e'tibor qaratiladi.

Bunday tipdagi masalalarga tayyorgarlik darvri 2-3 sinflarda boshlanib, 4- sinf darsligida aynan bunday tipdagi masalarni ko'p uchratamiz. Bu tipdagi masalalarni yechishga o'rgatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchisini yuqori sinf matematikasini chuqur o'zlashtirishlari uchun zamin bo'lib hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. QOSIMOVA, M. (2020). TAKING INTO ACCOUNT THE INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS IN TEACHING MATHEMATICS: TAKING INTO ACCOUNT THE INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS IN TEACHING MATHEMATICS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
2. QOSIMOVA, M. (2020). TAQQOSLASHGA DOIR TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI: TAQQOSLASHGA DOIR TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
3. QOSIMOVA, M. (2020). ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS: ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
4. Qosimova, M. M., & Kasimov, A. A. (2021). On some typical problems to be solved in primary schools. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 502-517.
5. Mukhammedovna, K. M. (2021). Problems of Finding Two or More Numbers from their Sum (Or Difference) and Multiple Ratios.
6. QOSIMOVA, M. (2020). TAKING INTO ACCOUNT THE INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS IN TEACHING MATHEMATICS: TAKING INTO ACCOUNT THE INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS IN TEACHING MATHEMATICS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
7. Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2022). MATEMATIKADAN IJODIY O 'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(2), 206-211.
8. Muhammedovich, Q. F., & Muhammedovna, Q. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINFDAN ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 2(4), 358-362

#### BOSHLANG' ICH TA' LIMDA O' YINLAR YORDAMIDA O' QUVCHILARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)*

*mutaxassisligi magistranti Jamatova Malika Sherqulovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'yinlar yordamida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish metodikalari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** intellektual qobiliyat, interaktiv o'yinlar, interfaol metodlar, "kichik guruhlarda ishlash" metodi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Science and Education», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi

so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional - hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi. O'quvchi mayda guruhlarda ishlanganda, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. O'quvchi mayda guruhlarda ishlanganda, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

### **Qo'llash bosqichlari va ular bo'yicha tavsiyalar:**

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kerakli asos yaratiladi. O'quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak.
3. Guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlariga 5-8 kishidan bo'linishlari kerak.
4. Aniq ko'rsatmalar beriladi.
5. Qo'llab-quvvatlab va yo'naltirib turiladi.
6. Muhokama qilinadi.

Ta'limning kichik guruhlarda ishlash usuli «ta'lim beruvchi -ta'lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va «ta'lim beruvchi - guruh - ta'lim oluvchi» ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlariga bo'linadi va ularning har-biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli siz bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam kontakt o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa, o'quv - bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

- vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, ta'lim oluvchilarda, o'rtoglari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi;
- berilgan ishni ohiriga yetkazishga intilishda bir-birini qo'llab - quvatlashni;
- individual farqning mavjudligiga qaramasdan hamkorlik qilishni;
- ma'lum bir vazifani bajarish uchun tuzilgan jamoada yoki kichik guruhda mahsuldor ishlashni;
- o'zini va guruhni mehnati natijalari uchun ma'suliyatli bo'lishga;

#### **Guruhlarda ishlash qoidalari qanaqa?**

Ta'lim oluvchilarni guruhlarda ishlashga o'rgatish o'ta muhimdir. Avvalambor Ta'lim oluvchilar, guruh a'zolarining majburiyatlarini bilishlari va bajarishlari zarur.

- har bir a'zo o'rtoqlarini fikrini eshitishi lozim;
- har bir a'zo ishda faol qatnashishi va hamkorlikda ishlashdan bo'yin tortmasligi kerak;
- har bir a'zo, zarurati bo'lganda yordam so'rashi kerak;
- har bir a'zo, undan yordam so'rashganda, boshqalarga o'z yordamini berishi kerak;
- har bir a'zo guruh ishining natijalarini baholashda ishtirok etishi kerak;
- har bir a'zo o'zining roli yaxshi tushunishi va bajarishi kerak;
- har a'zo konkret vazifani bajarishda, o'zining konkret vazifasini bilishi kerak;

O'quv jarayonining texnologik xaritasi bilan, ta'limning guruhli shaklida foydalangan holda tanishib chiqish zarur. Bu ta'limning ushbu tashkiliy shaklini amalga oshirish jarayonini yorqin ko'z oldingizga keltirish imkoniyatini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.V.A.Kruteskiy .Pedagogik psixologiya asoslari.
- 2.M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar.
- 3.E.G'oziyev.Oliy maktab psixologiyasi.

## **BUXORO BOSMAXONA VA NASHRIYOTLARIGA TEXNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Elova Dilnoza Davlatovna BuxDU,*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1920 – 1924 yillari BXSRda bosmaxona va nashriyot rivojiga xizmat qilgan yangi texnikalar va asbob – uskunalar haqida manbalar tahlili orqali ilmiy mushohada yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается научный дискурс путем анализа источников о новых методах и оборудовании, послуживших развитию полиграфии и издательского дела в БХСР 1920 – 1924гг.

**Summary:** In this article, the article deals with the scientific observation through the analysis of sources about new techniques and equipment that served the development of printing and publishing in the Bxsr 1920 – 1924 years.

**Tayanch tushunchalar;** Xattot, bosmaxona, nashriyot, elektro – litotipografiya, elektr asbob uskunasi, sinkografiya, musulmon shrifti, shkif, amper, ot kuchi, mashina, matbuot, kitob bosish.

**Ключевые слова:** Каллиграфия, типография, издательство, электролитотипография, электроинструмент, синкография, мусульманский шрифт, шкаф, ампер, лошадиная сила, машина, пресса, печать иностранных книг.

**Key words:** Hattot, printing house, publishing house, electro – lithotypography, electrical equipment, sinography, Muslim shrift, bookcase, Ampere, horsepower, machine, press, foreign book printing.

Insoniyatning ko'p asrlik tarixidan ma'lumki, bosmaxonalar paydo bo'lguniga qadar kitoblar



qo'lda ya'ni xattotlar tomonidan yozilgan. Bitta kitobni yaratish uchun uzoq muddat talab qilinib, unga xattotdan tashqari muqovasoz, sahhof, lavvoh, charmsoz kabi ko'plab mutaxassislarning mehnati singgan. Tosh bosmaxonalar vujudga kelishi bilan kitob bosma holatda nashr etilib, varaqa, plakat, taklifnoma kabilar ham shu bosmaxonalarda bosilgan. Tarixiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tosh bosmaxonalar Sharq mamlakatlaridan Turkiya (Usmoniylar saltanati), Eron va Misrga nisbatan ilgari paydo bo'lib, Turkistonga ulardan 50 yillar keyin kirib kelgan. Xiva xonligiga litografiya (toshbosmaxona) 1874 yilda Erondan kirib kelgan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz (1864-1910 yy) toshbosmaxonani Erondan sotib olgan va xonlikda minglab kitoblar chop etilishiga imkon yaratgan.<sup>2</sup> Tadqiqotchi M.Z.Orziyevning yozishicha, Buxoro amirligida birinchi xususiy toshbosmaxonalar 1884-1886 yillarda tashkil etilib, mullo Muxsin, Mulla Ahmad, Hoji Azimboy kabi savdogar va sayyohlar tomonidan toshbosma Buxoroga keltirilgan. Keyinchalik, 1894 yilda Yangi Buxoro (Kogon)da Levin bosmaxonasi ochilgan bo'lsa, 1901 yilda Obidjon Mahmudov bosmaxonasi mavjud bo'lgan.<sup>3</sup> Buxoro amirligida birinchi hukumat bosmaxonasi 1917 yil apreldagi amir manifestidan keyin ochilib, qisqa muddat ya'ni 1917-yil bahoridan 1918 yil mart oyi davomida (Kolesov voqeasi) ga qadar mavjud bo'lgan. Amirlik eski bog'i o'rnida mavjud bo'lgan ushbu bosmaxona 1920 yil kuziga qadar xaroba holatda bo'lib, BXSР hukumati uni ishga tushirish, zamonaviy texnika vositalari va mutaxassislar bilan ta'minlash choralari ko'rgan. Bosmaxonani ishga tushirish uchun avvalo, unga harf teruvchi mutaxassislar, injener – texnik va slesarlar, tegishli asbob - uskunalar mavjud emasdi. Shu sababli hukumat 1921 – yilning kuz oylarida 'Markaz'dan Turkistonga kelgan ' Qizil Sharq' targ'ibot poyezdida "Qizil Sharq" gazetasi kotibi va poyezdning harbiy bo'lim yo'riqchisi M. K. Budailov, Habibullinlar zimmasiga Buxoroda bosmaxona, nashriyot va matbuot ishlarini yo'lga qo'yish vazifasini yuklagan. Tataristonning Magadshi uyezdidan bo'lgan, tatar tilidan tashqari o'zbek, arab, rus, qirg'iz tillarini ham yaxshigina egallagan M.K.Budailov 1- Qozon harf teruvchilar va bosmaxona xodimlari tayyorlash maktabini bitirgan edi. U o'z holiga tashlab qo'yilgan Buxoro amirligi bosmaxonasini asbob – uskunalar bilan ta'minlash, musulmon shrifti va harf teruvchilar; jurnalistlar olib kelishda jonbozlik ko'rsatdi. M.K.Budailov Buxoroda BXSРning birinchi davlat nashriyoti direktori bo'lib ishladi.<sup>4</sup>

Tarixiy voqealar bayonida bir qadar ortga qaytadigan bo'lsak, 1917-1918 yillarda Buxoro toshbosmaxonasini texnik jihatdan jihozlashda " Umumiy elektr kompaniyasi" rus jamiyatining Toshkent bo'limi ikki turdagi elektr tokini kuchaytirib beradigan dinam taqdim etgan. Ushbu dinamlar o'zgarmas elektr tokida 260 amper, 115 volt, 300 tok kuchida ishlay olgan, bir daqiqada 1100 obortli, diametrining 460 mm, kengligi 250mm, narxi esa 7100 rubl baholanishi arxiv hujjatida ta'kidlangan.

Ikkinchi turdagi dinam 20 ot kuchiga ega bo'lib, 174 amper, bir daqiqada 1320 oborotga ega ekanligi, shkivining uzunligi 400 mm, eni 200 mm ekanligi, narxi esa birinchisidan bir qadar arzon bo'lib, 4.500 rublni tashkil etishi ham ko'rsatilgan. <sup>5</sup> Ushbu dinamlarning 50 foiz narxi oldindan to'lanib, qolgan hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida " Rus – Osiyo banki" orqali pul o'tkazish

---

<sup>2</sup> Ernazarov.F.A. XIX- asr oxiri – XX-asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot. Tarix fan. ilm. dar. olish uchun dis.avtoreferati. –Toshkent- 2005. –B .16.

<sup>3</sup> Orziyev M. Z. XIX- asr oxiri – XX asr birinchi choragida Buxoroda bosmaxona, nashriyot va matbuot ishi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ( PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand- 2020. – B. 12-13.

<sup>4</sup> Qarang. Rasulov A. Turkiston va Volgabo'yi, Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar. – T. " Universitet," 2005. – B.- 188- 189- 190-191.

<sup>5</sup> O'zbekiston Milliy Arxivi ( O'MA) I- 3-fond, 2-ro'yxat, 722-yig'ma jild, 4-varaq, 4-varaqning orqa tomoni, 5,6,7-varaqlar.

yo'li bilan to'lanishiga tegishli ma'lumotlar, ushbu elektr texnikasi vositalari bilan tipolitografiyani elektron tipolitografiyaga aylantirishga qaratilgan munozaralar arxiv hujjatlaridn joy olgan. Hujjatlardan birida Buxoro bosmaxonasi tomonidan 260 amperli, 115 voltli dinam va uning shkivi, reostat, voltmetr – ampermetrlari bilan birga qabul qilib olinganligi ko'rsatilgan.<sup>6</sup> Bizningcha toshbosmaxonani texnik jihatdan jihozlash ishlari oxiriga yetkazilmagan. Ushbu yangi elektr jihozlar birinchidan, qimmat bo'lgan, ikkinchidan, hukumat “ Rus – Osiyo banki” hisob raqamiga kerak bo'lgan mablag'ni o'z vaqtida o'tkaza olmagan, uchinchidan, texnik vositalar yetkazib berishda ishtirok etgan “ Umumiy elektr kompaniyasi”, “ Lediyeu va Shukin” firmasi va uning vakili tadbirkor Malinovskiyalar o'rtasida to'lov hamda qarzdorlik masalasida tortishuvlar, kelishmovchiliklar yuz bergan. Injener Malinovskiy o'z hisobotida bosmaxona sotib olgan elektrotexnik jihozlar uchun jami; 28.426 rubl to'lagani, 7 ming rubl qarzdorlik mavjudligini mutasaddilarga xabar qilgan.<sup>7</sup> BXSР hukumati yillariga qadar Buxoro bosmaxonasiga ya'ni elektrotexnika asbob – uskunalar olib kelinganligi bu borada ancha tajriba to'planganligini bildiradi. Ikkinchidan esa, elektro – litotipografiyaning bosmaxonada joriy etilishi, bosmaxonaga yaqin hududlarni elektr chirog'i bilan ta'minlashga imkon yaratgan. Bu bilan bir qator ko'chalar lampa chirog'i bilan emas, elektr orqali yoritilishi ijobiy jihatdir.

BXSР yillarida nashriyot va bosmaxona ishini yo'lga qo'yishda Volgabo'yi, Uraloldi, Turkiston ASSRdan toshbosmaxona asbob – uskunalar, musulmon shrifti, harf teruvchi va injener mutaxassislar kelishi 1921-1922-yillarda mutassil oshib borgan. Qozondagi (Tatariston) 1-sonli davlat shrifti tayyorlash korxonasiqa BXSР hukumati murojaat qilganidan so'ng, 1921-yilning avgustida BXSРga 58 pud musulmon shrifti va harf teruvchilar yuborilgan: 1922-yilda 400 pud, o'sha yilning oktabr oylari boshida yana 770 pud musulmon shriftini Buxoro hukumati qabul qilib olgan.<sup>8</sup> Biroq musulmon shrifti, yangi elektr asbob-uskunalar bilan ishlay oladigon mutaxassislar yetarli emasdi. Toshbosmaxona asbob-uskunalar ishlamay qolsa, ularni ta'mirlaydigon texnik xodimlar, slesarlar yetishmasdi. Texnika xavfsizligiga amal qilmaslik oqibatida ayrim xodimlar qo'lidan ajralib qolganligi davriy matbuotda uchraydi.<sup>9</sup> Shu sababli Tataristondan 13 ta (bazi manbalarda 14 ta) harf teruvchilar Buxoroga mutaxassis sifatida tashrif buyurishgan. Ular bosmaxona va nashriyot ishlariga kirishib ketgan bo'lsada, maosh pastligi, maishiy hayot og'irligi va turli yuqumli kasalliklar tufayli 1922-yilda Buxoroni tark etishgan. 13 nafar harf teruvchidan 5 nafari Buxoroda yuqumli kasalliklardan vafot etgan.

Buxoroda yangi texnik vositalar bilan ta'minlangan bosmaxona va nashriyotda kitob, plakat, reklama e'lonlari, varaqa kabilar bosib chiqarish ko'paydi. Ammo, bu respublika aholisining madaniy – ma'rifiy ehtiyojlarini to'la qondira olmaganligi tufayli hukumat Qozon, Ufa, Orenburg kabi shaharlarda kitoblar bosib, ularni Buxoroga keltirish choralarini ko'rgandi.<sup>10</sup>

BXSР hukumati a'zolari ham bosmaxona va nashriyot uchun yangi xorij texnikasi va asbob – uskunalarini olib kelishda shaxsiy tashabbus ko'rsatdilar. 1920 - 1922 yillarda BXSР hukumatida maorif noziri, keyinchalik “ Buxoro axbori “ gazetasida muharrirlik qilgan Qori Yo'ldosh Po'latov (1890-1965yy) 1922- 1923 yillarda Rossiyaning Moskva va Sankt – Peterburg shaharlaridagi sayohatidan qayta turib, o'zi bilan nashriyotda qo'l keladigan sinkografiya(aksilxona) olib keldi.

---

<sup>6</sup> O'MA, I-126-fond, 2-ro'yxat, 1682 yig'ma jild, 20,21,22 varaqlar.

<sup>7</sup> O'MA. I-3-fond, 2-ro'yxat, 722 yig'ma jild, 14,15,16 varaqlar.

<sup>8</sup> Rasulov A, Isoqboyev A, Nasretdinova D. Turkiston ijtimoiy – madaniy hayotidan xabarlar. T.;"TURON-JQBOL" -2019. –B.134-135.

<sup>9</sup> Haqiqat ochdur, hazm etmakka omuxta bo'lmoq lozim. || Buxoro axbori,|| 4-son, 1922-yil 3-dekabr, (arab imlosida).

<sup>10</sup> Buxoro axbori, 76-son, 1922-yil 27-mart, 103-son, 1922- yil, 19-oktabr.

Ushbu yangi texnik vosita tufayli “ Buxoro axbori” gazetasi fotolavhalar bilan chiqa boshladi.<sup>11</sup>

Ma'lumki BXSР va Germaniya o'rtasida savdo – sotiq, madaniy- ma'rifiy aloqalar 1920-yillarda rivojlangan edi. Ayniqsa, Germaniya o'quv yurtlariga buxorolik yoshlarni o'qish uchun yuborishga alohida e'tibor qaratilgandi. Buxorolik talabalar Germaniyadagi texnik yangiliklar bilan tanishib, “ Texnika va biz” ruknida o'zlarining “ Ko'mak” jurnallarida maxsus maqolalar chop ettirdilar. Hukumat rahbarlari talabalar holidan xabar olish maqsadida Germaniyaga safarlar qilar ekanlar, 1922 –yilda shunday safarlardan birida ushbu davlatdan Buxoroga musulmoncha harf terish mashinasi va unga tegishli bo'lgan asbob – uskunalar hamda texnik vositalar ham olib kelishdi.<sup>12</sup>

1912 yilda Turkiston o'lkasidagi poliografiya sanoatidagi korxonalar XIX asr oxirida vujudga kelib, har xil quvvatli 95 ta tipolitografik mashina, 9 ta elektromatorlar bilan jihozlangan bo'lib, 30 ta tipografiya va litografiyaga xizmat qilgan. Eng zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlangan 3 ta tipografiya Qo'qon shahrida bo'lgan. 1914 – yilda Qo'qon shahrining Eski shahar qismida Obidjon Mahmudov tipografiyasi ochilib, unda “ Sadoi Turkiston” gazetasi o'zbek tilida chop etilgan. Qo'qondagi birinchi tipografiya SH.D. Belskiy tipografiyasi bo'lib, 1909; 1911-yillarda Rim (Italiya)da o'tkazilgan Butunjahon ko'rgazmasida oltin medalga sazovor bo'lgan. Tipografiyalarda kitob, gazeta bosilishi bilan birga, nemis millati vakili, aptekachi va noshir E.Vilde tipografiyasida zamonaviy texnik asbob-uskunalar yordamida rasmiy otkritkalar ham chiqarilgan.<sup>13</sup> Uning tipografiyasi Qo'qon xoni o'rdasi yaqinida bo'lib, Qo'qon manzaralari tushirilgan rasmlar savdosidan yaxshigina daromad ko'rgan.

Turkistonda poligrafiya sanoatida 1913-yilda 218 ta harf teruvchi, 150 ta sahifalovchi, 106 ta muqovalovchi, 40 ta litograf, 11 ta pechat qiluvchi va 150 ta doimiy, 270 dan ortiq kunbay ishlovchilar xizmat qilgan. Bosmaxonalarda mehnati uchun harf teruvchi bir kunda 1,30, litograf – 1,40, muqolovchi -2,70, qora ishchi -1,0, voyaga yetmagan o'smir 0,40 rubl olgan.<sup>14</sup> Ma'lumki, 1921-yilda Uraloldi, Volgabo'yida ocharchilik yuz bergan davrda ham Turkiston va BXSР, XXSРga musulmon shrifti va bosmaxona stanoklari Qozondan kelishda davom etgan. 1921-yil Qozon nashriyotiga Turkistondan 60 pud un, guruch, Petrograd va Moskva nashriyotlariga 6 pud guruch, 2 pud quruq meva yuborilgan. O'z o'rnida Qozon, Samara, Orenburg, Ufa, Simbirsk guberniyalaridan Turkistonga texnika vositalari yuborilgan. 1921-yil 1-iyuldan - 1-avgust Samar guberniyasidan Turkiston ASSRga 3 vagon qishloq xo'jaligi asbob-uskunolari, qurilish materiallari, 2ta yog' va bitta pishloq ishlab chiqarish zavodiga zamonaviy asbob-uskunalar, shuningdek, bosmaxona anjomlari, musulmon shrift yuborilgan. Turkistondan ocharchilikni bartaraf etish uchun texnikalarni o'rniga bug'doy, oziq-ovqat mahsulotlari yuborilgan.<sup>15</sup> Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, XIX asrning oxiridan Turkistonga bosmaxona va nashriyot ishlarini mashina asbob-uskuna va zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash uchun Rossiya imperiyasi, Uraloldi, Volgabo'yi va xorijdan kirib kelgan. Toshbosmaxona, elektro-toshbosmaxona kabilar faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida kitob bosish, nashriyot ishlarida o'zgarishlar, ijobiy siljishlar ro'y bergan. Biroq, TASSR, BXSР, XXSР hukumatlari davrida bosmaxona va nashriyot ishlarini yangidan yo'lga qo'yish maqsadida texnika vositalari va injener mutaxassislariga talab kuchaydi. Bu borada qanchalik ijobiy ishlar amalga oshirilmasin, ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Ushbu respublikalardagi murakkab siyosiy vaziyat, birinchi jahon urushidan keyingi barcha sohalarni qamrab olgan inqiroz, 1920-yillarda sovet jamiyatida bergan daxshatli ocharchilik, markazning buyuk davlatchilik siyosati, O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish kabi omillar bu boradagi ezgu maqsadlarni ora yo'lda qolib ketishiga olib keldi.

<sup>11</sup> Qori Yo'ldosh Po'latov. Yo'l xotiralari || Buxoro axbori, 133-son; 1923-yil 11-fevral.

<sup>12</sup> Hayitov Sh; Rahmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya; hamkorlikning tarixiy lavhalari. -T.: Fan; 2004. – B. 44.

<sup>13</sup> Sobirov. N; Egamnazarov A. Farg'ona vodiysining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy rivojlanishida nemis ishbilarmonlarining hissasi. (XIX asr oxiri- XX asr boshlari).-T.:“ Falsafa va huquq”; 2012.- B.88-89; B. 142-143.

<sup>14</sup> Sobirov N; Egamnazarov A. O'sha kitob.-B.89

<sup>15</sup> Rasulov A. O'sha kitob.-B. 39-40; 43.

Xulosa: BXSР hukumati yillarida bosmaxona va nashriyot ishlarini zamonaviy asosda yo'lga qo'yish uchun o'z davrida yangi hisoblangan texnika vositalari Rossiya, Sharq va Yevropaning bir qator mamlakatlaridan olib kelindi. Biroq, ushbu texnika vositalarini ishlatadigan, ta'mirlay oladigan mahalliy aholi orasidan mutaxassislar yetishtirish maqsadi BXSРning oxirgi yiligacha ham hal qilinmadi. Ta'kidlash joizki, ushbu texnikalar mahalliy aholi ongini o'sishida, madaniy – ma'rifiy muassasalar faoliyatini kuchaytirishda bir qadar ahamiyatli bo'lgandi. Buxoroda yangi texnik vositalar bilan ta'minlangan bosmaxona va nashriyotda kitob, plakat, reklama e'lonlari, varaqa kabilar bosib chiqarish ko'paydi. Eng zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlangan 3 ta tipografiya Qo'qon shahrida bo'lgan. XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida poligrafiya sanoatida yangi texnikalar kirib kelganligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga sezilarli ta'sir etgan, deb hisoblash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ernazarov.F.A. XIX- asr oxiri – XX-asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot. Tarix fan. ilm. dar. olish uchun dis.avtoreferati. –Toshkent- 2005. –B .16.
2. Orziyev M. Z. XIX- asr oxiri – XX asr birinchi choragida Buxoroda bosmaxona, nashriyot va matbuot ishi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ( PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand-2020. – B. 12-13.
3. Rasulov A. Turkiston va Volgabo'yi, Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar. – T. " Universitet," 2005. – B.- 188- 189- 190-191.
4. O'zbekiston Milliy Arxivi ( O'MA) I- 3-fond, 2-ro'yxat, 722-yig'ma jild, 4-varaq, 4-varaqning orqa tomoni, 5,6,7-varaqlar.
5. O'MA, I-126-fond, 2-ro'yxat, 1682 yig'ma jild, 20,21,22 varaqlar.
6. O'MA. I-3-fond, 2-ro'yxat, 722 yig'ma jild, 14,15,16 varaqlar.
7. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – T. 10. – №. 12. – С. 1224-1227.
8. Ahmadov O. БУХОРО АМИРЛИГИДА ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИ. ЮТУҚЛАРИ ВА МУАММОЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Ахмедов О. Ш. ОБРАЗОВАНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ПРАВИТЕЛЕЙ) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.
10. Ahmadov O. БУХОРО БОSМАХОНА ВА НАSHРИYOTLARIGA TEXNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
11. Ahmadov O. XIX асп охири-XX асп биринчи чорагида Бухорода таълим-тарбия тизимининг манбавий асослари ва адабиётлар таснифи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 4. – №. 4.
12. Ахмадов О. Ш. МОЛОДЕЖЬ, ВЛАСТЬ, ОБЩЕСТВО: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ.
13. Ражабов ҚҚ, И. Қ., Исмаилов, А. Ф., Ахматов, А., Амонова, Ф., Жумаев, Р. Ф., Ахмадов, О. Ш., ... & Исамова, П. Ш. ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH.
14. Olimjon A. БУХОРОДА ЯНГИ УСУЛ ТАЪЛИМ–ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИДАГИ ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ЎРНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

15. Khasanov, Ahmadov O. Sh. "MAHMUDXO 'JA BEHBUDIY–TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI YO 'LBOSHCHISI." MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2.21 (2023): 143-150.

16. Olimjon A. XIX ASR OXIRI XX ASR I-CHORAGIDA BUXORODA JADID MAKTABLARINING TA'LIM-TARBIYA TIZIMI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

## BOSHLANG'ICH SINFLAR TA'LIMI TARAQQIYOTIDA ELBEKNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Sayidova Ziyat Yoqubovna*

*BuxDUPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) kafedrasida 2-kurs magistranti*  
[pedagoglar1997@mail.ru](mailto:pedagoglar1997@mail.ru)

**Annotatsiya:** XIX asr oxiri va XX asr boshlari Turkiston o'lkasida milliy ozodlik harakati keskin avj olganligi sababidan, o'z davrining jonkuyar, millat, xalq ravnaqi yo'lida bosqinchilarga qarshi kurashib, shahid ketgan ajdodlarimizdan biri Elbekdir. Ushbu maqola mana shunday jadidchimiz haqida bo'lib, uning ijtimoiy hayoti, ta'limda ko'rsatgan xizmatlari, ona tilimizning taraqqiy topib rivojlanishida hamda boshlang'ich sinflarga mo'ljallangan o'quv darsliklar, qo'llanmalar chop etgani, masalnavislik, ashulachilik, folklorshunoslik sohalarining shakllanishida qo'shgan hissasi xususida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** mustamlaka, tarjimon, folklor, istiqloq, ta'lim, ertak, ashula, armug'on, pedagog, maktab, she'r, doston, ballada, savod, kitob, milliy, qadriyat, turkiston, tadqiqotchi, xalq og'zaki ijodi, tajriba, mahorat, uslubiyyat, qo'llanma.

Mustamlaka davrida dunyoga kelib, o'zining serqirra ijodi bilan tanilgan yana bir mashhur millatparvar jadidchi Elbekdir. Uning asl ismi Mashriq Yunusov. Elbekning ijodida she'r, masal, hikoya va doston namunalarini kuzatishimiz mumkin. Kasbi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi, folklorshunos pedagog bo'lgan. Elbek Chor mustamlaka davrida hayot kechirganligi uchun o'sha davrning ayancli, achinarli ahvolidan so'zlaydigan bir qancha esdaliklar, xotiralarni yozib qoldirgan. Quyida bunga misol tariqasida Elbek shunday bitib qoldirgan: "Eski turmush kishilari uchun eskidan beri xalq orasida o'qilub kelmakda bo'lgan turli eski kitoblarning borlig'i bizga bilgilidir. Bu, kitoblarda yozilgan so'zlar, bizningcha, yararliq bo'lmasa-da zamonining kishilari uchun eng yaxshi va eng kerakli kitoblardir deb sanalar edi. Lekin so'nggi davr, so'nggi zamon kishilari o'zlarining ilgarigi xollaridan (istar turmushi yog'idan istar ongning o'sushi yog'idan) o'zgarganlari to'g'risidan to'g'risidan haligi zamon kishilarining suyub o'quytirg'on kitoblari o'qumay boshladilar. U kitoblardan o'zlari uchun yararliq bir ish chiqmaslig'in ochiq angladilar. Shuning uchun hozirgi turmushg'a hamda o'zlarining ko'ngillariga to'g'rilab yozilgan kitoblarni oxtarmoqqa boshladilar"<sup>16</sup>

U yoshligida bir qancha qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Yoshligida toshkentga ko'chib kelib, A.Avloniyning yangi usuldagi maktabida hamda "Xoniy" kabi ta'lim muassasalarida savod chiqaradi. Keyinchalik maxsus bilim yurtida o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Elbek ijodida yaqin o'tmishda bo'lib o'tgan hodisalar va o'zining hissiy kechinmalarini sezishimiz mumkin. Axloqiy tarbiyaga asoslangan she'rlar, masallar, hikoya va dostonlar orqali u millatning ko'zini ochmoqlikka, hurriyat uchun kurashmoqqa undaydi. Tili juda ravon, sodda, barcha uchun tushunarli tilda yozilgan adabiy mahsullar barchaga birdek manzur, ayniqsa yosh bolalar uchun sevib o'qiladigan to'plamlardir.

Elbekning ijodiy serqirraligini ifoda etgan holda Amonov Ulug'murod "Elbeck's folklore activities" nomli maqolasida shunday fikrlarni bildirib o'tgan: "Masal janrida asar yozishni yangi o'zbek adabiyotida Elbek boshlab berdi. To'g'ri Hamza yaratgan darsliklar tarkibida, Avloniy ijodida

<sup>16</sup> Elbek. 1921-yil, sentabr

masalning ayrim namunalari mavjud. Elbek esa janr imkoniyatlarini o'rganib chiqib, davrning, xalqning dardlarini shu janrda ifodalab berdi. Eng muhimi, 20-yillarda "Armug'on" nomli masallar to'plamini nashr etdi"<sup>17</sup>

Buyuk pedagog, turkolog, tilshunosning juda ham ko'p adabiy janrlarda ijod qilgan yozuvchidir. Bizgacha uning bir qancha to'plamlari yetib kelgan. Bularni sanashimiz mumkin: "Turkiston", "Mergan", "Bog'bon", "O'zbekiston", "Anorgul", "O'tmishim" singari doston va balladalar, "Tozagul", she'riy roman, "Chirchiq bo'ylarida", "G'unchalar", "Ko'zgu", "Sezgilar", "Yolqinlar", "Armug'on" she'riy to'plamlar, "Go'zal yozg'ichlar", "O'rnak", "Qo'shchi Turg'in", "Dadamat" kabi darslik hamda asarlar muallifidir.

U haqida professor tarixchi Haydarali.Uzoqov "Erk yo'lida erksiz ketgan fidoiy" deb nomlangan maqolasida shunday fikrlarni bildiradi: "Istiqlol tufayli adolat qaror topgan davrda Elbekdek hassos shoir va yozuvchi, kuyunchak pedagogning 30 dan ortiq alohida chop etilgan kitoblarini, shuningdek, o'sha davr gazeta va jurnallarida nashr qilingan mingdan ortiq she'r doston, ballada, xalq qo'shiqlari, hikoya, ocherk, ilmiy-uslubiy maqola va publisistik asarlarini topishga muyassar bo'ldik. Biroq Elbekning asarlari hali ko'plab topiladi. Buning uchun adabiyotshunos va ta'limshunos, qolaversa, tilshunos mutaxassislarimiz hujjatasrovda sabr-toqat bilan izlanishlari kerak"<sup>18</sup>

O'zi tug'ilib o'sgan qishlog'ida folklor ekspeditsiyasi o'tkazib, o'tmishda qadimiy xalqning qo'shiqlari, og'zaki sahna ko'rinishlari, maqollarini qayta tiklab, yozib oldi. Xalq qo'shiqlarini to'plab "Ashulalar" nomli to'plam chop etdi. Mana ashulalar asosida ilmiy maqolalar yozishga muvaffaq bo'ldi. Elbek milliy xalq o'zaki ijodiga yana hayot bag'ishladi. Sobiq mustamlakachilik davrida milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, udumlarimiz unutila boshlangan bir davrda jadidchi olim, bundan ruhan ezilib, yuragi ozor chekib, yana qayta tiklashga ahd qiladi va bunga erishadi.

Ustoz Ulug'murod Amonovning "Filologiyaning dolzarb masalalari" xalqaro ilmiy konferensiyasida "Elbek – Folklor to'plovchisi va tadqiqotchisi" ilmiy maqolasida Elbek haqida: "Xalq ertaklarini yig'ib 1937-yilda "Ertaklar" to'plamini nashr etishga erishgan Elbek shoir sifatida o'zi ham adabiy ertaklar ijod qildi. U yana o'z ertakchilik mahoratini oshirish maqsadida jahon va rus adabiyoti ertakchilarining badiiy tajribasini puxta o'rgandi. Bunda Elbekka dastlab rus-tuzem va so'ngroq yangi tip maktablar, texnikum, keyinchalik pedagogik kurslar va oliy muallimlar institutida o'qigani zamin yaratdi."<sup>19</sup>

Mustabid davridan oldin ham, keyin ham, maktabda savod o'rgatish uchun imlo va yozuv qoidalaridan saboq beradigan qo'llanma, darsliklar yo'q edi yoki talab darajasiga javob bermas edi. Bunday dasturlarning zarurligi davr talabi bo'lganligini his qilgan Elbek 1921-yilda 30 betdan iborat "Yozuv yo'llari" nomli qo'llanma yaratib, chop ettirdi. Bu qo'llanma 2-4-sinflarning o'qituvchi va o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan.

Elbekning "Tanlangan asarlar" to'plamida u haqida shunday fikrlar bildirilgan: "Tilshunos 1923-yili "Boshlang'ich maktabda ona tili" nomi ostida o'qituvchilar uchun kitob chop ettirdi. Asar o'z nomiga ko'ra maktab o'qituvchilari orziqib kutayotgan ilmiy-uslubiy dastur edi. Unda ona tili o'qitish uchun qaysi sinfda qanday ish uslubidan foydalanish lozimligi, o'qituvchi qanday yo'l tutsa, uning har bir darsi o'quvchiga yetib borishi mumkinligi kabi muhim muammolar yechimi beriladi"<sup>20</sup>

Elbek ijodida soddalik, ezgulik, xayrixohlik, tabiatga muhabbat, inson qadri, chin muhabbat, halollik, sadoqat, kabi bir qancha fazilatlarini uchratishimiz mumkin. She'rlarida o'ziga xos yengil vaznda uslubiyat qo'llangan, aytilishi ham tilda oson, mazmuni ham tezda tushuna oladigan

---

<sup>17</sup> U.S.Amonov. ELBECK'S FOLKLORE ACTIVITIES // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.2020. 1-son

<sup>18</sup> Uzoqov H. Erk yo'lida erksiz ketgan fidoiy // Elbek. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 1999. – 3-B

<sup>19</sup> U.S.Amonov. Filologiyaning dolzarb masalalari xalqaro ilmiy konferensiya // Elbek – Folklor to'plovchisi va tadqiqotchisi.. T.; 2021. 322-bet

<sup>20</sup> H.Uzoqov. Elbek. Tanlangan asarlar. – T.: "Sharq", 1999. – 16-B



darajada. Ayniqsa, o'zbek tilining shakllanishida shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli so'zlarni qo'llashi orqali katta hissa qo'shdi. Jadidchi bir nechta chet el yozuvchilarining asarlarini, sochmalarini, kitoblarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elbek. 1921-yil, sentabr
2. U.S.Amonov. ELBECK'S FOLKLORE ACTIVITIES // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.2020. 1-son
3. Uzoqov H. Erk yo'lida erksiz ketgan fidoiy // Elbek. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 1999. – 3-B
4. U.S.Amonov. Filologiyaning dolzarb masalalari xalqaro ilmiy konferensiya // Elbek –Folklor to'plovchisi va tadqiqotchisi.. T.; 2021. 322-bet
5. H.Uzoqov. Elbek. Tanlangan asarlar. –T.: "Sharq", 1999. –16-B

#### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI DASTLABKI YOZUVGA ORGATISHNING TASHKILYI METODIK ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Karimova Dilnoza Baxtiyor qizi*  
*Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti magistranti*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada 1-sinfga qabul qilingan boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatishning samarali usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Savod o'rgatish jarayoni, yozuv daftari, husnixat darslari, chiroyli yozuv, yozuv malakalari

**Ключевые слова:** Процесс обучения грамоте, записная книжка, уроки гусеницы, красивая надпись, навыки письма

**Keywords:** Training process, logbook, hosnihat classes, beautiful writing, writing qualifications

O'quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilishda diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etadi. Yozish jarayoni ko'rish va eshitish sezgilari orqali idrok qilinadi. Demak, idrok etilishi lozim bo'lgan material tasvirini yaqqol ko'rsatish, bayonning ravshan va izchil bolishi, sinf doskasiga hamma o'quvchi ko'ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydigan omillardandir. O'quvchilarda dastlabki yozuv malakalarini hosil qilishda ularning irodasini mustahkamlashga e'tibor berish lozim.

O'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri o'tirishga o'rgatishi, ularning erkin ishlashi uchun zarur shart-sharoit yaratib berishi kerak. Buning uchun o'quv yili boshida o'qituvchi maktab hamshirasi bilan hamkorlikda bolalarni yoshiga, bo'yiga hamda ko'rish va eshitish qobiliyatlariga qarab partalarga o'tqizishi lozim. O'quvchilar partasi sinfdagi asosiy jihoz bo'lib, u o'quvchilarning yoshlari va bo'ylariga mos, yozish va rasm chizish uchun qulay bo'lishi va o'quvchi o'tirib-turganda xalaqit bermasligi lozim.

"Yozuv daftari" savod o'rgatish davrida o'quvchilarda yozuv malakalarini shakllantiradi. Unda harflarning o'rni va shakli aniq berilib, o'quvchilar shu namunalarga qarab yozadilar. Ba'zi bir betlardagi nuqtachalar bilan berilgan harflarning ustidan ruchka yurgizib chiqish orqali o'quvchilar shu harf shaklini to'g'ri tasavvur qilishga o'rgatiladi. Bu mashqlarni barcha o'quvchilarga qo'llash shart emas. Uni xunuk yozadigan va harflarni yozishda qiynalayotgan o'quvchilarga qo'llash mumkin. "Yozuv daftari" dan o'quvchilar alifbe davrida foydalanadilar. "Yozuv daftari" ga yozdirishga boshlashdan oldin ularga sinf partasida o'tirish qoidalari, ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri tutish qoidalari eslatib o'tiladi.

**Yozuv malakalarini shakllantirishning quyidagi usullari mavjud:**

1. Namunaga qarab yozish.

2. Namunaga qarab ko'chirib yozish.
3. Nusxa ko'chirish.
4. Tsavvur orqali yozish.
5. Harflarning shaklini tahlil qilish.
6. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish.
7. Sanoq-ohang usuli.
8. Xatolar ustida ishlash.

Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo'lib, u bir necha davrlarga bo'linadi va bir necha xil vazifalarni o'z ichiga oladi. Bolalar o'qituvchining ko'rsatmasiga asosan, doskaga yozgan harf va so'zlarni ko'rib boradilar, so'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar, nuqtachalar bilan ifodalangan harflarning ustidan bo'yaydilar. O'qituvchi yozishga o'rgatishdan avval to'g'ri o'tirish qoidalarini tushuntirib berishi, butun dars davomida qoidalarni eslatib turishi lozim. Yozuvga o'rgatish quyidagi qator tushunchalarni bilishni talab etadi: "baland-past", "bir xil", "keng-tor", "yaqin-uzoq", "yuqoriga", "teng", "teng bo'lmagan masofa", "to'g'ri-qiya", "chapga-o'ngga" va hokazo.

Savod o'rgatishdan keyin yozuv sharti ham o'zgaradi. O'quvchilar daftarlarida harf namunalarining yo'qligi sababli ular qo'shimcha bir qancha shartlarni bajarishlari zarur. Jumladan, bosma harflarni yozma harflarga aylantirish, ulanishini aniqlay olishlari va so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirishni mustaqil amal oshirishlari kerak. Bundan tashqari mashq shartlarini ham bajarishlari darkor. Shuning uchun o'qituvchi yozuv materiallarini ko'zdan kechirib, yordamga muhtoj holatlarni o'ziga belgilab olishi va qisqa izohlashlardan foydalanish zarur.

Alifbe davrida o'quvchilarni bo'g'inlab yozishga, keyinroq esa so'zlarni bir butun qilib yozishga o'rgatiladi. Ayrim o'quvchilar so'zlarni yozishda harflarni alohida-alohida yozishga harakat qiladilar, bunga aslo yo'l qo'ymaslik kerak, chunki harflarni bunday yozish natijasida ayrim harflarni tushirib qoldiradilar yoki almashtirib yozadilar. Bu davrda o'quvchilarni yoddan yozishga o'rgatish uchun ularga ayrim ko'rsatmalar berib borish lozim: "Matnni o'qing, uning yozilishiga qarang va esda tuting, doskaga qaramay yozing, o'qing, namuna bilan solishtirib ko'ring" va shunga o'xshash topshiriqlardan foydalanish samaralidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adizova N.B., Qo'ldoshev R.A., Jumayev R.X., Ismatov S.R. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: O'quv qo'llanma. Buxoro, Durdona. 2021. 292 b.
2. Azimov Y.Y. «Husnixat» -Buxoro. «Durdona» nashriyoti, 2012.-132 bet.
3. Azimov Y.Y., R.A.Qo'ldoshev. «Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari» (Metodik qo'llanma)-Toshkent. «Turon Zamin Ziyo» nashriyoti, 2017.-132
4. Azimova I. A. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.
5. Azimova I. A. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 128 b

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH DARSLARI INTEGRATSIYALASHUVINING MODIFIKATSION IMKONIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Jamilova Bashorat Sattorovna ,  
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 2- kurs magistri  
Raximova Ruxsora Haydar qizi*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida so'z boradi. Boshlang'ich sinf "ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklaridagi badiiy matnlar tahlili va matnlar orqali o'quvchilarning ijodkorligini yuzaga chiqarish haqida fikr mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinflar, ona tili va o'qish savodxonligi darsligi, badiiy matnlar, integratsion ta'lim.

**Abstract:** Currently, there is talk about the integration of primary school education. The analysis of artistic texts in the "Mother language and reading literacy" textbooks of primary classes, opinions on expressing the creative potential of students through texts are given.

**Key words:** primary classes, mother tongue and reading literacy textbook, artistic texts, integrated education.

**Абстрактный:** В настоящее время идет речь об интеграции начального школьного образования, дается анализ художественных текстов в учебниках «Родной язык и грамотность чтения» начальных классов и мнения о выявлении творческих способностей учащихся через тексты.

**Ключевые слова:** начальные классы, учебник по родному языку и грамоте чтения, художественные тексты, интегрированное обучение.

«Intergratsiya» so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan. Ikkita tushunchaga egamiz: 1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon. 2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differentsiatsiya - fransuzcha (diffe'rentiofon lotincha differentia - farq har xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish. Ta'lim mazmunini intergratsiyalash-dunyo tendentsiyasi (g'oya, fikr, intilish), Integrativ yondoshishi turli darajadagi tizimli aloqalarning ob'ektiv yaxlitligi aks ettiradi. (tabiat-jamiyat-inson). Integratsiya ilgari bo'lishyan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibta tushadi, shu tizim qismlarni ishlatish va o'rganish ob'ekting yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi. Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich. tabiat haqidagi elementlar bilimlarni birlashtiradi; oraliq - predmetlar bo'limlarini bo'lish intergratsiyasi; yakuniy - tabiatshunoslikni o'rganish bilam bog'liq bo'lgan talimning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limni to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liklik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng solda tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarning eng odlii umumlashtirish sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa edi. Muammolarga ijodiy yondashgan holda yechim izlaydi. Bundan tashqari, Milliy o'quv dasturiga ko'ra, endi "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarga sinflar kesimida o'qish tezligi bo'yicha ma'lum miqdordagi so'zni o'qishi kerak degan talab qo'yilmaydi. Boisi o'quvchilar uchun matnning o'qish tezligi emas, uni tushunish darajasi birlamchi ko'rsatkich sanaladi. Respublika ta'lim markazi bahoga jazo yoki rag'bat quroli emas, rivojlantirish vositasi sifatida qarash kerakligini qayd etdi. Bolalarni baho bilan qo'rqitishni bas qilish, ularga imkon qadar past baho qo'ymaslik, toki topshiriqni yaxshi bahoga bajarib kelmaguncha baholamay turish tavsiya qilindi. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan. Qolaversa o'quvchi bajarib kelgan uyga vazifalar yo'l-yo'lakay tekshirilayotgani yoki deyarli tekshirilmayotgani, o'quvchi xato va yutuqlarini yetarli anglab olishi uchun vaqtning

yetishmasligi hamda o'quvchilar "a'lo" baho olish uchun vazifalarni ko'r-korona ko'chirib kelish holatlari ko'paygan. Shunday ekan, ona tili barcha fanlar bilan bog'liq bo'ladi, chunki til hamma fanlarni ta'riflash uchun zarur vosita demakdir. Til orqali haqiqatning hamma tomonlari ko'rinadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008. - 180 b.
2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T., «Fan va texnologiya», 2008, 132 bet.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – B.38.

## O'ZBEK O'QUV LUG'ATLARINING ISTIQLOL DAVRI TARAQQIYOTI VA BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Hasanova Sayyora Fazliddin qizi,*

*Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek o'quv lug'atchiligining istiqlol davridagi taraqqiyaoti, o'zbek o'quv lug'atchiligi oldida turgan vazifalar, jumladan jahon o'quv leksikografiyasining so'nggi yutuqlariga asoslanib o'quv lug'atlarining yangi avlodi – bosma va elektron shakldagi lug'atlarni tuzish, axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuter lingvistikasi sohasi yutuqlariga tayanib mavjud bosma o'quv lug'atlarini elektronlashtirish, umumiy lug'atlar negizida elektron lug'at turlarini boyitish, turli elektron qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan interaktiv lug'atlar, korpus lug'atlarni tuzish, imlo, talaffuz me'yorlari, tarjima, tilning turli leksik sistemalar (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, omonimlar, graduonimlar, uyadosh so'zlar kabi)ni o'rgatishga xizmat qiluvchi mukammal mobil ilovalarni yaratish haqida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** istiqlol davri o'quv lug'atchiligi, o'quv lug'atlari, o'quv lug'atlarini elektronlashtirish, elektron o'quv lug'atlari, interaktiv lug'atlar, korpus lug'atlar, mobil ilovalar.

O'quv lug'atchiligi faqat ta'limiy lug'atlar tuzish emas, balki leksik minimumlar, o'quv lingvostatistikalar, leksikani o'quv maqsadida aks ettirgan o'quv qo'llanmalar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadigan amaliy fan hisoblanadi. Umuman, jahon leksikografiyasida bu soha ancha chuqur va atroflicha o'rganilgan, turli yoshdagi ta'lim oluvchilar uchun son-sanoqsiz lug'atlar yaratilgan. Xususan, P.N.Denisov, L.A.Novikov, V.V.Morkovkin, L.V.Malaxovskiy, V.G.Gak, O.M.Karpova, M.A.Marusenko, V.A.Balzamov kabilarning tadqiqotlarini sanab o'tish mumkin.

O'quv lug'atchiligi taraqqiyotida rus tilshunosligi alohida o'rin tutib, uning eng taraqqiy etgan davri XX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Ushbu davrda turli leksik sath birliklari lug'ati bilan bir qatorda sinonim lug'atlar ustida ham etarlicha izlanishlar olib borildi. Xususan, P.S.Aleksandrov, S.F.Levchenko, YU.N.Denisov, A.YU.Mashkovseva, YU.V.Zubova, O.A.Voloshina, I.A.Siddiqova, O.I.Nedostup, N.M.Merkureva, L.V.Alimpieva va boshqalarning ishlarini sanab o'tish mumkin.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, bu davrda milliy tilshunosliklarda bajarilgan tadqiqotlar uchun ham rus tilidan boshqa tomonidan turli aspektlarda maxsus tadqiq qilingan.

O'zbek tilshunosligida o'quv leksikografiyasining nazariy va amaliy masalalari monografik planda ilk marta B.Bahriddinova tomonidan tadqiq etildi. U «O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari» deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida «o'quv lug'ati» va «o'quv lug'atchiligi» tushunchalariga izoh berdi, o'quv lug'atining leksikografiyaning ta'limiy

zarurat tufayli, hukumat buyurtmasiga ko'ra yaratiladigan maxsus janri ekanini asosladi, zamonaviy o'quv lug'atlarining mega, makro, mikroqurilishi, o'quv lug'ati uchun so'z tanlash valug'atda til birliklarini izohlash mezonlarini aniqladi. Jahon o'quv lug'atchiligining tarixiy ildizlarini yoritdi va o'zbek o'quv lug'atchiligining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ajratdi. O'zbekistonda ushbu soha istiqbolini belgilaydigan asosiy omillarni ko'rsatib berdi. Jumladan, o'quv lug'atiga «so'zligi ma'lum bir mezon asosida tartiblangan, o'quv-uslubiy talabga javob beradigan, ta'lim oluvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ma'lumotni tezkor va qulay taqdim etishga mo'ljallangan antropotsentrik vosita», o'quv leksikografiyasiga «o'quv lug'atchiligi tarixini o'rganish, o'quv lug'atlari, leksik minimumlar, o'quv lingvostatistikalar, leksikani o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni tuzish va nashrga tayyorlash, o'quv lug'ati tiplari va turlarini aniqlash, ularni muntazam takomillashtirib borish, til o'qitishga mo'ljallangan darsliklarda leksikani taqdim etish va semantizatsiyalash bilan shug'ullanadigan amaliy fan» tarzida ta'rif berildi [1, 16]. Keyinchalik uning izdoshlari tomonidan o'quv lug'atchiligining turli masalalari – maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atlarini tuzishning psixo-pedagogik, lingvodidaktik asoslari, o'quv frazeologik lug'atlar tuzishning lingvistik asoslari va boshqa muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga keldi.

Lug'atlar asosiy vazifasi ta'lim oluvchining tildan amaliy foydalanish kompetensiyalarini o'stirish bo'lgan zamonaviy ona tili ta'limining zaruriy vositalaridan biri ekan, bunday vaziyatda leksikografik kompetentlikning ham roli nihoyatda muhim. Bu vazifa o'zbek lingvodidaktikasi, lingvopedagogikasi, leksikografik pedagogika fanlarining taraqqiyoti bilan bog'liq.

Shu bilan birga zamonaviy o'quv lug'atchiligining joriy an'alariga ko'ra mamlakatimizda ta'limning yuqori bosqichlaridagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan katta o'quv lug'atlarini yaratish va keyingi bosqichda ularni elektronlashtirish vazifalari ham turibdi.

Tilshunos N.Uluqov o'zbek tilida maktablar uchun yaratilgan o'quv lug'ati namunalari e'tirof etgan holda ta'limning yuqori bo'g'inlarida ta'lim oluvchilar uchun ham mo'ljallangan o'quv lug'atlarini yaratish davr talabiga aylanganligini ta'kidlaydi. "Galdagi vazifa, – deydi u, – jahon o'quv leksikografiyasi yutuqlariga tayanib oliy o'quv yurti talabalarini uchun ham turli o'quv lug'atlari, xususan, ensiklopedik va terminologik o'quv lug'atlari yaratish hisoblanadi" [2, 16-18]. N.Uluqov "Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari" deb nomlangan maqolasida filolog talabalar uchun "Yosh filolog" o'quv ensiklopedik lug'atini yaratish masalasini ilgari suradi.

Aslida ham bugungi kunda ensiklopedik va lingvistik lug'atlar bilan ishlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lingvistik kompetentlikni rivojlantirish omillaridan biridir. Oliy o'quv yurtlari, ayniqsa, filologiya yo'nalishi talabalarini nafaqat nutqiy kompetensiyasini o'stirish, balki mutaxassislikka tayyorlashda ham bu tipdagi lug'atlarning roli muhim. N.Uluqov talabalarning nutqiy va kasbiy kompetensiyalarini oshirishda mazkur lug'at ustida ishlashning ta'limiy va didaktik ahamiyati xususida to'xtalar ekan, quyidagi jihatlarga e'tiborini qaratadi:

- 1) nazariy bilimlar doirasini boyitish va kengaytirishga xizmat qiladi;
- 2) nazariy bilimlarning amaliy jihatdan mustahkamlanishini ta'minlaydi;
- 3) mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga asos bo'ladi;
- 4) mustaqil mutolaa qilish, ayrim masalalarni mustaqil o'zlashtirishda qo'shimcha manba vazifasini bajaradi;
- 5) so'z boyligini orttiradi;
- 6) terminlarning muqobillari, variantlari va sinonimlarini hamda tarixiy-etimologik manbalarini, mazmun-mohiyatini mukammal o'zlashtirish imkonini beradi;
- 7) darslik va o'quv qo'llanmalaridagi ayrim bo'shliqlarni ilmiy jihatdan to'ldiradi [2, 16–18.].

Shuningdek, maqolada muallif "Yosh filolog" o'quv ensiklopedik lug'atini yaratish va uning mazmun-mundarijasini belgilashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlarni sanab o'tadi:

– O'zbekiston Respublikasining til va adabiyotni rivojlantirish borasidagi siyosati, jumladan, o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti hamda

yutuqlarini atroflicha yoritish;

– turkiyshunoslik, xususan, o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining shakllanish manbalari hamda omillari tahlilini berish;

– tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid terminlarning tarixiy-etimologik manbalari, ma’no mundarijasi, qo‘llanish xususiyatlarini ochib berish;

– jahon filologiyasi yutuqlari va uning turkologiyada, xususan, o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi taraqqiyoti hamda takomilidagi o‘rni, ahamiyatiga keng o‘rin ajratish;

– jahon adabiyoti, jumladan, o‘zbek shoir va yozuvchilarining ijodiy faoliyatini mukammal, muxtasar yoritish;

– tilshunos va adabiyotshunos olimlarning ilmiy faoliyati, soha taraqqiyotidagi xizmatlarini batafsil izohlash va boshqalar [2, 16-18].

Albatta, yaratilajak “Yosh filolog” ensiklopedik o‘quv lug‘ati o‘quv adabiyotlari sirasini boyitish barobarida yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishda ham muhim manba bo‘ladi.

Shuningdek, nafaqat ona tili ta‘limi, balki boshqa fanlarni o‘qitish vositalariga ko‘mak beradigan o‘quv terminologik lug‘atlarni ham yaratish bugungi kunda oldimizda turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy maktab uchun maxsus lug‘at yaratish harakatlarining paydo bo‘lishi ta‘limga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni kiritish, xususan, retroskopik ta‘limdan verbal kognitiv ta‘lim usuliga o‘tish davriga to‘g‘ri keladi. Ma‘lumki, kognitiv ta‘lim retroskopik ta‘limdan yordamchi o‘quv materialining darslik materialidan bir necha marotaba kattaligi, o‘quvchining o‘z ustida mustaqil ishlashi, zaruriy ma‘lumotlarni axborot banki – lug‘atlar, qomuslar, ma‘lumotnomalar kabi ona tili xazinalaridan izlashi bilan farqlanadi. Zero, darslikdan etarli ma‘lumotni olgan o‘quvchida izlanishga, mustaqil ishlashga ehtiyoj bo‘lmaydi. O‘quvchini izlab topishga, mustaqil xulosalar chiqarishga yo‘naltiradigan kognitiv ta‘lim texnologiyasi zamonaviy pedagogik amaliyotda eng samarali usul deb topilgan va jahonning qator ilg‘or davlatlarida XX asr boshlaridayoq ta‘lim tizimiga joriy etilgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ayni paytda mamlakatimizda o‘quv lug‘atchiligining oldiga quyidagi eng muhim vazifalar turibdi:

jahon o‘quv leksikografiyasining so‘nggi yutuqlariga asoslanib o‘quv lug‘atlarining yangi avlodi – bosma va elektron shakldagi lug‘atlarni tuzish;

axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuter lingvistikasi sohasi yutuqlariga tayanib mavjud bosma o‘quv lug‘atlarini elektronlashtirish;

umumiy lug‘atlar negizida elektron lug‘at turlarini boyitish, turli elektron qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan interaktiv lug‘atlar, korpus lug‘atlarni tuzish;

imlo, talaffuz me‘yorlari, tarjima, tilning turli leksik sistemalar (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, omonimlar, graduonimlar, uyadosh so‘zlar kabi)ini o‘rgatishga xizmat qiluvchi mukammal mobil ilovalarni yaratish;

internet saxifalarida bolalar uchun mo‘ljallangan elektron o‘quv lug‘atlarining maxsus saytlarini yaratish;

ta‘limning turli bosqichlari, xususan, yuqori sinf o‘quvchilari, oliy ta‘lim tizimida tahsil oluvchilar uchun turli fanlar bo‘yicha terminologik lug‘atlar, o‘quv ensiklopediyalarni yaratish;

foydalanuvchilarda o‘quv lug‘atlarining zamonaviy ko‘rinishlari bilan ishlash ko‘nikmasi, lug‘atlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida leksikografik kompetentlikni shakllantirish.

Ushbu vazifalarning amalga oshirishi mamlakatimizda axborot texnologiyalari taraqqiyoti, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, lingvodidaktika, lingvopedagogika, pedagogik leksikografiya kabi fanlarning rivoji bilan bog‘liq.



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф.– Самарқанд. 2020.
2. Uluqov N. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari. “Til va adabiyot ta’limi”, 2018-yil, 6-son.
3. Po’latov A. Kompyuter lingvistikasi. –Toshkent: 2011.
4. Rajabova Z. O’quv frazeologik lug’at korpusi va uning turlari // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2021 yil, 8-son. – 23 – 25-b.
5. Struktura slovarya. <http://lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp>

## JAHON VA O‘ZBEK MASALCHILIGI TARIXIGA BIR NAZAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo>

*Jo’rayeva Oliy Usmonovna*

*Buxoro shahar 35- maktab o’qituvchisi*

*BuxDUPI magistranti*

*Avliyoqulova Nasiba Choriyevna*

*BuxDUPI magistranti*

*Anotatsiya: Ushbu maqola masalchilik tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Boshlang’ich sinflarda masal ta’limini o’qitishda sinfdan tashqari darslarda Ezop va M.Xudoyqulovning masallarining o’rni.*

*Kalit so’zlar: Folklor, masal, majoziy, janr, bolalar masalchiligi, hayvonot dunyosi.*

